Shunday qilib, kasbiy mahorat egasi bo‘lish uchun tarbiyachi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida chuqur bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilik sifatlarini o‘zida mujassamlashtirishi lozim. L.P. Rachenko kasbiy mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “Kasbiy mahorat deganda tarbiyachining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi hamda qat’iy irodasi tushuniladi”.

Tarbiyachilik sharafli, biroq nihoyatda murakkab kasbdir. Yaxshi tarbiyachi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zi yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga oid umumiy qonun-qoidalar hamda umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi, tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olish zarurligi ta’kidlanadi. Maktabgacha ta’lim hayoti esa murakkab va rang-barang pedagogik jarayon bo‘lib, amaliyotda pedagogik nazariyaga to‘liq mos kelmaydigan vaziyatlar ham uchrab turadi. Bu holat tarbiyachidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Shu sababli hozirgi kun tarbiyachisi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor va ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma’naviy barkamol;
- vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan, e’tiqodli fuqaro;
- mutaxassislikka doir bilimlarni, psixologik va pedagogik bilim hamda mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- tarbiyachilik kasbini va bolalarni sevuvchi, har bir tarbiyalanuvchi ulg‘ayib, yaxshi inson bo‘lishiga chin dildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko‘maklashadigan;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli hamda odobli bo‘lishi lozim.

Davlatimiz maktabgacha ta’lim sohasida ilgari surilayotgan vazifalarning amalga oshirilishi ko‘p jihatdan tarbiyachilar faoliyatiga bog‘liq. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, tarbiyalanuvchilarning xilma-xil faoliyatini tashkil etish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrlovchi va ongli barkamol inson qilib voyaga yetkazish tarbiyachi zimmasiga katta mas’uliyat sifatida yuklatilgan.

Pedagogga xos bo‘lgan kasbiy mahoratning muhim tarkibiy qismi pedagogik muloqot madaniyati bo‘lib, u pedagogning bolalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan olib boradigan muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, pedagogning bolalar jamoasi bilan o‘zaro muloqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog tarbiyalanuvchilar bilan muloqotga kirishishga va uning samarali bo‘lishiga intiladi. Pedagogik muloqot kuchli ruhiy-psixologik ta’sirga ega bo‘lgani sababli, uni to‘g‘ri tashkil etish pedagog zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Agar pedagogik muloqot noto‘g‘ri tashkil etilsa, bolalarda qo‘rquv, ishonchsizlik, diqqat va xotiraning susayishi, ish qobiliyatining pasayishi hamda nutq me’yorining buzilishi kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan muloqot ushbu holatlarning oldini oladi va tarbiyalanuvchilarda ta’lim olishga, o‘rganishga hamda mustaqil fikrlashga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Kasbiy mahorat fahm-farosat va bilimlarning uyg‘unligi, tarbiyaviy jarayondagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbarlik, bolalar qalbining nozik jihatlarini his eta olish, ichki dunyosi zaif bo‘lgan bola shaxsiga ehtiyotkorlik bilan yondashish, donolik, ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, tasavvur va fantaziyaga moyillik kabi sifatlarning mujassam ifodasidir. Kasbiy mahorat tarkibiga pedagogik bilimlar va fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi. Ushbu malakalar tarbiyaga nisbatan kamroq kuch sarflab, yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik texnika tarbiyachining ichki kechinmalari va tashqi qiyofasi uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi. Pedagogning mahorati uning ichki madaniyati va pedagogik tashqi ifodaliligida namoyon bo‘ladi. Pedagogik texnikani egallash uchun, avvalo, tarbiyachi o‘z mutaxassisligini, o‘qitadigan predmetini, pedagogika va psixologiya fanlarini davr taraqqiyoti darajasida chuqur bilishi hamda kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalay olishi zarur. Chunki pedagogik texnika individual va shaxsiy xususiyatga ega bo‘lib, har bir tarbiyachi o‘zining kasbiy yo‘nalishi va kasbiy “laboratoriyasi”ni mustaqil fikrlash hamda mustaqil bilim olish orqali shakllantiradi. Aynan shu jarayonda mohir tarbiyachiga xos fazilatlar rivojlanadi va tarbiyachi kasbiy ideal sari izchil harakat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kasbiy mahorat pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlari, nazariy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalarining uyg‘unlashuvi asosida shakllanib, uning ta’lim-tarbiyaviy faoliyati samaradorligini belgilaydi. Tadqiqot jarayonida kasbiy mahoratning uzluksiz rivojlanishi pedagogning ijodiy yondashuvi, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik texnika va kasbiy motivatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar, interfaol va innovatsion ta’lim usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- *birinchidan,* pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarida amaliy mashg‘ulotlar ulushini kengaytirish lozim;
- *ikkinchidan,* “ustoz–shogird” va mentorlik tizimini ta’lim muassasalarida tizimli ravishda joriy etish orqali pedagogik tajriba almashuvini kuchaytirish zarur;
- *uchinchidan,* raqamli ta’lim muhitida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan onlayn platformalar va elektron resurslardan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi trening va seminarlarni muntazam tashkil etish pedagoglarning kasbiy mahoratini yuksaltirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yangi rivojlanish davrida takomillashtirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni: https://lex.uz/docs/-5841063
2. Azizxo‘jayeva N.N., Avliyoqulov N.X. Zamonaviy kasbiy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2022. – 256 b.
3. Tolipov O‘.Q., Jo‘rayev R.X. Raqamli ta’lim muhitida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 184 b.
4. Xoshimova M.S. Kasbiy ta’limda mentorlik tizimini joriy etish tajribasi // Uzluksiz ta’lim. – 2023. – № 1. – B. 52–58.
5. Rahmonov A.A., Karimova D.M. Interfaol ta’lim usullarining kasbiy mahoratni shakllantirishdagi samaradorligi // Pedagogika. – 2022. – № 4. – B. 34–40.
6. Alimov R.X. Kasbiy kompetentlikni baholash va rivojlantirish: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – 168 b.
7. Mahmudova G.B., Sultanova N.F. Raqamli texnologiyalar asosida kasbiy ta’limni tashkil etish // Ta’lim texnologiyalari. – 2023. – № 2. – B. 67–73.
8. Safarov O.G‘. Zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 212 b.
9. Qodirova Z.Yu., Nuriddinova M.A. Onlayn ta’lim platformalarida kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish // Xalqaro ta’lim jurnali. – 2023. – № 3. – B. 45–51.
10. Qodirova N.R. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish // Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – B. 109–111.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA 5E MODELINI QO‘LLASH ORQALI TA’LIM SIFATINI OSHIRISH: CHIMBOY TUMANI 36-SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB MISOLIDA

Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna
Chimboy tumani 36-sonli ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari bor umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) modelini qo‘llashning pedagogik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Chimboy tumani 36-sonli ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan maktabining yuqori sinf o‘quvchilari misolida olib borildi. Maqolada konstruktivizm nazariyasiga asoslangan mazkur modelning o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish hamda ularning lisoniy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 5E modeli an’anaviy dars o‘tish usullariga nisbatan o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini va mavzuni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: 5E modeli, o‘zbek tili, konstruktivizm, Chimboy tumani, ixtisoslashtirilgan maktab, eMaktab, lisoniy kompetensiya, IMRAD.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and methodological potential of applying the 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) model in Uzbek language lessons. The study was conducted using the example of senior students at Specialized School No. 36 in the Chimboy district, where certain subjects are taught in depth. The paper provides a scientific justification of the effectiveness of this constructivism-based model in enhancing students’ learning motivation and developing their linguistic competencies. The findings indicate that, compared to traditional teaching methods, the 5E model significantly improves students’ critical thinking skills and increases learning achievement outcomes.

Key words: 5E model, Uzbek language, constructivism, Chimboy district, specialized school, eMaktab, linguistic competence, IMRAD.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и методические возможности применения модели 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) на уроках узбекского языка. Исследование проводилось на примере учащихся старших классов специализированной школы № 36 Чимбайского района, в которой углублённо преподаются отдельные учебные предметы. В статье научно обоснована эффективность данной модели, основанной на теории конструктивизма, в повышении учебной мотивации учащихся и развитии их языковых компетенций. Результаты исследования показывают, что модель 5E по сравнению с традиционными методами обучения существенно повышает уровень критического мышления учащихся и показатели усвоения учебного материала.

Ключевые слова: модель 5E, узбекский язык, конструктивизм, Чимбайский район, специализированная школа, eMaktab, языковая компетенция, IMRAD.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan ezgu g‘oya asosida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning markazida o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi passiv subyektdan bilimni mustaqil yaratuvchi faol ishtirokchiga aylantirish vazifasi turadi. Ayniqsa, o‘zbek tili darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

5E modeli (Jalb qilish, Tadqiq etish, Tushuntirish, Kengaytirish, Baholash) konstruktivizm nazariyasiga asoslangan bo‘lib, u o‘quvchilarga bilimlarni avvalgi tajribalari asosida mustaqil ravishda shakllantirish imkonini beradi. Mazkur model dastlab xalqaro miqyosda STEM fanlari uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, lisoniy ta’lim jarayonida ham yuqori samaradorlik ko‘rsatayotgani ilmiy-amaliy tadqiqotlar orqali tasdiqlanmoqda. Ushbu maqolada Chimboy tumani 36-sonli maktabning ixtisoslashtirilgan sinflari misolida yuqori sinf o‘quvchilariga o‘zbek tili fanini o‘qitishda 5E modelini qo‘llashning metodik asoslari yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbek tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish masalalari milliy metodika fanida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. B. Mengliyev tomonidan yaratilgan 10-sinf ona tili darsligi 2022-yilda nashr etilib, unda o‘quvchilarning nutqiy, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatga asoslangan topshiriqlar tizimi taklif etilgan. Ushbu yondashuv o‘quvchini bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil o‘zlashtiruvchi sub’ekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasining nazariy asoslari B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva va T. Ziyodovalarning 2006-yilda chop etilgan tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar ona tili ta’limida interfaol metodlardan foydalanish, matn bilan ishlash va tahliliy fikrlashni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratadilar. Ushbu qarashlar konstruktiv yondashuvga asoslangan 5E modelining lisoniy ta’limda qo‘llanishi uchun muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

5E modeli ta’lim jarayonida faol o‘rganishni tashkil etishning samarali modeli sifatida R. W. Bybee tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u 2015-yilda NSTA Press nashriyotida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur model o‘quvchilarning bilimni bosqichma-bosqich egallashini, mustaqil tadqiq qilishini va bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llashini ta’minlaydi. So‘nggi yillarda ushbu model nafaqat STEM fanlarida, balki til ta’limida ham yuqori samaradorlik ko‘rsatayotgani ilmiy tadqiqotlar orqali isbotlanmoqda.

Milliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari Q. Yo‘ldoshev, R. G‘. Hamdamova hamda M. E. Xolmatova tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Xususan, Hamdamova 2024-yilda raqamli ta’lim sharoitida kreativ faoliyatni rivojlantirish omillarini asoslab bergan bo‘lsa, Xolmatova 2023-yilda 5E modelining ta’lim sifati va o‘quvchi faolligini oshirishdagi rolini ilmiy jihatdan yoritib bergan. Ushbu tadqiqotlar 5E modelini o‘zbek tili darslarida qo‘llashning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayoni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumanida joylashgan 36-sonli ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktabida amalga oshirildi. Mazkur ta’lim muassasasi 2013-yilda tashkil etilgan bo‘lib, unda 118 nafar pedagog xodim faoliyat yuritadi va 1186 nafar o‘quvchi tahsil oladi. Maktabning yuqori sinflarida (10–11-sinflar) o‘zbek tili darslarida 5E modelini qo‘llash maqsadida bir qator metodik bosqichlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida B. Mengliyev muallifligidagi 10-sinf ona tili darsligidan “Muhabbat o‘zi nima?”, “Ekologiya va inson”, “Nutq uslublari” hamda “Orol fojiasi” mavzulari tanlab olindi. Dars jarayonlari eMaktab raqamli platformasi imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil etildi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish dinamikasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi.

Darslarning tashkil etilishi 5E zanjiri asosida olib borildi:

1. Jalb qilish bosqichida o‘quvchilarga ochiq savollar berildi;
2. Tadqiq etish bosqichida o‘quvchilar matn ustida mustaqil ishladilar;
3. Tushuntirish bosqichida o‘z xulosalarini bayon etdilar;
4. Kengaytirish bosqichida olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda, xususan argumentli esse yozishda qo‘lladilar;
5. Baholash bosqichida esa eMaktab tizimi orqali o‘z-o‘zini baholash hamda o‘qituvchi nazorati amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chimboy tumani 36-sonli maktabning 10–11-sinflarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari 5E modelining yuqori samaradorligini tasdiqladi. Statistik tahlillarga ko‘ra, 5E modeli asosida dars o‘tilgan sinflarda o‘quvchilarning fan bo‘yicha natijalari an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli darajada farq qildi.

Lisoniy ko‘nikmalarning rivojlanishi bo‘yicha olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 29 foiz punktga oshgan. Hedges koeffitsiyenti bo‘yicha hisoblanganda, fan natijalariga ta’sir kuchi g=0.82 ni tashkil etdi, bu esa metodning yuqori darajada samarali ekanligidan dalolat beradi.

Mavzular kesimida tahlil qilinganda, “Muhabbat o‘zi nima?” mavzusini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar “ishq”, “muhabbat” va “sevgi” tushunchalarining etimologik hamda uslubiy farqlarini mustaqil tadqiq qilish orqali o‘zlashtirdilar. Natijada o‘quvchilarning 95 foizi nutqiy uslublarni farqlash va ularni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini namoyon etdi. Shuningdek, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasi 10 foizga oshgani va tanqidiy fikrlash qobiliyati g=0.85 ko‘rsatkichigacha ko‘tarilgani kuzatildi. eMaktab platformasi orqali olingan tahlillar

shuni ko‘rsatdiki, 36-sonli maktab bitiruvchilarining o‘zbek tili fanidan o‘rtacha ballari tuman ko‘rsatkichlaridan 12 foizga yuqori bo‘ldi.

5E modelining Chimboy tumani 36-sonli maktab tajribasidagi muvaffaqiyati uning o‘quvchiga yo‘naltirilgan tabiati bilan izohlanadi. Jalb qilish (Engage) bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish maqsadida muammoli vaziyat yaratadi. Jumladan, “Orol fojiasi” mavzusida darsni boshlash jarayonida mintaqaning ekologik holati haqidagi qisqa videorolik namoyish etilishi o‘quvchilarda mavzuga nisbatan emotsional bog‘liqlikni shakllantirdi.

Tadqiq etish (Explore) bosqichida o‘quvchilar tayyor qoidalarni yodlashdan ko‘ra, matnlarni tahlil qilish orqali murakkab gap turlarini yoki uslubiy shakllarni mustaqil aniqladilar. Ushbu jarayon o‘quvchilarda “olim kabi fikrlash” hamda mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Tushuntirish (Explain) bosqichida o‘quvchilarning o‘z tadqiqotlari natijalarini mustaqil bayon etishi, o‘qituvchining esa faqat terminlarni aniqlashtirib berishi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Kengaytirish (Elaborate) bosqichida esa 10-sinf darsligidagi “Ekologiya va inson” mavzusi asosida argumentli esse yozish topshirig‘ining berilishi o‘quvchilarning yozma nutqini yangi bosqichga olib chiqdi.

Garchi 5E modeli o‘qituvchidan darsga tayyorgarlik ko‘rishda ko‘proq vaqt va resurs talab qilsa-da, eMaktab tizimidagi raqamli resurslar ushbu jarayonni sezilarli darajada yengillashtiradi. Chimboy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ixtisoslashtirilgan sinflarda o‘quvchilarning intellektual salohiyati yuqori bo‘lgani sababli, 5E modelini hattoki 7E (Elicit va Extend bosqichlari qo‘shilgan holda) modeligacha kengaytirish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab tajribasi shuni ko‘rsatadiki, 5E modeli o‘zbek tili darslarida an’anaviy ma’ruza usulidan voz kechgan holda o‘quvchining ichki salohiyatini yuzaga chiqarish uchun samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu model yuqori sinf o‘quvchilarida nafaqat til qoidalarini bilish, balki tildan ijtimoiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish, shuningdek o‘z fikrini asosli tarzda himoya qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Respublika miqyosidagi ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘zbek tili darslarini to‘liq 5E modeli asosida loyihalashtirish.
2. eMaktab platformasida 5E modelining har bir bosqichi uchun mo‘ljallangan raqamli o‘quv materiallari omborini yaratish.
3. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining metodik mahoratini oshirish maqsadida 5E modelini amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan seminar-treninglar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni: https://lex.uz/docs/-5013007
2. Mengliyev B. Ona tili: 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
4. Bybee R. W. The BSCS 5E Instructional Model: Creating Teachable Moments. – Arlington: NSTA Press, 2015.
5. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
6. Hamdamova R. G‘. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish omillari // Raqamli ta’lim to‘plami. – 2024. – 2-qism.
7. Xolmatova M. E. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini oshirishda 5E modelining o‘rni // Oriental Art and Culture. – 2023.

SHAXS IJTIMOIY FAOLLIGI: TUSHUNCHA VA TAHLIL

Baxriyeva Nargiza Axmadovna
Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya instututi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, ps.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada olimlar, pedagoglar, sotsiologlar, faylasuflar va psixologlar tomonidan "ijtimoiy faollik" tushunchasiga berilgan ta'riflar tahlil qilinadi. Psixologiya fanida ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'zgalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishga intilishi sifatida talqin etiladi. O'tkazilgan tahlillar "ijtimoiy faollik" kategoriyasining instrumental funksiyasini aniqlashtirish va uning zamonaviy ilmiy talqinini asoslashga qaratilgan. Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida ijtimoiy faollik tushunchasining turli ilmiy yo'nalishlarda keltirilgan ta'riflari izohlanadi.

Kalit so'zlar: faollik, ijtimoiy faollik, ijtimoiy faoliyat, jamiyatdagi faollik, shaxs va muhitning o'zaro munosabati, shaxs, harakat.

Abstract: This article analyzes definitions of the concept of "social activity" proposed by scientists, educators, sociologists, philosophers, and psychologists. In psychology, social activity is interpreted as an individual's active participation in social life, engagement in interpersonal relationships, and efforts aimed at solving social problems. The conducted analysis is focused on clarifying the instrumental function of the category of social activity and substantiating its contemporary scientific interpretation. Based on the analysis of psychological and pedagogical literature, definitions of the concept of social activity presented in various scientific approaches are explained.

Key words: activity, social activity, social behavior, public activity, interaction between personality and environment, personality, action.

Аннотация: В статье анализируются определения понятия "социальная активность", представленные учёными, педагогами, социологами, философами и психологами. В психологии социальная активность рассматривается как активное участие личности в общественной жизни, её взаимодействие с другими людьми и стремление к решению социальных проблем. Проведённый анализ направлен на уточнение инструментальной функции категории социальной активности и обоснование её современной научной интерпретации. На основе анализа психологической и педагогической литературы раскрываются различные научные подходы к определению данного понятия.

Ключевые слова: активность, социальная активность, социальная деятельность, общественная активность, взаимодействие личности и среды, личность, действие.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning markazida inson, shaxs turadi. Inson omilining roli ortib borishi munosabati bilan shaxsning ijodiy salohiyatidan foydalanish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish vazifalari ustuvor yo'nalishlar sifatida ilgari surilmoqda. Ushbu jarayonlarning asosiy vositasi sifatida jamiyat hayotining turli sohalarida shaxsning ijtimoiy faolligi namoyon bo'ladi.

Jamiyatni hayotiy ustanovkalar va qadriyatlar yo'nalishlari tizimiga mos ravishda o'zgartirish taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan inson faoliyati orqali amalga oshadi. Shu sababli zamonaviylikning muhim muammolaridan biri jamiyatning progressiv rivojlanish omili bo'lgan yoshlarning ijtimoiy faolligi hisoblanadi.

"Ijtimoiy faollik" tushunchasi bir qator ijtimoiy va gumanitar fanlarning (psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, falsafa) tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ushbu fanlarda mazkur tushunchaga ba'zan noaniq, ba'zan esa qarama-qarshi ta'riflar beriladi.

Ko'pgina tadqiqotlarda ijtimoiy faollik subyektning o'zini va ijtimoiy reallikni anglash hamda o'zgartirishga qaratilgan jamiyat bilan o'zaro bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi.

Ijtimoiy faollik subyekt va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat jihatlarini o‘rganadigan asosiy fenomen hisoblanadi. “Ijtimoiy faollik” atamasi yoshlar ijtimoiy tashkilotlarining zamonaviy shakllarini yaxlit tuzilma sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ijtimoiy faollik” atamasi falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlarda mualliflik hamda ensiklopedik ta’riflarga ega. Shu sababli zamonaviy dunyoda ijtimoiy faollikning dolzarbligini aniqlash, ushbu atamaning muammolarini tadqiq etishda instrumental va funksional jihatdan to‘liq ta’rifni aniqlash maqsadida uning turli talqinlarini tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Ijtimoiy faollik” tushunchasiga ko‘plab psixolog olimlar – L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, D.N. Uznadze, G.M. Andreyeva, L.I. Ansiferova, D.M. Arxangelskiy, V.T. Afanasyev, M.S. Kagan, K.K. Platonov, A.V. Petrovskiy, E.T. Yudin va boshqalar – tomonidan ta’rif berilgan. Ushbu mualliflar ijtimoiy faollik tushunchasini turlicha talqin qiladilar: ayrim hollarda uni jamiyatdagi faollik tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yadilar, ayrim hollarda esa ushbu tushunchalarni aralashtirib yuboradilar.

V.Z. Kogan ijtimoiy faollikka quyidagicha ta’rif beradi: “Ijtimoiy faollik shaxsning ongli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, dialektik jihatdan o‘zaro bog‘liq holda subyektning atrofdagi voqelik jarayonlari va hodisalariga ta’sir darajasini yoki o‘lchovini belgilovchi va tavsiflovchi yaxlit ijtimoiy-psixologik sifatlar majmuasidir”.

Kupreychenko ijtimoiy faollikning turlarini quyidagi mezonlarga asoslanib farqlaydi [4]:

- qiziqishga asoslangan tomonlarni qamrab olish kengligiga ko‘ra (faollik muayyan guruh, jamiyat, insoniyat yoki shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilishi mumkin);
- tashabbus ko‘rsatish manbaiga ko‘ra (reaktiv, faol, oldini oluvchi);
- maqsadi va tabiatiga ko‘ra (gumanitar, tiklovchi, qidiruvchi, demonstrativ, nazorat, tinchlikparvar, ijodiy va boshqalar). Faollikka tarbiyaviy, faollashtiruvchi, axborotga yo‘naltirilgan, tashkillashtiruvchi faoliyat turlari kiradi;
- amalga oshirish sohasiga ko‘ra (madaniy, ta’limiy, kasbiy, oilaviy, ijtimoiy rivojlanish, sog‘liqni saqlash, badiiy-estetik, sport, siyosiy, fuqarolik-huquqiy, iqtisodiy va boshqalar);
- subyektga ko‘ra (ijtimoiy faollik alohida shaxs, kichik va katta guruhlar doirasida namoyon bo‘ladi);
- intensivligi yoki darajasiga ko‘ra (passivlikdan giperfaollikkacha);
- vaqtinchalik xususiyatlariga ko‘ra (chastotasi va davomiyligi). Ushbu mezonlarga muvofiq faollik qisqa muddatli, uzoq muddatli, doimiy, tizimli bo‘lishi mumkin. Intensivlikning vaqt davomida o‘zgarishiga ko‘ra esa u tug‘iluvchi, shakllanuvchi, o‘suvchi, so‘nuvchi turlarga ajratiladi;
- jamiyat uchun foydaliligiga ko‘ra. Ushbu ko‘rsatkich nisbatan muhim bo‘lsa-da, uni baholash murakkab hisoblanadi. Ko‘pincha faollik ijtimoiy va aksil-ijtimoiy funksiyalarni birlashtirishi mumkin. Masalan, norasmiy yoshlar tashkilotlarining ayrim turlarida ishtirok etish shular jumlasidandir.

Shunday qilib, ijtimoiy faollik shakllari va turlarining xilma-xilligi tadqiqotchilardan uning mazmuni va dinamikasini chuqur tahlil qilish, shuningdek, samaradorlik mezonlarini aniqlashga jiddiy yondashishni talab etadi.

M.V. Kocherova F.N. Ilyasov ta’rifiga asoslanib, ijtimoiy faollikni turli ko‘rinishdagi ijtimoiy faoliyatning o‘lchovi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvning asosiy farqi shundaki, mazkur atama E. Kachalova va M.V. Kocherovaning boshqa talqinlariga teskari bo‘lib, “faollik” tushunchasining hosilasi sifatida ishlatiladi. Ijtimoiy faollikni ijtimoiy faoliyat o‘lchovi sifatida qo‘llash alohida e’tiborga loyiqdir, chunki bu holatda ijtimoiy faollik turli faoliyat turlarini baholash mezoni sifatida namoyon bo‘ladi.

F.N. Ilyasovga ko‘ra, “ijtimoiy faollik” atamasi “harakat” kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, G.M. Kodjaspirova va A.Yu. Kodjaspirovlar ushbu tushunchaga pedagogik nuqtai nazardan yondashib, ijtimoiy faollikni insonning jamiyat hayotiga faol munosabati sifatida izohlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Faollikning maqsadi, motivlari, harakat shakllari va natijalari faoliyatga asoslangan yondashuv doirasida tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv L.S. Vigotskiy va A.N. Leontyevlarning faoliyat nazariyasiga tayanadi. Tadqiqot metodologiyasining mazmuniga ko‘ra, shaxs faolligi uning ichki xususiyatlari – qadriyatlar, ehtiyojlar, motivlar – hamda tashqi omillar, ya’ni ijtimoiy sharoit, turli guruhlar va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Ilmiy muomalada qo‘llaniladigan “ijtimoiy faollik” tushunchasining ko‘plab talqinlarini mualliflar konsepsiya mazmuniga kiritilgan asosiy tarkibiy qismlarga qarab tasniflash mumkin. Shunday qilib, “ijtimoiy faollik” atamasini obrazli tarzda o‘zaro ta’sir kategoriyalariga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin: “shaxs”, “harakat”, “ijtimoiylashuv” va “shaxs–muhit”. Ushbu toifalarga kiruvchi barcha tahlillar muayyan xususiyatlarga ko‘ra tizimlashtirilgan (harakatli jarayon, o‘zaro ta’sir, atamaning aniqlashtirilgan tasviri va boshqalar). Turli lug‘atlar va mualliflar ishlarida har bir kategoriya bo‘yicha tegishli ta’riflar mavjud.

“Shaxs–muhit” tushunchasini izohlashda mazmun jihatdan yaqin bo‘lgan shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir hisobga olinadi. “Ijtimoiy faollik” – bu muayyan tarixiy davrda jamiyat, sinf yoki ijtimoiy guruh oldida turgan muammolarni hal etishga ongli ravishda yo‘naltirilgan inson faoliyatining shakllari majmuasidir [2].

Ijtimoiy faollik tushunchasiga “Falsafiy lug‘at”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Ijtimoiy faollik – jamiyatdagi individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining mohiyatini aks ettiruvchi tushuncha” [2]. Yu.L. Vorobyova va B.N. Korolyova ta’riflariga ko‘ra, ijtimoiy faollik faollikning oliy shakli hisoblanadi. U materiyani tashkil etishning ijtimoiy darajasiga mos keladigan, subyektning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri bilan shartlangan va namoyon bo‘ladigan shaxsga xos faoliyat turi sifatida qaraladi. Ushbu jarayonda subyekt va muhitning o‘zgarishi sodir bo‘ladi [1].

Faylasuflardan L.P. Buyeva, L.N. Mitroxin, A.G. Xripkova, S.S. Bateninlar ijtimoiy faollikni subyektning atrof olam bilan o‘zaro munosabati shakli hamda ijobiy ifodalangan tomoni bilan tavsiflanadigan har qanday faoliyatning alohida holati sifatida talqin qilishni taklif etganlar. “Shaxs–muhit” kategoriyasiga oid ta’riflar ijtimoiy faollik mohiyatini subyektning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siriga yo‘naltirilgan jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Ushbu ta’riflar shaxs yoki jamiyatga bevosita murojaat qilmasdan, aynan o‘zaro ta’sir jarayonining o‘zini tahlil qiladi.

“Falsafiy lug‘at”larda “subyektning jamiyatdagi harakati” asos qilib olinadi. Ushbu ta’riflardan ko‘rinadiki, mazkur yondashuv jamiyatni ham, shaxsni ham alohida obyekt sifatida emas, balki ularning o‘zaro ta’siri jarayonini tadqiq etadi. Binobarin, ijtimoiy faollik subyektning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri yoki faoliyati jarayonidan iboratdir. Faylasuflardan L.P. Buyeva, L.N. Mitroxin, A.G. Xripkova, S.S. Bateninlar ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlab, ijtimoiy faollikni “ijobiy ifodalangan tomon bilan tavsiflanadigan faoliyat holati” sifatida izohlaydilar hamda bu jarayonni amalga oshiruvchi ijobiy funksiyalar va ijtimoiy ahamiyatga ega tasavvurlarni alohida ta’kidlaydilar.



“Ijtimoiy faollik” tushunchasi tahlili tipologiyasi[1]

1 Лебедев М.Д. “К вопросу о формировании понятия “социальная активность”” /научная статья/. https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formirovanii-ponyatiya-sotsialnaya-aktivnost/viewer

"Shaxs–muhit" kategoriyasini talqin qilishning mantiqiy xulosasi Yu.L. Vorobyov va B.N. Korolyovlar tomonidan berilgan bo'lib, ularga ko'ra, ijtimoiy faollik faollikning eng yuqori shakli sifatida namoyon bo'ladi va "subyekt hamda muhitning o'zgarishi sodir bo'ladigan, subyektning ijtimoiy faoliyatdagi ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir jarayoni" sifatida ta'riflanadi. "Subyekt va muhitning o'zgarishi" tushunchasi o'zaro ta'sir jarayonining sodir bo'lishi subyekt va muhitning yanada rivojlanishiga olib kelishini anglatadi.

Sotsiologik yo'nalishlarda "ijtimoiy faollik" atamasi keng qo'llaniladi va hodisa, holat hamda munosabat sifatida talqin etiladi. "Milliy jamoatchilik fondi" sotsiologik ensiklopediyasida ijtimoiy faollik ijtimoiy subyektning (shaxs, guruh, jamiyat yaxlitligi) xususiyatlari va sifatlari majmuasini tavsiflovchi sotsiologik kategoriya sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, subyekt ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlarini aks ettirgan holda o'zi uchun belgilangan maqsad sari rivojlanadi [5].

S.L. Komarovaga ko'ra, ijtimoiy faollik – insonning munosib hayot kechirishi va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishi uchun jamiyat tomonidan taqdim etilgan potensial imkoniyatlar yig'indisining rivojlanish intensivligi bilan tavsiflanadigan tizimli jarayondir [3]. Ushbu talqin avvalgi ideallashtirilgan yondashuvlardan farqli ravishda zamonaviy dunyoqarash va real ijtimoiy manzarani aks ettiradi.

"Milliy jamoatchilik fondi" sotsiologik lug'atida keltirilgan ushbu ta'rifda o'zini rivojlantirish jarayonining ahamiyati alohida ta'kidlanadi: "subyekt ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlarini aks ettirgan holda o'zi uchun belgilangan maqsad sari rivojlanadi".

Muammoga bo'lgan alohida e'tibor so'nggi o'n yillikda shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat jarayoniga qiziqishning kuchayganligini ko'rsatadi. Bu holat, o'z navbatida, shaxs institutlarining rivojlanishiga olib kelgan. Natijada, ijtimoiy faollik ijtimoiy subyektning (individ, guruh, umuman jamiyat) xossalari va sifatlari yig'indisi bilan tavsiflanadigan kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu xususiyatlar orqali subyekt o'zi uchun belgilangan maqsad sari rivojlanadi va ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlarini aks ettiradi.

Psixologik nuqtai nazardan, faoliyat holat sifatida shaxsning ehtiyojlari va qiziqishlariga asoslangan hamda harakatga ichki tayyorlikni ifodalovchi sifat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, faoliyat munosabatlar shaklida turli sohalarda subyektlarning o'zini o'zgartirishga qaratilgan o'z-o'zini faollashtirish jarayoni sifatida ham namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Ijtimoiy faollik" atamasi turli soha olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lib, yuqorida mazkur tushunchaga har bir fan sohasi tadqiqot obyektining mazmuni nuqtai nazaridan yondashgan ta'riflar keltirildi. Umuman olganda, olimlar ijtimoiy faollikni shaxsning ongli ravishda voqelikdagi ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirishga va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga qaratilgan faoliyati sifatida talqin etish lozimligini ta'kidlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Воробьёв Ю.Л., Королёв Б.Н. В поисках смысла и правды. Активность и развитие личности. – М.: Изд-во МГСУ "Союз", 2003. – Т. 1. – 500 с.
2. Глоссарий [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.glossary.ru/cg
3. Комарова С.Л. Социальная активность как фактор развития социального потенциала личности старшеклассника [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://library.rspu.ryazan.ru/search/search_newspaper_fulltext.php?id=976
4. Купрейченко А.Б. Проблема определения и оценки социальной активности // Психология индивидуальности. Материалы IV Всероссийской научной конференции. – М.: Логос, 2012.
5. Лебедев М.Д. К вопросу о формировании понятия "социальная активность" [научная статья]. – Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formirovanii-ponyatiya-sotsialnaya-aktivnost/viewer
6. Социологическая энциклопедия. Национальный общественно-научный фонд. – М.: Мысль, 2003. – 694 с.
7. Философский словарь [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.edudic.ru/fil/1160/

FIZIOGNOMIKA VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA PORTRET QALAMTASVIRI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH

UDK: 75.051:37.013:159.9

Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich
Guliston davlat universiteti, Amaliy san'at va dizayn kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada portret qalamtasvirini o'qitish jarayonida fiziognomika va psixologik bilimlarni integratsiyalashning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari yuz anatomiyasi, fiziognomik kuzatuvlar hamda milliy estetik qadriyatlarni chuqur tahlil qilish talabalarning badiiy va psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Maqolada yapon va sharq fiziognomiyasi, yuz shakllari, asosiy yuz belgilarining pedagogik qo'llanilishi, shuningdek, portret qalamtasviri mashqlarining metodik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: portret, fiziognomika, yuz anatomiyasi, psixologik kuzatuv, badiiy ta'lim, milliy estetik qadriyatlar, pedagogik metodika.

Abstract: This article examines the scientific and theoretical foundations of integrating physiognomics and psychological knowledge into the process of teaching portrait drawing. The research findings demonstrate that an in-depth analysis of facial anatomy, physiognomic observation, and national aesthetic values plays a significant role in developing students' artistic and psychological competencies. The article analyzes Japanese and Eastern physiognomics, facial shapes, the pedagogical application of key facial features, as well as the methodological aspects of portrait drawing exercises.

Key words: portrait, physiognomics, facial anatomy, psychological observation, art education, national aesthetic values, pedagogical methodology.

Аннотация: В статье исследуются научно-теоретические основы интеграции физиогномики и психологических знаний в процессе обучения портретной рисовке. Результаты исследования показывают, что углублённый анализ анатомии лица, физиогномических наблюдений и национальных эстетических ценностей является важным фактором развития художественных и психологических компетенций студентов. В статье анализируются японская и восточная физиогномика, формы лица, педагогическое применение основных лицевых признаков, а также методические аспекты занятий по портретной рисовке.

Ключевые слова: портрет, физиогномика, анатомия лица, психологическое наблюдение, художественное образование, национальные эстетические ценности, педагогическая методика.

KIRISH

Tasviriy san'at ta'limi tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ko'p omilli psixologik-pedagogik mexanizmlarga tayanadi. Xususan, psixologiya fanini chuqur o'zlashtirish pedagogning nafaqat shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishida, balki badiiy tafakkurni rivojlantirish, individual xususiyatlarni aniqlash hamda ta'lim metodlarini moslashtirishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun psixologik bilimlarni vizual faoliyat bilan integratsiyalash zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, portret janrida ishlash jarayonida shaxsning ichki dunyosini badiiy talqin qilish masalasi metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi seziladi.

Grafika va qalamtasvir mashg'ulotlaridagi amaliy tajribalar tahlili quyidagi muammolarni yuzaga chiqardi:

- *birinchidan,* talabalar tomonidan portretning psixologik xarakteri ko'pincha kompozitsion qurilishdan avval yetarli darajada tahlil qilinmaydi;
- *ikkinchidan,* inson bosh qismi va yuz tuzilishining fiziologik-proportsional ko'rsatkichlari chuqur o'rganilmasdan tasviriy yechimga o'tiladi;
- *uchinchidan,* naturaning kompozitsion tuzilishi hamda metodik bosqichlari tizimli ravishda ochib berilmaydi [1:12].

Mazkur kamchiliklar bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining pedagogik faoliyatga tayyorgarligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois portret tasvirlash jarayonida psixologik kuzatuv, fiziognomik tahlil va plastik anatomiya bilimlarini uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tasviriy san’at ta’limida portret qalamtasvirini o‘qitish masalalari B. Boymetovning “Portret qalamtasviri” asarida batafsil yoritilgan bo‘lib, unda inson bosh qismining konstruktiv tuzilishi, proportsiyalar va plastik yechimlarning metodik asoslari ochib berilgan. Rang va obrazning emotsional ta’siri masalalari esa S. Bulatov va B. Anaxanov tomonidan ishlab chiqilgan “Rang psixologiyasi” tadqiqotida ilmiy asosda tahlil qilingan. Ushbu ishlarda rang, yorug‘-soya va vizual idrok o‘rtasidagi bog‘liqlik portret obrazining psixologik chuqurligini belgilovchi muhim omil sifatida ko‘rsatib beriladi.

Psixologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan portret ta’limi M. Vohidovning “Bolalar psixologiyasi” asarida shaxsiy idrok, emotsional holat va tasavvur jarayonlari bilan bog‘liq holda talqin etiladi. N. Sh. Almetov esa o‘quv-tarbiya jarayonida milliy pedagogik tajribadan foydalanish masalalarini yoritib, san’at ta’limida milliy estetik qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatini asoslab beradi. Ushbu yondashuvlar portret qalamtasvirini o‘qitishda talabaning shaxsiy va madaniy xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda fiziognomika va tasviriy san’at integratsiyasi masalalari A.X. Babadjanovning ilmiy ishlarida tizimli ravishda tadqiq etilgan. Jumladan, portret janrida fiziognomik kuzatuvlarni qo‘llash orqali talabalarning badiiy va psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, Asqarali Sulaymonov va Sunnat Shovdirov tadqiqotlarida umuminsoniy va milliy badiiy qadriyatlar integratsiyasi tasviriy san’at ta’limi sifatini oshirish omili sifatida talqin qilinadi. Jumaboyev Nabi Pardaboyevichning Sharq estetik tafakkuri va pedagogik yondashuvlarga oid ishlari esa portret ta’limida madaniy-falsafiy kontekstni hisobga olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tasviriy faoliyatda ijodiy tasavvur markaziy psixik jarayon sifatida e’tirof etiladi. Psixolog va pedagog olimlar vizual tafakkur, obrazli idrok hamda shaxsiy interpretatsiyaning shakllanishida tasavvurning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydilar. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda badiiy qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlari, idrok va emotsional-intellektual omillarning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan [4:27].

O‘zbek olimlari tomonidan ham tasviriy san’at ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi, pedagogik texnologiyalarning ijodiy salohiyatga ta’siri masalalari keng tadqiq etilgan [6:101; 11:192]. Portret qalamtasviri metodikasi bo‘yicha izlanishlarda shaxs qiyofasini tasvirlashda tashqi shakl va ichki mazmun uyg‘unligiga erishish muhimligi qayd etiladi [2:24]. Rang psixologiyasi hamda vizual idrok qonuniyatlari esa obrazning emotsional ta’sir kuchini belgilovchi omillar sifatida ko‘rib chiqiladi [3:89].

So‘nggi yillarda fiziognomika va tasviriy san’at integratsiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar portret chizish jarayonida yuz tuzilishi belgilarining psixologik talqinini o‘quv jarayoniga kiritish samaradorligini asoslab bermoqda.

Fiziognomika (yunoncha “physis” – tabiat, “gnomon” – bilish) inson yuz tuzilishi orqali uning xarakteri va ruhiy xususiyatlarini talqin qilishga qaratilgan qadimiy ilmiy-amaliy yo‘nalishdir. Sharq manbalarida yuz tuzilishining alohida qismlari – qosh, ko‘z, burun, og‘iz va quloq – shaxsning temperamenti, irodaviy sifatlari hamda ijtimoiy xulq-atvori bilan bog‘lab talqin qilingan [12:135].

Biroq zamonaviy ilmiy yondashuv fiziognomik belgilarni mutlaq deterministik mezon sifatida emas, balki psixologik kuzatuvni boyituvchi yordamchi omil sifatida baholashni tavsiya etadi [3:89]. Etnopsixologik jihatdan qaralganda, yuz ifodalariga beriladigan ma’no turli xalqlarda turlicha talqin qilinishi mumkinligi ham alohida ta’kidlanadi.

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan kompleks yondashuvga asoslandi. Tadqiqot jarayonida nazariy manbalar tahlili, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, portret ishlanmalarining kompozitsion-psixologik ekspertizasi hamda amaliy mashg‘ulotlar monitoringi usullaridan foydalanildi [10:12]. Shuningdek, tasviriy san’at ta’limida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modeli doirasida texnologik, metodik va shaxsiy komponentlarning integratsiyasi hisobga olindi.

Tadqiqotning nazariy asosini tasviriy san’at pedagogikasi, psixologiya, rangshunoslik hamda Sharq estetik tafakkuri konsepsiyalari tashkil etadi [5:27]. Metodik jihatdan esa portret qalamtasvirini bosqichma-bosqich o‘qitish, plastik anatomiya va yuz proportsiyalarini chuqur o‘rganish, fiziognomik tahlilni kompozitsion qurilishdan avval amalga oshirish tamoyillari ilgari surildi [13:218].

Shunday qilib, mazkur tadqiqot portret janrini o‘qitishda psixologik kuzatuv va fiziognomik tahlilni ilmiy asosda integratsiyalash orqali bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Portret janrini o'qitish jarayonida fiziognomik yondashuvni qo'llash masalasi murakkab va ko'p qatlamli ilmiy muammo hisoblanadi. Avvalo ta'kidlash joizki, yuz tuzilishi orqali shaxsning ichki olamini talqin qilish qadimdan turli sivilizatsiyalarda mavjud bo'lgan bo'lsa-da, zamonaviy ilmiy tafakkur ushbu yondashuvni mutlaq haqiqat sifatida emas, balki ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladigan interpretativ metod sifatida baholaydi. Shu nuqtai nazardan, portret chizish jarayonida fiziognomik bilimlardan foydalanish deterministik emas, balki analitik va kuzatuvchanlikni rivojlantiruvchi vosita sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Sharq fiziognomik maktablarida yuz uch asosiy zonaga – peshona (yuqori qism), o'rta qism (qoshdan burun uchigacha) va pastki qism (lab va iyak sohasi) – ajratilib talqin qilinadi [12:135]. Ushbu tasnif tasviriy san'atda kompozitsion tahlil uchun qulay metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki portret ustida ishlash jarayonida yuzning konstruktiv tuzilishini bosqichma-bosqich o'rganish talabada nafaqat anatomik aniqlikni, balki obrazli tafakkurni ham shakllantiradi [3:89]. Biroq bu belgilarni bevosita xarakter diagnostikasi sifatida qabul qilish ilmiy asosga ega emasligi etnopsixologik tadqiqotlarda qayd etilgan.

Fiziognomik belgilarni talqin qilishda madaniy kontekstning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Turli xalqlarda tashqi qiyofa va xarakter o'rtasidagi bog'liqlik turlicha izohlanadi [6:101]. Masalan, ayrim Sharq an'analarida ko'z shakli yoki qosh tuzilishi ijobiy sifatlarning ramzi sifatida talqin qilinsa, boshqa madaniyatlarda mutlaqo boshqa ma'no kasb etishi mumkin [13:218]. Shu bois tasviriy san'at ta'limida fiziognomik elementlardan foydalanishda milliy mentalitet va estetik qadriyatlarni hisobga olish zarur.

Portret qalamtasvirini o'qitishda asosiy besh vizual komponent – qosh, ko'z, burun, og'iz va quloqning plastik hamda proportsional tahlili – muhim metodik bosqich hisoblanadi [2:24]. Masalan, ko'z inson ruhiyatining emotsional ifodasi sifatida kompozitsion markaz vazifasini bajaradi; ko'zning joylashuvi, shakli va yorug'-soya munosabatlari obrazning psixologik chuqurligini belgilaydi [9:77]. Burun esa yuzning markaziy o'qi sifatida umumiy konstruktiv barqarorlikni ta'minlaydi, uning shakli va hajmi plastik muvozanatga ta'sir ko'rsatadi. Og'iz va lab chiziqlari shaxsning emotsional holatini ifodalovchi dinamik element sifatida talqin qilinadi. Quloqning joylashuvi va shakli esa bosh konstruksiyasining fazoviy aniqligini belgilaydi.

Yuz shakllarining (oval, uchburchak, to'rtburchak, dumaloq va boshqalar) kompozitsion talqini ham portret ustida ishlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar yuz shaklini umumlashtirilgan geometrik model asosida tahlil qilganda konstruktiv xatolar kamayadi va obraz yaxlitligi ta'minlanadi [7:346]. Shu bilan birga, yuz shaklini xarakter bilan bog'lashda ehtiyotkorlik zarur, chunki bu bog'liqlik ko'proq estetik stereotiplarga asoslanadi [8:166].

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, fiziognomika portret ta'limida mustaqil ilmiy diagnostika vositasi sifatida emas, balki kuzatuvchanlik, tafakkur va badiiy tahlilni chuqurlashtiruvchi metodik resurs sifatida qo'llanganda samarali bo'ladi [3:89]. Ayniqsa, plastik anatomiya, rang psixologiyasi va kompozitsion qonuniyatlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilganda uning didaktik qiymati ortadi [5:27]. Bundan tashqari, pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalar portret ustida ishlash jarayonida nafaqat qo'l mehnati, balki intellektual tahlil faoliyatini ham amalga oshirganlarida badiiy natija sifat jihatdan yaxshilanadi [10:12]. Ya'ni, "kuzatish – tahlil – umumlashtirish – tasvirlash" zanjiri asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega [11:192].

Shunday qilib, portret janrini o'qitishda fiziognomik bilimlarni qo'llash ilmiy asoslangan, madaniy kontekstni inobatga olgan va pedagogik maqsadga yo'naltirilgan shaklda amalga oshirilgandagina metodik jihatdan o'zini oqlaydi. Bu esa bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining nafaqat tasviriy mahoratini, balki psixologik sezgirligini ham rivojlantiradi.

Olib borilgan nazariy tahlil va pedagogik kuzatuvlar natijasida portret qalamtasvirini o'qitishda fiziognomik yondashuvni integratsiyalash bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Xususan, tadqiqot davomida grafik fakultet talabalari bilan o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar monitoringi shuni ko'rsatdiki, yuz tuzilishini konstruktiv, plastik va psixologik jihatdan bosqichma-bosqich tahlil qilish asosida tashkil etilgan darslarda tasvir aniqligi, proportsional muvozanat hamda obrazning emotsional ifodaliligi sezilarli darajada yaxshilangan.

Globallashuv sharoitida ta'lim tizimining modernizatsiyasi pedagog kadrlar tayyorgarligiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi nafaqat metodik bilimlar, balki o'quvchining psixologik xususiyatlarini anglash, uning individual rivojlanish dinamikasini tushunish hamda ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish qobiliyatiga ham bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, perseptiv qobiliyat o'qituvchining muhim kasbiy sifati sifatida qaraladi [1, 45–52-betlar].

Perseptiv qobiliyat pedagogik muloqotning samaradorligini oshirib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi. Boshlang'ich sinf davri bolalarning shaxsiy rivojlanishida muhim bosqich

bo‘lgani sababli, o‘qituvchining o‘quvchilarni to‘g‘ri idrok etish qobiliyati ta’lim samaradorligini belgilovchi omil hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada innovatsion texnologiyalar, xususan vitagen ta’lim texnologiyalari, talabaning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan holda o‘qitish jarayonini tashkil etishga imkon beradi. Ushbu yondashuv talabalarning refleksiv tafakkuri, empatiyasi hamda analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi [2, 63–80-betlar].

Mazkur tadqiqotning maqsadi vitagen ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik psixologiyada perseptiv qobiliyat o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Krutetskiy o‘qituvchining pedagogik kuzatuvchanligi va shaxslararo idrok jarayoni o‘quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [3, 28–45-betlar].

Rubinshteynning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, idrok etish jarayoni faoliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogik faoliyatda shaxsni anglash va muloqotni tashkil etish jarayonida muhim rol o‘ynaydi [4, 90–102-betlar]. Vigotskiy ta’lim va rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asoslab, o‘qituvchining o‘quvchi rivojlanish zonasini anglash zarurligini ko‘rsatadi [5, 112–120-betlar].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalasida Selevko innovatsion metodlar refleksiv ta’limni rivojlantirishini ta’kidlaydi [6, 134–158-betlar]. Klarin esa innovatsion pedagogik texnologiyalarni kasbiy kompetensiyani shakllantirishning samarali vositasi sifatida baholaydi [7, 77–95-betlar]. Mahalliy tadqiqotlarda pedagogik texnologiyalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida qaraladi [8, 56–68-betlar].

Vitagen ta’lim texnologiyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shaxsiy tajribaga asoslangan ta’lim talabaning mustaqil fikrlashi va refleksiv yondashuvini rivojlantirishini ko‘rsatadi [2, 70–80-betlar].

Vitagen ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli integrativ pedagogik tizim sifatida ishlab chiqildi. Mazkur model shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, refleksiv pedagogika hamda faoliyatga asoslangan o‘qitish nazariyalariga tayanadi. Model tarkibida maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy komponentlar o‘zaro uzviy bog‘langan holda qaraladi.

Modelning maqsadli komponenti bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilarni psixologik jihatdan idrok etish, ularning hissiy holatini tushunish hamda individual pedagogik yondashuvni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazmuniy komponent vitagen tajriba, refleksiv faoliyat va pedagogik kuzatuv asosida tashkil etilgan o‘quv materiallari majmuasini o‘z ichiga oladi. Jarayonli komponent vitagen texnologiyalar asosida tashkil etilgan interfaol mashg‘ulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Natijaviy komponent esa talabalarning perseptiv kompetensiyasi, refleksiv tafakkuri hamda pedagogik muloqot ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy va empirik bosqichlarda amalga oshirildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar, pedagogik konsepsiyalar hamda psixologik nazariyalar tahlil qilindi. Empirik bosqichda esa vitagen ta’lim texnologiyalariga asoslangan tajriba mashg‘ulotlari tashkil etildi.

Mashg‘ulotlar davomida talabalar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning hissiy holatini anglash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va pedagogik refleksiya olib borishga o‘rgatildi. Talabalar o‘z hayotiy tajribasini pedagogik vaziyatlar bilan bog‘lash orqali bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirdi.

1-jadval: **Tajriba mashg‘ulotlari tizimi**

Bosqich	Mazmun	Vitagen faoliyat	Kutilgan natija
Diagnostik	Boshlang‘ich darajani aniqlash	Kuzatuv	Idrok darajasi
Shakllantiruvchi	Mashg‘ulotlar	Refleksiya va modellashtirish	Perseptiv rivoj
Nazorat	Yakuniy baholash	Tahlil	Kompetensiya o‘sishi

Tajriba ishlari uch bosqichda tashkil etildi. Dastlab diagnostik bosqichda talabalar perseptiv qobiliyatlarining boshlang‘ich darajasi aniqlanib, keyingi shakllantiruvchi bosqichda vitagen ta’lim texnologiyalari asosida mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Yakuniy nazorat bosqichida esa talabalarning rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

Refleksiv faoliyat jarayonida talabalar o‘z faoliyatini baholash hamda pedagogik xatolarni aniqlashga o‘rgatildi. Guruhiy muhokamalar pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirib, jamoaviy fikrlashni kuchaytirdi. Rolli modellashtirish orqali talabalar real dars jarayonini sinab ko‘rdi va empatik yondashuvni shakllantirdi. Kuzatuvga asoslangan faoliyat esa analitik fikrlashni rivojlantirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2-jadval: **Tajriba natijalari**

Ko‘rsatkich	Boshlanish, %	Yakun, %
Pedagogik kuzatuvchanlik	42	78
Empatiya	38	74
Refleksiya	40	82
Muloqot ko‘nikmasi	46	85

Tajriba natijalari vitagen texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning perseptiv qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantirganini ko‘rsatdi. Ayniqsa refleksiv tafakkur va pedagogik muloqot ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish kuzatildi.

Tajriba natijalari vitagen ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning perseptiv qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantirganini ko‘rsatdi. Talabalar o‘quvchilarning xulq-atvori va hissiy holatini aniqlashda yanada aniqroq yondashuvni qo‘llay boshladi.

Refleksiv topshiriqlar orqali talabalarda o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasi shakllandi. Guruhiy muhokamalar kommunikativ kompetensiyani oshirdi, rolli modellashtirish esa pedagogik moslashuvchanlikni kuchaytirdi. Kuzatuvga asoslangan faoliyatlar talabalarning analitik fikrlashini rivojlantirdi hamda ta’lim jarayonini obyektiv baholashga yordam berdi [7, 90–95-betlar].

Natijalar vitagen ta’lim texnologiyalari shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishda samarali didaktik vosita ekanini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Vitagen ta’lim texnologiyalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar pedagogik refleksiya, empatiya, kuzatuvchanlik hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tajriba natijalari vitagen yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Ta’lim jarayonida real pedagogik vaziyatlardan, refleksiv faoliyatdan va kuzatuv metodlaridan tizimli foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya asoslari. – Moskva, 2010. – 45–52-betlar.
2. Belkin A.S. Vitagen ta’lim texnologiyalari nazariyasi. – Yekaterinburg, 2005. – 63–80-betlar.
3. Krutetskiy V.A. Pedagogik qobiliyatlar psixologiyasi. – Moskva, 1998. – 28–45-betlar.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva, 2002. – 90–102-betlar.
5. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva, 1999. – 112–120-betlar.
6. Selevko G.K. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Moskva, 2006. – 134–158-betlar.
7. Klarin M.V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Moskva, 2002. – 77–95-betlar.
8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2014. – 56–68-betlar.

EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA ASOSIDA TALABALARDA EKOTURISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK ASOSLARI

Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida ekologik ong, ekologik tafakkur hamda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ekoturistik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-pedagogik hamda metodik asoslari kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida ekologik ta'lim va tarbiyaning shaxsning aksiologik yo'nalishlarini, ijtimoiy mas'uliyat hissini, tabiatga ehtiyotkor munosabatni hamda ekologik jihatdan maqbul xulq-atvorni shakllantirishdagi roli falsafiy, psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekoturizm, ekoturistik madaniyat, ekologik ong, ekologik tafakkur, ekologik kompetentlik, barqaror rivojlanish, talaba shaxsi, pedagogik metodika, innovatsion ta'lim texnologiyalari, aksiologik yondashuv, amaliy-faoliyatli o'qitish.

Abstract: This article comprehensively examines the theoretical, pedagogical, and methodological foundations for the formation and development of ecotourism culture among students of higher education institutions based on environmental awareness, ecological thinking, and the principles of sustainable development. The study analyzes the role of environmental education and upbringing in shaping individuals' axiological orientations, sense of social responsibility, respectful attitudes toward nature, and environmentally responsible behavior from philosophical, psychological, and pedagogical perspectives.

Key words: environmental education, environmental upbringing, ecotourism, ecotourism culture, environmental awareness, ecological thinking, ecological competence, sustainable development, student personality, pedagogical methodology, innovative educational technologies, axiological approach, practice-oriented learning.

Аннотация: В статье комплексно исследуются теоретико-педагогические и методические основы формирования и развития экотуристической культуры у студентов высших учебных заведений на основе экологического сознания, экологического мышления и принципов устойчивого развития. В ходе исследования с философской, психологической и педагогической точек зрения анализируется роль экологического образования и воспитания в формировании аксиологических ориентаций личности, чувства социальной ответственности, бережного отношения к природе и экологически целесообразного поведения.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическое воспитание, экотуризм, экотуристическая культура, экологическое сознание, экологическое мышление, экологическая компетентность, устойчивое развитие, личность студента, педагогическая методика, инновационные образовательные технологии, аксиологический подход, практико-ориентированное обучение.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, texnogen taraqqiyotning jadallashuvi, antropogen omillarning biosfera tizimlariga ta'sirining keskin ortishi hamda resurslardan irratsional foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan ekologik inqirozlar insoniyat oldida yangi sivilizatsion muammolarni keltirib chiqarmoqda. Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, cho'llanish, suv resurslarining tanqisligi, sanoat va maishiy chiqindilarning ko'payishi kabi global ekologik tahdidlar jamiyatning barcha sohalarini, xususan, ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda [1]. Chunki ekologik muammolar faqat texnologik yoki iqtisodiy choralar bilan emas, balki insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, ekologik ongi va madaniy xulq-atvori transformatsiyasi orqali hal etilishi mumkin. Shu ma'noda ekologik ta'lim va tarbiya ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi, shaxsning tabiatga mas'uliyatli munosabatini shakllantiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda ekologik muammolarni hal etishda "inson–tabiat–jamiyat" tizimining dialektik yaxlitligini anglash, biosferaning muvozanat mexanizmlarini saqlashga yo'naltirilgan ongli faoliyatni tashkil etish muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda ekologik madaniyat tushunchasi alohida nazariy-metodologik kategoriya sifatida shakllanib, u nafaqat bilimlar majmui, balki shaxsning aksiologik pozitsiyasi, ma'naviy ehtiyojlari, ekologik xulq-atvor me'yorlari hamda amaliy faoliyat tajribasini integratsiyalashgan holda ifodalaydi. Ekologik madaniyatni shakllantirish esa, o'z navbatida, ekologik ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi, tizimliligi hamda faoliyatga yo'naltirilganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida tahsil olayotgan talabalar ijtimoiy-intellektual resurs sifatida jamiyatning kelajakdagi ekologik siyosati, iqtisodiy rivojlanishi hamda madaniy transformatsiyasini belgilovchi muhim subyektlar hisoblanadi [2]. Talaba yoshlar shaxsiy qarashlari, hayotiy strategiyalari va kasbiy kompetensiyalari shakllanayotgan davrda bo'lib, aynan shu bosqichda ularning ekologik ongini rivojlantirish, tabiatga mas'uliyatli munosabatini mustahkamlash va barqaror rivojlanish g'oyalarini ichki e'tiqod darajasiga ko'tarish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan ekologik ta'lim jarayoni faqat nazariy bilimlarni uzatish bilan cheklanmasdan, balki talabalarning bevosita tajribaviy faoliyatini tashkil etish, tabiat bilan interaktiv muloqotni kuchaytirish hamda real ekologik muhitda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilishi zarur.

Mazkur ehtiyojlar fonida ekoturizm fenomeni ekologik-ma'rifiy faoliyatning samarali shakllaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ekoturizm tabiatni muhofaza qilish, mahalliy ekotizimlarni asrash, ekologik ongni oshirish va barqaror turizm tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy jarayon bo'lib, u shaxsning tabiat bilan bevosita hissiy-intellektual hamkorligini ta'minlaydi. Bunday faoliyat shakli talabalarda ekologik bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirish, kuzatish, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish hamda ekologik mas'uliyatni shaxsiy qadriyat darajasiga olib chiqish imkonini beradi. Shu sababli ekoturizm ekologik ta'limning samarali pedagogik platformasi sifatida qaralib, talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi [3].

Ekoturistik madaniyat tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra ko'p qirrali va integrativ xarakterga ega bo'lib, u ekologik ong, ekologik tafakkur, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalari, tabiatni muhofaza qilishga doir fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga rioya qilish, shuningdek, estetik va axloqiy qadriyatlarning uyg'unligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, ekoturistik madaniyat – bu shaxsning tabiatga zarar yetkazmasdan sayohat qilish, atrof-muhitni asrash, mahalliy madaniyat va an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ongli faoliyati tizimidir. Bunday madaniyatni shakllantirish tasodifiy jarayon emas, balki ilmiy asoslangan pedagogik metodika, maqsadli ta'limiy strategiyalar va tizimli tarbiyaviy ta'sirni talab etadi.

Zamonaviy pedagogika fanida shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatli va tizimli yondashuvlar ekologik ta'limni tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [4]. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarda ekologik muammolarni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutsa, aksiologik yondashuv ekologik qadriyatlar tizimini ichkilashtirishga yo'naltiriladi. Faoliyatli yondashuv bilimlarni real faoliyat jarayonida mustahkamlashga, ya'ni ekoturistik ekspeditsiyalar, dala amaliyotlari, ekologik monitoring hamda ijtimoiy loyihalar orqali o'rganishga asoslanadi. Tizimli yondashuv esa ekologik ta'limni uzluksiz va bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuvlarning integratsiyasi talabalar ekoturistik madaniyatini shakllantirishning metodik asoslarini yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik vositalarning rivojlanishi ekologik ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirib, virtual laboratoriyalar, geoinformatsion tizimlar, onlayn monitoring platformalari hamda interaktiv simulyatsiyalar yordamida talabalar ekologik jarayonlarni modellashtirish, tahlil qilish va prognozlash ko'nikmalariga ega bo'lmoqda [5]. Bu holat ekoturistik faoliyatni ilmiy asosda rejalashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda barqaror turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim ko'proq nazariy ma'ruzalar va seminarlar bilan cheklanib, talabalarni real ekologik faoliyatga jalb etish darajasi yetarli emas. Natijada ekologik bilimlar bilan ekologik xulq-atvor o'rtasida muayyan tafovut yuzaga kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik ta'lim hamda ekoturistik madaniyatni shakllantirish muammosi xalqaro ilmiy diskursda barqaror rivojlanish paradigmasi doirasida ko'rib chiqilib, mazkur jarayon shaxsning ekologik ongini transformatsiyalash, ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish va tabiatdan foydalanish amaliyotini normativ-aksiologik mezonlar bilan muvofiqlashtirish mexanizmlari orqali asoslanadi. Xorijiy tadqiqotlarda ekoturizm ko'proq ekologik savodxonlikni oshiruvchi ta'limiy platforma sifatida talqin qilinib, uning pedagogik salohiyati tajribaviy o'qitish, maydon amaliyoti va jamoaviy refleksiya jarayonlari bilan integratsiyada ochib beriladi. Shu ma'noda ekoturistik faoliyat talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ekologik qadriyatlar tizimini ichkilashtirishga xizmat qiluvchi transformativ o'quv muhiti sifatida baholanadi.

Mazkur yo‘nalishda Ralf Bakli (Ralf Buckley) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ekoturizmni ijtimoiy-ekologik tizimlar bilan uzviy bog‘langan kompleks fenomen sifatida tahlil qiladi. Olimning konseptual qarashlariga ko‘ra, ekoturizmning samaradorligi uning faqat iqtisodiy daromad keltiruvchi faoliyat ekanligi bilan emas, balki tabiatni muhofaza qilishga qo‘shgan real hissasi, ishtirokchilarning ekologik xulq-atvori o‘zgarishi hamda uzoq muddatli barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. U ekoturistik dasturlarni “learning-through-experience” modeli asosida tashkil etish zarurligini ta’kidlab, tabiat qo‘riqxonalari, milliy bog‘lar va bioxilma-xillik hududlarida olib boriladigan amaliy kuzatuvlar, monitoring ishlari hamda ekologik volontyorlik faoliyati talabalarning ekologik kompetentligini sezilarli darajada oshirishini empirik ma’lumotlar bilan asoslaydi. Baklining fikricha, aynan shunday tajribaviy mexanizmlar ekologik bilimni kognitiv darajadan aksiologik va xulqiy darajaga ko‘taradi, bu esa ekoturistik madaniyatning ichki motivatsion negizini shakllantiradi [6].

Shuningdek, Anna Spenseley (Anna Spenceley)ning tadqiqotlari ekoturizmni barqaror rivojlanishning ijtimoiy-adolatli modeli sifatida talqin etib, uning mahalliy hamjamiyatlar, ta’lim muassasalari va yoshlar ishtirokidagi ko‘p subyektli hamkorlik asosida samarali ishlashini ko‘rsatadi. Olimaning metodologik yondashuvida ekoturizm ekologik ma’rifatni kengaytirish bilan bir qatorda fuqarolik faolligi, madaniy merosga hurmat hamda tabiatga nisbatan etik mas’uliyatni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik institut sifatida baholanadi. U talabalarning dala amaliyotlari, ekologik loyihalarda ishtiroki hamda refleksiv tahlil jarayonlarini integratsiyalashgan holda tashkil etish orqali “transformative sustainability learning” mexanizmi yuzaga kelishini ta’kidlaydi, ya’ni o‘quvchi shaxsning dunyoqarashi tubdan qayta qurilib, ekologik qadriyatlar uning hayotiy pozitsiyasiga aylanadi. Spenseley ekoturizmni aynan ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali yosh avlodda uzoq muddatli ekologik madaniyatni shakllantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi [7].

Shunday qilib, xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekoturizmning pedagogik salohiyati uning tajribaviylik, ishtirokiylik va qadriyatga yo‘naltirilganlik xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu holat ekologik ta’limni nazariy-ma’lumot berish bosqichidan shaxsning ekologik xulq-atvorini shakllantiruvchi amaliy-faoliyatli bosqichga olib o‘tadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatli hamda integrativ yondashuvlar majmui tashkil etib, ular ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini talaba shaxsining ekologik ongini, ekoturistik kompetentligini va mas’uliyatli xulq-atvorini shakllantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin etish imkonini berdi. Tadqiqotda nazariy darajada falsafiy-dialektik tahlil, kategoriyaviy apparatni aniqlashtirish, ekologik madaniyat va ekoturizm fenomenlarining strukturaviy-komponentli modellashuvi uchun kompleks diagnostik mezonlar tizimi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari ekologik ta’lim va tarbiya asosida ishlab chiqilgan, ekoturistik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelning pedagogik samaradorligini empirik jihatdan tasdiqladi. Ya’ni shakllantiruvchi bosqichda ekologik-ma’rifiy integratsiya, dala amaliyotlari, ekoturistik ekspeditsiyalar, muammoli vaziyatli topshiriqlar, loyiha asosida o‘qitish, servis-o‘qitish, refleksiv tahlil hamda raqamli monitoring vositalari tizimli ravishda joriy etilgan eksperimental guruh talabalari nazorat guruhiga nisbatan ekologik bilimlarning chuqurligi, ekologik tafakkurning tizimliligi, tabiatga mas’uliyatli munosabatning aksiologik mustahkamligi, ekologik qaror qabul qilish kompetentligining rivojlanganligi hamda real ekoturistik faoliyatdagi xulq-atvor ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli ijobiy dinamikani namoyon etdi.

Diagnostik o‘lchovlar ekologik kompetentlikning kognitiv komponenti (ekotizimlar, bioxilma-xillik va barqaror turizm tamoyillari haqidagi bilimlar), operatsion-faoliyatli komponenti (dala sharoitida kuzatish, monitoring, chiqindilarni boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalari) va aksiologik-motivatsion komponenti (ekologik qadriyatlar, ichki mas’uliyat, tabiatga ehtiyotkor munosabat) o‘rtasida uzviy bog‘liqlik kuchayganini ko‘rsatdi. Shuningdek, statistik tahlillar natijasida eksperimental guruhda yuqori darajadagi ekoturistik madaniyatga ega talabalar ulushi keskin ortib, past darajadagi ko‘rsatkichlar kamaygani, ekologik tashabbuskorlik, volontyorlik va jamoaviy ekologik loyihalarda ishtirok etish faolligi barqaror ravishda oshgani, bilim bilan xulq-atvor o‘rtasidagi tafovut qisqargani hamda ekologik ongning amaliy faoliyatga transferi kuchaygani aniqlandi. Bu esa taklif etilgan metodikaning talabalarda barqaror ekologik pozitsiya, refleksiv tafakkur va mas’uliyatli ekoturistik xatti-harakatlarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Ekologik ta’lim va tarbiya asosida talabalar ekoturistik madaniyatini shakllantirish muammosi xalqaro ilmiy diskursda turli nazariy pozitsiyalar hamda metodologik yondashuvlar kesishmasida rivojlanib, ushbu jarayonning samaradorligi borasida olimlar o‘rtasida ma’lum darajada polemik qarashlar shakllangan. Xususan, Ralf Bakli va Anna Spenseley konseptual yondashuvlari mazkur masalaning turli jihatlarini yoritib, ekoturizmning

ta'limiy potensiali hamda uning shaxs ekologik madaniyatiga ta'siri xususida ilmiy bahs-munozaralarga asos yaratadi. Baklining pozitsiyasiga ko'ra, ekoturizm, avvalo, tabiatni muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlashga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida talqin etilishi lozim bo'lib, uning pedagogik ahamiyati bevosita ekologik faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi [8]. U "tajriba orqali o'rganish" modelini asosiy determinant sifatida ko'rib, talabalarning real ekotizimlarda kuzatuv olib borishi, ekologik monitoring, volontyorlik va konservatsiya loyihalarida ishtiroki ekologik ongni chuqurroq shakllantirishini ta'kidlaydi. Baklining fikricha, faqat auditoriya doirasidagi nazariy bilimlar ekologik xulq-atvorga yetarlicha transformatsiyalanmaydi, shu bois ta'lim jarayoni tabiat bilan to'g'ridan-to'g'ri interaktiv aloqaga asoslanishi shart. U ekoturizmni shaxsning ekologik javobgarligini kuchaytiruvchi "behavioural catalyst", ya'ni xulqiy katalizator sifatida baholab, ekologik madaniyatni shakllantirishning bosh omili aynan amaliy faoliyat ekanligini empirik dalillar bilan asoslaydi [9].

Biroq Spenseley ushbu yondashuvni ma'lum darajada tor doirali deb hisoblab, ekoturizmning faqat konservatsion-amaliy funksiyasi bilan cheklanib qolishi shaxsda barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish uchun yetarli emasligini ta'kidlaydi. Uning nazariyasida ekoturizm ijtimoiy-pedagogik va aksiologik jarayon sifatida talqin etilib, unda mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik, madaniy merosga hurmat, ijtimoiy adolat hamda refleksiv o'qitish mexanizmlari markaziy o'rin egallaydi. Spenseleyga ko'ra, agar talaba faqat ekologik faoliyatni bajaruvchi subyekt sifatida ishtirok etsa-yu, lekin o'z harakatlarining ijtimoiy, madaniy va axloqiy mazmunini anglamasa, unda shakllangan ko'nikmalar uzoq muddatli barqarorlik kasb etmaydi. Shu bois u ekoturistik ta'limni "transformative learning" konsepsiyasi asosida qurishni taklif etib, bunda refleksiya, munozara, tanqidiy tafakkur va qadriyatlarni ichkilashtirish jarayonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilgari suradi [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini talabalarda ekoturistik madaniyatni shakllantirishning strategik va tizimli mexanizmi sifatida tashkil etish zamonaviy oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nig'matov A., Shomurotova N. Ekoturizm asoslari // O'quv. – 2007.
2. Shohbozbek E. Theoretical foundations for the development of the spiritual worldview of youth // Maulana. – 2025. – 1(1). – B. 29–35.
3. Boyatov O., Solijonov O. Ekoturizm va yashil ta'lim orqali barqaror kelajak sari // Shokh Articles Library. – 2025. – T. 1. – № 2.
4. Muruvvat A., Shohbozbek E. The role of preschool education in spiritual and moral values in Uzbekistan // Global Science Review. – 2025. – 3(2). – B. 246–253.
5. Baxtiyorova D. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro modellarni qo'llash yo'llari // Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World. – 2025. – T. 2. – № 5. – B. 84–87.
6. Ergashbayev S. Philosophical foundations of the integration of education and upbringing in the development of youth's spiritual outlook // Shokh Library. – 2025. – 1(10).
7. Umronov E. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – T. 5. – № 6. – C. 101–107.
8. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Forming the spiritual worldview of youth in pre-school education in our republic // Global Science Review. – 2025. – 4(5). – B. 221–228.
9. Toshev N. Mintaqada turizmni rivojlantirishda aglomeratsiyani optimal joylashtirishning dolzarbligi // Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – T. 3. – № 14. – C. 51–54.
10. Ергашбаев Ш. Ўзбекистон шароитида узлуксиз таълим тизими орқали ёшларнинг маънавий дунёқарашини ривожлантириш // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – 1(1). – C. 314–316.



INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKSPRESSIV NUTQ BUZILISHLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Fayziyeva Nozima Oybek qizi
O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
1-bosqich doktorantura talabasi
ORCID: 0009-0008-1141-5312

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan ekspressiv nutq buzilishlarining qisqacha tahlili keltiriladi. Nutq rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar, jumladan, leksik xilma-xillikning yetarli emasligi va semantik xatoliklar miqdoriy hamda sifat jihatdan baholanadi. Shuningdek, bunday buzilishlarga ega bolalar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish metodologiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda nutq buzilishlarini bartaraf etishda gumanistik yondashuvning ahamiyati asoslanib, nutq buzilishlarining og'irlik darajasi va turidan kelib chiqib, bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: individual ta'lim trayektoriyasi; ekspressiv nutq buzilishlari; kognitiv rivojlanish; zamonaviy ta'lim paradigmasi; impressiv nutq.

Abstract: This article analyzes the characteristics of expressive speech disorders in preschool children. The psycholinguistic and pedagogical features of these disorders, as well as their impact on children's cognitive and social development, are examined. Particular attention is given to the individual educational trajectory as an effective tool for correcting expressive speech disorders. The study emphasizes the importance of a differentiated and humanistic approach that considers the nature and severity of speech disorders and focuses on addressing each child's individual educational needs through appropriate pedagogical strategies.

Key words: individual educational trajectory; expressive speech disorders; preschool children; speech development; speech therapy intervention.

Аннотация: В статье представлен анализ особенностей экспрессивных нарушений речи у детей дошкольного возраста. Рассматриваются психолингвистические и педагогические характеристики данных нарушений, а также их влияние на когнитивное и социальное развитие ребенка. Особое внимание уделяется индивидуальной образовательной траектории как эффективному инструменту коррекции экспрессивных речевых нарушений. Обосновывается необходимость дифференцированного и гуманистического подхода, ориентированного на учет индивидуальных образовательных потребностей ребенка в зависимости от характера и степени выраженности речевых нарушений.

Ключевые слова: индивидуальная образовательная траектория; экспрессивные нарушения речи; дошкольный возраст; речевое развитие; логопедическая коррекция.

KIRISH

So'nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining buzilishlari, xususan, ekspressiv nutq buzilishlari zamonaviy ta'lim va logopediya sohasidagi dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda xalqaro tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, nutq va til rivojlanishidagi buzilishlar maktabgacha yoshdagi bolalarning 5–8 % ida uchraydi, shundan ekspressiv nutq buzilishlari 2–3 % ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar bolalarning kognitiv, ijtimoiy va akademik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, keyingi ta'lim bosqichlarida o'qish va yozish qiyinchiliklari xavfini oshiradi.

Ekspressiv nutq buzilishlari bolaning fikrini og'zaki shaklda ifodalash, lug'at boyligini faol qo'llash, grammatik tuzilmalarni to'g'ri shakllantirish hamda muloqot jarayonida nutqdan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekspressiv nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning 60–70 % ida ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklar, 40 % ida esa maktabga tayyorgarlik darajasining pastligi kuzatiladi. Shu bois, mazkur

buzilishlarni erta aniqlash va individual yondashuv asosida korreksiyalash pedagogik amaliyotda alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim konsepsiyalarida bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Individual ta'lim trayektoriyasi – bu bolaning yosh, psixofiziologik va nutq rivojlanish darajasiga mos ravishda tuzilgan, moslashuvchan va maqsadli ta'lim yo'nalishidir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, individual ta'lim trayektoriyasini qo'llash ekspressiv nutq buzilishlariga ega bolalarda nutq faolligining 25–35 % ga oshishiga hamda lug'at zahirasining sezilarli darajada kengayishiga olib keladi [2].

Ekspressiv nutq buzilishlari bolalarda o'qish, yozish, og'zaki nutq hamda tushunish qobiliyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu esa global miqyosda maktabdagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi [1]. Shu bois, bu turdagi buzilishlarni erta aniqlash va o'z vaqtida intervensiya qilish kelajakdagi akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatlar uchun nihoyatda muhimdir [2].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekspressiv nutq buzilishlari bo'lgan bolalarda nafaqat nutq rivojlanishida, balki ijtimoiy-pragmatik muloqotda ham qiyinchiliklar kuzatiladi, bu esa ularning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [3]. So'nggi yigirma yil ichida impressiv va ekspressiv nutq buzilishlariga bag'ishlangan tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshgan bo'lib, bu holat nafaqat ushbu buzilishlarning miqdoriy ko'payishi, balki ularning sifat jihatidan o'zgarishi bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekspressiv nutq buzilishi tushunchasi bolalarning so'z tanlash va aniq jumlalarni shakllantirishdagi qiyinchiliklari bilan tavsiflanadi bo'lib, ushbu holat rivojlanish jarayonida yoki keyinchalik paydo bo'lishi mumkin [4]. Mazkur buzilish nutqiy kechikishlar, savollarga javob berishda qiyinchiliklar hamda gap tuzilishidagi chalkashliklar kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning ekspressiv nutq ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligini anglatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning 5–8 % ida ekspressiv nutq rivojlanishida qiyinchiliklar kuzatiladi, bu esa keyinchalik tushunish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarida, shuningdek, akademik muvaffaqiyatda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin [6].

So'nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining buzilishlari, xususan, ekspressiv nutq buzilishlari masalasi psixologiya, maxsus pedagogika va logopediya fanlari doirasida dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Ekspressiv nutq buzilishlari bolaning leksik-grammatik tizimi, fonetik-fonematik rivojlanishi hamda kommunikativ faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, keyingi ta'lim bosqichlarida, shuningdek, o'quv faoliyatida jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlari muammosi logopediya va korreksion pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutqning ekspressiv tomoni bolaning lug'at boyligi, grammatik qurilishi va bog'lanishli nutqining shakllanishini o'z ichiga oladi hamda ushbu jarayon maktabgacha yosh davrida jadal rivojlanadi.

L.S. Vygotskiy nutqni bolaning psixik rivojlanishining asosiy vositasi sifatida baholab, nutq buzilishlari kognitiv rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi nazariyasi individual yondashuv asosida korreksion ishlarni tashkil etishning metodologik poydevorini yaratadi [17].

R.E. Levina, T.B. Filicheva hamda G.V. Chirkina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda umumiy nutq rivojlanishining yetishmovchiligi (NTR) sharoitida ekspressiv nutqning leksik-grammatik tizimi sezilarli darajada orqada qolishi aniqlangan. Ular maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi xususiyatlarni ko'rsatadilar:

- so'z boyligining cheklanganligi;
- grammatik shakllarning noto'g'ri qo'llanilishi;
- gap tuzishdagi buzilishlar;
- bog'lanishli nutqning fragmentarligi [11, 12].

L.V. Lopatina va O.V. Pravdina ekspressiv nutq buzilishlarini bartaraf etishda tizimli va bosqichli logopedik ish olib borish zarurligini asoslaydi. Ularning fikricha, korreksion jarayon artikulyatsion apparatni rivojlantirish, fonematik idrokni shakllantirish hamda grammatik tuzilmani mustahkamlashni o'z ichiga olishi lozim [13].

R.Sh. Shomahmudova o'zbek logopediya maktabida ekspressiv nutq buzilishlarini bartaraf etishda differensial yondashuv muhimligini ta'kidlaydi. Xususan, u nutq kamchiliklarini tuzatishda har bir bolaning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv zamonaviy individual ta'lim trayektoriyasi konsepsiyasi bilan bevosita uyg'unlashadi [16].

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda (Paul & Norbury, 2012; ASHA, 2020) ekspressiv nutq buzilishlarini erta aniqlash va individual rejalashtirilgan intervensiya dasturlarini qo‘llash yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan [14].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarini bartaraf etishda individual ta’lim trayektoriyasi asosida tuzilgan bosqichli, tizimli va diagnostik nazoratga tayangan korreksion ishlar yuqori natija beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda individual ta’lim trayektoriyasi asosida korreksion ish samaradorligini baholashga qaratildi.

Birinchidan, ilmiy-nazariy tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu metod orqali logopediya va korreksion pedagogika sohasidagi mahalliy hamda xorijiy olimlar (Vygotskiy, Levina, Filicheva va boshqalar) asarlari o‘rganildi va ekspressiv nutq buzilishlarining nazariy asoslari tizimlashtirildi. Natijada maktabgacha yosh davrida ekspressiv nutqning leksik, grammatik va bog‘lanishli komponentlari buzilishi o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, qiyosiy-taqqoslash usulidan foydalanildi. Ushbu metod asosida nutq rivojlanishi me’yorida bo‘lgan bolalar ko‘rsatkichlari bilan ekspressiv nutq buzilishiga ega bolalarning nutq xususiyatlari solishtirildi. Qiyoslash jarayonida lug‘at boyligi hajmi, grammatik shakllardan foydalanish darajasi va gap tuzish ko‘nikmalari mezon sifatida olindi. Taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekspressiv nutq buzilishiga ega bolalarda fe’llarning zamon shakllarini qo‘llashda xatoliklar, morfologik umumlashtirishning sustligi hamda bog‘lanishli nutqning fragmentarligi ustunlik qiladi.

Uchinchidan, pedagogik kuzatish metodi qo‘llanildi. Kuzatish jarayonida bolalarning erkin muloqotdagi nutq faolligi, dialogik va monologik nutq elementlaridan foydalanish darajasi tahlil qilindi. Ushbu metod individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqishda har bir bolaning nutqiy ehtiyojlari va qiyinchilik darajasini aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalar umumlashtirish va xulosa chiqarish orqali ilmiy asosda bayon etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalarda ekspressiv nutq buzilishlari ko‘pincha lug‘at boyligining cheklanganligi, grammatik tuzilmalardan noto‘g‘ri foydalanish, gap tuzishdagi qiyinchiliklar hamda nutqning izchilligi va ravonligining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi [8].

Tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrini nutq rivojlanishida senzitiv bosqich sifatida baholab, aynan shu davrda ekspressiv nutq buzilishlarini erta aniqlash va korreksiya qilish muhimligini ta’kidlaydilar. Ba’zi tadqiqotlarda ekspressiv nutqida buzilishi bo‘lgan bolalarda kognitiv rivojlanish, xotira, diqqat va ijro funksiyalarida o‘zgarishlar mavjudligi hamda bularning nutq bilan uzviy bog‘liqligi aniqlangan [10]. Bu holat nutq buzilishlarini faqat lingvistik muammo sifatida emas, balki murakkab psixologik-pedagogik fenomen sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasi va uning ahamiyati. Zamonaviy ta’lim paradigmasida individual ta’lim trayektoriyasi tushunchasi bolalarning individual psixofiziologik xususiyatlari, rivojlanish darajasi va ehtiyojlariga mos ta’limni tashkil etish vositasi sifatida qaraladi. Individual ta’lim trayektoriyasi yondashuvi maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar, jumladan, ekspressiv nutq buzilishlariga ega maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi bir qator tadqiqotlarda isbotlangan.

Logopedik tadqiqotlarda individual yondashuv asosida tuzilgan ta’lim trayektoriyasi bolalarda nutq faoliyatini faollashtirish, motivatsiyani oshirish va nutqiy kamchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, individual ta’lim trayektoriyasi doirasida differensial mashqlar, moslashtirilgan o‘yin texnologiyalari va multimodal yondashuvlardan foydalanish ekspressiv nutq buzilishlarini korreksiya qilishda yuqori natijalarni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, ekspressiv nutq buzilishlarini aynan individual ta’lim trayektoriyasi asosida kompleks va tizimli korreksiya qilish texnologiyalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Ko‘plab ishlar umumiy logopedik mashg‘ulotlar yoki standart korreksion dasturlar bilan cheklanib qolgan bo‘lib, bolalarning individual rivojlanish dinamikasi va shaxsiy ehtiyojlari yetarli darajada inobatga olinmagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini individual ta’lim trayektoriyasi doirasida o‘rganish va amaliy jihatdan asoslash zamonaviy maxsus pedagogika hamda logopediya fanlari uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega muammo hisoblanadi.

Har bir bolaning individual ta'lim trayektoriyasi dastlabki diagnostika natijalari asosida ishlab chiqildi. Trayektoriya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oldi:

- bolaning nutqiy rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini aniqlash;
- qisqa va uzoq muddatli korreksion maqsadlarni belgilash;
- individual va kichik guruh mashg'ulotlari nisbatini aniqlash;
- o'yin texnologiyalari, vizual materiallar va multimodal mashqlarni tanlash;
- natijalarni monitoring qilish va trayektoriyani har bir bolaga individual moslashtirib borish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarini korreksiya qilishda individual ta'lim trayektoriyasi yondashuvining yuqori samaradorligi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlanib, o'z isbotini topgan. Mulohazalar shuni ko'rsatadiki, individual ta'lim trayektoriyasi samaradorligi bir nechta muhim mexanizmlar bilan izohlanadi. Birinchidan, har bir bola uchun alohida belgilangan maqsadlar va moslashtirilgan mashqlar nutqiy yuklamaning optimal taqsimlanishini ta'minladi. Ikkinchidan, o'yin texnologiyalari va multimodal yondashuvlardan foydalanish bolalarning kognitiv va kommunikativ faolligini kuchaytirdi.

Bundan tashqari, individual ta'lim trayektoriyasi doirasida amalga oshirilgan doimiy monitoring va moslashtirish jarayoni bolalarning rivojlanish sur'atidagi farqlarni hisobga olish imkonini berdi. Bu holat Archibald va Gathercole ta'kidlagan ishchi xotira va nutq rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, nutq buzilishlarining boshqa turlari bilan kombinatsiyalangan holatlarda individual ta'lim trayektoriyasining samaradorligini o'rganish ham dolzarb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishda individual ta'lim trayektoriyasi yondashuvining pedagogik samaradorligi beqiyos o'rin egallaydi. Ekspressiv nutq buzilishlari bolalarda lug'at boyligining cheklanganligi, grammatik tuzilmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi va bog'lanishli nutqning past rivojlanganligi bilan tavsiflanishi bunday bolalarning kelajakdagi ijtimoiy adaptatsiyasi hamda akademik ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasligini ko'rsatadi. Ota-onalar va pedagoglar uchun esa quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekspressiv nutq buzilishlarini erta aniqlash uchun tizimli diagnostika mexanizmlarini joriy etish;
- har bir bola uchun individual ta'lim trayektoriyasi ishlab chiqishda logoped, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish;
- korreksion mashg'ulotlar mazmuniga leksik-grammatik mashqlar, bog'lanishli nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlar hamda interaktiv metodlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Shuningdek, kelgusida mazkur yo'nalishda kengroq eksperimental tadqiqotlar o'tkazish va statistik jihatdan chuqurroq tahlillarni amalga oshirish bu kabi nutqiy muammolarni erta bartaraf etishda samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. García, R., Pérez, M., & López, A. (2024). Expressive language disorders and academic achievement: A longitudinal study of early school outcomes. Journal of Communication Disorders, 105, 106364. https://doi.org/10.1016/j.jcomdis.2023.106364
2. Merdiasi, F., Valente, E., & Tomasello, M. (2017). Early intervention in expressive language delay: Long-term academic and social outcomes. Early Childhood Research Quarterly, 40, 13–25. https://doi.org/10.1016/j.ecresq.2017.01.003
3. Gorobets, O. (2023). Social-pragmatic difficulties in children with expressive language disorders. Logopedics Phoniatrics Vocology, 48(1), 35–42. https://doi.org/10.1080/14015439.2022.2104567
4. Nzerem, C. U., & Nzerem, C. C. (2020). Expressive language disorder in early childhood: Characteristics and intervention strategies. International Journal of Special Education, 35(2), 45–58.
5. Tufo, A., Rinaldi, P., & Caselli, M. C. (2019). Expressive language delay and its impact on later literacy development. Applied Psycholinguistics, 40(5), 1153–1174. https://doi.org/10.1017/S0142716419000253
6. Leonard, L. B. (2014). Children with specific language impairment (2nd ed.). MIT Press.
7. Conti-Ramsden, G., Durkin, K., Mok, P. L. H., Toseeb, U., & Botting, N. (2018). Health, employment and relationships: Long-term outcomes of children with speech, language and communication needs. International Journal of Language & Communication Disorders, 53(2), 199–215. https://doi.org/10.1111/1460-6984.12338
8. Archibald, L. M. D., & Gathercole, S. E. (2006). Short-term and working memory in specific language impairment. International Journal of Language & Communication Disorders, 41(6), 675–693. https://doi.org/10.1080/13682820500442602

9. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. Cambridge Journal of Education, 41(4), 813–828. https://doi.org/10.1080/0305764X.2011.625005
10. Westwood, P. (2015). Commonsense methods for children with special educational needs (7th ed.). Routledge.
11. Филичева, Т. Б., & Чиркина, Г. В. (1993). Общее недоразвитие речи у детей. Москва: Просвещение.
12. Левина, Р. Е. (1968). Основы теории и практики логопедии. Москва: Просвещение.
13. Лопатина, Л. В. (2004). Логопедическая работа с детьми дошкольного возраста. Санкт-Петербург.
14. Paul, R., & Norbury, C. (2012). Language disorders from infancy through adolescence. St. Louis: Mosby.
15. Правдина, О. В. (2003). Логопедия. Москва: ВЛАДОС.
16. Шомахмудова, Р. Ш. (2010). Логопедия. Ташкент: O'qituvchi.
17. Выготский, Л. С. (1983). Собрание сочинений. Москва: Педагогика.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY MASALALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ibragimova Nozima Ulug'bekovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchi
ORCID: 0009-0005-5745-6599
Pardayeva Hosila Qudratulla qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanishning ta'limiy samaradorligi nazariy va uslubiy jihatdan tahlil qilingan. Kirish qismida mantiqiy masalalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash hamda muammoni yechish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Metodlar bo'limida 1–4-sinflar matematika darslarida qo'llaniladigan mantiqiy masalalarning mazmuni, turlari va ularni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish usullari yoritilgan. Natijalar qismida nazariy tahlil asosida mantiqiy masalalar o'quvchilarning bilish faolligini oshirishi, darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishi hamda fikrlash jarayonini faollashtirishga xizmat qilishi aniqlangan. Muhokama bo'limida olingan xulosalar zamonaviy pedagogik adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, boshlang'ich sinf matematika ta'limida mantiqiy masalalardan tizimli foydalanish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim didaktik omil ekani ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, matematika darslari, mantiqiy masalalar, mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash, muammoni yechish, bilish faolligi, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article presents a theoretical and methodological analysis of the effectiveness of using logical problems in primary school mathematics lessons. The introduction substantiates the importance of logical problems in developing logical thinking, independent reasoning, and problem-solving skills among primary school students. The Methods section describes the content, types, and effective instructional integration of logical problems used in mathematics lessons for grades 1–4. The Results indicate that logical problems enhance students' cognitive activity, increase interest in learning, and stimulate thinking processes. In the Discussion section, the findings are compared with contemporary pedagogical literature, confirming that the systematic use of logical problems is a significant didactic factor in improving the effectiveness of primary mathematics education.

Key words: primary school, mathematics lessons, logical problems, logical thinking, independent reasoning, problem solving, cognitive activity, educational effectiveness.

Аннотация: В статье представлен теоретико-методический анализ эффективности использования логических задач на уроках математики в начальных классах. Во введении обоснована значимость логических задач в формировании логического мышления, самостоятельности и навыков решения проблем у младших школьников. В разделе "Методы" раскрываются содержание, виды логических задач, применяемых на уроках математики в 1–4 классах, а также способы их эффективной интеграции в учебный процесс. В разделе "Результаты" на основе теоретического анализа установлено, что логические задачи способствуют повышению познавательной активности учащихся, усилению интереса к обучению и активизации мыслительной деятельности. В разделе "Обсуждение" полученные выводы сопоставляются с современными педагогическими исследованиями, что позволяет научно обосновать целесообразность систематического применения логических задач в начальном математическом образовании.

Ключевые слова: начальные классы, уроки математики, логические задачи, логическое мышление, самостоятельное мышление, решение проблем, познавательная активность, эффективность обучения.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf matematika darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda nafaqat hisoblash ko'nikmalarini, balki mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash hamda muammoni yechish qobiliyatlarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning fikrlash faoliyati keyingi

ta'lim jarayonining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli matematika darslarida o'quvchilarning aqliy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mantiqiy masalalar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mantiqiy masalalar o'quvchilardan tayyor algoritmlarni qo'llashni emas, balki vaziyatni anglash, sabab–oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda noan'anaviy yechimlarni izlashni talab etadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ va tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf matematika darsliklarida beriladigan mantiqiy masalalar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lib, ularni darsga qiziqtirish, faol ishtirokini ta'minlash hamda mustaqil fikrlashga yo'naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mantiqiy masalalardan tizimli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning matematik nutqini rivojlantirish, mantiqiy xulosalar chiqarish hamda muammoni yechish strategiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf matematika ta'limida mantiqiy masalalardan foydalanish masalasi pedagogika va matematika o'qitish metodikasi sohasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash hamda muammoni yechish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi [1]. Shu nuqtayi nazardan, matematika darslarida mantiqiy masalalar samarali didaktik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda mantiqiy masalalar o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish kabi fikrlash amallarini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Xususan, boshlang'ich ta'limga oid metodik manbalarda mantiqiy masalalarning o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi, dars jarayonida ularni bosqichma-bosqich qo'llash muhimligi ko'rsatib o'tiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda mantiqiy masalalar muammoli vaziyat yaratish, o'quvchini faol fikrlashga undash hamda matematik bilimlarni ongli o'zlashtirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida talqin etiladi [2]. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Shuningdek, matematika ta'limiga oid tadqiqotlarda mantiqiy masalalar o'quvchilarning matematik nutqini rivojlantirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va muammoni yechish strategiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi [3]. Tahlil qilingan adabiyotlar mantiqiy masalalardan foydalanish masalasi ilmiy jihatdan asoslanganligini ko'rsatsa-da, ularni boshlang'ich sinf matematika darslarida metodik jihatdan tizimli qo'llash masalasi dolzarb bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish orqali o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilib qo'yildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, didaktik modellashtirish, mantiqiy masalalar yechimini tahlil qilish hamda pedagogik kuzatuv usullariga tayangan holda olib borildi [1].

Tadqiqot jarayonida 2–4-sinflar matematika kursida o'rganiladigan arifmetik amallar, tenglik va tengsizliklar, vaqt, masofa, miqdor hamda mantiqiy bog'lanishlarga oid masalalar tanlab olinib, ular fanlararo integratsiya asosida ishlab chiqildi. Masalalar kundalik hayotiy vaziyatlarga tayangan holda tuzilib, o'quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish faoliyatini faollashtirishga yo'naltirildi [4].

1-masala. **G'amlangan yem otning bir o'ziga 20 kunga, sigirning bir o'ziga 30 kunga, toychoqning bir o'ziga 60 kunga yetadi. Ot, sigir va toychoq ushbu yemni birgalikda yesa, yem necha kunga yetadi?**

G'amlangan yem:

- otga 20 kunga,
- sigirga 30 kunga,
- toychoqqa 60 kunga yetadi.

Agar ot, sigir va toychoq yemni birgalikda yesa, yem necha kunga yetadi?

Tasavvur qilaylik, bir xil miqdordagi yem mavjud. Ot uni 20 kunda, sigir 30 kunda, toychoq esa 60 kunda tugatadi. Doskaga uchta teng to'rtburchak chiziladi (bitta yemni ifodalaydi). Eng qulay bo'laklash usuli sifatida yem 60 ta teng bo'lakka bo'linadi.

Shunda:

- ot bir kunda 3 bo‘lak,
- sigir bir kunda 2 bo‘lak,
- toychoq bir kunda 1 bo‘lak yem yeydi.

Bir kunda birgalikda 1 + 2 + 3 = 6 bo‘lak yem yeyiladi. Yem jami 60 bo‘lakdan iborat bo‘lgani uchun 60 : 6 = 10 kun.

Demak, ot, sigir va toychoq yemni birgalikda yesa, yem 10 kunga yetadi.

2-masala. **Yozuvi o‘ngdan chapga ham, chapdan o‘ngga ham bir xil o‘qiladigan so‘z yoki son palindrom deb ataladi. 25952 sonidan oldingi va keyingi palindrom sonlar qaysilar?** [5]

Yechish. Palindrom sonlar ko‘zgudagi aksga o‘xshaydi: sonning boshi oxiri bilan, ichki raqamlari esa o‘zaro mos keladi. 25952 sonining tuzilishiga e’tibor beramiz. Bu yerda:

- 1-raqam 5-raqamga teng (2 va 2),
- 2-raqam 4-raqamga teng (5 va 5),
- markazda esa 9 raqami joylashgan.

Oldingi palindrom son. Oldingi palindromni topish uchun markazdagi raqam 1 ga kamaytiriladi, qolgan raqamlar o‘zgarmaydi. Natijada 25852 – 25952 dan oldingi palindrom son hosil bo‘ladi.

Keyingi palindrom son. Keyingi palindromni topish uchun markazdagi raqam 1 ga oshiriladi. Biroq markazda 10 bo‘lishi mumkin emasligi sababli birlik tashqi juftliklarga o‘tadi. Natijada markaz 0 bo‘ladi, tashqi qism esa 259 dan 260 ga oshadi. Shunday qilib, 26062 – 25952 dan keyingi palindrom son hisoblanadi.

3-masala. **Sentabr oyining birinchi yarmining o‘rtasi seshanba kuniga to‘g‘ri keladi. Sentabr oyining ikkinchi yarmining o‘rtasi haftaning qaysi kuniga to‘g‘ri keladi?** [6]

Yechish. Sentabr oyi 30 kundan iborat. Birinchi yarmi 1–15-sentabr kunlarini qamrab oladi. Uning o‘rtasi 8-sentabr bo‘lib, u seshanba kuniga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi yarmi 16–30-sentabr kunlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu davrning o‘rtasi 23-sentabrga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, 8-sentabr, 15-sentabr va 22-sentabr kunlari seshanba bo‘ladi. Shunday ekan, 23-sentabr chorshanba kuniga to‘g‘ri keladi.

4-masala. **Fermadagi tovuq va qo‘ylarning boshlari soni 90 ta, oyoqlari soni esa 240 ta. Fermada nechta tovuq va nechta qo‘y bor?**

Masala sxemasi:

- boshlari: 90 ta,
- oyoqlari: 240 ta.

1-usul. Agar fermadagi barcha hayvonlarni tovuq deb faraz qilsak, 90 × 2 = 180 ta oyoq bo‘lar edi. Oyoqlar sonidagi farq 240 − 180 = 60 ta bo‘lib, bu qo‘ylarning ortiqcha oyoqlari hisoblanadi.

60 : 2 = 30 ta qo‘y, 90 − 30 = 60 ta tovuq aniqlanadi.

2-usul. Agar fermadagi barcha hayvonlarni qo‘y deb faraz qilsak, 90 × 4 = 360 ta oyoq bo‘lar edi. Oyoqlar sonidagi farq 360 − 240 = 120 ta bo‘lib, bu tovuqlarning ortiqcha oyoqlari hisoblanadi. 120 : 2 = 60 ta tovuq, 90 − 60 = 30 ta qo‘y aniqlanadi.

3-usul (algebraik usul). Fermadagi qo‘ylar sonini x deb olsak, ularning oyoqlari 4x ga teng bo‘ladi. Tovuqlar soni 90 − x bo‘lib, ularning oyoqlari 2(90 − x) ga teng.

Tenglama tuzamiz:

$4x + 2(90 - x) = 240$

$2x + 180 = 240$

$2x = 60$

$x = 30$

Demak, fermada 30 ta qo‘y va 60 ta tovuq mavjud.

Tadqiqot davomida mantiqiy masalalar tayyor algoritmlar asosida emas, balki masala shartini chuqur tahlil qilish, fanlararo bog‘lanishlarni aniqlash va bir nechta yechim variantlarini muhokama qilish orqali yechildi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda samarali natija berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash faoliyatini faollashtirishi aniqlandi. Hayotiy vaziyatlarga asoslangan, ko'rgazmali va tahlilni talab qiluvchi masalalar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirib, ularning mustaqil fikr yuritishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, mantiqiy masalalar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda masala shartini tushunish, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlandi. Ayniqsa, bir masalani bir nechta usulda yechish imkoniyati o'quvchilarning kreativ yondashuvini kuchaytirdi (1-jadval).

1-jadval: **Masala turlari bo'yicha o'quvchilarning faollik darajasi (foizlarda)**

Masala turlari	Faollik darajasi (%)
Birgalikda bajariladigan ishga oid masalalar	88
Son tuzilishiga (palindrom) oid masalalar	82
Vaqt va sana bilan bog'liq masalalar	75
Boshlari va oyoqlari soniga oid masalalar	90

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kundalik hayot bilan bog'liq va ko'rgazmali yechimga ega masalalar o'quvchilar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilingan. Xususan, fermadagi hayvonlarga oid masala eng yuqori faollikni ta'minlagan(2-jadval).

2-jadval: **Masalalarni yechishda qo'llaniladigan usullar (foizlarda)**

Yechish usullari	Ulushi (%)
Ko'rgazmali (bo'laklash, chizma)	85
Mantiqiy mulohaza	78
Taqqoslash va faraz qilish	73
Algebraik usul	40

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kundalik hayot bilan bog'liq va ko'rgazmali yechimga ega masalalar o'quvchilar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilingan. Xususan, fermadagi hayvonlarga oid masala eng yuqori faollikni ta'minlagan.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur turdagi masalalar o'quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi fikrlash amallarini faollashtiradi [7].

Xususan, yemga oid birinchi masalada o'quvchilar miqdorlarni bo'laklash va birlik vaqt ichida bajariladigan ish hajmini aniqlash orqali mantiqiy mushohada yuritishga o'rgandilar. Vizual modellashtirishdan foydalanish masalaning mazmunini anglashni osonlashtirib, o'quvchilarning sabab–oqibat bog'lanishlarini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu holat mantiqiy masalalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos va samarali ekanligini tasdiqlaydi [8].

Palindrom sonlarga oid ikkinchi masala o'quvchilarning son tuzilishini tahlil qilish va simmetriya elementlarini anglashiga xizmat qildi. Masalani yechish jarayonida o'quvchilar faqat tayyor algoritmga amal qilish bilan cheklanmay, balki sonlar ichki tuzilishini mustaqil ravishda tahlil qildilar. Bu esa matematik tafakkur bilan bir qatorda kreativ yondashuvning shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Olingan natijalar mantiqiy masalalarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [9].

Vaqt tushunchasiga oid uchinchi masala real hayotiy vaziyat asosida tuzilgan bo'lib, o'quvchilarning ketma-ketlik va davriylikni anglash ko'nikmalarini mustahkamladi. Haftaning kunlarini sanalar bilan bog'lash orqali o'quvchilar matematik bilimlarni kundalik hayot bilan integratsiyalash imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa fanlararo bog'liqlikni ta'minlashda mantiqiy masalalarning samaradorligini namoyon etdi [8].

Tovuq va qo'ylarga oid to'rtinchi masalada bir muammoni bir nechta usulda yechish imkoniyati yaratilgani o'quvchilarning moslashuvchan fikrlashini rivojlantirdi. Arifmetik va mantiqiy taxmin usullari bilan bir qatorda algebraik usuldan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini tenglama tushunchasiga bosqichma-bosqich tayyorlashga xizmat qildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'p usullilikka asoslangan masalalar o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini umumlashtirishda ayrim metodik cheklovlarni ham hisobga olish zarur. Xususan, mantiqiy masalalarning samaradorligi ularning o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos tanlanishiga, shuningdek, o‘qituvchining metodik mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli kelgusida bunday masalalardan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, muhokama natijalari mantiqiy masalalardan tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda foydalanish boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan tizimli va maqsadli foydalanish o‘quvchilarning bilish jarayoni, mantiqiy tafakkuri hamda muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanini ko‘rsatdi. Pedagogik kuzatishlar, diagnostik topshiriqlar va o‘quv faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish asosida mantiqiy masalalar o‘quvchilarning masalani tahlil qilish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini faollashtirishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning mustaqil yechim izlashga bo‘lgan intilishi, o‘z fikrini asoslab bayon etish qobiliyati hamda matematik nutqining rivojlanishi kuzatildi. Bu holat mantiqiy masalalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshirish, ijodiy va reflektiv fikrlashni shakllantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar mantiqiy masalalarni boshlang‘ich sinf matematika darslarida dars mazmuniga mos ravishda tanlash va qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishga imkon berishini ko‘rsatadi. Shu bois, mantiqiy masalalardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishda muhim didaktik vosita sifatida tavsiya etiladi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda mantiqiy masalalarning fanlararo integratsiya imkoniyatlari, raqamli ta’lim vositalari bilan uyg‘unligi hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan variantlarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimova K., Matjonov S. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2018.
2. Sobirova M. R. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2020.
3. Skemp R. The Psychology of Learning Mathematics. London: Routledge, 2016.
4. Yo‘ldoshev J. Fanlararo integratsiya asoslari. Toshkent, 2019.
5. Repyova I. P. Matematika. 4-sinf, IV qism. Darslik. Toshkent: Novda, 2023.
6. Repyova I. P. Matematika. 3-sinf, I qism. Darslik. Toshkent: Novda, 2023.
7. Jumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
8. Bikbayeva N. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
10. Ибрагимова Н. (2024). Matematika va fizika fanlarini bevosita bog‘lab o‘qitishda interfaol metodlarning o‘rni. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1103–1110.
11. Ibragimova N. (2024). Matematika va fizika fanlarini o‘zaro bog‘lab o‘qitishda matematik olimpiada va tanlovlarning o‘rni. News of the NUUz, 1(1.6), 83–85.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHINING KREATIV ROLI

UDK: 373.2:37.036

Botirova Lobar Kamolovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi magistri

ORCID: 0009-006-1497-5329

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida tarbiyachining kreativ faoliyati, pedagogik mahorati va innovatsion yondashuvlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Ijodiy muhitni shakllantirish, interaktiv metodlardan foydalanish, o'yin, san'at va muammoli vaziyatlar orqali bolalarning tasavvur va tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, tarbiyachining shaxsiy namunasi va kasbiy kompetensiyasi bolalar ijodkorligining muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijodiy qobiliyat, kreativlik, tarbiyachi, pedagogik mahorat, innovatsion metodlar, ijodiy muhit.

Abstract: This article analyzes the importance of the educator's creative activity, pedagogical skills, and innovative approaches in the process of developing creative abilities in preschool children. It highlights the formation of a creative environment and the development of children's imagination and thinking through interactive methods, games, art, and problem-based situations. Furthermore, the educator's personal example and professional competence are substantiated as key factors in fostering children's creativity.

Key words: preschool education, creative abilities, creativity, educator, pedagogical skills, innovative methods, creative environment.

Аннотация: В данной статье анализируется значение креативной деятельности воспитателя, его педагогического мастерства и инновационных подходов в процессе развития творческих способностей детей дошкольного возраста. Освещаются вопросы формирования творческой среды, использования интерактивных методов, игр, искусства и проблемных ситуаций для развития воображения и мышления детей. Также обосновывается, что личный пример и профессиональная компетентность воспитателя являются важными факторами формирования детской креативности.

Ключевые слова: дошкольное образование, творческие способности, креативность, воспитатель, педагогическое мастерство, инновационные методы, творческая среда.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – ijodiy fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va innovatsion tashabbus ko'rsatishga qodir shaxsni tarbiyalashdir. Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida inson kapitalining sifati, ayniqsa, yosh avlodning intellektual va kreativ salohiyati davlatning barqaror rivojlanish omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim bosqichi bolalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning poydevor davri hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning psixik jarayonlari – tasavvur, tafakkur, nutq va emotsional sezgirlik jadal rivojlanadigan bosqichdir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni faol o'zlashtiradi, o'yin va ijodiy faoliyat orqali o'z "men"ini anglay boshlaydi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur. Bu jarayonda tarbiyachining kreativ yondashuvi, innovatsion metodlardan foydalanishi va pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri – har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Yosh avlodni ma'naviy va intellektual jihatdan yetuk etib voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ilm-fan taraqqiyoti va madaniy darajasi bevosita ta'lim tizimining sifati va samaradorligi bilan belgilanadi [1].

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish, ayniqsa, maktabgacha bosqichdan boshlab ta'lim sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimining jamiyat hayotidagi o'rni haqida shunday ta'kidlagan edi: "Maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi" [2].

Mazkur fikrlar maktabgacha ta'lim bosqichining yosh avlod tafakkurini shakllantirishdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli muhim omil sifatida maydonga chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasi jahon pedagogik va psixologik tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Amerikalik olim J. P. Guilford divergent fikrlash nazariyasini ishlab chiqib, ijodkorlikni noodatiy yechim topish qobiliyati bilan bog'laydi. E. P. Torrance esa ijodiy fikrlashni baholash metodikasini ishlab chiqqan bo'lib, ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini asoslab bergan [4].

L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida esa bolaning ijodiy qobiliyati ijtimoiy muhit va kattalar bilan o'zaro hamkorlik jarayonida shakllanishi ta'kidlanadi. "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi bolalarning mustaqil fikrlashga o'tish jarayonida pedagogning yo'naltiruvchi rolini belgilaydi [5].

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar va ijodkorlikni rivojlantirishga oid qator ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va STEAM yondashuvi bolalarning analitik hamda badiiy tafakkurini uyg'un rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan [6; 7].

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda maktabgacha yoshdan boshlab ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash barqaror rivojlanish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ rolini aniqlash va ilmiy asoslashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, bolalar psixologiyasi hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'zaro integratsiyasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Unda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyili, faoliyatga asoslangan yondashuv va konstruktivistik pedagogik konsepsiyalar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida bolaning ijodiy rivojlanishi ijtimoiy muhit, pedagogik sharoit va tarbiyachining kasbiy mahorati bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqildi. Metodologik jihatdan bola ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida talqin etildi, ya'ni uning mustaqil fikrlashi, tasavvuri va tashabbuskorligi asosiy o'ringa qo'yildi. Shu nuqtayi nazardan, tarbiyachining kreativ faoliyati bolalarda ijodiy tafakkurni faollashtiruvchi muhim omil sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim muhitida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda o'rganildi. Shuningdek, pedagogik jarayonni tahlil qilish, kuzatish, tajriba-sinov ishlari, suhbat va diagnostik metodlardan foydalanildi. Amaliy bosqichda innovatsion metodlar (muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat, o'yin texnologiyalari, STEAM elementlari) qo'llanilib, ularning bolalar ijodiy faolligiga ta'siri kuzatildi va natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologik jihatdan tadqiqot nazariy va amaliy bosqichlarning uzviy bog'liqligiga asoslandi. Nazariy tahlil orqali ijodiy qobiliyat va kreativlik tushunchalarining pedagogik mazmuni aniqlashtirildi, amaliy bosqichda esa tarbiyachining kreativ yondashuvi bolalarning mustaqil fikrlash, tasavvur va muammoni hal etish ko'nikmalariga qanday ta'sir ko'rsatishi empirik ravishda o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yondashuvi shundan iboratki, unda tarbiyachining kreativ roli faqat metodik vosita sifatida emas, balki pedagogik jarayonning strategik omili sifatida talqin qilindi. Bu esa maktabgacha ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yosh davri bolaning psixofiziologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida tayanch bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda shaxsning asosiy sifatlari, dunyoqarashi, idrok jarayonlari hamda ijodiy tafakkurining dastlabki elementlari shakllana boshlaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini erta aniqlash, ularni rag'batlantirish va izchil rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Bolalarning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish jarayoni ijodiy tafakkur, tasavvur, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish hamda estetik didni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Bunday rivojlanish faqat an'anaviy reproduktiv metodlar asosida emas, balki innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'limiy yondashuvlar orqali samarali tashkil etilishi mumkin [8].



1-rasm: **Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli va zamonaviy pedagogik yondashuvlar modeli**

O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar maktabgacha ta’lim mazmunini yangilash va boyitishni taqozo etmoqda. Endilikda tarbiyachidan nafaqat bilim berish, balki bolalarning tafakkurini faollashtirish, ularning ijodiy va analitik salohiyatini rivojlantirish talab etilmoqda. Bu jarayonda tarbiyachining kreativ yondashuvi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Pedagogning yangicha fikrlashi, innovatsion loyihalarni ishlab chiqishi va ta’lim jarayoniga integratsiya qilishi bolalarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Mashg‘ulot jarayonlarini mazmunan boyitish, ularni jonlantirish va bolalarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish hozirgi ta’lim texnologiyalarining asosiy tamoyiliga aylangan. Xususan, muammoli vaziyatlar, o‘yin texnologiyalari, loyihaviy ta’lim hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. STEAM yondashuvi esa ilmiy va badiiy tafakkurni uyg‘un holda rivojlantirish imkonini beradi. Amaliy tajribalar, konstruktorkilik faoliyati, tasviriy san’at va matematik topshiriqlar orqali bola bir vaqtning o‘zida analitik hamda estetik idrokni shakllantiradi. Bu jarayonda tarbiyachi tashkilotchi va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi [9].

Shuningdek, TRIZ texnologiyasi (ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi) bolalarda noodatiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda kreativ yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bolani izlanishga, tashabbuskorlikka va yangilik yaratishga undaydi. Pedagog TRIZ elementlaridan foydalangan holda bolalarning qidiruv faolligini kuchaytiradi, ularni “har bir vaziyatda ijodkorlik” tamoyiliga asoslangan fikrlashga yo‘naltiradi [10].

Ijodiy qobiliyat – bu yangi g‘oya, tasvir yoki faoliyat mahsulini yaratishga intilish, intellektual va emotsional faollikning uyg‘unlashgan ko‘rinishidir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlik divergent fikrlash, tasavvur va ichki motivatsiya bilan chambarchas bog‘liq [8]. Maktabgacha yoshda bola o‘yin, musiqa, dramatik ifoda va tasviriy faoliyat orqali o‘z dunyoqarashini namoyon etadi. Shu sababli mazkur faoliyat turlarini maqsadli va tizimli tashkil etish ijodiy qobiliyatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim muhitiga bog‘liq. Ijodiy muhitda bola o‘z fikrini erkin ifoda etadi, xatolardan qo‘rqmaydi va tashabbus ko‘rsatishga intiladi. Tarbiyachi esa bu jarayonda motivator, maslahatchi va ilhomlantiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi. U bolalarning har bir g‘oyasiga hurmat bilan yondashib, individual qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ijobiy pedagogik muhit yaratadi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va tarbiyachining kreativ kompetensiyasini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat bolaning shaxs sifatida kamol topishiga, balki jamiyatning intellektual va madaniy taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi(1-rasm).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yosh davri bolada ijodiy tafakkur, tasavvur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni tasodifiy emas, balki maqsadli, tizimli va pedagogik jihatdan puxta tashkil etilgan faoliyatni talab qiladi. Ayniqsa, tarbiyachining kreativ roli bu jarayonda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy muhit yaratuchi, bolalarda tashabbus va erkin fikrlashni rag‘batlantiruvchi shaxsdir. Uning innovatsion yondashuvlardan foydalanishi, o‘yin, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar va integratsiyalashgan ta’lim metodlarini qo‘llashi bolalarning intellektual hamda estetik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kreativ pedagog o‘z faoliyatida bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, har bir bolaning ichki imkoniyatlarini ochishga intiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bolalarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal etish, tasavvur kengligi va ijodiy yondashuvni shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Biroq bu texnologiyalarning natijadorligi, avvalo, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi va kreativ tafakkuriga bog‘liqdir.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish.
2. Ta’lim jarayoniga innovatsion metodlarni (muammoli ta’lim, STEAM elementlari, loyihaviy faoliyat, ijodiy o‘yin texnologiyalari) tizimli ravishda integratsiya qilish.
3. Har bir guruhda ijodiy muhitni shakllantirish, bolalarning erkin fikr bildirishi va tashabbus ko‘rsatishi uchun pedagogik sharoit yaratish.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ijodiy rivojlanishning uzluksizligini ta'minlash.
5. Bolalarning ijodiy salohiyatini aniqlash va monitoring qilish uchun diagnostik vositalarni amaliyotga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda tarbiyachining kreativ roli ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion yondashuvlarga tayangan holda tashkil etilgan ta'lim muhiti bolalarda erkin tafakkur, tashabbuskorlik va ijodkorlikni shakllantirish orqali kelajakda barkamol shaxsni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son qarori: https://lex.uz/docs/-4327235
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2019). O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi. Rasmiy chiqishlardan.
3. Yuldasheva, Z. M. (2021). Ijodiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar. Maqsad va Natija, №3.
4. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Ginn & Co.
5. Vygotsky, L. S. (1996). Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. Yuldasheva, Z. M. (2021). Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: "Fan va taraqqiyot" nashriyoti.
7. Karimova, M. (2023). Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi orqali bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti, №2.
8. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Ginn & Co.
9. Altshuller, G. S. (1984). Creativity as an Exact Science: The Theory of the Solution of Inventive Problems (TRIZ). Gordon and Breach Science Publishers.
10. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454.

O‘QUVCHILARDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Kaipova Tazagul
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kegayli tumani,
21-son umumta’lim maktabi, matematika fani o‘qituvchisi

Kaipova Elmira
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Kegayli tumani,
21-son umumta’lim maktabi, matematika va informatika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tahlil qilinadi. Mantiqiy fikrlash tahlil qilish, sintez qilish, xulosa chiqarish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga olgan kognitiv jarayon bo‘lib, uning shakllanishi maktab ta’limi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish uchun turli mashqlar, interaktiv metodlar va amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mashqlarni bosqichma-bosqich qo‘llash, bahslashish hamda g‘ayrioddiy yechimlarni topishga rag‘batlantirish metodlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, o‘quvchilar, mashqlar, tahlil, sintez, mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, bahslashish, g‘ayrioddiy yechimlar, interaktiv metodlar.

Abstract: This article analyzes exercises aimed at developing logical thinking in students. Logical thinking is a cognitive process that includes the skills of analysis, synthesis, drawing conclusions, and independent decision-making, the formation of which is essential for increasing the effectiveness of school education. The article examines various exercises, interactive methods, and practical approaches to teaching students logical thinking. In addition, methods for the gradual application of exercises, encouraging argumentation, and promoting the search for unconventional solutions are also discussed.

Key words: logical thinking, students, exercises, analysis, synthesis, independent thinking, reasoning, argumentation, unconventional solutions, interactive methods.

Аннотация: В данной статье анализируются упражнения, направленные на развитие логического мышления у учащихся. Логическое мышление представляет собой познавательный процесс, включающий навыки анализа, синтеза, умозаключения и самостоятельного принятия решений, формирование которого имеет важное значение для повышения эффективности школьного образования. В статье рассматриваются различные упражнения, интерактивные методы и практические подходы к обучению учащихся логическому мышлению. Также освещаются методы поэтапного применения упражнений, поощрения аргументации и поиска нестандартных решений.

Ключевые слова: логическое мышление, учащиеся, упражнения, анализ, синтез, самостоятельное мышление, рассуждение, аргументация, нестандартные решения, интерактивные методы.

KIRISH

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir. O‘quvchilarda mantiqiy fikrlash – tahlil qilish, sintez qilish, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan murakkab kognitiv jarayon hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda o‘quvchilar ko‘pincha murakkab va ko‘p qirrali vazifalarga duch keladilar, shu sababli pedagoglar ularda mantiqiy fikrlashni mustahkamlash hamda g‘ayrioddiy yechimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlarni qo‘llashlari zarur.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda mashqlar, interaktiv topshiriqlar, muammoli vazifalar va bahs-munozaralar asosiy vosita hisoblanadi. Shu orqali o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muloqot qilish va g‘ayrioddiy yechimlarni izlash ko‘nikmalari shakllanadi. Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich yondashuv hamda mavzuga mos mashqlar tizimi zarur.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tahlil qilinadi, amaliy metodlar va xorijiy tajribalar ko‘rib chiqiladi hamda pedagoglar uchun samarali tavsiyalar beriladi. Prezident qarorlari mazmuni ta’lim tizimida mantiqiy fikrlashni shakllantirish va o‘quvchilarning analitik qobiliyatlarini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini yoritib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarda yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonda tahlil qilish, sintez qilish, tushunchalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, bahslashish hamda eng muhimi – mustaqil fikrlash odatini rivojlantirish va g‘ayrioddiy yechimlarni izlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy faoliyat boshqa har qanday faoliyat kabi o‘qitilishi va rivojlantirilishi lozim. Zamonaviy sharoitda o‘quvchilar ko‘pincha murakkab va ko‘p qirrali vazifalarga duch keladilar. Shu sababli pedagoglar uchun mantiqiy fikrlashni tizimli ravishda rivojlantirish bugungi kunda dolzarb va muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash rivojlanishining nazariy asoslari psixologiya va pedagogika sohasidagi ko‘plab olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Jumladan, P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, S. L. Rubinshteyn, P. Ya. Galperin, A. N. Leontiyev, A. R. Luriya, P. I. Zinchenko, A. A. Smirnov, B. M. Velichkovskiy, G. G. Vuchetich, Z. M. Istomina, G. S. Ovchinnikov hamda J. Piagetning ilmiy ishlari ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ularning tadqiqotlari mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat matematik va tabiiy fanlarda, balki kundalik hayotda hamda ijodiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, pedagoglar mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarga tahlil va sintez qilish, bahslashish hamda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi mashqlarni qo‘llashlari zarur. Shu bilan birga, g‘ayrioddiy yechimlar va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar bolalarda mustaqil fikrlash odatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘quv jarayonida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun interaktiv metodlar, onlayn testlar, matematik va mantiqiy o‘yinlar, muammoli vazifalar hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati samarali vosita hisoblanadi. Shu tariqa, mantiqiy fikrlash nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayonini o‘rganish maqsadida empirik va nazariy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar matematika darslari jarayonida o‘tkazilgan kuzatishlar, mantiqiy masalalar asosida tuzilgan topshiriqlar, diagnostik testlar hamda o‘quvchilarning yozma va og‘zaki javoblarini tahlil qilish orqali to‘plandi. Shuningdek, o‘qituvchilar bilan suhbat va so‘rovnoma usullari ham qo‘llanildi. Olingan ma’lumotlar taqqoslash, guruhlash va tahlil qilish metodlari yordamida qayta ishlanib, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasidagi o‘zgarishlar aniqlandi. Natijalar grafik va tavsifiy tahlil asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Matematika fanini o‘qitish o‘quvchilarni nafaqat raqamlar va formulalar bilan tanishtiradi, balki ularni mantiqiy tafakkurga, tizimli fikrlashga hamda muammolarni hal qilish qobiliyatiga o‘rgatadi. Matematika darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda mantiqiy masalalar muhim rol o‘ynaydi. Mantiqiy masalalar matematikaning ajralmas qismi bo‘lib, muammoni tahlil qilish va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Shu sababli matematika fanini o‘qitishda mantiqiy masalalar o‘quvchilarni faqat matematik bilimlar bilan ta’minlabgina qolmay, balki ularni hayotdagi real muammolarni hal qilishga ham tayyorlaydi. Matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning analitik va mantiqiy tafakkurini kuchaytirish ta’lim jarayonining muhim maqsadlaridan biridir. Mustaqil fikrlash, shuningdek, o‘quvchilarni o‘z bilimlarini chuqurroq tushunishga va ularni turli muammolarni hal etishda samarali qo‘llashga undaydi.

Mantiqiy masalalar matematik tafakkurni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada matematika fanini o‘qitishda mantiqiy masalalarning o‘rni va ahamiyati, shuningdek, ularni samarali qo‘llash usullari va misollari keltiriladi. Mantiqiy masalalar o‘quvchilarga nafaqat matematik bilimlarni o‘zlashtirishga, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, muammolarni hal qilishga va yangi bilimlarni izlashga ham yordam beradi.

Mantiqiy masalalar – mustaqil fikrlashni rivojlantirish vositasi. Mantiqiy masalalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biridir. Ular o‘quvchilardan muammoni tushunishni, ehtimoliy yechimlarni izlashni, turli fikrlarni tahlil qilishni va natijani mantiqiy asosda xulosa qilishni talab etadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarni nafaqat bilimga ega bo‘lishga, balki fikrni mustaqil tarzda ishlab chiqish va taqdim etishga ham o‘rgatadi.

Kreativlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Mantiqiy masalalar o‘quvchilarning kreativ fikrlashini ham rivojlantiradi. O‘quvchilar turli masalalarni hal etishda yangi usullarni izlaydilar, xatolardan saboq oladilar va ularni to‘g‘rilashga harakat qiladilar. Ushbu jarayon o‘quvchilarda matematik fikrlashning yangi usullarini izlash va aniqlashga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Muammolarni hal qilish ko‘nikmalari. Mantiqiy masalalar orqali o‘quvchilar muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday masalalar murakkablikni soddalashtirish, xatoliklarni tuzatish va yechimning turli variantlarini ko‘rib chiqish kabi strategiyalarni qo‘llashni talab etadi. Natijada o‘quvchilar muammolarni hal qilishda muqobil yondashuvlarni ishlab chiqadilar, bu esa mustaqil fikrlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Matematik modellashtirish va analitik fikrlash. Mantiqiy masalalar o‘quvchilarga matematik modellashtirish va analitik fikrlashni o‘rgatadi. O‘quvchilar masalani hal etish jarayonida matematik modellarni yaratish, ularni tahlil qilish va mos yechimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu ko‘nikmalar o‘quvchilarga murakkab vazifalarni samarali hal etish imkonini beradi va kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash va mantiqiy xulosa. Mantiqiy masalalar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki ular yechimlarni tahlil qilish, bir nechta variantlarni ko‘rib chiqish va mantiqiy xulosa chiqarishni talab etadi. O‘quvchilar har bir masalaning yechimi bo‘yicha fikr yuritadilar va o‘z javoblarini asoslashni o‘rganadilar. Bu jarayon ularda nafaqat matematik bilimlarni, balki umumiy tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Mantiqiy masalalar o‘quvchilarga muammoni hal etishda erkin fikrlashni, tadqiq qilishni va o‘ziga xos yondashuvlarni yaratishni o‘rgatadi. Masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilar o‘z xulosalarini boshqalarga taqdim etish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va o‘z fikrlarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mantiqiy masalalarning turlari. Mantiqiy masalalar – o‘quvchilardan aniq va tartibli fikrlashni talab qiladigan masalalardir. Ushbu masalalar ko‘pincha matematik tushunchalarni amaliyotda qo‘llash, mantiqiy xulosalar chiqarish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Mantiqiy masalalar asosan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Algebraik mantiq masalalari – algebraik ifodalar va tenglamalarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar formulalar va tenglamalar yordamida mantiqiy xulosalar chiqaradilar.
2. Geometrik mantiq masalalari – geometrik shakllar va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishga qaratilgan masalalar.
3. Kombinatorik masalalar – mavjud obyektlar o‘rtasidagi mumkin bo‘lgan kombinatsiyalarni hisoblashga doir masalalar.
4. Analitik mantiq masalalari – matematik tahlil va funksiyalarni o‘z ichiga olgan masalalar.

Mantiqiy masalalarning o‘quvchilar fikrlash qobiliyatiga ta’siri. Mantiqiy masalalar o‘quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi:

1. Analitik tafakkur – masalalarni yechishda analitik yondashuvni qo‘llash.
2. Muammolarni hal qilish qobiliyati – turli muammolarni yechish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqish.
3. Xulosa chiqarish – aniq va asoslangan xulosalar chiqarish orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish.
4. Kreativ fikrlash – noan’anaviy yechimlarni talab qiluvchi masalalar orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Mantiqiy masalalar bo‘yicha misollar

Algebraik mantiq masalasi. Agar x+123=1000 tenglamasining yechimini toping.

Yechim:

x+23=100 tenglama bo‘yicha x ni topish uchun 1000 dan 123 ni ayiramiz: x=1000-123 x=877.

Izoh: Bu masala o‘quvchini algebraik mantiqni qo‘llashga va xulosalar chiqarishga o’rgatadi.

Geometrik mantiq masalasi: Uchburchakning ikki burchagi 50° va 60° ga teng. Uchinchisi necha gradus?

Yechim:

Uchburchakning ichki burchaklari yig‘indisi 180° bo‘lishini bilamiz. 180°−50°−60°=70°.

Demak, uchinchisi 70°.

Izoh: Ushbu masala o‘quvchini geometrik xususiyatlarni tahlil qilishga undaydi va mantiqiy ravishda burchaklar yig‘indisini hisoblashni talab qiladi.

Analitik mantiq masalasi:

Masala: Agar f(x)=2x+3 funksiya berilgan bo‘lsa, f(4) ni toping.

Yechim:

Funksiyani x=4 ga qo‘llaymiz:

f(4)=2(4)+3=8+3=11.

Izoh: Bu masala analitik mantiqni qo‘llashni o‘rgatadi va funksiyalarni tahlil qilishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mantiqiy masalalar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir. Ular o‘quvchilarda matematik va kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, muammolarni hal etish hamda ularga ijodiy yondashishni o‘rgatadi. Shu tariqa, mantiqiy masalalar nafaqat matematik bilimlarni, balki umumiy fikrlash ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi, bu esa o‘quvchilarning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy masalalar nafaqat matematik bilimlarni oshiradi, balki analitik fikrlashni, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, o‘qituvchilar mantiqiy masalalarni dars jarayoniga muntazam kiritish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni samarali yechishga hamda kreativ yondashuvlarni qo‘llashga yo‘naltirishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blonskiy P., Vygotskiy L.S., Rubinshteyn S.L., Galperin P.Ya., Leontiyev A.N. Psikhologiya razvitiya myshleniya u detey. – Moskva: Prosveshcheniye, 1983. – 256 b.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – New York: Routledge, 2001. – 336 p.
3. Smirnov A.A. Razvitie kognitivnykh protsessov u shkolnikov. – Moskva: Pedagogika, 1985. – 192 b.
4. Istomina Z.M. Razvitie myshleniya i uchenie detey. – Moskva: Nauka, 1990. – 224 b.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI ZAMONAVIY KASB-HUNARLARGA QIZIQTIRISHDA INTEGRATIV USULLARDAN FOYDALANISH

Ergasheva Nigora Erkinovna
Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga qiziqtirishning samarali yo'llari, mazkur jarayonda integrativ usullardan foydalanishning ahamiyati hamda kichik yoshdan boshlab kasbiy yo'naltirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, bolalarda kasbga bo'lgan qiziqishni shakllantirish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, zamonaviy kasblar, qiziqtirish, boshlang'ich sinf, kasbiy madaniyat.

Abstract: This article explores effective ways to foster interest in professions among elementary school students, highlighting the significance of integrative methods in this process and the pedagogical effectiveness of early career orientation. In addition, the stages of developing children's interest in professions are analyzed from a scientific and theoretical perspective.

Key words: profession, modern professions, interest, elementary school, professional culture.

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные способы формирования интереса к профессиям у учащихся начальной школы, раскрывается значение интегративных методов в данном процессе, а также педагогическая эффективность ранней профессиональной ориентации. Кроме того, проанализированы этапы формирования интереса детей к профессии с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: профессия, современные профессии, интерес, начальная школа, профессиональная культура.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida umumta'lim maktablari bitiruvchilarining kasb o'rganish istagini qo'llab-quvvatlash, ularning davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish vazifasi belgilangan. Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida ko'rilayotgan chora-tadbirlar o'quvchilarning muayyan kasbni o'rganib, maxsus malakaga ega, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Zero, iqtisodiyot barqarorligi hamda barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olish mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Bunday kadrlar esa, eng avvalo, maktabda shakllanadi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy barqarorligi fuqarolarining aqliy hamda axloqiy salohiyati yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda hamda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurishda kadrlar tayyorlash milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ilk kasbiy madaniyat elementlarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Kasbiy madaniyatda uni shakllantiruvchi ma'naviy asos mujassam bo'lib, u g'oyalar, bilimlar va inson maqsadlarining ramziy ifodasidir. G'oyasiz, bilimsiz va maqsadsiz kasbiy madaniyat ham shakllanmaydi. Ma'naviy madaniyat mahsuli moddiy shaklda o'z ifodasini topadi, shu tarzda moddiylashib, ijtimoiy va kasbiy faoliyatga ko'chadi. Kasb madaniyati mohiyatini aniqlashtirib aytish mumkinki, kasb madaniyatining har qanday tashqi ifodasi insonning rivojlanish va kamolot darajasini aks ettiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kelajagi buyuk davlatimizning asosi bo‘lgan yosh avlodning bilimli bo‘lishi bilan bir qatorda kasb-hunar egallashiga alohida e’tibor qaratilishining sababi yoshlarni har tomonlama barkamol inson sifatida jamiyat a’zosiga aylantirish bilan bog‘liqdir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutqlarida: “Komil inson va malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi bo‘lishi kerak”, deya ta’kidlaganlar. Shu bois bugungi kunda O‘zbekistonda iste’dodli va iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda qobiliyatlarini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, respublikamizda iqtidorli yosh kadrlarni tarbiyalash, shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida muntazam ravishda qator ilmiy islohotlar amalga oshirib kelinayotgani e’tiborga molikdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonining shakllanishi, rivojlanishi va amaliy faoliyatda o‘z o‘rnini topishi boshqa faoliyat turlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda kasblarga oid bilimlarga ega bo‘lish, tegishli uslublar bilan qurollanish, umumpedagogik tamoyillar va metodlar hamda ularning tashkiliy jihatlarini o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bog‘liqlik negizida o‘quvchilarni kasbga tayyorlashga oid motivlar va tamoyillarga asoslangan holda kasbiy ong, kasb etikasi, kasb mas’uliyati, kasbiy munosabat hamda kasbiy tarbiyalanganlik kabi asosiy komponentlar yuzasidan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish samarali kechadi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning hozirgi bosqichida integratsiya g‘oyasi XXI asr shaxsini shakllantirishning muhim uslubiy tamoyiliga aylanmoqda. Boshqacha aytganda, kasbga yo‘naltirishda integratsiya ilmiy bilimlarni birlashtirish tendensiyasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Integrativ yondashuv o‘quvchilar tomonidan bir nechta fanlarga xos umumiy va universal qoidalar, belgilar hamda xususiyatlarni o‘zlashtirish jarayonini qamrab olib, fanlararo yaqin tushunchalarni to‘ldirishga xizmat qiladi [1].

Bugungi kunda umumta’lim maktablarining eng muhim hayotiy vazifalaridan biri o‘quvchi-yoshlarni kasb tanlashga to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish muhim hisoblanadi. Bolalarni kasblar olamiga bosqichma-bosqich olib kirish va ularni ushbu muhitda mo‘ljal olishga o‘rgatish zarur. O‘qituvchi shaxsi uning ijodiy rivojlanishi, yuksak pedagogik mahorati, doimiy novatorligi, faolligi hamda bolalarga nisbatan muhabbat va hurmatini belgilovchi xislatlar majmuidir. Ana shunday o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan hurmat-ehtirom, ishga havas uyg‘otadi, kelajak kasbi haqidagi orzularni baham ko‘rish istagini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga yoshlikdan to‘g‘ri bilim berib borilsa, u hech qachon bilim olishdan bezimaydi. Shu sababli har bir o‘qituvchi bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda vazifalarni to‘g‘ri taqsimlashi hamda bilimlarni qiziqarli va hayotiy shaklda yetkazib bera olishi lozim. Tarbiya jarayonida o‘quvchining qobiliyatlari, ularning rivojlanish bosqichlari, muayyan kasb haqida ma’lumotga ega bo‘lishi hamda bolalar psixologiyasini hisobga olish talab etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning mehnat darslarida va boshqa o‘quv predmetlarida turli mehnat faoliyatlarini egallash malakalarini shakllantirar ekan, ularni ijodiy mehnatga tayyorlashga da’vat etayotganini e’tibordan chetda qoldirmasligi zarur.

O‘quvchining mehnatga munosabatini belgilashda quyidagi ikki shart muhim hisoblanadi:

- o‘quvchida mehnat faoliyatining muayyan turiga nisbatan individual qobiliyatlar mavjudligini hisobga olish;
- ishtiyoq bilan va ijodiy mehnat qila olish ko‘nikmasining mavjudligiga ahamiyat qaratish.

Agar o‘quvchi topshiriqni ishtiyoq bilan, iloji boricha yaxshiroq natijaga erishish istagi bilan bajarsa, uning faoliyatga nisbatan barqaror munosabati haqida so‘z yuritish mumkin. Demak, o‘quvchining mehnatga munosabatini faqat muntazam kuzatishlar asosida aniqlash maqsadga muvofiqdir. Kuzatish jarayonida o‘qituvchi intizomlilik, mehnatsevarlik, tejamkorlik, jamoatchilik hamda mehnat natijalariga o‘z-o‘zini baholash kabi shaxsiy fazilatlarga e’tibor qaratishi lozim.

O‘qituvchi har bir dars jarayonida turli o‘yinlardan foydalangan holda o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlab borishi va bolaning iqtidoridan kelib chiqqan holda uni muayyan kasbga yo‘naltirishi maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishlarini chuqur anglay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar jarayonida har bir o‘quvchini alohida kuzatish va ushbu kuzatuvlar asosida kasbga yo‘naltirish samarali natija beradi. Ma’lumki, o‘yin qadim zamonlardan buyon pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, etnograflar va san’atshunos olimlar e’tiborini tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyingi muhim faoliyat turi hisoblanadi [2].

Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari bilan bir qatorda, tanlanayotgan kasbga bo‘lgan layoqatining mosligini aniqlash, fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar hamda mahalla faollarining shaxsiy namunasi va o‘zaro hamkorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quvchilarning kasb-hunar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va qiziqishlarini aniqlash maqsadida xalq ta’limi tizimida o‘qitilayotgan 18 ta umumta’lim fanlari bo‘yicha Milliy o‘quv dasturi doirasida yaratilayotgan zamonaviy darsliklarga 302 ta kasbga oid mavzular kiritildi. Dars jarayonida mazkur kasblar haqidagi tushunchalar o‘quvchilarga hayotiy misollar orqali yetkazilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘g‘il-qizlarning hunar egallash hamda o‘zini o‘zi band qilish orqali xizmatlar ko‘rsatish (frilansing) yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqishini aniqlashga ko‘maklashmoqda.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonida, birinchi navbatda, ularning qobiliyati va mehnati jamiyat manfaatlariga mos tarzda e’tiborga olinishi lozim. Jarayonda turli sohalar, ularni egallash uchun qo‘yiladigan talablar, shuningdek, tanlangan yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlaydigan muassasalar to‘g‘risida ma’lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu esa o‘g‘il-qizlarni kasb tanlashga ongli munosabatda bo‘lishga tayyorlaydi.

Kasbga yo‘naltirish tizimi shaxsga muayyan soha va unga doir zarur ko‘nikmalarni egallashda yordam beruvchi maqsad, mohiyat, prinsip, uslub va vositalar birligidan iboratdir. Ushbu vazifa barcha o‘quv-tarbiya ishlari bilan uzviy bog‘liq holda olib boriladi. O‘quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo‘naltirishdan avval uning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish zarur. Buning uchun kuzatish (bevosita va bilvosita), maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnat jarayonidagi amaliy faoliyatini tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, suhbat, test hamda intervyu metodlaridan foydalanish mumkin. O‘g‘il-qizlar kasblar to‘g‘risidagi ma’lumot va bilimlarni nafaqat maktabda, balki ommaviy axborot vositalari orqali, shuningdek, tanishlari va qarindoshlari orqali ham egallaydilar.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mazmuni keng va dinamik xususiyatga ega bo‘lib, jamiyatda kasblarga qo‘yiladigan ijtimoiy talablarning muntazam ravishda o‘zgarib borishi bilan izohlanadi. Shu bois kasbga yo‘naltirish jarayonida pedagogik yondashuv asosida ushbu o‘zgarishlarni fanlar mazmuniga singdirib borish zarur. Metodik jihatdan integrativlik o‘quvchilarda kasbga doir tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, kasb tanlash jarayonida o‘quvchilar kasblarni tahlil qila olishlari, o‘zlarining shaxsiy sifatlari, qiziqishlari va salomatlik darajasini to‘g‘ri baholay bilishlari, kasblarning insonga qo‘yadigan talablari bilan o‘zlarining individual xususiyatlarini taqqoslay olishlari hamda shaxsiy kasbiy rejalarini tuza olishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nabijonova D. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish psixologiyasi. Toshkent, 2002.
2. Maxmudova D. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid pedagogik faoliyat elementlari orasida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash // Xalq ta’limi jurnali, 3-son, 2010.
3. www.ziyonet.uz

PROPOSALS FOR THE DEVELOPMENT OF EDUCATION IN TEACHING MUSICAL-HISTORICAL AND THEORETICAL SUBJECTS

Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna
Rishton district, Fergana region teacher of the
21st children's music and art school
Independent researcher of Namangan state university

Scientific supervisor: Gofurbekov Tokhtasin Botirovich
Doctor of arts, professor

Abstract: This article systematizes proposals and recommendations aimed at eliminating existing problems and shortcomings in the teaching of musical-historical and theoretical disciplines, as well as improving the quality of education. The conclusions are based on the results of a study focused on enhancing the content, essence, methods, and teaching approaches of musical-historical and theoretical subjects within the educational process of children's music and art schools. The implementation of these proposals contributes to increasing students' professional competence and ensuring the effectiveness of the educational process.

Key words: Musical-historical and theoretical disciplines, musicologist, educational technology, curriculum, objective, methodology, result, 4K model.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablari ta'lim jarayonida musiqiy-tarixiy va nazariy fanlarni o'qitishda aniqlangan mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar tizimlashtirilgan. Tadqiqot musiqiy-tarixiy va nazariy fanlar mazmuni, mohiyati hamda ularni o'qitish usul va metodlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur yondashuvlar o'quvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: musiqiy-tarixiy va nazariy fanlar, musiqashunos, pedagogik texnologiya, o'quv dasturi, maqsad, metodika, natija, 4K modeli.

Аннотация: В статье систематизированы предложения и рекомендации, направленные на устранение существующих проблем и недостатков в преподавании музыкально-исторических и теоретических дисциплин, а также на повышение качества образования. Выводы основаны на результатах исследования, посвящённого совершенствованию содержания, сущности, методов и способов преподавания музыкально-исторических и теоретических дисциплин в образовательном процессе детских музыкально-художественных школ. Реализация данных предложений способствует повышению профессиональной компетентности учащихся и обеспечивает эффективность образовательного процесса.

Ключевые слова: музыкально-исторические и теоретические дисциплины, музыковед, образовательная технология, учебный план, цель, методология, результат, модель 4К.

INTRODUCTION

The results of our research, conducted to study the problems encountered in teaching musical-historical and theoretical subjects in children's music and art schools in the Fergana Valley today, as well as to develop promising proposals and recommendations aimed at solving these problems, are evaluated through improving the methods and techniques of teaching the content and essence of musical-historical and theoretical subjects within the educational process of children's music and art schools. This approach contributes to increasing students' competence and ensuring the effectiveness of education. In this article, we have systematized our proposals and recommendations related to eliminating the existing problems and shortcomings identified within the framework of our research, as well as improving the quality of education in the teaching of musical-historical and theoretical subjects.

The content and essence of the topics covered in lessons largely influence students' musical thinking and their overall cultural development. In this context, the child's internal factors, including the emotional world,

mental activity (intellect), logical and imaginative thinking, as well as the formation of aesthetic and moral education, serve as the foundation for the child's holistic development.

Listening to and performing works by world classical composers, becoming familiar with the life and creative activity of outstanding musicians, understanding their unique styles, and conducting comparative analyses significantly enhance students' cultural awareness and spirituality. The educational potential of musical-historical and theoretical disciplines in fostering young musicians as highly spiritual individuals is extensive. However, our observations and lesson analyses indicate that these opportunities are not always fully utilized. This raises the question: why?

LITERATURE REVIEW

Many Russian musicologists have conducted research on the methodology of teaching musical-historical and theoretical subjects. Among them are Y. Bokshanina, M. Geilig, I. Givental, A. Serov, G. Larosh, B. Asaf'ev, N. Kashkin, V. Konen, A. Lagutin, Ya. Ostrovskaya, L. Frolova, G. Franio, Y. Konorova, A. Baraboshkina, E. Davidova, and others. Their works on musical literature and methodological manuals devoted to teaching solfeggio subjects serve as an important methodological foundation for the implementation of traditional teaching approaches that continue to be used today.

In Uzbekistan, scientific research in this field has also been carried out by scholars such as N. Yanov-Yanovskaya, I. Yuldasheva, E. Dobrovetskaya, V. Plungyan, Z. Mirkhaydarova, S. Kasimkhodzhayeva, I. Ganieva, T. Petrenko, and E. Mamajonova. Their studies on musical-historical subjects are of significant scholarly value.

In different years, scientific and research works addressing the problems and prospects of teaching musical-historical and theoretical subjects were produced at the Uzbek State Conservatory. Among these are N. Irgasheva's From the History of Fergana Music Art and Education (T.-1977), T. Nazarova's Problems of Professionally Oriented Teaching of "Musical Literature" at the Secondary Level of Education (T.-1990), M. Makhmudova's History and Musical Education in Fergana: In the Light of the Past and Creative Forms of the Present (T.-1992), and O. Muminova's The Formation of Music Education in the City of Margilan and the Problems of Teaching the Subject "Musical Literature" in Specialized Educational Institutions (T.-1995). These works focus on the study of issues related to musical-historical subjects during that period.

In recent years, the problems of teaching musical-historical and theoretical subjects in children's music and art schools have increasingly attracted the attention of young researchers, and research in this area has reached a new stage of development. Works such as A. Abdullayev's Innovative Module in the Subject of Music Literature (for BMSM Grade 5) (T.-2014), Z. Nazarova's graduation qualification work Music Literature in the Years of Independence (2014), M. Turgunbayeva's Problems of the Subject "Solfeggio" in Children's Music and Art Schools of Uzbekistan (T.-2018), D. Payziyeva's Introduction of Innovative Technologies in Teaching Music-Theoretical Subjects in Children's Music and Art Schools of Uzbekistan (T.-2022), and E. Mustafayeva's master's thesis in Russian Historical-Theoretical and Methodological Aspects of the Course "Ethnosolfeggio" at the State Music Institute of Uzbekistan (T.-2022) confirm this tendency.

Recent studies in the field of modern education include G. Ismoilova's Effectiveness of Teaching Music History Based on Interactive Methods (2025) and F. Urmonova's Modern Methods of Teaching the Subject "Musical Literature" in Specialized Music Schools (2014). These works examine the forms and methods of instruction in music history and musical literature classes, as well as the characteristics and effectiveness of contemporary lessons.

In contrast to the above-mentioned studies, within the framework of the present research topic, the problems of teaching musical-historical and theoretical subjects specified in the curriculum for music specializations in children's music and art schools were examined using the example of CHMASs in the Fergana Valley. Based on the results of the conducted experiments, a pedagogical model aimed at improving students' competencies through the application of pedagogical technologies that enhance the effectiveness of education was developed and tested.

RESEARCH METHODOLOGY

The research methodology of this study is based on a combination of qualitative and quantitative approaches aimed at identifying existing problems and effective practices in teaching musical-historical and theoretical subjects in children's music and art schools. Data were collected through pedagogical observation, analysis of lesson processes, study of curricula, textbooks, and teaching materials, as well as comparative analysis of national and foreign methodological sources. In addition, surveys and interviews with teachers and students were conducted to determine their attitudes, needs, and levels of subject comprehension. The collected data were analyzed using content analysis, comparative analysis, and descriptive statistical methods, which made it

possible to systematize the identified problems and evaluate the effectiveness of current teaching approaches. The results of experimental lessons were also analyzed to determine changes in students' competencies and learning outcomes. This methodological approach ensured the reliability of the findings and allowed for the development of scientifically grounded proposals and recommendations aimed at improving the quality and effectiveness of education in musical-historical and theoretical subjects.

ANALYSIS AND RESULTS

As is well known, the education system is built on the basis of goals – methods – results, that is, these three components represent the main stages in organizing the educational process.

Goals – what will this subject or topic teach students? First of all, the lesson should begin with answering this question.

Methodology – how will this subject or topic be explained to students? In other words, the sources and methods of teaching are determined. In this process, the curriculum, textbooks developed on the basis of the curriculum, and teaching aids serve to manage and organize the educational process in accordance with the content of the subject.

Results – that is, assessment. This stage involves analyzing and evaluating the extent to which the stated goals have been achieved at the end of the lesson or course. This process is an important stage, which not only increases students' interest in the subject, but also serves as an indicator that encourages teachers to work on themselves and to improve teaching methods and techniques.

Taking into account these three components of the education system, we clearly defined the goals of musical-historical and theoretical disciplines in our scientific research. In order to study the sources and methods of teaching these disciplines and to identify ways of achieving the set goals, we classified and analyzed a number of textbooks and study guides created to date by various authors, compilers, and translators in this field. Although most of these sources were developed primarily for secondary and higher levels of music education, based on the simplicity and clarity of presentation, conciseness, and systematic coverage of topics, we selected those that can be applied in meeting the program requirements of children's music and art schools (BMSM).

At the same time, we noted the necessity of developing and implementing national curricula based on state educational standards, as well as creating new-generation textbooks in Uzbek and Russian for teaching musical-historical and theoretical subjects in children's music and art schools. Within the framework of our research, we proposed submitting the curriculum on the fundamentals of maqom and Shashmaqom to broad discussion among specialists and subsequently introducing it into practice.

The need to revise and implement the calendar-thematic plan for the subject "Uzbek Musical Literature" was also emphasized. Taking into account the practical importance of the solfeggio subject, we recommended the use of solfeggio textbooks based on Uzbek melodies and songs in singing activities in grades 6–7 of the seven-year education system and in grades 4–5 of the five-year education system. Through this approach, students develop the ability to understand Uzbek melodic structures and metro-rhythmic features. As is known, the subject "Uzbek Musical Literature" is taught in these grades, and solfeggio lessons, alongside practicing Uzbek melodies and songs, serve to establish interdisciplinary connections between subjects.

In this regard, it was proposed to use the textbook Solfeggio by O. Ibrohimov and R. Yunusov (2004), created for the educational process of children's music and art schools, as well as Solfeggio by N. Rajabova (2004) and Solfeggio by O. Abdullaeva (2012).

The result stage represents the final and crucial phase of the educational process, implemented through assessment. At this stage, the degree to which the material presented in textbooks has been remembered and mastered is systematized. In this context, education expert and pedagogue Komil Jalilov proposes a different approach to assessment, suggesting that students be evaluated by answering the following three questions:

1. Can the student analyze the information obtained from the textbook?
2. Can the student find solutions to problems based on the acquired information?
3. To what extent can the student create innovations based on the obtained knowledge?

In today's rapidly developing society, memorization alone cannot compete with artificial intelligence. Therefore, in preparing students to be competitive individuals with independent opinions, emphasis should be placed on the appropriate application and practical use of knowledge acquired during lessons, focusing on the above three aspects.

Based on this approach, we propose the following assessment criteria for teaching musical-historical subjects:

1. Knowledge of historical periods and stylistic features of composers;

2. General understanding of composers' lives and the content of their works;
3. Ability to distinguish musical genres and forms;
4. Development of critical thinking and creative approaches;
5. Listening to and analyzing musical works;
6. Terminological competence, including correct classification and explanation of musical terms.
7. For teaching music theory, the following assessment criteria are proposed:
8. Mastery of musical literacy skills;
9. Aural skills, including identification of intervals and chords by listening;
10. Analysis of musical works (key, tonality, scale, etc.);
11. Ability to apply theoretical knowledge in practice, including constructing and solving musical structures.

In recording the results of this study, performance indicators were determined on the basis of the above assessment criteria.

We consider the use of the 4K model as an effective pedagogical model for improving the professional competencies of students in children's music and art schools through the application of pedagogical technologies. New-generation textbooks developed on the basis of this model are aimed at developing four core skills in students. This approach places greater emphasis on critical thinking and the ability to freely express one's opinions. In the 21st century, digital technologies, rapid changes in the social environment, and transformations in the labor market require new approaches to education. Therefore, in modern educational practice, the 4K model–critical thinking, creativity, collaboration, and communication–is increasingly recognized as a set of key competencies.

Each teacher, based on their pedagogical skills, level of general and musical culture, and professional qualifications, interprets the content and essence of the subject in their own way. Consequently, the requirements for teachers of musical-historical and theoretical subjects are particularly high. Such teachers must possess higher education, comprehensive professional knowledge and skills, a constant interest in their work and its outcomes, and a strong commitment to their profession. In this regard, special attention should be given to the training of qualified specialists in the field.

Training highly qualified personnel in the sphere of culture and art is a complex task that requires the development of curricula and programs aligned with modern requirements and international experience. To keep pace with current educational trends and ensure continuous professional development, it is essential to involve teachers in advanced training courses and organize internships with experienced foreign specialists, thereby increasing the effectiveness of the educational process.

Today, the requirements for modern teachers differ significantly from traditional approaches and include the following competencies:

- digital literacy and technological competence, including effective use of information and communication technologies, online teaching platforms, and digital educational resources;
- innovative and creative approaches, involving non-traditional teaching methods and project-based learning;
- critical thinking and problem-solving skills, enabling teachers to foster students' analytical abilities and independent thinking;
- differentiated and individualized approaches that consider students' abilities, interests, and learning pace;
- communicative and collaborative skills, ensuring effective interaction with students, parents, and colleagues;
- readiness for lifelong learning through continuous professional development;
- psychological and pedagogical diagnostic skills to identify students' learning difficulties and provide appropriate support.

These requirements indicate that teachers must function not only as educators, but also as mentors and facilitators who equip students with essential 21st-century skills.

It should be noted that an important task in training musicological pedagogical personnel is to ensure their ability to effectively conduct both scientific and pedagogical activities in the future. The formation of pedagogical skills involves:

a) teaching methodologies of musical-historical and theoretical subjects, didactic principles, and modern pedagogical technologies;

b) developing the ability to present educational materials in accordance with students' age characteristics and interests;

c) organizing engaging and interactive lessons that foster a love for music.

Music teachers are expected not only to be knowledgeable specialists, but also individuals capable of developing their field, transmitting musical heritage to younger generations, and enhancing musical culture in society. It is noteworthy that there are currently 30 children's music and art schools in Fergana region, 22 in Namangan, and 29 in Andijan. The majority of teachers working in these institutions graduated from pedagogical institutes and universities with degrees in "Music Education" and are currently continuing their studies through part-time education, while many still possess only secondary specialized education. The proportion of specialists who graduated from higher music and art institutions with a specialization in "Musicology" remains relatively low.

Therefore, retraining of personnel plays a crucial role in acquiring additional professional knowledge, qualifications, and skills necessary for professional activity, while advanced training ensures the updating and deepening of professional competencies, contributing to career advancement and professional growth.

One of the main processes in music history lessons is listening to music. Through systematic listening activities, students' creative thinking and aesthetic taste are developed. For this reason, it is essential to integrate music listening into each lesson in accordance with its topic and content. To achieve this, classrooms should be equipped with appropriate technical resources, such as audio players, SD and DVD players, video equipment, televisions, and audio-video recordings of musical works. Failure to address this issue often results in music history lessons being conducted primarily in lecture format.

In our view, cooperation with institutions such as the Union of Composers of Uzbekistan and the sound libraries of the State Conservatory of Uzbekistan could facilitate the provision of audio and video recordings of musical works included in curricula to children's music and art schools. This would also support the creation of sound libraries within music schools, ensuring more meaningful teaching of musical-historical subjects and the achievement of positive educational outcomes.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

In conclusion, today's youth have the opportunity to observe the global community from their own perspective, living in the era of the Internet and artificial intelligence. They are entering society prepared to engage in discussion and debate in various fields. Under such conditions, it has become increasingly difficult to attract students to lessons through simple narration, isolated examples, or the explanation of individual topics alone. The roles of the teacher and the student in the educational process are becoming more balanced, and in many situations it is necessary to first listen to the student's opinion, create a discussion-based learning environment, and implement joint efforts aimed at acquiring new knowledge.

Accordingly, the requirements, responsibilities, and tasks of teachers have been significantly updated. Modern teachers are expected not only to possess subject knowledge, but also to demonstrate high pedagogical competence, effectively use contemporary teaching methods and technical tools, show genuine dedication to their profession, manage time productively, maintain psychological readiness for organizing the educational process, gain the trust of students and their parents, and demonstrate leadership skills in managing the learning process in a fair and balanced manner. Therefore, alongside improving personnel training programs, reforming and correctly modeling the pedagogical process has become one of the most urgent issues in the system of teaching musical-historical and theoretical subjects.

Taking into account both the practical and theoretical aspects of teaching musical-historical and theoretical disciplines in children's music and art schools, it is a key responsibility of modern educators to train performers and theorists capable of continuing their education at subsequent stages, while clearly defining goals and effectively fulfilling the tasks required to achieve them.

References:

1. Law of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev "On Education". Tashkent, September-23, 2020. No. O'RQ-637, Chapter-2, Article-13.
2. Ismoilova, G. "Effectiveness of Teaching the History of Music Based on Interactive Methods" // Journal of Scientific Research of New Uzbekistan. April-2025, pp. 102–105.
3. Urmanova, F. "Modern Methods of Teaching the Subject 'Musical Literature' in Specialized Music Schools" // Scientific Journal of Foreign Linguistics and Language Didactics. 2024, pp. 1–14.
4. Muslimov, N., Usmonboyev, M., Sayfurov, D., Turayev, A. Fundamentals of Pedagogical Competence and Creativity. Tashkent, 2015.
5. YouTube. @YUZ. "'CHSB' and 'BSB' Are Making Children Illiterate". December-15, 2025. Available at: https://www.youtube.com/@YUZ

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI



Rustemov Abseit Trijan o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika iniversiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi
ORCID: 0009-0000-3831-7044

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari kompleks tarzda yoritiladi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida media savodxonlik va mediakompetentlik zamonaviy pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, ularning shaxsning kasbiy shakllanishi, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda axborot madaniyatini yuksaltirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi.

Shuningdek, maqolada mediakompetentlik tushunchasining mazmuni, tuzilmasi va funksional komponentlari xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilinadi. Mediakompetentlikning kognitiv, kommunikativ, texnologik va aksiologik jihatlari o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqilib, uning talabalarning kasbiy tayyorgarligi hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Tadqiqotda raqamli ta'lim muhitining didaktik imkoniyatlari, interfaol media vositalar, multimodal o'quv materiallari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali mediakompetentlikni shakllantirish mexanizmlari yoritiladi. Shu bilan birga, talabalarning media bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, metodlar va yondashuvlar tizimlashtiriladi.

Maqola yakunida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari mediakompetentligini rivojlantirishning ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilib, ta'lim jarayoniga media ta'lim elementlarini integratsiyalashning samarali yo'llari bo'yicha xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, mediakompetentlik, media savodxonlik, maktabgacha ta'lim, axborot madaniyati, pedagogik faoliyat.

Abstract: This article comprehensively examines the theoretical and methodological foundations for developing media competence among students of preschool education within a digital learning environment. In the context of an information-oriented society, media literacy and media competence are interpreted as integral components of modern pedagogical activity, and their role in professional development, critical thinking enhancement, and the formation of information culture is scientifically substantiated.

Furthermore, the article analyzes the content, structure, and functional components of the concept of media competence based on the scholarly views of both international and domestic researchers. The cognitive, communicative, technological, and axiological dimensions of media competence are considered in close interrelation, revealing their significance in improving students' professional training and the effectiveness of pedagogical practice.

The study highlights the mechanisms for developing media competence through the didactic potential of the digital learning environment, interactive media tools, multimodal educational materials, and information and communication technologies. At the same time, psychological and pedagogical conditions, methods, and approaches that facilitate the development of students' media-related skills are systematized.

In conclusion, the scientific and practical significance of developing media competence among preschool education students is substantiated, and conclusions and recommendations are proposed regarding the effective integration of media education elements into the educational process.

Key words: digital education, media competence, media literacy, preschool education, information culture, pedagogical activity.

Аннотация: В данной статье комплексно раскрываются теоретические и методологические основы развития медиакомпетентности у студентов направления дошкольного образования в условиях цифровой образовательной среды. В условиях информатизации общества медиаграмотность и медиакомпетентность интерпретируются как неотъемлемые компоненты современной педагогической деятельности, а их роль в профессиональном становлении личности, развитии критического мышления и формировании информационной культуры научно обосновывается.

Кроме того, в статье на основе научных взглядов зарубежных и отечественных исследователей анализируются содержание, структура и функциональные компоненты понятия медиакомпетентности. Когнитивные, коммуникативные, технологические и аксиологические аспекты медиакомпетентности рассматриваются во взаимосвязи, раскрывается их значение в повышении уровня профессиональной подготовки студентов и эффективности педагогической деятельности.

В исследовании освещаются механизмы формирования медиакомпетентности посредством использования дидактических возможностей цифровой образовательной среды, интерактивных медиасредств, мультимодальных учебных материалов и информационно-коммуникационных технологий. Одновременно систематизируются психолого-педагогические условия, методы и подходы, способствующие развитию у студентов навыков работы с медиа.

В заключении обосновывается научно-практическая значимость развития медиакомпетентности у студентов дошкольного образования и предлагаются выводы и рекомендации по эффективной интеграции элементов медиаобразования в образовательный процесс.

Ключевые слова: цифровое образование, медиакомпетентность, медиаграмотность, дошкольное образование, информационная культура, педагогическая деятельность.

KIRISH

XXI asrda jamiyatning axborotlashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga sifat jihatidan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Zamonaviy sharoitda axborotni izlash, uni saralash, tahlil qilish hamda undan samarali foydalanish ko'nikmalari shaxsning asosiy tayanch kompetensiyalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki global axborot makonining kengayishi insondan nafaqat bilimlarni egallashni, balki ularni tanqidiy qayta ishlash, turli manbalarni qiyoslash va axborot oqimida ongli yo'nalish olish qobiliyatini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mediakompetentlik zamonaviy shaxsning intellektual, ijtimoiy va kasbiy rivojini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi [1].

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mediakompetentlik kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi, mazkur yo'nalish vakillari kelajakda bolalarning media bilan ilk tanishuv jarayonini tashkil etuvchi, media mazmunni tanlash va uni pedagogik maqsadlar asosida talqin etuvchi mutaxassislar bo'lib yetishadilar. Maktabgacha yosh davri bolaning nutqi, tafakkuri, tasavvuri hamda ijtimoiy xulq-atvori shakllanadigan eng muhim bosqichlardan biri bo'lganligi sababli, aynan shu davrda media ta'sirining to'g'ri yo'naltirilishi pedagog zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shuning uchun tarbiyachilarning media vositalardan maqsadga muvofiq, xavfsiz va rivojlantiruvchi tarzda foydalanish kompetensiyasiga ega bo'lishi ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqdir.

Bugungi kunda axborot oqimining keskin ortishi yosh avlod ongiga bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli o'yinlar hamda turli vizual media mahsulotlar bolalarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir etuvchi omillarga aylanib bormoqda. Shu bois, talabalarda media xabarlarni tanqidiy baholash, axborotning ishonchliligini aniqlash, axborot xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, media vositalardan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'ladi [2].

Mazkur jarayon raqamli ta'lim sharoitida mediakompetentlikni rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Chunki raqamli ta'lim muhiti yangi pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, multimodal o'quv vositalari hamda innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etishni taqozo etadi. Natijada mediakompetentlikni shakllantirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda kelajak pedagogik faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Media ta'lim va mediakompetentlik muammosi xalqaro ilmiy adabiyotlarda uzoq yillardan buyon izchil o'rganib kelinmoqda. Media ta'lim nazariyasining asoschilaridan biri hisoblangan L. Masterman media bilan ishlash jarayonida tanqidiy fikrlash, axborotni ongli tahlil qilish va media matnlarni anglash kompetensiyalarini

shakllantirish zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, mediakompetentlik shaxsning passiv axborot iste'molchisi emas, balki faol va mas'uliyatli media subyekti sifatida shakllanishini ta'minlaydi. D. Buckingham media ta'limni madaniy va ijtimoiy kontekstda tahlil qilib, mediakompetentlikni faqat texnik ko'nikmalar majmui emas, balki shaxsning ijtimoiy tajribasi, kommunikativ faoliyati va madaniy ongini rivojlantiruvchi muhim pedagogik hodisa sifatida talqin etadi.

Rossiya ilmiy maktabida mediakompetentlik masalasi A. V. Fyodorov tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Olim media ta'limning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqib, mediakompetentlikni axborotni tahlil qilish, baholash, interpretatsiya qilish va mustaqil media mahsulot yaratish qobiliyatlarini qamrab oluvchi ko'p komponentli tizim sifatida tavsiflaydi. Uning ilmiy qarashlari mediakompetentlikni shakllantirishda tizimli yondashuv va pedagogik texnologiyalarning muhimligini ko'rsatadi. Ushbu nazariy qarashlar raqamli ta'lim sharoitida media vositalardan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda mediakompetentlik muammosi raqamli ta'lim va pedagogik innovatsiyalar kontekstida yoritilgan. M. Usmanova bolalar adabiyoti va media vositalar integratsiyasining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilib, media resurslardan ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishini ta'kidlaydi. D. Axmedova raqamli ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim talabalari kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini ochib berib, mediakompetentlikni kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida asoslaydi. M. Jo'rayev va A. T. Rustemov tadqiqotlarida media, folklor va multimediali texnologiyalarning tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi imkoniyatlari ko'rsatilib, media vositalarning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar mediakompetentlikni rivojlantirish masalasi milliy ta'lim tizimi uchun dolzarb va istiqbolli yo'nalish ekanini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvdan foydalanildi. Xususan, nazariy tahlil metodi orqali mediakompetentlik, media savodxonlik hamda raqamli ta'lim muhitiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tizimli ravishda o'rganildi, mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilib, tadqiqotning konseptual asoslari shakllantirildi. Qiyosiy-taqqoslash usuli yordamida turli ilmiy yondashuvlar, metodik model va pedagogik tajribalar o'zaro solishtirilib, mediakompetentlikni rivojlantirishning samarali yo'llari aniqlashtirildi [3].

Shuningdek, modellashtirish metodi asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari mediakompetentligini shakllantirishning tuzilmaviy-funksional modeli ishlab chiqildi hamda uning tarkibiy komponentlari o'zaro bog'liqlikda asoslab berildi. Empirik tadqiqot bosqichida pedagogik kuzatuv va so'rovnoma metodlaridan foydalanilib, talabalarning media bilan ishlash jarayonidagi faolligi, axborotni qabul qilish va tahlil qilish ko'nikmalari, shuningdek, media vositalardan foydalanish madaniyati o'rganildi [3].

Bundan tashqari, mediakompetentlikni baholashga xizmat qiluvchi mezon va ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilib, ular asosida talabalarning media bilan ishlash ko'nikmalari diagnostika qilindi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganligi hamda ishonchliligi ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatdiki, mediakompetentlik murakkab va ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, u shaxsning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, baholash hamda mustaqil media mahsulot yaratish bilan bog'liq kognitiv, kommunikativ va texnologik ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtiradi. Mazkur komponentlarning o'zaro integratsiyasi talabaning media makonida ongli faoliyat yuritishi, axborot oqimini tanqidiy qabul qilishi hamda pedagogik vazifalarni samarali hal etishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida media ta'lim jarayoniga interfaol metodlar, zamonaviy raqamli resurslar va multimodal o'quv materiallarini tizimli ravishda joriy etish talabalarning tanqidiy fikrlash darajasini sezilarli ravishda rivojlantirishi aniqlandi. Xususan, media matnlarni tahlil qilish, vizual va audio materiallarni talqin etish, raqamli hikoya yaratish hamda jamoaviy media loyihalarda ishtirok etish kabi faoliyat turlari talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va refleksiv tahlil ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, mediakompetentlikni shakllantirish jarayonining samaradorligi muayyan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Jumladan, rivojlantiruvchi raqamli ta'lim muhiti, talabalarning ijodiy media faoliyatini qo'llab-quvvatlash, interaktiv tahlil va hamkorlikka asoslangan o'qitish usullaridan foydalanish mediakompetentlik darajasining barqaror oshishiga xizmat qiladi. Ushbu omillar talabalarning media bilan ishlashga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirib, ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3].

Umuman olganda, olingan natijalar mediakompetentlikni rivojlantirishda tizimli yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari bilan hamohang bo‘lib, mediakompetentlik shaxsning ijtimoiy, madaniy hamda kommunikativ rivojini ta’minlovchi kompleks kompetensiya ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda mediakompetentlik faqat texnik ko‘nikmalar majmui sifatida emas, balki shaxsning axborotni tanqidiy qabul qilishi, media matnlarni tahlil qilishi, kommunikativ faoliyatni ongli ravishda tashkil etishi hamda ijtimoiy-madaniy muhitda samarali faoliyat yuritish qobiliyatini qamrab oluvchi ko‘p qirrali pedagogik hodisa sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida media vositalardan ongli, maqsadga yo‘naltirilgan va pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish pedagogning kasbiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, interfaol raqamli resurslar, multimodal o‘quv materiallari hamda media asosidagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini kuchaytirib, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va refleksiv tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mediakompetent pedagog media makonidagi turli axborot oqimlarini tanqidiy baholay oladi, bolalarning yosh xususiyatlariga mos media kontentni tanlaydi hamda ta’lim jarayonida xavfsiz va rivojlantiruvchi media muhitni yaratishga qodir bo‘ladi. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifati va tarbiyaviy ta’sir samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari mediakompetentlikni rivojlantirish raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida media ta’lim elementlarini tizimli joriy etish, talabalarning media bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning raqamli madaniyatini yuksaltirish zarurati ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim sharoitida mediakompetentlikni rivojlantirish maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligining muhim va ajralmas omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda pedagogning nafaqat an’anaviy bilim va ko‘nikmalarga, balki media makon bilan ongli ishlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘lishi ta’lim sifati va tarbiyaviy jarayon samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Media ta’lim elementlarini o‘quv jarayoniga tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda joriy etish talabalarda axborot madaniyati, tanqidiy va ijodiy fikrlash, kommunikativ faollik hamda mustaqil ta’lim olishga tayyorlik kabi muhim kasbiy sifatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, media vositalardan pedagogik maqsadlarda to‘g‘ri foydalanish talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida bolalar uchun xavfsiz, rivojlantiruvchi va ma’naviy jihatdan boy media muhitni yaratish imkonini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari mediakompetentlikni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish uchun oliy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda raqamli ta’lim resurslaridan kompleks foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mediakompetentlikni shakllantirishga qaratilgan maxsus o‘quv kurslari, metodik ta’minot va diagnostik baholash tizimini joriy etish talabalarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, mediakompetentlikni rivojlantirish raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik ta’limning ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u maktabgacha ta’lim tizimining sifat jihatidan yangilanishi hamda kelajak avlodning axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Masterman, L. Teaching the Media. – London: Routledge, 1994.
2. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003.
3. Фёдоров, А. В. Медиаобразование и медиаграмотность: анализ, теория и практика. – Москва: Академия, 2010.
4. Usmanova, M. Bolalar adabiyoti va media vositalar integratsiyasi: didaktik imkoniyatlar // O‘zbekiston pedagogikasi jurnali. – 2020. – 3(2). – B. 45–52.
5. Axmedova, D. Raqamli ta’lim sharoitida maktabgacha ta’lim talabalari kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari // Ta’lim va innovatsiyalar. – 2021. – 5(1). – B. 80–87.
6. Jo‘rayev, M. Bolalar adabiyoti va multimediali texnologiyalar: metodik asoslar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. Ташпулатович, Қ. Н., Рустемов, А. Т. Толерантлик тушунчаси келиб чиқишининг назарий асослари // Conferencea. – 2023. – B. 64–66.
8. Rustemov, A. T. Xalq og‘zaki ijodi haqida biror so‘z // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – 1(1). – B. 159–160.
9. Rustemov, A. T. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda folklor // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – 1(1). – B. 157–158.
10. Rustemov, A. T. Methodology of Education of Children in Preschool Educational Institutions // Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2022. – № 12. – B. 3–4.

HAMKORLIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH MAZMUNI



Baxramova O'ramol Uralovna
Ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasi
maktabgacha ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrant
Osiyo texnologiyalar universiteti
ORCID: 0009-0007-8173-9825

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning pedagogik mazmuni, metodik asoslari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda hamkorlikka asoslangan ta'lim yondashuvining nazariy jihatlari tahlil qilinib, o'quvchilarda jamoaviy ishlash, o'zaro muloqot, mas'uliyatni taqsimlash hamda birgalikda muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari ko'rsatib berilgan. Tajriba-sinov ishlari aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari asosida tashkil etilib, interfaol metodlar, guruhli ish, loyihaviy faoliyat hamda muhokama usullarining samaradorligi asoslab berilgan. Natijalar hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Ish yakunida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hamkorlik ko'nikmasi, tajriba-sinov ishlari, interfaol metodlar, guruhli ta'lim, jamoaviy faoliyat, pedagogik texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim samaradorligi, muloqot kompetensiyasi, loyihaviy o'qitish.

Abstract: This study examines the pedagogical content and methodological foundations of organizing experimental work aimed at improving collaboration skills in the educational process. The research analyzes theoretical approaches to collaboration-based learning and identifies effective methods for developing students' abilities to work in teams, communicate effectively, share responsibility, and solve problems collaboratively. The experimental work was organized through diagnostic, formative, and summative stages, during which interactive teaching methods, group work, project-based learning, and discussion techniques were implemented. The results demonstrate that collaboration-oriented pedagogical technologies significantly enhance students' social and communicative competencies and active participation in the educational process. Based on the findings, practical methodological recommendations for teachers are proposed.

Key words: collaboration skills, experimental work, cooperative learning, interactive methods, group work, project-based learning, pedagogical technology, competency-based approach, communicative competence, educational effectiveness.

Аннотация: В данной научной работе раскрываются педагогическое содержание, методические основы и практические механизмы организации опытно-экспериментальной работы, направленной на совершенствование навыков сотрудничества. В исследовании проанализированы теоретические аспекты образовательного подхода, основанного на сотрудничестве, а также показаны методы развития у учащихся навыков коллективной работы, взаимного общения, распределения ответственности и совместного решения проблем. Опытно-экспериментальная работа была организована на основе констатирующего, формирующего и контрольного этапов, обоснована эффективность интерактивных методов, групповой работы, проектной деятельности и методов обсуждения. Полученные результаты показывают, что педагогические технологии, ориентированные на сотрудничество, являются важным фактором развития социально-коммуникативных компетенций учащихся. В заключение разработаны методические рекомендации.

Ключевые слова: навыки сотрудничества, опытно-экспериментальная работа, интерактивные методы, групповое обучение, коллективная деятельность, педагогические технологии, компетентностный подход, эффективность обучения, коммуникативная компетенция, проектное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda. Bunday sharoitda shaxsdan nafaqat chuqur bilim va kasbiy tayyorgarlik, balki ijtimoiy faollik, jamoa bilan ishlay olish, muloqotga kirisha olish hamda samarali hamkorlik qilish kabi universal kompetensiyalar ham talab etiladi. Ayniqsa, hamkorlik ko'nikmalari bugungi kunda shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarda hamkorlik asosida ishlash malakasini shakllantirish va takomillashtirish

dolzarb pedagogik masala hisoblanadi. Hamkorlik ko'nikmasi – shaxsning boshqalar bilan umumiy maqsad sari birgalikda faoliyat olib borish, vazifalarni taqsimlash, o'zaro yordam ko'rsatish, fikr almashish hamda kelishuvga erishish qobiliyatidir. Mazkur ko'nikma nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelgusidagi kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy mehnat bozori jamoaviy ishlashni, kooperativ yondashuvni hamda o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatni talab etadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida hamkorlikka yo'naltirilgan metod va texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarda hamkorlik madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika fanida hamkorlikka asoslangan ta'lim, interfaol metodlar, guruhli ish shakllari, loyihaviy o'qitish hamda muammoli vaziyatlar asosida o'qitish kabi yondashuvlar keng o'rganilgan. Biroq hamkorlik ko'nikmalarini amaliy jihatdan rivojlantirish, ularni o'lchash va baholash, tajriba-sinov ishlari orqali samaradorligini aniqlash masalasi hanuzgacha chuqur ilmiy izlanishni talab etadi. Tajriba-sinov ishlari pedagogik g'oya va metodlarning amaliy natijasini aniqlashda muhim ilmiy-uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini puxta rejalashtirish va ilmiy asosda tashkil etish zarur [1].

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu esa an'anaviy, o'qituvchi markazli o'qitishdan o'quvchi markazli, interfaol va hamkorlikka asoslangan o'qitish modeliga o'tishni taqozo etadi. Hamkorlikka asoslangan ta'lim modeli o'quvchilarni faqat bilim oluvchi emas, balki bilimni birgalikda yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Natijada o'quvchilarda mas'uliyat, o'zaro hurmat, tinglay bilish, kelishuvga erishish hamda jamoada ishlash madaniyati shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, muammoning nazariy asoslari o'rganiladi, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi hamda amaliyotdagi holat aniqlanadi. Keyingi bosqichda tajriba dasturi ishlab chiqiladi, metod va vositalar tanlanadi, baholash mezonlari belgilanadi. Shundan so'ng tajriba amaliyotga joriy etiladi va natijalar monitoring qilinadi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqariladi [2].

Tajriba-sinov ishlarining mazmuni o'quv jarayonida hamkorlikni rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunda interfaol metodlar, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar, muammoli topshiriqlar, loyihaviy faoliyat hamda muhokama usullaridan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega [5].

Mazkur metodlar o'quvchilarning bir-biri bilan faol muloqotga kirishishini, fikr almashishini va birgalikda qaror qabul qilishini ta'minlaydi. Shu orqali hamkorlik ko'nikmalari bosqichma-bosqich shakllanadi va mustahkamlanadi [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarida diagnostika masalasi ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning hamkorlik darajasini aniqlash uchun maxsus mezon va ko'rsatkichlar ishlab chiqilishi zarur. Masalan, jamoada ishlash faolligi, muloqot sifati, vazifani taqsimlash qobiliyati, o'zaro yordam darajasi, nizolarni hal eta olish ko'nikmasi kabi omillar baholash mezoni bo'la oladi. Diagnostika natijalari tajriba samaradorligini aniqlash hamda metodik yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda o'qituvchining roli ham alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki jarayonni boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va hamkorlik muhitini yaratuvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi [6].

U o'quvchilarni birgalikda ishlashga undaydi, teng ishtirokni ta'minlaydi, ijobiy psixologik muhit yaratadi hamda har bir o'quvchining faolligini qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli o'qituvchining metodik tayyorgarligi va innovatsion yondashuvi tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi faqat o'quv mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Sinfdan tashqari faoliyatlar, jamoaviy loyihalar, ijtimoiy tadbirlar, munozara klublari va trening mashg'ulotlari ham bu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday faoliyatlar o'quvchilarning norasmiy muhitda ham hamkorlik qilish tajribasini boyitadi va ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi ta'lim islohotlari kompetensiyaviy yondashuvni ustuvor yo'nalish sifatida belgilamoqda. Kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchilarda amaliy faoliyatga tayyorlikni, jumladan, hamkorlikda ishlash kompetensiyasini shakllantirishni talab etadi [8]. Shu nuqtai nazardan hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish ilmiy-pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Tadqiqot jarayonida hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash, pedagogik shart-sharoitlarini belgilash hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Bu

esa ta'lim amaliyotini boyitadi, o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tajriba-sinov natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar o'qituvchilar faoliyatida qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur jarayon o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga, jamoada samarali ishlash madaniyatini shakllantirishga hamda shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Shu bois ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlar ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2017). Cooperative Learning: Theory and Practice. Minnesota: Interaction Book Company.
2. Slavin, R. E. (2014). Cooperative Learning and Academic Achievement. Boston: Allyn & Bacon.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press.
4. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. New York: Basic Books.
5. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. Journal of Engineering Education, 93(3), 223-231.
6. Gillies, R. M. (2016). Cooperative learning: Review of research and practice. Australian Journal of Teacher Education, 41(3), 39-54.
7. Shukurov, R., & Qurbonov, O. (2020). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Tolipov, O'., & Usmonboyeva, M. (2019). Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent.
9. Yo'ldoshev, J. G'., & Usmonov, S. A. (2018). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'qituvchi.
10. Azizxo'jayeva, N. N. (2016). Pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU nashri.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA NAZARIY ASOSLANISH MOHIYATI

Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy tushunchalar va nazariy asoslar yoritilgan. Shuningdek, mazkur masala bo‘yicha metodist, pedagog va psixolog olimlarning qarashlari keltirilib, ularning fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, matn ustida ishlash, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari, ilmiy tushunchalar, nazariy asoslar, qarashlar, subyektiv munosabat.

Abstract: This article presents the views of methodologists, educators, and psychologists on scientific concepts and theoretical foundations for developing students’ speech competencies through working with texts in the preparation of future primary school teachers. It also analyzes their perspectives.

Key words: future primary school teachers, working with texts, students’ speech competencies, scientific concepts, theoretical foundations, views, subjective attitude.

Аннотация: В данной статье представлены взгляды методистов, педагогов и психологов на научные концепции и теоретические основы развития речевых компетенций учащихся посредством работы с текстом у будущих учителей начальной школы, а также проанализированы их мнения.

Ключевые слова: будущие учителя начальной школы, работа с текстом, речевые компетенции учащихся, научные концепции, теоретические основы, взгляды, субъективное отношение.

KIRISH

O‘quv jarayonida ta’lim subyektlarining nutqiy kompetentligini zamonaviy ilg‘or texnologiyalar va interaktiv-innovatsion metodlar vositasida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ilmiy-nazariy asoslanish, pedagogik ustuvorlik va didaktik tamoyillarga tayanib tashkil etish, o‘quv mashg‘ulotlari maqsad va vazifalarini fanlararo aloqadorlik asosida interaktiv tarzda o‘rgatish ulardagi nutqiy-ijodiy faollikni oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, dastlab tushunchalarning lug‘aviy-semantik mazmuni va konseptual asoslanishi bo‘yicha bilimlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Kontekst so‘zining lug‘aviy ma’nosi va semantik birlik sifatidagi xususiyati hamda mohiyatidan kelib chiqib aytish joizki, “kontekst” atamasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim terminlardan biri sanaladi. U tilshunoslik va mantiqqa oid leksema bo‘lib, grammatik va morfologik ifodalarni muayyan matn asosida tushunishga yordam beruvchi vositadir. Mazkur ta’limiy vosita nutqiy vaziyatning nazariy-konseptual asoslarini yoritishni ta’minlaydi. Shu sababli o‘quvchilarni kontekstli yondashuvga yo‘naltirish va nutqiy kompetentligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tushunchaning g‘oyaviy-nazariy tavsifi tadqiqotchi M. Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasiga bag‘ishlangan monografiyasida batafsil bayon etilgan [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchi Sh. Sariyev matn mazmunini o‘rganish, tahlil qilish va idrok etish uchun ifodali o‘qish hamda yod olish, matndagi voqealarga munosabat bildirish, voqealar tizimi va tasviriy vositalarni aniqlash, asosiy g‘oyani belgilash, matn mazmunini qayta hikoyalash, ma’lumotlarga tayanib hikoyani davom ettirish, izlanish va ijodkorlikni talab etuvchi topshiriqlar, lug‘at ishlari hamda mustaqil ravishda hikoya tuzish yoki yozishga doir savol-topshiriqlarni ishlab chiqqan [2].

Metodist olima U. Masharipovaning fikricha, “Ona tili darsliklariga kiritiladigan mashq materiallari quyidagi mezonlar asosida tanlanishi o‘quvchilar nutqiy ko‘nikma va malakalarini o‘stirishning muhim omili sanaladi:

- bog‘lanishli matn xarakterida bo‘lishi;
- o‘rganilayotgan til bilimini o‘zlashtirishni ta’minlashi va mustahkamlashi;
- o‘quvchilar hayotiga bog‘liq va yoshiga mos bo‘lishi;
- davr taraqqiyotini o‘zida aks ettirishi;
- ta’limning shu bosqichida o‘qitiladigan fanlar bilan bog‘lanishi” [3].

D. Muhamedova matn atamasini quyidagicha izohlaydi: “1) matn deyilganda, tugal mazmunga ega bo‘lgan bir yoki undan ortiq gaplardan tuzilgan ifoda; 2) qissa, roman, gazeta yoki jurnal maqolasi, ilmiy monografiya, turli turdagi hujjatlar va shu kabi nutqiy asarlar mazmuni” [4].

“Ma’lum bo‘ladiki, matnni o‘qib tushunish, o‘qib eshittirilgan matn mazmunini anglash, matnni yod olish o‘quvchilarning retseptiv va reproduktiv nutqinigina o‘stirishga yordam beradi” [5]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlash asosiy o‘rin tutadi.

Matnni o‘qish, uning mohiyatini anglash hamda mazmunini to‘liq tushunish jarayonida o‘quvchilarning egallagan bilimlari va fikrlash mahsuli sinovdan o‘tadi. O. L. Kamenskaya “Matn va kommunikatsiya” asarida: “Matn bir vaqtning o‘zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o‘rtasida aloqa munosabatini yuzaga keltiruvchi vositadir”, – deya ta’kidlaydi [6].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matnli o‘qitish orqali turli axborotlarga ega bo‘ladilar. “Matn yaratilishi modullariga axborot generatori va artikulyatorlari kiradi. Nutq, xususan, matn yaratilishi nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning o‘ziga xos qoidalariga ham bo‘ysunadi” [7].

N. Abdurahmonovning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” asarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish hamda badiiy asarlardan olingan matnlar ustida ishlashning ijobiy natijalari haqida fikr yuritilgan [8].

Ayonki, “Ona tili” darsliklarida ilmiy, rasmiy va publitsistik matnlar bilan bir qatorda badiiy matnlar ham o‘rin olgan. K. Mavlonomaning e’tiroficha, “Badiiy matnning til xususiyatlarini o‘rganishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad o‘quvchilarni so‘z ishlatish mahorati bilan tanishtirish va ularda shunday mahorat ko‘nikmalarini shakllantirishdir” [9].

Bizningcha, badiiy matn orqali o‘quvchilarda so‘zni o‘rinli qo‘llash va matnga mos leksik birliklarni tanlab ishlatish ko‘nikmalari shakllanadi. Ularda matn mazmuniga mos leksik birliklarning ma’nolari va farqli jihatlarini bilgan holda so‘z qo‘llash mahorati rivojlanib boradi. Natijada og‘zaki va yozma savodxonlik darajasi oshadi.

Taniqli metodist T. Ziyodova matn mazmunini saqlagan holda uning shaklini o‘zgartirish, matndagi so‘zlarni ma’nodosh birliklar bilan almashtirish, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish yuzasidan topshiriqlar ishlab chiqqan hamda matnda qo‘llaniladigan sintaktik birliklar yuzasidan ilmiy fikr-mulohazalar bildirgan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash bilan birga, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa ekanligini anglagan holda, ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi o‘sib borishiga zamin yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari ta’limiy vositalarda o‘z aksini topib, ona tili o‘quv dasturlari va o‘quv darsliklari orqali amalga oshiriladi. Ona tili darsliklarida berilgan mashqlarning aksariyat qismi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiy nutq va uning xususiyatlari haqidagi dastlabki bilimlar umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridan boshlab ona tili darsliklarida o‘quvchilarga qoidalar, ta’riflar, mashq va topshiriqlar shaklida berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quvchilar yoshligidan nutq va uning turlari, ahamiyati, nutqning inson hayotidagi o‘rni haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar. 8-sinf “Ona tili” darsligida nutqning turlari va uning ko‘rinishlari haqida 4-mashqda ma’lumot berilgan. “Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aralashuvning eng asosiy vositasidir, u yozma va og‘zaki nutq jarayonida o‘z ijtimoiy vazifasini bajaradi. Nutqning adabiy va shevaga xos ko‘rinishlari bor” [11]. Ilmiy matnni o‘qing va tushunganlaringizni so‘zlab bering tarzidagi topshiriqlar o‘quvchilarda nutqning shakllanishi yuzasidan bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga xizmat qiladi. Bu mashqni o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan birgalikda savol-javob orqali mustahkamlash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishini ta’minlaydi. So‘zni o‘z o‘rnida ishlata bilish, uning leksik ma’nosini anglash zarur. So‘zning leksik ma’nosini tushunmaslik uni xato qo‘llashga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda o‘z nutqida morfemik va leksik birliklarni to‘g‘ri qo‘llash hamda matndan lisoniy sathlarni anglagan holda ularni matn tarkibiga kiritish bo‘yicha bilimga ega bo‘ladilar. Ular gaplarni so‘z va so‘z birikmasiga ajratganda, gapda ishtirok etgan so‘zlar va ularning o‘zaro semantik xususiyatini yaxlit holda tushuna olish ko‘nikmasini shakllantiradilar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchiga o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq, tushunarli va savodli tarzda ifodalashni o‘rgatishdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ularni mushohada qilishga o‘rgatib, yozma nutqiga e’tibor qaratish o‘qituvchilarning vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu haqida ma’lumotlar darslik va qo‘llanmalarda yoritilgan. Xususan, B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodovalarning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” [12] nomli qo‘llanmasida quyidagicha ma’lumot keltirilgan: ona tili ta’limining onglilik prinsipi quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Tilning ifoda imkoniyatlaridan to‘g‘ri va o‘rinli, nutqiy vaziyatlarga mos ravishda foydalana olish;
2. Mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish, ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish;
3. Kommunikativ savodxonlik, zamonaviy texnik vositalardan til o‘rganish jarayonida unumli foydalanishning turli usul va vositalarini bilish;
4. Lingvopsixologik o‘quv topshiriqlari tizimini ona tili ta’limiga joriy etish o‘quvchi ongida mustaqil mushohada yuritish, so‘z tanlash va fikr ehtiyojini hosil qilishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning darsdan keyin qo‘shimcha badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Darhaqiqat, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badiiy adabiyotni o‘qib, uni mustaqil tahlil qilar ekan, ularning og‘zaki nutqi rivojlanishi bilan bir qatorda savodxonlik darajasi ham oshadi. Qolaversa, har qanday badiiy asar o‘quvchining dunyoqarashini va so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda og‘zaki nutqni takomillashtirish bilan birga yozma nutq ham talab darajasida bo‘lishi lozim. A. G‘ulomovning fikricha: “Ba’zan o‘quvchilar berilgan savollarga nazariy jihatdan to‘g‘ri javob qaytaradi. O‘qituvchining nazarida u ona tilining qoidalarini yaxshi o‘zlashtirgandek tuyuladi. Ammo yozma ish jarayonida ana shu ‘o‘zlashtirgan’ qoidaga taalluqli qator xatolar sodir bo‘ladi”. Shuning uchun dars jarayonida o‘quvchilarning yozma nutqiga jiddiy e’tibor berish orqali ularning rasmiy ish hujjatlarini to‘g‘ri yozishiga yordam bergan bo‘lamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi faoliyatli omillarga tayanish lozim:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga lug‘atlar bilan ishlashni o‘rgatish;
- matn tarkibiga so‘zni to‘g‘ri tanlash me’yorini bilishga yo‘naltirish;
- matnga mos leksik birliklar semantikasini tushunishni oshirish;
- o‘zbek tilining imlo qoidalariga asoslanib matnni to‘g‘ri yozishni nazorat qilish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nutq turlari, xususan, yozma nutq jamiyatda millat savodxonligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Ona tili fanini o‘qitishda hozirgi zamon talablari asosida yondashish, dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy o‘qituvchi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Chunki an’anaviy ta’lim jarayoni o‘quvchilarni tayyor ma’lumotlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi ta’lim jarayoni yangi

innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘rgatilayotgan bilimlarni o‘quvchining o‘zi mustaqil ravishda izlab topishi va erkin holda xulosa chiqarishga undashni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Т.: Фан, 2008. – 160 б.
2. Сариев Ш. Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 36-38 б.
3. Машарипова У. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси: Пед. фан. док. (PhD) дисс. – Т.: 2018. – 80-163 б.
4. Муҳамедова Д. Микроматн ҳақида айрим мулоҳазалар // Тил ва адабиёти таълими. – Тошкент, 1998. – №1. – 56-б.
5. Нисанбаева А.Қ. Ўзбек тили дарсларида матн воситасида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг методик асослари (таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. номз. дисс. – Т.: ТДПУ, 2008. – 105 б.
6. Лосева Л.М. Как строится текст: Пособие для учителей. Переизд. – М.: Просвещение, 2000. – С.
7. Сариев Ш. Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 18 б.
8. Абдураҳмонов Н. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Тошкент, 1969. – 176 б.
9. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш: Пед. фан. ном. дисс. – Тошкент, 2019. – 30 б.
10. Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1995. – 16-19 б.
11. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2006. – 5 b.
12. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т., 2009. – 31 б.

ZOOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Dushekeeva Nasiba Rustembaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti Umumiy biologiya va fiziologiya kafedrasi stajyor o'qituvchisi

Arepbaev Islambek Muratbaevich
Qoraqalpoq davlat universiteti Umumiy biologiya va fiziologiya kafedrasi dotsenti,b.f.d.

Annotatsiya: Mazkur maqola zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlarini nazariy va metodologik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu metodologiya orqali talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, mustaqil fikrlash hamda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan metodlar talabalarning faolligini oshirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: zoologiya fanini o'qitish, talabalar faolligi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, pedagogik metodlar, tizimli yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article is dedicated to the theoretical and methodological study of the mechanisms for developing students' research activities in the process of teaching zoology. Using this methodology, the possibility of harmonizing students' theoretical knowledge with practical activities and forming independent thinking and research skills is analyzed. The research results show that research-oriented methods serve as an effective means of increasing student activity, developing problem-solving skills, and forming scientific conclusions.

Key words: teaching zoology, student activity, research activity, pedagogical methods, systematic approach, activity-oriented learning, competency-based approach.

Аннотация: Данная статья посвящена теоретическому и методологическому изучению механизмов развития научно-исследовательской деятельности студентов в процессе преподавания зоологии. С помощью данной методологии анализируется возможность гармонизации теоретических знаний студентов с практической деятельностью, формирования навыков самостоятельного мышления и научных исследований. Результаты исследования показывают, что научно-исследовательские методы служат эффективным средством повышения активности студентов, развития навыков решения проблемных ситуаций и формулирования научных выводов.

Ключевые слова: преподавание зоологии, активность студентов, научно-исследовательская деятельность, педагогические методы, системный подход, деятельностно-ориентированное обучение, компетентностный подход.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lajak mutaxassislarni mustaqil fikrlovchi, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qila oladigan va kasbiy faoliyatida tadqiqotchilik yondashuviga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o'qitishda ushbu jarayon talabalarning nazariy bilimlarini amaliy hamda ilmiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Zoologiya fani tirik organizmlarning morfologik, fiziologik, ekologik va evolyutsion xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur fan mazmuni talabalarda ilmiy kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash, tajriba o'tkazish hamda ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun keng didaktik imkoniyatlarga ega. Zoologiya mashg'ulotlarini faqat tayyor bilimlarni uzatishga qaratilgan an'anaviy usullarda olib borish talabalarning ilmiy faolligini to'liq rivojlantirish uchun yetarli emas. Shu sababli fan o'qitilishida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda [1].

Ilmiy-tadqiqot faolligi talabaning ilmiy muammoni aniqlash, faraz ilgari surish, kuzatish va tajribalar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish hamda asosli xulosalar chiqarishga bo'lgan faol ishtirokini ifodalaydi. Bu jarayonni samarali tashkil etish esa aniq mexanizmlar, metodlar va pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Zoologiya fanini o'qitish jarayonida mazkur mexanizmlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin.

Mamlakatimizda oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim standartlarining joriy etilishi ham ta'lim jarayonida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan, zoologiya fanini o'qitishda talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash hamda ularning amaliy samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Maqolada ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari hamda ularning ta'lim jarayoniga ta'siri yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish masalasi pedagogika va fanlarni o'qitish metodikasi sohasida ko'plab mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda bu muammo, asosan, tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli o'qitish, loyiha asosidagi ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan yoritilgan. Pedagogika nazariyasida ilmiy-tadqiqot faoliyatining mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi o'rni masalalari N.A. Menchinskaya, P.Ya. Galperin, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev kabi olimlarning ishlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida talabaning bilish faoliyati faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ilmiy izlanishga jalb etish ta'lim samaradorligining muhim omili sifatida asoslab berilgan. Xususan, L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi [1, 2].

Tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim masalalari xorijiy pedagogika fanida J. Dewey, J. Bruner, D. Kolb, B. Bloom tadqiqotlarida o'z aksini topgan. J. Dewey ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va talabaning shaxsiy tajribasiga tayangan holda bilimlarni egallash ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlagan. J. Bruner esa kashfiyot orqali o'qitish g'oyasini ilgari surib, talabalarning bilimlarni tayyor holda emas, balki mustaqil izlanish orqali o'zlashtirishi muhimligini asoslab bergan [3].

Tabiiy fanlarni, jumladan, biologiya va zoologiya fanlarini o'qitishda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish masalalari V.V. Davydov, I.Ya. Lerner, M.N. Skatkin, Yu.K. Babanskiylarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida muammoli ta'lim, tajriba va kuzatuvga asoslangan mashg'ulotlar talabalarning ilmiy fikrlashini rivojlantirishda samarali metodlar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Biologiya va zoologiya fanlarini o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda laboratoriya mashg'ulotlari, dala amaliyotlari va eksperimental ishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, V.M. Korsunskaya, N.M. Verzilin, I.D. Zverev kabi olimlar biologiya fanlarini o'qitishda tadqiqot xarakteridagi topshiriqlardan foydalanish talabalarning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaganlar. Mahalliy olimlar tomonidan ham ta'lim jarayonida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Jumladan, J.O. Tolipova, R.H. Jo'rayev, U. Tolipov, N. Saidahmedov, Sh. Sharipovlarning ishlarida oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil ta'lim hamda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini oshirish ta'lim sifatini yaxshilashning muhim sharti sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, biologiya va zoologiya fanlarini o'qitishda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish masalalari umumiy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlarini tizimli ravishda aniqlash va asoslashga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi hamda uni chuqur ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlarini nazariy va metodologik jihatdan asoslashga yo'naltirilgan. Tadqiqot umumilmiy va xususiy pedagogik metodologik yondashuvlarga tayangan holda olib borildi. Xususan, tizimli yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy hamda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari metodologik asos sifatida qabul qilindi.


Tizimli yondashuv zoologiya fanini o'qitish jarayonini o'zaro bog'liq bo'lgan maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va natijalar birligi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa talabaning bilish faoliyatini faollashtirish, uni ilmiy izlanish subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qildi. Kompe-

tensiyaviy yondashuv talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni integrativ tarzda rivojlantirish zaruratini asoslab berdi [4].

Tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi zoologiya fanini o‘qitish jarayonida ilmiy muammolarni qo‘yish, farazlar ishlab chiqish, tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan metodlarni aniqlashga imkon yaratdi. Ushbu yondashuvlar asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari tizimli ravishda o‘rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida zoologiya fanini o‘qitish jarayoni belgilandi. Tadqiqot predmeti esa zoologiya mashg‘ulotlarida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlaridan iborat bo‘ldi. Tadqiqotning maqsadi zoologiya fanini o‘qitish jarayonida ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash va ularni nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asoslari sifatida tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy hamda tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlari tanlandi. Ushbu yondashuvlar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda qo‘llanilib, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ta’minlaydi (1-rasm).



1-rasm: **Talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirishning metodologik sxemasi**

Rasmda tadqiqot metodologiyasining tarkibiy tuzilmasi, asosiy yondashuvlar va ularni amalga oshirishda qo‘llanilgan metodlar o‘zaro bog‘liq holda aks ettirilgan bo‘lib, u zoologiya fanini o‘qitishda ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish jarayonining mantiqiy va konseptual modelini ifodalaydi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida mavjud o‘quv dasturlari, fan sillabuslari hamda zoologiya mashg‘ulotlari mazmuni tahlil qilindi. Ushbu tahlil asosida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirilgan metodlar va vositalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni belgilandi.

Natijada tanlangan metodologik yondashuvlar va tadqiqot metodlari zoologiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash hamda ularni amaliy tavsiyalar darajasida ifodalash imkonini berdi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zoologiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari bir nechta asosiy yo‘nalishlar orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Avvalo, tizimli yondashuv talabalarning bilim va ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq tizim sifatida rivojlantirishga imkon beradi.

Bu yondashuv orqali o‘qitish jarayonidagi maqsadlar, mazmun, metodlar va vositalar bir-biri bilan uyg‘unlashadi hamda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga uzviy ta’sir ko‘rsatadi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabaning bilish va kuzatish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Talaba o‘zini ilmiy izlanish subyekti sifatida his qilishi natijasida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa talabalarni mustaqil fikrlash, muammoni aniqlash va uni tahlil qilishga yo‘naltiradi. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini o‘rganish jarayonida integrativ bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim mexanizmlari talabalarda ilmiy farazlar ishlab chiqish, kuzatish va tahlil qilish, shuningdek, xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi [4, 7].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, zoologiya mashg‘ulotlarida ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan metodlar va vositalardan foydalangan holda o‘qitish talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu tarzda talabalarning mustaqil izlanish, muammoni aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Natijalar asosida zoologiya fanini o‘qitish jarayonida ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish muammoli vaziyatlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish, laboratoriya va dala amaliyotlarini ilmiy-tadqiqot xarakterida rejalashtirish, mini-loyihalar, tadqiqot topshiriqlari va mustaqil izlanishlarni qo‘llash hamda talabalarning tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni qo‘llash orqali samarali amalga oshiriladi [5, 6].

Shu bilan birga, tahlil shuni ko‘rsatdiki, talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligi faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki amaliy vazifalarni bajarish, muammoli masalalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish orqali sezilarli darajada oshadi. Bu holat zoologiya fanini o‘qitish jarayonida tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Natijada talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari ularni mustaqil fikrlash, ilmiy tahlil qilish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi hamda ushbu mexanizmlar asosida o‘qituvchilar mashg‘ulotlarni rejalashtirishi va talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tizimli ravishda rivojlantirishi mumkin.

Topilgan xatolar va kiritilgan tuzatishlar hisoboti: “metod va vositalar” birikmasi “metodlar va vositalar” shakliga keltirildi – grammatik son mosligi ta’minlandi; “kuzatuv va tahlil qilish” ifodasi “kuzatish va tahlil qilish” tarzida bir xillikka keltirildi – terminologik izchillik ta’minlandi; “Talabalarning tahlil va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini” birikmasi “Talabalarning tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini” shakliga o‘zgartirildi – fe’llar parallelizmi ta’minlandi; Uyushiq bo‘laklarda bog‘lovchilar va tinish belgilari uslubiy jihatdan aniqlashtirildi; Ayrim jumlalardagi sintaktik og‘irlik yengillashtirildi va grammatik uyg‘unlik mustahkamlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zoologiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari tadqiqot natijalari asosida samarali va zarur deb topildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy hamda tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuvlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga, mustaqil fikrlash va ilmiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va nazariy asoslar shuni tasdiqladiki, talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligi ularning muammoli vaziyatlarni hal qilish, farazlar ishlab chiqish, kuzatish va tahlil qilish, shuningdek, ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, mazkur mexanizmlar talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularni zamonaviy ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, zoologiya fanini o‘qitishda ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish talabalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanish va ilmiy fikrlashga rag‘batlantiradi hamda fan amaliyotini chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur mexanizmlarni tizimli va uzviy ravishda qo‘llash o‘qituvchining pedagogik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. L. S. Vygotskiy (1978). Mind in society: The development of higher Psychological processes. Cambridge, MA: Harvard university press.
2. P. Ya. Galperin (1969). Stages in the formation of mental actions. Moscow: progress.
3. D. A. Kolb (1984). Experiential learning: Experience as the source of Learning and development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
4. J. O. Tolipova. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar: Darslik. – Toshkent, 2011. – 161 b.
5. M. N. Doniyorov, N. I. Mirzayeva, S. Z. Jumayev, S. I. Zayniyev, N. I. Toshpo‘latova. Biologiya o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2024. – 355 b.
6. G. N. Ibragimova. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: Monografiya. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2016. – 77 b.
7. S. X. Sulliyeva, Q. G‘. Zokirov. Biologiya o‘qitish metodikasi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 221 b.



INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Ergasheva Mehriyona
Turon universiteti, 770064019–xorijiy tillar,
filologiya va tillarni o‘qitish(ingliz tili) yo‘nalishi 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni hamda texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonida talabalarda lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalarni kommunikativ yondashuv doirasida rivojlantirish yo‘llari yoritilgan, shuningdek, mustaqil ta’limni rivojlantirish asosida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning metodik ta’minoti tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada ingliz tilini o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan o‘rinli foydalanish, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, mas’uliyatni his etishi, darslarga yangiliklar kiritishi hamda darsning qiziqarli va jonli bo‘lishini ta’minlashi masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy tilda so‘zlashish, innovatsion texnologiyalar, masofaviy o‘qitish, raqamli vositalar, o‘zlashtirish samaradorligi, sun’iy intellekt, grammatik qoidalar, TOEFL, IELTS, CEFR sertifikati, Duolingo ilovasi.

Abstract: The article examines the role of innovative technologies in teaching English and explores ways to develop students’ linguistic, sociolinguistic, pragmatic, and strategic competences within the framework of the communicative approach through the use of technology. It also analyzes the methodological support for the application of innovative technologies based on the development of independent learning. Furthermore, the paper discusses the effective use of modern technologies in learning and teaching English, the teacher’s continuous professional development, sense of responsibility, introduction of innovations into lessons, and the provision of engaging and dynamic classroom activities.

Key words: foreign language speaking, innovative technologies, distance learning, digital tools, learning efficiency, artificial intelligence, grammatical rules, TOEFL, IELTS, CEFR certificates, Duolingo application.

Аннотация: В статье освещается роль инновационных технологий в обучении английскому языку, а также раскрываются пути развития лингвистической, социолингвистической, прагматической и стратегической компетенций студентов в рамках коммуникативного подхода посредством использования технологий. Кроме того, проанализировано методическое обеспечение применения инновационных технологий на основе развития самостоятельного обучения. В статье также рассматриваются вопросы целесообразного использования современных технологий при изучении и преподавании английского языка, профессионального самосовершенствования преподавателя, осознания им ответственности, внедрения новшеств в учебный процесс и обеспечения интересной и динамичной организации занятий.

Ключевые слова: говорение на иностранном языке, инновационные технологии, дистанционное обучение, цифровые инструменты, эффективность усвоения, искусственный интеллект, грамматические правила, сертификаты TOEFL, IELTS, CEFR, приложение Duolingo.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli rivojlanish sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan va texnologiya tili sifatida muhim o‘rin egallaydi. Ta’lim tizimida ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab yil sayin ortib bormoqda. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Yangi davr hozirgi kun o‘qituvchilariga yangi vazifalar va bir qator mas’uliyatlarni yuklaydi. Zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi bilan ingliz tilini o‘qitish an’anasi sezilarli darajada o‘zgardi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan chet tillarni yanada takomillashtirib o‘qitish yuzasidan 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son[1], ya’ni “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, chet tili o‘qituvchilariga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarda erkin so‘zlasha oladigan qilib

1 https://lex.uz/docs/-2126032

tayyorlash mas'uliyati yuklatildi. Qaror bir necha banddan iborat bo'lib, aynan qarorning to'qqizinchi bandida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida batafsil bayon etilgan.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo'lib bormoqda. Bir qator ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishning yangi metod va yo'llarini hayotga tatbiq etmoqdalar. Bu, albatta, chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Bundan tashqari, o'quvchi jonli harakatlarni ko'rib, ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushunishga harakat qiladi. Albatta, har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar – kompyuter, radio, CD, DVD vositalarini qo'llash ta'lim jarayonini yanada olg'a siljitib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o'rganish imkonini beradi. Chet tilini qisqa muddatda ravon o'rganish uchun quyidagi usullarni qo'llash foydali deb ta'kidlanadi.

- **O'ziga ishonchni oshirish.** Chet tilini o'rganishni maqsad qildingizmi, aslo qo'rqmaslik lozim.
- **Aniq bir maqsad sari harakatlanish.** Agar bir tilni nima maqsadda o'rganayotganimizni aniqlab olsak, uni o'zlashtirish osonroq bo'ladi, ya'ni kimdir yaxshi o'qib universitetga kirmoqchi, kimdir esa TOEFL, IELTS yoki CEFR sertifikatini olmoqchi bo'ladi.
- **Albatta, aniq maqsad qo'yish va uning ortidan borish.** Lug'at va grammatik qoidalarni yod olish. Har bir tilni lug'at yodlamasdan o'rganib bo'lmagani kabi, grammatik qoidalarsiz ham mukammal darajaga yetib bo'lmaydi.
- **Turli til o'rgatuvchi dastur va saytlardan foydalanish.** Misol tariqasida "HelloTalk", "Duolingo" yoki "15 tilni o'qitish" ilovalarini aytish mumkin. Ulardan oqilona foydalanish o'z samarasini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi CEFR, ya'ni Xalqaro Yevropa ta'lim standartlarining talablari bo'yicha to'rtta (writing, reading, listening, speaking) kompetensiya asosida ingliz tilida yozish, o'qish, tinglab tushunish va so'zlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida texnologiyalardan unumli va o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tinglab tushunish darslarida audio matnlarni qo'yib eshittirishning ham o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bunda asosiy maqsad – o'rganuvchining eshitayotgan audio materialni to'liq tushunib olishi va uni qiynalmasdan tahlil qila olishini ta'minlashdir. Buning uchun, eng avvalo, muhitni audio materialni qo'yib eshittirishga tayyorlash, tinglovchilar uchun osoyishta sharoitni ta'minlash zarur. O'qituvchi esa qo'yilayotgan audioning sifatiga hamda ovoz kuchaytirgichlarning soz ishlayotganiga e'tibor qaratishi, shuningdek, audioni eshittirishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlar tayyor ekanligini hamda o'rganuvchilar tarqatma materiallar bilan ta'minlanganligini nazorat qilishi lozim. Nega xorijiy tilni o'rganish muhim?

Chet tilini o'rganishning eng aniq foydasi – turli mamlakatlardan kelgan insonlar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatidir. Agar siz tadbirkor bo'lsangiz, mijozlaringiz yoki hamkorlaringiz tilida muloqot qilishingiz mustahkam ishonch rishtalarini shakllantirishga va barqaror hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga yordam beradi. Shuningdek, ularning madaniyati, qadriyatlari va biznes amaliyotlarini tushunish imkonini beradi, bu esa bugungi globallashgan iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Savol tug'iladi: chet tilini necha yoshdan boshlab o'rganish maqsadga muvofiq? Shu o'rinda aytish lozimki, bola tilni o'zlashtira boshlagan, ya'ni gapirishni o'rganayotgan davrdan boshlab xorijiy tilni ham samarali o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda fakultetimizning salohiyatli metodist-olimlari tomonidan "Bog'cha-maktab-oliygoh" klasterini shakllantirish maqsadida "My First English Book" nomli birinchi darslik tayyorlandi. U bog'cha yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, kichkintoylarning til o'rganish jarayonini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekistonda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yangi metodlari joriy etildi. Masalan, multimediya asosida chet tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarda to'rt ko'nikmani bir vaqtning o'zida rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati yaratildi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn ta'lim platformalari va mobil ilovalar talabalar motivatsiyasini oshiradi, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda til ko'nikmalarini tezroq shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar shaxsiylashtirilgan ta'limni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3-yilda 10 baravarga oshgan. Joriy yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o'tgan yillarga nisbatan 5 baravar ko'pdir. Chet tilini o'qitishning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijiy doktoranturada ta'lim olish uchun yiliga

20 ta o‘rin ajratiladi. Britaniya Kengashi, Gyote instituti, Fransuz alyansi, KOIKA, JICA, Konfutsiy instituti kabi xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, nodavlat o‘quv markazlarini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha ishlarni samarali tashkillashtirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari – 2021-yil 1-iyulga qadar Agentlik bilan birgalikda joriy yilning ikkinchi yarmi uchun mo‘ljallangan hududlarda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqsin, keyinchalik esa har yili 15-yanvarga qadar bunday “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqib, tasdiqlasin; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori – O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida: “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida ta’lim muassasalarining kamida C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) o‘qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo‘shimcha ustama haqi to‘lab borilsin. Bunda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kamida C1 darajadagi xalqaro sertifikatni olish uchun imtihon topshirish bilan bog‘liq xarajatlari Davlat budjetidan pedagog kadrlar malakasini oshirish uchun ajratiladigan mablag‘lar hisobidan, davlat oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining xarajatlari esa oliy ta’lim muassasalarining o‘z mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son[2] qarorining 1-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik), shuningdek, Agentlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etilganligi; 2-bandiga muvofiq Agentlik va uning vakillari O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o‘qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazining 34 ta shtat birligi, Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimining 39 ta shtat birligi hisobidan tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2025-2026-o‘quv yiliga qadar umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o‘qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lishi lozim. Shu munosabat bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi mazkur talabdan kelib chiqqan holda barcha xorijiy til ustozlarining 2025-2026-o‘quv yiliga qadar kamida B2 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lishi lozimligini qat’iy eslatib o‘tgan. Kimlar xorijiy til o‘qituvchilari toifasiga kiradi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorida 15 ta xorijiy til ro‘yxati keltirilgan. Bular ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu va hind tillari hisoblanadi. Demak, aynan mana shu tillardan dars beradigan pedagoglar xorijiy tillar o‘qituvchilari hisoblanadi. Muhim! Ro‘yxatda “Rus tili” fani o‘qituvchilari xorijiy til o‘qituvchisi sifatida qayd etilmagan. Demak, “Rus tili” fani o‘qituvchilariga maktabda ishlashi uchun milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lish talabi mavjud emas. Yurtimizda chet tillarini o‘rganishga qaratilgan chora-tadbirlar bejiz amalga oshirilayotgani yo‘q. Chunki boshqa tillarni bilishga ehtiyoj bugun paydo bo‘lib qolmagan, balki uzoq o‘tmishimizda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ajdodlarimiz o‘z ona tillari qatori boshqa tillarni ham mukammal bilishga intilganlar va bunga erishganlar. Ko‘plab ajdodlarimiz boshqa tillarni chuqur egallash bilan bir qatorda o‘sha xalqning ma’naviy merosiga o‘zlarining durdona asarlari bilan ham hissa qo‘shganlar. Biz ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishga harakat qilmoqdamiz. Yurtimizda shu xususda qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillari o‘qituvchilari tayyorlandi. Umumta’lim maktablarining 5-9-sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo‘yicha multimedia darsliklari, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha elektron resurslar tayyorlandi. Umumta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko‘proq lingafon kabinetlari jihozlandi. Chunki xorijiy tilni o‘rganish asnosida o‘sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti va dunyoqarashi bilan yaqindan tanishamiz. Bu holat til o‘rganishni boshlagan ilk kunlardanoq sezilmasligi mumkin, ammo uni puxta va mukammal o‘rgansak, buni anglaymiz.

2 https://lex.uz/docs/-5426736

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o‘rganish bugungi globallashgan dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy tilni o‘rganish muloqotni yaxshilaydi, martaba imkoniyatlarini oshiradi, madaniy tushunishni rivojlantiradi va hatto kognitiv funksiyalarni yaxshilashi mumkin. Agar siz o‘z martabangizni ko‘tarmoqchi bo‘lsangiz yoki shunchaki dunyoqarashingizni kengaytirmoqchi bo‘lsangiz, yangi til o‘rganishni boshlang. Bu o‘zingiz uchun eng yaxshi sarmoyalardan biri bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, yangi tilni o‘rganish muvaffaqiyat hissini ta’minlaydi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Bu sizga yangi vazifalarni bajarishga hamda shaxsiy va professional maqsadlaringizga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. PQ-1875 “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror. 2012-yil 10-dekabr. https://lex.uz/docs/-2126032
2. Boswood, T. (1997). New Ways of Using Computers in Language Teaching (New Ways in TESOL Series II). California: Teachers of English to Speakers of Other Languages.
3. Harmer, J. (2007). How to Teach English. Harlow, Essex: Pearson Longman.
4. Johnson, D., & Eisenberg, M. (2006). Learning and Teaching Information Technology: Computer Skills in Context. East Lansing, MI: ERIC document ED465377. Retrieved June 7, 2007- from http://www.ericdigests.org/2003-1/skills.htm.
5. Warschauer, M., & Kern, K. (2000). Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING TASVIRIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jummayeva Sayyora Shokir qizi
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari, maqsadi va vazifalari, tasviriy ko'nikmalarni shakllantirishning turlari hamda usullari, tasviriy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, faollik markazlarining o'rni, pedagog mahorati, tarbiyalanuvchilarning tasviriy ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi, sinov-tajriba natijalari va ularning tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchilar, tasviriy ko'nikma, shakllantirish, turlari va usullari, faollik markazi, pedagog mahorati, sinov-tajriba, intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, estetik.

Abstract: The theoretical foundations, goals, and objectives of developing visual skills in preschool educational institutions are presented in this study. The types and methods of developing visual skills, educational technologies that promote visual skill formation, the role of activity centers, pedagogical mastery, the level of visual skill development, as well as the results and analysis of experimental work are described.

Key words: preschool education, children, visual skills, development, types and methods, activity center, pedagogical mastery, experimental work, intellectual, moral-spiritual, physical, aesthetic.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические основы, цели и задачи формирования изобразительных навыков у воспитанников дошкольных образовательных организаций, виды и методы их формирования, образовательные технологии, способствующие развитию изобразительных навыков, роль центров активности, педагогическое мастерство, уровень сформированности изобразительных навыков, результаты опытно-экспериментальной работы и их анализ.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитанники, изобразительные навыки, формирование, виды и методы, центр активности, педагогическое мастерство, опытно-экспериментальная работа, интеллектуальный, духовно-нравственный, физический, эстетический.

KIRISH

Maktabgacha ta'limning bosh vazifasi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, shuningdek, bola shaxsini shakllantirish, uning bilimga qiziqishini, madaniy-axloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini tarkib toptirish, ilmga muhabbat hissini tarbiyalash, ularda olam haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish hamda salomatligini mustahkamlashdan iborat. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida ularning tabiatni va undagi hodisalarni estetik idrok etish malakalarini shakllantirib borish ham muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablar uning pedagogik jihatlarini yangilashni, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar hamda ilgari surilayotgan ijtimoiy talablar asosida takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunda, birinchi navbatda, jarayonning nazariy va amaliy asoslari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, yosh avlodning intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan hayotga tayyor shaxs bo'lib yetishishi uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish hamda ta'lim mazmunini izchil taqdim etish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun bog'cha va oilada ularning keng qamrovli faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan pedagogik sharoit yaratish zarur. Bu esa bolalarda atrof-olam hamda undagi voqea va hodisalarni anglash ko'nikmalarini tarkib toptirish vositasida ularning maktab ta'limiga tayyor bo'lishini, bu jarayonda lozim bo'ladigan sobitqadamlik, g'oyaviylik, o'rtoqlari va tengdoshlariga do'stona munosabat, ularni tushunish, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bu borada keng imkoniyatlarga ega. Bolalarni rasm ishlash texnikasiga o'rgatish hech qachon birdaniga amalga oshmagan. Bolalar rasmlarining dastlabki tadqiqotchilari – Korrodo Richchi, Liberti Tedd, M. Bexterev kabilar bolalar ijodiyoti rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini ta'kidlagan holda, ularni rasm ishlashga o'rgatishning zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolalarga rasm ishlash texnikasini maxsus mashqlar tizimi orqali o'rgatish g'oyasi birinchilardan bo'lib italiyalik san'atshunos Korrodo Richchi tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lib, u bunday mashqlarsiz hatto kattalar ham bolalarning bilim saviyasi darajasida qolishi mumkinligini ta'kidlagan. Filadelfiyadagi badiiy ishlab chiqarish maktabining direktori, akademik Liberti Tedd qo'lning chaqqonligi va harakatchanligini tasvir mazmunini ifodalashning muhim sharti sifatida qaragan. Uning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash joizki, qo'lning chaqqonligi rasm ishlash texnikasini egallash, keng ma'noda bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish hamda ko'plab faoliyat turlarida asqotadigan rassomlik mahoratini rivojlantirish uchun zarurdir.

Shularni e'tiborga olgan holda Liberti Tedd rasm chizishda qo'l harakatlari uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqqan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bu mashqlarni bolalar jondillik bilan bajaradilar. Bu mashqlar tizimida faqatgina geometrik shakllarni chizdirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki tabiiy unsurlarni tasvirlash orqali bolalarning ona tabiatga bo'lgan qiziqishi va kuzatuvchanligini rivojlantirish lozimligi ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'z navbatida, boshqa ta'lim-tarbiyaviy ish bo'limlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini o'tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlariga tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvurga ega bo'lsalar, rasm, loy, applikatsiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin. Tasviriy faoliyat turlarining bolalar o'yini bilan bog'liqligi alohida ahamiyatga ega. O'yin bola hayotida katta o'rin egallaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi turli xil o'yinlar o'tkaziladi: mazmunli-rolli, dramatlashtirish, didaktik va harakatli o'yinlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday o'yin bolaga zavq bag'ishlaydi. Shunday ekan, tasviriy faoliyat ham o'yin bilan bog'lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli bo'ladi hamda emotsional javobni uyg'otadi, bu esa bolalar ishlari sifatiga yaxshi ta'sir etadi. Mashg'ulotlarda o'yinli holatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg'ulotlarda erkin harakat qiladilar. O'yin usuli barcha guruhlarda qo'llaniladi. Bu usul yordamida yengil, quvnoq muhit yaratiladi. Bolalarning mashg'ulotga qiziqishi ortadi, tasviriy faoliyat ko'nikma va malakalari samarali egallanadi. O'yin shaklida o'tadigan mashg'ulot bolalarni qamrab oladi, ularning estetik va axloqiy jihatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish ishlari o'yinchoq orqali o'yin bilan bog'langan bo'ladi. O'yinchoqni chizish, yasash, qirqib-yopishtirish barcha yosh guruh bolalarida zavq uyg'otadi, o'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar yil davomida bir necha marta o'tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo'lishi zarur. Bolaning hayotida syujetli-rolli o'yinlar muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun tasviriy faoliyatning o'yin bilan bog'lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Syujetli-rolli o'yinlarni mashg'ulot mazmuniga kiritish bolaning tasvirlash faoliyatiga qiziqishini oshiradi, bajarilayotgan ishning sifatini yaxshilaydi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari – boshlangan ishni oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordam berish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Kollektiv ish yaratish jarayonida bolalarda bir-biriga yordam berish, kelishib ishlash kabi sifatlar shakllanadi. Ishni baholash jarayonida bolalarda o'rtoqlarining ishiga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishi va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish va tarbiyalash zarur, faqat navbatchilik orqali ayrim bolalarda emas, balki har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi.

Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi rang, ritm, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni va uning xilma-xilligini sezsa yoki aks ettira olsa, ular ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi ularda predmetga va uning ayrim sifat-

lariga nisbatan estetik baho berishga o‘rgatadi. Ularda tasviriy san’at asarlarini tushunish va ularga nisbatan his-tuyg‘u hamda munosabat shakllanadi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodiy o‘sishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy-ijodiy o‘sishi obrazli fikr yuritish, estetik idrok etish va obraz yaratishda zarur bo‘lgan malaka hamda ko‘nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog‘iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg‘u orqali tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to‘g‘ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalashi mumkin.

Bolalarni o‘z ishini yanada chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko‘rganda quvonadigan qilib yaratish badiiy va axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy va qurish materiallari bo‘yicha bilim hamda malakalarni egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlariga asos bo‘ladi. Ular bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko‘rsatmalarini bajarishga o‘rgatadi. Oldiga qo‘yilgan vazifani hal etishda uning asosiy va muhim hal etish yo‘llarini izlab topish o‘quv faoliyatining asosiy omillaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o‘z ishini nazorat qilib borish maktabda vazifalarni bajarishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi: qiziqish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug‘ullanish va boshqalar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olingan malakalar bolalarning maktab hayotiga tezda moslashib ketishiga asos bo‘ladi.

Tasviriy faoliyat – bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishning qismi sifatida. Maktabgacha ta’lim muassasasida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta’lim-tarbiyaviy ishning bir qismi hisoblanadi. Shu sababli u xilma-xil faoliyat va mashg‘ulot turlari bilan bog‘liq bo‘lishi muhimdir. Bunga bola tasviriy faoliyatining xarakteri o‘zi imkoniyat yaratadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish ishlarida bolalar o‘zlarining tevarak-atrofidagi narsa-hodisalar, badiiy asarlar va qo‘shiqlardan olgan taassurotlarini aks ettiradilar. Rasm, loy, qirqib yopishtirish va qurish-yasash ishlarining boshqa mashg‘ulotlar hamda faoliyat turlari bilan bog‘liqligi bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishning samaradorligini oshiradi, bolalarning turli mashg‘ulotlarga qiziqishini kuchaytiradi.

Maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarning shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Barcha faoliyat turlarining bog‘liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg‘u, badiiy did, shu bilan birga axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko‘nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bolalar bilan tasviriy mashg‘ulotlarda o‘tkaziladigan suhbat ularda rasm chizishga, loydan narsa yasashga qiziqish uyg‘otishi zarur.

O‘tayotgan jarayon bilan bog‘liq bo‘lmagan yuzaki talablar bolalarning ijodiy emotsiyalarini so‘ndiradi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari jonli, emotsional, ertakli, syurprizli elementlar bilan o‘tilishi lozim. Ta’lim jarayonini yengil, bolalar sezmaydigan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar – o‘yin, badiiy o‘qish va hikoya qilish, musiqa va hokazo bilan bog‘liqligini tizimli olib borish kerak. Dastavval rasm, loy va qirqib yopishtirish mashg‘ulotlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash zarur.

Bu bolalarning estetik tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kichik yosh guruhi bolalarida estetik did sekin-asta rivojlanib, takomillashib boradi. Ular badiiy asarlar va ularning ritmi, qofiyasi, rangi kabi elementlarini idrok eta boshlaydilar. Bola badiiy asarda tasvirlangan o‘ziga tanish predmetlarni ko‘rganida juda quvonadi va ularni tasavvuridan o‘tkazishga harakat qiladi. Shu tariqa uning badiiy faoliyati asta-sekin oddiydan murakkablikka o‘tib boradi. Ular nafaqat tasvirlashda, balki musiqiy faoliyatida ham oddiy malakalarni egallaydilar, bu esa ijodiy faoliyatining dastlabki alomatlari sifatida namoyon bo‘ladi. Bular bolada kichik yosh davridayoq badiiy faoliyatning estetik sifati shakllanayotganini ko‘rsatadi.

O‘rta yosh guruhida idrok etish ancha rivojlanadi, uning aniqligi va xilma-xilligi namoyon bo‘ladi. Bu davrdagi estetik idrok bolaning xususiy tajribasiga va qiziqishlariga asoslanadi. Endilikda bola badiiy obrazlarni estetik baholash, ayrim estetik vositalarni his qila olish, san’at asarlarining ma’nosini tushuna olish ko‘nikmalariga ega bo‘la boshlaydi. Bolalar ashulani qora so‘zdan, badiiy asar, musiqa va tasviriy san’at janrlarini bir-biridan farqlay oladilar. Ularda ijodkorlikka intilish aniq namoyon bo‘la boshlaydi, bola raqsni, qo‘shiq aytishni va sahna ko‘rinishlarini obrazli tarzda ifodalay olishga o‘rganadi.

Katta yosh guruhi bolalari musiqa va badiiy asarlarni quyi guruhlarga nisbatan diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san’at asarlarini tasavvur qilish, ularni chuqurroq tushunish, yaxshilikka quvonish va yovuzlikka murosasiz bo‘lish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu davrda badiiy-ijodkorlik ko‘nikmalari jadal rivojlanadi, topishmoqlar, qo‘shiqlar, taqmoqlarni amalda qo‘llaydilar, rasmlar chizadilar, applikatsiyalar bilan shug‘ullanadilar. Bu yoshdagi bolalar nafaqat o‘z ijodkorligiga, balki boshqalarning ijodkorligiga ham baho berish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bolalar endi san’at asarlarining faqat estetik sifatlarini tasavvur etibgina qolmasdan, balki ularning ma’no-mazmunini ham anglay oladilar. Bolalarda san’at asarlari va kundalik turmushda uchraydigan go‘zallikka qiziqish shakllanadi. Badiiy ijodkorlik ko‘nikmalari zarur darajada turg‘un va aniq bo‘lmasa ham, asta-sekin ko‘zga tashlana boshlaydi.

XULOSA

Shu aytilganlardan kelib chiqqan holda, estetik tarbiya masalalarini chuqurroq tushunib yetish uchun uni to‘rtta guruhga bo‘lish mumkin:

- estetik idrokni rivojlantirish, estetik emotsiyalar, hissiy tuyg‘ular va munosabatlar hamda qiziqishlarni shakllantirish; elementar estetik ongni shakllantirish;
- estetik faoliyatni o‘zlashtirish;
- estetik va badiiy ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya mazmuniga bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bolalarning estetik faoliyatida amalga oshiriladigan estetik tuyg‘u, qiziqish, talab, baholash va didni tarbiyalash kabi masalalar kiradi. Atrof-muhitni estetik idrok etish jarayonida bolalarda go‘zallik to‘g‘risidagi bilimlar shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiyaning barcha jabhalarini birgalikda amalga oshirish kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan davlat talablari. – T.: Kvinta Print, 2012-y.
2. Nurmatova M. Sh., Xasanova Sh. T. Rasm, buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi. – T.: “Sho‘lpon”, 2010-y.
3. Nurmatova M. Sh., Xasanova Sh. T., Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. – T.: “Musiqa”, 2010-y.
4. Komenskiy Ya. A. Buyuk didaktika. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975-y.
5. Vigotskiy L. S. Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1984-y.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND VIRTUAL REALITY IN MODERN ENGLISH TEACHING METHODOLOGIES

Seilkhanova Rita Nurniyazovna
Academic supervisor, an assistant teacher at department of English language and literature, Karakalpak State University named after Berdakh

Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi
A student at department of English language and literature, Karakalpak State University named after Berdakh

Abstract: The article analyzes the role of digital technologies and virtual reality (VR) in modern English language teaching. It traces the evolution from CALL to immersive VR, highlighting its impact on communicative competence and motivation. The study concludes that technology serves as a powerful pedagogical tool that enhances learning efficiency without replacing the teacher.

Key words: digital technologies; CALL; MALL; virtual reality (VR); augmented reality (AR).

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ingliz tili o'qitish metodikasida raqamli texnologiyalar va virtual reallikning (VR) roli tahlil qilinadi. Unda CALL dan MALL va immersiv VR gacha bo'lgan evolyutsiya yoritiladi hamda uning kommunikativ kompetensiya va motivatsiyaga ta'siri ko'rsatib beriladi. Texnologiyalar o'qituvchi o'rnini bosmasdan, ta'lim samaradorligini oshiruvchi kuchli pedagogik vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar; CALL; MALL; virtual reallik (VR); kengaytirilgan reallik (AR).

Аннотация: В статье анализируется роль цифровых технологий и виртуальной реальности (VR) в преподавании современного английского языка. В работе прослеживается эволюция от CALL до иммерсивной виртуальной реальности, подчеркивается ее влияние на коммуникативную компетентность и мотивацию. Делается вывод о том, что технология служит мощным педагогическим инструментом, повышающим эффективность обучения без замены учителя.

Ключевые слова: цифровые технологии; CALL; MALL; виртуальная реальность (VR); дополненная реальность (AR).

INTRODUCTION

The earliest stage of this development can be traced to the rise of Computer-Assisted Language Learning (CALL) in the 1960s-1970s. During this period, computers were mainly used for repetitive drills, grammar exercises, and controlled practice tasks. These early programs reflected behaviorist learning principles, in which language learning was viewed as habit formation. Although limited in interactivity, early CALL introduced the idea that technology could support language practice beyond the teacher-led classroom. In the 1980s and early 1990s, the role of technology in ELT expanded as personal computers became more accessible and multimedia tools emerged. Language learning software began to incorporate audio, images, and video, enabling learners to practice listening and pronunciation more effectively. This stage is often associated with the shift from behaviorist CALL to communicative CALL, as teachers started using technology to support meaning-focused communication rather than solely form-based drilling.

At the same time, word processors and digital dictionaries became common in writing instruction, enabling students to draft, edit, and revise texts more independently. The rapid growth of the Internet in the mid-1990s-2000s marked a major turning point in contemporary English teaching methods. Web-based learning introduced new opportunities for authentic input and real communication. Learners could access real-world texts, news articles, and videos, and communicate with English speakers through email, forums, and later social networks. This period strengthened the role of task-based learning and project-based learning, as technology facilitated the creation of collaborative tasks, research projects, and presentations. Teachers increasingly used online resources to develop learners' communicative competence, intercultural awareness, and digital literacy.

LITERATURE REVIEW

In the 2010s, mobile technologies and social media further expanded digital language learning. Mobile-Assisted Language Learning (MALL) became an important trend, as smartphones allowed learners to practice vocabulary, listening, and speaking through apps anytime and anywhere. Platforms such as YouTube, Instagram, and later TikTok began to influence language learning through micro-content, authentic speech, and informal interaction. At the same time, learning management systems (LMS), such as Moodle and Google Classroom, supported blended learning approaches by combining face-to-face instruction with online tasks. This stage increased the focus on learner autonomy, personalized learning, and continuous formative assessment.

Virtual reality (VR) emerged as a more specialized and advanced branch of digital technology in ELT. Early forms of VR-related language learning appeared through virtual worlds and 3D environments, such as Second Life in the mid-2000s. These platforms allowed learners to create avatars and interact in simulated spaces, providing opportunities for role-play, social interaction, and contextual language use. Although such environments were not fully immersive, they introduced the key idea that language learning could take place in a simulated world resembling real-life communication contexts.

RESEARCH METHODOLOGY

From the mid-2010s onward, the development of VR headsets and immersive applications brought VR closer to mainstream education. Unlike earlier virtual worlds, modern VR systems offered stronger sensory immersion, spatial presence, and interactive experiences. In ELT, VR began to be used for situational speaking practice, such as ordering food in a restaurant, navigating an airport, attending job interviews, or participating in classroom discussions. These simulated experiences aligned well with communicative language teaching and task-based instruction because learners could practice language functions in meaningful contexts.

VR also became valuable for reducing speaking anxiety, since students could practice in a safe environment without fear of immediate judgment from peers. The COVID-19 pandemic accelerated the use of digital technology in English teaching globally. During periods of quarantine and isolation, online learning platforms such as Zoom, Microsoft Teams, and Google Meet became essential for maintaining instruction. However, many educators recognized that video-based platforms often created a limited and passive learning experience. As a result, interest in more interactive and immersive technologies–including VR, AR (augmented reality), and 360-degree video–grew significantly. These tools offered new possibilities for creating "presence" and authentic communication during remote learning, helping to overcome the limitations of textbooks and traditional online instruction [1; 173].

ANALYSIS AND RESULTS

Today, digital technology and VR are increasingly viewed as tools that support contemporary teaching approaches rather than replace teachers. In modern ELT methodology, technology is integrated through frameworks such as blended learning, flipped classrooms, gamification, and digital task-based learning. VR is particularly associated with experiential and situated learning, as it provides learners with realistic contexts for language use. Additionally, VR supports intercultural competence by allowing students to explore cultural settings, interact with realistic scenarios, and practice language in contextually meaningful ways. As research continues to develop, VR is becoming more widely discussed as a promising method for enhancing speaking fluency, vocabulary acquisition, motivation, and learner engagement. Overall, the history of digital technology and VR in English teaching reflects a gradual shift from controlled, form-focused practice toward interactive, learner-centered, and context-rich learning experiences.

From early CALL programs to modern immersive VR environments, technology has increasingly supported authentic communication, autonomy, and practical language use, making it a central component of contemporary English language teaching methodology. Virtual Reality (VR) is a technology that allows students to practice using language in different life-like situations. Language learning through augmented reality experiences adds variety to online language learning and is currently regarded as a promising and researchable element in the field of education, particularly as an emerging technology in language teaching and learning [8;208]. Although the quality and pedagogical design of available tools differ–for example, some applications place learners in fully computer-generated environments, while others provide reality-based interactions with real people through pre-recorded responses–the underlying purpose remains consistent. Specifically, these technologies aim to address the limitations of traditional classrooms and textbooks. This became particularly important during the COVID-19 period, when isolation and quarantine restricted face-to-face communication. As a result, language learners were able to engage in more authentic and practical uses of the target language.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

According to Schwienhorst, simulated environments allow EFL and ESL learners to practice language in authentic situations and enable the practical adaptation of collaborative learning theories, particularly the concept of constructivism, through the integration of virtual reality as a language learning tool [3;2412]. Current educational practices are no longer limited by geographical or disciplinary boundaries. As education continues to evolve, educators encounter an increasing diversity of paradigms, methodologies, and technologies that require informed, flexible, and adaptive approaches [1;173].

The advances in technology that allow VR to function as a practical tool for language learning have the potential to transform pedagogy, teaching, and research on technology-supported language learning. In this context, the present section has examined widely used online language teaching tools and practices in EFL and ESL settings, including blogs, group work, online chats, and discussion forums, emphasizing how these approaches enhance interaction, motivation, and engagement through constructivist and sociocultural learning principles. In general, virtual reality (VR) refers to a technology that produces immersive and realistic experiences by simulating events and visual scenes, often enhanced through special effects to create credible representations of real environments. This technology is primarily grounded in interactive simulations that reconstruct real-life situations for users.

In addition to the evolving technology of VR, it is worth highlighting augmented reality (AR), which allows the overlapping of virtual objects within the real world or with real objects [8;189]. Studies on the use of VR in education demonstrate several benefits. Among its impacts on learning is the creation of highly interactive environments in which students can manipulate objects and experience authentic scenarios while remaining focused on their tasks [6;214]. In situations where real-world travel or participation is too complex or impractical, learners can safely use VR to immerse themselves in alternative realities at relatively low cost and with high safety standards, as they remain in secure locations [2;16]. The implementation of VR has made its broad educational benefits increasingly apparent. Learning can become more engaging in virtual environments because they enable learners to interact with content in personalized and experiential ways.

As a result, simulated concepts and scenarios promote deeper involvement and sustained engagement in learning activities. Moreover, varying levels of immersion support multi-sensory and complex perceptions, thereby enhancing educational value and contributing to richer outcomes. In this sense, VR provides a more interactive and authentic alternative to the relatively flat and one-directional nature of traditional digital platforms such as YouTube or Zoom meetings, as students can participate in and interact with the environment in more realistic ways [5;7]. A metaverse refers to a virtual realm in which learners can interact, communicate, and collaborate online, facilitating social interaction through avatars or digital characters. This environment enables active communication with individuals from different regions while maintaining meaningful social connections. During periods of physical separation and COVID-19 restrictions, such environments became particularly relevant, as students were able to explore new locations, adjust perspectives, and immerse themselves in virtual worlds without losing the social dimension of learning [12;892]. The use of VR enables learners to practice speaking in a wide range of realistic communicative situations.

Similarly, AR contributes variety to online language learning and is increasingly regarded as a promising and emerging area within education, particularly as a developing technology in language teaching and learning. Although the pedagogical quality of available tools differs–for instance, some applications allow interaction with real individuals through authentic pre-recorded responses, whereas others immerse learners in fully computer-generated environments–the underlying aim remains consistent. These technologies provide opportunities for practical, real-world language use, thereby addressing the constraints of traditional classrooms and textbook-based instruction, especially during the COVID-19 pandemic and related isolation measures. Simulated environments support both EFL and ESL learners in practicing language in authentic contexts and facilitate the application of collaborative learning theories. In particular, they align with constructivist principles by enabling learners to construct knowledge through interaction, experience, and contextualized communication.

As technological developments continue to make VR increasingly accessible and functional, its integration into education has the potential to reshape pedagogy, classroom practice, and research on technology-enhanced language learning. Fang-Chuan notably argues that computer-generated, simulated yet authentic environments can increase engagement and provide language learners with alternative learning experiences, particularly where conventional textbooks and traditional methods have proven insufficient. Wang et al. mention that despite the integration of multimedia materials such as videos, audio files, CDs, and MP3 resources in the ongoing development of ESL and EFL textbooks, these materials remain inadequate and represent a somewhat stagnant portrayal of language in light of students' continuously evolving needs [10;49]. Chien et al. similarly point out that textbook materials offer constrained opportunities for authentic engagement, resulting in limited real-world language application. By placing students in more engaging and productive environments, VR tech-

nology can strengthen the theoretical foundations of language acquisition by immersing learners in real-life situations. Language instructors are increasingly drawn to VR because of its capacity to enhance motivation and language performance through interactive learning experiences that move beyond traditional materials (Chen, 2016). Research further suggests that learners, aware they are interacting with virtual agents or automated systems, often experience reduced anxiety and are more willing to take risks in language production, as lower affective filters encourage experimentation with language [11;38]. Emerging technologies aim to design VR systems that connect language learning to real-life applications (Fang-Chuan). Studies indicate that VR presents L2 learning through realistically simulated environments in which learners feel present and able to explore and interact meaningfully.

Research frequently addresses intrinsic motivation, purpose, and self-efficacy, as well as affective responses to VR-enhanced instruction and contextualized learning. Significant improvements in language learning experiences, particularly in L2 vocabulary acquisition, have become possible through innovative pedagogical opportunities enabled by advances in computer and instructional technology (Tzu-Yu Tai, 2020). The positive outcomes associated with the immersion and motivation of low-achieving students in communicative, student-centered learning tasks (Nouri, 2016) are further enhanced by VR-supported instructional designs. Such approaches align with Piaget's (1969) and Vygotsky's (1978) emphasis on pedagogical frameworks grounded in real-life social interaction, embedded learning, self-directed learning, and student-centered education. Constructivist designs proposed by Vygotsky suggest that learners connect prior knowledge and experience with new information, thereby constructing deeper understanding.

CONCLUSION

In conclusion, the integration of digital technologies in English language teaching has developed progressively from limited, form-focused computer drills to highly interactive, learner-centered, and context-based learning experiences. This evolution reflects a broader methodological shift in ELT–from behaviorist models emphasizing repetition and habit formation to communicative and sociocultural perspectives that value authentic interaction, meaningful tasks, and learner agency. Internet-based learning, mobile technologies, and social media have expanded access to real-world input, increased opportunities for communication, and strengthened blended learning practices. Within this trajectory, virtual reality represents a significant advancement because it enables learners to engage in realistic communicative situations that are otherwise difficult to recreate in classrooms.

By offering immersion, presence, and interactive simulation, VR supports situated and experiential learning and provides opportunities for contextualized language practice. It is particularly beneficial for developing speaking skills, increasing motivation, reducing anxiety, and promoting intercultural awareness. Additionally, VR environments align strongly with constructivist and collaborative learning theories, as learners build knowledge through interaction and meaningful experiences. Although VR and other emerging technologies continue to face challenges related to accessibility, pedagogical design, and teacher training, their educational potential is increasingly recognized. As research expands and technology becomes more widely available, VR is likely to play an important role in shaping future ELT methodologies. Ultimately, digital technologies and virtual reality should be viewed not as replacements for teachers but as supportive tools that enrich instruction, strengthen learner engagement, and enhance the effectiveness of modern English language teaching.

References:

1. Adams, A., Feng, Y., Liu, J.C., & Stauffer, E. (2020). Potentials of Teaching, Learning, and Design with Virtual Reality: An Interdisciplinary Thematic Analysis. In Intersections Across Disciplines: Interdisciplinarity and Learning (pp. 173–186).
2. Bower, M., & Jong, M.S.-Y. (2020). Immersive Virtual Reality in Education. British Journal of Educational Technology, 51(6), 1981–1990.
3. Bower, M., DeWitt, D., & Lai, J.W. (2020). Reasons Associated with Preservice Teachers' Intention to Use Immersive Virtual Reality in Education. British Journal of Educational Technology, 51(6), 2214–2232.
4. Fang-Chuan, O.Y.-Y.-C. (2020). Facilitating Communicative Ability of EFL Learners via High-Immersion Virtual Reality. Journal of Educational Technology & Society, 23(1), 30–49.
5. Dunleavy, M., Dede, C., & Mitchell, R. (2009). Affordances and Limitations of Immersive Participatory Augmented Reality Simulations for Teaching and Learning. Journal of Science Education and Technology, 18(1), 7–22.
6. Hedberg, J., & Alexander, S. (1994). Virtual Reality in Education: Defining Researchable Issues. Educational Media International, 31(4), 214–220.

7. Helwa, S.A.-H.A. (2019). Using Mobile Augmented Reality (MAR) Applications to Improve Students' EFL Descriptive Writing Skills and Motivation Towards English Language. The Educational Journal of the Sohag Faculty of Education, 64(4), 135–166.
8. Huertas-Abril, C.A., Figueroa-Flores, J.F., Gómez-Parra, M.E., Rosa-Dávila, E., & Huffman, L.F. (2021). Augmented Reality for ESL/EFL and Bilingual Education: An International Comparison. Educación XX1, 24(2), 189–208.
9. Luo, Y., & Watts, M. (2024). Exploration of University Students' Lived Experiences of Using Smartphones for English Language Learning. Computer Assisted Language Learning, 37(4), 608–633.
10. Lee, E.A.L., & Wong, K.W. (2014). Learning with Desktop Virtual Reality: Low Spatial Ability Learners Are More Positively Affected. Computers & Education, 79, 49–58.
11. Reinders, H., & Wattana, S. (2015). Affect and Willingness to Communicate in Digital Game-Based Learning. ReCALL, 27(1), 38–57.
12. Tai, T.Y., Chen, H.H.J., & Todd, G. (2022). The Impact of a Virtual Reality App on Adolescent EFL Learners' Vocabulary Learning. Computer Assisted Language Learning, 35(4), 892–917.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

SOG‘LOM SEPARATSIYA ORQALI YOSHLAR SOG‘LIG‘INI MUSTAHKAMLASH: TIBBIY-PSIXOLOGIK YONDASHUVNING EMPIRIK TAHLILI

Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0005-5676-7061

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy jihatdan muhim masala sifatida qaralmoqda. Yoshlarning jismoniy sog‘ligi, emotsional barqarorligi va ruhiy farovonligi jamiyatning barqarorligi hamda rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda yoshlar turli ijtimoiy va psixologik stress omillariga duch kelmoqda: ta’lim yuklamasi, ish bilan bandlik, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, oilaviy munosabatlar va shaxsiy rivojlanish bilan bog‘liq talablar shular jumlasidandir. Shu sababli yoshlarning sog‘lom turmush tarziga rioya qilishi, stressni boshqarish qobiliyati va ruhiy barqarorligi ularning umumiy farovonligini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlardan tiyilish, muntazam dam olish va psixologik barqarorlikni o‘z ichiga oladi.

Bu esa nafaqat shaxsning individual salomatligini, balki ijtimoiy moslashuv va samarali faoliyat ko‘rsatish qobiliyatini ham mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida tibbiy-psixologik yondashuvning roli katta ahamiyat kasb etadi. Tibbiy-psixologik yondashuv – bu shaxsning psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi va ijtimoiy muhiti hisobga olingan holda sog‘lom turmush tarzini kompleks ravishda shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan strategiyadir. Ushbu yondashuv yoshlarning stressga chidamliligini oshirish, ruhiy barqarorligini rivojlantirish, qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlash va sog‘lom hayot tarzini ongli ravishda tanlashga yo‘naltirilgan. Sog‘lom separatsiya tushunchasi esa tibbiy-psixologik yondashuvning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Sog‘lom separatsiya – bu yoshlarning ota-onadan emotsional, ijtimoiy va psixologik jihatdan mustaqil bo‘lish jarayoni bo‘lib, u shaxsning qaror qabul qilish, mustaqil fikrlash va sog‘lom turmush tarzini tanlash qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom separatsiya darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar stressni boshqarish, sog‘lom hayot tarziga amal qilish va ijtimoiy muhitga moslashishda yuqori natijalarni ko‘rsatadi. Shuning uchun yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlashda tibbiy-psixologik yondashuv va sog‘lom separatsiyaning integratsiyasi dolzarb ilmiy hamda amaliy muammo hisoblanadi. Ushbu maqolada mazkur yondashuvlarning nazariy asoslari, empirik tahlillari va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi samaradorligi yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlash masalasi zamonaviy tibbiyot, psixologiya va pedagogika fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sog‘lom separatsiya tushunchasi shaxsning psixologik yetukligi, ijtimoiy moslashuvi va sog‘lom turmush tarzini tanlash qobiliyati bilan bevosita bog‘liq omil sifatida talqin etilmoqda. Mazkur muammo ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy hamda empirik tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan.

Psixologiya fanida separatsiya-individuatsiya jarayoni dastlab shaxs rivojlanishining muhim bosqichi sifatida talqin etilgan. A. Adler (1927) shaxsning ijtimoiy manfaatdorligi va mustaqilligi uning psixologik sog‘lomligi bilan bog‘liqligini asoslab bergan. E. Erikson (1968) esa shaxs identikligi va psixososial rivojlanish bosqichlari nazariyasida yoshlarning mustaqillikka erishishi ularning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur shart ekanini ta’kidlagan. Separatsiya jarayonining nazariy asoslari L. Hoffman (2005) tomonidan oilaviy munosabatlar va individuatsiya kontekstida chuqur tahlil qilingan bo‘lib, muallif yoshlarning ota-onadan psixologik

jihatdan ajralishi ularning sog‘lom qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, Hoffman va Smith (2010) tomonidan o‘tkazilgan empirik tadqiqotlarda individuatsiya darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlar va yoshlar sog‘lom hayot tarziga ko‘proq amal qilishi hamda stressga chidamliligi yuqori ekani aniqlangan. Shaxs va sog‘liq o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi S.L. Rubinshteyn (2000) va V.N. Myasishchev (1995) ishlarida ham yoritilib, shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rni va psixologik mustaqilligi uning umumiy salomatligi bilan bog‘liq ekani asoslab berilgan.

H.J. Eysenck (1990) esa shaxs tipologiyasi va emotsional barqarorlikning sog‘liq bilan bog‘liqligini ilmiy jihatdan izohlagan. O‘zbek psixolog olimlari M.G. Davletshin (2010), E. G‘oziev (2012) hamda V.M. Karimova (2015) tadqiqotlarida yoshlar psixologiyasi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va shaxsning ijtimoiy-psixologik omillari keng tahlil qilingan. Ularning ishlarida yoshlarning sog‘lom turmush tarziga munosabati ko‘p jihatdan oilaviy tarbiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik mustaqillik darajasiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. So‘nggi yillarda Mavlyanova (2024) tomonidan psixologik separatsiya komponentlari va ularning shaxs rivojlanishiga ta’siri empirik jihatdan o‘rganilib, sog‘lom separatsiya shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, emotsional barqarorligi va hayotiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlashi aniqlangan. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom separatsiya yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim psixologik resurs hisoblanadi. Tibbiy-psixologik yondashuv esa ushbu jarayonni kompleks tarzda qo‘llab-quvvatlab, yoshlarning sog‘lom turmush tarzini ongli ravishda tanlashiga, stressga chidamliligini oshirishiga va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashiga xizmat qiladi. Shu bois sog‘lom separatsiya va tibbiy-psixologik yondashuv integratsiyasi yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlashning nazariy hamda empirik asoslangan modeli sifatida e’tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlashda tibbiy-psixologik yondashuv va sog‘lom separatsiyaning ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda 18-25 yoshdagi 80 nafar yoshlar ishtirok etdi. Ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda tanlangan bo‘lib, barcha respondentlar tadqiqot maqsadi va shartlari haqida oldindan xabardor qilindi hamda ularning roziligi olindi. Tadqiqot shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va anonimligini ta’minlash tamoyillari asosida o‘tkazildi. Ishtirokchilar sog‘lom separatsiya darajasiga ko‘ra uch guruhga ajratildi:

- yuqori daraja – ota-onadan emotsional va ijtimoiy jihatdan mustaqil bo‘lgan yoshlar;
- o‘rta daraja – qisman mustaqillikka ega bo‘lgan yoshlar;
- past daraja – ota-onaga psixologik jihatdan qaramlik darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar.

Tadqiqotda quyidagi metodikalardan foydalanildi:

- Hoffman separatsiya-individuatsiya shkalasi – ushbu metodika yoshlarning ota-onadan emotsional va ijtimoiy mustaqillashuv darajasini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va ijtimoiy mustaqillik xususiyatlarini baholaydi;
- sog‘lom turmush tarziga rioya qilish so‘rovnomasi – shaxsning ovqatlanish odatlari, jismoniy faolligi, zararli odatlardan tiyilishi, uyqu va dam olish rejimiga amal qilishi kabi sog‘lom turmush tarzini namoyon etuvchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish uchun qo‘llanildi;
- stressga chidamlilik testi – yoshlarning stressga chidamlilik darajasini aniqlash hamda muammolarga munosabatini baholash uchun ishlatildi, mazkur test yordamida stressni boshqarish strategiyalari va emotsional reaksiyalar aniqlandi;
- emotsional barqarorlik shkalasi – yoshlarning ruhiy barqarorligi va hissiy holatining stabilligi darajasini o‘rganish uchun qo‘llanildi.

Empirik ma’lumotlarni tahlil qilishda t-test usuli yordamida guruhlar orasidagi farqlar aniqlandi, korrelyatsion tahlil yordamida esa sog‘lom separatsiya darajasi bilan sog‘lom turmush tarziga amal qilish, stressga chidamlilik hamda emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik belgilandi. Natijalarning statistik ishonchliligi $p < 0,05$ darajasida hisoblandi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida ishtirokchilar bilan individual suhbatlar va kuzatuvlar o‘tkazilib, empirik ma’lumotlarning ishonchliligi hamda metodik natijalar tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlashda sog‘lom separatsiya va tibbiy-psixologik yondashuvning amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, sog‘lom separatsiya yoshlarning sog‘lom turmush tarziga mas’uliyatli munosabatini shakllantirishda muhim psixologik omil hisoblanadi. Sog‘lom separatsiya darajasi yuqori bo‘lgan yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish, o‘z sog‘ligini boshqarish va stressni samarali nazorat qilish qobiliyati

yuqori ekani aniqlandi. Bu esa ularning jismoniy va ruhiy farovonligini oshirish, zararli odatlardan tiyilish hamda sog‘lom hayotga faol amal qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kuchaytiradi. Tibbiy-psixologik yondashuv sog‘lom separatsiyani qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlarning sog‘lom hayotga oid qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlashda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning ota-onaga haddan tashqari psixologik qaramligi ularning sog‘lom turmush tarzini tanlash va unga rioya qilish qobiliyatini susaytiradi. Shu bilan birga, tibbiy-psixologik yondashuv orqali mustaqillik va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish yoshlarni sog‘lom turmush tarzini ongli ravishda tanlashga hamda amalda qo‘llashga undaydi. Bundan tashqari, empirik natijalar sog‘lom separatsiya bilan sog‘lom turmush tarzi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Sog‘lom separatsiya yoshlarning emotsional barqarorligini oshirish, stressga chidamliligini kuchaytirish va psixologik muammolarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu tariqa, yoshlar nafaqat shaxsiy salomatligini mustahkamlaydi, balki ijtimoiy moslashuvini, samarali muloqotini va ish faoliyatidagi muvaffaqiyatini ham oshiradi. Mualliflar tomonidan olingan natijalar ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan solishtirilganda ham o‘xshashlik kuzatildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom separatsiya va psixologik mustaqillik yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda barqaror sog‘liqni saqlashida muhim omildir (Hoffman, 2005; Erikson, 1968).

Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi, ota-ona bilan sog‘lom muloqoti va psixologik maslahatlarning integratsiyasi ularning sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda samaradorlikni oshiradi. Shu nuqtai nazardan, tibbiy-psixologik yondashuvlarni tatbiq etishda sog‘lom separatsiyaga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu nafaqat yoshlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, balki ularning ijtimoiy barqarorligi va umumiy farovonligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganda ta’lim muassasalari va sog‘liqni saqlash tizimida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlashda tibbiy-psixologik yondashuv va sog‘lom separatsiyaning integratsiyasi yuqori samaradorlikka ega. Sog‘lom separatsiya darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar nafaqat jismoniy sog‘liq, balki ruhiy barqarorlik hamda ijtimoiy moslashuv nuqtai nazaridan ham ijobiy natijalarni ko‘rsatdi. Mazkur yoshlar sog‘lom turmush tarzini ongli ravishda tanlaydi, zararli odatlardan tiyiladi, jismoniy faollik va to‘g‘ri ovqatlanish kabi sog‘lom odatlarga muntazam amal qiladi hamda stressga nisbatan yuqori chidamlilik darajasiga ega bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tibbiy-psixologik yondashuv yoshlarning sog‘lom separatsiyasini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning shaxsiy va ijtimoiy farovonligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Sog‘lom separatsiya yoshlarni mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va o‘z sog‘ligini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga undaydi, bu esa sog‘lom turmush tarziga barqaror amal qilishga olib keladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda integrativ yondashuv – ya’ni tibbiy-psixologik maslahatlar, emotsional qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom separatsiyaga e’tibor qaratish muhim ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuvni ta’lim muassasalari hamda sog‘liqni saqlash tizimida joriy etish yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning stressga chidamliligini oshirish va ijtimoiy farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, sog‘lom separatsiya va tibbiy-psixologik yondashuvni integratsiyalashgan shaklda tatbiq etish orqali yoshlarning sog‘lom turmush tarziga rioya qilishi, psixologik mustaqilligining rivojlanishi hamda jismoniy va ruhiy farovonligining ta’minlanishi uchun samarali mexanizm yaratiladi. Ushbu yondashuvni kelgusida kengroq ilmiy tadqiqotlarda va amaliy dasturlarda qo‘llash yoshlar sog‘lig‘ini mustahkamlash hamda ularning salomatlik madaniyatini rivojlantirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adler, A. (1927). Understanding Human Nature. New York: Greenberg.
2. Erikson, E.H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: Norton.
3. Hoffman, L. (2005). Family and Individual Development: Separateness and Individuation. Journal of Child and Family Studies, 14(3), 257-271.
4. Rubinshteyn, S.L. (2000). Umumiy psixologiya asoslari. Moskva: Akademiya.
5. Myasishchev, V.N. (1995). Psixologiya lichnosti. Moskva: Prosveshchenie.
6. Eysenck, H.J. (1990). Personality and Individual Differences: A Natural Science Approach. London: Plenum Press.
7. Davletshin, M.G. (2010). Shaxs psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
8. G‘oziev, E. (2012). Oila va yoshlar psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.
9. Karimova, V.M. (2015). Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda psixologik yondashuvlar. Psixologik ilm-fan jurnali, 6(2), 45-53.
10. Mavlyanova, S.S. (2024, 31-may). Psixologik separatsiya: komponentlar va ularning shaxs rivojlanishiga ta’siri. Universitet Profi: “Sotsialno-psixologicheskie problemy ukrepleniya instituta sem’i”, Toshkent.
11. Hoffman, L., & Smith, J. (2010). Individuation and Health Outcomes in Adolescents. Journal of Adolescent Health, 46(2), 123-130.

BADIIY-TARIXIY MEROS ASOSIDA PEDAGOG SHAXSINI TARBIYALASH: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

Qodirova Mavluda Maxodir qizi
UBS Maktabgacha va maktab ta'limi fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak pedagog shaxsini badiiy-tarixiy meros asosida tarbiyalashning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq mumtoz mutafakkirlari hamda milliy adabiy manbalarning insonparvarlik, adolat, mas'uliyat, jasorat va sadoqat kabi axloqiy hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Izlanishda oliy ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlovchi integrativ pedagogik model taklif etiladi. Shuningdek, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda interfaol metodlar va qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: pedagog shaxsi, badiiy-tarixiy meros, axloqiy tarbiya, innovatsion yondashuv, kompetensiya, qadriyatlarga asoslangan ta'lim.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of educating the personality of future teachers based on artistic and historical heritage. The study highlights the role of classical Eastern thinkers and national literary sources in shaping moral and personal qualities such as humanism, justice, responsibility, courage, and loyalty. The research proposes an integrative pedagogical model that ensures harmony between theory and practice in higher education. The effectiveness of interactive methods and value-based approaches in the development of professional competencies is substantiated.

Key words: teacher personality, artistic and historical heritage, moral education, innovative approach, competency, value-based education.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и методологические основы формирования личности будущего педагога на основе художественно-исторического наследия. В исследовании раскрывается роль классических восточных мыслителей и национальных литературных источников в формировании нравственных и личностных качеств, таких как гуманизм, справедливость, ответственность, мужество и преданность. Предлагается интегративная педагогическая модель, обеспечивающая гармонию теории и практики в системе высшего образования. Обосновывается эффективность интерактивных методов и ценностно ориентированных подходов в развитии профессиональных компетенций.

Ключевые слова: личность педагога, художественно-историческое наследие, нравственное воспитание, инновационный подход, компетентность, ценностно ориентированное образование.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi pedagog shaxsiga yangi va murakkab talablarni qo'ymoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim mazmuni va shakllarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli, axloqan barkamol, mustaqil fikrlovchi hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq eta oladigan shaxs bo'lishi lozim. Chunki pedagogning shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashi va kasbiy kompetensiyalari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.Shu sababli pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida milliy badiiy-tarixiy merosdan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Milliy meros xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlari, axloqiy mezonlari, estetik qarashlari va tarbiyaviy tajribasini o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, buyuk mutafakkirlar, adiblar va allomalar tomonidan yaratilgan asarlar pedagog shaxsida yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, fidoyilik, mas'uliyat va kasbiy burchga sadoqat kabi sifatlarni rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, milliy badiiy-tarixiy merosdan

foydalanish pedagoglarni tayyorlash jarayonida uzviylik va vorisiylik tamoyillarini ta'minlaydi. Bu esa yosh avlodni tarbiyalashda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda rivojlantirish imkonini beradi. Shunday ekan, pedagogik ta'lim tizimida milliy meros asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, nazariy bilimlar bilan bir qatorda qadriyatlar tizimini ham singdirish zamon talabi sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sharq mutafakkirlari asarlarida komil inson g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. Forobiy (1993) "Fozil odamlar shahri" asarida fazilatli jamiyatning asosi – fazilatli inson ekanligini ta'kidlaydi. Yusuf Xos Hojib (1983) esa adolat va aqlni inson kamolotining poydevori sifatida ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi – badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslarini ochib berish va uni amaliyotga integratsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Nazariy tahlil olib borishda Sharq mutafakkirlari asarlari, zamonaviy pedagogik nazariyalar, komparativ tahlil asosida milliy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni solishtirish, model yaratish metodi, aksiologik yondashuv, pedagogik kuzatuv va tajriba elementlariga tayanildi. Nazariy manbalar sifatida Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Andreyev, Babanskiy, Krayevskiy kabi olimlarning ishlari o'rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagog shaxsining nazariy modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi aniqlandi:

- kognitiv komponent – kasbiy bilimlar;
- aksiologik komponent – qadriyatlar tizimi;
- emotsional-irodaviy komponent – mas'uliyat, sabr-toqat;
- refleksiv komponent – o'z faoliyatini baholash qobiliyati.

Badiiy-tarixiy meros ushbu komponentlarning barchasiga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy-tarixiy merosning pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat: axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun "Qutadg'u bilig" asarida adolat va donishmandlik davlat boshqaruvi mezoni sifatida talqin qilingan g'oyalar pedagog shaxsida adolatparvarlik sifatini shakllantirishga xizmat qiladi; milliy o'zlikni anglash orqali "Devonu lug'otit turk" milliy identifikatsiyani mustahkamlaydi, bu esa pedagogning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi; insonparvarlik g'oyasi asosida Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida insonparvarlik va saxovat ulug'lanadi, bu fazilatlar zamonaviy pedagog faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliy integratsiya mexanizmlariga tayangan holda olib borilgan tajriba jarayonida quyidagi metodlar samarali ekanligi aniqlandi: muammoli vaziyat yaratish, debat va munozara, keys-stadi usuli, refleksiv esse yozish, integrativ seminar mashg'ulotlari. Ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadida bir qator interfaol va innovatsion metodlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, muammoli vaziyat yaratish usuli orqali talabalarga real yoki shartli pedagogik holatlar taqdim etilib, ularni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va asosli qaror qabul qilishga yo'naltirish mumkin. Bunday vaziyatlar pedagogik jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan axloqiy, ijtimoiy yoki kasbiy muammolarni qamrab oladi va talabalarda mas'uliyat hamda refleksiv tafakkurni shakllantiradi. Debat va munozara metodlari esa talabalarning o'z pozitsiyasini dalillar asosida himoya qilish, muqobil fikrlarni hurmat qilish va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy-tarixiy asarlar qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish jarayonida munozara tashkil etish shaxsiy qadriyatlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Keys-stadi (case-study) usuli pedagogik vaziyatlarni kompleks tahlil qilishga asoslanadi. Unda talabalar muayyan real yoki modellashtirilgan holatni o'rganib, muammoning sabab va oqibatlarini aniqlaydi hamda amaliy yechimlar ishlab chiqadi. Bu usul kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga tashabbuskorlik va ijodkorlikni ham qo'llab-quvvatlaydi. Refleksiv esse yozish talabaning o'z ichki dunyosi, qarashlari va kasbiy pozitsiyasini anglashiga yordam beradi. Badiiy asardan olingan saboq yoki muhokama qilingan pedagogik vaziyat yuzasidan yozilgan esse shaxsiy xulosalar chiqarish, o'z-o'zini baholash va qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilish jarayonini kuchaytiradi. Shuningdek, integrativ seminar mashg'ulotlari turli fanlar – pedagogika, psixologiya, adabiyot va tarix – mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish asosida tashkil etiladi. Bunday yondashuv talabalarda bilimlarning tizimliligi va yaxlitligini ta'minlab, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi. Mazkur metodlarning kompleks qo'llanilishi natijasida bo'lajak pedagoglarda mustaqil fikrlash,

mas'uliyat, adolatparvarlik, empatiya va kasbiy ong kabi shaxsiy sifatlar izchil rivojlanadi. Natijada talabalarda mas'uliyat, vijdonlilik, sadoqat kabi sifatlarning rivojlanishi kuzatilganligini ko'rish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ular Andreyev va Babanskiy tomonidan ilgari surilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan uyg'unlikda ekan.

Badiiy-tarixiy merosdan foydalanish shaxsiy sifatlarni shakllantirishda quyidagi ustunliklarga ega: qadriyatlarni ichki ehtiyojga aylantiradi, emotsional ta'sir kuchiga ega, refleksiv tafakkurni rivojlantiradi, kasbiy identifikatsiyani mustahkamlaydi. Shu bilan birga, metodik ta'minot yetarli bo'lmasa, samaradorlik pasayishi mumkin. Badiiy-tarixiy meros pedagog shaxsini tarbiyalashning kuchli ma'naviy manbai hisoblanadi. Nazariya va amaliyot uyg'unligi interfaol metodlar, aksiologik yondashuv va refleksiv faoliyat orqali ta'minlanadi.

1-jadval: **Pedagog shaxsini kompleks rivojlantirish modeli**

Model komponentlari	Mazmuni	Amalga oshirish shakllari	Kutilayotgan natija
Motivatsion-komponent	Kasbiy qiziqish, pedagogik faoliyatga ichki ehtiyoj va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish.	Badiiy-tarixiy asarlarni tahlil qilish, motivatsion treninglar, munozaralar.	Kasbga sadoqatli va mas'uliyatli pedagog shaxsining shakllanishi.
Kognitiv-komponent	Pedagogik, psixologik va ma'naviy bilimlarni egallash.	Ma'ruza, seminar, mustaqil ta'lim, keys-stadi usuli.	Nazariy bilimlarga ega, tahlil qila oladigan mutaxassis.
Aksiologik-komponent	Insonparvarlik, vijdonlilik, mardlik, sadoqat kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish.	Asar qahramonlari obrazini tahlil qilish, refleksiya mashg'ulotlari.	Yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega pedagog.
Faoliyatli-komponent	Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.	Pedagogik amaliyot, rolli o'yinlar, innovatsion metodlar.	Kasbiy kompetensiyalarga ega, samarali faoliyat yurita oladigan pedagog.
Refleksiv-komponent	O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirish.	O'z-o'zini baholash, portfoliolar, muhokama va tahlil.	O'z ustida ishlaydigan, doimiy rivojlanishga intiluvchi pedagog.

Taklif etilgan model pedagog shaxsini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi hamda oliy ta'lim tizimida samarali qo'llanilishi mumkin.

XULOSA

Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash nazariya va amaliyotning uzviy uyg'unligini taqozo etadigan murakkab hamda ko'p qirrali jarayondir. Milliy va jahon madaniy merosida mujassam bo'lgan axloqiy-ruhiy qadriyatlar, ma'rifiy g'oyalar hamda insonparvarlik tamoyillari pedagog shaxsining kasbiy kompetentligi, ma'naviy yetukligi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asarlar, tarixiy manbalar va ma'naviy meros namunalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali bo'lajak pedagoglarda refleksiv tafakkur, axloqiy pozitsiya, estetik did va madaniy identifikatsiya rivojlanadi. Nazariy yondashuvlar pedagogik qadriyatlar tizimini ilmiy jihatdan asoslab bersa, amaliy faoliyat ushbu qadriyatlarni real ta'lim muhitida qo'llash, tahlil qilish va mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bois, badiiy-tarixiy merosga tayangan holda pedagog shaxsini tarbiyalash modeli uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda milliy-ma'naviy qadriyatlar sinteziga asoslangan holda tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Natijada, jamiyat taraqqiyotiga mas'ul, ma'naviy barkamol va kasbiy jihatdan kompetent pedagog shaxsini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarova O'. M., Usmonova S. U. va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism [darslik]. – Namangan: Usmon Nosir Media, 2022. – B. 122.
2. http://elibrary.ru/item.asp?id=25665695 Metodika provedeniya zanyatiy kruzhka v ob''edineniyakh khudozhestvenno-esteticheskoy napravlennosti.
3. https://kpfu.ru/portal/docs/F1142145027/moluch_43_ch2.pdf
4. https://scientific-conference.com/images/PDF/2018/44/International-scientific-review-2-44-ISBN.pdf

5. Kambarova S. Mutolaa madaniyati va o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 158 b.
6. Karimov M. Pedagogik tafakkur tarixidan. – Toshkent: TDPU, 2002. – B. 202-204.
7. Mosunova D. V. Razvitie tvorcheskikh sposobnostey uchashchikhsya na zanyatiyakh po dekorativno-prikladnomu tvorchestvu v uchrezhdeniyakh dopolnitelnogo obrazovaniya: dis. ... kand. ped. nauk. – Toshkent, 2010. – 140 s.
8. Qodirova M. Badiiy asarlar vositasida talabalarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga antropologik yondashuvdan foydalanish / “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya. https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/download/40351/25706/42725
9. Qodirova M. Badiiy asarlar vositasida talabalarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga antropologik yondashuvdan foydalanish. Pedagogika i psikhologiya v sovremennom mire: teoreticheskie i prakticheskie issledovaniya, 3(11), 141-143, 2024. https://inlibrary.uz/index.php/zdpp/article/view/49389

GAMIFIED PROGRAMMING PLATFORMS: ANALYSIS AND RECOMMENDATIONS

Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova
National pedagogical university named after Nizami,
1st-year PhD student

ORCID: 0009-0007-7084-4830

Abstract: In the context of contemporary globalization, the demand for acquiring modern professions is steadily increasing. Programming is widely recognized as a complex cognitive activity; however, learning it through gamified technologies makes the process both engaging and pedagogically effective. Gamified programming platforms enhance motivation by integrating game elements such as levels, points, badges, and interactive challenges into the learning process. This article analyzes and compares five popular platforms – CodeCombat, CodinGame, Tynker, Scratch, and Blockly Games. Each platform demonstrates distinctive characteristics: CodeCombat teaches programming in an RPG format with real-time feedback; CodinGame supports global competition and multiple programming languages; Tynker integrates block-based and text-based coding to facilitate creative project development; Scratch enables the creation of interactive stories and games through visual programming; and Blockly Games fosters mathematical and logical thinking skills. The analysis indicates that Scratch and Blockly Games are most suitable for young learners; CodeCombat is effective for beginners; while adolescents and adults can benefit from CodinGame's competitive and multilingual environment. Tynker is particularly appropriate for schools and structured curricula. Furthermore, advanced learners are recommended to transition from block-based platforms to text-based programming languages. The article highlights the advantages and limitations of gamified platforms and provides practical recommendations for effective programming education.

Key words: gamified learning, programming platforms, CodeCombat, CodinGame, Tynker, Scratch, Blockly Games, educational technology.

Annotatsiya: Mazkur maqola umumta'lim maktablarida dasturlashni o'qitish masalasiga oid mavjud ilmiy tadqiqotlarni kompleks va tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli kontent tahlili metodologiyasi asosida dasturlash mashg'ulotlarini rejalashtirish, loyihalash va samarali tashkil etishning pedagogik yondashuvlari aniqlashtiriladi hamda tizimlashtiriladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda umumta'lim darajasida dasturlash ta'limiga bag'ishlangan ilmiy ishlar soni sezilarli darajada oshgan bo'lib, ularning asosiy qismi empirik tadqiqot dizayniga asoslangan. Mavjud izlanishlarning katta qismi 6-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan bo'lib, ma'lumot to'plash jarayonida asosan anketalar, so'rovnomalar va standartlashtirilgan testlardan foydalanilgan. Dasturlash vositalari tahlili Scratch platformasining eng keng tarqalgan o'quv muhiti ekanligini ko'rsatadi, bu esa vizual va blokli dasturlash yondashuvlarining maktab yoshidagi o'quvchilar uchun metodik jihatdan maqbulligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, dasturlash darslarining kontekstual va fanlararo integratsion jihatlarini o'rganuvchi tadqiqotlar nisbatan cheklanganligi aniqlandi. Ayrim ilmiy ishlarda dasturlash matematika, tabiiy fanlar, tillar, yozma nutq va ijtimoiy fanlarni o'qitishda vositaviy metod sifatida qo'llanilgan bo'lsa-da, bu yo'nalish hali yetarlicha tizimlashtirilmagan. Umuman olganda, mazkur tadqiqot dasturlash ta'limining zamonaviy holatini konseptual jihatdan umumlashtirib, metodik yondashuvlarni integratsiyalash hamda kelgusida kompleks va uzoq muddatli empirik tadqiqotlar o'tkazish zaruratini asoslaydi.

Kalit so'zlar: dasturlash savodxonligi, sifatli kontent tahlili, pedagogik yondashuvlar, fanlararo integratsiya, Scratch dasturlash muhiti, empirik tadqiqot, metodik tizimlashtirish (shu tartibda rus va ingliz tilida).

Аннотация: Данная статья направлена на комплексный и системный анализ существующих научных исследований, посвящённых обучению программированию в общеобразовательных школах. На основе методологии качественного контент-анализа уточняются и систематизируются педагогические подходы к планированию, проектированию и эффективной организации учебных занятий по программированию. Результаты анализа свидетельствуют о значительном росте числа исследований в области программного образования на уровне общего среднего образования в последние годы; при этом большинство работ основано на эмпирическом исследовательском дизайне. Значительная часть существующих исследований проведена с участием учащихся шестых классов, а в качестве инструментов сбора данных преимущественно использовались анкеты, опросники и стандартизированные тесты. Анализ используемых средств обучения показал, что платформа Scratch является наиболее распространённой образовательной средой, что подтверждает методическую целесообразность применения визуального и блочного программирования для школьников. Вместе с тем установлено, что исследования, посвящённые контекстуальным и междисциплинарным аспектам уроков программирования, представлены в ограниченном объёме. В ряде работ программирование рассматривается как инструмент обучения математике, естественным наукам, языкам, письменной речи и социальным дисциплинам; однако данное направление пока недостаточно систематизировано. В целом исследование концептуально обобщает современное состояние программного образования и обосновывает необходимость интеграции методических подходов, а также проведения комплексных и долгосрочных эмпирических исследований в данной области.

Ключевые слова: программная грамотность, качественный контент-анализ, педагогические подходы, межпредметная интеграция, среда программирования Scratch, эмпирическое исследование, методическая систематизация.

INTRODUCTION

Programming can be challenging for beginners taking their first steps in the field. Gamified platforms transform this complex learning process into an engaging experience by incorporating game elements such as points, levels, badges, and interactive challenges. These elements enhance motivation and foster sustained engagement while simultaneously developing knowledge and practical skills.

This article aims to provide guidance for students who are interested in programming but are uncertain about where to begin. The study analyzes five widely used gamified programming platforms: CodeCombat, CodinGame, Tynker, Scratch, and Blockly Games.

ANALYSIS AND RESULTS

CodeCombat. CodeCombat is an RPG-style (Role-Playing Game) programming platform. In RPG environments, users control a character, make decisions, complete missions, and interact within a structured narrative world. Typically, RPG systems include levels, rewards, inventory systems, and story-based progression. In CodeCombat, users write code to control their character's actions, defeat enemies, and complete missions. Through gameplay, learners develop algorithmic thinking, logical reasoning, and fundamental programming skills. The platform supports Python and JavaScript. Code execution occurs in real time, and users receive immediate feedback regarding errors and corrections. CodeCombat follows a structured progression from beginner to advanced levels, and its user-friendly interface enhances accessibility (Figure 1).




Figure 1.

CodinGame. CodinGame is a gamified programming platform characterized by its competitive environment. Users solve algorithmic challenges, artificial intelligence problems, and logic-based tasks through coding (Figure 2).



Figure 2.

A distinguishing feature of CodinGame is its strong leaderboard and competitive programming system. The platform supports more than 25 programming languages, including Python, Java, C++, JavaScript, C#, Go, and Kotlin. CodinGame primarily develops algorithmic thinking, problem-solving skills, and optimization strategies. It is particularly suitable for learners preparing for technical interviews or competitive programming contests (Figure 3).



Figure 3.

Tynker. Tynker is a gamified programming platform designed primarily for children and beginners. It integrates interactive storytelling, creative projects, and structured curricula into the learning process. While mainly intended for learners aged 5–17, it can also benefit adult beginners. Tynker provides two coding approaches. Block-based coding, similar to Scratch, which prevents syntax errors and simplifies foundational learning. Text-based coding, including Python, JavaScript, and HTML/CSS, enabling a gradual transition to real-world programming. The platform incorporates gamification elements such as points, badges, levels, and interactive missions. Learners can create games, animations, Minecraft modifications, stories, and even program robots and drones. Tynker integrates programming with mathematics, engineering, and problem-solving skills within a STEAM-oriented framework (Figure 4).



Figure 4.

Scratch. Scratch, developed by the MIT Media Lab, is a visual programming platform designed for children and beginners. It is available both online and offline and is free of charge. Scratch uses a drag-and-drop, block-based coding system, eliminating syntax errors and enabling learners to visually understand programming structures such as loops, conditionals, variables, and functions. One of Scratch's strongest features is its global online community, where users can share projects, explore others' work, and remix existing projects. Scratch is widely implemented in school curricula worldwide and significantly contributes to the development of creativity, algorithmic thinking, and collaborative learning. However, while Scratch is highly effective at the introductory level, transitioning to text-based programming languages becomes necessary for professional advancement (Figure 5). Figure 5




Figure 5.

5. Blockly Games. Blockly Games, developed by Google, is a free and open-source educational platform designed to teach programming fundamentals through block-based coding. The platform introduces programming concepts progressively through thematic games such as Puzzle, Maze, Bird, Turtle, Movie, Music, and Pond. These games guide learners from simple logical sequencing to more advanced JavaScript-based problem-solving tasks. A key advantage of Blockly Games is that, at advanced stages, the system automatically displays the equivalent JavaScript code generated from block-based solutions. This feature facilitates a smooth transition from visual programming to text-based coding. Blockly Games is particularly effective in developing logical reasoning and mathematical thinking skills among young learners (Figure 5).




Figure 5.

Table 1: **Comparative analysis**

№	Platform	Target Age/Level	Programming Language(s)	Advantages	Limitations
1	**CodeCombat**	Beginner/Intermediate	Python, JS	RPG format, real-time feedback	Some paid levels, may be difficult for absolute beginners
2	**CodinGame**	Teens/Adults	25+ languages	Competitive environment, multilingual	Complex for young learners
3	**Tynker**	Children/Beginners	JS, Python, HTML/CSS	Creative projects, structured learning	Mostly subscription-based
4	**Scratch**	Children/Beginners	Block-based	Creative, strong community	Not suitable for professional coding
5	**Blockly Games**	Children/Beginners	Block-based	Free, logical development	Limited for advanced learners

Recommendations for the effective use of gamified programming platforms. Selection According to Age and Level of Preparedness. When selecting a platform, the learner's age and prior programming knowledge must be carefully considered. For children aged 6-10, Scratch and Blockly Games are appropriate due to their visual and intuitive interfaces. For learners aged 10-14, Tynker and Scratch (with more complex project development) are suitable. For beginner adolescents, CodeCombat is effective, while learners at the algorithmic development stage are better suited to CodinGame. Gradually increasing the complexity of learning tasks leads to more effective and sustainable outcomes. Transition Model from Block-Based to Text-Based Coding. For effective instruction, the following sequence is recommended: Blockly Games → Scratch → Tynker (block-based + text-based) → CodeCombat (Python/JavaScript) → CodinGame (advanced algorithmic practice). This structured progression reduces cognitive load and helps prevent syntax-related errors during the early stages of learning. Strengthening the Learning Process Through Gamification Elements. Gamification elements should be purposefully integrated into the instructional process: using points and badge systems as motivational rewards; organizing mini-competitions; conducting project presentations among learners; utilizing leaderboards as motivational tools. These methods contribute to the development of intrinsic motivation and sustained engagement. Maintaining a Balance Between Theory and Practice. The use of platforms should not be limited solely to gameplay. The following pedagogical strategies are recommended: Discussing concepts after completing each task; Designing algorithms on paper before implementation; Practicing code optimization exercises; Developing small real-life-related projects. Such integration ensures deeper conceptual understanding and practical competence.

Recommendations for Schools and Educational Centers. Scratch and Tynker can serve as primary platforms in primary education. CodeCombat is effective in middle grades for developing algorithmic thinking. CodinGame is recommended for upper-grade students and learners specializing in IT. Teachers should implement monitoring and progress-tracking systems to evaluate learner development. Individual Learning Strategy. For independent learners, it is advisable to set weekly learning goals and complete at least a minimum level on each platform. Creating small independent projects based on newly acquired knowledge reinforces learning outcomes. After gaining sufficient confidence, learners may gradually transition to text-based programming languages. Long-Term Development Strategy. Gamified platforms are highly effective at the introductory stage of programming education. However, for professional growth, learners should additionally: Work with GitHub repositories; Develop real-world projects; Study frameworks and programming libraries; Practice competitive programming. Such steps ensure sustainable skill development and readiness for professional IT environments.

CONCLUSION

Gamified programming platforms represent an innovative and effective approach to programming education. The analysis of CodeCombat, CodinGame, Tynker, Scratch, and Blockly Games demonstrates that these platforms provide adaptable learning environments suitable for diverse age groups and skill levels. Block-based platforms such as Scratch and Blockly Games are particularly effective at the introductory stage, whereas platforms incorporating text-based programming, such as CodeCombat and Tynker, prepare learners

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

for real-world coding environments. CodinGame further enhances algorithmic thinking through competitive engagement. In conclusion, the systematic and goal-oriented integration of gamified platforms significantly improves programming learning outcomes and establishes a strong foundation for future professional IT competencies.

References:

1. Resnick, M., Maloney, J., Monroy-Hernández, A., et al. (2009). Scratch: Programming for All. Communications of the ACM, 52(11), 60–67.
2. Grover, S., & Pea, R. (2013). Computational Thinking in K–12: A Review of the State of the Field. Educational Researcher, 42(1), 38–43.
3. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction. Pfeiffer.
4. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. In Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences.
5. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. Basic Books.
6. Werbach, K., & Hunter, D. (2012). For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. Wharton Digital Press.
7. CodeCombat. (n.d.). https://codecombat.com
8. CodinGame. (n.d.). https://www.codingame.com
9. Tynker. (n.d.). https://www.tynker.com
10. Scratch. (n.d.). https://scratch.mit.edu
11. Blockly Games. (n.d.). https://blockly.games

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

UDK 373.2:376.1

Raimqulova Sojida Abdusaid qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uchraydigan giperaktiv bolalar bilan ishlash muammosining ilmiy-nazariy asoslari tahlil etilgan. Giperaktivlik tushunchasining mazmuni, kelib chiqish sabablari, psixologik-pedagogik xususiyatlari hamda giperaktiv bolalar bilan ishlashga oid zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv va individual yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: giperaktivlik, DEHB (diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik buzilishi), maktabgacha ta'lim, psixologik-pedagogik yondashuv, individual rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, psixolog, ota-ona, ta'lim-tarbiya, xulq-atvor, rivojlanish, nazariya, yondashuv.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of working with hyperactive children in preschool educational institutions. The content of the concept of hyperactivity, its causes, psychological and pedagogical characteristics, as well as modern approaches to working with hyperactive children are examined. The research findings contribute to improving inclusive and individualized approaches within the preschool education system.

Key words: hyperactivity, ADHD (attention deficit hyperactivity disorder), preschool education, psychological and pedagogical approach, individual development, social adaptation, psychologist, parents, education and upbringing, behavior, development, theory, approach.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические основы работы с гиперактивными детьми в дошкольных образовательных организациях. Рассматриваются содержание понятия гиперактивности, причины её возникновения, психолого-педагогические особенности, а также современные подходы к организации работы с гиперактивными детьми. Результаты исследования способствуют совершенствованию инклюзивного и индивидуального подходов в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: гиперактивность, СДВГ (синдром дефицита внимания и гиперактивности), дошкольное образование, психолого-педагогический подход, индивидуальное развитие, социальная адаптация, психолог, родители, обучение и воспитание, поведение, развитие, теория, подход.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi individual farqlarni inobatga olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, giperaktiv xulq-atvor namoyon etuvchi bolalar bilan ishlash pedagog va psixologlardan chuqur ilmiy-nazariy bilimlarni, maxsus yondashuv hamda metodlarni talab etadi. Giperaktivlik bolalarning ijtimoiy moslashuvi, ta'lim-tarbiya jarayonlarida ishtiroki va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur masalaning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Har bir bolaning barkamol rivojlanishini ta'minlash, sog'lom psixologik muhit yaratish hamda maxsus pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan qaror va farmonlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash mexanizmlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Bu esa giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish zaruratini yanada oshiradi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlash masalasini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlarni asoslash hamda ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunning muhim ilmiy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda giperaktivlik ko‘pincha diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik buzilishi (DEHB) tushunchasi bilan izohlanadi. Ushbu holat bolaning psixik rivojlanishidagi muhim funksiyalar, xususan, diqqatni boshqarish, xulq-atvorni nazorat qilish va harakat faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonlarida buzilishlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Giperaktivlik nafaqat ortiqcha jismoniy harakatchanlik, balki bolaning emotsional barqarorligi va ijtimoiy munosabatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yetakchi tadqiqotchilar, jumladan, A. Barkley, L. S. Vygotskiy, A. R. Luriya va boshqa olimlar giperaktivlikni markaziy asab tizimining funksional yetilmaganligi bilan izohlaydilar. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, miya po‘stlog‘ining boshqaruv funksiyalari yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida bolaning o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish imkoniyatlari cheklanadi. Ayniqsa, prefrontal soha faoliyatidagi yetishmovchiliklar impulsivlik va diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yosh davrida giperaktivlikning namoyon bo‘lishi bolaning yosh va rivojlanish xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ko‘pincha kundalik faoliyat, o‘yin jarayoni hamda ta’lim-tarbiyaviy mashg‘ulotlar davomida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu davrda giperaktivlik asosan quyidagi belgilar orqali namoyon bo‘ladi:

- bolaning uzoq vaqt davomida diqqatini bir faoliyat turiga qaratib tura olmasligi, tez chalg‘ishi va faoliyatni oxirigacha yetkazmasligi;
- ortiqcha harakatchanlik, tinimsiz harakat qilish, o‘tirib turish talab etiladigan vaziyatlarda ham jismoniy faollikni cheklay olmaslik;
- impulsiv xatti-harakatlar, ya’ni oldindan o‘ylamasdan harakat qilish, navbat kutmaslik, savollarga shoshilinch javob berish;
- o‘z xatti-harakatlarini ixtiyoriy nazorat qilishda qiyinchilik, kattalar tomonidan berilgan qoidalar va ko‘rsatmalarga to‘liq amal qilmaslik.

Mazkur belgilar maktabgacha ta’lim jarayonida giperaktiv bolalarning moslashuvini murakkablashtiradi hamda pedagogik jarayonda maxsus yondashuv va qo‘llab-quvvatlash choralarini talab etadi. Shu bois, giperaktivlikni erta aniqlash va uning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganish maktabgacha ta’lim tizimida samarali pedagogik faoliyatni tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Giperaktiv bolalar emotsional jihatdan beqaror, tez ta’sirchan va ijtimoiy munosabatlarda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning bilish jarayonlari, xususan, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarida nomutanosiblik kuzatiladi. Shu sababli, bunday bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash va pedagogik moslashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik nuqtayi nazardan, giperaktiv bolalarga nisbatan jazolash emas, balki rag‘batlantirish, aniq va qisqa ko‘rsatmalar berish, faoliyat turlarini tez-tez almashtirib borish samarali hisoblanadi. Bunda pedagog tomonidan bolaning ijobiy xatti-harakatlarini o‘z vaqtida e’tirof etish, kichik yutuqlarini ham qo‘llab-quvvatlash orqali uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish muhimdir. Rag‘batlantirish jarayoni bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos holda tashkil etilishi, ortiqcha talab va bosimdan qochilishi lozim. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida harakatli o‘yinlar, qisqa muddatli mashg‘ulotlar, vizual vositalar va amaliy faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish giperaktiv bolalarning diqqatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Faoliyat turlarining mantiqiy ketma-ketlikda va qisqa vaqt oralig‘ida almashib borilishi bolaning charchashining oldini oladi hamda uning faol ishtirokini ta’minlaydi. Bundan tashqari, giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagog va psixolog hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Psixolog tomonidan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, relaksatsiya va o‘zini nazorat qilishga yo‘naltirilgan mashqlar bolaning emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam beradi. Ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish esa pedagogik ta’sirning uzluksizligini ta’minlab, bolaning ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Zamonaviy yondashuvlar giperaktiv bolalar bilan ishlash masalasi maktabgacha ta’lim tizimida nafaqat psixologik, balki pedagogik yondashuvlarni ham talab etishini ko‘rsatadi. An’anaviy metodlar ko‘pincha bola xulqini nazorat qilishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar uning rivojlanishiga va ijtimoiy moslashuviga yo‘naltiriladi.

Shu nuqtai nazardan, bir nechta ilmiy asoslangan yondashuvlar alohida ahamiyatga ega:

- nevropedagogik yondashuv giperaktivlikni bolaning neyrofiziologik xususiyati sifatida qabul qiladi va miya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni taklif etadi;
- amaliyotda bu yondashuv miya boshqaruv zonalarini faollashtirishga xizmat qiladigan mashqlar, ikki qo‘l bilan bajariladigan harakatlar hamda musiqali-harakatli o‘yinlar orqali amalga oshiriladi, tadqiqotchi-

lar ta'kidlaganidek, bunday faoliyatlar bolaning diqqatini barqarorlashtirish va impulsiv xatti-harakatlarni kamaytirishga yordam beradi (Barkli, 2019; Vygotskiy, 2001);

- sensor integratsiya yondashuvi giperaktiv bolalarda sezgi axborotini qayta ishlashdagi nomutanosiblikni hisobga olgan holda turli sezgi tajribalarini uyg'unlashtirishga qaratiladi, amaliy tavsiyalar qatoriga qum, suv va plastilin bilan o'yinlar, turli fakturali buyumlar hamda tinchlantiruvchi sensor burchaklardan foydalanish kiradi;
- mindfulness (ongli diqqat) elementlari maktabgacha yoshga moslashtirilgan shaklda qo'llanilganda bolaning o'zini anglash va emotsiyalarini boshqarish qobiliyatini oshiradi, mashg'ulotlar qisqa muddatli nafas mashqlari, "jimlik o'yini" va emotsiyalarni nomlash kabi oddiy texnikalarni o'z ichiga oladi;
- o'yin terapiyasiga asoslangan yondashuv orqali bola xulqini modellashtirish va ijtimoiy qoidalarni o'rganish imkoniga ega bo'ladi, rolli o'yinlar, qoidali o'yinlar hamda dramatizatsiya elementlari yordamida pedagog bolani faol ishtirok etishga jalb qiladi;
- ota-ona-pedagog-psixolog uchligi modeli giperaktiv bolalar bilan ishlashda samarali natijaga erishish uchun uch tomonlama hamkorlikni nazarda tutadi, uy va MTM (maktabgacha ta'lim muassasasi) muhitida bir xil yondashuvni qo'llash bolaning rivojlanishini uzluksiz qo'llab-quvvatlaydi;

Ijobiy intizom (Positive Discipline) yondashuvi jazolashni rad etib, intizomni o'rgatish vositasi sifatida ko'radi, bunda bola xatolarini o'rganish imkoniyati sifatida qabul qiladi, hurmat va qat'iyatni uyg'unlashtiradi hamda tabiiy oqibatlar orqali ijobiy xulqni shakllantiradi. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar maktabgacha ta'lim tizimida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy asoslangan, individual va kompleks usullarini tashkil etishga imkon beradi hamda bolaning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda uning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlaydi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlash masalasi psixologik-pedagogik tadqiqotlarda dolzarb mavzu sifatida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, giperaktivlik – bu bolalarning markaziy asab tizimining funksional xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab hodisa bo'lib, uning namoyon bo'lishi diqqat yetishmovchiligi, impulsivlik va ortiqcha harakatchanlik bilan tavsiflanadi. Giperaktiv bolalarning emotsional beqarorligi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklari va bilish jarayonlaridagi nomutanosibliklar ularni pedagogik jarayonda individual yondashuvni talab qiladigan shaxs sifatida ajratib turadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, giperaktiv bolalar bilan ishlashda samarali yondashuvlar quyidagi asosiy tamoyillarni o'z ichiga olishi lozim: individualizatsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, faoliyat turini tez-tez almashtirish, o'yin va sezgi integratsiyasiga asoslangan mashg'ulotlar. Shu bilan birga, ota-ona, pedagog va psixologning tizimli hamkorligi bolaning rivojlanishini uzluksiz qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, nevropedagogik, sensor integratsiya, mindfulness, o'yin terapiyasi va ijobiy intizom metodlari giperaktiv bolalarning diqqatini barqarorlashtirish, impulsiv xatti-harakatlarini kamaytirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu asosda maktabgacha ta'lim tizimida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash hamda inklyuziv ta'limni ilgari surish uchun muhim shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkley, R. A. (2019). Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment. New York: Guilford Press.
2. Vygotskiy, L. S. (2001). Pedagogicheskaya psikhologiya. Moskva: Prosveshchenie.
3. Luria, A. R. (1973). The Working Brain: An Introduction to Neuropsychology. New York: Basic Books.
4. American Psychiatric Association. (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (5th ed.). Washington, DC: APA.
5. Barkley, R. A. (2015). Managing ADHD in Children: Practical Strategies for Parents and Teachers. New York: Guilford Press.
6. Greene, R. W. (2014). The Explosive Child: A New Approach for Understanding and Parenting Easily Frustrated, Chronically Inflexible Children. New York: HarperCollins.
7. Shapiro, E. S. (2011). Academic Skills Problems: Direct Assessment and Intervention (4th ed.). New York: Guilford Press.
8. Zentall, S. S. (2005). Theory- and Evidence-Based Strategies for Children with Attention Deficit Hyperactivity Disorder. Psychology in the Schools, 42(8), 851–863.
9. Green, C., & Chee, C. (2018). Mindfulness for Children with ADHD: Strategies for Teachers and Parents. London: Routledge.
10. Ota-ona pedagogik qo'llanma va maktabgacha ta'lim metodik materiallari. (2020). Toshkent: Markaziy Pedagogik Tadqiqotlar Markazi.

QANDLI DIABET BILAN OG'RIGAN BEMORLARGA PEDAGOGIK YORDAM KO'RSATISH TIZIMI

Shermatova Yakut Sabirovna
Qo'qon davlat universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qandli diabet bilan og'rigan bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda kompleks pedagogik ta'lim va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimining roli o'rganiladi. Tadqiqot bemorlarning o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish va kasallikka nisbatan ongli munosabatni tarbiyalashga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tizimli pedagogik yondashuv glikemiya nazoratini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qandli diabet, pedagogik reabilitatsiya, psixologik korreksiya, o'z-o'zini nazorat qilish, andragogika.

Abstract: This article explores the role of a comprehensive system of pedagogical education and psychological support in improving the quality of life of patients with diabetes mellitus. The study aims to develop patients' self-management competencies and foster a conscious attitude toward the disease. The results indicate that a systematic pedagogical approach plays a significant role in improving glycemic control.

Key words: diabetes mellitus, pedagogical rehabilitation, psychological correction, self-management, andragogy.

Аннотация: В данной статье исследуется роль комплексной системы педагогического обучения и психологической поддержки в улучшении качества жизни больных сахарным диабетом. Исследование направлено на формирование у пациентов компетенций самоконтроля и воспитание осознанного отношения к заболеванию. Результаты показывают, что системный педагогический подход имеет важное значение для улучшения контроля гликемии.

Ключевые слова: сахарный диабет, педагогическая реабилитация, психологическая коррекция, самоконтроль, андрагогика.

KIRISH

Qandli diabet – organizmda qand (glyukoza) almashinuvi buzilishi bilan bog'liq surunkali kasallik bo'lib, unda qonda shakar miqdori me'yordan yuqori bo'ladi. Bu holat asosan insulin gormoni yetishmasligi yoki uning ta'sirining kamayishi natijasida yuzaga keladi. Insulin oshqozon osti bezida ishlab chiqariladi va u qondagi shakarni hujayralarga yetkazib, energiya hosil bo'lishiga yordam beradi. Qandli diabet zamonaviy tibbiyot va pedagogikaning kesishgan nuqtasidagi dolzarb muammodir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, davolashning samarasizligi 70 % holatlarda bemorlarning tibbiy-pedagogik savodxonligining pastligi hamda psixologik tushkunligi bilan bog'liq.

Hozirgi kunda bolalar o'rtasida surunkali kasalliklar, xususan, qandli diabetning uchrashi ortib bormoqda. Qandli diabet nafaqat tibbiy, balki pedagogik muammo ham hisoblanadi, chunki ushbu kasallik bilan yashayotgan bolalar o'quv jarayonida alohida e'tibor va moslashuvchan sharoitlarga muhtojdir.

Diabet bolalarda diqqatning pasayishi, tez charchash, kayfiyat o'zgarishi hamda ijtimoiy moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli pedagogik jarayonni ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Pedagogik ish tizimi – bu bolaning ta'lim va tarbiya jarayonini sog'lig'ini asragan holda samarali rivojlanishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qandli diabet bilan og'rigan bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda turli nazariy va amaliy yondashuvlar mavjud. Ushbu mavzu doirasida olib borilgan adabiyotlarni tahlil qilish natijasida bir qancha asosiy yo'nalishlar ajralib turadi: A.V. Averbux bolalarning surunkali kasalliklari bilan bog'liq pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi. U pedagogik yordamni tashkil etishda individual yondashuv,

o‘quv yuklamasini moslashtirish va psixologik qo‘llab-quvvatlashni asosiy omillar sifatida ko‘rsatadi. Bu tadqiqot mazkur maqolaning nazariy asosini yaratadi [1].

N.P. Yefimova qandli diabet bilan og‘rigan bolalarning o‘quv jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarini yoritadi. Muallif bolalarning diqqat, charchoq va kayfiyatiga ta’sir qiluvchi omillarni, shuningdek, pedagogik yondashuvlar yordamida ushbu qiyinchiliklarni kamaytirish usullarini ko‘rsatadi [2].

Ya.S. Shermatova inklyuziv ta’lim doirasida maxsus ehtiyojli bolalarga pedagogik yordam ko‘rsatish tizimini ishlab chiqadi. Muallifning ishida individual rejalashtirish, sog‘lomlashtiruvchi faoliyat va ota-ona hamkorligi asosiy elementlar sifatida belgilangan. American Diabetes Association tomonidan ishlab chiqilgan qandli diabetni davolash va nazorat qilish standartlari pedagogik tizimni tashkil etishda tibbiy asos sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu manba bolalarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq xavfsizlik choralarini belgilash va diabetni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [4].

Shuningdek, WHO hisobotlari qandli diabetning global tarqalishi, bolalardagi xavf omillari hamda sog‘lomlashtiruvchi faoliyatga e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot pedagogika, maxsus pedagogika, psixologiya va tibbiyot fanlarining integrativ yondashuviga asoslandi. Metodologik asos sifatida inklyuziv ta’lim tamoyillari, sog‘lomlashtiruvchi pedagogika hamda bemorlarning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar qo‘llanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili, normativ hujjatlarni o‘rganish hamda ilg‘or tajribalarni umumlashtirish amalga oshirildi.

Empirik bosqichda kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinov ishlari va natijalarni qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Metodologiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘ldi: individuallashtirish (bemorning yoshi va sog‘liq holatini hisobga olish), tizimlilik (pedagogik va psixologik yordamning uzluksizligi), amaliy yo‘naltirilganlik (real ta’lim muhitida qo‘llash imkoniyati) hamda hamkorlik (o‘qituvchi–ota-ona–tibbiyot xodimi o‘zaro integratsiyasi). Mazkur yondashuv qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarning o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarga pedagogik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish masalasida zamonaviy yondashuvlar nafaqat tibbiy nazorat, balki uzluksiz ta’limiy va psixologik qo‘llab-quvvatlashni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, World Health Organization ma’lumotlariga ko‘ra, diabet global miqyosda nogironlik va erta o‘lim xavfini oshiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, uni samarali boshqarishda bemorlarning sog‘lom turmush tarzi va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois pedagogik tizim faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki motivatsion, ijtimoiy va emotsional qo‘llab-quvvatlashni ham qamrab olishi lozim. Bugungi kunda American Diabetes Association tomonidan tavsiya etilgan standartlarda bemor ta’limi diabetni boshqarishning asosiy komponentlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar uchun diabet maktablari, trening dasturlari va interaktiv o‘quv modullari samarali vosita hisoblanadi. Bunday dasturlarda glyukozani o‘lchash, insulin yuborish texnikasi, ovqatlanish rejimini tuzish, stressni boshqarish va jismoniy faollikni rejalashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi. Pedagogik-psixologik tizimni tashkil etishda andragogika va inklyuziv ta’lim tamoyillariga tayanish muhimdir. Kattalar bilan ishlashda mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy tajribaga tayangan holda o‘qitish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish usullari qo‘llaniladi.

Bolalar bilan ishlashda esa o‘yin texnologiyalari, vizual materiallar va sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar samarali natija beradi. Shu bilan birga, ota-onalar uchun ma’rifiy seminarlar tashkil etish, oilaviy maslahatlar o‘tkazish kasallikni boshqarish jarayonini barqarorlashtiradi. Qo‘shimcha ravishda, diabet bilan yashayotgan bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish, ijtimoiy stigma va psixologik bosimni kamaytirish pedagogik ishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Psixologik korreksiya elementlari – relaksatsiya mashqlari, emotsional o‘zini boshqarish, ijobiy fikrlashni rivojlantirish – glyukemik ko‘rsatkichlarning barqarorlashuviga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish ham dolzarbdir. Mobil ilovalar orqali qondagi shakar darajasini nazorat qilish, elektron kundalik yuritish, masofaviy pedagogik maslahatlar berish imkoniyati yaratiladi. Bu esa bemorlarning o‘z sog‘lig‘i uchun mas’uliyatini oshiradi va nazorat jarayonini tizimli ravishda tashkil etishga xizmat qiladi. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarga pedagogik yordam ko‘rsatish tizimi ko‘p komponentli, uzluksiz va hamkorlikka asoslangan model bo‘lishi zarur. U tibbiy nazorat, pedagogik ta’lim, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini bir butun mexanizm sifatida birlashtirgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, diabetni boshqarishda “pedagogik kompetentlik” tushunchasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bemor faqat shifokor ko‘rsatmasini bajaruvchi emas, balki jarayonning ongli ishtirokchisiga aylan-

gandagina barqaror natijaga erishiladi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash esa pedagogik bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini ta’minlovchi poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy belgilar sifatida doimiy chanqash, tez-tez siyish, tez charchash, ko‘rishning xiralashishi, sababsiz vazn yo‘qotish (1-turda), yaralarning sekin bitishi qayd etiladi. Agar diabet nazorat qilinmasa, quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin: yurak va qon tomir kasalliklari, buyrak zararlanishi, ko‘rish qobiliyatining pasayishi, asab tizimi shikastlanishi, oyoq yaralari va gangrena. Davolash va nazorat qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, qondagi shakarni muntazam o‘lchash, dori-darmonlar yoki insulin qabul qilish, shifokor nazoratida bo‘lish. Olti oylik pedagogik-psixologik aralashuvdan so‘ng quyidagi natijalar qayd etildi: qandli diabet bilan og‘rigan bolalarning pedagogik xususiyatlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Qandli diabet bilan yashayotgan bolalarda tez charchash va diqqatning pasayishi, kayfiyatning tez o‘zgarishi, stressga sezgirlik, sog‘liq bilan bog‘liq tashvishlar kuzatilishi mumkin. Bu omillar ularning o‘qish faoliyati va ijtimoiy moslashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun pedagogik jarayonda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarga pedagogik yordam ko‘rsatish tizimi ko‘p qirrali va uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. Diabetni boshqarish faqat farmakologik davolash bilan cheklanmaydi, balki bemorning kundalik hayot faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi, o‘z sog‘lig‘i uchun mas’uliyatni his qilishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan pedagogik yondashuv bemorni davolash jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Diabet bilan yashayotgan bolalarda tez charchash, diqqatning susayishi, emotsional beqarorlik va sog‘liq bilan bog‘liq xavotirlar kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘quv yuklamasini moslashtirish, dars jarayonida qisqa tanaffuslar tashkil etish, sog‘lomlashtiruvchi mashqlarni qo‘llash hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Individual yondashuv ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Pedagogik kompetentlik tushunchasi diabetni boshqarishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bemor glyukozani nazorat qilish, ovqatlanish rejimini tuzish, jismoniy faollikni me’yorlashtirish va stressni boshqarish bo‘yicha yetarli bilim hamda ko‘nikmaga ega bo‘lgandagina barqaror natijalarga erishish mumkin. Shu ma’noda pedagogik ta’lim jarayoni sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatni talab etadi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash esa pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Emotsional barqarorlikni ta’minlash, motivatsiyani kuchaytirish, ijtimoiy moslashuvni qo‘llab-quvvatlash diabet bilan yashovchi bolalarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularni ma’rifiy seminarlar va maslahatlar orqali jarayonga jalb etish esa pedagogik tizimning samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanish diabetni boshqarish madaniyatini shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron kundaliklar, mobil ilovalar va masofaviy maslahat xizmatlari bemorlarning o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayonini yengillashtiradi hamda uzluksiz monitoringni ta’minlaydi. Umuman olganda, pedagogik-psixologik yordam tizimi sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarining integratsiyasiga asoslanishi zarur. Bunday yondashuv bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, asoratlar xavfini kamaytirish va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Qandli diabet bilan og‘rigan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ish tizimi ularning sog‘lig‘ini saqlash, ta’lim olishda teng imkoniyatlarni ta’minlash va ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizimning samarali bo‘lishi o‘qituvchi, ota-ona va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikka bog‘liq. Shu bilan birga, pedagogik ish tizimi bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sog‘lomlashtiruvchi va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi faoliyatni o‘z ichiga oladi. Qandli diabet bilan og‘rigan bolalar uchun pedagogik-psixologik tizimning joriy etilishi asoratlar xavfini kamaytiradi va hayot sifatini oshiradi.Ushbu modelni sog‘liqni saqlash tizimining barcha bo‘g‘inlariga tatbiq etish, shifoxonalarda “shifokor-pedagog-psixolog” hamkorligini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авербух Л.Л. Педагогика детей с хроническими заболеваниями. – Москва, 2015.
2. Ефимова Н.П. Диабет и школьное образование: теория и практика. – Санкт-Петербург, 2017.
3. American Diabetes Association. Standards of Care in Diabetes – 2024 // Diabetes Care. – 2024.
4. Шерматова Я.С. Инклюзивное образование детей с особыми потребностями. – Фергана, 2020.
5. World Health Organization (WHO). Diabetes Fact Sheets. – 2023.
6. International Diabetes Federation (IDF). IDF Diabetes Atlas. – 10th ed. – Brussels, 2021.
7. Silverstein J., et al. Care of Children and Adolescents With Type 1 Diabetes // Diabetes Care. – 2005. – Vol. 28(1). – P. 186–212.

O‘SMIRLAR O‘RTASIDA KIBERBULLING



Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna
Toshkent xalqaro kimyo universitetining 2-kurs magistranti

Annotatsiya: So‘nggi yillarda internet va raqamli texnologiyalar barcha sohalar qatori ta’lim, muloqot va madaniyat sohalarida ham chuqur ildiz otmoqda. Ayniqsa, ularning yangi avlod – o‘smirlar hayotining ajralmas qismiga aylangani ko‘pchilikka ayon. Raqamli texnologiyalar hayotni yengillashtirish, axborotga bo‘lgan ehtiyojni qondirish hamda ijtimoiy muloqotni kengaytirish imkonini bersa-da, internetning salbiy jihatlari ham mavjudligi inkor etilmaydi. Jumladan, so‘nggi yillarda o‘smirlar o‘rtasida keng tarqalib borayotgan muammolardan biri – kiberbulling fenomeni ham aynan shu texnologik rivojlanish natijasida yuzaga kelgan muammolar sirasiga kiradi. Ushbu hodisaning paydo bo‘lishi va kengayishi internetdan foydalanayotgan yoshlar orasida psixologik xavf-xatarlar, ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy tushkunlik hamda o‘z-o‘ziga ishonchning pasayishi kabi salbiy oqibatlarni kuchaytirmoqda.

Kalit so‘zlar: kiberbulling, o‘smirlar, internet xavfsizligi, psixologik ta’sir, ma’naviy himoya, raqamli texnologiyalar, jamiyat, kommunikatsiya, axborot madaniyati, tajovuz.

Abstract: In recent years, the Internet and digital technologies have taken deep root in various spheres, including education, communication, and culture. It is widely recognized that they have become an integral part of the lives of the younger generation – teenagers. Although digital technologies facilitate everyday life, meet the need for information, and expand social interaction, it cannot be denied that the Internet also has its dark sides. In particular, one of the problems that has become widespread among teenagers in recent years is the phenomenon of cyberbullying, which is among the issues arising from technological development. The emergence and spread of this phenomenon contribute to increasing the negative consequences of Internet use among young people, such as psychological risks, social isolation, depression, and low self-esteem.

Key words: cyberbullying, teenagers, Internet safety, psychological impact, moral protection, digital technologies, society, communication, information culture, aggression.

Аннотация: В последние годы интернет и цифровые технологии глубоко укоренились во всех сферах, включая образование, коммуникацию и культуру. Многим очевидно, что они стали неотъемлемой частью жизни нового поколения – подростков. Хотя цифровые технологии облегчают жизнь, удовлетворяют потребность в информации и расширяют социальное общение, нельзя отрицать наличие у интернета и темных сторон. В частности, одной из проблем, получивших широкое распространение среди подростков в последние годы, является феномен кибербуллинга, который также относится к числу проблем, возникших в результате данного технологического развития. Возникновение и распространение этого явления способствует усилению негативных последствий использования интернета среди молодежи, таких как психологические риски, социальная изоляция, депрессия и неуверенность в себе.

Ключевые слова: кибербуллинг, подростки, безопасность в интернете, психологическое воздействие, моральная защита, цифровые технологии, общество, коммуникация, информационная культура, агрессия.

KIRISH

Kiberbulling – grekcha “kiber” va inglizcha “bullying” (tajovuz, tazyiq) so‘zlarining birikmasidan iborat bo‘lib, internet tarmog‘i, ijtimoiy media, messenjerlar yoki boshqa raqamli kommunikatsiya vositalari orqali ataylab kimnidir haqorat qilish, kamsitish, ta’na qilish, tuhmat qilish hamda boshqa ruhiy zo‘ravonlik usullari bilan unga tazyiq o‘tkazish jarayonidir. O‘smir yoshlar orasida bunday xatti-harakatlar psixologik rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatib, jismoniy tajovuzning zamonaviy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Kiberbullingning asosiy xavfi shundaki, ushbu faoliyat odatda anonimlik pardasi ostida sodir bo‘ladi, natijada kiberjinoyatchining harakatlari ko‘pincha javobsiz qoladi hamda jinoyat izlarini yashirish imkoniyati kengayadi.

Kiberbullingning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Onlayn muloqotda hissiy javobning kechikishi, virtual aloqa vositalarining chegarasizligi, zamonaviy yoshlarning internetga bo‘lgan cheksiz ishonchi va undan faol foydalanishi natijasida kiberbullingning o‘smirlar ongiga salbiy ta’siri yanada kuchaymoqda. Virtual makonning ochiqligi, yoshlar orasida tezkor axborot almashinuvi hamda internetdan qochib qutulishning deyarli imkonsizligi so‘nggi yillarda ushbu muammoning jiddiyligi va keng ko‘lamliligini ko‘rsatmoqda. Raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan tazyiq, haqorat, tahdid, ko‘pchilikka oshkora qilingan soxta yoki shaxsiy ma’lumotlar, tuhmat va boshqa usullar o‘smir ruhiyatida chuqur iz qoldirishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘smirlik yoshi – inson ruhiyatining eng sezgir, o‘zgaruvchan va nozik davri sanaladi. Bu yoshda shaxs yetuklashishga, jamoa ichida o‘z o‘rnini topishga, ijtimoiy tasdig‘ini mustahkamlashga hamda mustaqil qarorlar qabul qilishga intiladi. Oila, maktab va do‘stlar davrasidagi munosabatlar orqali shakllanadigan ushbu yosh toifasi uchun ijtimoiy media o‘ziga xos makon sifatida yangi muammolar, noqulayliklar va psixologik tazyiqlarni yuzaga chiqarmoqda. O‘smirlar ko‘pincha o‘z tengdoshlarining bahosidan, tarmoqda bildiriladigan ommaviy mulohazalardan yoki qo‘pol muomaladan o‘zini chetda his eta olmaydi. Chunki internet asrida bu yosh toifasi ko‘proq shaxsiylashtirilgan virtual makonda faoliyat yuritadi. Bunday muhit va vaziyatda kiberbulling ko‘rinishlari turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ayrim hollarda bu jarayon oddiy masxara qilish, tahdid yo‘llash, chaqiriqlar tarqatish yoki soxta maqolalar, suratlar hamda videolarni joylashtirish orqali ijtimoiy tazyiq o‘tkazish ko‘rinishida kechadi.

Qolaversa, kiberbulling holatlari ko‘pincha birinchi qarashdayoq sezilmasligi mumkin, biroq uning oqibatlari og‘ir ruhiy jarohatlar, depressiya, yolg‘izlik va ijtimoiy mavqeining pasayishida namoyon bo‘ladi. Kiberjinoyatchilar odatda anonimlik asosida harakat qiladi va jabrlanuvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq muloqotdan qochadi. Bunday “parda” ortidagi tazyiq o‘smirlarning ruhiy muvozanatiga jiddiy putur yetkazadi [1].

O‘smirlarning internet makoniga chuqur kirib borishi hamda ijtimoiy tarmoqlardan o‘ziga xos platforma sifatida foydalanishi natijasida kiberbulling holatlari zamonaviy jamiyat uchun dolzarb masalaga aylandi. Maktab psixologlari, pedagoglar va ota-onalar tomonidan ushbu muammoga yetarli e’tibor qaratilmayotgan bo‘lishi mumkin. Bu esa kiberbulling tufayli jabrlanuvchi o‘smirlarning muammolari o‘z vaqtida aniqlanmasligiga, ularning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘i uchun tahdid tug‘diruvchi omillarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Virtual makonda o‘smirlar o‘rtasida sodir bo‘layotgan tahdidlar, haqoratlar va boshqa salbiy xatti-harakatlarni aniqlash hamda ularga nisbatan chora-tadbirlar ko‘rish butun jamiyat oldida turgan vazifalardan biridir [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘smirlar orasidagi kiberbulling psixologik, ma’naviy va ijtimoiy-psixologik zararlar keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlardagi haqoratli sharhlar, tahdidlar, tuhmatli yozuvlar o‘smirni chuqur ruhiy jarohatlantiradi. O‘z navbatida, bu holat oilaviy, maktab va keng jamoa muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘smir do‘stlari va yaqinlarining e’tibori hamda ko‘magidan bebahra qolib, asta-sekin o‘zini yolg‘iz, ilojsiz va himoyasiz his eta boshlaydi. Bu holatning og‘ir oqibati esa ba’zan o‘z joniga qasd qilish darajasigacha yetib borishi mumkin. Yana bir muhim jihat – o‘smirlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topish va o‘ziga xos identifikatsiyalanish jarayonida yuzaga keladigan ruhiy tushkunlik, stress hamda depressiyadir. Virtual dunyo qulay va xavfsiz muhit emas, unda har bir jabrlanuvchi doimiy ravishda kuzatuv va psixologik bosim ostida qoladi. Kiberbulling natijasida o‘smir o‘z hayotidan, planshet yoki telefondan, internetdan, shaxsiy profilidan voz kechishni istab, undan chetlashishga harakat qiladi, ammo zamonaviy jamiyatda bunday cheklanish yanada kuchli ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Bu muammoning yana bir tomoni – atrof-muhitdagi insonlar, ota-onalar, pedagoglar yoki yaqinlar tomonidan yetarli va to‘g‘ri yordam ko‘rsatilmasligidir [3].

Kiberbulling holatida ko‘pgina o‘smirlar o‘z muammolari haqida kattalarga, ota-onalarga yoki o‘qituvchilarga murojaat qilmaydi. Buning asosiy sababi ko‘pincha xavotir, jur’atsizlik, masxara bo‘lishdan qo‘rquv, muammolarini tashqi muhitga oshkor etishdan tortinish hamda nima qilishni bilmaslikdan kelib chiqadi. Yana bir asosiy sabab – jamiyatda kiberbullingga qarshi kurashishning puxta mexanizmlari yetarli darajada shakllanmaganligidir.

To‘g‘ri, ba’zi davlatlarda aniq yuridik asoslar mavjud bo‘lib, qonun va normativ hujjatlarda bunday salbiy xatti-harakatlar noqonuniy deb e’tirof etiladi hamda unga qarshi tezkor choralar ko‘riladi. Biroq o‘smirlar o‘rtasida internetdan foydalanish madaniyatini mustahkamlash, oilaviy va maktab darajasida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish, seminarlar, davra suhbatlari, psixologik treninglar hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida monitoring jarayonlarini tashkil etish ishlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kuzatilmoqda. Jamiyatda kiberbullingga qarshi kurashish kompleks strategiyani talab etadi. O‘smirlarning ongida axloqiy, madaniy va ijtimoiy immunitetni shakllantirish, og‘ir ijtimoiy bosim va tahdid ostida qolayotgan shaxsni himoya

qilish maqsadida oila, maktab va jamiyat bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi zarur. Psixologlarning fikricha, kiberbullingdan jabrlangan o‘smirlar ruhiy barqarorligini tezda yo‘qotishga, atrofdagilar, do‘stlar va hatto oilaga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishiga moyil bo‘lib boradi. Bu esa zamonaviy taraqqiyotga to‘siq bo‘lib, yosh avlodning rivojlanishiga jiddiy tahdid tug‘diradi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Kiberbullingning oldini olish va unga qarshi samarali kurash yo‘llaridan biri – internet va raqamli vositalardan foydalanish madaniyatini mustahkamlashdir. Ota-onalar va ustozlar bolaga yoshligidan onlayn muhitda o‘zini tutish, o‘z shaxsiy xavfsizligini ta’minlash, shubhali va nomaqbul shaxslar bilan muloqotda ehtiyotkor bo‘lish, shaxsiy axborot va suratlarni himoya qilish madaniyatini o‘rgatishlari zarur. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual makonlarda bo‘layotgan tajovuz va tazyiqlar yuzasidan darhol murojaat etish uchun ochiq platformalar, “ishonch liniyalari”, anonim ko‘mak xizmatlarini tashkil etish, jamiyat vakillarini faol va hushyor bo‘lishga chaqirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab muassasalarida o‘quvchilarga kiberxavfsizlik, internet tahdidlari, onlayn etika va xavfli axborotdan himoyalanish haqida muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. O‘quvchi o‘zini ishonchli va ochiq muhitda his qilishi, muammolari yuzasidan har doim qabul qilinishi mumkinligini bilishi muhimdir. Kiberbullingga qarshi kurashda ota-onalar, ustozlar va psixologlarning hamjihatligi, jaholat, zo‘ravonlik va tahdidga qarshi murosasiz pozitsiyasi katta samara beradi [5].

Zamonaviy jamiyatda kiberbulling holatlari nafaqat o‘smirlarning, balki umumiy axborot madaniyati va jamiyat taraqqiyotining jiddiy muammosiga aylanib bormoqda. Agar bugun bu muammoni faol harakat, bo‘shashtirilmaydigan profilaktika, muntazam bilim va ko‘mak yordamida hal qila bilsak, ertaga barkamol, intellektual va ishonchli yoshlar avlodi yetishishi kafolatlanadi. Kiberbullingni bartaraf etishda jamiyatning barcha vakillari, pedagoglar, ota-onalar hamda davlat organlari faol ishtirokchi va nazoratchi bo‘lishi lozim. Psixologik va ma’naviy himoya tizimi – jamiyatda kiberbullingning oldini olishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Shundan kelib chiqib, ta’lim muassasalarida, oila muhitida va ommaviy axborot vositalari orqali kiberbullingga qarshi chora-tadbirlarni kompleks ravishda olib borish, yosh avlodga internetdan ongli foydalanishni o‘rgatish bo‘yicha targ‘ibot ishlarining ahamiyatini oshirish zarur. Milliy va xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yoshlarni kiberhujum va ruhiy bosimdan asrash, zamonaviy texnologiyalardan xabardor, mustahkam ruhiyatli, axloqan pok va demokratik qadriyatlarga sodiq barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kiberbullingning oldini olish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar va amaliy dasturlar yaratish, onlayn xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqish hamda internetda xatti-harakat madaniyatini ilgari surish orqali jamiyatning umumiy farovonligi ta’minlanadi. Barcha bo‘shliqlarni to‘ldiradigan asosiy vosita – har bir inson, xususan, o‘quvchilar, ularning oilalari va maktab jamoasi o‘rtasida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishdir; kiberbullingdan jabrlanganlarning muammolarini bevosita va samarali hal etishda hokimiyat, psixologlar va maxsus xizmatlarning birgalikdagi harakati muhim ahamiyat kasb etadi [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlar o‘rtasidagi kiberbulling – zamonaviy jamiyat uchun dolzarb, keng ko‘lamli va muammoli fenomen sanaladi. Uning salbiy oqibatlari nafaqat o‘smirlar, balki ularning atrofidagi barcha insonlar hamda jamiyat taraqqiyotiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammoga sust qarash va uning e’tibordan chetda qolishi o‘smirlarimizning kelajagiga xavf tug‘diradi. Shuning uchun har bir oila, maktab, pedagogik muassasa va jamoatchilik internet madaniyatiga alohida urg‘u berib, yosh avlod uchun doimo ko‘makchi, himoyachi va yo‘l-yo‘riq bera oladigan muhit yaratishi zarur. Zero, sog‘lom va farovon jamiyat taraqqiyotining asosi ham axloqan pok, ruhiy tahlikaga duch kelmagan, raqamli dunyoning barcha xavflaridan xabardor hamda o‘zini himoya qila oladigan barkamol avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston respublikasi ta’lim kodeksi.
2. “Kiberbulling: asosiy tushunchalar va oldini olish yo‘llari”. – Respublika ijtimoiy-psixologik markazi nashri. – Toshkent, 2022.
3. Nurmatova D. “Onlayn xavfsizlik va yoshlar”. – Ma’naviyat, 2021.
4. Rustamova M. “Internet muhitida ruhiy muvozanat va uning xavfsizligi”. – Toshkent, 2020.
5. Samekto Y. “Yoshlarni psixologik zo‘ravonlikdan himoya qilish masalalari” (maqola). – Yoshlar va jamiyat jurnali, 2019.
6. Livingstone S., Smith P. K. Children and young people’s experiences of cyberbullying in the UK. – 2020.
7. Patchin J. W. Cyberbullying prevention and response: Expert perspectives. – Routledge, 2012.
8. Wang J., Iannotti R. J., Nansel T. R. School bullying among adolescents in the United States: Physical, verbal, relational, and cyber. – Journal of adolescent health, 2009.
9. Hinduja S., Patchin J. W. Bullying, cyberbullying, and suicide. – Archives of suicide research, 2010.
10. Sharipova Z. “O‘smirlar va onlayn xavfsizlik”. – Zamonaviy ta’lim jurnali, 2023.



UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALAR UCHUN TYUTORLIK YORDAMINI TASHKIL ETISH

Tolipova Pokiza Xasan qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Surdopedagogika ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi

Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari
kafedrasi dotsent v.b.(PhD)

ORCID: 0009-0009-3016-1626

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashda tyutorlik yordamining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Gospital pedagogika sharoitida tyutor faoliyatining mazmuni, bolaning sog'lig'i va psixoemotsional holatidan kelib chiqib individual ta'lim yo'nalishini tuzish masalalari tahlil qilingan. Maqolada tyutorning tibbiyot xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlari, shuningdek, bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasini ta'minlash yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tyutor, uzoq muddatli davolanish, gospital pedagogika, individual hamrohlik, reabilitatsiya, ta'limiy reabilitatsiya, individual ta'lim yo'nalishi.

Abstract: This article explores the significance and characteristics of tutor support in ensuring the right to education for children requiring long-term medical treatment. It analyzes tutor activities within hospital pedagogy, focusing on the development of individual educational pathways based on the child's health condition and psychoemotional state. The article outlines cooperation mechanisms between tutors, medical staff, and parents, as well as strategies for the social rehabilitation of students.

Key words: tutor, long-term medical treatment, hospital pedagogy, individual support, rehabilitation, educational rehabilitation, individual educational pathway.

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение и специфика тьюторской помощи в обеспечении права на образование детей, нуждающихся в длительном лечении. Анализируются аспекты деятельности тьютора в условиях госпитальной педагогики, включая разработку индивидуальных образовательных маршрутов с учетом состояния здоровья и психоэмоционального состояния ребенка. Описываются механизмы взаимодействия тьютора с медицинским персоналом и родителями, а также пути социальной реабилитации обучающихся.

Ключевые слова: тьютор, длительное лечение, госпитальная педагогика, индивидуальное сопровождение, реабилитация, образовательная реабилитация, индивидуальный образовательный маршрут.

KIRISH

O'zbekistonda xorijiy davlatlar amaliyotiga suyanib, uni o'z amaliyotida qo'llashni asos qilib olgan o'qituvchilar "tyutorlar" hisoblanadi. Bugungi kunda "tyutorlar" lavozimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'limga muhtoj bolalarni o'qitish va tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son[1] qarori bilan rasman belgilangan. Hozirgi vaqtda pedagogik atamalar orasida "bolalarga tyutor yordami" tushunchasidan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ta'lim olishda muammolarga duch kelgan bolalar pedagogik yordamga juda muhtojdir. Muammolarning sabablari bolaning jismoniy, aqliy va psixologik rivojlanish xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Bizning ishimiz uchun "tyutor" yordami alohida ahamiyatga ega. Tyutor yordami yordamga muhtoj bolaga ko'rsatiladigan pedagogik yordamni nazarda tutadi.O.S. Gazman pedagogik qo'llab-quvvatlashni quyidagicha tasavvur qilgan: Bola bilan uning manfaatlarini, maqsadlarini, imkoniyatlarini va insoniy qadr-qimmatini saqlashga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni

1 https://lex.uz/docs/-5044711

(muammolarni) yengish yo‘llarini birgalikda aniqlash hamda mustaqil ravishda mashg‘ulotlarda, o‘z-o‘zini tarbiyalashda, muloqotda, turmush tarzida kerakli natijalarga erishish jarayoni”, deb ta’kidlagan. Zamonaviy ta’lim tizimida insonparvarlik tamoyillari asosida har bir bolaning, uning sog‘lig‘idan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish huquqi kafolatlangan.

Biroq, onkologik, gematologik va boshqa og‘ir xastaliklar tufayli uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uzoq vaqt davomida an’anaviy ta’lim muhitidan uzilib qolmoqdalar. Bu holat nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishda ortda qolishga, balki bolada ijtimoiy izolyatsiya va psixologik tushkunlik yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ladi. Shu sababli gospital pedagogika sharoitida tyutorlik yordamini tashkil etish, bolaning davolanish jarayoniga xalaqit bermagan holda uning ta’limiy va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot obyekti: uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar hamda ular uchun ta’limni, shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonini tashkil etish.

Tadqiqot predmeti: gospital pedagogika sharoitida tyutorlik yordamini tashkil etish usullari, shakllari va pedagogik texnologiyalar.

Tadqiqot maqsadi: uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etishning nazariy asoslarini o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tadqiqot vazifalari:

1) mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
2) tyutorlik hamrohligining bosqichlarini belgilash;
3) davolanish sharoitida individual ta’lim yo‘nalishini (ITYo) shakllantirish xususiyatlarini aniqlash;
4) tyutor, tibbiyot xodimlari va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik modelini asoslab berish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchi T.V. Yegorovaning fikricha, imkoniyati cheklangan bolalar – bu sog‘lig‘ining holati maxsus ta’lim va tarbiya sharoitlarisiz ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladigan bolalardir [3]. Uzoq muddatli davolanishdagi bolalar aynan shu toifaga kirib, ularga gospital sharoitda alohida yondashuv talab etiladi.

M.R. Bityanovaning fikricha, hamrohlik qilish – bu psixologik va pedagogik amaliyot maqsadlarini birlashtirishga imkon beradigan hamda asosiy e’tiborni bolaning shaxsiga qaratadigan o‘ziga xos ish mafkurasi hisoblanadi. Hamrohlik qilishning bosh maqsadi – har bir bola o‘z hayotining subyektiga aylanishi mumkin bo‘lgan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdir [2].

Tyutor tushunchasiga N.V. Shramko quyidagicha ta’rif beradi: “Tyutor – individual ta’lim yo‘nalishi va individual ta’lim makonini yaratish orqali ta’lim oluvchining shaxsiy, ijodiy va psixologik rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan pedagog-ustozdir” [5]. Bu ta’rif kasalxona sharoitida bolaning kognitiv funksiyalarini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Ye.B. Kolosovaning nuqtayi nazariga ko‘ra, tyutorlik hamrohligi bolaga uning uchun qiyin bo‘lgan vaziyatlarda yordam berish va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan, ketma-ket va puxta o‘ylangan faoliyatdir. Uning fikricha, bunday faoliyat “qo‘llab-quvvatlash pedagogikasi” g‘oyalariga asoslanishi kerak [4].

Shuningdek, ko‘plab adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ota-onalar, pedagog xodimlar va tyutorlar o‘zaro hamkorlikda ishlashi o‘quvchilarning bilim olish jarayonida vujudga keladigan turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam beradi. Bolalar, ota-onalar, pedagoglar va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa kasalxona maktablaridagi o‘quv jarayonining ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi. Bunday maktablarda o‘quvchilarning sog‘lig‘i tufayli kasalxonalarda uzoq muddat davolanayotganligi ularning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoji maxsus yondashuvni talab qilishini anglatadi [2,6]. Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordami uchta asosiy komponentdan iborat:

1. **Adaptatsiya:** ta’lim muhitini bolaning palatasi yoki maxsus o‘quv xonasiga moslashtirish.
2. **Individualizatsiya:** bolaning somatik holatiga (charchoq, muolajalar vaqti) qarab dars jadvalini elastik tarzda tuzish.
3. **Koordinatsiya:** tibbiyot xodimlari, fan o‘qituvchilari va ota-onalar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlash.

T.V. Timoxina ta’kidlaganidek, tyutorlik taktikasi bolaning sotsializatsiyasi uchun qulay sharoit yaratish va o‘qishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi [6]. Davolanish jarayonida tyutor nafaqat ustoz, balki bolaning hayotga bo‘lgan ishtiyoqini saqlab turuvchi motivator rolini ham bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan tadqiqotda uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan bolalarga individual [Prevatt, F. F., 2000.], moslashuvchanlik [Yates, P., et al., 2016.] ta’lim texnologiyalaridan foydalanildi. Xususan, gospital pedagogikaning xalqaro standartlari [Bray, M., 2021.] va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari asosida tyutorning funksional vazifalari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar uchun F.F. Prevatt (2000) konsepsiyasiga tayangan holda bolalar kasalligining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib individual dars jarayoni tashkil etildi. Ushbu darslarda turli metodik texnologiyalardan foydalanildi. Foydalanilgan metodikalar an’anaviy dars jarayoniga nisbatan 25 foizga yuqori samaradorlik koeffitsientini namoyon etdi. Shuningdek, uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar uchun moslashuvchan dars rejalari ishlab chiqildi. Darslarda uzoq muddatli davolanish jarayonidagi o‘quvchilar uchun ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillar tanlab olindi.

P. Yates (2016) metodologiyasi asosida dars mazmuni va sur’ati bolaning jismoniy hamda ruhiy holatiga moslashtirilib tashkil etildi, bu esa o‘z navbatida uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar uchun o‘quv materialini o‘zlashtirishga sezilarli darajada ta’sir etdi. Bu yondashuv bolaning kasallik dinamikasiga qarab ta’lim yuklamasini optimallashtirishni 15 % ga oshirdi.

XULOSA

Tahlillar natijalariga tayangan holda uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan zaif eshituvchi bolalar uchun tashkil etilgan tyutorlik faoliyati shuni ko‘rsatadiki, tyutorlik yordami uzoq muddatli davolanishdagi bolalarning ta’limdan uzilib qolishining oldini oladi va ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ITYo (Individual ta’lim yo‘nalishi) bolaning salomatligi dinamikasiga qarab muntazam o‘zgarib turishi ularga ta’lim olishiga yengillik yaratadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tyutorlik faoliyati yordamida bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, shuningdek, ta’lim samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bray, M. Shadow Education in Africa: Private Supplementary Tutoring and Its Policy Implications // Journal of Education. – 2021. – P. 171–181.
2. Inogamova, D.R. History of the Development of Hospital Pedagogy in Developed Countries and in the Republic of Uzbekistan // Журнал “Экономика и социум”. – 2024. – Т-3. – С. 118.
3. Yates, P., et al. Child: Care, Health and Development. – 2016. – Vol. 42(3). – P. 378–386.
4. Prevatt, F.F., et al. Journal of School Psychology. – 2000. – Vol. 38(5). – P. 447–467.
5. Битянова М.Р. Организация психологической работы в школе. – М.: Совершенство, 2000.
6. Егорова Т.В. Социальная интеграция детей с ограниченными возможностями. – Балашов, 2002.
7. Колосова Е.Б. Тьютор как новая педагогическая профессия. – М.: Чистые пруды, 2008.
8. Nishonov U., Tursunov I. “Pedagogika kursi”. – Toshkent, 1997-y.
9. Основы тьюторства: курс лекций / Н.В. Шрамко. – Екатеринбург, 2018.
10. Тимохина Т.В. Тьюторство в сопровождении обучаемого. – Москва, 2018.
11. Karimov, B.I. The Importance of Organizing the Tutor’s Activity // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2025. – Vol. 12, Issue-04.

ZAMONAVIY MAKTABLARDA XAVFSIZLIK MADANIYATINING ROLI



Turdiyeva Zilola Jalilovna
TIUE universiteti ta'lim muassasalarini
boshqarish yo'nalishi magistratura 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy maktablar nafaqat bilim maskani, balki o'quvchilar va xodimlar uchun xavfsiz, sog'lom va ishonchli muhit yaratishi lozim bo'lgan ijtimoiy makondir. Shu jarayonda xavfsizlik madaniyati muhim o'rin tutadi. Xavfsizlik madaniyati nafaqat qoidalar va yo'riqnomalar majmui, balki barcha ishtirokchilarning – rahbariyat, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarning xavfsizlikka ongli munosabati hamda mas'uliyatli xulq-atvoridir. Ushbu maqolada maktablarda xavfsizlik madaniyatini boshqarish masalalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida yoritiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq davlat fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlaydi hamda ta'lim olish uchun xavfsiz sharoitlar yaratadi. Ushbu normalar maktablarda xavfsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida ta'lim tizimining barqaror faoliyat yuritishi bevosita xavfsiz muhitning ta'minlanishiga bog'liqdir. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktablarda xavfsizlik masalasi faqat jismoniy himoya bilan cheklanmay, balki psixologik, ijtimoiy va raqamli xavfsizlikni ham qamrab olgan kompleks tizim sifatida qaraladi. Xavfsiz ta'lim muhiti o'quvchilarning intellektual rivoji, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishida muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: yong'in, maktab, xavfsizlik, madaniyat, qoida, texnika, o'quvchi, texnologiya.

Abstract: Modern schools are not only places of knowledge but also social spaces that must create a safe, healthy, and reliable environment for students and staff. Safety culture plays an important role in this process. It is not only a set of rules and instructions but also a conscious attitude toward safety and responsible behavior of all participants – management, teachers, students, and parents. This article examines the issues of managing safety culture in schools on the basis of the current regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan. In accordance with the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the state ensures the protection of the life and health of citizens and creates safe conditions for education. These norms constitute the constitutional basis for ensuring safety in schools. The stable functioning of the education system in the conditions of modern globalization directly depends on the provision of a safe environment. The experience of developed foreign countries shows that the issue of safety in schools is considered a complex system that is not limited to physical protection but also includes psychological, social, and digital safety. A safe educational environment is an important factor in the intellectual development, social adaptation, and personal growth of students.

Key words: fire, school, safety, culture, rules, methods, pupil, technology.

Аннотация: Современные школы – это не только место знаний, но и социальное пространство, которое должно создавать безопасную, здоровую и надежную среду для учащихся и персонала. Важную роль в этом процессе играет культура безопасности. Культура безопасности – это не только свод правил и инструкций, но и осознанное отношение к безопасности и ответственное поведение всех участников – руководства, учителей, учащихся и родителей. В данной статье рассматриваются вопросы управления культурой безопасности в школах на основе действующих нормативно-правовых актов Республики Узбекистан. В соответствии с Конституцией Республики Узбекистан государство обеспечивает защиту жизни и здоровья граждан и создает безопасные условия для образования. Эти нормы составляют конституционную основу обеспечения безопасности в школах. Стабильное функционирование системы образования в условиях современной глобализации напрямую зависит от обеспечения безопасной среды. Опыт развитых зарубежных стран показывает, что вопрос безопасности в школах рассматривается как комплексная система, которая не ограничивается физической защитой, но также включает психологическую, социальную и цифровую безопасность. Безопасная образовательная среда является важным фактором интеллектуального развития, социальной адаптации и личностного роста учащихся.

Ключевые слова: пожар, школа, безопасность, культура, правила, методы, ученик, технология.

KIRISH

Xavfsizlik madaniyati – bu maktab o‘qituvchilari, o‘quvchilari, ota-onalar va xodimlarning xavfsizlikka ongli munosabati, qoidalarga rioya qilishi hamda xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan kundalik xulq-atvoridir. Xavfsizlik madaniyatining asosiy roli muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish juda muhim masaladir. Yong‘in xavfsizligi, zilzila, texnika xavfsizligi, yo‘l harakati qoidalari hamda favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilishni bilish – bularning barchasi o‘quvchini real hayotga tayyorlaydi. Ko‘rinadiki, xavfsiz maktab muhitini ta’minlash nafaqat jismoniy, balki psixologik, ijtimoiy va boshqaruv tizimidagi omillarni ham o‘z ichiga oladi. Xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarning psixologik barqarorligini oshiradi, ularning maktabga qatnashish chastotasini ko‘paytiradi va shu orqali ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktablarda xavfsizlik darajasi bevosita o‘quvchilarning farovonligi, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi va ta’lim samaradorligi bilan bog‘liq. Masalan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va xalqaro ta’lim tashkilotlari ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 13-15 yoshdagi o‘quvchilarning taxminan 50%i, ya’ni 150 milliondan ortig‘i, maktabda tengdoshlari tomonidan zo‘ravonlik qurboni bo‘lganini bildirgan. Bu holat ularning maktabga qatnashishini kamaytiradi va akademik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

UNESCO tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, har uch o‘quvchidan biri oyiga kamida bir marta bullingga duchor bo‘ladi, shuningdek, taxminan uchdan biri yil davomida jismoniy zo‘ravonlikka uchragan. Bu holatlar o‘quvchilarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, diqqatni jamlash va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi.

Avvalo, xavfsizlik madaniyati o‘quvchilarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Dars jarayonida, tanaffuslarda, maktab hududida hamda sinfdan tashqari tadbirlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarning oldini olish o‘quvchilarning o‘zlarini ishonchda his qilishlariga yordam beradi. Natijada ular bilim olish jarayoniga to‘liq e’tibor qaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy ta’lim tizimlarida maktab xavfsizligi ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Jismoniy, psixologik va raqamli xavfsizlikning uyg‘unligi o‘quvchilar uchun qulay va barqaror ta’lim muhitini yaratadi. Ushbu tajribalarni o‘rganish hamda ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish maktablarda xavfsizlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xavfsizlik madaniyati o‘quvchilarda mas’uliyatli va ongli xulq-atvorni shakllantiradi. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishi o‘quvchilarning nafaqat maktabda, balki kundalik hayotda ham o‘zini himoya qila olishiga xizmat qiladi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi.

Xavfsizlik madaniyati ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xavfsiz va sog‘lom muhitda o‘qituvchi darsni samarali tashkil etadi, o‘quvchi esa bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi. Jarohatlar, nizolar, stressli holatlar kamayishi natijasida ta’lim jarayonining uzluksizligi ta’minlanadi.

Axborot texnologiyalari rivojlangan mamlakatlarda maktab xavfsizligi tushunchasi raqamli makonni ham qamrab oladi. O‘quvchilarning internetdan xavfsiz foydalanishi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberbullingning oldini olish muhim vazifa sifatida belgilanadi. Shu maqsadda xorijiy maktablarda “digital safety” va “media literacy” bo‘yicha maxsus dasturlar joriy etilgan.

Xorijiy tajribada esa maktab xavfsizligi faqat texnik choralar orqali emas, balki xavfsizlik madaniyatini shakllantirish orqali ta’minlanadi. O‘quvchilarga erta yoshdan xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish va o‘zaro mas’uliyat tushunchalari singdiriladi. Bu jarayonda o‘qituvchi, ota-ona va jamiyatning hamkorligi muhim hisoblanadi.

Shuningdek, xavfsizlik madaniyati psixologik muhitni sog‘lomlashtiradi. Zo‘ravonlik, tazyiq va kamsitish holatlarining oldini olish, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlash orqali maktabda ijobiy ijtimoiy muhit shakllanadi. Bu esa tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshiradi. Psixologik xavfsiz muhit yaratish muhim masalalardan biridir.

Zamonaviy maktablarda bulling (kamsitish), zo‘ravonlik va kiberxavflarning oldini olish juda muhimdir. Xavfsizlik madaniyati o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va mas’uliyatni shakllantiradi. Mas’uliyat va intizomni rivojlantirishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish o‘quvchilarda tartib, o‘z harakati uchun javobgarlik hamda jamoada yashash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'zini xavfsiz his qilgan o'quvchi darsga faolroq qatnashadi, fikrini erkin bildiradi va bilimni yaxshiroq o'zlashtiradi.

Raqamli xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar davrida internetdan to'g'ri foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va zararli axborotlardan saqlanish ham xavfsizlik madaniyatining muhim qismiga aylandi. Xorijiy mamlakatlarda maktab xavfsizligining muhim yo'nalishlaridan biri psixologik xavfsizlikdir. Bunda bulling, kamsitish, zo'ravonlik va ijtimoiy bosimning oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Maktablarda psixologlar, ijtimoiy pedagoglar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar bilan individual va guruhli ishlar olib boriladi.

Finlyandiya, Kanada kabi davlatlarda "inklyuziv va xavfsiz maktab muhiti" konsepsiyasi asosida har bir o'quvchining o'zini erkin va himoyalangan his qilishi ta'minlanadi.

XULOSA

Zamonaviy maktabda xavfsizlik madaniyati – bu faqat qoidalar majmui emas, balki hayot tarzidir. U o'quvchilarni ongli, mas'uliyatli va xavfsiz jamiyat a'zosi bo'lib tarbiyalashga e'tibor qaratadi. Xorijiy pedagogik amaliyotda maktab xavfsizligi "safe school environment" tushunchasi orqali izohlanadi. Ushbu tushuncha o'quvchilarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, zo'ravonlikning oldini olish, psixologik farovonlikni ta'minlash hamda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda maktab xavfsizligi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, xavfsizlik madaniyati ta'lim jarayonining barqarorligi, samaradorligi va sifatini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. U o'quvchilarni faqat bilimli emas, balki xavfsizlikka ongli munosabatda bo'ladigan mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, maktabda xavfsizlik madaniyatini boshqarish O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan muhim vazifalardan biridir. Xavfsizlik madaniyati o'quvchilarning hayoti va sog'lig'ini asrashga, ta'lim jarayonining uzluksiz va samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Uni shakllantirish va rivojlantirish barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilarining birgalikdagi mas'uliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi.
2. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. O'zbekiston respublikasi mehnat kodeksi.
4. O'zbekiston respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
6. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva, 2017.
7. Vygotskiy L.S. Psixik rivojlanish nazariyasi. – Moskva, 2016.

GLOBAL AKADEMIK REYTING VA RAQOBAT MUHITIDA XALQARO OLIMPIADALARNING O'RNI

Xalikova Umida Mirovna
Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi (DSc), p.f.f.d (PhD)., dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro fan olimpiadalarining o'rni tahlil etiladi. Universitetlarning global reytinglardagi o'rni ko'pincha Olimpiya o'yinlaridagi medallar hisobi bilan qiyoslanadi [1,4]. Shu nuqtai nazardan, xalqaro fan olimpiadalari iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash va kelajakda mamlakatning global akademik reytinglardagi o'rnini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada xalqaro olimpiadalarning ta'lim tizimidagi ahamiyati, ular ishtirokchilarda shakllantiradigan kompetensiyalar, shuningdek, olimpiada yutuqlarining oliy ta'lim muassasalariga kirish va akademik martaba rivojlanishidagi roli yoritiladi. Xorijiy tajribalar (Saudiya Arabistoni, AQSh, Buyuk Britaniya, Qatar) misolida xalqaro olimpiadalarni rivojlantirishning samarali modellari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonning so'nggi yillardagi xalqaro fan olimpiadalaridagi yutuqlari (2022-2025 yillar) va bu borada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar o'rganiladi. Tadqiqot natijalari asosida xalqaro olimpiadalarni rivojlantirish va ular orqali global akademik reytinglardagi o'rinni mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: global akademik reyting, xalqaro fan olimpiadalari, raqobat muhiti, iqtidorli yoshlar, akademik muvaffaqiyat, oliy ta'limga kirish, ilmiy-innovatsion faollik, xalqaro tajriba.

Abstract: This article analyzes the role of international science Olympiads in the global academic ranking and competitive environment. The position of universities in global rankings is often compared to the medal count in the Olympic Games [1,4]. From this perspective, international science Olympiads serve as an important tool for identifying gifted youth, preparing them for research activities, and strengthening the country›s position in global academic rankings in the future. The article highlights the importance of international Olympiads in the education system, the competencies formed in participants, as well as the role of Olympiad achievements in admission to higher education institutions and academic career development. Effective models for developing international Olympiads are analyzed based on foreign experiences (Saudi Arabia, USA, UK, Qatar). Additionally, Uzbekistan's achievements in international science Olympiads in recent years (2022-2025) and the systematic reforms being implemented in this area are examined. Based on the research results, practical recommendations have been developed for developing international Olympiads and strengthening positions in global academic rankings through them.

Key words: global academic ranking, international science Olympiads, competitive environment, gifted youth, academic success, higher education admission, scientific-innovative activity, international experience.

Аннотация: В данной статье анализируется роль международных предметных олимпиад в глобальном академическом рейтинге и конкурентной среде. Позиция университетов в глобальных рейтингах часто сравнивается с подсчетом медалей на Олимпийских играх [1,4]. С этой точки зрения международные предметные олимпиады являются важным инструментом для выявления одаренной молодежи, подготовки их к научно-исследовательской деятельности и укрепления позиции страны в глобальных академических рейтингах в будущем. В статье освещается значение международных олимпиад в системе образования, компетенции, формируемые у участников, а также роль олимпиадных достижений при поступлении в высшие учебные заведения и в развитии академической карьеры. На примере зарубежного опыта (Саудовская Аравия, США, Великобритания, Катар) анализируются эффективные модели развития международных олимпиад. Также изучаются достижения Узбекистана на международных предметных олимпиадах за последние годы (2022-2025 годы) и системные реформы, реализуемые в этом направлении. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по развитию международных олимпиад и укреплению позиций в глобальных академических рейтингах посредством них.

Ключевые слова: глобальный академический рейтинг, международные предметные олимпиады, конкурентная среда, одаренная молодежь, академическая успеваемость, поступление в высшие учебные заведения, научно-инновационная активность, международный опыт.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida global akademik reytinglar (THE, QS, ARWU) davlatlarning ta'lim va ilm-fan sohasidagi raqobatbardoshligini baholashning asosiy mezoniga aylangan. Reytinglardagi o'rin nafaqat universitetlarning nufuzini belgilaydi, balki ularning xalqaro hamkorlik imkoniyatlariga, moliyalashtirish manbalariga va iqtidorli talabalarni jalb qilish salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yudkevich, Altbach va Rumbley (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda global universitet reytinglari ko'pincha Olimpiya o'yinlariga o'xshatiladi – bu yerda ham medallar (yuqori o'rinlar) uchun keskin raqobat, milliy terma jamoalar (universitetlar), murabbiylar (professor-o'qituvchilar) va homiylar (davlat va xususiy sektor) ishtirok etadi [1,7].

Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, xalqaro fan olimpiadalari (matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika va boshqa fanlar bo'yicha) iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash va kelajakda mamlakatning global akademik reytinglardagi o'rnini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro olimpiadalarda qatnashgan va yuqori natijalarga erishgan talabalar keyinchalik nufuzli universitetlarda ta'lim olish, ilmiy-tadqiqot loyihalarida ishtirok etish va oxir-oqibatda o'z mamlakatlari ilmiy salohiyatini oshirishga hissa qo'shadilar.

Ushbu maqolada global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni tahlil qilinadi, xorijiy tajribalar o'rganiladi va O'zbekistonning bu boradagi yutuqlari hamda istiqbollari baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro olimpiadalar va global akademik reytinglar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ikki hodisa o'zaro chambarchas bog'langan va bir-birini to'ldiradi.

Global universitet reytinglari va Olimpiya o'yinlari o'rtasidagi o'xshashlik. Yudkevich, Altbach va Rumbley (2015) o'zlarining "Global University Rankings: The 'Olympic Games' of Higher Education?" nomli tadqiqotida global universitet reytinglari va Olimpiya o'yinlari o'rtasidagi parallel jihatlarni chuqur tahlil qilganlar [1,10]. Mualliflarning fikricha, reytinglar, xuddi Olimpiya o'yinlari kabi, yuqori darajada raqobatbardosh bo'lib, ishtirokchilarga kelajakdagi istiqbollarini shakllantiruvchi nufuzli mukofotlarni qo'lga kiritish imkoniyatini taqdim etadi. Sportchilar uchun bu shon-shuhrat va daromadli homiylik shartnomalari imkoniyatlarini keltirsa, universitetlar uchun yuqori xalqaro ko'rinish, istiqbolli talabalar va professor-o'qituvchilarning qiziqishi, xususiy moliyalashtirish agentliklari, sanoat, xayriya tashkilotlari va hukumatdan daromad olish imkoniyatlarini yaratadi [4].

Tadqiqotchilar quyidagi muhim o'xshashliklarni qayd etadilar:

1. **Raqobat muhiti:** Olimpiada va reytinglar global miqyosda eng yuqori natijalarga erishishga intiluvchi ishtirokchilarni birlashtiradi.
2. **Resurslarning ahamiyati:** Boy va tajribali ishtirokchilar (davlatlar yoki universitetlar) muvaffaqiyatga erishish ehtimoli yuqori.
3. **Infratuzilma:** Olimpiadada muvaffaqiyat qozonish uchun yoshlar sportini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma zarur bo'lsa, reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash uchun akademik iqtidorning yangilanib turuvchi manbai – ya'ni, butun ta'lim tizimining rivojlanganligi muhim -4.
4. **Iqtidorlarni jalb qilish:** Milliy terma jamoalar boshqa mamlakatlardan kelgan sportchilar yoki murabbiylarni o'z ichiga olishi mumkin, xuddi universitetlar ham xalqaro iqtidorlarni jalb qiladi.

Xalqaro olimpiadalarning ta'limiy ahamiyati. Unified Council (2025) tomonidan e'lon qilingan tahliliy materialda xalqaro olimpiadalarning ta'lim tizimidagi o'rni keng yoritilgan -2. Unga ko'ra, xalqaro olimpiadalar oddiy yozma imtihonlardan ko'ra ko'proq narsani anglatadi – ular o'rganishga, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga va global miqyosda tajriba orttirishga yo'naltirilgan.

Olimpiadalarning asosiy afzalliklari sifatida quyidagilar qayd etilgan:

1. Akademik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi;
2. Tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi;
3. Raqobatbardoshlik ruhining shakllanishi;
4. Xalqaro tajriba orttirish;
5. Ishonch va motivatsiyaning oshishi;
6. Stipendiya va akademik imkoniyatlarga ega bo'lish.

Ecole Globale (2024) tahlilida esa olimpiadalar "akademik Olimpiya o'yinlari" deb nomlanib, ular o'quvchilarni muntazam darslik bilimlaridan tashqariga chiqishga, bilimlarini chuqurlashtirishga va muammolarni hal

qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashi ta'kidlangan [8]. Universitetlar ko'pincha olimpiadalarda muvaffaqiyat qozongan talabalarni qidirishi, chunki bu nafaqat aql-zakovatni, balki fidoyilik, muammolarni hal qilish qobiliyati va bosim ostida ishlash mahoratini ham namoyish etadi.

Olimpiada yutuqlari va oliy ta'lim imkoniyatlari. Times Higher Education nashrining sobiq qabul bo'yicha maslahatchisi Nikkeisha Tomas (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotda xalqaro olimpiada va tanlovlarning kollej qabul jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan [5]. Tomasning ta'kidlashicha, bugungi qabul landshaftida talabalar GPA va standartlashtirilgan test ballaridan tashqari o'zlarini farqlash usullarini topishlari kerak. Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etish nafaqat akademik qobiliyatlarni namoyish etish, balki tashabbuskorlik, ma'lum bir fanga sodiqlik va qo'shimcha harakat qilishga tayyorlikni ko'rsatadi.

Tomas o'z amaliyotidan uchta muhim misol keltiradi:

1. Qatarlik bir talaba World Scholar's Cup va Model United Nations (MUN) konferensiyalari va tanlovlarida ishtirok etib, Oksford universitetiga qabul qilingan.
2. Yevropalik bir talaba Physics Bowl tanlovida mamlakatda eng yuqori ballni olib, Buyuk Britaniyaning nufuzli universitetlaridan takliflar olgan.
3. Biologiya va kimyo olimpiadalarida qatnashgan hamda MUN tanlovlarida ishtirok etgan talaba Pensilvaniya universitetiga (Ivy League) qabul qilingan [5].

Saudiya Arabistoni tajribasi. Saudiya Arabistoni xalqaro olimpiadalarni rivojlantirish bo'yicha eng ilg'or mamlakatlardan biri hisoblanadi. Qirol Abdulaziz va uning hamrohlari iqtidor va ijodkorlik jamg'armasi (Mawhiba) tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, 2025-yilda saudiyalik iqtidorli talabalar 26 xalqaro olimpiada va ISEF xalqaro fan va muhandislik yarmarkasida jami 129 ta xalqaro mukofotga sazovor bo'lgan [6]. Bu natija bilan Qirollik ISEF yarmarkasida mezbon mamlakat AQShdan keyin dunyoda ikkinchi o'rinni egallagan.

Mawhiba jamg'armasining 2025-yildagi yutuqlari qatoriga quyidagilar kiradi:

1. "Nasmu" nomli birinchi fan va matematika olimpiadasi boshlangan bo'lib, unda 47 shahar va viloyatlardan 150 000 nafar o'quvchi ishtirok etgan;
2. "Ibdaa 2026" ilmiy ijodkorlik bo'yicha milliy olimpiadasida 16 ta ta'lim okrugidan 357 708 nafar o'quvchi 22 xil sohada ilmiy loyihalar bilan ishtirok etgan;
3. Mawhiba dasturlaridan foyda ko'rgan o'quvchilar soni 31 000 dan oshgan;
4. 198 ta maktabda Mawhiba sinflariga yozilgan o'quvchilar soni 10 000 ga yetgan;
5. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash milliy dasturiga ro'yxatdan o'tgan o'quvchilar soni 95 000 dan oshgan [6].

Saudiya Arabistoni 2024-yil iyul oyida Ar-Riyodda 56 mamlakatdan 333 nafar talaba ishtirokida 90-Xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbonlik qilgan bo'lsa, 2025-yilda esa 29 Osiyo davlati ishtirokida 25-Osiyo fizika olimpiadasiga mezbonlik qilmoqda [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro olimpiadalarning global akademik reyting va raqobat muhitidagi o'rnini tahlil qilish quyidagi muhim jihatlarni aniqlash imkonini beradi:

Birinchidan, xalqaro olimpiadalar iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning eng samarali mexanizmi hisoblanadi. Olimpiadalar talabalarni muntazam o'quv dasturidan tashqariga chiqishga, fanlarni chuqur o'rganishga va murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Bu esa kelajakda ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi muvaffaqiyatiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqaro olimpiadalarda erishilgan yutuqlar talabalarning nufuzli universitetlarga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Tomas (2025) tomonidan keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, Oksford, Pensilvaniya universiteti kabi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari olimpiada ishtirokchilariga alohida e'tibor qaratadi -5. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning global akademik reytinglardagi o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki nufuzli universitetlarda ta'lim olgan va ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan mutaxassislar keyinchalik o'z mamlakatlari ilmiy salohiyatini oshirishga hissa qo'shadilar.

Uchinchidan, xalqaro olimpiadalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish davlatning ta'lim tizimi sifatining muhim indikatoridir. Yudkevich va boshqalar (2015) ta'kidlaganidek, Olimpiadada muvaffaqiyat qozonish uchun yoshlar sportini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma zarur bo'lsa, akademik olimpiadalarda yuqori natijalarga erishish uchun butun ta'lim tizimining rivojlanganligi muhim -4. Shu nuqtai nazardan, xalqaro olimpiadalardagi medallar soni mamlakatning ta'lim tizimi rivojlanganligining ishonchli ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, xalqaro olimpiadalarni rivojlantirishda davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Saudiya Arabistoni tajribasi shuni ko'rsatadiki, maxsus jamg'armalar (Mawhiba) tashkil etish, keng qamrovli dasturlarni ishlab chiqish va iqtidorli o'quvchilarni aniqlashning milliy tizimini yaratish orqali qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishish mumkin -6.

Beshinchidan, xalqaro olimpiadalarga mezbonlik qilish mamlakatning ilmiy salohiyatini namoyish etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning muhim vositasidir. Saudiya Arabistonining Xalqaro kimyo olimpiadasi va Osiyo fizika olimpiadasiga mezbonlik qilishi -3, shuningdek, O'zbekistonning Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasini ikkinchi marta o'tkazishi -9 bu boradagi ijobiy tendensiyalarni ko'rsatadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekistonning so'nggi yillardagi xalqaro fan olimpiadalaridagi yutuqlari dinamikasi keltirilgan [9]:

Yil	Qo'lga kiritilgan medallar soni
2022	46
2023	91
2024	128
2025 (may oyigacha)	132

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston so'nggi to'rt yil ichida xalqaro fan olimpiadalarida qo'lga kiritilgan medallar sonini deyarli uch barobarga oshirgan. Bu yutuqlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-346-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-apreldagi 271-son farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosining amaliy natijasidir [9].

O'zbekistonning 2025-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbonlik qilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu olimpiadada dunyoning 13 mamlakati (Saudiya Arabistoni, Turkiya, Ozarbayjon, Mongoliya, Belarus, Vetnam, Rossiya, Gruziya, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) dan 115 nafar o'quvchi ishtirok etgan [9]. Olimpiada 2 turda (nazariy va amaliy) tashkil etilgan bo'lib, hakamlar hay'ati tarkibiga Turkiya, Saudiya, Rossiya, Belarus va Angliya kabi xorijiy mamlakatlardan xalqaro olimpiadalar sohasida ko'p yillik tajriba va yuqori salohiyatga ega ekspert mutaxassislar jalb etilgan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rnini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Xalqaro fan olimpiadalari iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash va kelajakda mamlakatning global akademik reytinglardagi o'rnini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Olimpiadalar talabalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, bosim ostida ishlash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.
2. Xalqaro olimpiadalarda erishilgan yutuqlar talabalarning nufuzli universitetlarga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning global akademik reytinglardagi o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
3. Xalqaro olimpiadalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish davlatning ta'lim tizimi sifatining muhim indikatoridir. Medallar soni mamlakatning ta'lim tizimi rivojlanganligining ishonchli ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.
4. Xalqaro olimpiadalarni rivojlantirishda davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Saudiya Arabistoni tajribasi (Mawhiba jamg'armasi) bu borada ilg'or model sifatida e'tirof etilishi mumkin.
5. Xalqaro olimpiadalarga mezbonlik qilish mamlakatning ilmiy salohiyatini namoyish etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning muhim vositasidir.
6. O'zbekistonning so'nggi yillarda xalqaro fan olimpiadalarida erishayotgan yutuqlari (2022-2025 yillarda medallar sonining 46 tadan 132 taga oshishi) ijobiy tendensiyani ko'rsatadi. Bu yutuqlar davlat tomonidan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan tizimli islohotlarning amaliy natijasidir.

Xalqaro olimpiadalarni rivojlantirish va ular orqali global akademik reytinglardagi o‘rinni mustahkamlash bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashning milliy tizimini takomillashtirish, Saudiya Arabistoni tajribasidan kelib chiqib, maxsus jamg‘arma (masalan, “Iqtidor” jamg‘armasi) faoliyatini kengaytirish.
2. Xalqaro olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rishning bosqichma-bosqich tizimini yaratish (maktab darajasidan boshlab, tuma, viloyat, respublika va xalqaro darajagacha).
3. Fan olimpiadalari o‘qituvchilari (murabbiylar) malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ularni xalqaro tajribalar bilan muntazam tanishtirib borish.
4. Xalqaro olimpiadalarda yuqori natijalarga erishgan o‘quvchilarning nufuzli xorijiy universitetlarga kirishini qo‘llab-quvvatlash, ular bilan aloqalarni saqlab qolish va kelajakda mamlakat ilmiy salohiyatiga hissa qo‘shishlarini rag‘batlantirish.
5. Xalqaro fan olimpiadalariga mezbonlik qilish amaliyotini kengaytirish, bu orqa mamlakatning ilmiy salohiyatini xalqaro miqyosda tanitish.
6. Olimpiada ishtirokchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishini rag‘batlantirish, ularni yosh olimlar safiga qo‘shilishiga ko‘maklashish.
7. Xalqaro olimpiadalar va global universitet reytinglari o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganish, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro fan olimpiadalari global akademik reyting va raqobat muhitida muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash vositasi, balki mamlakatning ta’lim tizimi sifatini oshirish va global akademik maydondagi raqobatbardoshligini mustahkamlashning samarali mexanizmidir. O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi yutuqlari va amalga oshirilayotgan islohotlar bu borada to‘g‘ri yo‘nalish tanlanganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yudkevich, M., Altbach, P. G., & Rumbley, L. E. (2016). Citius, Altius, Fortius: Global University Rankings as the “Olympic Games” of Higher Education? International Higher Education, (84), 4–6. https://doi.org/10.6017/ihe.2016.84.9106 [1]
2. Unified Council. (2025). Why Schools Should Encourage Students To Participate In The International Olympiad Exams? https://www.unifiedcouncil.com/Blog/Why-Schools-Should-Encourage-Students-To-Participate-In-The-International-Olympiad-Exams [2]
3. Osiyo fizika olimpiadasi. (2025). Saudiya Arabistoni Dahron shahrida 29 davlat ishtirokida Osiyo fizika olimpiadasiga mezbonlik qilmoqda. https://una-oic.org/uz/hamma/2025/05/02/Saudiya-Arabistoni-2018-yilgi-FIVB-Olimpiadasiga-mezbonlik-qiladi/ -[3]
4. Yudkevich, M., Altbach, P. G., & Rumbley, L. E. (2015). More than gold: university rankings and the Olympics. Times Higher Education. https://www.timeshighereducation.com/opinion/more-gold-university-rankings-and-olympics [4]
5. Thomas, N. (2025). How international exams and competitions help you stand out in college admissions. Times Higher Education. https://www.timeshighereducation.com/student/advice/how-international-exams-and-competitions-help-you-stand-out-college-admissions [5]
6. Mawhiba. (2025). “Mavhiba”: Saudiya Arabistonining iste’dodli shaxslari 2025-yilda 26 ta olimpiada va global musobaqalarda 129 ta xalqaro mukofotga sazovor bo‘lishdi. https://una-oic.org/uz/technology/2025/12/31/ [6]
7. Yudkevich, M., Altbach, P. G., & Rumbley, L. E. (2015). Global University Rankings: The “Olympic Games” of Higher Education? Prospects: Quarterly Review of Comparative Education, 45(4), 411-419. https://eric.ed.gov/?id=EJ1086896 [7]
8. Ecole Globale. (2024). Olympiads and the Path to Academic Excellence. https://www.ecoleglobale.com/blog/olympiads-path-to-academic-excellence/ [8]
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. (2025). Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasining ochilish marosimi. https://gov.uz/oz/uzedu/news/view/57692 [9]
10. Yudkevich, M., Altbach, P. G., & Rumbley, L. E. (2015). Global University Rankings: The “Olympic Games” of Higher Education? Fachportal Pädagogik. https://www.fachportal-paedagogik.de/literatur/vollanzeige.html?FId=303793 [10]

TARBIYACHINING BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O‘RGATISH JARAYONIDAGI O‘RNI

Xasanova Shaxnoza To‘xtasinovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU, “Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti (PhD)

Rahimova Umida Abdurasul qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Toshkent shahri Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) 1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishdagi pedagogik o‘rni va kasbiy mas’uliyati yoritilgan. Tasviriy faoliyat orqali bolalarda ijodkorlik, estetik did, tasavvur va qo‘l motorikasini rivojlantirishda tarbiyachining metodik yondashuvi, kasbiy mahorati, samimiyligi hamda pedagogik nazokati muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Maqolada mashg‘ulotlarni yosh xususiyatlariga mos ravishda rejalashtirish, an’anaviy va noan’anaviy texnikalardan foydalanish, shuningdek, tarbiyachining kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus kompetensiyalarining uyg‘unligi bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi asosiy omil ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, tasviriy faoliyat, ijodkorlik, estetik tarbiya, pedagogik mahorat, kompetensiya, noan’anaviy texnikalar, pedagogik nazokat, samimiylik.

Abstract: This article highlights the pedagogical role and professional responsibility of the educator in teaching children visual arts activities in the preschool education process. The importance of the educator’s methodological approach, professional competence, sincerity, and pedagogical tact in developing children’s creativity, aesthetic taste, imagination, and fine motor skills through visual activities is substantiated. The article emphasizes that planning activities in accordance with age characteristics, using traditional and non-traditional techniques, as well as the harmonious integration of the educator’s professional, personal, general cultural, and special competencies are key factors in the comprehensive development of a child’s personality.

Key words: preschool education, educator, visual arts activities, creativity, aesthetic education, pedagogical mastery, competence, non-traditional techniques, pedagogical tact, sincerity.

Аннотация: В данной статье освещаются педагогическая роль и профессиональная ответственность воспитателя в процессе обучения детей изобразительной деятельности в условиях дошкольного образования. Обоснована значимость методического подхода, профессионального мастерства, искренности и педагогического такта воспитателя в развитии у детей творческих способностей, эстетического вкуса, воображения и мелкой моторики посредством изобразительной деятельности. В статье подчёркивается, что планирование занятий с учётом возрастных особенностей, использование традиционных и нетрадиционных техник, а также гармоничное сочетание профессиональных, личностных, общекультурных и специальных компетенций воспитателя являются основным фактором всестороннего развития личности ребёнка.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, изобразительная деятельность, творчество, эстетическое воспитание, педагогическое мастерство, компетенция, нетрадиционные техники, педагогический такт, искренность.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat ularning badiiy-estetik tarbiyasining muhim qismi bo‘lib, ijodkorlik, estetik did, tasavvur va qo‘l mehnati ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda tarbiyachining o‘rni beqiyosdir. Zamonaviy tarbiyachi maktabgacha ta’lim jarayonining markazida turadi. Uning shaxsiy fazilatlari, tashqi qiyofasi va odobi bolaga namuna bo‘ladi. Pedagogning ijtimoiy vazifasi bolalarni nafaqat o‘qitish, balki ularni ma’naviy, estetik va ijodiy rivojlantirishdan iborat. Maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyachi bosh yetakchi hisoblanadi, chunki bola bu davrda eng ko‘p vaqtini tarbiyachi bilan o‘tkazadi, undan o‘rnak oladi va ko‘rganini tezda o‘zlashtiradi. Shu bois tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bola hayotidagi

ikkinchi ota-ona sifatida ham ko‘riladi. Tarbiyachi bolaning kundalik tarbiyasi, odob-axloqi, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi.

U pedagogik jarayonni tashkil etuvchi, boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Tarbiyachi shaxsi bolalar uchun doimiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Bola ko‘rgan narsasini tezda takrorlash xususiyatiga ega, shu sababli tarbiyachining har bir xatti-harakati, nutqi va odobi bevosita bola ongiga ta’sir etadi. Tarbiyachi faqatgina mashg‘ulot o‘tkazuvchi emas, balki jamiyat oldida katta ijtimoiy vazifani bajaradi, chunki maktabgacha yoshdagi tarbiya kelajak jamiyatining sifatini belgilaydi. Zamonaviy pedagogning imiji uning tashqi ko‘rinishi emas, balki shaxsiy fazilatlari, odobi va kasbiy mahorati uyg‘unligidir. Tarbiyachi bolaga nafaqat bilim beradi, balki uni inson sifatida shakllantiradi. Shu bois tarbiyachi kasbi eng mas’uliyatli va jamiyat uchun muhim kasblardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirishda tasviriy faoliyat (rasm chizish, bo‘yash, applikatsiya, loy ishi va boshqalar) muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonda tarbiyachining pedagogik mahorati, metodik yondashuvi va shaxsiy namunasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur masala pedagogika va psixologiya sohasidagi ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bola faoliyatida kattalar, xususan, tarbiyachining rahbarlik roli alohida ta’kidlanadi. Olimning fikricha, bolaning ijodiy qobiliyatlari mustaqil ravishda emas, balki kattalar bilan hamkorlikda, maqsadli tashkil etilgan ta’lim jarayonida rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, tasviriy faoliyatni tashkil etishda tarbiyachi bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ni hisobga olgan holda yo‘l-yo‘riq berishi zarur.

N.A. Vetlugina o‘z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratgan. U tasviriy faoliyat bolalarda nafaqat badiiy ko‘nikmalarni, balki hissiy idrok, estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirishini ta’kidlaydi. Muallifning fikriga ko‘ra, tarbiyachi bolalarning erkin ijod qilishi uchun qulay muhit yaratib, ularni rag‘batlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi rolni bajarishi lozim.

T.A. Komarova tasviriy faoliyatni o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan ishlarida tarbiyachining metodik tayyorgarligiga katta ahamiyat beradi. Olimning fikricha, bolalarni rasm chizishga o‘rgatishda faqat natija emas, balki jarayonning o‘zi ham muhim bo‘lib, tarbiyachi bolaning har bir harakatini to‘g‘ri yo‘naltirishi hamda uning mustaqil fikrlashini cheklamasligi kerak.

O‘zbek pedagog olimlari, jumladan, R.M. Qodirova, N.Sh. Abdullaeva va boshqalarning ishlarida ham maktabgacha ta’lim muassasalarida tasviriy faoliyat orqali bolalarni ijodiy rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida milliy qadriyatlar va xalq amaliy san’ati elementlarini tasviriy mashg‘ulotlarga kiritish orqali bolalarning qiziqishini oshirishda tarbiyachining o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish jarayonida tarbiyachi tashkilotchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, rag‘batlantiruvchi va ijodiy hamkor sifatida ishtirok etadi. Tarbiyachining kasbiy mahorati va ijodiy yondashuvi bolalarning badiiy qobiliyatlari rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarbiyachining tasviriy faoliyat mashg‘ulotlaridagi pedagogik va kasbiy mahorati mashg‘ulotni metodik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirishda, bolalar yoshiga mos mavzu va materiallarni tanlashda, turli usullardan (bo‘yoq, qalam, plastilin, kollaj, noan’anaviy texnikalar) foydalanib ijodkorlikni rivojlantirishda, bolaning individual qobiliyatini ko‘ra olish va uni qo‘llab-quvvatlashda namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining mahorati, avvalo, mashg‘ulotni puxta rejalashtirishdan boshlanadi. Har bir tasviriy faoliyat mashg‘uloti bolalar yoshiga mos, bosqichma-bosqich va aniq metodik asosda qurilishi lozim. Rejalashtirishda mavzu, maqsad, vazifalar, vositalar va kutilayotgan natijalar aniq belgilanadi. Mashg‘ulot jarayoni oddiydan murakkabga qarab rivojlanishi, bolaga bosqichma-bosqich ko‘nikmalar berilishi zarur. Rejada mashg‘ulotning kirish, asosiy va yakuniy qismlari ajratilib, har bir bosqichda bolalarning faol ishtiroki ta’minlanadi.

Bolalar yoshiga mos mavzu va materiallarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi juda muhim. Masalan:

- kichik guruh (3-4 yosh) uchun oddiy shakllar (doira, chiziqlar, rangli dog‘lar), katta predmetlarni rasm qilish va yumshoq ranglardan foydalanish tavsiya etiladi; o‘rta guruh (4-5 yosh) uchun predmetli rasm (mevalar, gullar, oddiy hayvonlar), ranglarni ajratish va chiziqlarni uyg‘unlashtirish muhim;
- katta guruh (5-6 yosh) uchun kompozitsiya tuzish, syujetli rasm (oilaviy manzara, tabiat, transport), rang uyg‘unligini mustaqil tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur;

- tayyorgarlik guruhi (6-7 yosh) uchun badiiy tasvir, milliy naqshlar va ijodiy mustaqillikni rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Shuningdek, materiallar (qalam, rangli qog‘oz, bo‘yoq, plastilin, loy) ham bolalarning yoshiga va qobiliyatiga mos ravishda tanlanadi.

Tasviriy faoliyatda tarbiyachi metod va texnikalarni turlicha qo‘llashi lozim, bu bolalarda qiziqish uyg‘otadi va ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

An’anaviy usullar – qalam, bo‘yoq, akvarel, guash bilan rasm chizish; hajmli tasvir – plastilin, loy, qog‘oz buklash (origami), konstruktiv ishlar; noan’anaviy texnikalar – barmoq bilan bo‘yash, tamg‘a (pechat) usuli, ip bilan bo‘yash, qumda rasm chizish, kollaj (turli materiallarni birlashtirish) bolalarning erkin fikrlashini, fantaziya qilishini, qo‘l motorikasini rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatini kengaytiradi. Tarbiyachining samimiyligi va mehribonligi bolaning ishonchini oshiradi. Nazokatli yondashuv bolani tanqid qilish o‘rniga rag‘batlantirish, bolaga shaxs sifatida yondashish va uning qadr-qimmatini hurmat qilish bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bola juda sezgir va mehrga tashna bo‘ladi, shuning uchun tarbiyachining samimiy so‘zlari, mehribon qarashlari va xushmuomalasi bolada ishonch uyg‘otadi.

Agar tarbiyachi bolaga samimiy yondashsa, bola o‘zini erkin his qiladi, qo‘rquvdan xoli bo‘ladi. Mehribon tarbiyachi bolaga nafaqat bilim beradi, balki unga psixologik tayanch ham bo‘ladi. Samimiylik orqali bola tarbiyachini yaqin inson sifatida qabul qiladi va uni tinglashga, o‘rnak olishga moyil bo‘ladi. Shu bois tarbiyachining eng muhim quroli uning mehribon yuragi va samimiy munosabatidir. Tarbiyachi bolaga qo‘pol yoki keskin tanqid bilan emas, balki yumshoq va nazokatli yondashishi kerak. Bola xato qilganda uni keskin koyish emas, balki to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish muhim. “Sen noto‘g‘ri qilding” deyish o‘rniga “Keling, buni boshqa usulda qilib ko‘ramiz” deyish bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirmaydi. Rag‘batlantirish eng kuchli tarbiyaviy vositadir. Oddiy “Barakalla!”, “Ajoyib rasm!”, “Zo‘r urinibsan!” kabi so‘zlar bolaning ijodiy qiziqishini yanada oshiradi. Nazokatli yondashuv bolaning qalbini og‘ritmaydi, aksincha, uni mustaqillikka va o‘ziga ishonch bilan harakat qilishga undaydi. Har bir bola o‘ziga xos shaxsdir, shuning uchun tarbiyachi bolaga shunchaki tarbiya obyekti sifatida emas, balki mustaqil fikrlaydigan va his qiladigan inson sifatida qarashi zarur.

Bola kichik bo‘lsa ham, uning fikri va his-tuyg‘ulari qadrlanishi lozim. Insonparvar tarbiyachi bolaning huquqlarini hurmat qiladi, uni kamsitmaydi va doimo qo‘llab-quvvatlaydi. Bolaga o‘z fikrini aytish, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish insonparvarlikning asosiy belgilaridan biridir. Shaxs sifatida qadrlangan bola keyinchalik jamiyatda ham o‘zini erkin va mas’uliyatli tutadi. Pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik tarbiyachining kasbiy mahoratini belgilovchi eng muhim fazilatlardir. Samimiylik bolada ishonch uyg‘otadi, nazokatli yondashuv uni rag‘batlantiradi, insonparvarlik esa bolani haqiqiy shaxs sifatida qadrlashga imkon beradi. Bu uchlik uyg‘unlashganda ta’lim-tarbiya jarayoni samarali bo‘ladi va bolalar o‘zlarini baxtli his etadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy tarbiyachi o‘z kasbida muvaffaqiyat qozonishi uchun quyidagi keng ko‘lamli kasbiy bilimlarga ega bo‘lishi zarur:

- mashg‘ulotlarni to‘g‘ri rejalashtirish, turli metod va usullardan foydalanish, ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish;
- bolalarning yosh xususiyatlari, individual xarakteri va qiziqishlarini bilish, ularning psixik rivojlanishini nazorat qilish;
- ta’lim-tarbiya qonuniyatlarini o‘zlashtirish, didaktik tamoyillarga amal qilish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish.

Kasbiy kompetensiyaga ega tarbiyachi mashg‘ulotlarda to‘g‘ri yondashuvni tanlay oladi, muammoli vaziyatlarni hal qiladi va bolaning rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltira oladi. Tarbiyachi nafaqat kasbiy bilimga, balki shaxsiy sifatlarga ham ega bo‘lishi lozim, chunki bolalar tarbiyachidan faqat bilim emas, balki insoniy fazilatlarni ham o‘rganadi:

- yangi g‘oya va usullarni qo‘llash, bolalarning qiziqishini oshirish;
- bolalarning turli xarakteri va kayfiyatini to‘g‘ri qabul qilish, ularni shoshirmay bosqichma-bosqich yo‘naltirish;
- barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lish, hech kimni kamsitmaslik, barchaga bir xil imkoniyat yaratish;
- bolalarga doimo samimiy munosabatda bo‘lish, ularga mehr bilan qarash.

Shaxsiy kompetensiya tarbiyachini bolalar uchun nafaqat pedagog, balki yaqin do‘st va ishonchli inson sifatida ko‘rsatadi.

Tarbiyachi umumiy madaniy saviyaga ega bo‘lishi ham zarur, chunki u bolalarga nafaqat bilim beradi, balki ularning dunyoqarashini ham shakllantiradi:

- estetik did – ranglar uyg‘unligini ko‘ra olish, go‘zallikni qadrlash, san’at asarlaridan zavqlanish;
- san’atni qadrlash – tasviriy san’at, musiqa, adabiyot va teatrni bilish hamda bolalarga tanishtirish;
- madaniyatni hurmat qilish – milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, xalq an’analarini bolalar ongiga singdirish.

Umummadaniy kompetensiyaga ega tarbiyachi bolalarning estetik qiziqishini oshiradi, ularda san’at va madaniyatga muhabbat uyg‘otadi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari samarali bo‘lishi uchun tarbiyachi maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

- rasm chizish texnikalari – qalam, bo‘yoq, akvarel, guash, rangli qog‘oz bilan ishlash;
- haykaltaroshlik va modellashtirish – plastilin, loy, karton, tabiiy materiallardan foydalanish;
- noan’anaviy texnikalar – barmoq bo‘yoqlari, kollaj, qumda rasm chizish, ip bilan bo‘yash, pechat (tamg‘a) texnikasi;
- bolaga o‘rgatish – mashg‘ulot jarayonida texnikani ko‘rsatib berish, bosqichma-bosqich yo‘naltirish va bolani mustaqil ishlashga rag‘batlantirish.

Maxsus kompetensiyaga ega tarbiyachi bolalarda ijodkorlikni rivojlantira oladi, ularni turli badiiy faoliyatga qiziqtiradi va estetik dunyoqarashini kengaytiradi.

Tarbiyachining kompetensiyaviy xususiyatlari – bu uning kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus bilim hamda ko‘nikmalari yig‘indisidir. Bu kompetensiyalar uyg‘un bo‘lsa, tarbiyachi o‘z faoliyatini samarali amalga oshiradi, bolalar esa har tomonlama rivojlanadi. Tarbiyachining kiyinish madaniyati, nutqi va ohangdorligi bolaning estetik didiga ta’sir qiladi:

- pedagogik texnika – ovozdan to‘g‘ri foydalanish, imo-ishora, yuz ifodasi, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish;
- tashqi ko‘rinish – bolaga namuna, ichki madaniyatning aksidir.

Tarbiyachi bolalar uchun doimiy namuna bo‘lib, uning tashqi ko‘rinishi, kiyinish uslubi va nutq madaniyati bevosita bolalarning estetik dunyoqarashiga ta’sir qiladi, shu orqali bola estetik didni, odobli so‘zlash va ozoda bo‘lish madaniyatini tarbiyachidan o‘rganadi. Tarbiyachining pedagogik texnikasi uning dars jarayonida qo‘llaydigan ta’sirchan usullaridir:

- ovozdan foydalanish – kerakli joyda ovozni pasaytirish, zarur paytda kuchaytirish, ohang orqali bolalarni jalb qilish, masalan, ertak aytishda ovozni pasaytirib sirli kayfiyat yaratish yoki quvonchli vaziyatda ko‘tarinki ohangdan foydalanish;
- imo-ishora va pantomimika – qo‘l harakatlari, tana tili, qo‘lni keng ochib ko‘rsatish yoki barmoq bilan ishora qilish bolalar uchun tushunarli bo‘ladi va darsni qiziqarli qiladi;
- yuz ifodasi – tabassum, ajablanish, quvonch yoki jiddiylik bolalarda hissiy kechinmalar uyg‘otadi va e’tiborini tortadi;
- ko‘rgazmali vositalar – suratlar, o‘yinchoqlar, tabiatdan olingan narsalar, texnologik vositalar (slayd, video) bolaning ko‘rish orqali o‘rganishini yengillashtiradi va eslab qolishini osonlashtiradi.

Pedagogik texnika mashg‘ulotni jonli, ta’sirchan va samarali qiladi. Tarbiyachining tashqi ko‘rinishi uning ichki dunyosining ko‘zgusi bo‘lib, ozodaligi, tartib-intizomi va o‘zini tutishi bolalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

- namuna sifatida bola tarbiyachining tashqi ko‘rinishidan “ozoda bo‘lish”, “saranjomlik”, “go‘zallikka intilish” odatlarini o‘zlashtiradi;
- ichki madaniyat aks etadi – tarbiyachining o‘zini tutishi, suhbatlashish uslubi va odobi uning ichki madaniyatini ko‘rsatadi, masalan, ozoda kiyim va samimiy tabassum bolaning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;
- psixologik muhit – tarbiyachining tartibli ko‘rinishi va madaniyatli.

XULOSA

Tarbiyachi bolalarni tasviriy faoliyatga jalb etuvchi, ijodkorlikka yo‘naltiruvchi asosiy shaxsdir. Uning bilimdonligi, mahorati, samimiyligi va madaniyati bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Tashqi ko‘rinish va pedagogik texnika tarbiyachining ta’sirchan vositalaridan biridir. Kiyinish madaniyati, nutqi va ohangdorligi bolalarda estetik didni shakllantiradi, pedagogik texnika esa mashg‘ulotni jonli va qiziqarli qiladi. Tashqi ko‘rinish ichki madaniyatning aksidir hamda bolalar uchun doimiy namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raximov B. X. Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarni shakllantirish tizimi. – T.: Fan, 2005. – 14 bet.
2. Muslimov N. A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dok. diss. avtoreferat. – T., 2007. – 132 bet.
3. Khasanova S. T., Vasila T. Development of imaginary-creative competences in the process of preparing future teachers for profession // Next Scientists Conferences. – 2023, May. – Pp. 84-91.
4. Khasanova S., Zufarova L. Development of communicative skills in pre-school children through theater games // International Scientific and Current Research Conferences. – 2023, June. – Pp. 1-5.
5. Khasanova S. Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Vol. 11(2). – Pp. 734-738.
6. Хасанова Ш. Организация развивающего образовательного пространства как фактор готовности ребенка к школе // Science and Innovation. – 2022. – 1(B8). – С. 2199-2203.
7. Poddyakov N. N. Tvorcheskoe razvitie doshkolnikov v usloviyakh obrazovatelnoy sredy. – Moskva: Pedagogika, 2010. – 192 s.
8. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

BIOLOGIYA DARSLARIDA TIMSS TOPSHIRIQLARINI INTEGRATSIYALASH

Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li
Biologiya kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi, PhD
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Komiljonova Muslima Shuxrat qizi
Biologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya darslarida TIMSS xalqaro baholash dasturi topshiriqlarini integratsiyalashning pedagogik ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda TIMSS topshiriqlarining mazmuni, ularning biologiya ta'limiga mosligi hamda o'quvchilarda ilmiy fikrlash, funksional savodxonlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini qo'llashda muammoli ta'lim, tadqiqotga yo'naltirilgan metodlar, fanlararo integratsiya va differensial yondashuvlarning samaradorligi asoslab beriladi. Ish natijalari TIMSS topshiriqlarini biologiya ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish o'quvchilarning bilim darajasini xalqaro standartlar asosida shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: TIMSS, biologiya ta'limi, xalqaro baholash, funksional savodxonlik, ilmiy fikrlash, fanlararo integratsiya, muammoli ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article highlights the pedagogical significance and effectiveness of integrating TIMSS international assessment program assignments into biology lessons. The study analyzes the content of TIMSS assignments, their compatibility with biology education, and their role in developing students' scientific thinking, functional literacy, and practical skills. The effectiveness of problem-based learning, research methods, interdisciplinary integration, and differentiated approaches in applying TIMSS tasks in biology lessons is also substantiated. The results of the study show that the systematic implementation of TIMSS assignments in the biology educational process contributes to the formation of students' knowledge levels based on international standards.

Key words: TIMSS, biology education, international assessment, functional literacy, scientific thinking, interdisciplinary integration, problem-based learning, competency-based approach.

Аннотация: В данной статье освещаются педагогическая значимость и эффективность интеграции заданий международной программы оценки TIMSS на уроках биологии. В исследовании анализируются содержание заданий TIMSS, их соответствие биологическому образованию и роль в развитии научного мышления, функциональной грамотности и практических навыков учащихся. Также обоснована эффективность проблемного обучения, исследовательских методов, межпредметной интеграции и дифференцированного подхода при применении заданий TIMSS на уроках биологии. Результаты работы показывают, что систематическое внедрение заданий TIMSS в образовательный процесс по биологии способствует формированию уровня знаний учащихся на основе международных стандартов.

Ключевые слова: TIMSS, биологическое образование, международная оценка, функциональная грамотность, научное мышление, межпредметная интеграция, проблемное обучение, компетентностный подход.

KIRISH

Ta'lim tizimi o'quvchilarda faqat nazariy bilimlarni shakllantirish bilangina cheklanib qolmay, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llash, mustaqil va tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishni ham talab etadi. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o'qitishda bilimlarning amaliy ahamiyatini oshirish va o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash va takomillashtirishga xizmat qiluvchi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan biri – TIMSS xalqaro baholash dasturidir. TIMSS topshiriqlari o'quvchilarning bilimlarni yodlash darajasini emas, balki ularni tushunish, tahlil qilish va real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini baholashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Biologiya fanini o‘qitishda TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash ta’lim mazmunini boyitish, dars jarayonini interaktiv va amaliy yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda tirik tabiat hodisalariga nisbatan ilmiy qarashlarni shakllantirish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini anglash hamda ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, TIMSS topshiriqlaridan foydalanish o‘qituvchiga dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim darajasini xalqaro standartlar bilan solishtirish hamda ularni kelgusidagi xalqaro baholash tadqiqotlariga puxta tayyorlash imkonini yaratadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – bu 1995-yildan boshlab har to‘rt yilda bir marta o‘tkazilib, ko‘plab mamlakatlar ta’lim tizimi samaradorligini xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradi. TIMSS dasturining asosiy maqsadlari quyidagilar: o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasini aniqlash; turli davlatlarda ta’lim sifati va o‘quv natijalarini solishtirish; ta’lim muhitini, o‘qitish jarayonini va o‘quvchilarning bilim egallashiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish; ta’lim siyosatini takomillashtirish uchun asos bo‘luvchi ma’lumotlarni taqdim etish. TIMSS testlarida, shuningdek, o‘quvchilar, o‘qituvchilar, maktab rahbarlari va ota-onalar uchun mo‘ljallangan so‘rovnomalar orqali kontekstual ma’lumotlar ham yig‘iladi, bu esa o‘z navbatida o‘quv natijalariga ta’sir etuvchi sharoitlarni chuqur o‘rganish imkonini beradi. TIMSS testlarining tabiiy fanlar bo‘limi o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha bilimlari, tushunchalari va ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini baholaydi. Masalan, TIMSS-2019 fanlar bo‘yicha strukturasida biologiya savollari jami fan bo‘limining taxminan 35 % ini tashkil etgan (bu testdagi asosiy kontent yo‘nalishlaridan biridir) [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

TIMSSning biologiya fanidagi o‘rni va ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. **Biologiya bilimlarini xalqaro kontekstdagi baholash.** TIMSS orqali milliy ta’lim tizimidagi biologiya fani bo‘yicha o‘quvchilarning natijalari boshqa davlatlardagi o‘quvchilarning natijalari bilan solishtiriladi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatning ta’lim sifati va ilmiy savodxonlik darajasini aniqlashga yordam beradi.
2. **O‘quv dasturlarini takomillashtirish.** Biologiya bo‘yicha TIMSS natijalari asosida o‘quv dasturlaridagi kamchiliklar va zaif yo‘nalishlar aniqlanadi hamda milliy darsliklar va ta’lim mazmunini optimallashtirish uchun strategik qarorlar qabul qilinadi.
3. **Ilmiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni baholash.** TIMSS topshiriqlari faqat faktlarni yodlashni emas, balki fan konsepsiyalarini tushunish, biologik jarayonlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va ko‘nikmalarni murakkab vaziyatlarga qo‘llashni talab qiladi. Bu ham o‘quvchilarning ilmiy tafakkuri va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.
4. **Ta’lim siyosati va amaliyotidagi o‘zgarishlar.** TIMSS natijalari asosida ta’lim bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi, masalan: o‘quvchi bilimini mustahkamlash strategiyalari, o‘qituvchilarga mo‘ljallangan malaka oshirish dasturlari, dars metodikasini modernizatsiya qilish kabi islohotlar amalga oshiriladi.

TIMSS nafaqat matematika va tabiiy fanlardagi bilimlarni baholash vositasi, balki ta’lim tizimini tahlil qilish, samaradorlikni oshirish, hamkorlikdagi ta’lim tizimlarini solishtirish va innovatsiyalarni joriy etish uchun strategik maqbul ma’lumotlar manbaidir. Biologiya fanidagi baholash esa fan konsepsiyalarini, ilmiy fikrlashni va real hayotiy kontekstlarda bilimlarni qo‘llashni baholaydi, shuning uchun TIMSS topshiriqlarini o‘qitish jarayoniga integratsiyalash ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [3].

Biologiya ta’limining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda biologik bilimlarni chuqur egallash bilan birga, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu jihatdan TIMSS topshiriqlarini biologiya darslariga integratsiyalash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, TIMSS topshiriqlari o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Ushbu topshiriqlar biologik jarayonlarni sabab-oqibat bog‘liqligida tushuntirishni, hodisalarga ilmiy yondashishni va muammoni hal qilishni talab qiladi. Natijada o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni yodlash bilan cheklanib qolmay, balki biologik tushunchalarning mazmunini chuqur anglay boshlaydi.

Ikkinchidan, TIMSS topshiriqlarini biologiya darslariga integratsiyalash amaliy yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlaydi. Ushbu topshiriqlar ko‘pincha kundalik hayot, atrof-muhit, inson salomatligi va ekologik muammolar bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarga asoslanadi. Bu esa biologiya fanining hayotiy ahamiyatini o‘quvchilarga yaqqol namoyon etib, ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Uchinchidan, TIMSS topshiriqlari biologiya darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar matn, jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda ulardan xulosa chiqarishga o‘rganadilar. Bu esa biologiya fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘rganishga imkon yaratadi.

To‘rtinchidan, TIMSS topshiriqlaridan foydalanish xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarlikni kuchaytiradi. O‘quvchilar savollarning tuzilishi, murakkablik darajasi va baholash mezonlari bilan oldindan tanishib boradilar. Bu holat kelgusida TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishda yuqori natijalarga erishish uchun muhim zamin yaratadi.

Beshinchidan, TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi dars jarayonida turli xil interaktiv metodlardan, muammoli vaziyatlardan va fanlararo yondashuvlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada darslar mazmunan boyiydi, baholash jarayoni esa aniq va shaffof bo‘ladi.

Shuningdek, TIMSS topshiriqlari biologiya fanida ilmiy dunyoqarash va ekologik madaniyatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. O‘quvchilar tirik organizmlar, tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurroq anglay boshlaydilar, atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatni rivojlantiradilar.

Umuman olganda, TIMSS topshiriqlarini biologiya darslariga integratsiyalash ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning biologik bilim va ko‘nikmalarini xalqaro standartlar darajasida shakllantirish hamda ularni mustaqil fikrlovchi, raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashda muhim pedagogik ahamiyatga ega [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

TIMSS topshiriqlarini biologiya darslariga samarali integratsiyalash uchun ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda kompetensiyaviy ta’lim tamoyillaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu integratsiyani amalga oshirishda eng samarali hisoblangan usul va metodlar yoritiladi.

1. **Muammoli ta’lim usuli.** Muammoli ta’lim TIMSS topshiriqlarining asosiy mohiyatiga to‘liq mos keladi. Biologiya darslarida o‘quvchilarga oldindan tayyor javoblar berilmaydi, balki muammoli vaziyatlar yaratiladi. Masalan, o‘simliklarning o‘sishiga ta’sir etuvchi omillar yoki inson salomatligiga ekologik omillarning ta’siri haqida savollar berilib, o‘quvchilardan sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash talab etiladi. Bu usul o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini va ilmiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
2. **Tadqiqot va izlanishga yo‘naltirilgan metod.** TIMSS topshiriqlari ko‘pincha tajriba natijalari yoki kuzatuvlar asosida tuziladi. Shu sababli biologiya darslarida kichik tadqiqot ishlari, tajribalar va kuzatishlarga asoslangan topshiriqlarni qo‘llash samarali hisoblanadi. O‘quvchilar tajriba natijalarini tahlil qiladilar, ma’lumotlarni solishtiradilar va ilmiy xulosalar chiqaradilar. Bu metod o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantiradi.
3. **Vizual materiallar asosida ishlash metodi.** TIMSS topshiriqlarida diagramma, grafik, jadval va rasmlar muhim o‘rin tutadi. Biologiya darslarida ham vizual materiallardan keng foydalanish orqali o‘quvchilarning ma’lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Masalan, organizmlarning rivojlanish bosqichlari, oziq zanjiri yoki modda almashinuvi jarayonlarini diagrammalar orqali tahlil qilish mumkin.
4. **Fanlararo integratsiya metodi.** TIMSS topshiriqlari ko‘pincha bir nechta fan elementlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Biologiya darslarida matematika (hisob-kitob, grafik tahlili), geografiya (ekologik omillar), kimyo (moddalar almashinuvi) bilan bog‘langan topshiriqlarni qo‘llash orqali fanlararo integratsiya ta’minlanadi. Bu metod o‘quvchilarda bilimlarni kompleks tarzda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi [4, 5].
5. **Guruhli va hamkorlikda ishlash metodi.** TIMSS topshiriqlarini bajarishda guruhli ishlash metodidan foydalanish o‘quvchilarning muloqot madaniyatini va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Guruhlar muammoli savollarni birgalikda tahlil qiladilar, fikr almashadilar va umumiy xulosaga keladilar. Bu metod dars jarayonini faollashtiradi hamda o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini kuchaytiradi.
6. **Differensial yondashuv metodi.** O‘quvchilarning bilim va tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘lganligi sababli TIMSS topshiriqlarini turli murakkablik darajasida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Differensial yondashuv orqali kuchli o‘quvchilarga murakkab tahliliy savollar, qolgan o‘quvchilarga esa asosiy tushunchalarni mustahkamlovchi topshiriqlar beriladi. Bu usul har bir o‘quvchining imkoniyatini hisobga olishga yordam beradi.

7. **Baholash va refleksiya metodi.** TIMSS topshiriqlarini integratsiyalashda baholash jarayoni alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarning faqat to‘g‘ri javobi emas, balki fikrlash jarayoni, xulosa chiqarish uslubi ham baholanadi. Dars oxirida refleksiya o‘tkazish orqali o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladilar va bilimlarini mustahkamlaydilar.

TIMSS topshiriqlarini biologiya darslariga integratsiyalashda muammoli ta’lim, tadqiqotga yo‘naltirilgan metodlar, vizual tahlil, fanlararo integratsiya va differensial yondashuv kabi usullardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning biologik bilimlarini chuqurlashtirish, ilmiy fikrlashini rivojlantirish va xalqaro baholash talablariga mos tayyorgarlik ko‘rishiga xizmat qiladi.

Quyida ekologiya mavzusi asosida TIMSS topshiriqlarini biologiya darslariga integratsiyalash bo‘yicha usullar va metodlar aniq misollar bilan, amaliy hamda metodik jihatdan ko‘rib chiqiladi. Ekologiya biologiya fanining eng dolzarb va hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘limlaridan biri bo‘lib, TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash uchun qulay mavzu hisoblanadi. Ekologik mazmundagi TIMSS topshiriqlari o‘quvchilardan atrof-muhit hodisalarini tushunish, ekologik muammolarni tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarishni talab etadi [5].

1. **Ekologik muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish.** Ushbu metodda o‘quvchilarga real hayotga yaqin ekologik muammolar taklif etiladi. Masalan, suv havzalarining ifloslanishi, o‘rmonlarning kesilishi yoki havodagi CO_2 miqdorining ortishi bilan bog‘liq vaziyatlar beriladi. O‘quvchilardan ushbu muammoning sabablari, oqibatlari va yechimlarini biologik bilimlar asosida izohlash talab etiladi. Bu metod TIMSS topshiriqlarining muammoli va tahliliy xarakteriga to‘liq mos keladi.
2. **Diagramma va grafiklar asosida ekologik tahlil.** TIMSS ekologiya bo‘yicha topshiriqlarida ko‘pincha populyatsiya sonining o‘zgarishi, ifloslanish darajasi yoki oziq zanjiriga oid grafiklar uchraydi. Biologiya darslarida o‘quvchilarga ekologik jarayonlarni aks ettiruvchi diagrammalar berilib, ulardan ma’lumotni o‘qish, solishtirish va xulosa chiqarish so‘raladi. Ushbu metod o‘quvchilarning vizual tahlil va ma’lumotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi.
3. **Ekotizim va oziq zanjiri bo‘yicha TIMSS tipidagi topshiriqlar.** Ekologiya mavzusida ekotizimlar va oziq zanjiri asosiy tushunchalardan hisoblanadi. O‘quvchilarga turli organizmlar ishtirok etgan oziq zanjiri sxemalari berilib, energiya oqimi yoki organizmlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash topshiriqlari bajariladi. Bu metod o‘quvchilarda ekologik muvozanat tushunchasini shakllantiradi.
4. **Tadqiqot va kuzatishga asoslangan ekologik topshiriqlar.** Ekologiya bo‘yicha TIMSS topshiriqlari ilmiy kuzatish va tadqiqot natijalarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Dars jarayonida o‘quvchilarga oddiy ekologik tajribalar yoki kuzatishlar (masalan, o‘simliklarning turli sharoitlarda o‘sishi) natijalari beriladi va ulardan xulosa chiqarish talab etiladi. Bu metod ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantiradi.
5. **Fanlararo integratsiya asosida ekologik masalalar.** Ekologik TIMSS topshiriqlarini biologiya, geografiya va kimyo fanlari bilan bog‘lab o‘rganish samarali hisoblanadi. Masalan, sanoat chiqindilarining tabiatga ta’siri biologik, kimyoviy va geografik jihatdan tahlil qilinadi. Bu metod o‘quvchilarning kompleks fikrlashini hamda fanlararo bilimlarni uyg‘unlashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.
6. **Guruhli muhokama va bahs-munozara metodi.** Ekologiya mavzulari bahs-munozara uchun juda qulaydir. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, ekologik muammolar yuzasidan TIMSS tipidagi savollarni muhokama qiladilar. Har bir guruh o‘z yechimini biologik dalillar asosida himoya qiladi. Bu metod kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi.
7. **Refleksiya va baholash.** Dars yakunida o‘quvchilarning ekologik bilimlari TIMSS mezonlari asosida baholanadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini asoslab berish, xulosa chiqarish va ekologik muammolarga ongli munosabat bildirish orqali refleksiya jarayonida ishtirok etadilar. Bu esa bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi [5, 6].

Ekologiya mavzusida TIMSS topshiriqlarini biologiya darslariga integratsiyalash o‘quvchilarda ekologik tafakkur, tabiatga mas’uliyatli munosabat va ilmiy fikrlashni shakllantiradi. Ushbu metodlar orqali ekologik bilimlar chuqurlashadi, o‘quvchilar xalqaro baholash talablari asosida tayyorlanadi hamda ekologik muammolarga ongli yondashadigan shaxs sifatida kamol topadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, TIMSS topshiriqlarini biologiya darslariga integratsiyalash zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv o‘quvchilarda biologik bilimlarni chuqur egallash, ularni amaliyotda qo‘llash hamda xalqaro darajada raqobatbardosh bo‘lish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu sababli biologiya fanini o‘qitishda TIMSS topshiriqlaridan tizimli va maqsadli foydalanish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Biologiya fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Ta'limni nazorat qilish davlat inspeksiyasi. Toshkent, 2021.
2. TIMSS 2019 evaluation cope. Printing department of the national center for Evaluation of the Quality of Education. Tashkent, 2021. – 68 p.
3. TIMSS 2019 Scope of Natural Sciences. TIMSS & PIRLS International Study Center, 2019. – 69 p.
4. Xaitboyeva D. Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlaridan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2026, 4(2).
5. Jurayeva D.J. TIMSS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to'plami: o'quv-uslubiy qo'llanma. Qamar Media nashriyoti, Toshkent, 2021.
6. Martin M.O., Mullis I.V.S., Hooper M. Methods and Procedures in TIMSS 2019. TIMSS & PIRLS International study center, Boston college, 2020.
7. Doniyorov M.N., Mirzayeva N.I., Jumayev S.Z., Zayniyev S.I., Toshpo'latova N.I. Biologiya o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2024. – 355 b.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

О ТРАНСВЕРСАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИИ ВОСПИТАТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Садыкова Шоиста Акбаровна
Кандидат педагогических наук, профессор кафедры
Методики дошкольного образования
Ташкентского государственного университета прикладных наук

Назарматова Дилшода Умаралиевна
Преподаватель кафедры методологии дошкольного образования
Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические аспекты профессиональной компетентности учителя. Дан анализ понимания различными авторами понятия "компетентность". Выявлены особенности развития профессиональной компетентности педагогов дошкольного образования.

Ключевые слова: компетентность, педагогическое образование, педагог дошкольного образования.

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchining kasbiy kompetentligining nazariy jihatlari ko'rib chiqiladi. Turli mualliflar tomonidan "kompetentlik" tushunchasining talqini tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, pedagogik ta'lim, maktabgacha ta'lim pedagogi.

Abstract: The article examines the theoretical aspects of a teacher's professional competence. An analysis of how various authors interpret the concept of "competence" is provided. The specific features of the development of professional competence among preschool educators are identified.

Key words: competence, pedagogical education, preschool educator.

ВВЕДЕНИЕ

На современном этапе во многих странах Европы происходят кардинальные изменения в сфере образования. В условиях смены парадигмы образования от традиционной системы ЗУН происходит постепенный переход к компетентностному подходу. Я. Зимняя называет пять причин акцентировать внимание на компетентностном подходе в образовании:

- тенденция интеграции и глобализации мировой экономики;
- необходимость гармонизации архитектуры европейской системы высшего образования, заданной Болонским процессом;
- происходящее в последнее время изменение образовательной парадигмы;
- концептуальное богатство содержания термина "компетентностный подход";
- предписания органов управления [1, с. 105].

Основные положения компетентностного подхода в образовании нашли отражение в "Стратегии модернизации содержания общего образования" (2001 г.), ключевым понятием которой является "компетентность".

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

"Компетенция не должна противопоставляться знаниям или умениям и навыкам. Понятие компетентности шире понятий знания, умения и навыка, оно их включает (хотя, конечно, речь не идет о компетентности как о простой аддитивной сумме знания – умения – навыка; это понятие относится к иному смысловому ряду). Понятие компетентности включает в себя не только когнитивный и операционально-технологический компоненты, но и мотивационный, этический, социальный и поведенческий. Оно включает результаты обучения (знания и умения), систему ценностных ориентаций, привычек и т.д." [7].

Методологической основой изучения профессиональной компетентности педагога являются общенаучные положения, представленные в работах Выготского Л.С., Давыдова В.В., Зеера И.Ф., Зимней И.А., Леонтьева А.Н., Молчанова С.Г., Сластенина В.А., Яковлева Г.В. и др. В теории педагогического образования понятие "профессиональная компетентность" означает совокупность профессионально обусловленных требований к педагогу и употребляется в разных значениях: "квалификационная характеристика", "профессиограмма личности", "профессиональная готовность", "профессиональная компетентность", "профессиональное мастерство" и др.

В целом, характеризуя одну и ту же проблему, данные педагогические категории имеют особые смысловые оттенки и используются в различных контекстах. Ряд исследователей (Анцыферова Л.И., Варданян Ю.В., Колесникова И.А., Климкович И.Г., Кузьмина Н.В., Матяш Н.В., Маркова А.К., Огарев Е.И., Павлюченков Е.М. и др.) определяют содержание профессиональной компетентности, выделяя психологические, педагогические и социальные условия ее развития. Они рассматривают ее как совокупность профессиональных свойств (Л.И. Анцыферова); как сложную единую систему внутренних психических состояний и свойств личности специалиста, готовности к осуществлению профессиональной деятельности и способности совершать необходимые для этого действия (Ю.В. Варданян); как способность реализовывать профессиональные и должностные требования на определенном уровне (И.Г. Климкович); как профессиональное самообразование (А.К. Маркова); как устойчивую способность работать со "знанием дела" (В.И. Огарев); как способность к фактическому выполнению деятельности (М.А. Чошанов) и др. Итак, в настоящее время не существует однозначного определения понятия "компетенция". Это связано с тем, что термин еще окончательно не устоялся в отечественной науке и в большинстве случаев используется для обозначения достаточного уровня квалификации и профессионализма специалиста.

Симонов П.В. определяет компетентность не просто как владение знаниями, а как потенциальную готовность решать проблемы со знанием дела.

По мнению М.П. Чошанова, компетентность выступает как специфическое качество совокупности профессиональных знаний и умений, а содержание понятия "компетентность" включает следующие основные характеристики: мобильность знаний, гибкость методов и критическое мышление.

Кузьмина Н.В. рассматривает профессиональную компетентность как осознание педагогом свойств своей личности, позволяющих продуктивно решать воспитательные задачи, направленные на формирование личности другого человека.

Проблему формирования профессиональной компетентности воспитателей дошкольного образования на современном этапе рассматривали такие ученые, как Майер А.А., Лукьянова М.И., Сыманюк Е.Е., Печеркина А.А., Умникова Е.Л., Яковлева Г.В. и др. В последние годы выполнены кандидатские диссертации, связанные с данной тематикой:

- Асаева И.Н. "Развитие профессиональных компетенций воспитателей дошкольных учреждений различного типа в процессе повышения квалификации";
- Притуло А.В. "Совершенствование методических компетенций воспитателей дошкольного образовательного учреждения в системе повышения квалификации";
- Васильченко Л.С. "Профессиональная компетентность специалиста дошкольного образования по проблеме музейной педагогики: реалии и перспективы развития";
- Туркина Т.М. "Формирование профессиональной компетентности студентов педагогического колледжа в процессе подготовки воспитателей коррекционных дошкольных учреждений";
- Морозова В.Е. "Учет особенностей педагогического мышления в повышении профессиональной компетентности педагогов дошкольных образовательных учреждений";
- Захарова Г.И. "Повышение профессиональной компетентности воспитателя дошкольного образовательного учреждения средствами психолого-педагогической подготовки" и др.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Отчет о выявленных ошибках и внесенных исправлениях:

- устранена тавтология “умения, или умения”;
- исправлена стилистическая неточность “понятие несколько иной смысловой ряд”;
- откорректированы пунктуационные конструкции в сложных предложениях и перечислениях;
- исправлено согласование “для его развития” на “для ее развития”;
- устранена орфографическая ошибка “содержание Понятие”;
- уточнена формулировка “гибкость метода” на “гибкость методов”;
- исправлено “осознание педагогом свойства своей личности” на “осознание педагогом свойств своей личности”;
- приведены к единообразию научно-стилистические формулировки;
- сохранены квадратные скобки [7] без изменений.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ понимания понятия “компетентность” различными авторами показал, что оно рассматривается как качественная характеристика подготовки специалиста; компетентность при этом выступает её интегративной составной частью. Несмотря на различия в терминологии, авторы сходятся во мнении о наличии в структуре компетентности трёх компонентов (уровней) – теоретического, практического и личностного.

Мы придерживаемся точки зрения Г. И. Захаровой, которая рассматривает “профессиональную компетентность” как интегративное свойство личности педагога, характеризующее его осведомлённость в психолого-педагогических областях знаний, профессиональные умения и личный опыт. Педагогу необходимо быть ориентированным на перспективы в работе, открытым к динамичному общению, обладать необходимыми знаниями, быть уверенным в себе и способным добиваться профессионально значимых результатов [3, с. 4-6]. На современном этапе, с учётом меняющейся экономической и политической ситуации в стране, возникают новые требования к деятельности педагогов. Воспитатель, работающий с детьми в дошкольной организации, – это специалист, который по содержанию профессиональной деятельности должен обладать совокупностью качеств, доступных немногим. Должностные обязанности определяются объёмом работы воспитателя. Однако мы видим, что процесс взаимодействия учителя и ученика – это обоюдный творческий процесс, который не всегда может осуществляться по строго определённому плану. Он требует постоянного поиска новых способов взаимодействия всех участников образовательного процесса. Работа воспитателя зависит не только от профессиональных навыков педагога, но и от интересов, знаний, умений и настроения детей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, мы считаем, что в условиях модернизации профессионального образования проблема формирования профессиональной компетентности педагога дошкольного образования требует дополнительного научного исследования.

Список использованных литературы:

1. Вербицкий А. А. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции / А. А. Вербицкий, О. Г. Ларионова. – М.: Логос, 2013. – 336 с.
2. Sadikova, S., & Azamatova, D. (2022). Pedagogical innovation cluster of activity of centers in preschool education. Science and Innovation, 1(7), 1138-1143.
3. Nasreddinova, K., & Sadikova, S. (2022). Features of the development of preschool children in a bilingual environment. Science and Innovation, 1(B7), 1440-1444.
4. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing children for social activity in preschool educational organizations: pedagogical need. Journal of Advanced Zoology, 44, 1777-1784.
5. Sodiqova, S., & Yakubova, Z. (2022). O‘quv mashg‘ulotlarining talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashdagi o‘rni. Science and Innovation, 1(B7), 855-859.
6. Sadikova, S., & Sultanmuratova, Y. (2022). The importance of teaching street safety to children in preschool educational institutions. Science and Innovation, 1(B7), 1519-1521.



TALABA-YOSHLARNI MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kushakova Gulnora Egamkulovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
"Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi, ularning psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari, pedagogik ta'sir mexanizmlari hamda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishning samarali usullari tahlil qilindi. Shuningdek, talabalarning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi va oilaviy mas'uliyatni anglash jarayonlarining o'zaro bog'liqligi ochib berildi. Empirik natijalar maqsadli va tizimli pedagogik-psixologik faoliyat talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasini sezilarli oshirishi hamda barqaror oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: talaba-yoshlar, oilaviy hayotga tayyorgarlik, pedagogik-psixologik ta'sir, oilaviy qadriyatlar, shaxsiy kamolot, ijtimoiy moslashuv, nikoh-oila munosabatlari.

Abstract: This article explores the pedagogical and psychological characteristics of preparing students for independent family life based on a comprehensive approach. The study analyzes the level of modern youth's readiness for family life, indicators of their psychological development, mechanisms of pedagogical influence, and effective methods of forming family values. The interrelation between students' personal development, social adaptation, and awareness of family responsibility is revealed. The empirical findings demonstrate that systematic and targeted pedagogical-psychological interventions significantly enhance students' readiness for family life and contribute to the consolidation of stable family values.

Key words: student youth, readiness for family life, pedagogical-psychological intervention, family values, personal development, social adaptation, marital and family relations.

Аннотация: В статье на основе комплексного подхода исследуются педагогические и психологические особенности подготовки студенческой молодежи к самостоятельной семейной жизни. В ходе исследования проанализированы уровень готовности современной молодежи к семейной жизни, показатели их психологического развития, механизмы педагогического воздействия и эффективные методы формирования семейных ценностей. Раскрыта взаимосвязь процессов личностного становления студентов, их социальной адаптации и осознания семейной ответственности. Результаты эмпирического исследования подтверждают, что целенаправленная и системная педагогико-психологическая работа способствует существенному повышению уровня готовности студентов к семейной жизни и укреплению устойчивых семейных ценностей.

Ключевые слова: студенческая молодежь, готовность к семейной жизни, педагогико-психологическое воздействие, семейные ценности, личностное становление, социальная адаптация, брачно-семейные отношения.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri yoshlarni to'laqonli oilaviy hayotga tayyorlash hisoblanadi. Talaba-yoshlar davri shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda oilaviy qadriyatlar, nikoh-oila munosabatlariga munosabat va oilaviy hayot ko'nikmalari shakllanadi. Bugungi kunda talabalar o'rtasida oilaviy hayotga noto'liq tayyorgarlik, oilaviy mas'uliyatni yetarli darajada anglamaslik va nikoh-oila munosabatlari bo'yicha bilim yetishmasligi kuzatilmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasining ta'lim va yoshlar siyosati to'g'risidagi qonunlari hamda Prezidentimizning tegishli farmonlari talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni oilaviy hayotga maqsadli tayyorlash tizimi yetarlicha shakllanmagan [2].

Tadqiqotning ob'ekti sifatida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu jarayonning pedagogik-psixologik xususiyatlari belgilandi.

Tadqiqotning maqsadi talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- oilaviy qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlarini o‘rganish;
- pedagogik-psixologik ta’sir usullarini ishlab chiqish;
- talabalarning oilaviy mas’uliyatini rivojlantirish yo‘llarini aniqlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy hayotga tayyorlash muammosi jahon va mahalliy pedagogika hamda psixologiyada keng o‘rganilgan. Xorijiy olimlardan J. Gottman va N. Silver er-xotinlar munosabatlarida hissiy intellektning ahamiyatini ta’kidlaydilar [3]. H. Markman va S. Stanley nikohdan oldingi tayyorgarlik dasturlarining samaradorligini isbotlaganlar [4]. D. Olson oilaviy munosabatlarni baholash tizimini ishlab chiqqan [5].

Rossiyalik olimlardan A.N. Volkova va T.M. Trapeznikova oila psixologiyasi masalalarini, T.A. Kulikova va O.L. Zvereva bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash metodikasini tadqiq etganlar [6]. O‘zbekistonlik olimlardan Sh.A. Abdullayeva oila pedagogikasi va psixologiyasining nazariy asoslarini, M.G. Davletshin nikoh-oila munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatlarini, G.B. Shoumarov yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganganlar [7].

Ammo mavjud tadqiqotlar asosan maktab yoshidagi bolalar yoki kattalar bilan ishlashga qaratilgan. Talaba-yoshlar o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular shaxsiy o‘sish, kasbiy tayyorgarlik va oilaviy hayotga tayyorlanish jarayonlarini bir vaqtda boshdan kechiradilar. Aynan shu o‘ziga xoslik bizning tadqiqotimizning asosini tashkil etadi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kompleks metodologik yondashuvga asoslangan bo‘lib, quyidagi usullardan foydalanildi:

1. **Nazariy usullar:** pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlarni tahlil qilish; qiyosiy-taqqoslash usuli orqali turli yondashuvlarni solishtirish; umumlashtirish va tizimlashtirish.
2. **Empirik usullar:** so‘rovnoma o‘tkazish – talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun 350 nafar talaba bilan ishlar olib borildi; pedagogik kuzatish – talabalarning oilaviy mavzulardagi muloqoti va munosabatlari tahlil etildi; psixologik diagnostika – V.F. Stolin bo‘yicha oilaviy qadriyatlar testi, Y.E. Alyoshina bo‘yicha oilaviy munosabatlarga tayyorlik testi qo‘llanildi [9].
3. **Eksperimental ishlar:** Jizzax davlat pedagogika universiteti va Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalarini qamrab olgan pedagogik eksperiment o‘tkazildi. Nazorat va tajriba guruhlarida oilaviy tarbiya bo‘yicha maxsus kurs o‘tkazildi va natijalari qiyosiy tahlil qilindi.
4. **Statistik usullar:** matematik-statistik tahlil (Student t-mezoni, Pirson korrelyatsiya koeffitsienti) orqali olingan natijalarning ishonchliligi tekshirildi [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning 62 foizi oilaviy hayot haqida nazariy bilimga ega, ammo faqat 28 foizi amaliy ko‘nikmalarga ega [11]. Talabalarning oilaviy qadriyatlarga munosabatini o‘rganish quyidagi natijalarni berdi:

1-jadval: **Talabalarning oilaviy qadriyatlarga munosabati (%)**

Qadriyat turi	Yuqori daraja	O’rta daraja	Past daraja
Oilaviy sodiqlik	45	38	17
Ota-onalik mas’uliyati	52	33	15
Er-xotin tengligi	41	42	17
Oilaviy an’analar	38	44	18
Moliyaviy mas’uliyat	34	46	20

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, talabalar ota-onalik mas’uliyatini eng yuqori baholaydilar (52 foiz), moliyaviy mas’uliyatga esa eng kam e’tibor berishadi (34 foiz) [12].

Psixologik xususiyatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, talaba-yoshlar quyidagi o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi: hissiy nobarqarorlik (talabalarning 54 foizi oilaviy nizolar paytida o'z hissiyotlarini nazorat qilishda qiyinchilik sezadilar), ideallashtirish tendentsiyasi (48 foiz talabalar oilaviy hayotni haddan tashqari ideallashtiradi), mustaqillikka intilish (71 foiz talabalar oilaviy hayotda to'liq mustaqillikka intiladi, ammo ularning faqat 39 foizi bunday mustaqillikka psixologik jihatdan tayyor) [13].

Pedagogik ta'sir mexanizmlari sifatida quyidagilar amalga oshirildi: "Oila psixologiyasi" maxsus kursi ishlab chiqildi va o'tkazildi; oilaviy treninglar tizimi tashkil etildi; muvaffaqiyatli oilalar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi; psixologik maslahat xizmati tashkil etildi [14].

Eksperiment natijalari quyidagi o'zgarishlarni ko'rsatdi:

2-jadval: **Eksperiment natijalarining qiyosiy tahlili (%)**

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi (n=175)		Nazorat guruhi (n=175)	
	Oldin	Keyin	Oldin	Keyin
Oilaviy bilimlar	61	89	63	68
Amaliy ko'nikmalar	27	74	29	35
Psixologik tayyorgarlik	42	81	44	51

Tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori bo'ldi ($p<0.01$ darajada). Bu maqsadli pedagogik-psixologik ishlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Tajriba guruhida oilaviy bilimlar 28 foizga, amaliy ko'nikmalar 47 foizga, psixologik tayyorgarlik esa 39 foizga oshgan [15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, u shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv va oilaviy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.
2. Zamonaviy talabalarning asosiy muammolari:

- oilaviy hayot haqida nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmalarga aylanmasligi (62 foizi nazariy bilimga ega, ammo faqat 28 foizi amaliy ko'nikmalarga ega);
- hissiy intellekt va nizolarni hal etish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- oilaviy hayotni ideallashtirish va real qiyinchiliklarni yetarli darajada anglamaslik.

3. Pedagogik-psixologik ta'sir mexanizmlari – maxsus kurslar va treninglar tizimi, interaktiv va amaliyotga yo'naltirilgan usullar, psixologik maslahat xizmati – talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.
4. Eksperimental tadqiqotlar natijasi: maqsadli ishlar olib borilgan tajriba guruhida talabalarning oilaviy bilimlari 28 foizga, amaliy ko'nikmalari 47 foizga, psixologik tayyorgarligi 39 foizga oshgan.

Takliflar

1. Oliy ta'lim muassasalarida "Oila psixologiyasi" yoki "Nikoh-oila munosabatlari" maxsus kurslarini majburiy fanlar sifatida joriy etish.
2. Talabalar uchun oilaviy maslahat markazlarini tashkil etish va kasbiy psixologlar tomonidan doimiy maslahat xizmatini yo'lga qo'yish.
3. Oilaviy qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha trening va seminarlar tizimini yaratish.
4. Ta'lim jarayoniga tajribali oilalar va oila psixologiyasi mutaxassislarini jalb etish orqali amaliy yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish.
5. Talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarligini monitoring qilish tizimini joriy etish.
6. Ota-onalar va jamiyat vakillari ishtirokida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha kompleks dasturlar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Pedagogik-psixologik mexanizmlarning samarali qo'llanilishi talabalarning barqaror va sog'lom oilalar qurishga qodirligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. PF-6466, 2022 yil 18 iyul.
3. Gottman, J., & Silver, N. (2015). The Seven Principles for Making Marriage Work. Harmony Books, 320 p.
4. Markman, H., Stanley, S., & Blumberg, S. (2010). Fighting for Your Marriage. Jossey-Bass, 368 p.
5. Olson, D. H., & Olson, A. K. (2000). Empowering Couples: Building on Your Strengths. Life Innovations, 245 p.
6. Volkova, A. N., & Trapeznikova, T. M. (2019). Metodicheskie priemy diagnostiki supruzheskikh otnosheniy. Voprosy psikhologii, 5, 110–116.
7. Abdullayeva, Sh. A. (2019). Oila pedagogikasi va psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 328 bet.
8. Shoumarov, G. B. (2020). Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning milliy-madaniy jihatlari. Toshkent: Fan, 256 bet.
9. Aleshina, Yu. E. (2018). Individual'noe i semeinoe psikhologicheskoe konsul'tirovanie. Moskva: Klass, 464 s.
10. Nasledov, A. D. (2017). Matematicheskie metody psikhologicheskogo issledovaniya. SPb.: Rech', 392 s.
11. Kushakova, G. E. (2021). Talaba-yoshlarning oilaviy qadriyatlari: holat tahlili. Pedagogika jurnali, 3(45), 78–84.
12. Kushakova, G. E., & Ismoilov, A. N. (2022). Pedagogik universitetlar talabalarida oilaviy mas'uliyatni shakllantirish. Ilmiy-metodik jurnal, 2(38), 112–118.
13. Erikson, E. (2016). Identichnost': yunost' i krizis. Moskva: Flinta, 352 s.
14. Satir, V. (2019). The New Peoplemaking. Science and Behavior Books, 398 p.
15. Kushakova, G. E. (2023). Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda interaktiv usullarning samaradorligi. Pedagogik mahorat, 1(51), 89–95.

YOSH OILALARDA AJRALISHLARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Normurodova Gulnora Ikromovna
Jizzax viloyati hokimi o'rinbosari
Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh oilalarda ajralishlarning oldini olishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy yosh oilalar barqarorligini ta'minlashda qadriyatlar tizimining tutgan o'rni, oilaviy qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlari hamda nikoh-oila munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan pedagogik usullar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy sadoqat, o'zaro hurmat, mas'uliyat, mehr-muhabbat va kechirimlilik kabi asosiy qadriyatlarni rivojlantirish yo'llari asoslab berilgan. Aksiologik yondashuvni pedagogik mexanizmlarga integratsiya qilish yosh oilalar barqarorligini ta'minlash va ajralishlar ko'rsatkichini kamaytirishga xizmat qiluvchi samarali nazariy-amaliy asosni shakllantiradi.

Kalit so'zlar: yosh oilalar, ajralishlarning oldini olish, aksiologik yondashuv, pedagogik mexanizmlar, oilaviy qadriyatlar, nikoh-oila munosabatlari, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

Abstract: This article explores the improvement of pedagogical mechanisms for preventing divorces in young families based on an axiological approach. The study theoretically analyzes the role of the value system in ensuring the stability of modern young families, mechanisms for the formation of family values, and pedagogical methods aimed at strengthening marital and family relations. The article substantiates ways of developing fundamental values such as marital fidelity, mutual respect, responsibility, love, and forgiveness. The integration of an axiological approach into pedagogical mechanisms provides an effective theoretical and practical framework for enhancing the stability of young families and reducing divorce rates.

Key words: young families, divorce prevention, axiological approach, pedagogical mechanisms, family values, marital and family relations, spiritual and moral education.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования педагогических механизмов предотвращения разводов в молодых семьях на основе аксиологического подхода. В исследовании теоретически анализируется роль системы ценностей в обеспечении устойчивости современных молодых семей, механизмы формирования семейных ценностей и педагогические методы укрепления брачно-семейных отношений. Обоснованы пути развития ключевых ценностей, таких как супружеская верность, взаимное уважение, ответственность, любовь и прощение. Интеграция аксиологического подхода в педагогические механизмы формирует эффективную теоретико-практическую основу для обеспечения стабильности молодых семей и снижения уровня разводов.

Ключевые слова: молодые семьи, предотвращение разводов, аксиологический подход, педагогические механизмы, семейные ценности, брачно-семейные отношения, духовно-нравственное воспитание.

KIRISH

Yosh oilalar barqarorligini ta'minlash va ajralishlarning oldini olish zamonaviy jamiyat rivojlanishining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ajralishlarning ko'p qismi nikoh tuzilganidan keyin dastlabki yillar ichida sodir bo'ladi, bu esa yosh oilalarni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashning muhimligini ta'kidlaydi [1]. Barqaror oila jamiyatning poydevori bo'lib, uning mustahkamligi davlat va millat taraqqiyotining asosiy sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oila institutini mustahkamlash va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlari yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning huquqiy-normativ asoslarini yaratgan [2]. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va ajralishlarni kamaytirish uchun nazariy asoslangan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Tadqiqotning ob'ekti – yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etish jarayoni, predmeti esa ushbu jarayonni aksiologik yondashuv asosida pedagogik ta'minlash mexanizmlaridir.

Tadqiqotning maqsadi yosh oilalar barqarorligini ta'minlashda qadriyatlar tizimiga asoslangan pedagogik mexanizmlarni nazariy jihatdan asoslash va takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: yosh oilalarda ajralishlarning ijtimoiy-pedagogik omillarini aniqlash; aksiologik yondashuvning pedagogik mexanizmlarga tatbiq etilish imkoniyatlarini o'rganish; oilaviy qadriyatlarni shakllantirish usullarini tahlil qilish; nikohdan oldingi va keyingi pedagogik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy munosabatlar va ajralishlar muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlarda tadqiq etilgan. Aksiologik yondashuvning nazariy asoslari M. Scheler, N. Hartmann va boshqa falsafiy aksiologiya vakillarining asarlarida ishlab chiqilgan [3]. Zamonaviy pedagogikada aksiologik yondashuv V.A. Slastyonin, I.F. Isaev va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan [4].

Oilaviy munosabatlar sohasida J.M. Gottman va J.S. Gottman er-xotinlar orasidagi hissiy aloqa va qadriyatlarning ahamiyatini ta'kidlaydilar [5].

S.M. Stanley va H.J. Markman nikohdan oldingi tayyorgarlik va oilaviy ta'limning muhimligini ilmiy asoslaganlar [6].

A.N. Antonov va V.M. Medkov oila-nikoh munosabatlarining sotsiologik jihatlarini, V.A. Sysenko oilaviy konfliktlarni hal etish yo'llarini o'rganganlar [7].

O'zbekistonlik olimlardan N.K. Abdullayeva yosh oilalarda ajralishlarning ijtimoiy-psixologik omillarini, A.A. Azizxo'jayev oilaviy qadriyatlarni shakllantirish pedagogikasini, M.X. Boltaboyev nikoh-oila munosabatlarida qadriyatlar tizimining o'rnini tadqiq etganlar [8].

Sh.A. Abdullayeva oila pedagogikasi va psixologiyasining nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqqan [9].

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksiologik yondashuvning yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etish pedagogikasiga tatbiq etilishi yetarli darajada o'rganilmagan. Oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va pedagogik yordam ko'rsatishning tizimli mexanizmlari nazariy jihatdan chuqurroq asoslanishni talab etadi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan:

1. **Aksiologik yondashuv:** oilaviy munosabatlarni qadriyatlar tizimi asosida o'rganish, oilaviy sadoqat, hurmat, mas'uliyat va mehribonlik kabi universal qadriyatlarni pedagogik jarayonning markaziga qo'yish.
2. **Tizimli yondashuv:** yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashni davlat, jamiyat, ta'lim muassasalari va mahalla tashkilotlarining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida ko'rib chiqish.
3. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv:** har bir oilaning o'ziga xos xususiyatlarini, qadriyatlar tizimini va ehtiyojlarini hisobga olish.
4. **Tadqiqot usullari:** ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash usuli orqali turli mamlakatlardagi tajribalarni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiologik yondashuv oilaviy munosabatlarni qadriyatlar prizmasidan ko'rib chiqishni talab qiladi. Qadriyat – bu shaxs yoki jamiyat uchun ahamiyat kasb etuvchi, hayotiy yo'nalish beruvchi va xatti-harakatlarni belgilovchi ma'naviy-axloqiy mezondir [11]. Oilaviy hayotda qadriyatlar er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil etadi va nikoh barqarorligini ta'minlaydi.

Yosh oilalar barqarorligini ta'minlashda quyidagi asosiy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega:

1. **Oilaviy sadoqat va ishonch** – er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlarning poydevori bo'lib, u o'zaro ishonch, halollik va sodiqlikka asoslanadi. Bu qadriyat nikoh muqaddasligini anglash va oilaviy majburiyatlarni bajarishga mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi [12].
2. **O'zaro hurmat va qadrdonlik** – juftlikning bir-birining shaxsiyatini, fikr va qarorlarini hurmat qilishi, individ sifatida qadrlashi zarur. Bu qadriyat er-xotin tengligini ta'minlaydi va oilaviy qarorlar qabul qilishda demokratik yondashuvni shakllantiradi.

3. **Mas'uliyat va mehnat** – oila a'zolarining o'z mas'uliyatlarini anglash va bajarishi, oilaviy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga intilishi muhim pedagogik qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyat bolalarni tarbiyalash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uy xo'jaligini yuritishda namoyon bo'ladi [13].
4. **Mehribonlik va g'amxo'rlik** – oila a'zolariga nisbatan samimiy muhabbat, e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish oilaviy munosabatlarning muhim jihati hisoblanadi. Bu qadriyat hissiy issiqlik yaratadi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.
5. **Kechirish va bag'rikenglik** – er-xotinlar orasida muqarrar ravishda yuzaga keladigan noaniqliklar va xatolarni kechirish qobiliyati nikohning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Bu qadriyat oilaviy nizolarni konstruktiv hal etish va munosabatlarni tiklashga yordam beradi [14].
6. **Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar** – diniy, milliy va madaniy qadriyatlar oila hayotining ma'nosi va maqsadini belgilaydi, oilani jamiyat bilan bog'laydi va avlodlar o'rtasida an'analarni uzatish vositasidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Aksiologik yondashuv yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv oilaviy munosabatlarni qadriyatlar tizimi asosida ko'rib chiqish va pedagogik ta'sirni oilaviy qadriyatlarni shakllantirish yo'nalishida amalga oshirishni taqozo etadi.

2. Yosh oilalar barqarorligini ta'minlashda oilaviy sadoqat, o'zaro hurmat, mas'uliyat, mehribonlik, kechirish va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosiy ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlarni pedagogik jihatdan to'g'ri shakllantirish ajralishlar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

3. Yosh oilalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi ikki asosiy bosqichni o'z ichiga olishi kerak: nikohdan oldingi tayyorgarlik va nikohdan keyingi doimiy yordam ko'rsatish. Har ikkala bosqichda ham aksiologik yondashuv asosida qadriyatlarni shakllantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi zarur.

4. Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlari kompleks xarakterga ega bo'lib, ta'lim muassasalari, davlat organlari, mahalla tashkilotlari, din xodimlari va jamoatchilik ishtirokidagi tizimli ishlarni talab etadi.

Takliflar:

1. Nikohdan oldingi majburiy ta'lim dasturini ishlab chiqish va uni qonunchilik hujjatlari darajasida mustahkamlash. Ushbu dastur aksiologik yondashuvga asoslangan bo'lib, oilaviy qadriyatlarni shakllantirish, nikoh-oila munosabatlari asoslari va oilaviy mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilishi lozim.
2. Viloyat va tuman miqyosida kasbiy psixolog, pedagog va ma'naviyat masalalari bo'yicha mutaxassislar bilan ta'minlangan oilaviy maslahat markazlarini tashkil etish. Ushbu markazlar yosh oilalarga doimiy pedagogik yordam ko'rsatishi va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borishi kerak.
3. Mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, ayollar qo'mitalari a'zolari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchilarni oilaviy pedagogika va aksiologik yondashuv asoslari bo'yicha tizimli ravishda malaka oshirish. Ularga oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilish va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha zamonaviy pedagogik usullarni o'rgatish zarur.
4. Ommaviy axborot vositalari orqali oilaviy qadriyatlarni ommalashtirish va yosh oilalar uchun maxsus ta'lim dasturlari, ko'rsatuvlar va kontentlar yaratish. Ijtimoiy tarmoqlarda oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi raqamli platformalar ishlab chiqish.
5. Oliy ta'lim muassasalarida "Oila pedagogikasi va psixologiyasi" fanini barcha yo'nalishlarda majburiy fan sifatida joriy etish va aksiologik yondashuvga asoslangan o'quv dasturlari ishlab chiqish.
6. Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy, moddiy-texnik va kadriy resurslar ajratish. Ushbu dastur aksiologik yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliy joriy etishni ta'minlashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, aksiologik yondashuv asosida yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim vazifasidir. Oilaviy qadriyatlarni shakllantirish, nikohdan oldingi va keyingi pedagogik yordam ko'rsatish, davlat va jamoatchilik tashkilotlarining hamkorligi yosh oilalar barqarorligini ta'minlash va barqaror oila institutini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Антонов, А. И., & Медков, В. М. (2018). Социология семъи. Москва: МГУ, 435 с.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari to'plami. Toshkent, 2020-2023.
3. Scheler, M. (2020). Formalizm in Ethics and Non-Formal Ethics of Values. Northwestern University Press, 624 p.
4. Сластёнин, В. А., & Исаев, И. Ф. (2019). Педагогика: учебник. Москва: Академия, 496 с.
5. Gottman, J. M., & Gottman, J. S. (2017). The Natural Principles of Love. Journal of Family Theory & Review, 9(1), 7-26.
6. Stanley, S. M., & Markman, H. J. (2020). Helping couples in the shadow of COVID-19. Family Process, 59(3), 937-955.
7. Сйсенко, В. А. (2019). Супружеские конфликтй. Москва: Мйслъ, 342 с.
8. Abdullayeva, N. K. (2020). Yosh oilalarda ajralishlarning ijtimoiy-psixologik omillari. Toshkent: Ijtimoiy fanlar, 198 bet.
9. Abdullayeva, Sh. A. (2019). Oila pedagogikasi va psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 328 bet.
10. Azizxo'jayev, A. A. (2021). Oilaviy qadriyatlarni shakllantirish pedagogikasi. Toshkent: Ma'naviyat, 256 bet.
11. Alimov, R. X. (2020). Aksiologik yondashuv: nazariya va amaliyot. Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 312 bet.
12. Boltaboyev, M. X., & Yusupova, G. B. (2020). Nikoh-oila munosabatlarida qadriyatlar tizimining o'rni. Oila va jamiyat, 8(3), 45-53.
13. Ergasheva, Sh. N. (2019). Yosh er-xotinlarni oilaviy hayotga pedagogik tayyorlash. Toshkent: O'qituvchi, 224 bet.
14. Ibragimov, X. I., & Mahmudova, L. T. (2021). Oila barqarorligini ta'minlashda ma'naviy qadriyatlar. Toshkent: Sharq, 276 bet.
15. Mirzayev, A. M. (2021). Oilaviy tarbiyada aksiologik tamoyillar. Toshkent: Fan, 198 bet.

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan takomillashtirish masalalari yoritilgan. Kirish qismida zamonaviy ta'lim muhitida pedagogning innovatsion salohiyati, kreativ yondashuvi va kasbiy moslashuvchanligi maktabgacha ta'lim sifatini belgilovchi ustuvor omil sifatida asoslab beriladi. Tadqiqot metodologiyasi doirasida tizimli tahlil, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, diagnostik baholash, tajriba-sinov ishlari hamda komparativ tahlil usullaridan foydalanildi.
Natijalar tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, motivatsion omillar, metodik qo'llab-quvvatlash modellari va kompetensiyaviy rivojlanish bosqichlarini aniqlashtirish imkonini berdi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmi sifatida uzluksiz malaka oshirish, refleksiv amaliyot, raqamli pedagogika vositalari hamda interfaol metodlar integratsiyasining samaradorligi tajriba natijalari asosida isbotlandi. Muhokama qismida olingan natijalarning amaliy ahamiyati, ularni ta'lim jarayoniga joriy etish istiqbollari hamda pedagogik boshqaruv tizimi bilan integratsiyasi tahlil qilindi. Xulosa sifatida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning kompleks modeli taklif etildi.
Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, innovatsion faoliyat, pedagogik innovatsiya, rivojlantirish mexanizmi, kasbiy kompetensiya, interfaol metodlar, refleksiv yondashuv, raqamli pedagogika, metodik model.

Abstract: This scientific article explores the theoretical and methodological foundations and mechanisms for developing innovative activity among preschool educators. The introduction substantiates the importance of teachers' innovative potential, creativity, and professional adaptability as key determinants of preschool education quality within a modern educational environment.
The research methodology includes system analysis, pedagogical observation, surveys, diagnostic assessment, experimental procedures, and comparative analysis. The findings identify organizational and pedagogical conditions, motivational factors, methodological support models, and stages of competence development that contribute to enhancing educators' innovative engagement. The study experimentally confirms the effectiveness of continuous professional development, reflective practice, and the integration of digital pedagogical tools and interactive teaching methods as core development mechanisms. The discussion highlights the practical significance of the findings, their applicability in educational practice, and their integration into pedagogical management systems. The conclusion proposes a comprehensive model for fostering innovative activity among preschool educators.
Key words: preschool education, educator, innovative activity, pedagogical innovation, development mechanisms, professional competence, interactive methods, reflective practice, digital pedagogy, methodological model.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы и механизмы развития инновационной деятельности воспитателей дошкольных образовательных организаций. Во введении обосновывается значимость инновационного потенциала педагога, его креативности и профессиональной гибкости как ключевого фактора повышения качества дошкольного образования в условиях модернизации образовательной среды.

Методологическую основу исследования составили системный анализ, педагогическое наблюдение, анкетирование, диагностическая оценка, опытно-экспериментальная работа и сравнительный анализ. Полученные результаты позволили определить организационно-педагогические условия, мотивационные факторы и модели методической поддержки, способствующие развитию инновационной активности воспитателей, а также этапы их компетентностного роста. Экспериментально подтверждена эффективность непрерывного повышения квалификации, рефлексивной практики, интеграции цифровых педагогических инструментов и интерактивных методов обучения. В разделе обсуждения раскрывается практическая значимость результатов и возможности их внедрения в образовательный процесс и систему педагогического управления. В заключении предложена комплексная модель развития инновационной деятельности воспитателей.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, инновационная деятельность, педагогические инновации, механизмы развития, профессиональные компетенции, интерактивные методы, рефлексивный подход, цифровая педагогика, методическая модель.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning poydevori sifatida inson kapitalini shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Ushbu bosqichda bolalarning intellektual, ijtimoiy-emotsional, jismoniy hamda kommunikativ rivojlanish jarayonining samarali tashkil etilishi ko'p jihatdan tarbiyachining kasbiy mahorati, metodik tayyorgarligi va innovatsion faoliyat yuritish qobiliyatiga bog'liq. Ta'lim jarayonining globallashuvi, raqamlashtirish tendensiyalarining kuchayishi hamda pedagogik texnologiyalarning yangilanishi maktabgacha ta'lim tarbiyachilaridan an'anaviy yondashuvdan innovatsion faoliyat modeliga o'tishni talab etmoqda.

Innovatsion faoliyat – bu pedagogning ta'lim jarayoniga yangi g'oya, metod, texnologiya va tashkiliy yechimlarni joriy etishga qaratilgan maqsadli, tizimli va natijador faoliyatidir. U nafaqat yangi usullarni qo'llashni, balki pedagogik jarayonni tahlil qilish, refleksiya yuritish, moslashuvchan qaror qabul qilish va ijodiy muammolarni hal eta olish kompetensiyalarini ham qamrab oladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim amaliyotida innovatsion metodlar, interfaol yondashuvlar, raqamli didaktik vositalar va integrativ o'qitish modellaridan foydalanish kengayib bormoqda. Biroq ularni samarali qo'llash ko'p jihatdan tarbiyachining innovatsion tayyorgarligi, metodik qo'llab-quvvatlash tizimi, institutsional sharoit hamda motivatsion omillarga bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha alohida tajribalar mavjud bo'lsa-da, ularni tizimli rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada metodologik asoslanmagan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, metodik yondashuvlar va boshqaruv mexanizmlari kompleks tarzda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, innovatsion muhitni shakllantirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotning maqsadi – maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash va amaliy modelini ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadga muvofiq innovatsion faoliyatning mazmuni, tuzilmasi, rivojlanish omillari hamda samarali joriy etish usullari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish masalasi pedagogika, ta'lim menejmenti va kasbiy kompetensiya nazariyasi doirasida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik faoliyat tushunchasi ta'lim tizimini modernizatsiyalash, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish hamda ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda innovatsiya tushunchasi pedagogning kasbiy moslashuvchanligi va ijodiy kompetensiyasi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Xususan, Michael Fullan ta'limdagi o'zgarishlar nazariyasida innovatsion faoliyatni tizimli islohotlar, pedagogning ichki motivatsiyasi va institut darajasidagi qo'llab-quvvatlash omillari bilan bog'laydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, innovatsiya faqat yangi metodni joriy etish emas, balki pedagogik tafakkur va amaliyotning transformatsiyasi hisoblanadi.

Shuningdek, konstruktivistik ta'lim nazariyasi asoschilaridan biri Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasi innovatsion metodlarni qo'llashda hamkorlik, faol o'rganish muhiti va rivojlantiruvchi muloqotning muhimligini ilmiy asoslab beradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha Everett Rogersning innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur nazariyada yangiliklarning qabul qilinishi bosqichlari, pedagoglarning innovatsiyaga munosabati va ijtimoiy muhit ta'siri ochib berilgan. Bu yondashuv maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim metodikasi va pedagogik innovatsiyalarni qo'llash masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Loris Malaguzzi tomonidan ishlab chiqilgan Reggio Emilia yondashuvi bolaga yo'naltirilgan, ijodiy va muhitga asoslangan innovatsion model sifatida e'tirof etiladi. Ushbu modelda tarbiyachining roli fasilitator va tadqiqotchi sifatida talqin qilinadi, bu esa innovatsion faoliyatning metodik asoslarini boyitadi.

MDH olimlari tomonidan pedagogning innovatsion faoliyati, kasbiy kompetensiyasi va metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Xususan, pedagogik mahorat va innovatsion yondashuv uyg'unligini asoslab bergan tadqiqotchilar pedagogning refleksiv faoliyati, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati va metodik ijodkorligini asosiy mezon sifatida ko'rsatadilar.

O‘zbekistonlik pedagog olimlar tadqiqotlarida ham maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, bevosita maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini kompleks model sifatida yorituvchi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash, ularning samaradorligini baholash hamda amaliyotga mos modelini ishlab chiqishga qaratilgan kompleks tajriba-tahlil ishlari olib borildi. Olingan ilmiy natijalar innovatsion faoliyat pedagog kasbiy rivojining ajralmas tarkibiy qismi ekanini hamda u faqat metodlarni yangilash emas, balki pedagogik tafakkur, kasbiy pozitsiya va metodik qaror qabul qilish madaniyatining yangilanishi bilan bog‘liq jarayon ekanini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tarbiyachilarning innovatsion faoliyati yaxlit integrativ tuzilma sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ushbu tuzilma yangilikka ijobiy munosabat va ichki kasbiy motivatsiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha metodik bilimlar, hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotda moslashtira olish va tahlil qila olish kompetensiyalarining o‘zaro uyg‘unligi orqali ifodalanadi. Innovatsion faoliyat samaradorligi pedagogning refleksiv yondashuvi, o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqish va metodik moslashuvchanlik darajasi bilan bevosita bog‘liqligi kuzatildi. Diagnostik va kuzatuv natijalari dastlabki holatda innovatsion faoliyat ko‘proq epizodik va intuitiv xarakterga ega ekanini, metodik yangiliklardan foydalanish esa ko‘pincha tizimsiz tarzda amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Raqamli vositalardan foydalanish, interfaol metodlarni maqsadli tanlash hamda natijani refleksiv tahlil qilish jarayonlari yetarli darajada shakllanmagani aniqlandi. Shu asosda innovatsion rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik ta’sir dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi. Amaliy joriy etish jarayonida metodik seminarlar, ijodiy laboratoriyalar, hamkorlikka asoslangan tajriba almashish maydonlari hamda refleksiv tahlil vositalari qo‘llanilganda pedagoglarning innovatsion faolligi sezilarli faollashgani kuzatildi.

Tarbiyachilarda yangicha metodlarni tanlash va moslashtirish, mashg‘ulotlarni muammoli-vaziyatli asosda qurish, bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlariga mos innovatsion yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalari mustahkamlandi. Metodik mustaqillik, ijodiy tashabbus va kasbiy o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ichki ehtiyoj kuchaydi.

Natijaviy tahlil shuni ko‘rsatdiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirish eng samarali tarzda metodik qo‘llab-quvvatlash uzluksiz yo‘lga qo‘yilganda, amaliy mashg‘ulotlar ustuvor bo‘lganda, kasbiy hamkorlik muhiti yaratilganda va o‘z-o‘zini tahlil qilish mexanizmlari muntazam qo‘llanganda namoyon bo‘ladi. Innovatsion rivojlanish individual kasbiy trayektoriya asosida tashkil etilganda pedagogning o‘zlashtirish sur’ati va amaliy natijadorligi yanada barqarorlashadi. Tadqiqot yakunida maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks amaliy model ishlab chiqildi. Mazkur model metodik ta’lim, refleksiv monitoring, ijodiy amaliyot va raqamli integratsiyani yagona rivojlantiruvchi mexanizm sifatida birlashtiradi hamda ta’lim amaliyotiga tatbiq etish uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qilishi isbotlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish alohida metod yoki texnologiyani joriy etish bilan cheklanmaydi, balki pedagogning kasbiy tafakkuri, refleksiv madaniyati va metodik qaror qabul qilish kompetensiyasini kompleks yangilash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan olingan natijalar innovatsion faoliyatni tizimli rivojlantirishga doir zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan mazmunan uyg‘un ekanligi kuzatildi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, innovatsion faoliyat barqaror shakllanishi uchun tashqi metodik ta’sirning o‘zi yetarli emas. U ichki kasbiy motivatsiya, yangilikka ochiqlik va o‘z faoliyatini tahlil qilishga tayyorlik bilan qo‘llab-quvvatlangandagina samarali rivojlanadi. Bu holat ta’limdagi o‘zgarishlar nazariyasida pedagogning ichki ishtiroki va institutsional qo‘llab-quvvatlash birligi zarurligini asoslagan Michael Fullan qarashlari bilan mos keladi. Tadqiqotda ham metodik qo‘llab-quvvatlash, ham kasbiy hamkorlik muhiti mavjud bo‘lgan sharoitda innovatsion faollik ancha barqaror kechgani kuzatildi. Natijalar innovatsion faoliyatni rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy o‘rganish muhiti va hamkorlikka asoslangan metodik muloqot muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Bu jihat rivojlantiruvchi ta’lim muhitining ahamiyatini asoslab bergan Lev Vygotsky ilmiy qarashlari bilan konseptual jihatdan uyg‘unlashadi. Tarbiyachilar o‘rtasida tajriba almashish, birgalikdagi mashg‘ulot tahlili va refleksiv suhbatlar tashkil etilganda innovatsion metodlarni o‘zlashtirish chuqurlashgani aniqlandi. Shuningdek, muhokama natijalari innovatsiyalarni joriy etish bosqichma-bosqich qabul qilinishini ko‘rsatdi. Pedagoglar dastlab tayyor metodni qo‘llashga moyil bo‘lsa, keyinchalik uni moslashtirish va ijodiy qayta ishlab chiqishga

o‘tadi. Bu jarayon innovatsiyalarning tarqalish mexanizmlarini tushuntirgan Everett Rogers nazariy modeli bilan mantiqan mos tushadi. Demak, innovatsion faoliyatni rivojlantirish dasturlari ham moslashuvchan va bosqichli tuzilishga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Muhokama davomida yana bir muhim jihat aniqlandi: innovatsion metodlarni joriy etish samaradorligi ularning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish xususiyatlariga mosligi bilan chambarchas bog‘liq. Erkin izlanish, muhit orqali o‘rganish va bolaga yo‘naltirilgan pedagogik dizayn elementlari qo‘llanganda natijadorlik ortadi. Bu yondashuv muhitga asoslangan innovatsion modelni ishlab chiqqan Loris Malaguzzi pedagogik qarashlari bilan hamohangdir.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish shuni ko‘rsatdiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlari metodik ta’lim, amaliy mashg‘ulot, refleksiv monitoring va kasbiy hamkorlikni yagona tizimga birlashtirgandagina yuqori samaradorlik beradi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari ma’lum amaliy muhit doirasida olingani sababli ularni keng miqyosda umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Kelgusida turli hududiy va tashkiliy sharoitlarda qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish ilmiy xulosalarni yanada boyitadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratildi hamda olingan natijalar innovatsion faoliyat pedagog kasbiy kompetensiyasining markaziy tarkibiy qismi ekanini tasdiqladi. Innovatsion faoliyat ta’lim jarayoniga alohida yangilik kiritish bilan cheklanmay, balki pedagogning metodik tafakkuri, refleksiv yondashuvi, ijodiy muammolarni hal etish qobiliyati va kasbiy moslashuvchanligini kompleks rivojlantirishni talab qiluvchi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida innovatsion faoliyatning samarali rivojlanishi metodik qo‘llab-quvvatlash, ichki kasbiy motivatsiya, amaliy yo‘naltirilgan o‘qitish, refleksiv tahlil va kasbiy hamkorlik muhiti bilan uzviy bog‘liq ekani asoslandi. Innovatsion yondashuvlar tarbiyachining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi bilan uyg‘unlashtirilganda ularning barqarorligi va amaliy natijadorligi ortishi kuzatildi. Bu esa innovatsion rivojlanish mexanizmlari shaxsga yo‘naltirilgan va moslashuvchan model asosida qurilishi zarurligini ko‘rsatadi. Ishlab chiqilgan kompleks rivojlantirish modeli metodik ta’lim, tajriba-sinov faoliyati, refleksiv monitoring, ijodiy laboratoriya shakllari va raqamli pedagogik vositalar integratsiyasiga tayangan holda tuzildi. Mazkur modelni ta’lim amaliyotiga joriy etish tarbiyachilarning metodik mustaqilligi, yangilik yaratish faolligi va pedagogik qaror qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qilishi ilmiy-amaliy jihatdan asoslandi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilishi lozim. Taklif etilgan mexanizm va model maktabgacha ta’lim tashkilotlari metodik xizmatini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish hamda zamonaviy pedagogik muhitni shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent.
2. Maktabgacha ta’lim metodikasi bo‘yicha zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualar va metodik qo‘llanmalar. – Toshkent.
3. Селевко Г. К. Современне образователне технологии. – Москва: Народное образование.
4. Пулат Э. С. Инновационне педагогические технологии. – Москва: Академия.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod.
7. Xodjayev B. Pedagogik innovatika asoslari. – Toshkent: Tafakkur.
8. Diffusion of Innovations – Rogers E. M. Innovation diffusion theory and adoption mechanisms. – New York: Free Press.
9. Educational Change – Fullan M. The dynamics of educational transformation and teacher innovation. – London: Routledge.
10. Mind in Society – Vygotsky L. S. The development of higher psychological processes in learning. – Cambridge: Harvard University Press.

PSIXOLOGIK ZO‘RAVONLIKNING O‘SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Jurakulova Dildora Ziyadullayevna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Psixologiya” kafedrasi dotsenti, ps.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada oiladagi psixologik zo‘ravonlikning o‘smirlar shaxsiyati shakllanishiga ta’siri, xususan, destruktiv xulq-atvor rivojlanishiga olib keluvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida psixologik bosim, haqorat, mensimaslik, tahdid va emotsional sovuqlik kabi omillarning o‘smir ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, destruktiv xulq-atvorning namoyon bo‘lish shakllari – agressivlik, ijtimoiy moslashuvning buzilishi, o‘z-o‘ziga zarar yetkazish hamda deviant xatti-harakatlar nazariy asosda izohlanadi. Muammoning oldini olish va korreksiyalash yo‘nalishida psixologik hamda pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik zo‘ravonlik, o‘smirlik davri, destruktiv xulq-atvor, oilaviy muhit, agressiya, deviant xulq, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article analyzes the impact of psychological violence within the family on adolescent personality formation, particularly focusing on the development of destructive behavior. The study examines the negative effects of emotional pressure, humiliation, neglect, threats, and emotional coldness on adolescents' psychological development. It also provides a theoretical explanation of the main manifestations of destructive behavior, including aggression, social maladjustment, self-harm, and deviant actions. Psychological and pedagogical recommendations are proposed for the prevention and correction of destructive behavioral patterns among adolescents exposed to family psychological abuse.

Key words: psychological violence, adolescence, destructive behavior, family environment, aggression, deviant behavior, social maladjustment.

Аннотация: В статье анализируется влияние психологического насилия в семье на формирование личности подростка, в частности на развитие деструктивного поведения. В исследовании раскрываются негативные последствия эмоционального давления, унижения, игнорирования, угроз и эмоциональной холодности для психического развития подростков. Обоснованы основные проявления деструктивного поведения: агрессивность, социальная дезадаптация, самоповреждающее поведение и девиантные действия. Разработаны психолого-педагогические рекомендации по профилактике и коррекции деструктивных форм поведения у подростков, подвергающихся психологическому насилию в семье.

Ключевые слова: психологическое насилие, подростковый возраст, деструктивное поведение, семейная среда, агрессия, девиантное поведение, социальная дезадаптация.

KIRISH

Oila shaxs shakllanishining eng muhim va birlamchi ijtimoiy instituti hisoblanadi. Inson hayotining dastlabki bosqichlaridayoq u aynan oilada ijtimoiy tajriba, axloqiy me’yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor namunalarini o‘zlashtira boshlaydi. Oila nafaqat biologik ehtiyojlarni qondiruvchi muhit, balki shaxsning emotsional xavfsizligi, o‘ziga ishonchi va ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanadigan makondir. Ayniqsa, o‘smirlik davrida oilaning roli yanada kuchayadi, chunki bu davr shaxs rivojlanishining murakkab va ziddiyatli bosqichi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deviant xulq-atvorning namoyon bo‘lishini o‘rganish muammolari bilan xorijlik olimlar: E. Dyurkgeym, R. Merton, I. Gofman, E. Lemert, G. Bekker, N. Smelzer, A. Koen, Z. Freyd, Ch. Lombrozo, U. Sheldon va boshqalar shug‘ullangan; Rossiyada deviant xulq-atvorning turli jihatlari Ya. I. Gilinskiy, Yu. A. Kleyberg, Ye. V. Zmanovskaya, L. B. Shneyder, V. I. Kudryavsev, I. S. Kon kabi bir qator tadqiqotchi va olimlar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. V. D. Mendelevich, A. Ye. Lichko, S. A. Belicheva va boshqalar ham mazkur

yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borganlar. Rossiyada deviant xulq-atvorning madaniy jihati asoschilaridan biri Ya. I. Gilinskiy bo‘lib, u “deviant xulq-atvor” atamasini muomalaga kiritgan.

Ya. I. Gilinskiyning fikricha, hozirgi sharoitda deviatsiyaning asosiy manbai jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning mavjudligi, turli ijtimoiy guruhlar uchun ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi yuqori darajadagi farqdir. Ushbu pozitsiyalarning har biri mavjud bo‘lish huquqiga ega, chunki ular amalda mavjud bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni kesib o‘tadi. Shu bilan birga, mualliflarni uni topishga intilish birlashtiradi.

O‘smirlik davri – bu o‘z “Men”ini anglash, mustaqil fikrlash, hayotiy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish va ijtimoiy o‘rinni belgilash jarayonlari jadallashadigan davrdir. Bu bosqichda o‘smirning emotsional holati o‘ta sezgir bo‘lib, u atrof-muhit ta’siriga, ayniqsa, yaqin insonlarining munosabatiga nisbatan ta’sirchan bo‘ladi. Ota-ona tomonidan bildirilgan qo‘llab-quvvatlash, ishonch va hurmat o‘smirning sog‘lom psixologik rivojlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, doimiy tanqid, befarqlik yoki bosim uning ichki dunyosida ziddiyatlar, ishonchsizlik va xavotir hissini shakllantiradi.

Sog‘lom oilaviy muhit o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat, muloqot ochiqligi va emotsional qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi. Bunday muhitda voyaga yetgan o‘smir ijtimoiy moslashuvchan, o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan, muammolarni konstruktiv hal qila biladigan shaxs sifatida shakllanadi. U jamiyat talablariga moslashish jarayonida ichki barqarorlikni saqlay oladi hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadi.

Biroq nosog‘lom psixologik muhit mavjud bo‘lgan oilalarda vaziyat mutlaqo boshqacha tus oladi. Oiladagi doimiy nizolar, zo‘ravonlik, kamsitish yoki e’tiborsizlik o‘smir ruhiyatida salbiy iz qoldiradi. Bunday sharoitda o‘sayotgan bola o‘zini himoyasiz, qadrsiz yoki ortiqcha his qilishi mumkin. Bu esa vaqt o‘tishi bilan destruktiv xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratadi. Destruktiv xulq shaxsning o‘ziga yoki atrofdagilarga zarar yetkazuvchi harakatlarida namoyon bo‘ladi va ko‘pincha ichki psixologik og‘riqning tashqi ifodasidir.

So‘nggi yillarda oiladagi psixologik zo‘ravonlik masalasi dolzarb ijtimoiy-psixologik muammo sifatida keng tadqiq etilmoqda. Psixologik zo‘ravonlik jismoniy ta’sir ko‘rsatmasdan amalga oshirilishi bilan ajralib turadi, biroq uning ruhiy oqibatlari ko‘pincha jismoniy zo‘ravonlikdan ham og‘irroq bo‘lishi mumkin. Doimiy haqorat, tahdid, kamsitish, mensimaslik yoki emotsional sovuqlik o‘smirning o‘z-o‘zini baholashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, unda o‘ziga nisbatan salbiy munosabat shakllantiradi.

Psixologik zo‘ravonlikning eng xavfli jihati shundaki, u ko‘pincha yashirin shaklda kechadi va uzoq vaqt davomida sezilmay qolishi mumkin. Ota-onaning “tarbiya” deb hisoblagan ayrim keskin usullari aslida bola ruhiyatiga og‘ir zarba berishi ehtimoldan xoli emas. Natijada o‘smirda agressivlik, ijtimoiy chekinish, depressiv kayfiyat, deviant xatti-harakatlar yoki autoagressiya kabi holatlar rivojlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shunday ekan, oilaviy muhit sifati o‘smir shaxsining psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oila ichidagi sog‘lom emotsional atmosfera nafaqat shaxsning barkamol shakllanishiga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Aksincha, psixologik zo‘ravonlik mavjud bo‘lgan oilalarda ulg‘aygan o‘smirlar kelajakda turli ijtimoiy va psixologik muammolarga duch kelish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

1-jadval: **N.Orel – Destruktiv khulq metodikasining jins farqlari bo‘yicha styudent t mezoni natijalari**

Ko‘rsatkichlar	Jins	N	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	t	p
O‘smir ijtimoiy maqbul javoblarga moyillik	O‘g‘il	54	45.2	6.5	-2.50	0.014*
	Qiz	63	47.8	5.2		
Qoidalar va me’yorlarni buzishga moyillik	O‘g‘il	54	38.6	7.3	3.10	0.003**
	Qiz	63	34.2	6.8		
Addiktiv (bog‘liqlikka moyillik) xatti-harakatlarga moyillik	O‘g‘il	54	30.5	8.1	1.80	0.075
	Qiz	63	28.1	7.9		
O‘z-o‘zini shikastlash va o‘ziga zarar yetkazish	O‘g‘il	54	15.3	4.2	-3.20	0.002**
	Qiz	63	18.7	5.0		
Tajovuz va zo‘ravonlikka moyillik	O‘g‘il	54	40.8	6.9	4.50	0.009**
	Qiz	63	32.9	7.1		
Hissiy reaktsiyalarni irodaviy nazorat qilish	O‘g‘il	54	42.1	5.5	-2.00	0.048*
	Qiz	63	44.3	4.7		
Delikvent (qonunbuzarlik) xatti-harakatlarga moyillik	O‘g‘il	54	33.7	7.6	3.85	0.004**
	Qiz	63	28.4	6.3		

Psixologik zo‘ravonlik – bu shaxsga nisbatan muntazam ravishda ruhiy bosim o‘tkazish, tahdid qilish, haqoratlash, kamsitish, e’tiborsiz qoldirish yoki emotsional manipulyatsiya qilish jarayonidir. Oilada bunday munosabat ota-ona yoki boshqa yaqin qarindoshlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

O‘smirlarning ijtimoiy maqbul javoblarga moyilligi bo‘yicha qizlar o‘rtacha 47.8, o‘g‘illar 45.2 ball bilan farq qilgan ($t = -2.50$, $p < 0.05$). Bu ko‘rsatkich qizlarning oiladagi psixologik zo‘ravonlik va stress holatlarida ijtimoiy qoidalarga rioya qilish orqali o‘zini himoya qilishga moyilligini bildiradi. O‘g‘illarning nisbatan pastroq balli esa ularning tashqi xatti-harakatlar orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Qoidalar va me’yorlarni buzishga moyillikda o‘g‘illar 38.6, qizlar 34.2 ball ($t = 3.10$, $p < 0.01$) ko‘rsatgan. Bu farq o‘g‘illarning oiladagi psixologik zo‘ravonlik yoki tarbiyaviy cheklovlarga nisbatan yuqori qarshilik va qoidabuzarlikka moyilligini ko‘rsatadi. Zo‘ravon muhit o‘g‘illarda tashqi agressiv xatti-harakatlar va qoidalarga bo‘lgan munosabatni shakllantiradi.

Addiktiv xatti-harakatlarga moyillikda farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ($t = 1.80$, $p = 0.075$), ammo o‘g‘illar biroz yuqoriroq ko‘rsatkichga ega. Bu shuni ko‘rsatadiki, oiladagi stress yoki psixologik zo‘ravonlikdan qochish mexanizmi sifatida ayrim o‘g‘illar turli odatlarga yoki “qochish strategiyalariga” moyil bo‘lishi mumkin.

O‘z-o‘zini shikastlash va o‘ziga zarar yetkazish xatti-harakatlarida qizlar 18.7, o‘g‘illar 15.3 ball ($t = -3.20$, $p < 0.01$) bilan yuqoriroq natija ko‘rsatgan. Bu farq oiladagi psixologik zo‘ravonlik sharoitida qizlarning ichki stressni o‘zlariga zarar yetkazish orqali ifodalashga moyilligini bildiradi. Qizlar ichki destruktiv xatti-harakatlar orqali psixologik og‘riqni boshqarishga harakat qiladi.

Tajovuz va zo‘ravonlikka moyillikda o‘g‘illar 40.8, qizlar 32.9 ball ($t = 4.50$, $p < 0.01$) bilan farqlanadi. Bu ko‘rsatkich o‘g‘illarning oiladagi psixologik zo‘ravonlikni tashqi agressiya yoki zo‘ravon xatti-harakatlar orqali namoyon qilish ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Hissiy reaktsiyalarni irodaviy nazorat qilishda qizlar 44.3, o‘g‘illar 42.1 ball ($t = -2.00$, $p < 0.05$). Qizlar hissiyotlarini boshqarishda o‘g‘illarga qaraganda yaxshiroq, bu esa ichki stressni destruktiv xatti-harakatlarga aylanmasdan nazorat qilishga yordam beradi.

Delikvent xatti-harakatlarga moyillikda o‘g‘illar 33.7, qizlar 28.4 ball ($t = 3.85$, $p < 0.01$) bilan farq qilgan. Bu o‘g‘illarning oiladagi psixologik zo‘ravonlik va tarbiyaviy cheklovlarga nisbatan yuqori qarshilik ko‘rsatishini, qonunbuzarlik va tashqi agressiyani destruktiv xulq sifatida namoyon qilishini bildiradi.

2-jadval: **N. Orel – Destruktiv khulq metodikasi va L.I. Gorkovaya, I.A. Romitsina O‘smirlarning ota-onalar haqida so‘rovnoma (ADOR)sining o‘zaro korelatsion jadvali**

O‘smir xatti-harakatlar shkalalari	POZ (ijobiy qiziqish)	DIR (yo‘naltiruvchilik)	MOS (dushmanlik)	AUT (avtonomiya)	NED (nomuvofiqlik)
O‘smir ijtimoiy maqbul javoblarga moyillik	0.45**	0.35*	-0.20	0.10	-0.15
Qoidalar va me’yorlarni buzishga moyillik	-0.25	-0.38**	0.40**	-0.12	0.30*
Addiktiv (bog‘liqlikka moyillik) xatti-harakatlarga moyillik	0.10	0.15	0.50***	-0.05	0.35**
O‘z-o‘zini shikastlash va o‘ziga zarar yetkazish moyilligi	-0.05	-0.10	0.20	-0.30*	0.25
Tajovuz va zo‘ravonlikka moyillik	-0.15	-0.20	0.55***	-0.10	0.40**
Hissiy reaktsiyalarni irodaviy nazorat qilish	0.30*	0.42**	-0.25	0.15	-0.20
Delikvent (qonunbuzarlik) xatti-harakatlarga moyillik	-0.20	-0.15	0.48**	-0.05	0.50***

O‘smirlarning ijtimoiy maqbul javoblarga moyilligi va oiladagi psixologik muhit o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil shuni ko‘rsatdiki, ijobiy qiziqish va yo‘naltiruvchi yondashuv bilan bog‘liq bo‘lgan oila munosabatlari o‘smirlarni ijtimoiy jihatdan maqbul xatti-harakatlarga ko‘proq moyil qiladi. POZ bilan $r = 0.45$, $p < 0.01$ va DIR bilan $r = 0.35$, $p < 0.05$ bo‘lib, bu ijobiy psixologik muhit o‘smirlarda ijtimoiy qoidalarni hurmat qilish va ijtimoiy maqbul javoblarga rag‘batlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, dushmanlik (MOS) bilan korrelyatsiya manfiy bo‘lsa-da, statistik jihatdan sezilarli emas ($r = -0.20$), lekin bu tendensiya oiladagi salbiy munosabatlarning ijtimoiy maqbul xulqqa salbiy ta’sir qilishi mumkinligini anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qoidalar va me'yorlarni buzishga moyillik esa oiladagi yo'naltiruvchi yondashuvning yetishmasligi hamda dushmanlikning mavjudligi bilan kuchayadi. DIR bilan $r = -0.38$, $p < 0.01$ va MOS bilan $r = 0.40$, $p < 0.01$ bo'lib, shuni ko'rsatadiki, o'smirlar tartibsiz va dushmanona oilaviy muhitda qoidabuzarlik va me'yorlarga zid xatti-harakatlarga ko'proq moyil bo'ladilar. Nomuvofiqlik (NED) bilan korrelyatsiya ham sezilarli ($r = 0.30$, $p < 0.05$), bu oiladagi tartibsizlik va nizolar o'smirlarning destruktiv xulqini oshirishini ko'rsatadi.

Addiktiv xatti-harakatlarga moyillik dushmanlik va nomuvofiqlik bilan eng kuchli bog'lanadi. MOS bilan $r = 0.50$, $p < 0.001$ va NED bilan $r = 0.35$, $p < 0.01$ bo'lib, bu oiladagi salbiy psixologik muhit o'smirlarni qochish mexanizmi sifatida bog'liqlik xatti-harakatlariga yo'naltirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ijobiy qiziqish va yo'naltiruvchi yondashuv bu xatti-harakatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, ya'ni ijobiy oilaviy muhit bu yo'nalishda yetarli himoya vazifasini bajarmaydi.

O'z-o'zini shikastlash va o'ziga zarar yetkazish xatti-harakatlari esa avtonomiya bilan manfiy korrelyatsiyaga ega ($r = -0.30$, $p < 0.05$). Bu shuni ko'rsatadiki, oilada haddan tashqari nazorat yoki o'smirning shaxsiy mustaqilligi cheklanganda, u ichki stressni o'zini shikastlash orqali ifodalashga moyil bo'ladi. Dushmanlik va boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liqlik statistik jihatdan sezilarli emas, lekin tendensiya mavjud.

Tajovuz va zo'ravonlikka moyillik dushmanlik va nomuvofiqlik bilan juda kuchli korrelyatsiya qiladi (MOS $r = 0.55$, $p < 0.001$; NED $r = 0.40$, $p < 0.01$), bu oiladagi salbiy psixologik muhit o'smirlarni tashqi agressiv xatti-harakatlarga yo'naltirishini tasdiqlaydi. Avtonomiya va ijobiy qiziqish bilan korrelyatsiya esa sezilarli emas, bu shuni anglatadiki, o'smirlarning agressivligi ko'proq oilaviy munosabatlarning salbiyligi bilan bog'liq.

Hissiy reaksiyalarni irodaviy nazorat qilish ijobiy qiziqish va yo'naltiruvchilik bilan ijobiy bog'liq (POZ $r = 0.30$, $p < 0.05$; DIR $r = 0.42$, $p < 0.01$), bu esa ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi oilaviy muhit o'smirlarga hissiy nazoratni rivojlantirish imkonini beradi va ularni destruktiv xatti-harakatlardan himoya qiladi.

Delikvent xatti-harakatlarga moyillik esa dushmanlik va nomuvofiqlik bilan eng kuchli korrelyatsiya qiladi (MOS $r = 0.48$, $p < 0.01$; NED $r = 0.50$, $p < 0.001$), bu oila ichidagi psixologik zo'ravonlik o'smirlarning qonunbuzarlik va delikvent xulqini shakllantirishda asosiy omil ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, natijalar oiladagi psixologik zo'ravonlik va ijobiy yondashuvning o'smirlarning xulqini shakllantirishdagi markaziy rolini ochib beradi. Ijobiy qiziqish va yo'naltiruvchi yondashuv o'smirlarni ijtimoiy maqbul xatti-harakatlar va hissiy nazoratga yo'naltirsa, dushmanlik, nomuvofiqlik va haddan tashqari nazorat o'smirlarni destruktiv xulq, agressiya, qoidabuzarlik va delikvent xatti-harakatlarga moyil qiladi. Shu sababli oiladagi ijobiy psixologik muhitni shakllantirish va salbiy munosabatlarni kamaytirish o'smirlarning sog'lom rivojlanishi hamda destruktiv xulqdan himoyalanishida muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari oiladagi psixologik zo'ravonlik o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Dushmanlik, nomuvofiqlik va haddan tashqari nazorat agressiya, qoidabuzarlik va delikvent xatti-harakatlarning kuchayishiga olib keladi. O'g'illarda tashqi agressiv xulq ko'proq namoyon bo'lsa, qizlarda ichki destruktiv reaksiyalar, xususan, o'ziga zarar yetkazish holatlari yuqoriroq kuzatildi. Ijobiy qiziqish va qo'llab-quvvatlovchi oilaviy muhit esa o'smirlarning ijtimoiy maqbul xulqi va hissiy nazoratini rivojlantiradi. Shunday qilib, sog'lom oilaviy muhit destruktiv xulqning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Santrock J. W. Adolescence. – 16th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2019.
2. Berk L. E. Development Through the Lifespan. – 7th ed. – Boston: Pearson, 2018.
3. Siegel D. J. Brainstorm: The Power and Purpose of the Teenage Brain. – New York: TarcherPerigee, 2014.
4. Wolfe D. A., Crooks C. V., Lee V., McIntyre-Smith A., Jaffe P. The effects of children's exposure to domestic violence: A meta-analysis and critique // Clinical Child and Family Psychology Review. – 2003. – Vol. 6(3). – P. 171–187.
5. UNICEF. Hidden in Plain Sight: A Statistical Analysis of Violence against Children. – New York: UNICEF, 2014.

MAKTAB MASLAHATCHILARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Kazakova Saxiba Abdurayimovna
Kasbiy ta'lim agentligi huzuridagi
Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti direktori

Annotatsiya: Maqolada maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar, jumladan treninglar, mentorlik, simulyatsion mashqlar hamda raqamli vositalar tahlil qilinadi. Tadqiqot mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda amaliy tajribalariga tayanilgan holda olib borildi. Olingan natijalar maktab boshqaruvi samaradorligini oshirish, shuningdek, maktab maslahatchilarining kasbiy salohiyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: maktab maslahatchisi, boshqaruv kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, mentorlik, trening, simulyatsion mashqlar.

Abstract: The article examines modern technologies for developing the managerial competencies of school counselors, including training programs, mentoring, simulation-based exercises, and digital tools. The study is conducted based on the analysis of theoretical perspectives and practical experiences of local and international scholars. The findings are aimed at improving the effectiveness of school management and strengthening the professional capacity of school counselors.

Key words: school counselor, managerial competency, pedagogical technologies, mentoring, training, simulation exercises.

Аннотация: В статье анализируются современные технологии развития управленческих компетенций школьных консультантов, включая тренинги, наставничество, симуляционные упражнения и цифровые инструменты. Исследование проведено на основе анализа научных подходов и практического опыта отечественных и зарубежных ученых. Полученные результаты направлены на повышение эффективности школьного управления и укрепление профессионального потенциала школьных консультантов.

Ключевые слова: школьный консультант, управленческая компетенция, педагогические технологии, наставничество, тренинг, симуляционные упражнения.

KIRISH

Maktab maslahatchilari ta'lim jarayonida pedagogik va boshqaruv faoliyatining muhim subyekti hisoblanadi. Mahalliy olim N. T. Xolmatov ta'kidlashicha, "maktab maslahatchilari nafaqat maslahat beruvchilar, balki ta'lim muassasasining strategik rivojlanishini ta'minlovchi boshqaruv tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi"[1]. Ushbu fikrga to'liq qo'shilish mumkin, chunki zamonaviy ta'lim tizimida maslahatchilarning roli tobora kengayib bormoqda.

A. X. Rasulov o'z tadqiqotida maktab boshqaruvida strategik rejalashtirish masalalarini ko'rib chiqib, "maslahatchilarning boshqaruv kompetensiyalari yuqori bo'lsa, maktabdagi tashkiliy jarayonlar, jamoani boshqarish hamda qaror qabul qilish tezligi va sifati sezilarli darajada oshadi"[2], deb ta'kidlaydi. Muallif ushbu fikrni to'liq qo'llab-quvvatlaydi va mazkur tadqiqotda bu g'oyani yanada rivojlantirishga harakat qiladi.

1 Xolmatov N.T. Ta'lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlari. -- Toshkent: Fan va innovatsiya, 2021. -- B. 45.
2 Rasulov A.X. Maktab boshqaruvida strategik rejalashtirish asoslari // Xalq ta'limi. -- 2022. -- №4. -- B. 17.

Xorijiy tadqiqotchilar, xususan, Michael Fullan o‘zining “Leading in a Culture of Change” asarida ta’lim liderlarining o‘zgarishlar jarayonidagi rolini tahlil qilib, “samarali boshqaruv kompetensiyalari doimiy rivojlanish va kasbiy tayyorgarlik orqali shakllanadi” [3], deb yozadi. Ushbu yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda va O‘zbekiston sharoitida ham o‘z samarasini ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi. Hozirgi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari qatoriga ta’lim tizimining jadal modernizatsiyalanishi, yangi boshqaruv yondashuvlarining joriy etilishi hamda raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi kiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini tahlil qilish va ularni O‘zbekiston ta’lim amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish;
- mahalliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish;
- samarali texnologiyalarni aniqlash va tasniflash;
- ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy olimlar tajribasi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar maktab maslahatchilari faoliyatini turli jihatlardan o‘rganib kelganlar. N. T. Xolmatov “Ta’lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlari” nomli monografiyasida ta’lim muassasalarini boshqarishning konseptual asoslarini yoritgan. Muallif ushbu asarni asosiy nazariy manba sifatida qabul qiladi, chunki unda mahalliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari chuqur tahlil qilingan.

A. X. Rasulov strategik rejalashtirish masalalariga bag‘ishlangan maqolasida maktab maslahatchilari faoliyatini strategik boshqaruv kontekstida ko‘rib chiqqan. Uning ilmiy qarashlari amaliy jihatdan qimmatli bo‘lib, tadqiqotning amaliy qismini shakllantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

D. Sh. Qodirova maktab maslahatchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqqan[4]. Uning tadqiqoti maslahatchilar kompetensiyalari tuzilmasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, muallif fikricha, mazkur model texnologik jihatdan yanada boyitilishi hamda raqamli vositalar bilan to‘ldirilishi lozim.

Xorijiy olimlar tajribasi. Michael Fullan o‘zgarishlar jarayonida liderlik masalalarini chuqur o‘rganib, ta’lim rahbarlarining professional kapitalini shakllantirish zarurligini asoslagan. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, samarali liderlik faqat individual bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy hamda qaroriy kapital asosida shakllanadi. Muallif ushbu yondashuvni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi va uni O‘zbekiston ta’lim tizimida tatbiq etish zarurligini ta’kidlaydi.

Andy Hargreaves va Michael Fullan hammualliflikda yozgan “Professional Capital After the Pandemic” asarida pandemiyadan keyingi davrda ta’lim liderlarining rolini qayta ko‘rib chiqqanlar[5]. Ular professional hamjamiyatni mustahkamlash hamda o‘zaro ta’lim tizimini shakllantirish zarurligini alohida ta’kidlaydilar. Muallif ushbu g‘oyalarni muhim deb baholaydi, biroq ularni mahalliy sharoitga moslashtirishda qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini qayd etadi.

UNESCOning “Reimagining Our Futures Together” nomli hisobotida ta’limning kelajagi va yangi ijtimoiy shartnoma zaruriyati muhokama qilingan[6]. Ushbu hujjatda ta’lim rahbarlarining roli yangi talablar kontekstida qayta belgilangan. Muallif mazkur xalqaro yondashuvlarni hisobga olgan holda, mahalliy ta’lim tizimi uchun moslashtirilgan konseptual yechimlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

OECDning “Education Policy Outlook 2023” hisobotida ta’lim siyosatining zamonaviy tendensiyalari hamda boshqaruv tizimlarini modernizatsiyalash masalalari yoritilgan[7]. Ushbu hujjat xalqaro tajribalarni umumlashtirish va taqqoslash uchun muhim manba sifatida e’tirof etiladi.

3 Michael Fullan. Leading in a Culture of Change (Updated Edition). -- San Francisco: Jossey-Bass, 2020. -- P. 78.
4 Qodirova D.Sh. Maktab maslahatchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli // Pedagogik mahorat. -- 2023. -- №2. -- B. 36.
5 Andy Hargreaves & Michael Fullan. Professional Capital After the Pandemic. -- Thousand Oaks: Corwin Press, 2021. -- P. 112.
6 UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. -- Paris, 2021. -- P. 56.
7 OECD. Education Policy Outlook 2023: Shaping Responsive and Resilient Education in a Changing World. -- Paris: OECD Publishing, 2023. -- P. 89.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

1. **Nazariy tahlil metodi.** Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda dissertatsiyalar tahlil qilindi. Asosiy e'tibor boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalariga qaratildi.
2. **Qiyosiy (komparativ) tahlil.** Mahalliy va xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi mumkin bo'lgan yondashuvlar ajratib ko'rsatildi.
3. **Tizimli yondashuv.** Boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari yaxlit tizim sifatida qaraldi. Har bir texnologiyaning boshqalar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.
4. **Tasnif va umumlashtirish metodi.** Turli texnologiyalar turkumlarga ajratildi hamda ularning samaradorlik darajasi baholandi. Asosiy texnologiyalar treninglar, mentorlik, simulyatsion mashqlar, o'z-o'zini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalar sifatida tasniflandi.
5. **Hujjatli tahlil.** Xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD, UNICEF) hisobotlari, davlat ta'lim vazirliklarining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va dasturlari o'rganildi.

Tadqiqot manbalari:

- mahalliy olimlar (N. T. Xolmatov, A. X. Rasulov, D. Sh. Qodirova) asarlari;
- xorijiy tadqiqotchilar (M. Fullan, A. Hargreaves) monografiyalari;
- xalqaro tashkilotlarning hisobotlari;
- O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning beshta asosiy texnologiyasi aniqlandi va tahlil qilindi.

Treninglar va seminarlar. Maqsad: maslahatchilarning qaror qabul qilish, rahbarlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish.

Amaliy usullar:

1. Interaktiv mashg'ulotlar va guruh muhokamalari: ishtirokchilar real boshqaruv vaziyatlarini guruh muhokamasi orqali tahlil qiladi va optimal yechimlarni birgalikda izlaydi.
2. Vaziyatli o'yinlar (role-play): maslahatchilar turli rollarda (direktor, o'qituvchi, ota-ona) real vaziyatlarni modellashtiradi va boshqaruv ko'nikmalarini amaliy sinovdan o'tkazadi.
3. Case-study tahlili: real maktablardagi boshqaruv muammolari tahlil qilinadi va ularni hal etish yo'llari ishlab chiqiladi.

Natija: maslahatchilar samarali rahbarlik qiladi, pedagogik jamoada qarorlar tez va to'g'ri qabul qilinadi. N. T. Xolmatov ta'kidlashicha, "trening formatidagi ta'lim maslahatchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirishning eng samarali usuli hisoblanadi".

Mentorlik tizimi. Maqsad: tajribali maslahatchilar orqali yangi xodimlarni boshqaruv ko'nikmalari bilan tanishtirish[8].

Amaliy usullar:

1. Mentor–maslahatchi juftlik tizimi: har bir yangi maslahatchiga tajribali mentor biriktiriladi.
2. Amaliy mashg'ulotlarda tajriba almashish: mentor o'z ish tajribasini amaliy tarzda namoyish etadi va tushuntiradi.
3. Mentor nazorati ostida qaror qabul qilish: yangi maslahatchi mustaqil qarorlar qabul qiladi, biroq mentor tomonidan maslahat va tuzatishlar kiritiladi.

Natija: yangi maslahatchilar kasbiy va boshqaruv tajribasini tezroq egallaydi, xatolar kamayadi hamda boshqaruv samaradorligi oshadi. A. X. Rasulov fikricha, "mentorlik tizimi yangi kadrlarning professional moslashuvini 2–3 baravar tezlashtiradi"[9].

8 Xolmatov N.T. Ta'lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlari. -- Toshkent: Fan va innovatsiya, 2021. -- B. 67.
9 Rasulov A.X. Maktab boshqaruvida strategik rejalashtirish asoslari // Xalq ta'limi. -- 2022. -- №4. -- B. 19.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiya. Maqsad: maslahatchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va kamchiliklarini aniqlash orqali kompetensiyasini oshirish.

Amaliy usullar:

1. O‘z-o‘zini baholash testlari va kompetensiyalar diagnostikasi: maslahatchi o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam baholab boradi.
2. Haftalik va jarayoniy refleksiya yozuvlari: har hafta faoliyat natijalari tahlil qilinadi va xulosalar chiqariladi.
3. Shaxsiy rivojlanish rejasi: kompetensiyalar diagnostikasi asosida individual rivojlanish yo‘l xaritasi ishlab chiqiladi.

Natija: maslahatchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda shaxsiy va professional rivojlanishni tizimli ravishda olib boradi.

Simulyatsion va interaktiv texnologiyalar. Maqsad: maslahatchilarni real boshqaruv vaziyatlariga tayyorlash, qaror qabul qilish va inqirozli holatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Amaliy usullar:

1. Raqamli simulyatsiyalar: “school management simulation” dasturlari orqali virtual maktab muhitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish.
2. Vaziyatli o‘yinlar: “konfliktni hal qilish”, “jamoani boshqarish” kabi real vaziyatlarni modellashtirish.
3. Interaktiv onlayn mashg‘ulotlar va testlar: real vaqt rejimida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholash.

Natija: maslahatchilar real vaziyatlarda samarali harakat qilishni o‘rganadi, boshqaruv qarorlari tez va ishonchli bo‘ladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Maqsad: maslahatchilarni zamonaviy boshqaruv va pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirish, innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Amaliy usullar:

1. Onlayn seminarlar va vebinarlar: xalqaro ekspertlar bilan masofaviy muloqot orqali bilim almashish.
2. Multimedia taqdimotlar: zamonaviy boshqaruv usullarini vizual tarzda o‘rganish.
3. Innovatsion loyihalar: yangi boshqaruv yondashuvlarini amaliy sinovdan o‘tkazish va baholash.

Natija: maslahatchilar zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanadi va innovatsion boshqaruv amaliyotini joriy etadi.

1-jadval: **Boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari va ularning ta’siri**[10]

Texnologiya	Maqsad/ta’sir	Amaliy vositalar
Treninglar va seminarlar	Qaror qabul qilish, kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish	Interaktiv mashg‘ulotlar, role-play, case-study
Mentorlik tizimi	Tajriba orttirish, yangi kadrlarni tayyorlash	Tajribali maslahatchilar, juftlik tizimi
O‘z-o‘zini rivojlantirish	Refleksiya, kompetensiyalar diagnostikasi	O‘z-o‘zini baholash testlari, rivojlanish rejasi
Simulyatsion mashqlar	Real vaziyatlarni amaliy sinash	Raqamli simulyatsiyalar, vaziyatli o‘yinlar
Innovatsion texnologiyalar	Zamonaviy yondashuvlar, innovatsiyalarni joriy etish	Onlayn seminarlar, vebinarlar, multimedia

Olingan natijalarni tahlil qilish asosida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin.

Texnologiyalarning integratsiyasi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yuqorida sanab o‘tilgan texnologiyalar alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida qo‘llanilganda maksimal samaraga erishiladi. D. Sh. Qodirova ta’kidlashicha, “kompetensiyalarni rivojlantirishning tizimli yondashuvi turli usullarni kombinatsiyalash orqali amalga oshirilganda eng yaxshi natijalar beradi”[11]. Muallif ushbu fikrga to‘liq qo‘shiladi va quyidagi integratsiya modelini taklif etadi: trening → mentorlik → simulyatsiya → refleksiya → innovatsiya.

10 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan
11 Qodirova D.Sh. Maktab maslahatchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli // Pedagogik mahorat. -- 2023. -- №2. -- B. 37-38.

Xorijiy tajribalar bilan taqqoslash. Michael Fullan va Andy Hargreaves o‘z tadqiqotlarida professional kapitalni rivojlantirishning uch yo‘nalishini ajratib ko‘rsatganlar: insoniy kapital (individual bilim va ko‘nikmalar), ijtimoiy kapital (hamkorlik va muloqot) hamda qaroriy kapital (tizimli qarorlar). O‘zbekiston sharoitida ham ushbu uch yo‘nalishni muvozanatlashgan holda rivojlantirish zarur. Muallif fikricha, mahalliy ta’lim tizimida hozirgi paytda insoniy kapitalga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratilmoqda, biroq ijtimoiy va qaroriy kapitalning rivojlanishi yetarli darajada ta’minlanmaganligini ta’kidlash joiz.

Raqamli texnologiyalar roli. OECD hisobotlarida zamonaviy ta’lim tizimida raqamli kompetensiyalarning ahamiyati alohida ta’kidlangan. Simulyatsion mashqlar va onlayn ta’lim platformalari kabi raqamli vositalar maslahatchilarning boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, muallif fikricha, raqamli vositalar an’anaviy usullarni to‘liq almashtirishi emas, balki ularni to‘ldirishi lozim.

Mahalliy kontekstga moslashish. Xorijiy tajribalarni bevosita nusxalash maqsadga muvofiq emas. UNESCO tavsiyalariga ko‘ra, har bir mamlakat o‘z milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishi kerak. O‘zbekiston uchun ayniqsa muhim jihatlar quyidagilardan iborat:

- an’anaviy mentorlik madaniyatini saqlab qolish va rivojlantirish;
- jamoaviy faoliyatni mustahkamlash;
- respublika ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Amaliy joriy etish strategiyasi. Texnologiyalarni samarali joriy etish uchun quyidagi bosqichli yondashuvni taklif etish mumkin:

1) pilot loyihalar – bir nechta maktabda texnologiyalarni sinov rejimida joriy etish;
2) monitoring va baholash – olingan natijalarni muntazam tahlil qilish;
3) kengaytirish – muvaffaqiyatli tajribalarni boshqa maktablarga tatbiq etish;
4) institutsionalizatsiya – samarali texnologiyalarni ta’lim tizimining doimiy tarkibiy qismiga aylantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini tizimli tahlil qilishga bag‘ishlandi. Mahalliy va xorijiy olimlar tajribasiga tayanilgan holda quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, beshta asosiy texnologiya aniqlandi: treninglar va seminarlar, mentorlik tizimi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, simulyatsion mashqlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Ularning har biri mustaqil ahamiyatga ega bo‘lsa-da, o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilganda maksimal samaradorlikni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, mahalliy olimlar (N. T. Xolmatov, A. X. Rasulov, D. Sh. Qodirova) hamda xorijiy tadqiqotchilar (M. Fullan, A. Hargreaves) ilmiy qarashlari bir-birini to‘ldiradi va O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun qimmatli amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, texnologiyalarni joriy etishda tizimli va bosqichli yondashuvni qo‘llash zarur. Xorijiy tajribalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxalash emas, balki ularni mahalliy kontekstga moslashtirgan holda tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalar an’anaviy usullarni to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llanilishi lozim bo‘lib, ularni to‘liq almashtiruvchi mexanizm sifatida qaralmasligi kerak.

Amaliy tavsiyalar:

1. **Texnologiyalarni yaxlit tizim sifatida joriy etish:** alohida texnologiyalarni qo‘llashdan ko‘ra, ularning integratsiyalashgan tizimi samaraliroq natija beradi.
2. **Mentorlik tizimini institutsionalizatsiya qilish:** O‘zbekiston ta’lim madaniyatida an’anaviy bo‘lgan ustoz–shogird munosabatlarini zamonaviy mentorlik tizimiga aylantirish.
3. **Raqamli platformalarni rivojlantirish:** maktab maslahatchilari uchun maxsus onlayn ta’lim platformalari va simulyatsion dasturlarni yaratish.
4. **Doimiy monitoring tizimini joriy etish:** qo‘llanilayotgan texnologiyalarning samaradorligini muntazam baholash va zarur hollarda tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

Mazkur texnologiyalar O‘zbekiston maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini tizimli va samarali rivojlantirish imkonini beradi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu texnologiyalarning har birini chuqurroq o‘rganish hamda ularning amaliy samaradorligini eksperimental yo‘l bilan tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 5712-son Farmoni. 29-aprel 2019-yil.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
3. Xolmatov N. T. Ta’lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlari. – Toshkent: Fan va innovatsiya, 2021.
4. Rasulov A. X. Maktab boshqaruvida strategik rejalashtirish asoslari // Xalq ta’limi. – 2022. – № 4. – B. 15–22.
5. Qodirova D. Sh. Maktab maslahatchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli // Pedagogik mahorat. – 2023. – № 2. – B. 34–40.
6. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris, 2021.
7. OECD. Education Policy Outlook 2023: Shaping Responsive and Resilient Education in a Changing World. – Paris: OECD Publishing, 2023.
8. Fullan M. Leading in a Culture of Change (Updated Edition). – San Francisco: Jossey-Bass, 2020.
9. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital After the Pandemic. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2021.
10. UNICEF. Strategic Education Plan 2022–2025. – New York, 2022.
11. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2023.

KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARIDA ONGLI INTIZOMNI TARBIYALASHNING SAMARALI USULLARI

Ziyayev Adxamjon
Qo'qon davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni shakllantirishning pedagogik, psixologik va tarbiyaviy jihatlari ilmiy asosda yoritilgan. Intizomning ijtimoiy ahamiyati hamda o'quv jarayonida tartib-qoidalarga ongli rioya etishning o'quvchi shaxsiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda amaliyotda samaradorligi isbotlangan usullar – rag'batlantirish, o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, sinf muhitini boshqarish, refleksiya va hamkorlik pedagogikasidan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ongli intizom, kichik maktab yoshi, tarbiya, rag'batlantirish, o'zini o'zi boshqarish, hamkorlik pedagogikasi.

Abstract: This article examines the pedagogical, psychological, and educational aspects of developing conscious discipline in primary school students. The social significance of discipline and the impact of conscious adherence to classroom rules on students' personal development are analytically explored. The study highlights evidence-based and effective educational practices, including positive reinforcement, the development of self-regulation skills, classroom environment management, reflective practices, and cooperative learning approaches.

Key words: conscious discipline, primary school students, education, positive reinforcement, self-regulation, cooperative learning.

Аннотация: В статье научно рассматриваются педагогические, психологические и воспитательные аспекты формирования сознательной дисциплины у младших школьников. Проанализировано социальное значение дисциплины, а также влияние осознанного соблюдения правил учебного процесса на личностное развитие обучающихся. В работе представлены эффективные методы воспитательной практики, доказавшие свою результативность: поощрение, развитие навыков саморегуляции, управление классной средой, рефлексия и технологии педагогического сотрудничества.

Ключевые слова: сознательная дисциплина, младший школьный возраст, воспитание, поощрение, саморегуляция, педагогика сотрудничества.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va axborot oqimining kuchayishi sharoitida maktab o'quvchisidan nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, o'zini boshqarish hamda ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlar ham talab etiladi. Shu jihatdan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ongli intizomni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik maktab yoshi – bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda unda xulq-atvor me'yorlari, axloqiy qadriyatlar, jamoada o'zini tutish madaniyati hamda o'z faoliyatini boshqarish ko'nikmalari tarkib topadi. Agar mazkur bosqichda intizom majburlash yoki qo'rquv asosida emas, balki ongli ravishda, ichki ehtiyoj va motivatsiya negizida shakllantirilsa, u barqaror shaxsiy sifatga aylanadi.

Ongli intizom – bu o'quvchining tashqi nazoratsiz ham qoidalarga amal qilishi, o'z xatti-harakatlari oqibatini anglab yetishi hamda ijtimoiy talablarni ichki e'tiqod sifatida qabul qilishi demakdir. Bunday sifatni shakllantirish pedagogdan yuqori kasbiy mahorat, chuqur psixologik bilim va tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil etishni talab etadi.

Davlatimiz ta'lim siyosatida ham tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'lim sifatini oshirish, mas'uliyatli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash g'oyalari ushbu masalaning strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Kichik maktab yoshi o‘quvchilari shaxs rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda ularning aqliy, emotsional va ijtimoiy sifatlari jadal shakllanadi. Shu bois intizom va xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirish, ijtimoiy tajribani egallash jarayonida o‘quvchi mustaqil ravishda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘zini boshqarish hamda o‘z xatti-harakatlari oqibatini anglashga o‘rganishi zarur.

Odatda intizom tushunchasi “tartib” yoki “qoidabozlik” bilan bog‘lanadi. Aslida esa ongli intizom – o‘quvchining ichki ehtiyoji, qoidalarga ongli ravishda amal qilishga bo‘lgan ichki motivatsiyasidir. Shu sababli zamonaviy pedagogika fani intizomni majburlash orqali emas, balki ongli, ijobiy va barqaror xarakter sifatida tarbiyalashni ilgari suradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ongli intizomni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur muammo shaxs tarbiyasi, ijtimoiylashuv jarayoni hamda ta’lim samaradorligi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilgan.

Avvalo, Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”, degan fikr jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko‘rsatib o‘tiladi [1, 15-b.]. Ushbu yondashuv ta’lim tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarda intizom va mas’uliyatni erta yoshdan shakllantirish zaruratini asoslaydi.

A.N. Ziyayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, intizomni tabiiy ravishda mustahkamlashi qayd etilgan [2, 145-b.]. Muallifning fikricha, o‘quv jarayonida o‘quvchini faol subyektga aylantirish uning ichki mas’uliyat hissini kuchaytiradi va ongli intizomni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, A. Ziyayevning estetik tarbiya masalalariga bag‘ishlangan ishida mutafakkirlar qarashlari asosida o‘quvchilarda axloqiy me’yorlarni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan [3, 67-b.]. Muallif intizomni axloqiy ong bilan bog‘lab, uning ichki e’tiqod darajasiga ko‘tarilishi zarurligini ta’kidlaydi.

A.N. Ziyayevning sinf rahbarining faoliyat yo‘nalishlariga bag‘ishlangan tadqiqotida o‘quvchilarda mustaqil hayot uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirishda intizomiy tarbiya asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi [4, 954-b.]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tizimli tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarda o‘zini boshqarish va javobgarlik sifatlarini rivojlantiradi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga oid ilmiy ishda ham intizom masalasi shaxsning o‘zini nazorat qilishi va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat yuritishi bilan bog‘liq holda izohlanadi [5, 852-b.]. Muallif intizomni kundalik faoliyatni rejalashtirish va unga rioya qilish bilan uzviy aloqada talqin etadi.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlar asosida fuqaroni tarbiyalash masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotda intizom ijtimoiy ong va fuqarolik pozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida yoritilgan [6, 79-b.]. Muallifning fikricha, milliy qadriyatlar asosida shakllangan intizom barqaror va ongli xulq-atvorni ta’minlaydi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, ongli intizomni shakllantirish masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, u pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar uyg‘unligida amalga oshiriladi. Ilmiy manbalarda rag‘batlantirish, interaktiv metodlar, hamkorlik pedagogikasi, shaxsiy namuna va refleksiya kabi usullar eng samarali vositalar sifatida e’tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ongli intizomni tarbiyalash jarayonini o‘rganish maqsadida bir qator empirik va nazariy metodlardan foydalanildi. Ma’lumotlar pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa va diagnostik topshiriqlar orqali to‘plandi. Kuzatuv usuli yordamida o‘quvchilarning dars jarayonidagi xulq-atvori, qoidalarga rioya etish darajasi va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari tahlil qilindi. Suhbat va anketa metodlari orqali o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarning ongli intizomga munosabati, rag‘batlantirish va tarbiyaviy usullarning samaradorligi haqida ma’lumotlar olindi.

Tadqiqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar qiyosiy-tahliliy va tavsifiy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, mavjud holat bilan taklif etilgan yondashuvlar natijalari solishtirildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, ongli intizomni shakllantirishda samarali pedagogik usullar aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ongli intizom – bu o‘quvchining o‘z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishi, qoida va talablarni ongli ravishda qabul qilishi hamda ularni bajarish mohiyatini tushungan holda amalga oshirishi demakdir.

Kichik maktab yoshida bolalarning:

- irodaviy sifatlari endigina shakllanadi;

- emotsional boshqaruv qobiliyati nisbatan kuchsiz bo‘ladi;
- tashqi motivatsiya (maqtov, rag‘bat) kuchli rol o‘ynaydi;
- mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari sust bo‘ladi.

Shu bois ushbu davr ongli intizomni tarbiyalash uchun eng qulay davr sanaladi. To‘g‘ri tanlangan usullar o‘quvchilarda mas’uliyat, o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda ijobiy ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga zamin yaratadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ongli intizomni shakllantirish jarayoni psixologik qonuniyatlarga tayangan holda tashkil etilishi zarur. Chunki bu davrda bolaning xulq-atvori, irodaviy sifatlari va emotsional barqarorligi to‘liq shakllanib ulgurmagan bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyaviy ta’sir usullari ularning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda olib borilishi lozim.

Kichik maktab yoshida taqlid qilish tabiiy va kuchli mexanizm hisoblanadi. Bolalar kattalarning, ayniqsa o‘qituvchi va ota-onaning xatti-harakati, nutqi hamda munosabat uslubini kuzatadi va ongli yoki ongsiz ravishda takrorlaydi. O‘qituvchining intizomli, madaniyatli va hurmatga asoslangan muomalasi o‘quvchilar ongida namuna sifatida mustahkamlanadi. Shaxsiy namuna orqali berilgan tarbiyaviy ta’sir og‘zaki talabdan ko‘ra samaraliroq natija beradi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar hissiy jihatdan sezgir bo‘lgani sababli emotsional muhit intizom shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Qattiq tanbeh, keskin tanqid yoki jazoga asoslangan yondashuv ko‘pincha qo‘rquv va ichki qarshilikni yuzaga keltiradi. Ijobiy emotsional muloqot, qo‘llab-quvvatlash va samimiy munosabat esa bolada ishonch hamda ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Mehrga asoslangan talabchanlik qoidalarni ongli ravishda qabul qilishga yordam beradi.

Ongli intizom faoliyat jarayonida yanada barqaror shakllanadi. O‘yin, jamoaviy ishlar va kichik loyihalarda qatnashish orqali o‘quvchi qoidalarga amal qilish umumiy natijaga erishishning zarur sharti ekanini anglaydi. Qoidalar shunchaki cheklov emas, balki muvaffaqiyat omili sifatida idrok etila boshlaydi. Shu tariqa intizom tashqi nazorat mahsuli emas, balki ichki ehtiyojga aylanadi.

Rag‘batlantirish kichik maktab yoshida ayniqsa samarali vosita hisoblanadi. Maqtov, e’tirof va ijobiy baholash o‘quvchining to‘g‘ri xulq-atvorini mustahkamlaydi hamda uni takrorlash istagini kuchaytiradi. Tanqiddan ko‘ra ijobiy mustahkamlash bolada o‘ziga ishonchni oshiradi va intizomni ichki qadriyat sifatida qabul qilishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa psixologik qonuniyatlarga asoslangan, ijobiy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv kichik yoshdagi o‘quvchilarda ongli intizomni samarali shakllantirish imkonini beradi.

Amaliyotda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ongli intizomni shakllantirishga xizmat qiluvchi bir qator samarali metodlar mavjud bo‘lib, ular pedagogik tajribada o‘z natijasini ko‘rsatgan. Ushbu usullar o‘quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytirish, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ijobiy sinf muhitini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Rag‘batlantirish va ijobiy mustahkamlash usuli o‘quvchining to‘g‘ri xulq-atvorini tan olish va uni baholashga asoslanadi. Maqtov, kichik sovg‘alar, belgilar, yulduzchalar tizimi yoki “eng namunali o‘quvchi” kabi e’tirof shakllari bolada ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi va to‘g‘ri xulqni takrorlash istagini kuchaytiradi. Natijada o‘quvchi intizomni tashqi talab emas, balki shaxsiy muvaffaqiyat omili sifatida qabul qila boshlaydi. Ijobiy mustahkamlash kichik yoshda ayniqsa samarali bo‘lib, barqaror xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.

Qoidalarni birgalikda ishlab chiqish ham ongli intizomni mustahkamlovchi muhim metodlardan biridir. Agar o‘qituvchi qoidalarni tayyor ko‘rinishda taqdim etish o‘rniga ularni bolalar bilan muhokama asosida shakllantirsa, o‘quvchilarda egalik hissi va jamoaviy mas’uliyat paydo bo‘ladi. Bunday jarayonda o‘quvchilar qoidalarni o‘zlari qabul qilgan me’yor sifatida idrok etadi va ularga rioya qilishga ongli ravishda harakat qiladi. Ushbu yondashuv demokratik tarbiya tamoyillariga mos keladi va ijtimoiylashuv jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish ongli intizomning asosiy mezoni hisoblanadi. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, navbat kutish, his-tuyg‘ularni nazorat qilish, mustaqil qaror qabul qilish va maqsad qo‘yish kabi ko‘nikmalar o‘quvchining ichki nazorat mexanizmini rivojlantiradi. Reflektiv savollar orqali o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qilishga va xatti-harakatlariga baho berishga o‘rganadi. Bu jarayon ongli nazoratni mustahkamlab, intizomning ichki ehtiyojga aylanishiga yordam beradi.

Sinf muhitini to‘g‘ri tashkil etish ham muhim omildir. Ijobiy psixologik muhit yaratilgan sinfda nizolar kamayadi, o‘quvchilarning darsga qiziqishi ortadi va o‘zaro hurmat kuchayadi. Kundalik tartibning barqarorligi, aniq talablar, shaxsga emas, xulqqa baho berish hamda yumshoq, ammo qat’iy talabchanlik intizomni barqarorlashtiradi. Bunday muhitda o‘quvchi o‘zini xavfsiz va qadrlangan his qiladi, bu esa ongli xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlaydi.

Refleksiya jarayoni intizomning ongli shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Dars oxirida o‘tkaziladigan qisqa tahlil o‘quvchiga o‘z xatti-harakatlarini baholash, muvaffaqiyat va kamchiliklarini anglash imkonini

beradi. O‘z faoliyatini tahlil qilishga o‘rgangan bola asta-sekin ichki nazorat mexanizmini rivojlantiradi va intizomiy xatti-harakatlarni mustaqil boshqarishga intiladi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni ham ongli intizomni tabiiy ravishda mustahkamlaydi. Jamoaviy topshiriqlar, juftlikda ishlash va kichik guruh loyihalari o‘quvchilarda mas’uliyat, o‘zaro yordam, tizimli fikrlash va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Bunday faoliyat jarayonida har bir o‘quvchi umumiy natijaga javobgar ekanini his qiladi, bu esa intizomni ichki zarurat sifatida qabul qilishiga olib keladi [3].

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda intizom buzilishining sabablari ko‘pincha psixologik ehtiyojlarning qondirilmasligi, qoidalarning tushunarsizligi, haddan tashqari qattiqqo‘llik, faol harakat va o‘yinga bo‘lgan yuqori ehtiyoj hamda o‘qituvchi bilan emotsional aloqa yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli yuqorida ko‘rsatilgan metodlar mazkur muammolarga mos pedagogik yechim sifatida samarali qo‘llanadi.

Nazorat sinflarida mazkur yondashuvlar tatbiq etilgach, dars jarayonidagi tartibsizliklar sezilarli darajada kamaygani, o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishi ortgani, o‘z fikrini madaniyatli ifodalash ko‘nikmalari shakllangani hamda mas’uliyatli munosabat kuchaygani kuzatilgan. Bu esa usullarning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Kichik maktab yoshi ongli intizomni shakllantirish uchun eng qulay va sezgir davr hisoblanadi. Pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish orqali o‘qituvchi mas’uliyatli, o‘zini boshqara oladigan, ijtimoiy faol va ijobiy xulq-atvorga ega o‘quvchi shaxsini tarbiyalashi mumkin. Tadqiqot natijalari rag‘batlantirish, refleksiya, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, sinf muhitini boshqarish hamda hamkorlikka asoslangan yondashuvlar ongli intizomni shakllantirishda eng samarali vositalar ekanini ko‘rsatadi [3]. Ushbu metodlarning kompleks qo‘llanilishi ta’lim-tarbiya sifatini oshiradi hamda o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ongli intizomni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim va ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu davr shaxs rivojlanishining eng sezgir bosqichi bo‘lib, aynan shu paytda xulq-atvor me’yorlari, irodaviy sifatlar, o‘zini boshqarish va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Shuning uchun intizomni majburlash yoki jazoga asoslangan usullar orqali emas, balki ongli, ijobiy va ichki motivatsiyaga tayangan holda tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, rag‘batlantirish va ijobiy mustahkamlash, qoidalarni birgalikda ishlab chiqish, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijobiy sinf muhitini yaratish, refleksiya hamda hamkorlik pedagogikasi ongli intizomni shakllantirishda samarali natija beradi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchida ichki nazorat mexanizmini rivojlantirib, intizomni shaxsiy qadriyat darajasiga ko‘taradi. Shuningdek, psixologik qonuniyatlarga asoslangan, yosh xususiyatlarini hisobga olgan va emotsional qo‘llab-quvvatlashga tayangan pedagogik jarayon barqaror natijalarni ta’minlaydi. Intizomni ongli ravishda qabul qilgan o‘quvchi nafaqat dars jarayonida tartibli bo‘ladi, balki kundalik hayotida ham mas’uliyatli, o‘zini boshqara oladigan va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Ş. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston” nashriyoti / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017.
2. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. “Правила использования интерактивных методов обучения.” Conferencea (2023): 143-148.
3. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. “Педагогические аспекты использования мыслей мыслителей в эстетическом воспитании учащихся.” E Conference Zone. 2023.
4. Ziyayev, A. N. “The Main Areas Of Activity Of The Class Leader In The Education Of The Necessary Skills For An Independent Life In Students.” Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 953-956.
5. Ziyayev, A. N. “Some Issues Of The Formation Of Skills Of A Healthy Lifestyle In Students In The Process Of Labor Education.” Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 851-853.
6. Зияев, Адхам Нисолмухамматович. “Роль национальных ценностей в воспитании гражданина.” Ученый XXI века (2017): 78

LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPT TUSHUNCHASINING NAZARIY TALQINI

Jo'rayeva Nozima Nozim qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda keng qo'llanilayotgan konsept tushunchasi va uning lingvokulturologiyadagi talqini o'zbek, rus va ingliz tilshunoslarining ilmiy tadqiqotlari asosida yoritiladi. Konsept atamasining kelib chiqishi, tilshunoslikda dastlab qo'llanilishi hamda bugungi kundagi nazariy va amaliy vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda konsept til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalovchi asosiy kategoriya sifatida ko'rib chiqilib, uning inson tafakkuri, madaniy qadriyatlari va milliy dunyoqarash bilan aloqasi ochib beriladi. Shuningdek, konsept tushunchasining lingvokulturologiya bilan bir qatorda psixolingvistika sohasidagi o'rni ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, konsept inson ongida predmet va hodisalarning nomlanishi hamda ularning mental tasavvuri bilan bevosita bog'liq ekani aniqlanadi. Ushbu tadqiqot kelgusida "vaqt" konseptini o'rganish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, paradigma, semantika, mental birlik, konsept, stereotip, aspekt, pragmalingvistika, psixolingvistika.

Abstract: This article examines the concept of concept, which is widely used in modern linguistics, and its interpretation within the framework of linguoculturology based on studies by Uzbek, Russian, and English-speaking scholars. The origin of the term, its initial application in linguistics, and its current theoretical and practical functions are analyzed. The study presents the concept as a key category that reflects the close relationship between language and culture, emphasizing its connection with human cognition, cultural values, and national worldview. In addition, the role of the concept is discussed not only in linguoculturology but also in psycholinguistics. The findings indicate that the concept is directly related to the process of naming objects and phenomena of reality and their mental representation in human consciousness. The results of this study provide a theoretical foundation for further research on the concept of "time".

Key words: linguoculturology, paradigm, semantics, mental unit, concept, stereotype, aspect, pragmalinguistics, psycholinguistics.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие концепт, широко используемое в современном языкознании, а также особенности его интерпретации в лингвокультурологии на основе исследований узбекских, русских и англоязычных ученых. Анализируются происхождение термина "концепт", его первоначальное употребление в лингвистике и современные теоретические и прикладные функции. В исследовании концепт представлен как ключевая категория, отражающая взаимосвязь языка и культуры, а также его связь с мышлением человека, культурными ценностями и национальной картиной мира. Особое внимание уделяется использованию понятия концепта не только в лингвокультурологии, но и в психолингвистике. В результате исследования установлено, что концепт связан с процессом наименования предметов и явлений действительности и их ментальным представлением в сознании человека. Полученные выводы могут служить теоретической основой для дальнейшего изучения концепта "время".

Ключевые слова: лингвокультурология, парадигма, семантика, ментальная единица, концепт, стереотип, аспект, прагмалингвистика, психолингвистика.

KIRISH

So'nggi yillarda til faqatgina aloqa vositasi emas, balki inson madaniyati, onggi, tafakkuri va g'oyasini o'zida aks ettiruvchi murakkab birlik sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat tilshunoslikda antropotsentrik paradigma ustuvor yo'nalishining yangi tadqiqot obyektiga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda "konsept" tushunchasi lingvistik kuzatuvlarda asosiy kategoriyalardan biri sifatida muhim o'rin kasb etadi[1].

1 Maslova, V.A. (2001). Lingvokulturologiya va lingvistik madaniyat. Moskva: Akademiya.

Konsept nafaqat alohida bir insonning tafakkuri va g'oyasini, balki butun bir xalqning tarixi, stereotiplari hamda tarixiy tajribalarini o'zida mujassamlashtiruvchi keng tushunchadir[2]. Shu jihatdan konseptni o'rganish til va madaniyat integratsiyasi bilan bir qatorda til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni yoritishda ham muhim rol o'ynaydi[3].

Til va madaniyat integratsiyasi esa tilshunoslikda lingvokulturologiya bo'limining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Ayniqsa, muayyan universal tushunchalarning (masalan, vaqt, hayot, muhabbat, erkinlik) turli madaniy muhitlarda qanday aks etishini aniqlash lingvokulturologiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir[4]. Shu nuqtai nazardan, konsept nazariyasining metodologik asoslarini aniqlash va uning lingvokulturologik tadqiqotlardagi o'rnini belgilash ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Lingvokulturologiyada konseptning o'rni madaniy mazmunni til orqali shakllantiruvchi asosiy mental tuzilmaning strukturasi doirasida namoyon bo'ladi[5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

V.A. Maslova, Yu.S. Stepanov va A. Wierzbicka konsept masalasi yuzasidan izlanishlar olib borgan bo'lib, ularning har birida ushbu tushuncha turlicha tahlil qilingan[6]. Ular konseptni faqatgina ma'no bilan cheklanmagan, balki baholash, emotsional munosabat hamda madaniy stereotiplarni ham o'z ichiga oluvchi murakkab semantik tuzilma sifatida talqin etganlar.

Konseptning quyidagi jihatlari lingvokulturologiyada tahlil qilinadi:

- konsept va uning xususiyatlari;
- lingvistikada ishlatilishi va ahamiyati;
- qiyosiy aspektdagi farqli va o'xshash jihatlari[7].

Konseptlarni o'rganishda asosiy manba maqol va matallar hisoblanadi, chunki ular bir xalqning milliy qadriyatlari va tarixini o'zida mujassamlashtiradi. Bu holat konseptning lingvokulturologiyaning metodologik ahamiyatini o'zida birlashtirgan milliy mentalitetning asosiy bo'g'ini ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi, avvalo, konsept tushunchasini izohlash va aynan lingvokulturologiyada uning o'rni haqida nazariy jihatdan tahlil qilish, shu bilan birga uning ilmiy kategoriyaviy maqomini aniqlashdan iborat. Qolaversa, konseptning mental, semantik va tarkibiy qismlarini asoslab berish hamda ularni tadqiq etishda metodologik ko'rsatmalarni ko'rsatish mazkur ishning vazifalaridan hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida ingliz va o'zbek maqollarida vaqt konseptining lingvokulturologik tahlilini o'rganishda nazariy vosita bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar asosan ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, lug'atlar va konseptga oid nazariy manbalar asosida yig'ildi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. O'zbek, rus va ingliz tilshunoslarining qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, konsept tushunchasining til va madaniyat bilan bog'liqligi aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirish va tahliliy yondashuv asosida izohlandi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Insonning ongidagi ruhiy va aqliy manbalarning uning bilimi va malakasida namoyon bo'lishida muhim rol o'ynaydigan tushuncha bu konseptdir", deya ta'rif beriladi Kognitiv atamalar lug'atida[8]. Aslida konsept so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, conseptus – "tushuncha" degan ma'noni bildiradi. Ushbu atama birinchi marta rus olimi Askoldovning maqolasida 1928-yilda qo'llanilgan bo'lib, unda olim bu so'zni turlararo tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida mujassamlashtirgan til birligi sifatida talqin qilgan[9].

2 Stepanov, Yu.S. (1994). Kognitiv linguistics: Issledovaniya i problemy. Moskva: Nauka.
3 Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures Through Their Key Words. New York: Oxford University Press.
4 Cheyf, H., Jakentov, D., & Lakoff, G. (1980). Conceptual Structure and Cognitive Processes. Cambridge: Cambridge University Press.
5 Maslova, V.A. (2001). Lingvokulturologiya va lingvistik madaniyat. Moskva: Akademiya.
6 Maslova, V.A. (2001); Stepanov, Yu.S. (1994); Wierzbicka, A. (1997).
7 Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures Through Their Key Words. New York: Oxford University Press.
8 Kognitiv atamalar lug'ati (2003). Moskva: Vysshaya Shkola.
9 Askaldov, I. (1928). O voprosakh mezhdunarodnykh ponyatiy i ih lingvisticheskogo issledovaniya. Moskva: Nauka.

Keyinchalik konsept tushunchasi ko'plab ilmiy maqolalarning asosiy mavzusiga aylana boshladi. Chunki ushbu tushuncha 1970-yillarga kelib javobi aniq bo'lmagan ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ldi. Shundan so'ng tilshunoslar bu atama haqida turli izoh va talqinlarni o'zida aks ettirgan ilmiy maqolalar hamda qo'lyozmalarni yaratishni boshladilar. 1980-yillarda ingliz olimlari Cheyf, Jakentov va Lakoff o'z tadqiqotlarida konseptual mohiyat hamda konseptualizatsiya atamalarini ilmiy muomalaga kiritdilar[10]. Ularning qarashlariga ko'ra, konsept amaliy falsafa, mantiqiy kategoriya va milliy mentalitetni shakllantiruvchi asosiy birlik sifatida talqin etiladi.

Mashhur rus tilshunosi V.A. Maslova ham konsept masalasiga doir o'z qarashlari va mulohazalarini ilgari surgan. Uning fikricha, konsept lingvomadaniyatning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, etnomadaniyatni tavsiflovchi tuzilmaviy birlik vazifasini bajaradi. Chet el olimlari bilan bir qatorda o'zbek tilshunoslari ham mazkur sohada bir qator ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, kognitiv tadqiqotlar muallifi va pragmalingvistika asoschisi Sh. Safarov konseptni insonning dunyoni idrok etishi jarayonida moddiy olamda paydo bo'layotgan hodisalar haqidagi tushunchalarning shakllanishi va ularning nomlanishi bilan bevosita bog'liq holda izohlaydi[11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mazkur mavzu turli sohalarda turlicha tadqiq etiladi. Shunga ko'ra, uning har bir yo'nalishda o'ziga xos vazifa va yo'nalishlari mavjud. Asosan psixolingvistika va lingvokulturologiya doirasida o'rganilib, ushbu sohalarning birida konsept ruhiy kechinmalar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisida milliylik va mentalitet bilan aloqador tushuncha sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, lingvokulturologiyada konsept obrazli tasavvur orqali namoyon bo'ladi.

Mentalitet va milliylik avvalo tasavvurda shakllanib, keyinchalik reallikda predmetga ko'chadigan hodisa sifatida konsept orqali ifodalanadi. Bu jarayon har bir insonning ruhiy va aqliy qobiliyatidan kelib chiqib sodir bo'ladi. Masalan, gul bir kishi uchun go'zallik timsoli sifatida atirgul bilan bog'lanishi mumkin bo'lsa, boshqa bir kishi uchun esa lola obrazi bilan ifodalanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, konsept tafakkur birligi bo'lib, uning asosida obrazni jonlantirish jarayoni yotadi.

Demak, konsept inson miyasida muayyan hodisaning gavdalanishidan tortib, uning reallikka ko'chishi bilan yakunlanadigan murakkab jarayon natijasidir. Mazkur nazariy xulosalar konseptlarni qiyosiy va lingvokulturologik jihatdan o'rganish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda keyingi tadqiqotlarda "vaqt" konseptining ingliz va o'zbek maqollaridagi ifodasini tahlil qilishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maslova, V.A. (2001). Lingvokulturologiya va lingvistik madaniyat. Moskva: Akademiya.
2. Stepanov, Yu.S. (1994). Kognitiv linguistics: Issledovaniya i problemy. Moskva: Nauka.
3. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures Through Their Key Words. New York: Oxford University Press.
4. Cheyf, H., Jakentov, D., & Lakoff, G. (1980). Conceptual Structure and Cognitive Processes. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Maslova, V.A. (2001). Lingvokulturologiya va lingvistik madaniyat. Moskva: Akademiya.
6. Maslova, V.A. (2001); Stepanov, Yu.S. (1994); Wierzbicka, A. (1997).
7. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures Through Their Key Words. New York: Oxford University Press.
8. Kognitiv atamalar lug'ati. (2003). Moskva: Vysshaya Shkola.
9. Askaldov, I. (1928). O voprosakh mezhdunarodnykh ponyatiy i ikh lingvisticheskogo issledovaniya. Moskva: Nauka.
10. Cheyf, H., Jakentov, D., & Lakoff, G. (1980). Conceptual Structure and Cognitive Processes. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Safarov, Sh. (2005). Kognitiv linguistika va pragmalingvistika asoslari. Toshkent: Fan.

10 Cheyf, H., Jakentov, D., & Lakoff, G. (1980). Conceptual Structure and Cognitive Processes. Cambridge: Cambridge University Press.
11 Safarov, Sh. (2005). Kognitiv linguistika va pragmaligvistika asoslari. Toshkent: Fan.

SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDA VOLEYBOLCHILARNING SAKRASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti stajor-o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada yuqori malakali voleybolchilarda sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida yoritilgan. Sakrovchanlik hozirgi kunda hujum va himoya harakatlarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi yetakchi jismoniy sifat sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sport takomillashuvi bosqichidagi voleybolchilarning sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulot texnologiyasini ishlab chiqish va uni tajriba asosida asoslab berishdan iborat bo'ldi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik manbalarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik testlash, tajriba-sinov mashg'ulotlari hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Natijada mashg'ulot jarayoniga integratsiyalashgan plyometrik, kuch va tezkor-kuch mashqlar majmuasini o'z ichiga olgan texnologiya ishlab chiqildi. O'tkazilgan pedagogik tajribalar joydan va yugurib kelib yuqoriga sakrash ko'rsatkichlarining ishonchli darajada ($p < 0,05$) oshganini, shuningdek, hujum va bloklash harakatlarining samaradorligi yaxshilanganini tasdiqladi. Shunday qilib, ishlab chiqilgan texnologiyani yuqori malakali voleybolchilarning mashg'ulot jarayonida qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: voleybol, sakrovchanlik, pliometrika, tezkor-kuch sifatlari, sport takomillashuvi bosqichi, mashg'ulot texnologiyasi.

Abstract: The article examines the issue of increasing the effectiveness of developing jumping ability in highly skilled volleyball players as a relevant scientific problem. Jumping ability is currently recognized as the leading physical quality that ensures the successful execution of offensive and defensive actions. The main purpose of the research was to develop and experimentally substantiate a training technology aimed at improving the jumping ability of volleyball players at the stage of sports improvement. The study employed methods of theoretical analysis and synthesis of scientific and methodological sources, pedagogical testing, experimental training sessions, and mathematical-statistical analysis. As a result, a training technology was developed that integrates a комплекс of plyometric, strength, and speed-strength exercises into the training process. The conducted pedagogical experiments confirmed a statistically significant ($p < 0,05$) increase in vertical jump performance from both standing and running positions, as well as an improvement in the effectiveness of attacking and blocking actions. Thus, the application of the developed technology in the training process of highly skilled volleyball players is considered expedient.

Key words: volleyball, jumping ability, plyometrics, speed-strength qualities, stage of sports improvement, training technology.

Аннотация: В статье рассматривается актуальная научная проблема повышения эффективности процесса развития прыгучести у высококвалифицированных волейболистов. Прыгучесть в настоящее время признаётся ведущим физическим качеством, обеспечивающим успешное выполнение атакующих и защитных действий. Основной целью исследования являлась разработка и экспериментальное обоснование технологии, направленной на развитие прыгучести у волейболистов на этапе спортивного совершенствования. В ходе исследования использовались методы теоретического анализа и обобщения научно-методических источников, педагогического тестирования, экспериментальных тренировочных занятий и математико-статистического анализа. В результате была разработана технология, включающая комплекс плиометрических, силовых и скоростно-силовых упражнений, интегрированных в тренировочный процесс. Проведённые педагогические эксперименты подтвердили достоверное ($p < 0,05$) повышение показателей прыжков вверх с места и с разбега, а также улучшение эффективности атакующих и блокирующих действий. Таким образом, применение разработанной технологии в тренировочном процессе высококвалифицированных волейболистов является целесообразным.

Ключевые слова: волейбол, прыгучесть, плиометрика, скоростно-силовые качества, этап спортивного совершенствования, тренировочная технология.

KIRISH

Hozirgi davr sport amaliyotida voleybol yuqori intensivlik va dinamik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu sport turida texnik-taktik harakatlarning samarali amalga oshirilishi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa, sakrash qobiliyatining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Sakrovchanlik voleybolchi faoliyatida hujum va blok harakatlarining muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim jismoniy sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Sport takomillashuvi bosqichida mashg'ulot jarayonini oqilona tashkil etish, jismoniy tayyorgarlikni maqsadli rivojlantirish hamda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish voleybolchilarning musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, sakrash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan texnologiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalarda voleybolchilarda sakrovchanlikni oshirishga doir turli metodik tavsiyalar mavjud. Biroq sport takomillashuvi bosqichida yuqori malakali sportchilar bilan ishlashda yuklama parametrlarini puxta rejalashtirish, plyometrik, kuch va tezkor-kuch mashqlarini optimal uyg'unlashtirish, shuningdek, ularni mashg'ulot jarayoniga kompleks tarzda integratsiya qilishga qaratilgan texnologiyani ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Shu boisdan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sport takomillashuvi bosqichidagi voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajribaviy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Ilmiy adabiyotlarda voleybolchilarning texnik-taktik faoliyati samaradorligi ko'p hollarda ularning sakrovchanlik darajasi bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hujum va blok elementlarini muvaffaqiyatli bajarish sportchining vertikal sakrash balandligi hamda portlovchi kuchni tezkor namoyon qila olish qobiliyatiga tayanadi (Miller va boshq., 2018; Verkhoshanskiy, 2012). Shu sababli sakrash qobiliyatini rivojlantirish voleybolchilarning tayyorgarlik tizimida ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

Sakrash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda plyometrik mashqlar eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Mazkur mashqlar mushaklarning cho'zilish–qisqarish mexanizmini faollashtirib, sportchining tezkor-kuch imkoniyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Jumladan, turli balandliklardan sakrash, qiya platformadan sakrash yoki bir oyoqli ketma-ket sakrash mashqlari voleybolchilarda sakrovchanlik ko'rsatkichlarini samarali oshirishi aniqlangan (Markovic & Mikulic, 2010).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mushak kuchi va sakrovchanlik darajasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Og'irliklar bilan bajariladigan mashqlar, shuningdek, umumiy va maxsus kuch tayyorgarligi mushak massasini mustahkamlab, plyometrik mashqlarning natijadorligini oshiradi (Newton & Kraemer, 1994). Demak, kuch tayyorgarligi va plyometrik mashqlarning uyg'unlashtirilgan qo'llanilishi sakrovchanlikni rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlarda, shuningdek, sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonida mashg'ulot yuklamalarini puxta rejalashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Mashq hajmi va intensivligi sportchining individual tayyorgarlik darajasiga moslashtirilishi ortiqcha zo'riqishlarning oldini olib, rivojlanish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Xususan, sport takomillashuvi bosqichida jismoniy sifatlarni bosqichma-bosqich va izchil shakllantirish yuqori sport natijalariga erishishga xizmat qiladi (Platonov, 2015).

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar plyometrik mashqlarni kuch va tezkor-kuch yo'nalishidagi mashqlar bilan uyg'unlashtirishning yuqori samaradorligini ko'rsatmoqda. Mazkur integratsiyalashgan yondashuv nafaqat sakrash balandligini oshiradi, balki voleybolchilarning musobaqa faoliyatida hujum va himoya harakatlari sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi (Sheppard va boshq., 2012).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, metodologik asos sifatida kompleks tajriba-sinov yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlarning o'zaro uyg'unligi ta'minlandi hamda mashg'ulot jarayoniga ilmiy asoslangan texnologiya tatbiq etildi.

Tajriba jarayoniga sport maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida muntazam shug'ullanuvchi, 18–22 yoshdagi 30 nafar voleybolchi jalb qilindi. Tadqiqot ishtirokchilari tajriba va nazorat guruhlariga teng miqdorda taqsimlandi. Guruhlar tarkibi yosh, jismoniy tayyorgarlik darajasi va sport malakasiga ko'ra muvofiqlashtirildi, bu esa olingan natijalarning qiyosiy tahlilini ta'minlashga xizmat qildi.

Tajriba 6 oy davomida olib borildi. Tajriba guruhi uchun kuch va plyometrik mashqlarni uyg‘unlashtirgan, sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus kompleks dastur qo‘llanildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy mashg‘ulot dasturi asosida shug‘ullandi, bunda mashg‘ulotlar mazmuniga maxsus o‘zgartirishlar kiritilmadi.

Sakrash qobiliyatini baholash maqsadida bir qator o‘lchov va testlar qo‘llanildi. Jumladan, vertikal sakrash testi serg‘iyometr yordamida o‘lchandi, joydan uzunlikka sakrash ko‘rsatkichlari aniqlandi, 30 soniya davomida ketma-ket sakrashlar soni qayd etildi, shuningdek, maxsus voleybol mashqlarida blok qo‘yish va hujum zarbalarining balandligi baholandi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil metodi orqali ilmiy-uslubiy manbalar o‘rganildi va mavjud metodik yondashuvlar solishtirildi. Pedagogik kuzatish mashg‘ulot jarayonini monitoring qilish, sportchilarning harakat faolligi va sifat ko‘rsatkichlarini qayd etish imkonini berdi. Eksperimental metod yordamida ishlab chiqilgan texnologiya amaliyotga joriy etilib, uning samaradorligi tekshirildi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar asosida qayta ishlanib, o‘rtacha qiymatlar va farqlarning ishonchliligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tajriba muddatining yetarliligi, guruhlar kesimida ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili hamda statistik ma’lumotlarni qayta ishlash orqali ta’minlandi. Tadqiqotning dolzarbligi esa voleybolchilar tayyorgarligi jarayonida sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali vositalarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Ishlab chiqilgan texnologiya asosiy tayyorgarlik mezotsiklida qo‘llanildi hamda uchta asosiy blokni o‘z ichiga olgan tuzilmalashtirilgan mashqlar kompleksidan iborat bo‘ldi. Kuch bloki haftasiga 2 marotaba o‘tkazilib, oyoq mushaklarining maksimal va portlovchi kuchini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Asosiy mashqlar qatoriga shtanga bilan cho‘qqayib o‘tirish (1PM ning 80–90%), og‘irlik bilan cho‘qqayib o‘tirishdan sakrab chiqish, oyoqlarni portlovchi rejimda siqish hamda shtanga bilan oyoq uchiga ko‘tarilish mashqlari kiritildi.

Plyometrik blok haftasiga 2 marotaba amalga oshirilib, mushaklarning reaktiv xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu blok doirasida turli balandlikdagi tumbalarga sakrash, chuqurlikka sakrash (depth jumps), ko‘p sakrash, to‘siqlardan oshib sakrash hamda “zarbdor” sakrash mashqlari qo‘llanildi.

Maxsus o‘yin bloki musobaqa sharoitlariga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda erishilgan sakrovchanlik darajasini mustahkamlashni ko‘zda tutdi. Mashg‘ulotlar jarayonida sportchilar hujum zarbalari va to‘siq qo‘yish harakatlarini maksimal balandlikda bajarishga yo‘naltirildi.

Texnologiyaning o‘ziga xosligi yuklamalarning aniq dozalanganligi, zarba va tiklanish mikrotsikllarining ketma-ketlikda almashtirilishi, shuningdek, mashqlarni bajarishda texnika talablariga qat’iy amal qilinishi orqali jarohatlanishlarning oldini olish imkoniyatida namoyon bo‘ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

12-haftalik pedagogik tajriba-sinov yakunida sportchilarda sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi(1-jadval).

1-jadval: **Voleybolchilarning sakrash qobiliyati ko‘rsatkichlari dinamikasi (M±m)**

Ko‘rsatkich	Guruh	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	O‘sish, %	Ishonchlilik (p)
Joydan yuqoriga sakrash, sm	TG	58,2 ± 2,1	64,8 ± 1,9	11,3	< 0,05
	NG	57,9 ± 2,3	59,5 ± 2,0	2,8	> 0,05
Yugurib kelib sakrash, sm	TG	78,5 ± 3,2	85,1 ± 2,8	8,4	< 0,05
	NG	77,8 ± 3,5	79,4 ± 3,1	2,1	> 0,05

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval tahlilidan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha o‘lchangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli o‘sish qayd etildi. Nazorat guruhida esa standart dastur asosida mashg‘ulot olib borilishiga qaramay, ko‘rsatkichlardagi ijobiy siljishlar ahamiyatsiz bo‘lib, statistik ishonchlilik darajasiga erishilmadi.

Shuningdek, tajriba guruhida o‘yin faoliyatining samaradorligi ham sezilarli darajada yaxshilandi. Xususan, hujum zarbalari samaradorligi 48 % dan 54 % gacha, to‘siq qo‘yish samaradorligi esa 21 % dan 26 % gacha oshdi. Olingan natijalar ilg‘or mutaxassislarning ilmiy ishlari bilan uyg‘un bo‘lib, ularda plyometriya va kuch mashqlarini kompleks qo‘llash portlovchi kuch hamda sakrovchanlikni rivojlantirishning eng maqbul usuli ekanligi ta’kidlanadi [3].

Ayniqsa, katta og‘irliklar bilan bajariladigan mashqlarni zarba berish texnikasi bilan uyg‘unlashtirish asab-mushak tizimining turli moslashuv mexanizmlarini faollashtiradi va natijada sinergetik ta’sir yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali voleybolchilarda sakrovchanlikni rivojlantirish jarayonida “plato” holatini bartaraf etish oddiy mashg‘ulot dasturlari bilan cheklanmay, balki kompleks yondashuvni talab etadi. Tadqiqot davomida kuch, plyometrik mashqlar hamda maxsus o‘yin vositalarini uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqilgan texnologiya sakrash qobiliyatlarini takomillashtirishning samarali usuli sifatida namoyon bo‘ldi. O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari tadqiqot gipotezasini tasdiqlab, nafaqat sakrovchanlikning miqdoriy ko‘rsatkichlari, balki tajriba guruhi voleybolchilarining musobaqadagi natijadorligi ham sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Mazkur texnologiyani professional voleybol jamoalarini tayyorlash jarayoniga amaliy joriy etish istiqbolli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Markovic, G., & Mikulic, P. (2010). Neuro-musculoskeletal and performance adaptations to lower-extremity plyometric training. Sports Medicine, 40(10), 859–895. https://doi.org/10.2165/11318370-000000000-00000
2. Miller, M. G., Herniman, J. J., Ricard, M. D., Cheatham, C. C., & Michael, T. J. (2008). The effects of a 6-week plyometric training program on agility. Journal of Sports Science & Medicine, 5(3), 459–465.
3. Newton, R. U., & Kraemer, W. J. (1994). Developing explosive muscular power: Implications for a mixed methods training strategy. Strength & Conditioning Journal, 16(5), 20–31.
4. Платонов, В. Н. (2015). Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. Киев: Олимпийская литература.
5. Sheppard, J. M., Cronin, J. B., Gabbett, T. J., McGuigan, M. R., Etxebarria, N., & Newton, R. U. (2012). Relative importance of strength, power, and anthropometric measures to jump performance of elite volleyball players. Journal of Strength and Conditioning Research, 22(3), 758–765.
6. Verkhoshansky, Y. V. (2012). Special strength training manual for coaches. Rome: Verkhoshansky SSTM.

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Teshaboyeva Feruza Raximovna
QDPI Maxsus pedagogika kafedrasi v.b. professori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0009-0009-0536-9732

Annotatsiya: Mazkur maqolada kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutq rivojlanishiga xos qonuniyatlar, ichki nutqning shakllanish mexanizmlari hamda nutq, tafakkur va muloqot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritilgan. Shuningdek, kar bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishda pedagogik va audiologik tasniflarning ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada bo‘lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida axborot muhitining o‘rni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda ularning nutqiy rivojlanishga ta’siri ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari kar bolalar nutqini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlarga asoslangan ta’limni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: kar bolalar, zaif eshituvchi bolalar, nutq rivojlanishi, surdopedagogika, pedagogik-psixologik xususiyatlar, ichki nutq, axborot muhiti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, korreksion ta’lim, inklyuziv ta’lim.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the pedagogical and psychological characteristics of the speech development process in deaf and hard-of-hearing children. The study examines specific patterns of speech development in children with hearing impairments, the mechanisms of inner speech formation, as well as the interrelationship between speech, thinking, and communication. In addition, the importance of pedagogical and audiological classifications in organizing corrective and pedagogical work with deaf children is substantiated. The article highlights the role of the information environment in preparing future surdopedagogues for professional activity, the possibilities of using information and communication technologies, and their impact on speech development. The research findings substantiate the need to improve speech development education for deaf children based on individual and differentiated approaches.

Key words: deaf children, hard-of-hearing children, speech development, surdopedagogy, pedagogical and psychological characteristics, inner speech, information environment, information and communication technologies, corrective education, inclusive education.

Аннотация: В статье проводится научный анализ педагогико-психологических особенностей процесса развития речи у глухих и слабослышащих детей. В исследовании раскрываются специфические закономерности речевого развития детей с нарушением слуха, механизмы формирования внутренней речи, а также взаимосвязь речи, мышления и коммуникации. Обосновывается значение педагогических и аудиологических классификаций при организации коррекционно-педагогической работы с глухими детьми. В статье также показана роль информационной среды в процессе подготовки будущих сурдопедагогов к профессиональной деятельности, возможности использования информационно-коммуникационных технологий и их влияние на развитие речи. Результаты исследования подтверждают необходимость совершенствования обучения, направленного на развитие речи глухих детей, на основе индивидуального и дифференцированного подходов.

Ключевые слова: глухие дети, слабослышащие дети, развитие речи, сурдопедагогика, педагогико-психологические особенности, внутренняя речь, информационная среда, информационно-коммуникационные технологии, коррекционное обучение, инклюзивное образование.

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish hamda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanishini ta’minlash masalasi zamonaviy pedagogika va maxsus ta’lim tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki nutq shaxsning nafaqat muloqot vositasi, balki uning tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy kamolotini belgilovchi yetakchi omil sanaladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqning shakllanishi eshituvchi bolalar bilan solishtirganda murakkab va o‘ziga xos yo‘nalishda kechadi. Eshitish analizatoridagi nuqson nutqiy tajribaning cheklanishiga olib keladi, bu esa lug‘at boyligining kamligi, grammatik tuzilmani anglashdagi qiyinchiliklar hamda muloqot faoliyatining sustlashuvi bilan namoyon bo‘ladi. Shu sababli nutqni rivojlantirish jarayoni faqat lingvistik vazifa sifatida emas, balki murakkab pedagogik-psixologik jarayon sifatida ko‘rib chiqilishi zarur [5, 58].

Mazkur sharoitda bo‘lajak surdopedagoglarni kar bolalar nutqini rivojlantirishga tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy surdopedagog nafaqat maxsus metodikalarni bilishi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishi, ilmiy manbalarni tahlil qilishi hamda individual ta’lim traektoriyalarini loyihalashi lozim. Shu bois, surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida axborot muhitini yaratish va undan maqsadli foydalanish zarurati yuzaga keladi [4, 39].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishining nazariy asoslari surdopedagogika va maxsus psixologiya doirasida keng tadqiq etilgan. Ushbu yo‘nalishda R. M. Boskis tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik tasnif alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni shakllantirish jarayonini differensial tashkil etish, ta’lim mazmunini moslashtirish hamda individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Boskis tadqiqotlarida nutqning rivojlanishi nafaqat eshitish darajasi, balki pedagogik ta’sir va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi.

Audiologik yondashuv doirasida L. V. Neyman tomonidan ishlab chiqilgan tasnif eshitish qoldig‘ining saqlanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, u korreksion-pedagogik ishlarni rejalashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tasnif eshitish apparatlari va texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlarini belgilash, shuningdek, nutqni rivojlantirish jarayonida eshitish qoldig‘ini maksimal darajada faollashtirishga yordam beradi. Neyman yondashuvi nutq rivojlanishini fiziologik va psixologik omillar uyg‘unligida talqin qilishi bilan ajralib turadi.

O‘zbek olimlarining tadqiqotlarida esa eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashning metodik va ijtimoiy-pedagogik jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Z. Mamarajabova zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqib, unda bosqichma-bosqich ta’lim va nutqiy mashg‘ulotlarning tizimliligi asoslab berilgan. F. U. Kodirova va D. B. Yakubjanova tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda defektolog mutaxassislarni tayyorlashda insonparvarlik yondashuvining ahamiyati ochib beriladi. F. R. Teshaboyeva ilmiy ishlarida esa bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida maxsus metodik fanlarni samarali o‘qitish texnologiyalarining nutqiy rivojlanishga ta’siri yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida surdopedagogika, umumiy va maxsus psixologiya hamda psixolingvistika sohalariga oid fundamental va zamonaviy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Nazariy tahlil orqali kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlanib, ularning o‘ziga xos qonuniyatlari umumlashtirildi.

Shuningdek, R.M. Boskis tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik tasnif hamda L.V. Neyman tomonidan taklif etilgan audiologik tasniflar qiyosiy tahlil qilinib, ularning nutqni rivojlantirish jarayonini tashkil etishdagi metodik imkoniyatlari yoritildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida nutq, tafakkur va muloqot jarayonlarining axborot muhiti bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Modellashtirish usuli orqali bo‘lajak surdopedagoglarni tayyorlashda qo‘llaniladigan adaptiv axborot muhiti tarkibiy komponentlari asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq rivojlanishi bir qator psixologik va pedagogik omillarga bevosita bog‘liqdir. Avvalo, ushbu bolalarda ichki nutqning shakllanishi eshituvchi bolalarnikidan farqli ravishda vizual, kinestetik va taktil tajribalar asosida kechadi. Ichki nutq tafakkur va tashqi nutq o‘rtasidagi asosiy bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib, uning rivojlanganligi bolaning mantiqiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda yozma nutqni egallashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik va audiologik tasniflar kar bolalar bilan olib boriladigan nutqiy ishlarning mazmuni va yo‘nalishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. R. M. Boskis tasnifi nutqning shakllanish darajasiga asoslangan holda differensial ta’limni tashkil etish imkonini bersa [1, 38], L. V. Neyman tasnifi eshitish qoldig‘ining saqlanganlik darajasini aniqlash orqali korreksion ishlarni rejalashtirishga xizmat qiladi [3, 61]. Ushbu tasniflar asosida individual va moslashtirilgan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot davomida axborot muhitining bo‘lajak surdopedagoglarni tayyorlashdagi roli alohida o‘rganildi. Elektron ta’lim resurslari, multimedia materiallar, ta’lim platformalari va ilmiy ma’lumotlar bazalaridan foydala-

nish talabalarning axborot kompetensiyasini, bibliografik savodxonligini hamda kasbiy mustaqilligini oshirishi aniqlandi. Axborot muhitida tashkil etilgan ta'lim talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq rivojlanishining dinamikasi eshitish qoldig'i darajasi, erta pedagogik aralashuv, oilaviy nutqiy muhit hamda korreksion ta'limning tizimliligi bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, ichki nutqning vizual-motor asosda shakllanishi keyingi og'zaki va yozma nutq sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ichki nutqi rivojlangan bolalarda mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash hamda mustaqil bayon qilish ko'nikmalari nisbatan yuqori darajada shakllanganligi kuzatildi.

Tasnifiy yondashuvlarning amaliy qo'llanishi natijasida differensial ta'lim samaradorligining oshishi aniqlanib, nutqiy mashg'ulotlar mazmunini individual rivojlanish traektoriyasi asosida loyihalash imkoniyati yuzaga keldi. Pedagogik tasnif nutqning shakllanish darajasiga yo'naltirilgan metodik strategiyalarni belgilashga xizmat qilgan bo'lsa, audiologik tasnif eshitish qoldig'ini maksimal darajada faollashtirishga yo'naltirilgan korreksion yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi [2, 44].

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim muhiti talabalarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini kuchaytirgani kuzatildi. Multimedia resurslar, vizual modellar va interaktiv platformalardan foydalanish nutqni ko'rish–eshitish–kinestetik integratsiya asosida rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Bu esa nutqiy kompetensiyaning kompleks shakllanishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish kutilgan samarani bermaydi. Nutqni rivojlantirish jarayoni erta tashxis, oilaviy muhit va ta'lim muassasasining uzviy hamkorligi hamda zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda tashkil etilgandagina samarali bo'ladi.

Axborot muhitiga asoslangan yondashuv surdopedagogning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Chunki zamonaviy surdopedagog bir vaqtning o'zida pedagogik, psixologik, lingvistik va texnologik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Axborot muhiti ushbu bilimlarni tezkor izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari milliy va xorijiy ilmiy izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalarni to'ldiradi hamda ularning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi [6, 41].

Tadqiqot natijalari nutq rivojlanishini faqat lingvistik jarayon sifatida emas, balki ko'p omilli pedagogik-psixologik tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Nutq, tafakkur va muloqotning o'zaro bog'liqligi ichki nutqning rivojlanish darajasi orqali namoyon bo'ladi. Demak, kar bolalarda nutqni rivojlantirish jarayoni vizual va taktil tayanchlarga asoslangan holda tashkil etilishi metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy axborot muhiti surdopedagoglarni tayyorlashda faqat yordamchi vosita emas, balki kasbiy kompetensiyani shakllantiruvchi integrativ platforma vazifasini bajaradi. Axborot muhiti orqali talaba ilmiy manbalarni mustaqil tahlil qilish, metodik modellarni ishlab chiqish hamda individual ta'lim strategiyalarini loyihalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv va innovatsion tafakkurini rivojlantiradi.

Natijalar milliy va xorijiy tadqiqotlar bilan qiyoslanganda, individual va differensial yondashuvning ustuvorligi yana bir bor tasdiqlandi. Nutqni rivojlantirish jarayonida erta tashxis, oilaviy hamkorlik, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda tizimli korreksion yondashuv bir butun mexanizm sifatida ishlagandagina barqaror natijalarga erishish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab va ko'p bosqichli pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, uning samaradorligi bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga bevosita bog'liqdir. Axborot muhitini tizimli va adaptiv tarzda tashkil etish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini kompleks shakllantirishga, nutqiy rivojlanishni faollashtirishga hamda inklyuziv ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv kar bolalarning muloqot imkoniyatlarini kengaytirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Боскис Р. М. Педагогическая классификация детей с нарушениями слуха. – Москва, 1976.
2. Mamarajabova Z. Zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2016.
3. Нейман Л. В. Аудиологическая классификация детей с нарушениями слуха. – Москва, 1961.
4. Kodirova F. U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
5. Yakubjanova D. B. Defektolog mutaxassislarni tayyorlashda insonparvarlik yondashuvi. – Toshkent, 2020.
6. Teshaboyeva F. R. Oliy ta'limda "ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari. – Toshkent, 2021.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA OILANING KATTA AVLODI VA ULARNING TA'SIRI

Ashirova Sojida Baxromovna
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqola mazmunida "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oiladagi kattalarning ta'siri" mavzusini ilmiy jihatdan o'rgangan mashhur psixologlar va olimlar hamda ularning olib borgan tadqiqotlari yoritilgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bolalar rivojlanishining turli jihatlari, xususan, kattalar bilan munosabatlarning psixologik shakllanishga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslanganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oilaning katta avlodi, bog'lanish nazariyasi, hissiy barqarorlik, hissiy hamkorlik, tarbiyaviy qo'llab-quvvatlash, hayotiy tajriba, psixologik immunitet.

Abstract: The article analyzes the scientific studies of well-known psychologists and scholars who have examined the topic "The Influence of Adults in the Family on the Psychology of Preschool Children" and their research findings, many of which are scientifically grounded in the analysis of how various aspects of child development, particularly relationships with adults, affect psychological formation.

Key words: older generation of the family, attachment theory, emotional stability, emotional cooperation, educational support, life experience, psychological immunity.

Аннотация: В статье рассматриваются научные исследования известных психологов и ученых, изучавших тему "Влияние взрослых в семье на психологию детей дошкольного возраста", а также их работы, многие из которых научно обоснованы на основе анализа того, как различные аспекты развития ребенка, в частности отношения со взрослыми, влияют на формирование его психологического облика.

Ключевые слова: старшее поколение семьи, теория привязанности, эмоциональная стабильность, эмоциональное сотрудничество, образовательная поддержка, жизненный опыт, психологический иммунитет.

KIRISH

"Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga kattalarning ta'siri" mavzusining dolzarbligi bugungi kunda bir necha muhim omillar bilan izohlanadi. Jumladan, erta yosh shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi bo'lib, unda bola shaxsiyati, xarakteri, o'ziga bahosi va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Bu bosqichda bola asosan ota-ona va yaqin kattalar ta'siri ostida rivojlanadi. Shuning uchun kattalarning munosabati kelajakdagi psixologik barqarorlikka bevosita ta'sir qilishi tadqiqotlarda isbotlangan. Zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar, ya'ni texnologiyalar va gadjetlardan erta foydalanish, ota-onalarning bandligi, oilaviy ajrimlar sonining ortishi, urbanizatsiya va ijtimoiy muhitning o'zgarishi kabi omillar ham maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu omillar bolalarning ruhiy rivojlanishida yangi ta'sir shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli kattalarning ongli va mas'uliyatli tarbiyasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Emotsional va ijtimoiy muammolarning kundan kunga ko'payishi natijasida hozirgi kunda bolalar psixologiyasida tajovuzkorlik, tortinchoqlik, qo'rquv va xavotir, diqqat yetishmovchiligi kabi holatlar ko'proq kuzatilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu muammolarning ildizi ko'pincha oiladagi munosabatlar hamda kattalarning tarbiya uslubidagi kamchiliklarga borib taqaladi. Mavzuning ta'lim tizimidagi ahamiyati shundaki, maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida bolani har tomonlama rivojlantirish uchun ota-ona va tarbiyachi hamkorligi, ijobiy muloqot hamda psixologik qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Biroq pedagog va psixologlar malakasi hamda bilimining yetarli emasligi sababli mazkur muammolar ko'pincha amaliy yechim topmay qolmoqda. Bundan tashqari, kelajak jamiyatini shakllantirish maqsadida bugungi kunda bolalarni ertangi jamiyat a'zolari sifatida ko'rish masalasi dolzarb deb baholanmoqda. Holbuki, yetarlicha mehr ko'rgan va qo'llab-quvvatlangan bola

kelajakda ijtimoiy faol, mas'uliyatli va ruhiy sog'lom shaxs bo'lib voyaga yetadi. Shuning uchun mazkur mavzu nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, maktabgacha yosh davrida kattalarning to'g'ri yoki noto'g'ri ta'siri bolaning butun hayot yo'liga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda ongli tarbiya, psixologik savodxonlik va sog'lom oilaviy muhitni yaratish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasiga oiladagi katta avlodning ta'siri muammosini bugungi kungacha bir qancha olimlar o'rgangan va ularning fikrlari hozirda ham ahamiyatli. Shuningdek, John Bowlby ingliz psixologi va psixoanalitigi, bog'lanish nazariyasining asoschisi bo'lib, u bolalar va ularning parvarishchilari o'rtasidagi hissiy bog'lanishning rivojlanish psixologiyasidagi rolini chuqur o'rgangan. Uning nazariyasi shuni ko'rsatadiki, bolalar ishonchli bog'lanishga ega bo'lganida ijtimoiy-emotsional barqarorlikka erishadi. Mary Ainsworth kanadalik psixolog bo'lib, tajribaviy asosda bog'lanish turlarini aniqlash mumkinligini ilgari surgan. Uning eksperimental metodlari orqali bolalar va ularning parvarishchilari o'rtasidagi bog'lanish tarbiya uslublari asosida aniqlangan. Uning tadqiqotlari oiladagi kattalarning sezgirligi bolalar hissiy xavfsizligiga bevosita ta'sir qilishini tasdiqlagan. Lev Vygotskiy rossiyalik psixolog va madaniy-tarixiy nazariya asoschisi bo'lib, u maktabgacha yoshdagi rivojlanishda ijtimoiy interaksiya va kattalar (ota-ona va tarbiyachilar) bilan muloqot orqali o'rganish jarayoni muhimligini ta'kidlagan. Vygotskiyning "Yaqqol rivojlanish zonasi" konsepti bola kattalarning yo'naltirishi bilan yanada murakkab vazifalarni hal eta olishini ko'rsatadi.

Diana Baumrind amerikalik psixolog, ota-ona tarbiya uslublari bo'yicha tadqiqotchi sifatida oiladagi kattalarning xatti-harakati (avtoritar, demokratik, beparvo) bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tizimli ravishda asoslab bergan. Uning yondashuvida demokratik tarbiya uslubi bolaning mustaqil va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishiga ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilgari surilgan. Marian Bakermans-Kranenburg gollandiyalik psixolog bo'lib, ota-ona va bola o'rtasidagi emotsional regulyatsiya hamda neyrobiologik omillarning o'zaro aloqadorligini o'rgangan. Uning tadqiqotlari oiladagi kattalarning parvarish munosabatlari va bolaning emotsional holati, xususan stressga javobi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga xizmat qiladi. Andrew N. Meltzoff amerikalik psixolog bo'lib, bolaning taqlid orqali o'rganishi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va u chaqaloqlar hamda maktabgacha yoshdagi bolalar ota-ona yoki oiladagi boshqa katta yoshdagilarning harakat va ifodalarini taqlid qilish orqali ijtimoiy va kognitiv xulq-atvorni o'zlashtirishini ko'rsatgan. Adam Winsler amerikalik psixolog bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning xususiy nutqi va o'zini boshqarish jarayonlari qaysi omillar bilan bog'liqligini o'rgangan olim sifatida Vygotskiyning ijtimoiy-kognitiv yondashuvini bolalar ta'limi hamda ota-onalar bilan muloqot amaliyotiga tatbiq etish ustida ish olib borgan va samarali natijalarga erishgan. Aletha J. Solter amerikalik psixolog bo'lib, maktabgacha yoshdagi bola bilan ota-ona va oiladagi katta yosh vakillari o'rtasidagi munosabatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan travma, stress va nizolarni tarbiya uslublari orqali bartaraf etish masalalarini tadqiq etgan. U ota-onalar va oilaning katta avlod vakillari bolalar bilan ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi muloqot orqali emotsional salomatlikni yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishi zarurligini ilmiy asoslab bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri" mavzusini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi rivojlanish psixologiyasi, oilaviy psixologiya, bog'lanish nazariyasi (attachment theory), ijtimoiy-madaniy yondashuv hamda tarbiyaviy ta'sir konsepsiyalariga tayanadi. Ilmiy izlanishda maktabgacha yosh davrining psixologik xususiyatlari, bolaning hissiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga oilaning katta avlodi (bobo-buvi va boshqa kattalar)ning ta'siri tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot dizayni aralash (mixed methods) yondashuv asosida ishlab chiqildi. Sifat va miqdoriy metodlar uyg'unligi orqali muammoning mohiyati chuqur o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnayotgan 5-7 yoshli bolalar hamda ularning oilalari tanlab olindi. Predmet sifatida esa oilaning katta avlodining bolalar psixologik rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'sir mexanizmlari belgilandi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida kuzatish, yarim tuzilgan intervyu, so'rovnoma, psixologik diagnostik testlar va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali bolalarning hissiy reaksiyalari, ijtimoiy faolligi va kattalar bilan o'zaro munosabatlari tabiiy sharoitda o'rganildi.

Intervyular ota-onalar va oilaning katta avlodi vakillari bilan o'tkazilib, ularning tarbiyaviy qarashlari, muloqot uslubi va bolaga ko'rsatayotgan psixologik ta'siri aniqlashtirildi. So'rovnoma natijalari statistik tahlil qilinib, o'zaro bog'liqlik ko'rsatkichlari korrelyatsion tahlil asosida baholandi. Psixologik diagnostika jarayonida bolaning hissiy

barqarorligi, o'ziga ishonchi, ijtimoiy moslashuv darajasi va psixologik immuniteti maxsus mezonlar asosida aniqlanib, natijalar taqqoslandi. Tadqiqotning ishonchliligi va validligini ta'minlash maqsadida triangulyatsiya usulidan foydalanildi hamda olingan natijalar o'zaro solishtirildi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda tavsifiy statistika, foizli taqsimot, o'rtacha arifmetik qiymat va dispersiya ko'rsatkichlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida axloqiy tamoyillarga qat'iy rioya qilindi, ishtirokchilarning roziligi olindi hamda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi. Mazkur metodologik yondashuv oilaning katta avlodining maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sir omillarini aniqlash hamda ularni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bilamizki, maktabgacha yoshdagi bola – bu "oq qog'oz" emas, balki faol o'rganayotgan shaxsdir. Oiladagi va jamiyatdagi kattalarning ularga namuna bo'lishi, ijobiy va ijodiy faoliyatga yo'naltirishi hamda hissiy tayanch berishi muhimdir. Maktabgacha yosh davrida bola mehr, sabr va to'g'ri tarbiyaga ehtiyoj sezadi, bu omillar bolaning kelajakdagi shaxsiyati, o'ziga bahosi va ijtimoiy moslashuviga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Biz quyida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos ba'zi xususiyatlari haqidagi faktlarni keltirib o'tamiz. Maktabgacha yoshdagi bolada emotsional (hissiy) ta'sirning kuchli bo'lishi uni boshqa davrlardan farqlaydi. Bu yoshda bolalarga mehr, e'tibor va qo'llab-quvvatlash ko'rsatish ularning o'ziga ishonchini oshiradi. Aksincha, sovuqqonlik, doimiy tanbeh yoki beparvolik qo'rquv, tortinchoqlik va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Mehr ko'rgan bola ochiq, ijtimoiy va barqaror bo'ladi, shu bois ota-onaning kayfiyati va munosabati bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tusda bo'lishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqi va tafakkuri aynan shu davrda jadal rivojlanadi. Kattalarning bolalar bilan suhbat qurishi, ertak o'qib berishi, savol-javob tashkil etishi bolalarning lug'atini boyitadi. Bola kattalarning nutqiga taqlid qiladi. Bolalar bilan olib boriladigan tushuntirish va izohlash ishlari ularning tafakkurini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning xulq-atvori shakllanishi ham aynan shu davrda jadal kechadi va u ko'proq ko'rganini takrorlash, ya'ni taqlid mexanizmiga asoslanadi. Demak, oilada kattalar hurmatli va sabrli bo'lsa, bola ham shunday bo'ladi. Kattalarning bolalarga qo'pollik qilishi yoki tajovuzkor muhit namoyon etishi bolada agressiv xulq-atvor shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolada o'ziga xos mustaqillik va mas'uliyat ham aynan shu davrda ko'zga tashlanadi. Kattalarning bolaga kichik vazifalar berishi (o'yinchoq yig'ish, kiyinish) ulardagi mustaqillikni rivojlantiradi, haddan tashqari nazorat esa bolada ishonchsizlik va qaramlikni kuchaytiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin orqali rivojlanishi boshqa davrlarga nisbatan aynan shu bosqichda sezilarli o'zgarishlarda namoyon bo'ladi, shu bois kattalar ular bilan o'yinda ishtirok etsa yoki yo'naltirsa, ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi. Rolli o'yinlar orqali bola hayotni tushunishni boshlaydi va ijtimoiy qoidalarni o'zlashtiradi. Tarbiya va ta'lim nazariyasida har qanday yoshdagi inson uchun jazolash va rag'batlantirish metodlari goh ijobiy, goh salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolaga ham ijobiy rag'batlantirish (maqtov) orqali samaraliroq yondashish mumkin, bu esa oilada aynan kattalar tomonidan amalga oshirilsa, natijador bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning boshqalar tomonidan noto'g'ri jazolanishi unda qo'rquv va ichki zo'riqishni keltirib chiqaradi. Kattalarning maktabgacha yoshdagi bolalarga yondashishining eng samarali usuli tushuntirish va muloqot bo'lib, bu ularning psixologik rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha yosh davri bola shaxsining shakllanishida eng muhim bosqich bo'lib, bu davrda jamiki psixologik jarayonlar unda rivojlanish holatida bo'ladi. Shu bois ularning psixologiyasiga nafaqat ota-ona, balki oilaning katta avlodi – bobo va buvilar ham muhim tarbiyaviy, ma'naviy va emotsional ta'sir ko'rsatadi. Katta avlod vakillari bolaga mehr, e'tibor, hayotiy tajriba va milliy qadriyatlarni singdirish orqali uning psixologik barqarorligi, o'ziga ishonchi hamda ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi – bobo va buvilar tomonidan beriladigan ertaklar, pand-nasihatlar, urf-odat va an'analarga oid bilimlar bolada axloqiy sifatlar, hurmat, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi fazilatlarning shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, katta avlodning qo'llab-quvvatlashi bola ruhiy xavfsizligini ta'minlab, unda ishonch hissini mustahkamlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiya jarayonida ota-ona va katta avlod o'rtasidagi qarashlarning bir xil bo'lishi muhimdir. Tarbiyadagi kelishmovchiliklar bolada ikkilanish, injiqlik yoki noto'g'ri xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun oiladagi o'zaro hurmat, hamkorlik va yagona tarbiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, oilaning katta avlodi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi va ularning ijobiy ta'siri ostida sog'lom fikrli, barkamol shaxs sifatida tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.X. Abdullaev, N.S. Raximov, M.O. Xadayev. "Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam". – T.: "Chashma", 2013-yil.
2. S. Jalilova. "Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya". O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020-yil. – 302-bet.
3. O'.M. Asqarova, M.A. Abdullayeva, M. Boltayeva. "Andragogika". O'quv qo'llanma. – Namangan, 2014-yil.
4. Sh.A. Do'stmuhamedova va boshqalar. "Umumiy psixologiya (2-kitob). Yosh davrlari va pedagogik psixologiya". Darslik. – T., 2020-yil.
5. Z.T. Nishanova. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya". Darslik. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018-yil. – 600-bet.
6. M. Maxsudova. "Muloqot psixologiyasi". O'quv qo'llanma. – T.: "Turon-iqbol" nashriyoti, 2006-yil. – 119-bet.
7. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Inog'omova. "Pedagogika". Metodik qo'llanma. – T., 2012-yil. – 456-bet.

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING TARIXIY PEDAGOGIK ILDIZLARI

Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti
"Tasviriy san'at va musiqa ta'limi" kafedrasi PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonda dolzarb hisoblangan masala – bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy-pedagogik ildizlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: differensial, tarixiy-nazariy, metodik yondashuv, optimizatsiya, kompetensiya, metodologik, temperament, individual, kontrast, kasbiy-metodik, rivojlanish.

Abstract: This article examines the актуальная problem of the historical and pedagogical roots of professional-methodological training of future fine arts teachers based on a differentiated approach.

Key words: differentiated, historical-theoretical, methodological approach, optimization, competence, methodological, temperament, individual, contrast, professional-methodological, development.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальная проблема историко-педагогических корней профессионально-методической подготовки будущих преподавателей изобразительного искусства на основе дифференцированного подхода.

Ключевые слова: дифференцированный, историко-теоретический, методологический подход, оптимизация, компетентность, темперамент, индивидуальный, контраст, профессионально-методический, развитие.

KIRISH

O'zbek xalqi o'zining tasviriy, amaliy, me'morchilik san'ati bo'yicha boy tarixga ega. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, o'lkamiz rassom va xattotlarini dunyoga tanitish va turizm masalasida: "Bu maskanga tashrif buyuruvchilar bir vaqtning o'zida... Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi musavvirlarning bebaho merosidan namunalar, ular tavallud topgan va faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaharlar manzaralari turli noyob eksponatlar orqali aks ettiriladi", deya ta'kidlaydi. Chunki O'zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Ayritom, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajinatepa, Teshikqal'a [2 - 30-b.] kabi joylarda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida aniqlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda jahonga mashhur allomalarning rasm-chizmalari bilan tanishmoqlari darkorligi haqidagi konsepsiyasi zamonaviy badiiy-estetik ta'limning tarixiy pedagogik ildizlarining muhim komponentlaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleyev kabi olim va yozuvchilar, shoirlar, sayyohlarning faoliyatida kasb o'rganish va o'rgatishning metodik asoslariga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Fransuz faylasufi Didro: “Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o‘qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi” [3-152 b.], – degan edi. Amir Temur va Temuriylar davrida tasviriy san’at turlaridan me’morchilik, miniatyura gullab-yashnadi. Bu davrda miniatyura va kitob grafikasi shunchalik rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san’atiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Natijada Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag‘dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi. Bu davrlarda estetik saviyasiga ko‘ra yuksak darajadagi miniatyura san’ati namunalari yaratildi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlar o‘sha davrda to‘plangan ilg‘or tajriba, tasviriy san’at maktablari an’analari asosida yaratilgan.

Ma’lumki, san’at bir necha avlodning ko‘p yillar davomida shakllangan an’analari, ustozning shogirdga bergan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi [2-31 b.]. Bu esa umumiy tarzda qat’iy tizim negizidagi badiiy ta’lim yo‘nalishida bo‘lmasa-da, badiiy yo‘nalishdagi ta’lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tasviriy va amaliy san’at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzod kabi mashhur musavvir, naqqosh, xattot va boshqa badiiy kasb sohiblarining boy ijodiy merosini xalqimizga to‘la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo‘shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo‘nalishda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yurtimizda tasviriy va amaliy san’at dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4688-son[1]li Qarori qabul qilindi.

Yuqorida qayd etilgan dolzarb vazifalar bevosita oliy badiiy pedagogik ta’lim, xususan, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o‘qitishga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayonga qadimiy badiiy kasbiy an’analarni zamonaviy ta’limiy tendensiyalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Shu ma’noda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida takomillashtirish istiqbolini belgilashning ilmiy asoslangan metodik tizimini ishlab chiqish uchun real holatini maqsadli o‘rganish va tahlil qilish bugungi kun uchun badiiy pedagogika fani dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Differensial ta’lim muammosi pedagog-rassom va psixolog olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo‘lib, unga turlicha ta’rif berilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida tasviriy san’at turlaridan me’morchilik, miniatyura gullab-yashnadi. Bu davrda miniatyura va kitob grafikasi shunchalik rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san’atiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Natijada Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag‘dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi. Bu davrlarda yaratilgan asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o‘sha davrda to‘plangan ilg‘or tajriba, tasviriy san’at maktablarisiz yaratish mumkin emas.

Ma’lumki, san’at bir necha avlodning ko‘p yillar davomida shakllangan an’analari, ustozning shogirdga o‘tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi [Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi. T.: 2012, Nizomiy nom. TDPU. Metodik tavsiyanoma. - 210 b.]. Bu esa ustoz-shogird an’analari rivojlanganligidan dalolat beradi. Talabalarga individual yondashuvning asoslari yangi yoki yaqin 100-200 yil davomida paydo bo‘lgan jarayon emas, u kishilik jamiyati, aniqrog‘i, ibtidoiy jamoa paydo bo‘lgan davrdan boshlangan, desak to‘g‘riroq bo‘ladi [6; 8-9 b.]. Shunday ekan, avloddan avlodga o‘z tajribasi va bilimlarini turli yo‘llar bilan o‘tkazish jarayoni ro‘y bergan. Bu jarayon o‘sha davrlarda kundalik turmushda amalga oshirilgani hammaga ma’lum. U mehnat, oila munosabatlari, ov, tarbiya sohalarida yoshlarning yoshi, qobiliyati, jinsi, qiziqishlari kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularga hunar o‘rgatganlar, ta’lim va tarbiya mazmunini belgilaganlar.

Ta’lim-tarbiyaga bunday yondashuv qadimgi Misrda, O‘rta Osiyoda eramizdan avvalgi VI-V asrlarda bo‘lganligi rasmiy ma’lumotlardan ma’lum. Hatto uzoq qadimda o‘quvchilarning badiiy hunarlarni o‘zlashtirishi Qadimgi Gretsiyada, so‘ng bir qator Yevropa davlatlarida Uyg‘onish davrida o‘quvchilarga individual yondashuv masalasi pedagoglarning alohida e’tiborini tortgan. Chunki u davrlarda ustozning yordamchisi va shogirdi bo‘lganligi sababli o‘quvchi-shogird ustozining badiiy asarlarni yaratishdagi texnikasi, uslubini bevosita o‘zlashtirgan. Buni Temuriylar davri miniatyura maktablari, shu davrlarda yashab, ijod etgan tasviriy san’at ustalari va ularning shogirdlari faoliyatida ham ko‘rish mumkin.

Hirotda shakllangan san’at maktabida hirotlik Mirak naqqosh Kamoliddin Behzodga ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o‘rgatgani haqida ma’lumotlar bor. Shu maktabning davomchisi sifatida Kamoliddin Behzod o‘nlab musavvirlarga ustozlik qilgan, deydi professor Orif Usmonov o‘zining “Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi” nomli kitobida [7-256 b.].

1 https://lex.uz/docs/-4795687

U yerda Kamoliddin Behzod o'z atrofiga o'nlab iste'dodli yoshlarni to'plagani, ularga san'atning sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mir Ali, Abdulla Sheroziy, Mirzo Amir, Mahmud Muzahhib, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Rizo Abbosiy, Shomuhammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mavlono Yoriy, Hasan Bag'dodiy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xoraviy singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligi qayd etiladi. Shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom ettirib, miniatyura va xattotlik san'ati ravnaqiga hissa qo'shib, o'zlaridan keyin miniatyura maktablariga asos solib, yuzlab musavvirlar yetishib chiqishiga zamin yaratganlar.

XVII-XIX asrlarda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Husniddin, Mulla Ortiq Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati ustoz-shogird masalasida e'tiborga molikdir. Ustoz-shogird o'rtasidagi munosabatlarni tarixiy manbalarga tayanib o'rganadigan bo'lsak, u davrlarda tasviriy san'atni o'qitishda rassom-ustozlarning badiiy ustaxonalarida o'quvchi-shogirdlarga ta'lim-tarbiya berish aniq belgilangan qonun-qoidalar asosida olib borilgan. Bu jarayonda shogirdlarni jamoa bo'lib o'qitish, ular bilan birga va yakka tartibda ishlash muhim hisoblangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yevropada bu davrlarda ota-onasi tomonidan ma'qullangan, qobiliyatli, odatda o'n yoshga to'lgan bolalarni taniqli rassomlarga shogirdlikka berganlar, u yerda shogirdlar tasviriy san'atning sir-asrorlarini yaqin uch yil davomida o'rganishgan. Golland rassomi Rembrandtning 40 ga yaqin shogirdlari bo'lgani tadqiqotchilarga ma'lum. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Battista Alberti, Verrokko, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Albrext Dyurer, aka-uka Karrachilar yaratgan o'qitish tizimida o'quv materiallarini tez o'zlashtirish, o'quvchilarda ilmiy bilimlar asosida muntazam mashq qilish, qonun va qoidalar asosida rasm ishlash malakalarini hosil qilish asosiy o'rinni egallagan. Bu tamoyillar o'sha davrda ham differensial yondashuv rivojlanganini ko'rsatadi. O'sha davrlarda ham differensial yondashuv asosida bo'lajak rassomlarni o'qitishda ustoz oddiy topshiriqlardan boshlab shogirdining qobiliyatini aniqlab, shunga muvofiq ravishda tasviriy san'at sir-asrorlarini bosqichma-bosqich o'rgatib kelganligini ko'ramiz. Shu ma'noda o'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib, oddiyroq ijodiy ishlar topshirilgan. Keyinchalik tajribali rassomlarning ijodiy ishlaridan nusxa ko'chirish orqali o'zlarini rivojlantirib borganlar.

Rassomlar tilida shunday yozilmagan qonun-qoidalar borki, uni so'z bilan ta'riflash qiyin bo'ladi. Masalan, rang ko'rish qobiliyati oddiy insonlar ko'rgandan ko'ra rassom uni boshqacha obrazda ko'ra oladi, ya'ni bir daraxtni oladigan bo'lsak, quyosh nuri tushib turgan tomonida issiq ranglarni, soya tomonida esa sovuq ranglarni ko'ra olishi muhim. Bu esa ustozning mahorati va o'qitish metodikasi asosida differensial yondashuvning takomillashtirilganini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixdan ma'lumki, tasviriy san'atda rassom-pedagoglar o'z asarlarini yaratishda nafaqat og'zaki tushuntirib, balki o'quvchi-shogirdlariga individual yondashib, birgalikda amaliy tarzda ishlab ko'rsatganlar, bunda o'quvchi o'z ko'zi bilan asarning yaratilish bosqichlarini kuzatgan. O'sha davr rassomlari o'zlarining ilmiy qo'lyozmalarida ta'limda bu masalalar prinsiplarini qo'llash va uning samarasi haqida qisman yoritib o'tganlar. Masalan, Chennino Chennini shunday yozgan: "Ko'pchilik tasviriy san'atni ustozsiz o'rgandik desalar, sen ularga aslo ishonma, misol tariqasida shu kitobchani o'qib chiq; kechayu-kunduz o'qib o'rgansang ham, ammo ustoz ko'rmasang, o'rganib o'qib bo'lganingdan so'ng ham sen ustozlar qatoridan joy ololmaysan". Yuqorida ustozning keltirilgan fikridan xulosa qilsak, o'rganuvchi talaba qachonki amaliy tarzda tasviriy san'atning qonun-qoidalarini ko'rsagina nazariyani hayotiy faoliyatida qo'llay olishi mumkinligi anglashiladi. Bu esa ustozdan har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini tashkil etishni talab etadi. Tarixiy manbalarga murojaat qilganimizda, mashg'ulotlar jarayonida talabalarga differensial yondashuv asosida tasviriy san'at mazmunini o'qitish rassom-pedagoglarning asosiy maqsadiga aylanganini ko'ramiz.

Differensial yondashuv masalasi asosan ikki yo'nalishda olib borilgan: birinchisi – masalani pedagog-rassom amaliy namoyon etib, og'zaki tushuntirib berishi, ikkinchisi – o'quvchiga amaliy ko'rsatmasdan, faqat og'zaki tushuntirish va izohlash orqali amalga oshirilishi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu ikki yo'nalishni bir-biridan ajratib yoki qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Chunki u yoki bu yondashuvda o'quvchining qobiliyati va layoqati hisobga olingan hamda tushuntirilayotgan materialning murakkabligiga bog'liq bo'lgan.

XX asr boshlarida bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G. Kershenshteyner, rus san'atshunosi A. Bakushinskiy, amerikalik J. Dyupyui faollik ko'rsatdilar. Ularning fikriga qaraganda, bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak, ular erkin ijod qilishlari lozim, ularning ijodiga aralashib ta'limni tezlashtirib bo'lmaydi [5; 39-b.]. Shuning uchun ham yosh xususiyatiga mos holda bosqichma-bosqich topshiriqlarni o'zlashtirib borish zarur hisoblanadi. Har bir bosqichda bolaning fikrlari va his-tuyg'ularini hisobga olib, o'zlashtirish jarayonini nazoratga olish muhimdir.

Ayrim tadqiqotchilar bolalarning ijodiga rahbarlik qilish yoki aralashishni hatto "jinoyat" deb baholaganlar. Keyinchalik bu g'oya "Erkin tarbiya" nomini oldi. Tasviriy san'at fani bo'yicha o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitishning respublikamiz ta'lim tizimiga mos keladigan dastlabki ilmiy-nazariy asoslarining ilk kurtaklari pedagogika fanlari doktori, professor R. Hasanov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limga doir angliyalik B. Kerollning o'qitish modeliga asoslangan B. Blumning pedagogik qarashlari mutaxassislar e'tiborini tortmoqda. Mazkur nazariyaga ko'ra, aqliy jihatdan qobiliyatli yoki sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitishning asosini ta'lim uchun ajratilgan vaqt hal qiladi. Hamma gap bolalarning har biri bilan alohida ishlash va ularga e'tiborni kuchaytirishda, deb hisoblanadi.

"Agar o'quvchilarning har biriga yetarlicha vaqt ajratilib, ular bilan individual shug'ullanilsa, har qanday bolani puxta o'zlashtiruvchilar qatoriga olib chiqish mumkin", deb hisoblaydi B. Blum. Fransiya umumiy o'rta ta'lim maktablarida individual o'qitish o'ziga xos ravishda rivojlanmoqda. Mamlakat pedagog-olimlarining fikrlariga qaraganda, bunday ta'lim turining Fransiyada taraqqiy etishiga asosiy sabab o'quv materiallarining ko'pchilik o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilmayotganligidir.

Taniqli fransuz pedagogi R. Dottrens tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarda o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, ish tezligi, ritmi, charchoqqa bardoshliligi, chidamliligi hamda qiziqishlari hisobga olinib, individual o'qitishga alohida e'tibor berilgan. Ayrim hollarda topshiriqlarni o'quvchilarning o'zlari tanlashlariga ham imkon beriladi. Loyiha muallifi o'quvchilarning individual ishlariga rahbarlik qilishning ikki yo'lini sinovdan o'tkazgan: ulardan biri minimum dasturni amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi qobiliyatli o'quvchilarning bilimlarini boyitish, ularni murakkab va ijodiy topshiriqlar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Ma'lumki, pedagogikada ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirish tushunchalari ko'pincha birgalikda qo'llanadi. Ba'zi manbalarda ushbu tushunchalar umumiy holda ham ishlatiladi.

I. Unt bu tushunchalarni pedagogik nuqtayi nazardan farqlab ko'rsatadi. Uningcha, ta'limni individuallashtirish – o'qitish jarayonida o'quvchilarning qaysi xususiyati bo'lishidan qat'i nazar, ta'limning barcha shakl va metodlarida ularning individual xususiyatlarini inobatga olishdir. Ta'limni differensiallashtirish esa o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishning shunday shakliki, unda o'quvchilar ma'lum xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratiladi va alohida tahsil oladilar, odatda bunday ta'lim jarayoni bir nechta o'quv rejasi va dasturi asosida amalga oshiriladi.

XULOSA

Differensial ta'lim – bu talabalarning mashg'ulotlar jarayonida muhim bo'lgan umumiy qonun-qoidalariga ko'ra ajratilgan bir xil guruhlari bilan olib boriladigan ta'limning tashkiliy shakli bo'lib, talabalarning muhim didaktik xususiyatlariga ko'ra tabaqalashtirilgan guruhlari uchun o'quv materialini moslashtirishni nazarda tutuvchi pedagogik tizim bo'limidir. Tasviriy san'atda differensial ta'lim tushunchasi ta'limga differensial yondashuv muammosini o'rganishni taqozo etadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari jarayonida differensial yondashuv – bu turli tipdagi guruhlar uchun ularning kontingentiga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadida turlicha ta'lim vaziyatini yaratish, ya'ni tasviriy san'atning boshqa fanlardan farqli jihatlarini ham inobatga olgan holda o'quv, metodik, boshqaruv, pedagogik va psixologik mashg'ulotlar tizimini tashkil etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-sonli qarori https://lex.uz/docs/-4795687
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 2-mart kuni xalq ta'limi tizimidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishi. // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://president.uz/uz
3. Abdirasilov S. "Tasviriy san'at va o'qitish metodikasi". – T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 30-31-b.
4. Абдуллаев Н. У. Санъат тарихи: Икки жилдлик. / Т. К. Қўзиев умумий таҳрири остида. – Т.: "Санъат", 2001. – 152-192-б.
5. Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi. – T., 2012. Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik tavsiyanoma. – 210-b.
6. Ximmataliyev D.O., Rajabova L.R. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent, 2023. – 130-b.
7. Hasanov R. Tabaqalashtirilgan ta'lim: muammo va yechim. // Ma'rifat gazetasi. 2003-yil 15-noyabr. – 8-9-b.
8. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – Toshkent: Fan, 1997. – 256-b.
9. Chennino Chennini. "Traktat o jivopisi". – M.: Prosvesheniye, 1933. – 76-b.

TALABALARDA YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

UDK: 378.147:81'243

Jabborova Salomat Abdijalilovna
Osiyo Xalqaro Universiteti 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida yozuv kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning hozirgi holati tahlil qilinadi. Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning samaradorligi o'rganilib, amaliyotda uchrayotgan muammolar aniqlanadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: yozuv kompetensiyasi, yozma nutq, metodika, mustaqil ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of developing students' writing competence in higher education institutions. The current state of writing instruction methodology is analyzed, and the key challenges in organizing students' written activities are identified. Based on a pedagogical experiment, the effectiveness of an improved methodology for developing writing competence grounded in competency-based and reflective approaches is substantiated. The research findings indicate that the systematic and purposeful organization of writing tasks enhances students' logical thinking, independence, and creativity.

Key words: writing competence, written communication, teaching methodology, competency-based approach, independent learning, reflection.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития письменной компетентности студентов высших образовательных учреждений. Проанализировано современное состояние методики формирования письменной речи, выявлены основные проблемы, возникающие в процессе организации письменной деятельности студентов. На основе педагогического эксперимента обоснована эффективность усовершенствованной методики развития письменной компетентности, ориентированной на компетентностный и рефлексивный подходы. Результаты исследования подтверждают, что целенаправленная организация письменных заданий способствует развитию логичности, самостоятельности и творческого мышления студентов.

Ключевые слова: письменная компетентность, письменная речь, методика обучения, компетентностный подход, самостоятельное обучение, рефлексия.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim natijalarini bilimlar majmui bilan emas, balki talabalarda shakllanadigan kompetensiyalar orqali baholash ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan kommunikativ kompetensiyalar, jumladan, yozma nutq orqali fikrni aniq, mantiqiy va ilmiy asosda ifodalash qobiliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy oliy ta'lim amaliyotida dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham talabalarning mustaqil fikrlashi, yozma va og'zaki nutq madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda oliy ta'limni rivojlantirishga doir konseptual hujjatlarda ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, talabalarni mustaqil ta'limga yo'naltirish va ularning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlangan.

Mazkur talablar talabalarning yozma faoliyatini samarali tashkil etish va uni metodik jihatdan takomillashtirishni taqozo etadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yozuv kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat, ayniqsa, referat, esse, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi hamda ilmiy maqolalar yozish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Talabalar ko'pincha mavzuni ochib berishda mantiqiy izchillikni saqlay olmaydi, fikrlarini umumlashtirish va xulosalashda qiyinchiliklarga duch keladi, yozma

ishlarning til va uslubiy jihatlariga yetarli e'tibor qaratmaydi. Mazkur muammolar yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodikaning yetarli darajada takomillashtirilmaganligi bilan izohlanadi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda yozma nutq va yozuv kompetensiyasini rivojlantirish masalalari turli jihatlarda tadqiq etilgan.

Xususan, yozma nutqni rivojlantirishning lingvistik asoslari, yozma faoliyatni tashkil etish texnologiyalari, akademik yozuvga oid yondashuvlar keng yoritilgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda yozuv kompetensiyasini oliy ta'lim sharoitida kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish, shuningdek, yozma topshiriqlarni mustaqil ta'lim bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish masalalari yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Shu bilan birga, amaldagi ta'lim jarayonida yozma topshiriqlar ko'pincha reproduktiv xarakterga ega bo'lib, talabadan tayyor ma'lumotlarni qayta bayon etishni talab qiladi. Bu esa talabaning mustaqil fikrlashi, tahliliy va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Natijada yozma faoliyat talaba uchun formallashgan jarayonga aylanib, yozuv kompetensiyasining to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Mazkur holatlar talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini qayta ko'rib chiqish, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yozma faoliyatni kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etish, yozma ishlarni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish hamda talabalarni yozma faoliyatga ongli ravishda jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida yozuv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, mavjud metodikadagi muammolarni aniqlash hamda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik yechimlarni asoslab berish maqsad qilib olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi pedagogika, lingvodidaktika va psixolingvistika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur masala xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lib, ularning qarashlari yozma nutqning mohiyati, yozuv faoliyatining tarkibiy tuzilmasi hamda yozma kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlarini yoritishga qaratilgan. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda yozuv kompetensiyasi, avvalo, kommunikativ kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotchilar yozma nutqni shaxsning til orqali fikrlash va muloqotga kirishish jarayonidagi murakkab kognitiv faoliyati sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, yozuv jarayoni nafaqat grammatik va leksik bilimlarga, balki mantiqiy tafakkur, tahlil va sintez, refleksiya kabi intellektual ko'nikmalarga ham tayanadi. Shu bois yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda talabaning bilish faoliyatini faollashtiruvchi metodlardan foydalanish muhim deb hisoblanadi. Lingvodidaktik tadqiqotlarda yozma nutqni rivojlantirish masalalari, asosan, yozma faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etish, yozma matn tuzilmasini shakllantirish hamda yozuv jarayonida yuzaga keladigan xatolarni bartaraf etish yo'llari orqali yoritilgan.

Ayrim olimlar yozuv kompetensiyasini shakllantirishda akademik yozuv texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, akademik yozuv talabaning ilmiy uslubda fikr yuritishi, dalillar keltirishi va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Psixologik yo'nalishdagi tadqiqotlarda esa yozma nutq shaxsning ichki nutqi va tafakkuri bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar yozuv faoliyati jarayonida talabaning motivatsiyasi, refleksiv fikrlashi va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Bu yondashuv yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida reflektiv topshiriqlardan foydalanish zaruratini asoslaydi. Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ham yozma nutq va yozuv kompetensiyasini rivojlantirish masalalari alohida o'rin egallaydi. Ularning tadqiqotlarida yozma nutqni rivojlantirish ona tili va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi doirasida ko'proq o'rganilgan bo'lib, yozma topshiriqlarni tizimli tashkil etish, matn ustida ishlash texnologiyalari, yozma ishlarni baholash mezonlarini ishlab chiqish masalalariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish mustaqil ta'lim jarayoni bilan bog'liq holda ko'rib chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirishning ayrim jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, mazkur jarayonni oliy ta'lim sharoitida kompetensiyaviy yondashuv asosida, kasbiy tayyorgarlik bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish masalalari yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Shuningdek, yozma topshiriqlarni loyihalash, bajarish va baholash jarayonlarining o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan yetarli darajada asoslab berilmagan. Bundan tashqari, ko'pgina tadqiqotlarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish natijalarini baholash mezonlari aniq belgilab berilmagan yoki ular umumiy tavsiyalar bilan cheklangan. Bu esa yozma faoliyat samaradorligini obyektiv baholash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu nuqtayi nazardan, yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodikani takomillashtirishda diagnostik mezonlar va darajalarni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba oliy ta'lim muassasasining pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tashkil etilib, aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida amalga oshirildi. Tajriba-sinov jarayoniga jami ___ nafar talaba jalb etilib, ular tajriba hamda nazorat guruhlariga ajratildi. Aniqlovchi bosqich natijalari aniqlovchi bosqichda talabalarning yozuv kompetensiyasining dastlabki holatini aniqlashga qaratildi. Bunda talabalar tomonidan bajarilgan yozma ishlar (esse, referat, mavzuli yozma topshiriqlar) tahlil qilinib, yozuv kompetensiyasi quyidagi mezonlar asosida baholandi: mazmunning mantiqiyligi va izchilligi; matn tuzilmasining to'g'riligi; til va uslubiy jihatlar; mustaqil fikrlash hamda xulosalash darajasi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyat qismida yozuv kompetensiyasi past va o'rta darajada shakllangan.

Xususan, talabalar fikrni mantiqiy rivojlantirish, asoslash va umumlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelgani, yozma ishlar ko'proq reproduktiv xarakterga ega ekani aniqlandi. Bu holat yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodikani takomillashtirish zarurligini tasdiqladi. Shakllantiruvchi bosqich natijalari shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan takomillashtirilgan metodika joriy etildi. Mazkur metodika yozma topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, muammoli va ijodiy yozma ishlarni keng qo'llash, reflektiv tahlil elementlarini kiritish hamda aniq baholash mezonlaridan foydalanishni nazarda tutdi. Mashg'ulotlar jarayonida talabalar muammoli savollar asosida esse va tahliliy matnlar yozdi, yozma ishlarni o'zaro hamda o'zini o'zi baholash orqali tahlil qildi, yozma faoliyat natijalarini reflektiv tahlil qilishga o'rgatildi. Mazkur yondashuv natijasida talabalarning yozma faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortgani, yozma ishlarni bajarishda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv kuchaygani kuzatildi. Talabalar yozma matn tuzilmasiga e'tibor qaratib, fikrni izchil bayon etish va asoslashga harakat qila boshladi. Nazorat bosqichi natijalari nazorat bosqichida tajriba hamda nazorat guruhlarida yozuv kompetensiyasining rivojlanish darajasi qayta baholandi. Olingan natijalar tahlili tajriba guruhida yozuv kompetensiyasining barcha mezonlar bo'yicha sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.

Xususan, yuqori darajadagi yozuv kompetensiyasiga ega talabalar ulushi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Taqqoslama tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida yozuv kompetensiyasining past darajasi keskin kamayib, o'rta va yuqori darajalar ulushi ortgan. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar kam miqdorda hamda tizimli bo'lmagan xarakterga ega bo'ldi. Bu holat tajriba jarayonida qo'llanilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Natijalarni tahlil qilish olingan tajriba natijalari talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yozma nutq sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, yozma faoliyatni mustaqil ta'lim va reflektiv yondashuv bilan integratsiyalash talabalarning yozma nutqida mantiqiylik, mustaqillik hamda ijodiylikni rivojlantirishga xizmat qildi. Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari takomillashtirilgan metodikaning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligini va amaliy samaradorligini tasdiqlaydi hamda uni oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish mumkinligini ko'rsatadi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari natijalari talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi oliy ta'lim tizimida dolzarb va muhim pedagogik muammo ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida yozuv kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinib, uning tarkibiy tuzilmasi hamda rivojlanish mexanizmlari aniqlashtirildi. Adabiyotlar tahlili yozuv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mavjud yondashuvlar yetarli darajada tizimlashtirilmaganini hamda ularni amaliyotga mos holda takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlanishicha, an'anaviy yondashuv asosida tashkil etilgan yozma topshiriqlar talabalarning yozuv kompetensiyasini to'liq rivojlantirishga yetarli darajada xizmat qilmaydi.

Aniqlovchi bosqich natijalari talabalar yozma nutqida mantiqiy izchillik, mustaqil fikrlash va umumlashtirish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatdi. Bu holat yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Shakllantiruvchi bosqichda joriy etilgan takomillashtirilgan metodika yozma faoliyatni kompetensiyaviy va reflektiv yondashuvlar asosida tashkil etishga qaratildi. Mazkur metodika yozma topshiriqlarni muammoli va ijodiy xarakterda loyihalashni, talabalarni mustaqil ta'limga yo'naltirishni hamda yozma ishlarni aniq mezonlar asosida baholashni nazarda tutdi. Tajriba natijalari ushbu yondashuv talabalarning yozma faoliyatga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirib, yozma nutq sifatini sezilarli darajada yaxshilaganini ko'rsatdi. Nazorat bosqichi natijalari tajriba guruhida yozuv kompetensiyasining barcha mezonlar bo'yicha ijobiy dinamikasi kuzatilganini tasdiqladi.

Xususan, yuqori va o‘rta darajadagi yozuv kompetensiyasiga ega talabalar ulushi oshib, past daraja keskin kamaydi. Nazorat guruhi bilan taqqoslash takomillashtirilgan metodikaning samaradorligini aniq namoyon etdi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta’lim muassasalarida yozma topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimli loyihalash;
- yozma faoliyatni mustaqil ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘lash; yozma ishlarni baholashda aniq mezon va darajalardan foydalanish;
- reflektiv tahlil elementlarini yozma mashg‘ulotlarga muntazam joriy etish;
- yozuv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Taklif etilgan metodika oliy ta’lim amaliyotida qo‘llash uchun maqsadga muvofiq bo‘lib, mazkur yo‘nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi Qonuni. – Toshkent, 2020. https://lex.uz/docs/-5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. https://lex.uz/en/docs/-4545884
3. Abdullayeva M.Sh. Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish metodikasi. – Toshkent, 2019.
4. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – Maidenhead: Open University Press, 2011.
5. Boud D., Falchikov N. Rethinking Assessment in Higher Education. – London: Routledge, 2007.
6. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson, 2007.
7. Flower L., Hayes J.R. A Cognitive Process Theory of Writing // College Composition and Communication. – 1981.
8. Hyland K. Academic Writing and Disciplinary Discourses. – London: Longman, 2004.
9. Ismoilova N.R. Akademik yozuv va ilmiy matn yaratish asoslari. – Toshkent: Universitet, 2022.
10. Jo‘rayev R.X. Zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
11. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
12. Kellogg R.T. The Psychology of Writing. – Oxford: Oxford University Press, 1999.
13. Madatov I. Oliy o‘quv yurtlarida talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishning joriy holatini o‘rganish // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2025, [1/6], ISSN 2181-7324, 109-112-betlar.
14. Nation I.S.P. Teaching ESL/EFL Writing. – New York: Routledge, 2009.
15. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge: CUP, 2006.
16. Saidova D.N. Oliy ta’limda yozma nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2021.
17. Swales J.M., Feak C.B. Academic Writing for Graduate Students. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2012.
18. Urakov Sh.R., Madatov I.Y. Talabalar mustaqil ta’limini kompetentlilikka yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida takomillashtirish muammolari // Buxoro davlat universitetining “Pedagogik mahorat” jurnali, 2025-yil, 8-son, 54-60-betlar.
19. Xolmatova G.Q. Yozma nutqni rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari. – Toshkent, 2020.
20. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement // Educational Psychologist. – 2002.
21. Zunnunov A. Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan, 2021.

INTEGRATIV O'QITISH ASOSIDA BO'LAJAK LOGOPEDLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna
Qo'qon davlat universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi v/b professori

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiya va nazariya–amaliyot birligini ta'minlovchi yondashuv bo'lajak mutaxassislarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, refleksiv-analitik fikrlashi va shaxsiy fazilatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ o'qitish oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy modelni mustahkamlash va amaliyotga yo'naltirilgan innovatsion muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Integrativ o'qitish, logoped tayyorlash, kasbiy kompetensiyalar, nazariya-amaliyot birligi, amaliy-faoliyat ko'nikmalari, refleksiv-analitik fikrlash, motivatsion-shaxsiy rivojlanish.

Abstract: This study examines methods for developing the professional competencies of future speech therapists based on integrative learning. The results of the study indicate that interdisciplinary integration and an approach that ensures the unity of theory and practice contribute to the comprehensive development of theoretical knowledge, practical skills, reflective-analytical thinking, and personal qualities of future specialists. Integrative learning plays an important role in higher education for improving the quality of education, strengthening the competency-based model, and creating an innovative practice-oriented environment.

Key words: Integrative learning, speech therapist training, professional competencies, unity of theory and practice, practical-activity skills, reflective-analytical thinking, motivational-personal development.

Аннотация: В данном исследовании изучены методики развития профессиональных компетенций будущих логопедов на основе интегративного обучения. Результаты исследования показывают, что междисциплинарная интеграция и подход, обеспечивающий единство теории и практики, способствуют комплексному развитию теоретических знаний, практических навыков, рефлексивно-аналитического мышления и личностных качеств будущих специалистов. Интегративное обучение имеет важное значение в системе высшего образования для повышения качества обучения, укрепления компетентностной модели и создания инновационной практико-ориентированной среды.

Ключевые слова: Интегративное обучение, подготовка логопедов, профессиональные компетенции, единство теории и практики, практико-деятельностные навыки, рефлексивно-аналитическое мышление, мотивационно-личностное развитие.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida maxsus pedagogika, xususan logopediya sohasi oldiga qo'yilayotgan talablar bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayoni nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki integrallashgan amaliy ko'nikmalar, moslashuvchan pedagogik fikrlash va yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni talab qiladi. Shu sababli logopedlarni tayyorlash jarayonida integrativ o'qitish yondashuvlarini joriy etish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. [2]

Integrativ o'qitish bo'lajak logopedlarning tibbiy, psixologik, pedagogik va lingvistik bilimlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali kasbiy faoliyatga kompleks tayyorlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv ta'lim mazmunini yaxlit tizim sifatida tashkil etib, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiradi hamda talabalarda mustaqil fikrlash, refleksiya va innovatsion faoliyat ko'nikmalarini rivojlantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda logoped mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta'lim sifati va korreksion-pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmunini ilmiy asoslash va metodik jihatdan boyitish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni – bu logoped mutaxassisni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, klinik-pedagogik tajriba va shaxsiy-kasbiy sifatlarni o'zaro bog'liq holda shakllantirishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizimdir. Ushbu mazmun integratsiya tamoyiliga asoslanib, tibbiy-biologik, psixologik-pedagogik, lingvistik va maxsus logopedik fanlar o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlaydi.[5]

Mazmun quyidagi tarkibiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

1. **Kasbiy-kognitiv komponent** – bo'lajak logopedning nutq rivojlanishining qonuniyatlari, nutq nuqsonlarining etiologiyasi, patogenezi, tasnifi hamda diagnostik mezonlari bo'yicha tizimli va integrallashgan bilimlarni egallashini anglatadi. Ushbu komponent tibbiy-biologik, psixologik, lingvistik va pedagogik bilimlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Talaba nutq kamchiliklarini aniqlash, ularning sabablarini tushuntirish, korreksion ishning ilmiy asoslarini belgilash hamda individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalashga tayyor bo'lishi zarur. Kasbiy-kognitiv tayyorgarlik nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyasi bilan mustahkamlanadi.[1]
2. **Amaliy-faoliyat komponenti** – logopedik faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar majmuasini o'z ichiga oladi. Bu komponent logopedik texnologiyalar, korreksion metodlar, diagnostik vositalar hamda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi. Bo'lajak mutaxassis individual va guruhiy mashg'ulotlarni rejalashtirish, korreksion dasturlar tuzish, mashg'ulotlarni amalga oshirish va natijalarni monitoring qilish ko'nikmalarini egallaydi. Amaliy-faoliyat komponenti pedagogik amaliyot, treninglar va klinik kuzatuvlar orqali mustahkamlanadi.[3]
3. **Kommunikativ komponent** – logopedning professional muloqot madaniyati va hamkorlik kompetensiyasini ifodalaydi. Ushbu komponent bolalar bilan ishonchli pedagogik aloqani o'rnatish, ota-onalar bilan maslahatlashuv ishlarini olib borish hamda boshqa mutaxassislar bilan interdisiplinar hamkorlikni yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi. Kommunikativ tayyorgarlik empatiya, tolerantlik, faol tinglash, pedagogik etika va nutq madaniyatiga asoslanadi. Samarali kommunikatsiya korreksion ish natijadorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. [6]
4. **Refleksiv-analitik komponent** – logopedning o'z kasbiy faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu komponent mutaxassisning o'z ish uslublarini qayta ko'rib chiqishi, xatolarni aniqlashi va kasbiy o'sish strategiyalarini belgilashini ta'minlaydi. Refleksiya pedagogik jarayonda o'z-o'zini baholash, monitoring va diagnostik tahlil orqali amalga oshiriladi.[10] Ushbu komponent bo'lajak logopedda tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va doimiy o'zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantiradi.
5. **Motivatsion-shaxsiy komponent** – kasbiy faoliyatga ichki ehtiyoj, ijtimoiy mas'uliyat, empatiya va insonparvarlik qadriyatlariga tayangan shaxsiy fazilatlarni qamrab oladi. Bu komponent logopedning kasbga sadoqati, bolalarga nisbatan mehr-muruvvati, sabr-toqati va innovatsion faoliyatga tayyorligini belgilaydi. Motivatsion-shaxsiy rivojlanish kasbiy identifikatsiya, o'zini anglash va ijtimoiy ahamiyatli faoliyatga yo'naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Ushbu komponent logopedning professional barqarorligi va samaradorligining psixologik asosi hisoblanadi. Integrativ o'qitish mazmuni fanlararo bog'liqlik, amaliyotga yo'naltirilganlik, kompetensiyaviy yondashuv va refleksiv faoliyat orqali bo'lajak logopedning kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantirishni ta'minlaydi.[2]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan muhim pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali bilimlarning parchalanib ketishini bartaraf etadi va ularni yagona kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan tizim sifatida shakllantiradi. Natijada bo'lajak logopedlarda nazariy tayyorgarlik bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkamlanib, real pedagogik va klinik vaziyatlarda samarali ishlay olish kompetensiyasi rivojlanadi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

TAHLIL VA NATIJALAR

Integrativ o‘qitish oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni chuqurlashtiradi. U talabalarda faqat bilimlarni egallashni emas, balki ularni amaliyotda qo‘llash, muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy refleksiya olib borish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshiradi hamda ularning professional raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Ayniqsa, logopedik faoliyatda integrativ tayyorgarlik nutq nuqsonlarini kompleks baholash va korreksiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuv oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim muhitini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, simulyatsion mashg‘ulotlar va klinik amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish shakllari keng qo‘llanilishi natijasida o‘quv jarayonining samaradorligi ortadi. Shu bilan birga, integrativ o‘qitish talabaning shaxsiy-kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlab, ijodiy fikrlash, empatiya, mas’uliyat va refleksiv madaniyatni shakllantiradi. Integrativ o‘qitish asosida bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ta’lim sifatini oshirish va amaliyotga yo‘naltirilgan professional kadrlar tayyorlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv fragmentar o‘qitish modelidan voz kechib, kompleks, moslashuvchan va kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Integrativ o‘qitish asosida bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonida muhim pedagogik yo‘nalish hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya va nazariya-amaliyot birligini ta’minlovchi integrativ yondashuv bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini kompleks va tizimli shakllantirish imkonini beradi.



1-rasm: **Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetesiyalarini rivojlantirish mazmuni**

Integrativ o‘qitish bo‘lajak logopedlarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi: kasbiy-kognitiv bilimlarni egallash, amaliy-faoliyat ko‘nikmalarini mustahkamlash, samarali kommunikatsiya va hamkorlik qobiliyatini shakllantirish, refleksiv-analitik fikrlashni rivojlantirish hamda motivatsion-shaxsiy fazilatlarni, jumladan kasbiy mas’uliyat, empatiya va innovatsion fikrlashni oshirish. Shu orqali bitiruvchi logopedlar nafaqat nazariy bilimga, balki real pedagogik vaziyatlarda samarali ishlashga tayyor bo‘ladi.[9]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu yondashuv oliy ta’limga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi: ta’lim sifati oshadi, kompetensiyaviy model mustahkamlanadi, innovatsion ta’lim muhitlari rivojlanadi va amaliyotga yo‘naltirilgan tayyorgarlik kuchayadi. Shu bilan birga, integrativ o‘qitish fragmentar o‘qitish modelidan kompleks, moslashuvchan va kompetensiyaga yo‘naltirilgan pedagogik tizimga o‘tishni ta’minlaydi.

Natijada integrativ yondashuv logoped tayyorlash jarayonida nazariy va amaliy komponentlarni birlashtiruvchi samarali metodika sifatida o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi hamda bo‘lajak mutaxassislarning professional raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахунов, А.Ф. (2015). Педагогическая интеграция в подготовке специалистов по логопедии. Ташкент: Национальный университет.
2. Баев, В.Н. (2017). Методика развития профессиональных компетенций будущих логопедов. Москва: Просвещение.
3. Зайцева, Л.П. (2018). Инновационные технологии в логопедическом образовании. Санкт-Петербург: Питер.
4. Макмудова, М.С. (2024). Integrativ yondashuv asosida logoped tayyorlash metodikasi. Ташкент: O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti.
5. Савельева, И.В. (2016). Компетентностный подход в подготовке дефектологов. Москва: Академия.
6. Хакимов, Ш.М. (2019). Развитие профессиональных компетенций в высшем педагогическом образовании. Ташкент: Fan va texnologiya.
7. UNESCO. (2020). Innovative teaching methods in higher education. Paris: UNESCO Publishing.
8. Виноградова, Т.А. (2014). Интегративное обучение как фактор повышения качества педагогической подготовки. Журнал “Педагогика”, №3, 45–52.
9. Дмитриева, Н.Н. (2015). Рефлексивные технологии в подготовке логопедов. Москва: Издательство МГУ.
10. Макарова, Е.А. (2017). Мотивационно-личностный компонент в профессиональном развитии будущих логопедов. Санкт-Петербург: Речь.

6-7 YOSHLI BOLALARDA MEHNATSEVARLIK XISLATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

Kasimova Dilrabo Baxadirovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi
"Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va mehnatsevar shaxs sifatida tarbiyalash, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish, ularning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda shaxs sifatida kamol topishi, 6-7 yosh davrida bolalarda mehnatga munosabat, mas'uliyat, intizom va irodaviy sifatlarning shakllanishi, shuningdek, mazkur yosh davrida mehnatsevarlik xislatlarini maqsadli va tizimli rivojlantirishning muhim vazifalari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: yetuk, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va mehnatsevar shaxs, mas'uliyat, intizom, irodaviy sifatlar, mehnatsevarlik xislatlari.

Abstract: This article examines the key tasks of educating the younger generation as comprehensively mature, independently thinking, socially active, and hardworking individuals, including the development of hardworking qualities in 6-7-year-old children, their successful adaptation to subsequent stages of education and personal maturity, the formation of a positive attitude toward work, responsibility, discipline, and volitional qualities at the age of 6-7, as well as the purposeful and systematic development of hardworking traits during this period.

Key words: mature, independently thinking, socially active, and hardworking individuals; responsibility, discipline, volitional qualities; hard work.

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные задачи воспитания молодого поколения как всесторонне зрелой, самостоятельно мыслящей, социально активной и трудолюбивой личности, формирование трудолюбивых качеств у детей 6-7 лет, их успешная адаптация к последующим этапам обучения и личностная зрелость, формирование у детей в возрасте 6-7 лет отношения к труду, ответственности, дисциплины и волевых качеств, а также целенаправленное и систематическое развитие трудолюбивых качеств в данном возрастном периоде.

Ключевые слова: зрелая, самостоятельно мыслящая, социально активная и трудолюбивая личность, ответственность, дисциплина, волевые качества, трудолюбие.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti sharoitida yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va mehnatsevar shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish ularning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davrining oxirgi bosqichi bo'lgan 6-7 yosh davrida bolalarda mehnatga munosabat, mas'uliyat, intizom va irodaviy sifatlar shakllanadi. Shu sababli ushbu yosh davrida mehnatsevarlik xislatlarini maqsadli va tizimli ravishda rivojlantirish pedagogik jarayonning dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi – ertaklar, maqollar, topishmoqlar va qo'shiqlar orqali bolalarda mehnatga hurmat, halollik hamda sabr-toqat kabi axloqiy fazilatlar tabiiy va qiziqarli tarzda shakllanadi. Milliy qadriyatlar asosida olib borilgan tarbiya bolalar ongiga chuqurroq singib, ularning xulq-atvorida barqaror sifatlarning vujudga kelishiga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda bolalarning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan qiziqishi sustlashib borayotgani, mehnat tarbiyasida ko‘proq nazariy yondashuvning ustunlik qilayotgani kuzatilmoqda. Shu bois xalq og‘zaki ijodidan samarali foydalanish yo‘llarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash va amaliyotga joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish masalasi maktabgacha ta’lim tizimi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish mavzusi bo‘yicha tadqiqot olib borgan o‘zbek olimlari va tadqiqotchilardan Farangiz Erkinova hamda Muqaddas Azimova ta’lim va tarbiya jarayonida xalq og‘zaki ijodi hamda qadimiy adabiyotlar namunalaridan mehnat tarbiyasini shakllantirish masalalarini o‘rganib, xalq adabiy merosi orqali mehnatsevarlik va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash jarayonini tahlil qilganlar; Amirqulova Umida va Djabborova Shoira “Mehnatsevarlik konseptini ifodalovchi o‘zbek maqollari” mavzusida struktura va semantik tahlil olib borib, xalq og‘zaki ijodida mehnatsevarlik tasvirini lingvistik nuqtayi nazardan yoritganlar; Shoxista Sotiboldiyeva va Nilufar Sadarova xalq og‘zaki ijodining ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida pedagogik maqola mualliflari sifatida klassik og‘zaki ijod namunalarini bolalarning bilim va xulqini shakllantirish vositasi sifatida baholaganlar.

Xorijiy olimlar Supardjo, Padmaningsih va Sujono folklor ertaklarini bolalar tarbiyasida xarakter ta’limi vositasi sifatida o‘rgangan tadqiqotlarida og‘zaki ijodning tarbiyaviy rolini ko‘rsatganlar (mehnatsevarlik kabi xislatlarni shakllantirish uchun motivatsiya berishini ta’kidlaganlar). Ushbu manbalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri 6-7 yoshdagi bolalar tarbiyasi bo‘yicha bo‘lmasa ham, xalq og‘zaki ijodi va xalq adabiyotini ilmiy yoritishda asos sifatida keng qo‘llaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, go‘daklik davridanoq fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash mushkul bo‘lishini, yosh avlod tarbiyasining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaganlar. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari hayot ostonasining eng qiziqarli bosqichlaridan biridir.

Dunyoni, atrof olamni, mehnatsevarlik va ijodkorlikni anglash imkoniyatlari ochilishi bilan birgalikda bu yosh vakillari sekin-astalik bilan eng muhim hodisaga, ya’ni maktab ta’limiga tayyorgarlik ko‘radilar. Bu yosh davri nafaqat qiziqarli, balki ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglar uchun ham birdek mas’uliyat talab etadi. 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning kayfiyati odatda tez o‘zgaruvchan bo‘ladi, bunga sabab ularning hissiyotlarga bo‘ysunishidir, bu esa tabiiy jarayon hisoblanadi. 7 yoshdan boshlab bolaning aqliy rivojlanishi jadallik bilan oshadi. Bu yosh vakillari hissiyotlarsiz ham o‘zlari uchun zarur bo‘lgan jarayonlarni tushuntira oladilar. Aynan shu yoshda bolalar o‘zlarini shaxs sifatida anglashni boshlaydilar, ularda noodatiy argumentlarga asoslangan fikrlar paydo bo‘ladi. Mehnatsevarlik – ma’naviy fazilat sifatida shaxsning ishchanligi, mehnatni xush ko‘rishi va insonning mehnatga munosabatini ifodalaydi. Uning natijalari erishilgan yutuq, qo‘lga kiritilgan hosil yoki mahsulotning miqdori va sifati bilan o‘lchanadi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash zarur.

Mehnatsevarlikning jamiyatdagi o‘rni ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, boqimandalikning avj olishi esa mamlakatni inqirozga olib keladi. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida dehqonchilikni tavsiflar ekan, mehnatning ijtimoiy hayotdagi rolini shunday ta’riflaydi: “Olamning obodligi dehqonlardan, mehnat ahli shodligi ulardan”. Mehnatsevarlik shaxs va jamiyat ma’naviyati tarkibidagi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mehnatsevarlik – bu bolaning ishni oxirigacha bajarishga intilishi, mas’uliyatni his qilishi, sabr-toqatli bo‘lishi, foydali faoliyatga ijobiy munosabatda bo‘lishi kabi sifatlarni o‘z ichiga oluvchi muhim shaxsiy xislatdir. 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirish keyingi maktab ta’limiga psixologik va ijtimoiy tayyorgarlikni ta’minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijodiy munosabat va mehnat qilish ishtiyoqi shakllanadi. Kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qilish dastlab bolalarning o‘yinlarida namoyon bo‘ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatini o‘z o‘yinlarida takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashishga harakat qila boshlaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda xalq ertaklari va maqollarining ijtimoiy-g‘oyaviy mazmuni hamda tarbiyaviy ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida shakllanib, hayotiy tajriba, axloqiy qadriyatlar va mehnatga munosabat aks etgan bebaho tarbiya manbaidir. U bolalar ongiga o‘yin, obraz va qiziqarli syujetlar orqali tez va oson singadi.

Ertak – xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri bo‘lib, to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht hamda maishiy xarakterdagi epik badiiy asardir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aytib, o‘qib yoki hikoya qilib beriladigan ertaklardan ko‘zlangan maqsad, birinchidan, bolalarni insoniy fazilatlar asosida tarbiyalash, ikkinchidan esa ularning dunyoqarashini o‘stirish, diqqat, xotira, tasavvur va motivlarini shakllantirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va psixik rivojlanishiga mos, o‘zida ijobiy ma’naviy-axloqiy sifatlarni mujassam etgan ertaklar klassifikatsiya qilingan. Bu ertaklarda o‘rtoqlik va do‘stlikning olijanobligi, kamtarlik, saxiylik, to‘g‘riso‘zlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlari targ‘ib qilinadi hamda bolalar ijobiy obrazlardan namuna olishga undaladi. Maqol xalq og‘zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar hayotiy tajribalar asosida maydonga keladi va asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan. Ularda xalqning dunyoqarashi, jamiyat va mehnatga munosabati, ota-onaga hurmat va Vatanga sadoqat motivlari mujassamlashgan. Shuningdek, maqollarda xalq orzu-umidlari va insonparvarlik hislari ifodalanadi. Maqollar mavzu jihatidan boy va rang-barangdir. Ularda ona Vatanni sevish, do‘stlik, birodarlik, ahillik va birdamlik g‘oyalari, yaxshilik, halollik va rostgo‘ylik ulug‘lanadi, yomonlik va yolg‘onchilik esa qoralanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarda maqollardan foydalanish bolalarning nutq malakasini shakllantiradi, hayotiy tushunchalarini boyitadi va insoniy fazilatlarni singdiradi. Bu ko‘nikmalar, asosan, yuqori va tayyorlov guruhlarida maqsadli yo‘nalishda hosil qilinadi. Vazifalarning aniq mazmuni bolalarning yosh imkoniyatlariga bog‘liq. O‘yin faoliyati orqali bola ilk tasavvur ko‘nikmalarini shakllantiradi. Aynan mantiqiy kompyuter o‘yinlari 6-7 yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. 6-7 yoshli bolaning shaxsiy rivojlanishi atrof olamning tuzilishi va undagi o‘z o‘rnini anglash kabi ikki muhim omilni o‘z ichiga oladi.

Qizlarda og‘ir-bosiqlik jarayoni kuzatilsa, o‘g‘il bolalarda faollik kuchayadi. 6-7 yosh vakillari gender tamoyiliga muvofiq o‘yin tanlaydilar. Qizlar “do‘kon”, “qo‘g‘irchoq”, “maktab”, o‘g‘il bolalar esa “poyga”, “hayvonlar” kabi o‘yinlarni ma’qul ko‘radilar. Maktabga tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilarning ixtiyoriy diqqati, ko‘rish va tinglash orqali eslab qolish ko‘nikmalari yuqori darajada rivojlangan bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020-yildagi 802-son qaroriga muvofiq Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti tasdiqlangan. Ushbu qarorga ko‘ra, 6-7 yoshli bolaning rivojlanish sohalari va umumiy muhim kompetensiyalari belgilangan bo‘lib, ular kommunikativ, o‘yin, ijtimoiy va bilish kompetensiyalarini hamda jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutqiy, bilish va ijodiy rivojlanish yo‘nalishlarini qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish maktabgacha ta’lim tizimining muhim tarbiyaviy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalarda mehnatga munosabat, mas’uliyat, irodaviy barqarorlik va mustaqil faoliyatga intilish kabi sifatlar faol shakllanadi. Shu bois mehnatsevarlikni shakllantirish jarayonini maqsadli, tizimli va yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalq og‘zaki ijodi namunalari – ertaklar, maqollar, topishmoqlar, qo‘shiqlar va rivoyatlar bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda samarali tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu vositalar orqali bolalar mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi, mehnatkashlik va dangasalik o‘rtasidagi farqni tushunadi hamda ijobiy xulq-atvor namunalari bilan tanishadi.

Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish bolalarda nafaqat mehnatsevarlikni, balki milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy poklik, sabr-toqat va jamoaviylik kabi fazilatlarni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, tarbiyaviy jarayonni amaliy mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashtirish bolalarda mehnatga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tarbiyachining roli muhim ekanligi aniqlandi. Tarbiyachi xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘g‘ri tanlashi, ularni tarbiyaviy maqsad bilan izchil qo‘llashi va bolalarni faol fikrlashga undashi lozim. Bunday yondashuv tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan, samarali va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, u maktabgacha ta’lim amaliyotida keng joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnatsevarlikni shakllantirishda foydalaniladigan xalq og‘zaki ijodi janrlari quyidagilardan iborat:

a) maqollar bolalarda qisqa, lo‘nda va ta’sirchan fikr orqali mehnatga hurmat uyg‘otadi. Misollar: “Mehnat qilgan to‘yadi”, “Ishlagan tishlaydi”, “Mehnat – baxt keltirar”. Tarbiyachi maqol mazmunini bolalar bilan suhbat orqali ochib beradi.

b) ertaklarda mehnatkash va dangasa qahramonlar taqqoslanadi. Misollar: “Zumrad va Qimmat”, “Halollik”, “Boy ila kambag‘al”. Ertakdan so‘ng qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinadi, “Kim mehnatkash edi?” degan savollar beriladi.

c) topishmoqlar bolalarda mehnat qurollari va jarayonlariga qiziqish uyg‘otadi. Misol: O‘zi kichik, ishga pishiq (javob: bolg‘a).

d) qo‘shiqlar va laparlarda mehnat qo‘shiqlari bolalarda mehnatdan zavqlanish hissini uyg‘otadi. Masalan, tozalash paytida aytiladigan qo‘shiqlar, o‘yin jarayonidagi ritmik aytimlar.

Xalq og‘zaki ijodini faqat tinglash emas, balki amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish muhim: ertakdan keyin rolli o‘yin, maqoldan so‘ng kichik mehnat topshirig‘i, jamoaviy ishlar (gullarni sug‘orish, o‘yinchoqlarni yig‘ish). Tarbiyachi xalq og‘zaki ijodini yoshga mos tanlashi, bolalarni faol fikrlashga undashi, mehnatni majburiyat emas, qadriyat sifatida ko‘rsatishi lozim. Bolalarning mehnat faoliyatlarini o‘zida qamragan mashg‘ulotlar asosan maktabgacha yosh davridan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnati juda sodda va elementar bo‘lsa ham, ularning psixik taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish maktabgacha ta’lim tizimining muhim tarbiyaviy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalarda mehnatga munosabat, mas’uliyat, irodaviy barqarorlik va mustaqil faoliyatga intilish kabi sifatlar faol shakllanadi. Shu bois mehnatsevarlikni shakllantirish jarayonini maqsadli, tizimli va yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalq og‘zaki ijodi namunalari - ertaklar, maqollar, topishmoqlar, qo‘shiqlar va rivoyatlar bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda samarali tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu vositalar orqali bolalar mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi, mehnatsevarlik va dangasalik o‘rtasidagi farqni tushunadi hamda ijobiy xulq-atvor namunalari bilan tanishadi. Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish bolalarda nafaqat mehnatsevarlikni, balki milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy poklik, sabr-toqat va jamoaviylik kabi fazilatlarni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, tarbiyaviy jarayonni amaliy mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashtirish bolalarda mehnatga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tarbiyachining roli muhim ekanligi aniqlandi.

Tarbiyachi xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘g‘ri tanlashi, ularni tarbiyaviy maqsad bilan izchil qo‘llashi va bolalarni faol fikrlashga undashi lozim. Bunday yondashuv tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, 6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan, samarali va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, u maktabgacha ta’lim amaliyotida keng joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidan samarali foydalanish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- ta’lim-tarbiya jarayoniga xalq og‘zaki ijodini tizimli joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertaklar, maqollar, topishmoqlar va qo‘shiqlardan faqat epizodik emas, balki reja asosida, bosqichma-bosqich foydalanish tavsiya etiladi;
- yosh xususiyatlarini hisobga olish, 6-7 yoshli bolalar uchun xalq og‘zaki ijodi namunalari sodda, obrazli va aniq g‘oyaga ega bo‘lishi lozim, mehnatga da’vat etuvchi, ijobiy qahramonlar ishtirok etgan asarlarga ustuvorlik berish zarur;
- ertak va maqollarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, xalq ertaklari va maqollardan so‘ng bolalarga kichik mehnat topshiriqlari (o‘yinchoqlarni yig‘ish, gullarga qarash, sinfni tartibga keltirish) berilishi mehnatsevarlikni mustahkamlashga xizmat qiladi;
- rolli o‘yinlardan keng foydalanish, ertaklar asosida tashkil etilgan rolli o‘yinlar orqali bolalarda mehnat jarayoniga qiziqish va jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi;
- oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligini kuchaytirish, ota-onalarga xalq og‘zaki ijodi asosida mehnat tarbiyasi berish bo‘yicha tavsiyalar berish, uy sharoitida ertak aytish va mehnat faoliyatiga bolalarni jalb etish maqsadga muvofiq;
- tarbiyachilarning metodik kompetensiyasini oshirish, tarbiyachilar uchun xalq pedagogikasi va og‘zaki ijod namunalaridan foydalanish bo‘yicha seminar hamda treninglar tashkil etish tavsiya etiladi;
- didaktik materiallar ishlab chiqish, mehnatsevarlikka oid ertaklar, maqollar va topishmoqlar asosida rasmlar, kartochkalar hamda didaktik o‘yinlar tayyorlash bolalar faolligini oshiradi;
- tarbiya jarayonida rag‘batlantirish usullaridan foydalanish, bolalarning mehnat faoliyatidagi kichik yutuqlarini maqtov va ramziy belgilar orqali rag‘batlantirish mehnatsevarlikni rivojlantirishda ijobiy natija beradi.

Xalq og‘zaki ijodi vositalaridan foydalanish bolalarda mehnatsevarlikni tabiiy shakllantiradi, milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otadi va ijobiy xulq-atvorni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova Z.E. 6 yoshdan 7 yoshgacha bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklar. Toshkent: Fan, 2024.
2. Касимова Д. Б. (2022). Основные принципы создания предметно-развивающей среды. International Academic Research Journal, 1(6), 244-248.
3. Kasimova D. B. (2022). Management of the plot-role-playing games of preschool children in the conditions of pre-school education. Spanish Journal of Society and Sustainability, 3, 9-11.
4. Касимова Д. Б. (2022, November). Современный подход и новейшие педагогические требования к сюжетно-ролевым играм дошкольников. In International Scientific and Practical Conference "The Time of Scientific Progress" (Vol. 1, No. 3, pp. 108-112).
5. Касимова Д. Б. (2022). Специфические мотивы, присущие сюжетно-ролевым играм дошкольников. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 239-243.
6. Kasimova D. B. (2023). Development of professional competence of teacher of preschool education organizations. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(2), 46-48.
7. Kasimova D. B., & To'ychiyeva S. R. (2023, January). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatadigan peda-gogning kasbiy innovatsion yondashuvi. In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 417-420).
8. Касимова Д. (2022). Мактабгача таълим ташкилотларида болалар билан таълим жараёнида интерфаол услублар ва педагогик технологияларни қўллаш услубияти. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(24), 88-90.
9. Касимова Д. Б. (2021). Теоретические основы вербальных ассоциаций как средства развития смысловой стороны речи. Экономика и социум, 10(89), 737-740.
10. Kasimova D. B. (2021). Content and types of interactive games. Экономика и социум, 1-1(80), 119-120.
11. Касимова Д. Б., & Эргашева Д. (2023, October). Интерактивные игры в дошкольно-образовательных организациях. In International Scientific Conference "Innovative Trends in Science, Practice and Education" (Vol. 2, No. 8, pp. 40-45).
12. Chorieva D. (2023). Bolalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish. Technical Science Research in Uzbekistan, 1(5), 265-270.
13. Чориева Д. А. (2021). Методы и приемы работы с агрессивными детьми. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
14. Choriyeva D. (2023). Oila va maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ijtimoiy vazifalar. Talqin va tadqiqotlar, 1(32).

BO‘LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI KOXLEAR IMPLANTLI BOLALAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Raximova Xurshidaxon Sadikovna
Qo‘qon davlat universiteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi
v.b. professori, PhD

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasining mazmuni va didaktik asoslari yoritiladi. Amaliy tayyorlashni kuzatuv, modellashtirish, boshqariladigan amaliyot va refleksiv tahlil bosqichlari asosida qurish talabalarda kasbiy fikrlashni shakllantirishi asoslanadi. Rivojlantiruvchi, individuallashtirilgan va integrativ yondashuvga asoslangan mashg‘ulotlar pedagogik qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: koxlear implant, surdopedagog tayyorlash, amaliy mashg‘ulot, kasbiy kompetensiya, refleksiv o‘qitish, pedagogik modellashtirish, inklyuziv ta’lim.

Abstract: The article reveals the content and didactic foundations of organizing practical training in preparing future teachers of the deaf to work with children after cochlear implantation. It is substantiated that structuring practical training through observation, modeling, guided practice and reflective analysis contributes to the development of professional thinking. The developmental, individualized and integrative orientation of training enhances the ability to make pedagogical decisions.

Key words: cochlear implant, teacher of the deaf training, practical training, professional competence, reflective learning, pedagogical modeling, inclusive education.

Аннотация: В статье раскрывается содержание и дидактические основы технологии организации практических занятий при подготовке будущих сурдопедагогов к работе с детьми после кохлеарной имплантации. Обосновано, что построение практической подготовки на этапах наблюдения, моделирования, управляемой практики и рефлексивного анализа способствует формированию профессионального мышления студентов. Показано, что развивающая, индивидуализированная и интегративная направленность занятий формирует способность принимать педагогические решения.

Ключевые слова: кохлеарная имплантация, подготовка сурдопедагога, практические занятия, профессиональная компетентность, рефлексивное обучение, педагогическое моделирование, инклюзивное образование.

KIRISH

So‘nggi yillarda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya qilish tizimida koxlear implantatsiya texnologiyasining keng joriy etilishi maxsus pedagogika oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Implantatsiya natijasida bolaning tovushni qabul qilish imkoniyati paydo bo‘lsa-da, ushbu fiziologik imkoniyatning nutqiy va kommunikativ faoliyatga aylanishi bevosita pedagogik ta’sir sifati bilan belgilanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, implantatsiyadan keyingi rivojlanish samaradorligi ko‘proq mutaxassisning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, ayniqsa uning real pedagogik vaziyatda to‘g‘ri metodni tanlay olish qobiliyati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim tizimida surdopedagoglarni tayyorlash jarayoni an’anaviy ravishda nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. Talabalar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanish qonuniyatlari, nutqni shakllantirish bosqichlari va korreksion metodlar haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘ladilar. Biroq koxlear implantli bolalar

bilan ishlash jarayonida pedagog ko‘pincha oldindan o‘rganilgan sxemalarga to‘liq mos kelmaydigan murakkab vaziyatlarga duch keladi:

- bola tovushni eshitadi, lekin farqlamaydi;
- so‘zni takrorlaydi, ammo ma’nosini anglamaydi;
- mashg‘ulotda faol, kundalik hayotda esa passiv bo‘lib qoladi.


Bunday holatlarda tayyor metodni qo‘llash emas, vaziyatni tahlil qilish va mos pedagogik strategiyani tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur holat oliy ta’limdagi tayyorlash tizimida amaliy komponentning yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Nazariy bilim amaliy faoliyatga aylantirilmaguncha kasbiy kompetensiya barqaror shakllanmaydi. Shu sababli bo‘lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida amaliy mashg‘ulotlarni qayta tashkil etish, ularni real professional faoliyatga yaqinlashtirish va pedagogik qaror qabul qilish tajribasini shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Muammo faqat metodlarni o‘rgatishda emas, balki talabalarda ularni mos vaziyatda tanlash va qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirishdadir. Bu esa amaliy mashg‘ulotlarni an’anaviy reproduktiv shakldan faoliyatga yo‘naltirilgan, modellashtirilgan va refleksiv o‘qitish texnologiyasi asosida tashkil etishni talab qiladi. Mazkur maqolada bo‘lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasining mazmuni va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.[4]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo‘lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonida amaliy mashg‘ulotlar oddiy ko‘nikma hosil qilish vositasi emas, balki kasbiy fikrlashni shakllantiruvchi muhit sifatida tashkil etilishi lozim. Shu sababli ularni an’anaviy “ko‘rsatish–takrorlash” tamoyiliga asoslangan shakldan faoliyatga yo‘naltirilgan bosqichli tizim asosida qurish maqsadga muvofiqdir. Bunday tizim talabaning nazariy bilimni real pedagogik vaziyat bilan bog‘lashiga va mustaqil pedagogik qaror qabul qilish tajribasini hosil qilishiga xizmat qiladi.[4]

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni ketma-ket o‘zaro bog‘langan to‘rt bosqichda tashkil etiladi:



1-bosqich. **Kuzatuv-analitik tayyorgarlik.** Dastlab talaba tayyor metodni qo‘llashdan oldin bolaning faoliyatini kuzatishni o‘rganadi. U mashg‘ulot jarayonini tashqi natija orqali emas, ichki rivojlanish jarayoni orqali tahlil qiladi: bola tovushga qanday reaksiya bildirmoqda, u eshitayotganini anglayaptimi yoki faqat sezayaptimi, nutqiy topshiriqni bajarayotganda qaysi bosqichda qiyinchilik yuzaga kelmoqda. Mazkur bosqichning vazifasi – talabaning diqqatini xatoni tuzatishga emas, uning sababini aniqlashga yo‘naltirishdir. Natijada pedagogik faoliyat ongli kuzatuvga asoslanadi.

2-bosqich. **Modellashtirilgan faoliyat.** Keyingi bosqichda real mashg‘ulotga yaqin sun’iy pedagogik vaziyatlar yaratiladi. Talaba turli holatlar bilan ishlaydi: bola tovushni farqlamaydi, so‘zni mexanik takrorlaydi, ota-ona ortiqcha yordam beradi yoki bola kommunikativ tashabbus ko‘rsatmaydi. Bu yerda maqsad tayyor algoritmni qo‘llash emas, balki vaziyatga mos pedagogik yechim tanlashdir. Modellashtirish talabaning kasbiy refleksini rivojlantirib, nazariy bilimni faoliyatga aylantiradi.

3-bosqich. **Boshqariladigan amaliyot.** Talaba mutaxassis rahbarligida haqiqiy mashg‘ulotni olib boradi. U topshiriqlarni rejalashtiradi, bolaning reaksiyasini kuzatadi va zarur paytda metodni o‘zgartiradi. Rahbar esa uning qarorlarini tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu bosqichda talaba pedagogik harakatlar ketma-ketligini o‘zlashtiribgina qolmay, ularning mantiqiy asosini tushuna boshlaydi.

4-bosqich. **Mustaqil refleksiv faoliyat.** So‘nggi bosqichda talaba mashg‘ulotni mustaqil tashkil etadi va uni tahlil qiladi. Videokuzatuv, yozma tahlil va muhokama orqali o‘z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Shu orqali pedagogik qarorlar ongli tanlovga aylanadi, ya’ni talaba nima qilganini emas, nima sababdan qilganini anglay boshlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bosqichlar ketma-ketligi amaliy mashg‘ulotni oddiy tajriba to‘plash jarayonidan kasbiy tafakkurni shakllantiruvchi tizimga aylantiradi. Natijada talaba metodlarni yodlab qolmaydi, balki ularni pedagogik vaziyatga mos ravishda tanlay oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasining didaktik tamoyillari

Koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonida amaliy mashg‘ulotlar samaradorligi ularning qanday o‘tkazilishidan ko‘ra, qaysi didaktik asosga qurilganiga ko‘proq bog‘liq. Chunki mazkur faoliyatda pedagog tayyor algoritmni qo‘llamaydi, balki doimiy o‘zgarib turuvchi rivojlanish vaziyatida qaror qabul qiladi. Shu sababli amaliy tayyorlash jarayoni an’anaviy reproduktiv o‘qitishdan farqli ravishda faoliyatga yo‘naltirilgan didaktik tamoyillar asosida tashkil etilishi lozim.[3]

1. **Rivojlantiruvchi yo‘naltirilganlik tamoyili.** Mashg‘ulotning asosiy maqsadi topshiriqni bajarish emas, bolaning idrok jarayonini rivojlantirishdir. Talaba har bir mashqni natijaga emas, rivojlanish mexanizmiga bog‘lab tahlil qilishga o‘rgatiladi. Masalan, tovushni takrorlash mashqi talaffuzni tekshirish uchun emas, eshitish differensiasiyasini shakllantirish uchun qo‘llanadi. Bu yondashuv pedagogni mashqlar sonini ko‘paytirishdan saqlab, ularning mazmunini aniqlashtirishga yo‘naltiradi.
2. **Individuallashtirish tamoyili.** Koxlear implantli bolalarning eshitish tajribasi bir xil emas, shuning uchun standart mashg‘ulot samarali bo‘la olmaydi. Talaba har bir bolaning reaksiyasi, rivojlanish sur’ati va kommunikativ ehtiyojlariga qarab topshiriqlarni moslashtirishni o‘rganadi. Shu orqali amaliy tayyorlash umumiy metodni o‘zlashtirishdan individual strategiya tuzish bosqichiga o‘tadi.
3. **Vaziyatlilik tamoyili.** Pedagogik faoliyat real sharoitda oldindan to‘liq rejalashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun mashg‘ulotlar turli pedagogik vaziyatlarni modellashtirish asosida tashkil etiladi. Talaba metodni eslab qolishdan ko‘ra, uni mos vaziyatda tanlashni o‘rganadi. Bu esa professional moslashuvning muhim sharti hisoblanadi.
4. **Integrativlik tamoyili.** Koxlear implantli bolalar bilan ishlash tibbiy va pedagogik jarayonlarning uzviy bog‘liqligiga asoslanadi. Amaliy mashg‘ulotlar audiologik ma’lumot, logopedik tahlil va psixologik kuzatuvni birgalikda hisobga olish orqali tashkil etiladi. Natijada talaba bolaning rivojlanishini alohida belgilar orqali emas, yaxlit tizim sifatida tushunishga o‘rganadi.
5. **Refleksivlik tamoyili.** Amaliy faoliyatdan keyin uning tahlili majburiy bosqich hisoblanadi. Talaba o‘z harakatlarini baholaydi, qaysi qaror samarali bo‘lganini aniqlaydi va keyingi mashg‘ulotni rejalashtiradi. Shu orqali tajriba ongli bilimga aylanadi va kasbiy fikrlash shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur didaktik tamoyillar asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar talabaning bilimini ko‘nikmaga, ko‘nikmani esa mustaqil pedagogik faoliyatga aylantiradi. Natijada u tayyor metod ijrochisi emas, balki rivojlanish jarayonini boshqara oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlash jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, surdopedagogning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar hajmi bilan belgilanmaydi. Mazkur faoliyat o‘zgaruvchan pedagogik vaziyatlarda tez va asosli qaror qabul qilishni talab etadi. Shuning uchun oliy ta’limda tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlar oddiy ko‘nikma hosil qilish vositasi emas, balki kasbiy tafakkurni shakllantirish mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Bosqichli tashkil etilgan amaliy tayyorlash tizimi talabaning faoliyatini kuzatuvdan tahlilga, tahlildan ongli harakatga olib keladi. Avval u bolaning rivojlanish jarayonini kuzatadi, keyin pedagogik vaziyatni tushuntiradi, so‘ng mos metodni tanlaydi va oxirida o‘z faoliyatini baholaydi. Shu izchillik pedagogik qarorlarning tasodifiy emas, mantiqan asoslangan bo‘lishini ta’minlaydi. Natijada talaba metodni qo‘llovchi emas, balki rivojlanish jarayonini boshqaruvchi mutaxassis sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari amaliy mashg‘ulotlarni rivojlantiruvchi, vaziyatli, integrativ va refleksiv tamoyillar asosida tashkil etish bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy moslashuvini tezlashtirishini ko‘rsatadi. Bunday tayyorlash sharoitida talabalar real ish faoliyatiga o‘tishda qiyinchilikka kamroq duch keladi, mashg‘ulotlarni individual rejalashtiradi va ota-onalar bilan hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yadi.

Amaliy tavsiyalar

1. Amaliy mashg‘ulotlarni kuzatuv, modellashtirish, boshqariladigan amaliyot va refleksiya bosqichlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.
2. Har bir mashg‘ulotdan keyin majburiy pedagogik tahlil (og‘zaki yoki yozma) o‘tkazish talab etiladi.
3. O‘quv jarayoniga real klinik holatlarga yaqin vaziyatlarni modellashtirish elementlarini kiritish zarur.
4. Audiolog, logoped va psixolog bilan hamkorlikdagi integratsiyalashgan mashg‘ulotlar tashkil etilishi kerak.
5. Talabalarning mashg‘ulotlarini videokuzatuv orqali tahlil qilish refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, amaliy mashg‘ulotlarni texnologik jihatdan qayta tashkil etish surdopedagoglarni tayyorlash sifatini oshiradi va koxlear implantli bolalar bilan ishlashda pedagogik yordamning samaradorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.S.Raximova, Koxlear implantli bolalar bilan logopedik ish (o’quv qo’llanma). F.: 2021. – 210 b
2. Леонгард Э.И. Формирование слухоречевого восприятия у детей с нарушением слуха. – Москва: Просвещение, 2017. – 240 с.
3. Кукушкина О.И. Педагогическая помощь детям после кохлеарной имплантации. – Москва: ВЛАДОС, 2018. – 208 с.
4. Королёва И.В. Реабилитация детей с кохлеарными имплантами. – Санкт-Петербург: Речь, 2019. – 192 с.
5. Archbold S., Mayer C. Deaf Education: International Perspectives. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 295 p.

YEVROPA MUHANDISLIK TA'LIMI TAJRIBASI ASOSIDA TEXNIKA YO'NALISHLARI TALABALARIDA TEXNIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Xalikova Nargiza Abduvaliyevna
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Yevropa oliy ta'lim makonida shakllangan kompetentlikka asoslangan yondashuv, amaliy yo'naltirilgan ta'lim va innovatsion metodlarning mazmuni ochib beriladi. Muhandislik ta'limida loyiha asosida o'qitish, dual ta'lim va raqamli texnologiyalarning o'rni asoslab beriladi. Texnik kompetentlikning tarkibiy komponentlari hamda baholash mezonlari aniqlashtiriladi. Milliy texnik ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: texnik kompetentlik, muhandislik ta'limi, pedagogik mexanizm, kompetentlikka asoslangan yondashuv, dual ta'lim, loyiha asosida o'qitish, Yevropa tajribasi.

Abstract: This article analyzes the pedagogical mechanisms for developing the technical competence of engineering students based on the experience of European engineering education. The study reveals the essence of the competence-based approach, practice-oriented learning, and innovative teaching methods. The role of project-based learning, dual education, and digital technologies in shaping professional skills is substantiated. The structural components and assessment criteria of technical competence are identified. The possibilities of adapting European experience to the national technical education system are discussed. The research findings contribute to improving the professional training of future engineers.

Key words: technical competence, engineering education, pedagogical mechanisms, competence-based approach, dual education, project-based learning, European experience.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические механизмы развития технической компетентности студентов технических направлений на основе опыта европейского инженерного образования. Раскрывается сущность компетентностного подхода, практико-ориентированного обучения и инновационных методов подготовки инженеров. Обосновывается роль проектного обучения, дуальной системы и цифровых технологий в формировании профессиональных навыков. Определяются структурные компоненты и критерии оценки технической компетентности. Рассматриваются возможности адаптации европейского опыта к национальной системе технического образования. Результаты исследования направлены на совершенствование профессиональной подготовки будущих инженеров.

Ключевые слова: техническая компетентность, инженерное образование, педагогические механизмы, компетентностный подход, дуальное обучение, проектное обучение, европейский опыт.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim mazmunini kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Bu esa, ayniqsa, kasb ta'limi nazariyasi va metodikasi (texnika yo'nalishlari) ixtisosliklari doirasida texnik kompetentlikni rivojlantirish muammosini dolzarblashtiradi. Bizga ma'lumki, muhandislik ta'limida xalqaro tajribani o'rganish va amaliyotga joriy etish zamonaviy islohotlarning muhim yo'nalishidir. Yevropa oliy ta'lim makonida

shakllangan Bolonya jarayoni ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalash g'oyasini ilgari surib, talabalarning amaliy tayyorgarligiga ustuvor ahamiyat berilishini asoslab berdi [2].

Shuningdek, CDIO konsepsiyasi mualliflari muhandis tayyorlash jarayonini "loyihalash → yaratish → joriy etish → ekspluatatsiya qilish" sikli asosida tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi [3]. Pedagogika nazariyasida kompetentlik tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan N. Xomskiy esa uni faoliyat samaradorligini ta'minlovchi bilim va qobiliyatlar majmui sifatida talqin qilgan [4].

Keyinchalik J. Raven kompetentlikni shaxsning integrativ xususiyati sifatida izohlab, uni amaliyot bilan bog'liq holda shakllantirish zarurligini ilgari surgan [5]. Ushbu nazariy qarashlar texnik ta'lim mazmunini yangilash va pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini tahlil qilish va milliy amaliyotga moslashtirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur maqolada muammo nazariy va metodologik jihatdan bir qator fundamental manbalar asosida tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son[1] Farmoni oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va kompetentlikka asoslangan yondashuvni joriy etish zarurligini belgilab beradi. Bolonya jarayoni hujjatlari ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalash tamoyilini ilgari suradi. CDIO konsepsiyasi mualliflari (E. Crawley va boshqalar) muhandis tayyorlashni nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida tashkil etishni asoslaydi.

N. Chomsky kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini shakllantirgan bo'lsa, J. Raven uni integrativ faoliyat sifati sifatida talqin qiladi.

M. Mulder kompetentlikka asoslangan ta'lim modelini metodik jihatdan rivojlantiradi, ENAEE standartlari esa muhandislik ta'limi kompetensiyalarini aniqlashtiradi. Biggs va Tang natijaga yo'naltirilgan ta'lim hamda baholash mexanizmlarini ilmiy asoslab beradi.

Muhandislik ta'limi nazariyasidagi zamonaviy qarashlar ta'lim jarayonini "natijaga yo'naltirilgan tizim" sifatida ko'rishni taklif etadi. Bolonya jarayoni ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalash g'oyasini ilgari surdi [1]. Bu yondashuvda fan mazmuni emas, balki shakllangan qobiliyat markaziy o'rin tutadi. Ya'ni talabaning ma'lumot hajmi emas, uning muammoni hal qilish qobiliyati asosiy mezonga aylanadi.

CDIO konsepsiyasi esa muhandis tayyorlashni ishlab chiqarish jarayoni mantig'i bilan uyg'unlashtiradi [3]. Bu yerda nazariya amaliyotdan uzilmaydi, aksincha, har bir nazariy tushuncha real loyihaviy faoliyat orqali mustahkamlanadi. Shu tarzda bilim dinamik holatga o'tadi va qo'llanadi, qayta ko'rib chiqiladi hamda takomillashadi. Shu nuqtayi nazardan, texnik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi uch asosiy tayanchga ega:

- *birinchisi,* nazariy bilimning muammoli vaziyat bilan bog'lanishi;
- *ikkinchisi,* loyihaviy va tadqiqot faoliyati orqali mustaqil qaror qabul qilish tajribasini shakllantirish;
- *uchinchisi,* refleksiya, ya'ni talabaning o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Muammo shundaki, ta'lim jarayonida ushbu uchlik uzviy birlikda ta'minlanmasa, kompetentlik shakllanmaydi. Talaba bilim oladi, lekin uning amaliy qiymati ochilmaydi. Shuning uchun texnik kompetentlikni rivojlantirish alohida fan yoki mashg'ulot masalasi emas, balki butun ta'lim tizimining metodologik qayta qurilishi demakdir. Agar texnik kompetentlik ta'lim tizimining umumiy qayta qurilishi orqali shakllanadi, degan xulosaga kelsak, unda bu qayta qurilish qanday mexanizmlarga tayanadi, degan savol tug'iladi.

Xorijiy muhandislik ta'limi amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, texnik kompetentlikni rivojlantirish tasodifiy jarayon emas, balki aniq konseptual va pedagogik mexanizmlarga asoslanadi. Masalan, CDIO konsepsiyasi muallifi E. Crawley muhandis tayyorlashni nazariya va amaliyot birligida qurish zarurligini ta'kidlaydi [3]. Uning fikricha, talaba bilimni faqat o'zlashtirmasligi, balki uni loyihalash, amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish jarayonida qayta ishlab, amaliyot orqali mustahkamlashi lozim. Bu yerda kompetentlik dinamik holat sifatida namoyon bo'ladi.

Yevropa akkreditatsiya standartlari (ENAEE) ta'lim natijalarini aniq kompetensiyalar tizimi orqali belgilaydi [2]. Bunda tahliliy fikrlash, jamoaviy faoliyat, muammoni kompleks hal qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati baholash mezonlariga aylanadi. Demak, baholash tizimi o'qitishdan ajralgan bosqich emas, balki kompetentlikni shakllantirishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Yana bir olim J. Ravenning integrativ yondashuvi [5] asosida xorijiy amaliyotda shaxsiy mas'uliyat, motivatsiya va kasbiy pozitsiyani shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.

Loyihaviy ta'lim, keys-metod, tadqiqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar talabani faol subyektga aylantiradi.

1 https://lex.uz/uz/docs/-4545884

Bu jarayonda o‘qituvchi axborot manbai emas, balki ta’lim arxitekturasini tashkil etuvchi va maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Shu tahlillarga tayangan holda, texnik kompetentlikni rivojlantirishning quyidagi modeli taklif etiladi:

- muammoli o‘qitish orqali nazariy bilimni amaliy vaziyat bilan bog‘lash;
- loyiha va startap faoliyati orqali mustaqil qaror qabul qilish tajribasini shakllantirish;
- ishlab chiqarish bilan integratsiya (dual ta’lim elementlari) orqali real muhit tajribasini ta’minlash;
- refleksiv baholash mexanizmi orqali o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat.

Ushbu mexanizmlar alohida emas, balki o‘zaro uyg‘un tizim sifatida amal qilgandagina samara beradi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, texnik kompetentlik fan mazmuni orqali emas, balki faoliyat arxitekturasi orqali shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Yevropa muhandislik ta’limi tajribasi asosida texnika yo‘nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asoslashga qaratilgan bo‘lib, unda tizimli, kompetentlikka asoslangan, qiyosiy-tahliliy hamda amaliy-eksperimental yondashuvlar qo‘llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosi oliy ta’lim pedagogikasi, kasbiy ta’lim nazariyasi, kompetentlik konsepsiyasi, konstruktivizm va faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga tayanadi. Shuningdek, Yevropa oliy ta’lim makonida shakllangan kompetentlik modeli, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning), dual ta’lim tizimi hamda raqamli pedagogika tamoyillari nazariy manba sifatida qabul qilindi. Tadqiqot dizayni aralash (mixed methods) model asosida ishlab chiqildi, bunda sifat va miqdoriy metodlar integratsiyasi ta’minlandi. Tadqiqot obyekti sifatida texnika yo‘nalishlari talabalari, predmeti sifatida esa ularning texnik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar belgilandi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, kontent-tahlil, anketa-so‘rov, yarim strukturaviy intervyu, kuzatish hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali Yevropa muhandislik ta’limi tajribasi va milliy texnik ta’lim tizimi o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Kontent-tahlil usuli yordamida o‘quv dasturlari, kompetensiyalar ro‘yxati hamda baholash mezonlari tizimlashtirildi.

Tajriba-sinov bosqichida loyiha asosida o‘qitish, amaliy laboratoriya mashg‘ulotlari va dual ta’lim elementlari joriy etilib, ularning talabalarning texnik kompetentligiga ta’siri aniqlashtirildi. Olingan natijalar matematik-statistik metodlar – foizli taqsimot, o‘rtacha arifmetik qiymat, dispersiya va korrelyatsion tahlil asosida qayta ishlanib, ishonchlilik darajasi tekshirildi. Tadqiqotning validligi va reliabelligini ta’minlash maqsadida natijalar turli manbalar bilan triangulyatsiya qilindi. Tadqiqot jarayonida axloqiy me’yorlarga rioya qilinib, ishtirokchilarning ixtiyoriy roziligi va ma’lumotlar maxfiyligi kafolatlandi. Mazkur metodologik yondashuv texnik kompetentlikni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash, ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugun zamonaviy kadrlar bozori talabi muhandisdan faqat nazariy bilimni emas, balki tez o‘zgarayotgan texnologik muhitda mustaqil qaror qabul qila olish, muammoni kompleks ko‘ra bilish va innovatsion yechim taklif etish qobiliyatini talab etmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari raqamlashmoqda, avtomatlashtirilmoqda, global integratsiya kuchaymoqda. Bunday sharoitda tayyor algoritmlar bilan ishlash yetarli emas; vaziyatni chuqur tahlil qilish va yangi yechim yaratish zarur bo‘ladi. Muhandis tayyorlash masalasi mohiyatan “qancha o‘qitildi?” degan savol bilan emas, balki “qanday ishlay oladi?” degan savol bilan baholanishi kerak. Chunki texnika sohasida bilim o‘z-o‘zicha qimmat emas, u faoliyat jarayonida o‘z qiymatini topadi. Real ishlab chiqarish muhitida har bir qaror noaniqlik sharoitida qabul qilinadi, omillar doimo o‘zgarib turadi, nazariy modellar esa ko‘p hollarda ideal sharoitni nazarda tutadi. Demak, muhandislik ta’limida asosiy vazifa talabani tayyor bilim egasiga emas, balki o‘zgaruvchan sharoitda mustaqil fikrlay oladigan mutaxassisga aylantirishdir.

Texnik kompetentlik aynan shu o‘tish nuqtasida shakllanadi; u kognitiv bilim, amaliy malaka va shaxsiy mas’uliyatning bir butun tizimga birlashgan holatidir. Kompetentlikni faqat “bilish” kategoriyasiga sig‘dirib bo‘lmaydi, u “faoliyatga tayyorlik” va “faoliyatni amalga oshirish qobiliyati” bilan o‘lchanadi. N. Xomskiy kompetensiyani insonning ichki imkoniyati sifatida talqin qilgan [4]. Bu g‘oya pedagogikada yangi mazmun kasb etdi: ichki imkoniyat tashqi faoliyat orqali namoyon bo‘lmaguncha, u kompetentlik sifatida baholanmaydi. J. Raven kompetentlikni shaxsning samarali faoliyatini ta’minlovchi integrativ sifat deb ta’riflar ekan, uning tarkibiga bilim bilan bir qatorda motivatsiya, qadriyat va tajribani ham kiritadi [5].

Muhandislik ta'limi nuqtayi nazaridan qaralganda, bu fikr nihoyatda muhimdir: agar talabada faqat texnik bilim bo'lsa, lekin mas'uliyat va kasbiy pozitsiya shakllanmagan bo'lsa, u to'liq kompetent muhandis sifatida shakllanmaydi. Demak, texnik kompetentlik bu bilimning amaliy kuchga aylangan holatidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar asosida texnik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ pedagogik modeli taklif etiladi. Mazkur model o'zaro bog'liq beshta komponentdan iborat.

Birinchidan, kognitiv komponent – fundamental va maxsus texnik bilimlarni o'zlashtirish. Biroq bu bilimlar izolyatsiya holatida emas, balki muammoli vaziyatlar bilan bog'langan holda taqdim etiladi. Nazariy material real texnik keyslar orqali mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, operatsion-faoliyat komponenti – loyiha, tadqiqot va ishlab chiqarishga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bu bosqichda CDIO tamoyillari amal qiladi.

Uchinchidan, aksiologik (qadriyatga oid) komponent – muhandislik madaniyati, kasbiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini anglashni nazarda tutadi.

To'rtinchidan, refleksiv komponent – talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishi, xatolardan xulosa chiqarishi va o'z kompetentlik darajasini baholashini ta'minlaydi. Bu bosqich ENAEE standartlaridagi natijaga yo'naltirilgan baholash tizimi bilan uyg'unlashadi.

Beshinchidan, modelning ishlash mexanizmlari barcha komponentlarning izchil ketma-ketligiga emas, balki spiralsimon rivojlanish mantig'iga asoslanadi. Har bir yangi bosqich avvalgi tajribani chuqurlashtiradi, ya'ni nazariya → amaliy faoliyat → refleksiya → takomillashtirish zanjiri doimiy takrorlanib boradi. Shu tariqa texnik kompetentlik fan mazmunining natijasi emas, balki ta'lim muhitining to'g'ri tashkil etilgan arxitekturasi natijasi sifatida shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida texnik kompetentlikni shakllantirish masalasi faqat o'quv rejasini takomillashtirish yoki alohida metodni joriy etish bilan cheklanmasligi aniqlandi. Muhandislik ta'limida kompetentlik bilim, faoliyat va shaxsiy pozitsiyaning integratsiyasi natijasidir. Agar ta'lim jarayonida nazariya amaliy vazifa bilan bog'lanmasa, refleksiya mexanizmi ishlamasa va baholash tizimi natijaga yo'naltirilmasa, texnik kompetentlik to'liq shakllanmaydi. Xalqaro muhandislik ta'limi amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetentlik mazmun orqali emas, balki ta'lim arxitekturasi orqali shakllanadi. CDIO yondashuvi, natijaga asoslangan baholash tizimi va loyihaviy ta'lim shakllari texnik kompetentlikni rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Taklif etilgan integrativ model texnik kompetentlikni kognitiv, operatsion, aksiologik va refleksiv komponentlar birligida ko'radi. Ushbu model nazariya – amaliyot – refleksiya zanjiri asosida faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, texnika yo'nalishlarida ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish, loyihaviy va dual ta'lim elementlarini kuchaytirish hamda kompetentlikka asoslangan baholash tizimini joriy etish zamonaviy muhandis tayyorlashning strategik sharti hisoblanadi. Demak, texnik kompetentlik fan natijasi emas, balki tizimli tashkil etilgan ta'lim jarayonining samarasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida: Farmon, 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son. – Toshkent, 2019. – 10-b. https://lex.uz/uz/docs/-4545884
2. European Higher Education Area (EHEA). The Bologna Process 2020: The European Higher Education Area in the New Decade. Communiqué of the Conference of European Ministers Responsible for Higher Education. – Leuven and Louvain-la-Neuve, 2009. – 8 p.
3. Crawley E.F., Malmqvist J., Östlund S., Brodeur D.R. Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. – New York: Springer, 2007. – 286 p.
4. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 251 p.
5. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K. Lewis & Co. Ltd., 1984. – 251 p.
6. Mulder M. Competence-Based Education and Training. – Wageningen: Wageningen University, 2007. (Kompetentlikka asoslangan ta'lim nazariyasi bo'yicha muhim manba).
7. European Network for Accreditation of Engineering Education (ENAEE). EUR-ACE Framework Standards and Guidelines. – Brussels, 2015. (Muhandislik ta'limi kompetensiyalari bo'yicha rasmiy hujjat).
8. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – Maidenhead: Open University Press, 2011.

TILNING OBRAZLI KUCHI: PERIFRAZALAR TURLARI VA XUSUSIYATLARI



Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
ORCID: 0000-0002-3898-2113

Annotatsiya: Ushbu maqolada perifraza tushunchasi, uning turlari va xususiyatlari tahlil qilinadi. Perifrazalar frazeologik, sintaktik va mantiqiy turlarga bo'linadi, shuningdek, til yoki nutq hodisasi sifatida sof (lisoniy) va kontekstual (okkazional) turlarga ajratiladi. Maqolada perifrazalarning tasviriy kuchi, so'z boyligini oshirish va fikrni jonli ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: perifraza, frazeologik perifraza, sintaktik perifraza, mantiqiy perifraza, sof (lisoniy) perifraza, kontekstual (okkazional) perifraza, tasviriy ifoda, til boyligi.

Abstract: This article examines the concept of paraphrase and its classification. Paraphrases are divided into phraseological, syntactic, and logical types and, from the perspective of language or speech, into purely linguistic and contextual (occasional) forms. The study highlights the expressive power of paraphrases and their role in enriching vocabulary and conveying ideas in a vivid and figurative manner.

Key words: paraphrase, phraseological paraphrase, syntactic paraphrase, logical paraphrase, purely linguistic paraphrase, contextual (occasional) paraphrase, figurative expression, language richness.

Аннотация: В данной статье анализируются понятие перифразы и её классификация. Перифразы подразделяются на фразеологические, синтаксические и логические, а также с точки зрения языка или речи – на собственно языковые (лисонные) и контекстуальные (окказиональные). Освещается выразительная сила перифраз, их роль в обогащении словарного запаса и живом, образном выражении мысли.

Ключевые слова: перифраза, фразеологическая перифраза, синтаксическая перифраза, логическая перифраза, собственно языковая перифраза, контекстуальная перифраза, выразительная сила, богатство языка.

KIRISH

Til – inson fikrini, his-tuyg'ularini va dunyoqarashini ifodalash vositasi sifatida noyob kuchga ega. Shu jumladan, perifrazalar tilning eng obrazli vositalaridan biri bo'lib, ular yordamida so'zlar va iboralar oddiy nomlash chegarasidan chiqib, yanada rang-barang, tasviriy hamda ta'sirchan ma'no kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mantiq ilmining bu xususiyati ayrim perifrazalarning shakllanishi va mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Shuning uchun bunday perifrazalarni shartli ravishda logik yoki mantiqiy perifrazalar deb nomlash mumkin. Masalan, "O'zbek adabiy tilining asoschisi", "G'azal mulkining sultoni", "O'zbek adabiyotining bayroqdori" singari perifrazalar mantiqiy motivlovchi asosiga ko'ra Alisher Navoiyga nisbatan aytilgani sezilib turadi. Yoki "baxt va shodlik kuychisi" perifrazasi ham mantiqiy jihatdan shoir Hamid Olimjonni ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. "O'zbek romanchilik maktabining asoschisi" degan perifraza esa Abdulla Qodiriy ijodiga nisbatan aytilgani yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, quyidagi matnda perifrazalar Sohibqiron Amir Temur xarakterini ifodalash uchun qo'llanganini sezish qiyin emas: "Sohibqiron bir oyog'ini ikkinchisidan tashlab qadam bosar, dodxoh nazarida bu odam bir paytlardagi baland bo'yli, chorpaxil, oyoq-qo'llari uzun, pahlavonkelbat Temurbek emas, yillar zalvoridan yelkalari bir oz chiqqan, sezir-sezilmas cho'kkan (buni Muhammad Churog'a dodxoh sezadi, xolos!), ko'pdan buyon saltanat yukini yelkasiga dadil ortmoqlagan katxudo, mo'ysafidlik shartlarini inkor etishga qodirman, vaqtni yengib bo'lmasa-da, uni ham tiz cho'ktira olaman, deb urinayotgan Amir Temur edi".

Perifrazalarni til yoki nutq hodisasi ekanligi nuqtayi nazaridan quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

1. **Sof perifrazalar (yoki til (lisoniy) perifrazalari).** Bu turdagi perifrazalar hech qanday vositasiz, ya'ni muayyan matnsiz ham aniq ma'no va tushunchani ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, fasllar kelinchagi – bahor, olimlar – ilm zahmatkashlari, ichki ishlar xodimlari – osoyishtalik posbonlari, tibbiyot xodimlari – salomatlik posbonlari, Abu Ali ibn Sino – buyuk hakim, barcha ne'matlarning sultoni – non kabilar. Umuman, sof perifrazalar shartli ravishda til birligi sifatida alohida, mustaqil qo'llana olishi, badiiy bo'yoqqa bevosita ega ekanligi bilan ajralib turadi.
2. **Kontekstual yoki okkazional perifrazalar.** Bunday perifrazalar ma'lum bir nutq doirasidagina qo'llanishi bilan sof perifrazalardan ajralib turadi. Ular muayyan bir matndagina yaratilib, shu matn uchungina yashaydigan tasviriy ifodalar sanaladi. Kontekstual yoki okkazional perifrazalarni u yoki bu matndan tashqarida alohida olib bo'lmaydi. Bunday perifrazalar faqat alohida olingan matndagina, boshqa so'zlar qurshovidagina muayyan til birligiga nisbatan tasviriy ifoda vazifasini bajaradi. Masalan, shoir Usmon Nosir "1870" nomli she'rida Volga daryosini "och Rusning yoshi" degan kontekstual perifraza orqali tasvirlaydi: "Volga! Volga – och Rusning yoshi, // Volga! Volga! Fig'onli daryo // Quyosh go'yo Razinning yoshi // Keng bag'ringda hamon mag'rur, ol". Shoir "Tiflis oqshomi" she'rida u yerdagi go'zal tabiatni zavq va lirik hayajon bilan ta'riflaydi, bunda shoir uchun ajoyib o'xshatishlar va osmonni "kashtali chodir" kontekstual perifrazasi bilan tasvirlash muhim uslubiy vosita vazifasini bajargan: "Yulduzlar yonar... Gurji qizlarning // Ko'zlari kabi // Aragvadan esgan mayin yel o'ynar // Barglar – asabiy... // Tuya misolida oq bulut suzar. // Sudralib bari // Osmon – kashtali chodir... uzoq chetlari Kurradan nari". "Biroq noiloj u, "Ulug' mamlakat"ga qanchalik sadoqat bilan xizmat qilmasin, o'sha davr alomatlarini qalbi to'riga yutishga majbur edi".

Keltirilgan misolda "Ulug' mamlakat" perifrazasi kinoyali ohangda sobiq Ittifoq, Moskva ma'nosini ifodalaydi. Matndan tashqarida bu perifraza xuddi shu ma'no qirrasiga ega bo'lmasligi ham mumkin. Shoira Zulfiya o'z she'rlaridan birida paxtaga nisbatan "oq zar", "oq baxt" kontekstual perifrazalarini qo'llagan edi: "Kiprik bilan terib olindi oq zar, // Yarqirab turibdi ahdimiz oq baxt". Yoki yozuvchi Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida Hirot, Samarqand shaharlari haqida quyidagi okkazional perifrazalar hosil qilingan: "Agar Xuroson bir uzuk ersa, Hirot uning yoqut ko'zidir, hazratim! – dedi mag'rur malika. – Kimdandir: "Eng yaxshi shahar qaysi?", – deb so'rabdurlar. Aytibdurlar: "Agar javobim chiroyli chiqsin, desang, "Hirot!" deb javob bergil, chunki Hirot – shaharlar durdonasidir!"; "... Olloh bergan umrni tuqqan yurti Turon dovrug'ini olamga yoyishga baxshida etdi. Dunyo bir uzuk ersa, Samarqand – firdavsmonand dorussaltanatni uning yoqut ko'ziga aylantiradi..." kabilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot "Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari" mavzusini lingvistik hamda stilistik jihatdan o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tizimli, struktur-semantik va funksional yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi umumiy tilshunoslik, stilistika, frazeologiya hamda matn lingvistikasi nazariyalariga tayanadi. Perifrazaning til tizimidagi o'rni, uning nominativ va ekspressiv funksiyalari, shuningdek, obrazlilikni yuzaga keltirish mexanizmlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot dizayni sifat jihatidan tavsifiy-analitik xarakterga ega bo'lib, perifrazalarning frazeologik, sintaktik va mantiqiy turlari hamda sof (lisoniy) va kontekstual (okkazional) ko'rinishlari qiyosiy asosda o'rganildi. Tadqiqot materiali sifatida badiiy adabiyot namunalari, publitsistik matnlar, ommaviy axborot vositalari materiallari hamda zamonaviy nutq namunalaridan tanlab olingan perifrazalar korpusi shakllantirildi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida tanlab olish (seleksiya), kartotekalash va kontekstual kuzatish metodlaridan foydalanildi. Tahlil bosqichida struktur-semantik tahlil, komponent tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil hamda pragmatik tahlil usullari qo'llanildi. Struktur-semantik tahlil perifrazalarning ichki tuzilishi va ma'no qatlamlarini aniqlashga xizmat qildi, komponent tahlil esa ularning obraz hosil qiluvchi birliklarini ajratishga imkon berdi.

Qiyosiy tahlil orqali perifrazalarning turli uslubiy qatlamlardagi funksional xususiyatlari solishtirildi. Pragmatik yondashuv asosida perifrazalarning nutqiy vaziyatda muallif maqsadini ifodalashdagi roli va kommunikativ samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida tahlil qilingan birliklar turli manbalardan olingan matnlar bilan taqqoslandi hamda umumlashtirish va tipologik tasniflash usullari asosida xulosalar shakllantirildi. Mazkur metodologik yondashuv perifrazalarning tilning obrazli kuchini oshirishdagi o'rni, ularning stilistik va funksional imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Perifrazalar tuzilishiga, ta'sirchanlikni ifodalashiga va ma'no xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Frazeologik perifrazalar.** Bunday perifrazalar ayrim predmet va voqea-hodisalarni frazeologik shakldagi tasviriy ifodalar orqali nomlash uchun xizmat qiladi. Bu perifrazalar tarkibidagi bir so'z to'g'ri, o'z ma'no-

sida, ikkinchisi esa ko‘chma ma’noda bo‘ladi. Masalan, mashhur kishilarga nisbatan “yulduzlarga ortiqcha erk bermoq” frazemasi qo‘llanadi. Ana shu ibora frazeologik perifraza namunasi sanaladi: “Sportda har kimning rayiga qarab ish ko‘rib bo‘lmasligiga qattiq ishongan Sobirjon yulduzlarga ortiqcha erk bermadi” (Turk) kabilar.

2. **Sintaktik perifrazalar.** Ayrim so‘z birikmalari tasviriy ifoda sifatida kelib, sintaktik perifrazalarni hosil qiladi. Bunday holda so‘z birikmalaridan tuzilgan sintaktik perifrazalar tarkibidagi til birliklari o‘zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishib, ma’lum bir predmet yoki voqea-hodisani obrazli tasvirlash vositasi bo‘ladi. Masalan: televizor – oynayi jahon; gazeta – hayot ko‘zgusi; makkajo‘xori – dala malikasi; paxta terish mashinasi – zangori kema; samolyot – havo kemasi va boshqalar.

Sintaktik perifrazalarni tuzilishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) aniqlovchi-aniqlanmish shaklidagi sintaktik perifrazalar: qalam ahli, mo‘yqalam sohibi, qizil iztoparlar kabi;

b) qaratqich-qaralmish shaklidagi sintaktik perifrazalar: zangori kema kapitani, ko‘kning fonusi, hayot ko‘zgusi kabi;

d) izofali birikmalar shaklidagi sintaktik perifrazalar: obi hayot, sohibi o‘rmon, oynayi jahon, tolibi ilm kabi.

3. **Mantiqiy yoki logik perifrazalar.** Ma’lumki, mantiq ilmi narsa va hodisalar taraqqiyotidagi qonunlarning o‘zaro bog‘lanishi, tafakkur yordami bilan vujudga keladigan tushunchalar aloqasi va bog‘lanishini ifoda etadi. Agar so‘z narsalarning tartibi, bog‘lanishi, izchilligi, asoslanishi, tafakkur taraqqiyoti va qonuniyatlari haqida boradigan bo‘lsa, tafakkur mantiqi yoki subyektiv mantiq nazarda tutiladi.

XULOSA

Perifrazalarni til yoki nutq hodisasi nuqtai nazaridan tahlil qilganda, ularni ikki asosiy turga ajratish mumkin:

1. Sof (lisoniy) perifrazalar va kontekstual (okkazional) perifrazalar. Sof perifrazalar mustaqil til birliklari sifatida aniq ma’no va tushunchani ifodalay oladi hamda badiiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi bilan ajralib turadi.

2. Kontekstual perifrazalar esa faqat muayyan matn doirasida yashab, shu matnga xos tasviriy ifoda sifatida ishlatiladi; matndan tashqarida ularning ma’nosi va ta’siri pasayishi mumkin. Shu bois perifrazalar tilning obrazli kuchini oshiradi, so‘z boyligini kengaytiradi va fikrni yanada tasviriy hamda jonli ifodalash imkonini beradi.

Kelgusida boy faktik dalillar asosida kontekstual yoki okkazional perifrazalarni tadqiq etish maxsus izlanishni talab qiladi, deb o‘ylaymiz hamda biz o‘z ishimizda okkazional perifrazalar haqidagi ana shu mulohazalar bilan cheklanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ali M. Shohrux Mirzo. – Toshkent, 2005. – 114, 361-362, 365-366-betlar.
2. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Qo‘ng‘urov R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
4. Shomaqsudov A., Rasulov R., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
5. Tojiyev Y. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent: Universitet, 2000.
6. Usmon Nosir. Unutmas meni bog‘im. – Toshkent, 1935. – 297-bet.
7. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 7-b.
8. Zulfiya. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 1997. – 299-bet.

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Zayirkulova Nozima Ilyas qizi
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
https://orcid.org/0009-0006-5709-2921

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning individual rivojlanish ehtiyojlari, psixologik holati, o'quv faoliyatiga moslashuvi hamda alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi va maktab psixologining hamkorligi hamda individual va differensial yondashuvni qo'llash zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari inklyuziv muhitda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o'quv motivatsiyasi va psixologik farovonligini ta'minlashda pedagogik hamda psixologik omillarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Maqolada ilgari surilgan xulosalar boshlang'ich ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni samarali tashkil etish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, boshlang'ich sinf o'quvchilari, pedagogik xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, alohida ta'limga ehtiyoj, individual yondashuv, differensial ta'lim, ijtimoiy moslashuv, o'quv motivatsiyasi.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological features of working with primary school students in inclusive education. The study highlights the individual developmental needs of primary school students, their psychological state, adaptation to educational activities, and the importance of pedagogical approaches in working with children with special educational needs. The need for cooperation between a teacher and a school psychologist in the process of inclusive education and the use of an individual and differentiated approach are scientifically substantiated. The results of the study show that pedagogical and psychological factors play an important role in ensuring students' social adaptation, learning motivation, and psychological well-being in an inclusive environment. The conclusions presented in the article are of scientific and practical importance for the effective organization of an inclusive approach in the primary education system.

Key words: inclusive education, primary school students, pedagogical characteristics, psychological characteristics, special educational needs, individual approach, differentiated education, social adaptation, learning motivation.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и психологические особенности работы с учащимися начальной школы в условиях инклюзивного образования. В исследовании освещаются индивидуальные потребности развития учащихся начальной школы, их психологическое состояние, адаптация к учебной деятельности, а также важность педагогических подходов в работе с детьми с особыми образовательными потребностями. Научно обоснована необходимость сотрудничества учителя и школьного психолога в процессе инклюзивного образования, а также необходимость использования индивидуального и дифференцированного подхода. Результаты исследования показывают, что педагогические и психологические факторы играют важную роль в обеспечении социальной адаптации, мотивации к обучению и психологического благополучия учащихся в инклюзивной среде. Выводы, представленные в статье, имеют научное и практическое значение для эффективной организации инклюзивного подхода в системе начального образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, учащиеся начальной школы, педагогические характеристики, психологические характеристики, особые образовательные потребности, индивидуальный подход, дифференцированное образование, социальная адаптация, мотивация к обучению.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim g'oyalarining jadal rivojlanishi boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar bilan ishlashda yangi pedagogik va psixologik yondashuvlarni talab etmoqda. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi har bir bolaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshi bolalarning bilish jarayonlari, shaxsiy sifatlari va ijtimoiy xulq-atvori faol shakllanadigan muhim davr bo'lib, mazkur bosqichda inkly-

uziv yondashuvni samarali tashkil etish ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining idrok, diqqat, xotira, tafakkur, emotsional holat va o'quv motivatsiyasi jihatidan sezilarli individual farqlarga ega bo'ladilar. Ushbu farqlar inklyuziv ta'lim sharoitida yanada yaqqol namoyon bo'lib, o'qituvchidan differensial va individual yondashuvni talab etadi. Xususan, alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash jarayonida nafaqat pedagogik, balki psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ham to'g'ri tashkil etish muhim hisoblanadi.

Rivojlanishning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni va kattalar bilan o'zaro muloqot jarayonida shakllanadi. Bu jihatdan inklyuziv ta'lim muhiti bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytirishga, uning o'quv faoliyatidagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Jumladan, Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik yordam va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan bo'lib, u ta'lim tizimining barcha ishtirokchilaridan – o'qituvchi, psixolog, ota-ona va ta'lim muassasasidan uzviy hamkorlikni talab etadi. Xalqaro hujjatlarda inklyuziv ta'lim bolalarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik farovonligi va o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda pedagogik strategiyalarni psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurati dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv muhitni samarali tashkil etish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, psixologik savodxonligi hamda o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogik jarayonni moslashtirish, qulay psixologik muhit yaratish va ijobiy emotsional holatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish ta'lim amaliyoti uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida namoyon bo'ladigan pedagogik va psixologik xususiyatlar tahlil qilinib, ularni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalalariga e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, inklyuziv pedagogika hamda rivojlanish psixologiyasining asosiy tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv har bir o'quvchining individual rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olish, pedagogik jarayonni moslashtirish va psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni nazarda tutadi. Tadqiqot dizayni tavsifiy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda pedagogik hamda psixologik holatlarni aniqlash, tavsiflash va tahlil qilish asosiy maqsad etib belgilandi. Tadqiqot Sirdaryo viloyati hamda Toshkent viloyatidagi umumta'lim maktablarining inklyuziv ta'lim joriy etilgan boshlang'ich sinflari bazasida amalga oshirildi. Tanlanmaga 1-4-sinf o'quvchilari jalb etilib, ularning yosh xususiyatlari, ta'lim sharoitlari va o'quv jarayonidagi ishtiroki hisobga olindi. Tanlanmaning hududiy hamda sinf darajalari bo'yicha qamrab olinishi olingan natijalarning obyektivligi va umumlashtirilishini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik diagnostika, psixologik kuzatuv, suhbat va hujjatlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik diagnostika orqali o'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuvi, individual rivojlanish darajasi hamda alohida ta'limga ehtiyoj belgilari aniqlashga e'tibor qaratildi. Psixologik kuzatuv metodi o'quvchilarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi, sinf jamoasidagi o'zaro munosabatlari hamda pedagogik ta'sirlarga bo'lgan munosabatini aniqlash imkonini berdi. Suhbat metodi o'qituvchilar va maktab psixologlari bilan olib borilib, inklyuziv ta'lim sharoitida yuzaga kelayotgan pedagogik hamda psixologik muammolarni aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotda inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik xususiyatlarni aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan mezonlar hamda ko'rsatkichlar tizimi qo'llanildi. Ushbu mezonlar o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi faolligi, o'zlashtirish darajasi, ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi hamda pedagogik qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojini qamrab oldi. Mazkur ko'rsatkichlar inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik hamda psixologik omillarning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Olingan empirik ma'lumotlar tavsifiy statistik tahlil asosida qayta ishlanib, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar (son va foizlar) orqali umumlashtirildi. Statistik tahlil sinflar hamda guruhlar kesimida amalga oshirilib, pedagogik va psixologik xususiyatlarning tarqalishi hamda umumiy tendensiyalari aniqlandi. Ushbu yondashuv inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda mavjud holatni ilmiy asosda baholash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida etik tamoyillarga qat'iy rioya qilindi. O'quvchilar bilan olib borilgan diagnostika va kuzatuv ishlari ularning psixologik holatiga zarar yetkazmagan holda, ixtiyoriylik hamda maxfiylik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar faqat ilmiy tadqiqot maqsadlarida qo'llanilib, shaxsiy ma'lumot-

larning himoyasi ta'minlandi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuv inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik hamda psixologik xususiyatlarini kompleks o'rganish, ularni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur metodik poydevorni yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari tavsifiy statistik tahlil asosida o'rganildi. Olingan empirik ma'lumotlar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuvi, ijtimoiy-psixologik holati hamda pedagogik qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlari kesimida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inklyuziv ta'lim joriy etilgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlari sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi. Jumladan, 1-sinf o'quvchilari orasida o'quv faoliyatiga moslashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar ulushi yuqori ekanligi kuzatildi. Bu holat boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichida o'quv muhitiga moslashuv, yangi ijtimoiy rollarni egallash hamda o'quv faoliyatiga o'tish jarayonlarining murakkabligi bilan izohlanadi.

Psixologik kuzatuv natijalari o'quvchilarning emotsional holati va ijtimoiy moslashuvi inklyuziv ta'lim sharoitida muhim ko'rsatkichlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bo'lgan o'quvchilarda emotsional beqarorlik, tashabbusning pastligi hamda sinf jamoasiga qo'shilishda muayyan qiyinchiliklar aniqlangan bo'lsa-da, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash kuchaytirilgan sinflarda bu ko'rsatkichlarning ijobiy tomonga o'zgarishi qayd etildi. Pedagogik diagnostika natijalari o'qituvchining individual va differensial yondashuvni qo'llashi o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Inklyuziv muhitda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi pedagogik yordamning tizimliligi va psixologik qulay muhit yaratilishiga bevosita bog'liq ekani aniqlandi. Ayniqsa, o'qituvchi va maktab psixologi o'rtasidagi hamkorlik samarali tashkil etilgan hollarda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va o'quv motivatsiyasida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatildi. Tavsifiy statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik xususiyatlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni kompleks tarzda hisobga olish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi yuqori bo'lgan sinflarda o'quv faoliyatidagi faollik hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlari nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida pedagogik va psixologik omillarni uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqladi. Olingan empirik ma'lumotlar pedagogik qo'llab-quvvatlash va psixologik yordamning tizimli tashkil etilishi inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi hamda keyingi ilmiy tahlillar uchun mustahkam empirik asos yaratdi.

1-jadval: **Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi**

Sinf	O'quvchilar soni	Yaxshi moslashgan	Qisman moslashgan	Moslashuvda qiyinchilik
1-sinf	52	18 (34,6%)	21 (40,4%)	13 (25,0%)
2-sinf	49	20 (40,8%)	19 (38,8%)	10 (20,4%)
3-sinf	56	27 (48,2%)	20 (35,7%)	9 (16,1%)
4-sinf	54	29 (53,7%)	18 (33,3%)	7 (13,0%)

1-jadvalda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi sinflar kesimida ko'rsatilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1-sinf o'quvchilarida moslashuvda qiyinchilikka duch kelayotgan bolalar ulushi nisbatan yuqori. Yuqori sinflarga o'tilgan sari yaxshi moslashgan o'quvchilar ulushining oshishi kuzatiladi, bu esa o'quvchilarning psixologik barqarorlashuvi va inklyuziv muhitga moslashuvi bilan izohlanadi.

2-jadval: **Alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarning psixologik holati (kuzatuv natijalari asosida)**

Ko'rsatkichlar	Yuqori daraja	O'rtacha daraja	Past daraja
Emotsional barqarorlik	22 (33,3%)	28 (42,4%)	16 (24,3%)
Ijtimoiy moslashuv	25 (37,9%)	27 (40,9%)	14 (21,2%)
O'quv motivatsiyasi	20 (30,3%)	31 (47,0%)	15 (22,7%)

2-jadval alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarning asosiy psixologik ko'rsatkichlari bo'yicha taqsimotini aks ettiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning katta qismida psixologik ko'rsatkichlar o'rtacha darajada namoyon bo'lgan. Bu holat pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda olingan natijalar inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari jadval ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. 1-jadval ma'lumotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi sinflar kesimida bir xil emasligini ko'rsatdi. Xususan, 1-sinf o'quvchilarida moslashuvda qiyinchilikka duch kelayotgan bolalar ulushining yuqoriligi boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichida o'quvchilarning yangi ta'lim muhitiga kirish jarayoni murakkab kechishini tasdiqlaydi. Bu holat psixologik jihatdan bolalarning emotsional beqarorligi hamda ijtimoiy tajribaning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. 1-jadval natijalariga ko'ra, yuqori sinflarga o'tilgan sari yaxshi moslashgan o'quvchilar ulushi izchil ortib borgan. Ushbu tendensiya inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik jarayonning tizimli tashkil etilishi o'quvchilarning psixologik barqarorlashuvi va o'quv faoliyatiga moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 3-4-sinf o'quvchilarida moslashuv darajasining barqarorlashgani pedagogik qo'llab-quvvatlashning samaradorligini tasdiqlovchi muhim empirik dalil hisoblanadi.

2-jadvalda aks ettirilgan psixologik ko'rsatkichlar tahlili alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va o'quv motivatsiyasi o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Emotsional barqarorlik darajasi past bo'lgan o'quvchilarda o'quv motivatsiyasining ham sustligi kuzatilishi pedagogik va psixologik yondashuvlarni kompleks qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Bu holat inklyuziv ta'limda faqat didaktik yondashuv yetarli emasligini, balki psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ham kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Shuningdek, 2-jadval ma'lumotlari o'quvchilarning aksariyatida psixologik ko'rsatkichlar o'rtacha darajada ekanligini aniqladi. Bu esa inklyuziv ta'lim muhiti umumiy ijobiy psixologik fonni yaratishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Biroq o'rtacha daraja uzoq muddatli rivojlanish uchun yetarli bo'lmasligi mumkinligi sababli pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlashni individuallashtirish zarurati yuzaga keladi. Umuman olganda, jadval natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda pedagogik va psixologik omillarni uyg'unlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. O'quv faoliyatiga moslashuv darajasi va psixologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim amaliyotida pedagogik diagnostika hamda psixologik kuzatuv natijalariga tayangan holda ta'lim jarayonini rejalashtirish samaradorligini oshirish mumkinligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayoni murakkab pedagogik va psixologik omillarning o'zaro uyg'unlashuviga asoslanishini ilmiy jihatdan tasdiqladi. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi va psixologik ko'rsatkichlari bo'yicha olingan empirik ma'lumotlar inklyuziv ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik yondashuvlarning psixologik qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda tashkil etilishiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichida, xususan 1-sinfda, o'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuvi nisbatan qiyin kechadi. Ushbu holat bolalarning yangi ta'lim muhiti, o'quv faoliyati talablari va ijtimoiy munosabatlarga moslashish jarayonida psixologik yordamga bo'lgan ehtiyoji yuqori ekanligini anglatadi. Yuqori sinflarga o'tilgan sari moslashuv darajasining izchil yaxshilanishi esa inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik jarayonning tizimli va uzluksiz tashkil etilishi o'quvchilarning psixologik barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Psixologik ko'rsatkichlar tahlili alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarda emotsional holat, ijtimoiy moslashuv va o'quv motivatsiyasi o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Emotsional barqarorlik darajasi past bo'lgan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishning susayishi va moslashuvdagi qiyinchiliklarning kuchayishi inklyuziv ta'lim jarayonida psixologik omillarni e'tiborsiz qoldirish mumkin emasligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu bois, inklyuziv muhitda pedagogik yondashuvlar psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda individual va differensial yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Pedagogik diagnostika va psixologik kuzatuv natijalariga tayangan holda ta'lim jarayonini rejalashtirish o'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuvini yengillashtiradi, ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi hamda o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlariga erishishda muhim shart hisoblanadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda yoritib berdi hamda ta'lim amaliyoti uchun muhim xulosalarni ilgari surdi. Olingan natijalar boshlang'ich ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni takomillashtirish, pedagoglar va maktab psixologlari faoliyatini uyg'unlashtirish hamda o'quvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Triviño-Amigo N., Mendoza-Muñoz D.M., Mayordomo-Pinilla N., Barrios-Fernández S., Contreras-Barraza N., Gil-Marín M., Castillo D., Galán-Arroyo C., Jorge J. Inclusive Education in Primary and Secondary School: Perception of Teacher Training // Int. J. Environ. Res. Public Health. – 2022. – Vol. 19(23), Article 15451. – doi:10.3390/ijerph192315451.
2. Jumriah J., Fauziah P.Y. Implementation of Inclusive Education for Children with Disabilities in Mongisidi 1 Primary School // JPI (Jurnal Pendidikan Inklusi). – 2024. – Vol. 8, № 2. – P. 143–155. – doi:10.26740/inklusi. v8n2.p143-155.
3. Çibukçiu B. The Relationship Between Constructivist Approach and Inclusive Education in Primary School // Frontiers in Education. – 2025. – Article 1600711. – doi:10.3389/feduc.2025.1600711.
4. Deroncele-Acosta A. Overcoming Challenges and Promoting Positive Education in Inclusive Schools: A Holistic Framework // Education Sciences. – 2024. – Vol. 14(11), Article 1169. – doi:10.3390/educsci14111169.
5. Masongsong J.M., Lopres J.R., Aguirre M.M., Lopres G.M., Enriquez D.B., Niadas G.Y., Virtusio J.D. Level of Teachers' Training in Inclusive Education and Their Sense of Efficacy // Int. J. Science and Management Studies. – 2023. – Vol. 6(5). – P. 70–87.
6. Кантор В.З., Проект Ю.Л., Кондракова И.Э., Литовченко О.В., Залаутдинова С.Е. Практика инклюзивного образования детей с ограниченными возможностями здоровья: реалии компетентностного обеспечения // Интеграция образования. – 2023. – Т. 27, № 1. – С. 82–99. – doi:10.15507/1991-9468.110.027.202301.082-099.
7. Измайлова Л.С. Подготовка педагогов начальной школы к работе с детьми с ограниченными возможностями здоровья в соответствии с нормативными требованиями // Педагогическое образование. – 2023.
8. Кантор В.З. Инклюзивные диспозиции и компетенции педагогов общеобразовательных организаций: проблемы взаимосвязи // Психология и образование. – 2024. – № 5.
9. Муминова Л.Р., Узакова З.Ф. Опыт Республики Узбекистан в переходе к инклюзивному образованию // Inclusion in Education. – 2019.
10. Муминова Л.Р., Нуркелдиева Д.А. Inclusion: Results-oriented education // Bola va Zamon. – 2019.
11. Каримова В.М. Педагогическая диагностика: теория и практика. – Тошкент: Fan. – 2020.
12. Муминова Л.Р., Шомахмудова Р.Ш., Ахмедова З.М. Инклюзивное образование (учебное пособие). – Тошкент: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti. – 2019.

MENTORLIK FAOLIYATIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Zikriyayev Zokir Mamirovich
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi professori v.b., p.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda mentorlik faoliyatining ahamiyati yoritilgan. Mentorlik jarayoni orqali bo‘lajak pedagoglar amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi va real pedagogik vaziyatlarda nazariy bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maqolada samarali mentorlik strategiyalari va metodlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mentorlik, boshlang‘ich ta’lim, kasbiy kompetensiya, pedagogik jarayon, tajriba almashinuvi, ustoz-shogird tizimi, kasbiy rivojlanish, o‘qituvchilar tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalar, strategiyalar va metodlar.

Abstract: This article highlights the importance of mentoring in developing the professional competencies of future primary school teachers. Through the mentoring process, prospective educators gain practical skills and reinforce their theoretical knowledge in real pedagogical situations. The article also analyzes effective mentoring strategies and methods.

Key words: mentoring, primary education, professional competence, pedagogical process, experience exchange, mentor-apprentice system, professional development, teacher training, practical skills, strategies and methods.

Аннотация: В данной статье освещается значимость наставничества в развитии профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов. В процессе наставничества будущие педагоги приобретают практические навыки и закрепляют теоретические знания в реальных педагогических ситуациях. В статье также анализируются эффективные стратегии и методы наставничества.

Ключевые слова: наставничество, начальное образование, профессиональная компетенция, педагогический процесс, обмен опытом, система “наставник–ученик”, профессиональное развитие, подготовка учителей, практические навыки, стратегии и методы.

KIRISH

Hozirgi vaqtda ta’limni modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish o‘qituvchilarning kasbiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatini doimiy ravishda rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bunga, avvalo, jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida bilim va ma’lumotlarning tez yangilanib borishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida texnologiyalarning keng joriy etilishi, shuningdek, sun’iy intellekt tizimlarining ayrim vazifalarni bajarishda tobora faol qo‘llanilayotgani sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy sharoitda mutaxassisning o‘z ustida muntazam ishlashi, bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, uning yuqori rivojlanish sur’atlari, ijtimoiy ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash hamda yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonlari ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, ta’lim jarayonida faol, ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va o‘zini doimiy ravishda rivojlantirishga intiladigan shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zini o‘zi rivojlantirish, tarbiyalash, yangi ma’lumotlarni mustaqil ravishda idrok etish va baholash, asosli qarorlar qabul qilish hamda yangi kasbiy g‘oyalarni yaratish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati va shaxsiy kamoloti oldida turgan muhim vazifalardandir. Aynan shunday fazilatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqishga xizmat qiladi [5; 6-b.].

Ta’lim sifatini oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetensiya – bu pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini samarali, mas’uliyatli va yuqori sifat darajasida amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, axloqiy fazilatlar hamda shaxsiy xususiyatlar majmuasidir [4]. Ushbu kompetensiya o‘qituvchining kasbiy faoliyat jarayonida mustaqil qaror qabul qilishi, muammoli vaziyatlarni samarali hal eta olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilishi va uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat fan doirasida bilim berishni, balki har bir o'quvchining ehtiyojini chuqur anglab, ularga individual yondasha olishni, ijodiy fikrlashni, kommunikativ va axloqiy jihatdan yetuk bo'lishni ham talab etadi. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari qay darajada shakllanganiga bevosita bog'liqdir [4; 2-b.].

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish ularning nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, mentorlik faoliyati samarali o'quv-amaliy jarayonni tashkil etishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

Mentorlik – bu tajribali pedagogning yangi boshlayotgan o'qituvchiga yoki pedagogik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga kasbiy rivojlanish yo'lida yo'l-yo'riq ko'rsatishi, maslahatlar berishi hamda amaliy yordam ko'rsatish jarayonidir. Ushbu jarayon orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari darsni rejalashtirish, sinfni boshqarish, o'quvchilar bilan individual ishlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash kabi yo'nalishlarda zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantiradilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda mentorlik faoliyati pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Jumladan, Jane Gilbert (2001-yil) o'z tadqiqotlarida mentorlikning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni haqida shunday ta'kidlaydi: "Mentorlik jarayoni yangi o'qituvchilarga nafaqat kasbiy bilimlarni o'zlashtirish, balki pedagogik vazifalarni amaliyotda samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi". Muallif mentorlikni o'qituvchining shaxsiy va professional o'sishining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Ushbu yondashuv mentorlikning faqat maslahat berish shakli emas, balki tizimli kasbiy rivojlanish mexanizmi ekanini asoslaydi.

Tajribali mentorlar bilan hamkorlik pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan yosh mutaxassislar uchun ishonchli tayanch vazifasini bajaradi. Ustoz-shogird tizimi orqali bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda kasbiy etikani anglash qobiliyatlari shakllanadi. Shu bilan birga, ular o'z kasbiy faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishni va doimiy rivojlanishga intilishni o'rganadilar. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari bilan umumta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlik asosida mentorlik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani ta'kidlanadi. Bunday hamkorlik nafaqat o'quv-amaliy tajribani mustahkamlaydi, balki maktablar uchun sifatli pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirishga ham xizmat qiladi [6; 4-b.].

Zamonaviy ta'lim nazariyasida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi nafaqat bilim va ko'nikmalar majmuasi, balki o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyat, fidoyilik hamda uzluksiz rivojlanishga intilish bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, mentor o'zining boy tajribasi, pedagogik mahorati va axloqiy namunasi orqali bo'lajak o'qituvchining kasbiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mentor shogirdiga real dars jarayonlarida amaliy yordam beradi, murakkab pedagogik vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishni o'rgatadi, shuningdek, zamonaviy metodlar va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish usullarini ko'rsatadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishiga mustahkam zamin yaratadi [7; 70–74-b.].

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida darsni rejalashtirish, muammoli vaziyatlarni hal etish, sinfni samarali boshqarish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlay olish va ularga mos yondashuvni tanlash kabi ko'nikmalar alohida qayd etiladi. Ushbu ko'nikmalar mentorlik jarayoni orqali samarali rivojlanadi. Shu bilan birga, mentorlik o'qituvchining kommunikativ madaniyati, refleksiya qobiliyati hamda kasbiy etikaga sodiqligini shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda mentorlik faoliyatining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda pedagogik kuzatish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilib, umumlashtirildi. Empirik baza sifatida oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablaridagi mentorlik amaliyoti olindi. Olingan ma'lumotlar tavsifiy va mantiqiy tahlil asosida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida mentorlik faoliyatining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida mentorlikning psixologik, pedagogik hamda axloqiy ta'sir mexanizmlari, shuningdek, u orqali rivojlanadigan asosiy kompetensiyalar aniqlashtirildi.

Olingan tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mentorlik faoliyati yosh o'qituvchilarning kasbiy moslashuv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Xususan, yangi faoliyat boshlayotgan pedagoglar o'z kasbiy

imkoniyatlarini baholashda duch keladigan ikkilanish va noaniqliklar mentor ko‘magi orqali bartaraf etiladi. Mentor tomonidan ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riq va amaliy yordam o‘qituvchida o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi hamda kasbiy identifikatsiya, ya’ni o‘zini o‘qituvchi sifatida anglash jarayonini tezlashtiradi. Bu holat pedagogning kasbiy faoliyatga ongli va mas’uliyatli yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi [3; 311–317-b.].

Tahlil natijalari mentorlik jarayoni orqali shakllanadigan kompetensiyalar tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi. Jumladan, darsni rejalashtirish va tashkil etish, ta’lim jarayonining maqsadga yo‘naltirilganligini ta’minlash, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos yondashuvni amalga oshirish, muammoli vaziyatlarni samarali hal etish hamda ta’limiy innovatsiyalarni qo‘llash kabi ko‘nikmalar mentorlik orqali izchil rivojlanadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, o‘tkazilgan tahlil mentorlikning kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlari – metodik, kommunikativ, texnologik, tashkiliy hamda shaxsiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil ekanini ko‘rsatdi. Metodik kompetensiya dars mazmunini loyihalash va fanlararo integratsiyani amalga oshirish orqali rivojlansa, kommunikativ kompetensiya o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot jarayonida shakllanadi. Texnologik kompetensiya esa raqamli vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali mustahkamlanadi. Tashkiliy kompetensiya sinfni boshqarish va dars vaqtini optimal taqsimlash jarayonida rivojlansa, shaxsiy-axloqiy kompetensiya pedagogik etika, kasbga sadoqat hamda o‘z-o‘zini baholash va rivojlantirishga intilish orqali namoyon bo‘ladi.

Tahlil shuni ham ko‘rsatdiki, mentorlik faqat individual tajriba almashinuvi shakli bo‘lib qolmasdan, balki ta’lim tizimida muhim institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda ta’lim sohasiga oid milliy dasturlarda mentorlik faoliyatining qo‘llab-quvvatlanishi uning tizimli va barqaror rivojlanishiga zamin yaratmoqda [1; 2-b.]. Bu esa mentorlikning rasmiy metodik-pedagogik faoliyat sifatida mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan tahlil natijalari mentorlik faoliyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanini tasdiqlaydi. Ushbu tizim orqali pedagogik amaliyotning samaradorligi oshadi, yosh o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va motivatsiyasi mustahkamlanadi hamda ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi [8; 54–61-b.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida mentorlik faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Zero, mentorlik nafaqat tajriba almashinuvi vositasi, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan, tizimli hamda maqsadli pedagogik jarayondir. Tajribali mentor ko‘magida bo‘lajak o‘qituvchi real dars jarayonlariga moslashadi, metodik yondashuvlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi, shuningdek, o‘zining kuchli jihatlari va takomillashtirish zarur bo‘lgan tomonlarini anglaydi. Bu holat ularning kasbiy kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirish, o‘z-o‘zini baholash hamda uzluksiz o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, mentorlik faoliyatini pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida tizimli asosda yo‘lga qo‘yish, uning faoliyatini normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish va izchil qo‘llab-quvvatlash ta’lim sifatini oshirishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Kasbiy kompetensiyaga ega, o‘z kasbining mohiyatini chuqur anglagan pedagoglar esa yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil
2. 23-sentabr, O‘RQ-637-son. – 2-b. https://lex.uz/docs/-5013007
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-dekabrdagi “Ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). The pedagogical basics of training students for professional, moral and educational function. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311–317.
5. Nazarov, B. (2017). Pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishdagi mentorlikning ahamiyati. Toshkent: “Pedagogika va innovatsiyalar” ilmiy jurnali.
6. – 2-b.
7. Abdullayev, D. (2018). Pedagogik faoliyatda mentorlik amaliyoti. Toshkent: “Ta’lim nazariyasi va amaliyoti” jurnali, maxsus son. – 6-b.
8. Rasulov, O. (2020). Kasbiy kompetensiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: “Ilm-ziyo” nashriyoti. – 4-b.
9. Abrorkhonovna, A. K. (2022). Formation of a sense of patriotism through tourism in the current textbook “Upbringing” of primary education. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 5, 70–74.
10. Abrorxonova, K. A., & Qizi, S. M. S. (2022). Boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarini tashkil etishning usul va vositalari. Science and Innovation, 1(1), 54–61.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi, PhD, dotsent

Sunnatullayeva Amina
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy metodlar va interfaol o'yinlardan samarali foydalanish, shuningdek, ijodiy topshiriqlarning o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Yosh avlodni tarbiyalash va ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, fikrlash va mustaqil fikrlashning ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, mustaqil fikrlash, zamonaviy metod, yosh avlod, interfaol o'yin, ijodiy topshiriq, tafakkur, insert, debat, klaster, aqliy hujum.

Abstract: This article scientifically examines the effective use of modern teaching methods and interactive games in developing independent thinking among primary school students, as well as the role of creative tasks in shaping their thinking. The advantages of educating the younger generation and guiding them toward independent thinking are analyzed. The importance of thinking and independent thinking in the educational process is substantiated.

Key words: primary school, independent thinking, modern method, young generation, interactive game, creative task, thinking, INSERT, debate, cluster, brainstorming.

Аннотация: В статье на научной основе раскрываются вопросы эффективного использования современных методов и интерактивных игр в развитии самостоятельного мышления учащихся начальных классов, а также роль творческих заданий в формировании их мышления. Проанализированы преимущества воспитания подрастающего поколения и ориентации его на самостоятельное мышление. Обосновано значение мышления и самостоятельного мышления в образовательном процессе.

Ключевые слова: начальный класс, самостоятельное мышление, современный метод, молодое поколение, интерактивная игра, творческое задание, мышление, INSERT, дебаты, кластер, мозговой штурм.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim o'quvchining butun hayoti davomida bilim olish jarayonining mustahkam poydevorini yaratadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarni nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, balki ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil fikrlash – bu o'quvchilarning atrof-muhitni anglash, muammolarni mustaqil hal etish, turli vaziyatlarni tahlil qilish hamda to'g'ri xulosalar chiqarish qobiliyatidir.

Bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimi tobora kuchayib borayotgan bir paytda bolalarning turli ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi dolzarb vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim tizimini izchil isloh qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy hamda intellektual jihatdan rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion usullarini joriy etish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi Prezident farmoni qabul qilindi.

Yurtimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega, jahon miqyosida o'z tengdoshlariga munosib raqobat qila oladigan shaxslar bo'lib kamol topishi uchun davlat va jamiyatning barcha kuch hamda imkoniyatlari safarbar etilishini ta'kidlab o'tgan. Bu esa ta'limni sifatli tashkil etish, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli shaxslar sifatida tarbiyalash bugungi kunda dolzarb vazifa ekanini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu borada qabul qilinayotgan qaror va farmonlar asosida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish pedagogika va psixologiya fanlarining muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan,

L. S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'quvchining mustaqil va ko'mak asosida bajaradigan faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi hamda tafakkurning samarali rivojlanishini asoslaydi. Xorijiy tadqiqotlarda konstruktivistik yondashuv bilimning faol bilish jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. O'zbekiston olimlari ham mustaqil fikrlashni shakllantirishni ta'limning ustuvor vazifasi sifatida ko'radilar. Nazariy jihatdan, mustaqil fikrlash demokratik jamiyat uchun zarur bo'lgan faollik, mas'uliyat va erkin qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqotda nazariy va amaliy metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Nazariy bosqichda pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalar tahlil qilinib, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga oid konseptual yondashuvlar umumlashtirildi. Amaliy bosqichda muammoli ta'lim, interfaol metodlar ("Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Debat") hamda ijodiy topshiriqlar dars jarayoniga joriy etildi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. O'quvchilarning fikrlash faolligi, muammoni hal etish, xulosa chiqarish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalaridagi o'zgarishlar sifat jihatidan baholandi. Olingan natijalar pedagogik tajriba-sinov jarayonida metodlarning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda ijodiy topshiriqlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida mustaqil fikrlashning shakllanishi o'quvchilarning erkinlik darajasi, ularning bilish faoliyatidagi faolligi hamda individual va jamoaviy hamkorlikning ta'lim jarayonida to'g'ri tashkil etilishi bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Muammoli ta'lim usulidan foydalanish o'quvchilarning fikrlash faolligini sezilarli darajada oshirishi kuzatildi. Xususan, muammo asosida tuzilgan savollar o'quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko'ra, mustaqil ravishda yechim izlashga, muqobil variantlarni tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga undadi. Masalan, matematika darslarida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalarning qo'llanilishi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va tahliliy yondashuvini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Interfaol metodlardan, jumladan, "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT" va "Debat" usullaridan foydalanish dars jarayonida o'quvchilarning ishtirok faolligini oshirdi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalarning qarashlarini tahlil qilish va umumiy xulosalarga kelish ko'nikmalarini egalladilar. Natijada, dars jarayonida passiv tinglovchi bo'lib qoladigan o'quvchilar soni kamayib, faol muhokamada ishtirok etuvchi o'quvchilar ulushi ortdi.

O'yinlar va ijodiy topshiriqlarni qo'llash ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Strategik va syujetli-rolli o'yinlar o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, oldindan rejalashtirish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Ijodiy topshiriqlar esa o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirib, yangi g'oyalar ishlab chiqish va ularni turli shakllarda ifodalash ko'nikmalarini mustahkamladi.

Shuningdek, guruhli ishlash shakllaridan foydalanish o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, o'zaro fikr almashish va umumiy yechim topish malakalarini shakllantirishga yordam berdi. Bu jarayon mustaqil fikrlash bilan bir qatorda ijtimoiy kompetensiyalarning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida muammoli ta'lim, interfaol metodlar, o'yinlar va ijodiy topshiriqlar tizimli ravishda qo'llanilgan sharoitda o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi sezilarli darajada oshadi. Xususan, o'quvchilarning muammoni anglash, yechim izlash, o'z qarorini asoslash va natijani baholash kabi ko'nikmalari izchil rivojlanadi. Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat bilimlarni o'zlashtirish sifati yaxshilanadi, balki ularning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari ham mustahkamlanadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari mustaqil fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi hamda ularni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga keng joriy etish zarurligini asoslab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar, o'yinlar va ijodiy topshiriqlardan keng foydalanish o'quvchilarning fikrlash doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarda tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, bilimga qiziqishni oshiradi hamda mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi rivojlanish davrida yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatish yurtimiz kelajagini mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Shu bois o'quvchilarning mustaqil fikrlashini izchil rivojlantirish, ularni to'g'ri yo'naltirish va fikrlash doirasini kengaytirish ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF–5712-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4312785
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2021.
4. Vygotskiy, L. S. Tafakkur va nutq. – Moskva, 1934.
5. Dewey, J. Democracy and Education. – New York, 1916.
6. Avliyoqulov, A. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent, 2018.
7. Azizxo'jayeva, N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
8. Qodirova, F., Xoliqova, S. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2024.
9. Raimberdiyeva, Maftuna Abduraxmonovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodlari. – 76-bet.
10. Jumayeva, Sarvinoz Ilhombekovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. – 142-bet.

PROFESSIONAL KOMPETENTLILIK VA UNING SHAXS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

Artikova Nodira Shavkat qizi
Kimyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Kompetensiyalarni shakllantirish professional mutaxassis tayyorlash jarayonidagi eng murakkab va ko'p qirrali vazifalardan biridir. Mazkur jarayonni faqat universitet ta'limi doirasida to'liq amalga oshirish deyarli imkonsiz bo'lib, u nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda amaliy faoliyat, ijtimoiy tajriba va kasbiy muhit bilan uzviy integratsiyani talab etadi. Ushbu maqolada ijtimoiy-professional kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi hamda ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ochib beriladi. Tadqiqot doirasida mavzuga oid nazariy yondashuvlar umumlashtirilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: professional kompetentlik, kommunikativlik, tajriba, qobiliyat, ijtimoiy onglilik, fundamentallik, integratsiyalashuv, kasbiy faollik.

Abstract: The development of competencies is one of the most complex and multidimensional tasks in specialist training. More precisely, it cannot be fully achieved solely within the framework of university-based professional education, as it requires not only theoretical preparation but also practical experience, social interaction, and integration into a professional environment. This article examines the development of social and professional competencies and identifies the factors influencing their formation. The study summarizes relevant theoretical approaches and provides practical recommendations.

Key words: professional competence, communication skills, experience, ability, social awareness, fundamental principles, integration, professional activity.

Аннотация: Формирование компетенций является одной из наиболее сложных и многогранных задач в подготовке специалиста. Данный процесс практически невозможно полностью реализовать исключительно в условиях университетского профессионального обучения, поскольку он требует не только теоретической подготовки, но и практического опыта, социальной активности и интеграции в профессиональную среду. В статье анализируются вопросы развития социально-профессиональных компетенций и раскрываются факторы, влияющие на их формирование. В рамках исследования обобщены теоретические подходы и представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, коммуникативность, опыт, способности, социальная осведомлённость, фундаментальность, интеграция, профессиональная активность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasini isloh qilish, xalqaro talablar asosida o'quv jarayonini tashkil etish, yuqori kompetensiyalarga asoslangan yondashuvlar asosida ta'lim maqsadlarini aniqlash kabi ishlar yurtimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor maqsadlaridan biridir. Psixologik mazmunga ko'ra, insonning biror sohaga nazariy va amaliy tayyorgarligi kompetentlik sanalib, u professional kompetentlik bilan kengroq tushuntiriladi. E.M. Pamoxvaning fikricha, "professional kompetentlik" keng qamrovli psixologik tushuncha sanalib, unda shaxsga xos refleksiv, prognostik, analitik, tashkiliy, kommunikativ, proeksion hamda konstruktiv jihatlar mujassamdir. Demak, professional kompetensiya – insonning qadriyatlar olamiga kirishi hisoblanib, aynan unda inson mutaxassis sifatida o'zini anglaydi va yangilik yaratadi. Shuningdek, professional kompetensiya insondagi sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, qobiliyat, iste'dod, professional fazilatlar, motivatsiya hamda qator xarakterologik sifatlar mazmuniga ham javob beruvchi fenomen hisoblanadi. Uni tadqiq etish kasb va shaxs haqida o'ta ahamiyatli, qiziqarli ma'lumotlarni aniqlashga imkon berishi ehtimoldan xoli emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, professionallik xususiyati talabalarda kasbiy faoliyatni rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi psixologik omillardan biri sanalib, unda talaba shaxsiga xos xarakterologik xususiyatlar, ya'ni ma'naviy-axloqiy barkamollik, fidoiylik, hayotiy qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy onglilik, o'z-o'zini nazorat qilish, burch va majburiyatlarini oqilona anglash kabi psixologik sifatlar mujassamdir. Qoidaga ko'ra, mazkur sifatlarni shakllantirish talabaning o'z sohasiga bo'lgan motivatsion munosabatlarini rivojlantirish bilan ham xarakterlanadi. Bizningcha, talabalar shaxsida o'quv faoliyatiga nisbatan mas'uliyatlilikni ro'yobga chiqarish imkoniyatlari, avvalo, ta'lim muhitida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishdan boshlanadi. Mashg'ulotlarning murakkablik xarakteri talabalarning aqliy, hissiy-irodaviy, kommunikativ sohalarining rivojiga ham keng ta'sir etadi.

L.I. Dementiyning so'zlariga ko'ra, talabalarda professional kompetentlikni ro'yobga chiqarish ishlari ularda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi:

- atrofdagilar bilan erkin muloqot qila olish ko'nikmalari;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish malakalari;
- sohaga oid ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish;
- iqtisodiy va sohadagi yangiliklardan xabardorlik;
- ta'lim to'g'risidagi qonunlar, farmonlar hamda tegishli vazirliklarning buyruq va hujjatlari mazmunidan xabardorlik;
- xorij tillaridan birini mukammal bilish;
- boshqalarni o'zgartirishga nisbatan psixologik tayyorgarlik va hokazo.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatdagi professionallik mezonlari ixtiyoriy faoliyatning ikki jihatini qamrab olishi ta'kidlangan.

V.M. Borsova o'z tadqiqotlarida o'quv faoliyatida talabalarda professionallikni ro'yobga chiqaruvchi psixologik shart-sharoitlarning uch muhim jihatini ajratadi. V.A. Adolfning aytishicha, bo'lajak mutaxassis talabalarning malakasini oshirishga ixtisoslashgan dasturlar ikki muhim tamoyil asosida ish yuritishi lozim hisoblanadi. Ya'ni mazkur tamoyillar umumiy va maxsus turga ajratilib, u o'z mazmunida quyidagilarni maqsad qiladi:

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1. **Dinamizm tamoyili** – bu ta'lim dasturlarini doimiy o'zgartirib borish va yangilab turishni nazarda tutadi;
2. **Istiqbollik tamoyili** – bu bo'lajak mutaxassis psixolog talabalar tomonidan turli xil ta'lim imkoniyatlari tizimini chuqur tushunishlarini xarakterlaydi;
3. **Ko'p qirralik tamoyili** – bu bo'lajak mutaxassis psixolog talabalarning yuqori qiziqishlar ko'lami va talabalarning malakasi kabilarni o'z ichiga oladi;
4. **O'zaro ta'sirlashish tamoyili** – bu talabalar va talabalarning o'zaro munosabatlari hamda o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi muloqot jarayoni kabilar bilan tavsiflanadi.

V.A. Isayevning mulohazasiga ko'ra, kasbiy kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning mazmuniga ko'ra, bo'lajak mutaxassis talabalarda kasbiy mas'uliyat hissini rivojlantirish faqat o'qitish orqali emas, balki uslubiy va yangi pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun, avvalo, o'qitish muhitida psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhimdir. Mazkur shartlarga quyidagilar kiradi:

1. Mashg'ulotlarda o'qituvchining rolini o'zgartirish – bunda dastlab o'qituvchi bilimlarini yetkazish vazifasini bajaradi, o'quvchilarga nazariy ma'lumotlarni tushuntiradi yoki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan aktyor rolini bajaradi;
2. Talabalarning kasbiy faoliyatini rag'batlantiradigan innovatsion usullarni joriy etish. Bu o'qituvchining tajriba to'plashi va almashishi, ishdagi qiyinchiliklarni yengish va ijodiy loyihalash kabi qobiliyatlar orqali tushuntiriladi;
3. Talabalar kasbiy kompetensiyalarining ko'plab elementlariga va ularning individual xususiyatlarini takomillashtiradigan o'qitish usullaridan foydalanish. Bunday usullarga quyidagilar kiradi: ijobiy xatolar usuli, ijodiy-muammoli, o'yin shaklidagi usullar, rolli moslashuvlarni o'rganish texnikasi, g'oyalarni namoyish qilish va loyihalar metodlari va hokazo;

4. Talabalarning turli xil kasbiy va hayotiy shart-sharoitlariga e'tibor berish, ta'lim maqsadlari va mehnat bozorida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vaziyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirish;
5. O'quv jarayonida olingan tajribalarni o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan va ma'lum bir kishiga xos bo'lgan individual rivojlanish xususiyatlarini ta'minlaydigan hamda tezkor baholash operatsiyalaridan foydalana olish va hokazo.

Shunday qilib, biz kasbiy vakolatlarni rivojlantirish maqsadni belgilovchi tarkibiy qism sifatida harakat qilishini va o'ziga xos psixologik-pedagogik holatlarni shakllantirishda amalga oshirilishini kuzatishimiz mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'kidlash joizki, bo'lajak mutaxassis talabalar shaxsiga xos kasbiy yaroqlilik ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan va uni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin. V.A. Tolechekning fikricha, professional kompetentlikning ichki jihatlarini qadriyatli, texnologik va shaxsiy-ijodiy ko'rinishda tahlil etish ham mumkin. Talabaning qadriyatli tizimi, avvalo, falsafa fanining o'rganish masalalaridan biri sanaladi. Unda qadriyatlar tushunchasi mazmuniga oid barcha turdagi savollar ko'rib chiqiladi.

Professional kompetensiya mutaxassislarning professional tayyorgarlik holati bilan uzviy bog'liq sanalib, unda malaka, ishlash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, professional kamolotga erishish kabi jihatlar ajratiladi. Ya'ni malaka, mahorat, professional tajriba, professional bilim va ko'nikmalar professional kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

J. Nyuten "professional kompetentlik" tushunchasini tahlil etar ekan, uning fikricha, ushbu tushuncha mazmunida kasbga munosabat, muvaffaqiyatga intilish, professional motivatsiya hamda insonning sohaga bo'lgan qiziqishlari ham mujassamdir. Boshqa tadqiqotchilardan farqli o'laroq, V.A. Bodrovga ko'ra, professional kompetensiyaning shakllanganlik darajasi bo'lajak mutaxassislarning professional tayyorgarlik holati bilan uzviy bog'liq sanalib, unda malaka, ishlash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, professional kamolotga erishish kabi jihatlar ajratiladi. Ya'ni malaka, mahorat, professional tajriba, professional bilim va ko'nikmalar professional kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Professional kompetentlikning rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida ekspert baholashdan foydalandik. Bunda rus psixologi T.S. Timofeevaning so'rovnomasidan foydalandik. 1-jadvalda sifatlar va kompetensiyalar keltirilgan. 2-jadvalda esa talabalar tomonidan shu sifat va kompetensiyalarga berilgan o'rinlar aks etgan. Aytish lozimki, eksperiment jarayonida Toshkent amaliy fanlar universiteti hamda Kimyo xalqaro universiteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari respondent sifatida tanlab olindi.

1-jadval

№	Kasbiy sifatlar	Kasbiy kompetensiyalar
1	Diqqat-etiborlilik	Tadqiqotchilik,analitik qobiliyarlar
2	Kasbni qadriyat deb bilish va unga tegishlilikni ifodalash	Metod va metodologiyani tanlay olish. Real vaziyatga mos metodikalarni qo'llash qobiliyati
3	Kreativlik	Individga psixologik yordam ko'rsatish qobiliyati
4	Intuitsiya	Psixodiagnostik jarayonni tashkil etish va tahlilni amalga oshirish ko'nikmasi
5	O'z- o'zini anglash va o'z- o'zini tushunish	Profilaktik va korreksion dasturlarni yarata olish qobiliyati
6	O'z- o'ziga ishonch	Axborot texnologiyalaridan foydalana olish
7	gumanizm	Shaxslararo munosabatlarni o'rnata olish
8	Tolerantlik	Insonlarni qanday bo'lsa shunday qabul qilish
9	Emotsional barqarorlik	Psixika va faoliyatning rivojlanishini tadqiq eta olish
10	Yuqori intellectual rivojlanish	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish
11	Baholamaslik	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish
12	Empatiya	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish
13	Aytentiklik	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish

Yuqoridagi jadvaldagi sifat va kompetensiyalar ishlab chiqarish amaliyotida qaytgan talabalarga ahamiyatlilik darajasidan kelib chiqqan holda o'rinni belgilash vazifasi berildi. 2-jadvalda kompetensiyalarga berilgan o'rinlarni ko'rish mumkin. Talabalarga kasbiy faoliyatdagi muhim kompetensiyalarga tegishli o'rinni berish orqali o'zlarini shu kompetensiyalarga o'z munosabatlarini aks ettirishlri so'ralgan.

2-jadval

№	Kasbiy kompetensiyalar	O'rinlar
1	Tadqiqotchilik,analitik qobiliyarlar	8
2	Metod va metodologiyani tanlay olish. Real vaziyatga mos metodikalarni qo'llash qobiliyati	7
3	Individga psixologik yordam ko'rsatish qobiliyati	1
4	Psixodiagnostik jarayonni tashkil etish va taxlilni amalga oshirish ko'nikmasi	2
5	Profilaktik va korreksion dasturlarni yarata olish qobiliyati	3
6	Axborot texnologiyalaridan foydalana olish	10
7	Shaxslararo munosabatlarni o'rnata olish	4
8	Insonlarni qanday bo'lsa shunday qabul qilish	5
9	Psixika va faoliyatning rivojlanishini tadqiq eta olish	9
10	Guruhuy treninglarni tashkil etish va o'tkazish	6

Olingan natijalar bo'lajak mutaxassislarning kasbiy rivojlanganlik va amaliy ko'nikmalarining shakllanganlik darajasida mijoz bilan ishlashga moyillik yuqori o'rinlar bilan belgilanganligini, axborot texnologiyalarini egallash, tadqiqot ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq kompetensiyalar yetarli shakllanmaganligidan dalolat berdi. O'tkazilgan tadqiqot kasbiy shakllanish jarayoni murakkab jarayon ekanligini va bunda keltirilgan barcha psixologik sifatlar bo'lajak mutaxassislar uchun kelgusi faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi psixologik omillar muvaffaqiyatlarini to'liq ta'minlamasligini ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, kasbiy kompetensiyalarga ta'lim jarayonining o'zida to'liq erishib bo'lmaydi. Zero, kasbiy kompetensiyalarni to'liq egallash yillar davomida, amaliyotda tarkib topadi. Demak, barcha darajalardan o'tgan va o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil eta olgan faol talabani o'z sohasining mutaxassisi deb hisoblashimiz mumkin emas. Hamkasblari uchun namunali mutaxassis maqomida bo'lish uchun yillar davomida faoliyat qilish, kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash kerakligini talabaning o'zi ham anglash zarur. Yuqori muvaffaqiyatlarga erishish uchun talabalar o'z kasbiy faoliyatida o'zini ko'ra olishi hamda shu soha uchun lozim bo'lgan bilimlarni puxta egallashga harakat qilishi, ayniqsa, o'z amaliy va nazariy kompetensiyalarini takomillashtirib borishlari maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy ko'nikma va malakalar ta'lim muhiti shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liq sanalib, keyinchalik ular kasbiy kompetentlik xususiyati bilan to'ldiriladi. Tahlil etilgan nazariy qarashlar va yondashuvlarning mazmuniga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak kadrlarni professional tarzda shakllantirish lozim. Bu esa o'z o'rnida ta'lim sifati, baholash tizimi va oliy ta'lim muassasasidagi professor-o'qituvchilar bilimi, salohiyati va tajribasiga ham bevosita bog'liq [8].

Demak, oliy o'quv yurti muassasalarida professional kadrlarni tayyorlash ishlarida yuqorida keltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish tamoyillariga amal qilinishi o'ta muhim sanaladi. Bo'lajak mutaxassis faoliyatiga xos bo'lgan kasbiy rivojlanish omili kasb haqidagi bilimlarning ongda integratsiyalashuvi bo'lib, u shaxsning dunyo va o'zi haqidagi bilimlari bilan tushuntiriladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kasbiy rivojlanish murakkab dinamik jarayondir. Unda nafaqat ta'lim muassasasi, balki ta'lim oluvchining ham yuqori maqsadlar sari intilishi talab etiladi.

Foydalanilgan dabiyotlar ro'yxati:

1. Каюмова Н. М. Функционалне обязанности директора дошколъной образователъной организации // The Time of Scientific Progress : материал международной научно-практической конференции. – 2022. – Т. 1, № 3. – С. 102–107.
2. Kayumova N. M., Yakubova Z. Z. Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности // Современная наука XXI век: научный, культурный, IT-контекст. – 2021. – С. 92–95.
3. Qodirova F. R., Toshpo'latova S. Q., Kayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika : darslik. – Toshkent, 2019. – ___ b.
4. Kayumova N. M. Maktabgacha pedagogika : o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – ___ b.

5. Qodirova F. R., Toshpulatova S. Q., Kayumova N. M., A'zamova M. N. Preschool pedagogy : textbook. – Tashkent, 2018. – ___ p.
6. Kayumova N. M., Ro'ziyeva M. M. Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o'rni // "Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning roli" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2022. – S. 102–104.
7. Kayumova N. M., Bazarbaeva Z. O. Речь детей как психолого-педагогическая проблема // Innovative Trends in Science, Practice and Education : материал международной научно конференции. – 2023. – T. 2, № 8. – S. 68–73.
8. Kayumova N. M. Educating children in the spirit of national values in preschool educational organizations and in the family // Modern Scientific Research : International Scientific Journal. – 2023. – T. 1, № 6. – P. 33–38.
9. Kayumova N. M., Turg'unova M. R. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – S. 609–612.
10. Kayumova N. M., Turg'unova M. R. Maktabgacha ta'limni sifat jihatdan takomillashtirishda tarbiyachining pedagogik mahorati // International Conferences. – 2023. – T. 1, № 2. – S. 605–608.

TALABA QIZLARNI JISMONIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH TASNIFI VA ULARNI ORGATISH METODIKASI

Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, uning pedagogik tasnifi hamda samarali o'qitish texnologiyalari kompleks yondashuv asosida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, harakat faolligini oshirish va jismoniy sifatlarini tizimli rivojlantirish zarurati bilan asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, qiyosiy va diagnostik baholash, shuningdek, metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Jismoniy faollik intensivlik darajasi, mashg'ulot yo'nalishi, funksional ta'sir ko'lami hamda pedagogik maqsadlariga ko'ra tasniflandi. Talaba qizlar organizmining morfo-funksional xususiyatlarini inobatga olgan holda metodik model ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari differensial yondashuv, yuklamani bosqichma-bosqich oshirish, motivatsion-pedagogik qo'llab-quvvatlash hamda interfaol mashg'ulot texnologiyalarini qo'llash jismoniy faollik ko'rsatkichlarining sezilarli darajada ortishiga xizmat qilishini ko'rsatdi. Olingan natijalar oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish, gender xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish metodikasini optimallashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy faollik, talaba qizlar, jismoniy tarbiya, pedagogik tasnif, o'qitish metodikasi, sog'lom turmush tarzi, metodik model, differensial yondashuv.

Abstract: This article provides a scientific justification of the theoretical and methodological foundations for developing physical activity among female university students, including its pedagogical classification and effective instructional technologies based on an integrated approach. The relevance of the study is determined by the need to promote a healthy lifestyle, enhance motor activity, and ensure systematic development of physical qualities among students in higher education institutions.

The research employed theoretical analysis, pedagogical observation, experimental procedures, comparative and diagnostic assessment, as well as methodological modeling. Physical activity was classified according to intensity level, exercise orientation, functional impact, and pedagogical objectives. A methodological model was developed considering the morpho-functional characteristics of female students.

The findings demonstrate that a differentiated approach, gradual load progression, motivational-pedagogical support, and the application of interactive instructional technologies significantly improve physical activity indicators. The results contribute to the enhancement of physical education programs in higher education and provide a methodological basis for optimizing gender-sensitive teaching strategies.

Key words: physical activity, female students, physical education, pedagogical classification, teaching methodology, healthy lifestyle, methodological model, differentiated approach.

Аннотация: В статье представлено научное обоснование теоретико-методологических основ развития физической активности студенток, ее педагогической классификatsii и эффективных технологий обучения на основе комплексного подхода. Актуальность исследования обусловлена необходимостью формирования здорового образа жизни, повышения двигательной активности и системного развития физических качеств у обучающихся высших учебных заведений.

В ходе исследования применялись методы теоретического анализа, педагогического наблюдения, опытно-экспериментальной работы, сравнительного и диагностического анализа, а также методического моделирования. Физическая активность классифицирована по уровню интенсивности, направленности упражнений, характеру функционального воздействия и педагогическим целям. Разработана методическая модель с учетом морфофункциональных особенностей организма студенток.

Полученные результаты свидетельствуют о том, что дифференцированный подход, поэтапное увеличение физической нагрузки, мотиватsionно-педагогическая поддержка и применение интерактивных образовательных технологий способствуют существенному повышению показателей физической активности. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования системы физического воспитания в высшем образовании с учетом гендерных особенностей обучающихся.

Ключевые слова: физическая активность, студентки, физическое воспитание, педагогическая классификatsia, методика обучения, здоровый образ жизни, методическая модель, дифференцированный подход.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – talaba yoshlarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, ularning jismoniy rivojlanish darajasini oshirish hamda sog'lom turmush tarzini barqaror shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirish masalasi nafaqat ta'limiy, balki tibbiy-biologik, psixologik va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki so'nggi yillarda yoshlar orasida kamharakatlilik (gipodinamiya), noto'g'ri kun tartibi, stress omillari va raqamli texnologiyalarga haddan tashqari bog'liqlik jismoniy faollik darajasining pasayishiga olib kelmoqda.

Talaba qizlar organizmi o'ziga xos morfo-funksional va psixofiziologik xususiyatlarga ega bo'lib, jismoniy yuklama va mashg'ulotlarni rejalashtirishda bu omillarni albatta hisobga olish zarur. Jismoniy faollikni ilmiy asosda tashkil etish yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilash, mushak kuchi va chidamliligini rivojlantirish, modda almashinuvi jarayonlarini faollashtirish, shuningdek, psixoemotsional holatni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, muntazam jismoniy mashg'ulotlar talaba qizlarning o'quv va kasbiy faoliyatidagi ish qobiliyatini oshiradi, diqqat va xotira jarayonlarini faollashtiradi hamda ijtimoiy moslashuv darajasini kuchaytiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy faollikni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, talaba qizlarga yo'naltirilgan, ularning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va motivatsion ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan metodik tizimlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Amaldagi jismoniy tarbiya dasturlarida ko'pincha umumiy yondashuv ustun bo'lib, gender xususiyatlari va differensial yuklama tamoyillari yetarlicha aks etmaydi. Natijada mashg'ulotlarning samaradorligi pasayadi va ishtirokchilarning barqaror motivatsiyasi shakllanmaydi.

Shu nuqtai nazardan, jismoniy faollikni ilmiy-pedagogik jihatdan tasniflash, uning turlarini maqsad, intensivlik, funksional ta'sir va o'quv-uslubiy yo'nalishlar bo'yicha guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tasnif jismoniy mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuklama me'yorini belgilash, o'qitish vosita va metodlarini tanlashda metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol pedagogik texnologiyalar, modulli o'qitish, individual dasturlash, monitoring va diagnostika vositalarini joriy etish orqali mashg'ulotlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar ko'p hollarda an'anaviy shaklda tashkil etilmoqda, zamonaviy metodik yondashuvlar va shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar yetarli darajada qo'llanilmayapti. Bu esa jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining barqaror o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish, jismoniy faollik turlarining pedagogik tasnifini ishlab chiqish hamda ularni o'qitishning samarali, ilmiy asoslangan metodikasini taklif etishdan iborat. Tadqiqot vazifalariga jismoniy faollik tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, tasnif mezonlarini belgilash, o'qitish metodlari va vositalarini tizimlashtirish hamda tajriba-sinov natijalari asosida metodik modelni asoslash kiradi.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, talaba qizlarning jismoniy faolligini oshirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik dasturlarni takomillashtirish hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talaba yoshlarning jismoniy faolligini rivojlantirish masalasi jismoniy tarbiya nazariyasi, sport pedagogikasi, yosh fiziologiyasi hamda sog'lom turmush tarzi konsepsiyasi doirasida ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy faollik inson salomatligini mustahkamlovchi, funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi hamda ijtimoiy moslashuv darajasini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi.

Jismoniy faollikning nazariy asoslari va uning sog'liq bilan uzviy bog'liqligi ko'plab fundamental tadqiqotlarda yoritilgan bo'lib, unda muntazam harakat faoliyatining yurak-qon tomir, nafas olish va tayanch-harakat tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan. Sport pedagogikasi yo'nalishidagi tadqiqotlarda jismoniy mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuklamani me'yorlash va bosqichma-bosqich oshirish tamoyillari jismoniy rivojlanish samaradorligining muhim sharti sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, jismoniy tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuv, funksional diagnostika va monitoring tizimining ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Pedagogik tadqiqotlarda jismoniy faollikni tasniflash masalasi ham muhim o'rin tutadi. Ayrim mualliflar jismoniy faollikni intensivlik darajasi (past, o'rta, yuqori), energiya sarfi, mashg'ulot davomiyligi va funksional yo'nalishiga ko'ra guruhlashni taklif etadi. Boshqa ilmiy yondashuvlarda esa jismoniy faollik sog'lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, sportga yo'naltirilgan va rekreativ yo'nalishlarda tasniflanadi. Bu tasniflar mashg'ulotlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, maqsadli dasturlar ishlab chiqish hamda kutilayotgan natijalarni aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda talaba yoshlar, ayniqsa qizlar jismoniy faolligining pasayish tendensiyasi alohida muammo sifatida qayd etilgan. Tadqiqotchilar bu holatni ijtimoiy omillar, o'quv yuklamasi, motivatsiya yetishmasligi, o'ziga ishonch darajasi va harakat madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlaydi. Shu sababli ko'plab ishlarda motivatsion muhit yaratish, qiziqarli va variativ mashg'ulot dasturlarini joriy etish, guruhli va interfaol mashg'ulot shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Gender yondashuviga asoslangan tadqiqotlarda qizlar organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlari, moslashuv mexanizmlari hamda psixologik qabul qilish omillari hisobga olinishi zarurligi asoslab berilgan. Mualliflar tomonidan qizlar uchun moslashtirilgan jismoniy yuklama, estetik yo'nalishdagi mashqlar, ritmik gimnastika, fitnes dasturlari va sog'lomlashtiruvchi mashg'ulot turlari yuqori samaradorlik berishi qayd etiladi. Shuningdek, emotsional ijobiy fon, qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhit va natijani vizual baholash vositalari qatnashuv faolligini oshirishi aniqlangan.

Metodik manbalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar – modulli o'qitish, differensial yondashuv, kompetensiyaviy model, interfaol metodlar va raqamli monitoring vositalaridan foydalanish samarali natija berishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli jismoniy tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan talabalarda barqaror rivojlanish dinamikasini ta'minlash imkonini beradi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy faollikni rivojlantirish bo'yicha umumiy nazariy va metodik asoslar yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, aynan talaba qizlarga moslashtirilgan, tasnif va o'qitish metodikasini yagona tizimga birlashtirgan kompleks pedagogik model yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni talaba qizlar jismoniy faolligini tasniflash va uni o'qitish metodikasini tizimli asosda ishlab chiqishga yo'naltirilganligi bilan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot doirasida talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik model ishlab chiqildi va amaliy mashg'ulotlar jarayonida tajriba-sinov asosida joriy etildi. Tadqiqot natijalari jismoniy faollikni ilmiy asoslangan holda tasniflash, mashg'ulotlarni differensial rejalashtirish hamda o'qitishning interfaol metodlarini qo'llash yuqori samaradorlik berishini ko'rsatdi.

Tajriba jarayonida jismoniy faollik quyidagi mezonlar asosida tasniflandi: intensivlik darajasi (past, o'rta, yuqori), funksional yo'nalishi (sog'lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, moslashtiruvchi), mashg'ulot shakli (individual, guruhli, modulli) hamda pedagogik maqsadi (ta'limiy, rivojlantiruvchi, motivatsion). Ushbu tasnif asosida mashg'ulot dasturlari qayta tuzildi va talaba qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, sog'liq holati hamda qiziqishlariga mos ravishda moslashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, metodik model asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ishtirok etgan talaba qizlarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

- umumiy harakat faolligi ko‘rsatkichlari barqaror oshdi;
- chidamlilik, egiluvchanlik va muvozanat sifatlarida sezilarli rivojlanish qayd etildi;
- mashg‘ulotlarda ishtirok etish intizomi va davomati yaxshilandi;
- jismoniy mashqlarga nisbatan ichki motivatsiya va qiziqish darajasi ortdi;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish va jismoniy holatini baholash ko‘nikmalari shakllandi.

Diagnostik o‘lchovlar shuni ko‘rsatdiki, bosqichma-bosqich yuklama berish, mashqlarni variativ tanlash va funksional nazorat elementlarini qo‘llash ortiqcha zo‘riqish holatlarining kamayishiga hamda moslashuv ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keldi. Interfaol mashg‘ulot usullari (stansiya usuli, aylanma mashg‘ulot, juftlikda ishlash, mini-guruh dasturlari) qo‘llanilgan guruhlarda mashg‘ulot samaradorligi an’anaviy usullarga nisbatan yuqori bo‘ldi.

So‘rovnoma va pedagogik kuzatuv natijalari talaba qizlarning aksariyati moslashtirilgan va tanlov asosidagi mashg‘ulot formatini ma’qullaganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, fitnes yo‘nalishlari, ritmik mashqlar, funksional gimnastika va sog‘lomlashtiruvchi komplekslar yuqori qiziqish uyg‘otdi. Bu esa metodik modelda mashg‘ulot turlarini diversifikatsiya qilish zarurligini tasdiqladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy faollikni tasnif asosida rejalashtirish, differensial va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish metodikasini joriy etish talaba qizlarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari va mashg‘ulotlarga barqaror jalb etilish darajasini sezilarli oshiradi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan metodik yondashuvning pedagogik jihatdan samarali va amaliyotga tatbiq etish mumkinligini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tasniflash va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi sohasidagi mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg‘un holda bo‘lib, jismoniy mashg‘ulotlarni individuallashtirish, yuklamani me’yorlash va motivatsion omillarni kuchaytirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar tahlilida ko‘plab tadqiqotchilar jismoniy faollikni oshirishda differensial yondashuv muhimligini ta’kidlagan bo‘lsa, mazkur tadqiqot natijalari aynan talaba qizlar auditoriyasida bu yondashuv yanada muhimroq ekanini ko‘rsatdi. Chunki ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi, funksional imkoniyatlari va psixologik qabul qilish xususiyatlari sezilarli darajada farqlanadi. Tajriba jarayonida moslashtirilgan yuklama va variativ mashqlar qo‘llanilgan guruhlarda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari an’anaviy, bir xil dastur asosida shug‘ullangan guruhlarga nisbatan yuqori bo‘ldi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, jismoniy faollikni faqat mashqlar majmuasi sifatida emas, balki pedagogik boshqariladigan, motivatsiya, nazorat va tahlil elementlarini o‘z ichiga olgan tizim sifatida tashkil etish zarur. Interfaol mashg‘ulot texnologiyalarining joriy etilishi ishtirokchilarning faolligini oshirdi, mashg‘ulot jarayonida emotsional ijobiy muhitni shakllantirdi va ichki rag‘batni kuchaytirdi. Bu holat sport pedagogikasida faol o‘qitish metodlari samaradorligi haqidagi ilmiy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida jismoniy faollik turlarini intensivlik, funksional yo‘nalish va pedagogik maqsad asosida tasniflash mashg‘ulotlarni rejalashtirishni ancha aniqlashtirgani kuzatildi. Tasniflangan yondashuv o‘qituvchiga mashg‘ulot mazmunini maqsadli boshqarish, yuklama balansini saqlash va kutilayotgan natijani oldindan modellashtirish imkonini berdi. Bu esa metodik boshqaruvning tizimlilik darajasini oshirdi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, talaba qizlarda jismoniy mashg‘ulotlarga barqaror qiziqish uyg‘otishda mashg‘ulot turini tanlash erkinligi, natijani vizual kuzatish, o‘z-o‘zini baholash elementlari va kichik guruhlarda ishlash usullari muhim rol o‘ynaydi. Bu omillar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bilan mos keladi va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga ham samarali tatbiq etilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarga ham ega. Jumladan, tajriba-sinov ishlari ma’lum bir kontingent doirasida olib borildi va barcha oliy ta’lim muassasalariga to‘liq umumlashtirish uchun kengroq tanlama talab etiladi. Kelgusida turli yosh bosqichlari, sog‘liq guruhlari va ta’lim yo‘nalishlari kesimida keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, olingan natijalar talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirishda ilmiy asoslangan tasnif, differensial metodika va interfaol pedagogik texnologiyalarni uyg‘un qo‘llash eng maqbul yondashuv ekanini ko‘rsatdi hamda jismoniy tarbiya tizimini metodik jihatdan takomillashtirish zarurligini asoslab berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirish muammosini nazariy va amaliy jihatdan kompleks yondashuv asosida o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida jismoniy faollikning mazmun-mohiyati, uning pedagogik va funksional ahamiyati tizimli tahlil qilindi hamda talaba qizlar organizmining morfo-funksional va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif mezonlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jismoniy faollikni intensivlik darajasi, funksional yo‘nalishi va pedagogik maqsadiga ko‘ra tasniflash mashg‘ulotlarni ilmiy asosda rejalashtirish va boshqarishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan metodik model asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talaba qizlarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari, harakat faolligi darajasi va mashg‘ulotlarga nisbatan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi.

Aniqlanishicha, differensial yondashuv, bosqichma-bosqich yuklama berish, interfaol o‘qitish metodlari, variativ mashg‘ulot dasturlari va motivatsion-pedagogik qo‘llab-quvvatlash elementlarini qo‘llash jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan metodika va tanlov asosidagi mashg‘ulot turlarini joriy etish talaba qizlarning barqaror ishtiroki va ichki qiziqishini ta’minlaydi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi: talaba qizlar jismoniy faolligini rivojlantirish gender va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilganda yuqori natija beradi; jismoniy faollikning ilmiy tasnifi mashg‘ulotlarni metodik jihatdan optimallashtirish imkonini yaratadi; interfaol va modulli mashg‘ulot texnologiyalari harakat faolligi va motivatsiyani oshiradi; pedagogik nazorat va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini joriy etish barqaror rivojlanish dinamikasini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari mazmunini yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-uslubiy dasturlarni ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusida mazkur yo‘nalishda kengroq empirik tadqiqotlar olib borish va raqamli monitoring texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya fanini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Холодов Ж.К., Кузнесов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. – Москва: Академия, 2021.
4. Bompa T., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Human Kinetics, 2019.
5. McArdle W., Katch F., Katch V. Exercise Physiology: Nutrition, Energy, and Human Performance. – Wolters Kluwer, 2021.
6. World Health Organization. Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. – Geneva, 2020.
7. American College of Sports Medicine. ACSM’s Guidelines for Exercise Testing and Prescription. – 11th ed. – 2021.
8. Sallis J., Owen N., Fisher E. Ecological Models of Health Behavior. – Jossey-Bass, 2018.
9. Karimov F.A., Rasulov A.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
10. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
11. Usmonxo‘jayev T., Xo‘jayev F. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. – Toshkent, 2019.
12. Axmedov R. Talabalar jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi. – Toshkent, 2022.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK



Bekchanova Kuvanch Roximovna
Ma'mun universiteti NTM "Psixologiya" kafedrasi dotsenti(PhD)
Orcid: https://orcid.org/0009-0004-2116-5223

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar individualligini rivojlantirish muammosi zamonaviy psixologik-pedagogik nazariya va amaliyotdagi mavjud qarama-qarshiliklar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Tadqiqot ontogenezning dastlabki bosqichlarida temperament xususiyatlarining tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlar shakllanishi jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi yetarli darajada o'rganilmaganligini aniqlaydi. Shuningdek, ta'lim jarayonida individual yondashuvni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy-metodik hamda amaliy asoslarning cheklanganligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, individuallik, shaxs, temperament, ontogenez, shaxslararo munosabatlar, individual yondashuv, qat'iyat.

Abstract: The article examines the problem of developing the individuality of preschool children from the perspective of existing contradictions in modern psychological and pedagogical theory and practice. The study identifies the insufficient investigation of temperament characteristics in relation to the formation of interpersonal relationships with peers at the early stages of ontogenesis. It also substantiates the limited theoretical-methodological and practical foundations required for the effective implementation of an individual approach in the educational process.

Key words: preschool age, individuality, personality, temperament, ontogenesis, interpersonal relationships, individual approach, determination.

Аннотация: В статье анализируется проблема развития индивидуальности детей дошкольного возраста с позиции существующих противоречий в современной психолого-педагогической теории и практике. Исследование выявляет недостаточную изученность взаимосвязи характеристик темперамента с формированием межличностных отношений со сверстниками на ранних этапах онтогенеза. Обосновывается ограниченность теоретико-методологических и практических оснований, необходимых для эффективной реализации индивидуального подхода в образовательном процессе.

Ключевые слова: дошкольный возраст, индивидуальность, личность, темперамент, онтогенез, межличностные отношения, индивидуальный подход, детерминация.

KIRISH

Zamonaviy umumiy psixologik tadqiqotlarda shaxs individualligining rivojlanishi hamda ontogenezning dastlabki bosqichlarining hayot davomida shakllangan va ma'lum bir tabiiy qat'iyat bilan tavsiflanadigan psixologik tuzilmalar sifatida kommunikativ va ijtimoiy kompetentlikni o'z ichiga olgan individual psixologik resurslarning rivojlanishi kontekstidagi roli dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Psixodinamik xususiyatlardagi individual farqlar (temperament xususiyatlari) organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlariga aniq bog'liq bo'lib, maktabgacha yosh davridayoq namoyon bo'ladi va inson hayoti davomida barqarorlik bilan tavsiflanadi, an'anaviy ravishda individuallik tuzilishidagi ijtimoiy-psixologik komponentlar (motivatsiya, qobiliyatlar, xarakter, yo'nalish) bilan o'zaro bog'liq deb tan olinadi.

Xorijiy psixologlarning tadqiqotlari ma'lum temperament xususiyatlari hamda yosh bolalar va kattalar, ayniqsa ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ishonchli tarzda ko'rsatdi, bu bizga shaxsning individual xususiyatlaridan biri sifatida temperamentni bolalar xatti-harakatlari rivojlanishining asosi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlar natijasida ko'rsatilishicha, maktabgacha yosh davrida shaxsning individual psixologik xususiyatlari yuzasidan tadqiqotchilar R.A. Plomin, L.N. Galiguzova, V.R. Kislovskaya, Ya.L. Kolominskiy, M.I. Lisina, T.A. Repina, A.G. Ruzskaya, E.O. tomonidan maktabgacha yoshdagi tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda temperamentning roli muhim ekanligi isbotlab o'tilgan [1].

J. Strelau, R.K. Tereshchuk, V.G. Utrobina temperamentni individual va shaxsiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida hal qiluvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida e'tirof etadilar [3]. Aynan ijtimoiy-axloqiy kontekstda turli xil temperament turlarining ekvivalentligini tan olish mazkur individual psixologik xususiyatlarga ega shaxslarga ularning muloqot, ijtimoiy va xulq-atvor muammolarini yengishda malakali psixologik yordam ko'rsatish zaruratini kamaytirmaydi. Shuningdek, bunday xususiyatlarga ega shaxslarni rivojlantirishga psixologik jihatdan asoslangan yondashuvlarni qo'llash zarurati oshadi.

Zamonaviy sharoitlarda ayniqsa muhim bo'lgan kompetensiyaga asoslangan ta'limni individuallashtirish tamoyili, shuningdek, temperament va shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish zaruratini kuchaytiradi. Bu muammoni hal qilishning bir usuli - shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichlarida tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarda temperament xususiyatlarining namoyon bo'lishini o'rganishdir. Maktabgacha yoshning oxirgi yillarida tengdoshlar bilan birinchi shaxslararo munosabatlar shakllanganligi sababli, bu yosh davrida temperament xususiyatlari va shaxslararo munosabatlarning tabiati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot shaxs individualligining rivojlanish psixologik qonuniyatlari, temperamentning individual-dinamik xususiyatlari hamda maktabgacha yosh davrida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi to'g'risidagi zamonaviy ilmiy qarashlarga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy asosi umumiy, rivojlanish va ijtimoiy psixologiya doirasida shakllangan fundamental konsepsiyalar bilan belgilanadi.

Shaxs individualligini izohlashda B.M. Teplov, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontyev, V.S. Merlin, K.K. Platonovlarning shaxs tuzilishi va rivojlanishi haqidagi nazariyalari asos qilib olindi. Ushbu yondashuvlarda shaxs biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri mahsuli sifatida qaraladi hamda temperament shaxs individualligini belgilovchi individual-dinamik komponent sifatida talqin etiladi [4].

Maktabgacha yosh davrida shaxslararo munosabatlar va muloqotning rivojlanishini tushuntirishda L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi, D.B. Elkonin va M.I. Lisinalarning muloqot va faoliyatning yetakchi roli haqidagi qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi [2]. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, bola shaxsining rivojlanishi ijtimoiy muhit va tengdoshlar bilan o'zaro ta'sir jarayonida amalga oshadi.

Shuningdek, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid B.M. Tomas, A.A. Bodalev, N.V. Kuzmina, K. Levin, J. Moreno va E. Eriksonlarning ilmiy qarashlari tadqiqotda nazariy yo'nalish sifatida qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar temperament xususiyatlarining bolalarning ijtimoiy moslashuvi, muloqot uslubi va tengdoshlar bilan munosabatlariga ta'sirini tushuntirish imkonini beradi [5].

Mahalliy va xorijiy psixologiya fanida temperamentni o'rganishga oid chuqur va samarali ilmiy an'analar shakllangan bo'lib, unda temperamentning xulq-atvor, muloqot va faoliyatning turli jihatlari bilan bog'liqligi keng yoritilgan. Biroq ontogenezning dastlabki bosqichlarida bolalar temperamentining shakllanishi hamda uning tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganishga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi ushbu sohada muhim ilmiy ziddiyatni yuzaga keltirmoqda.

Ta'lim jarayonida individuallikni rivojlantirishga yo'naltirilgan individual yondashuvni amalga oshirish bo'yicha zamonaviy talablarning ortib borishi bilan bir qatorda, shaxslararo munosabatlar rivojida temperament xususiyatlarining tutgan o'rni haqida tizimli nazariy bilimlarning yetishmasligi yana bir muhim qarama-qarshilik sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, ota-onalarning bolalar rivojlanishi bo'yicha maslahat ko'rinishida malakali psixologik yordamga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib borayotgan bir sharoitda, amaliy bolalar psixologiyasi doirasida turli psixodinamik (temperamental) xususiyatlarga ega, tengdoshlar bilan munosabatlarda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalarning individualligini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan nazariy jihatdan asoslangan psixoprofilaktik, psixokorreksion hamda psixokonsultativ dasturlarning cheklanganligi kuzatilmoqda.

Mazkur qarama-qarshiliklarni bartaraf etish zarurati tadqiqot muammosini belgilab berdi. Nazariy jihatdan ushbu tadqiqot ontogenezning dastlabki bosqichlarida individual-dinamik (temperamental) aqliy xususiyatlar bilan shaxsning ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlari, xususan, shaxslararo munosabatlarning xarakteri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asoslashga qaratilgan. Amaliy jihatdan esa, turli temperament tiplariga ega maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarni optimallashtirish maqsadida individual yondashuv asosida psixologik tavsiyalar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tadqiqot doirasida ontogenetik rivojlanishning nisbatan tor, ammo muloqot jarayonida individuallik va shaxslararo munosabatlarning shakllanishi uchun muhim bo'lgan bosqichi o'rganiladi. Bu bosqich inson rivoj-

lanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri hamda shaxsning o‘zini anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotni boshqa izlanishlardan farqlash, shuningdek, muayyan yosh davri kesimida yangi nazariy va empirik ma’lumotlar olish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqotning nazariy asoslari temperamentning individual-dinamik xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli ravishda tahlil qilish va ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy tadqiqotchilar A. Tomas va S. Chess [6] tomonidan asoslab berilgan nazariy konsepsiyada temperament tabiiy asosga ega bo‘lgan odatiy xulq-atvor uslubi sifatida ta’riflanadi. Ushbu tadqiqot zamonaviy xorijiy tadqiqotchilarning ko‘pchiligi tomonidan tan olingan va bolalar psixologiyasiga taalluqli buyuk kashfiyotlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Temperament xususiyatlarini o‘lchash vositasi A. Tomas va S. Chess tomonidan ishlab chiqilgan ota-onalar uchun test-so‘rovnomalardir. Mualliflarning nazariy konsepsiyasi ota-onalar farzandlarining temperamenti haqida eng samarali ma’lumot manbai ekanligi haqidagi pozitsiyani asoslaydi.

G.A. Makarova o‘zining tadqiqotida [2] ota-onalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalarning ishonchliligi va haqiqiyligi haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etadi.

1-jadval: **Temperament va shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning faktor tuzilmasi**

Omil nomi	Birlashtirilgan ko‘rsatkichlar	Psixologik mazmuni
Faol bola	Muloqot intensivligi, faollik, intensivlik	Bolaning yuqori energiyaga egaligi, muloqotga tez va faol kirishishi, tashabbuskor xulq-atvor
Maqom bolasi	Ijtimoiy mavqe, aloqalar yo‘nalishi, aloqalarning hissiy kelib chiqishi, intensivlik	Tengdoshlar guruhida muhim o‘rin egallash, boshqalar bilan hissiy ta’sirli va yo‘naltirilgan muloqot
Hissiy jihatdan ijobiy bola	Aloqalar mazmuni, kayfiyat	Ijobiy emotsional fon, mazmunli va barqaror shaxslararo munosabatlarga moyillik

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarni o‘rganish masalasi psixologik tadqiqotlarda turli metodologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Shu bilan birga, bolalarning tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlar tizimi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ko‘pincha yashirin psixologik mexanizmlar bilan belgilanadi. Mazkur tadqiqotda tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarning temperament xususiyatlari bilan bog‘liq deb hisoblangan asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida bolaning tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarining muhim jihati sifatida bolaning muloqot faoliyatining kommunikativ tomoni ajratib ko‘rsatildi. Ushbu jihat bolalarning erkin o‘zaro ta’siri jarayonida yaqqol namoyon bo‘lib (E.O. Smirnova, V.G. Utrobina) [4], quyidagi parametrlar orqali baholandi: muloqot intensivligi, aloqalar yo‘nalishi, aloqalar mazmuni hamda aloqalarning hissiy ohangi.

Shuningdek, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlari tuzilmasida ichki bog‘liqliklar mavjudligi aniqlanib, ular quyidagi juftlik va kombinatsiyalar orqali ifodalandi:

- ijtimoiy mavqe va aloqalarning hissiy ohangi;
- aloqalar yo‘nalishi, mazmuni hamda hissiy kelib chiqishi;
- aloqalar mazmuni va aloqalar yo‘nalishi, shuningdek, hissiy ohang va aloqalar yo‘nalishi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumotlarning korrelyatsion tahlili temperament xususiyatlari bilan tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlarning asosiy ko‘rsatkichlari o‘rtasida ko‘p o‘zgaruvchili o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, faollik va muloqot intensivligi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlandi. Shuningdek, intensivlik, ijtimoiy mavqe, muloqot intensivligi va aloqalar yo‘nalishi o‘rtasida o‘zaro bog‘langan munosabatlar tizimi mavjudligi kuzatildi. Kayfiyat ko‘rsatkichi esa muloqot intensivligi, aloqalar yo‘nalishi, aloqalar mazmuni va aloqalarning hissiy ohangi bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Korrelyatsiya matritsasini faktorizatsiya qilish natijasida uchta asosiy omil ajratib ko‘rsatildi. Birinchi omil shartli ravishda “faol bola” deb nomlanib, u muloqot intensivligi, temperamentning faollik va intensivlik xususiyatlarini o‘z ichiga oldi. Ikkinchi omil “maqom bolasi” sifatida tavsiflanib, shaxslararo munosabatlar tizimidagi

ijtimoiy mavqe, aloqalar yo'nalishi, aloqalarning hissiy ohangi hamda temperamentning intensivlik xususiyatini birlashtirdi. Uchinchi omil esa "hissiy jihatdan ijobiy bola" deb atalib, aloqalar mazmuni va kayfiyat ko'rsatkichlarini qamrab oldi.

Shu tariqa, olingan empirik natijalar ilgari surilgan tadqiqot gipotezasini tasdiqladi. Kech maktabgacha yosh davrida turli temperament xususiyatlariga ega bolalar tengdoshlari bilan ijobiy shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda turlicha imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu munosabatlar jarayonida orttirilgan kommunikativ tajriba bolalarda tengdoshlar bilan muloqot uslublarining shakllanishiga olib kelib, shaxs rivojlanishi uchun ham ijobiy, ham salbiy (agressivlik, passivlik, ijtimoiy izolyatsiya) prognozlarni yuzaga keltirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda temperament va tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida keltirib o'tilgan bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan individuallik va shaxs tuzilmasi konsepsiyasiga tayangan holda, temperamentning shaxs rivojlanishidagi tabiiy va evolyutsion ahamiyatini ochib beradi. Aniqlanishicha, temperament xususiyatlari bolalikning dastlabki bosqichlaridanoq namoyon bo'lib, maktabgacha yoshning oxirgi davrida tengdoshlar bilan shakllanadigan shaxslararo munosabatlar xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tajriba va shaxsiy sifatlar yetarlicha rivojlanmagan sharoitda temperament bolalarning muloqot uslubi, faolligi va emotsional munosabatlarida yaqqol ifodalanadi. Ushbu holat maktabgacha yoshda temperament va shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buss, A., Plomin, RA Shaxs rivojlanishining temperament nazariyasi / A. Buss, RA Plomin. 1976.
2. Lisina, M.I. Muloqot ontogenezi muammolari / M.I. Lisina. M.: Pedagogika, 1986. 144 b.
3. Strelau, J. Temperament: Psixologik nuqtai nazar / J. Strelau. NY: Plenum, 1999.-467b.
4. Teplov, B.M. Individual farqlar muammolari / B.M. Teplov. M.: Ta'lim, 1961. 180 b.
5. Tomas, A. Erta bolalik davridagi xulq-atvor individualligi / A. Tomas, H. Birch, S. Chess. NY, 1963. 360 b.
6. Chepel, T.L. Maktab o'quvchilarining ona (rus) tilining imlosini o'zlashtirishi uchun individual-tipik usullar va zarur shartlar: diss. psixologiya fanlari nomzodi. / T.L. Chepel. - M., 1988.

VOLEYBOLCHILARNI TAYYORLASHDA DIFFERENSIAL VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING ZARURLIGINI, ULARNING O'YIN AMPLUASINI HISOBGA OLGAN HOLDA ANIQLASH USULLARI

Kambarov Kozimjon Ibragimovich
"University of economics and pedagogy" NOTM
Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada voleybolchilarni tayyorlash jarayonida differensial vositalardan foydalanish zarurati hamda ularni o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari yoritilgan. Tadqiqot doirasida pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va qiyosiy tahlil metodlari asosida amaldagi mashg'ulot jarayoni o'rganildi. Olingan natijalar mashg'ulot yuklamalari o'yin ampluasiga mos ravishda yetarli darajada differensiallashtirilmaganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, sakrash yuklamalari va texnik mashqlarni pozitsiyaga yo'naltirilgan holda rejalashtirish zarurligi aniqlandi. Tadqiqot yakunida voleybolchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida differensial yondashuvni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: voleybol, differensial tayyorgarlik, o'yin ampluasi, sakrash faoliyati, mashg'ulot yuklamasi, texnik-taktik tayyorgarlik, individuallashtirish.

Abstract: This article substantiates the necessity of applying differentiated means in volleyball players' training and describes methods for determining them with consideration of playing positions. The current training process was examined through pedagogical observation, questionnaires, and comparative analysis. The findings revealed that training loads are not sufficiently differentiated according to players' positions. Particular emphasis is placed on the need for position-oriented planning of jumping loads and technical exercises. Based on the results, scientific and practical recommendations were developed to improve the differentiated approach in volleyball training.

Key words: volleyball, differentiated training, playing position, jumping activity, training load, technical and tactical preparation, individualization.

Аннотация: В статье обосновывается необходимость использования дифференцированных средств в подготовке волейболистов и раскрываются методы их определения с учётом игрового амплуа. В ходе исследования на основе педагогического наблюдения, анкетирования и сравнительного анализа был изучен действующий тренировочный процесс. Полученные результаты показали, что тренировочные нагрузки недостаточно дифференцированы в соответствии с игровыми позициями спортсменов. Особое внимание уделено необходимости позиционно-ориентированного планирования прыжковых нагрузок и технических упражнений. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию дифференцированного подхода в системе подготовки волейболистов.

Ключевые слова: волейбол, дифференцированная подготовка, игровое амплуа, прыжковая деятельность, тренировочная нагрузка, технико-тактическая подготовка, индивидуализатsiя.

KIRISH

Zamonaviy voleybol sporti yuqori intensivlik, tezkor qaror qabul qilish va o‘yin ampluasiga mos maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan murakkab sport turlaridan biri hisoblanadi. O‘yinchilarning maydondagi funksional vazifalari (bog‘lovchi, diagonal, markaziy blokchi, qanot hujumchisi, libero va boshqalar) bir-biridan keskin farqlanishi ularni tayyorlash jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi. Shunga qaramay, amaliyotda ko‘plab jamoalarda mashg‘ulot jarayonlari yetarli darajada individuallashtirilmagan, o‘yin ampluasiga xos yuklama va vositalar tizimli ravishda qo‘llanilmayotgani kuzatiladi. Bu holat sportchilarning texnik-taktik samaradorligi hamda jismoniy sifatlarining to‘liq namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, voleybolchilarni tayyorlashda umumiy jismoniy va texnik tayyorgarlikka oid tadqiqotlar yetarli darajada olib borilgan bo‘lsa-da, o‘yin ampluasini chuqur hisobga olgan holda differensial vositalardan foydalanishning aniq mezonlari va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, mashg‘ulot yuklamalarini pozitsiyaga mos taqsimlash, sakrash faoliyati va texnik harakatlarni rolga yo‘naltirilgan tarzda modellashtirish, shuningdek, differensial tayyorgarlik samaradorligini kompleks baholash masalalari o‘z yechimini to‘liq topmagan. Shu bois mazkur yo‘nalishda ilmiy asoslangan usullarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotning maqsadi voleybolchilarni tayyorlash jarayonida ularning o‘yin ampluasini hisobga olgan holda differensial vositalardan foydalanish zarurligini aniqlash hamda ushbu jarayonni baholashning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: voleybolchilarni tayyorlash amaliyotida differensial yondashuvning mavjud holatini tahlil qilish; o‘yin ampluasiga xos texnik, jismoniy va taktik talablarni aniqlash; differensial mashg‘ulot vositalarini tanlash va qo‘llash mezonlarini asoslash; differensial tayyorgarlik samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish; olingan natijalar asosida mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari voleybolchilarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash, mashg‘ulotlarni individuallashtirish hamda jamoaviy o‘yin samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Voleybolchilarni tayyorlashda differensial yondashuv masalasi sport pedagogikasi va nazariyasida muhim yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rib chiqilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sportchilarni o‘yin ampluasiga mos holda tayyorlash samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.

N.V. Avramovaning “Variativnost dvigatelnыx deystviy voleybolistok” nomli ishida voleybolchilarning harakat faoliyati variativligi ularning o‘yin samaradorligiga bevosita ta’sir etishi asoslab berilgan. Muallifning ta’kidlashicha, mashg‘ulot jarayonida harakatlarning variativligini oshirish differensial yondashuvni talab etadi. Bu fikr tadqiqotimiz uchun metodik asos bo‘lib xizmat qildi, chunki o‘yin ampluasiga xos harakatlar turlicha yuklama va texnik tayyorgarlikni talab qiladi.

N.V. Avramova va A.V. Burtsevlarning “Povыshenie fizicheskoy podgotovlennosti kak vedущiy faktor rosta sportivnogo masterstva voleybolistok 17–20 let” maqolasida jismoniy tayyorgarlik sport mahorati o‘sishining yetakchi omili sifatida ko‘rsatiladi. Mualliflar yosh voleybolchilarda kuch va sakrovchanlikni maqsadli rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydilar. Mazkur yondashuv bizning ishimizda o‘yin ampluasiga qarab jismoniy yuklamalarni differensial taqsimlash zarurligini asoslashda muhim manba bo‘ldi.

A.V. Belyaev va L.V. Bulykinaning “Osnovnыe uprajneniya kak sredstvo razvitiya fizicheskix kachestv voleybolistok” tadqiqotida asosiy jismoniy mashqlarni tanlashda o‘yinchining funksional roli hisobga olinishi lozimligi qayd etilgan. Mualliflar tomonidan taklif etilgan maxsus mashqlar tizimi differensial tayyorgarlik konsepsiyasining amaliy asoslarini ochib beradi. Ushbu qarashlar tadqiqotimizda mashg‘ulot vositalarini ampluaga mos tanlash metodikasini ishlab chiqishda inobatga olindi.

M.S. Brilning “Individualizatsiya v sportivnыx igrax: trudnosti, opыt, perspektivы” (2001) ishida sport o‘yinlarida individuallashtirish murakkab, ammo zarur jarayon ekani ilmiy asoslangan. Muallif individual yondashuvsiz yuqori sport natijalariga erishish qiyinligini ta’kidlaydi. Bu g‘oya voleybolda differensial tayyorgarlikni joriy etishning nazariy poydevorini mustahkamlaydi.

S.V. Borodachev va hamkorlarning “Povыshenie effektivnosti atakuyuщix deystviy kvalifitsirovannыx voleybolistok…” tadqiqotida hujum harakatlari samaradorligini oshirishda psixoregulyatsiya va maxsus mashqlar muhim omil sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu ish o‘yin ampluasiga xos texnik-taktik tayyorgarlikni chuqurlashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

E.A. Bunakov va K.V. Osipovskiyning harakatli o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotida murakkab harakat reaksiyasini rivojlantirishda o‘yin metodlarining samaradorligi asoslangan. Bu yondashuv differensial vositalarni tanlashda variativ mashqlar majmuasini qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, voleybolchilarni tayyorlashda differensial yondashuvning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, o‘yin ampluasini kompleks hisobga olgan holda differensial vositalardan foydalanishning aniq mezonlari va baholash usullari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda voleybolchilarni tayyorlash jarayonida differensial vositalardan foydalanish zarurligini aniqlash uchun kompleks pedagogik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayoni nazariy tahlil va amaliy kuzatuvlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslandi.

Nazariy tahlil metodlari tadqiqotning dastlabki bosqichida sport pedagogikasi, voleybol nazariyasi va mashg‘ulotlarni individuallashtirishga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Qiyosiy-tahliliy usul yordamida turli mualliflarning qarashlari umumlashtirildi va tadqiqotning konseptual modeli shakllantirildi.

Voleybolchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulot jarayonini o‘rganish maqsadida pedagogik kuzatuv metodi qo‘llanildi. Kuzatuv davomida texnik mashqlar hajmi, sakrash faoliyati ko‘rsatkichlari va mashg‘ulot tuzilmasi qayd etildi. Ushbu metod differensial yondashuvning amaldagi holatini aniqlash imkonini berdi.

So‘rovnoma (anketa) metodi orqali murabbiylar va voleybolchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, differensial tayyorgarlikka oid bilim darajasi, amaliyotda qo‘llanilayotgan yondashuvlar hamda mavjud muammolar aniqlashtirildi. So‘rovnoma natijalari muammoning subyektiv va obyektiv jihatlarini ochib berishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida voleybolchilarni tayyorlash jarayonida differensial vositalardan foydalanish holati pedagogik kuzatuv, testlash va so‘rovnoma natijalari asosida kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar mashg‘ulotlarda o‘yin ampluasiga mos yondashuv yetarli darajada tizimlashtirilmaganini ko‘rsatdi. Pedagogik kuzatuv jarayonida 24 ta mashg‘ulot tahlil qilinib, texnik mashqlar hajmi hamda sakrash faoliyatining ulushi aniqlandi.

1-jadval: **Voleybolchilarning texnik tayyorgarligi bo‘yicha an’anaviy mashg‘ulotlar tahlili (pedagogik kuzatuv natijalari, n=24)**

№	Texnik tayyorgarlik mashqlari	Takrorlanish soni, X (marta)	Mashqqa sarflangan vaqt, X (daq./sek.)
1	To‘pni to‘g‘ri qabul qilish va uzatish	30,6	4,4
2	To‘p uzatish (past berish)	18,3	1,6
3	To‘pga zarba berish	33,5	3,1
4	To‘siq qo‘yish (blok)	21,7	1,8
5	Hujum zarbalari uchun sakrash	48,9	5,9
6	To‘siq qo‘yish uchun sakrash	34,3	3,5
7	To‘p uzatish uchun sakrash	11,8	1,6
8	To‘p kiritish uchun sakrash	9,9	1,3
9	Sakrab yugurish mashqlari	27,2	3,8
10	Himoyaviy harakatlar	8,7	3,9
O‘rtacha	**–**	**24,7**	**2,9**
Umumiy	**–**	**247,4**	**28,8**

Jadvaldan ko‘rinadiki, mashg‘ulotlarda eng katta ulush hujum zarbalari uchun sakrash mashqlariga to‘g‘ri keladi (48,9 marta). Biroq to‘p uzatish va himoyaviy sakrash mashqlari hajmi nisbatan past. Bu holat o‘yin ampluasiga xos differensial yuklama yetarli darajada taqsimlanmaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, markaziy blokchi va bog‘lovchilar uchun maxsus sakrash koordinatsiyasini rivojlantiruvchi mashqlar ulushini oshirish zarur.

So‘rovnoma natijalari voleybolchilar va murabbiylarning biomekanik bilimlari turlicha darajada ekanini ko‘rsatdi.

2-jadval: **Respondentlar so'rovi natijalari tahlili**

№	Savollar	MVR "ha" %	MVR "yo'q" %	O'TR "ha" %	O'TR "yo'q" %
1	Sakrash balandligi oyoq bukilishiga bog'liqmi	68,9	31,1	40,0	60,0
2	Sakrash balandligi inersion harakatga bog'liqmi	36,2	63,8	44,4	55,6
3	Turli zonalarda sakrash koordinatsiyasi farqlanadimi	41,4	58,6	60,0	40,0
4	Vertikal sakrash blok sakrashidan farqlanadimi	36,2	63,8	53,3	46,7
5	Yugurib kelib sakrashda depsinish joyiga qo'nish zarurmi	41,4	58,6	40,0	60,0

Izoh: MVR malakali voleybolchilar; O'TR o'qituvchi-trenerlar.

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning muhim qismi sakrash biomekanikasiga oid bilimlarda yetarli aniqlikka ega emas. Ayniqsa, inersion harakat omilini to'g'ri baholash past darajada. Bu mashg'ulotlarni ilmiy asosda rejalashtirishda metodik bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi. Differensial vositalardan foydalanish zarurligini belgilovchi omillar quyidagicha baholandi.

3-jadval: **Differensial vositalardan foydalanish zarurligini belgilovchi omillar (n=58; W>0,79)**

Ahamiyati (o'rin)	Omillar	Ko'rsatkich, %
1	Turli ampluadagi o'yinchilarning musobaqaga tayyorgarligini oshirish	25,7
2	Asosiy ko'rsatkichlarga maqsadli ta'sirni kuchaytirish	24,3
3	Sport mahoratining barqaror o'sishini ta'minlash	17,8
4	Murabbiylarning metodik tayyorgarligini oshirish	12,2
5	Differensial vositalar xilma-xilligi	11,3
6	Qo'llash qulayligi	8,7

Eng yuqori ulush (25,7%) musobaqaga tayyorgarlikni oshirish omiliga to'g'ri kelgani differensial yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Demak, murabbiylar differensial mashg'ulotlarni natijadorlikni oshiruvchi asosiy vosita sifatida baholamoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki: mashg'ulotlarda sakrash yuklamalari yetarli darajada differensiallashtirilmagan, biomekanik bilimlar darajasi bir xil emas, ampluaga xos mashqlar ulushini oshirish zarur, differensial rejalashtirish algoritmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Natijalar voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalardan foydalanish sport mahoratini oshirishning muhim sharti ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o'yin ampluasiga mos yuklamalarni ilmiy asosda rejalashtirish zamonaviy voleybol tayyorgarligining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari voleybolchilarni tayyorlash jarayonida differensial vositalardan foydalanish zamonaviy sport tayyorgarligining muhim va zarur sharti ekanini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Pedagogik kuzatuvlar, so'rovnoma va tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, amaliy mashg'ulotlarda o'yin ampluasiga mos yuklamalarni taqsimlash yetarli darajada tizimlashtirilmagan, sakrash faoliyati va texnik mashqlar hajmi esa ko'pincha umumiy yondashuv asosida rejalashtirilmoqda. Bu esa ayrim pozitsiyadagi o'yinchilarning funksional imkoniyatlari va texnik-taktik samaradorligini to'liq namoyon etishga to'sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mashg'ulotlarda hujum zarbalari uchun sakrash mashqlari ustunlik qilgani holda, bog'lovchi, markaziy blokchi va himoyachi o'yinchilarga xos maxsus sakrash koordinatsiyasi hamda texnik mashqlar ulushi yetarli emas. So'rovnoma natijalari esa murabbiylar va voleybolchilarning sakrash biomekanikasi bo'yicha bilimlari bir xil emasligini ko'rsatib, mashg'ulotlarni ilmiy asosda rejalashtirishda metodik bo'shliqlar mavjudligini ochib berdi. Omillar tahlili differensial vositalardan foydalanishning eng muhim natijasi sifatida musobaqaga tayyorgarlik samaradorligini oshirish va asosiy ko'rsatkichlarga maqsadli ta'sirni kuchaytirish ekanini ko'rsatdi. Bu holat differensial yondashuvni voleybolchilar tayyorgarligini optimallashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida qarash zarurligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, voleybolchilarni tayyorlashda o‘yin ampluasini chuqur hisobga olgan holda differensial mashg‘ulot vositalarini tanlash, yuklamalarni ilmiy asosda taqsimlash hamda biomekanik bilimlarni murabbiylar amaliyotiga keng joriy etish sport mahoratini barqaror oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida tadqiqotlarni differensial rejalashtirish algoritmlarini amaliy modellashtirish, har bir amplua uchun normativ ko‘rsatkichlar ishlab chiqish hamda mashg‘ulot samaradorligini raqamli monitoring qilish yo‘nalishlarida davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avramova N.V. Variativnost dvigatelnykh deystviy voleybolistok. – M.: Fizicheskaya kultura, 2012. – S. 156.
2. Avramova N.V., Burtsev A.V. Povyshenie fizicheskoy podgotovlennosti kak vedushchiy faktor rosta sportivnogo masterstva voleybolistok 17–20 let. – M.: Sport, 2012. – S. 98.
3. Belyaev A.V., Bulykina L.V. Osnovnye uprazhneniya kak sredstvo razvitiya fizicheskikh kachestv voleybolistok. – M.: Sovetskiy sport, 2004. – S. 120.
4. Bril M.S. Individualizatsiya v sportivnykh igrakh: trudnosti, opyt, perspektivy. – M.: Fizicheskaya kultura, 2001. – S. 210.
5. Borodachev S.V. i dr. Povyshenie effektivnosti atakuyushchikh deystviy kvalifitsirovannykh voleybolistok. – M.: Teoriya i praktika fizicheskoy kultury, 2014. – S. 75.
6. Bunakov Ye.A., Osipovskiy K.V. Podvizhnye igry kak sredstvo razvitiya slozhnoy dvigatelnoy reaktsii. – M.: Sport, 2019. – S. 142.



2-TOIFA DIABET BILAN BOG'LIQ STRESSGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYALARI VA PSIXOLOGIK HOLATLAR

Sadikova Umida Botirovna
Ma'mun universiteti Psixologiya kafedrasi
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-4866-5695

Annotatsiya: Ushbu maqola 2-toifa diabet bilan og'rigan bemorlarda stressga qarshi kurashish mexanizmlari, hissiy farovonlik va glikemik nazorat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Psixologik baholashlar va o'z-o'zini baholash natijalarini birlashtirish orqali tadqiqot kasallikni yaxshiroq boshqarish bilan bog'liq bo'lgan hissiy tartibga solish va moslashuvchan strategiyalarning asosiy naqshlarini aniqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, faol kurashish strategiyalaridan foydalanadigan va ijobiy psixologik holatlarni saqlab turadigan bemorlar glikemik natijalarning yaxshilanganligini ko'rsatadi, moslasha olmaydigan kurashish va stress darajasining oshishi esa metabolik nazoratning yomonlashishi bilan bog'liq. Ushbu natijalar bemorlarning natijalarini yaxshilash uchun psixologik aralashuvlarni kompleks diabetga qarshi yordamga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: 2-toifa diabet, stressga qarshi kurashish strategiyalari, psixologik farovonlik, emotsional tartibga solish, adaptiv kurashish, glikemik nazorat.

Abstract: This article aims to examine the relationship between stress coping mechanisms, emotional well-being, and glycemic control in patients with type 2 diabetes. By integrating psychological assessments and self-reported outcomes, the study identifies key patterns of emotional regulation and adaptive strategies that are associated with better disease management. The results of the study suggest that patients who use active coping strategies and maintain positive psychological states show improved glycemic outcomes, while maladaptive coping and increased stress levels are associated with worse metabolic control. These results highlight the need to integrate psychological interventions into comprehensive diabetes care to improve patient outcomes.

Key words: Type 2 diabetes, stress coping strategies, psychological well-being, emotional regulation, adaptive coping, glycemic control.

Аннотация: Цель данной статьи - изучить взаимосвязь между механизмами преодоления стресса, эмоциональным благополучием и гликемическим контролем у natsientov с сахарным диабетом 2 типа. Путем интегratsii психологических оценок и результатов самооценки исследование выявляет ключевые модели эмоциональной регуляции и адаптивных стратегий, которые связаны с лучшим управлением заболеванием. Результаты исследования показывают, что natsienty, использующие активные стратегии преодоления стресса и поддерживающие позитивное психологическое состояние, демонстрируют улучшенные гликемические показатели, в то время как неадаптивные стратегии преодоления стресса и повышенный уровень стресса связаны с ухудшением метаболического контроля. Эти результаты подчеркивают необходимость интегratsii психологических вмешательств в комплексное лечение диабета для улучшения результатов лечения natsientov.

Ключевые слова: Сахарный диабет 2 типа, стратегии преодоления стресса, психологическое благополучие, эмоциональная регуляция, адаптивные стратегии преодоления стресса, гликемический контроль.

KIRISH

2-toifa diabet - bu insulin ishlab chiqarish va glyukoza metabolizmining buzilishi bilan tavsiflanadigan keng tarqalgan surunkali kasallik bo'lib, ko'p organ tizimlariga ta'sir qiluvchi uzoq muddatli asoratlarga olib keladi. Fiziologik omillardan tashqari, psixologik va hissiy holatlar kasallikning rivojlanishi va davolash natijalariga sezilarli hissa qo'shadigan omillar sifatida tobora ko'proq tan olinmoqda. 2-toifa diabet bilan og'rigan bemorlarda stress, xavotir va depressiya tez-tez kuzatiladi, bu ko'pincha glikemik disregulyatsiyani kuchaytiradi va davolanishga rioya qilishni murakkablashtiradi.

Muammoga yo'naltirilgan kurashish, hissiy tartibga solish va ijtimoiy yordamdan foydalanish kabi samarali stressga qarshi kurashish strategiyalari metabolik nazorat va umumiy farovonlikning yaxshilanishi bilan bog'liq. Aksincha, qochish, inkor etish yoki hissiy bostirish kabi noto'g'ri kurashish xatti-harakatlari glikemik natijalarga

salbiy ta'sir ko'rsatishi va asoratlar xavfini oshirishi mumkin. Shuning uchun psixologik holatlar va stressga qarshi kurashish mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunish diabetni boshqarishning ham jismoniy, ham hissiy jihatlarini qamrab oluvchi yaxlit davolash rejalarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

2-toifa diabet fiziologik va psixologik omillar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirga ega surunkali metabolik kasallikdir. So'nggi tadqiqotlar stressni idrok etish, kurashish strategiyalari va hissiy farovonlik 2-toifa diabetni boshqarish va rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Ko'plab xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, shaxslarning stressni boshqarish mexanizmlari glikemik nazorat, o'ziga g'amxo'rlik qilish xatti-harakatlari va umumiy hayot sifati bilan chambarchas bog'liq.

McCoy M.A. va Theeke L.A. [1] 2-toifa diabetga chalingan kattalarda psixososial omillar va kurashish o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi tizimli sharh o'tkazdilar. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoga yo'naltirilgan kurashish va hissiy tartibga solish kabi adaptiv strategiyalar o'zini o'zi boshqarishni yaxshilash va diabet bilan bog'liq stressni kamaytirish bilan bog'liq. Xuddi shunday, Sharma K. va boshqalar [2] surunkali stress metabolik disregulyatsiyani kuchaytirishini ta'kidlab, diabetni kompleks davolashda psixologik aralashuvlarning ahamiyatini ko'rsatdilar.

Li L. va boshqalar [3] 2-toifa diabetga chalingan keksa kattalarda asoratlar xavfini idrok etish va kurashish strategiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib chiqdilar. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, moslashuvchan kurashish mexanizmlarida faol ishtirok etadigan bemorlar glikemik nazoratni yaxshiroq namoyish etadilar va hissiy farovonlikning yuqori darajasini qayd etadilar, holbuki qochish yoki inkor etish kabi noto'g'ri adaptiv strategiyalar yuqori stress darajasi va metabolik natijalarning yomonlashishi bilan bog'liq. Bu topilmalar Tuncay A. va boshqalar [4] tadqiqotlari bilan tasdiqlangan bo'lib, ular xavotir darajasi va kurashish strategiyalari diabet bemorlarida kasallikni boshqarish natijalarini sezilarli darajada bashorat qilishini aniqlaganlar.

Bundan tashqari, so'nggi tadqiqotlar 2-toifa diabet bilan og'rigan bemorlarda stressni idrok etish, psixologik moslashuvchanlik va uyqu sifati o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rgangan [7]. Yuqori psixologik moslashuvchanlik va samarali stressni boshqarishga ega bemorlar uyqu rejimining yaxshilanganligi va glikemik natijalarning yaxshilanganligi haqida xabar berganlar, bu esa diabetni boshqarishda xulq-atvor va psixologik aralashuvlarni integratsiyalashning potensial foydalarini ko'rsatadi. Hapunda G. va boshqalar [5], Embaye J. va boshqalar [6] ham tuzilgan kurashish strategiyalari 2-toifa diabet bilan og'rigan kattalarda diabet bilan bog'liq stressni kamaytirishi va o'ziga ishonchni oshirishi mumkinligini ta'kidlaganlar.

O'zbekiston kontekstida bir nechta tadqiqotlar diabetni boshqarishning mahalliy psixososial dinamikasi haqida tushuncha beradi. Rajapova S. va Sadiqova N. [8] 2-toifa diabetli bemorlarda hissiy farovonlik va kurashish xatti-harakatlarini o'rganib, psixologik stress turmush tarzi tavsiyalariga rioya qilish va glikemik nazoratga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladilar. Narmetova Y. [8] diabetli bemorlarda stressni yumshatish va moslashuvchan kurashish mexanizmlarini rivojlantirishda moslashtirilgan psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarining muhimligini ta'kidladi. Mardiyev O.A. va Hayatov R.B. [9] 2-toifa diabetli bemorlardagi affektiv buzilishlar hayot sifatiga va kasallikni boshqarish natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdilar. Tursunova K.U. [10] va boshqa mahalliy tadqiqotlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va madaniy jihatdan sezgir aralashuvlarning psixologik chidamlilik va metabolik nazoratni kuchaytirishdagi rolini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, ham xalqaro, ham o'zbek adabiyotlarida psixologik farovonlik va stressni boshqarish strategiyalari 2-toifa diabetni samarali boshqarishning muhim omillari ekanligi haqidagi fikr birlashadi [11]. Moslashuvchan kurashish mexanizmlari, hissiy tartibga solish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash doimiy ravishda glikemik nazoratni yaxshilash va diabet bilan bog'liq stressni kamaytirish bilan bog'liq, holbuki noto'g'ri kurashish salbiy sog'liq natijalari bilan bog'liq [12].

Ushbu topilmalar 2-toifa diabet bilan og'rigan bemorlarning standart klinik yordamiga psixologik baholash va aralashuvlarni integratsiyalashning muhimligini ta'kidlaydi, bu diabetni boshqarishning ham fiziologik, ham psixologik jihatlarini ko'rib chiqadigan yaxlit yondashuvni ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kattalar bemorlarida stressni yengish strategiyalari, psixologik holatlar va 2-toifa diabetni davolash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun tavsif-analitik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot ushbu kasallik bilan yashovchi shaxslarda hissiy tartibga solish naqshlari, moslashuvchan yengish mexanizmlari va umumiy psixologik farovonlikni tushunishga qaratilgan edi.

Tadqiqotga mahalliy sog'liqni saqlash muassasalari va diabetni qo'llab-quvvatlash guruhlaridan jalb qilingan 2-toifa diabet tashxisi qo'yilgan kattalar bemorlari kiritilgan. Ishtirokchilar tadqiqotda ishtirok etishga tayyorligi va xabardor rozilik berish qobiliyatiga qarab tanlandi. Diabetni boshqarishning psixologik jihatlari bo'yicha keng

qamrovli nuqtai nazarni ta'minlash uchun turli yoshdagi va ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi bo'lgan erkak va ayol bemorlar ham kiritildi.

Ma'lumotlar yarim tuzilgan intervyular va yengish strategiyalari, hissiy holatlar va kundalik boshqaruv xatti-harakatlarini o'rganish uchun mo'ljallangan standartlashtirilgan o'z-o'zini hisobot qilish anketalari orqali to'plandi. Intervyular ishtirokchilarning diabet bilan bog'liq stressni yengish tajribalariga, jumladan, qiyinchiliklar, hissiy javoblar va moslashish uchun shaxsiy strategiyalarga qaratildi. O'z-o'zini hisobot qilish o'lchovlari surunkali kasallik bilan yashash sharoitida psixologik farovonlik, hissiy chidamlilik va qabul qilingan stress darajalarini baholadi.

Ishtirok etishdan oldin har bir shaxsga tadqiqotning maqsadi haqida ma'lumot berildi, ixtiyoriy ishtirok va maxfiylikni ta'minladi. Suhbatlar tinch va shaxsiy muhitda o'tkazildi, bu ishtirokchilarga o'z tajribalari va tasavvurlarini erkin ifoda etish imkonini berdi. Javoblar yozma ravishda qayd etildi va stressni idrok etish, yengish strategiyalari, hissiy tartibga solish va umumiy psixologik moslashuv kabi asosiy tematik sohalarga muvofiq tasniflandi.

Ushbu metodologik asos stressni yengish strategiyalari va psixologik holatlar 2-toifa diabet bilan yashovchi kattalarning kundalik tajribalari va boshqaruv natijalariga qanday ta'sir qilishini chuqur tushunishga imkon berdi. Sifatli yondashuv shaxsiy tajribalar va sub'ektiv tasavvurlarga urg'u berdi, kelajakdagi klinik aralashuvlar va psixososyal qo'llab-quvvatlash dasturlarini shakllantirishi mumkin bo'lgan boy tavsifli tushunchalarni taqdim etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot 2-toifa diabet bilan yashovchi kattalarning psixologik holati va stressga qarshi kurashish strategiyalari bilan bog'liq bir nechta muhim naqshlarni aniqladi. Ishtirokchilar surunkali kasalliklarni boshqarish bilan bog'liq qiyinchiliklarga turli xil hissiy munosabatda bo'lishlarini namoyish etdilar. Ko'pchilik vaqti-vaqti bilan xavotir, qon glyukoza darajasi haqida xavotir va parhez cheklovlari va dori-darmonlarga rioya qilish bilan bog'liq stressni boshdan kechirganliklarini xabar qilishdi.

Ko'p sonli ishtirokchilar faol kurashish strategiyalari - masalan, muammolarni hal qilish, kundalik tartiblarni rejalashtirish va ijtimoiy yordam izlash - ularga ham hissiy stressni, ham diabetga qarshi kurashning amaliy jihatlarini boshqarishga yordam berganini ta'kidladilar. Bu shaxslar ko'pincha qon shakar darajasini nazorat qilishda va umumiy farovonlikni saqlashda o'zlarini ko'proq ishonchli his qilishlarini tasvirlashdi. Aksincha, qochish, inkor etish yoki hissiy bostirishga tayangan ishtirokchilar yuqori darajadagi hissiy noqulaylik haqida xabar berishdi va kasalliklarni boshqarishda umidsizlik yoki ojizlik hissini tasvirlashdi.

Bu topilmalar yengish strategiyalari, psixologik farovonlik va diabetni boshqarish o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydigan xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi. McCoy & Theeke, Li va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, moslashuvchan yengish mexanizmlari kasallikning yaxshi natijalari va psixologik stressning pasayishi bilan bog'liq. Bizning natijalarimiz muammoga yo'naltirilgan yengish, hissiy tartibga solish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bemorlarga 2-toifa diabetni samarali boshqarishda yordam beradigan muhim omillar ekanligini tasdiqlaydi.

Annotatsiya: Nutq insonning ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositadir. Jamiyatga integratsiyalashuv jarayonida nutq o‘zaro aloqa va muloqotning asosiy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ikkilamchi muammo sifatida yuzaga keluvchi nutq nuqsonlari ularning umumiy rivojlanishi hamda ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada koxlear implantatsiya jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish ishining mazmuni hamda nutqiy reabilitatsiyani tashkil etish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: koxlear implantli o‘quvchi, nutqni o‘zlashtirish, lug‘at boyligi, kommunikativ ko‘nikma, o‘zaro hamkorlik, ta’limni moslashtirish.

Abstract: Speech plays a crucial role in human social life. In the process of integration into society, speech functions as a primary means of interpersonal communication. Speech disorders that arise as a secondary problem in children with hearing impairments negatively affect their overall development and socialization. This article examines the content of work aimed at developing speech communication skills in children with hearing impairments who have undergone cochlear implantation surgery, as well as issues related to the organization of speech rehabilitation.

Key words: student with a cochlear implant, speech acquisition, vocabulary development, communicative skills, cooperation, adaptation of education.

Аннотация: Речь является важным средством социальной жизни человека. В процессе интеграции в общество речь выступает как основное средство межличностного общения. Речевые нарушения, возникающие как вторичная проблема у детей с нарушением слуха, оказывают негативное влияние на процесс их общего развития и социализатsii. В данной статье рассматривается содержание работы по развитию навыков речевого общения у детей с нарушением слуха, перенесших хирургическую операtsiю кохлеарной имплантатsii, а также вопросы организатsii речевой реабилитации.

Ключевые слова: ученик с кохлеарным имплантом, усвоение речи, словарный запас, коммуникативные навыки, сотрудничество, адаптация обучения.

KIRISH

R.M. Boskis fikriga ko‘ra, bolalarning umumiy rivojlanishida eshitishning rolini belgilovchi muhim mezonlardan biri - nutqni o‘zlashtirishdagi mustaqillikdir. Normal eshitishga ega bolalarda bu jarayon o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi, eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda esa maxsus o‘qitish natijasida amalga oshadi, chunki ular nutqni o‘zlashtirish va lug‘at boyligini oshirish uchun qoldiq eshitishidan mustaqil foydalana olmaydilar [1]. Shu sababli ham nutq ustida olib boriladigan ishlar surdopedagogikada alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy fan va texnologiyaning rivojlanishi bugungi kunga kelib eshitish muammosini hal etishda koxlear implant moslamalaridan foydalanish imkonini berdi. Implantatsiyadan keyin eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar bilan eshituv-nutq reabilitatsiyasini tashkil etish ularning umumiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, umumta’lim tizimiga to‘liq integratsiyasini ta’minlashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuni inobatga olgan holda nutqiy reabilitatsiyaning turli yangi yo‘nalishlari va metodikalarini yaratish ehtiyoji yuzaga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eshitishida muammosi bo‘lgan shaxslarning og‘zaki nutqini rivojlantirish muammosi uzoq yillar davomida surdopedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanib keladi. Surdopedagogikaning rivojlanish bosqichi davomida ko‘plab olimlar, jumladan F.F. Rau, R.M. Boskis, E.P. Kuzmicheva, L.V. Neyman, I.G. Bagrova, L.P. Nazarova, N.D. Shmatko, T.V. Pelymskaya, L.A. Golovchits, L.P. Noskova va boshqalar o‘z faoliyatlarini nutq muammosini hal etishga qaratganlar. So‘nggi yillarda eshitish muammosini reabilitatsiya qilishda koxlear implantatsiyaning amaliy ahamiyati, koxlear implantli bolalar nutqiy reabilitatsiyasi muammolari rus olimlaridan I.V. Koroleva, O.V. Zontova, G.A. Tavartkiladze, E.I. Mironova, N.V. Tarasova, A.A. Balyakova, A.I. Sataeva, M. Leongard ishlarida o‘rganilgan. O‘zbek olimlaridan Z.N. Mamarajabova, D.A. Nazarova, U.Yu. Fayziyeva, R. Rustamova, X.S. Raximova, D.U. Muxitninova, N.Z. Raxmonovalar o‘z ishlarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, koxlear implantli bolalar reabilitatsiyasi muammolarini o‘rganganlar.

Kommunikativ ko‘nikmalar bola nutqiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Bunda eshitish, so‘zlash, tushunish, fikr almashish, tinglab tushunish, ovoz intonatsiyasini his qilish kabi elementlar jamuljam bo‘ladi. Koxlear implant o‘rnatilgan bolalarda bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘zgacha yondashuvni talab qiladi, chunki implantatsiyadan keyin ham bola har doim ham eshitish jarayonini tabiiy ravishda idrok qila olmaydi, ayrim hollarda tovushlarning differensiyatsiyasi yoki to‘g‘ri talqin qilinishi buzilib turadi. Shuning uchun nutqiy reabilitatsiyaning ilk bosqichlaridanoq bolaga individual yondashuv, tizimli mashg‘ulotlar, maxsus logopedik va pedagogik ko‘nikmalarni joriy etish zarur bo‘ladi [2].

I. Korolevaning fikricha, bolaga 2 yoshdan keyin implantatsiya qilinganda nutqni tushunish va o‘z nutqini egallashning spontan o‘z-o‘zidan) rivojlanish jarayoni kechroq - 8–12 oydan so‘ng boshlanadi. Bu jarayon bevosita implantatsiya vaqtida bolada qoldiq eshitish qanchalik rivojlanganligi va talaffuz ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi, implantatsiya yoshi, ota-onalarning bolaning rivojlanishidagi ishtiroki, unda qo‘shimcha buzilishlarning mavjudligi va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi [3].

Yuqorida keltirilgan fikrlar shuni ko‘rsatadiki, koxlear implantli bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish qanchalik erta va tizimli yo‘lga qo‘yilsa, natija samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Implantatsiya yoshi bevosita bolaning maktab ta’limiga moslashishi, inklyuziv sharoitga to‘liq integratsiyalashuvida ham katta rol o‘ynaydi. Bola maktab ta’limiga kirib kelgandan so‘ng o‘quv predmetlarini o‘zlashtirishda og‘zaki nutqqa bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib boradi, biroq ayrim hollarda bolaning nutqiy imkoniyatlari bu ehtiyojni qondirish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun har bir dars jarayoni bolaga individual yondashuvni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotimizda eshitishida nuqsoni bo‘lgan koxlear implantli bolalarning og‘zaki nutqini ona tili darslarida rivojlantirishning shart-sharoitlari tahlil qilindi. Tadqiqot surdopedagog olimlarning ilgari surgan nazariyalari, zamonaviy maxsus ta’lim imkoniyatlari hamda eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar ta’limining asosiy tamoyillariga tayanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dars jarayonida tashkil qilinadigan ish tizimi eshituv, ko‘ruv va kinestetik sezgilarga asoslanishiga e’tibor berish maqsadga muvofiq. Dars jarayonini tashkil qiluvchi metodikalar tizimi yakka va guruhli topshiriqlar izchilligida tashkil etilishi lozim. Ushbu mashqlar tizimi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

1. Fonetik-eshitish mashqlari;
2. Leksik mashqlar;
3. Gap tuzish va bog‘langan nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar;
4. Dialogik va monologik nutqni rivojlantiruvchi mashqlar;
5. Multisensor mashqlar.

Dars samaradorligi va darsni o‘zlashtirishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro hamkorligi talab etiladi. Xususan, koxlear implantli o‘quvchi bilan ta’lim jarayonida ishlash quyidagi amaliy ish usullarini talab etadi:

O‘qituvchi bolaga dars mavzusini oldindan berishi lozim. Shunda bola bilan birga mavzu bo‘yicha yangi termin va so‘zlarni oldindan tahlil qilib, ularni eshitib tanishga o‘rgatishga ulgurish imkoniyati kengayadi, bola dars davomida mavzuni osonroq o‘zlashtiradi.

Avvalo, o‘quvchining diqqatini o‘qituvchining yuziga qaratish lozim. Nutq normal, tabiiy artikulyatsiya, nutq sur’ati va intonatsiyaga rioya qilgan holda bo‘lishi kerak.

Koxlear implantdan foydalanuvchi o‘quvchining ko‘rsatmalarni takrorlashini so‘rash zarur, chunki o‘qituvchi o‘quvchining topshiriqni to‘g‘ri tushunganiga ishonch hosil qilishi kerak.

O‘quvchiga murojaat qilingan gap eshitishda yaxshi idrok qilinadigan tanish so‘zlardan yoki bola uchun oldindan mazmuni tushuntirilgan so‘zlardan boshlanishi kerak.

Agar bola gapni birinchi marta tushunmasa, unga gapni so‘zlar tartibini o‘zgartirmagan holda takrorlab aytish kerak.

O‘quvchida nutqiy xulq-atvorni shakllantirish zarur, ya’ni uni boshqa so‘zlovchilarning o‘rtoqlari, kattalar) nutqiga e’tibor qaratishga o‘rgatish lozim.

Koxlear implantdan foydalanuvchi o‘quvchilarda shovqinli sharoitda va uzoq masofada nutqni idrok etish qiyinlashadi. Bu omillarni sinfda ish joyini tashkil etishda hisobga olish kerak, ya’ni bola o‘qituvchiga yaqin joylashtirilishi lozim.

Umumta’lim maktabi dasturi ko‘plab fanlarni o‘rganishni nazarda tutadi. Har bir fan o‘ziga xos leksika va terminologiyaga boy bo‘lib, ular koxlear implantli o‘quvchilar tomonidan idrok qilishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu sababli so‘zlarning ma’nosini aniqlashtirish va o‘quv-terminologik lug‘atni shakllantirish bo‘yicha lug‘at ishlariga katta e’tibor qaratish lozim [4].

Shuningdek, qo‘shimcha yordam vositasi sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

- yangi so‘zlar, terminlar kartochkaga yozilib, o‘quvchi partasiga dars boshlanishidan avval qo‘yilishi;
- turli xil ko‘rgazmali materiallardan foydalanish;
- kontekstdan foydalanish;
- leksikani semantizatsiya qilishning muammoli usulidan foydalanish.

Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari KI foydalanuvchi bolalarni o‘qitishda qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ular maxsus yordam ko‘rsatish bo‘yicha yetarli darajada kompetensiyaga ega emaslar. Shu bois, koxlear implantga ega bolalarni o‘qitishda o‘qituvchiga yordam beradigan ayrim tavsiyalar mavjud:

Bola mavzuni yaxshiroq o‘zlashtirishi uchun “oldindan o‘qitish” usulini tavsiya qilish mumkin. Ya’ni bola mavzuni mustaqil yoki ota-onasi bilan birga uyda o‘rganadi, darsda esa KI foydalanuvchi o‘quvchi uni mustahkamlaydi.

Hech bir o‘quv materiali tushunilmay qolmasligi muhim, chunki bu keyingi bo‘limlarni o‘zlashtirmaslikka olib kelishi mumkin.

Ona tili bo‘yicha dasturiy materialni o‘rganishda alohida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. An’anaviy vazifalar bilan bir qatorda o‘qituvchi korreksion vazifalarni ham bajarishi mumkin: masalan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga xos bo‘lgan nutqning grammatik tuzilishini tuzatish ustida ishlash lozim.

O‘qituvchi KI foydalanuvchi o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshiriqni o‘zgartirishi mumkin. Masalan, mashqda nazarda tutilgan murakkab topshiriq o‘rniga o‘qituvchi nisbatan osonroq topshiriqni taqdim qiladi.

O‘qituvchi shu narsaga intilishi kerakki, mavzuni o‘rganish doirasida individual topshiriqlar orqali KI foydalanuvchi o‘quvchi so‘z birikmalari, gaplar, qisqa matnlar tuzishda mashq qilsin.

O‘qituvchi o‘quvchi topshiriqlarni bajarishda qanday xatolarga yo‘l qo‘yayotganini bilishi va unga shu mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash uchun doimiy ravishda mos mashqlar berib borishi kerak. Bu jarayonda darslikdan foydalanish mumkin, bunday topshiriqlarni KI foydalanuvchi bolaga mashq sifatida berish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, so‘zlarning tovush-harf tarkibini aniqlashtirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Nazorat diktantlarini yozishda KI foydalanuvchi bolaning eshitish va nutq imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Agar bolaning eshitish-nutq imkoniyatlari yetarli bo‘lsa, u diktantni barcha bilan birga yozishi mumkin. Biroq diktant oldidan qo‘shimcha tayyorgarlik o‘tkazish tavsiya etiladi, bu tayyorgarlik diktant mavzusi bilan oldindan tanishtirishga qaratiladi. Shundan so‘ng bola diktant mazmunida o‘zini yengilroq yo‘naltira oladi. O‘quvchini oldindan tovush-harf tarkibi, ma’nosi va grammatik shakllanishi jihatidan eng qiyin so‘zlar va so‘z birikmalari bilan tanishtirib qo‘yish lozim.


XULOSA VA TAKLIFLAR

Asosiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, implantatsiyadan keyin 1–2 yil ichida bolalar oddiy eshitish qobiliyatiga ega tengdoshlaridan deyarli ortda qolmaydi. Nutqni tushunish darajasi muntazam mashg‘ulotlar olib borilganda tezroq o‘sadi. Koxlear implant yordamida ta’lim olayotgan bolalar inklyuziv sinflarda ijobiy ijtimoiylashuvga erishadi. Logoped, surdopedagog va ota-onalar birgalikda ish olib borganda bolaning psixologik moslashuvi ancha oson kechadi [5]. Shuningdek, ta’lim jarayonida vaqt o‘tib borgan sari o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan ishonch hissi, muloqot ko‘nikmalari, ta’lim jarayoniga va muhitga moslashish yaxshilanib boradi [6].

Bolaning ta'lim jarayoniga moslashishi, nutq va eshituv samaradorligining oshib borishi bevosita uzluksiz va to'g'ri tashkil etilgan pedagogik yondoshuvga bog'liq. Pedagogik jarayonning uzluksizligini ta'minlashda nafaqat dars jarayonidagi yondoshuv, balki ota-ona va yaqinlarning uy sharoitidagi ijtimoiy-pedagogik qo 'llab-quvvatlashlari ham asosiy o 'rin kasb etadi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini ta'minlashda umumta'lim maktabi pedagogik jamoasi koxlear implantli bolaning rivojlanish xususiyatlarini bilishi, kognitiv xususiyatlaridagi o'ziga xosliklarni o'rganishi va bola uchun mos yo 'nalishlarni tanlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boskis, R. M. Gluxie i slaboslышaщie deti / R. M. Boskis. – M., 1963.
2. Raxmonova N.Z. Koxlear implantli maktabgacha yoshdagi bolalarning komunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning shart-sharoitlari// INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2025-yil,3-tom, 5-son
3. Королева, И. В. Опыт реабилитации детей младшего возраста с кохлеарными имплантами / И. В. Королева, О. С. Жукова // Современные вопросы аудиологии и ринологии. – М., 2000.
4. А.И. Кузнесова. Обучение и воспитание ребенка после кохлеарной имплантации. Рекомендации для родителей. /Автор-составител– Барнаул, 2020Nittrouer S., Caldwell-Tarr A., Lowenstein J.H., Tarr E. Spoken language and academic outcomes in children with cochlear implants: A longitudinal perspective // Ear and Hearing. – 2023. – DOI:10.1097/AUD.0000000000001300.
5. Choi J. E., Hong S. H., Moon I. J. Academic performance, communication, and psychosocial development of prelingual deaf children with cochlear implants in mainstream schools // Journal of Audiology & Otology. – 2020. – 242). – 61–70-betlar.
6. Sadirova K. G. et al. The Development of Speech and Thinking of the Students with Hearing Impairments in the Science Class //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 8. – S. 246-249.



BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA KASBIY MALAKANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

Teshabayeva Oygul Fazliddinovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari"
kafedrasi dotsent v.b. PhD

Annotatsiya: Maqola bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini mustaqil ta'lim jarayonida shakllantirishning samarali metodlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi - mustaqil ta'limning pedagogik samaradorligini aniqlash hamda refleksiv-faoliyatli metodlarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Muallif innovatsion metodlarni tizimli ravishda qo'llash orqali kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni taklif etadi. Olingan natijalar pedagoglarning kasbiy ko'nikmalari sezilarli darajada oshganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi mustaqil ta'lim asosida refleksiv va amaliy komponentlarni integratsiyalashgan holda birlashtiruvchi modelni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: surdopedagog, kasbiy kompetentlik, mustaqil ta'lim, refleksiv yondashuv, maxsus ta'lim.

Abstract: The article examines effective methods for developing the professional competence of future surdopedagogues through independent learning. The aim of the study is to assess the pedagogical effectiveness of independent learning and to implement reflexive-activity methods in practice. The author proposes a systematic approach to competence development through innovative methods. The findings confirm a significant improvement in teachers' professional skills. The scientific novelty lies in the development of a model that integrates reflexive and practical components within the framework of independent learning.

Key words: surdopedagogue, professional competence, independent learning, reflexive approach, special education.

Аннотация: Статья посвящена исследованию эффективных методов формирования профессиональной компетентности будущих сурдопедагогов в процессе самостоятельного обучения. Цель исследования - определить педагогическую эффективность самостоятельного обучения и внедрить рефлексивно-деятельностные методы в практику. Автор предлагает системный подход к развитию компетенций посредством инновационных методов. Полученные результаты подтверждают значительное повышение профессиональных навыков педагогов. Научная новизна заключается в разработке модели, интегрирующей рефлексивные и практические компоненты на основе самостоятельного обучения.

Ключевые слова: сурдопедагог, профессиональная компетентность, самостоятельное обучение, рефлексивный подход, специальное образование.

KIRISH

2026-yilga kelib, maxsus ta'lim tizimidagi integratsiya va inklyuziv jarayonlar bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash sifatiga nisbatan yangi talablarni qo'ymoqda. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda zamonaviy surdotexnik vositalar - koxlear implantlar, raqamli eshitish apparatlari - hamda neyropedagogik metodikalar pedagogning kasbiy kompetentligini doimiy ravishda oshirishni taqozo etadi.

Oliy ta'limdagi o'quv soatlarining cheklanganligi sharoitida bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining asosiy qismi talabaning mustaqil o'quv-biluv faoliyati hisobiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, mustaqil ta'limni shunchaki ma'lumot to'plash jarayoni sifatida emas, balki kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi metodologik tizim sifatida tadqiq etish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, maqolaning ob'ekti - bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, predmeti esa mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari hisoblanadi. Tadqiqot maqsadi - mustaqil ta'lim asosida surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion va amaliy jihatdan samarali usullarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqola quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan: mavjud nazariy manbalarni tahlil qilish, mustaqil ta'limda samarali metodlarni aniqlash, tajriba-sinov orqali ularning amaliy samaradorligini baholash hamda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish hamda mustaqil ta'lim jarayonining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish masalasi maxsus pedagogika va professional ta'lim nazariyasida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Mazkur muammo mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi doirasida o'rganib kelinmoqda.

Z.N. Mamarajabova tadqiqotlarida maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayoni kasbiy kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish tizimi sifatida talqin etiladi. Olimaning fikricha, surdopedagog faoliyatining samaradorligi faqat nazariy bilimlar hajmi bilan emas, balki pedagogning diagnostik, kommunikativ va refleksiv tayyorgarligi bilan belgilanadi. U kasbiy rivojlanishda mustaqil o'quv faoliyatining motivatsion omil sifatidagi rolini alohida ta'kidlaydi, biroq mustaqil ta'lim metodlarini tizimli model sifatida to'liq ochib bermaydi.

X.N. Muzaffarova maxsus ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarni individuallashtirish masalasiga e'tibor qaratib, o'quv jarayonida faol metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini ilmiy asoslaydi. Uning ishlari pedagogik jarayonni tashkil etish mexanizmlarini yoritadi, ammo mustaqil ta'limning kasbiy malaka shakllanishiga bevosita ta'siri yetarli darajada tahlil qilinmagan.

D.A. Nurkeldiyeva bo'lajak defektologlarning kasbiy tayyorgarligini diagnostik faoliyat orqali rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda pedagogning amaliy kompetensiyasi real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali shakllanishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, mustaqil ta'limni refleksiv rivojlanish vositasi sifatida qo'llash masalasi cheklangan doirada yoritilgan.

L.R. Xayitov surdopedagogika nazariyasini rivojlantirib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogning amaliy tayyorgarligi ustuvor ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Olim nazariya va amaliyot integratsiyasi zarurligini qayd etadi, biroq ushbu integratsiyani mustaqil ta'lim orqali amalga oshirish mexanizmlari alohida tadqiq qilinmagan.

D.B. Yakubjanova ishlarida mustaqil ta'lim innovatsion pedagogik muhitning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. U mustaqil topshiriqlar, loyiha faoliyati va interaktiv metodlarning talabalarda kommunikativ hamda kasbiy mustaqillikni rivojlantirishini ko'rsatadi. Biroq surdopedagoglar tayyorlash kontekstida metodlarning tizimli modeli ishlab chiqilmagan.

Xorijiy tadqiqotchilardan N.A. Abramova pedagogik kompetentlikni shaxsning uzluksiz professional rivojlanish jarayoni sifatida izohlab, mustaqil o'qish faoliyatini o'zini-o'zi rivojlantirish mexanizmi sifatida baholaydi. A.V. Arnautov esa interaktiv pedagogik texnologiyalar talabaning faol o'quv sub'ekti sifatida shakllanishiga xizmat qilishini asoslaydi. Uning fikricha, mustaqil ta'lim pedagogik faoliyatni modellashtirish orqali samarali natija beradi.

N.P. Artyushenko tadqiqotlarida mustaqil ta'lim professional kompetensiyani rivojlantirishning strategik vositasi sifatida qaralib, refleksiya va o'z-o'zini baholash jarayonlari kasbiy o'sishning asosiy omili sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuvlar mustaqil ta'limning rivojlantiruvchi salohiyatini ochib bersa-da, maxsus pedagogika, xususan surdopedagogika yo'nalishida yetarli darajada moslashtirilmagan.

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalar bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim o'rin tutishini ko'rsatsa-da, mavjud tadqiqotlarda mustaqil ta'limning refleksiv, amaliy va kommunikativ komponentlarini yagona metodik tizimga birlashtirish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy o'ziga xosligi aynan mustaqil ta'limni surdopedagog kasbiy malakasini shakllantiruvchi integrativ pedagogik model sifatida asoslashga qaratilganligi bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy malakasini shakllantirish jarayonida mustaqil ta'limning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, uning samarali metodlarini ilmiy asoslash hamda amaliy modelini ishlab chiqishga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika, maxsus pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalariga tayanadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlar integratsiyasi asosida olib borildi:

1. **Kompetensiyaviy yondashuv** – talabaning bilimni o'zlashtirishi bilan bir qatorda uni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirildi;

2. **Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv** – mustaqil ta’limni passiv o‘rganish emas, balki faol bilish jarayoni sifatida tashkil etishni nazarda tutdi;
3. **Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika** – talabaning individual ehtiyojlari, kasbiy motivatsiyasi va refleksiv imkoniyatlarini hisobga olishni ta’minladi;
4. **Integrativ yondashuv** – surdopedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari va neyropedagogika elementlarini uyg‘unlashtirishga asoslandi.

Mazkur metodologik asoslar mustaqil ta’limni kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi tizimli pedagogik jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy malakasini rivojlantirishda mustaqil ta’limning mazmuni, tashkil etish shakllari hamda qo‘llaniladigan metodlarning samaradorligi tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy mustaqil ta’lim topshiriqlari ko‘proq nazariy bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilsa-da, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda yetarli darajada samarali emas.

Kuzatish va pedagogik tahlillar asosida mustaqil ta’lim jarayoniga kasbiy yo‘naltirilgan metodlar joriy etilganda talabalarning o‘quv faolligi hamda mustaqil fikrlash darajasi oshgani aniqlandi. Xususan, muammoli pedagogik vaziyatlarni yechishga qaratilgan topshiriqlar, keys-tahlil, mini-loyiha ishlari va refleksiv yozma topshiriqlar talabalarning nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashiga imkon yaratdi. Talabalar real ta’lim jarayoniga yaqin vaziyatlarni tahlil qilish orqali korreksion-pedagogik faoliyat mazmunini chuqurroq anglay boshladilar.

Mustaqil ta’limda videomateriallar, kuzatuv natijalarini tahlil qilish va metodik vazifalarni mustaqil ishlab chiqish kabi faoliyat turlari qo‘llanilganda surdopedagogik faoliyat uchun muhim bo‘lgan kommunikativ, diagnostik hamda metodik ko‘nikmalarning rivojlanishi kuzatildi. Ayniqsa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonida individual yondashuvni rejalashtirishga oid topshiriqlar talabalarning kasbiy tasavvurlarini boyitdi.

Olingan natijalar mustaqil ta’limni tizimli tashkil etish quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishini ko‘rsatdi:

- talabalarda kasbiy motivatsiya va o‘z ustida ishlash ehtiyojining kuchayishi;
- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muammoli holatlarda yechim topish ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- mustaqil qaror qabul qilish hamda kasbiy refleksiya darajasining oshishi;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash malakasining shakllanishi.

Shuningdek, tahlillar mustaqil ta’lim samaradorligi topshiriqlar hajmiga emas, balki ularning metodik jihatdan to‘g‘ri loyihalashtirilishiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. O‘qituvchi tomonidan berilgan aniq yo‘riqnomalar, bosqichma-bosqich vazifalar, muntazam teskari aloqa va baholash mezonlarining aniqligi talabalarning kasbiy rivojlanish sur’atini sezilarli darajada oshirdi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, mustaqil ta’lim jarayonida muammoli, refleksiv va amaliy yo‘naltirilgan metodlardan kompleks foydalanish bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy malakasini shakllantirishda samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalarning faqat bilim egallashini emas, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorligini ham ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy malakasini rivojlantirish jarayonida mustaqil ta’lim muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mustaqil ta’limni an’anaviy shaklda tashkil etish talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilsa-da, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan amaliy kompetensiyalarni to‘liq shakllantirish imkonini bermaydi. Shu sababli mustaqil ta’lim mazmunini kasbiy faoliyatga yo‘naltirish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot davomida muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, keys-tahlil, loyiha faoliyati hamda refleksiv metodlardan foydalanish talabalarning kasbiy fikrlashi, pedagogik tahlil qilish qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Mustaqil ta’lim jarayonining amaliy faoliyat bilan integratsiyalashuvi bo‘lajak surdopedagoglarda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashga nisbatan ongli kasbiy yondashuvni shakllantirdi.

Natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- mustaqil ta'lim kasbiy kompetensiyani shakllantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi;
- mustaqil faoliyat mazmuni real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirilganda o'quv samaradorligi oshadi;
- refleksiv va muammoli metodlar talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada rivojlantiradi;
- metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan teskari aloqa mustaqil ta'lim natijadorligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Surdopedagogika yo'nalishida mustaqil ta'lim topshiriqlarini kasbiy kompetensiyalarga yo'naltirilgan holda qayta loyihalash maqsadga muvofiq.
2. Mustaqil ta'lim jarayoniga pedagogik keyslar, muammoli vaziyatlar va mini-loyiha faoliyatini tizimli ravishda joriy etish zarur.
3. Talabalarning kasbiy refleksiyasini rivojlantirish uchun mustaqil tahlil va o'z-o'zini baholash topshiriqlaridan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.
4. Raqamli ta'lim resurslari va videokuzatuv materiallari asosida amaliy vaziyatlarni tahlil qilish metodikasini keng qo'llash lozim.
5. Mustaqil ta'lim natijalarini baholashda faqat yakuniy mahsulot emas, balki talabaning ijodiy yondashuvi va kasbiy fikrlash jarayonini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, mustaqil ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning amaliy faoliyatga moslashuvchanligini rivojlantirish hamda maxsus ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamarajabova, Z.N. (2019). Maxsus pedagogikada kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Maxmudova, M. (2020). Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
3. Muzaffarova, X.N. (2018). Maxsus ta'lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Nurkeldiyeva, D.A. (2021). Bo'lajak defektologlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. Pedagogika va psixologiya, №3, 45–52-b.
5. Fazliddinovna T. O. A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education //International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. – 2025. – С. 121-128.
6. Fazliddinovna, Teshabayeva Oygul. "A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education." International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. 2025.
7. Fazliddinovna, T. O. (2025, March). A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 121-128).
8. Dilfuzakhan I. Methodologies for the formation of communication skills of students with hearing impairment in native language lessons //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2025. – Т. 3. – №. 2. – С. 5-8.
9. Zakirjanovna R. N. Theoretical foundations of the development of communication skills in primary school children after cochlear implantation //International Journal of Pedagogics. – 2024. – Т. 4. – №. 10. – С. 51-54.
10. Sadirova K. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 9. – С. 27-30
11. Sadirova, Kamola. "Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach." Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 12.9 (2022): 27-30.
12. Sadirova, K. (2022). Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(9), 27-30.
13. Isroilovna K. D. Technology for improving speach of elementary school pupils whith hearing impairment //янги ўзбекистон: инновация, фан ва таълим 10-қисм. – С. 22.
14. Isroilovna K. D. Characteristics of development of children with hearing impairment //Journal of Agriculture & Horticulture. – Т. 2. – №. 10. – С. 31.



YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA HAYOTDAN QONIQISH DARAJASIGA O'ZIGA ISHONCH VA O'Z-O'ZINI QADRLASHNING TA'SIRI

M. R. Sultonova
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
UrDU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi PhD., dotsent
ORCİD009-0001-5117-84-88

Annotatsiya: Mazkur maqolada yetuklik yoshidagi ayollarning hayotdan qoniqish darajasiga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Xususan, o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning subyektiv farovonlik hamda hayotdan qoniqish bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda hayotdan qoniqish shaxsning subyektiv farovonligining muhim ko'rsatkichi sifatida talqin etilib, uning shakllanishida ichki psixologik resurslar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'ziga ishonch va adekvat o'z-o'zini qadrlash shaxsning ijtimoiy faolligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, stressga bardoshliligi hamda shaxslararo munosabatlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yetuklik yoshidagi ayollarning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy rollari va individual hayotiy tajribasi inobatga olingan holda, mazkur omillarning hayotdan qoniqish darajasi bilan o'zaro aloqadorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: yetuklik yoshi, ayollar psixologiyasi, hayotdan qoniqish, subyektiv farovonlik, o'ziga ishonch, o'z-o'zini qadrlash, shaxs rivojlanishi, psixologik omillar, ijtimoiy rollar, psixologik farovonlik.

Abstract: This article analyzes the psychological factors influencing life satisfaction among adult women. Particular attention is given to the relationship between self-confidence, self-esteem, subjective well-being, and life satisfaction. In contemporary psychological research, life satisfaction is considered a significant indicator of an individual's subjective well-being, where internal psychological resources play a decisive role in its formation. Self-confidence and adequate self-esteem directly affect social activity, independent decision-making ability, stress tolerance, and the quality of interpersonal relationships. Taking into account the psychological characteristics, social roles, and individual life experiences of adult women, the interrelationship between these factors and the level of life satisfaction is theoretically substantiated.

Key words: adulthood, women's psychology, life satisfaction, subjective well-being, self-confidence, self-esteem, personal development, psychological factors, social roles, psychological well-being.

Аннотация: В статье анализируются психологические факторы, влияющие на уровень удовлетворённости жизнью у женщин зрелого возраста. Особое внимание уделяется взаимосвязи уверенности в себе и самооценки с субъективным благополучием и удовлетворённостью жизнью. В современных психологических исследованиях удовлетворённость жизнью рассматривается как важный показатель субъективного благополучия личности, при этом внутренние психологические ресурсы играют ключевую роль в её формировании. Уверенность в себе и адекватная самооценка оказывают непосредственное влияние на социальную активность, способность к принятию самостоятельных решений, стрессоустойчивость и качество межличностных отношений. С учётом психологических особенностей женщин зрелого возраста, их социальных ролей и индивидуального жизненного опыта научно обосновывается взаимосвязь данных факторов с уровнем удовлетворённости жизнью.

Ключевые слова: зрелый возраст, психология женщин, удовлетворённость жизнью, субъективное благополучие, уверенность в себе, самооценка, личностное развитие, психологические факторы, социальные роли, психологическое благополучие.

KIRISH

Yetuklik yoshi faol o'zgarishlar va o'ziga xos psixologik davr hisoblanib, ayniqsa ayollar mazkur yosh davrida oila va karyera, farzandlar tarbiyasi masalalarida bir qator ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa, o'z navbatida, shaxsda o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'zini qadrlash kabi shaxs uchun muhim bo'lgan subyektiv baholash darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik tadqiqotlarda insonning hayotdan, o'zidan va boshqalar bilan munosabatlarining davomiyligidan umumiy qoniqishini baholash imkonini beruvchi belgilardan biri bu "farovonlik" tushunchasidir. Farovonlik tushunchasi insonning o'z hayotiga bo'lgan munosabatini keng ma'noda barcha ko'rinishlarda hissiy baho-

lashni anglatadi. Farovonlikni his qilish bevosita hayotdan qoniqishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va har bir insonda farovonlik tajribasi juda muhim bo'lib, uning butun subyektiv dunyosida markaziy o'rinni egallaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'pgina psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, erta va o'rta yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasining pasayishiga umidsizlik, xavotir, oila bilan ishni birgalikda olib borishda kuzatiladigan kundalik muammolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, uchinchi shaxslarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi kabilar sabab bo'lishi mumkin. Erta va o'rta yoshdagi turmush qurgan ayollarda yuqori darajadagi hissiy va ekzistensial farovonlik kuzatiladi. Bu o'zidan qoniqish va shaxsning o'zini oila muhitida to'laqonli his qilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Bundan tashqari, psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ayollarda erta balog'at yoshidagi hayotdan qoniqish darajasi erkaklarnikiga qaraganda pastroq va ancha ko'p omillar bilan belgilanadi [1]. Shuning uchun biz erta yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish va shaxsiy xususiyatlar o'rtasida bog'liqlik mavjud, degan fikrdamiz. Ushbu maqsadga erishish ayollarning yetuklik yoshidagi hayotdan qoniqishini oshirishga hissa qo'shadigan shart-sharoitlarni maqsadli ravishda yaratish imkoniyatini ochadi.

Xorijiy va mahalliy psixologiyada hayotdan qoniqish ko'pincha "farovonlik" va "subyektiv farovonlik" tushunchalari bilan parallel ravishda ko'rib chiqiladi. "Subyektiv farovonlik" insonning o'zidan individual qoniqish va baxt holati sifatida tushuniladi, bu asosan baxtsizlik, tushkunlik, xavotir va umumiy norozilik his-tuyg'ularining salbiy ta'siri yo'qligini anglatadi.

Bizning fikrimizcha, yetuklik yoshidagi ayollarning hayotdan qoniqishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik va shaxsiy xususiyatlarni o'rganish, shuningdek, uning erta voyaga yetganlik davrida rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarning dolzarbligi, bu yosh bosqichi psixologik jihatdan juda stressli bo'lishi bilan bog'liq. Erta voyaga yetganlik oila qurishni (hayotidagi sherigini tanlash, birinchi turmush qurish, farzand ko'rish va ota-ona rolini o'zlashtirish), intensiv ijtimoiy aloqalarni (hayotda o'zini rivojlantirish va tasdiqlashni), shuningdek, tanlangan kasbni egallashni o'z ichiga oladi. Natijada ish qobiliyatiga, jiddiy jismoniy va ruhiy stressga chidamlilikka, murakkab faoliyatni o'zlashtirish qobiliyatiga hamda yangi bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni egallashga talablar ortadi.

"Farovonlik" tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, insonning "hayotdan qoniqish"iga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi farovonlikning kognitiv komponenti ekani P.P. Fesenko tomonidan ta'riflangan [2].

Farovonlik tushunchasi uzoq yillardan beri sog'lom va samarali munosabatlarni ifodalashning asosi hisoblanib kelgan [3]. Shu maqsadda ko'plab tadqiqotlarda farovonlik va hayotdan qoniqish masalasini o'rganish uchun farovonlikning obyektiv ko'rsatkichlaridan, masalan, daromad, savodxonlik va umr ko'rish davomiyligidan, shuningdek, subyektiv ko'rsatkichlardan (hayot qanday qabul qilinadi va boshdan kechiriladi) foydalaniladi [4]. Shaxsning idrok va hayot tajribalarini o'lchashda bu yondashuv subyektiv farovonlik sifatida tavsiflanadi.

Subyektiv farovonlik bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri M. Diener bo'lib, tadqiqotchi farovonlik va hayotdan qoniqish tushunchalari o'zaro bog'liq, degan fikrni ilgari suradi hamda ularni "insonning hayoti qanchalik yaxshi ekanligi haqidagi his-tuyg'ulari va fikrlari bilan bog'liq, bunda boshqalar qanday qarashidan qat'i nazar" deb ta'riflaydi. Bu ta'rif subyektiv farovonlikning fikrlash va hissiy-emotsional jihatlari mavjud ekanini ajratib ko'rsatadi.

His-tuyg'ular subyektiv farovonlikning hissiy-affektiv jihatlarini anglatadi, bunda ijobiy his-tuyg'ularning salbiy his-tuyg'ularga nisbatan ustunligi subyektiv farovonlikning yuqori darajasiga olib keladi [1].

Hayotdan qoniqish darajasi shaxsning fikrlashi va subyektiv farovonlikning kognitiv o'lchovi bilan bog'liq bo'lib, bunda odamlar o'z hayotini asosan ijobiy baholaydilar va bu hayotdan qoniqishning yuqori darajasiga olib keladi.

Hayotdan qoniqishni belgilovchi omillar orasida insonning o'ziga va atrofdagi dunyoga munosabatining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni shaxsiy xususiyatlar (psixologik farovonlikning shaxsiy omili) yetakchi rol o'ynaydi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish psixologik farovonlikning turli shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq. D. Marshall insonga yengillik va relaksatsiya beruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida o'z hissiyotlari va kechinmalarini ifodalay olish qobiliyati, optimizm va ichki nazorat kabi omillarni ajratib ko'rsatadi. Ekstroversiya va nevrotizm shaxsiy xususiyatlar bilan bog'liq bo'lib, shaxsning o'z-o'zidan qoniqish darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar Fernhem va Bruin, shuningdek, Diener va Lukas psixologik farovonlik, hayotdan qoniqish va ekstroversiya o'rtasida ijobiy bog'liqlikni hamda nevrotizm bilan salbiy bog'liqlikni aniqladilar [6]. Uotson va Klarkning fikriga ko'ra, ekstrovertlar ijobiy his-tuyg'ularga moyil, nevrotistlar esa salbiy his-tuyg'ularga moyil [7]. Bundan ko'rinib turibdiki, yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga subyektiv nazorat darajasi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ekstroversiyadan tashqari, optimizm o'zini ijobiy baholash yoki hayotdan qoniqish darajasiga ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Diener va Lukas optimizm (kelajakda yomon narsalardan ko'ra ko'proq yaxshi narsalar sodir bo'lishini kutish), ichki nazorat lokusi (inson o'z hayotini nazorat qila olishiga ishonish) va o'ziga ishonch hayotdan qoniqish bilan sezilarli darajada bog'liqligini aniqladilar [6]. Dispozitsion optimizm nazariyotchilari Scheier va Carver insonning kelajagi haqidagi fikrlari uning hayotiy holatiga ta'sir qilishini ta'kidlaydilar, chunki muvaffaqiyatni kutish orqali inson samaraliroq ishlaydi va maqsadlariga erishishda ko'proq qat'iyatli bo'ladi, natijada ularga erishish ehtimoli ortadi hamda farovonlikning yuqori tuyg'usiga erishiladi [8].

M. Seligman yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqishning yuqori darajasini hissiy barqarorlik, o'zini tuta bilish, ishtiyoq, o'zini sevish va ijobiy fikrlashga ustuvor ahamiyat berish bilan bog'laydi [9].

Shaxsning yetuklik yoshi keskin o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'lgani uchun mazkur davrda bir qator psixologik holatlar hayotdan qoniqish va subyektiv farovonlik darajasini his qilishga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

Xavotir. Shaxsning xavotirni boshdan kechirishga moyilligining ortishi barqaror psixologik xususiyat bo'lib, uning boshlang'ich bosqichlari avtonom nerv tizimining qo'zg'alishi bilan namoyon bo'ladi. Xavotir kuchayib borishi bilan inson o'z hayotidagi mavjud vaziyatdan zavqlanish va qoniqish o'rniga doimiy stressni his qiladi. Xavotir hayot davomida nisbatan doimiy bo'lgan shaxsiy xususiyat (shaxsiy xavotir) hamda neyropsixik faollikdagi o'zgarishlar bilan bog'liq nisbatan uzoq muddatli salbiy hissiy holat (vaziyat xavotiri) sifatida farqlanadi. Xavotir shaxsiy xususiyat sifatida real xavf tug'dirmaydigan nisbatan neytral vaziyatlarda noqulay natijani kutish tarzida namoyon bo'ladi. E. Troshixina va V. Manukyanning tadqiqotlari xavotir va doimiy salbiy hissiy holatlar insonning psixoemotsional farovonlikni his qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [10].

Hayotdan umidsizlik, charchoq va kelajak haqida xavotirlanish hayotdan qoniqishning salbiy parametrlaridan bo'lib, tajovuzkor reaksiyalar, jahldorlik va shubha bilan o'zaro bog'liqdir. Muammolarni hal qilish mexanizmlari va ijtimoiy chalg'itish stress bilan kurashishning samarali shakllari hisoblanadi. Aksincha, hissiyotga yo'naltirilgan koping mexanizmlaridan foydalanish hayotdan qoniqishning pasayishiga olib keladi.

Emotsional yopiqlik. Hissiyotlarni oshkora ifodalamaslik psixoemotsional yopiqlikni kuchaytiradi va psixologik farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizningcha, shaxsiy xususiyatlar – psixoemotsional yopiqlik, xavotir va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi – shaxsning o'z-o'zini baholashiga va psixologik farovonlikni his qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xususiyatlarning namoyon bo'lishi hayotdan qoniqish va psixologik farovonlikni his qilishni pasaytiradi hamda kundalik vaziyatlarga moslashishni murakkablashtiradi.

Bizningcha, hayotdan qoniqish darajasiga individual xususiyatlar va o'z-o'zini baholash kuchli ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'z-o'zini qadrlash va o'ziga ishonch tushunchalari tadqiqotchilar, jumladan, R. Berns, V. Jeyms, K. Rojers, S. R. Panteleev, E. T. Sokolova, V. V. Stolin, I. I. Chesnokova va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning nazariy qarashlarini umumlashtirgan holda yetuklik yoshidagi ayollarda o'z-o'zini hurmat qilish va o'z-o'zini qadrlash shaxsning yaxlit, integratsiyalashgan xususiyatlarini, jumladan, o'zini bilish, o'zini hurmat qilish, o'zini anglash va ichki harakatlar kabi elementlarni aks ettiruvchi ko'p qirrali hamda dinamik konstruksiya ekanligi haqida xulosa qilish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'z-o'zini hurmat qilish shaxsiy va ijtimoiy-demografik omillar ta'sirida shakllanadi va o'zgaradi. Bu holat aynan yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Insonning shaxsiy yutuqlari va ijtimoiy-madaniy ta'sirlar o'ziga ishonch hamda o'z-o'zini qadrlash bilan bog'liq individual-psixologik xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi, ular ijobiy (ma'qullashni bildirish) yoki salbiy (norozilikni bildirish) ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Yetuklik yoshidagi ayollarda shaxsning individual kompetensiyasi, hayotidagi ijobiy o'zgarishlarni qabul qilishi, muvaffaqiyati va o'ziga ishonchini qanday baholashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, yetuklik yoshidagi ayollarda o'ziga ishonchga tarbiya, ijtimoiy-madaniy muhit va individual tajribalar kabi tashqi omillar ta'sir qilishi mumkin. Biroq u o'zini o'zi tahlil qilish orqali ham shakllanishi mumkin.

O'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlash – bu shaxsning o'z ichki dunyosi bilan o'zaro ta'siri, uning fazilatlari, qobiliyatlari va xatti-harakatlarini baholash usulidir. Shuningdek, bu insonning o'zini qanday qabul qilishi va tashqi dunyo bilan o'zaro ta'sir qilishini, uning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, ko'nikmalari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda belgilaydi.

Yetuklik yoshidagi ayollarda o'zini o'zi anglash o'z-o'zini qadrlash jarayonining ajralmas qismi bo'lib, shaxsning hayotdan qoniqishni shakllantirishida muhim rol o'ynaydi [11]. Hayotdan qoniqishni o'rganish inson

xatti-harakatlarini tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zini o‘zi qadrlash va hayotdan qoniqish o‘rtasidagi bog‘liqlik ijobiy o‘zini o‘zi anglash, yuqori o‘zini o‘zi qadrlash va o‘zini hurmat qilish hayotdan qoniqishning yuqori darajasiga hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rsatadi [12; 13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hayotdan qoniqish – bu shaxsning o‘z mavjudligi haqidagi ijobiy tasavvurini aks ettiruvchi tushuncha bo‘lib, yetuklik davridagi ayollarda hayotdan qoniqishga ta’sir qiluvchi omillar orasida ikkita asosiy toifani ajratish mumkin: tashqi, obyektiv omillar (masalan, jinsi, yoshi, yashash joyi, moliyaviy holati va boshqalar) hamda ichki, subyektiv jihatlar (masalan, shaxsiy o‘z-o‘zini qadrlash, o‘zini qabul qilish darajasi va hayotda maqsad hamda ma’nolarning mavjudligi).

Shaxsning hayotdan qoniqish darajasi uning hozirgi holati va orzu qilingan ideal holati o‘rtasidagi farq ahamiyatsiz bo‘lganda yoki ular idealga yaqin, mutlaqo qoniqarli darajaga erishganiga ishonganida rivojlanadi. Aksincha, norozilik odatda haqiqat va ideal o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud bo‘lganda, shuningdek, o‘zini boshqalar bilan taqqoslaganda yuzaga keladi [14].

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, o‘z-o‘zini qadrlash va hayotdan qoniqish darajasi yetuklik yoshidagi ayollarda o‘zaro bog‘liq degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лагонда Г.В. Психологические условия удовлетворенности жизнью мужчин и женщин в период взросления /
2. Фесенко П.П. Что такое психологическое благополучие? Краткий обзор основных концепций / П.П. Фесенко // Научные труды аспирантов и докторантов. - 2005. - № 46. - С. 35-48.
3. Das K.V., Jones-Harrell C, Fan Y, Ramaswami A, Orlove B, Botchwey N. Understanding subjective well-being: perspectives from psychology and public health // Public Health Rev. – 2020. Vol. 19;41(1):25. doi: 10.1186/s40985- 020-00142-5.
4. Durand M. The OECD better life initiative: How’s life? and the measurement of well-being // Review of Income and Wealth. – 2015. – Vol. 61(1). P. 4–17.
5. Durand M. The OECD better life initiative: How’s life? and the measurement of well-being // Review of Income and Wealth. – 2015. – Vol. 61(1). P. 4–17.
6. Deiner, N. Kahneman, E. Schwarz. Well-being: The Foundations of Hedonic Psychology. - New York: New York Russell Sage Foundation, (594 pp. 12. Durand M. The OECD better life initiative: How’s life? and the measurement of well-being // Review of Income and Wealth. – 2015. – Vol. 61(1). P. 4–17.
7. Watson D., Clark L.A. Negative affectivity: The disposition to experience unpleasant emotional states // Psychological Bulletin. – 1984. Vol 67. P. 465-490.
8. Scheier M.F. Carver C.S. Optimism, coping, and health: Assessment and implications of generalized outcome expectancies // Health Psychology. – 1985. Vol. 4. P. 219-247.
9. Seligman M. What you can change and what you can’t / M. Seligman. - New York: Knopf, 1994. - 317 p
10. Азабина Е.С. Взаимосвязь тревожности личности и репрезентации её успешности / Е.С. Азабина, С.В. Ильинский //Вестник Самарской гуманитарной академии – 2019. №1 (25). – С. 4-5.
11. Сочивко Д.В., Щелкушкина Е.А. Психодинамика гендерной самоидентификации осужденных мужчин и женщин // Прикладная юридическая психология. 2017. № 2. С. 33-42.
12. Степанова Н.В., Наквасина С.Н. Самоотношение и жизненная удовлетворённость у студентов медицинского вуза// Концепт. 2017. № 5. С. 37-42. 21.
13. Козина Н.В., Лакомская А.В. Связь удовлетворённости жизнью с особенностями личности молодых врачей // Вестник Удмуртского университета. Серия “Философия. Психология. Педагогика”. 2022. № 1 (32). С. 67-75.
14. Пахоль Б.Е. Субъективное и психологическое благополучие: современные и классические подходы, модели и факторы // Украинский психологический журнал. 2017. № 1 (3). С. 80-104

SHIFOXONALARDA TASHKIL ETILGAN MAKTABLARDA BEMOR O'QUVCHILAR BILAN FAOLIYAT OLIB BORUVCHI PEDAGOGLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Umarova Saboxon Minavvarovna
Qo'qon davlat universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti

Abdusattorova Gulxumor
Qo'qon davlat universiteti II kurs logopediya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda tahsil olayotgan bemor o'quvchilar bilan ishlovchi pedagog xodimlarning kasbiy, psixologik, pedagogik hamda axloqiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy inklyuziv ta'lim yondashuvlari, sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik mexanizmlari hamda pedagog faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, shifoxona maktabi pedagogi nafaqat ta'lim beruvchi mutaxassis, balki psixologik qo'llab-quvvatlovchi hamda reabilitatsiya jarayonining faol ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritishi zarurligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: shifoxona maktabi, bemor o'quvchi, pedagog kompetensiyasi, inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika, reabilitatsiya.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the professional, psychological, pedagogical, and ethical competencies required of teachers working with hospitalized students in schools established within medical institutions. The study examines contemporary inclusive education approaches, mechanisms of cooperation between educational and healthcare institutions, and the specific features of teachers' professional activities in hospital school settings. The findings substantiate the necessity of viewing hospital school teachers not only as educators but also as providers of psychological support and active participants in the rehabilitation process.

Key words: hospital school, hospitalized students, teacher competence, inclusive education, special pedagogy, rehabilitation.

Аннотация: В статье научно-теоретически анализируются требования, предъявляемые к профессиональным, психологическим, педагогическим и нравственным компетенциям педагогов, работающих с больными учащимися в школах, организованных при медицинских учреждениях. В ходе исследования изучены современные подходы инклюзивного образования, механизмы взаимодействия образовательных организаций с учреждениями здравоохранения, а также специфика профессиональной деятельности педагога в условиях больничной школы. По результатам анализа обоснована необходимость рассматривать педагога больничной школы не только как преподавателя, но и как специалиста по психологической поддержке и активного участника реабилитационного процесса.

Ключевые слова: больничная школа, больные учащиеся, педагогическая компетентность, инклюзивное образование, специальная педагогика, реабилитация.

KIRISH

Ushbu maqolada tibbiyot muassasalariga qarashli maktablarda nogiron o'quvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi uzoq muddatli davolanishni o'tayotgan bolalar uchun ta'limning uzluksizligini ta'minlash zaruratidan, shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimlarida inklyuziv ta'lim amaliyotini kengaytirish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ularni o'z oilasidan uzoqda bo'lishga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari, juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko‘ra maxsus yoki umumta’lim tizimida ta’lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta’lim siyosati olib borilmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvning keng joriy etilishi sog‘lig‘i sababli umumta’lim muassasalarida muntazam ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bolalar ta’limini tashkil etish masalasini dolzarb etmoqda. Xususan, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun shifoxonalarda tashkil etilgan maktablar muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Shifoxona maktablari faoliyatining samaradorligi bevosita ushbu muassasalarda faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, psixologik barqarorligi va maxsus kompetensiyalariga bog‘liq. Bemor o‘quvchilar bilan ishlash oddiy ta’lim jarayonidan farqli ravishda alohida yondashuvni, individual ta’lim dasturlarini hamda sog‘liq holatini inobatga olgan holda tashkil etiladigan pedagogik jarayonni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish bo‘lajak defektologlarda pedagogik mas’uliyatni shakllantirish samaradorligini takomillashtirishning pedagogik asoslari bo‘yicha dunyodagi yetakchi olimlar o‘z izlanishlarini olib borishgan. Ushbu izlanishlar asosan defektologning pedagogik mas’uliyati tuzilishini o‘rganish, ishlashga undovchi motivlarni bilish hamda bo‘lajak defektologlarda pedagogik mas’uliyat samaradorligini oshirish muammolarini psixologik jihatdan oqilona hal qilishga qaratilgan.

Rus olimlaridan B.G. Ananyev, N.V. Kuzmina, A.A. Rean, E.I. Stepanova, shuningdek, P.A. Prosetskiy, E.M. Nikireyev, V.A. Slastenin, V.A. Yakunin va boshqalarning asarlarida katta empirik materiallar to‘plangan, tajribalar natijalari va nazariy umumlashmalar berilgan. Shuningdek, B.G. Ananyev, S.L. Rubinshteyn, M. Argil, V.G. Aseev, L.I. Bojovich, K. Levin, A.N. Leontyev, Z. Freyd va boshqa olimlar pedagogik mas’uliyat muammosining murakkabligi va ko‘p qirraliligini, uning mohiyati, tabiati va tuzilishini tushunishga, shuningdek, uni o‘rganish usullarini ishlab chiqishga yondashganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ishning metodologik asosini maxsus maktabda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini kompleks yondashuv asosida o‘rganish tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi shifoxona sharoitida ta’lim jarayonini amalga oshirayotgan pedagoglarning professional, psixologik, pedagogik, kommunikativ hamda axloqiy kompetensiyalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan masalaga tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida yondashildi.

Tadqiqot jarayonida avvalo ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilindi. Maxsus pedagogika, tibbiy pedagogika, inklyuziv ta’lim va rivojlanish psixologiyasiga oid manbalar o‘rganilib, shifoxona maktabi sharoitida pedagog faoliyatining o‘ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta’lim standartlari hamda inklyuziv ta’limni tartibga soluvchi me’yoriy asoslar tahlil etildi. Bu esa kasalxona maktablarida ta’limni tashkil etishning huquqiy-me’yoriy poydevorini belgilash imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasida inklyuziv ta’lim mazmun-mohiyatini aniqlashtirish alohida o‘rin egalladi. Hozirgi kunda jamiyatda inklyuziv ta’lim haqidagi bilim va tasavvurlar yetarli darajada shakllanmaganligi, “inklyuziv” va “integratsiyalashgan” tushunchalarining ko‘pincha bir xil ma’noda qo‘llanilishi kuzatiladi. Holbuki, falsafiy va pedagogik nuqtai nazardan bu tushunchalar o‘rtasida sezilarli farq mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

Integratsiya asosan maxsus ehtiyojli bolani mavjud ta’lim muhitiga moslashtirishni anglatadi. Ya’ni, nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qo‘yilgan dastlabki qadam hisoblanadi. Bunda diqqat markazida bolaning maktabga qatnashi va umumiy ta’lim muassasasida ishtiroki turadi. Ko‘pincha integratsiyalashgan ta’limda bola muammo sifatida talqin qilinadi va mavjud tizimga moslashishi kutiladi.

Inklyuziv ta’lim esa bundan farqli ravishda ta’lim tizimini bolaning ehtiyojlariga moslashtirishni ko‘zda tutadi. Ya’ni, muammo bolada emas, balki ta’lim muhitining moslashuvchan emasligida deb qaraladi. Shifoxona maktablari faoliyatini o‘rganishda aynan shu yondashuv metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Amaliy bosqichda pedagogik kuzatuv, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv orqali shifoxona sharoitida o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan ishlash jarayoni, ta’limni individuallashtirish darajasi hamda tibbiy xodimlar bilan hamkorlik mexanizmlari tahlil qilindi. Taqqoslash metodi yordamida umumta’lim maktablari va kasalxona maktablari pedagoglari faoliyati o‘rtasidagi farqli jihatlar aniqlashtirildi. Umumlashtirish asosida esa shifoxona maktabi o‘qituvchisiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar tizimlashtirildi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, shifoxona maktabida faoliyat yurituvchi pedagogning kasbiy qiyofasi an’anaviy umumta’lim maktabi o‘qituvchisidan sezilarli darajada farq qiladi. Bunday ta’lim muhiti o‘ziga xos psixologik, tibbiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Shu sababli kasalxona maktabi

o‘qituvchisi nafaqat chuqur fan bilimlariga va metodik tayyorgarlikka, balki sog‘lig‘i zaiflashgan, stress va xavotir holatida bo‘lgan bolalar bilan ishlashga qaratilgan maxsus psixologik-pedagogik kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi zarur.

(Asosiy mazmun saqlangan holda qolgan qism ham grammatik jihatdan silliqlandi va mantiqiy bog‘lanishlar mustahkamlandi.)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, shifoxona maktabi pedagogining faoliyati an’anaviy maktab o‘qituvchisidan tubdan farq qiladi. U pedagogik bilim bilan bir qatorda psixologik va tibbiy-pedagogik tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi lozim. Xalqaro tajribalar tahlili ham shuni tasdiqlaydiki, bemor bolalar bilan ishlashda pedagogning shaxsiy fazilatlari kasbiy bilimlar qadar muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida shifoxona pedagogikasi bo‘yicha maxsus modullar joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Kasalxona maktablarida o‘qituvchilar uchun keng qamrovli talablar tizimini ishlab chiqish ta’lim sifatini va kasal o‘quvchilarning psixososial reabilitatsiyasini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega.

Maqola materiallari o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda, shuningdek, inklyuziv va maxsus ta’lim sohasidagi me’yoriy hamda uslubiy hujjatlarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo‘yiladigan talablar kompleks xarakterga ega bo‘lib, ular kasbiy, psixologik, axloqiy va kommunikativ kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Bunday pedagoglar bemor o‘quvchining nafaqat bilim olishini, balki uning ruhiy va ijtimoiy reabilitatsiyasini ham ta’minlovchi muhim shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur talablarni tizimli ravishda joriy etish shifoxona maktablari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov A. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.
2. Выготский Л. С. Основы дефектологии. – Москва: Просвещение, 2019. – 320 с.
3. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 134 p.
4. Karimova D. Maxsus pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022. – 288 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

CHET TIL TA'LIMIDA MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISH MASALALARIGA DOIR

Erkayev Elmirza Temirovich
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish va amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda mashqlar tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Mustaqil ta'lim talaba va kursantlarning chet tilda bilim, ko'nikma hamda malakalarini mustaqil ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, chet tilini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta'lim faoliyati bevosita auditoriyada hamda auditoriyadan tashqari sharoitlarda tashkil etiladi.

Kalit so'zlar: chet til ta'limi, mustaqil ish, mustaqil ta'lim, mustaqil fikrlash, mustaqil izlanish, mustaqil tayyorgarlik.

Abstract: In foreign language teaching, considerable importance is attached to the organization and implementation of independent work. In this process, special attention is paid to the system of exercises used in independent learning. Independent learning involves the autonomous development of students' and cadets' knowledge, skills, and competencies in a foreign language. This process is particularly significant in foreign language education. Independent learning activities are organized both within the classroom and beyond it.

Key words: foreign language teaching, independent work, independent learning, independent thinking, independent research, independent preparation.

Аннотация: В обучении иностранным языкам значительное место отводится организации и проведению самостоятельной работы. При этом особое внимание уделяется системе упражнений, используемых в процессе самостоятельного обучения. Самостоятельное обучение предполагает развитие знаний, умений и навыков обучающихся и курсантов в иностранном языке на основе самостоятельной деятельности. Данный процесс имеет особое значение в обучении иностранным языкам. Самостоятельное обучение организуется как в аудиторных условиях, так и вне аудитории.

Ключевые слова: обучение иностранным языкам, самостоятельная работа, самостоятельное обучение, самостоятельное мышление, самостоятельное исследование, самостоятельная подготовка.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli[1] qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli[2] qarori hamda Yevropa Kengashining "Chet tilni egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference)ga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Mustaqil ta'lim – bu talaba va kursantlarning bilim hamda ko'nikmalarini belgilangan sohada mustaqil ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, chet til ta'limida muhim sohalardan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda tarjimaning ham ayrim elementlaridan foydalaniladi. Chunki tarjima orqali so'zning nafaqat lug'aviy, tub, asl va ekvivalent ma'nolarini aniqlash, balki mustaqil mushohada yuritish, fikrlash va izlanish faoliyatini amalga oshirish talab etiladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori: https://lex.uz/en/docs/-5426736

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli qarori: https://lex.uz/docs/-5431845

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mustaqil ta'limni tashkillashtirish metodikasi – bu talaba va kursantlarning mustaqil ravishda bilim olish, ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishni maqsad qilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish usullari va prinsiplari majmuasini o'rganadigan sohadir. Ushbu metodika zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi, chunki u talaba va kursantlarning shaxsiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'limning maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- bilimlarni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- mas'uliyat hissini oshirish;
- ijodiy yondashuv hamda innovatsion fikrlashni rivojlantirish, tafakkurini va mustaqil ishlash qobiliyatini kuchaytirish.

Chet tilda mustaqil ta'limning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin:

- bevosita o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim (ko'rsatma va tavsiyalar asosida olib boriladi);
- to'liq mustaqil ta'lim (talaba mustaqil ravishda bilim oladi – kitoblar, internet manbalari, videodarslar va boshqalar orqali);
- guruhli mustaqil ta'lim (guruhda ishlash asosida bilim va tajriba almashish).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

- topshiriq berish usuli – aniq vazifalar va savollar orqali;
- muammoli ta'lim – talabaga muammoli vaziyat berilib, yechimni mustaqil topish talab etiladi;
- tadqiqot usuli – muayyan mavzu bo'yicha izlanish va tahlil olib borish;
- keys-metod – real holatlar tahlili asosida o'qitish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda qo'llaniladigan vositalarga darsliklar va o'quv qo'llanmalar, elektron resurslar (PDF shaklidagi materiallar, video, audio va taqdimotlar), internet manbalari (ilmiy maqolalar, forumlar, leksiyalar), testlar va nazorat ishlari kiradi.

Mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari joriy nazorat (testlar, so'rovnomalar, esse yozish), oraliq nazorat (topshiriqlar, referatlar) hamda yakuniy nazorat (imtihonlar, kurs ishlari, loyihalar) orqali amalga oshiriladi.

Pedagog uchun tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- mustaqil ta'lim uchun aniq ko'rsatmalar va manbalarni taqdim etish;
- qiyinchiliklar yuzaga kelganda maslahat berish;
- baholash mezonlarini oldindan tushuntirish;
- talabalarni rag'batlantirish.

Mustaqil ta'limni baholash metodlari talabalarning mustaqil ravishda bajargan ishlari, bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, baholash hamda tahlil qilishga qaratilgan usullar majmuasidir. Ushbu metodlar orqali talabaning mustaqil ishlash darajasi, ijodiy yondashuvi va faolligi baholanadi.

Baholashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ta'lim samaradorligini aniqlash;
- talabaning bilim darajasini baholash;
- o'quv jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash;
- faol va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish.

Test sinovlari (test orqali baholash) qisqa vaqt ichida katta hajmdagi bilimlarni tekshirish imkonini beradi. Testlar yopiq (to'g'ri javobni tanlash), ochiq (javob yozish) hamda aralash turda bo'lishi mumkin.

Loyiha (proyekt) ishlari aniq mavzu bo'yicha material to'plash, tahlil qilish va amaliy yechimlar taklif etish orqali baholanadi hamda jamoaviy yoki individual shaklda bajarilishi mumkin.

Portfolio usuli talabaning mustaqil o‘rgangan mavzulari, ishlanmalari va tajribalari yig‘indisini ifodalaydi. Ushbu usul talabaning vaqt davomida rivojlanishini kuzatishga yordam beradi.

Ochiq savollar va suhbatlar orqali fikrlash qobiliyati, mantiqiy izoh berish hamda tushunganini ifoda etish ko‘nikmalari baholanadi.

Prezentatsiya va taqdimotlar talabaning o‘rgangan mavzusini boshqalarga yetkazish qobiliyatini baholashga xizmat qiladi. Bunda ishonchli nutq, vizual materiallar va tushunarli ifodalar muhim hisoblanadi.

Ta’limiy loyihalarni himoya qilish (referat, kurs ishi yoki ilmiy tadqiqot natijalarini himoya qilish) orqali talabaning umumiy tayyorgarlik darajasi aniqlanadi.

Jurnal va kundaliklar talabaning kundalik faoliyati va bajarilgan ishlari qayd etiladigan vositalar bo‘lib, refleksiya qilish hamda o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Faoliyatni baholash (rubrikatorlar orqali) aniq mezonlar asosida, jumladan tahlil sifati, foydalanilgan manbalar soni va ijodkorlik darajasi bo‘yicha amalga oshiriladi(1-jadval).

1-jadval: **Qo‘shimcha baholash usullari**

Usul nomi	Afzalliklari
Onlayn testlar	Tez va avtomatik natija, masofadan baholash imkoniyati
Peer tutoring	Talabalar bir-birining ishlarini baholaydi
O‘z-o‘zini baholash	Tanqidiy fikrlash va refleksiyani rivojlantiradi
Fokus-guruh bahosi	Guruhda fikr-mulohaza almashish asosida amalga oshiriladi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mustaqil tayyorgarlik – bu talaba va kursantning o‘qituvchining doimiy rahbarligisiz, o‘z vaqtida, o‘z imkoniyatlari hamda mavjud manbalari asosida bilim olish, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir.

Mazkur jarayon ta’lim oluvchining shaxsiy mas’uliyati, tashabbusi va intilishiga asoslanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida mustaqil tayyorgarlik muhim o‘rin tutadi, chunki u o‘quvchini faol, mustaqil fikrlovchi hamda muammolarni hal eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqsadlari:

1. Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.
2. Tahlil qilish hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
3. Ta’lim dasturidan orqada qolmaslik.
4. Ish va ta’lim jarayonini uyg‘unlashtirish (axborot texnologiyalari, masofaviy ta’lim orqali).
5. Ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishga ko‘maklashish (2-jadval).

2-jadval: **Mustaqil tayyorgarlik shakllari**

Shakl	Tavsifi
Matn bilan ishlash	Darsliklar, qo‘llanmalar, maqolalarni o‘qish va tahlil qilish
Mashq bajarish	Statika va dinamikadagi mashqlarni bajarish
Onlayn o‘rganish	Videodarslar, testlar, platformalar (Coursera, Moodle)
Yozma ishlar	Referat, esse, kurs ishi, tahlil ishlari
Taqdimot tayyorlash	Mavzu bo‘yicha ma’lumot to‘plash, taqdimot qilish
Guruhda ishlash	Guruhdagi hamkorlik orqali bilim almashish va tayyorgarlik

TAHLIL VA NATIJALAR

Chet tili ta’limida mustaqil tayyorgarlikni tashkil etishning quyidagi usullari o‘z samarasini berishi mumkin:

1. O‘quv reja asosida rejalashtirish – fan bo‘yicha haftalik/oylik ish rejasini tuzish.
2. O‘z vaqtida boshlash va muntazamlik – ishni kechiktirmasdan muntazam olib borish.
3. Aniq maqsad qo‘yish – har bir o‘quv sessiyasi uchun maqsad belgilash.
4. Manbalarni tanlash – darsliklar, internet resurslari, videodarslar, podkastlar, maqolalar va boshqa manbalar.
5. O‘z-o‘zini nazorat qilish – testlar, so‘rovnomalar hamda savollarga javob berish orqali.

Samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar:

1. Vaqtni to‘g‘ri boshqarish (taymer, kunlik reja, “Pomodoro” usuli).
2. Qayta takrorlash (intervalli takrorlash – spaced repetition).
3. Bilimlarni boshqalarga tushuntirish (samarali o‘rganish usullaridan biri).
4. Savollar tuzish va ularga javob berish.
5. Maqsadlarni yozib borish va ularni kuzatish.

Mustaqil tayyorgarlik natijalarini baholash: O‘z-o‘zini baholash (refleksiya), testlar va sinov ishlari, o‘qituvchi fikri, himoya va taqdimotlar, portfolioni tuzish.

“Pomodoro” usuli – vaqtni samarali boshqarishga qaratilgan texnika bo‘lib, u 1980-yillarda italiyalik tadqiqotchi Franchesko Chirillo (Francesco Cirillo) tomonidan yaratilgan. “Pomodoro” so‘zi italyan tilida pomidor degan ma’noni anglatadi. Ushbu nom muallif tomonidan tomat shaklidagi taymerdan foydalanilgani sababli berilgan.

Usulning maqsadi: diqqatni jamlash; chalg‘ishlarni kamaytirish; samaradorlikni oshirish; vaqtni oqilona taqsimlash; yalqovlik va kechiktirishni (procrastination) yengish.

“Pomodoro” usuli qanday ishlaydi? Asosiy qoidalar:

1. Bajarilishi lozim bo‘lgan bitta vazifani tanlash.
2. Taymerni 25 daqiqaga qo‘yish – bu bitta “Pomodoro”.
3. Taymer ishlayotgan paytda faqat tanlangan vazifa bilan shug‘ullanish.
4. Taymer chalingach, 5 daqiqalik tanaffus qilish.
5. 4 ta “Pomodoro”dan so‘ng 15–30 daqiqalik katta tanaffus olish(3-jadval).

3-jadval: **Pomodoro usuli**

Pomodoro	Ishlash vaqti	Tanaffus
1	25 daqiqa	5 daqiqa
2	25 daqiqa	5 daqiqa
3	25 daqiqa	5 daqiqa
4	25 daqiqa	15–30 daqiqa

Nega bu usul samarali? Qisqa vaqt oralig‘ida ishlash inson diqqatini jamlashni osonlashtiradi. Tanaffuslar miyaga dam berish imkonini beradi.

Vaqtni o‘lchash vazifaning yakuniga yetishida motivatsiyani oshiradi. Chalg‘itishlardan saqlanishga yordam beradi (chalg‘ishlar yuzaga kelsa, ular yozib qo‘yiladi va keyinchalik ko‘rib chiqiladi).

Foydali maslahatlar:

- vaqt davomida barcha chalg‘itish vositalarini (telefon, ijtimoiy tarmoqlar) o‘chirib qo‘yish;
- ishlash uchun aniq maqsad belgilash;
- “Pomodoro” jarayonlarini qayd etib borish;
- uzoq muddatli ishlarni bir necha “Pomodoro”ga bo‘lib bajarish.

Intervalli takrorlash (Spaced Repetition) – bu bilim va ma’lumotlarni ma’lum vaqt oralig‘ida, tanaffuslar bilan qayta-qayta takrorlash usuli bo‘lib, ma’lumotlarni uzoq muddat davomida xotirada saqlash imkonini beradi. Ushbu usul inson miyasi ma’lumotlarni vaqt o‘tishi bilan unuta boshlashini hisobga olgan holda, takrorlashni unutish ehtimoli yuqori bo‘lgan vaqtlarda amalga oshirishga asoslanadi.

Ebbingxausning unutish qonuni (Forgetting Curve): Nemis psixologi German Ebbingxaus (Hermann Ebbinghaus) aniqlagan qonuniyatga ko‘ra: yangi ma’lumotni eslab qolish darajasi vaqt o‘tishi bilan pasayadi; agar ma’lumot ma’lum vaqtda qayta takrorlansa, u uzoqroq vaqt xotirada saqlanadi; har bir takrorlashdan keyingi interval bosqichma-bosqich uzaytirib boriladi.

Intervalli takrorlash qanday ishlaydi? Masalan, biror yangi so‘z yodlangan holatda quyidagi jadval orqali ifodalanadi:

4-jadval: **Intervalli takrorlash**

Takrorlash soni	Vaqti
Birinchi marta	O‘sha kuni (yoki darhol)
Ikkinchi marta	1 kundan so‘ng
Uchinchi marta	3 kundan so‘ng
To‘rtinchi marta	7 kundan so‘ng
Beshinchi marta	15 kundan so‘ng
Oltinchi marta	1 oydan so‘ng

Ushbu intervallar shaxsiy xotira xususiyatlariga qarab o‘zgarishi mumkin.

Qo‘llash uchun vosita, ilova va dasturlar:

1. Anki – kartalar (flashcards) asosida intervalli takrorlash tizimi;
2. Quizlet – vizual va audio materiallar bilan ishlash imkoniyati;
3. SuperMemo – mazkur metodni birinchi bo‘lib amaliyotga joriy etgan dastur;
4. RemNote, Brainscape, Memrise.

Flashcards (kartalar) usuli: Old tomonida savol yoki so‘z, orqa tomonida esa javob yoki tarjima beriladi. Qiyin yod olinadigan kartalar ko‘proq takrorlanadi.

Usulning afzalliklari:

1. Ma’lumotlarni uzoq muddat xotirada saqlash;
2. Unutish jarayonini sekinlashtirish;
3. Vaqtdan samarali foydalanish;
4. Xotira va diqqatni kuchaytirish;
5. Ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyati.

Internet bilan ishlash imkoni bo‘lmagan sharoitda ham mustaqil tayyorgarlikni samarali tashkil etish mumkin. Bunday vaziyatlarda an’anaviy va axborotsiz ta’lim usullari qo‘llaniladi. Quyida bunday sharoitda samarali o‘rganish uchun tavsiya etiladigan metodlar va resurslar keltiriladi.

Matn va kitoblar asosida o‘qish.

Tavsiya etiladigan usullar:

- darsliklarni boshidan oxirigacha tahlil qilish;
- qaydlar yozish (konspekt tuzish);
- kitobdagi savollarga yozma javoblar tayyorlash;
- har bir bo‘limdan so‘ng xulosa chiqarish.

Masalan: Har bir paragrafdan so‘ng o‘zingizga quyidagi savollarni bering:

1. Nima haqida edi?
2. Eng muhim ma’lumot nima?
3. Ushbu ma’lumotni qayerda qo‘llash mumkin?

Qaydlar (konspektlar) tayyorlash va qayta yozish: Oqilona va tizimli konspekt tuzish; diagramma, jadval va grafiklar orqali ma’lumotlarni vizuallashtirish; aqliy hujum (mind map) usulidan foydalanish.

Savol-javoblar yozish va o‘ziga test tayyorlash: Material o‘rganilgandan so‘ng savollar tuzish va ularga yozma javoblar tayyorlash. Ushbu usul mustaqil tafakkur va eslab qolish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

“Flashcard”larni qog‘ozda tayyorlash: Internetdan foydalanish imkoniyati bo‘lmagan sharoitda ham flesh-kartalarni qo‘lda tayyorlash mumkin. Bunda kichik qog‘oz parchalari yoki kartochkalar tayyorlanadi: old tomonida so‘z, savol yoki tushuncha; orqa tomonida esa ta’rif, javob yoki misol yoziladi.

Ba'zi chet tilidagi misollar:

Welchen Charakter hat dein Freund? Mein Freund hat einen starken Charakter. Er ist ehrlich und offen, gutmütig und aufrichtig, zuverlässig und optimistisch.

Suchen Sie ab und zu Kochrezepte im Internet? Ja, ich suche regelmäßig nach neuen Kochrezepten im Internet. Oft finde ich Inspiration auf Webseiten oder in Videos, besonders wenn ich etwas Neues ausprobieren möchte. Es ist praktisch, weil ich so viele verschiedene Rezepte aus unterschiedlichen Ländern kennenlernen kann. Ich speichere mir die Rezepte, die mir gefallen, und probiere sie dann aus. Manchmal passe ich die Rezepte an, wenn ich nicht alle Zutaten habe.

Referat va yozma ishlar tayyorlash: Belgilangan mavzular bo'yicha referatlar yozish; bir nechta manbalarni taqqoslash va o'z fikrini ifodalash; yozilgan materiallarni qayta o'qish orqali tafakkurni mustahkamlash.

Ovozli o'qish va "o'zingga tushuntir" usuli: Matnni ovoz chiqarib o'qish xotirani mustahkamlaydi. O'rganilgan ma'lumotni go'yo boshqa shaxsga tushuntirayotgandek bayon etish Feynman metodi deb ataladi.

Vaqtni to'g'ri rejalashtirish: Internetdan foydalanish imkoniyati cheklangan sharoitda vaqtni rejalashtirish alohida ahamiyatga ega.

5-jadval: **Vaqtni rejalashtirish**

Vaqt	Faoliyat
08:00–09:00	Qayta o'qish (konspekt yozish)
10:00–11:00	Savollar tuzish va javoblar tayyorlash
14:00–15:00	Flesh-kartalar bilan ishlash
16:00–17:00	Referat yoki esse yozish

Tafakkur va fikrlash mashqlari. Mavzu bo'yicha "Nima bo'lsa-edi..." kabi savollar ustida o'ylab ko'rish; misollar keltirish hamda tushunchalarni amaliyotda qo'llashga harakat qilish tavsiya etiladi.

Chet tilda tarixiy kino va adabiyotning mustaqil ta'limdagi o'rni

1. Mavzuni tushunish va qiziqishni oshirish. Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot insonlarga voqealar, tarixiy davr, madaniyat hamda urf-odatlarni real yoki tasviriy ko'rinishda namoyish etadi. Ular ma'lumotlarning emotsional va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlaydi, bu esa o'rganuvchilarda mavzuga nisbatan qiziqishni oshiradi.
2. Ma'lumotlarni ko'proq va chuqurroq o'zlashtirish. Kitoblar va filmlar orqali faktlar o'zaro bog'liq holda, kontekstda qabul qilinadi, bu esa ularni tushunishni osonlashtiradi. Ushbu usullar qabul qilingan ma'lumotlarni xotirada mustahkamlashga yordam beradi.
3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot ko'pincha turli nuqtai nazar va talqinlarni taqdim etadi. Bu o'rganuvchilarga voqealarni turlicha baholash hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.
4. Mustaqil o'rganish uchun resurs sifatida. Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot mustaqil o'rganishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi. Ular o'quvchiga turli manbalar bilan tanishish, o'ziga xos izlanishlar olib borish imkonini beradi.
5. Madaniy va axloqiy qadriyatlarni anglash. Mavjud asarlar orqali madaniyat, an'ana va xalqlarning axloqiy jihatlari haqidagi bilimlar oshiriladi. Bu esa insonparvarlik va millatlararo madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.
6. Mustaqil tahlil va izlanishga undash. Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot o'rganuvchini savollar berishga, faktlarni taqqoslashga va izlanishga undaydi. Shu orqali mustaqillik va tashabbuskorlik salohiyati oshadi.

Qo'llanish bo'yicha tavsiyalar:

- Mustaqil o'rganish jarayonida adabiyotlarni boshqa manbalar (ensiklopediyalar, ilmiy maqolalar va turli manbalar) bilan boyitish;
- film tomosha qilgach yoki kitob o'qigach konspekt yozish yoki muhokama o'tkazish;
- chet tilda qisqa metrajli filmlar va asarlarni real hodisalar hamda badiiylik jihatidan baholashni o'rganish tavsiya etiladi.

Mustaqil o‘rganish jarayonida filmlardan foydalanish usullari

1. Ko‘rish rejasini tuzish: masalan, haftada bitta film tomosha qilib, undan so‘ng mavzusini o‘rganish.
2. Qaydlar olish: filmdagi muhim voqealar, personajlar va real holatlarni yozib borish.
3. Qo‘shimcha manbalar bilan solishtirish: filmdagi ma’lumotlarni darsliklar, maqolalar yoki hujjatli filmlar bilan taqqoslash.
4. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: filmni nafaqat real ma’lumotlar, balki badiiy va mazmuniy jihatdan ham baholash.
5. Munozaraga kirishish: do‘stlar yoki o‘qituvchilar bilan film yuzasidan fikr almashish.

Qo‘shimcha ravishda quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- zarur ma’lumotlarni o‘z so‘zlari bilan yozib chiqish;
- filmdagi voqealar va ularning sabab-oqibatlarini tahlil qilish;
- o‘rganish jarayonida filmlardan tashqari hujjatli filmlar, maqolalar va kitoblardan ham foydalanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqil ta’limni baholashda yagona metoddan foydalanish yetarli emas. Pedagog bir nechta baholash usullarini birgalikda qo‘llashi, aniq va shaffof baholash mezonlarini belgilashi lozim. Bu talabalarda adolatli baholanishga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi va ularni yanada faol bo‘lishga undaydi.

Mustaqil tayyorgarlik har bir talabaning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy yetukligi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Uni to‘g‘ri tashkil etish orqali nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki amaliy faoliyatda ham yuqori natijalarga erishish mumkin.

“Pomodoro” usuli talabalar, tadqiqotchilar, yozuvchilar, dasturchilar va boshqa soha vakillari uchun samarali, oddiy va universal usul sanaladi. Ushbu usul muntazam qo‘llanilganda vaqtni samarali boshqarish, vazifalarni o‘z vaqtida bajarish hamda stressni kamaytirish imkonini beradi.

Intervalli takrorlash bilimlarni “qisqa muddatli xotira”dan “uzoq muddatli xotira”ga o‘tkazishning ilmiy asoslangan va samarali usuli hisoblanadi. Ushbu usul muntazamlik, intizom va to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni orqali o‘z samarasini namoyon etadi.

Internet imkoniyati mavjud bo‘lmagan sharoitda ham, talabaning xohishi va intilishi bo‘lsa, o‘rganish uchun imkoniyatlar yetarli. Eng asosiysi, manbalarni to‘g‘ri tanlash, ularga reja asosida yondashish hamda qayta-qayta mustaqil takrorlashni amalga oshirish zarur.

Chet tilda qisqa metrajli filmlar va adabiyot mustaqil ta’lim jarayonida ma’lumotlarni boyituvchi, qiziqarli va ko‘p qirrali vosita bo‘lib, ular yordamida talaba va kursantlar o‘z bilimlarini chuqurlashtirishi, tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi hamda ta’lim jarayonida shaxsiy faolligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5117-sonli qarori.
2. Ариян М.А. Повышенная самостоятельность учебного труда школьников при обучении иностранному языку / М.А. Ариян // Иностранные языки в школе. – 1999. – № 6. – С. 17–20.
3. Брейгина М.Е. О самоконтроле в обучении иностранному языку / М.Е. Брейгина // Иностранные языки в школе. – 2000. – № 1. – С. 23–26.
4. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
5. Козуб Л.А., Сысоева Е.Ф. Пособие по выполнению самостоятельной работы студентов: учебно-методическое пособие. – Воронеж: Истоки, 2017. – 56 с.
6. Назарова И.В. Самостоятельная работа как средство профессионально-творческого саморазвития студентов. Автореф. … канд. пед. наук. – Саратов, 2011. – 23 с.
7. Нуриахметов Г.М. Самостоятельная работа учащихся с лексикой. – Бирск, 2018.
8. Рогова Г.В. Некоторые предложения по организации самостоятельной работы учащихся // ИЯШ. – М., 1980. – № 6. – С. 25–31.
9. Семенова В.Г. Самостоятельная работа студентов как важнейшая форма организации учебного процесса в рамках компетентностной модели образования // Организация самостоятельной работы студентов: материалы докладов II Всероссийской научно-практической интернет-конференции. – Саратов: Новый Проект, 2013. – С. 10–15.
10. Фадеева Н.Б. Об основных функциях самостоятельной работы в обучении иностранному языку. – Санкт-Петербург, 2018.
11. Neuner G., Hunfeld H. Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. – Universität Gesamthochschule Kassel, 1993. – 176 S.
12. Rampillon U. Lerntechniken im Fremdsprachenunterricht. – Max Hüber Verlag, München, 1996. – 184 S.

10–11 YOSHLI FUTBOLCHILARDA TEZKORLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich
Urganch davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada 10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini (harakat tezligi, start tezligi, reaksiya tezligi va tezkorlikka barqarorlik) ilmiy asoslangan metodika asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda bolalar organizmining rivojlanish qonuniyatlari, yosh va psixofiziologik xususiyatlari, motorik ko'nikmalarning shakllanish jarayoni hamda futbol o'yinining zamonaviy talablari tahlil qilingan. Tezkorlik sifatini shakllantirishda o'yin xarakteridagi mashqlar, qisqa davomli maksimal yuklamalarga asoslangan interval uslubi, texnik-taktik topshiriqlar bilan integratsiyalashgan tezlik mashqlari va psixologik tayyorgarlik omillarining ahamiyati ochib berilgan. Taklif etilayotgan metodika haftalik mikrotsikl tuzilmalari, mashg'ulot namunalari hamda nazorat testlari orqali amaliy jihatdan asoslab berilgan. Maqola yakunida bolalar futboli bilan shug'ullanuvchi murabbiylar va sport maktablari uchun metodik tavsiyalar hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: futbol, 10–11 yosh, tezkorlik, start tezligi, reaksiya tezligi, bolalar sporti, mashg'ulot metodikasi.

Abstract: This article examines the issues of developing speed abilities in 10–11-year-old football players, including movement speed, starting speed, reaction speed, and speed endurance, based on a scientifically grounded methodology. The study analyzes the patterns of children's physical development, age-related and psychophysiological characteristics, the formation of motor skills, as well as the modern demands of football performance. Special attention is given to the use of game-based exercises, interval methods involving short-term maximal loads, speed drills integrated with technical and tactical tasks, and psychological preparation factors in the development of speed abilities. The proposed methodology is practically substantiated through weekly microcycle structures, training session models, and control tests. The article concludes with methodological recommendations for youth football coaches and sports schools, as well as directions for future scientific research.

Key words: football, 10–11 years, speed abilities, starting speed, reaction speed, youth sport, training methodology.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития скоростных качеств у футболистов 10–11 лет (скорость движения, стартовая скорость, скорость реакции и скоростная устойчивость) на основе научно обоснованной методики. Проанализированы закономерности развития детского организма, возрастные и психофизиологические особенности, формирование двигательных навыков, а также современные требования футбольной игры. Показана роль игровых упражнений, интервального метода с кратковременными максимальными нагрузками, скоростных упражнений, интегрированных с технико-тактическими заданиями, а также факторов психологической подготовки в формировании скоростных качеств. Предлагаемая методика обоснована на практике с использованием структуры недельных микроциклов, примеров тренировочных занятий и контрольных тестов. В заключение представлены методические рекомендации для тренеров детского футбола и спортивных школ, а также перспективные направления дальнейших научных исследований.

Ключевые слова: футбол, 10–11 лет, скоростные качества, стартовая скорость, скорость реакции, детский спорт, методика тренировки.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-394-son[1] Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

1 O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-394-son Qonuni: https://lex.uz/docs/-2742233

PQ–3907-son[2] qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan.

So‘nggi yillarda futbol o‘yinining sur'ati sezilarli darajada oshib bormoqda. Yuqori darajadagi jamoalar o‘yinchilari nafaqat jismoniy bardoshlilikka, balki tezkor qaror qabul qilish, qisqa masofalarda keskin tezlanish hamda tez yo‘nalish o‘zgartirish qobiliyatiga ham ega bo‘lishlari zarur. Ayniqsa, 10–11 yosh davrida bolalar futbolida tezkorlik sifatini to‘g‘ri va ilmiy asoslangan usullar orqali rivojlantirish kelgusida sport mahoratini shakllantirishning muhim poydevorini tashkil etadi.

Tezkorlik sifati ko‘p komponentli bo‘lib, unda markaziy asab tizimi faolligi, mushak–asab tizimi muvofiqligi, texnik tayyorgarlik darajasi hamda psixologik omillar (diqqat, reaksiya, motivatsiya) o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. 1; 2. 10–11 yoshli futbolchilar uchun tezkorlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda quyidagi omillarni inobatga olish talab etiladi: biologik va psixofiziologik yetilish darajasi; harakat ko‘nikmalarining shakllanishidagi “sezgir davr”; jarohatlanish xavfining oldini olish; mashg‘ulot yuklamalari hajmi va intensivligi o‘rtasidagi optimal mutanosiblik; shuningdek, o‘yin elementlari bilan bog‘liq motivatsion jihatlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy sport ilmida tezkorlik futbolchilarning musobaqaviy faoliyatini belgilovchi asosiy jismoniy sifatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. J. M. Sheppard va W. B. Young tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tezkorlik va agility tushunchalarining tasnifi, ularni rivojlantirish va baholash usullari ilmiy asosda yoritilgan bo‘lib, ayniqsa qisqa masofalarda tezlanish va yo‘nalish o‘zgartirish futbol o‘yinining hal qiluvchi omillari sifatida ko‘rsatib berilgan. S. V. Hill-Haas va hammualliflar futbol mashg‘ulotlarida kichik o‘lchamli o‘yinlar orqali tezkorlik va funksional tayyorgarlikni oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab, o‘yin xarakteridagi mashqlar yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Bolalar va o‘smirlar sportida tezkorlikni rivojlantirish masalasi yoshga xos fiziologik qonuniyatlar bilan chambarchas bog‘liq. R. M. Malina, C. Bouchard va O. Bar-Or tomonidan bolalar organizmining o‘sishi, yetilishi va jismoniy faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlik chuqur tahlil qilingan bo‘lib, tezlik va reaksiya qobiliyatlarini rivojlantirish uchun 10–11 yosh davri sezgir bosqichlardan biri ekanligi asoslab berilgan. R. S. Lloyd va J. L. Oliver tomonidan taklif etilgan yosh sportchilarni uzoq muddatli rivojlantirish modeli tezkorlikni kuch va chidamlilikdan ajratgan holda, bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. R. M. Philippaerts va hammualliflar esa biologik yetilish darajasi bilan tezkorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini yosh futbolchilar misolida ko‘rsatib bergan.

Milliy va mintaqaviy tadqiqotlarda ham tezkorlikni rivojlantirish metodikasiga alohida e'tibor qaratilgan. Sh. E. Boltaev tomonidan yosh sportchilarning mashg‘ulot jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari yoritilib, tezkorlikni texnika va o‘yin faoliyati bilan integratsiyalash muhimligi ta'kidlangan. A. E. Madaminovning jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasiga oid tadqiqotlarida tezkorlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari, yuklamani me'yorlash va yosh xususiyatlarini hisobga olish masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, G. I. Mukhamedov va hammualliflar ta'lim va sport jarayonida klaster yondashuvini qo‘llash orqali mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib, yosh futbolchilar tayyorgarligida tizimli yondashuv muhim ekanligini asoslab berganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning maqsadi – xalqaro ilmiy adabiyotlar hamda amaliy tajriba asosida 10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan samarali, zamonaviy va amaliyotga tatbiq etiladigan metodikani asoslash hamda tavsiya etishdan iborat.

Tezkorlik tushunchasi va uning futbolchidagi ko‘rinishlari. Tezkorlik – bu shaxsning berilgan sharoitda harakat faoliyatini eng qisqa vaqt ichida boshlash va amalga oshira olish qobiliyati sifatida ta'riflanadi 3. Futbolchi kontekstida tezkorlik bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat:

Start tezligi (tezlanish) – 5–10 metr masofada maksimal tezlikka erishish qobiliyati. Bu, ayniqsa, to‘pga birinchi bo‘lib yetib borish, raqibdan ajralib chiqish yoki himoyada tez qaytish vaziyatlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Masofa bo‘ylab yugurish tezligi – odatda 20–30 m yoki 30–40 m oralig‘ida futbolga xos bo‘lgan chiziqli (to‘g‘ri yo‘nalishdagi) tez yugurish qobiliyati.

Reaksiya tezligi – tashqi signalga (murabbiy buyrug‘iga, hushtakka, vizual ishoraga, raqibning harakati yoki to‘p traektoriyasiga) javob harakatining boshlanishigacha o‘tgan vaqt oralig‘i. Futbolda bu ko‘rsatkich o‘yin vaziyatini o‘qish va uni tez baholash jarayoni bilan uzviy bog‘liq.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3907-son qarori: https://lex.uz/docs/-3864155

TAHLIL VA NATIJALAR

Tezkor yo'nalish o'zgartirish (agility) – qisqa vaqt ichida tezlanish, to'xtash, keskin burilishlar, yonlama va diagonal yo'nalishlarda harakatni o'zgartirish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha ko'pincha "koordinatsion tezkorlik" yoki "o'yin tezkorligi" atamalari bilan ham yuritiladi. Tezkorlikka barqarorlik esa o'yin davomida, ayniqsa ikkinchi bo'limda ham yuqori tezkor ko'rsatkichlarni saqlab qolish qobiliyatini anglatadi. Ushbu komponent ayrim holatlarda "sur'atda bardoshlilik" tushunchasi bilan uyg'unlashib ketadi, biroq 10–11 yosh davrida u nisbatan ehtiyotkorlik bilan rivojlantirilishi lozim. Tezkorlikning mazkur komponentlarini alohida va kompleks ravishda rivojlantirish murabbiydan mashg'ulotlarni puxta rejalashtirish, yuklamalarni qat'iy nazorat qilish hamda o'yin mazmuniga moslashtirilgan mashqlarni tanlashni talab etadi.

10–11 yoshli bolalarning jismoniy va psixofiziologik xususiyatlariga ko'ra, mazkur yosh davri nisbatan barqaror o'sish bosqichi hisoblanadi va bolalar hali pubertat davriga to'liq kirib bormagan bo'ladi. Shu sababli mushak massasining keskin o'sishi kuzatilmaydi, biroq tayanch-harakat apparati, markaziy asab tizimi hamda yurak-qon tomir tizimi jadal rivojlanishda davom etadi. Ushbu yosh davriga xos asosiy xususiyatlar shundan iboratki, motorik analizatorlar (ko'rish–harakat, eshitish–harakat) o'rtasidagi funksional bog'lanishlar faol shakllanadi va koordinatsion qobiliyatlar rivojlanishining sezgir davri kuzatiladi. Markaziy asab tizimida qo'zg'alish jarayonlarining tormozlanish jarayonlaridan ustunligi tezkor, ammo ayrim hollarda nazoratsiz harakatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Harakat stereotiplari nisbatan tez shakllanadi, biroq noto'g'ri texnik ko'nikmalarni keyinchalik tuzatish murakkablashadi. E'tibor barqarorligi odatda 15–20 daqiqa bilan cheklanadi, shu bois mashg'ulot jarayonida faoliyat turlarini tez-tez almashtirish va o'yin elementlarini kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Fiziologik nuqtayi nazardan qaralganda, ushbu yosh davri tezlik qobiliyatini, xususan, reaksiya tezligi va harakat chastotasini (qadam tezligi, oyoq ishining tezligi) rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi.

Biroq maksimal kuch mashqlari, og'ir shtangalar bilan ishlash hamda ortiqcha plyometrik yuklamalar (chuqur sakrashlar, balandlikdan pastga sakrashlar) umurtqa pog'onasi va bo'g'imlarga ortiqcha yuk tushirishi mumkinligi sababli cheklanishi yoki moslashtirilgan shaklda qo'llanilishi lozim.

Tezkorlikni rivojlantirish mexanizmlari bir nechta nazariy yondashuvlar orqali izohlanadi. Asab-mushak tizimi nazariyasiga ko'ra, tezkorlik markaziy va periferik asab tizimlarining impulslarni yuqori tezlikda uzatishi, motor birliklarning tez va sinxron ishga tushirilishi hamda mushak tolalarining qisqarish tezligi bilan bevosita bog'liqdir. Energetik nazariya nuqtayi nazaridan esa kichik masofalarda bajariladigan tezkor harakatlar asosan adenozintrifosfat–kreatinfosfat (ATF–KF) tizimi hisobiga amalga oshadi. 10–11 yosh davrida ushbu tizim yetarli darajada faol bo'lsa-da, uning sig'imi kattalarnikiga nisbatan past bo'ladi, shu sababli mashqlar qisqa davomli (5–8 soniya) bo'lib, to'liq yoki qisman tiklanish oralig'ida bajarilishi zarur. Koordinatsion nazariya tezkor harakatlarda mushaklarning faollashuvi va bo'shashuvi (relaksatsiya)ning optimal navbatma-navbatligi, harakat amplitudasi, qadam chastotasi va uzunligi hamda harakat yo'nalishining aniq muvofiqlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan, tezkorlikni texnik va koordinatsion tayyorgarlikdan ajratib bo'lmaydi. Psixologik nazariyaga ko'ra esa reaksiya tezligi va qaror qabul qilish sur'ati diqqatning konsentratsiyasi, oldindan taxmin qilish (anticipation), vizual va taktil axborotni qayta ishlash tezligi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois tezkorlikni rivojlantirish metodikasi mazkur nazariy tamoyillarni kompleks hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlikni rivojlantirishda bir qator metodik tamoyillar asosiy yo'riqnoma sifatida qabul qilinadi. Jumladan, tezkorlik mashqlari qisqa davomli bo'lib, maksimal yoki submaksimal intensivlikda (5–8, ayrim hollarda 10–12 soniya) bajarilishi kerak, chunki uzoq davom etuvchi mashqlar tezkorlikdan ko'ra chidamlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Takroriy tezlik mashqlari orasida 30 soniyadan 2–3 daqiqagacha bo'lgan yetarli dam olish oralig'i (yurib dam olish, yengil yugurish, nafas mashqlari yoki yengil texnik elementlar orqali) ta'minlanishi zarur. Tezkorlikni texnika bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish, ya'ni to'p bilan va to'psiz texnik elementlar (dribling, to'pni qabul qilish va uzatish, zarba berish) orqali mashg'ulotlar tashkil etish samaradorlikni oshiradi. O'yinlashtirilgan mashqlar bolalar uchun motivatsiyaning asosiy manbai bo'lib, estafeta va kichik o'yinlar ko'rinishidagi topshiriqlar tezkorlikni tabiiy tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Yuklamaning individualizatsiyasi ham muhim bo'lib, bir xil yoshdagi bolalar biologik rivojlanish darajasiga ko'ra farq qilishi sababli masofa uzunligi, takrorlar soni va dam olish oralig'i individual tarzda moslashtirilishi lozim. Mashqlar murakkabligi, tezligi va signal turlarining (vizual, eshitish, taktil) variativligi bosqichma-bosqich oshirib borilishi, shuningdek, jarohatlanish xavfsizligi uchun yetarli isinib olish, mos poyabzal va nazorat ostida sakrash mashqlaridan foydalanish talab etiladi.

Tezkorlik va texnikani integratsiyalashgan mashqlar qatoriga 10–15 m masofada to'p bilan dribling bajarilib, so'ng 5–10 m to'psiz sprintni amalga oshirish mashqi kiradi, bu esa to'p bilan ishlash va start tezligini uyg'unlashtiradi. "1×1 tezkor duel" mashqida kichik maydon segmentida ikki o'yinchi qarama-qarshi turib, murabbiy signaliga ko'ra to'pga yaqinroq bo'lgan futbolchi hujumchi, ikkinchisi himoyachi vazifasini bajaradi va qisqa masofada raqibni chetlab o'tish yoki to'pni olib qo'yish maqsad qilinadi. "Bir teginishda zarba" mashqlarida esa

murabbiy yoki sherik tomonidan uzatilgan to‘pga futbolchi bir tegishda tez zarba berib, reaksiya, koordinatsiya va zarba tezligini rivojlantiradi.

Mashg‘ulotlarni rejalashtirishda 10–11 yoshli futbolchilar bilan haftasiga 3–4 marotaba mashg‘ulot o‘tkazilishi va tezkorlikka qaratilgan ish umumiy tayyorgarlik tuzilmasiga integratsiyalangan bo‘lishi lozim. Uch mashg‘ulotli haftalik mikrotsikl namunasi sifatida birinchi kuni start tezligi va chiziqli sprintga yo‘naltirilgan mashqlar, ikkinchi kuni yo‘nalish o‘zgartirish tezkorligi va reaksiya mashqlari, uchinchi kuni esa tezkorlik va texnikani integratsiyalashgan mashqlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Tezkorlik mashqlari odatda mashg‘ulotning boshida, isinib olishdan keyin va charchoq kam bo‘lgan paytda bajarilishi, mashg‘ulotning oxirgi qismida esa nisbatan kam intensiv, taktika va texnikaga yo‘naltirilgan o‘yin elementlari kiritilishi lozim.

Tezkorlik sifatining rivojlanishini baholash va nazorat qilish uchun muntazam testlash zarur bo‘lib, 10–11 yoshli futbolchilar uchun 5 m sprint testi, 20 m sprint testi, “Illinois agility test” yoki shunga o‘xshash moslashtirilgan testlar tavsiya etiladi. Reaksiya tezligini baholashda signal bo‘yicha start, kutilmagan yo‘nalishda tashlangan to‘pni ushlab qolish kabi usullar qo‘llanilishi mumkin. Testlar oyiga bir marta yoki 6–8 haftada bir marotaba o‘tkazilib, natijalar asosida mashg‘ulot dasturiga zarur tuzatishlar kiritiladi.

Murabbiylar uchun amaliy tavsiyalar shundan iboratki, tezkorlik mashqlari har bir mashg‘ulotda kamida 10–20 daqiqani tashkil etishi, haftasiga 2–3 marotaba aniq tezkorlikka yo‘naltirilgan bloklar bo‘lishi lozim. To‘psiz va to‘p bilan bajariladigan mashqlar o‘rtasida muvozanat saqlanishi, mashqlar qisqa seriyalar bilan takrorlanib, dam olish oralig‘i qat’iy nazorat qilinishi kerak. 10–11 yosh davrida katta og‘irliklar va keskin plyometrik mashqlardan qochib, asosan o‘z tana og‘irligi bilan bajariladigan mashqlarni tanlash tavsiya etiladi. Shuningdek, har bir futbolchi uchun kundalik yoki haftalik kuzatuv varag‘ini yuritish ortiqcha yuklanishning (overtraining) oldini olishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, 10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish ularning kelgusidagi sport mahorati va raqobatbardoshligida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu yosh davrining fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan metodika quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab olishi zarur.

Mazkur metodika xalqaro ilmiy adabiyotlar, murabbiylik amaliyoti hamda bolalar sporti fiziologiyasi tamoyillariga asoslangan bo‘lib, futbol maktablari va akademiyalarida samarali qo‘llanilishi mumkin. Kelgusida yirik namunalarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, turli tezkorlik mashqlarining o‘zaro ta’sirini chuqurroq o‘rganish hamda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda metodikani yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3031-son Qarori.
2. Sheppard, J. M., Young, W. B. (2006). Agility literature review: Classifications, training and testing. Journal of Sports Sciences, 24(9), 919–932.
3. Malina, R. M., Bouchard, C., Bar-Or, O. (2004). Growth, maturation, and physical activity. Human Kinetics.
4. Lloyd, R. S., Oliver, J. L. (2012). The youth physical development model: A new approach to long-term athletic development. Strength & Conditioning Journal, 34(3), 61–72.
5. Болтаев Ш. Э. Ёш волейболчиларни инновацион ёндашув асосида машғулот жараёнини ташкил этиш // Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў. Илмий-методик журнал. – Нукус, 2022. – № 1. – 87–92 б.
6. Zatsiorsky, V. M., Kraemer, W. J. (2006). Science and practice of strength training. Human Kinetics.
7. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical education cluster: Content and form. ISJ.
8. Philippaerts, R. M., et al. (2006). The relationship between peak height velocity and physical performance in youth soccer players. Journal of Sports Sciences, 24(3), 221–230.
9. Madaminov, A. E. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. UDK 796.81(075.8), KBK 75.175 ya73. “Dimal” nashriyoti, Toshkent, 2025.
10. Hill-Haas, S. V., Dawson, B., Impellizzeri, F. M., Coutts, A. J. (2011). Physiology of small-sided games training in football. Sports Medicine, 41(3), 199–220.
11. Boltayev, Sh. E., Abdurahmonov, Sh. A., Qo‘ziyeva, F. B. Umumta’lim maktab o‘quvchilarida klaster usulini qo‘llash orqali jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish // The Journal of Academic Research in Educational Sciences (ARES). – Vol. 3. – № 12. – 2022. – P. 339–342.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Yaqubov Arslon Maxmudovich
Urganch davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiy va harakat faolligi samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda dars jarayonini to'g'ri va qiziqarli harakatli o'yinlar asosida tashkil etish orqali o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh o'quvchilarni jismonan baquvvat, sog'lom, irodali va ruhan tetik shaxslar etib tarbiyalashda jismoniy tarbiya fanining o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Maqolada maktablarda jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish hamda ularning natijadorligini oshirishga qaratilgan usullar yuzasidan ilmiy fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sport, jismoniy tarbiya, vosita, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik, maktab, usul, tadqiqot, boshlang'ich sinf.

Abstract: The article examines ways to increase the effectiveness of physical education lessons for primary school students. The study analyzes the organization of the learning process through appropriately selected and engaging movement-based games that contribute to the development of students' physical abilities. It highlights the role and importance of physical education in nurturing physically strong, healthy, strong-willed, and spiritually active children. In addition, the paper presents scientific views and approaches aimed at improving the outcomes and overall effectiveness of physical education lessons in schools.

Key words: sports, physical education, means, strength, speed, agility, endurance, flexibility, school, method, research, primary school.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности уроков физической культуры у учащихся начальной школы. Анализируются возможности организации учебного процесса на основе правильно подобранных и интересных подвижных игр, способствующих развитию физических качеств школьников. Раскрывается роль и значение физического воспитания в формировании физически крепких, здоровых, волевых и духовно активных детей. Также представлены научные идеи и выводы, направленные на повышение результативности уроков физической культуры в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: спорт, физическое воспитание, средства, сила, скорость, ловкость, выносливость, гибкость, школа, метод, исследование, начальная школа.

KIRISH

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritish orqali o'quv samaradorligi va sifatini oshirishni ko'zlamoqdalar. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy ta'lim tizimini amaliyotga tatbiq etish asosida o'quvchi yoshlarga bilim berish jarayonining potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bosqichi davom etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasida butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma'noda o'tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son[1] Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli[2] qarori, takomillashgan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, davlat talablari hamda yangi o'quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan o'quv muassasalarida, zamonaviy o'quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini keng ochib berdi [1, 85-b.].

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: https://lex.uz/docs/-5013007
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori: https://lex.uz/docs/-5085887

Jismoniy tarbiya – sog‘liqni mustahkamlashga, yosh bolalarning organizmini umumiy rivojlantirishga qaratilgan muhim vosita bo‘lib, respublikamizdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. “Vosita” so‘zi “o‘rta” degan ma’noni bildiradi va u odamlar tomonidan muayyan maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi. Jismoniy madaniyat vositalari deganda odamlarning jismoniy kamolotga erishish maqsadida foydalanadigan predmetlar, sharoitlar, faoliyat turlari va shakllarning yig‘indisi tushuniladi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalariga jismoniy mashqlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi, maxsus tayyorlangan anjomlar, texnik vositalar va fitnes jihozlari, shuningdek ideomotor, psixogen hamda autogen vositalar kiradi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan uzviy bog‘liq holda olib boriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya qadimdan salomatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi sifatida qaralgan. Buyuk olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida yuzdan ziyod xalq o‘yinlari haqida ma’lumot berilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari va boshqa manbalarda jismoniy hamda jangovar mashqlar, kuchlilik bahs-munozaralarining xilma-xil namunalari bayon etilgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillariga kelib jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 1992-yilda (2000–2015-yillarda yangi tahrirda) “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, 1993-yilda “Sog‘lom avlod” davlat dasturining ishlab chiqilishi, Vazirlar Mahkamasining sportning alohida turlarini rivojlantirishga oid qarorlari hamda nihoyat 1999-yilda “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning qabul qilinishi jismoniy tarbiyaning mustahkam huquqiy asoslarini yaratdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jismonan yetuk, baquvvat, sog‘lom, irodali va ruhan mustahkamlangan farzandlarni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya fanining ahamiyati nihoyatda katta. Jismoniy tarbiya dars jarayonidagi nazariy bilimlar boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni ruhiy kamolotga yetaklab, ma’nan chiniqtiradi, ziyrakligi va zukkoligini yanada oshiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi yoshlar shaxsiy va ovqatlanish gigiyenasi, kun tartibini aniq rejalashtirish, ertalabki badantarbiya mashqlarining foydasi haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

Demak, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini qiziqarli va mazmunli tashkil etish uchun har bir jismoniy tarbiya o‘qituvchisi yanada mas’uliyatli, ijodkor, yangilikka intiluvchan hamda yangi metodlarni qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi zarur. Bu esa o‘qituvchilarning zamonaviy innovatsiyalar va metodlardan foydalangan holda yangi o‘quv yiliga puxta tayyorlanishini talab etadi.

Ishning maqsadi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya darslarining sifat va samaradorligini oshirish usullarini aniqlash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishdagi muammolarni o‘rganish, jismoniy tarbiya darsining vazifalarini hal etishga oid ta’lim metodlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’limda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari hamda shu yo‘nalishdagi o‘quvchi-talabalarning pedagogik mahoratini shakllantirish, nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash kadrlar tayyorlash hamda barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishning muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik) tarbiyalash uslubiyati quyidagicha amalga oshiriladi. Bular:

1. Kuch va uni tarbiyalash usullari hamda vositalari;
2. Kuch qobiliyatlarining rivojlanish darajasi va namoyon bo‘lishini belgilovchi omillar;
3. Tezlik–kuch qobiliyatlari;
4. Portlash kuchi;
5. Kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati;
6. Tezkorlik va uni tarbiyalash usullari hamda vositalari;
7. Tezkorlik qobiliyati haqida tushuncha;
8. Tezkorlik qobiliyati darajasini rivojlantiruvchi omillar va tezlik qobiliyatlarining paydo bo‘lishi;
9. Tezkorlik harakatini sezishni rivojlantirish;
10. Yakka harakat tezligi va harakat chastotasining rivojlanish uslubiyati;
11. Tezkorlik qobiliyatining paydo bo‘lishida majmuaviy shakllarni rivojlantirish uslubiyati;
12. Egiluvchanlik va uni tarbiyalash usullari hamda vositalari;

13. Egiluvchanlik haqida tushuncha berish;
14. Egiluvchanlikning turlari va o'lchov mezonlari;
15. Egiluvchanlikning rivojlanish darajasini aniqlovchi omillar [4, 54-b.].

Mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport zallari va maydonchalari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligi sport anjomlarining yetarliligi va sifati bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya fanidan ko'zlangan maqsadga erishishning asosiy omili jismoniy tarbiya darsini to'g'ri tashkil etish bilan ham uzviy bog'liqdir. Buning uchun jismoniy tarbiya o'qituvchisi quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi zarur.

Jismoniy tarbiya darslari uch qismga bo'linadi.

Tayyorgarlik qismi (10–12 daqiqa) o'quvchilarni saflash va sog'lig'ini aniqlash jarayonidan iborat bo'lib, bu vaqt davomida navbatchining axboroti tinglanadi, o'quvchilarning shaxsiy gigiyenasi tekshiriladi. Yangi mavzuga oid texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiriladi, saf mashqlari, safda yurish, navbat bilan bajariladigan umumrivojlantiruvchi va maxsus rivojlantiruvchi mashqlar bajariladi.

Birinchi sinf o'quvchilarida gimnastika dars mashg'ulotlarini tashkil etish usullari va pedagogik mahoratni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish natijalariga ko'ra, yosh bolalarning bo'yiga qarab safda turishini tashkil etish, kichik yoshdagi bolalarning avvalo o'zaro tanish-yqinlari bilan yonma-yon turishi ma'qul hisoblanadi. Safda yonma-yon qator, oldinga va orqaga harakat mashqlarini bajarishga o'rgatish, "Saflan", "Bir qatorga tur" kabi buyruqlarni bajarishga odatlantirish zarur. O'quv yilining 2-choragida o'quvchilarni qatorda yurishga o'rgatish mumkin. "Saflan", "Qatordan tarqal" buyruqlarini tushuntirish va amalda takrorlash lozim.

Ikki qator safga turish va tarqalish ko'nikmalari shakllantirilgandan so'ng, boshqa o'yin mashqlari va sport turlarida, jumladan yengil atletika va harakatli o'yinlardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Safda va qatorda yurish, umumrivojlantiruvchi gimnastika mashqlarini bajarish jarayonida jismoniy tarbiya o'qituvchisining sergak va hushyor bo'lishi, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism (25–28 daqiqa)da reja asosida sport turiga oid rivojlantiruvchi mashqlar bajariladi. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining boshqa mashg'ulotlar yoki o'yinlar bilan chalg'ishiga yo'l qo'ymaslik zarur [5].

Yakuniy qism (3–5 daqiqa) darsni yakunlash jarayonini o'z ichiga oladi. Bu vaqtda o'quvchilarning nafasini rostlovchi mashqlar bajariladi, diqqatni jamlashga e'tibor qaratiladi. Mashqlarni to'g'ri bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi, faolligi past bo'lgan o'quvchilarning kamchiliklari ko'rsatib o'tiladi. Mashg'ulot davomida o'quvchilarning jarohat olmaganligi tekshiriladi va uyga vazifa beriladi.

Jismoniy tarbiya darslari asosan amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lgani sababli o'qitishda "Musobaqa", "Ko'rsatmali", "O'yin" kabi innovatsion pedagogik texnologiya va metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Masalan, "Musobaqa" usulida sinf o'quvchilari jamoalarga bo'linib, ular o'rtasida quvnoq startlar, harakatli, milliy va sport o'yinlari ko'rinishidagi musobaqalar tashkil etiladi. Ushbu usul o'quvchilarning harakat tizimlarini rivojlantiradi va g'alabaga erishish uchun kurashish ishtiyoqini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlash mumkinki, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining maqsad hamda vazifalari bo'lajak kadrlarga jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berishga qaratilgan. Kelajakdagi ish faoliyatida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyatga oid bilimlar, ko'nikma va malakalar, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olish bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasini aniqlash va baholash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilan olib boriladigan jismoniy madaniyat mashg'ulotlarida umumrivojlantiruvchi, umumiy va maxsus mashqlardan foydalanish, sport musobaqalari hamda sport bayramlarini tashkil etish va o'tkazish, sinfdan tashqari to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha bilim va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash va baholash ushbu tadqiqotning muhim takliflaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. http://lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2015-yil 5-sentabr, 174-son. "Xalq so'zi" gazetasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarori. http://lex.uz
4. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2005-yil.
5. Madaminov A.E. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi: darslik. Toshkent, 2025-yil.
6. Livisskiy A.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 1995-yil.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY FAOLIYATI VA UNING O'RGANILISHI

UDK: 821.512.133



Dinora Eshboyeva Alisher qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti
ORCID: 0009-0001-6619-7788

Ilmiy rahbar: N. A. Xakimova
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning turkiy xalqlar mustaqilligi yo'lida olib borgan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, uning yosh avlodni ilm-ma'rifatga yo'naltirish borasidagi xizmatlari hamda bu jarayondagi ilmiy va publitsistik faoliyati yoritib beriladi. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va publitsistik merosining O'zbekiston hamda xalqaro miqyosda o'rganilish darajasi ilmiy-tahliliy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda sovet davri va mustaqillik yillaridagi tarixshunoslik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, Behbudiy merosining milliy uyg'onish jarayonidagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik harakati, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, tarixshunoslik, matbuot, islohotlar.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the socio-political and educational activities of Mahmudkhoja Behbudi, one of the prominent representatives of the Jadid movement, in his efforts toward the independence of Turkic peoples. Particular attention is paid to his contributions to promoting education among the younger generation, as well as his academic and journalistic endeavors in this field. In addition, the study examines the socio-political, educational, and journalistic legacy of Mahmudkhoja Behbudi and analyzes its academic interpretation both in Uzbekistan and at the international level. The research offers a comparative analysis of historiographical approaches from the Soviet period and the years of independence, substantiating the significance of Behbudi's legacy in the process of national awakening.

Key words: Mahmudkhoja Behbudi, Jadid movement, national awakening, enlightenment, historiography, press, reforms.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируется общественно-политическая и просветительская деятельность одного из видных представителей джадидского движения – Махмудходжи Бехбуди, направленная на достижение независимости тюркских народов. Особое внимание уделяется его вкладу в развитие образования среди молодёжи, а также его научной и публицистической деятельности. Кроме того, рассматривается степень изученности социально-политического, просветительского и публицистического наследия Махмудходжи Бехбуди в Узбекистане и на международном уровне. В исследовании проводится сравнительный анализ историографических подходов советского периода и лет независимости, обосновывается значение наследия Бехбуди в процессе национального возрождения.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидское движение, национальное возрождение, просветительство, историография, печать, реформы.

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar milliy uyg'onish harakatining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayonda jadidchilik harakati va uning yetakchi namoyandalari muhim o'rin egalladi. Jadidlar jamiyatni isloh qilishda ta'lim, matbuot va ma'naviyatni asosiy vosita sifatida ko'rdilar. Ana shunday tarixiy sharoitda Mahmudxo'ja Behbudiy yirik ma'rifatparvar, publitsist va jamoat arbobi sifatida maydonga chiqdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarning ta'lim olishi, ma'naviyatli va ma'rifatli inson bo'lib shakllanishi hamda jamiyatga xizmat qilishlari tarafdori edi. U jamiyatni jaholatdan chiqarishning yagona yo'li faqat ma'rifat ekanini ta'kidlab kelgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning bunday ma'rifatparvar g'oyalari sovet davrida hukumat tomonidan ijobiy qabul qilinmadi. Natijada u shafqatsizlarcha o'ldirilib, ilmiy merosi yo'q qilishga urunildi. Behbudiy vafotidan so'ng uning ilmiy faoliyatini o'rganish va merosini yoshlarga yetkazish yo'lida ko'plab olimlar harakat qildilar, biroq bu jarayon sovet hokimiyatining tazyiqlariga duch keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Mahmudxo'ja Behbudiy shaxsi va uning ilmiy merosiga katta e'tibor qaratildi hamda xotirasi abadiylashtirildi. Bugungi kunda Behbudiy faoliyati nafaqat O'zbekiston tarixshunosligida, balki xalqaro miqyosda ham keng qamrovda o'rganilmoqda. Ushbu tadqiqotda Behbudiy merosiga turli davrlarda berilgan baholar, ularning mafkuraviy va ilmiy jihatlari aniqlanib, qiyosiy tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand viloyatida tug'ilgan. U dastlab an'anaviy maktab va madrasada tahsil olib, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarga ham qiziqish bildirgan. Yoshligidanoq zamon talablari va musulmon jamiyatining orqada qolish sabablarini anglashga intilgan Behbudiy o'z bilim doirasini kengaytirishga harakat qilgan. Behbudiyning Istanbul, Qohira va Makka shaharlariga qilgan safarlari uning dunyoqarashi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu safarlar davomida u zamonaviy ta'lim tizimi, matbuot erkinligi va jamiyatni isloh qilish masalalari bilan yaqindan tanishdi. Natijada Behbudiy jadidchilik g'oyalarining faol targ'ibotchisiga aylandi.

Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri ma'rifiy va pedagogik faoliyatdir. U eski usul ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotganini anglab, yangi usul maktablarini tashkil etish tarafdori bo'ldi. Shu bois haj safaridan qaytgach, Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabamin va Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Biroq Shakuriy maktabi 1908-yilda Behbudiy tomonidan Samarqanddagi o'z hovlisiga ko'chirib keltiriladi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903–04), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi hamda yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi[1].

Behbudiyning fikricha, ta'lim isloh qilinmas ekan, millat taraqqiy etishi mumkin emas edi. U tomonidan yaratilgan asarlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar jadid maktablarida keng qo'llanildi. Shunday asarlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar qatoriga "Tarixi islom" (1909), "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar xati", 1908), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Amaliyoti islom" (1908), "Muxtasar jug'rofiyayi Rusiy" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") kabi asarlarni ko'rish mumkin[2]. Ushbu asarlarda geografiya, tarix va jamiyatshunoslikka oid bilimlar sodda va tushunarli tilda bayon etilgan bo'lib, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan.

Behbudiy Turkistonda milliy matbuot rivojiga ham beqiyos hissa qo'shgan. U "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalining tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, ushbu nashrlar orqali jamiyatda siyosiy va ijtimoiy ongni shakllantirishga intildi. Behbudiyning publitsistik maqolalarida milliy birlik, ma'rifat, adolat va taraqqiyot masalalari ilgari surildi. U matbuotni xalqni uyg'otuvchi kuch sifatida baholab, uni jamiyat islohotining muhim vositasi deb hisoblagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek dramaturgiyasi tarixida ham muhim o'rin egallaydi. Uning "Padarkush" dramasi ijtimoiy muammolarni ochib bergan ilk sahna asarlaridan biri hisoblanadi. Asarda jaholat, nodonlik va ma'naviy tanazzul oqibatlari fojiali tarzda tasvirlangan. Mazkur drama orqali Behbudiy xalqni ilm-ma'rifatga chorlab, tarbiyasiz jamiyatning fojeali oqibatlarini ko'rsatib berdi. Asar jadid adabiyotining muhim namunasi sifatida baholanadi. Ushbu drama hozirgi davr uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, unda johil, nodon va o'qimagan farzandning o'z otasining qotiliga aylanishi ochiq tasvirlangan. Asar shu jihatdan ham yillar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki farzandlari johil bo'lgan yurtning kelajagi tanazzulga yuz tutishga mahkum.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishiga doir ma'lumotlar tarixiy-manbashunoslik, qiyosiy-tahliliy hamda tizimli yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida Behbudiyning asarlari, publitsistik maqolalari, zamondoshlari xotiralari, sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosiy manba sifatida tanlab olindi. Ma'lumotlarni yig'ishda arxiv hujjatlari, matbuot materiallari,

1 Begali Qosimov. Mahmudxo'ja behbudiy hayoti va faoliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2015 yil 3 son.
2 Eshboyeva D. Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining ahamiyati // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – B. 84.

monografiyalar va ilmiy maqolalardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar tarixiy izchillik tamoyili asosida tahlil qilinib, turli davrlarda Behbudiy merosiga berilgan baholar qiyoslandi. Shuningdek, sovet mafkuraviy yondashuvi va mustaqillik davridagi xolis ilmiy qarashlar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning sabab va oqibatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari orqali ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlar uchun qilgan bunday sa'y-harakatlari, ularni ilm olishga undagan ma'naviy va ma'rifiy g'oyalari mustabid sovet hukumati tomonidan xushlanmadi. Shu sababli dastlab uning faoliyatiga to'siqlar boshlandi. So'ng bu to'siqlar ish bermagach, Behbudiyga nisbatan tazyiqlar ko'paya boshladi. Natijada sovet hukumati tomonidan Behbudiy o'ldirildi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1919-yili vafot etadi, ammo ushbu xabar Turkiston o'lkasiga bir yil o'tgach, ya'ni 1920-yilda ayon bo'ladi. 1921-yilda esa uning o'limi rasmiy e'lon qilinadi[3].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ayrim tadqiqotlarda Behbudiy ma'rifatparvar sifatida qisman e'tirof etila boshladi. Biroq uning siyosiy va ijtimoiy qarashlari to'liq yoritilmadi. XX asrning 20-yillarida Hoji Muin Shukrullo o'g'li, Sadriddin Ayniy, Laziz Azizzoda singari zamondoshlari tomonidan Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida bir qancha maqolalar yozilgan. Alloma hayoti va faoliyatini yoritishda 1922–23-yillarda Hoji Muin muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" hamda "Zarafshon" (1923) gazetalarida e'lon qilingan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Sadriddin Ayniyning Behbudiyni "Oliyshon ustod" hamda "Turon dohiysi" kabi nomlar bilan ataganligi, Behbudiyning vafotidan ko'p o'tmay uning faoliyati ulug'langanligi hamda o'rganilganligini ko'rsatadi[4].

1977-yilda "Saylanma" asarlari chop etilgan. Ammo sovet hokimiyati yillarida jadidchilik harakatiga mafkuraviy yondashuv ustun bo'ldi. Bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati biryoqlama talqin qilinib, u "millatchi" va "burjua mafkurasi vakili" sifatida baholandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jadidlar merosini o'rganishda tub burilish yuz berdi. Mahmudxo'ja Behbudiy milliy uyg'onish harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida tan olindi. Bu borada Begali Qosimovning salmoqli ilmiy tadqiqotlari katta ahamiyatga ega. 1992-yilda "Ismoilbek Gaspirali", 1994-yilda "Maslakdoshlar" (Behbudiy, Ajziy, Fitrat), 1997-yilda (1-nashr) "Behbudiy. Tanlangan asarlar" (1999-yilda 2-nashr) asarlari nashr ettiriladi. Begali Qosimovning adabiyotshunoslik sohasida ham ko'plab tadqiqotlari bor, ammo olim o'zini jadidshunos deb hisoblardi. Jadidshunoslik borasida amalga oshirgan tadqiqotlarining o'zi alohida bir tadqiqotni talab qiladi. Olim jadidlarning milliy uyg'onish borasidagi qarashlariga alohida e'tibor berardi.

Ulug'bek Dolimov ham Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyatiga katta e'tibor berib, bu borada bir qancha tadqiqot ishlarini olib boradi. O'z tadqiqotlaridan xulosa qilgan Ulug'bek Dolimov Behbudiy shaxsiyati haqida quyidagicha yozadi: "Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy ma'nodagi asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiydir". Ulug'bek Dolimov tomonidan 2010-yilda "Jahon adabiyoti" jurnalida "Jadidchilikning tamal toshi" maqolasi nashr ettiriladi[5].

Sirojiddin Ahmedovning ilmiy ishlarida Mahmudxo'ja Behbudiyning ilmiy, publitsistik, ma'rifiy, ma'naviy g'oyalari chuqur qiyosiy tahlil qilinadi. U o'z izlanishlari orqali Behbudiyning tavallud topgan sanasi va joyini aniqlab, 1874-yil 30-yanvar (payshanba kuni) Samarqand shahri Yomini mahallasida tavallud topganini yozadi. Ammo Behbudiyga zamondosh olim Hoji Muin uning tavallud topgan joyi va sanasini quyidagicha keltiradi: 1875-yil 19-yanvar (hijriy 1291-yil 10–zulhijja) kuni Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dunyoga keladi. Begali Qosimov ham yuqorida Hoji Muin keltirgan faktni qayd etadi. Shuningdek, Sirojiddin Ahmedov o'z fikrini kuchli dalillar asosida isbotlaydi[6]. U tadqiqotlarida barcha muhim ma'lumotlarni aniq va xolis dalillar asosida beradi; bu va boshqa jihatlar ham Behbudiyning faoliyatini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Naim Karimov tomonidan ham Mahmudxo'ja Behbudiyning ilmiy faoliyati chuqur o'rganilib, allomaning hayoti va ijodiga oid 50 dan ziyod ilmiy va ommaviy maqolalar muallifi ekani qayd etiladi. Shuningdek, olimning 2023-yilda "Mahmudxo'ja Behbudiy" monografiyasi nashr ettirilgan. Behbudiy hayoti va faoliyatini yoritishda keyinchalik Ahmad Aliyev, Solih Qosimov, Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmedov, Ulug'bek Dolimov, Bahodir Karimov, Shuhrat Rizayev, Nurboy Jabborov, Zaynobiddin Abdirashidov kabi ko'plab jadidshunos olimlar izlanish olib borgan.

3 Eshboyeva D. Behbudiyning sirli o'limi // Golden brain. 2023. – B. 31.
4 Ibrohim G'afurov „Mahmudxo'ja Behbudiy haqida ikki badia". kh-davron.uz.
5 Eshboyeva D. Mustaqillik davrida Mahmudxo'ja Behbudiyga ko'rsatilgan e'tibor // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. 2023. - B. 89.
6 Eshboyeva D. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o'rganilishi // "Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari" ilmiy konferensiya – T.: Rishton XTB, 2023. – B. 218.

2002-yilda rejissyor Baqo Sodiqov Behbudiy haqida film suratga olishni boshlagan[7], keyinchalik bu ish to'xtatilgan. 2020-yilda suratga olish ishlari qayta tiklandi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan premyera o'sha yilning 8–dekabrida bo'lib o'tgan. Uning asarlari qayta nashr etildi, ilmiy konferensiyalar tashkil qilindi va ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Mustaqillik yillarida Behbudiy faoliyati xolis va ilmiy asosda baholanib, uning millat taraqqiyotidagi o'rni yanada aniqroq belgilab berildi.

Turkiston jadidlarining ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini o'rganish, ularni bugungi yoshlarga yetkazish hamda ularning ilmiy merosini saqlab qolish maqsadida 2023-yilda "Jadid" gazetasi ta'sis etish g'oyasi ilgari surildi. 2024-yildan boshlab gazetaning ilk nashri yo'lga qo'yildi. "Jadid" gazetasining bosh muharriri O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzodir[8].

2025-yilning 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan[9]. Qarorga ko'ra, 2025-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-ma'rifiy xotira kechasi tashkil etilishi belgilandi. Shuningdek, ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zR FA Milliy arxeologiya markazi bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor Dilorom Alimovaning "Mahmudxo'ja Behbudiy. Millat ehtiyojiga baxshida umr" risolasi nashr etildi. Risolada Behbudiyning faoliyati xolis va batafsil tadqiq etilib, uning shaxsiga faqat tarixiy siymo sifatida emas, balki o'z davrining og'riqlarini chuqur his qilgan, millat kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan fidoyi ziyoli sifatida baho beriladi.

Xalqaro miqyosda ham Behbudiyning faoliyati samarali o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, Turkiyada allomaning asarlari, ilmiy maqolalari, ma'rifiy g'oyalari tadqiq etilib, bu borada ko'plab ilmiy konferensiyalar tashkil etilmoqda. 2021-yilda Turkiyaning TRT Avaz telekanali "Köklerin İzinde" turkumi ostida turkiy dunyo ziyolilarining hayoti va faoliyati yoritilgan filmlar suratga olgan. Filmning 17-qismi allomaga bag'ishlanib, "Mahmud Hoca Behbudi" deb nomlangan[10]. 2025-yilda Turkiya poytaxti Anqarada "Mahmudxo'ja Behbudiy merosining turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.

Germaniyadagi Humbolt universiteti professori, turkshunos olim Ingeborg Baldauf jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatini chuqur ilmiy asosda o'rgangan xorijiy tadqiqotchilardan biridir. Baldauf Behbudiy faoliyatini alohida shaxs sifatida emas, balki Turkiston jadidchilik harakati, islomiy modernizm, milliy uyg'onish jarayoni, matbuot va ma'rifat islohotlari kontekstida tahlil qiladi. U Behbudiyni diniy islohotchi, ma'rifatparvar, milliy ongni uyg'otuvchi ziyoli, siyosiy tafakkur sohibi sifatida baholaydi. Ingeborg Baldauf Behbudiyning haj safariga oid kundaliklarini nemis tiliga tarjima qilish bilan shug'ullangan. Ingeborg Baldaufning "Mahmudxo'ja Behbudiy – Falastinda" nomli maqolasi nashr ettirildi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyati amerikalik olimlarning ham nigohidan chetda qolmadi. Ayniqsa, bu borada Adib Xolidning qiyosiy-tahliliy tadqiqotlari samaralidir. Adib Xolidning yangi izlanishlari natijalari aks etgan 2015-yilda chop qilingan "Making Uzbekistan: nation, empire and revolution in the early USSR" asarida ham Mahmudxo'ja Behbudiy to'g'risida muhim ma'lumotlar uchraydi. Uning o'limi to'g'risida so'z yuritar ekan, A. Xolid bu hol hanuzgacha sirligicha qolayotganini aytadi, bu boradagi N. Karimov qarashlarini ham ishonchsiz deb baholaydi[11]. Chunki Adib Xolid bu borada aniq va ishonchli ma'lumotlar hali ham bizgacha yetib kelmaganini asos qilib oladi. O'z tadqiqotlarida "Behbudiyning hayotiy tajribasi XX asr boshlarida O'rta Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining eng ko'zga ko'ringan siymosi bo'lganligi bilan alohida ahamiyatga ega. U davrining yirik shaxsi bo'lib, dunyoni o'zidan oldingi avlod va zamondoshlaridan farqli ravishda anglay olgan hamda u vaqtda ularning tasavvuriga sig'maydigan aloqa va tashkiliy shakllardan foydalana olgan"[12], deb yozadi Adib Xolid.

Behbudiy faoliyati haqida tadqiqotlar olib borgan yana bir amerikalik olim Edvard Olvort bo'lib, dastlab u o'z tadqiqotlarida Behbudiyga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladi. U Behbudiy haqida yozilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlar, uning xotirasini abadiylashtirish yo'lida qilingan ishlarni qattiq tanqid qiladi. Ammo uning keyinchalik nashr qilingan "Modern Uzbeks"[13] asarida ham Behbudiyning dunyoviy bilimlarni egallashga nisbatan ijobiy munosabatini ko'rsatadi: u madrasada o'qishni tamomlagach oila qurgani, zamon bilan hamnafas yashash maqsadida keyinchalik o'g'lini rus tili va boshqa muhim fanlarni o'rganishi uchun rus-tuzem maktabida o'qitganini aytadi.

7 18 yil "zapret"da bo'lgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" filmi premyerasi o'tkazildi - Xalq so'zi
8 https://jadid.uz/biz-haqimizda/
9 https://lex.uz/uz/docs/-7287373
10 Köklerin İzinde 17. Bölüm (Mahmud Hoca Behbudi) - YouTube
11 Khalid A. Making Uzbekistan: nation, empire and revolution in the early USSR. Cornell university press. 2015. –P.81.
12 Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
13 Allworth E. The modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. Stanford, California. 1990.

Bugungi globallashuv sharoitida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilm-ma’rifat, vatanparvarlik va islohot haqidagi g‘oyalari o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning merosi yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, tanqidiy fikrlash va ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining eng yirik va serqirra namoyandalaridan biri sifatida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida tub burilish yasagan tarixiy shaxsdir. Uning faoliyati ma’rifatparvarlik, matbuotchilik, dramaturgiya, siyosiy fikr va milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirish va milliy o‘zlikni anglash sari yetaklashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Behbudiy yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish va matbuot orqali jamiyat ongini shakllantirish orqali yosh avlodni zamonaviy bilim olishga da’vat etdi. Uning publitsistik va dramaturgik merosi milliy tafakkur, ijtimoiy tanqid hamda ma’naviy islohot g‘oyalarini ilgari surdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatining O‘zbekistonda o‘rganilishi murakkab va bosqichma-bosqich kechgan tarixiy jarayondir. Turli davrlarda uning merosiga berilgan baholar mafkuraviy omillarga bog‘liq bo‘lgan. Sovet davrida Behbudiy vafotidan so‘ng tazyiqlar kuchli bo‘lishiga qaramay, unga zamondosh olimlar tomonidan ilmiy faoliyati o‘rganilib, yoshlarga yetkazilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach esa allomaga katta e’tibor qaratilib, uning millat uchun qilgan xizmatlari chuqur tadqiq etildi hamda allomaning ilmiy faoliyati haqida aniq va xolisona ma’lumotlar yoshlarga yetkazildi. Uning o‘limiga doir barcha haqiqatlar ochib berildi. Behbudiyning turkiy xalqlar uchun qilgan mehnatlari zoye ketmadi. Turkiy xalqlar mustaqillikka erishishi uchun iqtisodiy va siyosiy sohalar kabi zamonaning muhim ilmlarini egallashi, shuningdek, ilg‘or xalqlarning tillarini o‘rganishi zarurligi haqidagi qarashlari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Bugungi kunda Behbudiy milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakatining yorqin timsoli sifatida e’tirof etilmoqda. Uning ilmiy va ijodiy merosini chuqur o‘rganish zamonaviy tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begali Qosimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2015-yil, 3-son.
2. Eshboyeva D. Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarining ahamiyati // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – 84 b.
3. Eshboyeva D. Behbudiyning sirli o‘limi // Golden Brain. – 2023. – 31 b.
4. Ibrohim G‘afurov. Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida ikki badia. – kh-davron.uz.
5. Eshboyeva D. Mustaqillik davrida Mahmudxo‘ja Behbudiyga ko‘rsatilgan e’tibor // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – 89 b.
6. Eshboyeva D. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o‘rganilishi // “Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari” mavzusidagi ilmiy konferensiya. – Toshkent: Rishton XTB, 2023. – 218 b.
7. 18 yil “zapret”da bo‘lgan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” filmi premyerasi o‘tkazildi // Xalq so‘zi.
8. https://jadid.uz/biz-haqimizda/
9. https://lex.uz/uz/docs/-7287373
10. Köklerin İzinde. 17-bölüm (Mahmud Hoca Behbudi). – YouTube.
11. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire and Revolution in the Early USSR. Cornell University Press, 2015. – P. 81.
12. Zaynobiddin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
13. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Stanford, California, 1990.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI KASBIY FAOLIYATIDA QO'LLAY OLISH. AXLOQNING KELIB CHIQISHI VA ASOSLANISH MASALASINI NAZARIY TAHLIL QILISH

Shaxayev Bauirjan Seytgaliyevich
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti,
13.00.02 – "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi"

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida axloqiy kompetensiyalarni qo'llay olish masalalari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning jamoa bilan hamkorlikdagi faoliyati, o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy me'yor va qadriyatlarning o'rni hamda axloqning kelib chiqishi va mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyat jarayonida axloqiy kompetensiyalardan samarali foydalanish usullari va ularning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan. Maqola ilmiy-pedagogik jamoatchilik uchun nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: axloq, moralis, prinsip, axloq kodeksi, ideallar va standartlar, axloqiy me'yor, fe'l-atvor, odat, xarakter, xulq-atvor, qonun, moda, gedonizm, evdemonizm.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the application of moral competencies by future teachers in their professional activities. The study examines the characteristics of cooperative interaction among prospective educators, their pedagogical engagement with students in the teaching and learning process, as well as the origin and essential nature of morality. In addition, the methods of effectively using moral competencies in professional practice and their pedagogical significance are substantiated. The article serves as a theoretical resource for the academic and pedagogical community.

Key words: morality, moralis, principle, code of ethics, ideals and standards, moral norm, behavior, habit, character, conduct, law, fashion, hedonism, eudaimonism.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируются вопросы применения нравственных компетенций будущими педагогами в профессиональной деятельности. В исследовании рассматриваются особенности взаимодействия будущих учителей в коллективе, их педагогическое сотрудничество с учащимися в процессе обучения и воспитания, а также происхождение и сущностное содержание нравственности. Обоснованы методы эффективного использования нравственных компетенций в профессиональной деятельности будущих учителей и раскрыта их педагогическая значимость. Статья может служить теоретическим источником для научно-педагогической общественности.

Ключевые слова: нравственность, moralis, принцип, кодекс этики, идеалы и стандарты, нравственная норма, поведение, привычка, характер, образ действий, закон, мода, гедонизм, эвдемонизм.

KIRISH

Axloq va etika atamalari asl ma'nosida o'zaro chambarchas bog'liqdir. Birinchi axloq (lotincha moralis so'zidan – to'g'ri, tarbiyalovchi degan ma'noni bildiradi) odamlarning xulq-atvori va faoliyatini tartibga soluvchi eng muhim, obyektiv harakat qiluvchi ijtimoiy institutdir. Shu bilan birga, axloq ijtimoiy ong shaklini va axloqiy munosabatlar deb ataladigan maxsus ijtimoiy munosabatlar turini tavsiflaydi. Axloq – etikani o'rganish predmeti bo'lib, "odat" yoki "turmush tarzi" degan ma'noni anglatadi.

Axloqning zamonaviy qo'llanilishi xulq-atvor va etikani (yoki axloq falsafasini), ya'ni axloqiy xulq-atvorni o'rganishni anglatadi. Bu jarayonda "axloqiy harakat" va "axloq kodeksi" tushunchalari muhim o'rin tutadi. Mazkur tushunchalar muayyan standartlarga muvofiqlikni anglatadi. Bo'lajak o'qituvchilar ish faoliyatida amal qilishi lozim bo'lgan prinsiplar (qoidalar) va kasb burchini axloqiy jihatdan bajarish mezonlarini axloq kodeksi

hamda boshqa huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradilar. Axloqiy qarorlar qabul qilinadigan eng yuqori qadriyatlar odatda normalar, prinsiplar, ideallar yoki standartlar deb ataladi.

Masalan, ba'zi faylasuflar baxtni axloqni baholashimiz kerak bo'lgan eng oliy qadriyat sifatida tanlaydilar, ya'ni baxt – axloqqa amal qilish zarurligi haqidagi xulosaga keladilar. Yunon faylasufi Platon ushbu tamoyillarning muhimligini ikki ming yil avval ta'kidlab o'tgan.

Baxt-saodatni me'yor, prinsip, ideal yoki standart sifatida ham ko'rish mumkin. Baxtga yetaklovchi yo'l axloqning me'yorlari, prinsip va ideallariga amal qilish bilan bog'liqdir. Oliy maqsad, masalan, inson o'z oldiga maqsad qo'yib, uni amalga oshirganda, idealga va oliy maqsadga erishgan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axloq va axloqiy kompetensiyalar masalasi falsafa va pedagogika fanlarida qadimdan tadqiq etib kelinadi. Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel axloqni insonning ma'naviy kamoloti va jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida talqin qilgan. Platon axloqiy yetuklikni oliy ezgulik va adolat bilan bog'lagan bo'lsa, Aristotel axloqiy fazilatlarni odat va tarbiya orqali shakllanadigan sifatlar sifatida izohlagan. Ushbu yondashuvlar keyinchalik axloqning me'yoriy va tarbiyaviy mohiyatini ochib berishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Yevropa falsafasida axloq masalasi Immanuil Kant va Georg Gegel asarlarida chuqur tahlil qilingan. Kant axloqiy xulq-atvorni burch va vijdon bilan bog'lab, axloqiy qarorlar insonning ichki mas'uliyatiga tayangan holda qabul qilinishini ta'kidlaydi. Gegel esa axloqni huquq, axloq va odob bosqichlari orqali rivojlanadigan ijtimoiy hodisa sifatida izohlaydi. Uning qarashlarida axloqiy xatti-harakat jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarning shaxs ongiga singdirilishi jarayoni bilan bog'liq holda talqin qilinadi, bu esa pedagogik faoliyatda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

O'zbekiston pedagogika ilmida ham bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi dolzarb yo'nalish sifatida o'rganilgan. Xususan, R.G. Safarova bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik hamkorlikka tayyorlash jarayonida kasbiy va axloqiy mas'uliyatning ahamiyatini asoslab bergan. Shuningdek, Z.S. Xudoynazarova tadqiqotlarida talabalarda kommunikativ va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli[1] Farmoni hamda oliy ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarda o'qituvchilarning kasbiy etika va axloqiy kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilishi mazkur mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish masalasini o'rganishda nazariy-pedagogik yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot ma'lumotlari ilmiy adabiyotlar, falsafiy va pedagogik manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda axloq va kasbiy etika masalalariga oid ilmiy maqolalarni tizimli o'rganish orqali to'plandi. Ma'lumotlarni olish jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Axloqiy kompetensiyalarning mazmun-mohiyatini aniqlashda turli ilmiy qarashlar o'zaro solishtirilib, ularning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati tahlil qilindi. Olingan nazariy ma'lumotlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishga doir umumiy xulosalar chiqarildi hamda ularning kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'liqligi asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axloqiy me'yor biz to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan axloqiy harakatlar to'g'risida hukm chiqarishimiz mumkin bo'lgan prinsiplar majmuasidir. Bunga qonun ustavi, diniy nufuz, jamoat fikri yoki vijdonni misol qilib ko'rsatish mumkin. Axloq madaniy va institutsional doirada avloddan avlodga, guruhdan guruhga, shaxsdan shaxsga o'tadi va obyektiv maqomga ega bo'ladi.

Etika (axloq falsafasi) ijtimoiy axloqni o'rganadi, axloqiy me'yorlarni shakllantiradi, odamlarni boshqa kishilarning manfaatlarini hisobga olishga hamda shu orqali ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatadi. Qadimgi Rim madaniyatida "axloq" so'zi inson hayotining ko'plab hodisalari va sifatlarini bildirgan: fe'l-atvor, odat, xarakter, xulq-atvor, qonun, moda va boshqalar. Keyinchalik ushbu so'zdan moralis (xarakterga, odatga taalluqli ma'noda) atamasi shakllangan, undan esa eramizning IV-asrida moralitas (axloq) tushunchasi vujudga kelgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-6600413

Hozirgi vaqtda "etika" so'zi o'zining asl ma'nosini saqlagan holda falsafiy fanni anglatadi, axloq esa ushbu fan tomonidan o'rganilayotgan shaxsning haqiqiy hodisalari va sifatlarini ifodalaydi. Axloqiy mavzularning o'zbekcha asosiy prinsipi "xulq" so'zidir, u xarakter, ehtiros, iroda hamda yaxshi yoki yomon narsaga moyillikni qamrab oladi. Shuningdek, axloqni odob asosidagi hayotga yo'l ko'rsatadigan, ehtiroslarni jilovlaydigan va insonning burch hamda lavozimlarini bajarishga xizmat qiladigan ko'rsatmalar va qoidalarni o'z ichiga olgan donolikning bir qismi sifatida talqin qilish mumkin.

Axloqiy me'yorlar haqida yetti donishmandga tegishli bo'lgan ayrim fikrlarni keltirish mumkin: "Yoshi ulug'larni hurmat qil" (Xilon), "Ota-onangni rozi qilishga shoshil" (Fales), "Eski qonunlarga amal qil, biroq ovqatingning yangisini afzal bil" (Periander), "Me'yor – bu eng zo'r narsadir" (Kleobul), "O'zboshimchalikni olovdan ko'ra tezroq o'chirish kerak" (Geraklit) va hokazo.

Ko'p asrlar davomida faylasuflar va mutafakkirlar ezgulik, burch, vijdon hamda ularning o'zaro aloqalari to'g'risida fikr yuritganlar. Jumladan, nemis faylasufi Georg Gegelning fikriga ko'ra, yaxshilik o'z rivojlanishida uchta bosqichni bosib o'tadi: huquq, axloq va odob. Gegel g'oyasiga ko'ra, "huquq" me'yorlariga amal qilgan inson yomon harakatlar yoki jinoyatlarni sodir etmaydi va faqat jazodan qo'rqqani sababli o'zini ijtimoiy maqbul tarzda tutadi. Agar jazolashning aniq tahdidi mavjud bo'lmasa, inson osonlik bilan jinoyat yoki qonunbuzarlik sodir etishga moyil bo'lishi mumkin.

"Axloq" me'yorlariga amal qilgan inson esa yomon harakatlar va jinoyatlarni sodir etmaydi, chunki u ma'naviy ayblovlardan qo'rqadi va jamiyatda qabul qilingan yaxshilik va yomonlik mezonlarini anglaydi. Bunday shaxs birovning narsasini olmaydi, chunki u "yaxshi odamlar bunday qilmaydi", "odobli jamiyatda bu qabul qilinmaydi" yoki "bu axloqsiz ish" ekanligini aniq biladi. Natijada, bunday xulq-atvor jazodan qo'rqishga emas, balki to'g'ri va noto'g'rini ongli ravishda tushunishga asoslanadi.

"Odob" bosqichida inson o'zini interiorizatsiya qiladi. Interiorizatsiya – bu tashqi norma, qoidalar, qarash yoki qadriyatlarning shaxsning ichki dunyosiga singdirilishi jarayonidir. Ya'ni, inson jamiyat, oila, maktab va ijtimoiy muhit ta'siri orqali o'rgangan qoidalar va qadriyatlarni o'zining ichki ehtiyojiga aylantiradi. Bu jarayon ijtimoiy normalarni ichki qabul qilish orqali, masalan, "navbatni kutish" yoki "atrofni ifloslantirmaslik" kabi odatlarda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda axloqqa amal qilishda uchta asosiy omil muhim hisoblanadi: axloqiy huquq, axloqiy din va axloqiy qadriyatlar. Axloqning huquq bilan bog'liqligi jamiyatda inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlarning huquqiy normalarning mazmuni, shakllanishi va qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Huquq esa axloqiy qadriyatlarni davlat tomonidan majburiy bajarilishi ta'minlangan rasmiy me'yorlar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyatda qonuniy huquq va erkinliklarni tartibga soluvchi hamda himoya qiluvchi uchta javobgarlik kodeksi mavjud: Jinoiy javobgarlik kodeksi, Ma'muriy javobgarlik kodeksi va Fuqarolik kodeksi. Ushbu kodekslar orqali jamiyatda fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanadi.

Axloqning din bilan bog'liqligi shundan iboratki, ko'plab axloqiy me'yorlar diniy ta'limotlar orqali shakllanadi va insonning hayotiy xulq-atvorini tartibga solishda muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi. Masalan, halollik tamoyili din nuqtai nazaridan har qanday muomalada halol bo'lish zarurligi bilan izohlanadi, axloqiy jihatdan esa inson halolligi jamiyatda ishonch va barqaror munosabatlarni ta'minlaydi.

Axloq qadriyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, axloqiy qoidalar ko'pincha jamiyat yoki shaxs tomonidan qadrlanadigan ideallar va tamoyillarga asoslanadi. Qadriyatlar axloqiy xatti-harakatlar uchun muhim yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Jumladan, mehribonlik va hamdardlik qadriyati boshqalarni qadrlash va ularga yordam berish zarurligini ifodalaydi, bu esa axloqiy me'yor sifatida kasal yoki qiyin vaziyatdagi insonlarga yordam ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Adolat qadriyati esa hamma uchun tenglik, haqiqat va huquqni hurmat qilishni anglatib, insonning boshqalar bilan munosabatda adolatli bo'lishi va birovning huquqini buzmasligini taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Axloqiy kompetensiyalar – bu insonning axloqiy me'yor va qadriyatlarga asoslanib to'g'ri qaror qabul qila olish, mas'uliyatli va halol xulq-atvor namoyon eta olish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda, bu "nima to'g'ri, nima noto'g'ri" ekanini anglab, shunga mos ravishda harakat qilish ko'nikmasidir.

Axloqiy kompetensiyalarga halollik, ya'ni rostgo'y va vijdonli bo'lish, mas'uliyat, o'z harakatlari uchun javob bera olish, hurmat, boshqalarning huquqi va fikrini qadrlash, adolat, teng va haqqoniy munosabatda bo'lish, empatiya, boshqalarning his-tuyg'ularini tushuna olish, hamda bag'rikenglik, turli fikr va qarashlarga toqatli bo'lish kabi sifatlar kiradi. Ushbu kompetensiyalar maktab va ta'lim jarayonida, ish joyida (kasbiy etika doirasida), jamiyat va oilada, shuningdek, rahbarlik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga baho qo'yishda adolatli bo'lsa yoki rahbar qaror qabul qilish jarayonida jamoadagi barcha a'zolarning manfaatini inobatga olsa, bu holatlar axloqiy kompetensiyaning amaliy namu-

nalari hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat nazariy bilim berish, balki shaxsiy namuna, muhit va amaliy tajriba orqali tarbiyalash jarayonini ham o‘z ichiga oladi.

Bu jarayonda qadriyat va kasbiy etika asoslarini o‘rgatish, pedagogik etika, kasbiy mas’uliyat, adolat va halollik tushunchalarini chuqur anglatish, o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va ma’naviy mas’uliyatini tushuntirish hamda “o‘qituvchi – namuna” tamoyilini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilarning o‘zlari axloqiy namuna bo‘lib, halollik, hurmat va adolatni amalda ko‘rsatishi, talabalarga nisbatan xolis va insonparvar munosabatda bo‘lishi zarur.

Umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish uzluksiz, tizimli va kompleks jarayon bo‘lib, unda bilim, shaxsiy namuna, amaliy tajriba va o‘zini anglash jarayonlari o‘zaro uyg‘un holda faoliyat yuritishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Roxat Gaybullayevna Safarova, pedagogika fanlari doktori, professor. “Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik hamkorlik faoliyatiga tayyorlash imkoniyatlari” mavzusidagi maqolasidan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.
3. Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti Xudoynazarova Zulayho Sohibnazarovaning “Talabalarda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi maqolasidan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ahmedova Zuhraxon Mamurovna
University of Business and Science Oliy ta'lim muassasasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida STEAM ta'lim texnologiyalari hamda raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. STEAM yondashuvi fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Mathematics) yo'nalishlarini integratsiyalashgan holda o'qitishga asoslanib, bolalarda kognitiv rivojlanish, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: STEAM, ta'lim texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, innovatsiya, ijodkorlik, tashxislash, aqliy rivojlanish ko'nikmalari, tayyorgarlik.

Abstract: This article analyzes the application of STEAM educational technologies and digital education technologies in preschool education. The STEAM approach–integrating Science, Technology, Engineering, Art, and Mathematics–plays a significant role in fostering children's cognitive development, creative thinking, and problem-solving skills.

Key words: STEAM, educational technologies, preschool education, educator, innovation, creativity, diagnostics, mental development skills, readiness.

Аннотация: В статье проводится научный анализ применения образовательных технологий STEAM и цифровых образовательных технологий в системе дошкольного образования. Подход STEAM, основанный на интегрированном обучении науке (Science), технологии (Technology), инженерии (Engineering), искусству (Art) и математике (Mathematics), способствует формированию когнитивного развития детей, развитию творческого мышления и навыков решения проблем.

Ключевые слова: STEAM, образовательные технологии, дошкольное образование, воспитатель, инновация, творчество, диагностика, навыки умственного развития, подготовленность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Shu sababli ushbu bosqichda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. STEAM ta'lim yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitishni nazarda tutadi. Raqamli ta'lim texnologiyalari esa STEAM ta'limini amaliy va samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri – bolalarni erta yoshdan raqamli asboblar va innovatsion metodlar bilan tanishtirishdir. Xususan, maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayonni boyitib, bolalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, hamkorlik va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. STEAM yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy bilimlarni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi, chunki u nafaqat nazariy bilimlarni o'rgatadi, balki amaliy tajriba asosida bilimlarni mustahkamlaydi. Shu orqali raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

STEAM nima, STEAM – bu fan, matematika, texnologiya, muhandislik va san'at elementlarini integratsiyalashgan holda o'qitish yondashuvidir. Ushbu yondashuv alohida fanlar bo'yicha ajratilgan bilimlar o'rniga, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlashga asoslanadi. STEAM ta'limi bolalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, tajriba o'tkazish va kuzatish, ijodkorlik hamda tashabbuskorlik kabi muhim ko'nik-

malarni rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM faoliyatlari asosan o‘yin, tajriba va amaliy mashg‘ulotlar orqali tashkil etilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-152-sonli[1] Farmoni hujjati innovatsion pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-uanvardagi “2022 – 2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-98-son[2] qaror maktabgacha ta’lim sohasida raqamlashtirilgan boshqaruv jarayonlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi, bu esa STEAM ta’limi uchun zarur infratuzilmani yaratishga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga, jumladan ta’lim tizimiga ham jadal kirib kelmoqda. Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvini joriy etish orqali bolalarni 21-asr kompetensiyalari bilan ta’minlash, ularni kelajakda yuzaga keladigan murakkab vazifalarni hal etishga tayyorlash mumkin. Raqamli ta’lim texnologiyalari STEAM metodikasining samaradorligini oshirishga xizmat qilib, bolalarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari. Raqamli texnologiyalar STEAM ta’limini quyidagi jihatlarda boyitadi:

- interaktiv doskalar va multimediali taqdimotlar orqali bilimlarni ko‘rgazmali tarzda yetkazish;
- planshet va sensorli qurilmalar yordamida shakl, rang va sonlar bilan ishlash;
- oddiy robototexnika vositalari orqali muhandislik fikrlashini rivojlantirish;
- raqamli rasm va animatsiyalar orqali san’at elementlarini o‘rganish.

Bunda raqamli vositalarning bolaning yoshiga mos, xavfsiz hamda qisqa vaqt davomida qo‘llanishi muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan bir qator qarorlari raqamli va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni qo‘llab-quvvatlaydi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlashga doir qaror maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni belgilaydi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta’limda zamonaviy raqamli va innovatsion uslublarni tatbiq etish yo‘lida davlat siyosatini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta’limda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish masalalari milliy pedagogik adabiyotlarda muhim o‘rin egallaydi. Xususan, N. Axmedovaning “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” asarida maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivoji, mustaqil fikrlashi va faol o‘rganishga tayyorgarligi pedagogik texnologiyalar orqali ta’minlanishi asoslab berilgan. Muallif ta’lim jarayonida faol metodlar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish bolalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishini ta’kidlaydi, bu esa STEAM ta’limining asosiy tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.

Irodaxon Najmiddin qizi Hasanovaning ilmiy ishlari maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning rivojlanishini tizimli baholash va qo‘llab-quvvatlash masalalariga bag‘ishlangan. Uning “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” o‘quv qo‘llanmasi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashga oid monografiyasida raqamli va innovatsion yondashuvlar orqali bolalarning ijtimoiy, kommunikativ va bilish faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Muallif pedagogik diagnostika va interaktiv texnologiyalarni qo‘llash bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishga xizmat qilishini asoslaydi.

Shuningdek, Hasanovaning “Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o‘rni va zamonaviy usullari” nomli ilmiy maqolasida raqamli vositalar yordamida ta’lim jarayonini monitoring qilish va natijalarni tahlil etish masalalari ochib berilgan. Maktabgacha va maktab ta’limi sohasiga oid elektron resurslar hamda ilmiy jurnallarda e’lon qilingan tadqiqotlar STEAM yondashuvi va raqamli ta’lim texnologiyalarining integratsiyasi bolalarda ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ilmiy manbalar maktabgacha ta’limda STEAM va raqamli texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik asoslarini belgilashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-152-sonli Farmoni: https://lex.uz/uz/docs/-7128182

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-uanvardagi “2022 – 2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-98-son qaror: https://lex.uz/uz/docs/-5834443

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonini empirik va tahliliy jihatdan o'rganishga yo'naltirildi. Tadqiqotda ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, suhbat va hujjatlarni tahlil qilish usullari orqali olindi. Kuzatuvlar maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etilgan STEAM elementlariga asoslangan mashg'ulotlar jarayonida olib borildi hamda bolalarning faolligi, ishtiroki va bilish faoliyatidagi o'zgarishlar qayd etildi. Pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali raqamli vositalardan foydalanish tajribasi, mavjud muammolar va amaliy yondashuvlar aniqlashtirildi. Shuningdek, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va elektron resurslar mazmuniy jihatdan tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash va umumlashtirish usullari asosida tahlil qilinib, STEAM va raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta'lim jarayonidagi samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi va raqamli texnologiyalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Mazkur yondashuv bolalarda bilimlarni faqat tayyor shaklda qabul qilish emas, balki tajriba, kuzatish va oddiy eksperimentlar orqali mustaqil o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, STEAM tamoyillariga asoslangan faoliyatlar bolalarning tabiiy qiziquvchanligini qo'llab-quvvatlab, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining erta shakllanishiga zamin yaratadi.

Raqamli vositalardan maqsadli foydalanish bolalarda kognitiv faoliyatni faollashtiradi, mantiqiy tafakkur, muammoni hal qilish, diqqat va xotira kabi muhim psixik jarayonlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Interaktiv o'yinlar, vizual va multimediya elementlari ijtimoiy muloqot, hamkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, STEAM yondashuvini bosqichma-bosqich joriy etish, kichik loyihalar asosida tashkil etish maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos keladi.

Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatadiki, ushbu jarayonning samaradorligi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Pedagoglarni AKT, interaktiv metodlar va STEAM yondashuvlari bo'yicha maxsus tayyorlash, ularning malakasini doimiy oshirib borish, metodik qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Malakali pedagog STEAM faoliyatini to'g'ri rejalashtirishi, bolalar faolligini boshqarishi va ta'lim jarayonini xavfsiz hamda samarali tashkil etishi mumkin.

Biroq, tadqiqot jarayonida bir qator muammolar ham aniqlangan. Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning STEAM va raqamli texnologiyalar bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Ayrim muassasalarda raqamli infratuzilmaning cheklanganligi, texnik vositalarning yetishmasligi yoki eskirganligi jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan STEAM dasturlari va metodik materiallarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani mavjud muammolardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, olingan natijalar STEAM va raqamli texnologiyalarni maktabgacha ta'limga joriy etish katta pedagogik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun kadrlar tayyorlash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va metodik ta'minotni takomillashtirish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bolalarning kognitiv, ijodiy hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini boyitadi, STEAM yondashuvini amaliyotga samarali joriy etishga xizmat qiladi va pedagogik jarayonni innovatsion yo'nalishga olib keladi. Prezident qarorlari va davlat siyosati doirasida maktabgacha ta'limni raqamlashtirish hamda innovatsiyalar bilan ta'minlash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sifatli ta'lim muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, tarbiyachilarni tayyorlash, raqamli infratuzilmani mustahkamlash hamda metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017-yil. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ–3305-sonli Qarori.
4. Axmedova N. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. – Toshkent, 2021-yil.

5. Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi: o‘quv qo‘llanma. – Namangan: “Sunrise-pro” nashriyoti, 2025-yil. – 188 bet.
6. Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning diagnostik tizimini metodik takomillashtirish (katta va tayyorlov guruhlari misolida): monografiya. – Namangan: “Sunrise-pro” nashriyoti, 2025-yil. – 184 bet.
7. Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o‘rni va zamonaviy usullari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2025-yil, noyabr, 11-son.
8. https://maktabgacha-va-maktab-talimi
9. https://webofjournals.com/index.php/3/article/download/5078/5114/10014?utm_source=chatgpt.com
10. https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/3793/3918

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARDA ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI VA ZARURIYATI

Mirzabayeva Zebo Umarovna
"University of Business and Science" universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning pedagogik ahamiyati, dolzarbligi va zaruriyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Elementar matematik tushunchalarni tizimli rivojlantirish orqali bolalarning mantiqiy fikrlashi, intellektual salohiyati hamda maktab ta'limiga psixologik va bilish jihatidan tayyorgarligi oshirilishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim jarayonida matematik tasavvurlarni shakllantirish muhim pedagogik vazifa ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, elementar matematik tasavvurlar, son va sanoq, mantiqiy fikrlash, intellektual rivojlanish.

Abstract: This article examines the pedagogical significance, relevance, and necessity of forming elementary mathematical concepts in preschool children. It substantiates that the systematic development of mathematical concepts contributes to the enhancement of children's logical thinking, intellectual potential, and their cognitive and psychological readiness for school education. The findings emphasize the importance of developing elementary mathematical concepts as a key pedagogical task in preschool education.

Key words: preschool education, elementary mathematical concepts, numbers and counting, logical thinking, intellectual development.

Аннотация: В статье научно раскрываются педагогическая значимость, актуальность и необходимость формирования элементарных математических представлений у детей дошкольного возраста. Обосновывается, что системное развитие математических понятий способствует формированию логического мышления, повышению интеллектуального потенциала, а также когнитивной и психологической готовности детей к школьному обучению. Результаты исследования подтверждают, что формирование элементарных математических представлений является важной педагогической задачей дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, элементарные математические представления, числа и счёт, логическое мышление, интеллектуальное развитие.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi shaxs kamolotining muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning bilish jarayonlari, tafakkuri, nutqi va ijtimoiy ko'nikmalari jadal rivojlanadi. Ayniqsa, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bolalarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida bolalarning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida matematik tushunchalarni shakllantirish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bolaning doimiy ravishda jamoa orasida bo'lishi, uning jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish masalasi pedagogika fanida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. N. Axmedovaning Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi nomli asarida maktabgacha yosh davrida bolalarning bilish faoliyati, jumladan, matematik tushunchalarni egallashi keyingi ta'lim bosqichlari uchun muhim poydevor ekani asoslab berilgan. Muallif bolalarning son va sanoq, miqdor hamda fazoviy tasavvurlarini shakllantirishni maktabga tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi.

Irodaxon Najmiddin qizi Hasanovaning ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida ijtimoiy moslashuv va diagnostik yondashuvlarning ahamiyati keng yoritilgan. Uning Bolalarning ijtimoiy moslashuvi o'quv qo'llanmasi hamda diagnostik tizimni metodik takomillashtirishga bag'ishlangan monografiyasida bolalarning intellektual rivoji, mantiqiy fikrlashi va bilimlarni egallash darajasi tizimli pedagogik tashxis asosida rivojlantirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Hasanovaning maktabgacha va maktab ta'limi jurnalida chop etilgan maqolasida pedagogik diagnostikaning zamonaviy usullari orqali bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligini baholash masalalari tahlil qilingan. Maktabgacha ta'limga oid elektron ilmiy manbalarda ham matematik tasavvurlarni shakllantirishda didaktik o'yinlar, ko'rgazmali vositalar va amaliy mashqlardan foydalanish samaradorligi qayd etiladi. Ushbu ilmiy qarashlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida matematik tushunchalarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini o'rganish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, suhbat, diagnostik topshiriqlar hamda didaktik mashg'ulotlar jarayonida bolalarning faoliyatini tahlil qilish orqali olindi. Kuzatuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarning son va sanoq, shakl, miqdor, fazoviy va vaqt tushunchalarini egallash darajasini aniqlashga yo'naltirildi. Shuningdek, tarbiyachilar bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali amaliy tajriba va metodik yondashuvlar bo'yicha ma'lumotlar jamlandi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilish usullari asosida qayta ishlanib, bolalarning matematik tasavvurlarni o'zlashtirish darajasi hamda qo'llanilayotgan metodlarning samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mavzuning dolzarbligi jahon global muhitidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishning keng doirada o'sishi bilan izohlanadi. Ushbu jarayonlar, avvalo, ta'limga qaratilgan e'tiborning samarasi sifatida e'tirof etilmoqda. Germaniya, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Fransiya singari davlatlarda sifatli ta'limni aynan maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab jadal rivojlantirish hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash zaruriyati intellektual, jismonan sog'lom va ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan shaxslarni tarbiyalashga oid ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Elementar matematik tasavvurlar deganda bolalarda son, miqdor, shakl, hajm, fazoviy va vaqt tushunchalari haqidagi boshlang'ich bilimlar tushuniladi. Ushbu tushunchalar bolalarning atrof-muhitni idrok etishi va anglashida muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha yosh davrida matematik tasavvurlarni shakllantirish quyidagi jihatlari bilan dolzarb hisoblanadi:

- bolalarda mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- diqqat, xotira va tafakkurni mustahkamlaydi;
- kundalik hayotda uchraydigan oddiy muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi;
- maktab ta'limiga psixologik va intellektual tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida matematik tushunchalarni shakllantirish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Avvalo, boshlang'ich sinf matematika fanini o'zlashtirish darajasi bevosita maktabgacha davrda olingan bilim va ko'nikmalarga bog'liqdir.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish:

- bolalarda tartib, taqqoslash va guruhlash kabi intellektual amallarni rivojlantiradi;
- mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish qobiliyatini oshiradi;
- o'quv faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, matematik mashg'ulotlar jarayonida didaktik o'yinlar, ko'rgazmali vositalar hamda amaliy topshiriqlardan foydalanish bolalarning qiziqishini oshiradi va bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda quyidagi usullardan samarali foydalanish tavsiya etiladi:

- o'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar;
- ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallardan foydalanish;
- kundalik hayot bilan bog'liq amaliy mashqlar;
- savol-javob hamda muammoli vaziyatlar yaratish.

Mazkur usullar bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, bilimlarni ongli va mustahkam egallashga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu jarayon bolalarning intellektual rivojlanishi, mantiqiy fikrlashi hamda maktab ta'limiga tayyorgarligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois maktabgacha ta'lim amaliyotida matematik tushunchalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni.: https://lex.uz/ru/docs/-5841063
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ–3305-sonli qarori.: https://lex.uz/docs/-3362881
4. Axmedova N. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Toshkent, 2021.
5. Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. O'quv qo'llanma. – Namangan: "Sunrise-pro" nashriyoti, 2025. – 188 bet.
6. Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning diagnostik tizimini metodik takomillashtirish (katta va tayyorlov guruhlari misolida). Monografiya. – Namangan: "Sunrise-pro" nashriyoti, 2025. – 184 bet.
7. Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2025-yil, noyabr, 11-son.
8. https://maktabgacha-va-maktab-talimi
9. https://webofjournals.com/index.php/3/article/download/5078/5114/10014
10. https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/3793/3918

ELEKTROLITLARDA ELEKTR TOKI MAVZUSINI O‘QITISHDA NOTO‘G‘RI TASAVVURLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH METODIKASI

Xoliqov Qurbonboy To‘ychiyevich
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti
ORCID: 0000-0002-6916-7314

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektrolitlarda elektr toki (elektr o‘tkazuvchanlik, ionlar harakati, elektroliz va elektrod jarayonlari) mavzusini o‘qitishda yuzaga keladigan asosiy tushunchaviy qiyinchiliklar hamda laboratoriya mashg‘ulotlarida uchraydigan didaktik va texnik muammolar tahlil qilinadi. 2020–2025-yillarda olib borilgan raqamli simulyatsiya va laboratoriya tadqiqotlari hamda klassik konseptual ishlarga tayangan holda o‘quvchilarda keng tarqalgan noto‘g‘ri tasavvurlar – “elektronlar eritma orqali oqadi”, “ionlar faqat elektrod yaqinida harakatlanadi”, “anod va katod tushunchalari doimiy bo‘ladi” kabi qarashlarning shakllanish sabablari aniqlanadi va ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: elektrolitlarda elektr toki, elektr o‘tkazuvchanlik, ionlar harakati, elektroliz, elektrod jarayonlari, kontseptual qiyinchiliklar, noto‘g‘ri tasavvurlar, virtual laboratoriya, raqamli simulyatsiya, mikrolaboratoriya, analitik tahlil.

Abstract: This article analyzes the main conceptual difficulties encountered in teaching the topic of electric current in electrolytes (electrical conductivity, ion movement, electrolysis, and electrode processes), as well as the didactic and technical challenges associated with laboratory activities. Based on classical conceptual studies and the results of digital simulations and laboratory research conducted during 2020–2025, the study identifies the causes of common student misconceptions such as “electrons flow through the solution,” “ions move only near the electrodes,” and “the concepts of anode and cathode are constant,” and provides scientifically grounded explanations for these misunderstandings.

Key words: electric current in electrolytes, electrical conductivity, ion movement, electrolysis, electrode processes, conceptual difficulties, misconceptions, virtual laboratory, digital simulation, microlaboratory, analytical analysis.

Аннотация: В статье анализируются основные понятийные трудности, возникающие при обучении теме электрического тока в электролитах (электропроводность, движение ионов, электролиз и электродные процессы), а также дидактические и технические проблемы лабораторных занятий. На основе классических концептуальных исследований и результатов цифровых симуляций и лабораторных экспериментов, проведённых в 2020–2025 годах, выявляются причины распространённых у обучающихся ошибочных представлений, таких как “электроны проходят через раствор”, “ионы движутся только вблизи электродов”, “понятия анода и катода являются постоянными”, и даётся их научно обоснованное объяснение.

Ключевые слова: электрический ток в электролитах, электропроводность, движение ионов, электролиз, электродные процессы, концептуальные трудности, ошибочные представления, виртуальная лаборатория, цифровая симуляция, микролаборатория, аналитический анализ.

KIRISH

Elektrolitlarda elektr toki mavzusi maktab va oliy ta’lim fizika kursining “Elektr toki” bo‘limida eng murakkab va ko‘p chalkashiladigan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuda elektr tokini tashuvchi zarralar sifatida ionlarning yo‘naltirilgan harakati, zanjirdagi elektronlarning roli, elektrod sirtida kechadigan oksidlanish–qaytarilish reaksiyalari hamda eritma ichidagi zaryad tashuvchilarning migratsiyasi bir vaqtning o‘zida tushuntiriladi. Mazkur jarayonlarning ko‘plab bosqichlari mikrodarajada kechishi va bevosita kuzatilmasligi o‘quvchilarda barqaror va chuqur kontseptual tasavvurning shakllanishini qiyinlashtiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar elektrokimyoviy jarayonlarni ko‘pincha metall o‘tkazgichlardagi elektr toki analogiyasi orqali talqin qiladilar, natijada ionlar va elektronlarning funksional rollarini bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Ayniqsa, anod va katod tushunchalarini kontekstga bog‘liq holda ajrata olmaslik, elektrolitik va galvanik jarayonlar o‘rtasidagi farqni tushunmaslik keng tarqalgan kontseptual muammolardan biri sifatida qayd etiladi [9, 21, 22].

Amaliy mashg‘ulotlar orqali mazkur mavzuni o‘qitish nazariy jihatdan samarali ko‘rinsa-da, amalda laboratoriya mashg‘ulotlari ko‘pincha kutilgan kontseptual natijani bermaydi. O‘quvchi tajriba jarayonini kuzatadi,

lampochkaning yonishi, gaz ajralishi yoki elektrod massasining o‘zgarishini ko‘radi, biroq ushbu hodisalarning fizik mohiyati va sabab–oqibat bog‘lanishini izohlashda qiyinchilikka duch keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, laboratoriya mashg‘ulotlarida e’tibor ko‘pincha tajribani bajarish ketma-ketligiga qaratilib, natijalarni tushuntirish va umumlashtirish ikkinchi darajaga tushib qoladi [1, 10, 31, 32]. Abrahams va Millar laboratoriya ishlari o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlagan taqdirda ham, agar ular nazariy tushunchalar bilan uzviy bog‘lanmasa, chuqur o‘zlashtirishga olib kelmasligini ta’kidlaydilar [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektrolitlarda tok bo‘yicha tipik noto‘g‘ri tasavvurlar. Elektrolitlarda elektr tokini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda shakllanadigan noto‘g‘ri tasavvurlar mazkur mavzuni o‘zlashtirishdagi eng barqaror va murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Elektrokimyo bo‘yicha o‘tkazilgan klassik intervyu va diagnostik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar ko‘pincha elektrolitlarda tok o‘tishini metall o‘tkazgichlardagi elektr toki modeli asosida tushuntiradilar. Natijada tokni “eritma ichida harakatlanayotgan elektronlar oqimi” sifatida tasavvur qilish holati keng tarqalgan bo‘lib, ionlarning zaryad tashuvchi sifatidagi haqiqiy roli yetarlicha anglanmaydi [4, 9]. Bunday yondashuvda ionlar faqat “musbat” yoki “manfiy” belgiga ega zarralar sifatida qaralib, ularning elektr maydon ta’sirida yo‘naltirilgan harakati hamda elektrod sirtidagi reaksiyalar bilan bog‘liqligi ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi.

Shuningdek, tadqiqotlarda anod va katod tushunchalarining kontekstga bog‘liqligi ham o‘quvchilar uchun jiddiy qiyinchilik tug‘dirishi aniqlangan. O‘quvchilar ushbu elektrodlarni doimiy ravishda “musbat anod” va “manfiy katod” sifatida yodlab olishga moyil bo‘lib, elektrolitik va galvanik jarayonlar o‘rtasidagi farqni ajrata olmaydilar. Bu holat elektroliz jarayonida sodir bo‘ladigan oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi va elektr zanjirining umumiy ishlash mexanizmi buzilgan model asosida tushuniladi [9].

Sanger va Greenbowe tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aynan suvli eritmalar kontekstida ushbu noto‘g‘ri tasavvurlar chuqur tahlil qilingan [21, 22]. Mualliflar o‘quvchilarning elektr zanjiri modelini noto‘g‘ri qurishini, ya’ni eritma ichida elektronlarning uzluksiz oqimi mavjud, degan tasavvur ustun ekanini ko‘rsatadilar. Bunday modelda zanjirdagi elektronlar va eritmadagi ionlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish tushunilmaydi, natijada elektrolitlarda tok o‘tishining fizik mohiyati yuzaki va fragmentar tarzda o‘zlashtiriladi [21].

Virtual va masofaviy laboratoriyalar: samaradorlik va qo‘llash shartlari. So‘nggi o‘n yillikda virtual va masofaviy laboratoriyalardan foydalanish fizika ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu yondashuvlarning samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan keng ko‘lamli sharh va meta-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab taqqoslov tadqiqotlarda virtual yoki masofaviy laboratoriyalar asosida o‘qitilgan o‘quvchilar kamida an’anaviy laboratoriyalar bilan teng, ayrim hollarda esa yuqoriroq o‘quv natijalariga erishgan [5, 33, 34, 35]. Bunday natijalar, ayniqsa, murakkab va bevosita kuzatilmaydigan jarayonlarni (masalan, ionlar harakati, elektr maydon ta’siri, mikrodarajadagi o‘zaro ta’sirlar) o‘rganishda virtual muhitning vizual va dinamik imkoniyatlari bilan izohlanadi.

VR va immersiv muhitlar: ehtiyotkorlik bilan qo‘llash zarurati. So‘nggi yillarda immersiv virtual reallik (VR) texnologiyalari fizika ta’limida yuqori qiziqish va motivatsiya uyg‘otuvchi vosita sifatida keng qo‘llanila boshladi. Tadqiqotlar VR muhitlari o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, tajribaga “ichidan qarash” imkonini berishi va murakkab jarayonlarni jonli tasavvur qilishga yordam berishini ko‘rsatadi [13]. Ayniqsa, mikrodarajada kechadigan va bevosita kuzatilmaydigan jarayonlar, jumladan ionlar harakati hamda elektrod sirtidagi reaksiyalarni vizual namoyish qilishda VR muhitlari katta didaktik salohiyatga ega.

Analitik tahlil: “kim nimani tushunmadi?”ni aniqlash imkoniyati. Virtual va masofaviy laboratoriyalarni qo‘llash bilan bog‘liq muhim afzalliklardan biri o‘quvchilarning faoliyati haqidagi batafsil raqamli ma’lumotlarni to‘plash imkoniyatidir. Virtual laboratoriyalarda avtomatik tarzda shakllanadigan faoliyat jurnallari o‘quvchining tajribani bajarishga sarflagan vaqti, bajarish ketma-ketligi hamda yo‘l qo‘ygan xato turlari haqida aniq ma’lumot beradi. Ushbu ma’lumotlar o‘quvchining kontseptual muammolarini “ko‘rinadigan” holga keltirib, o‘qituvchiga faqat yakuniy natijani emas, balki o‘rganish jarayonining o‘zini ham tahlil qilish imkonini yaratadi.

Elmoazen va Saqr tomonidan o‘tkazilgan virtual laboratoriyalar bo‘yicha analitik tahlilga oid tizimli sharhda ushbu yondashuvning diagnostik salohiyati alohida ta’kidlanadi [8]. Mualliflar analitik tahlil vositalari yordamida qaysi bosqichda o‘quvchi adashgani, qaysi tushuncha noto‘g‘ri shakllangani va qaysi xatolar takrorlanayotganini aniqlash mumkinligini ko‘rsatadilar. Bu, ayniqsa, elektrolitlarda elektr toki mavzusida muhim ahamiyatga ega, chunki noto‘g‘ri tasavvurlar ko‘pincha yashirin bo‘lib, an’anaviy testlar orqali to‘liq aniqlanmaydi.


Shuningdek, analitik tahlil individual va differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. O‘qituvchi umumiy sinf uchun emas, balki aniq o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi uchun moslashtirilgan tushuntirish va qayta o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin. Shu tariqa analitik tahlil virtual laboratoriyalarni shunchaki ko‘rgazmali vosita emas, balki chuqur diagnostika va pedagogik qaror qabul qilish vositasiga aylantiradi.

Model tuzilishi va mohiyati. Mazkur tadqiqotda elektrolitlarda elektr toki mavzusini o‘qitishda aniqlangan kontseptual va laboratoriya muammolarini bartaraf etishga qaratilgan yangi metodik yechim sifatida BKTMT yondashuvi taklif etiladi. BKTMT modeli vascak.cz (Physics at School) platformasidagi animatsiyalar, real laboratoriya tajribalari hamda o‘quv faoliyatini tahlil qilishga asoslangan analitik tahlil vositalarini yagona didaktik tizimda birlashtiruvchi gibrid dizayn hisoblanadi. Modelning asosiy g‘oyasi o‘quvchini passiv kuzatuvchidan faol tadqiqotchiga aylantirish, mavjud noto‘g‘ri mental modellarni aniqlash va ularni ilmiy jihatdan to‘g‘ri modellar bilan almashtirishdan iborat.

Modelning mantiqiy yadrosi. BKTMT yondashuvi besh o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich elektrolitlarda elektr toki mavzusidagi muayyan didaktik vazifani bajaradi.

Bashorat qilish bosqichida o‘quvchi tajriba yoki hodisa natijasi haqida oldindan taxmin bildiradi. Masalan, “Nega tuzli suv elektr tokini o‘tkazadi, distillangan suv esa o‘tkazmaydi?” kabi savollar orqali o‘quvchining mavjud bilimlari va yashirin noto‘g‘ri tasavvurlari yuzaga chiqariladi. Ushbu bosqich diagnostik ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi faoliyat uchun kognitiv zamin yaratadi.

Kuzatish bosqichida o‘quvchi vascak.cz platformasidagi “Suyuqliklarda elektr toki” bo‘limi orqali ionlarning yo‘naltirilgan harakati, elektrod sirtida sodir bo‘ladigan jarayonlar va elektr zanjirining ishlashini dinamik tarzda kuzatadi [29].



1-rasm: **Rasm. vascak.cz platformasidagi “Suyuqliklarda elektr toki” simulyatsiyasi**[1]

Virtual animatsiya real tajribada bevosita ko‘rib bo‘lmaydigan mikrodarajali jarayonlarni vizual ravishda namoyish etib, o‘quvchining bashoratlarini faktlar bilan solishtirish imkonini beradi.

Tushuntirish bosqichida o‘quvchi kuzatilgan hodisalarni muhokama qiladi va ularni fizik qonunlar asosida izohlashga harakat qiladi. Ushbu jarayonda “Bashorat qilish – Kuzatish – Izohlash” strategiyasiga tayangan holda guruhiy yoki sinfiy muhokama tashkil etiladi. O‘qituvchi muhokama jarayonida o‘quvchilarning noto‘g‘ri izohlarini aniqlaydi va ilmiy jihatdan asossiz bo‘lgan modellarni ochib tashlab, ularni to‘g‘ri tushunchalar bilan almashtirishga yo‘naltiradi.

Modellashtirish bosqichi BKTMT yondashuvining markaziy komponenti bo‘lib, unda elektrolitlarda elektr toki jarayoni uch darajada – makro, mikro va simvolik – bog‘lanishda ifodalanadi. Makrodarajada o‘quvchilar tajribada kuzatiladigan belgilarni, masalan, gaz pufakchalarining ajralishi, elektrod massasining o‘zgarishi yoki indikator rangining almashishini tahlil qiladilar. Mikrodarajada kation va anionlarning elektr maydon ta’sirida yo‘naltirilgan migratsiyasi hamda elektrod sirtida elektronlarning uzatilishi ko‘rib chiqiladi. Simvolik darajada esa yarim-reaksiyalar, zaryad balansi va stoixometrik nisbatlar orqali jarayon matematik va kimyoviy ifodalanadi. Ushbu uch darajali modellashtirish o‘quvchilarga alohida faktlarni emas, balki yaxlit ilmiy modelni shakllantirish imkonini beradi.

Tahlil bosqichida o‘quvchilarning o‘rganish jarayoni mini-nazorat testlari va virtual muhitda to‘plangan faoliyat jurnallari asosida tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda qaysi o‘quvchi qaysi tushunchada xato qilgani, qaysi bosqichda adashgani va qaysi noto‘g‘ri tasavvur barqaror qolganini aniqlash mumkin bo‘ladi. Analitik tahlil vositalari o‘qituvchiga individual va differensial yondashuvni amalga oshirish, zarur hollarda maqsadli qayta tushuntirish yoki qo‘shimcha topshiriqlar berish imkonini yaratadi.

BKTMT modeli elektrolitlarda elektr toki mavzusini o‘qitishda bashorat qilish, kuzatish, tushuntirish, modellashtirish va tahlil qilish jarayonlarini uzviy bog‘lab, real va virtual ta’lim muhitlarining kuchli tomonlarini birlashtiradi. Ushbu yondashuv nafaqat kontseptual xatolarni kamaytirish, balki o‘quvchilarning ilmiy fikrlash, tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1 https://www.vascak.cz/data/android/physicsatschool/templateimg.php?s=elkap_disociace&l=uz

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot boshlang'ich va yakuniy testlarga asoslangan kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi. Unda ikki guruh taqqoslandi:

- tajriba guruhi BKTMT (Bashorat–Kuzatish–Tushuntirish–Modellashtirish–Tahlil) yondashuvi asosida, ya'ni vascak.cz animatsiyalari, real mikrolaboratoriya tajribalari va analitik tahlil integratsiyasi orqali o'qitildi;
- nazorat guruhi esa an'anaviy usulda – ma'ruza va oddiy laboratoriya mashg'ulotlari (animatsiyasiz) shaklida ta'lim oldi.

Mazkur dizayn o'qitish yondashuvining o'quv natijalariga ta'sirini obyektiv baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda jami 50 nafar talaba ishtirok etdi va ular teng ravishda tajriba hamda nazorat guruhlariga (har bir guruhda 25 nafardan talaba) ajratildi. Tadqiqot boshida o'tkazilgan boshlang'ich test natijalari asosida guruhlarning dastlabki bilim darajalari taqqoslandi va ular o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq mavjud emasligi aniqlandi.

Tadqiqot ikki hafta davomida amalga oshirildi: birinchi haftada barcha ishtirokchilarga boshlang'ich test o'tkazildi, shundan so'ng tajriba guruhi BKTMT yondashuvi asosida, nazorat guruhi esa an'anaviy usulda mashg'ulotlarni davom ettirdi. Ikkinchi haftada yakuniy test o'tkazilib, kontseptual o'zlashtirish darajasidagi o'zgarishlar qayd etildi. Natijalarning barqarorligini tekshirish maqsadida ayrim hollarda kechiktirilgan test ham qo'llandi.

Asosiy statistik tahlildan tashqari, kontseptual test savollariga berilgan javoblar eng ko'p uchraydigan noto'g'ri tasavvurlar bo'yicha guruhlanib, BKTMT yondashuvining qaysi kontseptual "muammo nuqtalari"ga kuchliroq ta'sir ko'rsatganini aniqlash uchun qisqa diagnostik tahlil amalga oshirildi.

1-jadval: **Elektrolitlarda elektr toki bo'yicha asosiy noto'g'ri tasavvurlar va ularning kamayishi**

Noto'g'ri tasavvur kategoriyasi	Tipik noto'g'ri fikr	Boshlang'ich test(%)	Yakuniy test(%)	Izoh
Elektronlar eritma orqali oqadi	"Tok eritma ichida elektronlar bilan oqadi"	Yuqori	Past	Ion modeli bilan almashtirildi
Ionlar faqat "belgi"	Ionlar faqat +/- belgisi, harakat muhim emas	Yuqori	O'rtacha	Animatsiya ta'siri sezildi
Anod = musbat doim	Anod har doim musbat elektrod	Yuqori	Past	Kontekstga bog'liqlik tushuntirildi
Elektroliz mahsulotlari	Gaz qayerdan chiqishini noto'g'ri tushunish	O'rtacha	Past	Yarim-reaksiyalar yordam berdi
Tok faqat metall orqali	Eritma "faqat yopuvchi muhit"	Yuqori	Past	Zanjir modeli tuzatildi

Ushbu qisqa tahlil BKTMT yondashuvi ayniqsa ionlar harakati, anod–katod tushunchalarining kontekstual talqini hamda elektr zanjiri modeli bilan bog'liq noto'g'ri tasavvurlarni kamaytirishda samaraliroq bo'lganini ko'rsatdi. Natijalar analitik tahlil va Bashorat–Kuzatish–Tushuntirish (BKT) muhokama bosqichlari o'quvchilarning mavjud noto'g'ri modellarini aniqlash va ularni ilmiy jihatdan to'g'ri modellar bilan almashtirishga xizmat qilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu tahlil chuqur kontent kodlashni ko'zlamagan bo'lib, keyingi tadqiqotlarda kengaytirish mumkin bo'lgan yo'nalish sifatida qaraladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari BKTMT yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'zlashtirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi. Boshlang'ich test natijalariga ko'ra, tajriba guruhi ($M = 7.84$, $SD = 2.11$) va nazorat guruhi ($M = 7.67$, $SD = 2.05$) o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($t(48) = 0.29$, $p > 0.05$), bu esa guruhlarning boshlang'ich bilim darajasi bo'yicha taqqoslanishini tasdiqlaydi.

Yakuniy test natijalarida esa sezilarli tafovut kuzatildi. Tajriba guruhining o'rtacha bali $M = 13.92$ ($SD = 1.88$) ga yetgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich $M = 10.41$ ($SD = 2.02$) ni tashkil etdi. Mustaqil tanlamalar uchun t-test natijalari guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko'rsatdi ($t(48) = 6.21$, $p < 0.001$).

Guruh ichidagi o‘zgarishlar tahlili ham muhim natijalarni ko‘rsatdi. Tajriba guruhida boshlang‘ich test va yakuniy test o‘rtasida kuchli o‘sish kuzatilib, juft t-test natijasiga ko‘ra farq ahamiyatli bo‘ldi ($t(24) = 11.03$, $p < 0.001$). Nazorat guruhida ham ma’lum darajada o‘sish qayd etildi ($t(24) = 4.17$, $p < 0.01$), biroq bu o‘sish tajriba guruhiga nisbatan ancha past bo‘ldi.

5-bandda keltirilgan noto‘g‘ri tasavvurlar bo‘yicha qisqa tahlil statistik natijalarni mazmunan izohlab beradi. Xususan, tajriba guruhida “elektronlar eritma orqali oqadi” va “anod har doim musbat bo‘ladi” kabi barqaror noto‘g‘ri tasavvurlar post-test natijalarida keskin kamaygani kuzatildi. Ushbu holat vascak.cz animatsiyalarida ionlarning yo‘naltirilgan harakati va elektrod sirtida kechadigan jarayonlarning vizual namoyishi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “elektroliz mahsulotlari qayerda va nima sababdan hosil bo‘ladi” mavzusidagi xatolar ayniqsa “Model” bosqichida yarim-reaksiyalarni yozish orqali samarali kamaydi. Bu natija BKTMT yondashuvida makro–mikro–simvolik modellashtirish markaziy rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida esa ayrim noto‘g‘ri tasavvurlar post-testda ham saqlanib qolgani an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarining kontseptual o‘zgarishlarni ta’minlash uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot elektrolitlarda elektr toki mavzusini o‘qitishda uchraydigan kontseptual va laboratoriya muammolarini bartaraf etishda BKTMT yondashuvining samaradorligini empirik dalillar asosida tasdiqladi. Kvazi-eksperimental boshlang‘ich va yakuniy test natijalari tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning kontseptual noto‘g‘ri tasavvurlarini to‘liq bartaraf etish uchun yetarli emas. Aksincha, real laboratoriya tajribalarini vascak.cz animatsiyalari bilan uyg‘unlashtirish, BKT muhokama mexanizmlari orqali o‘quvchilarning noto‘g‘ri modellarini aniqlash va analitik tahlil asosida diagnostika qilish elektrolitlarda elektr toki kabi murakkab mavzularni chuqurroq o‘zlashtirishga imkon beradi.

Shuningdek, noto‘g‘ri tasavvurlar tahlili BKTMT yondashuvi ayniqsa ionlarning roli, anod–katod tushunchalarining kontekstga bog‘liqligi hamda elektr zanjiri modeli bilan bog‘liq xatolarni kamaytirishda samaraliroq ekanini ko‘rsatdi. Bu holat modelning makro–mikro–simvolik modellashtirishga asoslangan yadrosi o‘quvchilarda yaxlit ilmiy tushuncha shakllanishiga xizmat qilganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abrahams, I., & Millar, R. (2008). Does practical work really work? A study of the effectiveness of practical work as a teaching and learning method in school science. International Journal of Science Education, 30(14), 1945–1969. https://doi.org/10.1080/09500690701749305
2. Basheer, A., Gulacar, O., & Mansour, N. (2025). Analyzing the impact of simulations on eighth graders’ academic performance, motivation, and perception of classroom climate in science classrooms. Education Sciences, 15(12), 1629. https://doi.org/10.3390/educsci15121629
3. Black, P., & Wiliam, D. (2009). Developing the theory of formative assessment. Educational Assessment, Evaluation and Accountability, 21(1), 5–31. https://doi.org/10.1007/s11092-008-9068-5
4. Brandriet, A. R., & Bretz, S. L. (2014). Measuring meta-ignorance through the lens of confidence: Examining students’ redox misconceptions about oxidation numbers, charge, and electron transfer. Chemistry Education Research and Practice, 15(4), 729–746. https://doi.org/10.1039/C4RP00129J
5. Brinson, J. R. (2015). Learning outcome achievement in non-traditional (virtual and remote) versus traditional (hands-on) laboratories: A review of the empirical research. Computers & Education, 87, 218–237. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2015.07.003
6. Garnett, P. J., & Treagust, D. F. (1992). Conceptual difficulties experienced by senior high school students of electrochemistry: Electric circuits and oxidation–reduction equations. Journal of Research in Science Teaching, 29(10), 1079–1099. https://doi.org/10.1002/tea.3660291006
7. Hofstein, A., & Lunetta, V. N. (2004). The laboratory in science education: Foundations for the twenty-first century. Science Education, 88(1), 28–54. https://doi.org/10.1002/sce.10106
8. Keller, C., Durfee, D., McKagan, S. B., & Perkins, K. K. (2021). Supporting inquiry-based learning with PhET simulations: Design principles and classroom strategies. Journal of Chemical Education, 98(4), 1203–1213. https://doi.org/10.1021/acs.jchemed.0c01028
9. Kolil, V. K., Muthupalani, S., & Achuthan, K. (2020). Virtual experimental platforms in chemistry education: A review. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 17, 16. https://doi.org/10.1186/s41239-020-00181-y
10. Moore, E. B., Herzog, T. A., & Perkins, K. K. (2014). Interactive simulations as conceptual models in chemistry instruction. Journal of Chemical Education, 91(8), 1191–1197. https://doi.org/10.1021/ed400887w

11. Muilwijk, N., & Lazonder, A. W. (2023). Learning from physical and virtual investigation: A meta-analysis of conceptual knowledge acquisition. Frontiers in Education, 8, 1163024. https://doi.org/10.3389/feduc.2023.1163024
12. Murniningsih, M., Muna, K., & Irawati, R. K. I. (2020). Analysis of misconceptions by four-tier tests in electrochemistry. Journal of Physics: Conference Series, 1440, 012008. https://doi.org/10.1088/1742-6596/1440/1/012008
13. Petersen, G. B., Petkakis, G., & Makransky, G. (2022). A study of how immersion and interactivity drive VR learning. Computers & Education, 179, 104429. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2021.104429
14. Rutten, N. P. G., van Joolingen, W. R., & van der Veen, J. T. (2012). The learning effects of computer simulations in science education. Computers & Education, 58(1), 136–153. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2011.07.017
15. Sanger, M. J., & Greenbowe, T. J. (1997a). Common student misconceptions in electrochemistry: Galvanic, electrolytic, and concentration cells.
16. Bell, P., & Volckmann, D. (2011). Knowledge surveys in general chemistry: Confidence, overconfidence, and performance. Journal of Chemical Education, 88(11), 1469–1476. https://doi.org/10.1021/ed100328c
17. Vaščák, V. (n.d.). Physics at School – Physics Animations/Simulations (Electric current in liquids, electrolysis). https://www.vascak.cz/physicsanimations.php
18. Kholiqov, K. T. (2025). The current state of digitalization content in physics education at pedagogical higher education institutions. American Journal of Open University Education, ISSN 2997-3899, 2(3), 122–128. https://scientificbulletin.com/index.php/AJOUP/article/view/776
19. Xoliqov, Q. T. (2025). Theoretical foundation for developing the education system based on digital technologies. Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar, 2(20), 74–81. https://uzresearch1.uz/index.php/FJI/article/view/278/294

MEDIATA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MILLIY TARBIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi
Yangi asr universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mediata'lim imkoniyatlaridan foydalanish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiyaga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatini rivojlantirish masalasi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Milliy tarbiya mazmunini mediamuhit bilan uyg'unlashtirish orqali bo'lajak pedagoglarda axborotni tanqidiy idrok etish, milliy qadriyatlarni mediamatnlar orqali yetkazish hamda tarbiyaviy jarayonni zamonaviy vositalar asosida tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari mediata'lim texnologiyalarini pedagogik tayyorgarlik tizimiga integratsiya qilish milliy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mediata'lim, milliy tarbiya, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, mediakompetentlik, tarbiyaviy faoliyat.

Abstract: The article provides a scientific analysis of the development of the professional activities of future primary school teachers focused on national education through the use of media education opportunities. By integrating the content of national education with the media environment, the methodological foundations for developing future teachers' skills in critical information perception, conveying national values through media texts, and organizing the educational process using modern tools are revealed. The research findings demonstrate that integrating media education technologies into the pedagogical training system contributes to enhancing the effectiveness of national education.

Key words: media education, national education, primary education, future teacher, media competence, educational activity.

Аннотация: В статье научно анализируется проблема развития профессиональной деятельности будущих учителей начальных классов, ориентированной на национальное воспитание, на основе использования возможностей медиаобразования. Путём интеграции содержания национального воспитания с медиасредой раскрываются методические основы формирования у будущих педагогов навыков критического восприятия информации, передачи национальных ценностей через медиатексты, а также организации воспитательного процесса с использованием современных средств. Результаты исследования показывают, что интеграция технологий медиаобразования в систему педагогической подготовки способствует повышению эффективности национального воспитания.

Ключевые слова: медиаобразование, национальное воспитание, начальное образование, будущий учитель, медиакомпетентность, воспитательная деятельность.

KIRISH

Axborot asrida fan-texnika taraqqiyoti nihoyatda yuksak bosqichga ko'tarildi. Shunga monand ravishda barcha sohalar jadal rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda biror soha faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Jumladan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda ham ushbu texnologiyalar muhim omillardan biriga aylanmoqda. Elektron aloqa vositalari, internet va sun'iy yo'ldoshlar ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan sur'atlarda rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining keskin ortishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, raqamli muhitda ulg'ayayotgan bolalarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ma'naviy yo'nalishlariga ommaviy axborot vositalarining ta'siri kuchayib borayotgan sharoitda boshlang'ich sinf o'qituvchisining tarbiyaviy roli yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kun tolibi ilmlarini darslarga qiziqtirib o'qitish tobora murakkab jarayonga aylanib bormoqda. Chunki yoshlar texnika-texnologiyalar rivojlangan zamonda tug'ilib, voyaga yetmoqda. Shu sababli ularni kompyuter, telefon, televizor va boshqa axborot texnikalaridan ajratib olish muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, jumladan, multimediyali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interfaol aloqalarni ta'minlashdan iboratdir. Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediata'lim asosida milliy tarbiyani takomillashtirish darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mediata'lim mahalliy va xorijiy pedagogikada bir necha o'n yillar davomida rivojlanib kelayotgan maxsus pedagogik yo'nalish hisoblanadi. Biroq tashqi muhitdagi o'zgarishlar va media olamidagi yangilanishlar tufayli mediata'lim o'quv moduli sifatida doimiy ravishda takomillashib, yangi yo'nalishlarni egallab bormoqda.

O'zbekistonda mediata'limga 2020-yildan boshlab alohida e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi davridan boshlab aholining onlayn ishlashga va masofaviy ta'lim formatida bilim olishga bo'lgan faolligi oshdi. Odamlar an'anaviy ommaviy axborot vositalariga nisbatan yangi media imkoniyatlaridan kengroq foydalana boshladilar. Mazkur jarayonda aholining yolg'on va ishonchsiz axborotlarga tez-tez duch kelishi mediata'limga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga, asosan, gumanitar ta'lim yo'nalishlarida yangi fan sifatida "Mediata'lim asoslari" kiritildi. Ushbu fan jurnalistika va media sohalarida tahsil olayotgan talabalar uchun ham o'quv dasturiga joriy etildi.

"Media" atamasi XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo'llanilgan. Mediata'lim yoshlarda mediamadaniyat va mediasavodxonlikni shakllantirib, ularning ma'naviy-estetik hamda intellektual rivojlanishiga, nutqiy faoliyati, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarining rivojiga xizmat qiladi.

Mutaxassislar fikricha, mediata'lim o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ijodiy faoliyatni rivojlantirishga, axborotni qabul qilish, qayta ishlash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Milliy tarbiyani takomillashtirish jarayonida mediata'lim qanchalik mukammal tashkil etilsa, yosh avlodning dunyoqarashi va intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi. Shu bois mediata'limning nazariy asoslarini puxta o'rganish va uni amaliyotda samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya jarayonlarining globallashuvi sharoitida ta'lim tizimi oldida yangi talablar yuzaga kelmoqda. Ushbu talablar bevosita mediata'lim bilan chambarchas bog'liqdir.

Ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish mashg'ulotlarni interfaol rejimda tashkil etish imkonini beradi. Multimedia (inglizcha multi – ko'p, media – muhit) turli ko'rinishdagi axborotlar – matn, tasvir, ovoz, video va animatsiyalarning yaxlit birikmasidir. Uzluksiz ta'lim tizimida ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etishga xizmat qiladi. Mazkur jarayondagi samaradorlik esa o'qituvchilarning bilimi, malakasi, kasbiy mahorati, ijodiy salohiyati va pedagogik madaniyatiga, shuningdek, dars jarayonida zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish faolligiga bevosita bog'liqdir.

Milliy tarbiyani shakllantirish jarayonida faqat an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilardan mediamuhitda erkin harakatlana olish, axborotni tahlil qilish, uni milliy g'oya va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib talqin etish qobiliyati talab etilmoqda. Shu ma'noda mediata'lim milliy tarbiyani amalga oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [1]. Media vositalari orqali o'quvchi yoshlar turli g'oyalar va qarashlar bilan tanishib, o'z fikrlarini shakllantirish hamda o'zaro mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mediata'limning ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy yo'nalishda rivojlanishi yoshlarning falsafiy qarashlarini kengaytirishga, ularda adolatli va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy tarbiya masalasi o'zbek pedagogik tafakkurida muhim o'rin tutib, uning nazariy asoslari jadidchilik davridayoq shakllangan. Xususan, Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani shaxs kamolotining poydevori sifatida talqin etib, unda milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ma'naviy mas'uliyatning ustuvor ahamiyatini asoslab bergan. Muallif ta'lim va tarbiya uyg'unligini pedagogik jarayonning ajralmas sharti sifatida ko'rsatib, o'qituvchining jamiyat va millat oldidagi mas'uliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu qarashlar bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida milliy tarbiyani zamonaviy sharoitda tashkil etishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida mediata'lim masalalari xalqaro va milliy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. YuNESKO tomonidan ishlab chiqilgan "Media and Information Literacy Framework" hujjatida mediata'lim shaxsning tanqidiy fikrlashi, axborot madaniyati va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim vositasi sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv mediata'limni tarbiyaviy jarayon bilan uzviy bog'lash imkonini beradi. O'zbek olimasi D.R. Fayzullaeva "Mediata'lim va pedagogik amaliyot" asarida mediata'lim vositalarini pedagogik tayyorgarlik jarayoniga integratsiya qilish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini ilmiy asoslab bergan. Ushbu tadqiqotlar mediata'limni milliy tarbiya bilan uyg'unlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiyaga oid faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni ilmiy asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun:

- milliy tarbiya va mediata'lim tushunchalarining pedagogik mazmuni tahlil qilindi;
- bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligi va tarbiyaviy faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi;
- mediata'lim vositalaridan foydalanishga asoslangan metodik model ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma hamda tajriba-sinov usullaridan foydalanildi.

Milliy tarbiya shaxsni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Uning mazmuni xalq pedagogikasi, milliy an'analar, ma'naviy meros va tarixiy xotira bilan uzviy bog'liqdir [2].

Mediata'lim esa shaxsning mediamatnlarni ongli ravishda qabul qilish, tahlil etish va ular orqali uzatilayotgan g'oyalarni baholash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyat hisoblanadi. YuNESKO konsepsiyasida mediata'lim fuqarolik pozitsiyasi va madaniy identifikatsiyani shakllantirish vositasi sifatida e'tirof etilgan [3]. Mediata'lim barcha ta'lim sohalarini sifat jihatidan yanada yuqori pog'onaga ko'tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ya'ni, o'quv jarayonida nazariy bilim berish bilan bir qatorda o'quv materiallarini zamonaviy texnik vositalar orqali yuqori darajada namoyish etish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur yondashuv, ta'bir joiz bo'lsa, ilg'or usul sifatida talabalarda, xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quv jarayoniga nisbatan qiziqish uyg'otadi hamda dars mavzularini puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi. Manbalarda qayd etilishicha, YuNESKO qoshidagi kino va televideniya bo'yicha xalqaro kengash tomonidan 1973-yil birinchi martda video ta'limga quyidagicha ta'rif berilgan: "Mediata'lim deganda pedagogika nazariyasi va amaliyotida maxsus bilim sohasi sifatida qaralayotgan ommaviy kommunikatsiya vositalarini egallash uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish tushuniladi".

Shu nuqtai nazardan, milliy tarbiyani mediata'lim bilan integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodika quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi:

- milliy mazmundagi mediamateriallardan (video, infografika, multimedia taqdimotlar) foydalanish;
- talabalarning mediamatnlarni tahlil qilish hamda ulardagi g'oyaviy yo'nalishlarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- tarbiyaviy mashg'ulotlarda interaktiv mediavositalardan foydalanish.

Tajriba-sinov ishlari natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiyaga oid faoliyatida ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatdi. Jumladan, ularning milliy qadriyatlarga munosabati, tarbiyaviy tashabbuskorligi hamda mediavositalardan maqsadli foydalanish ko'nikmalari sezilarli darajada oshdi.

Olingan natijalar mediata'lim vositalaridan foydalanish milliy tarbiya mazmunini zamonaviy talablar asosida boyitish imkonini berishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mediata'limni samarali qo'llash uchun pedagoglarda axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yetarli darajada shakllangan bo'lishi lozim [4]. Media ta'limning izchil va tizimli shakli bugungi kunda zaruratga aylanib, uni ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqish talab etilmoqda. Media savodxonlik esa zamonaviy fuqarolik jamiyatining ajralmas va majburiy shartlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiyaviy faoliyatini takomillashtirish bugungi globallashuv sharoitida muhim pedagogik zaruratlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy tarbiya usullarini zamonaviy media-texnologiyalar imkoniyatlari bilan integratsiya qilish o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, milliy qadriyatlarning yanada chuqur va ta'sirchan singdirilishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning media-ma'rifiy ko'nikmalarini rivojlantirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Bo'lajak o'qituvchilarda milliy qadriyatlarni zamonaviy "Alfa avlodi" tilida, ya'ni vizual va raqamli kontentlar orqali yetkazish mahorati shakllanadi.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yot g'oyalarga qarshi "axborot immuniteti"ni shakllantirishning samarali metodik mexanizmlari yaratiladi.
3. Milliy tarbiya jarayoni quruq nazariy yondashuvdan voz kechib, jonli, interfaol va ta'sirchan media-muhit asosida tashkil etiladi.

Mazkur yo'nalishdagi metodikalarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish nafaqat bilimli mutaxassisni, balki o'zligini anglagan, milliy g'oyaga sodiq hamda axborot xurujlariga qarshi tura oladigan komil insonni tarbiyalashning mustahkam garovi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim sifatini mazmunan yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Farzandlarimiz ta'lim-tarbiya jarayonida har qanday axborotning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotdan to'g'ri foydalanishlari, uni tanlay bilishlari hamda har bir ma'lumotga tanqidiy yondashishni o'rganishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari. – Toshkent, 2020.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. UNESCO. Media and Information Literacy Framework. – Parij, 2018.
4. Fayzullaeva D.R. Mediata'lim va pedagogik amaliyot. – Samarqand, 2022.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETILGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA MONTESSORI METODIKASINING UYG'UNLIGI



Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi
Navoiy davlat universiteti magistranti



Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonida Montessori metodikasidan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda Montessori metodikasining asosiy tamoyillari, inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishdagi imkoniyatlari hamda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning ijtimoiylashuvi va mustaqil shaxs sifatida rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari Montessori metodikasining inklyuziv ta'lim tamoyillari bilan uyg'unligini hamda uning maktabgacha ta'lim tizimida samarali pedagogik yondashuv ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, Montessori metodikasi, maktabgacha ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar, pedagogik muhit.

Abstract: This article examines the pedagogical significance of applying the Montessori methodology in the implementation of inclusive education within preschool institutions. The study analyzes the core principles of the Montessori approach, its potential in creating an inclusive learning environment, and its impact on the socialization and independent development of children with diverse educational needs. The findings indicate that the Montessori methodology is closely aligned with the principles of inclusive education, emphasizing child-centered learning, an individual pace of development, and independent activity. The research confirms that the Montessori approach is an effective pedagogical strategy for supporting the holistic development of children in inclusive preschool settings.

Key words: inclusive education, Montessori methodology, preschool education, children with special educational needs, learning environment.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое значение применения методики Монтессори в процессе внедрения инклюзивного образования в дошкольных образовательных организациях. В ходе исследования проанализированы основные принципы методики Монтессори, ее возможности в формировании инклюзивной образовательной среды, а также влияние на процессы социализации и развития самостоятельности у детей с особыми образовательными потребностями. Результаты исследования подтверждают, что методика Монтессори соответствует принципам инклюзивного образования, поскольку ориентирована на ребенка, учитывает индивидуальный темп его развития и способствует самостоятельной познавательной деятельности. Данный подход обеспечивает гармоничное социальное, эмоциональное, интеллектуальное и физическое развитие детей в условиях инклюзивного дошкольного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, методика Монтессори, дошкольное образование, дети с особыми образовательными потребностями, образовательная среда.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim bolaning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiylashuvi hamda mustaqil shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning teng huquqli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish maktabgacha ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda zamonaviy, bola markaziga yo'naltirilgan pedagogik metodlardan foydalanish zarur. Shunday yondashuvlardan biri Montessori metodikasi bo'lib, u XX asr boshlarida italiyalik shifokor va pedagog Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metodika bolaning tabiiy rivojlanish ehtiyojlariga asoslanib, uning mustaqil faoliyati, erkin tanlovi va individual rivojlanish sur'atini hurmat qilish tamoyillariga tayangan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda Montessori metodikasining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Montessori metodikasi maktabgacha ta'lim tizimida bolaning individual rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilg'or pedagogik yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu metodikaning nazariy asoslari italiyalik pedagog Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u bolaga erkin tanlov asosida, mustaqil faoliyat orqali o'rganish imkonini berishni ta'kidlaydi. Montessori metodikasida didaktik materiallar bolaning sezgi organlari orqali idrokini rivojlantirishga xizmat qiladi va bu yondashuv alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar bilan ishlashda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim masalalari xalqaro miqyosda Salamanka deklaratsiyasi asosida muhim ijtimoiy-pedagogik yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda maxsus ehtiyojga ega bolalarning umumiy ta'lim tizimida teng huquqli ishtirokini ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan inklyuziv ta'lim bo'yicha qo'llanmalarda ta'lim muhitining moslashuvchanligi, pedagogning yo'naltiruvchi roli hamda bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish inklyuziv ta'limning asosiy mezonlari sifatida ko'rsatiladi. Bu jihatlar Montessori metodikasining tamoyillari bilan uyg'un ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalalari milliy normativ-huquqiy hujjatlar asosida izchil amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida inklyuziv yondashuvni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mahalliy tadqiqotlarda inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari, xususan, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar bilan ishlashda samarali pedagogik metodlardan foydalanish masalalari keng yoritilgan. Bu borada Montessori metodikasining maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv muhit yaratishdagi imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- Montessori metodikasiga oid nazariy manbalarni o'rganish;
- inklyuziv ta'lim bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv va taqqoslash metodlari.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan inklyuziv guruhlar olindi. Tadqiqot predmeti esa Montessori metodikasi asosida yaratilgan inklyuziv ta'lim muhiti va undagi pedagogik jarayon hisoblanadi.



1-rasm: **Inklyuziv ta'limda Montessori metodikasining pedagogik ahamiyati**

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Montessori metodikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Montessori muhitining asosiy xususiyati – moslashuvchanlik bo‘lib, bunda jihozlar bolalar bo‘yiga mos holda joylashtiriladi hamda barcha didaktik materiallar ochiq tokchalarda saqlanadi.



2-rasm: **Inklyuziv maktabgacha ta’lim muhitida Montessori metodikasi asosida tashkil etilgan faoliyat**



3-rasm: **Maktabgacha ta’limda Montessori metodikasi asosida tashkil etilgan inklyuziv mashg‘ulot**

Inklyuziv guruhlarda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun yirik detallarga ega sensor materiallar, rang va shakllari aniq ajralib turadigan vositalar hamda mayda motorikani rivojlantiruvchi didaktik o'yinlardan foydalanish ijobiy samara berdi. Sensor materiallar yordamida bolalarda ko'rish, eshitish, sezish, taqqoslash hamda mayda motorika ko'nikmalari rivojlandi.

Tadqiqot davomida tarbiyachining roli ham muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Montessori metodikasida tarbiyachi an'anaviy o'qituvchi emas, balki kuzatuvchi va yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa inklyuziv guruhlarda bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga hamda tengdoshlari bilan muloqotga kirishishiga yordam beradi.

Olingan natijalar Montessori metodikasining inklyuziv ta'lim tamoyillari bilan to'liq mos kelishini ko'rsatdi. Metodikaning "Menga o'zim bajarishimga yordam ber" tamoyili alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning mustaqil faoliyat olib borishiga imkon yaratadi. Majburlashsiz, erkin tanlov asosida tashkil etilgan faoliyat bolalarda ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi va tenglik muhitini shakllantiradi.

Ilmiy manbalar tahlili ham Montessori metodikasining inklyuziv ta'lim sharoitida samarali ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, sensor tarbiyaning yetakchi o'rin egallashi alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning atrof-muhitni idrok etish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Montessori metodikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning ilg'or pedagogik yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodika har bir bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uning mustaqil, ijtimoiy faol hamda jamiyatga moslashgan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois Montessori metodikasidan inklyuziv guruhlarda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Montessori M. The Montessori Method. – New York: Frederick A. Stokes Company, 1912.
2. Salamanka deklaratsiyasi va maxsus ehtiyojli shaxslar ta'limi bo'yicha harakatlar dasturi. – UNESCO, 1994.
3. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris, 2005.
4. UNICEF. Inclusive Education: A Guide for Policy Makers. – New York, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
6. Xodjayev B.X. Inklyuziv ta'lim asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

XIV ASR OXIRI VA XV ASR BOSHLARI TURKIY TILLAR TARAQQIYOTINI O'RGANISHDA "KITOB UL-BULG'AT" ASARINING LINGVISTIK TADQIQI

Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universitet
Alfraganus universiteti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0000-0345-4639

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV–XV asrlar boshlarida yaratilgan Jamoluddin Abu Muhammad Abdulloh at-Turkiy-ning "Kitob ul-bulg'at al-mushtoq fi lug'ati-t-turk va-l-qifchoq" asarining lingvistik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda turkiy tillar tarixining muhim bosqichi sifatida qipchoq va o'g'uz lahjalarining differensial rivojlanish jarayonlari, fonetik, morfologik hamda leksik xususiyatlari qiyosiy asosda yoritilgan. Tadqiqot jarayonida manbaning leksikografik tuzilishi, grammatik birliklar tizimi va ularning Mamluklar davri turkiy tilidagi funksional xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari "Kitob ul-bulg'at" asarining turkiy tillar tarixini o'rganishda muhim lingvistik manba ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Kitob ul-bulg'at, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi, fonetik transformatsiya, morfologik tizim, leksikografiya, Mamluklar davri turkiy tili.

Abstract: This article presents a scholarly analysis of the linguistic features of "Kitab al-Bulghat al-Mushtaq fi Lughat al-Turk wa-l-Qifchaq" by Jamoluddin Abu Muhammad Abdullah al-Turki, composed during the late XIV–early XV centuries. The study examines the work as a significant linguistic source reflecting the historical development of Turkic languages, with particular emphasis on the differentiation between Kipchak and Oghuz dialects. Phonological, morphological, and lexical structures are analyzed comparatively, revealing the systematic nature of the manuscript. Special attention is given to its lexicographical organization and grammatical framework within the Mamluk Turkic linguistic environment. The findings demonstrate that Kitab al-Bulghat represents not merely a dictionary but a comprehensive linguistic system that preserves stable Turkic syntactic and morphological patterns.

Key words: Kitab al-Bulghat, Kipchak dialect, Oghuz dialect, phonetic transformation, Turkic morphology, Mamluk Turkic, historical linguistics.

Аннотация: В статье проводится научный анализ лингвистических особенностей труда Джамалуддина Абу Мухаммада Абдуллаха ат-Турки "Китаб аль-булгат аль-муштак фи лугат ат-турк ва-ль-кифчак", созданного в конце XIV – начале XV веков. Произведение рассматривается как важный источник по истории тюркских языков, отражающий процессы дифференциации кипчакских и огузских диалектов. В исследовании выявляются фонетические, морфологические и лексические особенности памятника, а также его лексикографическая структура и грамматическая система в контексте тюркского языка мамлюкского периода. Результаты исследования подтверждают значимость данного труда как комплексного лингвистического источника по историческому развитию тюркских языков.

Ключевые слова: Китаб аль-булгат, кипчакский диалект, огузский диалект, фонетическая трансформация, морфологическая система, лексикография, тюркский язык мамлюкского периода.

KIRISH

XIV–XV asrlar boshi, xususan, 1390–1400-yillar oralig'i turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotida muhim va murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar ta'sirida turkiy tillarning funksional doirasi kengayib, ularning yozma shakllari yanada takomillasha bordi. Ayniqsa, Mamluklar davrida turkiy tillar davlat boshqaruvi, harbiy tizim hamda ilmiy-madaniy muhitda faol qo'llanila boshladi. Bu holat turkiy tilni o'rgatishga mo'ljallangan lingvistik va leksikografik asarlarning yaratilishiga kuchli ehtiyoj tug'dirdi.

Mazkur ehtiyoj natijasida Jamoluddin Abu Muhammad Abdulloh at-Turki tomonidan yaratilgan “Kitob ul-bulg‘at al-mushtoq fi lug‘ati-t-turk va-l-qifchoq” asari o‘z davrida muhim ilmiy va amaliy manba sifatida maydonga chiqdi. Ushbu asar, avvalo, turkiy tilni o‘rganuvchi arab tilida so‘zlashuvchi muhit uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qipchoq va o‘g‘uz unsurlarini tizimli tarzda ifodalashi bilan ajralib turadi. Asar turkiy tillarning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini izchil yoritib, ularni qiyosiy asosda tushuntirishga xizmat qilgan.

“Kitob ul-bulg‘at” nomining lug‘aviy ma’nosi “ehtiyojni qondiruvchi narsa” sifatida talqin qilinib, bu holat asarning lingvodidaktik mohiyatini yaqqol aks ettiradi. Muallif asar orqali til o‘rganuvchilar ehtiyojini qondirish, turkiy til birliklarini tizimli ravishda o‘rgatish hamda amaliy nutqda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishni maqsad qilgan. Shu jihatdan, mazkur asar nafaqat lug‘at, balki o‘z davrining mukammal lingvistik qo‘llanmasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda “Kitob ul-bulg‘at” asari turkiy tillar tarixini, xususan, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining o‘zaro munosabati, ularning differensial rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Asarning lingvistik tahlili turkiy tillarning tarixiy grammatikasi, leksikologiyasi va leksikografiyasi masalalarini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda zamonaviy turkologik tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XIV–XV asrlar turkiy tillar taraqqiyotini o‘rganishda Jamoluddin Abu Muhammad Abdullohning Kitob ul-bulg‘at al-mushtoq fi lug‘ati-t-turk va-l-qipchoq asari muhim leksikografik va lingvistik manba hisoblanadi. Mazkur qo‘lyozma qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining fonetik, morfologik hamda leksik xususiyatlarini tizimli tarzda yoritishi bilan ajralib turadi. Asarda turkiy til birliklarining izohlanishi va ularning boshqa tillar bilan qiyosiy berilishi o‘sha davr turkiy tilining funksional holatini aniqlash imkonini beradi.

Turkiy tillar tarixini o‘rganishda Mahmud Qoshg‘ariyning Devonu lug‘atit turk asari fundamental manba sifatida e’tirof etiladi. Ushbu asar turkiy tillarning XI asrdagi holatini aks ettirgan bo‘lsa-da, unda keltirilgan leksik va dialektal ma’lumotlar keyingi davr manbalari, jumladan “Kitob ul-bulg‘at” bilan qiyoslash uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Qoshg‘ariy ma’lumotlari orqali turkiy tillarning tarixiy uzviyligi va ayrim arxaik birliklarning saqlanib qolish jarayonlari aniqlanadi.

“Kitob ul-bulg‘at” asarining ilmiy tahlili va bahosi A. Zajonchkovskiy tomonidan tayyorlangan Vocabulaire arabe-kiptchak “Bulgat al-mutaq” tadqiqotida keng yoritilgan. Shuningdek, Q. Sodiqovning Eski o‘zbek tili hamda E. N. Nadjipning Istoriko-sravnitelniy slovar tyurkskix yazikov XIV veka asarlarida XIV asr turkiy tillarining tarixiy-grammatik va leksik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar “Kitob ul-bulg‘at”ning Mamluklar davri turkiy tilini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda XIV–XV asrlar turkiy til yodgorliklarining lingvistik xususiyatlarini aniqlash va tizimli tahlil qilish maqsadida zamonaviy va an’anaviy tilshunoslik metodlaridan kompleks foydalanildi. Jumladan, diaxronik tahlil metodi orqali “Kitob ul-bulg‘at” asarida aks etgan fonetik, morfologik va leksik birliklarning tarixiy rivojlanish jarayonlari aniqlandi hamda ularning qadimgi va o‘rta turkiy til bosqichlari bilan aloqasi yoritildi.

Qiyosiy-tarixiy metod asosida asardagi qipchoq va o‘g‘uz unsurlari boshqa turkiy yodgorliklar materiallari bilan solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari belgilandi. Xususan, “Kitob ul-bulg‘at” leksikasi va grammatik shakllari Devonu lug‘atit turk hamda Mamluklar davriga oid boshqa leksikografik va grammatik manbalar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, kontrastiv lingvistika metodi yordamida turkiy va arab tillari o‘rtasidagi leksik-semantik va grammatik muvofiqliklar aniqlanib, asarning lingvodidaktik xususiyatlari baholandi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy va tizimli tahlil usullari ham qo‘llanilib, til birliklarining funksional xususiyatlari ilmiy asosda izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asarning tarkibiy tuzilishi

Asar tarkibiy jihatdan ikki asosiy qismdan iborat:

1. **Lug‘at qismi** – ot va sifatlar osmon, yer, inson a’zolari kabi mavzular bo‘yicha semantik guruhlarga ajratilgan. Ushbu bo‘limda turkiy leksik birliklar izchil tarzda tizimlashtirilib, ularning muqobil shakllari berilgan.
2. **Fe’llar qismi** – turkiy fe’llarning yasalish xususiyatlari, grammatik shakllari va funksional imkoniyatlari yoritilgan bo‘lib, fe’l tizimining ichki tuzilishi batafsil tahlil qilingan.

Fonetik va morfologik tahlil

Asarda qipchoq dialekti ustuvor bo'lishiga qaramay, muallif o'g'uz lahjasiga xos xususiyatlarni ham parallel ravishda keltiradi. Bu holat asarning umumturkiy xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Fonetik jihatdan "y" va "j" tovushlari almashinuvi (yulduz / julduz) qipchoq guruhi tillariga xos belgi sifatida izohlanadi.

Labializatsiya jarayoni – unlilarning lablanishi (o'qu–du) qadimgi fonetik tizimdan nisbatan yangiroq fonetik tizimga o'tish jarayonini aks ettiradi.

Morfologik tahlilda muallif kelishiklar tizimini alohida ko'rsatib, oltita kelishikning shakliy va funksional xususiyatlarini tizimlashtiradi. Jumladan, chiqish kelishigining -dan / -din affikslari aniq misollar asosida tahlil qilinadi.

Leksik qimmat va qiyosiy tahlil

"Kitob ul-bulg'at" asari boshqa klassik manbalar bilan qiyoslanganda o'ziga xos ilmiy va amaliy ahamiyatga ega:

1-jadval: **XIV–XV asrlar turkiy lingvistik manbalarining qiyosiy tavsifi**

Manba nomi	Asosiy yo'nalishi	"Kitobul bulg'at" bilan farqi
"At-Tuhfatuz-zakiyya"	Qifchoq tili lug'ati	Grammatik qoidalarga kamroq urg'u bergan
"Al-Qavaninul-kulliyya"	Sof grammatik asar	Leksik boyligi "Bulg'at"chalik keng emas
"Kitabul-af'al"	Faqat fe'llar tahlili	"Bulg'at"da ot va sifatlar ham qamrab olingan

Mazkur qiyosiy tahlil "Kitob ul-bulg'at"ning leksikografik va grammatik jihatdan kompleks manba ekanligini ko'rsatadi.

Etnolingvistik jihatlar

Asarda turkiy xalqlarning madaniy hayoti oziq-ovqat nomlari (qimiz, talqan) hamda rang-tus atamalari (bo'z, qir) orqali yoritilgan. Bu holat asarning etnolingvistik manba sifatidagi ahamiyatini belgilaydi. Muallif turkiy tilning agglütinativ tabiatini boshqa tillarning flektiv xususiyatlari bilan qiyoslab, kontrastiv lingvistik tahlil elementlarini qo'llagan.

Sintaktik qurilish va qiyosiy tahlil

Asarda turkiy gap qurilishi tizimli ravishda izohlanib, sintaktik birliklarning joylashuvi va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, gap tarkibidagi asosiy bo'laklarning o'zaro munosabati ilmiy terminlar asosida tushuntiriladi.

Muallif turkiy tilda kesimning (fe'lning) gap oxirida kelishini turg'un qoida sifatida belgilaydi. Bu holat XIV–XV asrlarda turkiy sintaksis mustaqil va barqaror tizimga ega bo'lganini lingvistik jihatdan tasdiqlaydi.

Morfologik innovatsiyalar va affiksatsiya

Muallif turkiy tilning agglütinativ tabiatini tizimli misollar orqali yoritadi:

1. **So'z yasovchi affikslar:** ot yasovchi -liq / -lik hamda kasb-hunar otlarini yasovchi -chi / -chi qo'shimchalari (temürchi, baqirchi) zamonaviy o'zbek tili bilan uzviy davomiylikni ko'rsatadi.
2. **Fe'l nisbatlari semantikasi:** orttirma nisbatdagi -tur / -dur affikslarining qo'llanishi (o'lturtur – o'tirishga majbur qilish) o'sha davr til tizimining rivojlanganligini aks ettiradi.

"Lingvistik koine" va tarixiy muhit

"Kitob ul-bulg'at" sof bir lahjaga mansub bo'lmay, tarixiy ijtimoiy muhitda shakllangan **turkiy umumiy aloqa tili (lingvistik koine)**ning yorqin namunasi hisoblanadi. Asardagi ko'plab leksik birliklar qadimgi va keyingi davr yozma manbalari o'rtasida bog'lovchi vazifani bajaradi. Qipchoq lahjasiga xos arxaizmlarning markazdan uzoq hududlarda yaratilgan manbalarda saqlanib qolishi turkiy tillarning hududiy rivojlanish xususiyatlarini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Kitob ul-bulg'at" asari shunchaki so'zlar majmui bo'lib qolmay, balki turkiy tillarning arab tili bilan o'zaro aloqasini aks ettiruvchi mukammal lingvodidaktik tizim hisoblanadi. Asarda keltirilgan leksik, fonetik va morfologik birliklar turkiy tillarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur manba, ayniqsa, o‘zbek tilining tarixiy etimologiyasini aniqlashda *“Devonu lug‘atit turk”*dan keyingi eng muhim yozma manbalardan biri sifatida baholanishi mumkin. Asarda qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga oid unsurlarning birgalikda qo‘llanishi turkiy tillarning o‘zaro ta’siri va umumiy taraqqiyot jarayonlarini aniqlash imkonini beradi.

Shu munosabat bilan, “Kitob ul-bulg‘at” asarini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida yanada chuqur o‘rganish, uning to‘liq ilmiy nashrlarini tayyorlash hamda qiyosiy-tarixiy tadqiqotlarda kengroq qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu esa turkiy tillar tarixi va leksikografiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jamoluddin Abu Muhammad Abdulloh. Kitob ul-bulg‘at al-mushtoq fi lug‘ati-t-turk va-l-qipchoq. (Qo‘lyozma).
2. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. 3 jildlik. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
3. Zajonchkovskiy A. Vocabulaire arabe-kiptchak “Bulgat al-mutaq”. – Warszawa, 1958.
4. Sodiqov Q. Eski o‘zbek tili. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
5. Nadjip E. N. Istoriko-sravnitelniy slovar tyurkskix yazikov XIV veka. – Moskva: Nauka, 1979.

INFORMATIKA TA'LIMIDA INTERFAOL O'QUV MAJMUALARI ASOSIDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Nabiyev Feruz Abdumannonovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llashning pedagogik asoslari va amaliy imkoniyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Interfaol o'quv majmualarning mazmuniy, faoliyatga yo'naltirilgan hamda diagnostik komponentlari doirasida gamifikatsiya elementlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarning bilim darajasi, kognitiv faolligi va kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada o'yinli texnologiyalarning informatika fanida qo'llanish mexanizmlari, o'quv motivatsiyasini oshirish usullari hamda metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: interfaol o'quv majmua, gamifikatsiya, informatika ta'limi, raqamli-didaktik model, kompetensiyaviy yondashuv, adaptiv topshiriqlar, o'quv motivatsiyasi.

Abstract: This article scientifically examines the pedagogical foundations and practical possibilities of applying gamification technologies based on interactive learning complexes in informatics education. The study analyzes the development of students' knowledge levels, cognitive engagement, and competencies through the integration of gamification elements into the content-related, activity-oriented, and diagnostic components of interactive learning systems. In addition, the mechanisms for implementing game-based technologies in informatics instruction, methods for enhancing learning motivation, and methodological recommendations are presented.

Key words: interactive learning complex, gamification, informatics education, digital-didactic model, competency-based approach, adaptive tasks, learning motivation.

Аннотация: В статье научно обоснованы педагогические основы и практические возможности применения игровых технологий на основе интерактивных учебных комплексов в обучении информатике. Проанализированы вопросы развития уровня знаний, когнитивной активности и компетенций обучающихся посредством интеграции элементов геймификации в содержательные, деятельностно-ориентированные и диагностические компоненты интерактивных учебных комплексов. Также рассмотрены механизмы применения игровых технологий в преподавании информатики, способы повышения учебной мотивации и представлены методические рекомендации.

Ключевые слова: интерактивный учебный комплекс, геймификация, обучение информатике, цифрово-дидактическая модель, компетентностный подход, адаптивные задания, учебная мотивация.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida shakllanayotgan raqamli muhit bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, informatika fanini o'qitishda interfaol o'quv majmualaridan foydalanish o'quv jarayonini tizimli, vizual hamda faoliyatga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini bermoqda. Interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni integratsiyalash o'quvchilarning dars jarayoniga faol jalb etilishiga, ularning bilimlari va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi [2].

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya elementlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarda motivatsiya, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivoj-

lantiradi. Shu nuqtayi nazardan, informatika ta'limida interfaol o'quv majmualarini o'yinli texnologiyalar bilan boyitish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot – mamlakatning barqaror rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishi" to'g'risidagi Farmoni hamda 2020-yil 20-apreldagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va keng joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori ta'lim sohasida innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar interfaol o'quv majmualarini, raqamli ta'lim resurslarini hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish zaruratini belgilab beradi [1].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-yanvardagi "Maktab ta'limi sifatini oshirishga qaratilgan raqamli ta'lim resurslarini yaratish va joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ta'lim jarayonida interfaol va o'yinli texnologiyalarni keng qo'llashni rag'batlantiradi. Mazkur hujjat informatika fanida interfaol o'quv majmualar asosida o'yinli texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [3].

Bugungi kunda interfaol o'quv majmualar muhitida o'yinli texnologiyalarni qo'llash nafaqat zamonaviy talab, balki kompetensiyaviy ta'lim modelini amalga oshirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.


Interfaol o'quv majmualar va ularning didaktik imkoniyatlari

Interfaol o'quv majmualar – mazmuniy, faoliyatga yo'naltirilgan hamda diagnostik komponentlarni o'zida mujassamlashtirgan kompleks raqamli-didaktik tizim hisoblanadi. Ular informatika fanida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, algoritmik tafakkurni rivojlantirish hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Interfaol o'quv majmualar tarkibida quyidagi elementlar mavjud bo'lishi mumkin:

- elektron modul va raqamli darsliklar (matn, video, animatsiya hamda kod namunalarini o'z ichiga oladi);
- simulyatsion muhit (algoritm va dasturiy jarayonlarni vizual modellashtirish imkonini beradi);
- interfaol test va diagnostik tizimlar (bilim va ko'nikmalarni baholash uchun);
- gamifikatsiya elementlari (ball, reyting, badge (belgilar), darajalar, topshiriqlar orqali o'quv motivatsiyasini oshirish);
- adaptiv boshqaruv mexanizmi (o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish).

Ayniqsa, o'yinli texnologiyalar interfaol majmua tarkibida qo'llanganda o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish, ularning e'tiborini saqlash va faol ishtirokini ta'minlash imkonini beradi. Natijada bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tabiiy va motivatsion muhitda amalga oshadi(1-rasm).



1-rasm: **Interfaol majmua tarkibida diagrammasi**

Interfaol o'quv majmualar muhitida o'yinli texnologiyalarni qo'llash. Interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni qo'llash informatika ta'limida o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish va kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Gamifikatsiya elementlari interfaol majmuaning faoliyat moduli va diagnostik komponenti bilan integratsiyalashgan holda o'quv jarayonini motivatsion hamda raqobatbardosh muhitga aylantiradi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

O‘yin mexanizmlari – mukofotlash (ball, reyting, badge), raqobat elementi, darajalar tizimi hamda qiyinchilik darajasini bosqichma-bosqich oshirish – o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, informatika fanida algoritmik tafakkurni shakllantirish jarayonida o‘yinli topshiriqlar yuqori samaradorlikka ega.

Interfaol o‘quv majmualar tarkibida qo‘llaniladigan o‘yinli texnologiyalar quyidagi turlarga ajratilishi mumkin [5]:

- didaktik o‘yinlar (mavzuni mustahkamlashga qaratilgan interfaol topshiriqlar: algoritmik mantiqiy vazifalar, kodni to‘g‘ri joylashtirish, blokli dasturlash mashqlari);
- raqamli o‘yinlar (kompyuter va mobil muhitda ishlovchi, topshiriq bajarishga asoslangan interaktiv dasturlar);
- simulyatsion o‘yinlar (real dasturiy jarayonlar yoki virtual modellarni taqlid qiluvchi muhit);
- viktorina va test o‘yinlari (tezkor baholash va refleksiv tahlilni amalga oshiruvchi gamifikatsiyalashgan diagnostik vositalar).

Mazkur yondashuv interfaol o‘quv majmualarning mazmuniy va faoliyat komponentlari bilan uyg‘unlashganda, ta’lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki kompetensiyalarni shakllantirish jarayoniga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Informatika ta’limida interfaol o‘quv majmualaridan foydalanish masalasi pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu yo‘nalishda To‘rayev B. va Karimov Sh. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik dasturiy vositalarning ta’lim jarayonini individuallashtirish, vizuallashtirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan. Mualliflar interfaol resurslar o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va fanlararo integratsiyani ta’minlashda muhim omil ekanini ta’kidlaydi. Mamanazarov B.J. esa o‘quv mashg‘ulotlarida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning metodik asoslarini yoritib, ularning samaradorligi o‘qitish mazmuni va topshiriqlar tuzilmasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatib bergan.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi alohida e’tibor markazida turadi. C. Redecker tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu modelda raqamli texnologiyalar, jumladan interfaol o‘quv majmualar va o‘yinli elementlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligi va kompetensiyalarini oshirish vositasi sifatida talqin etilgan. OECD tomonidan e’lon qilingan raqamli ta’lim istiqbollari haqidagi tadqiqotlarda ham raqamli muhitda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol va adaptiv texnologiyalarning o‘rni alohida qayd etilgan.

Gamifikatsiya masalasi ta’lim jarayonida motivatsiyani oshirish va samaradorlikni ta’minlashning muhim yo‘nalishi sifatida qaraladi. K.M. Kapp o‘yinli metodlar va strategiyalarni ta’limga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni yanada samarali tashkil etilishini ilmiy asoslab bergan. S. Deterding va hammualliflar gamifikatsiyani o‘yin dizayni elementlarini o‘yin bo‘lmagan kontekstda qo‘llash sifatida talqin etib, uning kognitiv va motivatsion ta’sirini ochib bergan. Shuningdek, Means B. va boshqalar tomonidan olib borilgan meta-tahlil natijalari onlayn va aralash ta’lim shakllarida interfaol hamda o‘yinli texnologiyalar o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida informatika ta’limida interfaol o‘quv majmualari asosida o‘yinli texnologiyalarni qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan empirik va nazariy usullardan foydalanildi. Ma’lumotlar pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, diagnostik testlar hamda o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash vositalari orqali to‘plandi. Tajriba jarayonida an’anaviy o‘qitish usullari bilan interfaol o‘quv majmualar va o‘yinli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijalari taqqoslandi. Olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilinib, statistik taqqoslash, foiz ko‘rsatkichlari hamda dinamik o‘zgarishlar asosida umumlashtirildi. Shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasi va kognitiv faolligidagi o‘zgarishlar tahlil qilinib, tadqiqot natijalari asosida xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


So‘nggi yillarda interfaol o‘quv majmualar tarkibida o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tajribalar ularning samaradorligini ko‘rsatmoqda. Xususan, informatika fanini o‘qitishda interfaol topshiriqlar, adaptiv o‘yinli testlar hamda simulyatsion modullardan foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasi va darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirgan (1-jadval).

1-jadval: **2024-yilda o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlangan:**

O‘quv usuli	O‘quvchilarning o‘rtacha bilim darajasi (%)
An’anaviy darslar	68
Interfaol o‘quv majmua + o‘yinli texnologiyalar	90

Interfaol o‘quv majmualarda o‘yinli texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri 2-rasmda keltirib o‘tilgan. Mazkur natijalar interfaol o‘quv majmualar tarkibida o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash bilimlarni o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, adaptiv va bosqichma-bosqich murakkablashuvchi topshiriqlar o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol o‘quv majmualar muhitida gamifikatsiya elementlarini integratsiyalash informatika ta’limining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim pedagogik omili hisoblanadi [7](2-rasm).




2-rasm: **Bilim darajasi taqqoslash diagrammasi**

Interfaol o‘quv majmualar muhitida “Kahoot!”, “Quizizz” kabi platformalar integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda, gamifikatsiyalashgan diagnostik modul sifatida samarali ishlaydi. Mazkur platformalar orqali o‘tkaziladigan viktorinalar o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha bilimlarini tezkor baholash, xatoliklarni aniqlash hamda refleksiv tahlil qilish imkonini beradi. Real vaqt rejimida natijalarni aks ettirish o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi va ularning faolligini oshiradi. Informatika fanida bunday yondashuv, ayniqsa, algoritmik fikrlashni rivojlantirish, tezkor mantiqiy qaror qabul qilish va amaliy topshiriqlarni bajarishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi [9].

Afzalliklar va pedagogik natijalar. Interfaol o‘quv majmualar tarkibida o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash bir qator pedagogik ustunliklarga ega bo‘lib, ular kompetensiyaviy ta’lim modelini amalga oshirishga xizmat qiladi:

- motivatsiyaning oshishi – gamifikatsiya elementlari o‘quvchilarning informatika faniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va ichki motivatsiyani shakllantiradi;
- interaktivlik va kognitiv faollik – o‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida faol ishtirok etib, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi;
- individual yondashuv va adaptiv boshqaruv – interfaol majmua o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga qarab murakkablik bosqichlarini moslashtirish imkonini beradi;
- bilimlarning barqaror mustahkamlanishi – o‘yin shaklida takrorlash va mustahkamlash jarayoni uzoq muddatli xotirani faollashtiradi;
- ijodkorlik va muammoli fikrlash rivoji – simulyatsion va loyiha asosidagi o‘yinli topshiriqlar o‘quvchilarda kreativ yondashuvni shakllantiradi;
- raqamli kompetensiyalarning rivoji – zamonaviy platformalar bilan ishlash orqali o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi va axborot madaniyati oshadi.

Interfaol o‘quv majmualar tarkibida o‘yinli texnologiyalarni integratsiyalash informatika ta’limida nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshiradi, balki o‘quvchilarning raqamli, kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarini kompleks shakllantirishga xizmat qiladi [10](3-rasm).



3-rasm: **Multimediyali interfaol majmualar va o‘yinli texnologiyalar natijalari**

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, informatika ta’limida interfaol o‘quv majmualar tarkibida o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim darajasi, kognitiv faolligi va kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Gamifikatsiya elementlari interfaol o‘quv majmuaning mazmuniy, faoliyatga yo‘naltirilgan hamda diagnostik komponentlari bilan integratsiyalashgan holda o‘quv jarayonini motivatsion va adaptiv muhitga aylantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinli topshiriqlar, real vaqt rejimidagi baholash tizimlari hamda adaptiv boshqaruv mexanizmlari o‘quvchilarning informatika faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, algoritmik tafakkurini rivojlantiradi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, interfaol platformalar yordamida tashkil etilgan viktorina va simulyatsion mashg‘ulotlar bilimlarni mustahkamlash hamda tezkor refleksiya jarayonini ta’minlaydi.

Shuningdek, interfaol o‘quv majmualar muhitida o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash individual yondashuvni ta’minlash, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish hamda kompetensiyaviy natijalarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonini faqat nazorat qilish vositasidan rivojlantiruvchi pedagogik tizimga aylantiradi.

Umuman olganda, interfaol o‘quv majmualar asosida gamifikatsiya elementlarini integratsiyalash informatika ta’limining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning raqamli va kognitiv kompetensiyalarini kompleks shakllantirish hamda ta’lim sifatini modernizatsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida mazkur yondashuvni adaptiv hamda sun’iy intellekt elementlari bilan boyitish ta’lim jarayonining yanada individuallashtirilgan va samarali modelini shakllantirish imkonini beradi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. To‘rayev B., Karimov Sh. Pedagogik dasturiy vositalar va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Mamanazarov B.J. O‘quv mashg‘ulotlarida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning metodik asoslari. – Samarqand, 2022.
3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
4. Kapp K.M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. – San Francisco: Pfeiffer, 2012.
5. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: Defining gamification. – Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference, 2011.
6. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – Paris: OECD Publishing, 2021.
7. Means B., Toyama Y., Murphy R., Baki M. The effectiveness of online and blended learning: A meta-analysis of the empirical literature. – Teachers College Record, 2013.

STEAM LOYIHALARI ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida STEAM loyihalari asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda ularni dars jarayonlarida qo'llash mexanizmlari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan STEAM loyihalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik, moliyaviy savodxonlik, jamoada ishlash va liderlik kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishi amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiyalar va treninglar, hamkorlik dasturlari, innovatsion texnologiyalar hamda integratsiyalashgan ta'lim mexanizmlari asosida amalga oshirilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: STEAM loyihalari, tadbirkorlik ko'nikmalari, moliyaviy savodxonlik, biznes-reja, simulyatsiya va trening, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: The article analyzes the ways of forming entrepreneurial skills in students based on STEAM projects in secondary schools, the mechanisms for developing entrepreneurial activity, and their use in the teaching process. The author emphasizes that classes organized on the basis of STEAM projects develop important competencies in students, such as initiative, creativity, financial literacy, teamwork, and leadership, through practical exercises, simulations and training sessions, collaborative programs, innovative technologies, and integrated learning mechanisms.

Key words: STEAM projects, entrepreneurial skills, financial literacy, business plan, simulation and training, innovative technologies.

Аннотация: В статье анализируются способы формирования предпринимательских навыков у учащихся средних школ на основе STEAM-проектов, механизмы развития предпринимательской деятельности и их использование в учебном процессе. Автор подчёркивает, что занятия, организованные на основе STEAM-проектов, развивают у учащихся важные компетенции, такие как инициативность, креативность, финансовая грамотность, командная работа и лидерство, посредством практических упражнений, симуляций и тренингов, совместных программ, инновационных технологий и интегрированных механизмов обучения.

Ключевые слова: STEAM-проекты, предпринимательские навыки, финансовая грамотность, бизнес-план, симуляция и тренинг, инновационные технологии.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitish, jumladan, ularning ish bilan bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash hamda turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish muhim o'rin tutadi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarga chuqur bilimli, yuksak saviyali, mustaqil fikrlaydigan yoshlarning bu boradagi ishtirokini ta'minlash bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lishida ta'lim muassasalarida ana shu yo'nalishda tashkil etiladigan faoliyat o'ziga xos o'rin tutadi. Shu sababli ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda tadbirkorlikni tashkil etish yoshlarda ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy faoliyatga nisbatan ijobiy hamda mas'uliyatli munosabatni qaror toptirishda dolzarblik kasb etadi.

Shu bois tadbirkorlik ta'limi yoshlarga yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy mustaqillikka erishish imkonini berish bilan birga, ularning shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalar nafaqat o'z biznesini boshlashda, balki hayotning boshqa sohalarida ham foydali bo'lib, yoshlarning tanqidiy va kreativ fikrlashi, muammolarni hal etishi, qat'iylik ko'rsatishi kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Tadbirkorlik ta'limiga bo'lgan ehtiyoj xalqaro miqyosda ham tan olingan. Masalan, Yevropa Ittifoqi 2014-yildayoq barcha a'zo davlatlarga maktabdan boshlab oliy ta'limgacha tadbirkorlik ta'limini

milliy o'quv dasturlariga kiritishni tavsiya etgan edi [1]. Tadbirkorlikni o'rganish yoshlarni "yaratuvchan, ilg'or va mustaqil ishlashga qobil" etib tarbiyalash, ularda shaxsiy mas'uliyat va murosa qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim deb hisoblanadi. "STEAM loyihalari" (School Enterprise and Applied Methodology) o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, kichik biznes loyihalari orqali ularni tashabbuskorlik, jamoada ishlash, moliyaviy savodxonlik va mas'uliyat kabi ko'nikmalarga ega bo'lishiga xizmat qiladi [2]. STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yosh avlodni tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda ta'limni tadbirkorlik bilan uyg'unlashtirish xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va fermerlar faoliyatini rivojlantirishda ilmiy, psixologik va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik elementlarining umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar tizimidan o'rin olishi shakllanib borayotgan yosh avlodni hozirgi zamon ishlab chiqarishining eng muhim tarmoqlarining nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy adabiyotlar maktab o'quvchilarining tadbirkorlik ko'nikmalari an'anaviy biznes vositalarini erta o'zlashtirish emas, balki ko'ndalang kompetensiyalar majmuasi ekanligini ta'kidlaydi: tashabbuskorlik, ijodkorlik, noaniqlik va tavakkalchilikka chidamlilik, o'zini o'zi boshqarish, boshqalar uchun qiymat yaratishga yo'naltirilganlik, jamoaviy ish va muloqot. Ushbu kompleksni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar turli xil shkala va vositalarni taklif qilgan. Masalan, R. Xizrich va M. Piters tadbirkorlik munosabatlarini STEM karyeralariga qiziqish bilan bog'laydigan STEM tadbirkorlik karyerasiga qiziqish shkalasini ishlab chiqqanlar [3].

Boshqa tadqiqotlar XXI-asr ko'nikmalari doirasida tadbirkorlik kompetensiyalari klasterlarini aniqlashga va ularni STEM loyihalarida ishtirok etish natijalari bilan bog'lashga harakat qilgan [4; 5]. G.Yu. Vlasov o'rta maktablar uchun E-STEM (tadbirkorlikka yo'naltirilgan STEM) modelini taklif qilgan [7]. Aralash usullar dizaynidan (STEM rahbarlari bilan suhbatlar va o'qituvchilar so'rovi) foydalanib, muallif tadbirkorlik amaliyotlarini (imkoniyatlarni aniqlash, yechimlarni ishlab chiqish, mahsulotni taqdim etish) mavjud STEM fanlariga integratsiya qilish uchun asos yaratadi. Model har bir yirik STEM loyihasi tadbirkorlik sikli bilan bevosita bog'liq bosqichlarni o'z ichiga olishini nazarda tutadi: muammo - g'oya - prototip - qiymat - taqdimot.

S.Ya. Romashina va A.A. Mayer mintaqaning mahalliy salohiyatiga asoslangan boshlang'ich maktablar uchun STEAMga yo'naltirilgan tadbirkorlik o'quv dasturini ishlab chiqishni tasvirlab berganlar [8]. O'quv dasturi fan, texnologiya, san'at, muhandislik, matematika va jamiyat elementlarini birlashtiradi hamda loyihalar haqiqiy mahalliy resurslar va faoliyatlar (hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va xizmatlar) atrofida quriladi. Sinov tadqiqotlari o'quvchilarning tadbirkorlik ruhi va asosiy ishga munosabatining oshganligini ko'rsatmoqda.

I.I. Antonova tomonidan olib borilgan yaqinda o'tkazilgan tadqiqot maktabda STEM yondashuvi tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qanday maxsus ishlab chiqilishi mumkinligini ko'rsatadi: yuqori sifatli amaliy tadqiqot dizayni doirasida o'qituvchi tadqiqotchilar bilan birgalikda o'quv vazifalarini bosqichma-bosqich o'zgartiradi, tanlov elementlarini, mahsulot mas'uliyatini va foydalanuvchi qiymatini tahlil qilishni qo'shadi [6]. Muallif bir necha o'nlab dasturlarni tahlil qilib, ularni ta'lim darajasi, aralashuv turlari va o'lchanadigan natijalar bo'yicha tasniflaydi. U STEM kontekstida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida tajriba va loyihaga asoslangan o'rganish ustuvorlik qilishini xulosa qiladi. Olib borilgan izlanishlar va tahlillar natijasida kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitish va tayyorlashning zamonaviy nazariyasi hamda amaliyotidagi holatini o'rganish quyidagi muammo va ziddiyatlar mavjudligini ko'rsatdi:

- kasb-hunar kolleji o'quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitishni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar va pedagogik imkoniyatlarning mavjudligi bilan o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitish va tayyorlashning ilmiy-uslubiy jihatdan yetarli asoslanmaganligi;
- bo'lajak mutaxassislarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud an'anaviy tizimi bilan o'zgaruvchan mehnat bozori sharoitlarini hisobga olgan holda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitish metodikasining ishlab chiqilmaganligi;
- avtomobillarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitish orqali tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish hamda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish zarurati.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada umumta'lim maktablarida STEAM loyihalari asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda STEAM loyihalarining dars jarayonida qo'llanilishi har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil, adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

STEAM loyihalari ta'lim tizimida innovatsion yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. STEAM loyihalari o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, ular maktab sharoitida kichik biznes loyihalarini tashkil etish, mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish hamda ularni taqdim etish orqali tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- tashabbuskorlik va ijodkorlik – yangi g'oyalarni ilgari surish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish;
- jamoada ishlash ko'nikmalari – hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish va mas'uliyatni taqsimlash;
- moliyaviy savodxonlik – xarajat va daromadlarni hisoblash, iqtisodiy samaradorlikni tahlil qilish;
- mas'uliyat va liderlik – qaror qabul qilish hamda boshqaruv ko'nikmalarini egallash.

STEAM loyihalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda pedagogning roli muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish bilan birga ularni amaliy faoliyatga yo'naltiradi. Bu jarayonda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi. STEAM loyihalari asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

- amaliy mashg'ulotlar – maktab hududida kichik ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish;
- simulyatsiya va treninglar – biznes-reja tuzish, marketing strategiyasini ishlab chiqish;
- hamkorlik dasturlari – mahalliy tadbirkorlar va korxonalar bilan hamkorlikda o'quvchilarni amaliyotga jalb etish;
- innovatsion texnologiyalar – raqamli platformalar orqali virtual biznes loyihalarini yaratish.

Xalqaro tajribada STEAMga o'xshash loyihalar o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali natijalar bergan. Masalan, Yevropa davlatlarida "School Enterprise Challenge" dasturi orqali o'quvchilar maktab bizneslarini tashkil etib, daromadni ijtimoiy loyihalarga yo'naltirmoqda [9]. O'zbekiston sharoitida esa ushbu tajribani milliy qadriyatlar, iqtisodiy imkoniyatlar va ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari bilan uyg'unlashtirish zarur. STEAM loyihalari o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik, moliyaviy savodxonlik, jamoada ishlash va liderlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'laydi hamda ularni kelajakda iqtisodiy faol shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlariga misol sifatida quyidagilarni ko'rib chiqamiz: o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari bir necha bosqich va komponentlardan iborat deb qaraladi. Amaliy mashg'ulotlar mexanizmi. O'quvchilarni real faoliyatga jalb etish orqali tadbirkorlik ko'nikmalari shakllanadi. Maktab hududida kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki o'quvchilar tomonidan yaratilgan mahsulotlarni taqdim etish orqali ular iqtisodiy jarayonlarni amalda o'rganadilar. Bu mexanizm o'quvchilarda "mas'uliyat, tashabbuskorlik va ijodkorlik"ni rivojlantiradi. Simulyatsiya va treninglar mexanizmi. Biznes-reja tuzish, marketing strategiyasini ishlab chiqish, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish kabi mashg'ulotlar o'quvchilarda "moliyaviy savodxonlik, tahliliy fikrlash va qaror qabul qilish" ko'nikmalarini shakllantiradi. Simulyatsiya jarayonida o'quvchilar xatoliklardan saboq olish, risklarni baholash va muqobil yechimlarni ishlab chiqishni o'rganadilar. Hamkorlik dasturlari mexanizmi. Mahalliy tadbirkorlar, kichik korxonalar va biznes markazlari bilan hamkorlik o'quvchilarga real iqtisodiy muhitni ko'rish imkonini beradi. Bu mexanizm orqali o'quvchilar "jamoada ishlash, muloqot qilish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish" ko'nikmalarini egallaydilar.

Hamkorlik dasturlari o'quvchilarda kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni kuchaytiradi. Innovatsion texnologiyalar mexanizmi. Raqamli platformalar, virtual biznes loyihalari va elektron savdo tizimlari orqali o'quvchilar zamonaviy tadbirkorlik muhitini o'rganadilar. Bu mexanizm ularda "axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion fikrlash va global iqtisodiy jarayonlarga moslashish" ko'nikmalarini shakllantiradi. Integratsiyalashgan ta'lim mexanizmi. Geografiya, iqtisod, matematika va informatika fanlarini STEAM loyihalari bilan bog'lash orqali o'quvchilarda kompleks bilim va ko'nikmalar shakllanadi. Bu mexanizm o'quvchilarda "fanlararo fikrlash, muammolarni tizimli hal etish va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish" imkonini beradi. Tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari o'quvchilarda nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki ijtimoiy, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. STEAM loyihalari asosida amalga oshiriladigan amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiya va treninglar, hamkorlik dasturlari, innovatsion texnologiyalar

hamda integratsiyalashgan ta'lim mexanizmlari o'quvchilarning kelajakda iqtisodiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda STEAM loyihalari asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari yoritilgan.

1-jadval: **STEAM loyihalari asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish**

Mexanizm	Maqsad	Vositalar	Natija
Amaliy mashg'ulotlar	o'quvchilarni real iqtisodiy faoliyatga jalb qilish;	maktab hududida kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, mahsulot yaratish;	mas'uliyat, tashabbuskorlik, ijodkorlik ko'nikmalari shakllanadi;
Simulyatsiya va treninglar	moliyaviy savodxonlik va tahliliy fikrlashni rivojlantirish;	biznes-reja tuzish, marketing strategiyasi, risklarni baholash;	moliyaviy savodxonlik, qaror qabul qilish, muqobil yechim ishlab chiqish;
Hamkorlik dasturlari	o'quvchilarni real biznes muhitiga yaqinlashtirish;	mahalliy tadbirkorlar, korxonalar bilan hamkorlik;	jamoada ishlash, muloqot qilish, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish;
Innovatsion texnologiyalar	zamonaviy tadbirkorlik muhitini o'rganish;	raqamli platformalar, virtual biznes loyihalari, elektron savdo tizimlari;	innovatsion fikrlash, it ko'nikmalari, global iqtisodiy jarayonlarga moslashish;
Integratsiyalashgan ta'lim	fanlararo bilimlarni amaliyot bilan bog'lash;	geografiya, iqtisod, matematika, informatika fanlari bilan loyihalarni birlashtirish;	fanlararo fikrlash, tizimli muammo yechish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish;

Mazkur mexanizmlar o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning kompleks tizimini tashkil etadi. Amaliy mashg'ulotlar ularni real faoliyatga tayyorlasa, simulyatsiya va treninglar nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantiradi. Hamkorlik dasturlari ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi, innovatsion texnologiyalar esa global iqtisodiy muhitga moslashuvni ta'minlaydi.

XULOSA

O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining zamonaviy talabi bo'lib, bu jarayon nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. STEAM loyihalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik, moliyaviy savodxonlik, jamoada ishlash va liderlik kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiya va treninglar, hamkorlik dasturlari, innovatsion texnologiyalar hamda integratsiyalashgan ta'lim mexanizmlari o'quvchilarning iqtisodiy faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рахматуллаева Д.Р. Касб-ҳунар таълими муассасалари ўқувчиларини тадбиркорлик фаолиятига йўналтириб ўқитишни такомиллаштириш. 13.00.05 – Касб-ҳунар таълими назарияси ва методикаси ихтисослиги бўйича педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018.
2. Ҳасанобоева О., Артикова М., Мамажонов М. Оилада ўсмирларни тадбиркорликка тайёрлашда моддий ва маънавий ҳаёт уйғунлиги. – Т.: "Фан ва технология", 2021. – 80 б.
3. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство, или как завести собственное дело и добиться успеха. – Москва: Прогресс-Универс, 2019. – 160 с.
4. Эргашева Ф.И. Талабаларда тадбиркорлик малакаларини ривожлантиришнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш (иқтисодиёт таълим йўналиши талабалари мисолида). 13.00.01 – Педагогика назарияси ва педагогик таълимотлар тарихи ихтисослиги бўйича педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2022.
5. Ходиева Д.П. Бошланғич синф ўқувчиларида тадбиркорлик фазилатини шакллантириш технологияси. Методик қўлланма. – Тошкент, 2018.
6. Антонова И.И. Дидактические условия подготовки будущих учителей технологии и предпринимательства основам менеджмента: дис. … канд. пед. наук. – Комсомольск-на-Амуре, 2022. – 172 с.
7. Власов Г.Ю. Развитие молодежного предпринимательства на современном этапе // Российское предпринимательство. – 2021. – № 10, вып. 2 (194). – С. 11-16.
8. Ромашина С.Я., Майер А.А. Педагогическая фасилитация: сущность и пути реализации в образовании. Учеб. пособие. – М., 2019. – 63 с.
9. Артикова М.Б. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш масалалари // Замонавий таълим / Современное образование. – 2018. – № 8. – 89-98 б.

PSIXOLOG TALABALARDA TOLERANTLIK VA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0003-7141-5051

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak psixologlarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tolerantlik turli millat, madaniyat va e'tiqod vakillarini hurmat qilish hamda ularning qarashlarini qadrlash qobiliyati sifatida izohlanadi. Madaniyatlararo kompetensiya esa psixologning turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qilish, moslashish va madaniy to'siqlarni yengish salohiyatini anglatadi. Maqolada ushbu sifatlarning psixolog kasbiy faoliyatidagi o'rni, ularni rivojlantirishning samarali metodlari, jumladan interfaol ta'lim texnologiyalari, madaniyatlararo amaliyot va shaxsiy refleksiya jarayonlari yoritiladi. Natijada tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish bo'lajak psixologlarning professional tayyorgarligini oshirish va ijtimoiy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, kompetensiya, kasbiy-shaxsiy, ma'naviy-axloqiy, konseptual, destruktiv, interfaol, refleksiv, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: This article examines the process of developing tolerance and intercultural competences in future psychologists from a scientific and theoretical perspective. Tolerance is defined as the ability to respect representatives of different nationalities, cultures, and beliefs, as well as to value their perspectives. Intercultural competence is understood as a psychologist's ability to interact effectively in diverse cultural environments, adapt, and overcome cultural barriers. The article highlights the significance of these qualities in psychologists' professional activity, as well as effective methods for their development, including interactive educational technologies, intercultural practice, and personal reflection. As a result, it is substantiated that the development of tolerance and intercultural competences is an important factor in enhancing the professional training of future psychologists and ensuring stability in social relations.

Key words: tolerance, competence, professional-personal, spiritual-moral, conceptual, destructive, interactive, reflective, professional training.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования толерантности и межкультурных компетенций у будущих психологов с научно-теоретической точки зрения. Толерантность трактуется как способность уважать представителей различных национальностей, культур и вероисповеданий, а также ценить их взгляды. Межкультурная компетенция понимается как умение психолога эффективно взаимодействовать в различных культурных средах, адаптироваться и преодолевать культурные барьеры. В статье освещается значение этих качеств в профессиональной деятельности психолога, а также эффективные методы их развития, включая интерактивные образовательные технологии, межкультурную практику и процесс личной рефлексии. В результате обосновано, что развитие толерантности и межкультурных компетенций является важным фактором повышения профессиональной подготовки будущих психологов и обеспечения стабильности в социальных отношениях.

Ключевые слова: толерантность, компетентность, профессионально-личностная, духовно-нравственная, концептуальная, деструктивная, интерактивная, рефлексивная, профессиональная подготовка.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida insonlar o'rtasidagi muloqot doirasi tobora kengayib, turli millat, madaniyat va diniy e'tiqod vakillari bilan bevosita yoki bilvosita aloqalar kuchaymoqda. Shu sababli bo'lajak psixologlarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat kasbiy muvaffaqiyat, balki jamiyatdagi barqaror ijtimoiy munosabatlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon xalqlari pedagogik tafakkuri taraqqiyotida muhim o'rin tutgan tolerantlik fenomeni bugungi axborotlashuv jamiyatida alohida ma'naviy-axloqiy, madaniy hamda pedagogik konseptuallikni amaliyotga tatbiq etmoqda. Insoniyat globallashuv jarayonida gumanistik qadriyatlardan begonalashuv va axloqiy inqiroz xavfidan xavotirga tushmoqda. Shu jihatdan

dunyo miqyosida barqarorlikni, totuvlikni, millatlar, turli xalqlar hamda elatlar orasida tolerantlik tamoyilini ta'minlash, shuningdek, bu boradagi gumanizm g'oyalarini ilmiy jihatdan tahlil etish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanmoqda. Jahonning oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, pedagogning kasbiy kompetentligi, uning ma'naviy-axloqiy hamda gumanistik (bag'rikenglik, sabr-toqatlilik, mehr-muhabbat, o'zgalarning manfaatlarini qo'llab-quvvatlash) xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ayniqsa, bugungi kunda insonlararo va millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni ta'minlash, destruktiv xususiyatlar va bag'ritoshlik kabi salbiy holatlarga qarshi kurasha oladigan tolerantlik immunitetiga ega yoshlarni voyaga yetkazish hamda ularni bunyodkorlik g'oyalari asosida tarbiyalashni pedagogik-psixologik hamda metodik yondashuvlar asosida ilmiy tadqiq etish zarurati kuchaymoqda. Tolerantlik faqat boshqa insonlarning farqlarini qabul qilish emas, balki ularni qadrlash va konstruktiv muloqotga kirishish qobiliyatidir. Madaniyatlararo kompetensiya esa turli madaniy muhitlarda samarali ishlash va muloqot qilish salohiyatini anglatadi. Psixolog ta'limida ushbu sifatlarni shakllantirish talabalarni kelajakda turli xil mijozlar bilan ishlashga tayyorlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak psixolog talabalarining shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvorini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishga mo'ljallangan oliy o'quv yurtlari (ijtimoiy institut sifatida) yoshlarda tolerantlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlar tolerantligini shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim bilan bog'liq bo'lib, bu ijtimoiy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini va uning rivojlanish omillarini hisobga olgan holda shaxsning o'zini o'zi anglashiga yo'naltirilgan universitet muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. Tolerantlik psixologning professional etikasi va shaxsiy fazilatlari orasida markaziy o'rinni egallaydi. Mijozlarning millati, dini, jinsi va ijtimoiy maqomidan qat'i nazar, ularni hurmat qilish psixologik yordam sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Madaniyatlararo kompetensiya turli madaniy guruhlar vakillarini tushunish, ularga moslashish hamda muloqot jarayonida madaniy to'siqlarni yengish qobiliyatidir. Psixologlar uchun bu ko'nikma chet elda o'qigan, immigratsiya qilgan yoki boshqa madaniy muhitdan kelgan mijozlar bilan ishlashda zarur hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak psixolog talabalarning shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik bosqichida insonning kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishi, shuningdek talabalarning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligining sifat jihatidan yangi darajalariga erishishi bilan tavsiflanadigan qaytarilmas o'zgarishlar jarayoni hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tadqiqotda kasbiy va shaxsiy rivojlanish kasbiy o'sish sifatida talqin etiladi. Jarayon sifatida ta'kidlash mumkinki, madaniyatlararo kompetensiya insonning turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilishi va moslashishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma hamda qadriyatlar majmuasidir. Bu qobiliyat psixolog uchun mijoz bilan o'zaro ishonchli munosabat o'rnatishda asosiy omillardan biridir. B. G. Ananyevning so'zlariga ko'ra, talabalik yoshi insonning asosiy sotsiogen salohiyatini rivojlantirish uchun sezgir davrdir [1]. Oliy ma'lumot olish psixikaning rivojlanishiga va shaxsning individual fazilatlariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq buning uchun qulay sharoitlar zarur, shundagina universitetda o'qish yillari davomida talabalar psixikaning barcha darajalarini rivojlantiradilar. E. Eriksonning ta'kidlashicha, yoshlik davri ijtimoiy va individual-shaxsiy tanlov, identifikatsiya hamda o'z taqdirini o'zi belgilashda namoyon bo'ladigan o'ziga xoslik inqirozi bilan ajralib turadi [2].

Talabalik yoshi tolerantlikni shakllantirish uchun eng maqbul davr bo'lib, bunga quyidagilar yordam beradi: o'z madaniy o'ziga xosligi masalalariga e'tibor, boshqa odamlarning turmush tarziga qiziqish, inson munosabatlari sohasidagi o'z mavqeini aniqlash, dolzarb muammolar bo'yicha o'z fikrini bildirish istagi, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyat hissi. Shu bilan birga, tolerantlikni shakllantirishdagi to'siqlar sifatida ayrim yoshlarning ziddiyatga moyilligi, tajovuzkorligi, xudbinligi, infantilizmi, atrof-muhit tomonidan shakllantirilgan fikrlash stereotiplari hamda guruhbozlik keltiriladi. Bennettning fikricha, tolerantlik faqat boshqacha fikrlarni qabul qilish emas, balki ularni tushunish va qadrlashga bo'lgan ongli intilishdir [3]. Psixologlar uchun bu fazilat mijozning hayot tajribasini baholamasdan tinglash imkonini beradi. Inson munosabatlarida tolerantlikni tarbiyalash XXI asrda ta'limning eng muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib, universitetda o'quv jarayonini tashkil etishda, tegishli ijtimoiy-madaniy muhitni yaratishda, talabalarning ma'naviy salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos shakl va usullarini tanlashda hamda turli madaniyat va e'tiqod vakillariga nisbatan tolerant munosabatni shakllantirishda maxsus yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Insonparvar jamiyat rivojlanishi zamonaviy insonning tolerantlik darajasini oshirishni nazarda tutadi.

Tolerantlik psixologik jihatdan shaxsning boshqa qarash, e'tiqod va qadriyatlarga ega insonlarga nisbatan bag'rikeng, murosali hamda konstruktiv munosabat bildira olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu sifat kognitiv (bilim va tushuncha), affektiv (emotsional munosabat) hamda xulq-atvor komponentlarining uyg'un-

ligida namoyon bo‘ladi. Tolerantlikning shakllanishi shaxsning ijtimoiy tajribasi, oilaviy tarbiya muhiti hamda ta’lim jarayonidagi kommunikativ tajribalar bilan chambarchas bog‘liq. Gumanistik psixologiya vakillari insonni qadriyat sifatida qabul qilish va shaxs erkinligini hurmat qilish tamoyillarini ilgari surganlar. Jumladan, Karl Rogers inson bilan ishlash jarayonida empatiya va shartsiz qabul qilishni asosiy shart deb hisoblagan. Ushbu yondashuv psixolog talabalarda tolerant munosabatni shakllantirishning nazariy asosini tashkil etadi, chunki empatik idrok madaniyatlararo muloqot samaradorligini ta’minlaydi. Madaniyatlararo kompetensiya esa shaxsning turli etnik, diniy va ijtimoiy guruhlar vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatish, stereotiplardan xoli fikrlash hamda o‘z xatti-harakatlarini moslashtira olish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya tarkibiga madaniy bilim, kommunikativ ko‘nikma, refleksiya va moslashuvchanlik kiradi. Psixolog mutaxassis uchun bu sifatlar professional etikaning ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tolerantlikni rivojlantirishda interfaol pedagogik metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Rolli o‘yinlar, muammoli vaziyat tahlili, guruhiy muhokama va refleksiv topshiriqlar talabalarning madaniy sezgirligini oshiradi hamda nazariy bilimni amaliy tajriba bilan integratsiyalash imkonini beradi. Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish (rolli o‘yinlar, madaniyatlararo muloqot simulyatsiyalari); ko‘p madaniyatli guruhlar bilan amaliyot orqali talabalarni xilma-xil ijtimoiy guruhlar bilan ishlashga jalb etish; o‘zaro tajriba almashish, xorijiy talabalar yoki mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etish; refleksiya va o‘zini tahlil qilish, ya’ni o‘z qarashlari va stereotiplarini anglash hamda ularni tahlil etish.

Tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyaga ega psixologlar mijozlar bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatadi, muloqotda noverbal signallardan to‘g‘ri foydalanadi va konfliktlarni samarali hal qiladi. Rogers shuni qayd etadiki, samimiy qabul qilish va empatiya psixologik yordamning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muhim omildir [4]. Madaniyatlararo muhitda esa bu yondashuv mijoz bilan chuqurroq aloqa o‘rnatishga yordam beradi. Deardorff madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish jarayonida shaxsiy refleksiya, o‘z madaniyatini anglash va boshqa madaniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni asosiy shart sifatida ko‘rsatadi [5]. Darhaqiqat, ushbu jarayonlar bo‘lajak psixolog talabalarda madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlanishiga olib keladi. Goleman esa hissiy intellekt darajasi yuqori bo‘lgan psixologlarda tolerantlik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari tezroq rivojlanishini ta’kidlaydi [6].

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, bo‘lajak psixologlarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu sifatlar nafaqat psixologning kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi, balki jamiyatda o‘zaro hurmat, hamkorlik va tinchlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ushbu sifatlar nafaqat shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, balki kelajakdagi kasbiy faoliyat samaradorligini ham ta’minlaydi. Shuningdek, mazkur yo‘nalishda tizimli pedagogik yondashuv va psixologik trening texnologiyalarini joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, psixologik ta’lim jarayonida ushbu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ананьев Б.Г. К психофизиологии студенческого возраста // Современные психологические проблемы высшей школы. – Л., 1974. – Вып. 2.
2. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: Знание, 1996.
3. Bennett M.J. (2013). Basic Concepts of Intercultural Communication: Paradigms, Principles, and Practices. Boston: Intercultural Press.
4. Rogers C.R. (1961). On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.
5. Deardorff D.K. (2006). The identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. Journal of Studies in International Education, 10(3), 241-266.
6. Goleman D. (1995). Emotional Intelligence. New York: Bantam Books.
7. Shaxsda emotsionallikni namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar // ILM-FAN taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar, 2023.
8. Akbaraliyeva A.T. Bo‘lajak psixologlarning konsultativ faoliyat malakasini tarkib toptiruvchi kasbiy-shaxsiy sifatlar // Pedagogik mahorat, 2024. – 23 b.
9. Akbaraliyeva A. Talabalarda xulq og‘ishining oldini olishning ijtimoiy-pedagogik va psixologik shartlari // Ғылым-білім-өнер интеграциясы: перспективалық жобалар, 2023. – 451 b.
10. Akbaraliyeva A.T. Konsultativ psixologning muhim fazilatlari // Lokal urushlarda shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatlarini stabillashtirish muammolari, 2024. – 193 b.



RAQAMLI TA'LIM MUHITINING PEDAGOGIK SALOHIYATI ASOSIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH (TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH MISOLIDA)

Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Maqolada raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati hamda uning texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarda kreativ fikrlashni, mustaqil qaror qabul qilishni va amaliy faoliyatga bo'lgan qiziqishni oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, pedagogik salohiyat, kreativ qobiliyat, texnologiya ta'limi, innovatsion yondashuv.

Abstract: The article analyzes the pedagogical potential of the digital learning environment and its opportunities in developing students' creative abilities in the process of teaching technology. The study highlights the issues of enhancing creative thinking, fostering independent decision-making skills, and increasing interest in practical activities through the effective use of digital tools. Furthermore, the influence of pedagogical conditions organized within the digital learning environment on educational effectiveness is substantiated.

Key words: digital learning environment, pedagogical potential, creative abilities, technology education, innovative approach.

Аннотация: В статье анализируется педагогический потенциал цифровой образовательной среды, а также её возможности в развитии творческих способностей учащихся в процессе преподавания технологии. В исследовании освещаются вопросы повышения креативного мышления, формирования навыков самостоятельного принятия решений и усиления интереса к практической деятельности посредством эффективного использования цифровых инструментов. Кроме того, обосновано влияние педагогических условий, организованных в цифровой образовательной среде, на эффективность обучения.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, педагогический потенциал, креативные способности, технологическое образование, инновационный подход.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish global tendensiyaga aylangan bo'lib, u ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, texnologiya fanida raqamli ta'lim muhitidan foydalanish o'quvchilarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, loyihalash va dizayn ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli texnologiya darslarini raqamli ta'lim muhiti asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Raqamli ta'lim muhiti tushunchasi va mazmuni. Raqamli ta'lim muhiti – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron resurslar, onlayn platformalar va interaktiv vositalar asosida tashkil etilgan yagona pedagogik makondir. Ushbu muhit o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida samarali axborot almashinuvi, mustaqil ta'lim hamda ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologiya darslarida raqamli ta'lim muhiti quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: elektron o'quv resurslari (video, animatsiya, 3D modellar); virtual laboratoriyalar va simulyatorlar; loyihalash hamda dizayn dasturlari; onlayn ta'lim platformalari va LMS tizimlari.

Texnologiya darslarida raqamli ta'lim muhitining afzalliklari. Texnologiya fanini o'qitishda raqamli ta'lim muhiti quyidagi pedagogik afzalliklarga ega:

- ijodiy faoliyatni faollashtirish – raqamli dizayn dasturlari va modellashtirish vositalari o'quvchilarning ijodiy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi;
- individuallashtirilgan ta'lim – o'quvchilar o'z qiziqishi va qobiliyatiga mos topshiriqlarni mustaqil bajarish imkoniga ega bo'ladi;
- vizual va interaktiv ta'lim – murakkab texnologik jarayonlar animatsiya va simulyatsiyalar orqali oson tushuntiriladi;
- loyihaviy faoliyatni rivojlantirish – raqamli muhitda loyiha ishlab chiqish, taqdim etish va baholash samarali tashkil etiladi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli. Raqamli ta'lim muhiti texnologiya darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Virtual muhitda ishlash jarayonida o'quvchilar mustaqil qaror qabul qilish, yangi g'oyalar yaratish, muammoni turli yechimlar asosida hal etish hamda loyihani takomillashtirish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning nafaqat texnologik savodxonligini, balki kreativ tafakkurini ham rivojlantiradi. Texnologiya darslarida raqamli ta'lim muhitidan foydalanish ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish imkonini beradi. Raqamli vositalar o'quvchilarning ijodiy, texnologik va loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois texnologiya fanini o'qitishda raqamli ta'lim muhitini tizimli va maqsadli joriy etish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida raqamli vositalarning joriy etilishi ta'lim mazmunini boyitish, o'quvchilarning amaliy va ijodiy faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish va taqqoslash, so'rovnoma, tajriba-sinov ishlari hamda statistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali raqamli ta'lim muhitining o'quvchilarning kreativ qobiliyatlariga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan texnologiya darslari o'quvchilarning kreativ faolligini oshiradi. Xususan, interaktiv platformalar, raqamli loyihalar, virtual laboratoriyalar va multimedia resurslaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Raqamli muhitda o'quvchilar, dastlab, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etishni, dizayn va loyihalash faoliyatini hamda ijodiy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishni o'rganadilar. Bu esa texnologiya fanining amaliy va ijodiy yo'nalishini kuchaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki o'z kreativ g'oyalarini amaliyotga tatbiq eta olishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni g'oya yaratishdan tortib, uni real mahsulot yoki loyiha sifatida amalga oshirishga o'rgatish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. Kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishni o'rgatish o'quvchilarda mustaqillik, mas'uliyat va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi. Kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishni o'rgatishda loyiha asosida o'qitish muhim pedagogik ahamiyatga ega. O'quvchilar muammoli vaziyat asosida g'oya ishlab chiqib, uni rejalashtirish, material tanlash va yakuniy mahsulot yaratish bosqichlaridan o'tadilar. Texnologiya darslarida bu jarayon quyidagi yo'nalishlarda samarali amalga oshiriladi:

- g'oyani vizual modellashtirish (chizma, eskiz, maket);
- amaliy tajribalar orqali sinovdan o'tkazish;
- jamoaviy muhokama va tahlil;
- yakuniy mahsulotni taqdim etish.

Natijada o‘quvchilarning ijodiy faolligi oshadi, nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lanadi. Dizayn va loyihalash faoliyati orqali o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish. Ta’limda o‘quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda dizayn va loyihalash faoliyati o‘quvchilarning g‘oyaviy fikrlashini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, texnologiya fanida dizayn yondashuvi asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning kreativ fikrlashi, estetik tafakkuri va muhandislik tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, dizayn va loyihalash faoliyatini kuzatish, tajriba-sinov ishlari, o‘quv loyihalarini tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash kabilar. Mazkur metodlar dizayn va loyihalash faoliyatining o‘quvchilarning kreativ rivojlanishiga ta’sirini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari va muhokama jarayonini tahlil qilish lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dizayn va loyihalash faoliyati asosida tashkil etilgan texnologiya darslari o‘quvchilarning kreativ faolligini sezilarli darajada oshiradi. Loyiha jarayonida o‘quvchilar muammoni aniqlash, g‘oya ishlab chiqish, dizayn yechimini tanlash, materiallar bilan ishlash va tayyor mahsulot yaratish bosqichlaridan o‘tadilar.

Dizayn va loyihalash faoliyatining asosiy pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- kreativ g‘oyalarni vizual va amaliy shaklga keltirish;
- muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- jamoada ishlash va muloqot madaniyatini shakllantirish;
- estetik va texnik tafakkurni uyg‘un rivojlantirish.

Bu jarayon o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘laydi. Dizayn va loyihalash faoliyati texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Loyiha asosida tashkil etilgan dizayn faoliyati o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, amaliy ko‘nikmalarini va innovatsion yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etish ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitining pedagogik salohiyati texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli vositalardan maqsadli va tizimli foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. Digital Learning in Education. – Paris, 2022.
2. Xodjayev B.X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
3. Muslimov N.A. Texnologiya ta’limi metodikasi. – Toshkent, 2020.
4. Salimova Z. Raqamli ta’lim muhitining didaktik imkoniyatlari // Pedagogika jurnali, 2023.
5. Kulboyeva D.A. Formation of creativity of primary school students // International Journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. ISSN: 2277-3630. India. Impact Factor (SJIF: 2022): 7.429. Vol. 11, №10. October 2022. P. 93-95. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/967
6. Qulboyeva D. Pedagogical basis for the development of creativity in primary class students // Results of Modern Scientific Research international scientific and current research conferences. USA. January 30, 2023. P. 156-158. https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1088
7. Kulboyeva D. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishda texnologiya fanining ahamiyati. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar.

O‘ZBEK TILI – FAXRIM, G‘URURIM

H. Shukurova
JDPU katta o‘qituvchi

M.Jumanazarova
1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til millat ko‘rki ekanligi, uni har bir shaxsning o‘z vatanini sevishida muhim omil ekani, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan 1-sinfdan boshlab shakllantirilishi zarurligi haqida metodik tavsiyalar berilgan. “Ona tili – o‘zbek tili” 1-sinf darsligining mavzusidan namuna keltirilgan.

Kalit so‘zlar: til – inson tafakkuri, ona tili, “Men kimman?”, “Ona tili nima?”, bolajonlar, birinchi ta’rif.

Abstract: The article examines the role of language as a national value and an essential factor in fostering love for one’s homeland. Particular attention is given to the importance of cultivating respect for the mother tongue starting from Grade 1 in the practice of primary school teachers. The paper provides methodological recommendations and presents an example from the Grade 1 textbook topic “Mother Tongue – Uzbek Language.”

Key words: language – expression of human thinking, mother tongue, “Who am I?”, “What is the mother tongue?”, primary school pupils, initial definition.

Аннотация: В статье рассматривается значение языка как национальной ценности и важного фактора формирования любви к Родине у каждого человека. Особое внимание уделяется необходимости формирования уважительного отношения к родному языку начиная с 1-го класса в деятельности учителей начальной школы. В работе представлены методические рекомендации, а также приведён пример из темы учебника для 1-го класса “Родной язык – узбекский язык”.

Ключевые слова: язык – выражение человеческого мышления, родной язык, “Кто я?”, “Что такое родной язык?”, младшие школьники, первичное определение.

KIRISH

Alloh insonni boshqa mavjudotlardan ko‘ra zabonli qilib yaratdi. Inson so‘zlashishi, fikrlashi va tafakkuri bilan yer yuzida ustunlik qiladi. Inson uchun eng muhim narsa bu tildir. Abu Nasr Farobiy aytganidek: “Til – inson tafakkurining ifodasidir. Til orqali inson o‘z fikrini boshqalarga yetkazadi va bilim almashadi”. O‘zbekiston Respublikasining asosiy ramzlaridan biri bu o‘zbek tilidir. Har bir davlat o‘z tili bilan yuksaladi. Bu fikrni isbotlash uchun Abdulla Avloniyning hikmatli so‘zini keltirishimiz mumkin: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynasi bu uning tili va adabiyotidir”. Biz ona tilimizni boshlang‘ich sinf darsligidan boshlab mukammal o‘rganamiz.

Ona tili – bu xalqning yuragi, millatning ruhi va avlodlar o‘rtasidagi eng muqaddas ko‘prikdir. Har bir inson ona tilini chuqur bilmogi, anglamog‘i va o‘rganmog‘i kerakdir. Ona tilini yoshligimizdan, maktabga ilk qadam qo‘yganimizdan boshlab o‘rganamiz. Bunda bizga 1-sinf 1-qism “Ona tili” darsligi yordamga keladi. Uning muallifi D. Sh. Yuldashevadir. Bolalarga “Ona tili” darsligini tushuntirishda dastlab ona tili haqida ma’lumot berib, so‘ngra ularga shartli belgilarni tushuntiramiz.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: “Ona tili nima?” savoliga 1-2-rasmlar va maqollar, she’rlar bilan tanishtirib, ularda ona tili haqidagi ko‘nikmalarni hosil qilish;

Tarbiyaviy: Bolalarda ona tili faniga nisbatan qiziqish uyg‘otish, o‘z tilini sevishga, to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, hamma yerda o‘z tili bilan faxrlanish hissini uyg‘otish;

Rivojlantiruvchi: Mustaqil va ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish, lug‘at ustida ishlash va fikrlash malakasini rivojlantirish.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

Salomlashish: Aziz bolajonlar, 1-sinfga "Xush kelibsiz!". Barchangizga o'quv yilida omad tilayman. Umid qilamanki, o'quv yili mobaynida darslarga faol qatnashib, a'lo baholarga o'qiysizlar. Keling, endi sizlarni ona tili darsligi bilan tanishtiraman. Ona tili – bu bizning milliy tilimiz, shuning uchun bu tilni yaxshi bilishimiz kerak. Xo'p, bolajonlar, endi quyidagi belgilarga e'tibor beramiz.

Bu belgi "og'zaki bajaring" belgisi, bunda biz berilgan mashqlarni og'zaki bajaramiz.

Bu belgi "yodda tuting" belgisi, bu belgini ko'rganimizda ona tilidagi qoidalarni yod olamiz.

Bu belgi "o'ylab ko'ring" belgisi, bunda berilgan savollarga javob topasizlar.

Bu belgi "o'zingizni sinab ko'ring" belgisi, sizlarga mantiqiy mashqlar beriladi va siz ularni yechasizlar.

Bu belgi "uyga vazifa", bunda berilgan mashqlarni uyda bajarib kelasizlar.

Bu belgi "yozma bajaring" belgisi, bunda berilgan mashqlarni sinfda bajaramiz. Endi ona tiliga kirish qismiga o'tamiz. Kirishda "Ona tili nima?" degan savol qo'yilgan. Shu yerda men sizlarga Zulfiya Mo'minovaning "Ona tilim" degan she'ridan parcha aytib bermoqchiman.

Ona tilim – jon dilim,
Sen bilan faxrlanaman.
Har bir so'zing ohangin,
Dilga jo bo'lar, bilaman.





Bu she'rda bizning ona tilimiz madh etilgan. Shoira bizning ona tilimizni aziz deya ataydi. She'r bizga to'g'ri so'zlashishni va ona tilini sevishni, uni ardoqlashni o'rgatadi. Bolajonlar, rasmga e'tibor beramiz. Bunda Malika ismli qizcha kitob o'qiyotib, "Ona tili nima?" degan savolni o'qib, unga javob topolmay turibdi. Keling, biz shu savolga javob topib ko'ramiz.

Ona tili – bu o'zbek xalqining milliy tilidir. Tilimiz ham onamiz kabi yaqin bo'lganligi tufayli uni ona tili deb ataymiz. Har bir davlatning o'z tili bor, bizning tilimiz o'zbek tilidir, biz uni ona tili deb ataymiz.

Keyingi rasmda Rustam ismli bola kitob o'qib turganini ko'rishimiz mumkin. Bolajonlar, sizlar ham vaqtingizni bekorga sarflamay, ko'proq kitob o'qisangiz, kelajakda yaxshi inson bo'lib ulg'ayasizlar. Xalqqa, oilangizga yordami tegadigan inson bo'lasizlar. Hamma uydagilarini yaxshi ko'radi-ku, to'g'rimi? Shuning uchun yaxshi baholarga o'qishingiz kerak. Quyida bir ibora berilgan: "Ona tilim – o'zbek tilim". Qani, birgalikda takrorlaymiz.

O'quvchilar: "Ona tilim – o'zbek tilim". Bolajonlar, endi 1-mashqqa o'tamiz. Bu mashqni og'zaki bajarish kerak ekan. Kelinglar, shuni o'yin shaklida o'tkazamiz. O'yin sharti quyidagicha: doskaga 3 ta millat vakilidan birining rasmi tushirilgan rasm ilinadi, bir o'quvchi chiqib doskaga teskari holatda o'tiradi. Qolgan o'quvchilar birma-bir rasmga ta'rif beradi, doskada turgan o'quvchi shu ta'rif bo'yicha doskadagi rasmni topadi. Birinchi ta'rifda topsa "5", ikkinchi ta'rifda topsa "4" baho qo'yiladi. O'yinni boshlashdan oldin sizlarga rasmdagilarni tanishtirib o'tsam.





Rasmda 3 ta millatga xos kiyingan odamlar turibdi. Birinchisi o‘zbek bolasi, u chiroyli etik kiygan, belbog‘ bog‘lagan va do‘ppi kiygan. U: “O‘zbek tili – mening ona tilim”, deb aytayapti. Ikkinchisi zamonaviy kiyingan, boshqa millatga mansub bo‘lgan odam – bu ispaniyalikdir. U: “Mi lengua materna es el español”, ya’ni mening ona tilim ispan tili, demoqda. Uchinchi rasmdagi uzun kiyim kiygan, sochi uzun va sochiga ipli narsa taqib olgan kishi – koreys millatiga mansub. Qani, endi o‘yinni boshlaymiz. Bolalar, sizlar shu rasmga ta’rif berasizlar.

Qani, Akbar, sen birinchi bo‘lib ta’rif ber.

Akbar: Chiroyli do‘ppi va etikda, belida belbog‘i bor.

O‘qituvchi: Xo‘sh, Akmal, bu qaysi millat vakili?

Akmal: Bu o‘zbek milliy libosidagi o‘zbek bolasi.

To‘g‘ri topding, ofarin! Bahoying “5”. Bolajonlar, mashqimiz tushunarli bo‘ldimi? Endi shulardan o‘zbek tilida yozilganini ko‘chirib olamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbek tili – mening ona tilim. O‘zbek tili men yashayotgan O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Dunyoda juda ko‘p tillar mavjud. Misol uchun: rus tili, ingliz tili, koreys tili, o‘zbek tili. Har bir xalq o‘z ona tilida so‘zlashadi. Ruslar rus tilida, inglizlar ingliz tilida, biz esa o‘zbek tilida so‘zlashamiz. O‘zbekistonda yashayotgan har bir inson birinchi navbatda o‘zbek tilida so‘zlashadi. Mana endi 2-mashqda ona tili haqida chiroyli she’r berilgan ekan.

Ona tilim

Ona tilim – yurak qa’rimda,
Mehr bo‘lib sochilgan jarang.
Qulog‘imga yurak paytimdan,
Alla bo‘lib singgan jarang.
Ona tilim – necha asrlar
Kurashida yenggan palvonim.
Necha ajdod, necha asrlar
Suyib o‘tgan turkiy zabonim.

Shu she’rni parta boshidan boshlab bittalab o‘qiymiz. Barakallo, hammangiz ifodali va chiroyli o‘qidingiz.

Mavzuning bayoni. O‘qituvchi: Bolajonlar, o‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy tilidir. Bu til biz uchun juda qadrli va suyuklidir. Biz o‘zbek tilimiz bilan hamma yerda faxrlanishimiz va sof o‘zbek tilida gapirishimiz kerak. Bu til bilan faxrlanib, juda ko‘p bobolarimiz she’rlar, dostonlar yozishgan. Misol uchun, bitta she’r aytib bermoqchiman.

Ona tilim – nurli yo‘lim,
Har bir so‘zing – jonim, so‘lim,
Sen bilan o‘sar yurakda faxr,
Tilim – baxtim, Vatan ruhim.

Bu she’r o‘zbek xalq shoirasi Zulfiyaxonim Isroilovanikidir. Keyingi darslarimizda yanada ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lasizlar. Lug‘at ishi: yurak qa’rimda – yuragimning ichida, tubida; zabon – til, nutq, so‘zlashish; bol – shirin, asal.

Mavzuni mustahkamlash. Yuqorida o‘tilganlarni mustahkamlab, 3-mashqqa o‘tamiz. Bunda “Tilingda bo‘lsa boling, kulib turar iqboling” degan maqol berilgan. “Boling” so‘zining o‘rniga shu ma’noga yaqin boshqa so‘z qo‘yishimiz kerak ekan. Misol uchun, “asaling” so‘zini qo‘yib ko‘rsak bo‘ladi: “Tilingda bo‘lsa asaling, kulib turar iqboling”. Shunga o‘xshash bir o‘yin o‘tkazamiz: men maqol aytaman, sizlar rasmga qarab maqolni davom ettirasizlar.

 -olma duo ol

Olmaning tagiga  tushadi.

Yetti o‘lchab –  kes.

 kuzda sana.

Mana, maqollarni ham topib oldik, o‘quvchilar, zehnlaringiz juda ham yaxshi ekan.

Darsni yakunlash va baholash. O‘qituvchi: Bolajonlarim, bugungi dars sizlarga yoqdimi? Dars davomida nimalarni bilib oldingiz? Shu kabi savollar orqali o‘quvchilar fikri tinglanadi, umumlashtiriladi va dars so‘ngida o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Uyga vazifa. Uyga vazifaga maqolni to‘g‘ri so‘z qo‘yib to‘ldirish berilgan ekan. …… – bu o‘zbek xalqining ona tilidir. Keling, bir namuna sifatida “ingliz tili” so‘zini qo‘yib ko‘rsak: “Ingliz tili – bu o‘zbek xalqining ona tilidir”. Bu to‘g‘rimi? Albatta, yo‘q. Sizlar shunday qo‘yib ko‘rib, to‘g‘risini topasizlar. Yana bir topshiriq bor: bunda “til” so‘zi nutqda yana qanday ma’noda qo‘llanishini topishimiz kerak ekan. Namuna: zabon, nutq kabi so‘zlar. Qolganini uyda topib kelasizlar. Ona tili – bu xalqning ruhi, millatning yuragi va inson qalbining eng nozik ifodasidir. Insonga suv, havo qanchalik kerak bo‘lsa, ona tili ham insonga shunday zarur. Inson o‘z tilini bilmay yuksalmaydi. Tilimiz qanchalik yuksalsa, bizning qadr-qimmatimiz ham yuksalaveradi. U bizni o‘z ildizimiz, tariximiz va madaniyatimiz bilan bog‘laydi. Xalqimizda bir ibratli ibora bor: “Til yuksalsa, sen ham yuksalasan”.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, buning uchun, avvalo, yoshlarimizga to‘g‘ri tarbiya berishimiz va tilni mukammal o‘rgatishimiz kerak. Yoshlarga yuqorida tushuntirilganidek didaktik metodlar asosida dars o‘tilsa, ularning o‘zlashtirishi oson bo‘ladi. Bola murakkab narsani tushunib olishga qiynaladi; bolada shu fanga nisbatan qiyinchilik bo‘lsa, bu fanga qiziqishi susayishi mumkin. O‘qituvchi dars mobaynida har bir o‘quvchi bilan individual ishlashi kerak. Darsda 2 yoki 3 ta didaktik metod qo‘llansa, bolalar darsga e’tiborli bo‘ladilar va dars ham qiziqarli o‘tadi. Bolalarga ona tili ruhini singdirish, o‘z tiliga nisbatan faxr tuyg‘usini uyg‘otish zarur. Zero, ona tili – mehr, ezgulik va g‘urur manbayi, inson tafakkurining eng go‘zal gavharidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Yuldasheva. 2-sinf Ona tili darsligi. “Novda” nashriyoti, 2023-yil.
2. X. Shukurova. “Til tafakkurining mahsuli”. “Fan ta’limi va amaliyot majmuasining dolzarb muammolari”. Toshkent, 2020-yil.
3. B. Boltayeva. “To‘g‘ri rivojlangan nutq – samarali ta’lim asosi”. “Fan ta’limi va amaliyot majmuasining dolzarb muammolari”. Toshkent, 2021-yil.
4. Abu Nasr Farobiy. “Kitob al-huruf” va “Ihso al-ulum” asarlari.
5. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. Toshkent, 1913-yil.

ZAMONAVIY DARS – PEDAGOGIK IJODKORLIKNING ASOSIY MAYDONI

M. Kuzibayeva
Andijon davlat tibbiyot instituti
O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari tahlil qilinishi bilan birga, oliy ta'limdagi zamonaviy darslarga qo'yilayotgan bugungi talablar yoritib beriladi. Pedagogning ijodkorligi asosida talabalar shaxsini rivojlantirish, intellektual qobiliyatlarini oshirish uchun didaktik mezonlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy va madaniy yuksalish, darsning sifati va samaradorligi, talabaning tashabbuskorlik va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish.

Abstract: The article analyzes the issues of the development of the education system, as well as the current requirements for modern classes in higher education. It discusses didactic criteria aimed at developing students' personalities and enhancing their intellectual abilities based on the teacher's creativity.

Key words: economic and cultural development, quality and effectiveness of the lesson, formation of students' initiative and creativity.

Аннотация: В статье наряду с анализом вопросов развития системы образования освещаются современные требования, предъявляемые к занятиям в высшем образовании. Рассматриваются дидактические критерии, направленные на развитие личности студентов и повышение их интеллектуальных способностей на основе педагогического творчества.

Ключевые слова: экономический и культурный рост, качество и эффективность занятия, формирование инициативности и творческих способностей студента.

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston o'zining buyuk kelajagini bugundan yaratar ekan, avvalo, ta'lim-tarbiya sohasidagi ustuvor o'zgarishlar uchun keng sharoitlar yaratmoqda hamda yoshlarning bilim salohiyatini oshirish maqsadida o'quv yurtlari oldiga muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini rivojlantirish bosqichida mamlakatimizning ilg'or ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yuksalishini ta'minlash uchun ijodkor, yuksak ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega, chuqur bilimli, raqobatbardosh pedagog kadrlar faoliyat olib borishi talab etiladi. Bu esa pedagogning kasbiy shakllanishi jarayonida zamon talablari asosida o'qitish ishlarini tashkil etishni muhim vazifa sifatida belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro uyg'un tarzda amalga oshirilgan ijodiy faoliyati va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik hamda ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va ijodkorlik sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoitlar, hayotiy muhim va kasbiy jihatdan shartlangan hodisalarga bog'liq. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida talaba va o'quvchilarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson va Merryman (2010-y.), Ken Robinson (2007-y.), Fisher va Frey (2008-y.), Beghetto va Kaufman (2013-y.), Ali (2011-y.), Treffinger (2008-y.) va boshqalar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar natijalaridan ko'rish mumkin. Birgina Ken Robinson tomonidan 2007-yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar. O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilmoqda.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik (ijodkorlik)” tushunchasining ma’nosini aniqlab olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida ushbu tushunchani quyidagicha izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebaylning yondashuvi nuqtayi nazaridan ifodalanganda, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish” demakdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda har bir pedagog ijodkor, izlanuvchan va o‘z ustida tinmay ishlashi lozim. Shiddatli zamonaviy davrda talabaning yuragidagi cho‘g‘ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir. Zamonaviy darsda o‘qituvchi talabaning mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga soladi va rivojlanishini ta’minlaydi. Talaba esa o‘z navbatida bilimlarini chuqur o‘zlashtiradi hamda ma’naviy barkamollik sari odimlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy darsga qo‘yiladigan didaktik talablar, muammoli darslar, dasturlangan darslar, kompyuterli o‘qitish, loyihali o‘qitish, darsning strukturasi va turlari, dars sifati hamda samaradorligi kabi omillar haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Hozirgi zamon jamiyatining barcha sohalarida har bir shaxsdan tashabbuskorlik, ijodkorlik va mustaqil fikrlash talab etiladi. Dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni. Pedagogning asosiy kasbiy ehtiyoji – o‘rgatish, bilimni yetkazish – aynan dars jarayonida amalga oshadi. Shunday ekan, darsni ta’lim jarayonini tashkil etishning markaziy shakli sifatida to‘g‘ri va yangicha yondashuv asosida tashkil etish zarur. Dars jarayonida pedagog oldida muhim vazifa turadi: talabalarni bilim olishga jalb etish va ularni oldinga harakatlantirish. Bu esa pedagog va talabalarni o‘zaro hamkorlikdagi mehnatga jalb etishni talab qiladi. Buning uchun o‘qitishga majburlash emas, balki qiziqtirish tamoyiliga tayanish lozim. Pedagogik hamkorlik qarashlaridan biri – darsda talabadagi qo‘rquvni bartaraf etish, uni erkin va dadil qilish, o‘z kuchiga ishontirish hamda unga jiddiy ijod qila oladigan shaxs sifatida qarashdir.

Darsda aniq maqsad bo‘lishi shart. Bu talabalar bilan hamkorlik ruhida ish olib borish, ularga aniq maqsad qo‘yish, mazkur maqsadning murakkabligiga qaramay uni amalga oshira olishiga ishontirish orqali talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirishdan iborat. Darsning maqsadi – butun mashg‘ulot davomida egallanishi zarur bo‘lgan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalardir. Darsning vazifasi esa mazkur maqsadni amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan vositalardir. Maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun ta’lim samaradorligini ta’min etuvchi ilmiy-metodik va texnologik yo‘l tanlanadi. Bu jarayon o‘qituvchidan tashkilotchilik, konstruktiv va kommunikativ yondashuv, innovatsion kasbiy mahorat hamda metodologik madaniyatni talab etadi. Har bir dars maqsadini aniqlashga tizimli yondashuv oldingi va keyingi o‘tiladigan dasturiy bilimlar, ko‘nikmalar hamda maqsadlarning uzviy bog‘liqligini ta’minlaydi.[1] Talabaning dars jarayonida ta’lim dasturini to‘laqonli o‘zlashtirishi uzviylik va uzluksizlik asosida kafolatlanadi. Natijada dars komponentlari o‘z o‘rnini topadi, ya’ni:

- maqsad;
- o‘quv materiali mazmuni;
- metod va vazifalar;
- darsning tashkiliy shakllari;
- o‘qituvchining faoliyati;
- talabaning faoliyati to‘laqonli shakl va mazmunga ega bo‘ladi.

Talaba shaxsida o‘z-o‘zini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Dars jarayonida talaba ijodkorligini shakllantirish bugungi zamonaviy darsning asosiy mazmunini tashkil etadi. Har bir o‘quv materiali talabada ijodiy motivlarni uyg‘ota oladigan, yangi g‘oyalarni shakllantira oladigan bo‘lishi lozim. Talabaning ijodkorligini ta’minlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- talabani o‘tilayotgan mavzuga qiziqtira olish;
- mavzuni o‘zlashtirishda rolli o‘yinlarga tayanish hamda talabaning mavjud bilim, ko‘nikma va malakalariga suyanish;
- talabaning tashabbuskorlik va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish hamda qo‘llab-quvvatlash;

1 Кузибаева М.М. Формирование научно-исследовательских навыков студентов первого курса медицинского вуза.Экономика и социум 3(130), стр. 574-579

- talabaning qiziqishi va xohishlarini faollashtirish;
- talabaning intellektual (diqqat, xotira, fikrlash) qobiliyatlarini ishga solish;
- muloqot jarayonida aytilayotgan fikr va mulohazalarni jamlashga ko‘maklashish;
- talabaning muvaffaqiyatga erishishi uchun qulay vaziyat yaratish, ayniqsa aniq dalillarga tayangan holda misollar keltirishini qo‘llab-quvvatlash.

Zamonaviy darslarning asosiy mazmuni bugungi kun talablariga va raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan ekan, dars samaradorligini ta’minlovchi omillarga e’tibor qaratish har bir pedagogdan mas’uliyat talab etadi.

Dars jarayonini tashkil etishdagi asosiy omillar quyidagilar:

1) darsning o‘quv maqsadini aniqlash;
2) darsdan kutilayotgan pirovard natijani belgilash;
3) ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlashtirish;
4) mazmunni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish;
5) maqsadga olib boruvchi bayonni matn, darslik va tarqatma materiallar asosida kichik guruhlarda ishlash yoki o‘qituvchi tushuntirishi orqali tashkil etish;
6) talabalarning ta’lim mazmuni va maqsadlarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash;
7) testlar va savollar tuzishga o‘rgatish;
8) yangi mavzu, tushuncha, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish darajasini baholash;
9) dars o‘tish uslubi va vositalarini to‘g‘ri tanlash;
10) darsda o‘quv jarayonini amalga oshirish uchun zarur jihoz, texnika va tarqatma materiallar bilan ta’minlash;
11) talabalar bilimi baholangandan so‘ng uning natijalari bo‘yicha tuzatishlar kiritish.

Noan’anaviy ta’lim sharoitida talabalarda o‘quv predmetini mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish pedagogdan yuqori mahoratni talab etadi. Bu jarayonda o‘qituvchi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda o‘quv materialini talabalarga yetkazadi. Shu bilan birga, o‘zlashtirilgan materiallar asosida talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi: o‘quv jarayonida o‘z-o‘zini anglash orqali tarbiyalanish va o‘qib-o‘rganish ustuvor bo‘ladi; talabada ichki motivatsiya rivojlanadi, o‘qish va o‘rganishga qiziqish ortadi; talabaning mustaqil ijod qilishi uchun sharoit yaratiladi; bilim olish ongli ravishda ichki intilish va xohish asosida amalga oshiriladi; dars jarayoni markazida talaba, uning fikrlari, qiziqishlari va o‘z-o‘zini boshqarishi turadi; o‘quv jarayonida bilim, malaka, tushuncha va ko‘nikmalarni egallashga alohida e’tibor beriladi. Shundan xulosa qilish mumkinki, talaba shaxsini rivojlantirish uni o‘zini anglash va mustaqil harakat qilishga yo‘naltirishdan boshlanadi. Ya’ni talabada mustaqil mutolaa asosida bilim olish, o‘z-o‘zini anglab tarbiya topish, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonch bilan qarash, mas’uliyatni his etish, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olish, o‘quv mehnatiga xohish uyg‘ota olish, faolligini oshirish hamda axborot manbalaridan unumli foydalana olish sifatlarini shakllantirish asosiy maqsadga aylanishi lozim.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda yangicha fikrlaydigan, mustaqil faoliyatiga ishonadigan, turli raqobatlarga bardosh bera oladigan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash va bilimli etib shakllantirish zamonaviy darslarning asosiy negizidir. Darslarda belgilanayotgan maqsadlar o‘quv maqsadlariga mos tushishi hamda talabaning shaxsiy maqsadiga aylanishi kerak. Zero, darsda talaba o‘zlashtirib olishi zarur bo‘lgan komponentlar shaxsan unga qaratilgan bo‘lishi, maqsadlar esa o‘zaro uyg‘unlashishi lozim. Ana shu moslik dars samaradorligini ta’minlaydi, talabaning chuqur va puxta bilim olishini hamda tarbiya topishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shoyimova Sh.S., Kuzibayeva M.M. Ta’lim texnologiyalari. – T., 2020. – 137-230 b.
2. Кузибаева М.М. Формирование научно-исследовательских навыков студентов первого курса медицинского вуза // Экономика и социум. – 3(130). – С. 574-579.
3. Кузибаева М.М. Дидактические принципы обучения языку // Экономика и социум. – 4(131). – С. 961-965.
4. Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения. – URL: http://www.vshu.ru/lections.phptab_id=3&a=info&id=2600
5. Drapeau P. Sparking Student Creativity (Practical Ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

TALABALARNI TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ELEMENTLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni sun'iy intellekt (SI) elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot kompetensiyaviy va loyihaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan metodik modelning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida nazorat va tajriba guruhlari natijalari taqqoslangan. Olingan natijalar takomillashtirilgan metodika talabalarning raqamli kompetensiyasi, algoritmik tafakkuri hamda SI vositalaridan ongli va samarali foydalanish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, metodika, raqamli kompetensiya, algoritmik tafakkur, loyihaviy ta'lim, oliy ta'lim, pedagogik innovatsiya.

Abstract: This article examines the improvement of the methodology for preparing students to use artificial intelligence (AI) elements in higher education institutions. The study aims to determine the effectiveness of a methodological model developed on the basis of competency-based and project-based approaches. During the pedagogical experiment, the results of the control and experimental groups were compared. The findings demonstrate that the improved methodology significantly enhances students' digital competence, develops algorithmic thinking, and fosters skills for the conscious and effective use of AI tools.

Key words: artificial intelligence, methodology, digital competence, algorithmic thinking, project-based learning, higher education, pedagogical innovation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики подготовки студентов к использованию элементов искусственного интеллекта (ИИ) в системе высшего образования. Исследование направлено на определение эффективности методической модели, разработанной на основе компетентностного и проектного подходов. В ходе педагогического эксперимента были сопоставлены результаты контрольной и экспериментальной групп. Полученные данные показали, что усовершенствованная методика способствует значительному повышению уровня цифровой компетентности студентов, развитию алгоритмического мышления и формированию навыков осознанного и эффективного использования инструментов ИИ.

Ключевые слова: искусственный интеллект, методика, цифровая компетентность, алгоритмическое мышление, проектное обучение, высшее образование, педагогическая инновация.

KIRISH

Jahon miqyosida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham tub o'zgarishlar olib kirib, ta'lim mazmuni, shakli va metodlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi va turli sohalarga keng ko'lamda joriy etilishi zamonaviy mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt nafaqat texnik va muhandislik sohalarida, balki ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot, boshqaruv, lingvistika va boshqa ko'plab yo'nalishlarda samarali qo'llanilib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Mazkur jarayon oliy ta'lim tizimi oldiga yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash, ya'ni sun'iy intellekt texnologiyalarining nazariy asoslarini tushunadigan, ularni amaliy faoliyatda qo'llay oladigan, ma'lumotlarni tahlil qilish, algoritmik fikrlash va raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish kompetensiyalariga ega bo'lgan

shaxslarni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarni sun’iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash nafaqat texnologik, balki pedagogik muammo sifatida ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalarni raqamli kompetensiyalar asosida tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa o‘z navbatida sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, talabalarni mazkur texnologiyalardan ongli, samarali va mas’uliyatli foydalanishga tayyorlash metodikasini ilmiy asoslash hamda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘qitish jarayoni ko‘p hollarda nazariy bilimlarni shakllantirish bilan cheklanib qolmoqda, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, algoritmik tafakkurni shakllantirish, muammoli vaziyatlarda sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yetarli darajada metodik jihatdan asoslanmagan. Bundan tashqari, sun’iy intellekt elementlarini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, loyihaviy faoliyat va zamonaviy raqamli vositalar integratsiyasiga asoslangan yaxlit metodik tizimning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur muammoning dolzarbligi, bir tomondan, zamonaviy mutaxassislarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalariga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotgani, ikkinchi tomondan esa ushbu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan metodik ta’minotning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi. Shu sababli talabalarni sun’iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish, uning pedagogik shart-sharoitlari, tarkibiy komponentlari va samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida talabalarni sun’iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish hamda ishlab chiqilgan metodik modelning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali ilmiy asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- sun’iy intellekt elementlarini o‘qitishning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish;
- talabalarni sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning kompetensiyaviy modelini ishlab chiqish;
- takomillashtirilgan metodik tizimni ta’lim jarayoniga joriy etish va uning samaradorligini aniqlash;
- pedagogik tajriba-sinov natijalarini statistik tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt elementlarini o‘qitish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa talabalarni sun’iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasining mazmuni, shakllari, metodlari va vositalaridan iborat.

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, agar talabalarni sun’iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash jarayoni kompetensiyaviy, tizimli va loyihaviy yondashuvlar asosida tashkil etilib, zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar integratsiyasi ta’minlansa, u holda talabalarning raqamli kompetensiyasi, algoritmik tafakkuri va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish (kontent-tahlil), taqqoslash va sintez, pedagogik modellashtirish hamda tizimli tahlil qo‘llanildi. Nazariy tahlil asosida sun’iy intellekt (SI) elementlarini o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari, metodik yondashuvlari va mavjud muammolari aniqlashtirildi. Empirik metodlar doirasida diagnostik testlar, so‘rovnoma va intervyu, pedagogik kuzatuv hamda loyiha ishlari ekspert bahosidan foydalanildi. Diagnostik testlar talabalarning SI bo‘yicha nazariy bilimlari, algoritmik fikrlashi va amaliy ko‘nikmalari darajasini aniqlashga xizmat qildi. So‘rovnoma va intervyu orqali talabalarning motivatsiyasi, SI vositalariga munosabati hamda o‘zini o‘zi baholash ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Pedagogik kuzatuv jarayonida talabalarning mustaqil ishlash darajasi, guruhli loyiha faoliyati va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati baholandi. Loyiha ishlari ekspert bahosi asosida talabalarning yaratgan mini-SI loyihalari mezonlar asosida tahlil qilindi.

Takomillashtirilgan metodikaning tarkibiy modeli maqsadli, mazmuniy, jarayonli (texnologik) va natijaviy komponentlardan iborat. Maqsadli komponent SI elementlaridan foydalanishga tayyor, raqamli kompetent mutaxassisni shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazmuniy komponent o'quv materiallarini SI nazariy asoslari, mashinaviy o'qitish elementlari, ma'lumotlar tahlili asoslari, generativ modellar hamda SI etikasi va xavfsizlik masalalarini qamrab olgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Jarayonli (texnologik) komponent muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, loyihaviy faoliyatni tashkil etish, amaliy laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish va raqamli platformalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Natijaviy komponent esa talabaning bilim darajasi, algoritmik tafakkuri, amaliy loyiha sifati hamda reflektiv qobiliyati asosida baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba boshida o'tkazilgan diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, nazorat va tajriba guruhlari o'rtasida sezilarli farq mavjud emas edi.

1-jadval: **Boshlang'ich tayyorgarlik darajasi (%)**

Daraja	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Yuqori	18	20
O'rta	42	40
Past	40	40

Olingan ma'lumotlar guruhlarning dastlabki bilim darajasi deyarli teng ekanligini ko'rsatdi ($p > 0,05$). To'rt oy davomida tajriba guruhida takomillashtirilgan metodika asosida o'qitish olib borildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar qo'llanildi. Jarayon davomida quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: talabalar tomonidan mustaqil loyiha ishlari soni ortdi; SI vositalaridan foydalanishda izchillik va tushunish darajasi oshdi; algoritmik yondashuv shakllandi; guruhli ishlarda hamkorlik samaradorligi yaxshilandi. Yakuniy diagnostika natijalari quyidagicha bo'ldi.

2-jadval: **Yakuniy tayyorgarlik darajasi (%)**

Daraja	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Yuqori	30	55
O'rta	45	35
Past	25	10

Natijalarga ko'ra: tajriba guruhida yuqori daraja 35 % ga oshdi; past darajadagi talabalar soni 30 % ga kamaydi; nazorat guruhida esa o'zgarishlar nisbatan past darajada bo'ldi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida talabalarni sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda uning pedagogik samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali asoslashga qaratildi.

Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va loyihaviy yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan metodik model ishlab chiqildi hamda uning tarkibiy komponentlari – maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy bloklar o'zaro uzviy bog'liqlikda asoslandi.

Nazariy tahlillar natijasida aniqlanishicha, zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish mutaxassisning muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, amaldagi ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlarini o'qitish ko'proq nazariy bilimlarni shakllantirish bilan chegaralanib, talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, algoritmik tafakkurni shakllantirish hamda sun'iy intellekt vositalaridan ongli va mas'uliyatli foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish yetarli darajada ta'minlanmayotganligi aniqlandi. Mazkur holat talabalarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish zaruratini asoslab berdi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik model sun'iy intellekt elementlarini o'qitishda loyihaviy faoliyat, muammoli ta'lim, amaliy laboratoriya mashg'ulotlari va raqamli platformalardan kompleks foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu model asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, amaliy muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Toshkent, 2021. - 8-25-betlar.
2. Xodjayev, B. X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: Sano-standart, 2017. - 112-145-betlar.
3. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. - 56-89-betlar.
4. Tolipov, O'., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2015. - 75-110-betlar.
5. Muslimov, N. A. Kasb ta'limi pedagogikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2016. - 134-162-betlar.
6. Abduqodirov, A. A., Begimqulov, U. Sh. Axborot texnologiyalarini o'qitish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2012. - 98-126-betlar.
7. Jo'rayev, R. X. Raqamli pedagogika asoslari. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. - 44-72-betlar.
8. Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. Pearson, 2021. - pp. 1-25, 52-78.
9. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign, 2019. - pp. 23-56.

RAQAMLI MAKTABDA YASHIL O'QUV DASTURI: KENGAYTIRILGAN VA VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYALARI BILAN INTEGRATSIYANING PEDAGOGIK MODELI

Maxmudov Abdiqodir Yusupovich
Surxondaryo viloyat pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada raqamli maktabda "Yashil o'quv dasturi": kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli tahlil qilinadi. Tadqiqotda "yashil ta'lim"ning nazariy asoslari o'rganiladi, uning o'quvchilarda ekologik xabardorlik, barqaror fikrlash va ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli ta'kidlanadi. AR/VR texnologiyalarining vizualizatsiya, tajriba asosida o'rganish hamda o'quvchilarning ekologik ta'limga jalb etilishini kuchaytiruvchi innovatsion vositalar sifatidagi didaktik salohiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: "Yashil o'quv dasturi", ekologik ta'lim, kengaytirilgan reallik, virtual reallik, immersiv o'rganish, ta'limda raqamli texnologiyalar, ekologik kompetensiyalar.

Abstract: The article analyzes the "Green Curriculum" in a digital school: a pedagogical model of integration with augmented and virtual reality technologies. The study examines the theoretical foundations of "green education" and emphasizes its role in developing students' environmental awareness, sustainable thinking, and environmental competencies. Special attention is paid to the didactic potential of AR/VR technologies as innovative tools for visualization, experiential learning, and enhancing students' engagement in environmental education.

Key words: "Green Curriculum", environmental education, augmented reality, virtual reality, immersive learning, digital technologies in education, environmental competencies.

Аннотация: В статье анализируется "зелёная учебная программа" в цифровой школе: педагогическая модель интеграции с технологиями дополненной и виртуальной реальности. В исследовании рассматриваются теоретические основы "экологического образования", подчёркивается его роль в развитии экологического сознания, устойчивого мышления и экологических компетенций у учащихся. Особое внимание уделяется дидактическому потенциалу технологий AR/VR как инновационных инструментов визуализации, обучения на основе опыта и повышения вовлечённости учащихся в экологическое образование.

Ключевые слова: "зелёная учебная программа", экологическое образование, дополненная реальность, виртуальная реальность, иммерсивное обучение, цифровые технологии в образовании, экологические компетенции.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda "yashil o'quv dasturi" (green curriculum) atamasi barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan ta'limning markaziy nazariy kategoriyalaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. "Yashil o'quv dasturi" oddiy ekologik kurslar yoki alohida mavzular bilan cheklanmay, balki barcha fanlar mazmuniga iqlim o'zgarishi, resurslarni tejash, bioxilma-xillikni saqlash va ijtimoiy adolat kabi masalalarni tizimli ravishda integratsiya qilishni nazarda tutadi. "Yashil o'quv dasturi" konsepsiyasi barqarorlik tamoyillarini ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan yaxlit pedagogik asos sifatida paydo bo'ldi; bu nafaqat atrof-muhit hodisalarini kognitiv tushunishni, balki o'quvchilar orasida ekologik qadriyatlar, kompetensiyalar va atrof-muhitga ta'sir qiluvchi xatti-harakatlarni shakllantirishni ham rag'batlantiradi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqat an'anaviy ta'lim yetarli emas: qiyosiy tadqiqotlarda o'quvchilarning 70% dan ortig'i tajriba va interaktiv elementlar kiritilganda atrof-muhit mazmunini yaxshiroq eslab qolish va qo'llashni namoyish etadi [1].

Shu bilan birga, immersiv texnologiyalarning, xususan, kengaytirilgan reallik va virtual reallikning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonlarini o'zgartirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Dunyo bo'ylab ta'limda immersiv texnologiyalarni qo'llash sezilarli darajada oshdi. Yaqinda e'lon qilingan EdTech hisobotlarida maktablar mavhum tushunchalar va tajribaviy tushunish o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga intilayotgan bir paytda, boshlang'ich va o'rta maktablarda AR/VR ta'lim dasturlarini joriy etishda yildan-yilga taxminan 34% o'sish

kuzatilganligi ko‘rsatilgan [3;7]. AR/VR ni “yashil o‘quv dasturi”ga integratsiya qilish yangi va tizimli pedagogik kontekstlarda yetarlicha o‘rganilmagan. Dastlabki dalillar shuni ko‘rsatadiki, immersiv muhitlar o‘quvchilarning ishtirokini, murakkab ekologik jarayonlarni vizualizatsiya qilishni va barqarorlik kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. AR asosidagi ekologik ta’limga 133 nafar o‘quvchi ishtirok etgan eksperimental tadqiqotlarda o‘quv natijalarida statistik jihatdan sezilarli yutuqlar qayd etilgan. Biroq, AR/VR ni yashil ta’limning asosiy maqsadlari bilan qanday qilib tizimli ravishda moslashtirish mumkinligini ifodalovchi nazariy asoslar va pedagogik modellar kam [2;6]. “Yashil o‘quv dasturi”ni pedagogik nuqtai nazardan talqin qilish va uning AR/VR texnologiyalari bilan integratsiyasini o‘rganish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Atrof-muhit va raqamli pedagogikaga oid nazariy konstruksiyalarni sintez qilish, barqarorlik kontekstida immersiv o‘rganishning empirik dalillarini tahlil qilish hamda samarali amalga oshirish uchun didaktik tamoyillarni aniqlash orqali ushbu tadqiqot kelajakdagi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish uchun qat’iy konseptual asos yaratadi. Bundan tashqari, u 2030-yilga kelib “yashil ta’lim” doirasida AR/VR texnologiyalarini qo‘llaydigan maktablarda o‘quvchilarning ekologik kompetensiya ballari boshlang‘ich ko‘rsatkichlarga nisbatan 50% gacha oshishi mumkinligini taxmin qilmoqda, bu esa texnologik jihatdan takomillashtirilgan barqarorlik ta’limiga jiddiy o‘tishni aks ettiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik ta’limning raqamli va immersiv texnologiyalar, xususan, kengaytirilgan reallik va virtual reallik bilan integratsiyasi so‘nggi pedagogik tadqiqotlarda tobora ko‘proq e’tiborni tortmoqda. Ekologik ta’limda ARga qaratilgan tadqiqotlarning keng qamrovli sharhi yirik ma’lumotlar bazalarida (Scopus, Web of Science, ScienceDirect) nashr etilgan 42 ta empirik tadqiqot maqolalarini aniqladi. Ushbu tadqiqotlar boshlang‘ich ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi, bunda boshlang‘ich va o‘rta ta’lim eng katta ulushni tashkil etadi [8; 9]. ARning ekologik ta’limdagi roli ijobiy affektiv va kognitiv natijalar bilan bog‘liq. Meta-analitik dalillar shuni ko‘rsatadiki, AR texnologiyalari fanni o‘rganish kontekstlarida o‘quvchilarning akademik yutuqlariga o‘rtacha va katta ta’sir ko‘rsatadi (0,737), bu esa ARning murakkab ekologik tushunchalarni tushunish va eslab qolishni yaxshilash salohiyatini namoyon etadi [4; 5]. Empirik tadqiqotlar shuni ta’kidlaydiki, AR ilovalari o‘quvchilarning motivatsiyasini, ishtirokini va atrof-muhitga qiziqishini oshiradi, ekologik sikllar va ifloslanish ta’siri kabi jarayonlarni vizualizatsiya qilishni osonlashtiradi; bu esa an’anaviy sinf sharoitida kuzatish qiyin bo‘lgan jarayonlarni idrok etishni yengillashtiradi.

A.Okanovich va hammualliflarining oliy ta’limda barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qiluvchi tadqiqotida “green curriculum” atamasi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik javobgarlikni o‘quv maqsadlarining markaziga qo‘yadigan o‘quv dasturi sifatida ta’riflanadi [10]. UNESCOning “Greening curriculum guidance: Teaching and learning for climate action” hujjatida “yashil o‘quv dasturi” konsepsiyasi butun ta’lim muassasasini qamrab oluvchi yondashuv bilan bog‘lanadi: faqat mazmun emas, balki o‘quv muhiti, boshqaruv, infratuzilma va jamoat hamkorligi ham barqarorlik prinsiplariga muvofiq qayta ko‘rib chiqilishi kerakligi ta’kidlanadi [11]. Bu yondashuv ta’lim muassasasini bir butun “xaritalashgan ekotizim” sifatida ko‘radi va o‘quv dasturini ushbu ekotizimning didaktik vositasi sifatida talqin qiladi. L.Ni va hammualliflarining tadqiqot ishida oliy ta’limda yashil o‘quv dasturiga duch kelish darajasi talabalarning pro-ekologik xulq-atvori va ekologik qadriyatlar orientatsiyasiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlanadi; shuningdek, o‘quv dasturi talaba shaxsiyatida “yashil avlod” modelini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ko‘riladi [12]. Shu bilan birga, yangi avlod tadqiqotlari yashil o‘quv dasturi konsepsiyasini faqat mazmun darajasida emas, balki o‘qitish texnologiyalari, xususan, immersiv muhitlar, qo‘shimcha va virtual reallik bilan integratsiyada ko‘rishni taklif qilmoqda [13-15].

Aynan ekologik va barqarorlik ta’limida AR texnologiyalarining qo‘llanilishi bo‘yicha T.I.Ladykova va hammualliflar tomonidan olib borilgan sistematik sharhda AR asosidagi darslarning o‘quvchilarning ekologik savodxonligi, ichki motivatsiyasi va kognitiv yuklanishiga ta’siri o‘rganiladi. Mualliflar AR texnologiyalari murakkab ekosistemalarni vizualizatsiya qilish, joy-vaqt haqiqiyligiga yaqin tajriba yaratish va ekologik muammolarni “tanlash mumkin bo‘lgan ssenariylar” sifatida namoyon qilish orqali yoshlar ongida barqarorlikka doir yangi kognitiv sxemalarni shakllantirishini ko‘rsatadilar [13].

Emine Ela Şimşekning kvazi-eksperimental tadqiqotida AR qo‘llab-quvvatlangan ekologik ta’lim faoliyatlari maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat sikllari (ichimlik suvi aylanishi, o‘simlik hayot sikli, oziq-ovqat zanjiri) ni tushunish va xotirada saqlab qolish ko‘rsatkichlarini an’anaviy rang berishga asoslangan mashg‘ulotlarga nisbatan sezilarli darajada yaxshilagani aniqlanadi [14]. Bu natijalar ARni “yashil o‘quv dasturi”ning rang-barang va interaktiv didaktik vositasi sifatida qarashga asos beradi. E.Ozturk tomonidan Environmental Education’da AR ilovalarining bolalar bilimi, munosabati va xulq-atvoriga ta’siriga bag‘ishlangan tadqiqotda AR resurslari orqali olib borilgan darslar ekologik xulq-atvorga doir niyatlar va amaliy odatlarni (masalan, chiqindilarni saralash, suvni tejash) kuchaytirishga yordam berishi ko‘rsatiladi [15]. Bu yerda AR faqat vizual effekt emas, balki o‘quvchini muayyan xulq ssenariysiga kirituvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bino-

barin, bu natijalar "yashil o'quv dasturi"ni AR/VR bilan integratsiyalashni tasodifiy innovatsiya emas, balki global ilmiy-pedagogik trend doirasida tushunish zarurligini ko'rsatadi.

D.Llanos-Ruiz va hammualliflar raqamli texnologiyalarni, xususan, immersiv vositalarni ekologik ta'limga integratsiya qilish tendensiyalarini tahlil qilib, AR/VR, mobil o'qitish va sensorlar asosidagi o'qitish metodlari o'quvchilarda ekologik muammolarni tizimli tahlil qilish, ssenariyli fikrlash va muammo yechish kompetensiyalarini rivojlantirishini qayd etadilar [15]. Shu bilan bir qatorda, mualliflar didaktik dizaynning muhimligini alohida ta'kidlaydilar: texnologiyaning o'zi emas, balki uning qanday pedagogik ssenariyga joylashtirilayotgani hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda, mavjud adabiyotlar "yashil o'quv dasturi" konsepsiyasini uch o'lchamda ochib beradi: normativ-konseptual o'lcham – barqarorlik, iqlim harakati va ekologik qadriyatlar bilan bog'liq ta'rif va prinsiplar (UNESCO, Ni va boshqalar, Okanovich va hammualliflar) [11; 12; 10]; instrumental-baholash o'lchami – yashil o'quv dasturini Fuzzy AHP va boshqa ko'p mezonli modellar orqali xaritalash va baholash (D.Llanos-Ruiz va hammualliflar) [15]; texnologik-didaktik o'lcham – AR/VR texnologiyalari orqali ekologik savodxonlik, pro-ekologik xulq-atvor va barqarorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan eksperimental va sharh tadqiqotlari (Ladykova va boshqalar; Şimşek; Ozturk; Llanos-Ruiz va boshqalar) [13; 15]. Shu bilan birga, adabiyotlarda "yashil o'quv dasturi" konsepsiyasini pedagogik-falsafiy jihatdan qayta talqin qilish, AR/VR muhitlarida ekologik mazmundagi tajriba bilan yoshlarning real xulq-atvori o'rtasidagi uzoq muddatli bog'liqlikni empirik o'lchash, shuningdek, immersiv texnologiyalar orqali shakllanayotgan "sifriy ekologik subyektlik"ni pedagogik tushuncha sifatida modellashtirish kabi qator ochiq savollar saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda "Yashil o'quv dasturi" konsepsiyasini talqin qilish va uning AR/VR texnologiyalari bilan integratsiyasini aniqlash uchun tizimli adabiyot tahlilini nazariy asoslar tahlili bilan birlashtirgan aralash usullar yondashuvi qo'llaniladi. Atrof-muhit va ekologik ta'limda AR/VRdan foydalanishni o'rganadigan maqolalarni tahlil qilish uchun Scopus, Web of Science va ScienceDirect bazalari bo'yicha qidiruvlar o'tkazildi. Texnologiya bilan takomillashtirilgan o'qitishni an'anaviy yoki nazorat shartlari bilan taqqoslash maqsadida effekt hajmi, natija ballarining yaxshilanishi va ishtirokchilar ko'rsatkichlaridagi farqlar kabi hisobot qilingan statistik ma'lumotlar jadvalga kiritildi. Ko'pgina meta-tahlillar va tizimli sharhlar shuni ko'rsatadiki, immersiv texnologiyalar an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan o'quvchilar natijalariga o'rtacha va katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AR kognitiv natijalar uchun taxminan d = 0.882 va affektiv natijalar uchun d = 1.104 ta'sir hajmini beradi, bu esa an'anaviy usullarga nisbatan tushunish va motivatsiyani oshirish uchun kuchli salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [8]. Cohen's d – bu ikki guruh (masalan, tajriba va nazorat guruhi) o'rtasidagi farqning qanchalik kuchli ekanini ifodalovchi statistik o'lchovdir.

Formulasi quyidagicha:

$$d = \frac{M_1 - M_2}{SD_{pooled}}$$

bu yerda M1 – tajriba guruhi o'rtacha natijasi, M2 – nazorat guruhi o'rtacha natijasi, SDpooled – ikkala guruhning umumiy standart og'ishi. Shunisi e'tiborga loyiqki, markerga asoslangan tizimlarga qaraganda moslashuvchanroq va atrof-muhitga integratsiyalashgan markersiz AR/VR tizimlari kengaytirilgan real dunyo kontekstlari bilan uzluksiz o'zaro ta'sir orqali ushbu salohiyatni yanada optimallashtiradi. Bundan tashqari, qiyosiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, AR/VR aralashuvlari an'anaviy o'qitish yondashuvlariga nisbatan o'quvchilarning ishtirokini 40-60% ga va bilimlarni saqlash darajasini 50-80% ga oshirishi mumkin. Bu esa ekologik ta'limda immersiv o'rganishning transformatsion rolini ta'kidlaydi. Ushbu miqdoriy ko'rsatkichlar pedagogik tadqiqotlarda kuzatilgan tendensiyalarga mos keladi: ayniqsa, boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari AR/VR o'quv dasturi vazifalari bilan integratsiyalashganda yuqori qiziqish va motivatsiyani namoyon etadilar, bu esa ekologik xulq-atvorga uzoq muddatli sadoqatni rivojlantirishga intiladigan "Yashil o'quv dasturi" uchun nihoyatda muhimdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konstruktivistik o'rganish nazariyalari, tajribaviy o'rganish modellari va barqarorlik pedagogikasi tamoyillariga asoslanib, ushbu tadqiqot AR/VRni "Yashil o'quv dasturi" maqsadlari doirasida vosita sifatida joylashtiradigan didaktik asosni yaratadi. Immersiv muhitlar atrof-muhit hodisalari bilan kontekstual, faol aloqani osonlashtiradi hamda tajriba va aks ettirish amaliyoti orqali o'rganishga urg'u beradigan nazariyalar bilan mos keladi. Bu yondashuv o'quvchilarning raqamli vositalar bilan qanday aloqada bo'lishini, shuningdek, immersiyaning axborotni qayta ishlash, saqlash va konseptual xaritalashga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi. Kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR)ning "Yashil o'quv dasturlari" doirasiga integratsiyalashuvi an'anaviy didaktik

ta'limdan barqarorlik, jalb etish va amaliy kompetensiyalar kabi zamonaviy ta'lim maqsadlariga mos keladigan immersiv, o'quvchiga yo'naltirilgan o'quv muhitlariga paradigmatik o'tishni anglatadi. Ushbu tadqiqot natijalari AR va VR texnologiyalarining atrof-muhit va ekologik ta'lim kontekstlarida o'quv natijalariga sezilarli darajada ta'sir qilishini ko'rsatadigan kengroq empirik dalillar bilan mos keladi. Kognitiv yutuqlardan tashqari, AR/VR muhitlari o'quvchilarning affektiv o'lchamlari va xulq-atvor xususiyatlariga ham sezilarli darajada ta'sir qiladi. Immersiv simulyatsiyalar mavhum barqarorlik tushunchalarini aniq, shaxsiy tajribaga yaqin hodisalarga aylantiradi hamda ifloslangan ekotizimlar yoki qayta tiklanadigan energiya tizimlarining virtual tasvirlarini his etishni osonlashtiradi.

Empirik dalillar AR/VR texnologiyalarining samaradorligini ta'kidlasa-da, o'rganish va ekologik xatti-harakatlarga ijobiy ta'sir puxta o'ylangan o'quv dizayni va aniq o'quv dasturi maqsadlariga bog'liq. Masalan, fazoviy vizualizatsiya va interaktiv konseptual xaritalashni yaxshilaydigan AR/VR ilovalari alohida qo'shimchalar sifatida emas, balki belgilangan o'quv dasturi standartlari bilan integratsiyalashganda yaxshiroq natijalar beradi. Xuddi shunday, AR/VR tajribalari o'quvchilardan kengroq ijtimoiy va ekologik doiralarda atrof-muhit ssenariylarini kontekstlashtirishni talab qiladigan refleksiv hamda qaror qabul qilish vazifalarini o'z ichiga olganda eng yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Kelajakka nazar tashlasak, AR/VRning "Yashil o'quv dasturi" bilan integratsiyalashuvi yanada takomillashish istiqbolini ko'rsatadi. 2030-yilga kelib, ekologik ta'limni joriy etayotgan maktablarning 70%dan ortig'i AR/VR vositalarining biron-bir shaklini standart o'qitish amaliyoti sifatida qo'llashi ehtimoldan xoli emas, bu esa "Yashil o'quv dasturi" natijalarini miqdoriy (masalan, ekologik savodxonlik ballarining oshishi) va sifat jihatidan (masalan, o'quvchilarning faolligi hamda barqaror xatti-harakatlarining yaxshilanishi) oshirishi mumkin [9].

XULOSA

"Yashil o'quv dasturi"ning pedagogik talqini taqdim etildi va uning zamonaviy maktab ta'limi doirasida kengaytirilgan reallik hamda virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyasi tanqidiy ko'rib chiqildi. Nazariy nuqtai nazarlar va empirik dalillar sintezi shuni ko'rsatadiki, immersiv texnologiyalar kontseptual tushunchani, o'quvchilarning ishtirokini va barqarorlikka yo'naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ekologik ta'limni mustahkamlash uchun katta didaktik salohiyatga ega. Tahlil AR/VR texnologiyalari nafaqat qo'llab-quvvatlovchi raqamli vositalar sifatida, balki yashil ta'limning asosiy maqsadlariga mos keladigan tajribaga asoslangan, tadqiqotga asoslangan va o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvlarni ta'minlaydigan transformatsion pedagogik vositalar sifatida ham ishlashini tasdiqlaydi. Xalqaro tadqiqotlardan olingan statistik dalillar shuni ko'rsatadiki, immersiv o'quv muhiti o'quvchilarning ekologik fanlar bo'yicha akademik yutuqlarini 30-50% ga oshirishi, shu bilan birga an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan motivatsiya va uzoq muddatli bilimlarni saqlash ko'rsatkichlarini 70% gacha oshirishi mumkin.

"Yashil o'quv dasturi" murakkab ekologik jarayonlarni vizualizatsiya qilish va real dunyo ekologik ssenariylarini simulyatsiya qilishga qodir innovatsion o'quv ekotizimlarini talab qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan, AR/VR ning "Yashil o'quv dasturi"ga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi o'quv dasturlarini tizimli ravishda moslashtirish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish hamda konstruktiv va tajribaviy o'rganish nazariyalariga asoslangan ishonchli didaktik modellarni qo'llashga bog'liq. 2030-yilga kelib, yashil ta'limda immersiv texnologiyalarning keng qo'llanilishi maktab o'quvchilari orasida, ayniqsa barqarorlik ta'limi va raqamli transformatsiyaga ustuvor ahamiyat beradigan tizimlarda ekologik savodxonlik ko'rsatkichlarining 40-60% ga yaxshilanishiga olib kelishi mumkin. AR/VR texnologiyalarining "Yashil o'quv dasturi"ga pedagogik integratsiyasi ekologik ta'limni rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan va kelajakka yo'naltirilgan yo'lni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akchayir M., Akchayir G. Advantages and challenges associated with augmented reality for education: A systematic review of the literature // Educational Research Review. – 2017. – Vol. 20. – P. 1-11.
2. Bacca J., Baldiris S., Fabregat R., Graf S., Kinshuk. Augmented reality trends in education: A systematic review of research and applications // Educational Technology & Society. – 2014. – Vol. 17, No. 4. – P. 133-149.
3. Chang C. Y., Hsu C. K., Wu H. K. Effects of immersive virtual reality on students' science learning outcomes // Computers & Education. – 2016. – Vol. 96. – P. 1-15.
4. Dede C. Digital tools for deeper learning // Educational Leadership. – 2014. – Vol. 72, No. 4. – P. 26-33.
5. Freina L., Ott M. A literature review on immersive virtual reality in education // eLearning & Software for Education. – 2015. – No. 1. – P. 133-141.
6. Ibanez M. B., Delgado-Kloos C. Augmented reality for STEM learning: A systematic review // Computers & Education. – 2018. – Vol. 123. – P. 109-123.
7. Ladykova T. I., Sokolova E. I., Grebenshchikova L. Yu., Sakhieva R. G., Lapidus N. I., Chereshneva E. V. Augmented Reality in Environmental Education: A Systematic Review // Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education. – 2024. – Vol. 20. – Article em2488.

8. Llanos-Ruiz D., García-Álvarez M. T., González-Gómez T. Virtual Reality in Higher Education: A Systematic Review Aligned with the Sustainable Development Goals // Societies. – 2023. – Vol. 13, No. 9. – Art. 251. DOI: 10.3390/soc13090251.
9. Makransky G., Petersen G. B. Immersive learning and sustainability education // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, No. 4. – P. 1-18.
10. Makransky G., Petersen G. B. Immersive virtual reality and learning: A meta-analysis // Educational Psychology Review. – 2019. – Vol. 31, No. 4. – P. 1043-1075.
11. Ni L., Ahmad S. F., Alsanie G., Lan N., Irshad M., Bin Saeed R. H., Bani Ahmad A., Khan Y. Investigating the Role of Green Curriculum in Shaping Pro-Environmental Behaviors and Environmental Values Orientation for Sustainability // International Journal of Sustainability in Higher Education. – 2024. – Vol. 25, No. 8. – P. 1537-1557. DOI: 10.1108/IJSHE-05-2023-0207.
12. OECD. Education for sustainable development and the SDGs: Learning to act, learning to achieve. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 120 p.
13. Okanović A., Ješić J., Đaković V., Vukadinović S., Andrejević Panić A. Increasing University Competitiveness through Assessment of Green Content in Curriculum and Eco-Labeling in Higher Education // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, No. 2. – Art. 712. DOI: 10.3390/su13020712.
14. Ozturk E., Akcay G. Can Environmental Education Supported by Augmented Reality (AR) Applications Improve the Environmental Awareness of Primary School Students? // The Eurasia Proceedings of Educational and Social Sciences (EPESS). – 2023. – Vol. 31. – P. 216-229. DOI: 10.55549/epess.1381983.
15. Şimşek E. E. The Use of Augmented Reality-Supported Activities in Environmental Education for Early Childhood: A Quasi-Experimental Study // Sustainability. – 2024. – Vol. 16, No. 23. – Art. 10374. DOI: 10.3390/su162310374.
16. UNESCO. Greening Curriculum Guidance: Teaching and Learning for Climate Action. – Paris: UNESCO, 2024. – 72 p. (Greening Education Partnership series).

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA PEDAGOGIK EMPATIYANI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi
Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik empatiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Pedagogik empatiya pedagog kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning bolalar rivojiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kuzatuv va so'rov metodlaridan foydalanilgan. Natijalar pedagogik empatiya darajasini oshirish bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: pedagogik empatiya, maktabgacha ta'lim, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, pedagogik muammo.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the formation of pedagogical empathy in preschool educational organizations. Pedagogical empathy is considered an important component of a teacher's professional competence, and its impact on children's development is highlighted. The study used comparative analysis, observation, and survey methods. The results confirm that increasing the level of pedagogical empathy has a positive effect on the socio-emotional development of children.

Key words: pedagogical empathy, preschool education, professional competence, socio-emotional development, pedagogical problem.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования педагогической эмпатии в дошкольных образовательных организациях. Педагогическая эмпатия рассматривается как важная составляющая профессиональной компетентности педагога, и подчёркивается её влияние на развитие детей. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, наблюдения и опроса. Результаты подтверждают, что повышение уровня педагогической эмпатии оказывает положительное влияние на социально-эмоциональное развитие детей.

Ключевые слова: педагогическая эмпатия, дошкольное образование, профессиональная компетентность, социально-эмоциональное развитие, педагогическая проблема.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida ayniqsa pedagogning emotsional sezgirligi, bolalarning ichki dunyosini tushunishi va ularning psixologik ehtiyojlariga mos yondasha olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan pedagogik empatiya masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda [1]. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagogning kasbiy kompetentligi nafaqat uning metodik tayyorgarligi, balki emotsional intellekti va empatiya darajasi bilan ham o'lchanmoqda. Pedagogik empatiya – bu tarbiyachining bolalar dunyosiga kirib borishi, ularning hissiy holatlarini anglashi va bu holatlarga pedagogik nuqtayi nazardan adekvat javob qaytarish qobiliyatidir [2]. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, bu davrda bola muloqotda axborotdan ko'ra hissiy yaqinlikka ko'proq ehtiyoj sezadi. Biroq amaliyotda pedagogik empatiyani shakllantirish murakkab pedagogik muammo bo'lib qolmoqda, chunki ko'plab tarbiyachilar ta'lim jarayonida subyekt-obyekt munosabatlariga, ya'ni qat'iy intizom va ko'rsatmalarga tayanib qolgan [3].

Maktabgacha yosh davri shaxsning emotsional-intellektual rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalar kattalarning hissiy munosabatlarini tez qabul qiladi va o'zlashtiradi. Agar pedagog bolaga empatik yondashsa, bola o'zini xavfsiz, qadrlangan va tushunilgan his qiladi. Empatiya yetishmasligi esa

bolalarda qo'rquv, ishonchsizlik hamda ijtimoiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin [4]. Pedagogik empatiya pedagogning bolalarning hissiy holatini tushunish, ularga mos pedagogik qarorlar qabul qilish va ijobiy emotsional muhit yaratish qobiliyatini anglatadi. Ushbu sifat pedagog kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik empatiya muammosi psixologiya va pedagogika fanlari kesishmasida shakllangan kompleks ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Empatiya tushunchasi dastlab psixologiya fanida o'rganilgan bo'lib, keyinchalik pedagogik faoliyat samaradorligining muhim omili sifatida tadqiq etila boshlandi. Empatiya nazariyasining shakllanishida gumanistik psixologiya vakillarining tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. K. Rogers empatiyani shaxslararo munosabatlarning asosiy sharti sifatida talqin qilib, uni "insonning ichki dunyosini tushunish va bu tushunishni muloqot orqali namoyon eta olish qobiliyati" sifatida izohlaydi [6]. Uning fikricha, pedagogik faoliyatda empatik munosabat bolada ishonch, xavfsizlik va o'zini qadrlash hissini shakllantiradi. D. Goleman emotsional intellekt nazariyasida empatiyani ijtimoiy kompetensiyaning markaziy komponenti sifatida ko'rsatadi. Olimning ta'kidlashicha, empatiya pedagogning samarali kommunikatsiya o'rnatish, konfliktlarni bartaraf etish va ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyatini belgilaydi [7]. Bu g'oya zamonaviy ta'limda pedagog shaxsiga qo'yilayotgan yangi talablar bilan uyg'unlashadi.

L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida ham empatik munosabat bilvosita aks etadi. U bolalar rivojida ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlik hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, pedagogning hissiy qo'llab-quvvatlashi bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiradi [8]. Mahalliy tadqiqotchilar ham maktabgacha ta'limda pedagog shaxsining emotsional madaniyatiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogning mehribonlik, sezgirlik va sabr-toqat kabi sifatlari ta'lim samaradorligining muhim sharti hisoblanadi [9]. Maktabgacha ta'lim bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish masalasi alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Xorijiy tadqiqotlar empatik pedagoglar faoliyat yuritayotgan guruhlarda bolalarning ijtimoiy moslashuvi, nutq faolligi va o'zini boshqarish ko'nikmalari yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Shu bilan birga ilmiy adabiyotlar tahlili pedagogik empatiyani shakllantirish bo'yicha maxsus metodik tizim yetarli darajada ishlab chiqilmaganini ko'rsatadi. Aksariyat tadqiqotlar empatiyaning ahamiyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, uni pedagoglar tayyorlash tizimiga integratsiya qilish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining empatik kompetensiyasini qiyosiy tahlil asosida o'rganish hamda uning ta'lim-tarbiya samaradorligiga ta'siri empirik jihatdan asoslab beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqoridagi manbalarni tahlil qilishda qiyosiy taqqoslash usuli qo'llanilib, pedagogik empatiyaning pastligi bolalarda bog'chaga nisbatan adaptatsiya jarayonining qiyinlashishiga hamda ularning ijodiy salohiyati pasayishiga sabab bo'lishi aniqlandi. Mazkur muammoni hal etish uchun pedagogik faoliyatda kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik empatiyaning shakllanish darajasini aniqlash hamda uning ta'lim-tarbiya samaradorligiga ta'sirini baholash maqsadida tadqiqot qiyosiy tahlil metodiga tayangan holda olib borildi. Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogik empatiya muammosiga oid psixologik-pedagogik manbalar o'rganilib, empatik yondashuvning mazmuni, tarkibiy komponentlari va pedagog kasbiy kompetensiyalari tizimidagi o'rni tahlil qilindi. Empirik bosqichda esa ikki turdagi pedagogik faoliyat modeli o'zaro qiyoslandi: empatik yondashuv asosida ishlovchi pedagoglar guruhi va an'anaviy yondashuvga tayanuvchi pedagoglar guruhi.

Qiyosiy tahlil jarayonida pedagoglarning bolalar bilan muloqot qilish uslubi, emotsional qo'llab-quvvatlash darajasi, konflikt vaziyatlarni boshqarish qobiliyati hamda mashg'ulotlardagi psixologik muhit ko'rsatkichlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy-statistik tahlil asosida umumlashtirilib, empatik va an'anaviy yondashuv natijalari o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Ushbu metod pedagogik empatiya darajasi yuqori bo'lgan guruhlarda bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, mashg'ulotlardagi faolligi hamda ijobiy psixologik muhitning shakllanishi sezilarli darajada yuqori ekanini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida empatik yondashuv asosida faoliyat yurituvchi pedagoglar guruhi hamda an'anaviy yondashuvdagi pedagoglar faoliyati o'zaro qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar pedagogik empatiya ta'lim-tarbiya samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Qiyosiy kuzatuv natijalari empatik yondashuv qo'llanilgan guruhlarda bolalarning mashg'ulotlardagi ishtiroki sezilarli darajada yuqori ekanini ko'rsatdi. An'anaviy yondashuv qo'llanilgan guruhlarda esa bolalar ko'proq passiv kuzatuvchi sifatida qolib ketishi kuza-

tildi. Pedagogik empatiya konflikt vaziyatlarni kamaytirishda ham muhim omil bo‘lib chiqdi. Konflikt vaziyatlarda pedagoglarning tinchlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi bolalarning tezroq murosaga kelishiga yordam berdi. Qiyosiy tahlil bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida ham sezilarli farqlarni ko‘rsatdi. Empatik pedagoglar bilan ishlagan bolalarda nutq faolligi 30 % ga yuqori, guruhda hamkorlik qilish ko‘nikmalari 35 % ga rivojlangan hamda o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalash darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Tadqiqot natijalari pedagogik empatiya maktabgacha ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil ekanini isbotladi hamda uni pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayoniga tizimli ravishda kiritish zarurligini ko‘rsatdi.

Pedagoglarda empatiyani rivojlantirish uchun maxsus psixologik treninglar, “bolaning nigohi bilan” metodikasi va vaziyatli modellashtirish o‘yinlaridan foydalanish zarur. Xususan, tarbiyachining o‘z hissiyotlarini boshqara olishi va bolaning nometodik signallarini (yuzi, qarashi, harakatlari) o‘qiy olishi kasbiy muloqot sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash bosqichidayoq pedagogik empatiyani shakllantirish metodikasi o‘quv dasturlariga chuqur integratsiya qilinishi lozim [10]. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogik empatiya shunchaki tarbiyachining shaxsiy fazilati emas, balki maktabgacha ta’limda sifat va samaradorlikni ta’minlovchi professional instrument hisoblanadi. Pedagogik empatiya ta’lim-tarbiya jarayoniga bir necha yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, u pedagog va bola o‘rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantiradi. Bola o‘zini tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan holda his qilganda mashg‘ulotlarda faolroq qatnashadi, savol berishdan qo‘rqmaydi hamda o‘z fikrini erkin ifodalaydi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi. Empatik yondashuv guruhda ijobiy psixologik muhit yaratadi. Bunday muhitda bolalar bir-biriga mehribon bo‘lishni, hamkorlik qilishni va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishni o‘rganadi. Natijada bolalarning ijtimoiy moslashuvi va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, pedagogik empatiya individual yondashuvni ta’minlaydi. Har bir bola o‘ziga xos qobiliyat, temperament va ehtiyojlarga ega. Empatik pedagog har bir bolaning imkoniyatini hisobga olib ishlaydi, bu esa bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va motivatsiyasini kuchaytiradi. Umuman olganda, pedagogik empatiya nafaqat bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, balki ta’lim jarayonining sifatini oshirib, pedagog kasbiy mahoratining muhim ko‘rsatkichiga aylanadi. Quyida pedagogik empatiyaning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri va ahamiyati jadval ko‘rinishida keltiriladi.

1-jadval: **Pedagogik empatiyaning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri va ahamiyati**

№	Yo‘nalish	Pedagogik empatiyaning ta’siri	Ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati
1	Pedagog–bola munosabatlari	Ishonchli va samimiy muloqot shakllanadi	Bolada xavfsizlik va himoyalanganlik hissi paydo bo‘ladi
2	Psixologik muhit	Guruhda ijobiy emotsional muhit yaratiladi	Bolalarning mashg‘ulotga qiziqishi ortadi
3	Individual yondashuv	Har bir bolaning ehtiyojini tushunish imkonini beradi	Ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan bo‘ladi
4	Nutq va muloqot rivoji	Bola o‘z fikrini erkin ifodalay boshlaydi	Nutq faolligi va kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi
5	Ijtimoiy ko‘nikmalar	Hamkorlik va o‘zaro yordam shakllanadi	Guruhda do‘stona munosabatlar kuchayadi
6	Konfliktlarni boshqarish	Nizolar tinch yo‘l bilan hal etiladi	Bolalarda murosa va sabr ko‘nikmalari shakllanadi
7	Motivatsiya	Rag‘batlantiruvchi muhit yaratiladi	Ta’lim jarayoniga ichki qiziqish ortadi
8	O‘ziga ishonch	Bola o‘zini qadrlangan his qiladi	Mustaqillik va tashabbuskorlik rivojlanadi
9	Emotsional rivojlanish	His-tuyg‘ularni tanish va boshqarish o‘rganiladi	Emotsional intellekt shakllanadi
10	Pedagog kasbiy rivoji	Pedagogning refleksiyasi va kasbiy mahorati oshadi	Ta’lim sifati va samaradorligi yuksaladi

XULOSA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik empatiyani shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biridir. Bugungi kunda ta’lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashni talab qilmoqda. Bu jarayonda pedagogning kasbiy kompetensiyalari tarkibida empatik yondashuv alohida o‘rin egallaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik empatiya maktabgacha ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, empatik pedagog bolalar bilan ishonchli va samimiy munosabat o‘rnatadi. Bunday munosabat bolaning psixologik xavfsizligini ta’minlaydi, o‘zini erkin his qilishiga yordam beradi hamda ta’lim jarayoniga faol jalb etadi.

Natijada mashg'ulotlar samaradorligi ortadi, bolalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va o'ziga ishonch rivojlanadi. Pedagogik empatiyaning muhim natijalaridan biri – ijobiy psixologik muhitni shakllantirishdir.

Empatik yondashuv qo'llanilgan guruhlarda bolalar o'rtasida hamkorlik kuchayadi, nizolar kamayadi va o'zaro hurmat rivojlanadi. Bu esa bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga, nutq faolligiga hamda kommunikativ ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, pedagogik empatiya nafaqat ta'lim sifati, balki tarbiya samaradorligining ham muhim omilidir. Tadqiqot natijalari pedagogik empatiya pedagog kasbiy mahoratining ajralmas tarkibiy qismi ekanini ko'rsatdi. Empatik yondashuv pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy refleksiya, emotsional barqarorlik va individual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida empatik kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu asosda quyidagi amaliy xulosalarni chiqarish mumkin: maktabgacha ta'lim pedagoglarini tayyorlash jarayoniga pedagogik empatiya bo'yicha maxsus trening va mashg'ulotlarni kiritish zarur; pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish lozim; ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishga qaratilgan metodlarni keng joriy etish maqsadga muvofiq; pedagogik empatiya maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida tizimli ravishda qo'llab-quvvatlanishi zarur. Umuman olganda, pedagogik empatiya maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirish, bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlash va pedagog kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda muhim strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish hamda amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rogers C.R. A Way of Being. – Boston: Houghton Mifflin, 1980.
2. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2011.
6. Masharipov Sh.M. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Mavlonova R.A., To'raqulov X.T. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Shodiyev N.N. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Denham S.A. Social-Emotional Development in Early Childhood. – New York: Guilford Press, 2012.
10. Hyson M. The Emotional Development of Young Children. – New York: Teachers College Press, 2004.

GAMIFIED PROGRAMMING PLATFORMS: ANALYSIS AND RECOMMENDATIONS

Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova
National pedagogical university named after Nizami,
1st-year PhD student

ORCID: 0009-0007-7084-4830

Abstract: In the context of contemporary globalization, the demand for acquiring modern professions is steadily increasing. Programming is widely recognized as a complex cognitive activity; however, learning it through gamified technologies makes the process both engaging and pedagogically effective. Gamified programming platforms enhance motivation by integrating game elements such as levels, points, badges, and interactive challenges into the learning process. This article analyzes and compares five popular platforms – CodeCombat, CodinGame, Tynker, Scratch, and Blockly Games. Each platform demonstrates distinctive characteristics: CodeCombat teaches programming in an RPG format with real-time feedback; CodinGame supports global competition and multiple programming languages; Tynker integrates block-based and text-based coding to facilitate creative project development; Scratch enables the creation of interactive stories and games through visual programming; and Blockly Games fosters mathematical and logical thinking skills. The analysis indicates that Scratch and Blockly Games are most suitable for young learners; CodeCombat is effective for beginners; while adolescents and adults can benefit from CodinGame's competitive and multilingual environment. Tynker is particularly appropriate for schools and structured curricula. Furthermore, advanced learners are recommended to transition from block-based platforms to text-based programming languages. The article highlights the advantages and limitations of gamified platforms and provides practical recommendations for effective programming education.

Key words: gamified learning, programming platforms, CodeCombat, CodinGame, Tynker, Scratch, Blockly Games, educational technology.

Annotatsiya: Mazkur maqola umumta'lim maktablarida dasturlashni o'qitish masalasiga oid mavjud ilmiy tadqiqotlarni kompleks va tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli kontent tahlili metodologiyasi asosida dasturlash mashg'ulotlarini rejalashtirish, loyihalash va samarali tashkil etishning pedagogik yondashuvlari aniqlashtiriladi hamda tizimlashtiriladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda umumta'lim darajasida dasturlash ta'limiga bag'ishlangan ilmiy ishlar soni sezilarli darajada oshgan bo'lib, ularning asosiy qismi empirik tadqiqot dizayniga asoslangan. Mavjud izlanishlarning katta qismi 6-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan bo'lib, ma'lumot to'plash jarayonida asosan anketalar, so'rovnomalar va standartlashtirilgan testlardan foydalanilgan. Dasturlash vositalari tahlili Scratch platformasining eng keng tarqalgan o'quv muhiti ekanligini ko'rsatadi, bu esa vizual va blokli dasturlash yondashuvlarining maktab yoshidagi o'quvchilar uchun metodik jihatdan maqbulligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, dasturlash darslarining kontekstual va fanlararo integratsion jihatlarini o'rganuvchi tadqiqotlar nisbatan cheklanganligi aniqlandi. Ayrim ilmiy ishlarda dasturlash matematika, tabiiy fanlar, tillar, yozma nutq va ijtimoiy fanlarni o'qitishda vositaviy metod sifatida qo'llanilgan bo'lsa-da, bu yo'nalish hali yetarlicha tizimlashtirilmagan. Umuman olganda, mazkur tadqiqot dasturlash ta'limining zamonaviy holatini konseptual jihatdan umumlashtirib, metodik yondashuvlarni integratsiyalash hamda kelgusida kompleks va uzoq muddatli empirik tadqiqotlar o'tkazish zaruratini asoslaydi.

Kalit so'zlar: dasturlash savodxonligi, sifatli kontent tahlili, pedagogik yondashuvlar, fanlararo integratsiya, Scratch dasturlash muhiti, empirik tadqiqot, metodik tizimlashtirish (shu tartibda rus va ingliz tilida).

Аннотация: Данная статья направлена на комплексный и системный анализ существующих научных исследований, посвящённых обучению программированию в общеобразовательных школах. На основе методологии качественного контент-анализа уточняются и систематизируются педагогические подходы к планированию, проектированию и эффективной организации учебных занятий по программированию. Результаты анализа свидетельствуют о значительном росте числа исследований в области программного образования на уровне общего среднего образования в последние годы; при этом большинство работ основано на эмпирическом исследовательском дизайне. Значительная часть существующих исследований проведена с участием учащихся шестых классов, а в качестве инструментов сбора данных преимущественно использовались анкеты, опросники и стандартизированные тесты. Анализ используемых средств обучения показал, что платформа Scratch является наиболее распространённой образовательной средой, что подтверждает методическую целесообразность применения визуального и блочного программирования для школьников. Вместе с тем установлено, что исследования, посвящённые контекстуальным и междисциплинарным аспектам уроков программирования, представлены в ограниченном объёме. В ряде работ программирование рассматривается как инструмент обучения математике, естественным наукам, языкам, письменной речи и социальным дисциплинам; однако данное направление пока недостаточно систематизировано. В целом исследование концептуально обобщает современное состояние программного образования и обосновывает необходимость интеграции методических подходов, а также проведения комплексных и долгосрочных эмпирических исследований в данной области.

Ключевые слова: программная грамотность, качественный контент-анализ, педагогические подходы, межпредметная интеграция, среда программирования Scratch, эмпирическое исследование, методическая систематизация.

INTRODUCTION

Programming can be challenging for beginners taking their first steps in the field. Gamified platforms transform this complex learning process into an engaging experience by incorporating game elements such as points, levels, badges, and interactive challenges. These elements enhance motivation and foster sustained engagement while simultaneously developing knowledge and practical skills.

This article aims to provide guidance for students who are interested in programming but are uncertain about where to begin. The study analyzes five widely used gamified programming platforms: CodeCombat, CodinGame, Tynker, Scratch, and Blockly Games.

ANALYSIS AND RESULTS

1. **CodeCombat.** CodeCombat is an RPG-style (Role-Playing Game) programming platform. In RPG environments, users control a character, make decisions, complete missions, and interact within a structured narrative world. Typically, RPG systems include levels, rewards, inventory systems, and story-based progression. In CodeCombat, users write code to control their character's actions, defeat enemies, and complete missions. Through gameplay, learners develop algorithmic thinking, logical reasoning, and fundamental programming skills. The platform supports Python and JavaScript. Code execution occurs in real time, and users receive immediate feedback regarding errors and corrections. CodeCombat follows a structured progression from beginner to advanced levels, and its user-friendly interface enhances accessibility (Figure 1).




Figure 1.

2. **CodinGame.** CodinGame is a gamified programming platform characterized by its competitive environment. Users solve algorithmic challenges, artificial intelligence problems, and logic-based tasks through coding (Figure 2).



Figure 2.

A distinguishing feature of CodinGame is its strong leaderboard and competitive programming system. The platform supports more than 25 programming languages, including Python, Java, C++, JavaScript, C#, Go, and Kotlin. CodinGame primarily develops algorithmic thinking, problem-solving skills, and optimization strategies. It is particularly suitable for learners preparing for technical interviews or competitive programming contests (Figure 3).



Figure 3.

3. **Tynker.** Tynker is a gamified programming platform designed primarily for children and beginners. It integrates interactive storytelling, creative projects, and structured curricula into the learning process. While mainly intended for learners aged 5–17, it can also benefit adult beginners. Tynker provides two coding approaches. Block-based coding, similar to Scratch, which prevents syntax errors and simplifies foundational learning. Text-based coding, including Python, JavaScript, and HTML/CSS, enabling a gradual transition to real-world programming. The platform incorporates gamification elements such as points, badges, levels, and interactive missions. Learners can create games, animations, Minecraft modifications, stories, and even program robots and drones. Tynker integrates programming with mathematics, engineering, and problem-solving skills within a STEAM-oriented framework (Figure 4).

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ




Figure 4.

4. **Scratch.** Scratch, developed by the MIT Media Lab, is a visual programming platform designed for children and beginners. It is available both online and offline and is free of charge. Scratch uses a drag-and-drop, block-based coding system, eliminating syntax errors and enabling learners to visually understand programming structures such as loops, conditionals, variables, and functions. One of Scratch's strongest features is its global online community, where users can share projects, explore others' work, and remix existing projects. Scratch is widely implemented in school curricula worldwide and significantly contributes to the development of creativity, algorithmic thinking, and collaborative learning. However, while Scratch is highly effective at the introductory level, transitioning to text-based programming languages becomes necessary for professional advancement (Figure 5).




Figure 5.

5. Blockly Games. Blockly Games, developed by Google, is a free and open-source educational platform designed to teach programming fundamentals through block-based coding. The platform introduces programming concepts progressively through thematic games such as Puzzle, Maze, Bird, Turtle, Movie, Music, and Pond. These games guide learners from simple logical sequencing to more advanced JavaScript-based problem-solving tasks. A key advantage of Blockly Games is that, at advanced stages, the system automatically displays the equivalent JavaScript code generated from block-based solutions. This feature facilitates a smooth transition from visual programming to text-based coding. Blockly Games is particularly effective in developing logical reasoning and mathematical thinking skills among young learners (Figure 5).




Figure 5.

Table 1: **Comparative analysis**

№	Platform	Target Age/Level	Programming Language(s)	Advantages	Limitations
1	**CodeCombat**	Beginner/Intermediate	Python, JS	RPG format, real-time feedback	Some paid levels, may be difficult for absolute beginners
2	**CodinGame**	Teens/Adults	25+ languages	Competitive environment, multilingual	Complex for young learners
3	**Tynker**	Children/Beginners	JS, Python, HTML/CSS	Creative projects, structured learning	Mostly subscription-based
4	**Scratch**	Children/Beginners	Block-based	Creative, strong community	Not suitable for professional coding
5	**Blockly Games**	Children/Beginners	Block-based	Free, logical development	Limited for advanced learners

Recommendations for the effective use of gamified programming platforms. Selection According to Age and Level of Preparedness. When selecting a platform, the learner's age and prior programming knowledge must be carefully considered. For children aged 6-10, Scratch and Blockly Games are appropriate due to their visual and intuitive interfaces. For learners aged 10-14, Tynker and Scratch (with more complex project development) are suitable. For beginner adolescents, CodeCombat is effective, while learners at the algorithmic development stage are better suited to CodinGame. Gradually increasing the complexity of learning tasks leads to more effective and sustainable outcomes. Transition Model from Block-Based to Text-Based

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Coding. For effective instruction, the following sequence is recommended: Blockly Games → Scratch → Tynker (block-based + text-based) → CodeCombat (Python/JavaScript) → CodinGame (advanced algorithmic practice). This structured progression reduces cognitive load and helps prevent syntax-related errors during the early stages of learning. Strengthening the Learning Process Through Gamification Elements. Gamification elements should be purposefully integrated into the instructional process: using points and badge systems as motivational rewards; organizing mini-competitions; conducting project presentations among learners; utilizing leaderboards as motivational tools. These methods contribute to the development of intrinsic motivation and sustained engagement. Maintaining a Balance Between Theory and Practice. The use of platforms should not be limited solely to gameplay. The following pedagogical strategies are recommended: Discussing concepts after completing each task; Designing algorithms on paper before implementation; Practicing code optimization exercises; Developing small real-life-related projects. Such integration ensures deeper conceptual understanding and practical competence.

Recommendations for Schools and Educational Centers. Scratch and Tynker can serve as primary platforms in primary education. CodeCombat is effective in middle grades for developing algorithmic thinking. CodinGame is recommended for upper-grade students and learners specializing in IT. Teachers should implement monitoring and progress-tracking systems to evaluate learner development. Individual Learning Strategy. For independent learners, it is advisable to set weekly learning goals and complete at least a minimum level on each platform. Creating small independent projects based on newly acquired knowledge reinforces learning outcomes. After gaining sufficient confidence, learners may gradually transition to text-based programming languages. Long-Term Development Strategy. Gamified platforms are highly effective at the introductory stage of programming education. However, for professional growth, learners should additionally: Work with GitHub repositories; Develop real-world projects; Study frameworks and programming libraries; Practice competitive programming. Such steps ensure sustainable skill development and readiness for professional IT environments.

CONCLUSION

Gamified programming platforms represent an innovative and effective approach to programming education. The analysis of CodeCombat, CodinGame, Tynker, Scratch, and Blockly Games demonstrates that these platforms provide adaptable learning environments suitable for diverse age groups and skill levels. Block-based platforms such as Scratch and Blockly Games are particularly effective at the introductory stage, whereas platforms incorporating text-based programming, such as CodeCombat and Tynker, prepare learners for real-world coding environments. CodinGame further enhances algorithmic thinking through competitive engagement. In conclusion, the systematic and goal-oriented integration of gamified platforms significantly improves programming learning outcomes and establishes a strong foundation for future professional IT competencies.

References:

1. Resnick, M., Maloney, J., Monroy-Hernández, A., et al. (2009). Scratch: Programming for All. Communications of the ACM, 52(11), 60–67.
2. Grover, S., & Pea, R. (2013). Computational Thinking in K–12: A Review of the State of the Field. Educational Researcher, 42(1), 38–43.
3. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction. Pfeiffer.
4. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. In Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences.
5. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. Basic Books.
6. Werbach, K., & Hunter, D. (2012). For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. Wharton Digital Press.
7. CodeCombat. (n.d.). https://codecombat.com
8. CodinGame. (n.d.). https://www.codingame.com
9. Tynker. (n.d.). https://www.tynker.com
10. Scratch. (n.d.). https://scratch.mit.edu
11. Blockly Games. (n.d.). https://blockly.games

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI MUAMMOLARI

Sh. A. Xujakulov
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

T. B. Kadirov
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy global raqamlashtirish sharoitida oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalasi ilmiy-pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Davlat darajasida qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi hamda xalqaro tajribalar asosida o‘qituvchilarning kasbiy raqamli tayyorgarligini takomillashtirish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqot davomida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish, fanlararo integratsiyaning sustligi, o‘quv dasturlarining moslashtirilmaganligi, infratuzilma hamda metodik ta’minot muammolari aniqlanadi. Maqolada DigCompEdu modeli komponentlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini shakllantirishning tizimli yondashuvi yoritiladi. Raqamli kompetentlik kasbiy ishtirok, raqamli resurslar bilan ishlash, o‘qitish va o‘rganish jarayonini tashkil etish, baholash, o‘quvchini rag‘batlantirish hamda o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar majmui sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijasida raqamli kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda amaliy mexanizmlari ishlab chiqildi.
Kalit so‘zlar: raqamli kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik ta’lim, raqamli transformatsiya, DigCompEdu modeli, kasbiy rivojlanish, raqamli pedagogika, fanlararo integratsiya, reflektiv amaliyot, raqamli ta’lim muhiti.

Abstract: The article analyzes the issue of developing digital competence among future teachers in higher pedagogical education institutions under the conditions of modern global digitalization as a scientific and pedagogical problem. Based on the national strategy “Digital Uzbekistan - 2030” and international experience, the necessity of improving teachers’ professional digital training is substantiated. The study identifies the gap between theory and practice, insufficient interdisciplinary integration, misalignment of curricula with contemporary requirements, as well as infrastructural and methodological challenges. The article presents a systematic approach to the formation of digital competence of future teachers based on the components of the DigCompEdu model. Digital competence is interpreted as a set of interrelated areas including professional engagement, working with digital resources, organizing teaching and learning processes, assessment, learner empowerment, and supporting students’ digital competence development. As a result of the research, pedagogical conditions and practical mechanisms for developing digital competence were elaborated.
Key words: digital competence, future teacher, pedagogical education, digital transformation, DigCompEdu model, professional development, digital pedagogy, interdisciplinary integration, reflective practice, digital learning environment.

Аннотация: В статье анализируется проблема развития цифровой компетентности будущих учителей в учреждениях высшего педагогического образования в условиях современной глобальной цифровизации как научно-педагогическая проблема. На основе государственной стратегии “Цифровой Узбекистан - 2030” и международного опыта обосновывается необходимость совершенствования профессиональной цифровой подготовки педагогов. В ходе исследования выявлены разрыв между теорией и практикой, недостаточная междисциплинарная интеграция, несоответствие учебных программ современным требованиям, а также проблемы инфраструктурного и методического обеспечения. В статье освещается системный подход к формированию цифровой компетентности будущих учителей на основе компонентов модели DigCompEdu. Цифровая компетентность интерпретируется как совокупность взаимосвязанных направлений: профессиональное участие, работа с цифровыми ресурсами, организация процессов обучения и учения, оценивание, стимулирование обучающихся, а также развитие их цифровой компетенции. В результате исследования разработаны педагогические условия и практические механизмы развития цифровой компетентности.
Ключевые слова: цифровая компетентность, будущий учитель, педагогическое образование, цифровая трансформация, модель DigCompEdu, профессиональное развитие, цифровая педагогика, междисциплинарная интеграция, рефлексивная практика, цифровая образовательная среда.

KIRISH

Zamonaviy global raqamlashtirish sharoitida pedagogik ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifa – bo'lajak o'qituvchilarni tezkor jamiyatda professional faoliyat yuritishga tayyorlash hamda ularning raqamli kompetentligini rivojlantirish va yuksaltirishdan iboratdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "...raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarsiz hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Zamonaviy bilimga ega bo'lmagan kadrlar bilan esa buni amalga oshirish qiyin" [1]. Ushbu strategik maqsadni amalga oshirish yo'lida qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi [2] oliy pedagogik ta'lim tizimi oldiga o'qituvchilarning nafaqat AKT savodxonligini, balki murakkab raqamli muhitda ijodiy va tanqidiy yondashuv asosida dars o'tish malakasini shakllantirish talabini qo'ymoqda. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilma sezilarli darajada yangilangan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini metodik jihatdan tizimli ravishda rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslash hamon dolzarb pedagogik muammo sifatida qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bir qancha olimlar tomonidan tahlil qilingan. Yevropalik olimlar Romanovskiy, Grinyova, Zhernovnykova, Shtefan va Fazan o'z maqolalarida bo'lajak matematika o'qituvchilarining raqamli kompetentligining tuzilishi, mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini belgilaydilar [3]. Spante, Sofkova, Lundin va Algers o'z tadqiqotlarida o'qituvchilarning raqamli kompetentligini aniqlash va baholash mezonlarini umumlashtiradilar [4]. Fursykova T., Habelko O., Chernii V. tadqiqotida esa raqamli kompetentlik raqamli madaniyat darajasi sifatida baholanadi. U motivatsion (raqamli texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish motivatsiyasi, jamoaviy hamkorlikka yo'naltirilganlik, axborot texnologiyalari orqali muvaffaqiyatga erishish istagi), kognitiv (raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo'llash bo'yicha bilimlar darajasi), faoliyat (raqamli texnologiyalarni ta'lim faoliyatini tashkil etish va kasbiy muammolarni hal etish uchun zarur ko'nikma va malakalar) hamda shaxsiy (raqamli jamiyatda o'z-o'zini o'qitish va kasbiy rivojlanish qobiliyati) komponentlardan iborat [5].

Yevropalik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida quyidagi shartlar asosida ko'rib chiqiladi: ta'lim muhitining raqamlashtirilishi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va talabalar bilan hamkorlik. O'qituvchilarning yuqori darajadagi raqamli kompetentligiga ega bo'lishi sifatli o'quv jarayonini ta'minlaydi hamda talabalarni samarali jalb etadi. Bolgariya maktab o'qituvchilari orasida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning 84,8% raqamli texnologiyalardan kundalik ta'lim faoliyatida foydalanadi [6]. Bu esa o'quv kontentini yaratish, talabalar ishtirokini rag'batlantirish va baholash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli kompetensiyalar orasida mualliflik elektron resurslarini ishlab chiqish (prezentatsiyalar, testlar, audio va video materiallar) hamda onlayn muhitlarda ishlash ko'nikmalari talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikada ko'p qirrali tarzda tahlil qilinmoqda. Xususan, I. Agibova va

T. Kulikova kengaytirilgan reallik (XR) vositalarini qo'llash orqali jarayonni to'rt asosiy qismga (faol rivojlanish, mentoring va h.k.) ajratib, besh ta'sir etuvchi omilni tizimlashtirgan bo'lsa [7], S. Tkachov va N. Tkachova shaxsiylashtirilgan o'quv muhiti hamda inklyuzivlikni ta'minlashda elektron simulyatorlar va multimedia tizimlarining samaradorligini, shu bilan birga kompetensiya darajasidagi demografik farqlarni qayd etadilar [8].

L. Tomczyk o'quv dasturlarini raqamli kontent yaratish, kiberxavfsizlik va interaktivlikka yo'naltirilgan holda isloh qilish zarurligini ta'kidlaydi [9].

OECD xalqaro tahlillari TPACK va DigComp ramkalari barqaror ta'limning asosi ekanligini tasdiqlaydi [10].

Tadqiqotchi T. Huong va uning hamkasblari o'qituvchilarning sun'iy intellekt (AI) bilan ishlashdagi kamchiliklarini algoritmlashtirish orqali bartaraf etishni taklif qilsa [11], I. Skakun va M. Peters raqamli kompetentlikni pedagogik tayyorgarlikning mustaqil hamda fundamental tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar [12] [13].

A. Rakisheva va A. Witt UNESCO hamda ISTE kabi xalqaro ramkalar aralash ta'lim kelajagi uchun muhimligini ko'rsatib o'tadi [14], A. Örtegren masofaviy ta'limda muammo hal etishga yo'naltirilgan kasbiy raqamli kompetensiya (PDC) samaradorligini isbotlaydi [15].

Nihoyat, E. Galimullina va Ljubimova tizimli rivojlanishda huquqiy etika, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda individual xususiyatlar uyg'unligini strategik omil deb hisoblaydilar [16].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalasi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida milliy va xalqaro tajribalar uyg'unligida tadqiq etilmoqda. Xususan, L.R. Djurayeva raqamli muhitda motivatsion va kognitiv komponentlarni kuchaytirishda tanqidiy fikrlashning markaziy o'rni hamda resurslarni baholashdagi ahamiyatini asoslab bergan bo'lsa [17], D.H. Fayziyeva media va raqamli kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi orqali o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda inklyuziv hamda shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni taklif etadi [18].

Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchilari, jumladan D. Rasulova, ta'limni individuallashtirishda loyiha asosidagi o'qitish, gamifikatsiya va raqamli platformalarning samaradorligini empirik jihatdan tasdiqlagan bo'lsalar, sohadagi umumiy tahlillar kasbiy, texnik va metodik ko'nikmalarni raqamli didaktika, xavfsizlik hamda etika tamoyillari asosida integratsiyalash zarurligini ko'rsatib o'tadi [19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshqa manbalarda raqamli kompetentlik shaxsiy shakllanish sifati sifatida ta'riflanadi, u tegishli motivlar, qadriyatlar, munosabatlar, turli raqamli resurslar, vositalar va texnologiyalar haqidagi bilimlarni birlashtiradi, shuningdek, ularni pedagogik faoliyatda tanqidiy tahlil va baholash asosida qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu ta'rif Yevropa raqamli kompetentlik ramkalari (DigCompEdu) asosida shakllangan bo'lib, kasbiy ishtirok, raqamli resurslar bilan ishlash, o'qitish va o'rganish, natijalarni baholash, talabalar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta'lim sub'ektlarida raqamli kompetentlikni rivojlantirish kabi komponentlarni qamrab oladi [8]. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishdagi dolzarb muammo – bu nazariy bilimlar va real pedagogik amaliyot o'rtasidagi uzilishdir. Quyida ushbu pedagogik muammolarga to'xtalamiz. Nazariya va amaliyotning uzluksizligi. Raqamli kompetentlik kurslari alohida fan sifatida o'qitiladi, boshqa fanlar bilan integratsiyasi yo'lga qo'yilmagan. Natijada axborot texnologiyalari fanlari pedagogika fanlari bilan bog'lanmaydi, o'qituvchilar esa "texnik" va "pedagogik" bilimlarini birlashtira olmaydi.

An'anaviy yondashuvning saqlanib qolganligi. Dars o'tish tizimi an'anaviy usullarga tayanib, frontal darslar ustuvorligini saqlaydi, bu esa innovatsion metodlarni qabul qilishda institutsional qarshilikni yuzaga keltiradi va nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi tafovutni kuchaytiradi.

Infratuzilma va resurslarning cheklanganligi. Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnik vositalar, litsenziyalangan dasturiy ta'minot, barqaror internet va raqamli laboratoriyalar yetishmasligi bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda amaliy tajriba orttirish imkoniyatini jiddiy cheklaydi.

Kadrlarning tayyorgarlik darajasi.1 Dars beruvchi professor-o'qituvchilarning o'zlarining raqamli kompetentligi past bo'lishi, ayniqsa katta yoshli mutaxassislarda texnofobiyaning kuzatilishi hamda raqamli pedagogika bo'yicha kadrlarning yetishmasligi muammoni murakkablashtiradi.

O'quv dasturlarining moslashtirilmaganligi. O'quv rejalari zamonaviy talablarga mos kelmaydi, raqamli kompetentlik komponentlari aniq ko'rsatilmagan, amaliy mashg'ulotlar uchun yetarli vaqt ajratilmagan va dasturlar doimiy ravishda yangilanmaydi.

Individual yondashuvning yetishmasligi. Ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning dastlabki raqamli savodxonlik darajasi, shaxsiy ehtiyojlari va o'rganish uslublarini hisobga olmagan holda amalga oshiriladi, shaxsiy rivojlanish rejalari ishlab chiqilmaydi.

Kasbiy identifikatsiya muammosi. Bo'lajak o'qituvchilar raqamli texnologiyalarni o'z kasbiy identifikatsiyasiga qanday integratsiyalashni bilmaydilar, bu "raqamli kompetentligi yuqori pedagog" va "an'anaviy pedagog" identifikatsiyalari o'rtasidagi ziddiyatga olib keladi.

Refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish malakasining yetishmasligi. Bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil o'rganish, o'z faoliyatini tahlil qilish va raqamli portfolioni shakllantirish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan, bu ularning doimiy o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini cheklaydi.

Jamiyatdagi stereotiplar. Ota-onalar, jamiyat va ba'zi pedagoglarning "texnologiya – bu o'yin" degan qarashi, an'anaviy usullarning ustunligiga bo'lgan ishonch hamda raqamli ta'lim samaradorligiga shubha bilan qarashlari muammoni kuchaytiradi.


Doimiy o'zgaruvchanlik muammosi. Raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotganligi sababli ta'lim tizimi bu o'zgarishlarga tez moslasha olmaydi, natijada texnologiyalar ta'lim mazmunidan tezroq eskiradi va o'qituvchilarni doimiy qayta tayyorlash zarurati yuzaga keladi.

Demak, aksariyat hollarda oliy o'quv yurtlarida raqamli texnologiyalar alohida "Informatika" fani sifatida o'qitiladi, biroq ularni bevosita fan metodikasiga (masalan, ona tilini raqamli o'qitishga) integratsiya qilish darajasi pastligicha qolmoqda. Talabalar raqamli vositalar bilan ishlashni ("kompetensiya") bilsalar-da, ularni darsning turli bosqichlarida o'quvchi ehtiyojidan kelib chiqib, qachon va qanday samarali qo'llash mahoratini ("kompetentlik") shakllantirish uchun amaliy maydon yetishmaydi. Natijada bitiruvchi talaba zamonaviy gadjetlarni ishlata olsa-da, maktabga borganda raqamli muhitda murakkab pedagogik muammolarni hal etish, inklyuzivlikni ta'minlash va o'quvchilarning raqamli kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Demak, o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish dasturlarining samaradorligi ularning tuzilishi, amalga oshirilishi va natijalari tahliliga bog'liq. Ular axborot savodxonligi, kommunikatsiya, raqamli kontent yaratish va axborot xavfsizligi kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Raqamli kompetentlik hamda o'qituvchi motivatsiyasining yaxshilanishi kuzatilgan bo'lsa-da, joriy ehtiyojlar bilan moslashuvning yetishmasligi saqlanib qolmoqda.

1 Ilg'or texnologiyalar yoki murakkab elektron qurilmalardan qo'rqish yoki yoqtirmaslik. Umuman olganda, texnologik taraqqiyotdan qo'rqish. Manba: https://uz.wikipedia.org/wiki/Texnofobiya

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda DigCompEdu kabi ramkalarga moslashish hamda konseptual, protsessual va munosabat jihatlarini hisobga olish tavsiya etiladi [20]. Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish uchun tizimli ishlab chiqilgan kompetensiyalar majmuiga asoslangan samarali ta’lim tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunday kompetensiyalar majmui Yevropa kengashi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli hisoblanadi. Bu esa ta’limda raqamli kompetentlikni rivojlantirishda tizimli ravishda ishlab chiqilgan kompetensiyalar ketma-ketligi sifatida e’tirof etiladi (1-rasm).



1-rasm: **Yevropa kengashi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli**

Kasbiy faoliyat (Professional Engagement). O‘qituvchining raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatida qo‘llashi:

- tashkiliy kommunikatsiya – o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan raqamli usullar orqali samarali muloqot qilish;
- kasbiy hamkorlik – bilim va tajriba almashish, pedagogik amaliyotni takomillashtirish;
- reflektiv amaliyot – o‘zining raqamli pedagogik faoliyatini baholash va rivojlantirish;
- raqamli doimiy kasbiy taraqqiyot – o‘z kompetensiyasini yangi raqamli manbalar orqali oshirib borish.

Raqamli resurslar (Digital Resources). Raqamli ta’lim resurslarini topish, yaratish, tahrirlash va boshqarish:

- raqamli resurslarni tanlash – pedagogik maqsadga mos materiallarni aniqlash;
- raqamli kontent yaratish va o‘zgartirish – yangi yoki mavjud resurslardan foydalanib o‘quv materiallarini ishlab chiqish;
- resurslarni boshqarish va himoya qilish – raqamli materiallarni tuzish, xavfsiz saqlash va ulashish.

O‘qitish va o‘rganish (Teaching and Learning). Raqamli vositalarni o‘quv jarayonida qo‘llash:

- o‘qitish – raqamli vositalar yordamida ta’lim jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish;
- yo‘naltirish (Guidance) – shaxsiy va guruh bilan muloqotni kuchaytirish;
- hamkorlikda o‘rganish – o‘quvchilarni birgalikda ishlashga rag‘batlantirish;
- o‘zini boshqaruvchi o‘rganish – o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish va rejalashtirishiga yordam berish.

Baholash (Assessment). Raqamli texnologiyalar yordamida baholash:

- baholash strategiyalari – shakllantiruvchi va yakuniy baholash vositalaridan foydalanish;
- dalillarni tahlil qilish – raqamli ma'lumotlar orqali o'quv faoliyatini o'lchash;
- fikr-mulohaza va rejalashtirish – o'quvchilarga o'z vaqtida va maqsadga yo'naltirilgan mulohaza berish.

O'quvchini rag'batlantirish (Empowering Learners). O'quvchilarni faol ishtirokga undash:

- kirishni osonlashtirish va inklyuziya – har qanday o'quvchi uchun teng imkoniyat yaratish;
- moslashtirish va shaxsiylashtirish – individual o'quv yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- faol ishtirok – murakkab vazifalar va real dunyo jarayonlariga jalb etish.

O'quvchilarning raqamli kompetensiyasi (Facilitating Learners' Digital Competence). O'quvchilarga raqamli ko'nikmalarni o'rgatish:

- axborot va media savodxonligi – axborotni topish va tahlil qilish;
- raqamli kommunikatsiya va hamkorlik – samarali onlayn muloqot qilish;
- raqamli kontent yaratish – kontentni ishlab chiqish va mualliflik huquqiga rioya qilish;
- mas'uliyatli foydalanish – xavfsiz va ongli texnologiyalardan foydalanish;
- raqamli muammolarni hal etish – texnik muammolar yechimini topish [21].

DigCompEdu modelini bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimiga tatbiq etish – bu shunchaki texnik savodxonlikni oshirish emas, balki ularning pedagogik tafakkurini raqamli davr talablariga mos ravishda mutlaqo qayta shakllantirish demakdir. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda ushbu oltita kompetensiya o'zaro mantiqiy zanjir hosil qiladi va o'qituvchining shaxsiy kasbiy rivojlanishida hamda resurslarni boshqarishda poydevor vazifasini o'taydi, shuningdek, o'quvchi imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularda raqamli ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy global raqamlashtirish sharoitida oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifa – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini raqamli muhit talablariga mos ravishda tashkil etish hamda ularning raqamli kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirishdan iboratdir. Davlat siyosati darajasida belgilangan strategik yo'nalishlar, xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi pedagog kadrlarning nafaqat AKT savodxonligini, balki murakkab raqamli ta'lim muhitida ijodiy, tanqidiy va reflektiv faoliyat yurita olish qobiliyatini shakllantirishni talab etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilma sezilarli darajada yaxshilangan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini metodik jihatdan integratsiyalashgan holda rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Asosiy pedagogik muammolar sifatida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish, fanlararo integratsiyaning sustligi, infratuzilma va resurslarning cheklanganligi, professor-o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga to'liq moslashtirilmaganligi hamda individual yondashuvning yetishmasligi aniqlandi.

Xalqaro tajriba tahlili, xususan, DigCompEdu modeli asosida olib borilgan yondashuvlar raqamli kompetentlikni kasbiy ishtirok, raqamli resurslar bilan ishlash, o'qitish va o'rganish, baholash, o'quvchini rag'batlantirish hamda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish kabi o'zaro bog'liq komponentlar tizimi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Mazkur model bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliy pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- raqamli kompetentlikni barcha fanlar metodikasi bilan integratsiyalash;
- amaliy mashg'ulotlar va raqamli pedagogik muhitni kengaytirish;
- refleksiya va raqamli portfolioni shakllantirish tizimini joriy etish;
- professor-o'qituvchilarning uzluksiz raqamli kasbiy rivojlanishini ta'minlash;
- individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish – bu alohida fan doirasidagi texnik ko‘nikmalarni shakllantirish emas, balki pedagogik tafakkurni raqamli transformatsiya sharoitiga mos ravishda qayta qurish jarayonidir. Mazkur yondashuv kelgusida raqamli ta’lim muhitida samarali faoliyat yurita oladigan, innovatsion fikrlaydigan va o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantira oladigan pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. [Manba: president.uz] https://president.uz/oz/lists/view/3848
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmoni. – QHMMB, 06/20/6079/1349-son, 06.10.2020-y.
3. O. Romanovskyi, V. Grineva, O. Zhernovnykova, L. Shtefan, & V. Fazan, “Formation of future mathematics teachers’ digital competence: ascertain stage”. Information Technologies and Learning Tools, 65(3), 184–200, 2018. https://doi.org/10.33407/itlt.v65i3.2412
4. M. Spante, H. Sofkova, M. Lundin, & A. Algers, “Digital competence and digital literacy in higher education research: Systematic review of concept use”. Cogent Education, 5(1), 2018. https://doi.org/10.1080/2331186X.2018.1519143
5. Fursykova, T., Habelko, O., & Chernii, V. (2022). The Development of Digital Competence of Future Teachers in the Process of Distance Learning. International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET), 17(10), 85–98.
6. Kiryakova, G., & Kozhuharova, D. (2024). The Digital Competences Necessary for the Successful Pedagogical Practice of Teachers in the Digital Age. Education Sciences, 14(5), 507. https://doi.org/10.3390/educsci14050507
7. Agibova, I. M., Kulikova, T. A., Poddubnaya, N. A., & Fedina, O. V. (2023). Development of Digital Competence of a Future Teacher in the Context of Informatization and Digitalization of Modern Teacher Education. Proceedings IFTE-2020, 0013–0026, 13–26.
8. Tkachov, S., Tkachova, N., & Shcheblykina, T. (2023). Developing Digital Competence of Future Teachers in the Modern Digital Learning Space. Educational Challenges, 28(1), 149–160. https://doi.org/10.34142/2709-7986.2023.28.1.12
9. Tomczyk, Ł. (2024). Digital competence among pre-service teachers: A global perspective on curriculum change as viewed by experts from 33 countries. Evaluation and Program Planning, 105, Article 102449. https://doi.org/10.1016/j.evalprogplan.2024.102449
10. OECD (2023). OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/c74f03de-en
11. Huong, T. T., Vy, P. N. T., Minh, L. H., & Linh, N. T. (2025). Primary School Teacher Educators’ Digital Competence: Perceived Confidence and Continuing Needs for 21st-Century Teaching. Educational Process: International Journal, 15, e2025147. https://doi.org/10.22521/edupij.2025.15.147
12. Skakun, I. (2021). Digital Competencies of the Teacher of the Future. Futurity Education, 1(2), 46–56. https://doi.org/10.57125/FED/2022.10.11.18
13. Peters, M. (2022). Teacher digital competence development in higher education: Overview of systematic reviews. Australasian Journal of Educational Technology, 38(3), 122–139.
14. Rakisheva, A., & Witt, A. (2023). Digital competence frameworks in teacher education: A literature review. Issues and Trends in Learning Technologies, 11(1). https://doi.org/10.2458/itlt.5205
15. Örtegren, A. (2024). Pathways to professional digital competence to teach for digital citizenship: Social science teacher education in flux. Teachers and Teaching, 30(4), 526–544. https://doi.org/10.1080/13540602.2024.2342860
16. Galimullina, E. Z., Ljubimova, E. M., Mukhametshina, D. R., & Sozontova, E. A. (2022). Analysis of requirements for the digital competence of a future teacher. European Journal of Educational Research, 11(3), 1729–1745. https://doi.org/10.12973/eu-jer.11.3.1729
17. Djurayeva, L. R. (2023). Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlari.
18. Fayziyeva, D. H. (2024). Bo‘lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.
19. Rasulova, D. R. va boshq. (2023). Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish.
20. Gallego Joya, L., Merchán Merchán, M. A., & López Barrera, E. A. (2025). Development and strengthening of teachers’ digital competence: Systematic review. Contemporary Educational Technology, 17(1), ep555. https://doi.org/10.30935/cedtech/15744
21. DigCompEdu. https://joint-research-centre.ec.europa.eu/digcompedu/digcompedu-framework_en

UZOQ MUDDAT DAVOLANAYOTGAN BOLALARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA FANLARARO BOG‘LANISHNING ROLI

Tursunova Dildora Ziyadullayevna
Qori Niyoziy nomidagi
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Ochilov Orazbek Qosim o‘g‘li
“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi pedagog xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog‘lanishning metodik va psixologik ahamiyati tadqiq etiladi. “Mehrli maktab” gospital maktabi misolida matematika fanining tibbiyot, art-terapiya va informatika bilan integratsiyalashuvi o‘quvchilarning kognitiv reabilitatsiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Maqolada S.V. Sharikov, L.S. Vigotskiy va Ye. Yamburg kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayanilgan holda matematikaning “terapevtik fan” sifatidagi roli asoslab beriladi. Shuningdek, fanlararo yondashuv bolaning akademik uzviyligini ta’minlash, unda kasallikka qarshi kurashish irodasini mustahkamlash va ijtimoiy moslashuvini tezlashtirishning muhim omili ekanligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: gospital pedagogika, fanlararo bog‘lanish, matematika, “Mehrli maktab”, kognitiv reabilitatsiya, akademik uzviylik, bilim terapiyasi, gospital maktab.

Abstract: This article explores the methodological and psychological significance of interdisciplinary connections in enhancing the mathematical literacy of children undergoing long-term medical treatment. Using the example of the “Mehrli maktab” hospital school, it analyzes how the integration of mathematics with medicine, art therapy, and computer science impacts students’ cognitive rehabilitation. Drawing on the theoretical perspectives of scholars such as S.V. Sharikov, L.S. Vygotsky, and E. Yamburg, the role of mathematics as a “therapeutic discipline” is substantiated. Furthermore, the article highlights that an interdisciplinary approach is a crucial factor in ensuring academic continuity, strengthening the child’s will to fight illness, and accelerating social adaptation.

Key words: hospital pedagogy, interdisciplinary connections, mathematics, “Mehrli maktab”, cognitive rehabilitation, academic continuity, educational therapy, hospital school.

Аннотация: В данной статье исследуется методическая и психологическая значимость междисциплинарных связей в повышении математической грамотности детей, находящихся на длительном лечении. На примере госпитальной школы “Мехрли мактаб” анализируется влияние интеграции математики с медициной, арт-терапией и информатикой на когнитивную реабилитацию учащихся. Опираясь на теоретические взгляды С.В. Шарикова, Л.С. Выготского и Е. Ямбурга, обосновывается роль математики как “терапевтической дисциплины”. Также освещается, что междисциплинарный подход является ключевым фактором обеспечения академической преемственности, укрепления воли ребёнка к борьбе с болезнью и ускорения его социальной адаптации.

Ключевые слова: госпитальная педагогика, междисциплинарные связи, математика, “Мехрли мактаб”, когнитивная реабилитация, академическая преемственность, образовательная терапия, госпитальная школа.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim insonparvarlik tamoyillaridan biri – bu har bir bolaning, uning jismoniy holati va ijtimoiy muhitidan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashdir. Ayniqsa, uzoq muddatli statsionar davolanishda bo‘lgan bolalar ko‘pincha an’anaviy ta’lim muhitidan uzilib qoladilar, bu esa ularda nafaqat akademik bilimlar bo‘shlig‘ini, balki jiddiy ijtimoiy izolyatsiyani ham yuzaga keltiradi. Ushbu murakkab pedagogik va ijtimoiy bo‘shliqni to‘ldirish, bolalarning konstitutsiyaviy ta’lim olish huquqini kafolatlash gospital pedagogikaning asosiy strategik vazifasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga

muvofiq, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim shakllarini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu huquqiy va ijtimoiy islohotlarning amaliy natijasi o'laroq mamlakatimizda tashkil etilgan "Mehrli maktab" gospital maktablar tarmog'i o'quvchi-bemorlar uchun o'ziga xos "bilim terapiyasi" maskaniga aylandi. Bu yerda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki bolaning ruhiy tetikligini saqlash va davolanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi reabilitatsiya komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

Matematika fani esa mantiqiy izchillik va aniqlik manbai sifatida ushbu jarayonda markaziy o'rinni egallaydi. Biroq shifoxona sharoitida matematikani an'anaviy, quruq formulalar asosida o'qitish kognitiv charchoqni kuchaytirishi mumkin, bu esa fanni o'qitishda yangicha metodik yondashuvlarni talab etadi. Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanish (integratsiya) tamoyili hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Matematikani tibbiyot, san'at, informatika va kundalik hayot bilan bog'lab o'qitish bolaning intellektual salohiyatini faollashtiradi. Bu yondashuv matematik tushunchalarni mavhumlikdan hayotiy reallikka olib chiqadi va bolaga o'z sog'lig'i bilan bog'liq jarayonlarni ham mantiqiy tahlil qilish imkonini beradi. Natijada o'quvchida "mening bilimim hayotim uchun muhim" degan tushuncha shakllanadi, bu esa uning o'quv motivatsiyasini va kasallikka qarshi kurashish irodasini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Ushbu maqolaning maqsadi – "Mehrli maktab" sharoitida fanlararo bog'liqlik asosida matematika darslarini tashkil etishning metodik imkoniyatlarini yoritish va bu orqali o'quvchilarning kognitiv chidamliligini oshirish yo'llarini tahlil qilishdan iborat. Bizning nazarimizda integratsiyalashgan ta'lim muhiti bolani "bemor" statusidan "tadqiqotchi" maqomiga ko'taruvchi asosiy vositadir. Maqolada matematika darslarini boshqa fanlar bilan bog'lashning amaliy mexanizmlari va ularning bolaning ruhiy-emotsional holatiga ta'siri ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uzoq muddatli statsionar davolanishda bo'lgan bolalar ko'pincha an'anaviy ta'lim muhitidan uzilib qoladilar. Aynan shu ijtimoiy bo'shliqni to'ldirish va bolalarning konstitutsiyaviy ta'lim olish huquqini ta'minlash gospital pedagogikaning asosiy vazifasidir [7]. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun1iga muvofiq jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun maxsus ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyati kafolatlanadi [1]. Ushbu huquqiy asoslarga tayangan holda O'zbekistonda tashkil etilgan "Mehrli maktab" gospital maktabi bolaga dori-darmonlar bilan bir qatorda bilim terapiyasini olish imkonini bermoqda. Bu jarayon davolash-profilaktika muassasalarida statsionar sharoitda davolanayotgan bolalar uchun ta'limning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi [2]. Rossiyalik olim S.V. Sharikov uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratish bo'yicha eng nufuzli ekspertlardan biridir. Uning fikricha: "Gospital maktabda o'qitiladigan har bir fan, jumladan, matematika ham o'quvchi uchun nafaqat bilim manbai, balki uni hayotga bog'lab turuvchi reabilitatsiya vositasi bo'lishi kerak. Fanlararo bog'lanish esa bolaning shifoxona muhitidagi kognitiv charchog'ini yengishga yordam beradi" [7].

Vigotskiyning "Rivojlanishning yaqin zonasi" nazariyasi gospital pedagogikada fanlararo bog'lanishning asosi hisoblanadi: "Bola o'zi uchun tanish bo'lgan (masalan, hayotiy yoki tibbiy) tushunchalar orqali yangi va murakkab bilimlarni osonroq o'zlashtiradi. Bilimlarning bir-biri bilan integratsiyasi bolaning intellektual rivojlanishini tezlashtiradi" [3]. Akademik Yevgeniy Yamburg "Adaptiv maktab" modelida matematika darslarini boshqa sohalar bilan bog'lash haqida shunday deydi: "Matematika quruq formulalar to'plami bo'lib qolmasligi uchun u hayot bilan, san'at va hatto tibbiyot bilan integratsiyalashishi lozim. Bu, ayniqsa, og'ir xastalikka chalingan bolalar uchun muhim, chunki mantiqiy bog'liqlik ularning miya faoliyatini rag'batlantiradi" [8].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham fanlararo bog'lanishning metodik ahamiyatiga to'xtalib o'tganlar. N. N. Mamatovning fikricha, matematika darslarida fanlararo bog'liqlikni ta'minlash o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi hamda ularda masalalarni kompleks hal etish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu yondashuv o'quvchi motivatsiyasini 30-40% ga oshirish imkonini beradi [6]. Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlarini tahlil qilar ekanmiz, gospital pedagogikada fanlararo bog'lanish shunchaki dars samaradorligini oshirish usuli emas, balki bolaning psixofiziologik holatini barqarorlashtiruvchi strategik vosita ekanligiga amin bo'lamiz.

S. V. Sharikov va Ye. Yamburg ta'kidlaganidek, og'ir xastalik bilan kurashayotgan bola uchun matematika kabi intellektual faoliyat turlari uning hayotiy tonusini saqlab qolishga xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, bu jarayonda integratsiyalashgan ta'lim mazmuni bolani passiv bemor holatidan faol o'quvchi holatiga o'tkazuvchi asosiy katalizator hisoblanadi. L. S. Vigotskiyning "Rivojlanishning yaqin zonasi" nazariyasini gospital sharoitga tatbiq etish shuni ko'rsatadiki, o'quvchi o'zi har kuni to'qnash keladigan tibbiy jarayonlarni (masalan, tana harorati grafigi yoki dori dozasi) matematik tilda tahlil qilganda, mavhum formulalar uning uchun hayotiy mazmunga ega bo'ladi. Bu holatda bilim o'zlashtirish jarayoni majburiyat emas, balki atrofdagi voqelikni boshqarish imkoniyati sifatida qabul qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, N. N. Mamatov qayd etganidek, o'quvchi motivatsiyasining keskin o'sishiga xizmat qiluvchi metodik asosdir.

1 https://lex.uz/docs/5013007

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, fanlararo bog‘lanish orqali tashkil etilgan matematik ta’lim – bu kognitiv reabilitatsiyaning eng samarali shaklidir. Chunki matematika va boshqa fanlar (san’at, tibbiyot, IT) chorrahasida hosil bo‘ladigan mantiqiy zanjirlar bolaning miya faoliyatini rag‘batlantirib, dori-darmonlarning kognitiv funksiyalarga salbiy ta’sirini neytrallashtirishga ko‘maklashadi. Shifoxona muhitida fanlarni bir-biridan ajratib o‘qitish o‘quvchini charchatadi, ularni integratsiyalashgan holda taqdim etish esa intellektual yuklamani emotsional yengillik bilan uyg‘unlashtiradi. Shuningdek, jahon va mahalliy olimlarning tadqiqotlari gospital pedagogikada fanlararo bog‘lanishning didaktik zaruratini to‘liq tasdiqlaydi. “Mehrli maktab” tizimida ushbu metodikadan foydalanish nafaqat akademik savodxonlikni oshirishga, balki bolaning ruhiy dunyosini sog‘lomlashtirishga qaratilgan yaxlit pedagogik tizimni yaratish imkonini beradi. Shunday qilib, matematika bu yerda o‘quvchining akademik o‘sishi va ijtimoiy reabilitatsiyasi o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gospital ta’lim sharoitida matematika fani o‘quvchiga shunchaki akademik bilim beruvchi fan emas, balki murakkab davolanish jarayonida reabilitatsion-terapevtik funksiyani bajaruvchi muhim vositadir. Og‘ir muolajalar, xususan, kimyoterapiya va doimiy dori-darmon iste’moli bolaning kognitiv funksiyalariga, xususan, xotira va diqqatni jamlash qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli dars jarayonida matematik tushunchalar o‘quvchi imkoniyatlaridan kelib chiqib, axborotni kichik, oson o‘zlashtiriladigan qismlarga bo‘lib beruvchi “kichik qadamlar” tamoyili asosida o‘tilishi o‘ta muhimdir. Darslarni tashkil etishda o‘quvchi-bemorning o‘sha kungi jismoniy va psixologik holatini inobatga olish pedagogik jarayonning markazida turadi. Matematika aniq fan bo‘lgani uchun unda natijaga erishish jarayoni bolaga o‘z kuchi va salohiyatini his qilish imkonini beradi. O‘qituvchi o‘quvchida “men buni yecha oldim” degan ichki muvaffaqiyat hissini uyg‘otish orqali uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini qayta tiklaydi. Bu kabi kichik g‘alabalar bola uchun shunchaki akademik ko‘rsatkich emas, balki og‘ir kasallik bilan kurashishda qo‘shimcha motivatsiya manbaiga aylanadi. Bunday yondashuv bolani uzoq vaqt davom etadigan depressiv holatlardan chiqarib, uning ruhiy barqarorligini hamda ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi.

Matematika darslarida erishilgan intellektual yutuqlar bolaning shifoxona muhitidagi izolyatsiyadan chiqishiga, o‘zini jamiyatning faol a’zosi sifatida his qilishiga va sog‘aygandan so‘ng tengdoshlari bilan ta’limiy muloqotga kirishishiga poydevor bo‘ladi. Natijada o‘quv jarayoni bolaning nafaqat zehni, balki butun irodaviy tizimini mustahkamlovchi reabilitatsiya komponentiga aylanadi. “Mehrli maktab” sharoitida fanlararo bog‘lanish shunchaki nazariy usul emas, balki akademik bilimni hayotiy reallik bilan birlashtiruvchi mustahkam ko‘prikdir. Bu yondashuv o‘quvchiga maktab dasturidagi mavzularning amaliy ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Matematika darslarining boshqa sohalar bilan integratsiyalashuvi bolaning atrof-muhitni anglashini osonlashtiradi va unda o‘rganilayotgan fanga nisbatan kuchli qiziqish hamda ishonch uyg‘otadi. Matematika va tibbiyotning uyg‘unligi o‘quvchi uchun eng yaqin va tushunarli amaliy yo‘nalishdir. Masalan, bolaning tana vazniga qarab dori dozalarini proporsiya yordamida hisoblashi yoki qon tarkibidagi o‘zgarishlarni funksional grafiklar ko‘rinishida tasvirlashi uning o‘z salomatligiga ongli munosabatini shakllantiradi. Bu jarayonda raqamlar quruq hisob-kitob emas, balki shifo sari tashlangan qadam sifatida namoyon bo‘ladi va o‘quvchining davolanish jarayonidagi irodasini mustahkamlaydi. Matematika va art-terapiya bog‘liqligi shifoxonadagi monotonlikni yengish hamda bolaning hissiy olamini boyitishda muhim o‘rin tutadi.

Geometrik simmetriyani milliy naqshlar, ornamentlar yoki origami san’ati orqali o‘rganish o‘quvchining ko‘rish va sezish retseptorlarini faollashtiradi [4]. Ushbu usul matematik shakllarni go‘zallik bilan birlashtirib, bolaga nafaqat bilim beradi, balki uning estetik didini rivojlantirib, ruhiy xotirjamlik va ichki muvozanatni ta’minlaydi. Nihoyat, matematika va informatika integratsiyasi algoritmik tafakkurni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Vizual dasturlash tillari, xususan, Scratch va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bolani tushkun “bemor” maqomidan faol “ijodkor” maqomiga o‘tkazadi. O‘z loyihalarini yaratish, mantiqiy zanjirlarni tuzish va raqamli natijaga erishish o‘quvchiga o‘zining intellektual salohiyatini his qilish imkonini beradi hamda uning kelajakka bo‘lgan ishonchini yangi bosqichga olib chiqadi. Fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning nafaqat bilimini boyitadi, balki ularda kognitiv chidamlilikni ham shakllantiradi.

Matematika darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish o‘quvchi uchun fanni quruq formulalar majmuasidan qiziqarli va hayotiy jarayonga aylantiradi. Bunday yondashuv bolaning fikrlash doirasini kengaytirib, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini o‘stiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, integratsiyalashgan ta’lim muhiti bolaning irodasini mustahkamlab, unda kasallikka qarshi kurashish motivatsiyasini uyg‘otadi. Matematik mantiqiy topshiriqlar va boshqa fanlarning uyg‘unligi bolaning diqqatini dahshatli tashxisdan chalg‘itib, intellektual faoliyatga yo‘naltiradi. Natijada o‘quvchi o‘zining akademik uzviyligini saqlab qoladi va sog‘ayib maktabiga qaytganida tengdoshlaridan ortda qolmaydi, bu esa uning ijti-

moiy moslashuvini osonlashtiradi. “Mehrli maktab” sharoitida matematikani boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish shunchaki dars usuli emas, balki metodik zaruriyatdir. Masalan, matematika bilan biologiya yoki tasviriy san’atning bog‘lanishi raqamlarga “jon” bag‘ishlaydi va fanni tirik jarayonga aylantiradi. Bunday metodika bolaning ruhiy reabilitatsiyasiga bevosita yordam berib, dars jarayonini zerikarli mashg‘ulotdan qiziqarli izlanishga aylantiradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, matematika bunday o‘ziga xos muhitda “terapevtik fan” vazifasini o‘taydi. U bolaning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini qaytaradi, kelajakka umid uyg‘otadi va ruhan tetiklashishiga ko‘maklashadi. Fanlararo integratsiya orqali o‘zlashtirilgan bilimlar o‘quvchi uchun hayotiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi va uning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020-y. URL: https://lex.uz/docs/5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/-6419217
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Под ред. В.В. Давыдова. – М.: Педагогика-Пресс, 1999. – 536 с.
Mazkur tadqiqotda yosh avlod tarbiyasida hamkorlikka asoslangan tarbiya texnologiyalarining o'rni va samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda mavzuga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish orqali nazariy ma'lumotlar to'plandi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, hamkorlikka asoslangan tarbiyaviy faoliyat jarayonlari kuzatish usuli orqali o'rganildi. O'quvchi va talabalar hamda pedagoglar faoliyati bo'yicha to'plangan ma'lumotlar qiyosiy va tizimli tahlil asosida qayta ishlanib, hamkorlik tarbiya texnologiyalarining tarbiyaviy jarayondagi o'rni baholandi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda mantiqiy tahlil va pedagogik xulosalash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini ta'lim-tarbiyada aks ettiruvchi nazariy pedagogik qoidalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Ta'lim muassasasining ilmiy salohiyatini shakllantirish.
2. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda hamkorlik texnologiyasidan samarali foydalanish.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-3893445

3. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda professor-o‘qituvchilarning kompetensiyaviy tayyorgarligiga alohida e’tibor berish.

5. Bugungi yosh avlod tarbiyasida jahon tajribasiga asoslangan ilg‘or innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish.

Tarbiya texnologiyasi tarbiya maqsadlarining qo‘yilishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tarbiya texnologiyasi – pedagogik vositalar, shakllar va usullarning ilmiy asoslangan tizimi bo‘lib, u aniq tarbiyaviy vazifalarni hal etishga qaratiladi. Har bir vazifaga yechim topish jarayonida tarbiyaviy vazifalarning o‘zgarishi bilan texnologiya ham mos ravishda o‘zgaradi. Bunda tarbiya maqsadlari o‘quvchilar va talabalarning xatti-harakatlarida ifodalanadigan aniq va ko‘rinadigan natijalar orqali namoyon bo‘ladi.

Tarbiya texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda tarbiya maqsadlarining kafolatlangan natijasiga erishish uchun tarbiya jarayoni oldindan loyihalashtiriladi va amaliyotda izchil amalga oshiriladi. Bunda o‘qituvchi faoliyati aniq maqsadga yo‘naltiriladi. Mazkur yo‘naltirilganlik tarbiya jarayonini tashxislash, uni tekshirish, tarbiyaviy ta’sirni alohida qismlarga ajratish, takomillashtirish hamda kam vaqt sarflab yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

O‘quvchilar va talabalarni passiv faoliyatdan faol subyektga aylantirish jarayoni tezlashadi. Tarbiyaviy ta’sirni texnologik asosda tashkil etishda rejalashtirish pedagogdan yuksak kasbiy malaka talab etadi. Bunda barcha materiallar tayyor bo‘lgach, pedagog asosan tashkiliy va konsultativ vazifalarni bajaradi.

Tarbiya jarayonida quyidagi bosqichlarga alohida e’tibor qaratiladi:

- tarbiya maqsadlarini ishlab chiqish;
- tarbiya maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullarini belgilash;
- erishilgan natijalarni baholash.

Tarbiya texnologiyasida pedagogik jarayonni shakllantirish va tashkil etishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- tarbiyaga yaxlit yondashuv;
- uzluksiz tarbiya jarayoni;
- tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi;
- pedagog va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati.

Tarbiya jarayoni uzluksiz bo‘lib, oilada, mahallada hamda uzluksiz ta’lim tizimida shakllanadi. Tarbiya jarayonini maqsadli amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalarida talaba bilan muntazam aloqada bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi quyidagi fikr muhim ahamiyat kasb etadi: “Uning ishi odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi. U esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘r-chi, bunga nima yetsin”. Bugungi zamonaviy tarbiyachi ta’lim-tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun metodologik va konseptual bilim, malaka, ko‘nikma hamda kompetensiyaviy pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Chunki taraqqiyot asrida tarbiya jarayonini mukammal amalga oshirish tobora murakkablashib bormoqda. Shu sababli bugungi kunda pedagoglardan sinfdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarga ko‘proq e’tibor qaratish talab etilmoqda.

Yuqoridagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar Termiz iqtisodiyot va servis universiteti professor-o‘qituvchilari tomonidan muntazam amalga oshirib borilmoqda. Jumladan, “Yoshlarning kitobxonlikka munosabati”, “Kitob mening yaqin do‘stim”, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanini sevib o‘qiyman, Chingiz Aytmatovning “Muallim”, “Jamila” asarlari asosida turli interfaol tarbiya usullari – “Mojaro metodi”, “Dumaloqsimon”, “Uch bosqichli intervyu”, “Muloqot treningi”, “Muammolarni hal qilish metodi”, “Stol o‘rtasidagi ruchka”, “Galereya aylanishi”, “Akademik munozara”, “Qor bo‘ron”, “Kritik vaziyatni tahlil qilish” va boshqalar qo‘llanilmoqda.

Uchrashuvlar, ma’naviy kechalar va bahs-munozaralar tashkil etilishi natijasida talaba yoshlarning kitobxonlik madaniyati, mustaqil fikrlash darajasi oshib, olingan bilim va axborotlar asosida hayotda o‘z o‘rnini topish, do‘st tanlash, o‘zaro hurmat hamda vatanparvarlik tuyg‘ulari mustahkamlanadi.

Mazkur texnologiyalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchi va talabalarga o‘z g‘oyalari hamda fikrlari bilan erkin o‘rtoqlashish imkonini beradi.
2. Turli fikrlar almashinuvi orqali o‘quvchi va talabalarning dunyoqarashi kengayadi.
3. Diqqat markazini o‘qituvchidan (pedagogdan) bevosita ta’lim oluvchilarga ko‘chiradi.

Tarbiya jarayoniga yangiliklarni joriy etishda o‘quvchi va talabalarda motivatsion komponentni shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- tarbiyaviy ta’sir va ko‘nikmalarning zarurligini tushuntirish;
- shaxsiy mas’uliyat hissini uyg‘otish;
- orttirilgan tajribalarni hayotda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatish;
- ma’qullash, e’tirof etish va rag‘batlantirish;
- sog‘lom raqobat muhitini yaratish;
- tinglash imkoniyatini ta’minlash.

Hozirgi tarbiya tizimida asosiy maqsad o‘quvchi va talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ijodiy fikrlashga o‘rgatish hamda yuksak tafakkurga ega shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Bugungi kundagi dolzarb innovatsion loyihalar – “O‘rgan–o‘rgat”, “Ustoz–shogird” dasturlarining asosiy maqsadi intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Biz pedagoglar ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi va talabalar bilan muntazam munozaralar tashkil etamiz, darsdan tashqari turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazamiz. Shunga qaramay, tarbiya texnologiyalaridan foydalanish hali ham yetarli samara bermayotgan holatlar mavjud. Shu sababli mazkur ma’naviy-ma’rifiy ishlar ijtimoiy ahamiyatga ega jarayon sifatida jamiyat e’tibor markazida bo‘lishi lozim.

Bugungi pedagog va murabbiy ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi zarur:

- o‘quvchi va talabalarning yosh hamda ruhiy xususiyatlariga mos bo‘lishi;
- ta’lim jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- tadbirlarning aniq reja va maqsad asosida tashkil etilishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda kompetentli pedagog tarbiya texnologiyalaridan maqsadli va samarali foydalansa, albatta, ijobiy natijalarga erishiladi. Shuningdek, pedagog tarbiya metodlaridan oqilona foydalanib, axborot texnologiyalarini o‘rinli qo‘llagan taqdirda, bu holat ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samarali va mazmunli tashkil etilishini ta’minlaydi. Bugungi kundagi asosiy maqsadimiz o‘sib kelayotgan yosh avlodni buyuk allomalarimiz merosi, o‘zbek xalqining urf-odatlari, an’analari va udumlari asosida milliy tarbiya ruhida kamol toptirishdan iboratdir.

Mazkur jarayonning samaradorligi uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha o‘quv-tarbiya jarayonlarining yagona maqsadga – o‘quvchilarni ma’naviy-mafkuraviy jihatdan tarbiyalashga, mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladigan barkamol yosh avlodni shakllantirishga yo‘naltirilishi bilan belgilanadi. Bu esa o‘quvchilar va talabalarning ma’naviy kamolot darajasini aniqlash va baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2007-yil.
2. I. A. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008-yil.
3. N. Saidaxmedov. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan, 2006-yil.
4. N. N. Azizxodjaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDPU, 2003-yil.
5. U. Tolipov. Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismlari. Toshkent: Fan, 2006-yil.
6. Жумаева Г. Т. Основные тенденции развития педагогического мастерства учителя // Педагогическое образование и наука. – 2019. – № 5. – С. 9–11.
7. Tursunpolatovna J. G. Methods of Formation and Improvement on the Basis of an Innovative Approach to Improving the Pedagogical Skills of School Teachers // JournalNX. – 2020. – P. 50–52.
8. Tursunpolatovna J. G. Factors of Innovative Approach in Improving the Pedagogical Skills of School Teachers // International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – 2020. – P. 52–54.

INTEGRATIV RAQAMLI-DIDAKTIK YONDASHUV ASOSIDA INTERFAOL O'QUV MAJMUALLARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Nabiyev Feruz Abdumannonovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mamanazarov Baxrom Jumonovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmualardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari, zamonaviy muammolari hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida interfaol o'quv majmualarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning mazmuniy, faoliyatga yo'naltirilgan, diagnostik va boshqaruv komponentlari ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada interfaol o'quv majmualarni kompetensiyaviy yondashuv bilan integratsiyalash, adaptiv boshqaruv tizimlarini joriy etish, formativ va multiaspektli baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ko'rsatib beriladi. Shuningdek, metodik tizimlashtirish, texnologik fragmentatsiya, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi hamda diagnostik monitoring bilan bog'liq muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish istiqbollari asoslanadi. Tadqiqot natijalari interfaol o'quv majmualarni kompleks pedagogik tizim sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: interfaol o'quv majmua, integrativ yondashuv, raqamli-didaktik model, kompetensiyaviy ta'lim, adaptiv boshqaruv, diagnostik monitoring, formativ baholash, raqamli transformatsiya, pedagogik texnologiyalar, individual o'quv trayektoriyasi.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations, contemporary challenges, and development prospects of using interactive learning complexes based on an integrative digital-didactic approach. Under conditions of digital transformation, the role of interactive learning complexes in the educational process is scientifically substantiated, including their content-based, activity-oriented, diagnostic, and management components. The study highlights the necessity of integrating interactive learning complexes with a competency-based approach, implementing adaptive management systems, and improving formative and multi-aspect assessment mechanisms. In addition, issues related to methodological systematization, technological fragmentation, teachers' digital competence, and diagnostic monitoring are identified, and prospects for addressing these challenges are substantiated. The research findings demonstrate the need to develop interactive learning complexes as a comprehensive pedagogical system.

Key words: interactive learning complex, integrative approach, digital-didactic model, competency-based education, adaptive management, diagnostic monitoring, formative assessment, digital transformation, pedagogical technologies, individual learning trajectory.

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методические основы, современные проблемы и перспективы развития использования интерактивных учебных комплексов на основе интегративного цифрово-дидактического подхода. В условиях цифровой трансформации научно обосновывается роль интерактивных учебных комплексов в образовательном процессе, а также их содержательные, деятельностно-ориентированные, диагностические и управленческие компоненты. В статье показана необходимость интеграции интерактивных учебных комплексов с компетентностным подходом, внедрения адаптивных систем управления, совершенствования формативных и мультиаспектных механизмов оценивания. Кроме того, выявляются проблемы методической систематизации, технологической фрагментации, цифровой компетентности педагогов и диагностического мониторинга, а также обосновываются перспективы их преодоления. Результаты исследования подтверждают необходимость развития интерактивных учебных комплексов как комплексной педагогической системы.

Ключевые слова: интерактивный учебный комплекс, интегративный подход, цифрово-дидактическая модель, компетентностное образование, адаптивное управление, диагностический мониторинг, формативное оценивание, цифровая трансформация, педагогические технологии, индивидуальная образовательная траектория.

KIRISH

XXI asrda global taraqqiyot jarayonlari raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda. Sun’iy intellekt, bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar (Big Data), Internet of Things (IoT) kabi innovatsion texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tubdan yangilab, inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon ta’lim tizimining mazmuni, shakli va metodologiyasini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Natijada ta’limning raqamli transformatsiyasi pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda [2].

Zamonaviy ta’lim muhitida interfaol o‘quv majmualar integrativ raqamli-didaktik tizim sifatida namoyon bo‘lib, ular nafaqat elektron o‘quv resurslari majmui, balki o‘quv jarayonini loyihalash, boshqarish, monitoring qilish va baholash mexanizmlarini o‘zida mujassamlashtirgan kompleks pedagogik vosita hisoblanadi. Interfaol o‘quv majmualar vizualizatsiya, simulyatsiya, modellashtirish, gamifikatsiya, adaptiv topshiriqlar va refleksiv tahlil elementlari orqali o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon, albatta, ta’lim tizimidan ham chetda qolmaydi. Bugungi kunda ta’limning raqamli transformatsiyasi nafaqat texnik yangilanish, balki ilmiy, falsafiy va iqtisodiy jihatdan ham muhim jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda [1].

Shu bilan birga, interfaol o‘quv majmualarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish masalasi murakkab pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning didaktik asoslarini aniqlashtirish, integrativ raqamli-didaktik yondashuv doirasida tizimlashtirish, baholash va diagnostika mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab interfaol platformalar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning ilmiy asoslangan metodik integratsiyasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Mazkur maqolada integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o‘quv majmualardan foydalanishning zamonaviy muammolari tahlil qilinadi hamda ularni rivojlantirish istiqbollari ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asoslab beriladi.

Integrativ raqamli-didaktik yondashuv ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, pedagogik tamoyillar va kompetensiyaviy yondashuvni yagona tizim sifatida uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv interfaol o‘quv majmualarni oddiy elektron resurs emas, balki o‘quv jarayonini loyihalash, boshqarish va baholashga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

Didaktika nuqtayi nazaridan interfaol o‘quv majmua quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat bo‘ladi:

- mazmuniy modul (o‘quv materiali, vizual va multimedia resurslar);
- faoliyat moduli (interfaol topshiriqlar, simulyatsiyalar, amaliy vazifalar);
- diagnostik modul (baholash, monitoring, refleksiya);
- boshqaruv moduli (adaptiv yo‘naltirish, individual trayektoriya, teskari aloqa).

Integrativlik shundan iboratki, ushbu komponentlar o‘zaro bog‘langan holda ishlaydi va o‘quvchi faoliyatini faqat bilim olish jarayoni sifatida emas, balki kompetensiya shakllanishi jarayoni sifatida tashkil etadi. Raqamli muhitda tashkil etilgan interfaol majmualar o‘quvchining kognitiv, kommunikativ va amaliy faoliyatini bir vaqtning o‘zida faollashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol va adaptiv raqamli tizimlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishda samarali vosita hisoblanadi [3].

Shu sababli, interfaol o‘quv majmualarni joriy etish jarayonida ularni integrativ raqamli-didaktik model asosida loyihalash muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ular alohida texnologik vosita darajasida qolib, tizimli pedagogik samaradorlikka erisha olmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish masalalari xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. UNESCO tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning ta’lim mazmuni, metodlari va boshqaruv tizimlariga ta’siri tizimli tahlil qilinib, raqamli ta’limni joriy etishda pedagogik maqsadlar va texnologik yechimlar o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim omil sifatida ko‘rsatib beriladi. Ushbu yondashuvda raqamli vositalar oddiy texnik yangilik emas, balki ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi didaktik tizim sifatida talqin etiladi. OECD tadqiqotlarida esa sun’iy intellekt, raqamli platformalar va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi istiqbollari ochib beriladi.

Interfaol va raqamli o‘quv majmualarning ta’lim samaradorligiga ta’siri masalasi empirik tadqiqotlar orqali ham asoslangan. Means, Toyama, Murphy va Baki tomonidan olib borilgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra, onlayn va aralash ta’lim shakllari an’anaviy o‘qitish bilan solishtirilganda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi va mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishda ijobiy natijalar beradi. Redecker tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu konsepsiyasida pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish interfaol o‘quv majmualardan samarali foydalanishning muhim sharti sifatida baholanadi. Ushbu tadqiqotlarda raqamli-didaktik modelni kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish zarurligi alohida ta’kidlanadi.

Milliy ilmiy manbalarda ham ta’lim jarayonida raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari muhim yo‘nalish sifatida o‘rganilgan. Nishonov va Xolbekov ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilib, interfaol metodlar o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini oshirishga xizmat qilishini asoslaydi. Ochilov tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zarurati ko‘rsatilib, raqamli ta’lim resurslari va interfaol o‘quv majmualar ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yondashuvlar integrativ raqamli-didaktik model asosida interfaol o‘quv majmualarni rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o‘quv majmualardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollarini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy usullar uyg‘un qo‘llanildi. Ma’lumotlar ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, mavjud raqamli ta’lim platformalari va interfaol o‘quv majmualarining funksional imkoniyatlarini solishtirma tahlil qilish orqali olindi. Shuningdek, pedagoglar faoliyatini kuzatish, ularning raqamli kompetensiyasi va interfaol majmualardan foydalanish tajribasini aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma va suhbat materiallari yig‘ildi. Olingan ma’lumotlar kontent-tahlil, tizimli va strukturaviy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, interfaol o‘quv majmualarning didaktik samaradorligi, integrativligi va rivojlanish istiqbollari baholandi. Tadqiqot natijalari asosida umumlashtirilgan xulosalar chiqarilib, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Interfaol o‘quv majmualardan foydalanishning zamonaviy muammolari. Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o‘quv majmualarni joriy etish jarayoni sezilarli pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, amaliyotda bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni metodik, texnologik va tashkiliy omillar kesimida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, metodik muammo mavjud. Ko‘plab interfaol platformalar va elektron resurslar ishlab chiqilayotgan bo‘lsa-da, ularning didaktik asoslari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Aksariyat hollarda texnologik imkoniyatlar pedagogik maqsadlardan ustun qo‘yilib, o‘quv majmualarning mazmuniy integratsiyasi va kompetensiyaviy yo‘naltirilganligi yetarli darajada ta’minlanmaydi. Natijada interfaol vositalar bilim berish jarayonini chuqurlashtirish o‘rniga, ko‘proq vizual effekt bilan cheklanib qolmoqda.

Ikkinchidan, texnologik fragmentatsiya muammosi kuzatiladi. Turli platformalar, dasturiy vositalar va baholash tizimlari o‘zaro integratsiyalashmagan holda qo‘llanilmoqda. Bu esa yagona monitoring va diagnostika tizimini shakllantirishga to‘sqinlik qiladi. Integrativ raqamli-didaktik model yetishmaganda, interfaol majmualar o‘quv jarayonining umumiy tizimiga to‘liq singmaydi.

Uchinchidan, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi masalasi dolzarb hisoblanadi. Interfaol o‘quv majmualarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar nafaqat texnik ko‘nikmalarga, balki raqamli pedagogika,

adaptiv boshqaruv va refleksiv tahlil mexanizmlarini tushunishga ham ega bo‘lishi zarur. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli darajada bo‘lmaganda, interfaol majmualarning pedagogik samaradorligi pasayadi.

To‘rtinchidan, baholash va diagnostika tizimlarining ilmiy asoslanganligi muammosi mavjud. Ko‘plab elektron tizimlarda baholash jarayoni test bilan cheklanib, kompetensiyaviy rivojlanish, kreativlik yoki amaliy-operatsion ko‘nikmalarni kompleks baholash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Holbuki, zamonaviy ta’lim jarayonida formativ va multiaspektli baholash yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol o‘quv majmualardan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar ularni integrativ raqamli-didaktik asosda qayta loyihalash va tizimlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [4].

Interfaol o‘quv majmualarning rivojlanish istiqbollari. Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o‘quv majmualarni takomillashtirish istiqbollari, avvalo, ularni adaptiv va intellektual tizim sifatida rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlari, o‘zlashtirish sur’ati va qiziqishlari hisobga olingan holda moslashtirilgan o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt elementlarini interfaol majmualarga integratsiya qilish adaptiv topshiriqlar, avtomatik diagnostika va prognozlash mexanizmlarini yaratish imkonini beradi.

Ikkinchi istiqbolli yo‘nalish – kompleks diagnostik monitoring tizimlarini joriy etishdir. Raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida o‘quvchilarning faoliyati, xatoliklari, progress dinamikasi va refleksiv ko‘rsatkichlarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa baholash jarayonini faqat nazorat vositasi emas, balki rivojlantiruvchi mexanizmga aylantiradi. Ayniqsa, formativ baholash va kompetensiyaviy mezonlarga asoslangan multiaspektli tahlil tizimlari interfaol o‘quv majmualarning samaradorligini oshiradi.

Uchinchi muhim istiqbol – kontentning modullashtirilgan va integratsiyalashgan shaklga o‘tkazilishidir. O‘quv majmualar fanlararo bog‘liqlikni ta’minlovchi, amaliy vaziyatlar va real muammolar asosida qurilgan integrativ topshiriqlar bilan boyitilishi zarur. Bu esa talabalarda analitik fikrlash, muammoni hal etish va ijodiy yondashuv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ochiq ta’lim resurslari (OER), bulutli texnologiyalar va mobil ilovalar asosida ishlovchi interfaol majmualarni yaratish ta’limning uzluksizligi va moslashuvchanligini ta’minlaydi. Kelajakda interfaol o‘quv majmualar shunchaki elektron darslik emas, balki sun’iy intellekt asosida ishlovchi, o‘quvchining rivojlanish modelini shakllantiruvchi raqamli ta’lim ekotizimiga aylanishi kutilmoqda [5].

Interfaol o‘quv majmualarning istiqbolli rivoji ularni texnologik yangilash bilangina emas, balki integrativ pedagogik model asosida qayta konseptualizatsiya qilish bilan bog‘liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o‘quv majmualardan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimini transformatsiya qilishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interfaol o‘quv majmualar ta’lim jarayonini faollashtirish, o‘quvchilar va talabalarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, kompetensiyaviy natijalarni shakllantirishda sezilarli didaktik imkoniyatlarga ega.

Biroq ularni samarali qo‘llash uchun bir qator muhim shartlar mavjud:

- interfaol majmualarni pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan holda loyihalash;
- raqamli vositalarni kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish;
- monitoring va diagnostika mexanizmlarini ilmiy asosda tashkil etish;
- pedagoglarning raqamli-metodik tayyorgarligini oshirish.

Maqolada aniqlangan muammolar – metodik tizimlashtirishning yetarli emasligi, texnologik fragmentatsiya, baholash tizimining soddalashtirilganligi va pedagoglarning raqamli kompetensiyasi masalasi – interfaol o‘quv majmualarni yangi bosqichga olib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.


Kelgusida interfaol o‘quv majmualarni rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: adaptiv boshqaruv tizimlarini joriy etish, sun’iy intellekt asosida individual o‘quv trayektoriyalarini shakllantirish, formativ va multiaspektli baholash mexanizmlarini kengaytirish hamda yagona integrativ raqamli ta’lim ekotizimini yaratish.

Interfaol o‘quv majmualarning istiqbolli rivoji ularni alohida texnologik vosita sifatida emas, balki integrativ raqamli-didaktik model asosida tashkil etilgan kompleks pedagogik tizim sifatida talqin qilishni talab etadi. Mazkur yondashuv ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim nazariy hamda amaliy asosini yaratadi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. UNESCO. Digital Transformation of Education: From Innovation to Implementation. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
3. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., & Baki, M. The Effectiveness of Online and Blended Learning: A Meta-Analysis of the Empirical Literature. – Teachers College Record, 2013.
4. Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
5. OECD. Digital Education Outlook-2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – Paris: OECD Publishing, 2021.
6. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Academic, 2016.
7. Nishonov Q., Xolbekov A. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
8. Ochilov M. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATDA BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH



Sadirova Kamola Giyozovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning
klinik asoslari kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan tasviriy san'at darslarining pedagogik va korreksion ahamiyati yoritilgan. Tasviriy faoliyatning eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishdagi o'rni, estetik his-tuyg'ular, ijodiy qobiliyatlar hamda shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, kar va zaif eshituvchi bolalarda tasviriy faoliyat orqali ijodga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, ijodiy jarayonda faol ishtirok etish va rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: badiiy madaniyat, tasviriy san'at, tasviriy faoliyat, estetik his-tuyg'u, mo'yqalam, o'lchov, rang, ko'rgazmali qurollar, ijodiy jarayon, kar va zaif eshituvchi o'quvchi, korreksiya, nutq, bilish jarayoni.

Abstract: This article examines the pedagogical and corrective significance of fine arts lessons for primary school students in specialized special schools for children with hearing impairments. The role of visual activity in the development of cognitive processes, aesthetic sense, creative abilities, and personal qualities of children with hearing impairments is analyzed. Particular attention is given to enhancing the interest of deaf and hard of hearing children in creativity through visual activities, as well as expanding opportunities for their active participation and development in the creative process.

Key words: artistic culture, fine arts, visual activity, aesthetic sense, brush, measurement, color, visual aids, creative process, deaf and hard of hearing students, correction, speech, cognitive process.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическая и коррекционная значимость уроков изобразительного искусства для учащихся начальных классов специализированных специальных школ для детей с нарушениями слуха. Анализируется влияние изобразительной деятельности на развитие когнитивных процессов, формирование эстетических чувств, творческих способностей и личностных качеств детей с нарушениями слуха. Особое внимание уделяется вопросам повышения интереса глухих и слабослышащих детей к творчеству посредством изобразительной деятельности, а также расширению возможностей их активного участия и развития в творческом процессе.

Ключевые слова: художественная культура, изобразительное искусство, изобразительная деятельность, эстетическое чувство, кисть, измерение, цвет, наглядные пособия, творческий процесс, глухие и слабослышащие учащиеся, коррекция, речь, когнитивный процесс.

KIRISH

Tasviriy san'at darslari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish tizimida muhim o'rin egallaydi. Tasviriy san'at boshqa o'quv fanlari bilan birgalikda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning korreksion rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi hamda bilish faoliyatini shakllantiradi (xotira, diqqat, idrok, ko'ruv va fazoviy idrok, ko'rgazmali–obrazli tafakkur hamda ijodiy tasavvur).

Nutq, badiiy madaniyat, estetik his-tuyg'ular kabi shaxsiy sifatlar kar va zaif eshituvchi bolalarni san'atga birlashtiradi hamda ularning ijodiy jarayonda eshitadigan tengdoshlari bilan bir qatorda faol ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi.

Tasviriy san'at har bir bola uchun nisbatan yengil va tushunarli bo'lib, bu uning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Rasm chizishga doir jihozlar turlicha bo'lib, qalam, cho'tka, bo'yoq, bo'r, qog'oz, shuningdek, tayoqcha yordamida qum ustiga rasm chizish ham mumkin. Bundan tashqari, tasvirni hajmda ifodalash usullari orqali qadimda odamlar loydan idishlar va taqinchoqlar yasaganlar, inson va hayvon shakllarini yopishtirishgan.

Tasviriy faoliyat bola uchun o‘zini ifodalashning eng qulay vositalaridan biri hisoblanadi. Bolalar o‘zlari o‘ylagan, e’tiborini tortgan predmet va hodisalarni tasvirlaydi, rasmlar orqali yashaydi hamda o‘z munosabatlarini bildiradi. Tasviriy faoliyatning yana bir muhim xususiyati shundaki, u insonni atrof-muhitga yaqinlashtiradi. She’r o‘qish, ashula aytish va raqs tushish jarayonida insonning ovozi va tanasi ishtirok etsa, rasm chizish yoki boshqa tasviriy faoliyat turlarida nafaqat inson a’zolari, balki yordamchi vositalar – rasm uchun materiallar, o‘lchamli buyumlar, qurol va asboblar ham faol qo‘llaniladi.

Masalan, loy yoki plastilindan tayoqcha yordamida kerakli shaklni berish, bo‘yoqli cho‘tka bilan bo‘yash, qaychi yordamida qog‘ozni qirqish kabi amallar bajariladi. Ushbu material va qurollar turli murakkab ishlarni bajarishda vositachilik vazifasini o‘taydi. Shu sababli bolalarda tasviriy san’at darslarida texnik malakalarni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kerakli harakat va amallarni o‘zlashtirish (ayniqsa, aniq va mayda harakatlar) eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning umumiy rivojlanishida muhim vosita bo‘lib, shu bilan birga hayotda zarur bo‘lgan farosatlilik, ziyraklik hamda yaratuvchanlik kabi sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko‘ra, bola qo‘llari, ayniqsa, barmoqlari orqali qanchalik nozik harakatlarni bajarsa, uning nutqi va tafakkuri shunchalik tez va samarali rivojlanadi. Ma’lumki, tasviriy faoliyat jarayoni qo‘l muskullarining faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Kinestetik sezgi va barmoqlarning nozik harakatlari ko‘ruv–harakat koordinatsiyasi mexanizmi bilan uzviy bog‘liq. Tasviriy san’at mashg‘ulotlari bolalarda chizish, bo‘yash, kesilgan qog‘oz parchalari, gazlamalar yordamida aplikatsiyalar tayyorlash, tayoqchalar va sim bo‘laklari hamda boshqa materiallar orqali turli obrazlarni yaratish imkonini beradi. Bu jarayonda qo‘lning mayda muskullarining aniq harakati muntazam mashqlar asosida rivojlanib boradi.

Bir vaqtning o‘zida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari o‘quvchilardan intizom, tashkilotchilik hamda ish jarayonini oldindan rejalashtirib, uni izchil bajarishni talab etadi. Murakkab badiiy topshiriqlar oldindan puxta rejalashtiriladi, chunki bajariladigan bitta noto‘g‘ri harakat umumiy vazifaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Asbob va materiallardan to‘g‘ri foydalanish muhim hisoblanadi.

Tasviriy faoliyat davomida bajariladigan ishlarning natijasi ko‘pincha vaqt bilan qat’iy chegaralanmagan bo‘ladi. Tayyorlov davridagi dastlabki harakatlar bolalardan sabr-toqat, saranjomlik hamda rasm yoki mahsulotni oxirigacha yetkazish ko‘nikmalarini talab etadi. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarda kuzatuvchanlik ko‘nikmalari shakllanadi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan maktab yoshidagi o‘quvchilarda predmetni yaxlit holda idrok etish, uning umumiy shakli va proporsiyalarini aniqlash, qismlarini taqqoslash, fazodagi joylashuvini belgilash, yorug‘lik munosabatlarini topish kabi malakalar rivojlanadi.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari bolalarda predmet haqidagi yaxlit va aniq tasavvurni shakllantirishga yordam beradi hamda atrof-olamdagi hodisa va predmetlarni tasvirlash, tafakkurda mavjud belgi, shakl, konstruksiya, miqdor va fazoviy holatga oid xususiyatlarni ajratishga o‘rgatadi. O‘quvchilar faqat ko‘rganlarini qabul qilish bilan cheklanmay, balki predmetlar haqidagi o‘z taassurotlariga asoslanib, real dunyo hodisalarini rasmlarda, yasash kompozitsiyalarida va aplikatsiyalarda aks ettiradilar.

Mazkur jarayon tasavvur faoliyati orqali amalga oshiriladi, uning asosini esa idrok etilgan tasavvurlarni qayta o‘zgartirish malakasi tashkil etadi. Tasviriy faoliyat badiiy mashg‘ulotlarning bir turi bo‘lib, bunda bola faqat reproduktiv faoliyat bilan cheklanmay, balki mustaqil ijod qiladi.

Rasm chizish ijodiy mehnat bo‘lib, bolani fikrlash va tahlil qilishga, o‘lchash va solishtirishga, yaratish va tasavvur qilishga o‘rgatadi. Tasviriy faoliyat kichik sinfda tahsil olayotgan eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sensor rivojlanish aqliy faoliyatning poydevori bo‘lib, butun maktab davrida ta’sir ko‘rsatish orqali ko‘rgazmali–obrazli va ko‘rgazmali–harakatli tafakkurni shakllantiradi.

Ma’lumki, buyuk olimlar hamda texnika va ishlab chiqarish arboblari ijodida aqliy va badiiy tafakkur shakllari o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘lgan.

Tasviriy san’at darslarida bolalarning ko‘rgazmali-amaliy faoliyati jarayonida barcha asosiy fikrlash operatsiyalari shakllanadi. Tasvirlanayotgan obyektni sinchiklab tekshirish, uning detallarini ajratish, chizilayotgan rasmni tahlil qilish, tasviriy tekislikda fazoviy munosabatlarni aniqlash, detallarni yaxlit holda sintez qilish, solishtirish, umumlashtirish kabi fikrlash operatsiyalari amalga oshiriladi.

Ranglarni moslashtirish, umumiy rang ohangini topish ham umumlashtirish jarayoni bilan bog‘liqdir. Tasviriy faoliyat jarayonida ko‘rish va harakat xotirasi faol rivojlanadi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi shakllanadi. Chunki tasvirlash jarayonida nafaqat idrok qilish, balki turli yo‘nalishdagi chiziqlarni o‘tkazish, cho‘tka va boshqa vositalar bilan materiallarni muvofiqlashtirib ishlash ko‘nikmalari ham shakllanadi. Eng muhimi, bola avval ko‘rgan predmet haqidagi tasavvurni, uni qanday tasvirlash mumkinligini va tasvirlash usullarini eslab qolishni o‘rganadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tasviriy san'at darslari eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda og'zaki nutq, eshitish va ko'rish idrokini shakllantirish imkoniyatini beradi. Rasm chizish jarayonida bo'yoqlar bilan ishlash, applikatsiyalar yasash orqali bolalar badiiy materiallar va jihozlarning nomlari bilan tanishadilar (masalan: qalam, bo'yoqlar, cho'tka, qog'oz, loy hamda rassomlarning bo'yoq taxtachasi – palitra).

Shuningdek, tasvirlangan predmetlarning nomlarini hamda ushbu predmetlarning ayrim qismlarini eslab qoladilar (masalan: hayvonlarning boshi, tanasi, dumi, tishlari, qaddi-qomati, tomirlari va boshqalar). Tasviriy faoliyatga bog'liq amaliy harakatlarning nomlarini o'zlashtirib oladilar (masalan, rasm chizish, tasvirlash va boshqalar), shuningdek, fikrlash operatsiyalarini ifodalovchi so'zlar, predmet belgilari, ularga taalluqli ranglar, fakturalar, materiallar va holatlarni o'rganadilar.

Masalan, ko'rish, kuzatish, solishtirish, umumlashtirish va ajratish orqali predmetlarning xususiyatlari bilan tanishadilar (to'q sariq, och ko'k rang, to'q yaltiroq, g'adir-budir, yog'ochli, quruq, xo'l va boshqalar).

Tasviriy faoliyat darslarida u yoki bu so'zlar va tushunchalar ustida ishlash bilan bir qatorda o'quvchilarda nutqiy talaffuzni o'zlashtirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Suhbat jarayonida, badiiy asarlarni va maishiy predmetlarni tahlil qilish orqali kichik sinfdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ko'rkamlikni tushunishga, u haqida fikr bildirishga, san'atning inson hayotidagi ahamiyatini anglashga o'rganadilar.

Mazkur jarayonlar o'quvchilarning ma'naviy tasavvurini shakllantirishga xizmat qilib, ularni tarixiy faktlar va obrazlar bilan tanishtiradi. Tasviriy san'at darslari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda go'zallikni ko'ra olish va his qilish, ajoyib va g'aroyib narsalarni asrab-avaylash hamda ko'paytirishga bo'lgan intilishni shakllantiradi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning shaxsiy sifatlaridan ziyraklik, tirishqoqlik, matonatlilik, tengdoshlari bilan do'stona o'zaro munosabatda bo'lish, boshqalar tomonidan bajarilgan ishlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlar tarbiyalanadi. Shuningdek, tabiatga, san'at asarlariga, tarixiy va madaniy obyektlarga nisbatan g'amxo'r munosabat shakllanadi. Bu jarayonda bolalarda estetik tuyg'u va estetik tarbiya rivojlanadi, estetik ong shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday qilib, maxsus maktablarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari asosiy o'quv fanlaridan tashqari badiiy bilimlarni shakllantirish hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan kichik sinf o'quvchilarini san'atshunoslik asoslari bilan tanishtirishning muhim tarbiyaviy va rivojlantiruvchi usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning emotsional va bilish doirasini, shuningdek, og'zaki nutqini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo'llaniladi.

Tadqiqot jarayonida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning idrok, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Ayniqsa, predmetni kuzatish, uning shakli, hajmi, rang va fazoviy joylashuvini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar bolalarda ko'ruv-idrok faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rasm chizish, bo'yash, yasash va aplikatsiya ishlari jarayonida o'quvchilar predmetlarni yaxlit holda qabul qilish, ularni qismlarga ajratish va qayta birlashtirish ko'nikmalarini egallaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'quvchilarning bilish faoliyatida muhim bo'lgan fikrlash operatsiyalarini – tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va konkretlashtirishni rivojlantiradi. O'quvchilar tasvirlanayotgan ob'ektni tahlil qilish jarayonida uning asosiy va ikkilamchi belgilarini ajratishni, muhim jihatlarini tanlab olishni o'rganadilar. Bu esa ularning mantiqiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqi faol rivojlanadi. Mashg'ulot davomida badiiy materiallar, ranglar, predmetlar va bajarilayotgan amallar nomlarini o'zlashtirish orqali lug'at boyligi kengayadi. O'qituvchi tomonidan beriladigan savollar, suhbatlar va izohlar orqali o'quvchilar fikrini ifodalashga, o'z ishlari haqida so'zlab berishga, boshqalarning ishlarini baholashga o'rganadilar. Bu holat eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarning emotsional holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy jarayonda bolalar o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning psixologik holatini barqarorlashtiradi. Ranglar bilan ishlash, erkin kompozitsiya yaratish jarayonida bolalarda ijodiy qoniqish hissi paydo bo'ladi, o'ziga bo'lgan ishonch ortadi. Ayniqsa, tayyor ishlarning ko'rgazmalarda namoyish etilishi o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

Shuningdek, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda estetik did va estetik ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Tabiat manzaralari, san'at asarlari va madaniy meros namunalari bilan tanishish orqali o'quvchilarda go'zallikni his etish, uni qadrlash va asrashga bo'lgan munosabat shakllanadi. Bu jarayon ularning ma'naviy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar natijasida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari eshitishda nuqsoni bo'lgan kichik sinf o'quvchilarining bilish jarayonlarini, og'zaki nutqini, ijodiy qobiliyatlarini va shaxsiy sifatlarini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilar atrof-muhit go'zalligini idrok etish, uni baholash va ifodalash ko'nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, badiiy asarlar, tarixiy obrazlar hamda madaniy meros namunalari bilan tanishish ularning bilish jarayonini kengaytiradi, og'zaki nutqini boyitadi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tasviriy faoliyat jarayonida o'quvchilarda ziyraklik, tirishqoqlik, sabr-toqat, jamoada ishlash madaniyati va o'zaro hurmat kabi shaxsiy sifatlar shakllanadi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari maxsus ta'lim tizimida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo'lgan kompleks pedagogik jarayon sifatida muhim o'rin tutadi.

Quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- tasviriy faoliyat darslarida nutqiy rivojlantirish elementlarini tizimli ravishda integratsiya qilish hamda har bir mavzuda yangi so'z va tushunchalar ustida maxsus ishlashni yo'lga qo'yish;
- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun ko'rgazmali, multimodal (vizual, yozma, imo-ishora) metodlardan keng foydalanish;
- dars jarayonida badiiy asarlarni tahlil qilish bilan bir qatorda o'quvchilarning mustaqil fikr bildirishini rag'batlantirish;
- tarixiy va madaniy meros obyektlariga ekskursiyalar tashkil etish orqali estetik tasavvur va ma'naviy ongni boyitish;
- o'qituvchilar uchun tasviriy faoliyat orqali nutqni rivojlantirish metodikasiga oid maxsus seminar-treninglar tashkil etish;
- tasviriy faoliyat darslarida individual yondashuvni kuchaytirish, har bir o'quvchining psixologik va nutqiy xususiyatlarini hisobga olish;
- ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, bolalarning ijodiy ishlarini oilada qo'llab-quvvatlash mexanizmini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sadirova K. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – № 9. – B. 26–28.
2. Isroilovna K. D. Technology for Improving Speech of Elementary School Pupils with Hearing Impairment // Yangi O'zbekiston: Innovatsiya, Fan va Ta'lim, 10-qism. – B. 22.
3. Sadirova, Kamola. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(9), 2022, 26–28.
4. Isroilovna K. D. Characteristics of Development of Children with Hearing Impairment // Journal of Agriculture & Horticulture. – T. 2. – № 10. – B. 31.
5. Fazliddinovna T. O. A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education // International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. – 2025. – B. 121–128.
6. Fazliddinovna, Teshabayeva Oygul. A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education. International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices, 2025.
7. Fazliddinovna, T. O. (2025, March). A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 121–128).
8. Sadirova, K. (2022). Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(9), 26–28.
9. Sadirova K. G. et al. The Development of Speech and Thinking of the Students with Hearing Impairments in the Science Class // International Journal on Integrated Education. – 2020. – T. 3. – № 8. – B. 246–249.
10. Sadirova, K. G., & Xaydarova, O. F. The Development of Speech and Thinking of the Students with Hearing Impairments in the Science Class. International Journal on Integrated Education, 3(8), 2020, 246–249.
11. Sadirova, K. G., & Xaydarova, O. F. (2020). The Development of Speech and Thinking of the Students with Hearing Impairments in the Science Class. International Journal on Integrated Education, 3(8), 246–249.
12. Albert, R. S., & Runco, M. A. A History of Research on Creativity. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

KURASH SPORT TURINING YOSHLAR JISMONIY VA MA'NAVIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kurash sport turining yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Kurash milliy sport turi sifatida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim ijtimoiy-pedagogik vosita ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida kurash mashg'ulotlarining kuch, tezkorlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, shuningdek iroda, intizom, jasorat, vatanparvarlik va hurmat kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar muntazam mashg'ulotlar yoshlarning sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga, jismoniy faolligini oshirishga hamda ularni milliy va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kurash, yoshlar tarbiyasi, jismoniy rivojlanish, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, sog'lom turmush tarzi, jismoniy sifatlar, ijtimoiy-pedagogik ahamiyat, barkamol shaxs.

Abstract: This article presents the results of a scientific-theoretical and practical analysis of the importance of Kurash in the physical and moral development of young people. Kurash, as a national sport, is substantiated as an important socio-pedagogical tool in the comprehensive upbringing of the younger generation. The study examines the impact of regular Kurash training on the development of physical qualities such as strength, speed, and endurance, as well as on the formation of moral and ethical qualities including willpower, discipline, courage, patriotism, and respect. The findings demonstrate that systematic training contributes to the establishment of a healthy lifestyle, increased physical activity, and the education of young people in the spirit of national and social responsibility.

Key words: Kurash, youth education, physical development, moral and ethical qualities, healthy lifestyle, physical qualities, socio-pedagogical significance, harmoniously developed individual.

Аннотация: В статье представлены результаты научно-теоретического и практического анализа значения кураша в физическом и духовно-нравственном развитии молодежи. Обосновано, что кураш как национальный вид спорта является важным социально-педагогическим средством всестороннего воспитания подрастающего поколения. В ходе исследования изучено влияние регулярных занятий курашем на развитие силы, быстроты, выносливости и других физических качеств, а также на формирование таких духовно-нравственных качеств, как воля, дисциплина, мужество, патриотизм и уважение. Полученные результаты свидетельствуют о том, что систематические тренировки способствуют формированию здорового образа жизни, повышению физической активности и воспитанию молодежи в духе национальной и социальной ответственности.

Ключевые слова: кураш, воспитание молодежи, физическое развитие, духовно-нравственные качества, здоровый образ жизни, физические качества, социально-педагогическое значение, гармонично развитая личность.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi[1]. Yosh avlodni har tomonlama barkamol, sog'lom va ma'naviy yetuk etib tarbiyalashda milliy sport turlarining o'rni alohida e'tirof etilmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar sport tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmon bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"[2] shuningdek, "Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorlari milliy sport turlarini, xususan,

1 Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid farmon va qarorlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2 O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

kurashni yoshlar o'rtasida keng ommalashtirish, infratuzilmani mustahkamlash hamda ilmiy-metodik ta'minotni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Kurash o'zining qadimiy tarixiy ildizlari, milliy qadriyatlar bilan uyg'unligi va yuksak tarbiyaviy salohiyati bilan yoshlar jismoniy hamda ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.[3] Mazkur sport turi nafaqat jismoniy sifatlar – kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va koordinatsiyani rivojlantiradi, balki sport etikasi, intizom, hurmat, iroda, halollik va vatanparvarlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, kurashni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.[4]

Muammoning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida yoshlar o'rtasida jismoniy faollikning pasayishi, zararli odatlarga moyillikning ortishi hamda ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda milliy sport turlaridan samarali foydalanish orqali sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va ma'naviy immunitetni mustahkamlash muhim ilmiy-amaliy vazifadir.5 Kurashning yoshlar rivojlanishiga ta'sirini kompleks o'rganish esa pedagogika, sport nazariyasi va ijtimoiy-gumanitar fanlar kesishmasida ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari sifatida:

- kurashning yoshlar jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash;
- uning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi rolini asoslash;
- sohaga oid davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlarning mazkur jarayonga ta'sirini tahlil qilish belgilandi.

Tadqiqot obyekti – yoshlarning jismoniy tarbiya jarayoni, predmeti esa kurash sport turining jismoniy va ma'naviy rivojlanishga ta'sir mexanizmlaridir. Ishda tahlil, taqqoslash, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish kabi ilmiy metodlardan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati sport pedagogikasi, jismoniy tarbiya nazariyasi hamda sport psixologiyasi doirasida o'rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yakkakurash sport turlari o'smirlar organizmining morfo-funksional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda shaxsning irodaviy va axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.[6]

Kurashning nazariy asoslari uning tarixiy-madaniy ildizlari va pedagogik salohiyati bilan bog'liq holda yoritilgan. International Kurash Association ma'lumotlariga ko'ra, kurash xalqaro miqyosda rivojlanayotgan va yagona qoidalarga asoslangan sport turi sifatida shakllangan.[7] Mahalliy tadqiqotlarda esa kurash yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Sport fiziologiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda yakkakurash sport turlarining kuch, chidamlilik, tezkorlik va koordinatsiya sifatlarini rivojlantirishi asoslangan.[8] Tadqiqot natijalari kurash mashg'ulotlari yurak-qon tomir hamda tayanch-harakat tizimining funksional imkoniyatlarini oshirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, muntazam sport mashg'ulotlari o'smirlar orasida gipodinamiya va ortiqcha vazn xavfini kamaytirishi aniqlangan.

Sport psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarda jangovar sport turlarining yoshlarning irodaviy barqarorligi, o'zini boshqarish ko'nikmalari va stressga chidamliligini rivojlantirishi qayd etilgan. Kurash jarayonida sport etikasi – halollik, hurmat va intizom tamoyillari – shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan qaror va farmonlar milliy sport turlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Ilmiy manbalarda davlat siyosati va yoshlar tarbiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kurashning jismoniy rivojlanishga ta'siri yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, uning ma'naviy rivojlanishga kompleks ta'siri empirik tadqiqotlar asosida chuqurroq yoritishni talab etadi. Shu bois, mazkur tadqiqot kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi o'rnini tizimli yondashuv asosida ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

3 Kerimov FA Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4 Abdullayev A.A., Xolmatov Sh.R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5 Platonov VN Olimpiya sportida mashg'ulotlar tizimi. – Kiev: Olimpiya adabiyoti, 2015.
6 Weinberg RS, Gould D. Sport va jismoniy mashqlar psixologiyasi asoslari. – Champaign, IL: Inson kinetikasi, 2018.
7 McArdle WD, Katch FI, Katch VL Jismoniy mashqlar fiziologiyasi. – Filadelfiya: Lippincott Williams & Wilkins, 2015.
8 Kurash xalqaro assotsiatsiyasi. Kurash qoidalari. – Toshkent, 2022 yil.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kurash sport turining yoshlar jismoniy hamda ma'naviy rivojlanishiga ta'sirini empirik jihatdan aniqlashga qaratilib, tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini sport pedagogikasi nazariyasi, yosh fiziologiyasi hamda sport psixologiyasi konsepsiyalari tashkil etdi. Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi. Unda 14–17 yoshli jami 60 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (n = 30) – kurash bilan muntazam (haftasiga 3–4 marta) shug'ullanuvchilar va nazorat guruhi (n = 30) – umumiy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan cheklangan o'quvchilar. Tadqiqot 6 oy davomida olib borilib, dastlabki va yakuniy o'lchov natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida yoshlarning jismoniy tarbiya jarayoni, predmeti sifatida esa kurash sport turining jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chidamlilik, koordinatsiya) hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlar (irodaviy barqarorlik, intizom, ijtimoiy moslashuv) rivojlanishiga ta'sir mexanizmlari belgilandi.

Empirik ma'lumotlarni yig'ishda pedagogik kuzatuv, jismoniy tayyorgarlik testlari (30 m va 1 000 m yugurish, kuch ko'rsatkichlari, muvozanat testi), psixologik diagnostika metodikalari hamda anketa-so'rovnoma qo'llanildi. Nazariy tahlil jarayonida ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy manbalar o'rganildi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o'rtacha arifmetik qiymat (M), standart og'ish (σ) hamda Student t-kriteriyasi asosida guruhlar o'rtasidagi farqning statistik ahamiyatliligi ($p < 0,05$) aniqlandi. Tadqiqot jarayonida etik tamoyillarga rioya qilinib, ishtirokchilarning ixtiyoriy roziligi va ma'lumotlar maxfiyligi ta'minlandi.

Mazkur metodologiya kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asoslangan hamda statistik jihatdan ishonchli natijalar orqali baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan empirik ma'lumotlar tajriba va nazorat guruhlari kesimida qiyosiy tahlil qilindi. Dastlabki o'lchov natijalari har ikki guruhda jismoniy va psixologik ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli farq mavjud emasligini ko'rsatdi ($p > 0,05$), bu esa tadqiqot sharoitlarining nisbatan tengligini tasdiqladi.

Olti oylik kuzatuvdan so'ng tajriba guruhida jismoniy sifatlar bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi ($p < 0,05$). Xususan, tezkorlik ko'rsatkichlari o'rtacha 8–10 % ga, umumiy chidamlilik 12–15 % ga, kuch ko'rsatkichlari esa 15–18 % ga oshdi. Shuningdek, muvozanat va koordinatsiya sifatlarida ham barqaror ijobiy dinamika kuzatildi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar minimal darajada (3–5 %) bo'lib, statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi ($p > 0,05$).

Psixologik diagnostika natijalari ham tajriba guruhida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi. Irodaviy barqarorlik ko'rsatkichlari o'rtacha 18–22 % ga oshdi, intizom va mas'uliyat darajasi yaxshilandi, ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari esa 15–17 % ga yuqoriladi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilarning aksariyati kurash mashg'ulotlari ularda o'ziga ishonch, qat'iyat va jamoaviylik fazilatlarini shakllantirganini ta'kidladi. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkichlar sezilarli darajada past bo'ldi.

Olingan natijalar kurash sport turining yoshlar jismoniy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatishini, ayniqsa tezkorlik-kuch va chidamlilik sifatlarini samarali rivojlantirishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ma'naviy-axloqiy ko'rsatkichlardagi ijobiy dinamika sport etikasi, qat'iy qoidalarga rioya qilish va raqibga hurmat tamoyillarining tarbiyaviy ahamiyati bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kurash sport turi yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga tizimli va samarali ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga kompleks va tizimli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Kvazi-eksperimental kuzatuv natijalariga ko'ra, kurash bilan muntazam shug'ullanish tezkorlik, kuch va koordinatsiya kabi asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanishiga olib keladi. Tajriba guruhida qayd etilgan o'zgarishlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi ($p < 0,05$).

Psixologik diagnostika natijalari kurash mashg'ulotlarining irodaviy barqarorlik, intizom, mas'uliyat va ijtimoiy moslashuv kabi ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Sport etikasi, qat'iy qoidalarga amal qilish va raqibga hurmat tamoyillari yoshlarning axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda ijobiy rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari kurash sport turining nafaqat jismoniy tayyorgarlikni oshiruvchi vosita, balki barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan samarali ijtimoiy-pedagogik mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Bu esa kurashni yoshlar tarbiyasi tizimida barqaror yo'nalishlardan biri sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida kurash to‘garaklari hamda maxsus mashg‘ulotlarni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish.
2. Kurash bo‘yicha murabbiylarning pedagogik va psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish.
3. Kurash mashg‘ulotlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi rolini kuchaytirishga yo‘naltirilgan, sport etikasi va milliy qadriyatlar asosidagi metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.
4. Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish jarayonida kurash sport turidan samarali profilaktik vosita sifatida foydalanish.
5. Kurash sport turining uzoq muddatli (longitudinal) ta’sirini aniqlashga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish.

Umuman olganda, kurash sport turining ta’lim va sport tizimiga keng joriy etilishi yoshlarning jismoniy barkamolligi va ma’naviy yetukligini ta’minlashda muhim strategik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid farmon va qarorlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2020.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Abdullayev A.A., Xolmatov Sh.R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Platonov V.N. Olimpiya sportida mashg‘ulotlar tizimi. – Kiev: Olimpiya adabiyoti, 2015.
6. Vaynberg R., Gould D. Sport va jismoniy mashqlar psixologiyasi asoslari. – Champaign, IL: Inson kinetikasi, 2018.
7. McArdle W., Katch F., Katch V. Jismoniy mashqlar fiziologiyasi: ovqatlanish, energiya va inson faoliyati. – Filadelfiya: Lippincott Williams & Wilkins, 2015.
8. Kurash xalqaro assotsiatsiyasi. Kurash qoidalari. – Toshkent, 2022-yil.

BO‘LAJAK OILAVIY SHIFOKORLARNING KASBIY MOTIVATSION RIVOJLANISHINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Xalmuxamedov Bobir Taxirovich
Toshkent davlat tibbiyot universiteti,
1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va
preventiv tibbiyot asoslari kafedrasi assistenti, mustaqli izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy-motivatsion rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tizimi nazariy va didaktik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida motivatsion, tizimli, kasbiy-rivojlantiruvchi, integrativ, amaliy-faoliyatli, muammoli, kreativ va refleksiv yondashuvlarning mazmun-mohiyati ochib berildi hamda ularning ambulator-poliklinik terapiya fanini o‘qitish jarayonidagi o‘rni asoslab berildi. Natijada kasbiy-motivatsion rivojlanish ko‘p komponentli va integrativ pedagogik tizim asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: kasbiy motivatsiya, pedagogik yondashuv, oilaviy shifokor, refleksiya, amaliy-faoliyatli ta’lim, integratsiya.

Abstract: The article presents a theoretical and didactic analysis of pedagogical approaches aimed at ensuring the professional-motivational development of future family physicians. The study reveals the essence of motivational, systemic, professional-developmental, integrative, practice-oriented, problem-based, creative, and reflective approaches and substantiates their role in teaching the discipline “Outpatient and Polyclinic Therapy.” The findings demonstrate that professional-motivational development should be implemented on the basis of a multi-component and integrative pedagogical system.

Key words: professional motivation, pedagogical approach, family physician, reflection, practice-oriented education, integration.

Аннотация: В статье представлен теоретико-дидактический анализ системы педагогических подходов, направленных на обеспечение профессионально-мотивационного развития будущих семейных врачей. В ходе исследования раскрыта сущность мотивационного, системного, профессионально-развивающего, интегративного, практико-ориентированного, проблемного, креативного и рефлексивного подходов, а также обоснована их роль в преподавании дисциплины “Амбулаторно-поликлиническая терапия”. В результате доказано, что профессионально-мотивационное развитие должно осуществляться на основе многокомпонентной и интегративной педагогической системы.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, педагогический подход, семейный врач, рефлексия, практико-ориентированное обучение, интеграция.

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta’lim tizimida kasbiy motivatsiya shaxsning ichki ehtiyoji, kasbga ongli munosabati va professional barqarorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Self-Determination Theory doirasida ichki motivatsiya professional rivojlanishning asosiy psixologik mexanizmi sifatida talqin etiladi [5]. Tibbiyot talabalarida motivatsiya va o‘quv natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy jihatdan isbotlangan [9]. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim modeli kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi [12]. Professional kompetensiyani aniqlash va baholash masalalari ham kasbiy motivatsiya bilan uzviy bog‘liq [6]. Sog‘liqni saqlash tizimining global islohoti sharoitida tibbiy ta’limni modernizatsiya qilish zarurati ta’kidlangan [7; 10]. MDH olimlari kasbiy rivojlanish jarayonini refleksiya va kontekstli ta’lim bilan bog‘laydilar [10; 9; 7]. O‘zbekiston olimlari esa tibbiy ta’lim jarayonida kasbiy motivatsiyani pedagogik mexanizmlar orqali shakllantirish masalasini tadqiq etganlar [1; 2; 3].

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimida birlamchi tibbiy yordam samaradorligi bevosita oilaviy shifokorlarning kasbiy tayyorgarligi va motivatsion barqarorligiga bog‘liq. Shifokorning bilim va ko‘nikmalari yetarli bo‘lishi

mumkin, biroq kasbiy motivatsiya shakllanmagan taqdirda professional faoliyatda yuqori natijalarga erishish qiyinlashadi. Shu bois kasbiy motivatsiya tibbiy ta'lim tizimining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [5; 7]. Kasbiy motivatsiya shaxsning ichki ehtiyoji, kasbga ongli munosabati va professional identifikatsiyasini belgilovchi omil hisoblanadi. Self-Determination Theory doirasida ichki motivatsiya kasbiy barqarorlik va o'z-o'zini rivojlantirishning asosiy psixologik mexanizmi sifatida talqin etiladi [5]. Tibbiyot talabalarida motivatsiya va akademik muvaffaqiyat o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi ilmiy jihatdan asoslangan [9]. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlarini aniqlash va tizimlashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qo'llanilgan metodlar: ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish; pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirish; ambulator-poliklinik terapiya fanining didaktik imkoniyatlarini o'rganish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish murakkab, ko'p komponentli va integrativ jarayon bo'lib, u faqat bilimlar yig'indisi bilan emas, balki tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy asoslangan pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, ambulator-poliklinik terapiya fanini o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligi, real klinik vaziyatlar, refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiya masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida keng o'rganilgan.

A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan "self-efficacy" nazariyasi shaxsning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi motivatsiyani shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi [4]. Ryan va Deci esa ichki va tashqi motivatsiya farqini asoslab, ichki motivatsiya barqaror rivojlanish omili ekanligini ta'kidlaydilar [5]. MDH olimlari kasbiy rivojlanish masalasini tizimli va refleksiv yondashuv asosida talqin etadilar. Mitina professional o'sishni shaxsning ichki rivojlanish jarayoni bilan bog'laydi [10]. Verbitskiy kontekstli ta'lim nazariyasini ishlab chiqib, real kasbiy vaziyatlarga asoslangan o'qitish motivatsiyani kuchaytirishini ta'kidlaydi [13]. Zeer esa kasbiy rivojlanishni bosqichli jarayon sifatida izohlaydi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar asosida bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashda quyidagi pedagogik yondashuvlar majmuasi aniqlanib, asoslandi:

1. **Motivatsion yondashuv.** Motivatsion yondashuv talabalarda shifokorlik kasbiga nisbatan ichki ehtiyoj va barqaror qiziqishni shakllantirishga qaratilgan. Ambulator-poliklinik terapiya fanida real klinik vaziyatlar, rol o'ynash va muammoli topshiriqlarning qo'llanilishi talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Talaba o'zini mutaxassis sifatida his etadi va kasbiy ahamiyatni anglaydi.
2. **Tizimli yondashuv.** Kasbiy motivatsiyani alohida elementlar sifatida emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Nazariya, amaliyot, qadriyat va motivatsion omillar bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.
3. **Kasbiy rivojlantirish yondashuvi.** Kasbiy qadriyatlar, empatiya, tibbiy etika va mas'uliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv shifokorlik kasbini yuksak insonparvar kasb sifatida anglashga xizmat qiladi.
4. **Integratsiyalashgan yondashuv.** Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi. Anatomiya, fiziologiya, farmakologiya va klinik bilimlar real vaziyatda integratsiyalashadi.
5. **Amaliy-faoliyatli yondashuv.** Talabalarni real ambulator vaziyatlarga jalb etish orqali kasbiy kompetensiyani shakllantiradi.
6. **Muammoli yondashuv.** Klinik muammolarni tahlil qilish orqali tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.
7. **Kreativ yondashuv.** Nostandart fikrlash va moslashuvchan qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
8. **Refleksiv yondashuv.** O'z faoliyatini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash hamda kasbiy o'sishni ta'minlaydi. Yuqoridagi holatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashda birgina pedagogik yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi. Mazkur jarayon o'zaro uzviy bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi pedagogik yondashuvlar majmuasi asosida tashkil etilishi lozim.



1-rasm: **Bo‘lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta’minlashning pedagogik yondashuvlar majmuasi**

Motivatsion yondashuv – bu bo‘lajak oilaviy shifokorlarni tayyorlash jarayonida talabalarda shifokorlik kasbiga nisbatan barqaror ichki ehtiyoj, kasbiy qiziqish va ongli munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv bo‘lib, u ta’lim mazmuni, metodlari va texnologiyalarini talabaning shaxsiy hamda kasbiy maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish orqali kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsion faollikni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ambulator poliklinik terapiya fanini o‘qitishda motivatsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu fan bo‘lajak oilaviy shifokorning kundalik amaliy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, talabalar tomonidan o‘rganilayotgan nazariy bilimlarning real klinik ahamiyatini ochib berishga imkon yaratadi. Bunda klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, muammoli holatlar, rol o‘ynash elementlari va refleksiv muhokamalar qo‘llanilishi talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Natijada talaba o‘zini bo‘lajak mutaxassis sifatida his eta boshlaydi, o‘z bilim va ko‘nikmalarining kasbiy ahamiyatini anglaydi hamda ularni chuqurroq o‘zlashtirishga intiladi.

Tizimli yondashuv – mohiyatan kasbiy motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayonini alohida elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan, maqsadga yo‘naltirilgan va dinamik rivojlanib boruvchi yaxlit tizim sifatida tashkil etishdan iborat. Tizimli yondashuv kasbiy tayyorgarlikning barcha tarkibiy qismlarini yagona konseptual asosda birlashtirishga xizmat qiladi. Ambulator poliklinik terapiya fanini o‘qitishda tizimli yondashuv nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kasbiy qadriyatlar va motivatsion omillarni yagona tizimda integratsiyalash imkonini beradi. Tizimli yondashuv ta’lim jarayonining bosqichma-bosqich va

izchil tashkil etilishini taqozo etadi. Kasbiy motivatsiyani rivojlantirish jarayoni dastlab qiziqish va ehtiyojlarni aniqlashdan boshlanib, keyinchalik barqaror kasbiy motivlar, qadriyatlar hamda kasbiy pozitsiyaning shakllanishi bilan yakunlanadi. Har bir bosqich oldingi natijalarga tayanadi va keyingi rivojlanish uchun asos yaratadi. Ushbu izchillik talabalarda kasbiy rivojlanishning mantiqiy ketma-ketligini anglashga yordam beradi.

Kasbiy rivojlantirish yondashuvi – shifokorlik kasbiga xos bo‘lgan axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy va professional qadriyatlarni talabalarda shakllantirish hamda ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatda barqaror namoyon etishga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Kasbiy rivojlantirish yondashuvi shifokorlik faoliyatini nafaqat bilim va ko‘nikmalar majmui, balki yuksak insoniy fazilatlar bilan uyg‘unlashgan ijtimoiy ahamiyatga ega kasb sifatida anglashga xizmat qiladi. Bo‘lajak oilaviy shifokorlarda bemorga hurmat, tibbiy etikaga rioya qilish, kasbiy burch va mas’uliyat, halollik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishi ularning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlaydi hamda kasbiy faoliyatga ongli va mas’uliyatli yondashuvni ta’minlaydi. Kasbiy rivojlantirish yondashuvi natijasida bo‘lajak oilaviy shifokorlarda kasbiy mas’uliyat, bemorga nisbatan empatiya, tibbiy etikaga sadoqat va ijtimoiy burchni anglash kabi sifatlar shakllanadi. Ushbu qadriyatlar talabalarning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlab, ularning nazariy bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga, amaliy faoliyatda mustaqil va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan yondashuv – ta’lim jarayonida nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kasbiy motivatsiya va qadriyatlarni yagona didaktik tizimda uyg‘unlashtirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Integratsiyalashgan yondashuv bo‘lajak mutaxassisni tayyorlashda alohida fanlar doirasidagi bilimlarni parchalangan holda emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi va kasbiy faoliyatdagi yagona maqsadga yo‘naltirilganligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ambulator poliklinik terapiya fanini o‘qitishda talabalarning anatomiya, fiziologiya, farmakologiya, patologiya kabi fanlardan olgan bilimlari real klinik vaziyatlar asosida birlashtiriladi. Natijada talaba muayyan kasallikni baholash jarayonida turli fanlarga oid bilimlarni kompleks tarzda qo‘llashga o‘rganadi, bu esa kasbiy fikrlashning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun muayyan didaktik shartlarni talab etadi. Jumladan, fanlararo hamkorlik asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari, klinik vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiruvchi o‘qitish metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda talaba o‘z bilimlarini mustaqil ravishda integratsiyalashga, murakkab kasbiy vazifalarni hal etishga tayyor bo‘ladi.

Amaliy-faoliyatli yondashuv – mohiyatan talabalarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni bevosita amaliy faoliyat jarayonida egallashini ta’minlash, ularni real kasbiy vaziyatlarda faol subyekt sifatida ishtirok etishga yo‘naltirishdan iborat. Amaliy-faoliyatli yondashuv shaxsning kasbiy rivojlanishida “bilish – bajarish – tahlil qilish” ketma-ketligini ta’minlovchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuvda ta’lim jarayoni kasbiy faoliyat modeliga maksimal darajada yaqinlashtiriladi. Ambulator poliklinik terapiya fanini o‘qitishda bu talabalarni bemorlarni qabul qilish, dastlabki diagnostika o‘tkazish, davolash va profilaktik tavsiyalar berish jarayonlariga bosqichma-bosqich jalb etish orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv doirasida o‘qitish metodlari sifatida klinik mashg‘ulotlar, simulyatsiya, rol o‘ynash, amaliy topshiriqlar va mustaqil faoliyat elementlaridan foydalaniladi. Talabaning mustaqil faoliyati, tashabbuskorligi va mas’uliyati qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa kasbiy kompetensiyalarning bosqichma-bosqich shakllanishiga zamin yaratadi.

Muammoli yondashuv – o‘quv jarayonini talabalarning real kasbiy vaziyatlar bilan to‘qnashuviga asoslash orqali ularda kasbiy fikrlash, mantiqiy tahlil va ijodiy yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ambulator poliklinik terapiya fanida bu yondashuv bemorning shikoyatlari, murakkab simptomlar va noaniq klinik holatlar asosida tashkil etiladi. Talabalar ushbu muammoli vaziyatni tahlil qilib, mavjud nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni safarbar etadilar, optimal tashxis va davolash strategiyasini ishlab chiqadilar. Shu bilan birga, talaba kasbiy qarorlar qabul qilishda mas’uliyatni his etadi va o‘z kasbiy harakatlarini baholashga o‘rganadi. Muammoni mustaqil hal etish jarayonida erishilgan natija talabalarda kasbiy qoniqish, o‘z imkoniyatlariga ishonch va kasbga nisbatan ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi. Talabalar o‘z qarorlarini asoslash, turli yechimlarni solishtirish va tanlab olish orqali ichki motivatsiyani rivojlantiradilar. Ta’lim jarayonida muammoli yondashuvni interfaol metodlar bilan uyg‘un qo‘llashda klinik vaziyatlarni tahlil qilish, guruhiy muhokama, rolli o‘yinlar, refleksiv tahlil va simulyatsiya mashg‘ulotlari muhim o‘rin tutadi.

Kreativ yondashuv – shifokorlik faoliyatini faqat tayyor algoritmlar asosida bajariladigan jarayon sifatida emas, balki doimiy tahlil, izlanish va innovatsion yechimlarni talab etuvchi murakkab kasbiy faoliyat sifatida anglashga xizmat qiladi. Kreativ yondashuv doirasida o‘qitishda interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, klinik vaziyatlarni modellashtirish, rol o‘ynash va guruhiy muhokamalardan foydalaniladi. Talabalar bir xil klinik holatga turli nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar, muqobil diagnostika va davolash strategiyalarini taklif qiladilar hamda ularni asoslab beradilar. Bu esa tanqidiy va ijodiy fikrlashning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Reflektiv yondashuv – talabaning o‘z fikri, faoliyati va qarorlarini tanqidiy tahlil qilishga asoslangan metodik yondashuv bo‘lib, o‘qitish jarayonida o‘z-o‘zini baholash va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, klinik qaror qabul qilishda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi hamda bemor bilan muloqotda hissiy barqarorlik va empatiyani hosil qilish orqali ta’lim jarayonining samaradorligi va jozibadorligini ta’minlaydi.

XULOSA

Kasbiy motivatsion rivojlanish ko‘p komponentli pedagogik jarayon hisoblanadi. Uni ta’minlashda sakkizta o‘zaro bog‘liq yondashuv majmuasi muhim rol o‘ynaydi. Ambulator-poliklinik terapiya fanini o‘qitishda mazkur yondashuvlar kompleks qo‘llanganda barqaror kasbiy motivatsiya shakllanadi. Ishlab chiqilgan model tibbiy ta’lim amaliyotiga joriy etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva Sh. Tibbiyot ta’limida kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 156 b.
2. Arziqulov A.A. Talabalarda o‘quv-kasbiy motivatsiyani shakllantirish texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 132 b.
3. Karimov F.A. Tibbiyot talabalari klinik fikrlashini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 148 b.
4. Bandura A. Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change // Psychological Review. – 1977. – Vol. 84, No. 2. – P. 191–215.
5. Deci E.L., Ryan R.M. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 68–78.
6. Epstein R.M., Hundert E.M. Defining and assessing professional competence // JAMA. – 2002. – Vol. 287, No. 2. – P. 226–235.
7. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A. et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems // The Lancet. – 2010. – Vol. 376, No. 9756. – P. 1923–1958.
8. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today // Medical Teacher. – 2007. – Vol. 29, No. 7. – P. 625–629.
9. Kusurkar R.A., Croiset G., Mann K.V., Ten Cate O. Have motivation theories guided the development and reform of medical education curricula? // Academic Medicine. – 2012. – Vol. 87, No. 6. – P. 735–743.
10. Mitina L.M. Psixologiya professionalnogo razvitiya lichnosti. – Moskva: Flinta, 2004. – 400 s.
11. Rean A.A., Bocharova E.E. Professional motivation of medical students // Psychology in Russia: State of the Art. – 2016. – Vol. 9, No. 1. – P. 44–56.
12. Ten Cate O. Competency-based medical education: origins, perspectives and potentialities // Medical Teacher. – 2017. – Vol. 39, No. 6. – P. 594–602.



О РАЗВИТИИ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

М. Халикова
Андижанский государственный технический институт,
Старший преподаватель кафедры "Языки и гуманитарные науки"

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития учебно-познавательной деятельности студентов в процессе обучения русскому языку как иностранному. Особое внимание уделяется роли мотивации и интереса как ведущих факторов активизации познавательной активности обучаемых. Анализируются психолого-педагогические подходы к формированию устойчивой учебной мотивации, раскрывается значение проблемных ситуаций, коммуникативной направленности обучения, учёта индивидуально-психологических особенностей студентов и системы конструктивной обратной связи. Подчёркивается, что эффективная организация учебного процесса, ориентированного на личность обучаемого, способствует повышению качества усвоения учебного материала и формированию положительного отношения студентов к изучению русского языка.

Ключевые слова: учебно-познавательная деятельность, мотивация обучения, интерес, активизация познавательной деятельности, русский язык как иностранный, коммуникативная направленность, проблемное обучение, индивидуальный подход, обратная связь.

Annotatsiya: Maqolada talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish masalalari rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayoni misolida yoritiladi. O'qishga bo'lgan motivatsiya va qiziqishning bilish faolligini oshirishdagi o'rni asoslab beriladi. Muammoli va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi. Ilmiy yangilik talabalar motivatsiyasini shakllantiruvchi omillarni tizimlashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar: o'quv-bilish faoliyati, motivatsiya, qiziqish, rus tili, muammoli ta'lim, kommunikativ yondashuv.

Abstract: The article discusses the development of students' educational and cognitive activity in the process of learning Russian as a foreign language. Special attention is paid to the role of motivation and interest as leading factors in activating students' cognitive activity. The article analyzes psychological and pedagogical approaches to the formation of sustainable learning motivation and reveals the importance of problem-based situations, the communicative orientation of instruction, consideration of students' individual psychological characteristics, and a system of constructive feedback. It is emphasized that the effective organization of the educational process, focused on the learner's personality, contributes to improving the quality of learning and fosters a positive attitude toward studying the Russian language.

Key words: educational and cognitive activity, learning motivation, interest, activation of cognitive activity, Russian as a foreign language, communicative orientation, problem-based learning, individual approach, feedback.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях модернизации высшего образования особую актуальность приобретает проблема развития учебно-познавательной деятельности студентов. Эффективность обучения русскому языку как иностранному во многом определяется уровнем мотивации, интереса и активности обучаемых. Целью данного исследования является выявление и теоретическое обоснование педагогических факторов, способствующих активизации учебно-познавательной деятельности студентов.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Мотивация и познавательная деятельность студентов определяются тем, что обучаемые выступают активными субъектами образовательного процесса. А. Н. Леонтьев изучал психологические основы поведения и мотивации [1]. И. А. Зимняя разработала теорию мотивации в обучении иностранным языкам [2]. В работах А. Н. Щукина и Н. Д. Гальсковой широко представлены коммуникативные и деятельностные установки [3; 4]. Безусловно, мотивация – это этап (фрагмент) занятия, во время которого преподаватель

создает ситуацию, в которой у учащегося, с одной стороны, возникает интерес к предстоящей учебно-познавательной деятельности, а с другой – формируются начальные представления о предмете, проблеме и формулируются первичные выводы. Одним из решающих стимулов приобретения знаний, без которого учебный материал усваивается плохо и быстро забывается, является интерес. При этом цель преподавателя – сформировать устойчивый интерес к познанию, получению информации, исследованию и изучению учебного материала, предмета, проблемы, темы занятия. Как известно, интерес – это любознательность, обнаружение чего-то неожиданного для себя, своеобразный трамплин, позволяющий "прыгнуть дальше и выше". Успешность этапа мотивации (а значит, и последующих этапов занятия) во многом определяется наличием элемента неожиданности в заданиях данного этапа.

В психолого-педагогической литературе интерес рассматривается как мощный стимул обучения, как эффективное средство активизации познавательной деятельности студентов, позволяющее преподавателю превратить процесс овладения знаниями, умениями и навыками в более целенаправленный, продуктивный и одновременно более привлекательный. Под интересом в методическом плане понимается такое рационально-эмоциональное отношение студентов к дисциплине, которое вызывает у них желание познавать изучаемое и стимулирует увлечение предметом. Внешне это отношение выражается в пытливости, любознательности, внимании и активности студентов на занятиях по русскому языку. Известно, что интерес, проявляемый учащимися к изучаемому материалу, напрямую влияет на их активность. Однако сама по себе активность, которую преподаватель различными приемами и способами пытается развить у студентов без опоры на интерес, не может вызвать устойчивого стремления овладеть знаниями. Так, ускорение темпа учебного процесса и разнообразие методов обучения сами по себе не вызывают у студентов интереса. Прежде всего необходимо знать и учитывать мотивы учения, опираясь на которые можно более успешно строить процесс вузовского обучения русскому языку как иностранному. Данная проблема получила яркое отражение в трудах А. Н. Леонтьева, в частности в работе "Психологические вопросы сознательности учения". Чтобы критика не демотивировала студента, целесообразно использовать принцип сбалансированной обратной связи: выделить положительные моменты, обозначить направления для улучшения и показать, каким образом это приведет к более высокому результату.

Особое значение в развитии учебно-познавательной деятельности студентов приобретает правильная организация учебного процесса, ориентированного на личность обучаемого. Современное обучение русскому языку как иностранному предполагает активное включение студентов в учебную деятельность, создание условий для самостоятельного мышления, анализа и осмысления изучаемого материала. В этой связи преподаватель выступает не только как источник знаний, но и как организатор, координатор и мотиватор познавательной активности обучаемых. Важным условием активизации учебно-познавательной деятельности является использование проблемных ситуаций на занятиях. Постановка вопросов, требующих размышления, поиска и сравнения, побуждает студентов к интеллектуальной активности, развивает способность к анализу языковых явлений и формированию собственных выводов. При этом проблемность должна быть посильной и соответствовать уровню языковой подготовки студентов, чтобы не вызвать у них чувство неуверенности или разочарования. Большую роль в формировании познавательной активности играет коммуникативная направленность обучения. Использование речевых ситуаций, приближенных к реальным условиям общения, способствует осознанию практической значимости изучаемого языка, что, в свою очередь, усиливает внутреннюю мотивацию студентов. Когда обучаемые понимают, что владение русским языком позволяет им успешно взаимодействовать в учебной, профессиональной и социальной среде, их интерес к предмету становится более устойчивым и осознанным. Не менее важным фактором является учет индивидуально-психологических особенностей студентов. Различный уровень подготовленности, темп усвоения материала, тип мышления и эмоциональная восприимчивость требуют от преподавателя гибкости в выборе методов и приемов обучения. Дифференцированный подход, вариативность заданий и поддержка даже незначительных успехов обучаемых способствуют формированию положительной самооценки и уверенности в собственных силах.

Особое место в развитии учебно-познавательной деятельности занимает система оценки и обратной связи. Критика должна носить конструктивный характер и быть направленной на развитие, а не на подавление активности студента. Принцип сбалансированной обратной связи позволяет сохранить положительный эмоциональный фон занятия, стимулирует стремление к самосовершенствованию и повышает учебную мотивацию. Таким образом, развитие учебно-познавательной деятельности студентов при обучении русскому языку как иностранному является сложным и многоаспектным процессом, требующим комплексного подхода. Эффективное сочетание мотивации, интереса, проблемности, коммуникативной направленности и учета индивидуальных особенностей обучаемых позволяет повысить качество обучения, сформировать устойчивую познавательную активность и положительное отношение студентов к изучаемому предмету.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе исследования использовались методы теоретического анализа психолого-педагогической литературы, обобщения и систематизации научных подходов, а также сравнительного анализа педагогических условий развития познавательной активности студентов.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Мотивация рассматривается как важный этап учебного занятия, в рамках которого преподаватель создаёт условия для возникновения у студентов интереса к предстоящей учебно-познавательной деятельности и формирования первоначальных представлений о теме и проблеме занятия. Одним из решающих стимулов усвоения знаний является познавательный интерес, без которого учебный материал усваивается поверхностно и быстро забывается. Интерес в методическом аспекте понимается как рационально-эмоциональное отношение студентов к учебной дисциплине, проявляющееся в их активности, внимании и стремлении к познанию. Как отмечает А. Н. Леонтьев, именно мотивы учения определяют характер и уровень учебной деятельности студентов [1].

Важную роль в активизации познавательной деятельности играет использование проблемных ситуаций, побуждающих студентов к анализу, сравнению и самостоятельным выводам. Существенное значение имеет коммуникативная направленность обучения, предполагающая использование речевых ситуаций, приближённых к реальному общению, что усиливает практическую значимость изучаемого языка. Не менее значимым фактором является учёт индивидуально-психологических особенностей студентов, а также применение системы конструктивной обратной связи. Принцип сбалансированной обратной связи, включающий положительную оценку, указание направлений для улучшения и прогноз результата, способствует сохранению положительного эмоционального фона и росту учебной мотивации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Таким образом, развитие учебно-познавательной деятельности студентов при обучении русскому языку как иностранному представляет собой комплексный процесс, требующий учёта мотивационных, психологических и педагогических факторов. Эффективное сочетание мотивации, интереса, проблемного и коммуникативного обучения, а также индивидуального подхода позволяет повысить качество обучения и сформировать устойчивую познавательную активность студентов. В практической деятельности рекомендуется шире использовать проблемные задания и конструктивную обратную связь.

Список использованной литературы:

1. Леонтьев А. Н. Психологические вопросы сознательности учения. – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1959.
2. Зимняя И. А. Психология обучения иностранным языкам. – М.: Просвещение, 1991.
3. Щукин А. Н. Методика обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2011.
4. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2006.
5. Эльконин Д. Б. Психология развития. – М.: Академия, 2001.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИСКАЖЕНИЯ ИСТИНЫ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ: НОРМАТИВНО-КОГНИТИВНАЯ МОДЕЛЬ И СМЕШАННОЕ ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

С. Ю. Нишанов
Ташкентский международный университет, доцент,
доктор философии по психологическим наукам (PhD)

Аннотация: В статье рассматривается, как формируется искажение истины в процессе социализации и почему человек начинает использовать ложь, умолчание и приукрашивание в общении. Показано, что это явление связано не только с личными особенностями, но и с влиянием семьи, школы и ближайшего окружения, которые задают правила поведения, ожидания и возможные последствия. Анализируется, как в воспитательных и общественных сообщениях объясняются честность и ложь, а также как подростки и молодёжь оценивают допустимость лжи в различных жизненных ситуациях. В работе применены анализ текстов и анкетирование со статистической обработкой данных. Результаты показывают, что чаще всего искажение правды оправдывают заботой о другом человеке, защитой себя и соблюдением норм вежливости. Материалы статьи могут быть полезны для психологической профилактики и работы с детьми и подростками, направленной на развитие честности, доверия и ответственного общения.

Ключевые слова: социализация; ложь; искажение истины; социальные нормы; моральное разъединение; теория сознания; самопрезентация; контент-анализ; сценарный метод.

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiylashuv jarayonida haqiqatni buzib ko‘rsatish qanday shakllanishi va nega inson muloqot jarayonida yolg‘on, sukut saqlash hamda voqealarni bezash usullaridan foydalanishi masalalari tahlil qilinadi. Mazkur hodisa nafaqat shaxsiy xususiyatlar, balki xulq-atvor qoidalari, ijtimoiy kutishlar va ehtimoliy oqibatlarni belgilovchi oila, maktab hamda yaqin ijtimoiy muhit ta’siri bilan ham bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Tadqiqotda tarbiyaviy va ijtimoiy mazmundagi xabarlarda halollik va yolg‘on qanday talqin qilinishi, shuningdek, o‘smirlar hamda yoshlarning turli hayotiy vaziyatlarda yolg‘onning maqbulligini qanday baholashi o‘rganiladi. Ishda matnlar tahlili va statistik qayta ishlov asosidagi so‘rovnoma usullari qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, haqiqatni buzib ko‘rsatish ko‘pincha boshqa inson haqida g‘amxo‘rlik qilish, o‘zini himoya qilish va xushmuomalalik me’yorlariga rioya etish bilan oqlanadi. Maqola materiallari halollik, ishonch va mas’uliyatli muloqotni rivojlantirishga qaratilgan psixologik profilaktika hamda bolalar va o‘smirlar bilan ishlash jarayonida foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashuv; yolg‘on; haqiqatni buzib ko‘rsatish; ijtimoiy me’yorlar; axloqiy ajralish; ong nazariyasi; o‘zini namoyon etish; kontent-tahlil; ssenariy usuli.

Abstract: The article analyzes how the distortion of truth is formed in the process of socialization and why individuals begin to use lying, omission, and embellishment in communication. It is demonstrated that this phenomenon is associated not only with personal characteristics but also with the influence of family, school, and the immediate social environment, which establish behavioral norms, expectations, and possible consequences. The study examines how honesty and lying are interpreted in educational and public messages, as well as how adolescents and young people assess the acceptability of lying in various life situations. The research applies text analysis and questionnaire methods with statistical data processing. The findings indicate that the distortion of truth is most often justified by concern for another person, self-protection, and adherence to norms of politeness. The materials of the article may be useful for psychological prevention and for work with children and adolescents aimed at developing honesty, trust, and responsible communication.

Key words: socialization; lying; distortion of truth; social norms; moral disengagement; theory of mind; self-presentation; content analysis; scenario method.

ВВЕДЕНИЕ

Проблема: почему “не лги” не предотвращает искажение истины

В большинстве воспитательных и образовательных дискурсов норма честности формулируется как универсальная (“лгать нельзя”). Однако повседневная коммуникация демонстрирует устойчивый парадокс: осуждение лжи сосуществует с широким диапазоном ситуационных исключений (“не обижай”, “не позорь”, “не говори лишнего”, “так принято”). На уровне психологии развития ложь появляется не как случайная девиация, а как возможный продукт роста социально-когнитивных функций: чтобы солгать, субъект должен удерживать различие между реальностью и сообщением и учитывать состояние другого (убеждения, ожидания). Метаналитические данные указывают на небольшую, но устойчивую положительную связь между теорией сознания (ToM) и ложью у детей (общий эффект порядка $r \approx 0{,}23$).

Цель: описать и эмпирически проверить психологические механизмы искажения истины в социализации на пересечении норм, когнитивных предпосылок и моральной саморегуляции.

Гипотезы:

1. H1: в социализирующем дискурсе чаще легитимируются искажения через заботу, гармонию/лицо, этикет и приватность/границы, чем через прямую выгоду.
2. H2: показатели ToM и исполнительного контроля положительно связаны со способностью к стратегической лжи (особенно к “поддержанию” лжи).
3. H3: влияние нормативного давления (страх наказания, ожидание “сохранить лицо”, требование эффективности) на приемлемость инструментальной лжи частично опосредуется моральным разъединением.
4. H4: опыт “parenting by lying” связан с большей склонностью ребенка лгать родителям.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Теория норм трактует нормы как устойчивые правила, поддерживаемые ожиданиями относительно поведения других и ожиданиями одобрения/осуждения, подкрепленными санкциями. Это позволяет объяснить феномен “двойной морали”: публичное осуждение лжи и приватное признание допустимости отдельных форм в конкретных контекстах. В социализации ребенок учится не только “что правда”, но и когда говорить правду выгодно/безопасно, а когда – рискованно (стыд, наказание, унижение, потеря статуса). Ложь требует представления о психическом состоянии адресата (ToM), торможения правдивого ответа, рабочей памяти (удержание версии) и когнитивной гибкости (адаптация к вопросам и контексту). Метанализ по ToM и лжи у детей подтверждает статистически значимую связь, особенно для аспектов лжи, требующих понимания убеждений и поддержания обмана.

Даже при усвоенной норме честности люди могут искажать истину, не испытывая выраженной вины, если активируются механизмы морального разъединения: моральное оправдание (“во благо”), эвфемизация (“приукрасил”, “умолчал”), диффузия/перенос ответственности (“меня вынудили”), минимизация последствий (“никому не вредно”), обвинение адресата (“сам виноват”). Эти механизмы формируют психологически безопасный режим нарушения нормы и являются важной мишенью профилактики нечестности. По мере расширения социальных ролей возрастает роль самопрезентации: субъект обучается регулировать впечатление о себе, иногда переходя от селективной правды к конструированию образа. В цифровой среде это проявляется особенно явно: часть искажений субъективно переживается как “нормальная упаковка”, а не как ложь. Такое смещение связано с размыванием критериев “что считается ложью” и ростом санкций за репутационные потери при одновременной культурной поддержке “эффективного образа”. Эмпирическая литература описывает “родительскую ложь” как инструмент управления поведением (угрозы/обещания ради послушания). Ряд работ связывает этот опыт с последующим отношением ребенка ко лжи и с вероятностью лжи родителям, что интерпретируется как моделирование нормы: “ложь допустима, если она функциональна и исходит от авторитета”.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Материал: 600 единиц анализа (по 200 из каждого источника: семья, школа, медиа). Единица анализа – завершённое высказывание-правило/оценка о правде/лжи.

Кодирование: (TI, CL, тип санкции).

Надёжность: 2 кодировщика, 20% перекрытия; к Коэна ≥ 0,75.

Статистика: χ^2-тест независимости (источник × критерий) и V Крамера (размер эффекта).

Выборка (пилотная): N=360 (11-17 и 18-25), баланс по полу и типу образовательной среды.

Сценарии: 12 ситуаций, сбалансированных по критериям CL и типам TI.

Для каждого сценария оцениваются Acceptability (1-7), Perceived Lie ("Это ложь?" 1-7) и Expected Sanctions (1-7).

Шкалы/тесты: ToM (ложные убеждения/намерения), исполнительный контроль (торможение + рабочая память), Moral Disengagement, Parenting by Lying.

План анализа: надёжность (α/ω), регрессии (Acceptability ~ ToM + EF + MD + PBL + Age), медиаторная модель (нормативное давление → MD → приемлемость) с bootstrap-доверительными интервалами.

Процедура:

1) информированное согласие;
2) сценарии (рандомизация порядка);
3) шкалы MD и PBL;
4) когнитивная батарея ToM/EF;
5) дебрифинг.

Этическая часть включает анонимность, право отказаться и минимизацию самообличающих формулировок. В семейном дискурсе преобладают критерии заботы (CL2) и гармонии/лица (CL3/CL4), часто в форме норм "не говори так, чтобы было больно/стыдно". Школьный дискурс чаще опирается на правила и справедливость (CL5), а также на институциональные санкции. Медиа-дискурс усиливает критерии эффективности (CL6) и границ (CL7), а также самопрезентационные искажения (TI5). Связь "источник × критерий" в пилотном анализе статистически значима ($p<0,001$), V Крамера находится в диапазоне малого-среднего эффекта. Искажения, связанные с этикетом/заботой (TI3) и с границами (TI2), получают более высокую приемлемость, чем корыстные искажения (TI1). Самопрезентационные искажения (TI5) занимают промежуточное положение, формируя "серую зону" между моральным запретом и нормой впечатления. ToM положительно связан со способностью к стратегическому искажению истины (малый эффект), что согласуется с мета-анализами. Moral Disengagement является устойчивым предиктором приемлемости инструментальных искажений и выступает медиатором влияния нормативного давления. Parenting by Lying ассоциирован с более высокой приемлемостью "лжи ради послушания" и с сообщаемой частотой лжи родителям.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Социализация создаёт двухуровневую нормативность: декларативный запрет лжи и операциональную систему исключений. На уровне практик искажение истины часто переименовывается (в "заботу", "вежливость", "границы", "не позорь"), что снижает моральные издержки нарушения и облегчает поведение без выраженной вины. ToM и исполнительный контроль повышают возможность стратегической лжи, но не задают её нормативную оценку. Нормативная инфраструктура (ожидания и санкции) определяет, какие формы искажения становятся адаптивными, а какие – рискованными. Следовательно, профилактика искажения истины должна работать с контекстом санкций и с языком оправданий, а не только с декларациями о честности.

Практика "parenting by lying" формирует у ребёнка опыт противоречия: взрослый провозглашает честность и одновременно использует ложь как управленческий инструмент. Это повышает вероятность усвоения правила "ложь допустима, если она функциональна" и усиливает готовность к инструментальному искажению истины, особенно при наличии морального разъединения. Пилотный дизайн требует репликации на независимых выборках и уточнения культурных контекстов. Самоотчёты чувствительны к социальной желательности; рекомендуется использовать косвенные вопросы и поведенческие индикаторы. Контент-анализ зависит от состава корпуса; необходимы открытый протокол отбора и кодировочная книга. Рекомендуются лонгитюдные исследования (как меняются исключения и санкции с возрастом), экспериментальные манипуляции публичностью/вероятностью санкций, а также сравнение семейных стилей социализации и их вклада в моральное разъединение.

ВВЕДЕНИЕ

Искажение истины в процессе социализации формируется как интеграция:

1) когнитивных возможностей (ToM/исполнительного контроля),
2) нормативной инфраструктуры (ожиданий и санкций, "карты исключений") и

3) морально-психологических механизмов легитимации (морального разъединения и самопрезентационных практик).

Эффективные программы профилактики должны адресовать контекст санкций, семейные нормативные противоречия и языковые стратегии оправдания, посредством которых социализация переименовывает ложь в социально приемлемые формы.

Список использованной литературы:

1. Lee, K., & Imuta, K. (2021). Lying and Theory of Mind: A Meta-Analysis. (PubMed). https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/33462865/
2. Bandura, A. (1999). Moral disengagement in the perpetration of inhumanities. Personality and Social Psychology Review. https://journals.sagepub.com/doi/10.1207/s15327957pspr0303_3
3. Bicchieri, C. (2006). The Grammar of Society: The Nature and Dynamics of Social Norms. Cambridge University Press. (Excerpt). https://assets.cambridge.org/97805215/73726/excerpt/9780521573726_excerpt.pdf
4. Low, P. H. X., Kyeong, Y., & Setoh, P. (2024). Parenting by lying and children's lying to parents: The moderating role of children's beliefs. Journal of Experimental Child Psychology, 240, 105837. (Preprint/record). https://www.researchgate.net/publication/377218875
5. Parenting by lying (overview, PMC). https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC10849888/

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ РЕЧЕВОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ



Утешова Зернегүл Хүрметуллаевна
Начальник кафедры английского языка и литературы КГУ

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методические подходы к развитию и повышению речевой активности студентов в процессе обучения иностранным языкам. Особое внимание уделяется коммуникативному подходу, интерактивным методам обучения, использованию информационно-коммуникационных технологий, ролевым играм и проблемным заданиям как эффективным средствам активизации устной речи обучающихся. Также анализируются педагогические условия, способствующие повышению мотивации студентов, развитию самостоятельного мышления и формированию коммуникативной компетенции. Результаты исследования показывают, что применение активных методов обучения способствует эффективному формированию практических речевых навыков.

Ключевые слова: обучение иностранным языкам, речевая активность, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, навыки говорения, педагогические технологии, коммуникация, коммуникативный подход.

Annotatsiya: Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning chet tillarni o‘rganish jarayonida nutq faolligini rivojlantirish va oshirishga qaratilgan zamonaviy metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Alohida e’tibor kommunikativ yondashuvga, interaktiv o‘qitish usullariga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga, rolli o‘yinlarga va muammoli topshiriqlarga qaratiladi, chunki ular talabalarning og‘zaki nutqini faollashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, talabalarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik sharoitlar ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, faol o‘qitish usullaridan foydalanish amaliyotda nutq ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: chet tillarni o‘qitish, nutq faolligi, kommunikativ kompetensiya, interaktiv usullar, so‘zlash ko‘nikmalari, pedagogik texnologiyalar, kommunikatsiya, kommunikativ yondashuv.

Abstract: This article examines modern methodological approaches aimed at developing and enhancing students’ speech activity in the process of learning foreign languages. Special attention is given to the communicative approach, interactive teaching methods, the use of information and communication technologies, role-playing games, and problem-based tasks as effective tools for activating students’ oral speech. The study also analyzes pedagogical conditions that contribute to increasing students’ motivation, fostering independent thinking, and forming communicative competence. The research results indicate that the application of active teaching methods effectively promotes the development of practical speech skills.

Key words: foreign language education, speech activity, communicative competence, interactive methods, speaking skills, pedagogical technologies, communication, communicative approach.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях глобализации изучение иностранных языков приобретает особую значимость для личностного и профессионального развития человека. Расширение международных контактов, интенсивный обмен информацией и требования современного рынка труда предполагают не только знание грамматических структур иностранного языка, но и умение эффективно использовать его в реальной коммуникации. В связи с этим основной целью обучения иностранным языкам становится формирование речевой компетенции и повышение речевой активности студентов. Традиционные методы обучения часто ориентированы на заучивание грамматических правил и перевод текстов, тогда как современная методика делает акцент на вовлечении студентов в коммуникативный процесс. Поскольку язык прежде всего является средством общения, одной из актуальных задач становится создание условий, стимулирующих активное участие обучающихся, развитие их способности выражать мысли и участвовать в диалогическом взаимодействии.

Проблема развития речевой активности студентов широко исследуется в области педагогики, психологии и лингводидактики. Научные исследования показывают, что пассивное участие студентов в учебном процессе не обеспечивает достаточного уровня развития речевых навыков. Напротив, активное участие в обсуждениях, обмене мнениями и выполнении коммуникативных заданий значительно повышает эффективность обучения. В настоящее время широко используются коммуникативный и компетентностный подходы, интерактивные технологии, цифровые образовательные ресурсы и коллаборативное обучение. Эти подходы способствуют развитию практических навыков общения и повышению речевой активности студентов.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Изучение иностранных языков является одним из важных педагогических направлений в обществе. Язык служит не только средством общения, но и ключевым фактором развития мышления и культурной компетенции личности. В естественной среде, то есть в семье и обществе, язык усваивается на практике, тогда как его теоретические основы глубоко раскрываются в рамках методики обучения. Цели обучения иностранным языкам исследовались научным сообществом на протяжении многих лет. В XX веке основные теоретические положения были разработаны такими учёными, как Л.В. Щерба, А.Н. Монигетти, И.В. Рахманов, В.С. Цетлин и О.И. Москальская. Они подчёркивали, что изучение иностранного языка должно служить не только формированию языковых навыков, но и духовному, образовательному и социальному развитию учащихся. В последующие годы И.Л. Бим внёс значительный вклад в развитие данной области.[1]

Согласно теории Бима, обучение иностранным языкам должно учитывать интеграцию четырёх основных целей:

1. **Практическая цель** – подготовка учащихся к эффективной коммуникации на иностранном языке в реальных ситуациях. Эта цель достигается через активное применение навыков аудирования, говорения, чтения и письма.
2. **Воспитательная цель** – содействие культурному развитию, формированию социального мышления и личностному становлению учащихся посредством изучения языка. Данная цель реализуется через активное общение и коллективную работу.
3. **Образовательная цель** – обеспечение понимания грамматических и лексических правил языка как в теоретическом, так и в практическом аспектах. Она достигается поэтапно через изучение параграфов, выполнение упражнений и работу с диалогами.
4. **Развивающая цель** – развитие мышления, устных и письменных коммуникативных навыков учащихся. Эта цель формирует способность к самостоятельному мышлению, решению проблем и эффективному использованию языка в новых контекстах.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Кроме того, данные цели учитываются при планировании каждого урока, а содержание и методы обучения выбираются в соответствии с ними. Например, в процессе подготовки уроков практическая реализация целей обеспечивается посредством устных и письменных упражнений, ролевых игр, различных коммуникативных заданий и использования лексико-грамматического материала. Это создаёт условия для активизации познавательного отношения учащихся к языку, а также стимулирует их речевую и творческую активность. Таким образом, в обучении иностранным языкам теоретические знания и практические навыки гармонично сочетаются, способствуя всестороннему развитию потенциала учащихся. Это позволяет им быть подготовленными к активному участию не только в языковой, но и в социальной и культурной сферах.

Понятие речевой активности и её значение в обучении иностранным языкам. Речевая активность представляет собой способность студентов свободно выражать мысли, вступать в коммуникацию, задавать вопросы и участвовать в различных коммуникативных ситуациях на иностранном языке. В современной методике обучения языкам данный показатель рассматривается как один из ключевых критериев эффективности образовательного процесса. При низком уровне речевой активности даже при наличии грамматических знаний студенты испытывают трудности в общении. Поэтому важной задачей является создание благоприятной образовательной среды, преодоление психологических барьеров и повышение мотивации обучающихся. Повышение речевой активности на основе коммуникативного подхода.

1 Бухоро Давлат Университети Филология факультети, “Методика- чет тили уқитиш назарияси” Бухара-2016. 6- с

Коммуникативный подход является одним из наиболее эффективных направлений современной методики обучения иностранным языкам. Его основная цель – обучение языку через общение. При этом внимание уделяется не только грамматике, но и смысловому аспекту коммуникации.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Согласно И. Л. Биму, в процессе обучения иностранным языкам виды речевой деятельности – аудирование, говорение, чтение и письмо – имеют особое значение и должны развиваться последовательно в соответствии с целями каждого урока. По его подходу каждый параграф или урок (lesson) имеет свои чётко определённые цели, которые реализуются через различные разделы и упражнения занятия. Например, аудиоматериалы и визуальные пособия нацелены на развитие навыков восприятия речи на слух; ролевые игры и диалоги способствуют развитию устной речи и творческого выражения; чтение и письмо укрепляют грамматические знания, словарный запас и способность понимать контекст. При этом каждый вид деятельности должен развиваться не только как отдельный навык, но и интегрированно. Так, аудирование стимулирует говорение, а чтение поддерживает письменную речь. Такая интеграция позволяет студентам развивать способность использовать язык естественно и всесторонне.

И. Л. Бим также подчёркивает, что для достижения каждой цели материалы и упражнения должны распределяться поэтапно. Это снижает психологическую нагрузку на учащихся, позволяет им чувствовать себя свободно и способствует повышению речевой активности. Кроме того, использование интерактивных и коммуникативных методов, таких как коллективные обсуждения, ролевые игры, дебаты и проблемные задания, развивает у студентов умение взаимодействовать и творчески мыслить. В результате подход Бима позволяет студентам не только овладеть грамматикой и лексикой, но и развить практическое использование языка, навыки социальной коммуникации и культурную компетентность. Данный метод также создаёт возможности для преподавателя тщательно планировать уроки, направлять каждый раздел занятия на конкретные цели и обеспечивать максимальную речевую активность студентов.

Кроме того, такой подход стимулирует самостоятельность и активное участие учащихся. В процессе выполнения заданий они учатся критически мыслить, проявлять себя в диалогах и применять язык в новых контекстах. Таким образом, обучение по данной методике формирует эффективную коммуникативную компетенцию и творческую речевую активность, что обеспечивает более глубокое и практическое владение иностранным языком.

Эффективные методы в рамках коммуникативного подхода: работа в парах; групповые обсуждения; ролевые игры; дебаты и дискуссии; проблемные коммуникативные задания. Такие формы работы способствуют развитию спонтанной речи и уверенности студентов. Роль интерактивных технологий обучения: интерактивные методы обеспечивают активное участие студентов в учебном процессе. Концепция студентоцентрированного обучения предполагает развитие самостоятельности и творческого мышления. К эффективным методам относятся: мозговой штурм; кластерный метод; case study; проектное обучение; storytelling. Данные методы стимулируют развитие критического мышления и речевой активности. Использование информационно-коммуникационных технологий: цифровые технологии открывают новые возможности для развития речевых навыков. Онлайн-платформы, мобильные приложения и мультимедийные ресурсы создают условия для моделирования реальной языковой среды. Примеры: видеоконференции; подкасты; онлайн-дискуссии; виртуальные симуляции. Использование ИКТ повышает мотивацию и способствует практическому применению языка. Психологические факторы речевой активности: студенты часто испытывают страх перед ошибками или неуверенность при устной речи. Поэтому важна поддерживающая образовательная среда, позитивное отношение к ошибкам и использование игровых элементов. Это повышает уверенность студентов и стимулирует их к активному участию.

Коммуникативные задания как средство развития речи: коммуникативные задания, приближённые к реальным жизненным ситуациям (интервью, обсуждение проблем, планирование путешествий), помогают развивать функциональную грамотность и формируют навыки естественной коммуникации. Коллаборативное обучение и групповая работа: совместная деятельность способствует развитию социальных и коммуникативных навыков. Групповая работа создаёт условия для обмена идеями, взаимного обучения и активного участия каждого студента. Использование аутентичных материалов: аутентичные материалы (видео, подкасты, интервью, блоги) помогают познакомиться с естественной речью носителей языка, расширяют словарный запас и развивают культурную компетенцию. Формативное оценивание: формативное оценивание ориентировано на процесс обучения и включает взаимное оценивание; самооценку; рефлексию; устную обратную связь. Это снижает страх ошибок и стимулирует речевую активность. Инновационные цифровые технологии: современные цифровые среды (speaking clubs

онлайн, видеоблоги, voice recording) позволяют студентам практиковать речь вне аудиторных занятий и повышают автономность обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Повышение речевой активности студентов является одной из ключевых задач современного обучения иностранным языкам. Формирование коммуникативной компетенции требует комплексного подхода, включающего интерактивные методы, коммуникативные задания, использование цифровых технологий и создание благоприятной психологической среды. Активные методы обучения способствуют повышению мотивации, развитию самостоятельного мышления и практическому использованию языка. Важную роль играет позиция преподавателя как фасилитатора учебного процесса, направляющего и поддерживающего студентов.

Таким образом, интеграция современных педагогических технологий и коммуникативных стратегий обеспечивает эффективное развитие речевой компетенции студентов. Перспективными направлениями дальнейших исследований являются использование искусственного интеллекта, адаптивных образовательных систем и индивидуализированных методов обучения.

Список использованной литературы:

1. Бухоро давлат университети. Филология факультети. “Методика чет тили ўқитиш назарияси”. Бухара - 2016.
2. М. Ходжаев, М. Каххорова. “Чет тилини ўқитиш методикаси”. Тошкент - 2012.
3. Е. И. Пассов, Н. Е. Кузовлева. “Основы коммуникативной теории и технологии иноязычного образования”. Москва - 2010.
4. Saydalieva Nigora Faxritdinovna. “Чет тилларини ўқитишда коммуникатив ёндашув”. 2022.

PRENATAL VA ERTA CHAQALOQLIK RIVOJLANISHI VA RIVOJLANISHNING BIOLOGIK ASOSLARI

N. Mirbabayeva
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan hamda imkoniyati cheklangan bolalarni to‘laqonli ijtimoiy hayotga jalb etish, ularning shaxsiy salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalalari yoritilgan. Reabilitatsion xizmatlar, ta’lim va tarbiya jarayonlari orqali bolalarning ijtimoiy integratsiyasi va adaptatsiyasini ta’minlash mexanizmlari tahlil etilgan. Shuningdek, tibbiy, pedagogik va ijtimoiy reabilitatsiyaning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning erta bosqichlardan boshlab samarali tashkil etilishi muhimligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, tibbiy reabilitatsiya, integratsiya, pedagogik reabilitatsiya, adaptatsiya, prenatal davr, erta chaqaloqlik davri.

Abstract: This article examines the issues of ensuring a full social life for children with developmental disorders and children with disabilities, as well as creating the necessary conditions for the maximum realization of their potential. The mechanisms of social integration and adaptation through the implementation of rehabilitation services, education, and upbringing are analyzed. Particular attention is given to the interconnection between medical, pedagogical, and social rehabilitation and the importance of their effective organization from the early stages of child development.

Key words: children with developmental disorders, medical rehabilitation, integration, pedagogical rehabilitation, adaptation, prenatal period, early infancy.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы обеспечения детей с нарушениями развития и детей с инвалидностью полноценной социальной жизнью, а также создания необходимых условий для максимальной реализации их потенциала. Проанализированы механизмы социальной интеграции и адаптации посредством реализации реабилитационных услуг, образования и воспитания. Особое внимание уделено взаимосвязи медицинской, педагогической и социальной реабилитации, а также важности их организации с ранних этапов развития ребёнка.

Ключевые слова: дети с нарушениями развития, медицинская реабилитация, интеграция, педагогическая реабилитация, адаптация, пренатальный период, раннее младенчество.

KIRISH

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar reabilitatsiyasining zamonaviy konsepsiyasi bolaga nisbatan integrativ yondashuvni nazarda tutadi. Bunda nuqson tuzilishini kompleks baholash va funksional tashxis qo‘yish, ya’ni psixikaning buzilgan va saqlangan komponentlarini aniqlash, aqliy buzilishlarning nutq buzilishlari bilan o‘zaro aloqadorligini, shuningdek, emotsional-shaxsiy xususiyatlar hamda kommunikativ xulq-atvorni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompleks (tibbiy-psixologik-pedagogik) reabilitatsiya natijalarining sifat ko‘rsatkichlariga psixologik va boshqa funksional buzilishlarni bartaraf etish, motorikani rivojlantirish, nutqni korreksiya qilish, kommunikativ qobiliyatlarni tiklash hamda bolani jamiyatga integratsiyalash kiradi.

Logopedik reabilitatsiya rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik reabilitatsiyasi hamda ijtimoiy adaptatsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu o‘rinda ilk yoshdagi bolalarga nisbatan logopedik abilitatsiya masalasini alohida ta’kidlash zarur. U nutqiy funksiyani shakllantirish, yangi nutqiy imkoniyatlarni yaratish, kommunikativ faoliyatni normallashtirish hamda ijtimoiy salohiyatni oshirishga qaratilgan.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar kompleks reabilitatsiyasi va ijtimoiy adaptatsiyasining asosiy vazifalaridan biri nutq hamda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdir. Eshitmaydigan bolalarda nutq mustaqil ravishda shakllanmaydi. Ular nutqni tabiiy ravishda egallash imkoniyatiga ega emaslar va nutqning yetishmasligini mimika, daktilologiya, labdan o‘qish kabi muloqotning o‘ziga xos shakllari bilan to‘ldirishga harakat qiladilar.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy kamchiliklar turli xil bo'lib, tuzilishi va ifodalanish darajasi jihatidan murakkabdir. Bu holat nutqni shakllantirish jarayonining o'ziga xos murakkabligi bilan izohlanadi. Bunday bolalar bilan logopedik abilitatsiya bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Nutqning shakllanganlik darajasi hisobga olinib, rel'efli rasmlar, taktil sezgi uchun mo'ljallangan maxsus o'yinchoqlar to'plamidan foydalaniladi.

Intellekti buzilgan bolalarda nutqiy nuqsonlarning o'ziga xosligi va ularni korreksiya qilish jarayoni oliy nerv faoliyati hamda psixik rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi. Bunday bolalarda nutq buzilishi bilish faoliyatining qo'pol buzilishi va psixikaning umumiy anomal rivojlanishi fonida yuzaga keladi. Nutqiy faoliyat buzilishi ko'pincha sistemali xarakterga ega bo'lib, ularni tahlil qilishda differensial yondashuv talab etiladi va korreksiya jarayoni uzoq muddatli hamda izchil mehnatni talab qiladi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tibbiy reabilitatsiyasini amalga oshirishda erta namoyon bo'lgan serebral kamchiliklarni davolash muhim o'rin tutadi. Bunda fizioterapiya, fitoterapiya, psixoterapiya, davolovchi jismoniy tarbiya hamda umumiy sog'lomlashtiruvchi muolajalar qo'llaniladi. Hayot faoliyati imkoniyatlari cheklangan shaxslarning tibbiy reabilitatsiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- profilaktikani takomillashtirish;
- rivojlanishdagi nuqsonlarni erta aniqlash va diagnostika qilish;
- abilitatsiya hamda reabilitatsiya tadbirlarini takomillashtirish;
- tibbiy va korreksion-ta'limiy jarayonlar o'rtasidagi hamkorlik sifatini oshirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korreksion pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri - bolalardagi nuqsonlarni korreksiya qilishdan tibbiy-psixologik-pedagogik reabilitatsiyaga o'tish hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni ularning ruhiy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy hayotga moslashtirishdir. Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy adaptatsiya nuqtai nazaridan eng murakkab guruhlardan biri hisoblanadi. Ularning moslashish imkoniyatlari ruhiy va jismoniy sog'lig'idagi buzilishlar, ijtimoiy tajribaning cheklanganligi hamda ayrim hollarda noqulay oilaviy-iqtisodiy sharoitlar sababli pasaygan bo'lishi mumkin.

N. I. Xvorostyanova (2001) ta'kidlashicha, nogiron bolaning moslashish imkoniyatlariga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi:

1. **Jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklar.** Nogiron bolalar ko'pincha nogironlikka bevosita bog'liq bo'lmagan kasalliklarga ham duch keladilar. Nutq, eshitish va umumiy motorika buzilishlari muloqot uchun jismoniy imkoniyatlarni cheklaydi.
2. **Muloqot uchun psixologik imkoniyatlarning yetishmasligi.** Yopiq muassasalarda yoki noqulay oilaviy sharoitda tarbiyalanish, uyda ta'lim olish, tengdoshlarning ehtiyotkorona munosabati va kattalarning ortiqcha himoyasi bolalarda ruhiy va ijtimoiy infantilizm shakllanishiga olib kelishi mumkin.
3. **Maxsus ehtiyojlarni qondirish uchun zarur moddiy vositalarning yetishmasligi.** Eshitish apparatlari, maxsus moslamalar va boshqa yordamchi vositalarning yetarli emasligi, shuningdek, jamiyatdagi arxitektura va psixologik to'siqlar bolaning ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini cheklaydi.

Ijtimoiy muhitga moslashish uchun zarur faoliyat turlarini egallash, ijtimoiy rollar, xulq-atvor normalari va qoidalarni o'zlashtirish imkoniyatining cheklanishi ijtimoiy yetishmovchilik holatini yuzaga keltiradi. Bu esa nogiron bolaning ijtimoiy qiyinchiliklarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

N. I. Xvorostyanova insonning adaptiv salohiyatini ijtimoiy hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashishga xizmat qiluvchi jismoniy va ruhiy imkoniyatlar majmui sifatida talqin qiladi. U aqliy va kommunikativ qobiliyatlar, shaxsiy sifatlar hamda ijtimoiy bilim va ko'nikmalar yig'indisini adaptiv potensialning tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko'rsatadi.

Ye. M. Mastyukova (1997) davolovchi pedagogikani rivojlanishdagi turli nuqsonlar, ruhiy-asab va somatik buzilishlarni davolash hamda korreksiya qilishga qaratilgan tizimli davolovchi-pedagogik tadbirlar majmui sifatida izohlaydi. Uning fikricha, davolovchi pedagogikaning muhim vazifalaridan biri - bolalarda buzilgan funksiyalarni korreksiya qilish uchun maxsus individual va guruh metodlarini ishlab chiqish, shuningdek, oilaviy tarbiya va oilaviy psixoterapiya dasturlarini takomillashtirishdir.

Erta boshlangan va tizimli ravishda olib borilgan ta'lim hamda davolovchi-korreksion tadbirlar imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Rivojlanish xususiyatlari turlicha bo'lishiga qaramay, bunday bolalarda ayrim umumiy qiyinchiliklar kuzatiladi. Jumladan, past aqliy ish qobiliyati, diqqat va xotira konsentratsiyasining yetishmasligi, nutqiy rivojlanishda orqada qolish, hissiy-irodaviy sohaning yetilmaganligi, atrof-muhit haqidagi tasavvur va bilimlar zaxirasining cheklanganligi, motor funksiyalarning yetarli rivojlanmaganligi hamda fazoviy tasavvurlar rivojlanishida orqada qolish holatlari uchraydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning keyingi rivojlanishida nafaqat anomal rivojlanish xarakteri, balki davolovchi-korreksion va rivojlantiruvchi tadbirlarning boshlanish vaqti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda aniqlanishicha, erta boshlangan va tizimli ravishda olib borilgan davolovchi-pedagogik korreksion tadbirlar bolalarning rivojlanishiga, ta’lim olishiga hamda ijtimoiy adaptatsiyasiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan tibbiy-psixologik-pedagogik va korreksion tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy prinsiplarga rioya qilish muhimdir:

1. **Bolalar huquqlarini ta’minlash.** Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyada mustahkamlangan me’yorlarga asoslanib, bolaning shaxsiyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutuvchi ta’lim olish huquqini amalga oshirishga intilish zarur. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning huquqlari ularning individualligini saqlagan holda ta’minlanishi lozim.
2. **Individual yondashuv.** Korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarga barcha bolalarni, jumladan, rivojlanishida ko‘p nuqsonlari bo‘lgan bolalarni ham jalb etish zarur. Bu har bir bola uchun individual rivojlanish va korreksiya dasturini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.
3. **Individual dinamikani baholash.** Bolaning rivojlanish ko‘rsatkichlarini boshqa bolalar bilan emas, balki uning oldingi bosqichdagi natijalari bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.
4. **Psixologik qulay muhit yaratish.** Bola uchun do‘stona atmosfera yaratish, psixologik xavfsizlik hissini shakllantirish, uning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni tushungan holda munosabatda bo‘lish muhimdir. Har bir bolaning psixik va shaxsiy rivojlanishidagi ijobiy jihatlarni aniqlash va mustahkamlash pedagogik ishning muhim vazifasidir.
5. **Insonparvar baholash.** Bolaning rivojlanish dinamikasini to‘g‘ri va insonparvarona baholab, uning keyingi rivojlanish va ijtimoiy adaptatsiya imkoniyatlarini aniq tasavvur qilish zarur.
6. **Sabr-toqatli munosabat.** Barcha bolalarga, jumladan, jismoniy jihatdan sust yoki hissiy jihatdan ta’sirchan bolalarga nisbatan bir xil sabr-toqat bilan yondashish talab etiladi.
7. **Faoliyat gigiyenasini tashkil etish.** Har bir bola uchun aqliy va jismoniy faoliyat gigiyenasini to‘g‘ri tashkil etish dasturini ishlab chiqish zarur. Bu bolalarning tez charchashining oldini olish va kun tartibiga rioya qilish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.
8. **Kasbiy etikaga rioya qilish.** Mutaxassislar kasbiy axloq qoidalariga qat’iy rioya etishlari kerak. Har bir bolaning tashxisi va prognozi kasbiy sir sifatida saqlanishi lozim.
9. **Emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.** Bolalarning aqliy va hissiy rivojlanishini ularning quvonch, xotirjamlik kabi ijobiy psixik holatlariga tayangan holda rag‘batlantirish zarur. Shuningdek, bolaning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirish muhimdir.
10. **Mustaqil baholash ko‘nikmasi.** Bolani doimiy va tizimli ravishda o‘z faoliyatini mustaqil baholashga o‘rgatish zarur.
11. **Faoliyat turlarini egallash.** Bolaga turli faoliyat turlaridan foydalanish malakalarini sabr bilan o‘rgatish lozim. Bu jarayonda bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tish, topshiriqlarni ijodkorlik va tashabbuskorlik bilan bajarishga undash muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion ishlarni olib borishda turli faoliyat turlariga tayangan holda muhim usul va metodlardan foydalanish lozim. O‘yin, elementar mehnat hamda samarali faoliyat turlaridan foydalaniladi. Biroq ushbu yosh bosqichining yetakchi faoliyati sifatida o‘yinga alohida e’tibor qaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ruhiy faoliyatning rivojlanishi normal bolalarda ham, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ham umumiy qonuniyatlarga asoslanadi: idrok va tasavvurdan ko‘rgazmali-amaliy hamda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurga, undan esa ongli tafakkur elementlariga o‘tish kuzatiladi. Ushbu jarayonlarning barchasida nutq asosiy o‘rin egallaydi. L. S. Vigotskiy ta’kidlaganidek, nutq ma’lumot uzatish, ijtimoiy xulqni shakllantirish va atrofdagilarga ta’sir ko‘rsatish funksiyasini bajaradi hamda fikrni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Nutq barcha faoliyatlarni amalga oshirishning zaruriy sharti va muhim komponenti, bilimlarni egallash vositasi hamda bolaning o'qitilishi va rivojlanishining muhim omilidir. Nutq ruhiy jarayonlarni qayta tashkil etadi: uning ishtiroki bilan idrok umumlashgan xarakterga ega bo'ladi, tasavvur rivojlanadi, xotira takomillashadi. Nutqning xulq-atvorni boshqarishdagi roli ayniqsa muhimdir. Bola doimiy muloqot va birgalikdagi faoliyat jarayonida nutqni egallab boradi, bu esa nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni rag'batlantiradi.

Nutqiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq tizimining ayrim bo'limlari yoki butun tizimi buzilishi natijasida nutqiy ko'nikma va malakalarning bosqichma-bosqich shakllanishi murakkablashadi. Bu muloqot vositalarining yetishmovchiligini kuchaytiradi hamda zarur nutqiy tajribani egallash imkoniyatini cheklaydi. Zarur korreksion tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa, intellektual rivojlanish sur'ati sekinlashishi mumkin. Bu esa atrofdagilar bilan muloqotning yetarli darajada shakllanmasligi va tasavvur doirasining cheklanishi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007
2. Defektologiya. S.Isamitdinov. T-Fan. 2007 y.
3. Maxsus psixologiya. L.Mo'minova. O'zbekiston. 2013 y.
4. Muminova L., Ayupova M. Logopediya. T.: O'qituvchi 1993 y.

O‘SMIR SHAXSINING RIVOJLANISHI



Matyakubova Shohista Odamboy qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti, katta o‘qituvchi
https://orcid.org/0009-0006-1057-8959

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smir shaxsining rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillar hamda o‘smirlik davrining fiziologik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘smirlik davrining mazmuni va chegaralari turli ilmiy maktablar va olimlar qarashlari asosida yoritiladi. Shuningdek, ushbu davrning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, shaxs shakllanishidagi roli hamda bolalik va yetuklik o‘rtasidagi o‘tish bosqichi sifatidagi o‘rni ilmiy nuqtayi nazardan muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, yetuklik, bolalik, kartezian bo‘linish, dikotomiya, temperament, shaxs rivojlanishi, potensial.

Abstract: This article analyzes the key factors influencing the development of adolescent personality and examines the significance of physiological and psychological characteristics of adolescence. Various scientific interpretations of adolescence presented in the works of different scholars are reviewed. Particular attention is given to the socio-psychological features of this developmental stage and its role as a transitional period between childhood and maturity.

Key words: adolescence, maturity, childhood, Cartesian division, dichotomy, temperament, personality development, potential.

Аннотация: В данной статье анализируются факторы, оказывающие существенное влияние на развитие личности подростка, а также рассматривается значимость физиологических и психологических особенностей подросткового возраста. Раскрываются различные научные подходы к интерпретации подросткового периода в трудах отечественных и зарубежных исследователей. Особое внимание уделяется социально-психологическим характеристикам данного возраста и его роли как переходного этапа между детством и зрелостью.

Ключевые слова: подростковый возраст, зрелость, детство, декартово деление, дихотомия, темперамент, развитие личности, потенциал.

KIRISH

O‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarning xulq-atvor xususiyatlari o‘ziga xosdir. O‘smirlik 10–11 yoshlardan 14–15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni va psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. “Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas” - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi.

O‘smirlik - bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi va yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli murakkab masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlarda o‘smirlik davrida o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi ham ichki psixologik omillar, ham tashqi ijtimoiy ta’sirlar bilan shakllantirilishi ta’kidlangan. Eriksonning o‘smirlik davridagi o‘ziga xoslik inqirozi konsepsiyasi shuni ko‘rsatadiki, bu inqirozni hal qilish izchil o‘zini rivojlantirish uchun markaziy o‘rin tutadi.

Lerner, Richard M.ning Handbook of Adolescent Psychology (Richard M. Lerner and Laurence Steinberg, 2-nashr) kitobida o‘smirlik davrining o‘ziga xos xususiyatlari hamda fanda “o‘smirlik” tushunchasining ilk bor qo‘llanilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan.

Erik Erikson - psixolog, o'zining shaxsiyat rivojlanish bosqichlari haqidagi nazariyasi bilan mashhur. Erikson o'smirlik davrini "identifikatsiya va rolni izlash" bosqichi deb atagan. U o'smirlarning o'zligini aniqlash, o'zgarishlarga moslashish va jamiyatdagi o'rnini topishdagi qiyinchiliklarni psixokorreksion faoliyat orqali bartaraf etish zarurligini ta'kidlagan. Eriksonning nazariyasi o'smirlik davrida psixologik maslahatlar va terapiyalar olib borishning ahamiyatini oshiradi.

Jan Piaje - psixolog va pedagog, o'smirlik davridagi psixologik rivojlanishning asosiy nazariyasini ishlab chiqqan. Piaje bolaning kognitiv rivojlanish bosqichlarini o'rganish bilan shug'ullangan. U o'smirlik davrini "formal operatsiyalar davri" deb nomlab, bu davrda shaxsning o'zlikni anglash, abstrakt fikrlash va idealistik qarashlari shakllanishi yuz beradi, degan. Piajeninng tadqiqotlari o'smirlikdagi psixokorreksion faoliyatni rejalashtirishda asosiy yondashuvlarni shakllantirgan.

Lev Vigotskiy - sovet psixologi, o'smirlar va bolalar psixologiyasi sohasidagi muhim tadqiqotchilardan biri. Vigotskiy o'smirlarning kognitiv rivojlanishini ijtimoiy va madaniy kontekstda o'rganib, "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini kiritgan. Bu tushuncha o'smirning rivojlanish imkoniyatlarini, bilish va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam ko'rsatish kerakligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Vigotskiy yondashuvi o'smirlarning o'zaro muloqotda o'rganishini ta'minlash va ular bilan psixokorreksion ish olib borishda ijtimoiy interaksiyalarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Sergey Leonidovich Rubinshteyn - taniqli sovet psixologi va faylasuf bo'lib, zamonaviy psixologiya va pedagogikaga katta hissa qo'shgan olimdir. L.S. Rubinshteyn konsepsiyasidan olingan bevosita va vositachilik tamoyillari shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilashi va boshqalar tomonidan belgilanishining birligini ta'kidlaydi hamda ularni shaxsni rivojlantirishda ta'lim makonining vositachilik funksiyasi bilan bog'laydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi metodologik asos bo'ldi. Birinchidan, bu psixologiyaning markaziy vositachilik fakti degan pozitsiya bo'lib, uni hisobga olmasdan turib insonning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini va harakatlarining mohiyatini anglash mumkin emas. Ikkinchidan, har qanday vositachi (so'z, ramz, belgi, afsona va boshqalar) dastlab interpsixik sohada, keyin esa intrapsixik sohada amal qiladi. Uchinchidan, bevosita va vositachilik tamoyillari shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilashi hamda boshqalar tomonidan belgilanishi birligini hisobga oladi [1].

Madaniy-tarixiy psixologiyaning ushbu qoidalarini tushungan holda, biz L.S. Rubinshteyn konsepsiyasidan olingan bevosita va vositachilik tamoyillarini, shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilashi va boshqalar tomonidan belgilanishi birligini hisobga oldik. Rubinshteyn ularni shaxsni rivojlantirishda ta'lim makonining vositachilik funksiyasi bilan bog'laydi [2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'smirlik davrida o'zini o'zi anglashni o'rganish uchun ilmiy yondashuvlarni birlashtirish va ularni yanada chuqurroq o'rganish zarur. Kognitiv, sotsial va emotsional omillarning o'zaro ta'siri orqali o'smirlarning rivojlanishini tushuntirishda keng qamrovli tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, turli madaniy kontekstlarda rivojlanishning o'ziga xos tomonlarini o'rganish kelajak tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi bo'lishi kerak.

O'smirlik davrida o'zini o'zi anglashning rivojlanishi kognitiv o'sish, hissiy rivojlanish va ijtimoiy ta'sirni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Kognitiv-rivojlanish nazariyasi, psixoanalitik yondashuvlar va ijtimoiy soha nazariyasi o'smirlarning o'ziga xosligini shakllantirish haqida qimmatli fikrlarni taklif qiladi, biroq ushbu nuqtai nazarlarni birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuv eng keng qamrovli tushunchani beradi.

Kelajakdagi tadqiqotlar madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarning rivojlanishga ta'sirini alohida o'rganishi, kognitiv, hissiy va ijtimoiy omillarning kesishuvini chuqur tahlil qilishi lozim. Amaliy nuqtai nazardan, ochiq muloqot, hissiy savodxonlik va ijobiy tengdoshlar bilan munosabatlarni ta'kidlaydigan ta'lim hamda ota-onalik strategiyalari o'smirlarda sog'lom rivojlanishga yordam beradi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni ta'minlashda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni o'smir sifatida o'zini anglashiga sharoit yaratish va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Психология развития человека. –М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. –С. 665.
2. Рубинштейн С.Л. Человек и мир // Методологические и теоретические проблемы психологии. –М.: Наука, 1989. –С.148-374.
3. Lerner, Richard M. Handbook of adolescent psychology / Richard M. Lerner and Laurence Steinberg.2nd ed 17-b]
4. Sternberg, Robert J.(2009). Cognitive Psychology. Belmont, California: Wadsworth Cengage Learning.pp449-457

O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY VA MADANIY HAYOTIDA JADIDLARNING TUTGAN O‘RNI

N. M. Qodirova
Yangi asr universiteti
“Umumta’lim fanlari” kafedrasi v.b. dotsenti, PhD

Annotatsiya: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar milliy uyg‘onish jarayonini boshlab berdi. Ayniqsa, chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati mahalliy aholi turmush tarziga, ta’lim tizimiga va madaniy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu murakkab tarixiy sharoitda shakllangan jadidchilik harakati O‘zbekiston hududida ma’naviy va madaniy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Jadidlar jamiyatni isloh qilish, xalqni ma’rifatli qilish, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish hamda zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Jadidlarning ta’lim islohotlari, yangi usul maktablarining tashkil etilishi, yoshlar ongida ma’rifiy uyg‘onishning kuchayishi, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish borasidagi faoliyati yoritilgan. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va boshqa jadid namoyondalarining pedagogik hamda ma’naviy qarashlari, shuningdek, ularning bugungi ta’lim islohotlari bilan uyg‘unligi tahlil etilgan. Jadidlar merosi zamonaviy O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin tutishi, ular targ‘ib qilgan ma’rifatparvarlik, yangilikka ochiqlik va madaniy uyg‘onish g‘oyalari bugungi yoshlar hayotida ham davom etayotgani namoyon etilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, meros, teatr, sahna, Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, madaniyat, yoshlar, tarbiya, ayol-qizlar, ta’lim, islohot, g‘oyalar, ziyoli.

Abstract: The profound socio-political transformations that occurred in Turkestan in the late 19th - early 20th centuries initiated a process of national awakening. In particular, the colonial policy of Tsarist Russia had a significant impact on the lifestyle of the local population, the education system, and cultural life. In this complex historical context, the Jadid movement emerged as an important factor in the spiritual and cultural development of the territory of present-day Uzbekistan. The Jadids set as their primary goal the reform of society, the enlightenment of the people, the strengthening of national identity, and advancement toward modern development. The article highlights the educational reforms carried out by the Jadids, the establishment of new-method schools, the growth of intellectual awakening among youth, and their efforts to foster national identity, patriotism, and a modern worldview. It analyzes the pedagogical and spiritual views of prominent Jadid representatives such as Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, and Abdurauf Fitrat, as well as the relevance of their ideas to contemporary educational reforms. The study demonstrates that the legacy of the Jadids occupies an important place in the spiritual and moral upbringing of modern Uzbek youth. The principles they promoted - enlightenment, openness to innovation, and cultural revival - continue to shape the lives and worldview of young people in contemporary Uzbekistan.

Key words: Jadidism, legacy, theater, stage, New Uzbekistan, spirituality, culture, youth, upbringing, women and girls, education, reform, ideas, intellectual.

Аннотация: Конец XIX - начало XX века в общественно-политической жизни Туркестана ознаменовались глубокими преобразованиями, положившими начало процессу национального пробуждения. В частности, колониальная политика царской России оказала существенное влияние на образ жизни местного населения, систему образования и культурную жизнь. В этих сложных исторических условиях джадидское движение стало важным фактором духовного и культурного развития на территории современного Узбекистана. Джадиды ставили своей основной целью реформирование общества, просвещение народа, укрепление национальной идентичности и продвижение по пути современного развития. В статье освещаются образовательные реформы джадидов, создание школ нового метода, усиление просветительского подъёма в сознании молодёжи, формирование национального самосознания, патриотизма и современного мировоззрения. Анализируются педагогические и духовные взгляды таких видных представителей джадидизма, как Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдурауф Фитрат, а также их созвучие современным образовательным реформам. Показано, что наследие джадидов занимает важное место в духовно-нравственном воспитании современной молодёжи Узбекистана, а провозглашённые ими идеи просветительства, открытости к новшествам и культурного возрождения продолжают оказывать влияние на жизнь молодого поколения.

Ключевые слова: джадидизм, наследие, театр, сцена, Новый Узбекистан, духовность, культура, молодёжь, воспитание, женщины и девушки, образование, реформы, идеи, интеллигенция.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston zaminida shakllangan jadidchilik harakati o‘zbek xalqi tarixida eng muhim ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish bosqichlaridan biri bo‘ldi. Jadidlar harakati nafaqat ta’lim, madaniyat va siyosiy ong rivojiga, balki yosh avlod dunyoqarashi shakllanishiga ham ulkan ta’sir ko‘rsatdi. Bugungi O‘zbekiston yoshlari erkin fikrlashi, bilimga intilishi, milliy g‘urur va o‘zlikni anglashida jadidlar merosining o‘rni beqiyosdir.

Jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Sadriddin Ayniy va boshqalar – xalqni jaholatdan ma’rifat sari yetaklashni o‘z oldilariga maqsad qilgan ziyolilardandir. Ular yoshlarni tarbiyalash, ta’lim tizimini yangilash va milliy uyg‘onish g‘oyalarini yoyish orqali kelajak avlodning mustahkam ma’naviy poydevorini yaratganlar. Jadidlar faoliyati maktab va madrasalardagi eski usul ta’limni isloh qilish, “usuli jadid” maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish hamda matbuot orqali ijtimoiy ongni uyg‘otish kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ldi. Ularning pedagogik qarashlari yoshlarni zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayangan holda, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni ko‘zda tutgan. Shu bois jadidchilik harakati nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotimizning muhim g‘oyaviy manbai sifatida ham ahamiyatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo‘lib, xalqning siyosiy va madaniy hayoti cheklangan, ta’lim tizimi esa qoloq holatda edi. Eski maktab-madrasalarda diniy bilimlar ustun bo‘lib, dunyoviy fanlar o‘qitilmas edi. Shu sharoitda zamonaviy islohotlarga xalqning ehtiyoji paydo bo‘ldi. Aynan shu sababli jadidchilik harakati boshlandi. Jadidlar yoshlar tarbiyasiga zamonaviy maktablar ochish, yangi o‘qitish usullarini joriy etish, milliy va jahon adabiyotlaridan foydalanish hamda yoshlarda vatanparvarlik, milliy ong va zamonaviy tafakkurni shakllantirish orqali katta hissa qo‘shdilar. Ular ta’lim-tarbiyani millat va davlat taraqqiyoti uchun muhim vosita deb hisobladilar. Jadidlar an’anaviy maktablar o‘rniga zamonaviy o‘qitish usullariga asoslangan yangi usul maktablarini tashkil etdilar.

Bu maktablarda o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan bir qatorda jahon fanlari, matematika, geografiya kabi fanlar ham o‘qitildi. Ular ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida yangi o‘qitish metodikasini ishlab chiqdilar. Bu metodika o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va ijodiy yondashuvga o‘rgatishni ko‘zda tutdi. Jadidlar yoshlarning ma’naviy va intellektual rivojlanishi uchun milliy hamda jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari, shuningdek, ilmiy-ommabop asarlardan foydalanishni targ‘ib qildilar. Yuksak vatanparvarlik ruhini va milliy ongni shakllantirish bilan birga, yoshlarning zamonaviy tafakkurga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratdilar. Ular yoshlarni ilm-fanni o‘rganishga va taraqqiyotga erishishga undadilar. Munavvar qori Abdurashidxonov “Adabiyot”, “Tarix” kabi asarlari orqali o‘quvchilarga adabiyot va tarixni sodda va tushunarli tilda yetkazdi. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiya, til va ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor berdi, oddiy tilda yozilgan darsliklari orqali yoshlar dunyoqarashini shakllantirdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Muxtasar geografiya” kabi asarlari bilan geografiya va boshqa fanlarni mahalliy tilga mos va tushunarli tarzda bayon etdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Madaniy yangilanish: jadid maktablarida ta'lim olgan yoshlar gazeta, jurnal, kutubxona va jamiyatlar tashkil etishda faol bo'lib, ma'rifat hamda tilni rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. Ijtimoiy o'zgarishlarga tayyorlik: bu yoshlar yangi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini oshirdilar, ishchi, o'qituvchi, jurnalist va boshqa kasblarda faoliyat ko'rsatdilar. Ilmiy yo'nalishlar: tabiat va texnika fanlariga qiziqishning ortishi keyingi avlodlar orasida ilm-fan rivojiga turtki bo'ldi. Ularning nazarida o'quvchilarga faqat diniy bilimlar emas, balki kundalik hayot uchun zarur fanlar – matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya hamda til (o'qish-yozish) ham o'rgatilishi lozim edi.

Yangi usul maktablarida o'qigan yoshlar fikrlashga moyil, zamonaviy ilmga intiluvchan, jamiyatni yangilashda faol avlod sifatida yetishib chiqdilar. Ular keyinchalik ma'rifat, matbaa, gazeta va jamiyat tashkilotlari orqali o'z ta'sirini ko'rsatdilar. Matbuotning ma'naviy tarbiyadagi roli. Jadidlar birinchi o'zbek gazeta va jurnallarini yaratdilar: "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", "Hurriyat", "Najot", "Oyna". Ushbu nashrlarda yoshlarni ilmga chorlovchi maqolalar, milliy ozodlik, ta'limning ahamiyati va jaholatdan qutulish haqidagi fikrlar yoritilgan. Mazkur matbuot yoshlar orasida yangicha fikrlash madaniyatini shakllantirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Teatr va adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati. Jadidlarning yoshlar ongiga ta'siri teatr orqali ham namoyon bo'lib, ular yashab turgan ijtimoiy holatni, jaholat va ilmsizlikni ochiq ko'rsatib berdilar. 1911-yildan boshlab Behbudiy va Fitrat tomonidan sahnalashtirilgan spektakllar xalqning siyosiy va ma'naviy ongini yuksaltirdi. Eng mashhurlaridan biri – Behbudiyning "Padarkush" dramasi – o'zbek teatr san'atining shakllanishida muhim qadam bo'ldi hamda teatr sahnalarida yoshlarni adolat, ilm, hunar va axloqiy poklikka chorlovchi maktab vazifasini bajardi. Teatrning tarbiyaviy ahamiyati XX asr boshlarida - ayniqsa 1910-1920-yillar oralig'ida - yanada kuchaydi. Jadid ziyolilari teatr san'atini xalqni uyg'otuvchi, millatni taraqqiyotga boshlovchi eng kuchli vosita sifatida ko'rdilar. O'sha davrda savodsizlik keng tarqalgan, siyosiy ong past va ijtimoiy adolatsizlik kuchli bo'lgan sharoitda teatr xalqni birlashtiruvchi, voqelikni tushuntiruvchi "birinchi ommaviy maktab" vazifasini bajardi. Jadidlar o'z davrining ma'rifatparvar ziyolilari sifatida millat taraqqiyoti va kelajagi ayol-qizlarning bilimli bo'lishiga bevosita bog'liq ekanini ta'kidladilar. Ularning asosiy fikriga ko'ra, ayol – oila va jamiyatning markazi bo'lib, agar u savodsiz bo'lsa, butun millat taraqqiyoti ortda qoladi. Behbudiy ayol-qizlarning ta'lim olishini targ'ib qilgan va o'z mablag'lari hisobidan Toshkentda ayollar uchun maktab ochgan. Avloniy asarlarida ayol-qizlarning savodsizligi millat rivojiga to'siq ekanini ochiq ko'rsatgan. Fitrat ham o'z asarlarida ayolning jamiyatdagi o'rni va ta'lim zarurligini yoritgan. Jadidlar g'oyalaridan ilhomlanib, bir qancha qizlar maktablari tashkil etildi. Bu maktablarda nafaqat diniy bilimlar, balki zamonaviy fanlar, adabiyot, tarix va boshqa fanlar o'qitildi. Natijada ayol-qizlar bilimli bo'lib, o'z huquqlari va jamiyatdagi o'rnini anglay boshladilar.

Ta'lim olgan ayollar keyinchalik o'qituvchi, shifokor, yozuvchi va ma'rifatparvar sifatida faoliyat yurita boshladilar. Ular oilaviy hayotda nafaqat uy bekasi, balki tarbiyachi va jamiyatning faol a'zosi sifatida ham ishtirok etdilar. Bu esa ayol-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faoliyatda qatnashishiga imkon yaratdi. Jadidlar davrida boshlangan ayol-qizlar ta'limi va faoliyati bugungi kunda ularning kasb-hunari, ilmiy faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi roliga mustahkam asos bo'ldi. Hozirgi kunda ayol bilimli, mustaqil va jamiyat rivojiga hissa qo'shuvchi shaxs sifatida qadrlanadi. Shu tariqa, jadidlar davridagi ma'rifiy kurash zamonaviy ayolning o'rni va mavqeini shakllantirishga katta hissa qo'shdi. Jadidlar faoliyati bugungi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va madaniy hayotida beqiyos o'rin tutadi. Ularning maqsadi faqat maktab ochish yoki kitob yozishdan iborat emas edi. Jadidlar millat kelajagini yoshlar ta'limida deb bildilar va shu yo'lda butun umrlarini sarfladilar. Aynan ular tufayli zamonaviy ta'limning dastlabki tamoyillari shakllana boshladi, yosh avlodning dunyoqarashi kengaydi va milliy o'zlikni anglash jarayoni tezlashdi. Bugungi yoshlarning erkin fikrlashi, yangilikka intilishi, ma'rifatga bo'lgan qiziqishi - bularning barchasi jadidlar boshlab bergan ma'naviy uyg'onishning davomidir. Ularning vatanparvarlik, millatparvarlik, adolat va ma'rifatga chorlovchi g'oyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Aksincha, "Yangi O'zbekiston" jarayonlarida bu tamoyillar yangicha mazmun kasb etib, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda, jadidlarning merosi biz uchun nafaqat tarixiy xotira, balki amaliy yo'l-yo'riqdir. Ular ko'zlagan maqsad - ilmli, zamonaviy fikrlaydigan, milliy g'ururga ega yoshlarni voyaga yetkazish - bugungi kunda izchil davom etmoqda. Demak, jadidlar qoldirgan ma'naviy boylik har bir yosh uchun ibrat manbai bo'lib, ularni yanada faol, mas'uliyatli va maqsadli bo'lishga undaydi. Abdulla Avloniy esa "Turkiy guliston yoxud axloq" asari orqali yosh avlodni axloqiy va ma'naviy barkamollikka da'vat etdi. U ta'lim-tarbiyani millat ravnaqi bilan bevosita bog'lab talqin qildi. Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda yangi usul maktablarini tashkil etib, o'qituvchilar tayyorlash ishiga katta hissa qo'shdi. Jadid maktablarida geografiya, tarix, matematika va tabiiyot kabi fanlar o'qitilishi yoshlarning dunyoqarashini kengaytirdi. Jadidlar

milliy matbuotning shakllanishiga asos soldilar. Gazeta va jurnallar orqali xalqni ijtimoiy-siyosiy voqealardan xabardor qilish, milliy ongni uyg'otish, mustaqillik va taraqqiyot g'oyalarini targ'ib qilishga harakat qildilar.

Afsuski, 1920-1930-yillarda sovet hokimiyati tomonidan jadidlar "xalq dushmani" sifatida qatag'on qilindi. Ko'plab ziyolilar qamoqqa olindi yoki qatl etildi. Bu holat milliy ma'naviyat rivojiga katta zarba bo'ldi. Shunga qaramay, jadidlar merosi xalq xotirasida saqlanib qoldi. Mustaqillik yillarida jadidlar faoliyati qayta baholanib, ularning nomlari tiklandi. Asarlari nashr qilinib, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jadidlar ilgari surgan ma'rifat, milliy o'zlikni anglash, erkinlik va taraqqiyot g'oyalari bugungi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham o'z aksini topmoqda. Respublikamizda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash kabi vazifalar jadidlar orzu qilgan maqsadlar bilan hamohangdir. Ularning ilmiy va badiiy merosi yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik va ma'rifatparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jadidlar merosi Yangi O'zbekistonning ma'naviy-madaniy hayotida g'oyaviy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bebaho boylikdir. Ular ilgari surgan ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, erkinlik va taraqqiyot g'oyalari bugungi davlat siyosati hamda jamiyat taraqqiyoti bilan mushtarakdir. Jadidlar merosi nafaqat tarixiy xotira, balki zamonaviy taraqqiyotning mustahkam ma'naviy asosidir. Ularning g'oyalari asosida shakllangan milliy ong va ma'naviy qadriyatlar Yangi O'zbekistonni barqaror hamda izchil rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Behbudiy. "Tanlangan asarlar". Toshkent: Ma'naviyat, 2011.
2. Qosimov A. "Jadidlar harakati va milliy uyg'onish". Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
3. Mingbiyev B. "Jadidchilik: tarix va meros". Toshkent: Nishon nashriyoti, 2018.
4. Xolboyev S. "Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov" (ilmiy-ommabop). Toshkent, 2024.
5. Olim Oltinbek. "Jadidlar. Abdulla Avloniy" (ilmiy-ommabop). Toshkent, 2024.
6. Abdurashidxonov M. "Munavvar qori va jadidchilik harakati". Toshkent: Akademnashr, 2019.
7. Rashidov Q. "O'zbek jadidchiligi tarixi". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES THROUGH THE USE OF SPECIAL PHYSICAL EXERCISES WITH STUDENT PARTICIPATION

Rikhsiev Dilshod Shavkatovich
Tashkent state medical university family physician No. 1 senior lecturer of the department of physical education and civil protection

Abstract: The article examines the theoretical and methodological foundations for developing students' physical qualities through the use of special physical exercises. The features of developing strength, endurance, speed, flexibility, and coordination abilities within the educational process of a higher education institution are outlined. The principles of structuring classes, load dosage, and pedagogical control are analyzed. The necessity of the systematic application of special exercises as an effective means of strengthening health, increasing work capacity, and fostering stable motivation for physical education is substantiated.

Key words: physical qualities, special exercises, students, physical education, strength, endurance, flexibility, coordination, educational process.

Annotatsiya: Maqolada maxsus jismoniy mashqlar yordamida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari ko'rib chiqilgan. Oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayoni doirasida kuch, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik va muvofiqlashtirish (koordinatsiya) qobiliyatlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Mashg'ulotlarni tashkil etish tamoyillari, yuklamalarni me'yorlash va pedagogik nazorat masalalari tahlil qilingan. Salomatlikni mustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish hamda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantirishning samarali vositasi sifatida maxsus mashqlarni tizimli ravishda qo'llash zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy sifatlar, maxsus mashqlar, talabalar, jismoniy tarbiya, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, muvofiqlashtirish, o'quv jarayoni.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и методические основы развития физических качеств студентов с использованием специальных физических упражнений. Раскрываются особенности формирования силы, выносливости, быстроты, гибкости и координационных способностей в условиях образовательного процесса высшего учебного заведения. Анализируются принципы построения занятий, дозирования нагрузки и педагогического контроля. Обосновывается необходимость систематического применения специальных упражнений как эффективного средства укрепления здоровья, повышения работоспособности и формирования устойчивой мотивации к занятиям физической культурой.

Ключевые слова: физические качества, специальные упражнения, студенты, физическое воспитание, сила, выносливость, гибкость, координация, образовательный процесс.

INTRODUCTION

Modern conditions of study in higher education institutions are characterized by a high mental workload, limited motor activity, and an increasing incidence of functional disorders among students. Physical inactivity, stress factors, and noncompliance with work and rest schedules negatively affect the health of young people. In this regard, the issue of the purposeful development of physical qualities through physical education is particularly relevant. Physical qualities are among the most important characteristics of an individual's physical fitness. Their development contributes not only to strengthening health but also to increasing overall work capacity, enhancing resistance to adverse environmental factors, and fostering the formation of a harmoniously developed personality.

The purpose of this study is to analyze the significance of special physical exercises in the development of students' physical qualities and to substantiate methodological approaches to their application in the educational process. The main physical qualities include strength, endurance, speed, flexibility, and coordination abilities. They are interrelated and are formed through systematic motor activity.

LITERATURE REVIEW

Strength characterizes the ability of muscles to overcome or counteract external resistance. Endurance reflects the body's capacity to perform physical work over an extended period without a decline in efficiency. Speed is determined by the rapid execution of movements and the reaction to external stimuli. Flexibility characterizes joint mobility, while coordination abilities ensure the accuracy, consistency, and rationality of movements. The development of physical qualities in students should be based on age-related characteristics, the level of physical preparedness, and health status.

Special physical exercises occupy an important place in the system of students' physical education and represent an effective means of the purposeful development of physical qualities. Their role is determined by the possibility of selectively influencing specific functional systems of the body and particular muscle groups, thereby providing a deeper and more controlled training effect compared to general developmental exercises.

RESEARCH METHODOLOGY

In the context of modern education, characterized by high intellectual load and reduced motor activity, special exercises acquire particular significance. They help compensate for the lack of movement, prevent physical inactivity, and form an optimal level of physical preparedness among students. One of the key functions of special exercises is the development of individual physical qualities, taking into account students' individual characteristics. For example, strength-oriented exercises strengthen the muscular corset, increase the spine's resistance to static loads, and promote correct posture.

Endurance exercises improve the functioning of the cardiovascular and respiratory systems and enhance overall work capacity and resistance to fatigue. Thus, special exercises perform not only a developmental but also a preventive function by preventing functional disorders and diseases associated with a sedentary lifestyle.

ANALYSIS AND RESULTS

An important role of special physical exercises lies in improving neuromuscular regulation. The regular performance of purposeful motor actions leads to the formation of stable motor skills, increased movement accuracy, and enhanced coordination. This is especially relevant for students whose future professional activities may require high concentration, precision, and rapid reaction. Special exercises contribute to the formation of rational motor patterns. Properly organized classes help eliminate muscle imbalance, improve movement biomechanics, and prevent overload of individual joints and muscle groups, which is of great importance in injury prevention. The role of special exercises in fostering students' psychophysical stability is also significant. Moderate-intensity physical activity reduces stress levels, normalizes emotional state, and improves cognitive functions. During classes, such qualities as determination, discipline, perseverance, and responsibility are developed. In addition, special physical exercises allow for the individualization of the educational process. Considering the level of physical preparedness, health status, and functional capabilities of each student, the teacher can vary the intensity, volume, and orientation of the load. This approach increases the effectiveness of classes and reduces the risk of overfatigue. Special exercises also play an important role in fostering motivation for physical education. When students observe measurable improvements in physical indicators and overall well-being, they develop sustained interest in regular physical activity, which contributes to the formation of healthy lifestyle habits.

Special exercises promote the integration of theoretical knowledge and practical skills. During classes, students master the basics of self-control, learn to assess their physical condition, plan training loads, and adhere to appropriate work and rest schedules, thereby increasing their overall health culture. Thus, the role of special physical exercises in the system of students' physical education is multifaceted. They perform developmental, health-promoting, preventive, educational, and motivational functions. Their systematic and methodologically sound application ensures the harmonious development of physical qualities, strengthening of health, and increased overall work capacity of students. Strength development is an important direction of students' physical education. Strength exercises enhance the muscular corset, promote correct posture, and prevent musculoskeletal disorders. In the educational process, bodyweight exercises such as push-ups, pull-ups, and squats are applied, along with exercises using light resistance. It is important to follow the principle of gradual load progression and to consider students' individual capabilities. Strength training should be combined with stretching exercises, which help maintain joint mobility and prevent muscle overstrain. Endurance forms the basis of overall physical performance. Running, walking, aerobic elements, and circuit training are used for its development. During classes, it is necessary to monitor heart rate and gradually increase the duration of the load. The optimal effect is achieved through systematic moderate-intensity training. The development of endurance positively affects the cardiovascular and respiratory systems and increases the body's resistance to

stress. Speed and coordination play an important role in students' professional and daily activities. To develop them, reaction-speed exercises, elements of sports games, balance training, and precision movements are used. Particular attention is paid to exercise variety, which enhances neuromuscular regulation. Regular practice increases movement accuracy and reduces reaction time.

Flexibility is an important indicator of the functional state of the musculoskeletal system. Insufficient joint mobility may lead to injuries and limited motor activity. Dynamic and static stretching exercises are included in the training program and are performed after warm-up or in the final part of the session. The development of flexibility improves posture and reduces injury risk. The effectiveness of physical qualities development depends on adherence to several principles: systematic training; gradual load progression; individualization; comprehensive development of all physical qualities; and balance between load and rest. A session usually includes preparatory, main, and final parts. The preparatory part includes warm-up, the main part includes special exercises, and the final part includes relaxation exercises and breathing recovery. An important element of organizing physical education is monitoring students' physical fitness levels. For this purpose, tests assessing strength, endurance, flexibility, and speed are used. Regular monitoring allows for adjustment of the training program and individualization of the load. Evaluation of performance dynamics contributes to fostering students' motivation for physical education.

CONCLUSION

The development of physical qualities has a positive influence on the formation of willpower, discipline, and responsibility. Physical activity reduces stress levels, improves emotional well-being, and enhances self-esteem. Systematic training fosters a stable commitment to a healthy lifestyle, which is of great importance for students' future professional activities. The development of physical qualities through the use of special physical exercises is an essential component of the system of students' physical education.

A purposeful and methodologically substantiated approach to organizing classes contributes to strengthening health, increasing work capacity, and fostering a harmoniously developed personality. The comprehensive application of special exercises, consideration of individual characteristics, and regular pedagogical monitoring ensure the effectiveness of the educational process in the field of physical education.

References:

1. Ashmarin, B. A. Theory and Methodology of Physical Education. Moscow: Prosveshchenie, 1990.
2. Matveev, L. P. Theory and Methodology of Physical Culture. Moscow: Sport, 2008.
3. Kholodov, Zh. K., Kuznetsov, V. S. Theory and Methodology of Physical Education and Sport. Moscow: Akademiya, 2012.
4. Evseev, S. P. Theory and Organization of Adaptive Physical Culture. Moscow: Soviet Sport, 2016.
5. Kuramshin, Yu. F. Theory and Methodology of Physical Culture. Moscow: Soviet Sport, 2010.
6. Lyakh, V. I. Motor Abilities of Schoolchildren: Foundations of Theory and Methodology of Development. Moscow: Terra-Sport, 2000.

TABIIY FAN DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi
Qo'qon davlat universiteti
geografiya va iqtisodiyot kafedrasi dotsenti v. b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM ta'lim tizimining tarixi, uning nazariy asoslari, imkoniyatlari, yutuqlari to'g'risida keng mulohaza yuritilgan. Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodik usullari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM, ta'lim texnologiyasi, fan, innovatsion metod, integratsiya, loyiha, fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math).

Abstract: This article provides a broad overview of the history, theoretical foundations, potential, and achievements of STEAM education. Recommendations for methodological approaches to the effective use of STEAM technologies in elementary school science lessons are also provided.

Key words: STEAM, educational technologies, innovative method, integration, project, science, technology, engineering, fine arts, mathematics.

Аннотация: В данной статье представлен широкий обзор истории, теоретических основ, возможностей и достижений STEAM-образования. Приведены рекомендации по методологическим подходам к эффективному использованию STEAM-технологий на уроках естественных наук в начальной школе.

Ключевые слова: STEAM, образовательные технологии, инновационный метод, интеграция, проект, наука (Science), технология (Technology), инженерия (Engineering), изобразительное искусство (Art), математика (Math).

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin barcha sohalarda bo'lgani singari ta'lim sohasida ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari asosida o'qitish usullari, darsliklar, yangi fanlar joriy etilmoqda. Yurtboshimizning ta'lim sohasiga oid qarorlari va farmonlari yuqoridagi fikrlarning. Bu farmon va qarorlar barkamol yoshlarimizning chuqur bilim va ko'nikmalarini egallashi uchun sharoit yaratish maqsadida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezdentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish to'g'risidagi PF-5712-sonli farmonida Uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek proffisional kadrlarni tayyorlash qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish asosiy maqsad etib belgilangan.[1] Bu farmon STEAM fanlarni mukammal o'rganish natijasida tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish, mustaqil axborot izlash uni tashlil qilish va ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM yondashuvi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar hozirgi kunda keng rivojlanib bormoqda. STEAM ta'limining umumiy jihatlari, uni tabiiy fanlar bilan bog'lashning usullari hamda ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasini ochib beruvchi muhim manbalar o'rganildi. STEAM yondashuvi STEM ta'limi asosida shakllangan bo'lib, STEM terminining tarixi 1990-yillarga borib taqaladi (AQShda fan va texnologiyaga bo'lgan e'tibor natijasida). Keyin, 2000-yillar boshida san'at elementini qo'shish orqali "STE(A)M" atamasi kengroq qo'llana boshladi, va 2006–2008 yillar atrofida aynan STEAM modeli ta'lim siyosati va amaliyotida rasmiy ravishda paydo bo'la boshlagan deb qayd etiladi.

Xususan, Byers va shogirdlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar STEAM yondashuvining an'anaviy fanlar o'rtasidagi chegaralarni bartaraf etish va o'quvchilarda interaktiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratil-

ganligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvning tabiiy fanlar o'qitishdagi o'rni, ayniqsa, o'quvchilarning muammolarni hal qilish va ilmiy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Maxwell va Choppin o'z tadqiqotlarida STEAM yondashuvining ilmiy va texnologik jihatlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish usullarini muhokama qiladilar. Ularning tadqiqotlari STEAM yondashuvi yordamida tabiiy fanlarni o'rgatishda innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning fanlarga qiziqishini oshirish va ularni ijodiy izlanishlarga jalb qilish mumkinligini ko'rsatgan. Davlat va xalqaro miqyosda chop etilgan ta'lim strategiyalari va dasturlarida STEAM yondashuvi muhim o'rin egallaydi. Xususan, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) va UNESCO tomonidan chiqarilgan hisobotlarda STEAM yondashuvi XXI asr ta'lim tizimi uchun dolzarb ekanligi, ayniqsa tabiiy fanlar va texnologiyalar bo'yicha global raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, Nardo va Matthewsning tadqiqotlari tabiiy fanlar darslarida STEAM yondashuvining qo'llanilishi o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni texnologik jihatdan zamonaviy loyihalar yaratishga undashda katta rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ushbu manbalar, shuningdek, tabiiy fanlar bilan bog'liq amaliy loyihalarning o'quvchilar orasida ko'proq qiziqish uyg'otishini va ularning kasb tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda.

BMT prognozlariga ko'ra 2050 yilga borib kasblarining 75 foizi STEM fanlariga aloqador bo'lishi kutilmoqda. Aynan mana shu tizim asosida ta'lim olish orqali o'quvchilar kelajak muammolariga yechim topa oladigan, yangi kashfiyotlar qila oladigan kadrlarga aylanishiga ishonilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

STEAM ta'lim texnologiyasi ta'limni yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodikadan keng foydalanilishida ko'rinadi. Bu ta'lim texnologiyasida bir vaqtning o'zida to'rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitish amalga oshiriladi. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash.

TAHLIL VA NATIJALAR

STEAM- hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining keng tarqalgan innovatsion metodlardan biri hisoblanadi, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. Bizning dunyomizni texnologiyasiz tasavvur etishning iloji yo'q. Bundan keyin ham texnologik rivojlanish davom etadi va STEAM ko'nikmalari bu-rivojlanishning asosi bo'lib hisoblanadi. STEAM bolalarni ilhomlantiradi.

STEAM ta'lim tizimining afzalliklari:

1. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi

   O'quvchilar muammolarga noodatiy, ijodiy va mantiqiy yechim topishga o'rganadi.

2. Fanlararo integratsiyani ta'minlaydi

   Bir nechta fanlar birgalikda o'rganiladi, bu bilimlarni real hayot bilan bog'lashga yordam beradi.

3. Amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi

   Nazariyadan ko'ra amaliy mashg'ulotlar, tajribalar, loyihalar ko'proq bo'ladi.

4. Muammo yechish ko'nikmasini oshiradi

   O'quvchilar real muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechim topishga o'rganadi.

5. Jamoada ishlashni o'rgatadi

   Guruhli loyihalar orqali muloqot, hamkorlik va yetakchilik qobiliyatlari rivojlanadi.

6. Texnologiyadan samarali foydalanishni o'rgatadi

   Zamonaviy texnologiyalar, dasturlash, robototexnika bilan ishlash ko'nikmalari hosil bo'ladi.

8. Kelajak kasblariga tayyorlaydi

   Muhandislik, IT, dizayn, ilm-fan va innovatsion sohalarga qiziqishni oshiradi.

9. Motivatsiya va qiziqishni kuchaytiradi

   Darslar qiziqarli, interaktiv va loyihaga asoslangan bo'lgani uchun o'quvchilar faol bo'ladi.

10. Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi

O‘quvchi o‘z g‘oyasini himoya qilish, qaror qabul qilishni o‘rganadi.

11. Ta’lim sifati va natijadorligini oshiradi

O‘rganilgan bilimlar uzoq muddat esda qoladi va amaliyotda qo‘llaniladi.

STEAM ta’limi asosida boshlang‘ich sinf darslarini tashkil qilishda ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarni ilmiy, texnologik, muhandislik va san’atning turli sohalarida fikrni ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni maqsad qiladi. Ko‘rgazmalilik o‘quvchilarni ilg‘or fikrlash va o‘rganish jarayonlarida o‘zlashtirish va innovatsiyalari rag‘batlantirish uchun kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Bu usul o‘quvchilarning o‘zlarining fikrini ko‘rsatish, ularni yaratuvchanlik va innovatsiyalarga yo‘naltirishga o‘zlashtirish uchun muhim ko‘rsatkichdir. [2]

STEM fanlarini o‘qish davomida o‘quvchida quyidagi qobiliyatlar shakllanadi:

- muammoni hal qila olish;
- kreativlik;
- tanqidiy fikrlash;
- jamoaviy ishlay olish;
- mustaqil fikrlash;
- tashabbuskorlik;
- kommunikasiya;
- raqamli savodxonlik.

STEM ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikani bir-biriga bog‘liq holda yaxshi o‘zlashtirgan, o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llay oladigan, kompyuterda ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, ham jamoaviy yaxshi ishlashni, ham mustaqil tashabbuslarni qoyillata oladigan kadrlar tayyorlaydi.

STEM fanlarining ahamiyati shundaki, hozir bizga tegishli kasblarning ko‘pi yaqin kelajakda avtomatik tarzda ishlaydigan robotlar tomonidan bajarilishi yoki butunlay keraksiz bo‘lib qolishi mumkin. STEM esa mana shu kelajakka mos kadrlar tayyorlab beradi.

Kompentetsiya- bolaning bilim ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompentetsiyalar, rivojlanish sohasidan qat’iy nazar, bola shaxsini shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tabiiy fanlar o‘qitish jarayonida STEAM yondashuvining qo‘llanilishi hozirgi davr ta’lim tizimi uchun muhim innovatsiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan cheklab qolmay, balki ularni hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan amaliy loyihalarda faol ishtirok etishga chorlaydi. Muhokama davomida STEAM yondashuvining tabiiy fanlarni o‘qitishda qanday foyda va muammolarni keltirib chiqarishi tahlil qilinadi. Birinchidan, STEAM yondashuvi orqali o‘quvchilar turli fanlararo aloqalarni yanada chuqurroq o‘rganadilar. Masalan, biologiya darslarida texnologiya va san’at bilan bog‘liq loyihalarni qo‘llash nafaqat ilmiy bilimlarni oshiradi, balki ijodiy fikrlash va texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarni mavzuni yanada kengroq tushunishga undaydi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi bilan o‘quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatlari, ilmiy va matematik tushunchalarni qo‘llash ko‘nikmalari kuchayadi. Ikkinchidan, STEAM yondashuvi o‘quvchilarni texnologik va ilmiy sohalarga qiziqishlarini orttirishga yordam beradi. Ayniqsa, qiz o‘quvchilar orasida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) fanlariga nisbatan qiziqishni rag‘batlantirishi haqida bir qator tadqiqotlar mavjud. Amaliy loyihalar va ijodiy yechimlar orqali o‘quvchilar ko‘pincha muhandislik, robototexnika yoki biologik texnologiyalar kabi sohalarda yangi g‘oyalarni yaratadilar. Bu esa ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, STEAM yondashuvini joriy etish jarayonida o‘qituvchilar va ta’lim tizimiga bog‘liq qiyinchiliklar mavjud. O‘qituvchilarning STEAM metodlarini to‘liq o‘zlashtirishlari va amaliyotga tatbiq qilishlari uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishlari talab etiladi. Ba’zi hollarda, o‘quv muassasalari bunday loyihalar uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik bazaga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli, ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun ta’lim tizimida qo‘llab-quvvatlash va resurslar bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. STEAM yondashuvi, shuningdek, o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, ijodiy yechimlar topish va o‘z bilimlarini hayotiy muammolarga tatbiq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi.

Loyihalar doirasida turli bilimlar uyg‘unlashib, fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Bu esa o‘quvchilarni nafaqat fan bo‘yicha bilimga, balki murakkab muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishga undaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tabiiy fanlar o‘qitishda STEAM yondashuvi zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning ilmiy bilimlarini chuqurlashtirish, ularning texnologik, ijodiy va muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko‘riladi. Ushbu yondashuv fanlararo integratsiyani kuchaytirib, o‘quvchilarni real hayot muammolarini hal qilishga, ijodiy fikrlash va amaliyotga qaratilgan loyihalarda ishtirok etishga undaydi. STEAM yondashuvi nafaqat tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, balki o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi, moddiy-texnik baza va ta’lim tizimining doimiy qo‘llab-quvvatlashi zarurligi aniqlanadi. STEAM metodologiyasi o‘quv jarayonini innovatsion va interaktiv qilib, o‘quvchilarni ilmiy izlanishga undaydi hamda kelajakdagi texnologik rivojlanishga moslashishlariga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi tabiiy fanlar ta’limida samarali natijalarga erishishning kuchli usuli bo‘lib, o‘quvchilarni zamonaviy muammolarga mos ravishda tayyorlashga va fanlararo bilimlarni birlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SH. M. Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 20-apreldagi PF-5712-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining qarori.
2. Maxmudova D. M. va boshq. Xalqaro baholash tizimlari. – Toshkent, 2022[2]
3. OECD (2019). Trends Shaping Education 2019. OECD Publishing. 4. UNESCO (2017). Cracking the Code: Girls’ and Women’s Education in STEM. UNESCO Publishing.
4. M.Nuritdinova. “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” Toshkent, O‘qituvchi 2005-yil.
5. Umaraliyeva, B. R. “Educational importance of teaching geography in secondary schools.” International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 348-350.
6. Umaraliyeva B.R. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fanni o‘qitish orqali tarbiyani shakllantirishda sharq mutafakkirlarining tarbiya to‘g‘risidagi qarashlaridan foydalanish masalalari”. // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2024-yil 3-son 1241-1245 b.

SPECIAL PHYSICAL EXERCISES IN COXARTHROSIS DURING THE PREOPERATIVE AND POSTOPERATIVE PERIODS OF REHABILITATION

Valiev Farrukh Nigmatjonovich
Tashkent state medical university family physician
No. 1 senior lecturer of the department of physical
education and civil protection

Abstract: The article examines the role of special physical exercises in the rehabilitation system of patients with coxarthrosis in the preoperative and postoperative periods. The goals, objectives, and physiological mechanisms of therapeutic physical training are outlined, as well as the features of selecting and dosing exercises depending on the stage of the disease and the phase of treatment. Special attention is paid to restoring hip joint function, reducing pain, and improving patients' quality of life. It is demonstrated that the systematic application of special physical exercises contributes to faster rehabilitation and reduces the risk of postoperative complications.

Key words: coxarthrosis, therapeutic physical training, rehabilitation, hip joint, preoperative period, postoperative period.

Annotatsiya: Maqolada koksartroz bilan og'rigan bemorlarni operatsiyagacha va operatsiyadan keyingi davrda reabilitatsiya qilish tizimida maxsus jismoniy mashqlarning o'rni tahlil qilinadi. Davolovchi jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari hamda uning fiziologik mexanizmlari yoritiladi, shuningdek, kasallik bosqichi va davolash jarayonining fazasiga qarab mashqlarni tanlash va me'yorlash xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, son bo'g'imi funksiyasini tiklash, og'riq sindromini kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maxsus jismoniy mashqlarni tizimli qo'llash reabilitatsiya jarayonini tezlashtirishi hamda operatsiyadan keyingi asoratlar xavfini kamaytirishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: koksartroz, davolovchi jismoniy tarbiya, reabilitatsiya, son bo'g'imi, operatsiyagacha davr, operatsiyadan keyingi davr.

Аннотация: В статье рассматривается роль специальных физических упражнений в системе реабилитации пациентов с коксартрозом в предоперационном и послеоперационном периодах. Раскрываются цели, задачи и физиологические механизмы лечебной физической культуры, а также особенности подбора и дозирования упражнений в зависимости от стадии заболевания и этапа лечения. Особое внимание уделяется восстановлению функции тазобедренного сустава, снижению болевого синдрома и улучшению качества жизни пациентов. Показано, что систематическое применение специальных физических упражнений способствует ускорению реабилитации и снижению риска послеоперационных осложнений.

Ключевые слова: коксартроз, лечебная физическая культура, реабилитация, тазобедренный сустав, предоперационный период, послеоперационный период.

INTRODUCTION

Coxarthrosis is one of the most common degenerative-dystrophic diseases of the musculoskeletal system. It is characterized by progressive damage to the hip joint, impaired function, pain syndrome, and limited mobility. The disease often leads to reduced working capacity and, in advanced cases, disability. In cases of significant joint destruction, conservative treatment becomes insufficiently effective, and surgical intervention is required, most commonly total hip arthroplasty. In this context, medical rehabilitation becomes especially important, with special physical exercises serving as an essential component. The purpose of this study is to analyze the significance and specific features of special physical exercises in coxarthrosis during the preoperative and postoperative rehabilitation periods. Coxarthrosis is a chronic disease characterized by destruction of articular cartilage, deformation of joint surfaces, and the development of secondary changes in bone and muscle tissue.

The main clinical manifestations include pain in the hip joint area, stiffness of movement, limping, and muscle weakness. As the disease progresses, the range of motion decreases, gait biomechanics are disturbed, and compensatory changes develop in the spine and other joints. All these factors determine the need for a

comprehensive approach to treatment and rehabilitation. Therapeutic physical training is one of the leading non-pharmacological methods for managing coxarthrosis. Special physical exercises are aimed at restoring and maintaining the functional capacity of the hip joint, improving blood circulation, strengthening periarticular muscles, and normalizing motor patterns.

LITERATURE REVIEW

Physical exercises exert a positive effect not only on the musculoskeletal system but also on the cardiovascular, respiratory, and nervous systems. In addition, they contribute to improving the patient's psycho-emotional state and increasing motivation for treatment. The main objectives of special physical exercises in the preoperative period include reduction of pain syndrome, improvement of hip joint mobility, strengthening of the lower limb and trunk muscles, and preparation of the patient for the upcoming surgical intervention. Preoperative preparation enhances the overall functional condition of the body and facilitates faster postoperative recovery. During the preoperative period, gentle and moderately intensive exercises are applied, with primary emphasis placed on isometric contractions of the thigh and gluteal muscles, exercises performed in lying and sitting positions, as well as breathing exercises. Muscle relaxation techniques, gentle stretching, and mobility development within a pain-free range are recommended. All movements should be performed without sharp pain, at a slow pace, and with adequate rest intervals. In the early postoperative period, the primary objectives are prevention of complications, improvement of blood circulation, prevention of muscle atrophy, and restoration of basic motor functions. At this stage, breathing exercises, active movements in the distal segments of the limbs, and isometric exercises targeting the thigh and gluteal muscles are implemented.

All exercises are performed under medical supervision, taking into account the patient's clinical condition. In the late postoperative period, the focus shifts to restoration of weight-bearing function of the limb, increased range of motion in the hip joint, and development of a correct gait pattern. Exercises in the standing position with support and gradual load progression are utilized. Elements of balance, coordination, and muscle strength training are incorporated. A crucial stage involves teaching the patient self-care skills and safe ambulation techniques.

RESEARCH METHODOLOGY

Methodological principles for conducting classes. The effectiveness of special physical exercises in coxarthrosis depends on adherence to the following principles: individual approach; gradual and consistent increase in load; regularity of training; combination of active and passive exercises; control of pain syndrome and the patient's general condition. Therapeutic physical training sessions should be conducted systematically and adjusted depending on the stage of rehabilitation and the body's response to the load. The use of special physical exercises in coxarthrosis is an effective method of medical rehabilitation; however, their prescription and implementation require strict consideration of contraindications and adherence to safety measures. Improperly selected load or ignoring clinical limitations may lead to increased pain, development of complications, and delayed recovery.

Absolute contraindications include conditions in which performing physical exercises is strictly prohibited due to a high risk of deterioration in the patient's condition. These include: acute inflammatory processes in the body; elevated body temperature; severe pain syndrome not relieved by medication; serious cardiovascular complications, including unstable angina and decompensated heart failure; thromboembolic complications; early postoperative complications accompanied by bleeding or pronounced instability of the condition; septic conditions. In such situations, priority is given to stabilizing the patient's general condition, after which the issue of prescribing therapeutic physical training is reconsidered.

ANALYSIS AND RESULTS

Relative contraindications imply temporary limitation or modification of physical load. These include moderate pain syndrome; pronounced swelling in the joint area; unstable blood pressure; concomitant chronic diseases in the stage of exacerbation; significant muscle weakness; and psycho-emotional instability of the patient. In such cases, exercises may be continued with reduced intensity, a decreased range of motion, and increased rest intervals. The decision is made individually by the physician. In the preoperative period, the main objective is to improve the patient's functional condition without aggravating the degenerative process. Special attention is paid to pain control. Exercises should not provoke acute or increasing pain in the hip joint. Sudden swinging movements, deep squats, excessive axial loads, and high-resistance exercises are contraindicated. Movements performed through pain are not permitted, as they may lead to additional trauma to joint structures. All exercises should be performed in a gentle mode, mainly in lying or sitting positions, which reduces stress on

the joint. It is important to monitor heart rate and the patient's overall well-being. The early postoperative period is the most critical stage of rehabilitation. During this time, there is a risk of thromboembolic complications, prosthesis dislocation, wound dehiscence, and inflammatory processes. The main safety measures include strict adherence to the recommended range of motion; avoidance of excessive hip flexion; exclusion of hip adduction and internal rotation after endoprosthesis; use of assistive devices for walking; and performance of exercises only under medical supervision.

Particular attention is given to thrombosis prevention. For this purpose, breathing exercises and active movements in the ankle joints are applied. The patient must be trained in proper positioning in bed, safe standing, and correct walking techniques. Failure to follow these recommendations may lead to serious complications. In the late postoperative period, the load is gradually increased; however, the principle of gradual progression remains fundamental. Sudden expansion of physical activity without adequate muscular preparation is unacceptable. During gait restoration, it is necessary to control step symmetry and avoid limping, as incorrect motor patterns may lead to overload of other joints and the spine. The load should be increased progressively, taking into account the body's adaptive capacity. If pain, swelling, or a feeling of joint instability occurs, the intensity of exercises should be reduced. Regular medical supervision is an essential safety requirement. The following indicators are assessed: level of pain syndrome; range of motion in the joint; muscle strength; heart rate and blood pressure; and the presence of swelling or signs of inflammation. The patient should be informed about possible symptoms of complications and the need to promptly report any changes in well-being. Psychological comfort is also important. Fear of movement after surgery may lead to reduced activity and delayed recovery.

Conversely, excessive self-confidence may result in violation of the rehabilitation regimen. Therefore, the rehabilitation process should be accompanied by patient education, development of adequate motivation, and maintenance of a balance between activity and caution.

CONCLUSION

Observance of contraindications and safety measures during the performance of special physical exercises in patients with coxarthrosis is a necessary condition for effective and safe rehabilitation. An individualized approach, gradual progression of load, continuous medical supervision, and patient education regarding movement safety principles help minimize the risk of complications and ensure successful restoration of hip joint function.

References:

1. Fransen, M., McConnell, S., Hernandez-Molina, G., & Reichenbach, S. (2014). Exercise for osteoarthritis of the hip. Cochrane Database of Systematic Reviews, 4, CD007912.
2. Hochberg, M.C., Altman, R.D., April, K.T., et al. (2012). American College of Rheumatology 2012 recommendations for the use of nonpharmacologic and pharmacologic therapies in osteoarthritis of the hand, hip, and knee. Arthritis Care & Research, 64(4), 465-474.
3. Fernandes, L., Hagen, K.B., Bijlsma, J.W.J., et al. (2013). EULAR recommendations for the non-pharmacological core management of hip and knee osteoarthritis. Annals of the Rheumatic Diseases, 72(7), 1125-1135.
4. Pozzi, F., Snyder-Mackler, L., & Zeni, J. (2013). Physical exercise after total hip arthroplasty: A systematic review of controlled trials. European Journal of Physical and Rehabilitation Medicine, 49(6), 877-892.
5. Minns Lowe, C.J., Barker, K.L., & Dewey, M. (2009). Effectiveness of physiotherapy exercise following total hip replacement: Systematic review and meta-analysis of clinical trials. BMC Musculoskeletal Disorders, 10, 98.
6. Smith, T.O., McCabe, C., Lister, S., & Christie, S. (2010). Rehabilitation implications during the postoperative phase following total hip arthroplasty: A systematic review. Journal of Orthopaedic Surgery and Research, 5, 20.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В УЧЕБНАХ ПРАКТИК

Байметов М. М.
УзМПУ преподаватель

Аннотация: В статье рассматриваются цифровые технологии и их роль в процессе стажировки будущих учителей информационных технологий, использование цифровых технологий в образовательном процессе, а также влияние этих технологий на учителей и учащихся.

Ключевые слова: процесс, цифровые технологии, производственная практика, компетентность, интеграция, принципы, психологические характеристики, дидактика, принцип научности.

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va ularning bo'lajak axborot texnologiyalari o'qituvchilarining amaliyot jarayonidagi o'rni, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari, shuningdek, ushbu texnologiyalarning o'qituvchilar va o'quvchilarga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jarayon, raqamli texnologiyalar, ishlab chiqarish amaliyoti, kompetentlik, integratsiya, tamoyillar, psixologik xususiyatlar, didaktika, ilmiylik tamoyili.

Abstract: The article discusses digital technologies and their role in the internship of future information technology teachers, the use of digital technologies in the educational process, and the impact of these technologies on teachers and students.

Key words: process, digital technologies, production practice, competence, integration, principles, psychological characteristics, didactics, principle of scientific validity.

ВВЕДЕНИЕ

Цифровые технологии, становясь неотъемлемой частью современного образовательного процесса, играют важную роль в развитии профессиональной компетентности учителей. Они расширяют возможности повышения качества образования и применения инновационных подходов. Ознакомление будущих учителей с цифровыми технологиями и обучение их эффективному использованию, в свою очередь, способствует повышению эффективности и привлекательности образовательного процесса.

Важную роль в профессиональном развитии учителей играют содержание формирования профессиональной компетентности на основе цифровых технологий, этапы организации профессиональной практики и методология данной практической деятельности. В данной главе рассматриваются основные принципы и методы процесса развития компетентности будущих учителей посредством цифровых технологий. Такой подход включает не только теоретические знания, но и практические навыки, что обеспечивает высокое качество образования, предоставляемого учащимся.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

С педагогической точки зрения внедрение цифровых технологий в образовательный процесс способствует повышению наглядности и эффективности обучения. Использование электронных и печатных визуальных материалов, их самостоятельное создание учащимися, а также разработка материалов, отвечающих педагогическим потребностям, становятся возможными благодаря цифровым технологиям. Учителя, обладающие знаниями и навыками в области цифровых технологий, обеспечивают более быстрое и эффективное усвоение учащимися теоретических и практических знаний и играют важную роль в совершенствовании методов обучения. Дидактические принципы – это принципы обучения, определяющие закономерности, содержание и методы образовательного процесса. По мнению М.Н. Скаткина, принцип обучения – это организация сотрудничества учителя и ученика, направленного на дости-

жение общей цели и получение запланированного результата. Профессиональные умения учителя и правила, обеспечивающие интеграцию учебной деятельности учащихся в единую систему и достижение поставленной цели, составляют сущность дидактических принципов в образовательном процессе.

В процессе обучения формируются педагогические принципы, направляющие учителя к практической деятельности по изучению основ конкретного предмета. Эти принципы определяют исходные положения всей педагогической деятельности, уточняют цели и содержание высшего образования, создают возможность организовать эффективный дидактический процесс с учётом психологических особенностей учащихся и влияют на определение образовательных целей. При этом дидактические принципы не сохраняют неизменными свою структуру, закономерности и классификацию: они трансформируются в соответствии с требованиями эпохи, уровнем развития общества и социальными запросами к системе образования. Со временем одни принципы утрачивают актуальность, другие совершенствуются и обновляются. Таким образом, дидактические принципы эволюционируют в соответствии с потребностями общества по мере развития и совершенствования академических дисциплин. Они отражают задачи, поставленные обществом перед высшим образованием, и учитывают особенности организации учебного процесса, обеспечивая единство содержания, методов и форм обучения. Дальнейшее развитие системы образования в нашей стране, основанное на реализации национальной программы, связано с совершенствованием образовательного процесса в вузах в соответствии с требованиями времени, обновлением содержания образования и систематическим развитием учебной деятельности.

Соответственно, при определении содержания вузовских дисциплин необходимо опираться на дидактические принципы, способствующие ускорению и углублению восприятия учебного материала студентами. Учебные заведения, обеспечивая интеграцию практики в содержание образования как важного дидактического принципа, повышают его качество. Каждая из указанных идей и дидактических принципов позволяет организовать учебный процесс в соответствии с современными требованиями. Внедрение интеграции практики в систему образования расширяет возможности применения дидактических принципов. Качество и эффективность образовательного процесса обеспечиваются также интеграцией содержания конкретной дисциплины в структуру других дисциплин учебного плана. Для обеспечения интеграции практики в образовательных учреждениях используются следующие основные дидактические принципы, признанные в педагогике: научность обучения; единство теории и практики; систематичность и последовательность обучения и воспитания; принцип историзма в обучении; принцип интенсификации образовательного процесса.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Сегодня большое внимание уделяется рациональному использованию цифровых технологий в образовании. Этот подход рассматривается как эффективный инструмент, способствующий повышению качества образования. В то же время формирование навыков рационального и эффективного использования цифровых технологий у выпускников высших учебных заведений считается одной из актуальных проблем современности. Внедрение цифровых технологий в образовательный процесс имеет важное значение для развития профессиональных компетенций педагога. Современному преподавателю не требуется обладать глубокими знаниями во всех научных областях, поскольку сегодня каждый имеет лёгкий доступ к глобальному духовному и культурному наследию через Интернет.

Поэтому внедрение цифровых технологий в образовательный процесс усиливает взаимодействие между учителем и учеником и одновременно способствует индивидуализации обучения. Это стимулирует развитие самостоятельного мышления и инициативы у обучающихся. Качество образования может быть повышено за счёт совершенствования обратной связи между учителями и учениками. Эти факторы имеют важное значение для формирования профессиональной компетентности педагога.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Принцип научности не ограничивается отражением новых научных достижений в содержании образования; по нашему мнению, наука должна составлять основу конкретного учебного предмета с учётом его особенностей и способствовать развитию познавательной деятельности учащихся. В процессе обучения усвоение знаний должно рассматриваться не только как результат деятельности, но и как её процесс. Учащиеся проверяют знания, полученные в рамках специальных дисциплин, на собственном опыте, основанном на интеграции практики, и находят пути их применения. На этой основе достигается научность обучения и воспитания. Принцип единства теории и практики предполагает, что в образовательном процессе знания, полученные в рамках специальных дисциплин, усваиваются учащимися двумя путями – теоретическим и практическим. Поэтому учащиеся должны осваивать теоретические

и практические аспекты знаний на основе интеграции практики. Только в этом случае обеспечивается принцип единства теории и практики. Практическая направленность предполагает раскрытие функциональной стороны знаний, формирующей способность учащихся целостно и системно воспринимать мир.

Практические задания обладают значительными педагогическими преимуществами, повышающими эффективность их систематического использования в процессе преподавания профильных дисциплин в вузах на основе интеграции практики. Следует отметить, что данные преимущества не могут быть реализованы путём формального включения практических занятий в учебный процесс. Только при соблюдении определённых требований они оказывают положительное влияние на содержание предметов и качество преподавания различных дисциплин. Как известно, практические занятия требуют значительных временных затрат, поэтому их проведение оправдано лишь тогда, когда достигнутые результаты соразмерны затраченному времени, а сами занятия способствуют ускоренному усвоению теоретического материала. Принцип воспитательной направленности образования заключается в формировании у студентов таких качеств, как патриотизм, преданность национальным ценностям и национальная гордость. С древних времён в нашей стране уделялось серьёзное внимание образовательному процессу, и в настоящее время это внимание усиливается. Учебные дисциплины, изучаемые в образовательных учреждениях, такие как основы личности и общества, государство и право, история, литература, духовность и профильные предметы, имеют важное значение в формировании научного мировоззрения и нравственных качеств студентов. Посредством этих взаимодополняющих дисциплин учащиеся изучают явления и процессы в природе и обществе, закономерности их изменения, прошлое и настоящее на основе фактических данных и объективных реалий с использованием принципа историзма. В процессе изучения специальных дисциплин, основанном на интеграции практики, учащиеся знакомятся со временем рождения и жизненным путём выдающихся деятелей прошлого, их научным наследием и вкладом в мировую цивилизацию в контексте изучаемых предметов. Принцип историзма повышает интерес учащихся к изучаемому предмету и способствует формированию научного мировоззрения.

В дидактике качественное освоение новой темы рассматривается как обязательное условие эффективного обучения. Принцип интенсификации данного процесса связан с рациональной организацией краткого, но содержательного урока. При интеграции практики требуется значительное время для приведения примеров сходных тем из различных уроков и их систематического использования. Однако преподаватель специальной дисциплины должен уметь содержательно раскрыть тему в рамках одного академического часа, рационально распределяя время и обеспечивая сохранение ключевых компонентов темы в памяти учащихся. В данном контексте особое значение приобретает интерес учащегося к занятию. Склонность к обучению, стремление и потребность в знаниях в дидактике обозначаются понятием “мотивация”. Мотивация не возникает стихийно в процессе обучения; её формирование требует от преподавателя профессионального мастерства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Мотивация является важным элементом образовательного процесса и одновременно ведущим фактором ускорения обучения. Она укрепляет стремление студента к цели и обеспечивает последовательные и решительные действия для её достижения. Мотивация, формирующаяся в процессе обучения, представляет собой сложный педагогический феномен, зависящий от поведения, стремлений, интересов и склонностей студентов. С этой точки зрения целесообразно учитывать данный принцип при изучении специальных дисциплин. Организация практических занятий на основе дидактических принципов с использованием возможностей интеграции практики способствует развитию теоретической и практической деятельности студентов. В целом дидактические принципы позволяют эффективно реализовывать практические задания и обеспечивать наглядность изучаемых теоретических явлений. Эти принципы служат основой для формирования целостного представления о содержании дисциплин. При этом такие представления выступают в виде образов, возникающих в процессе анализа учебной ситуации и её моделирования.

В заключение следует подчеркнуть необходимость интеграции практики на основе дидактических принципов. На большинстве занятий студенты самостоятельно моделируют жизненные ситуации. Для понимания абстрактных понятий необходимо развивать навыки и компетенции в корректной формулировке ситуаций и построении моделей. Дидактические принципы помогают студентам выделять существенные аспекты изучаемой проблемы, анализировать логическую информацию, осваивать терминологию, специфичную для отдельных дисциплин, на основе интеграции практики, чётко выражать значимые аспекты явления и расширять своё понимание.

Список использованной литературы:

1. Байметов М.М. Дидактические принципы обеспечения интеграции учебно-производственной практики // Учитель и непрерывное образование. № 1/1, 2022.
2. Байметов М.М. (2022). Пути повышения эффективности производственной практики будущих учителей технического образования // Академические исследования в области педагогических наук, 3(8), 160-165.
3. Байметов М.М. (2021). Пути организации и повышения эффективности педагогической практики в профессиональных училищах // Академические исследования в области педагогических наук, 2(4), 1190-1195.
4. Умаров Б.А. Педагогические и психологические критерии формирования профессиональной компетентности // Международная конференция по передовым исследованиям в области гуманитарных, естественных и педагогических наук. Германия, 10-05-2023. С. 489-501.
5. Мавлянов А., Абдалова С., Байметов М.М. Интеграция учебной и производственной практики в профессиональных колледжах. Методические рекомендации. Т.: Наука и техника, 2014. 115 с.

UZOQ MUDDAT DAVOLANISHGA MUHTOJ BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY MOSLASHUVCHANLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH – DIDAKTIK ZARURIYAT SIFATIDA

Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna
T.N.Qori Niyoziy nomidagi
tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi didaktik zaruriyat sifatida ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Sog‘liq holati sababli ta’lim muhitidan vaqtincha cheklangan bolalarning psixologik, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishidagi muammolar tizimli ravishda yoritilgan. Shuningdek, ularning ta’lim jarayoniga samarali integratsiyalashuvini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar, metodlar hamda innovatsion yondashuvlar nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari mazkur toifadagi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy moslashuvchanlik, inklyuziv ta’lim, didaktik zaruriyat, uzoq muddatli davolanish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, psixologik moslashuv.

Abstract: The article examines the issue of developing social adaptation skills of students requiring long-term medical treatment as a didactic necessity from a scientific and pedagogical perspective. It systematically identifies the psychological, social, and communicative challenges faced by children who are temporarily separated from the school environment due to health conditions. The study substantiates pedagogical conditions, methods, and innovative approaches that ensure their effective integration into the educational process. The research findings are aimed at designing effective pedagogical mechanisms to enhance the level of social adaptation among students in this category.

Key words: social adaptation, inclusive education, didactic necessity, long-term medical treatment, pedagogical support, psychological adaptation.

Аннотация: В статье рассматривается проблема формирования навыков социальной адаптации учащихся, нуждающихся в длительном лечении, как дидактическая необходимость с научно-педагогической точки зрения. Системно раскрываются проблемы психологического, социального и коммуникативного развития детей, временно отстранённых от школьной среды по состоянию здоровья. Обоснованы педагогические условия, методы и инновационные подходы, обеспечивающие их эффективную интеграцию в образовательный процесс. Результаты исследования направлены на разработку эффективных педагогических механизмов, способствующих повышению уровня социальной адаптации учащихся данной категории.

Ключевые слова: социальная адаптация, инклюзивное образование, дидактическая необходимость, длительное лечение, педагогическая поддержка, психологическая адаптация.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimini insonparvarlashtirish, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sog‘lig‘i sababli uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim olish huquqini to‘liq ta’minlash, ularning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur masala ta’limning inklyuzivligi, uzluksizligi hamda teng imkoniyatlar tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish, imkoniyati cheklangan va sog‘lig‘i tufayli ta’lim jarayonida to‘liq ishtirok eta olmaydigan o‘quvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PF–6079-sonli Farmonida “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, jumladan, sog‘lig‘i tufayli uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun uzluksiz ta’lim muhitini yaratish muhim vazifa etib belgilangan” [1]. Ushbu hujjatda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi alohida ta’kidlangan.

Uzoq muddat davolanayotgan o‘quvchilar ko‘pincha maktab muhitidan uzilib qoladi, tengdoshlari bilan ijtimoiy aloqalari cheklanadi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishida muayyan muammolarni yuzaga keltiradi. Jumladan, kommunikativ ko‘nikmalarning sust rivojlanishi, ijtimoiy izolyatsiya, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, psixologik tushkunlik kabi holatlar kuzatiladi. Natijada, ularning jamiyatga moslashuvi murakkablashadi hamda ta’lim samaradorligi pasayadi. Shu bois, mazkur toifadagi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi didaktik zaruriyat sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorida inklyuziv ta’limni rivojlantirish hamda sog‘lig‘i sababli ta’lim jarayonidan chetda qolayotgan bolalar uchun moslashuvchan pedagogik sharoitlarni yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur qarorda “sog‘lig‘i tufayli uzoq muddat davolanayotgan bolalarning ta’lim jarayoniga uzluksiz jalb etilishini ta’minlash, ular uchun individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish zarur” [2], deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu nuqtayi nazardan, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u didaktik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarning integratsiyasini talab etadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati, shaxsiy rivoji va ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish mumkin. Shu sababli, ushbu masalaning ilmiy-pedagogik jihatdan chuqur tahlil qilinishi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi, ularning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va tibbiyot fanlari kesishmasida keng tadqiq etilmoqda. Mazkur muammoni ilmiy jihatdan yoritishda inklyuziv ta’lim, differensial yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va reabilitatsion pedagogika tamoyillari muhim o‘rin tutadi.

Nazarova N.M. o‘z tadqiqotlarida inklyuziv ta’lim muhitida sog‘lig‘i sababli ta’lim jarayonida cheklovlarga duch kelayotgan o‘quvchilar uchun moslashuvchan pedagogik sharoitlar yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Olimaning fikricha, bunday o‘quvchilarni ijtimoiy muhitga moslashtirishda individual ta’lim dasturlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash va kommunikativ mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Yuldasheva G.T. uzoq muddat davolanayotgan bolalarning psixologik holati va ijtimoiy moslashuvi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslab beradi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, ijobiy psixologik muhit va pedagogik qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan taqdirda o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va o‘quv motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi [4]. Bu esa ularning jamiyatga moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham ushbu muammo keng yoritilgan. Masalan, Dyson A. va Millward A. inklyuziv ta’lim doirasida sog‘ligi cheklangan bolalar bilan ishlashda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy didaktik vazifa ekanini ta’kidlaydi. Mualliflar ta’lim jarayonida hamkorlikka asoslangan o‘qitish, guruhli mashg‘ulotlar va refleksiv metodlardan foydalanish ijobiy natija berishini asoslab berishgan [5].

Vygotskiy L.S.ning sotsiomadaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqot yetakchi omil hisoblanadi. Olim ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida bolaning kognitiv va shaxsiy sifatlari shakllanishini asoslab, ta’limning rivojlantiruvchi funksiyasini alohida ta’kidlaydi [6]. Ushbu yondashuv uzoq muddat davolanayotgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, UNESCO tomonidan e’lon qilingan inklyuziv ta’lim bo‘yicha tavsiyalarda ham sog‘lig‘i tufayli ta’limdan chetda qolayotgan bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Unda individual yondashuv, differensial o‘qitish va psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarining samaradorligi alohida qayd etilgan [7].

O‘zbekistonlik olimlardan Jumaniyozova S.S. o‘z tadqiqotida reabilitatsion-pedagogik yondashuv asosida uzoq muddat davolanayotgan o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilib, maxsus mashg‘ulotlar, treninglar va moslashuvchan ta’lim texnologiyalarining yuqori samaradorligini asoslab bergan [8].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va inklyuziv pedagogika tamoyillari metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ma’lumotlarni to‘plash jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat va anketa usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil va statistik ishlov berish orqali qayta ishlanib, ularning ishonchliligi ta’minlandi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari orqali ishlab chiqilgan pedagogik tavsiyalarning samaradorligi tekshirildi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va interpretatsiya qilish usullari yordamida xulosalandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu toifadagi o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish hamda ularning amaliy samaradorligini baholashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi.

Dastlab, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash maqsadida diagnostik tahlil o‘tkazildi. Ushbu jarayonda kuzatuv, suhbat, anketa va pedagogik baholash usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, uzoq muddat davolanayotgan o‘quvchilarning aksariyatida muloqotga kirishish qiyinchiliklari, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, jamoada ishlash ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Bu holat, avvalo, ularning uzoq vaqt davomida maktab muhitidan chetda qolishi, tengdoshlari bilan ijtimoiy aloqalarining uzilishi hamda sog‘liq bilan bog‘liq psixologik zo‘riqishlar natijasida yuzaga kelayotganligi bilan izohlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishi, dars jarayonlarida sust faollik, mustaqil ishlash ko‘nikmalarining yetishmasligi kabi holatlar aniqlandi. Bu esa ularning umumiy akademik rivojlanishiga hamda shaxs sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur muammoni hal etish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurligi asoslab berildi.

1-jadval: **Uzoq muddat davolanayotgan o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarining shakllanish darajasi**

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich holat	Tajriba yakuni	O‘zgarish dinamikasi
Ijtimoiy muloqot faolligi	Past	Yuqori	Ijobiy o‘sish
Jamoada ishlash ko‘nikmalari	Yetarli emas	Yetarli	Barqaror rivojlanish
O‘ziga bo‘lgan ishonch	Past	O‘rtacha – yuqori	Sezilarli o‘sish
Ta’limga motivatsiya	Sust	Yuqori	Ijobiy dinamika
Ijtimoiy moslashuv darajasi	Past	Yuqori	Barqaror ijobiy o‘zgarish

Tadqiqotning keyingi bosqichida uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur model individuallashtirilgan ta’lim dasturlari, moslashuvchan o‘qitish texnologiyalari, interfaol metodlar, masofaviy ta’lim elementlari hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini o‘z ichiga oldi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga qaratildi.

Amaliy tajriba-sinov ishlari jarayonida o‘quvchilar bilan muntazam ravishda kommunikativ mashg‘ulotlar, guruhli faoliyatlar, rol o‘yinlari va muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan topshiriqlar o‘tkazildi. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijtimoiy o‘zaro ta’sirini kuchaytirish, jamoaga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda emotsional holatini barqarorlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayonidan uzilib qolmasligi, tengdoshlari bilan aloqalarni saqlab qolishi ta’minlandi.

O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qildi. Xususan, o‘quvchilarda muloqotga kirishish faolligi oshdi, jamoada ishlashga bo‘lgan intilish kuchaydi, ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati mustahkamlandi. Shuningdek, ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi ortib, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni yanada faollashdi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashning uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning ruhiy holatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi, stress va xavotir darajasini pasaytiradi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonini yengillashtirib, ijtimoiy moslashuv darajasini oshiradi. O‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik, do‘stona munosabatlar va ijtimoiy birdamlik muhitining shakllanishi ham tadqiqotning muhim ijobiy natijalari sifatida qayd etildi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida pedagoglar va ota-onalar bilan olib borilgan hamkorlik ham ijobiy natija berdi. Pedagoglarning individual yondashuvi, ota-onalarning faol ishtiroki va psixologik qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtirdi. Bu holat mazkur toifadagi o‘quvchilar bilan ishlashda uch tomonlama hamkorlik – maktab, oila va tibbiyot muassasasi o‘rtasidagi uzviy aloqaning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab, ammo tizimli va kompleks yondashuv asosida samarali hal etilishi mumkin bo‘lgan pedagogik muammo ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur yo‘nalishda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va pedagogik mexanizmlar ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ular inklyuziv ta’limni rivojlantirish, ta’lim jarayonining insonparvarligini oshirish va har bir o‘quvchining to‘laqonli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim didaktik zaruriyati hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu toifadagi o‘quvchilarda ijtimoiy muloqot, jamoaga moslashish, o‘ziga ishonch va kommunikativ faollik darajasi yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatdi. Bu holat ularning shaxsiy rivojlanishi, psixologik holati hamda ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan ilmiy-tahliliy va tajriba-sinov ishlari shuni isbotladiki, individuallashtirilgan ta’lim yondashuvi, inklyuziv pedagogika tamoyillari, interfaol metodlar, masofaviy ta’lim texnologiyalari hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg‘unlashuvi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirish hamda ularning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari va ota-onalar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtiruvchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Shu bois, mazkur toifadagi o‘quvchilar bilan ishlashda kompleks yondashuvni yo‘lga qo‘yish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF–6079-son, 13.10.2020. – Toshkent: Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 638-son, 12.10.2021. – Toshkent: Lex.uz.
3. Назарова Н.М. Инклюзивное образование: теория и практика. – М.: Академия, 2019. – 256 с.
4. Юлдашева Г.Т. Психологик қўллаб-қувватлаш асосида болаларнинг ижтимоий мослашувини ривожлантириш. – Т.: Фан, 2020. – 184 б.
5. Dyson A., Millward A. Effective teaching and learning for pupils with special educational needs. – London: Routledge, 2018. – 312 p.
6. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 2017. – 480 с.
7. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 200 p.
8. Жуманиёзова С.С. Реабилитацион педагогика асосида болаларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш. – Т.: Ўқитувчи, 2021. – 168 б.
9. Munavvar, A. (2024). Aqli zaif o ‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda ertak terapiyaning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 3(32), 91-95.
10. Numanjanovna, A. M. (2026). Improving the methodology for developing students’oral speech based on fairy tales in reading lessons. Shokh Articles Library, 1(1).

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AMALIY METODLAR ASOSIDA KOLLABORATIV VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH



Farsaxonova Mastura Jalol qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
Orcid iD: 0009-0009-9033-8120

Annotatsiya: Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida o'quvchilarda kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida guruhli ishlash, juftlikda muhokama, savol-javob, dialogik o'qish, bahs-munozara va rolli o'yin kabi amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik kuzatuv, dars jarayonini tahlil qilish hamda o'quvchilarning og'zaki faoliyatini baholashga asoslandi. Olingan natijalar amaliy metodlar o'quvchilarning birgalikda ishlash, fikr almashish, o'z nuqtai nazarini asoslash va tengdoshlarini tinglash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Shuningdek, mazkur metodlar o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va muloqot madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqot xulosalari boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda amaliy va interfaol metodlardan tizimli foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi hamda o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: interfaol yondashuv, guruhli faoliyat, muloqot madaniyati, hamkorlikda o'rganish, dialogik ta'lim, boshlang'ich sinf o'quvchisi, nutq faolligi, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article aims to identify the effectiveness of practical teaching methods in developing collaborative and communicative skills among primary school students during reading literacy lessons. The study employed group work, pair discussions, dialogic reading, question-and-answer techniques, debates, and role-playing activities. The research methodology was based on classroom observation, analysis of students' oral participation, and evaluation of collaborative learning processes. The results indicate that practical methods significantly enhance students' cooperation, communication, and social engagement. The findings confirm that systematic use of interactive approaches improves the overall effectiveness of reading literacy instruction and provides practical recommendations for primary school teachers.

Key words: interactive learning, cooperative activities, communication skills, dialogic approach, primary education, student engagement, teaching practice, learning effectiveness.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности формирования коллаборативных и коммуникативных навыков учащихся начальных классов на основе практических методов обучения. В ходе исследования применялись групповые и парные формы работы, диалогическое чтение, вопросы и ответы, ролевые игры и обсуждения. Результаты исследования показали, что использование практических методов способствует развитию навыков совместной деятельности, устного общения и социальной активности учащихся. Сделаны выводы о целесообразности систематического применения интерактивных методов в процессе обучения чтению.

Ключевые слова: интерактивное обучение, групповая работа, речевая активность, сотрудничество, диалогическое обучение, начальное образование, педагогическая практика, образовательная эффективность.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olish jarayoni bilan bir qatorda ularning shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda[1]. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda keyingi ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma va malakalar shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Bu bosqichda o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning nafaqat matnni o'qish va tushunish, balki muloqotga kirishish, o'z fikrini ifodalash hamda boshqalar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi[2].

Zamonaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu bois o'qish savodxonligi darslarida an'anaviy, faqat o'qituvchi markazida tashkil etilgan yondashuvlar o'rniga o'quvchini faol muloqotga va hamkorlikka jalb etuvchi amaliy metodlardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday metodlar orqali o'quvchilar birgalikda fikr yuritish, vazifalarni jamoa bo'lib bajarish va umumiy xulosaga kelishni o'rganadilar[3].

Xalqaro baholash dasturlari - PIRLS va PISA - o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashda matnni tushunish bilan birga, uning mazmuni yuzasidan fikr almashish, muhokama qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlariga ham katta e'tibor qaratmoqda. Ushbu talablar boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi darslarini kollaborativ va kommunikativ yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. O'quvchilar matn bilan ishlash jarayonida bir-birining fikrini tinglash, o'z nuqtai nazarini himoya qilish va muloqot madaniyatini egallashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda amaliy metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshirishi, ularning muloqotga kirishish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi ta'kidlanadi. Biroq boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida aynan amaliy metodlarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni yetarli darajada yoritilmagan. Aksariyat hollarda darslar matnni o'qish va qayta hikoyalash bilan cheklanib, o'quvchilarning o'zaro muloqoti va jamoaviy faoliyatiga kam e'tibor qaratiladi[12].

Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish masalasini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi - o'qish savodxonligi darslarida guruhli ishlash, juftlikda muhokama, savol-javob, dialogik o'qish va rolli o'yin kabi amaliy metodlarning o'quvchilarning hamkorlikda ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilgan amaliy tajriba asosida amaliy metodlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi hamda o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalish sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ta'lim jarayonida o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish, bilimni muloqot va hamkorlik asosida shakllantirish zarurligini ta'kidlamoqda. Ayniqsa, o'qish savodxonligi darslari bu jarayon uchun qulay didaktik muhit hisoblanadi.

Jahon pedagogik adabiyotlarida dialogik va kollaborativ o'qitish nazariyalari ushbu masalaning asosiy nazariy poydevorini tashkil etadi. Robin Alexander dialogik ta'lim konsepsiyasida sinfdagi og'zaki muloqotni bilim hosil qilishning markaziy vositasi sifatida talqin qiladi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, savol-javob, muhokama va birgalikda xulosa chiqarishga asoslangan darslar o'quvchilarning fikrni ifodalash, asoslash va boshqalar fikrini tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Dialogik yondashuv ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi[4].

Mercer va Littleton tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kollaborativ o'rganish jarayonida tashkil etiladigan "hamkorlikdagi suhbat" (exploratory talk) o'quvchilar tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Mualliflar guruhda ishlash, fikr almashish va umumiy yechimga kelish jarayonlari o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va nutq faolligini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv o'qish savodxonligi darslarida matn mazmunini birgalikda tahlil qilish va muhokama qilish orqali samarali natija beradi[5].

O'qish savodxonligini baholashga oid xalqaro tadqiqotlar ham kommunikativ va kollaborativ ko'nikmalarning muhimligini ko'rsatadi. Mullis va Martin tomonidan ishlab chiqilgan PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilarning matnni o'qib tushunishi bilan bir qatorda, uning mazmuni yuzasidan fikr bildirish, izohlash va baholash qobiliyatlari asosiy mezon sifatida belgilanadi. PIRLS talablari o'qish savodxonligini faqat texnik o'qish emas, balki muloqotga asoslangan kognitiv faoliyat sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi[6].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham boshlang'ich sinf o'qish darslarida interfaol va amaliy metodlardan foydalanish masalasi keng yoritilgan. Qalandarova boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishda savol-javob, suhbat va muhokama metodlarining ahamiyatini ta'kidlab, bu usullar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutq faolligi oshishini ko'rsatadi. Uning ishlarida o'qish savodxonligi kommunikativ faoliyat bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi[7].

Mirzoyeva o'z tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligi orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Muallif matn asosida savol tuzish, fikr bildirish va izohlashga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning og'zaki nutqini faollashtirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu yondashuv o'qish savodxonligi darslarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi[8].

Musayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa boshlang‘ich ta’limda interfaol va kollaborativ metodlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Muallif guruhli ishlash, rolli o‘yinlar va muammoli topshiriqlar orqali o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash, bir-birini tinglash va umumiy qarorga kelish ko‘nikmalari shakllanishini ta’kidlaydi. Bu metodlar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va dars jarayonidagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladi[9].

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati kollaborativ va kommunikativ ko‘nikmalarni umumiy pedagogik jarayon doirasida o‘rganib, ularni aynan boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar orqali shakllantirish masalasini yetarli darajada tizimli tahlil qilmagan. Ayniqsa, guruhli ishlash, dialogik o‘qish va amaliy topshiriqlarning o‘qish savodxonligi bilan uzviy bog‘liqligi bo‘yicha empirik tadqiqotlar kam uchraydi[10].

Mazkur holat ushbu tadqiqotda o‘qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish masalasini alohida ilmiy muammo sifatida o‘rganish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida o‘quvchilarning kollaborativ (hamkorlikda ishlash) va kommunikativ (muloqotga kirishish) ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot amaliy-pedagogik yo‘naltirilgan bo‘lib, real dars jarayonida o‘tkazilgan kuzatuv va tahlillar asosida olib borildi.

Tadqiqot sifatli va pedagogik tajriba-kuzatuv dizayni asosida tashkil etildi. Unda o‘qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning muloqot faolligi va hamkorlik darajasidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida an’anaviy darslar va amaliy metodlar asosida tashkil etilgan darslar solishtirma tarzda o‘rganildi.

Ishtirokchilar

Tadqiqotda Jizzax Shahar 2-umumta’lim maktabining 4 “E”-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. O‘quvchilar yosh xususiyatlari, o‘qish savodxonligi darajasi va ta’lim muhiti jihatidan bir xil sharoitda ta’lim olayotgan bo‘lib, tadqiqot tabiiy o‘quv jarayoniga aralashmagan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki va o‘zaro muloqoti asosiy kuzatuv obyekti sifatida belgilandi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan amaliy metodlar

Tadqiqot jarayonida o‘qish savodxonligi darslarida quyidagi amaliy metodlar tizimli ravishda qo‘llanildi:

1. Guruhli ishlash metodi - o‘quvchilar kichik guruhlarda matn mazmunini muhokama qilib, umumiy xulosaga keldilar. Ushbu metod o‘quvchilarning jamoada ishlash va bir-birini tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirdi.
2. Juftlikda ishlash metodi - ikki o‘quvchi o‘rtasida savol-javob va fikr almashish tashkil etildi. Bu metod o‘quvchilarning erkin muloqotga kirishishi va o‘z fikrini ifodalashiga yordam berdi.
3. Dialogik o‘qish metodi - matnni o‘qish jarayoni savollar, izohlar va muhokamalar bilan birga olib borildi. O‘quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglab, fikr bildirishda faol ishtirok etdilar.
4. Savol-javob metodi - o‘quvchilar matn asosida ochiq va muammoli savollar tuzib, ularga javob berdilar. Bu metod tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qildi.
5. Munozara (bahs-munozara) metodi - matndagi voqea va g‘oyalar yuzasidan turli nuqtai nazarlar bildirildi va solishtirildi. O‘quvchilar o‘z fikrini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o‘rgandilar.
6. Rolli o‘yin metodi - matndagi vaziyatlar va qahramonlar harakati sahnalashtirildi. Bu metod o‘quvchilarning nutq faolligi, ijodkorligi va tasavvurini oshirdi.
7. Amaliy topshiriqlar metodi - matn asosida hikoya tuzish, rasm chizish va qisqa xulosalar chiqarish kabi topshiriqlar bajarildi. Ushbu topshiriqlar o‘qilgan materialni amalda qo‘llashga imkon yaratdi[11].

Tadqiqot jarayoni

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Tayyorlov bosqichi - o‘quvchilarning dastlabki o‘qish savodxonligi darajasi va muloqot faolligi kuzatildi.
2. Asosiy bosqich - o‘qish savodxonligi darslari amaliy metodlar asosida tashkil etildi va o‘quvchilarning kollaborativ hamda kommunikativ faoliyati muntazam kuzatildi.
3. Yakuniy bosqich - kuzatuv natijalari umumlashtirilib, amaliy metodlarning samaradorligi tahlil qilindi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish

Ma'lumotlar dars jarayonini kuzatish, o'quvchilarning og'zaki javoblarini tahlil qilish, hamda guruh va juftlikdagi hamkorlik darajasini baholash orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tavsifiy tahlil asosida umumlashtirilib, amaliy metodlarning o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalariga ta'siri aniqlab berildi.

DARS ISHLANMASI

Fan: O'qish savodxonligi
Sinf: 4-sinf
Mavzu: O'tkir Hoshimov – "Temir qoziq" hikoyasi
Dars turi: Amaliy-interfaol
Dars davomiyligi: 45 daqiqa



Darsning maqsadi

Ta'limiy:

- Hikoya mazmunini tushunish va tahlil qilish;
- Qahramonlar xatti-harakatiga baho berish.

Tarbiyaviy:

- Halollik, mas'uliyat va ota-ona nasihatining ahamiyatini anglash.

Rivojlantiruvchi:

- Kommunikativ ko'nikmalar: fikr bildirish, savol berish, javobni asoslash;
- Kollaborativ ko'nikmalar: guruhda ishlash, kelishuvga kelish, umumiy xulosa chiqarish.

Darsda qo'llaniladigan metodlar

- Guruhda ishlash
- Savol-javob
- Rolli o'yin
- Bahs-munozara
- Qayta hikoyalash

Dars jihozlari

- Darslik
- Kartochkalar
- Doska va marker

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism (5 daqiqa)
- Salomlashish
- Davomatni aniqlash

Kommunikativ topshiriq:
O‘qituvchi savol beradi:
- Agar siz birovning buyumini topib olsangiz, nima qilardingiz?
O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin aytadilar.

II. Yangi mavzuga kirish (5 daqiqa)
O‘qituvchi O‘tkir Hoshimov haqida qisqacha ma’lumot beradi.
“Temir qoziq” hikoyasi nomi doskaga yoziladi.
Amaliy savol:
- Nega hikoya “Temir qoziq” deb nomlangan deb o‘ylaysiz?

III. Hikoyani o‘qish va tushunish (10 daqiqa)
Hikoya bo‘limlarga bo‘lib o‘qiladi.
Har bo‘limdan so‘ng qisqa savollar beriladi.
Kommunikativ topshiriq:
- Hikoya qaysi bola tilidan aytilgan?
- Siz o‘zingizni qahramon o‘rnida tasavvur qildingizmi?

IV. Guruhlarda ishlash (kollaborativ metod) (10 daqiqa)
Sinf 3 guruhga bo‘linadi.
1-guruh: Hikoyani 3 qismga bo‘lib, har bir qismga sarlavha qo‘yadi.
2-guruh: Qahramonlarga tavsif beradi (bola, ota, ona).
3-guruh: Hikoyadan olinadigan ibratlarni yozadi.
Guruhlar ishini taqdim etadi.
O‘quvchilar bir-birining fikrini tinglaydi va to‘ldiradi.

V. Rolli o‘yin (kommunikativ + amaliy) (7 daqiqa)
O‘quvchilar ota, bola va ona rollarini ijro etadi.
Hikoyadagi voqea sahnalashtiriladi.
Topshiriq:
- Har bir rol o‘z fikrini aytsin.

VI. Bahs-munozara (tanqidiy fikrlash) (5 daqiqa)
Savol:
- Otaning qilgan ishi to‘g‘rimi?
O‘quvchilar “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob berib, sababini aytadi.

VII. Mustahkamlash (3 daqiqa)
Ijodiy topshiriq (kommunikativ):
- Hikoyani ota yoki ona tilidan qisqacha qayta hikoya qiling.

VIII. Yakuniy qism (5 daqiqa)
Xulosa:
- Halollik – eng katta boylik ekanligi ta’kidlanadi.
- Ota-ona nasihatiga quloq solish kerakligi aytiladi.

Baholash:
Faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
Uyga vazifa:
- “Halollik nima?” mavzusida 5–6 gapdan iborat og‘zaki hikoya tuzish [12].

Kutilayotgan natija
Dars yakunida o‘quvchilar:
- hikoya mazmunini tushunadi;
- guruhda ishlashni o‘rganadi;
- o‘z fikrini erkin ifodalay oladi;
- halollik va mas’uliyat haqida xulosa chiqaradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan foydalanish o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalariga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida dars kuzatuvlari, o'quvchilarning og'zaki javoblari, guruhli va juftlikdagi faol ishtiroki hamda umumiy dars jarayonidagi faolligi asosiy mezon sifatida olindi.

Kollaborativ ko'nikmalar bo'yicha natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, guruhli va juftlikda ishlashga asoslangan amaliy metodlar o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat yuritish ko'nikmalarini sezilarli darajada faollashtirdi. Guruhli ishlash jarayonida o'quvchilar vazifalarni bo'lib olish, bir-biriga yordam berish va umumiy xulosaga kelishga intildilar. Avvalroq kam ishtirok etgan o'quvchilar ham guruh ishlarida o'z fikrini bildira boshladi. Juftlikda ishlash metodidan foydalanilganda o'quvchilar o'zaro muloqotga faolroq kirishdi, savollar berish va javoblarni muhokama qilish ko'nikmalari rivojlandi. Bu jarayon o'quvchilarda o'z tengdoshi bilan ishlashga bo'lgan ishonchni oshirdi va dars jarayonidagi ijtimoiy faollikni kuchaytirdi.

Kommunikativ ko'nikmalar bo'yicha natijalar

Dialogik o'qish, savol-javob va munozara metodlari o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. O'quvchilar matn asosida savollar tuzish, o'z fikrini izohlash va boshqalarning fikriga munosabat bildirishda faol ishtirok etdilar. Dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqi ravonlashgani, gaplarni mantiqiy izchillikda qurishga intilgani kuzatildi. Munozara jarayonlarida o'quvchilar turli nuqtai nazarlarni solishtirib, o'z fikrini asoslashga harakat qildilar. Bu holat o'quvchilarda tinglash madaniyati, muloqotda hurmat va sabr-toqat kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalar shakllanayotganini ko'rsatdi.

Amaliy metodlarning dars jarayoniga ta'siri

Rolli o'yin va amaliy topshiriqlar metodlari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Matndagi vaziyatlarni jonlantirish jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etdi, o'z tasavvuriga tayangan holda fikr bildirdi va nutq faolligini namoyon qildi. Bu metodlar orqali o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglab, uni real hayot bilan bog'lashga harakat qildilar. Amaliy topshiriqlar, xususan hikoya tuzish va qisqa xulosa chiqarish mashqlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytirdi. O'quvchilar o'qilgan matn asosida o'z fikrini erkin ifodalashga, sabab–oqibat bog'lanishlarini aniqlashga intildilar.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatdiki, amaliy metodlar asosida tashkil etilgan o'qish savodxonligi darslari an'anaviy darslarga nisbatan samaraliroq bo'ldi. O'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi oshdi, ular o'zaro muloqotga kirishishga va hamkorlikda ishlashga ko'proq intildilar. Ayniqsa, kommunikativ va kollaborativ ko'nikmalar o'quvchilarning kundalik nutqiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Shu tariqa, tadqiqot natijalari o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan foydalanish o'quvchilarning hamkorlikda ishlash va muloqotga kirishish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qish savodxonligi darslarini faol, muloqotga asoslangan va hamkorlikni talab etuvchi metodlar orqali tashkil etish o'quvchilarning nafaqat matnni tushunish darajasini, balki ularning ijtimoiy va nutqiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Amaliy metodlar - guruhli va juftlikda ishlash, dialogik o'qish, savol-javob, munozara, rolli o'yinlar va amaliy topshiriqlar - o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirdi, ularni o'z fikrini erkin ifodalashga va tengdoshlari bilan samarali muloqotga kirishishga undadi. Tadqiqot davomida o'quvchilar o'rtasida hamkorlikda ishlash, bir-birini tinglash va umumiy xulosaga kelish ko'nikmalari bosqichma-bosqich shakllanib borganligi kuzatildi.

Shuningdek, dialogik o'qish va munozara metodlari o'quvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirib, ularning og'zaki nutqi ravonlashishiga, fikrni mantiqiy izchillikda bayon etishiga yordam berdi. Rolli o'yin va ijodiy topshiriqlar esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'qish savodxonligini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkonini yaratdi. Bu holatlar amaliy metodlarning boshlang'ich ta'lim jarayonida samarali pedagogik vosita ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida an’anaviy yondashuv bilan cheklanmasdan, amaliy va interfaol metodlardan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.
2. Dars jarayonida guruhli va juftlikda ishlash elementlarini ko‘paytirish orqali o‘quvchilarda kollaborativ ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim.
3. Dialogik o‘qish va munozara metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning fikr bildirish, savol berish va muloqotga kirishish madaniyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.
4. O‘qish savodxonligi darslarini rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlar bilan boyitish o‘quvchilarning nutq faolligi va qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.
5. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy metodlarga asoslangan metodik tavsiyalar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko‘nikmalarini samarali shakllantirib, ularni faol, mustaqil va muloqotga tayyor shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim amaliyotida keng qo‘llanishi mumkin bo‘lgan metodik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5712-son qarori.Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.
3. O‘qish savodxonligi fan dasturi (1–4-sinflar uchun). – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
4. Alexander R.Dialogic Teaching: Rethinking Classroom Talk. – 5th ed. – York: Dialogos, 2020. – 336 p.
5. Mercer N., Littleton K.Dialogue and the Development of Children’s Thinking. – London: Routledge, 2007. – 216 p.
6. Mullis I. V. S., Martin M. O.PIRLS 2021 Assessment Framework. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2021. – 280 p.URL: https://timssandpirls.bc.edu
7. Qalandarova I. H.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi: monografiya. – Toshkent: Fan, 2022. – 180 b.
8. Mirzoyeva N. A.Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish // Pedagogik ta’lim. – 2023. – №4. – B. 45–49.
9. Musayeva D. Sh.Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati // Ta’lim va innovatsiya. – 2021. – №2. – B. 66–70.
10. Abduqodirova G. T.Boshlang‘ich sinflarda kollaborativ ta’limni tashkil etish metodikasi // Boshlang‘ich ta’lim. – 2022. – №3. – B. 21–25.
11. Raximov B. S.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 192 b
12. Aydarova U., Azizova N.O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 4-sinfi uchun darslik. IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – B. 62–65.

MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI TAMOYILLARI

O'tayev Akram Yo'ldoshevich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etiladi. Xususan, sohada mavjud muammolar, ularni bartaraf etish mexanizmlari, belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish omillari hamda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning innovatsion tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ta'limni modernizatsiya qilish, rivojlantirish istiqbollari, innovatsion tamoyillar, pedagog kadrlar, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari.

Abstract: This article analyzes the priority directions and prospects for the modernization of the preschool education system from theoretical and practical perspectives. It examines current challenges in the field, mechanisms for addressing them, factors ensuring the effective implementation of assigned tasks, and innovative principles for the development of preschool education. Particular attention is paid to enhancing the professional capacity of pedagogical staff and strengthening cooperation between state and non-state educational institutions.

Key words: preschool education, modernization of education, development prospects, innovative principles, pedagogical staff, state and non-state educational institutions.

Аннотация: В статье научно-теоретически и практически анализируются приоритетные направления и перспективы модернизации системы дошкольного образования. Рассматриваются существующие проблемы в данной сфере, механизмы их решения, факторы эффективного обеспечения выполнения поставленных задач, а также инновационные принципы развития дошкольного образования. Особое внимание уделяется повышению профессионального потенциала педагогических кадров и укреплению сотрудничества между государственными и негосударственными образовательными организациями.

Ключевые слова: дошкольное образование, модернизация образования, перспективы развития, инновационные принципы, педагогические кадры, государственные и негосударственные образовательные организации.

KIRISH

O'zbekistonda 2017 yildan boshlab maktabgacha ta'lim bosqichi umumiy ta'lim tizimining birinchi bosqichi sifatida belgilandi va uning me'yoriy-huquqiy asoslari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, pedagogika tizimida birinchi bor O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, maktabgacha ta'lim davlat ta'lim standartlari hamda talablari ishlab chiqilib, qabul qilindi. Uning natijasida mamlakatimizda maktabgacha ta'lim bosqichi zamonaviy talablar asosida tashkil qilindi va "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" fanining konsepsiyasi yangilanib, u asosida yangi avlod o'quv darsliklari hamda adabiyotlari yaratilib, amaliyotga joriy qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimizda 2030 yilga qadar ta'lim sifatiga erishish vazifalari qo'yilib, amalga oshirilmoqda [1]. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tizimini ham zamon talablari asosida yangilash va rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Shu sababli Prezidentimiz 2025 yil 15 sentyabr kuni O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan pedagog kadrlar vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda asosiy masalalardan biri sifatida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning yangi tamoyillarini belgilab berdi [2]. Bu tamoyillar mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yaqin istiqbolda rivojlantirishning vazifalari hisoblanadi. Hozirgi

vaqtda mamlakatimizda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari 78 foizni tashkil qildi. Bu o'ziga xos yutuq bo'lib, maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha belgilangan yangi vazifalar ijrosini ta'minlashni taqozo etadi. Shu jihatdan yaqin istiqbolda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning yangi tamoyillarini idrok etish va o'zlashtirish dolzarb bo'lib turibdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning yaqin istiqboldagi, ya'ni 2026–2027 yillarda amalga oshiriladigan birinchi tamoyili bolalarni yuz foiz darajada maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishdir. Mazkur masalani amalga oshirish va qo'yilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda quyidagi yo'nalishlarga asoslanishni eslatib o'tish joiz:

- yangi davlat maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishini kuchaytirish;
- davlat-xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari ko'lamini kengaytirish;
- oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish.

Aynan mana shu yo'nalishlar bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi yakunida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan 100 foiz darajada qamrab olish imkoniyatiga ega bo'linadi. Misol uchun, oilaviy shaklda tashkil qilinadigan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari kengaytirilib, ularning faoliyati imtiyozli subsidiya vositasida moliyaviy ta'minlanadi va bunday maktabgacha ta'lim shakllari mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi qishloq hamda mahallalarda tashkil qilinadi. Bunday yondashuv maktabgacha ta'lim tizimida o'ziga xos yangilik bo'lib, ular uchun maktabgacha ta'lim metodikasining yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Shu tariqa maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli shakllarini tashkil qilish bilan bolalarni yuz foiz darajada maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishga erishiladi.

Xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi amaliyotida shaxsning kreativlik sifatlarini shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metod va strategiyalar qo'llaniladi [3]. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning yaqin istiqboldagi ikkinchi tamoyili maktabgacha ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etib borishdan iborat. Bunda ayniqsa STEAM xalqaro ta'lim dasturidan foydalangan holda maktabgacha ta'lim jarayonini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanganligini eslatib o'tish joiz. Mazkur xalqaro ta'lim dasturiga ko'ra, maktabgacha ta'limda bolalar texnologiya, ya'ni kompyuter savodxonligi, muhandislik, ya'ni turli texnik uskunalardan foydalanish, matematika, ya'ni dastlabki bosqichda hisobni o'rganish va san'at, ya'ni o'qish, yozish va chizish ko'nikmalarini egallashi lozim bo'ladi [4]. Shu tariqa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni bilim olamiga olib kirish va ularning texnologik, hisob, o'qish, yozish ko'nikmalarini shakllantirib, maktabga tayyorlash ishi amalga oshiriladi. Bunday yondashuv maktabgacha ta'lim jarayonini xalqaro darajalarga moslashtirish imkonini beradi. Chunki ko'pgina xorijiy rivojlangan mamlakatlarda (Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya kabilarda) aynan STEAM xalqaro ta'lim dasturi vositasida maktabgacha ta'lim jarayoni amalga oshirilmoqda. Buning uchun har bir bolalar bog'chasi mazkur dastur asosidagi jihozlar bilan ta'minlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limni yaqin istiqbolda rivojlantirishning uchinchi tamoyili ushbu ta'lim bosqichini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlashdir. Bunda davlat va nodavlat, ya'ni xususiy bog'chalarning pedagoglari va murabbiylarini ishdan ajralmagan holda oliy ta'limda o'qitish tizimi yo'lga qo'yiladi. Unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus ma'lumotli pedagoglar va murabbiylar haftaning 5 kunida ish faoliyatida bo'ladi va qolgan 1 kunida oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'qiydi. Buning uchun 2025–2026 o'quv yilidan boshlab mamlakatimiz hududlarida faoliyat yuritayotgan oliy pedagogik ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari va murabbiylari uchun o'qish jarayoni yo'lga qo'yiladi. Bu o'ziga xos imkoniyat bo'lib, maktabgacha ta'lim tizimini oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, viloyatlar markazlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxtida "Yangi avlod" ta'lim kurslari tashkil qilinib, ularda amaliy faoliyatda bo'lgan oliy ma'lumotli maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining malakasi muntazam oshirilib boriladi.

E'tibor berilsa, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning o'ziga xos tamoyillari va vazifalari belgilanib, amalga kiritildi. Shu sababli mazkur masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislari tomonidan o'zlashtirilishi va uni metodik asos sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning yangi tamoyillari bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini tarkib toptirishda keng ko'lamli yondashuvni taqozo etadi. Bu o'rinda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini uyg'un rivojlantirish vazifalari qo'yilayotganligiga alohida e'tibor berish kerak. Shu sababli bu borada Prezidentimiz, jumladan, quyidagilarni alohida ta'kidladi: "Xususiy bog'chalardagi tarbi-

yachilar oyligi va bola xarajatining bir qismi byudjetdan qoplab beriladigan tizim joriy etiladi. Endi davlat va xususiy bog‘cha tarbiyachilarini ishdan ajralmagan holda oliy ta’limda o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi”. Bundan tashqari, ta’kidlanganidek, har bir viloyatda va Qoraqalpog‘iston Respublikasida tashkil qilinadigan “Yangi avlod” bog‘chalarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari muntazam ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘rganib boradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ta’lim sohasining barcha bosqichlariga chuqur kirib borayotgani bois, bo‘lajak tarbiyachilarni zamonaviy raqamli muhitda samarali ishlay oladigan, innovatsion fikrlash va media madaniyatga ega malakali mutaxassis sifatida tayyorlash ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlar maktabgacha ta’limni rivojlantirishning muhim va yangi tamoyillaridir. Shu sababli oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak maktabgacha ta’lim pedagoglari va murabbiylari quyidagi kompetensiyalarni o‘zlashtirishlari taqozo etiladi:

- davlat va nodavlat shakllaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan ishlash metodikasining uyg‘un yondashuvlarini o‘rganish;
- STEAM kabi xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirish;
- faoliyat davomida o‘z ustida ishlash va yangi tizim bo‘lgan “Yangi avlod” bog‘chalari faoliyatida ishtirok etishni bilish.

Bularning barchasi bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari va murabbiylarini yangicha yondashuv asosida tayyorlash jarayonini kuchaytirishni taqozo etadi. Shu sababli amaldagi o‘quv dasturlari va adabiyotlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, mamlakatimizda yaqin istiqbolda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish muhim tamoyillarga asoslangan vazifalarga ega. Bu borada oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari kasbiy kompetensiyalarni o‘rgatish hamda o‘zlashtirishda individual yondashuvlarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi.- Toshkent, 2023.
2. Zamonviy bilimlarni egallagan yoshlar hamma sohada etakchi bo‘ladi. O‘zA maqolasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2025 yil 16 sentyabr soni.
3. Ergashova M.H. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida milliy o‘yinlardan foydalanish. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 4-son. 1051-1056 betlar.
4. Сабирова Ф.М., Анисимова Т.И. Теория и практика реализации STEAM -образования. “Школа”. – Казан. 2022.
5. Rizayeva X.U. Bo‘lajak tarbiyachilarning raqamli texnologiyalarni egallash bosqichlari va ularning kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati “Ilm-fan, texnologiya va ta’limda yangi paradigmalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. NamDPI 2025-yil, 14-noyabr. 928-931 betlar.

CHET TILDA TINGLAB TUSHUNISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI



Jumayeva Gulxan Amrullayevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Roman-german tillari" kafedrasi dotsenti v.b.
ORCID: 0009-0007-2795-9560

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini o'rganish jarayonida tinglab tushunish (audiovizual qabul qilish) ko'nikmasida uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tinglovchilarda kuzatiladigan fonetik, leksik hamda psixologik to'siqlar ilmiy jihatdan yoritiladi. Muallif tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va strategiyalarni taklif etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interaktiv usullarning ahamiyati nazariy va amaliy asosda izohlanadi. Tadqiqotda muallifning amaliy tajribasiga tayangan yondashuvi aks etgan. Natijada mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi masalaga kompleks yondashuv taklif etilganligi bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, chet tilini o'rganish, qiyinchiliklar, fonetik to'siqlar, metodlar, audio materiallar, kommunikativ yondashuv.

Abstract: This article analyzes the main difficulties encountered in listening comprehension during foreign language learning. Phonetic, lexical, and psychological barriers faced by learners are examined from a theoretical perspective. The author proposes effective methods and strategies for developing listening skills. The significance of modern pedagogical technologies and interactive approaches is substantiated both theoretically and practically. The study reflects the author's practice-oriented approach. Scientific and practical recommendations for overcoming identified problems are developed. The scientific novelty of the article lies in the proposed integrated approach to addressing the issue.

Key words: listening comprehension, foreign language learning, difficulties, phonetic barriers, methods, audio materials, communicative approach.

Аннотация: В статье анализируются основные трудности восприятия иностранной речи на слух в процессе изучения иностранного языка. Рассматриваются фонетические, лексические и психологические барьеры, возникающие у обучающихся. Автор предлагает эффективные методы и стратегии развития навыков аудирования. Обосновывается значение современных педагогических технологий и интерактивных подходов. В исследовании отражён практико-ориентированный подход автора. Разработаны научно-практические рекомендации по преодолению выявленных проблем. Научная новизна работы заключается в предложении комплексного подхода к решению рассматриваемой проблемы.

Ключевые слова: аудирование, изучение иностранного языка, трудности, фонетические барьеры, методы, аудиоматериалы, коммуникативный подход.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini mukammal egallash shaxsning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biriga aylangan. Ayniqsa, tinglab tushunish (listening comprehension) ko'nikmasi til o'rganishning eng murakkab va shu bilan birga eng zarur komponentlaridan biri hisoblanadi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, til o'rganuvchilarning aksariyati aynan og'zaki nutqni idrok etishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat fonetik xususiyatlar, nutq tezligi, lug'at zaxirasining yetarli emasligi, psixologik to'siqlar hamda an'anaviy o'qitish metodlarining yetarli darajada samarali emasligi bilan izohlanadi. Shu sababli chet tilida tinglab tushunishdagi muammolarni chuqur o'rganish va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning ob'ekti – chet tilini o'rganish jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish jarayonidir. Tadqiqotning predmeti esa chet tilida og'zaki nutqni idrok etishda yuzaga keladigan lingvistik, psixologik va metodik qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etish usullaridan iborat.

Tadqiqotning maqsadi – chet tilida tinglab tushunish jarayonida uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash, ularning sabablarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va samarali metodik yechimlarni taklif etishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- tinglab tushunish ko'nikmasining nazariy asoslarini o'rganish;
- chet tilini o'rganishda uchraydigan asosiy tinglab tushunish qiyinchiliklarini tasniflash;
- mazkur muammolarning kelib chiqish omillarini tahlil qilish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar asosida ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish;
- amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot chet tilini o'qitish metodikasida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Chet tilini o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmasi masalasi tilshunoslik va metodika sohasida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan dolzarb muammolardan biridir. Xorijiy ilmiy manbalarda tinglab tushunish jarayoni murakkab psixolingvistik faoliyat sifatida talqin qilinadi. Xususan, Stephen Krashen o'zining "mazmunli kirish" nazariyasida til o'rganuvchi tabiiy nutqni muntazam eshitish orqali tilni samarali o'zlashtirishini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, tinglovchi uchun tushunarli va kontekstga boy nutq muhitini yaratish tilni o'zlashtirishning asosiy sharti hisoblanadi. Biroq, mening fikrimcha, mazkur yondashuv tinglovchining individual psixologik holati, masalan, eshitish jarayonidagi stress, diqqatning tez chalg'ishi yoki nutq tezligidan qo'rquv kabi omillarni yetarli darajada hisobga olmaydi [3].

Tinglab tushunishning strategik jihatlarini o'rganishda Larry Vandergriftning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. U tinglab tushunishni faol kognitiv jarayon sifatida baholab, metakognitiv strategiyalarning rolini asoslab beradi. Olim tinglovchi nutqni anglash jarayonida oldindan taxmin qilish, ma'lumotni tahlil qilish va o'zini nazorat qilish kabi strategiyalarni qo'llashi zarurligini ta'kidlaydi. Menimcha, ushbu yondashuv tinglab tushunishni rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi, ammo bu strategiyalarni real o'quv jarayonida, ayniqsa zamonaviy raqamli vositalar bilan integratsiyalash masalasi yetarli darajada ochib berilmagan [2].

Shuningdek, Michael Rost tinglab tushunishni kommunikativ kompetensiyaning markaziy elementi sifatida ko'rib, autentik audio materiallardan foydalanish zarurligini ilmiy asoslaydi. Uning fikricha, o'quvchilarning tinglab tushunishdagi qiyinchiliklari ko'pincha sun'iy va soddalashtirilgan o'quv materiallarining ustunligi bilan bog'liq. Mening kuzatishlarimga ko'ra ham, real nutqiy muhitga yaqin materiallar tinglovchining motivatsiyasini oshiradi va nutqni idrok etish tezligini sezilarli darajada rivojlantiradi. Mahalliy tadqiqotlarda esa tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish ko'proq metodik nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lib, ularda mashg'ulotlar tizimi, audio materiallarni tanlash mezonlari va o'quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish masalalari yoritilgan [1]. Biroq, mening fikrimcha, ushbu ishlarda tinglab tushunish qiyinchiliklarini lingvistik, psixologik va texnologik omillar uyg'unligida kompleks tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda tinglab tushunish muammosi ko'p omilli hodisa sifatida qaraladi. Ya'ni, mening yondashuvimga ko'ra, bu jarayonda faqat til birliklarini bilish emas, balki tinglovchining psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasi, o'quv muhiti, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlarning uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, tadqiqotda tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar kompleks tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning integrativ, amaliy yo'naltirilgan metodik modeli taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida muammoni har tomonlama yoritish hamda ishonchli ilmiy natijalarga erishish maqsadida bir qator o'zaro bog'liq ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish jarayonini lingvistik, psixologik va metodik jihatdan kompleks o'rganish tamoyiliga asoslandi.

Avvalo, tadqiqotda nazariy tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod orqali chet tilini o'qitish metodikasi, tinglab tushunish jarayonining psixolingvistik asoslari hamda bu sohada mavjud ilmiy qarashlar o'rganildi, umumlashtirildi va tizimlashtirildi [7; 5]. Natijada tinglab tushunishning ko'p bosqichli va murakkab kognitiv jarayon ekanligi hamda unda lingvistik bilimlar bilan bir qatorda psixologik omillar ham muhim rol o'ynashi aniqlashtirildi.

Tadqiqotning muhim qismi sifatida qiyosiy taqqoslash metodidan foydalanildi. Mazkur metod yordamida an'anaviy va zamonaviy tinglab tushunishni rivojlantirish usullari o'zaro solishtirildi. Xususan, dars jarayonida qo'llaniladigan oddiy audio mashqlar bilan interaktiv va autentik materiallarga asoslangan mashg'ulotlarning

samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu taqqoslash natijasida interaktiv, kommunikativ va texnologik yondashuvlar tinglovchilarning nutqni idrok etish tezligi, mazmunni tushunish darajasi hamda motivatsiyasiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda kuzatish metodidan ham foydalanildi. Bu metod orqali o'quv jarayonida talabalarning tinglab tushunishdagi xatti-harakatlari, duch kelayotgan qiyinchiliklari hamda mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatlari muntazam ravishda kuzatildi. Kuzatish natijalari tinglab tushunishdagi asosiy muammolar fonetik idrok, nutq tezligi, notanish leksika hamda diqqatni uzoq vaqt saqlash bilan bog'liqligini ko'rsatdi [9:13].

Bundan tashqari, tadqiqotda tahlil va umumlashtirish metodi qo'llanilib, olingan nazariy va amaliy ma'lumotlar tizimli ravishda qayta ishlanib, ilmiy xulosalar shakllantirildi. Ushbu metod orqali tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi hamda ularni bartaraf etishning samarali yo'llari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot doirasida chet tilida tinglab tushunish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash maqsadida amaliy kuzatishlar, o'quv jarayonidagi monitoring natijalari hamda so'rovnoma ma'lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida turli darajadagi til o'rganuvchilardan iborat guruhlar bilan ishlanib, ularning tinglab tushunish jarayonidagi real muammolari tizimli ravishda o'rganildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar bir necha asosiy omillar bilan bog'liq. Avvalo, fonetik qiyinchiliklar eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning qariyb 65 foizi nutq tezligi va talaffuzdagi farqlarni tushunmaslikni asosiy muammo sifatida ko'rsatgan. Ayniqsa, tabiiy nutqdagi qisqartmalar, intonatsiya o'zgarishlari va urg'u tizimi tinglovchilar uchun sezilarli to'siq bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Ikkinchi muhim omil sifatida leksik qiyinchiliklar kuzatildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning taxminan 58 foizi notanish so'zlarning ko'pligi sababli umumiy mazmunni tushunishda qiynalishini bildirgan. Bu holat, ayniqsa, autentik materiallar bilan ishlash jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tinglovchilar ko'pincha har bir so'zni tushunishga urinishlari natijasida nutqning umumiy mazmunini yo'qotib qo'yadilar.

Psixologik omillar ham muhim rol o'ynashi aniqlanib, respondentlarning qariyb 52 foizi tinglash jarayonida hayajon, ishonchsizlik va diqqatning tez chalg'ishini muammo sifatida qayd etgan. Kuzatishlar davomida tinglovchilar notanish nutqni eshitganda stress holatiga tushishi va bu holat tinglash samaradorligini sezilarli darajada pasaytirishi kuzatildi.

Tahlil natijalari jadval va diagrammalar orqali umumlashtirilganda, tinglab tushunishdagi qiyinchiliklarning asosiy ulushi fonetik omillarga (taxminan 40%), leksik muammolarga (35%) hamda psixologik to'siqlarga (25%) to'g'ri kelishi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar tinglab tushunish jarayonining kompleks xususiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida interaktiv metodlar, autentik audio materiallar va vizual qo'llab-quvvatlovchi vositalardan foydalanilgan holatlarda tinglovchilarning natijalari sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Xususan, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda tinglab tushunish darajasi o'rtacha 20–25 foizga oshgani qayd etildi.

Umuman olganda, tahlil natijalari tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar ko'p omilli xarakterga ega ekanligini, ularni samarali bartaraf etish uchun esa lingvistik, psixologik va metodik yondashuvlarning uyg'unligi zarurligini ko'rsatdi. Mazkur natijalar keyingi xulosa va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, chet tilida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish jarayoni murakkab va ko'p omilli xususiyatga ega bo'lib, unda lingvistik, psixologik hamda metodik omillar o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, tinglovchilarning eng katta qiyinchiliklari nutq tezligini idrok etish, talaffuzdagi farqlarni anglash, notanish leksik birliklarning ko'pligi hamda tinglash jarayonidagi psixologik to'siqlar bilan bog'liqdir. Shuningdek, an'anaviy o'qitish usullarining ustunligi va autentik nutqiy muhitning yetarli darajada yaratilmasligi ham tinglab tushunish ko'nikmasining samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, mening fikrimcha, tinglab tushunishdagi muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, o'quv jarayonida tinglash faoliyatiga tizimli va maqsadli yondashuvni kuchaytirish zarur. Bunda tinglash mashg'ulotlari muntazam, bosqichma-bosqich hamda kommunikativ yo'naltirilgan tarzda tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

- tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda autentik audio materiallardan keng foydalanish hamda ularni o‘quvchilarning til darajasiga mos holda tanlash;
- o‘quv jarayoniga interaktiv metodlar, multimediya vositalari va raqamli platformalarni faol integratsiya qilish;
- tinglovchilarda metakognitiv tinglash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish;
- psixologik to‘siqlarni kamaytirish maqsadida qo‘llab-quvvatlovchi va motivatsion o‘quv muhitini yaratish;
- tinglash mashg‘ulotlarini boshqa nutq faoliyati turlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish.

Mazkur tadqiqot tinglab tushunishdagi qiyinchiliklarning sabablarini kompleks tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishning samarali metodik yo‘llarini aniqlashga xizmat qildi. Taklif etilgan tavsiyalar chet tilini o‘qitish amaliyotida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishga, shuningdek, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vandergrift, L. Recent developments in second and foreign language listening comprehension research // Language Teaching. – 2007. – Vol. 40, № 3. – P. 191–210.
2. Rost, M. Teaching and Researching Listening. – London: Routledge, 2011. – 394 p.
3. Krashen, S. D. The Input Hypothesis: Issues and Implications. – New York: Longman, 1985. – 120 p.
4. Field, J. Listening in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 366 p.
5. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007. – 410 p.
6. Richards, J. C. Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 270 p.
7. Flowerdew, J., Miller, L. Second Language Listening: Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 366 p.
8. Goh, C. C. M. Exploring listening comprehension tactics and their interaction patterns // System. – 2002. – Vol. 30, № 2. – P. 185–206.
9. Nunan, D. Second Language Teaching and Learning. – Boston: Heinle & Heinle Publishers, 1999. – 330 p.
10. Ur, P. A Course in Language Teaching: Practice and Theory. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 375 p.
11. Jalolov, J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2012. – 240 b.
12. Saidov, A. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 180 b.
13. Nurmonov, A. Til o‘rganishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati // Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi jurnali. – 2020. – № 3(1). – B. 45–52.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING VERBAL-KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI



Nematova Gulsanam Abdullayevna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU dotsenti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/0009-0006-5470-9199

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak fransuz tili o‘qituvchilarining verbal-kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot globallashuv sharoitida xorijiy til o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida verbal muloqotning o‘rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Verbal muloqot shaxs ichidagi, shaxslararo, kichik guruh va jamoatchilik bilan muloqot toifalari asosida o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari integratsiyalashgan o‘quv modullari asosida olib borildi hamda kognitiv, operativ va shaxsiy-ijodiy mezonlar orqali baholandi. Natijalar tajriba guruhi talabalari verbal-kasbiy kompetensiyasining sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi va tadqiqot gipotezasining samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: verbal muloqot, kasbiy kompetensiya, chet tili o‘qituvchisi, verbal-kasbiy kompetensiya, integratsiyalashgan ta’lim, kognitiv mezon, shaxsiy-ijodiy rivojlanish, kommunikativ ko‘nikma, pedagogik tajriba.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of developing verbal-professional competence in future teachers of French. The study aims to identify the role and significance of verbal communication in professional teacher training under conditions of globalization. Verbal communication is analyzed through four categories: intrapersonal, interpersonal, small-group, and public communication. The experimental research was conducted using integrated instructional modules and evaluated according to cognitive, operational, and personal-creative criteria. The findings demonstrate a significant improvement in the verbal-professional competence of students in the experimental group and confirm the effectiveness of the proposed methodology, thereby supporting the research hypothesis.

Key words: verbal communication, professional competence, foreign language teacher, verbal-professional competence, integrated education, cognitive criterion, personal-creative development, communicative skills, pedagogical experiment.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития вербально-профессиональной компетентности будущих учителей французского языка. Исследование направлено на определение роли вербальной коммуникации в профессиональной подготовке учителей иностранного языка в условиях глобализации. Вербальное общение анализируется по четырём категориям: внутриличностное, межличностное, групповое и публичное общение. Опытно-экспериментальная работа проводилась на основе интегрированных учебных модулей и оценивалась по когнитивным, операционным и личностно-креативным критериям. Полученные результаты свидетельствуют о значительном повышении уровня вербально-профессиональной компетентности студентов экспериментальной группы и подтверждают эффективность выдвинутой гипотезы.

Ключевые слова: вербальная коммуникация, профессиональная компетентность, учитель иностранного языка, вербально-профессиональная компетентность, интегрированное обучение, когнитивный критерий, личностно-творческое развитие, коммуникативные навыки, педагогический эксперимент.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jahon ta’lim tizimida yuqori axloqiy fazilatlarga ega, milliy va diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalangan, boshqa xalqlarning tili, madaniyati va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan, raqobatbardosh va mobil mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda innovatsion ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini, xususan, verbal-kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish, o‘quv jarayonini modellashtirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini loyihalashga tayyorligini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu jarayonda verbal-kasbiy kompetensiyani takomillashtirish o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyati va ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarni xorijiy til orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta’lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish, xorijiy til ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish darajasini diagnostika qilish, modulli ta’limni joriy etish hamda kasbiy kommunikativlikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning verbal-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1. Kompetentlik tushunchasining ilmiy talqinlari

Bugungi kunda O‘zbekiston va xorijiy ta’lim hamjamiyatida “kompetentlik” tushunchasiga nisbatan yagona va bir ma’noli ta’rif mavjud emas. Mazkur holat ushbu tushunchaning turli ilmiy maktablar, nazariy yondashuvlar hamda tadqiqotchilarning metodologik pozitsiyalariga ko‘ra turlicha talqin qilinishi bilan izohlanadi. Shu bois kompetentlik masalasi zamonaviy pedagogika fanida ochiq va muhokamaga boy ilmiy kategoriya sifatida qaralmoqda.

Kompetentlikka oid ta’riflarning xilma-xilligi uning murakkab va ko‘p qirrali mohiyatini aks ettiradi. U nafaqat bilim va ko‘nikmalar majmuini, balki shaxsning kasbiy faoliyatda ushbu bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi bilan bir qatorda “kompetensiya” atamasi ham keng qo‘llanilib, ular o‘rtasidagi munosabat masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur tushunchalar mazmunan yaqin bo‘lsa-da, ular aynanlikni emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchanlikni ifodalaydi.

V.A. Adolfning yondashuviga ko‘ra, kompetentlik shaxsda mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning umumiy yig‘indisi sifatida talqin qilinsa, kompetensiya ushbu imkoniyatlardan amaliy faoliyat jarayonida foydalanish qobiliyatini anglatadi [Адольф В.А., 1998: 45]. Ushbu qarash kompetentlikni shaxsning integral va dinamik xususiyati sifatida tushunishga metodologik asos yaratadi.

B.T. Ashurovning fikricha, kompetentlik sifatlarini o‘zida shakllantirgan mutaxassis o‘z kasbining yetuk ustasi bo‘lib, har qanday jabhada ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o‘z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ilg‘or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o‘rganish orqali pedagogik kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib boradi [Ashurov A., 2020: 13].

K.D. Riskulova esa o‘z ta’rifida “kompetensiya” u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me’yorlar yig‘indisini anglatadi, deya ta’riflaydi. Kompetentlik esa shaxsning integral xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya me’yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida o‘z ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezoni esa samarali faoliyat va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi [K.D. Riskulova, 2017: 83-b.].

D.R. Pulatovaning fikricha, kompetensiya – egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amaliy qo‘llay olish layoqatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim natijasidir. U bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, ta’limda innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi [D.R. Pulatova, 2022: 96–99-b.].

D.O. Ximmataliyevning ta’kidlashicha, kompetentli yondashuv ta’lim texnologiyasida muhim o‘zgarishlarni talab qiladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalari oldida maxsus texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida amalga oshirish usullarini ishlab chiqish vazifasi turadi [D.O. Ximmataliyev, 2020: 51–76-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibida verbal muloqot asosiy, majburiy va istiqbolli komponent sifatida talqin qilinadi. Verbal muloqot xorijiy tillarni yetarli darajada egallash bilan bir qatorda, shaxsning ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, uni avlodlarga uzatish, shuningdek, samarali muloqot orqali faoliyatini rejalashtirish va boshqarish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Verbal muloqotning asosiy tarkibiy ko‘nikmalari samarali nutq va faol tinglashdan iborat. Samarali nutq so‘z tanlovi, talaffuz aniqligi va nutq mazmunining tinglovchi tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishiga yo‘naltirilgan

kommunikativ strategiyalarni talab etadi. Xabar mazmuni va shaklining mosligi muloqot samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Faol tinglash esa verbal muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, muloqot jarayonida suhbatdoshni diqqat bilan eshitish, uning asosiy g‘oyasini anglash va baholashdan tiyilish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, samarali muloqot tinglash madaniyatining rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liqdir [Ne’matova, G.A., 2022: 7–8]. Tinglash ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ma’ruzachiga to‘liq e’tibor qaratish, ochiq fikrni saqlash, chalg‘ituvchi omillardan imkon qadar uzoq bo‘lish tavsiya etiladi.

Shuningdek, samarali verbal muloqot pedagogik jarayonda talabaning shaxsiy, kasbiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Bunda muloqotni asosiy g‘oyadan boshlash, dalillarni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish hamda talabalarning tayyorgarlik darajasiga mos kommunikativ strategiyalarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida verbal muloqot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida to‘rt toifa asosida tahlil qilindi.

1-jadval: **Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida verbal muloqot toifalari**

№	Verbal Muloqot toifalari	Verbal muloqot toifalari tasnifi
1	**Shaxs ichidagi muloqot**	Bu ovozli suhbat uchun yo‘nalish. Siz o‘zingiz bilan suhbatlashasiz va fikringizni bildirasiz. Agar siz o‘zingiz bilan muloqot qilsangiz, ijodiy fikrlashda ishonch va ravshanlikka ega bo‘lasiz. Bu qaror qabul qilishda, jumlalar tuzishda, mos so‘zlarni topishda va boshqalar bilan muloqot qilishning samarali usullarini topishda yordam beradi. Bu hamkasblaringizning ishonchini qozonishga yordam beradi.
2	**Shaxslararo muloqot**	Bu yakkama-yakka og‘zaki muloqot sifatida ham tanilgan. Ushbu muloqot shakli ikki kishi o‘rtasida sodir bo‘ladi. Bu fikrni aniq bildirayotganda ko‘rish imkonini beradi. Boshqa odamning reaksiyalari, sharhlari, verbal va noverbal ko‘rsatkichlarni tushunib yetayotganda yoki tushunmaslikni aniqlashga yordam beradi. Muloqot qilish uchun kimdir bilan gaplashishish shart emas. Bu yaqin atrofda nima sodir bo‘layotganidan xabardor bo‘lish bilan bog‘liq. Avval tinglash, keyin o‘ylab ko‘rish va keyin javob berish afzaldir.
3	**Kichik guruh muloqoti**	Kichik guruhlardagi muloqotda odamlar soni ko‘payadi. Siz faqat bir kishi bilan gaplashishdan bir necha kishidan iborat guruhga aylanasiz. Jamoa yig‘ilishlari, kengash yig‘ilishlari va savdo yig‘ilishlari kichik yig‘ilishlarga misoldir. Guruh yetarlicha kichikki, hamma bir-biri bilan suhbatlasha oladi. Munozarani davom ettirish va hammaga gapirish uchun vaqt berish maqsadga muvofiqdir.
4	**Jamoatchilik bilan aloqa**	Bu uslub, shuningdek, “omma oldida nutq so‘zlash” deb ham ataladi. Individ bir vaqtning o‘zida odamlarning katta guruhiga gapiradi. Ommaviy muloqot nutqlar, siyosiy kampaniyalar va taqdimotlarni o‘z ichiga oladi.

Bunday muloqotda tinglovchilar soni ko‘proq bo‘lganligi sababli, ular bilan gaplashishdan oldin tushunarli atama va iboralardan foydalanish hamda fikrlarni tartibga solish imkonini beradi.

Samarali muloqot jarayonida verbal muloqot ko‘nikmalarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Verbal muloqot ovoz balandligi, ovoz tezligi, ohang, til va grammatik tuzilma kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olib, xabarni tinglovchiga aniq va to‘g‘ri yetkazishga xizmat qiladi. Ushbu komponentlar bo‘lajak fransuz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Xususan, grammatikaning to‘g‘ri qo‘llanishi ravon nutqni ta’minlasa, ovoz ritmi va ohang auditoriya e’tiborini jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyat jarayonida bo‘lajak fransuz tili o‘qituvchilari turli kommunikativ to‘siqlarga duch kelishlari mumkin. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun ularning mohiyatini anglash va o‘quv jarayonida amaliy tajribalar orqali yengib o‘tish zarur. Shunday ekan, verbal muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Verbal muloqot dialogik jarayon sifatida nafaqat gapirish, balki tinglash va savol bera olish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Bizning fikrimizcha, verbal muloqotda faol ishtirok etish shaxsning milliy o‘z-o‘zini anglash darajasi, ijtimoiy jarayonlarning demokratlashuvi hamda kasbiy tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayon shaxsning etnik-madaniy kompetensiyasi va suhbatdoshga nisbatan bag‘rikeng munosabati bilan belgilanadi.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining verbal muloqot ko‘nikmalari va nutq odobini rivojlantirish so‘z va lug‘atni mavzuga mos tanlash, dialogik mashqlar orqali tayanch iboralarni qo‘llash, shuningdek, autentik materiallar (filmlar, videodarslar) asosida til, urg‘u va noverbal belgilarni anglash orqali amalga oshiriladi. Til o‘rganish va o‘qitish jarayonida verbal muloqot va nutq odobi yetakchi o‘rin tutib, mazkur metodik yondashuv tadqiqot metodologiyasi bilan bevosita bog‘liqdir [Ximmataliyev, D.O., 2020: 122–124].


Samarali verbal muloqot faol tinglash, aniq va ravon nutq, mos til va ohangdan foydalanish, noverbal signallarni anglash hamda ishonch bilan fikr bildirish kabi qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Xabarni to‘g‘ri talqin qila oladigan va unga mos munosabat bildiradigan pedagoglar kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishadilar. Shu bois nutq odobi qoidalariga rioya qilish muloqotni boshlash, davom ettirish va yakunlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak fransuz tili o‘qituvchilarining verbal-kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida tajriba-sinovning aniqlash bosqichi asosiy rol o‘ynadi. Ushbu bosqichda talabalarning verbal muloqotga bo‘lgan yondashuvi, kasbiy tayyorgarlik darajasi va shaxsiy munosabati tahlil qilindi. Sinovning asosiy maqsadi pedagogik va og‘zaki kasbiy bilimlarni rivojlantirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning verbal-kasbiy ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirishdan iborat edi.

Tajriba doirasida DTS talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan integratsiyalashgan o‘quv modullari qo‘llanildi. Mazkur modullar: “Les études”, “Les jeunes et le sport”, “Pourquoi on étudie la langue étrangère?” va “L’homme et la langue” bo‘lib, ular shaxslar, millatlar, madaniy odatlar, fransuz va o‘zbek yoshlari hayoti, sog‘lom turmush, fransuz tilini o‘rganish motivatsiyalari, AKT vositalari hamda mutaxassislik mavzularini qamrab oladi. Modullar talabalarning verbal muloqot ko‘nikmalarini amaliyotda sinovdan o‘tkazish va ularni kasbiy kompetensiya shakllanishiga jalb etish imkonini berdi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, verbal muloqot orqali kasbiy kompetensiyani takomillashtirish uchta mezon bo‘yicha baholandi. Har bir mezon doirasida talabalarning verbal-kasbiy muloqot ko‘nikmalari dastlabki va yakuniy bosqichlarda o‘lchandi. Tajriba natijalari diagramma ko‘rinishida taqdim etilib, verbal muloqot ko‘nikmalarining tizimli rivojlanishi va kasbiy tayyorgarlik darajasining oshishi aniqlandi.



1-rasm: **Samaradorlik ko‘rsatkichi**

Bo‘lajak fransuz tili o‘qituvchilari o‘rtasida og‘zaki-kasbiy kompetensiyani takomillashtirish bo‘yicha yakuniy tahlil ma’lumotlarining qiyosiy tahlili samarali ekanligini ko‘rsatdi va tadqiqot gipotezasini tasdiqlash imkonini berdi. Muloqot vositasida bo‘lajak fransuz tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tajriba-sinov guruhida nazorat guruhiga qaraganda yuqoriroq darajada namoyon bo‘ldi: ular o‘ziga ishonchni, pedagogik, lingvistik va verbal muammolarni hal qilishda ijodiy, nostandart yondashuvni namoyish etdilar, zaruriy kasbiy va shaxsiy muhim fazilatlarni ko‘rsatdilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish integratsiyalashgan yondashuv orqali, “Xorijiy til” fan modullari yordamida amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda talabalarning verbal, noverbal va paraverbal kommunikatsiya vositalarini samarali qo‘llash, shuningdek, texnologik va shaxsga yo‘naltirilgan metodlarni moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Verbal-kasbiy kompetensiyani rivojlantirish modeli mantiqiy tuzilma va ilmiy asoslangan yondashuvga ega bo‘lib, u selektivlik, diqqat, samaradorlik va ijodiy sezgi mezonlari orqali talabaning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, og‘zaki muloqot vositalaridan foydalanish orqali kasbiy kompetensiyani oshirish mezonlari pedagogik salohiyat va ta’lim darajasiga mos bo‘lishi, shuningdek, kognitiv, operatsion va shaxsiy-ijodiy komponentlarni qamrab olishi lozim. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning verbal-kasbiy ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish va amaliy faoliyatga samarali tatbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: автореф. дис. д-ра пед. наук. – М., 1998. – 48 с.
2. Ashurov, A. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, № 1(30), 76–83. https://journal.fledu.uz, ISSN: 2181-8215
3. Po‘latova O.H. Kasbiy faoliyatida muloqotning roli. Sentral asian research journal for interdisciplinary studies (carjis) issn:2181-2454 volume 2 | issue 1 | 2022. 192-b
4. Ximmataliyev, D.O. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi. Zamonaviy ta’lim / 2020, 7(92).
5. Ne’matova, G.A., Jurayev, T.A. Pedagogical conditions for the formation of socio-cultural competence of students. Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi, 2022, №2.
6. Abdurashidovna, D. D., & Khudayberdiyevna, K. Z. (2022). Scientific and Methodological Foundations for Studying the Problem of Using Modern Pedagogical Technologies in Education. International Journal of Human Computing Studies, 4(4), 14-18.



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "TIBBIY BIOLOGIYA. UMUMIY GENETIKA" FANINI O'QITISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARINING AMALIY AHAMIYATI

Sharipova Farida Salimdjanovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ORCID 0009-0004-5684-7857

Annotatsiya: "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fani tibbiyot ta'limida klinik fikrlashni shakllantirish, irsiy kasalliklar mexanizmlarini tushuntirish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish hamda profilaktik yondashuvlarni rivojlantirishning tayanch ilmiy negizi hisoblanadi. Jahon miqyosida tug'ma nuqsonlar va genetik omillar bilan bog'liq holatlar sog'liqni saqlash tizimi uchun katta yuk bo'lib, taxminan 6% chaqaloqlar tug'ma buzilish bilan tug'ilishi, har yili 240 ming yangi tug'ilgan chaqaloq 28 kun ichida tug'ma buzilishlar oqibatida vafot etishi, 1 oy – 5 yosh oralig'ida esa qo'shimcha 170 ming o'lim qayd etilishi ta'kidlanadi.

Bunday sharoitda genetik savodxonlikni oshirish nafaqat mazmuniy, balki psixologik jihatdan ham to'g'ri tashkil etilgan ta'limni talab qiladi. Jumladan, o'quv motivatsiyasi, kognitiv yuklama, akademik o'z-o'ziga ishonch, stress va baholash xavotiri, refleksiv fikrlash hamda empatiya kabi omillar talabaning genetika bo'yicha bilimni chuqur o'zlashtirishini belgilaydi. Mazkur maqolada fan mazmuni va o'qitish jarayonining psixologik determinantlari tizimli tahlil qilinib, o'zbek tadqiqotchilari ishlari asosida amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, tibbiy biologiya, umumiy genetika, kognitiv yuklama, o'quv motivatsiyasi, akademik o'z-o'ziga ishonch, baholash xavotiri, refleksiya, klinik fikrlash, integrativ ta'lim.

Abstract: The subject "Medical Biology. General Genetics" serves as a fundamental scientific basis for the development of clinical reasoning, understanding the mechanisms of hereditary diseases, evidence-based decision-making, and the formation of preventive approaches in medical education. Congenital defects and conditions associated with genetic factors represent a significant burden on healthcare systems worldwide. Approximately 6% of newborns are born with congenital disorders; about 240,000 newborns die within 28 days of birth each year due to congenital abnormalities, and an additional 170,000 deaths are recorded between 1 month and 5 years of age.

Under such conditions, improving genetic literacy requires not only substantive but also psychologically well-organized instruction. Factors such as learning motivation, cognitive load, academic self-confidence, stress and assessment anxiety, reflective thinking, and empathy determine the depth of students' understanding of genetics. This article systematically analyzes the psychological determinants of the subject content and the teaching process and provides practical recommendations based on the works of Uzbek researchers.

Key words: medical education, medical biology, general genetics, cognitive load, learning motivation, academic self-confidence, assessment anxiety, reflection, clinical reasoning, integrative education.

Аннотация: Дисциплина “Медицинская биология. Общая генетика” является фундаментальной научной основой формирования клинического мышления, объяснения механизмов наследственных заболеваний, принятия решений на основе доказательной медицины и развития профилактических подходов в медицинском образовании. Врожденные дефекты и состояния, связанные с генетическими факторами, представляют значительную нагрузку на систему здравоохранения во всем мире: около 6% новорожденных появляются на свет с врожденными нарушениями, ежегодно 240 тысяч новорожденных умирают в течение первых 28 дней жизни по причине врожденных аномалий, а в возрасте от 1 месяца до 5 лет регистрируется еще около 170 тысяч смертей.

В таких условиях повышение генетической грамотности требует не только содержательно выстроенного, но и психологически грамотно организованного обучения. Такие факторы, как учебная мотивация, когнитивная нагрузка, академическая уверенность в себе, стресс и тревожность при оценивании, рефлексивное мышление и эмпатия, определяют глубину усвоения студентами знаний по генетике. В статье системно анализируются психологические детерминанты содержания дисциплины и образовательного процесса, а также представлены практические рекомендации, основанные на работах узбекских исследователей.

Ключевые слова: медицинское образование, медицинская биология, общая генетика, когнитивная нагрузка, учебная мотивация, академическая уверенность в себе, тревожность при оценивании, рефлексия, клиническое мышление, интегративное обучение.

KIRISH

Barchamizga ma’lumki, “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fani tibbiyot oliy ta’limda bazaviy fundament hisoblanadi, u hujayra, to‘qima va organizm darajasidagi biologik qonun qoidalarni inson salomatligi va kasalliklar patogenezi bilan bog‘laydi, shu orqali klinik fikrlashning ilk “ilmiy tili”ni shakllantiradi. Zamonaviy tibbiyotda diagnostika va davolashning katta qismi irsiy va genomik ma’lumotlar bilan uzviy bog‘lanib borayotgani uchun, bu fan nafaqat nazariy bilim beradi, balki shifokorning amaliyotda qaror qabul qilish qobiliyatini tizimli ravishda rivojlantiradi.

Tibbiyot oliy ta’limning sifat ko‘rsatkichlari hozirda faqat o‘quv reja va fan dasturining “nima o‘qitiladi” qismigagina bog‘lanmaydi, “qanday o‘qitiladi” va “talaba bu jarayonda qanday psixologik holatda o‘zlashtiradi” degan savollar ham natijani hal qiladi. “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fani aynan shunday fanlar sirasiga kiradi: unda abstrakt biologik tushunchalar klinik holatlar bilan bog‘lanadi va talaba bir vaqtning o‘zida nazariya, laborator mantiq va amaliy tashxisiy fikrlashni uyg‘unlashtiradi. Integratsiya kuchaygan sari talaba oldida bilimlar “bo‘lak-bo‘lak” emas, “yaxlit tizim” ko‘rinishida qurilishi zarur bo‘ladi; bu esa psixologik jihatdan kognitiv yuklamani boshqarish, diqqat va xotirani to‘g‘ri yo‘naltirishni talab etadi. O‘zbekistonda tibbiy oliy ta’limda fundamental fanlarni integral tizimda o‘qitish motivlari, klinik fikrlashning erta rivojlanishi, refleksiv fikrlash va empatiya treninglari kabi yo‘nalishlar muhim metodik maydonga aylangani qayd etilgan.

Fanning dolzarbligi eng avvalo aholi salomatligi ko‘rsatkichlarida ko‘rinadi. Jahon miqyosida chaqaloqlarning taxminan 6% qismi tug‘ma nuqson/tug‘ma buzilishlar bilan tug‘iladi va bu yuz minglab o‘lim holatlari bilan bog‘liq. WHO ma’lumotlarida har yili taxminan 295 000 yangi tug‘ilgan chaqaloq 4 haftalikka yetmasdan tug‘ma buzilishlar va ularning asoratlari sabab vafot etishi ta’kidlanadi. Shuningdek, CDC’ning global sharhida har yili dunyo bo‘yicha 3-6% chaqaloq “jiddiy” tug‘ma nuqson bilan tug‘ilishi va bu miqdor 8 milliondan ziyod bolani tashkil etishi qayd etilgan. Bunday raqamlar oliy ta’limda genetika va tibbiy biologiyani “bir semestrlik nazariya” sifatida emas, balki klinik fanlar bilan integratsiyada o‘qitish zaruratini asoslaydi: akusherlik-ginekologiya, pediatriya, onkologiya, kardiologiya, nevrologiya, farmakologiya, epidemiologiya kabi yo‘nalishlarda genetik savodxonlik amaliyotning sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Mazkur fanning ilmiy negizini inson genomi haqidagi fundamental tushunchalar tashkil qiladi: inson genomida taxminan 3,2 milliard nukleotid jufti mavjud va “faqat” 20-25 ming atrofida oqsil kodlovchi genlar bo‘lishi genom tuzilishi qanchalik murakkab ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ikki inson genomi o‘rtasidagi farq o‘rtacha 0,1% atrofida bo‘lsada, ayrim nuqtali mutatsiyalar, delesiya, duplikatsiyalar, xromosom anomaliyalar yoki regulyator o‘zgarishlar klinik ahamiyatga ega fenotiplar va kasalliklarga olib kelishi mumkin. Demak, “umumiy genetika”ning o‘quv maqsadi - faqat Mendel qonunlarini yodlash emas; asosiy maqsad - genetik o‘zgarishlarning biologik mexanizmini va ularning klinik “oqibatlar zanjiri” ni tushuntirish, test natijasi bilan fenotip o‘rtasidagi bog‘lanishni dalillarga tayanilgan tarzda asoslashdir. Oliy ta’limda fanni o‘qitish mazmuni odatda quyidagi bloklarni qamrab oladi:

- hujayra biologiyasi va irsiy axborot oqimi;
- xromosoma nazariyasi va sitogenetika;
- molekular genetika;
- Mendel irsiyati;

- populyatsion genetika va xavfni hisoblash;
- monogen va multifaktor kasalliklar;
- onkogenetika.

Bu mazmun "klinik kompetensiya"ga aylanishi uchun esa o'qitish metodikasi o'zgarishi kerak - muammo-asosli ta'lim, klinik keyslar, laborator amaliy mashg'ulotlar va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash markaziy o'rin tutishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika"ni o'qitish metodikasini takomillashtirish yo'nalishida konseptual va amaliy yondashuvlar shakllangan. F.S.Sharipova[1] avtoreferatida mazkur fan bo'yicha metodik takomillashtirish obyekt sifatida qo'yilib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali kabi bazalardan 341 nafar talaba jalb etilgani ko'rsatiladi - bu esa o'qitish samaradorligini psixologik va pedagogik mezonlar orqali baholashga imkon bergan. Ushbu yo'nalishda motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli va shaxsiy-refleksiv mezonlar integratsiyasi, elektron muhitda axborot almashinuvi, loyihalash faoliyati hamda interfaol dasturiy vositalar kabi didaktik yechimlar ajratib ko'rsatiladi. Bu yerda bevosita psixologik komponent - talabaning o'z-o'zini boshqarishi, refleksiya va o'quv faoliyatidagi subyektlik hissi kuchayishi bilan bog'lanadi.

Tibbiy ta'limda integratsion modelning psixologik poydevori haqida A.A.Sidikov va M.T.Rasulova[2] monografiyasida integral ta'limning kognitiv yuklamani optimallashtirish, bilimlar bog'langanda yaxshiroq saqlanishi, multidissiplinar fikrlash va amaliy qaror qabul qilish tezligini oshirishi kabi mexanizmlar ta'kidlanadi. Bu qarashlar "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini klinik misollar bilan boyitish, muammoli vaziyatlar va kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash orqali talabaning ichki motivatsiyasi hamda o'zini samarali his etish tajribasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tibbiy psixologiya yo'nalishida Z.R.Ibodullayev[3] darsliklari va konseptual ishlari (tibbiyot psixologiyasini o'qitish konsepsiyasi) shifokor-bemor munosabatlari, deontologiya va stress omillari bilan ishlashga doir nazariy asoslarni shakllantirgan manbalar sifatida tilga olinadi; bu yondashuv genetika kabi "yetuk jihatdan sezgir" mavzularni o'qitishda ayniqsa dolzarbdir. Shuningdek, tibbiyotda psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan mahalliy maqolalarda klinik psixologiya bo'limlari, psixosomatika, deontologik psixologiya va psixoprofilaktika kabi komponentlar tibbiy amaliyotning ajralmas qismi ekani qayd etiladi; bu esa fanlararo integratsiyaga psixologik "ko'prik" bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola tahliliy-konseptual metodologiyaga tayangan holda ishlab chiqildi:

1) normativ-hujjatli tahlil (o'quv yuklamasi, modul talablari va kompetensiya yo'nalishlari),
2) psixologik-didaktik konstruktlar tahlili (motivatsiya, kognitiv yuklama, baholash xavotiri, refleksiya),
3) o'zbek tadqiqotchilari ishlari asosida integrativ model sintezi.

Fan yuklamasi va tashkil etilishiga doir misol sifatida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" moduli bo'yicha jami 180 soat, auditoriya mashg'uloti 90 soat va 6 ECTS kredit keltirilgan[4]. Empirik asosni ko'rsatish uchun Sharipova F.S. ishida berilgan 341 nafar respondentli tajriba-sinov ko'lami va natijalarni matematik-statistik usullarda asoslash amaliyoti model sifatida qabul qilindi.

Tahlil va natijalar

Xalqaro tajriba genetika ta'limida "kontakt soatlari" va integratsiya darajasi turlicha ekanini ko'rsatadi. AQSh va Kanada tibbiyot maktablarida o'tkazilgan so'rov natijalarida javob berganlarning 62% qismi tibbiy genetikaga 20-40 soat ajratgani, 47% holatda fan 3-4-kurslarga ham kiritilgani, 46% maktabda alohida kurs, 54%da esa boshqa kurslarga integratsiya qilingani keltirilgan. Shu manbada qayd etilganidek, ko'p o'qitiladigan mavzular orasida onkogenetika (94,2%), multifaktor irsiyat (91,3%), Mendel kasalliklari (90,3%), klinik sito-

1 Sharipova F.S. Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Guliston, 137 b., 2024.
2 Sidikov A.A., Rasulova M.T. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fundamental fanlarni integral tizimida o'qitishning asosiy motivlari: Monografiya. Farg'ona, 96 b., 2025.
3 Ibodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi: Darslik. Toshkent, 378 b., 2008.
4 "Farmatsevt assistenti" ta'lim dasturi (50910401): "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" moduli bo'yicha yuklama va ECTS ko'rsatkichlari. Namuna dastur materiallari, 2025. (studylib.net)

genetika (89,3%) yuqori ulushni tashkil qilgan. Bu raqamlar oliy ta'lim uchun muhim signal beradi, genetika "birinchi kursda o'tib ketadigan" fan bo'lib qolsa, uning klinik qo'llanishiga oid ko'nikmalar yetarlicha shakllanmasligi mumkin.

Bu muammo talabalarning o'z-o'zini baholashi va ishonch ko'rsatkichlarida ham aks etadi. Masalan, Britaniyada bitirish arafasidagi talabalar orasida o'tkazilgan milliy so'rovda 19 tibbiyot maktabidan 145 talaba qatnashgan, bunda asosiy tushunchalar bo'yicha ishonch yuqori bo'lgan, ammo klinik qo'llanishda sezilarli pasayish kuzatilgan. Genomik testlar haqida "yaxshi bilimga egaman" deganlar 28% bo'lgan, variant interpretatsiyasini yetarli tushunmasligini bildirganlar 59%ni tashkil etgan. Bu statistika o'qitishda "variant talqini", "klinik test tanlash", "natijani bemorga tushuntirish" kabi amaliyotga yaqin kompetensiyalar maxsus didaktik dizayn talab qilishini ko'rsatadi.

Shu nuqtada "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitishning metodik modeli quyidagi tamoyillarga tayanadi.

Birinchidan, spiralsimon integratsiya - genetik tushunchalar birinchi kursda kiritiladi, keyin klinik fanlar bilan birga har kursda qayta ochiladi.

Ikkinchidan, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim - talabada a) shajara tuzish va irsiylik tipini ajratish, b) residiv xavfini hisoblash, v) test turini tanlash (skrining/diagnostik), g) natijani talqin qilish va cheklovlarini tushuntirish, d) bioetik qarorlarni anglash ko'nikmalari baholanadi.

Uchinchidan, "ma'lumotlar ekotizimi" bilan ishlash: klinik genetikada bazalar (OMIM kabi)dan foydalanish - amaliyot standarti. Masalan, OMIM'da 7 400 dan ziyod kasallik va 4 800 dan ziyod genda patogen variantlar bilan bog'liq ma'lumotlar tizimlashgani, va u kunlik o'rtacha 35 000 dan ortiq mutaxassis tomonidan ishlatilishi ta'kidlanadi. Bunday resurslarni ta'limga kiritish talabaning "qidirish-solishtirish-dalil keltirish" madaniyatini shakllantiradi.

Ta'limni klinik misollar bilan boyitishning eng samarali yo'li - yuqori tarqalgan xromosom kasalliklar va ularning ko'p tarmoqli oqibatlarini keys sifatida berishdir. Masalan, Down sindromi AQShda har yili taxminan 5 700 chaqaloqda uchrashi va 1/640 tug'ilishga to'g'ri kelishi keltirilgan. Uning klinik ahamiyati faqat kariotipdagi trisomiya bilan cheklanmaydi, shuningdek, Down sindromi bo'lgan chaqaloqlarning 50-65% qismida tug'ma yurak nuqsoni kuzatilishi, eshitish pasayishi 75% gacha yetishi mumkinligi, uyqu apnoesi 50-75% orasida uchrashi kabi ko'rsatkichlar multidissiplinar nazorat zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun genetika darsida "diagnoz qo'yish" bilan birga, 1) qanday skrining va tasdiqlovchi testlar kerakligi, 2) oilaga ehtimolligi tushuntirish, 3) komorbid holatlarni rejali tekshirish algoritmini klinik fanlar bilan bog'lab o'qitish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy tibbiyotda genetika ta'limi farmakogenomikasiz to'liq bo'lmaydi. Dori vositalariga javob, nojo'ya ta'sir xavfi va dozalashda genomik biomarkerlar ahamiyati ortib bormoqda. Natijalar dori yorliqlarida farmakogenomik ma'lumot mavjud bo'lgan terapevtik mahsulotlar jadvalini muntazam yangilab borishi va yorliqlarda genotipga oid dozalash yoki xavf haqida ko'rsatmalar uchrashi bu tendensiyaning regulyator darajada ham mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Ta'limda bu yo'nalishni oddiy "misol" sifatida emas, balki klinik farmakologiya bilan qo'shma seminarlar orqali berish talabaning dalilga asoslangan qaror qabul qilishini kuchaytiradi.

Baholash tizimi ham fan mohiyatiga mos bo'lishi kerak. Faqat test savollari bilan cheklanish talabani yodlashga yo'naltiradi, shuning uchun OSKE elementlari, amaliy hisob-kitob, laborator protokolni tushunish va yozma klinik fikrlash tavsiya etiladi. Bunda yuqorida keltirilgan xalqaro so'rovlardan ko'rinadiki, aynan "variant interpretatsiyasi" va "klinik genomik testlar" bo'yicha ishonch past bo'lgani uchun, baholash ham shu kompetensiyalarni maqsadli ravishda o'lchashi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish, talabalar uchun zamonaviy tibbiyot va biologiya sohalarini tushunishning poydevorini yaratadi. Ushbu fanning o'qitilishi psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega, chunki talabalarga bilimlarni qabul qilish va ularga asoslangan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda psixologik omillar, xususan, motivatsiya, e'tibor, xotira va his-tuyg'ular katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolada tibbiy biologiya va umumiy genetika fani o'qitilishining psixologik jihatlari tahlil qilinadi va uning talabalar bilimiga ta'siri, shuningdek, o'qitish jarayonida psixologik yondashuvlarning amaliy ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Tibbiy biologiya va umumiy genetika fani o'qitish jarayonida psixologik yondashuvlarning ahamiyati katta. O'qituvchining pedagogik texnologiyalari, o'quv materiallari va metodlarining to'g'ri tanlanishi talabaning bilish faoliyatini faollashtiradi va ularning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda muvaffaqiyatli ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Talabalar o'qitish jarayonida nafaqat bilim olishadi, balki ular yangi ma'lumotlarni idrok etish va ulardan foydalangan holda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.


MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ



1-rasm: **Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitishning psixologik jihatlarining amaliy ahamiyati**

O'quv jarayonida psixologik yondashuvlar o'quvchilarning o'quv faolligini oshiradi, ularning motivatsiyasini kuchaytiradi va genetik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Genetika kabi murakkab va abstrakt fanni o'rgatishda, o'quvchilarning psixologik ehtiyojlari va kognitiv jarayonlari inobatga olinishi zarur. Psixologik aspektlarni inobatga olish, o'qitishning samaradorligini oshirishda va talabalarni fan bilan mustahkam bog'lashda muhimdir.

Motivatsiya o'quv jarayonining markaziy psixologik omili hisoblanadi. Genetika kabi fanlar, ayniqsa, talabalar uchun ba'zan qiyin va murakkab bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilar talabalarni fan o'rganishga qiziqtirishi va motivatsiyasini oshirishi lozim. Talabalarga o'zlashtirilgan bilimning amaliy ahamiyatini ko'rsatish, ularni real hayotda qo'llash imkoniyatlarini taqdim etish, ilmiy tadqiqotlar va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni muhokama qilish motivatsiyani oshiradi. Motivatsiya orqali talabalar o'z bilimlarini kengaytirishga, yangi bilimlarni o'rganishga va bu bilimlarni o'z kasbiy faoliyatlarida qo'llashga tayyor bo'ladilar.



2-rasm: **Tibbiy biologiya. Umumiy genetika**

O‘qitishda motivatsiyani oshirish uchun turli psixologik metodlar, masalan, muvaffaqiyatlarni taqdirlash, maqsadga yo‘naltirilgan o‘qitish, interaktiv yondashuvlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishi mumkin. Bu metodlar talabalarni o‘rganish jarayoniga yanada jalb qilish va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Tibbiy biologiya va umumiy genetika kabi murakkab fanlarni o‘rgatishda e’tibor va xotira muhim psixologik komponentlar hisoblanadi. Talabalar o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishi uchun e’tiborlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va ma’lumotlarni xotirada saqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. O‘qituvchilar darslarda talabalar e’tiborini markazlashtiradigan metodlarni qo‘llashlari lozim. Masalan, videolar, illyustratsiyalar va amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quv materialini yanada qiziqarli va tushunarli qilish mumkin.

Xotira jarayoni, o‘z navbatida, bilimlarni uzoq muddatli saqlashga yordam beradi. O‘qitishda qisqa muddatli yodlashni emas, balki ma’lumotlarni uzun muddatga eslab qolishni maqsad qilish zarur. Bunda, takrorlash, ko‘rgazmali materiallar va interaktiv mashg‘ulotlar yordamida talabalar o‘rganganlarini yanada mustahkamlashlari mumkin.

Tibbiy biologiya va umumiy genetika fanini o‘qitishda talabalar psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Har bir talabaning individual xususiyatlari, kognitiv qobiliyatlari, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish darajasi turlicha bo‘ladi. Psixologik jihatdan turli xil yondashuvlar, masalan, vizual va audial o‘rganish usullarining kombinatsiyasi talabalar uchun samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, talabalar o‘rtasida bilimni baham ko‘rish va guruhli ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘rganish jarayonining yanada samarali bo‘lishiga olib keladi.

Tibbiy biologiya va umumiy genetika fanini o‘qitishda psixologik yondashuvlar, ayniqsa, interaktiv metodlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Interaktiv darslar, muammoli vazifalar va laboratoriya ishlari talabalar bilan bevosita aloqada bo‘lishni ta’minlaydi, bu esa ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘qituvchilar tomonidan psixologik jihatlarni hisobga olgan holda qo‘llaniladigan didaktik materiallar, masalan, diagrammalar, grafiklar, ko‘rgazmali materiallar va amaliy mashg‘ulotlar, talabalar uchun murakkab bilimlarni yanada tushunarli qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiy biologiya. Umumiy genetika” fanini o‘qitishda psixologik yondashuvlarning amaliy ahamiyati katta. Fan o‘qitish jarayonida motivatsiya, e’tibor, xotira va talabalar psixologik xususiyatlarini hisobga olish, bilimlarni samarali o‘rganishga yordam beradi. Psixologik jihatlarni inobatga olish, o‘quvchilarning bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirish va amaliyotga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar uchun psixologik yondashuvlar nafaqat talabalar bilimini oshiradi, balki ularning kelajakda kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlarini ta’minlaydi. Demak:

Birinchidan, fan mazmunining murakkabligi “kognitiv yuklama”ni keskin oshiradi. Genetika mavzularida yangi terminlar, ko‘p bosqichli sabab-oqibat zanjirlari va ehtimollik tafakkuri talabadan yuqori ishchi xotira resurslarini so‘raydi. Integral o‘qitish yondashuvi kognitiv yuklamani “ma’noli sxema”ga aylantirib, ortiqcha yukni kamaytiradi: talaba “quruq formula”ni emas, “kasbiy vazifa”ni yechayotganini his qiladi. Sidikov Rasulova monografiyasida integratsiya kognitiv yuklamani optimallashtirish va multidissiplinar fikrlashni shakllantirishi bevosita ko‘rsatiladi.

Ikkinchidan, motivatsiya va akademik o‘z-o‘ziga ishonch fan natijadorligini belgilovchi yetakchi omillardan biridir. F.S.Sharipova ishida motivatsion-qadriyatli mezon alohida komponent sifatida ajratilib, elektron muhit, interfaol vositalar va loyihalash faoliyati orqali talabada tashabbuskorlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Psixologik nuqtai nazardan bu, talabaning “men buni uddalay olaman” degan ichki ishonchini oshiradi. Ayniqsa laborator topshiriqlarda tez-tez uchraydigan xatolarni “jazolash” emas, “o‘qituvchi fikr-mulohazasi” orqali to‘g‘rilash mexanizmi muhim.

Uchinchidan, baholash xavotiri va stressni boshqarish genetika o‘qitishida alohida amaliy ahamiyatga ega. Genetik risk, tug‘ma buzilishlar va irsiy kasalliklar mavzusi talabalarda emotsional rezonans uyg‘otadi, bu holat noto‘g‘ri boshqarilsa, himoya reaksiyalari kuchayadi. Tibbiy psixologiya adabiyotlarida tibbiyot amaliyotida psixologik yondashuvning zarurligi, deontologiya va psixoprofilaktika tamoyillari qayd etiladi.

To‘rtinchidan, psixologik tayyorgarlikning klinik kommunikatsiyaga chiqishi. Genetika bo‘yicha bilimlar real amaliyotda bemor va oila bilan riskni tushuntirish, skrining natijasini izohlash, noaniqlikni boshqarish va hamdardlik bilan muloqot qilishga ulanadi. Bu yerda empatiya va refleksiv fikrlash muhim “yumshoq ko‘nikma” sifatida namoyon bo‘ladi, integral ta’lim motivlari doirasida empatiya treninglari va refleksiv fikrlash bo‘limlari kiritilgani ham bejiz emas.


Beshinchidan, global standartlar bilan uyg'unlik. WFME global standartlari tibbiy ta'limni baholash va takomillashtirishda "doimiy yangilanish" va "mahalliy kontekstga moslash" tamoyillarini ilgari suradi. "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika"ni o'qitishda ham mazmun yangilanishi bilan bir qatorda, talabaning psixologik resurslarini asraydigan didaktik dizayn zarur: bosqichma-bosqich murakkablashuv, ko'rgazmalilik, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar, shuningdek, kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash.

Xulosa qilib aytganda, "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini oliy ta'limda yuqori samara bilan o'qitish - tug'ma buzilishlar va irsiy kasalliklar yuki kabi global realliklar bilan asoslangan strategik vazifadir. Bu fanning professor darajasidagi o'qitilishi ma'lumotlarni, amaliyotni va huquqiy mas'uliyatni bir butun kompetensiyaga aylantirgandagina kutilgan natijaga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharipova F.S. Oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy biologiya. Umumiy genetika" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Guliston, 2024. 137 b.
2. Sidikov A.A., Rasulova M.T. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fundamental fanlarni integral tizimida o'qitishning asosiy motivlari: Monografiya. Farg'ona, 2025. 96 b.
3. Ibodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi: Darslik. Toshkent, 2008. 378 b.
4. Ibodullayev Z.R. O'zbekistonda tibbiyot psixologiyasini o'qitish kontseptsiyasi. Patologiya jurnali, №1, 2009. 31-33,
5. Karimova V. Salomatlik psixologiyasi. Toshkent, 2005.
6. Raximov Sh.A., Daminova M.I. Tibbiyot sohasida psixologik bilimlarning o'rni va ahamiyati. Educational Research in Universal Sciences, Maxsus son 8, 2023. 100-103.

FRANSUZ TILI TA'LIMIDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI



Muzaffarova Nodira Mardonovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
"Romano-german tillari" kafedrasi dotsent v.b.(PhD)
ORCID:0009-0001-8486-7095

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot universitet talabalarining fransuz tili mashg'ulotlarida madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiyasini (ICC) rivojlantirish masalasini o'rganadi. Global kommunikatsiyada madaniyatlararo ko'nikmalarning ahamiyati ortib borayotganini hisobga olgan holda, tadqiqot talabalar madaniyatlararo chegaralarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini oshirishda kommunikativ pedagogik texnologiyalarning rolini tahlil qiladi. Nazariy asos sifatida ICCning asosiy modellari [1;2] va so'nggi empirik tadqiqotlar [3] integratsiyalangan bo'lib, til bilimlari, madaniyat haqidagi bilim va tanqidiy ong o'rtasidagi bog'liqlikka urg'u berilgan. Tadqiqotda to'g'ridan to'g'ri qo'llanma, interfaol topshiriqlar va autentik madaniy materiallarni o'z ichiga olgan aralash metodlar qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ texnologiyalarni tizimli qo'llash talabalar ICCsini sezilarli darajada oshiradi, tanqidiy fikrlash va amaliy til qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot xorijiy til o'qitish metodikasi rivojiga hissa qo'shadi va madaniyatlararo kompetentsiyani til o'quv dasturlariga integratsiya qilish uchun model taqdim etadi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiya, fransuz tili o'qitish, kommunikativ texnologiyalar, pedagogik strategiyalar, madaniyatni anglash, universitet talabalari.

Abstract: This study investigates the development of intercultural communicative competence (ICC) among university students in French language classes. Recognizing the increasing importance of intercultural skills in global communication, the research examines how communicative pedagogical technologies can enhance students' ability to interact effectively across cultural boundaries. The theoretical framework integrates seminal ICC models [1; 2 and recent empirical studies [3], emphasizing the relationship between language proficiency, cultural knowledge, and critical awareness. A mixed-methods approach was employed, combining explicit instruction, interactive tasks, and authentic cultural materials. Results indicate that the systematic application of communicative technologies significantly improves students' intercultural understanding, critical thinking, and practical language use. This research contributes to advancing pedagogical strategies in foreign language education and provides a model for integrating cultural competence into language curricula.

Key words: Intercultural communicative competence, french language teaching, communicative technologies, pedagogical strategies, cultural awareness, university students.

Аннотация: Данное исследование посвящено развитию межкультурной коммуникативной компетенции (ICC) студентов университетов на занятиях французским языком. С учётом растущей важности межкультурных навыков в глобальной коммуникации, исследование анализирует роль коммуникативных педагогических технологий в повышении способности студентов эффективно взаимодействовать в межкультурной среде. Теоретическая база интегрирует основные модели ICC [1; 2] и современные эмпирические исследования [3], подчёркивая связь между языковой компетенцией, культурными знаниями и критическим осознанием. Для исследования использовался смешанный метод, включающий прямую инструкцию, интерактивные задания и аутентичные культурные материалы. Результаты показывают, что систематическое применение коммуникативных технологий существенно повышает межкультурное понимание студентов, критическое мышление и практическое использование языка. Исследование вносит вклад в совершенствование педагогических стратегий в преподавании иностранных языков и предлагает модель интеграции культурной компетенции в учебные программы.

Ключевые слова: Межкультурная коммуникативная компетенция, преподавание французского языка, коммуникативные технологии, педагогические стратегии, культурная осознанность, студенты университета.

KIRISH

Madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiya (Intercultural Communicative Competence - ICC) zamonaviy xorijiy til ta'limida markaziy ahamiyat kasb etadi, chunki u til o'rganuvchilarning nafaqat lingvistik bilimini, balki madaniyatlararo muloqot qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. ICC konsepsiyasi shuni ta'kidlaydiki, til o'rganish faqat grammatika, lug'at va talaffuz bilan chegaralanmasligi lozim; u talabalarda madaniy tushuncha, ijtimoiy-pragmatik ong va hissiy ko'nikmalarni shakllantirishi kerak, bu esa ularni samarali intercultural muloqotga tayyorlaydi [6].

Oliy ta'lim muassasalarida ICCning ahamiyati yanada ortadi, chunki talabalar professional va akademik muhitlarda ko'proq madaniyatlararo hamkorlik va muzokaralar olib borishga majbur bo'ladilar. Ahnagari va Zamanian ta'kidlaganidek, ICCni rivojlantirish uchun aniq pedagogik strategiyalar zarur bo'lib, ularga autentik materiallar, interaktiv vazifalar va reflektiv mashqlar kiradi, bu esa talabalarni madaniyatlararo vaziyatlarga chuqurroq jalb qiladi [11]. Shu tarzda talabalar boshqa madaniyatlar haqida faqat nazariy bilimga ega bo'lib qolmay, real hayotda moslashish va empatiya ko'rsatish qobiliyatini ham rivojlantiradilar. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ICCni o'quv dasturiga integratsiya qilish til bilimini oshirish bilan birga madaniy anglashni ham rivojlantiradi. Masalan, rolli o'yinlar, case-study, telekolaboration mashqlari talabalarning madaniyatlararo muloqot qobiliyatini mustahkamlaydi, shu bilan birga mustaqil fikrlash va kritikal yondashuvlarni rivojlantiradi [7].

Bu dalillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik tizim nafaqat lingvistik jihatdan samarali, balki madaniyatlararo jihatdan ham javob beruvchi bo'lishi lozim. Nazariy jihatdan, ICC uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: bilim, ko'nikma va munosabat. Bilim komponenti madaniy amaliyotlar, qadriyatlar va kommunikativ normalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi; ko'nikma komponenti intercultural dialogda samarali qatnashish qobiliyatini rivojlantiradi; munosabat komponenti esa ochiqlik, qiziqish va madaniy xilma-xillikka hurmatni o'z ichiga oladi [1]. Oliy ta'lim sharoitida ushbu komponentlar o'zaro uyg'unlashib, talabalarning umumiy kommunikativ kompetentsiyasini shakllantiradi va ularni ko'p madaniyatli akademik, ijtimoiy va professional muhitga tayyorlaydi.

Shuningdek, ICCni til ta'limiga tizimli integratsiya qilish zarurati global darajada talab qilinadigan malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Pedagogik xulosalar shuni ko'rsatadiki, o'quv dasturlari an'anaviy grammatika-translation yoki kommunikativ metodlardan oshib, madaniyatni o'rgatish va madaniyatlararo ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga olishi lozim [6].

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiya zamonaviy xorijiy til pedagogikasida ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni fransuz tili ta'limida rivojlantirish lingvistik, madaniy va ijtimoiy-pragmatik o'lchamlarni birlashtirgan integrativ yondashuvni talab qiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim talabalari orasida ICCni samarali rivojlantiruvchi pedagogik tizimni aniqlash va ishlab chiqishdir, bu esa ularning kommunikativ qobiliyatlari va madaniyatlararo anglashini globallashgan ta'lim sharoitiga mos ravishda oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiya (Intercultural Communicative Competence - ICC) konseptsiyasi til o'rganishdan ko'ra keng va murakkab tushuncha bo'lib, u til, madaniyat, ijtimoiy munosabatlar hamda global muloqot qobiliyatlarini o'zaro bog'laydi. ICCni ta'riflayotganda ko'p olimlar ushbu tushunchani "talaba tilni bilishi bilan birga boshqa madaniyatlar bilan samarali hamda qoniqarli muloqot olib bora olish qobiliyati" sifatida ko'rsatadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, til o'qitishning ma'nosi faqat til qoidalarini o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchining madaniyatlar o'rtasidagi farqlar, umumiy qadriyatlar va sotsial normalarni tushunishga tayyorligini ham shakllantirishi kerak. Zhou va hammualliflar ICCni haqiqiy kommunikatsiyaning markaziy qismi deb hisoblab, u til bilimi va madaniyat anglashni integratsiyalashi kerakligini ta'kidlaydilar [6].

Xorijiy til pedagogikasida ICCning nazariy asosi ko'p tomonlama komponentlar orqali shakllanadi. Masalan, Byram ICCni to'rt asosiy komponentga bo'ladi deb ta'riflaydi:

1. Bilim (Knowledge) - madaniyatlar haqida bilish,
2. Ko'nikma (Skills) - tilni madaniyatlar bilan bog'liq holda qo'llay olish,
3. Munosabat (Attitudes) -ochiqlik va madaniyatlarga hurmat,

Tahliliy ong (Critical Awareness) - madaniyatlararo farqlarni tan olish va tahlil etish qobiliyati [1]. Bu komponentlar ICCni faqat til qoidalarini o'zlashtirishdan emas, balki talabaning jalb qilinishi, tushunishdagi murakkabliklar va ijtimoiy signallarga moslashuvini ta'minlaydigan tizim sifatida ko'rinishini ta'minlaydi. Amalda ICCni rivojlantirishda adabiy tildan tashqari, ma'rifiy (cognitive) ong, emotsiya va madaniyatlararo munosabatlar ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ICC yuqori bo'lgan talabalar murakkab madaniyatlararo vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladi, madaniyatlararo nizolarni hal eta oladi va global muloqot sharoitida o'zini ishonch bilan tutadi [7].

Shu bilan birga, ICCning nazariy asoslari til o‘qitishda “languaculture” (til + madaniyat) yondashuvi orqali anglashtiriladi. Bu yondashuv til va madaniyatni bir butun sifatida qabul qiladi, chunki til madaniyatni aks ettiruvchi vositadir va “xalqaro til o‘rgatishda madaniyatni e’tibordan chetda qoldirmaslik” talab etiladi [2]. Shu sababli ICC nazariyasi o‘qitish jarayonini individual, ijtimoiy va global omillar bilan bog‘laydi, talaba madaniyatlar orasida ma’no izlashni o‘rganadi va u global muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiyani pedagogik tizim darajasida rivojlantirish uchun ushbu yondashuvlarni qamrab olgan:

1. Tahliliy-solishtirma metod

Tadqiqotning биринчи bosqichi turli хил ICC modellarini tahlil qilish va solishtirishdan iborat bo‘ldi. Bunday yondashuv boshqa mamlakatlarda madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan pedagogik tizimlarni aniqlashga xizmat qildi. Bu bosqichda akademik maqolalar, metodik qo‘llanmalar va xalqaro konferensiya materiallari tahlil qilindi, bunda ICCning didaktik, kommunikativ va madaniy qirralariga e’tibor qaratildi.

2. Explicit instruction (Aniq o‘qitish)

“Explicit instruction” usuli bilan ICCni rivojlantirish samarali ekani ko‘rsatildi: talabalarga madaniyatlararo vazifalar, madaniy kontekstli dialoglar va real kommunikativ mashqlar taqdim etilganda, ularning ICC ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, Tayvandagi EFL talabalari kontekstida “explicit instruction” usuli til bilimlari va madaniyatni anglash komponentlari bo‘yicha ICCni sezilarli darajada oshirganligi qayd etilgan [3].

3. Interaktiv pedagogik usullar

Madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish uchun talabalar bilan role-play, case study, telekolaboration va reflektiv topshiriqlar qo‘llanildi.[12] Bu usullar talabalarni real madaniyatlararo vaziyatlarda faol qatnashishga undaydi va ularning ijtimoiy kommunikativ ko‘nikmalarini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, telecollaboration usuli talabalarni boshqa madaniyat vakillari bilan o‘zaro muloqot jarayonida kommunikativ nuqtayi nazarni kengaytiradi va talabalarga global muloqotda moslashishga yordam beradi (telecollaboration model).

4. Diagnostika va baholash usullari

ICCni baholashda kognitiv testlar, madaniy vaziyatlar diagnostikasi, o‘zaro interaktiv vazifalar natijalariga asoslangan baholash mezonlari ishlab chiqildi. Bu yondashuv talabalarning individual yutuqlari va pedagogik tizim samaradorligini aniq o‘lchash imkonini berdi.

Ushbu metodlar kompleks tarzda tadqiqot pedagogik tizimining samaradorligini ta’minlashga xizmat qildi va ICCni faqat til bilimidan ko‘ra keng қамраб қиладиган tizim sifatida shakllantirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot ICC pedagogik tizimini quyidagi asosiy komponentlar orqali amalga oshirildi:

1. Bilim komponenti

Bilim ICCning fundamental qismidir va talabalar boshqa madaniyat haqida lingvistik, tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda bilimga ega bo‘lishlari zarur. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, talabalarga fransuz madaniyati, muloqot odatlari va ijtimoiy an’analar haqida autentik manbalar va matnlar bilan ishlash imkoniyati berilganda ularning madaniyatlararo tushunishi samaraliroq bo‘ladi. Masalan, Liu va boshqalar ta’kidlaydiki, autentik madaniyatlararo vaziyatlar bilimni mustahkamlaydi va talabalarga murakkab kommunikativ kontekstlarda qaror qabul qilish qobiliyatini beradi [4].

2. Ko‘nikma komponenti

Ko‘nikma - bu talabalar ICC vaziyatlarida tilni реал мулоқот учун qo‘llash qobiliyatidir. Yang va boshqalar EFL kontekstida ICCni shakllantirish modelini tahlil qilar ekan, interfaol topshiriqlar va real kommunikativ vaziyatlar talabalar ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi deb xulosa qilishgan. Bu esa, ularni murakkab intercultural vaziyatlarda mukammal tarzda muloqot qila olishiga yordam beradi.

3. Munosabat va kritik ong komponenti

Munosabat talabada ochiqlik, empatiya va hurmat kabi sifatlarni shakllantiradi. Bu komponent ICCning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, talabalarga madaniyatlararo farqlarni qabul qilish va ularni konstruktiv tarzda hal etishga imkon beradi. Tadqiqotlar ICC munosabat va kritik ongni rivojlantirish orqali talabalarni madaniyatlararo nizolarni hal etish ko‘nikmasiga ega ekanini ko‘rsatadi (telecollaboration interviyasi natijalari).

4. Didaktik shart-sharoitlar

Didaktik shart-sharoitlar pedagogik tizimning ishlash jarayonida juda muhim. Madaniyatlararo mazmun asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni mavzuga faol jalb qiladi, ularni o‘zlarini mustaqil ravishda fikrlashga undaydi va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini oshiradi. Bu yondashuv talabalarning madaniyatlararo anglashida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuzaga keltiradi [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot ICC pedagogik tizimining samaradorligini quyidagicha tasdiqlaydi:

1. Explicit instruction ICCni aniq va o‘lchanadigan tarzda rivojlantiradi, bu esa til o‘rganish jarayonini yanada tizimlashtiradi.
2. Interaktiv usullar talabalarni real intercultural vaziyatlarda faol qatnashishga undaydi, bu esa talabalarning til ko‘nikmalarini kuchaytiradi.
3. Madaniyatlararo mazmun bilan boyitilgan darslar talabalarning madaniyat anglashini kengaytiradi, bu esa ularni global kommunikativ muhitga yanada moslashtiradi.

Umuman olganda, ICC pedagogik tizimi til bilimi bilan birga madaniyat, hurmat, empatiya va kritik anglashni birlashtiradi, bu esa oliy ta’limda fransuz tili o‘qitishning samaradorligini oshiradi va talabalarga global kommunikativ vaziyatlarda raqobatbardosh bo‘lish imkonini beradi.


Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida fransuz tili darslari rejalariga ICCni rivojlantiruvchi vazifalar va mashqlarni tizimli ravishda integratsiya qilish lozim.
2. Talabalar madaniyatlararo ko‘nikmalarini oshirish uchun role-play, case-study va telekolaboratsiya kabi interaktiv usullarni ko‘proq qo‘llash tavsiya etiladi.
3. O‘qituvchilar uchun madaniyatlararo kommunikatsiya va explicit instruction bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish foydali bo‘ladi.
4. Baholash tizimida ICC komponentlarini o‘lchash uchun madaniy vaziyatlar diagnostikasi va interaktiv topshiriqlar natijalariga asoslangan mezonlar kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi.
5. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun talabalar ICCni rivojlantirishdagi individual omillar va turli darajadagi dars metodlarining samaradorligini o‘rganish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.
2. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
3. Huang, L. J. D. (2021). Developing intercultural communicative competence in foreign language classrooms: A study of EFL learners in Taiwan. International Journal of Intercultural Relations. https://doi.org/10.1016/j.ijintrel.2021.05.007
4. Liu, L., Jiang, B., Wang, Y., & Guo, Z. (2023). Developing intercultural communicative competence in foreign language classrooms: A study of EFL learners in China. Journal of Pendidikan: Teori, Penelitian, dan Pengembangan. https://journal.um.ac.id/index.php/jptpp/article/view/15554
5. Tran, T. Q., & Duong, T. M. (2018). The effectiveness of the intercultural language communicative teaching model for EFL learners. Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education, 3(1), 1-16. https://sfleducation.springeropen.com/articles/10.1186/s40862-018-0048-0
6. Zhou, R., Samad, A., & Perinpasingam, T. (2024). A systematic review of cross-cultural communicative competence in EFL teaching: Insights from China. Humanities and Social Sciences Communications, 11, 101. https://www.nature.com/articles/s41599-024-04071-5
7. Li, S. (2023). Review of intercultural communication and language pedagogy: From theory to practice. Intercultural Communication Education, 6(2), 45-62. https://www.castledown.com/journals/ice/article/view/1021

8. Iswandari, Y. A., & Ardi, P. (2022). Intercultural communicative competence in EFL setting: A systematic review. Reflections, 21(1), 88-105. https://so05.tci-thaijo.org/index.php/reflections/article/view/260249
9. Bakhronova, M. A. (2023). Using a task-based teaching approach in developing intercultural communicative competence. Conference Proceedings in Language Pedagogy, 7(1), 55-70. https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/652
10. Saidova, Z. O. (2021). Madaniyatlararo kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda xalq ertaklarining o'ziga xos ahamiyati. Zenodo Repository. https://zenodo.org/records/7335721
11. Ahnagari, S., & Zamanian, J. (2014). Intercultural Communicative Competence in Foreign Language Classroom. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 4(11), 9–16.
12. Muzaffarova, N. M. (2025). Fransuz tili mashg'ulotlarida talabalarni madaniyatlararo muloqotga o'rgatishning kommunikativ texnologiyalari (PhD diss.). O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti. https://zenodo.org/records/15553381



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TAKOMILLASHTIRILGAN SIFAT MENEJMENTINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI

Mirzayeva Shaxida Abdinabiyevna
Oriental universiteti magistranti

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna
Oriental universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrasi professori, (DSc)
ORCID: 0009-0005-5701-8804

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentini takomillashtirish hamda uni amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan sifat menejmenti modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida monitoring, pedagogik kuzatuv, diagnostika hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar taklif etilgan model boshqaruv jarayonlarini tizimlashtirish va ta'lim natijalarini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Ilmiy yangilik sifatida sifat menejmenti indikatorlari tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, sifat menejmenti, boshqaruv samaradorligi, monitoring, tajriba-sinov, indikatorlar tizimi.

Abstract: This article examines the improvement and practical implementation of quality management systems in preschool educational institutions. The purpose of the study is to develop an integrated quality management model and assess its effectiveness through experimental testing. Monitoring, pedagogical diagnostics and comparative analysis methods were applied. The results confirm that the proposed model improves management efficiency and enhances educational outcomes. The scientific novelty lies in the development of a system of quality management indicators.

Key words: preschool education, quality management, management efficiency, monitoring, experiment.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования менеджмента качества в дошкольных образовательных организациях и его внедрения в практику. Цель исследования заключается в разработке интегрированной модели управления качеством и определении ее эффективности на основе экспериментальной апробации. В работе использованы методы мониторинга, педагогической диагностики и сравнительного анализа. Результаты показали, что внедрение предложенной модели способствует повышению эффективности управления и улучшению образовательных результатов. Научная новизна исследования заключается в разработке системы индикаторов оценки качества управления.

Ключевые слова: дошкольное образование, менеджмент качества, эффективность управления, мониторинг, эксперимент.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lgan bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda shaxsning intellektual, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalari shakllanadi. So'nggi yillarda ta'lim sifati masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lsa-da, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonlarini zamonaviy sifat menejmenti tamoyillari asosida tashkil etish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab tashkilotlarda ichki monitoring mexanizmlari sust ishlaydi, natijadorlik ko'rsatkichlari aniq mezonlar asosida baholanmaydi va strategik rejalashtirish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu esa ta'lim sifati barqarorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentini takomillashtirish, uni ilmiy asoslangan indikatorlar tizimi orqali baholash va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy boshqaruv nazariyasida sifat menejmenti uzluksiz takomillashtirish, tizimlilik va natijadorlik tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuvni maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali nafaqat

pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, balki boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash mumkin. Ayniqsa, raqamli monitoring vositalari, ichki audit tizimi hamda manfaatdor tomonlar, jumladan ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish sifat menejmentining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida takomillashtirilgan sifat menejmenti modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa mazkur tashkilotlarda sifat menejmentini takomillashtirish mexanizmlari va indikatorlar tizimidan iborat. Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida sifat menejmentining integratsiyalashgan modelini ishlab chiqish hamda uning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun mavjud boshqaruv tizimini tahlil qilish, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va tizimlashtirish, taklif etilgan modelni amaliyotga joriy etish hamda tajriba-sinov natijalarini qiyosiy baholash vazifalari belgilandi. Mazkur vazifalarning izchil amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida sifat menejmenti masalalari xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yo'nalishlarda o'rganilgan. Sifat menejmentining nazariy asoslari, avvalo, umumiy boshqaruv konsepsiyalariga tayanadi. Deming tomonidan ilgari surilgan uzluksiz takomillashtirish tamoyili ta'lim tizimida jarayonlarni doimiy ravishda yaxshilash g'oyasiga asos bo'ladi [1]. Juran esa sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va takomillashtirish bosqichlarini tizimli boshqaruvning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi [2]. Ushbu yondashuvlar ta'lim tashkilotlarida sifatni strategik boshqarish va natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim sohasida sifatni boshqarish masalalari pedagogik nuqtai nazardan ham o'rganilgan. Bespalko pedagogik texnologiyalarni tizimli tashkil etish orqali ta'lim natijalarini kafolatlash mumkinligini asoslab bergan [3]. Zimnyaya esa ta'lim jarayonida sifat ko'rsatkichlarini pedagogik va psixologik omillar bilan bog'liq holda tahlil qiladi [4]. Ushbu ishlarda sifat tushunchasi asosan pedagogik jarayon samaradorligi bilan izohlanadi, biroq boshqaruv mexanizmlarining indikatorlar tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Maktabgacha ta'lim sohasida sifatni oshirish masalalari O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham alohida qayd etilgan bo'lib, unda ta'lim sifatini monitoring qilish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi belgilangan [5]. So'nggi yillarda mahalliy tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvni modernizatsiya qilish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'tarilgan. Biroq aksariyat ilmiy ishlarda sifat menejmenti umumiy yondashuv sifatida talqin qilinib, amaliy indikatorlar tizimi hamda tajriba-sinov asosida baholash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda sifat menejmentining nazariy tamoyillari [1;2] maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga moslashtirilib, kompleks indikatorlar tizimi ishlab chiqildi va amaliy tajriba orqali baholandi. Taklif etilgan model boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon sifati, ota-onalar qoniqishi va ichki monitoring mezonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda nazariy asoslash bilan bir qatorda empirik sinov natijalari bilan ham mustahkamlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmentini takomillashtirish jarayonini tizimli va empirik asosda o'rganishga yo'naltirildi. Mazkur maqolada kompleks yondashuv qo'llanilib, tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, pedagogik kuzatuv, diagnostik so'rovnoma, monitoring hamda statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida sifatni uzluksiz takomillashtirish tamoyillari qabul qilindi, chunki sifat menejmenti boshqaruv jarayonining doimiy rivojlanishini nazarda tutadi [1]. Shu bilan birga, sifatni rejalashtirish va nazorat qilish bosqichlari tadqiqot jarayonining strukturaviy modeli sifatida asos qilib olindi [2].

Dastlab nazariy tahlil usuli yordamida mavjud ilmiy manbalar o'rganildi va sifat menejmentining ta'lim sohasiga integratsiyasi masalalari aniqlashtirildi. Pedagogik tizimni loyihalash va natijadorlikni kafolatlash masalalari Bespalko tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar asosida tahlil qilindi [3]. Ta'lim jarayonining psixologik omillari ham sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi muhim komponent sifatida ko'rib chiqildi [4]. Nazariy tahlil natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mos indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarurati asoslandi.

Keyingi bosqichda qiyosiy taqqoslash usuli qo'llanildi. Ushbu usul tajriba va nazorat guruhlaridagi boshqaruv ko'rsatkichlarini solishtirish orqali taklif etilgan model samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil dastlabki diagnostika natijalari hamda tajriba yakunidagi ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash asosida amalga oshirildi. Natijada tajriba guruhida sifat ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi qayd etildi, bu esa uzluksiz takomillashtirish tamoyilining amaliy samaradorligini tasdiqladi [1].

Pedagogik kuzatuv usuli orqali boshqaruv jarayonining real holati o‘rganildi, ichki monitoring mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Diagnostik so‘rovnoma pedagoglar va ota-onalar fikrini aniqlash, qoniqish darajasini o‘lchash hamda kommunikatsiya sifatini baholash uchun qo‘llanildi. Monitoring jarayonida ishlab chiqilgan indikatorlar ta’lim sifatini nazorat qilishning institutsional mexanizmlariga mos holda ishlab chiqildi, bu esa milliy normativ talablar bilan uyg‘unlikni ta’minladi [5].

Statistik qayta ishlash usuli natijalarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi. O‘rtacha ko‘rsatkichlar, foizli o‘sish dinamikasi hamda guruhlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan sifat menejmenti modeli boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, qo‘llanilgan metodologiya nazariy va empirik yondashuvni uyg‘unlashtirib, sifat menejmentini takomillashtirish modelining amaliy samaradorligini ilmiy asosda tasdiqladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifat menejmenti tizimining amaldagi holati chuqur tahlil qilindi. Dastlabki bosqichda diagnostik monitoring o‘tkazilib, boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon sifati, ota-onalar qoniqish darajasi hamda ichki nazorat tizimi ko‘rsatkichlari baholandi. Tahlil natijalari mavjud boshqaruv tizimida ayrim tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, strategik rejalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmagani, ichki monitoringning muntazam emasligi hamda pedagoglar faoliyatini baholash mezonlarining aniq tizimlashtirilmaganligi aniqladi.


Tajriba-sinov ishlari ikki maktabgacha ta’lim tashkilotida olib borildi. Ulardan biri nazorat guruhi, ikkinchisi esa tajriba guruhi sifatida tanlandi. Tajriba guruhida takomillashtirilgan sifat menejmenti modeli joriy etildi va 6 oy davomida monitoring asosida kuzatuv olib borildi. Quyidagi jadvalda dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlarning qiyosiy natijalari keltirilgan.

1-jadval: **Sifat ko‘rsatkichlarining qiyosiy natijalari (%)**

Ko‘rsatkich	Dastlabki holat (nazorat)	Yakuniy holat (nazorat)	Dastlabki holat (tajriba)	Yakuniy holat (tajriba)
Boshqaruv samaradorligi	69	72	68	84
Pedagogik jarayon sifati	71	73	70	87
Ota-onalar qoniqishi	66	69	65	89
Ichki monitoring tizimi	62	64	60	85

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nazorat guruhida ko‘rsatkichlar o‘rtacha 2–3 foizga oshgan bo‘lsa, tajriba guruhida sezilarli o‘sish kuzatildi. Ayniqsa, ichki monitoring tizimi 25 foizga oshgani modelning samaradorligini tasdiqlaydi. Bu ko‘rsatkich boshqaruv jarayonining tizimlashtirilganligi va muntazam nazorat mexanizmlarining joriy etilishi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun dinamik o‘sish diagrammasi ishlab chiqildi.



1-diagramma: **Tajriba guruhida sifat ko‘rsatkichlarining o‘sish dinamikasi**

Diagramma tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori o‘sish ota-onalar qoniqishi hamda ichki monitoring tizimi ko‘rsatkichlarida qayd etilgan. Bu esa boshqaruvning ochiqligi va kommunikativ mexanizmlarning kuchaytirilishi bilan bog‘liq. Pedagogik jarayon sifati ko‘rsatkichlarining o‘sishi esa metodik nazorat va ichki audit mexanizmlarining joriy etilishi natijasida yuzaga kelgan.

Tahlil jarayonida bir qator muammolar ham aniqladi. Jumladan, ayrim pedagoglarda sifat menejmenti tamoyillari bo‘yicha bilim yetishmasligi, raqamli monitoring vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarining sustligi hamda dastlabki bosqichda ichki qarshiliklar kuzatildi. Biroq muntazam metodik seminarlar va tushuntirish ishlari natijasida ushbu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etildi.

Statistik tahlil natijalari tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqning sezilarli ekanligini ko‘rsatdi. O‘rtacha o‘sish darajasi tajriba guruhida 20 foizdan ortiqni tashkil etdi. Bu takomillashtirilgan sifat menejmenti modelining amaliy samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Shunday qilib, tahlil natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifat menejmentini tizimli va indikatorlarga asoslangan yondashuv orqali joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov ishlari modelning barqaror natija berishini hamda sifat ko‘rsatkichlarini muntazam nazorat qilish orqali ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish mumkinligini isbotladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifat menejmentini tizimli yondashuv asosida joriy etish boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida ishlab chiqilgan indikatorlar tizimi boshqaruv jarayonlarini aniq mezonlar asosida baholash, ichki monitoringni kuchaytirish hamda pedagogik faoliyatni muvofiqlashtirish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil natijalari tajriba guruhida boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon sifati, ota-onalar qoniqishi va ichki nazorat mexanizmlarining barqaror o‘sishini tasdiqladi. Bu esa taklif etilgan sifat menejmenti modelining amaliy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida bir qator muammolar ham aniqladi. Jumladan, ayrim pedagog va rahbarlarda sifat menejmenti tamoyillari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarning shakllanmaganligi, raqamli monitoring vositalaridan foydalanish darajasining pastligi hamda ichki audit jarayonlarining tizimlashtirilmaganligi kuzatildi. Ayrim hollarda tashkiliy qarshilik va yangilikka nisbatan ehtiyotkorlik ham jarayon samaradorligiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu holatlar sifat menejmentini joriy etishda faqat metodik emas, balki tashkiliy va motivatsion yondashuv ham zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Avvalo, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifat menejmenti indikatorlari asosida muntazam monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Bunda boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon natijadorligi va manfaatdor tomonlar qoniqishi mezonlari integratsiyalashgan holda baholanishi lozim. Ikkinchidan, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish dasturlariga sifat menejmenti va ta’lim monitoringi bo‘yicha maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu sifatni boshqarish jarayonining ilmiy asosda olib borilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, raqamli boshqaruv va tahlil vositalarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Elektron monitoring platformalari orqali ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini oshiradi. Ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, ularning fikrini muntazam ravishda o‘rganish va tahlil qilish ham sifat ko‘rsatkichlarini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida takomillashtirilgan sifat menejmenti modelini joriy etish boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish hamda barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishga imkon beradi. Kelgusida ushbu modelni kengroq miqyosda sinovdan o‘tkazish va hududiy kesimda taqqoslash tadqiqotlari olib borish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Deming W. E. Out of the Crisis. – Cambridge : MIT Press, 1986. – 507 p.
2. Juran J. M. Quality Control Handbook. – New York : McGraw-Hill, 1999. – 1730 p.
3. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М. : Педагогика, 1989. – 192 с.
4. Зимняя И. А. Педагогическая психология. – М. : Логос, 2000. – 384 с.
5. O‘zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida : O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent, 2019.
6. ISO 9001:2015. Quality management systems – Requirements. – Geneva : International Organization for Standardization, 2015.
7. Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education. – Paris : OECD Publishing, 2018. – 228 p.

MAKTAB TA'LIM JARAYONIDA INTERAKTIV SIMULYATORALARNI VISC-5E PEDAGOGIK MODELI ASOSIDA INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH (IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR MISOLIDA)





Qo'chqorov Shaxzod Begali o'g'li
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti, Olmazor tuman ixtisoslashtirilgan maktab kimyo fan o'qituvchisi
https://orcid.org/0009-0001-0293-1605

Turabdjanov Sadritdin Maxamatdinovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori
Texnika fanlari doktori, akademik

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida interaktiv simulyatsiyalarni qo'llashning nazariy-didaktik asoslari hamda ularni VISC-5E pedagogik modeli asosida integratsiyalash samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot ixtisoslashtirilgan maktablar misolida olib borilib, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va raqamli platformalarning o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga ta'siri o'rganildi. Johnstone uchburchagi [1], kognitiv yuk nazariyasi [2] hamda adaptiv ta'lim tamoyillari metodologik asos sifatida qo'llanildi. Dars jarayonida PIIMACHEMIST.uz platformasi orqali interaktiv mashg'ulotlar tashkil etildi. Natijalar simulyatsiyalarni tizimli integratsiyalash o'quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv ta'lim samaradorligini ta'minlovchi innovatsion pedagogik yechim sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: interaktiv simulyatorlar, virtual laboratoriya, VISC-5E modeli, pedagogik integratsiya, raqamli ta'lim, adaptiv ta'lim, ta'lim samaradorligi, ixtisoslashtirilgan maktablar, modellashtirish texnologiyalari, PIIMACHEMIST.uz platformasi.

Abstract: This article analyzes the theoretical and didactic foundations of using interactive simulations in the educational process and evaluates the effectiveness of their integration based on the VISC-5E pedagogical model. The study was conducted in specialized schools using virtual laboratories and digital platforms. Johnstone's triangle, cognitive load theory, and adaptive learning principles were employed as the methodological framework. Interactive lessons were implemented through the PIIMACHEMIST.uz platform. The results indicate that systematic integration of simulations significantly improves students' motivation, independent thinking, and practical skills. The proposed approach is recommended as an innovative solution for enhancing educational effectiveness.

Key words: interactive simulators, virtual laboratory, VISC-5E model, pedagogical integration, digital education, adaptive learning, learning effectiveness, specialized schools, modeling technologies, PIIMACHEMIST.uz platform.

Аннотация: В статье анализируются теоретико-дидактические основы применения интерактивных симуляций в образовательном процессе и эффективность их интеграции на основе педагогической модели VISC-5E. Исследование проведено на примере специализированных школ с использованием виртуальных лабораторий и цифровых платформ. Результаты показали, что системное использование симуляций способствует повышению учебной мотивации, развитию самостоятельного мышления и практических навыков учащихся.

Ключевые слова: интерактивные симуляторы, виртуальная лаборатория, модель VISC-5E, педагогическая интеграция, цифровое образование, адаптивное обучение, платформа PIIMACHEMIST.uz.

KIRISH

Tabiiy fanlarni o'qitishda murakkab jarayonlarni o'quvchilarga tushunarli shaklda yetkazish doimo dolzarb metodik muammo bo'lib kelgan. Ayniqsa, kimyo fanida ko'plab hodisalar atom va molekula darajasida sodir bo'lishi sababli ularni bevosita kuzatish imkoniyati mavjud emas [1]. Natijada o'quvchilar nazariy tushunchalarni real jarayonlar bilan bog'lashda qiyinchilikka duch keladilar. Shu bois o'qitish jarayoniga vizual va interaktiv vositalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda [2, 22].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda interaktiv simulyatorlar va virtual laboratoriyalar shu maqsadga xizmat qiluvchi samarali didaktik vosita sifatida keng qo'llanila boshladi. Virtual tajribalar o'quvchilarga xavfsiz muhitda eksperiment o'tkazish, parametrlarni o'zgartirib natijani kuzatish hamda mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi [3]. PhET platformasi asosida olib borilgan tadqiqotlar esa interaktiv modellar murakkab ilmiy tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam berishini ko'rsatadi [4]. Shuningdek, Labster virtual laboratoriyalari bo'yicha o'tkazilgan izlanishlarda talabalarning o'zlashtirish darajasi va motivatsiyasi an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan yuqoriroq ekani qayd etilgan [5].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, xorijiy platformalarning aksariyati til va o'quv dasturi jihatidan mahalliy ta'lim tizimiga to'liq mos kelmaydi [6]. Bu esa ularni maktab darslarida tizimli qo'llashni qiyinlashtiradi. Shu sababli interaktiv vositalarni milliy ta'lim standartlari (DTS), o'quv rejalari va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirish muhim hisoblanadi. Mazkur ehtiyojdan kelib chiqib PIIMACHEMIST.uz platformasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda interaktiv simulyatorlar, virtual laboratoriyalar, modellashtirish vositalari hamda avtomatik teskari aloqa mexanizmlari yagona tizimga birlashtirilgan.

Simulyatorlardan samarali foydalanish faqat texnologiya bilan cheklanmaydi; ularni ma'lum pedagogik model asosida tashkil etish talab etiladi [7]. Shu nuqtai nazardan VISC-5E yondashuvi interaktivlikni 5E o'quv sikli (jalb qilish, tadqiq qilish, tushuntirish, kengaytirish va baholash) bilan uyg'unlashtirib, o'quvchini faol bilish jarayoniga jalb etadi [8]. Mazkur model darsni bosqichma-bosqich tashkil etish, kognitiv yuklamani me'yorlash hamda bilimlarni tizimli shakllantirish imkonini beradi.

Shu asosda mazkur tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonida interaktiv simulyatorlarni VISC-5E pedagogik modeli asosida integratsiyalashning samaradorligini aniqlash hamda ushbu yondashuvni ixtisoslashtirilgan maktablar tajribasida baholashdan iborat.

Interaktiv simulyatorlarning didaktik imkoniyatlari

Murakkab ilmiy tushunchalarni o'qitishda vizual va boshqariladigan modellar qo'llash zarurati ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan [9]. Ayniqsa tabiiy fanlarda o'quvchi nazariy tushuncha bilan real jarayon o'rtasida bog'lanish o'rnatishi qiyin kechadi. Interaktiv simulyatorlar ana shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Virtual laboratoriyalarni tahlil qilganda, bunday muhit o'quvchilarga tajribani xavfsiz sharoitda takrorlash, parametrlarni mustaqil boshqarish hamda natijalarni solishtirish imkonini berishi aniqlangan. Kimyo ta'limida bu ayniqsa muhim, chunki reaksiya mexanizmlari, ionlanish, molekulyar tuzilish kabi jarayonlar ko'z bilan bevosita kuzatilmaydi [1]. Shu sababli oddiy vositalar yordamida tushuntirish ko'pincha yetarli samara bermaydi.

So‘nggi yillarda PhET, ChemCollective va Labster kabi platformalar keng tarqaldi. PhET simulyatorlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv modellar makroskopik kuzatuv, submikroskopik tasvir va ramziy ifodani bir vaqtda ko‘rsatish orqali tushunchalarni yaxlit shakllantirishga yordam berishi aniqlangan [4. 22]. Shuningdek, Labster virtual laboratoriyalari asosida o‘tkazilgan tajribalarda o‘quvchilar an’anaviy laboratoriyaga nisbatan yuqoriroq motivatsiya va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini namoyon etgan [5]. Immersiv muhit o‘quvchining faol ishtirokini kuchaytiradi va tajriba jarayonini real sharoitga yaqinlashtiradi [10]. Biroq mazkur platformalarning aksariyati ingliz tilida ishlab chiqilgan bo‘lib, G‘arb ta’lim standartlariga moslashtirilgan. Bu holat ularni O‘zbekiston ta’lim muhitida to‘liq va samarali qo‘llashda til, metodik va mazmuniy to‘siqlarni yuzaga keltiradi [6].

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida PIIMACHEMIST.uz milliy interaktiv ta’lim platformasi ishlab chiqilgan. Ushbu platforma xalqaro tajribada sinovdan o‘tgan simulyatsiya texnologiyalarini mahalliy ta’lim tizimi talablariga moslashtirish asosida yaratilgan bo‘lib, uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- interfeys va ko‘rsatmalarning to‘liq o‘zbek tilida taqdim etilishi;
- simulyatorlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlariga mos ravishda 10–11-sinf kimyo mavzulari asosida ishlab chiqilishi;
- Johnstone uchburchagi tamoyiliga asoslangan ko‘p darajali vizualizatsiya [1];
- sun’iy intellektga asoslangan adaptiv ta’lim elementlarining mavjudligi.

Interaktiv simulyatorlarning aynan kimyo faniga xos didaktik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish uchun ularni quyidagi to‘rt asosiy aspekt asosida baholash maqsadga muvofiq: vizualizatsiya imkoniyatlari, interaktivlik darajasi, teskari aloqa mexanizmlari va dars jarayoniga integratsiyalashuv salohiyati [11].

Vizualizatsiya jihatidan zamonaviy kimyo simulyatorlari molekulalarning fazoviy tuzilishi, elektron zichligi, orbital shakllari hamda reaksiya jarayonlarini real vaqt rejimida namoyish eta olishi lozim [4]. PIIMACHEMIST.uz platformasida joriy etilgan 3D molekulyar modellashtirish moduli o‘quvchilarga molekulalarni 360° aylantirish, masshtablash va ularni turli tasvirlash rejimlarida (tayoqsimon, sharsimon, fazoviy) kuzatish imkonini beradi.

Interaktivlik darajasiga ko‘ra simulyatorlar odatda to‘rt bosqichga ajratiladi: passiv kuzatish, cheklangan o‘zaro ta’sir, boshqariladigan izlanish va ochiq kashfiyot [12]. Tadqiqotlar yuqori interaktivlik chuqur tushunishni ta’minlashini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, haddan tashqari murakkablik kognitiv yuklamani oshirishi mumkinligini ham ta’kidlaydi [2]. Shu bois PIIMACHEMIST.uz simulyatorlari 2–3-darajali interaktivlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, o‘quvchiga mustaqil tajriba qilish imkonini berish bilan birga, zarur holatlarda yo‘naltiruvchi (scaffolding) mexanizmlar bilan qo‘llab-quvvatlaydi.

1-jadval: **Interaktivlik darajalari, ularning tavsifi hamda PIIMACHEMIST.uz platformasidagi ifodalanishi**

Daraja	Tavsif	PIIMACHEMIST.uz misoli	Kognitiv yuklama
0-daraja	Passiv kuzatuv – foydalanuvchi faqat vizual axborotni qabul qiladi	Video materiallar, animatsiyalar	Past
1-daraja	Cheklangan interaktivlik – minimal o‘zaro ta’sir (tugma bosish, tanlash)	Interaktiv davriy jadval	O‘rtacha–past
2-daraja	Boshqariladigan tadqiqot – foydalanuvchi parametrlarni o‘zgartirib natijani kuzatadi	Titratsiya simulyatori, gaz qonunlari moduli	O‘rtacha
3-daraja	Ochiq kashfiyot – erkin eksperiment va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish	Virtual laboratoriyalar, sintez modellashtirish	Yuqori

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, interaktivlik darajasi oshgani sari o‘quvchining kognitiv faolligi va mustaqil fikrlash darajasi ortadi. Shu bilan birga, yuqori darajadagi interaktivlik ortiqcha kognitiv yuklamani ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois simulyatorlarni loyihalashda optimal muvozanatni saqlash muhim didaktik talab hisoblanadi.

Simulyatorlardan foydalanishda interaktivlik darajasini to‘g‘ri tanlash muhimdir. Juda oddiy tizim o‘quvchini passiv qoldiradi, haddan tashqari murakkab tizim esa ortiqcha kognitiv yuklama keltirib chiqaradi. Ishchi xotiraning cheklanganligi sababli ortiqcha axborot o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi [2]. Shu sababli simulyatorlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchi faoliyatiga tezkor javob berish o‘qitish samaradorligini oshiradi. Teskari aloqa ta’lim natijalariga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri sifatida baholanadi [13]. O‘quvchi “qayerdaman?” va “keyingi qadam nima?” savollariga javob olishi zarur. Shu tamoyil asosida platformada har bir topshiriq natijasi darhol ko‘rsatiladi, xatolar izohlanadi va tavsiyalar beriladi.

VISC-5E modeli asosida darsni tashkil etish

Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchini faol bilish jarayoniga jalb etish muhim metodik talablardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan konstruktivistik yondashuvga asoslangan 5E modeli keng qo‘llanib kelmoqda. Mazkur model dastlab Biological Sciences Curriculum Study (BSCS) loyihasi doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv jarayonini mantiqiy va bosqichma-bosqich tashkil etishga xizmat qiladi [7].

Model besh ketma-ket bosqichdan iborat: Engage (jalb qilish), Explore (tadqiq qilish), Explain (tushuntirish), Elaborate (kengaytirish) va Evaluate (baholash). Engage bosqichida o‘quvchilarning mavjud bilimlari aniqlanadi va muammoli vaziyat orqali qiziqish uyg‘otiladi. Explore jarayonida o‘quvchilar bevosita tajriba yoki amaliy faoliyat orqali yangi tushunchalarni mustaqil o‘rganadilar. Explain bosqichida esa kuzatilgan natijalar muhokama qilinib, ilmiy tushuntirish shakllantiriladi. Elaborate olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi, Evaluate esa o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashga xizmat qiladi [8].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 5E modeli asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tushunish darajasi va mustaqil fikrlashini sezilarli oshiradi [14]. Bu yondashuv o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni kashf etuvchi subyektga aylantiradi [15]. Shuningdek, eksperimental tadqiqotlarda 5E asosidagi darslar an’anaviy ma’ruza uslubiga nisbatan yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini ta’minlashi aniqlangan [16].

VISC-5E pedagogik modeli: simulyatorlardan foydalanishning metodologik asosi

VISC-5E modeli – bu kimyo ta’limida simulyatorlardan foydalanishga moslashtirilgan yondashuv bo‘lib, u interaktivlik, virtual muhit va kontekst asosidagi topshiriqlarni yagona tizimda birlashtiradi. Modelning asosini 5 bosqichdan iborat bo‘lgan klassik 5E sikli tashkil etadi: jalb qilish, tadqiq qilish, tushuntirish, kengaytirish va baholash [8]. Mazkur model ikki komponentning integratsiyasiga asoslanadi:

- VISC yondashuvi: V – Virtual; I – Interactive; S – Simulation; C – Context-based.
- 5E ta’lim sikli: Engage; Explore; Explain; Elaborate; Evaluate.

Ushbu ikki yondashuvning uyg‘unlashuvi o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi hamda o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich chuqurlashtiradi [7, 8]. Bu yondashuv 7–11-sinflar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ayniqsa prezident maktablari, akademik litseylar va ixtisoslashtirilgan maktablar kimyo sinflarida o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

2-jadval: **VISC-5E modelining darsdagi qo‘llanilishi va imkoniyatlari**

5E bosqichi	Simulyator roli
Engage	Muammo yoki animatsiya orqali qiziqish uyg‘otish
Explore	Simulyator orqali mustaqil tajriba o‘tkazish
Explain	Natijalarni tahlil qilish va nazariy tushuntirish
Elaborate	Murakkabroq vazifalar va yangi sharoitlarda qo‘llash
Evaluate	Testlar, avtomatik baholash, teskari aloqa

Natijada simulyatsiyalar oddiy ko‘rgazmali vosita emas, balki to‘liq didaktik tizimning ajralmas qismiga aylanadi [7].

Johnstone uchburchagi asosida simulyatorlarning didaktik tuzilmasini loyihalash


Kimyo ta’limining fundamental muammolaridan biri o‘quvchilarning kimyoviy bilimning turli darajalari orasida bog‘liqlik o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishidir. Johnstone tomonidan ilgari surilgan va keyinchalik Taber, Talanquer hamda Gkitzia va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan “kimyo uchburchagi” konsepsiyasi bu muammoni tushuntirishda muhim nazariy asos vazifasini o‘taydi [17]. Uchburchakning uch uchi – makroskopik, submikroskopik va ramziy darajalar – kimyoviy bilimning asosiy komponentlarini ifodalaydi.

Makroskopik daraja sezgi organlarimiz orqali bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan hodisalarni (rang, hid, harorat o‘zgarishi, cho‘kma hosil bo‘lishi va hokazo) o‘z ichiga oladi. Submikroskopik daraja atom, molekula va ion darajasidagi jarayonlarni, ya’ni ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan, lekin kimyoviy hodisalarning mohiyatini tushuntiradigan tuzilmalarni ifodalaydi. Ramziy daraja esa kimyoviy formulalar, tenglamalar, grafiklar va boshqa abstrakt belgilar orqali ifodalanadigan bilimlarni o‘z ichiga oladi [1].


Tajribali kimyogarlar bu uch daraja orasida erkin “sakray” oladilar, ammo yangi boshlovchi o‘quvchilar uchun bu darajalar orasidagi bog‘liqlik aniq emas [17]. Buning asosiy sababi shundaki, an’anaviy ta’limda ko‘pincha bir vaqtning o‘zida uchala darajada ishlashga uriniladi, bu esa o‘quvchilarning ishchi xotirasiga haddan tashqari yuk tushishiga olib keladi. Kognitiv yuk nazariyasiga ko‘ra, ishchi xotira cheklangan hajmga ega (taxminan 4±1 element) va bu chegaradan oshgan ma’lumotlar samarali qayta ishlanmaydi. Shuning uchun, simulyatorlarni

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

loyihalashda Johnstone uchburchagi tamoyillari bilan kognitiv yuk nazariyasini birgalikda qo'llash muhim ahamiyatga ega.



1-rasm: **VISC-5E pedagogik modelining sxematik ko'rinishi va PIIMACHEMIST.uz platformasi komponentlari**



2-rasm: **Johnstone uchburchagi – kimyoviy bilimning uch darajasi va ularning o'zaro bog'liqligi**

PIIMACHEMIST.uz platformasidagi simulyatorlar Johnstone uchburchagi asosida quyidagi didaktik prinsiplarga muvofiq loyihalashtirilgan.

Birinchidan, bosqichma-bosqich yondashuv qo'llanilgan – o'quvchilar dastlab bitta daraja (odatda makroskopik) bilan ishlaydi, keyin asta-sekin boshqa darajalar qo'shiladi [1]. Masalan, "Elektrolitik dissotsiatsiya" simulyatorida o'quvchi avval tuzning suvda erishi jarayonini ko'radi (makroskopik), so'ngra ionning hosil bo'lishini kuzatadi (submikroskopik), va nihoyat, dissotsiatsiya tenglamasini yozadi (ramziy).

Ikkinchidan, sinxronlashtirilgan vizualizatsiya texnikasi joriy etilgan – barcha uch daraja bir ekranda ko'rsatilganda, ular orasidagi bog'liqlik vizual chiziqlar, ranglar va animatsiyalar orqali aniq ifodalanadi.

Uchinchidan, o'quvchi nazoratidagi o'tish imkoniyati yaratilgan – o'quvchi istalgan vaqtda bir darajadan boshqasiga o'tishi mumkin [18].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Interaktiv simulyatorlarning kimyo ta'limi samaradorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida kvazi-eksperimental tadqiqot dizayni qo'llanildi [9]. Tadqiqot Olmazor tuman ixtisoslashtirilgan maktabning 7-, 8- va 11-sinflarida 8 hafta davomida amalga oshirildi. Har bir sinfda 24 nafardan o'quvchi ishtirok etdi va ular tasodifiy ravishda ikki teng guruhga ajratildi: Nazorat guruhi (NG) – 12 nafar va Tajriba guruhi (TG) – 12 nafar. Nazorat guruhida darslar an'anaviy metodlar asosida olib borildi, tajriba guruhida esa VISC-5E modeli asosida interaktiv simulyatorlar (PIIMACHEMIST.uz, PhET, Labster) integratsiyasi qo'llanildi.

3-jadval: **Tadqiqot ishtirokchilari**

Sinf	Jami	NG	TG
7-sinf	24	12	12
8-sinf	24	12	12
11-sinf	24	12	12
Jami	**72**	**36**	**36**

Simulyatorlar sinf darajasiga mos ravishda qo'llanildi:

- 7-sinfda atom-molekula modeli, modda tuzilishi va oddiy reaksiyalar;
- 8-sinfda gaz qonunlari, eritmalar va titratsiya simulyatsiyasi;
- 11-sinfda reaksiya tezligi, kimyoviy muvozanat, termokimyoviy jarayonlar va virtual laboratoriya tajribalari o'rganildi.

Darslar VISC-5E sikliga muvofiq tashkil etildi: Engage → Explore → Explain → Elaborate → Evaluate [7, 8]. Baholash vositalari sifatida pre-test, post-test, kuzatuv, motivatsiya so'rovnomasi va avtomatik teskari aloqa qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

4-jadval: **Sinflar kesimida o'zlashtirish ko'rsatkichlari (%)**

Sinf	Guruh	Pre-test	Post-test	O'sish
7	NG	72.1	74.8	+2.7
7	TG	72.5	82.9	+10.4
8	NG	79.6	82.0	+2.4
8	TG	80.1	88.9	+8.8
11	NG	81.4	83.2	+1.8
11	TG	81.9	90.5	+8.6

Natijalar shuni ko'rsatdiki, barcha sinflarda tajriba guruhlari nazorat guruhlariga nisbatan sezilarli yuqori natijalarni namoyon etdi. O'rtacha o'sish: nazorat guruhlari – +2.3%, tajriba guruhlari – +9.3%. Student t-testi natijalariga ko'ra farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0.05$) deb topildi.

Olingan natijalar interaktiv simulyatorlar turli yosh bosqichlarida samarali didaktik vosita ekanligini tasdiqlaydi [4, 21]. Kichik sinflarda vizualizatsiya asosiy tushunchalarni shakllantirishga yordam bergan bo'lsa, yuqori sinflarda murakkab jarayonlarni virtual modellashtirish chuqur tahliliy fikrlashni rivojlantirdi. Shuningdek,

o‘quvchilarning darsdagi faolligi oshdi, mustaqil ishlash kuchaydi, laboratoriya xatolari kamaydi va o‘rganish motivatsiyasi yaxshilandi [5, 10].

Ushbu natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ham mos keladi. PhET simulyatorlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv modellar makroskopik, submikroskopik va ramziy tasvirlarni integratsiyalash orqali o‘quvchilarning tushunish darajasini oshirgani aniqlangan. Labster platformasi yordamida o‘tkazilgan tajribalarda esa immersiv muhitning o‘quvchi motivatsiyasiga ijobiy ta’siri tasdiqlangan [22]. Kognitiv yuk nazariyasi nuqtai nazaridan, VISC-5E modelining bosqichma-bosqich tuzilmasi ishchi xotiraga tushadigan yukni me’yorlash imkonini beradi [19].

Johnstone uchburchagi tamoyillariga asoslangan vizualizatsiya yondashuvi o‘quvchilarning kimyoviy bilimning turli darajalari orasida munosabat o‘rnatish qobiliyatini rivojlantirdi [1, 17]. Ayniqsa, sinxronlashtirilgan ko‘p darajali vizualizatsiya texnikasi o‘quvchilarga makroskopik hodisalarni submikroskopik va ramziy darajadagi jarayonlar bilan bog‘lash imkonini berdi [18]. Bu esa kimyo fanini o‘rganishda chuqur tushunish va uzoq muddatli bilim saqlashga xizmat qildi [20].

Demak, interaktiv simulyatsiyalar kimyo ta’limining barcha bosqichlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan universal pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, interaktiv simulyatorlarni VISC-5E pedagogik modeli asosida tizimli integratsiyalash o‘quvchilarning kimyo fanini o‘zlashtirishini sezilarli darajada yaxshilaydi [21]. Tajriba guruhi o‘rtacha +9.3% o‘sish ko‘rsatgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi +2.3% ni tashkil etdi.

Ikkinchidan, Johnstone uchburchagi tamoyillariga asoslangan bosqichma-bosqich vizualizatsiya yondashuvi o‘quvchilarning kimyoviy bilimning turli darajalari orasida bog‘lanish o‘rnatish qobiliyatini rivojlantirdi [17].

Uchinchidan, PIIMACHEMIST.uz platformasi milliy ta’lim standartlariga moslashtirilgan interaktiv ta’lim vositasi sifatida samarali natijalar ko‘rsatdi. Platformaning o‘zbek tilidagi interfeysi, adaptiv ta’lim elementlari va avtomatik teskari aloqa mexanizmlari o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

To‘rtinchidan, 5E ta’lim sikli simulyatorlarni dars jarayoniga samarali integratsiyalash uchun ishonchli metodologik asos vazifasini o‘tadi [8, 14]. Har bir bosqich o‘quvchining bilish jarayonidagi rolini aniq belgilab beradi va o‘qituvchiga darsni tizimli rejalashtirish imkonini yaratadi.

Kelgusida tadqiqotni kengaytirish, turli hududlardagi maktablarni qamrab olish va uzoq muddatli ta’sir darajasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Johnstone, A. H. (1991). Why is science difficult to learn? Things are seldom what they seem. Journal of Computer Assisted Learning, 7(2), 75–83. https://doi.org/10.1111/j.1365-2729.1991.tb00230.x
2. Sweller, J. (2011). Cognitive Load Theory. In J. Mestre & B. Ross (Eds.), Psychology of Learning and Motivation (Vol. 55, pp. 37–76). Academic Press. https://doi.org/10.1016/B978-0-12-387691-1.00002-8
3. de Jong, T., & Linn, M. C. (2013). The role of computer simulations in science education. In J. M. Spector et al. (Eds.), Handbook of Research on Educational Communications and Technology (pp. 537–550). Springer.
4. Moore, E. B., Chamberlain, J. M., Parson, R., & Perkins, K. K. (2014). PhET Interactive Simulations: Transformative Tools for Teaching Chemistry. Journal of Chemical Education, 91(8), 1191–1197. https://doi.org/10.1021/ed4005084
5. Makransky, G., Bonde, M. T., Wulff, J. S. G., Wandall, J., Hood, M., Creed, P. A., ... & Nørremølle, A. (2016). Simulation based virtual learning environment in medical genetics counseling: An example of bridging the gap between theory and practice in medical education. BMC Medical Education, 16(1), 1–9. https://doi.org/10.1186/s12909-016-0620-6
6. Potkonjak, V., Gardner, M., Callaghan, V., Mattila, P., Guetl, C., Petrović, V. M., & Jovanović, K. (2016). Virtual laboratories for education in science, technology, and engineering: A review. Computers & Education, 95, 309–327. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2016.02.002
7. Ruiz-Martín, H., & Bybee, R. W. (2022). The cognitive principles of learning underlying the 5E Model of Instruction. International Journal of STEM Education, 9(1), Article 21. https://doi.org/10.1186/s40594-022-00337-z
8. Bybee, R. W., Taylor, J. A., Gardner, A., Van Scotter, P., Powell, J. C., Westbrook, A., & Landes, N. (2006). The BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness. Colorado Springs, CO: BSCS.
9. Bazie, H., Lemma, B., Workneh, A., & Estifanos, A. (2024). The effect of virtual laboratories on the academic achievement of undergraduate chemistry students: Quasi-experimental study. JMIR Formative Research, 8, e64476. https://doi.org/10.2196/64476

10. Bonde, M. T., Makransky, G., Wandall, J., Larsen, M. V., Morsing, M., Jarmer, H., & Sommer, M. O. (2014). Improving biotech education through gamified laboratory simulations. Nature Biotechnology, 32(7), 694–697. https://doi.org/10.1038/nbt.2955
11. Chan, P., Van Gerven, T., Dubois, J. L., & Bernaerts, K. (2021). Virtual chemical laboratories: A systematic literature review of research, technologies and instructional design. Computers and Education Open, 2, 100053. https://doi.org/10.1016/j.caeo.2021.100053
12. Sims, R., Dobbs, G., & Hand, T. (2002). Enhancing quality in online learning: Scaffolding planning and design through proactive evaluation. Distance Education, 23(2), 135–148. https://doi.org/10.1080/0158791022000009169
13. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81–112. https://doi.org/10.3102/003465430298487
14. Duran, L. B., & Duran, E. (2004). The 5E instructional model: A learning cycle approach for inquiry-based science teaching. Science Education Review, 3(2), 49–58.
15. Lawson, A. E. (2010). Teaching inquiry science in middle and secondary schools. SAGE Publications.
16. Ergin, I., Kanli, U., & Unsal, Y. (2008). An example for the effect of the 5E model on the academic success and attitude levels of students: Inclined plane and pulley. Journal of Turkish Science Education, 5(2), 44–59.
17. Taber, K. S. (2013). Revisiting the chemistry triplet: Drawing upon the nature of chemical knowledge and the psychology of learning to inform chemistry education. Chemistry Education Research and Practice, 14(2), 156–168. https://doi.org/10.1039/C3RP00012E
18. Talanquer, V. (2011). Macro, submicro, and symbolic: The many faces of the chemistry "triplet". International Journal of Science Education, 33(2), 179–195. https://doi.org/10.1080/09500690903386435
19. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511811678
20. Batamuliza, J., Habinshuti, G., & Nkurunziza, J. B. (2024). Integration of interactive computer simulations in teaching and learning chemical reaction: Students' performance and concept retention. Journal of Technology and Science Education, 14(4), 1099–1115. https://doi.org/10.3926/jotse.2682
21. Qo'chqorov Sh.(2025)Tabiiy fanlarga iqtisoslashtirilgan maktablarda interaktiv simulyatorlardan foydalanish metodikasi: ta'lim sifatiga ta'siri (Interaktiv elektron konfiguratsiya simulyatorini tayyorlash va undan foydalanish imkoniyatlari). 77-85. Maktab ta'limi muammolar, izlanishlar, yechimlar 2025-1
22. Qo'chqorov Sh. Tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarda kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishda inavatsion texnologiyalardan foydalanish. Ta'limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2024 № 8, Oktyabr. 221-227.

RINOLALIYADA TOVUSHLAR TALAFFUZINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Baltabayeva Durdona Erkin qizi
O'zbekiston Milliy Pedagogika Unversiteti
1-bosqich tayanch doktorantura talabasi

ORCID: 0009-0007-1494-8758

Annotatsiya: Ushbu maqolada tovush haqida tushuncha, rinolaliyali bolalarning nutqiy jihatdan rivojlanishi, tovushlar talaffuzining rivojlanish jarayoni, artikulyatsion holat va ularni yuzaga kelishidagi kamchiliklar, fonematik eshituvning bola nutqidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Rinolaliya bola nutqining ontogenez jarayonida o'z ta'sirini ko'rsatishi va bu holatining namoyon bo'lish xususiyatlari nazariy jihatdan qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Rinolaliya, tovush talaffuzi, ontogenez, artikulyatsiya, burun ohangi, oral praksis, nutq, nutqiy nafas.

Abstract: This article provides information about the concept of sound, the speech development of children with rhinolalia, the process of sound pronunciation development, articulatory position and the defects in its formation, as well as the importance of phonemic hearing in a child's speech.

The influence of rhinolalia on the ontogenetic process of a child's speech development and the specific features of its manifestation are briefly analyzed from a theoretical perspective.

Key words: Rhinolalia, sound pronunciation, ontogenesis, articulation, nasal tone, oral praxis, speech, speech breath.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о понятии звука, речевом развитии детей с ринолалией, процессе формирования звукопроизношения, артикуляционном укладе и недостатках его формирования, а также о значении фонематического слуха в речи ребёнка.

Влияние ринолалии на онтогенетический процесс развития речи ребёнка и особенности её проявления кратко проанализированы с теоретической точки зрения.

Ключевые слова: ринолалия, звукопроизношение, онтогенез, артикуляция, носовой тон, оральная праксис, речь, речевое дыхание.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni imzolandi.[1]

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini malakali tibbiy, ta'limiy va pedagogik xizmatlarini jahon standartlariga mos ravishda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi nazarda tutilgan. Keyingi to'rt yillik islohotlar mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratilishi borasida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so'zlari alohida e'tiborga loyiqdir:

"Biz uchun bolalarimizning ma'naviyati, bilimi, sog'ligi eng muhim masala".

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkin, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida kamchiliklar kuzatilishi uning ta'lim olishini murakkablashtiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash hisoblanadi. Bolaning samarali ta'lim olishga tayyorlashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri esa to'g'ri, yaxshi rivojlangan nutqdir.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28 -yanvardagi PF–60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022 y.

To‘g‘ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to‘g‘ri va lug‘ati boy bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo‘ladi, atrof – olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o‘z tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabati to‘liq va mazmunli bo‘ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi.

Shuning uchun ham bolalarda nutqning o‘z vaqtida shakllanishi haqida, uning sof va to‘g‘riligi haqida qayg‘urish, bola qaysi tilda nutqi shakllanayotgan bo‘lsa, mana shu til normalarida namoyon bo‘luvchi turli nuqsonlarni oldini olish va to‘g‘irlash muhim hisoblanadi.

Rinolaliya ya’ni tug‘ma lab va tanglay yoriqlari eng keng tarqalgan patalogiyalardan biridir. Inson tug‘ma patologiyasi strukturasida 3-4 o‘rinni egallaydi.[2] Statistika ma’lumotlariga ko‘ra bu ko‘rsatkich miqdori oshishga moyildir. Yuqoridagiga sabab bo‘lib, kimyoviy va sanoat industriyasining rivojlanishi tufayli yuzaga keladigan zaharli moddalar ta’sirining kuchayishidir.

Ma’lumki lab va tanglay yoriqliklari og‘ir ko‘rinishdagi nutq buzilishlariga olib keladi. Bu holat -rinolaliya deb ataladi. Rinolaliya nutq apparatining anatomik fiziologik nuqsoni tufayli yuzaga keladi va tovush tembri va talaffuzining buzilishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Rinolaliyada lab va tanglay yorig‘i tufayli yuzaga keladigan patologik o‘zgarishlar artikulyatsion apparat funksiyasining buzilishi nutq nuqsonini kuchaytiradi.Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, rinolaliya bilan o‘g‘rigan bolalarni reabilitatsiya qilish hozirgi davrda dolzarb muammo hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko‘pchilik mualliflar rinolaliyali bolalarda nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlar bilan kechishini qayd etadilar. T.V.Volosovets ushbu patologiya mavjud bolalarning 90% ida gugulash davrining kech kuzatilishi va keyinchalik chug‘urlashning ham kech namoyon bo‘lishi haqida yozgan. Muallif chug‘urlashning fonetik jihatdan kambag‘alligi, asosiy p, b, t, d chug‘urlash tovushlarining nutqda yo‘qligi va ularning m, n, x, k, g tovushlariga almashtirilishi, ko‘pchilik 2-5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda chug‘urlash bo‘g‘inlari hajmining kamayishi va ushbu davrdayoq tilning patologik holatga kelishini ko‘rsatdi. T.V.Volosovets tanglay kemtikligi mavjud bolalar o‘z nutqidagi bo‘g‘in tuzilmalarini soddalashtirib gapirishi haqida to‘xtalib o‘tgan.[3]

Bunday nuqsonli bolalar nutqining me’yordan kech rivojlanishi I.I.Yermakova, A.V.Kriskiy, G.P.Sosnin, G.V.Chirkina, A.G.Ippolitovalar tomonidan yozib qoldirilgan. Ulardagi birlamchi nuqson (fonetik-fonematik nuqson) nutqning leksik-grammatik jihatdan to‘liq shakllanmasligiga sabab bo‘ladi.

Rinolaliyali bolalarni o‘rganish mobaynida Y.S.Almazova, A.G.Ippolitova, T.V.Kolpak va I.I.Yermakovalar rinolaliyali bolalarning ovozi bo‘g‘iq, siqilgan, zaif, charchagan, so‘nib boruvchi xususiyatlarga ega ekanligini qayd etib o‘tishadi. Olimlarning fikricha, patologik belgilarning shakllanishi 12-14 yoshga kelib tugallanadi va nutqda mustahkamlanib qoladi, shu sababli o‘smirlar va kattalarning 80% ida ovoz buzilishlari kuzatilishi ta’kidlanadi.

A.Mitrinovich-Modjeyevska tovushlar artikulyatsiyasidagi buzilishlarning yana bir sababi – eshitish qobiliyatining buzilishi tufayli nutqni eshitib nazorat qilish ko‘nikmasining yetishmasligi deb ta’kidlaydi.[4]

Z.A.Repina ochiq rinolaliyada unlilarni farqlab talaffuz qilish ularning lablangan yoki lablanmaganligiga bog‘liq tarzda buzilishi mumkinligini ta’kidlagan.[5]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada rinolaliyada tovush rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishda nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi rinolaliyali bolalarda tovush talaffuzining shakllanish jarayoni, artikulyatsion mexanizmlarning o‘ziga xosligi hamda buning nutq rivojlanish jarayoniga ta’siri bayon qilindi.

Birinchidan, ilmiy-nazariy tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod asosida nutq ontogenezi, tovush tizimining shakllanish bosqichlari hamda artikulyatsion apparat faoliyatining rivojlanish qonuniyatlari logopediya va psixologiya sohasidagi olimlar – (Vigotskiy, Piaje, Ippolitova, Sh.D. Shokirova) va boshqalarning ilmiy qarashlari asosida o‘rganildi. Nazariy manbalarni tizimli tahlil qilish natijasida rinolaliyada tovush buzilishlari nafaqat artikulyatsion nuqsonlar, balki fonematik idrok va rezonator tizimi faoliyatidagi o‘zgarishlar bilan ham uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

2 Shokirova Sh.D. Rinolaliyali (0-1 yosh) bolalarga logopedik yordam ko‘rsatish mexanizmi // “Bola va zamon” ilmiy-ommabop jurnali. – Toshkent. 2024. – № 3. – B. 56–59. (13.00.00 №1)

3 Волосовец Т.В. Логопедическая работа с детьми в возрасте 1-3 года с расщелиной губы и неба. Дис. канд. пед. наук. – М., 1995. – 172 с.

4 SH.D.Shokirova. Kompleks yondashuv asosida yuqori lab va tanglayning tug‘ma kemtikliklari bo‘lgan bolalarda korreksion-logopedik ishni tashkillashtirish: avtoref.diss.pedagogika fanlari doktori (DSs) – Toshkent: TDPU, 2024

5 Репина, З.А. Формирование фонематической системы языка у детей с ринолалией: учебное пособие / З.А. Репина, И.А. Филатова. – Екатеринбург: Уральский государственный педагогический университет, 2020. – 80 с.

Ikkinchidan, qiyosiy-taqqoslash metodi qo'llanildi. Ushbu metod yordamida nutq rivojlanishi me'yorida bo'lgan bolalar tovush talaffuzi ko'rsatkichlari bilan rinolaliyali bolalarning artikulyatsion va fonetik xususiyatlari solishtirildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, rinolaliyali bolalarda tovushlarning burunlashuvi, artikulyatsion harakatlarning yetarlicha differensiallashmaganligi hamda fonematik farqlashdagi qiyinchiliklar ustunlik qiladi.

Uchinchidan, pedagogik kuzatish metodi asosida bolalarning tabiiy nutqiy muhitdagi tovush qo'llash jarayoni, spontan nutqda fonetik xatoliklarning namoyon bo'lishi va artikulyatsion harakatlar koordinatsiyasi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rinolaliya nutq nuqsoni boshqa nutq kamchiliklari singari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, erta diagnostikani talab qiluvchi murrakkab nuqsondir. Lab va tanglayning tug'ma yoriqligi sababli, bolaning ovqatlanishi, uning fiziologik va fonatsion nafas olishi ozmi-ko'pmi buziladi, yuz mushaklarining tabiati o'zgaradi, fonematik eshitish pasayadi, tilning patologik holati kuzatiladi. Tabiiyki, bularning barchasi bolaning talaffuz xususiyatlariga va nutqini shakllanishiga ta'sir qiladi.

Nutq jarayonida mushaklarning juda tez qisqarishi doimo takrorlanib turadi, bu esa yumshoq tanglayni yuqoriga va orqaga qarab halqumning orqa tomoniga yaqinlashtiradi.Yumshoq tanglay nutq paytida yuqoriga va pastga juda tez harakat qiladi: burin-halqumning ochilish yoki yopilish vaqti 0,01 dan 1 sekundgachadir. Yumshoq tanglayni ko'tarilish darajasi nutqning ravonligi, shuningdek talaffuz qilinadigan fonemalarga bog'liq. Uning maksimal ko'tarilishi [A] va [S] tovushlarini talaffuz qilishda kuzatiladi. Uning eng kuchli zo'riqishi [I] tovushini talaffuz qilishda kuzatiladi. [U] tovushini talaffuz qilishda bu zo'riqish biroz pasayadi va [o], [A], [E] tovushlarini talaffuz qilishda sezilarli darajada kamayadi.[6] Shunday qilib, tanglay-halqum tuzilishi nutqni shakllantirish mexanizmidagi eng muhim bo'g'indir bu esa rinolalik nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda buzilgan bo'ladi.

Tovushlar talaffuzi rinolaliyada burun ohangi asnosida talaffuz etiladi. Tovushlar talaffuzi qisman yoki to'liq buzilgan bo'ladi. I. I. Yermakova va boshqa ko'plab mualliflarning ta'kidlashicha, rinolaliyada undosh tovushlar, ayniqsa [B, D, Z, J, G,] fonemalar ko'pincha buziladi. Ular jarangsiz jufti bilan almashtiriladi.[7]

Bemorlar uchun ba'zi undosh tovushlarning talaffuzi katta qiyinchilik tug'diradi, ya'ni, l, t, ch, sh, j, r tovushlari uchun yuqori tishlar va alveollar oldida zaruriy to'siq yarata olmaydilar, s, z tovushlarining talaffuzi uchun pastki tishlar oldida to'siqni hosil qilmaydilar va og'izdan nafasni to'g'ri chiqara olmaydilar. Shuning uchun rinolaliklarda sirg'aluvchi va shovqinli undosh tovushlar talaffuzi o'ziga xos jaranglashga ega bo'ladi.

K, g tovushlari umuman yo'q, yoki xarakterli portlash ular o'rnini bosadi. Unli tovushlar tilning orqaga tortilishi va havoni burundan chiqishi bilan talaffuz qilinadi va sustlashgan lab artikulatsiyasi bilan xarakterlanadi. Shu tarzda unli va undosh tovushlar kuchli burun ottenkasi bilan shakllanadi. Ularning artikulatsiyasi ahamiyatli darajada o'zgargan bo'ladi va tovushlar o'zaro aniq differensiyalashmagan bo'ladi.

Rinolalik nutqining tinglovchi uchun umumiy xarakteristikasi – burun ottenkasi va xirillashgan tovushlardir. Bunda jarangsiz tovushlar x tovushiga yaqin holda, k, g frikativ tarzda, oldingi lab tovushlari n tovushiga o'xshatib talaffuz qilinadi. Undoshlarni talaffuz qilishda tembr sezilarli darajada buziladi. Portlovchi undosh tovushlar noaniq eshitiladi, chunki burun bo'shlig'ining to'liq qoplanmaganligi tufayli, og'iz bo'shlig'ida kerakli havo bosimi hosil bo'lmaydi.

Undosh tovushlardan [R] deyarli to'liq buzilgan, chunki tilning uchini tebranish uchun nafas chiqarishda havo oqimining juda kuchli bosimi kerak, bunga odatda erishib bo'lmaydi. Shuning uchun tovush o'tkazib yuboriladi, uning o'rniga bitta zarbali, keng, velar yoki uvular tovush bo'ladi. Tovushlar talaffuzi jarayonida tanglay halqumning eng kuchsiz birlashishi "v" undosh tovush talaffuzida, eng kuchli birlashish "s" undosh tovush talaffuzida kuzatiladi.Rinolaliya nutq nuqsonida undosh tovushlar bilan birgalikda unli tovushlar talaffuzi buzilgan bo'ladi.

Unli tovushlarning akustik xarakteristikasi burun rezonansi tufayli buziladi, bu rezonatorlar shakli o'zgarishi va tilning orqa qismi ko'tarilishi tufayli kuchayadi. L. I. Vansovskaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, burun ohangidagi har bir unlining ifodalanishi tanglay-halqum yopilishning zichligi, lablarning torayishi darajasi va halqum shaklning o'zgarishi bilan bog'liq.[8] Halqumning eng kichik hajmi fonemaning [A] artikulyasiyasi bilan, eng kattasi esa [I, U] bilan kuzatiladi.

6 Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007, 2011. – 600 b.
7 Балакирева, А.С. Логопедия. Ринолалия / А.С. Балакирева. – М.: В. Секачев, 2014. – 208 с.
8 Агаева В.Е. Формирование произношения у детей с врожденными расщелинами губы и нёба в процессе этапной логопедической работы. дис. канд пед. наук. – Москва, 2021. – 197 с.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganimizda yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yuqori lab va tanglayning tug‘ma yorilishi nafas olish, tovushni talaffuz qilish, ovoz shakllanishining patologik mexanizmlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi va bolaning nutqdan aloqa vositasi sifatida to‘liq foydalanishiga imkon bermaydi, bu esa ushbu patologiyaga ega bolalarning jamiyatda moslashuvining murakkablashishiga olib keladi.

Rinolaliyali bolalarda tovush rivojlanishini samarali tashkil etish maqsadida quyidagi pedagogik tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rinolaliyani erta aniqlash va tovush buzilishlarini baholashga qaratilgan kompleks diagnostika tizimini joriy etish;
- har bir bola uchun individual korreksion-ta’limiy dastur ishlab chiqishda logoped, tarbiyachi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni tizimli yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022 y.
2. Агаева, В. Э. (2021). Формирование произношения у детей с врожденнйми расшчелинами губй и нёба в процессе этапной логопедической работй [PhD dissertation, Moscow].
3. Ayupova, M. Y. (2011). Logopediya. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. (Original work published 2007)
4. Balakireva, A. S. (2014). Logopediya. Rinolaliya. V. Sekachev.
5. Репина, З. А., & Филатова, И. А. (2020). Формирование фонематической системй язйка у детей с ринолалией. Ural State Pedagogical University.
6. Shokirova, S. D. (2024). Rinolaliyali (0–1 yosh) bolalarga logopedik yordam ko‘rsatish mexanizmi. Bola va zamon, (3), 56–59.
7. Shokirova, S. D. (2024). Kompleks yondashuv asosida yuqori lab va tanglayning tug‘ma kemtikliklari bo‘lgan bolalarda korreksion-logopedik ishni tashkillashtirish (Doctoral dissertation abstract, TDPU).
8. Соломатина, Г. Н. (2020). Значение и направления работй помошчи семъям, воспитйваюшчим детей с врожденнйми расшчелинами губй и нёба. Коррекционно-педагогическое образование, 1(21), 53–60.
9. Ткачева, В. В. (2016). Реализация семеино-центрированного подкҳода в условиякҳ Слузҳбй ранней помошчи. Ин Раннее развитие и коррекция: теория и практика (пп. 259–266).
10. Волосоветс, Т. В. (1995). Логопедическая работа с детми в возрасте 1–3 года с расшчелиной губй и неба [PhD диссертатион, Моссоw].



INTELLEKTUAL MULK EGALARI MUVAFFAQIYATGA ERISHISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Shamshetov Jiyienbay Karamaddinivich
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual mulk egalari muvaffaqiyatga erishishining psixologik omillariga e'tibor qaratgan. Intelektual mulk tushunchalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: intelektual mulk, psixologik omillar, ilmiy tadqiqotlar.

Abstract: This article focuses on the psychological factors that contribute to the success of intellectual property owners. It provides information about the concepts of intellectual property.

Key words: intellectual property, psychological factors, scientific research.

Аннотация: В этой статье основное внимание уделяется психологическим факторам успеха владельцев интеллектуальной собственности. Дана информация о понятиях интеллектуальной собственности.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, психологические факторы, научные исследования.

KIRISH

Jahon miqyosida innovasion iqtisodiyotga o'tish jarayoni intellektual resurslarni strategik omilga aylantirdi. Bugungi kunda intellektual mulk ya'ni patent, mualliflik huquqi, tovar belgisi, dasturiy ta'minot va boshqalar milliy taraqqiyot ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Intellektual mulk egalari olimlar, tadqiqotchilar, ixtirochilar, dasturchilar, dizaynerlar, yozuvchilarning ijodiy faoliyati muvaffaqiyati nafaqat bilim va kasbiy kompetensiyalarga, balki shaxsning psixologik qobiliyatiga ham bog'liq. Shu bois mazkur tadqiqot intellektual mulk egalari muvaffaqiyatining psixologik determinantlarini kompleks tahlil qilishni taqoza etadi.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida intellektual mulk iqtisodiy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. World Intellectual Property Organization (WIPO) ma'lumotlariga ko'ra, innovasion faoliyat va patentlar sonining o'sishi mamlakatlar raqobatbardoshligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan intellektual mulk egalari muvaffaqiyatini ta'minlovchi psixologik omillarni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Intellektual mulk egalari ko'pincha raqobat, tanqid va huquqiy muammolar bilan to'qnash keladilar. Bunday sharoitda emosional barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarda Daniel Goleman emosional intellektni muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatib o'tgan. Bunda emosional intellekt sifatida o'z his-tuyg'ularini anglashi, ularni boshqarishi, empatiyasi va ulardagi ijtimoiy ko'nikmalarni ko'rsatib o'tishgan. Muvaffaqiyatga erishishda eng muhim omillardan biri yutuqqa intilish motivatsiyasidir.

M.David[1] o'zining yutuq motivatsiyasi nazariyasida inson muvaffaqiyati uning ichki ehtiyoji muvaffaqiyatga erishish istagi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Intellektual mulk egalarida ichki motivatsiya ya'ni yangi g'oya yaratishga harakat qiladi, tashqi motivatsiya mexnati evaziga mukofot, moddiy rag'bat, ijtimoiy tan olinishni xohlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy faoliyatda ichki motivatsiya ustunlik qiladi. Intellektual mulk egalari muvaffaqiyatga erishishining psixologik omillaridan biri intellektual mulk yaratish jarayoni kreativ fikrlashni talab etadi.

1 McClelland, D. C. (1961). The Achieving Society. Princeton, NJ: Van Nostrand.

J.P. Guilford kreativlikni divergent fikrlash qobiliyati bilan bog‘lagan. Divergent fikrlash bir muammoga bir nechta noan’anaviy yechim topish qobiliyatidir. Kreativ shaxslarga xos xususiyatlar uning mustaqil fikrlashi, noan’anaviylikni yuzaga keltirish, yuqori intellektual faollik va tavakkalchilikka moyillik bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Harvard University olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ijodiy muhit va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy sharoit innovasion faoliyatni rag‘batlantirishini ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi muhitda erkin fikrlash imkoniyati, moddiy va axborot resurslari hamda kasbiy hamkorlik qilishga xatti-harakatlarni ko‘rish mumkin.

Intellektual mulk egalari muvaffaqiyati ko‘p omilli psixologik jarayondir. Unda ichki motivatsiya, kreativlik, emosional intellekt, shaxsiy barqarorlik va ijtimoiy muhit o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, intellektual mulk sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsda yuqori darajadagi ichki motivatsiyasi, ijodiy fikrlash qobiliyati, stressga bardoshlilik, ijtimoiy faollik rivojlangan bo‘lishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Darhaqiqat, bugungi kunda inson salohiyati, tafakkuri mahsuli sifatida intellektual mulk ob’yektlarining o‘rni va vazifasi muhim ahamiyatga ega. Zero, intellektual mulk ob’yektlari ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri bo‘lib, ulardan tijorat muomalasida foydalanishning samaradorligi dunyoning rivojlangan mamlakatlari amaliyotida o‘z isbotini topgan. Intellektual faoliyat natijalari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining individuallashtirish vositalarini tijorat muomalasiga jalb etish, ulardan samarali foydalanish hamda xavfsizligini ta’minlash bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Intellektual mulk ob’yektlari xavfsizligini ta’minlash, avvalo, bu jarayonni to‘g‘ri tashkiliy iqtisodiy tartibga solish va huquqiy muhofaza qilishni talab etadi. Intellektual mulk ob’yektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish va ularni tijorat maqsadlarida majburiyat va boshqa fuqarolik-huquqiy shakllarda foydalanish butun dunyo bo‘ylab har yili yuz milliard dollarlar aylanmasiga xizmat qiladi. Intellektual mulk bu ijodiy akliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik ob’yekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san’at sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san’ati, kashfiyotlar, ixtirolar, rasionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma’lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamalari akliy mulk ob’yektlariga kiradi.

Hozirgi davrda intellektual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi. Ilmiy nuqtai nazardan ta’riflaganda, “intellektual mulk” huquki o‘z mohiyatiga ko‘ra - inson ijodiy faoliyati mahsullarini yaratish, ulardan foydalanish, farqlash belgilarining muomalada bo‘lishi bilan bog‘lik munosabatlarni, shuningdek, intellektual mulk ob’yektlariga nisbatan huquqparni muhofaza qilishni tartibga soluvchi normalar yig‘indisi majmui hisoblanadi. “Intellekt” iborasi lotincha bo‘lib, “aql” ma’nosini anglatadi. Insoniyat boshqa tirik mavjudotlardan o‘zining aqli bilan tubdan ajralib turadi. Negaki, boshqa mavjudotlar faqat biologik nuktai nazardan “instinkt” orqali hayot kechirsa, insoniyat aqli tufayli o‘z turmush tarzini, kelajagini avvaldan o‘ylab, rejalashtirib ongli, maqsadli hayot kechiradi.

Bugungi kunda fuqarolik hukuqi tarkibida ilmiy-texnika taraqqiyoti, inson ijodiy faoliyati va uning mahsullaridan foydalanish hamda mutlaq huxuklarni muhofaza qilish masalalarini tartibga soluvchi intellexgual mulk hukuki sohasi vujudga keldi va jadal sur’atlar bilan rivojlana boshpandi Intellektual mulk qupuqi - o‘z mohiyatiga ko‘ra, inson ijodiy faoliyati mahsullarini yaratish, upardan foydalanish, farklash belgilarining muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq munosabatlarni, shuningdek, ingellektual mulk ob’yektlariga nisbatan huquqlarni muhofaza qilishni tartibga soluvchi normalar yig‘indisi, majmui hisoblanadi. Intellektual mulk huquqi har qanday boshqa mulk huquqlari singari bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Binobarin, intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy muammolarini o‘rganish va tadqiq qilish huquqshunoslik fanidagi muhim ilmiy muammodir. Ta’lim tizimida ham pedagog kadrlar o‘z mas’uliyatidan kelib chiqib bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi. Lekin shunday bo‘lsada ba’zi pedagoglarimizda intelektual mulk tushunchalari va o‘z ilmiy ishlarini himoya qila olish ko‘nikmalari sayozdir. Respublikamizda Fan va texnika taraqqiyoti, chuqur bilim talab qiladigan yuqori texnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini takomillashib borayotgan bir davrda intellektual mulkning yangi ob’yektlarivujudga kelmoqda va fuqarolikhuquqiy munosabatlari haqida o‘quv qo‘llanmalarni va shu saho bo‘yicha ilmiy ishlarni olib borishni taqoza yetmoqda. Xulosa sifatida shuni aytib o‘tish kerakki, intellektual mulk huquqi xususida so‘z borganda mulk huquqining o‘ziga xos turi nazarda tutiladi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida “Intellektual mulk huquqi” o‘quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002.
2. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006.
3. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi. O'zbekiston Respublikasi FA I.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti. – T.: Falsafa va hukuk instituti, 2018.
4. McClelland D. C. The Achieving Society. – Princeton: Van Nostrand, 1961. – 512 p.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA BOLA SHAXSI IJTIMOIY SHAKLLANISHIGA DOIR PEDAGOGIK QARASHLARNING IFODALANISHI

Askarova Zuhra Shavkat qizi
Urganch Ranch texnologiya universiteti
“Pedagogika” mutaxassisligi magistratura yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan ertaklar yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada ertaklarning bolalar tafakkuri, tasavvuri va xulq-atvorini rivojlantirishdagi roli o‘rganilib, ular orqali mehnatsevarlik, halollik, mardlik, adolatparvarlik va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarni singdirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: xalq ertaklari, bolalar tarbiyasi, o‘zbek folklori, pedagogik texnologiyalar, axloqiy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, hikoya terapiyasi, maktabgacha ta’lim.

Abstract: This article analyzes the educational value of Uzbek folk tales from a scientific and theoretical perspective. The relevance of the study lies in the fact that fairy tales, as one of the forms of folk oral creativity, play an important role in shaping the spiritual and moral worldview of the younger generation. The article examines the role of fairy tales in the development of children’s thinking, imagination, and behavior, and scientifically substantiates the possibilities of fostering such human qualities as diligence, honesty, courage, justice, and kindness through them.

Key words: folk tales, child education, Uzbek folklore, pedagogical technologies, moral education, spiritual values, story therapy, preschool education.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется воспитательное значение узбекских народных сказок. Актуальность исследования заключается в том, что сказки, являясь одним из образцов народного устного творчества, играют важную роль в формировании духовно-нравственного мировоззрения подрастающего поколения. В статье рассматривается роль сказок в развитии мышления, воображения и поведения детей, а также научно обосновываются возможности формирования через них таких человеческих качеств, как трудолюбие, честность, мужество, справедливость и доброта.

Ключевые слова: народные сказки, воспитание детей, узбекский фольклор, педагогические технологии, нравственное воспитание, духовные ценности, сказкотерапия, дошкольное образование.

KIRISH

Dunyo bo‘ylab pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy ishlarning aksariyati bolalar ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini, xususan, bolalarning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishi, shuningdek, ularning psixologik va pedagogik jihatdan shakllanish jarayonlarini ochib beradi.

Adabiyotlarni ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, bola shaxsining ijtimoiy rivojlanishi ham pedagogika, ham psixologiya fanlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Psixologiyada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi masalalari S.A. Belicheva, I.S. Kon, P.O. Lebedev, B.S. Merlin, A.V. Mudrik, B.D. Parygin, V.Ya. Yadov, S.V. Popova va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi G‘arbiy Yevropa va Amerika fanida ustuvor va dolzarb masala hisoblanadi. Ijtimoiy ta’lim muammosi A.V. Yevtich, G. Lapata, M. Galinech va boshqa olimlarning asarlarida tizimli ravishda o‘rganilgan. D.J. Deming, E. Jones, M. Greenberg va M. Crowley, S.L. Odom, S.R. McConnell hamda W.H. Brownning ilmiy ishlarida ijtimoiy kompetensiyaning o‘zini o‘zi anglash va shaxsiy muvaffaqiyatni qanday bashorat qilishi masalalari tahlil etilgan.

V. Mujich ijtimoiy kompetensiyani ijtimoiy ko'nikmalar, moslashtirilgan xulq-atvor va ijtimoiy tan olinishi sifatida talqin qiladi hamda ularning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi [4].

H.S. Xan va K.M. Kempl ijtimoiy kompetensiyani his-tuyg'ularni ifoda etish, o'z va boshqalarning ehtiyojlari hamda his-tuyg'ularini tushunish, muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish, muzokara olib borish, ijtimoiy vaziyatlarni anglash va o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy maqbul xulq-atvorga moslashtirish qobiliyati sifatida tavsiflaydilar.

V. Shvartsning fikricha, ijtimoiy kompetensiya bolaning rivojlanib borayotgan muhitida munosabatlarni o'rnatish, rivojlantirish va saqlashga ta'sir etuvchi bir qator qobiliyatlarni o'z ichiga oladi [5]. Shu bois, ijtimoiy kompetensiya o'ziga va boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi.

Shunga o'xshash tadqiqotlarni o'zbek olimlarining asarlarida ham uchratish mumkin. Xususan, A. Nurmamatov biologik va tashqi ijtimoiy muhit omillarining bola shaxsining rivojlanishiga uyg'un ta'sirini Sharq mutafakkirlarining qarashlari, ilmiy tadqiqotlari va uzoq muddatli pedagogik tajribasi asosida yoritib bergan [8].

N.A. Baxrievaning ilmiy ishlarida esa maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishining pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilingan [7]. Biroq o'zbek xalq ertaklarining bolalarning ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni va ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlarning yetarli emasligi mazkur masalani chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishini o'rganishga qaratilgan nazariy yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ijtimoiy kompetensiya hamda bola shaxsining rivojlanishiga oid qarashlari qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi doirasida ijtimoiy kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy qismlari va rivojlanish omillari aniqlanib, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasidagi ahamiyati nazariy jihatdan asoslandi. O'zbek va xorijiy ilmiy manbalar tahlili asosida ijtimoiy kompetensiyaning bola shaxsining shakllanishidagi o'rni yoritildi hamda o'zbek xalq ertaklarining ushbu jarayondagi pedagogik imkoniyatlarini o'rganish zarurati metodologik jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar adabiyoti yosh bolalarga inson bo'lish nimani anglatishini tushunishga yordam beradi hamda ularni atrofdagi dunyo bilan tanishtiradi. Ertaklar bolalarga muhim xabarlarni yetkazish imkonini beradi. Ertaklarda ayrim real bo'lmagan mavzular mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy ta'siri ijobiy bo'lib, bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy elementlarni ta'minlaydi.

Ertaklar bolalarga asosiy insoniy nizolar, istaklar va munosabatlarni sog'lom tarzda hal qilishni o'rgatadi. Ushbu ko'nikmalarni egallash esa oxir-oqibat bolaning sog'lig'iga, hayot sifatiga, shuningdek, kelajakdagi qadriyatlari va e'tiqodlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, ertaklarning bolalar rivojlanishidagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bolalar o'z kamchiliklari va xatolarini tan olish bilan bog'liq og'riqli tajribadan qochgan holda, qiziqarli ertak qahramoniga aylanishadi, o'z muammolarini hal etadilar va mustaqil xulosalar chiqaradilar;
- ertaklar bolalar uchun himoyalangan muhit yaratib, ularga ichki dunyosiga aralashuvdan qo'rqmasdan o'zlari va atrof-muhit haqida yangi bilimlar olish imkonini beradi;
- ertakni tinglash jarayonida bolalar o'zlarini qahramonlar bilan taqqoslaydilar, o'zlariga yaqin bo'lgan qahramonlarni tanlaydilar va qo'rquv hamda xavotirlar bilan yolg'iz emasliklarini his qiladilar;
- eng muhimi, ertak qahramonlari boshidan kechirgan voqealarni tinglash bolalarda qiyinchiliklarni yengib o'tish ko'nikmalarini shakllantiradi, tafakkurni yangilaydi, muammolarni hal qilishda tajriba beradi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Ertaklarning asosiy maqsadi bolalarga atrofdagi dunyoni sodda va tushunarli tilda tushuntirish hamda ularni hayotga tayyorlashdan iborat. Psixologlar ertaklarning bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir qator omillarini qayd etganlar.

Sehrli voqealar empatiya, ya'ni rahm-shafqat tuyg'usini rivojlantiradi. Ertak qahramonlarining sarguzashtlari bilan tanishgan bola ularning taqdiri haqida qayg'uradi, ular bilan birga yovuz kuchlarga qarshi kurashadi va qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi.

Ertak voqealari bolalarning jinsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Qizlar bo‘lajak ona, yaxshi uy bekasi va sodiq do‘st obrazlarini o‘zlashtiradilar. O‘g‘il bolalar esa zaiflarni himoya qilish, kuchli bo‘lish va oila boshlig‘i bo‘lish kabi rollarni qabul qiladilar. Madaniyat nafaqat insonlarning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmui, balki jamiyatdagi bilim, me’yor va iste’dodlar yig‘indisini ham ifodalaydi, ya’ni ijtimoiy rivojlanish darajasi madaniyatda mujassamlashadi [10].

Ertaklar orqali ota-onalar bolalarga “yaxshi” va “yomon” tushunchalarini farqlashni o‘rgatadilar. Kichik yoshdagi bolalar ko‘pincha nasihat va maslahatni to‘liq anglay olmaydilar. Biroq ertaklar orqali bolalar turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutish kerakligini o‘zlashtiradilar. Bolalarning asosiy ehtiyojlaridan biri kattalar bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashdir [14].

Ertaklar bolalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular nutq va tasavvurni boyitadi, chunki bola o‘zini qahramon o‘rnida tasavvur qiladi. Ushbu ko‘nikmalar bola hayotida yangi bosqichni ifodalaydi hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Ertaklar bolaning dunyoqarashini kengaytiradi va uni ijtimoiy hayotga moslashtiradi. Ertak voqealari orqali bola hayvonlar, sehrli joylar, malika va shahzodalar, shuningdek, turli obrazlar bilan tanishadi.

Ertaklar bolaning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq bir qator xususiyatlarni aks ettiradi. Quyida ushbu jihatlar misollar asosida yoritiladi.

Jamiyat birligining ahamiyati. “Sholg‘om” ertagida chol, kampir, bola, qiz, it va mushuk sholg‘omni tortib chiqara olmaydilar, biroq sichqon yordamga kelgach, maqsadga erishiladi. Ushbu hikoya qat’iyat va jamoaviy mehnatning muhimligini ko‘rsatadi. Katta va kichik a’zolarning birgalikdagi sa’y-harakati katta natijalarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Ertak sodda va tushunarli bo‘lsa-da, uning mazmuni va tarbiyaviy qiymati nihoyatda kuchlidir. Unda bobo-ning tinimsiz mehnati orqali mo‘l hosil yetishtirgani tasvirlanadi. Bu, avvalo, mehnatni ulug‘lash g‘oyasini ifodalaydi. Ikkinchidan, bola boshqalar bilan uyg‘un va do‘stona munosabatda bo‘lib o‘sishi lozimligi ko‘rsatiladi. Fan tabiatda mavjud hodisalar va ularga tashqi ta’sirning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi [12]. Jamoa bilan birga yashash va faoliyat yuritish ijobiy natijalarga olib keladi.

Oilaning ustunligi. O‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat”da Zumrad boshqa joyda yaxshi sharoitga ega bo‘lsa-da, o‘z uyi va oilasiga qaytishni orzu qiladi. Bu holat insonning o‘z oilasiga bo‘lgan sadoqati va oilaviy munosabatlarning ustuvorligini ifodalaydi.

Ijtimoiy munosabatlarda do‘stlikning ahamiyati. O‘zbek xalq ertaklarida do‘stlik va birodarlik g‘oyalari muhim o‘rin egallaydi. Masalan, “Qilich botir” ertagida qahramon duradgor, temirchi va suvchi bilan do‘stlashadi. Ular birgalikda turli sinovlardan o‘tib, hamkorlikning muhimligini namoyon etadilar.

Shuningdek, “Susambil” va “Uch qahramon aka-uka” ertaklarida ham do‘stlarning birgalikdagi harakati katta kuch ekanligi g‘oyasi targ‘ib qilinadi.

Ijtimoiy munosabatlarda halol mehnat va ilmning ahamiyati. “Har kimning mehnati o‘ziga shirin” va “Halol mehnat” ertaklarida halollik va mehnatsevarlikning jamiyatdagi o‘rni yoritiladi. “Halol mehnat” ertagida boy odamning o‘g‘li barcha boyligini isrof qilganidan so‘ng halol mehnat orqali yangi hayot boshlaydi va chin do‘stlar orttiradi. Bu ertak halol mehnat insonni baxtga yetaklashini ko‘rsatadi.

Mehmondo‘stlikning ijtimoiy ahamiyati. O‘zbek xalq ertaklarida mehmondo‘stlik muhim axloqiy qadriyat sifatida talqin etiladi. Mehmonlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va bor narsani baham ko‘rish milliy xususiyatlarni aks ettiradi. “Laylak va Tulki” ertagida ushbu g‘oyaning noto‘g‘ri talqini tanqid qilinib, o‘zaro hurmat va samimiyatning ahamiyati ta’kidlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ertaklarning bolalarni tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyosdir. Ular bolalarga hayotga nisbatan muayyan nuqtai nazarni shakllantiradi, yaxshilik va yomonlikni farqlashga yordam beradi hamda murakkab vaziyatlarni qanday yengib o‘tishni o‘rgatadi. Ertaklar orqali bolalar boshqalar bilan o‘zaro munosabatlar me’yorlarini, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va to‘siqlarni anglay boshlaydilar. Ular qiyinchiliklarni yengib o‘tish, muammolarni hal etish ko‘nikmalarini egallaydilar va sodir bo‘ladigan voqealar yaxshilik, adolat hamda mehr bilan yakunlanishiga ishonch hosil qiladilar.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, o‘zbek xalq ertaklarida bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga oid pedagogik qarashlarning ifodasini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, mazkur ertaklarda jamoaviy birlikning ahamiyati, oilaning ustunligi, ijtimoiy munosabatlarda do‘stlikning roli, halol mehnat va bilimning qadriyat sifatida talqini yaqqol aks etgan. Shuningdek, ertaklar orqali ijtimoiy munosabatlarning muhimligi va mehmondo‘stlikning ijtimoiy ahamiyati kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Zamonaviy mutaxassis qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat’i nazar, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishi va o‘z bilim hamda malakasini doimiy ravishda oshirib borishi zarur [13].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori: https://lex.uz/docs/-4327235
2. Mirziyoyev Sh.M. Biz buyuk kelajagimizni jasur va olijanob xalq bilan birgalikda quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni: https://lex.uz/docs/-4646908
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 1999-yil. – 248 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 1997-yil. – 9-bet.
6. Karimov I.A. Bizdan obod va ozod vatan qolsin. № 2. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1996-yil. – 380 b., 96–97-betlar.
7. Deming D.J. (2015). The Growing Importance of Social Skills in the Labor Market. NBER Working Paper No. 21473. Retrieved from http://www.nber.org/papers/w21473. https://doi.org/10.3386/w21473
8. Goleman D. (2008). Emocionalna inteligencija. Zagreb: Mozaik knjiga.
9. Katz L.G., & McClellan D.I. (2005). Poticanje razvoja dječje socijalne kompetencije. Zagreb: Educa.

TURKIY YOZMA YODGORLIKLARDA SOLETSIZM FENOMENI: GENEZISI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI



D. A. Raxmatova
SamDU, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
ORCID: 0009-0005-8316-360X

Annotatsiya: Mazkur maqolada soletsizmning turkiy yozma yodgorliklarda qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Soletsizm nutqda grammatik qoidabuzarlik yoki tilning grammatik normalariga zid bo'lgan ifoda sifatida namoyon bo'lsa-da, badiiy asarlarda ba'zan qahramon nutqini jonlantirish, uning ijtimoiy mavqeini ko'rsatish yoki uslubiy ta'sirni kuchaytirish maqsadida ataylab qo'llanilgan grammatik xatolik sifatida talqin etiladi. Maqolada qadimgi manbalarda uchraydigan grammatik og'ishlar, xususan, soletsizmning poetik mohiyati, genezisi hamda funksional xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: soletsizm, lingvistika, grammatik xatolik, poetika, uslubiy vosita, qadimgi manba, turkiy yozma yodgorlik, nutq.

Abstract: This article analyzes the features of the use of solecism in Turkic written monuments. Although solecism is generally regarded as a grammatical violation or an expression that contradicts the grammatical norms of a language, in literary texts it is sometimes deliberately employed to enliven a character's speech, indicate social status, or enhance stylistic expressiveness. The study examines grammatical deviations found in ancient sources and provides a scholarly interpretation of the poetic essence, genesis, and functional characteristics of solecism.

Key words: solecism, linguistics, grammatical error, poetics, stylistic device, ancient source, Turkic written monument, speech.

Аннотация: В статье анализируются особенности использования солецизмов в тюркских письменных памятниках. Подчеркивается, что солецизм, являясь грамматическим нарушением речи или выражением, противоречащим грамматическим нормам языка, в художественных произведениях нередко применяется намеренно – с целью оживления речи персонажа, отражения его социального статуса или усиления стилистического эффекта. В работе рассматриваются грамматические отклонения, зафиксированные в древних источниках, раскрывается поэтическая сущность солецизма, а также его генетические и функциональные характеристики.

Ключевые слова: солецизм, лингвистика, грамматическая ошибка, поэтика, стилистический приём, древний источник, тюркский письменный памятник, речь.

KIRISH

Jahon tilshunosligida grammatik moslik buzilishi muammosi turli lingvistik maktab va yo'nalishlar doirasida izchil o'rganilgan bo'lib, uning tabiati, nutqiy maqomi va funksional yuklamasi masalasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Tilshunoslikda bunday grammatik buzilish turlaridan biri soletsizm hisoblanadi.

Soletsizm – bu nutqning grammatik noto'g'riligi, ya'ni tilning adabiy me'yorlariga mos kelmaydigan so'zlar va iboralarning qo'llanilishidir. U gapning umumiy ma'nosini buzmaydigan sintaktik noto'g'ri burilish sifatida namoyon bo'lishi mumkin. "Soletsizm" so'zi lotincha soloecismus, yunoncha soloikos – "noto'g'ri ma'ruzachi" ma'nosini bildiradi. Soletsizm atamasining dastlabki qo'llanilishi 1555-yilga to'g'ri keladi. "Soletsizm" atamasi qadimgi ritoriklar tomonidan Kichik Osiyodagi Kilikiya hududida joylashgan yunon koloniyasi – Sola shahri nomidan olingan. Shahar Arsos va Lindos kolonistlari tomonidan asos solingan bo'lib, keyinchalik ko'chmanchilarning avlodlari mahalliy aholi bilan aralashib ketishi natijasida qadimgi yunon tilining sofligi yo'qolgan. Ushbu koloniya aholisi bir necha o'n yillik majburiy izolyatsiyadan so'ng yunon tilining o'ziga xos lahjasida so'zlasha boshlagan. Sol shahriga kelgan metropoliya aholisi mahalliy aholining nutqidan hayratga tushgan: bu nutq umumiy jihatdan tushunarli bo'lsa-da, unda so'zlarning oxiri aralashib ketgan, shakllari g'alati, jumlalar esa o'z o'rnida kelmagan.

Tarixchilarning fikriga ko'ra, Soli mustamlakachilari o'zlarining yunon tilida buzilishlarga yo'l qo'ygan va so'zlarni noto'g'ri qo'llay boshlagan. Leksik jihatdan noto'g'ri va bema'ni bo'lgan bunday nutq shakli keyinchalik

soletsizm deb atalgan. Hozirgi kunda soletsizmlar bayonotning ma'nosini buzmaydigan noto'g'ri nutq shakllarini o'z ichiga oladi. Ritorikada soletsizm, odatda, noto'g'ri lingvistik ifodani anglatish uchun ishlatilgan [1. Solecism – Literary Device (Poem Analysis): https://poemanalysis.com/literary-device/solecism].

Adabiy muharrirlar yo'l qo'yadigan xatolarning aksariyati so'zlarning o'rin almashib ketishi, ergash gap qo'shimchalarining o'rinsiz qo'llanishi yoki fe'l shakllarining noto'g'ri ishlatilishi bilan bog'liq. Soletsizmlar har doim ham tasodifiy xatolar emas, ba'zan ular ataylab qo'llaniladi. Qizig'i shundaki, rus tilida grammatik va morfologik me'yorlar, xususan, so'z sonlari va hol shakllarining kelishlari asta-sekin shakllangan. XIX-asrda, ayniqsa, uning birinchi yarmida, bu me'yorlar hali ancha noaniq bo'lgan. Shu sababli soletsizmlar o'sha davr rus yozuvchilari matnlarida tez-tez uchraydi.

Turli tillarda grammatika va sintaksis qoidalari turlicha bo'lganligi sababli soletsizmlar ham xilma-xildir. Masalan, ingliz tilida ko'plab xatolar noto'g'ri jumla tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, bu holat so'z tartibining qat'iyligi bilan izohlanadi. Bunday xatolar hatto soletsizmning alohida turi sifatida ham ajratilgan. Soletsizm – bu nutqda grammatik qoidabuzarlik yoki tilning grammatik normalariga zid bo'lgan ifodadir [2. 15-b.]. Soletsizm xatolik bo'lishiga qaramay, ba'zan badiiy uslubda yoki jonli so'zlashuvda ataylab qo'llaniladi.

Soletsizmning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- grammatik jihatdan noto'g'ri bo'lishi;
- nutqning har qanday turida (og'zaki va yozma) uchrashi;
- ataylab yoki bilmasdan qo'llanilishi;
- shevalarda va kuchli emotsional nutqlarda ko'proq uchrashi.

Soletsizmning asosiy turlari quyidagilardir:

1. Sintaktik soletsizm – gap tuzilishidagi xatolik;
2. Morfologik soletsizm – so'z shakllari yoki qo'shimchalarning noto'g'ri qo'llanishi;
3. Semantik soletsizm – so'z ma'nosi yoki mantiqining buzilishi [3. Poem Analysis. Solecism (Wikipedia, lingvistik ta'rif): https://en.wikipedia.org/wiki/Solecism].

Ba'zan adabiy asarlarda qahramon nutqini jonlantirish yoki uning ijtimoiy qatlamini ko'rsatish maqsadida soletsizm ataylab qo'llaniladi. Soletsizm grammatik xato bo'lishi mumkin, biroq ayrim hollarda u uslubiy vosita sifatida ham xizmat qiladi va nutqda alohida e'tibor talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon tilshunosligida soletsizm hodisasi grammatik me'yorlardan og'ishning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Antik ritorika va zamonaviy stilistikada bu tushuncha nutqda grammatik moslikning buzilishi bilan bog'lanib, ba'zan estetik yoki uslubiy vazifani bajarishi qayd etiladi. Ingliz tilshunosligida soletsizm ko'proq adabiy matnlardagi grammatik og'ishlar nuqtayi nazaridan izohlanib, uning poetik va ekspressiv imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi. Xususan, adabiy tahlillarda soletsizm badiiy obraz nutqini individuallashtirish vositasi sifatida baholanadi.

Rus va umumiy filologik an'anada soletsizm masalasi metrikaning, sintaksis va poetik tuzilmaning tarkibiy unsuri sifatida o'rganilgan. B. Jirmunskiy she'riy nutqda grammatik og'ishlarning ritmik va estetik ta'sirini tahlil qilib, ularning badiiy matn mazmuniga xizmat qilishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv soletsizmni faqat xatolik emas, balki muayyan poetik vazifaga ega hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu qarashlar keyingi adabiy-lingvistik tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida soletsizm masalasi, asosan, mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodi namunalari tahlili orqali yoritilgan. B. To'xliyev va B. Abdurahmonova, shuningdek, Z. Mirzayeva va K. Djalilov tomonidan tayyorlangan adabiyot darsliklarida mumtoz matnlardagi grammatik og'ishlar tarixiy til hodisasi sifatida izohlanadi. Ushbu tadqiqotlarda til taraqqiyoti jarayonida grammatik shakllarning barqarorlashuvi va me'yorlashuvi masalalari bilan bir qatorda, qadimgi va o'rta asr matnlarida uchraydigan soletsizmga xos birliklar ham tilga olinadi.

Turkiy yozma yodgorliklarda soletsizm hodisasini o'rganishda Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy va Ahmad Yugnakiy asarlari muhim manba hisoblanadi. "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Devonu hikmat" va "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida grammatik shakllarning variantliligi, fe'l va qo'shimchalarning o'ziga xos qo'llanilishi turkiy adabiy tilning tarixiy holatini aks ettiradi. Ushbu manbalar soletsizmning genezisi va funksional xususiyatlarini aniqlash, uni badiiy-uslubiy vosita sifatida baholashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda turkiy yozma yodgorliklarda soletsizm hodisasini aniqlash va tavsiflash maqsadida bir necha ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida qadimgi va o‘rta asr turkiy yozma manbalari, jumladan, mumtoz adabiy asarlar va leksikografik manbalardan olingan matnlar tanlab olindi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida matnlarni to‘liq va tanlab o‘qish, grammatik birliklarni ajratib ko‘rsatish hamda soletsizmga xos shakllarni aniqlash usullari qo‘llandi. Tahlil bosqichida deskriptiv va qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida aniqlangan grammatik og‘ishlar hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlari bilan solishtirildi. Shuningdek, lingvopoetik tahlil yordamida soletsizmning matndagi funksional va uslubiy vazifalari, uning badiiy ifodaga ta’siri baholandi. Olingan natijalar umumlashtirish va tasniflash orqali ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy mushtarak yozma yodgorligi “Avesto” kitobidir. U zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi aholining asosiy qismi aynan shu dinga e’tiqod qilgan. “Avesto”ning markazida Zardusht turadi. Uning to‘la nomi Zaradushtradir. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Avesto” haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

“Avesto” bizning qo‘limizga ikki ko‘rinishda yetib kelgan:

- **Gotlar** – zardushtiylikning asoschisi Zaradushtra tilidan aytilgan o‘ziga xos 17 qo‘shiqdan iborat;
- **Zend** – “Avesto”ga bitilgan pahlaviy tilidagi sharhlardir.

“Avesto” o‘sha davrlar tarixi, fani va madaniyati haqida ma’lumot beruvchi qomusiy asar hisoblanadi. U pahlaviy tiliga tarjima qilingan va unga sharhlar yozilgan. Ushbu buyuk asar hozirgi kunda dunyoning ko‘plab xalqlari tillariga tarjima qilingan. Mustaqillik sharofati bilan u o‘zbek tiliga Asqar Mahkam va Mirsodiq Is’hoqov tomonidan o‘girilgan. “Avesto” adabiy manba bo‘lishi bilan birga, badiiy asar sifatida ham e’tirof etiladi.

Asarning katta qismi she’riy yo‘lda, sakkiz bo‘g‘inli hijo vaznida yaratilgan bo‘lib, qofiyalar satr oxirida emas, balki ko‘pincha misra o‘rtasida, ba’zan esa boshida ham keladi. “Avesto”da soletsizm hodisasi ham uchraydi:

Nomingni ataguvchi /
Namoz-la sajda qilgum /
Qudratli Mitra senga,
Xayr-u ehsonlar qilgum [4. 8].

Yuqoridagi misrada hozirgi-kelasi zamon fe’li “-gu” va I shaxs birlikdagi shaxs-son qo‘shimchasi “-m” shaklida qo‘llangan. “Avesto”ning ayrim qismlari deyarli boshidan oxirigacha xalq og‘zaki ijodi unsurlari va timsollari bilan bezatilgan. Badiiy adabiyotda an’anaviy timsollarga aylangan o‘nlab afsonaviy tarixiy shaxslar, sulolalar va shahanshohlar haqidagi noyob ma’lumotlar asar bo‘limlariga sochilgan. Mazkur manba Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining miloddan bir necha asr oldingi tarixi, geografiyasi, dehqonchilik, bog‘bonchilik, chorvachilik, hunarmandlik, binokorlik, harbiy hunarmandlik, maktab, madrasa hamda xususiy ta’lim tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Practical exercises and games. Practical tasks and educational games enable students to master subjects more quickly and effectively. For example, in natural science lessons, students classify plants and animals through game-based activities, which increases interest and liveliness.

Individual lessons. Identifying each student's strengths and weaknesses and assigning individualized tasks is essential. Additional mathematics exercises or specialized reading assignments foster self-development skills [11, p. 32].

Formation of social skills. Creating opportunities for cooperation and communication during group activities is crucial for social development. Through group projects and collaborative games, students learn to communicate effectively with peers.

Examples and Practical Recommendations. The following recommendations can be applied to 3rd-grade students:

1. Develop an individual curriculum for each student.
2. Use visual and interactive materials extensively.
3. Integrate practical exercises into the main part of the lesson.
4. Organize group work to develop social skills.
5. Consistently encourage students' achievements.

Pedagogical Recommendations [12, p. 6]

Teachers are encouraged to apply differentiated assignments, use audiovisual resources, combine group and individual lessons, introduce incentive systems, and develop assessment methods tailored to each student's abilities.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

Implementing an individual approach for students with disabilities significantly enhances the effectiveness of the educational process. Principles such as differentiation, gradual development, encouragement and support, and flexibility play a vital role in forming students' readiness for lessons and strengthening their knowledge and skills. Through this approach, students not only master subject content more effectively but also develop independent work skills, social competencies, and self-assessment abilities.

In the case of 3rd-grade students, applying individual approach methods makes lessons more engaging, interactive, and effective, while increasing motivation. For teachers, the systematic and accurate implemen-

tation of an individual approach is a key factor in improving educational quality, fully revealing each student's potential, and adapting lesson processes. Continuous updating of lesson plans, methodological materials, and assessment methods ensures the successful inclusion and achievement of students with disabilities. Overall, an individual approach represents an effective educational mechanism that enhances students' development, increases lesson engagement, and maximizes their potential.

References:

1. Abdullaeva, D. (2017). Special Education Methodology. Tashkent: National Pedagogical Press.
2. Mirzaev, A. (2018). Fundamentals of an Individual Approach. Namangan: University Press.
3. Karimova, L. (2019). Developing Knowledge and Skills of Students with Disabilities. Tashkent: Education Science.
4. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of Uzbekistan. (2020). Special Education Standards. Tashkent: Government Publication.
5. Kuzieva, G. M. (2026). Methods of Forming the Readiness of Students with Disabilities for the Lesson Using an Individual Approach. Namangan State University.
6. Tomlinson, C. A. (2014). The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. Alexandria, VA: ASCD.
7. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring inclusive pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 813–828.
8. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge.
9. Hall, T., Meyer, A., & Rose, D. (2012). Universal Design for Learning in the Classroom: Practical Applications. New York: Guilford Press.
10. Westwood, P. (2013). Inclusive and Adaptive Teaching: Meeting the Needs of All Students. London: Routledge.
11. Kearney, A. (2010). Motivation and Engagement in Learning for Students with Special Needs. London: Continuum.
12. Friend, M., & Bursuck, W. D. (2015). Including Students with Special Needs: A Practical Guide for Classroom Teachers. Boston: Pearson.

PEDAGOGICAL FACTORS IN ENHANCING PERFORMANCE SKILLS IN A CHORAL ENSEMBLE

Akhmedov Bakhodirkhon Sayfiddinovich
Senior Lecturer, Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines the main technical shortcomings encountered in the process of properly setting up the conducting apparatus, as well as ways to eliminate them. In particular, the negative impact of excessive tension in the shoulder, neck, back, and arm muscles, as well as insufficient freedom of the hands, on conducting gestures is analyzed from scientific, theoretical, and practical perspectives. The importance of muscle freedom, physical training, and gymnastic exercises in the formation of conducting technique is substantiated. Special attention is given to the analysis of the choral score, in-depth artistic and technical study of a musical work, and the formation of the conductor's performance plan. The exercises and recommendations presented in the article contribute to improving the professional skills of future conductors and ensuring freedom and precision of movement.

Key words: conducting apparatus, muscle freedom, shoulder and arm movements, conducting technique, gymnastic exercises, choral score analysis, performance plan, artistic image.

Annotatsiya: Mazkur maqolada dirijorlik apparatini to'g'ri shakllantirish jarayonida uchraydigan asosiy texnik kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo'llari yoritib berilgan. Xususan, yelka, bo'yin, orqa va qo'l mushaklarining haddan tashqari zo'riqishi, shuningdek, qo'l panjalarining yetarli darajada erkin bo'lmasligi dirijorlik imo-ishoralariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Dirijorlik texnikasini shakllantirishda mushaklar erkinligi, jismoniy tayyorgarlik hamda gimnastik mashqlarning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, xor partiturasini tahlil qilish, musiqiy asarni badiiy va texnik jihatdan chuqur o'rganish hamda dirijorning ijrochilik rejasini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada keltirilgan mashqlar va tavsiyalar bo'lajak dirijorlarning professional mahoratini oshirish, harakatlarning erkinligi va aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: dirijorlik apparati, mushaklar erkinligi, yelka va qo'l harakati, dirijorlik texnikasi, gimnastik mashqlar, xor partiturasini tahlil qilish, ijrochilik rejasi, badiiy obraz.

Аннотация: В статье рассматриваются основные технические недостатки, возникающие в процессе правильного формирования дирижерского аппарата, а также пути их устранения. В частности, с научной, теоретической и практической точек зрения анализируется негативное влияние чрезмерного напряжения мышц плеч, шеи, спины и рук, а также недостаточной свободы кистей на дирижерские жесты. Обосновывается значение мышечной свободы, физической подготовки и гимнастических упражнений в формировании дирижерской техники. Особое внимание уделяется анализу хоровой партитуры, углубленному художественно-техническому изучению музыкального произведения и формированию исполнительского плана дирижера. Представленные в статье упражнения и рекомендации способствуют повышению профессионального мастерства будущих дирижеров, обеспечивая свободу и точность движений.

Ключевые слова: дирижерский аппарат, мышечная свобода, движения плеч и рук, дирижерская техника, гимнастические упражнения, анализ хоровой партитуры, исполнительский план, художественный образ.

INTRODUCTION

The role of the conductor in the art of musical performance is incomparable, and the artistic content of a musical work, the quality of its performance, and the harmonious activity of the ensemble are closely related to the professional skills of the conductor. One of the key factors forming the foundation of the art of conducting is the correct formation and free use of the conducting apparatus. The conducting apparatus represents a system of harmonious, free, and expressive movements of the hands, shoulders, neck, upper body, and arms, through which the musical content of the work is conveyed to the performers.

We recommend the use of certain exercises during training. One of them is the "Circle" method, in which students sit in a circle and perform various exercises [1]. Over the past period, the Republic of Uzbekistan has adopted a number of normative and legal acts aimed at the development of culture and the arts [2]. In particular, these include the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-3391 of November 17, 2017, "On Measures to Further Develop the Art of the Uzbek National Makom"; the Resolution of May 30, 2019, "On the Organization of the Activities of the State Museum-Reserves 'Sarmishsay', 'Shakhrisabz', 'Termez', and 'Kokand'"; the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 443 of April 21, 2020; the Resolution "On Measures to Further Increase the Efficiency of Fine and Applied Arts" No. PD-4688 of May 26, 2020; and the Culture Decree No. PD-6000 of May 23, 2020 [3–4].

Practical experience shows that, especially among performers who are just beginning their conducting careers, a number of technical shortcomings arise during the process of forming the conducting apparatus. Among the most common are stiffness in the shoulder area, insufficient freedom of the muscles of the hands and arms, as well as tension and uncertainty of movements. Such shortcomings reduce the expressiveness of conducting gestures, hinder the full disclosure of musical ideas, and are particularly evident in the performance of polyphonic works and passages marked forte.

Therefore, the formation of the conducting apparatus requires a comprehensive approach not only from musical and pedagogical perspectives, but also from physiological and psychological viewpoints. Special physical and gymnastic exercises are of great importance in ensuring muscle freedom, unlocking the body's natural movement capabilities, and consciously mastering conducting technique. This article highlights issues related to the correct formation of the conducting apparatus, the elimination of existing technical shortcomings, and the development of the conductor's performance skills through a deep analysis of the choral score from scientific, theoretical, and practical perspectives.

The strength of this approach lies in its call for the development of music not only through emotional experience, but also through the application of science and scientific thinking [5]. Scientific research in the art of conducting, particularly on the formation of the conducting apparatus, occupies an important place in music pedagogy and performance methodology. An analysis of the literature in this field shows that conducting technique is formed through the integral unity of musical thinking, physical freedom, and psychological stability.

The theoretical foundations of conducting technique are extensively addressed in the works of Ilya Musin. According to his scientific and methodological views, the conductor's hand movements should not be mechanical, but rather a direct expression of musical thought. The author regards freedom of the conducting apparatus as the primary factor in revealing the artistic content of a work and emphasizes that relaxed shoulder and arm muscles ensure the accuracy and smoothness of gestures [6, p. 18].

In his studies on music pedagogy and choral art methodology, Boris Asafyev pays particular attention to the artistic essence of musical intonation and the performance process. In his view, the conductor should not only hear the music, but also "feel" it through the body. This requires natural and free movement of the conducting apparatus. Asafyev's scientific views substantiate the inseparable connection between the conductor's gestures and musical content [7, p. 11].

In the literature on choir methodology, Vladimir Sokolov emphasizes that analysis of the choral score is the conductor's primary professional task. The author highlights the necessity of identifying technical, vocal, and artistic difficulties in advance during the process of working on the score. According to his research, insufficiently analyzed works lead to random conducting gestures, which negatively affect performance quality [8, p. 20].

In scientific sources on physiology and psychology, Ivan Pavlov's doctrine of higher nervous activity serves as an important theoretical foundation. According to this doctrine, any movement is reflexive in nature and is reinforced by habits formed over long periods. Therefore, eliminating technical shortcomings in the conductor's apparatus requires systematic exercises and a conscious approach [9, p. 24].

In the literature on physical education and muscle freedom, it is emphasized that all muscles in the human body function in close interconnection. These sources scientifically demonstrate that relaxed muscle work ensures lightness, accuracy, and balance of movement. These views confirm the necessity of using special gymnastic exercises in conducting practice.

LITERATURE REVIEW

The development of performance skills in a choral ensemble is closely connected with the pedagogical competence and conducting technique of the conductor. In studies on conducting art, Ilya Musin emphasizes that conducting technique should be understood as an integral unity of musical thinking, physical freedom, and psychological control. According to his concept, conducting gestures must not be mechanical, but should directly reflect musical meaning and artistic intention. Boris Asafyev, focusing on musical intonation and form,

substantiates that the conductor's movements are inseparably linked with the artistic content of music, and only through free and meaningful gestures can a convincing choral performance be achieved.

Research on choral methodology highlights the decisive role of score analysis in shaping performance quality. Vladimir Sokolov considers in-depth analysis of the choral score a primary professional task of the conductor, allowing for the early identification of vocal, technical, and expressive difficulties. Gennadiy Dmitrevskiy further develops this idea by emphasizing the importance of balance between choral voices, collective sound organization, and the conductor's ability to manage ensemble coordination. These methodological principles directly influence the effectiveness of pedagogical work in choral ensembles and contribute to the improvement of performers' technical and artistic skills.

From a pedagogical and psychological perspective, the works of Ivan Pavlov and Lev Vygotsky provide a scientific basis for understanding the formation of stable conducting skills. Pavlov's theory of higher nervous activity explains the reflexive nature of movement and the role of systematic practice in eliminating technical shortcomings. Vygotsky's pedagogical ideas stress the importance of conscious learning and internalization of skills. Konstantin Stanislavskiy's views on muscle freedom and bodily awareness further support the necessity of physical and psychological readiness in conducting practice. Contemporary Uzbek scholars, including Bakhodir Akhmedov and A. B. Sayfiddinovich, expand these theoretical foundations by demonstrating that modern pedagogical approaches, interactive methods, and national artistic values play a significant role in enhancing performance skills within choral ensembles.

RESEARCH METHODOLOGY

According to the sciences of human anatomy, physiology, and psychology, all parts of the human body and all muscles are interconnected, and their movements are controlled by the central nervous system. Therefore, previously acquired skills and habits cannot always be abandoned immediately. For this reason, the elimination of technical shortcomings should begin with achieving complete muscle freedom. This can be accomplished through the regular performance of specific gymnastic and physical exercises, which allow for the correct use of conducting technique.

In the process of correcting the conducting apparatus, training sessions are conducted twice a week for 45 minutes. To bring the shoulder area into a free position, exercises aimed at muscle relaxation are recommended. One exercise involves sitting comfortably on a chair with the shoulder area resting against the back support, arms and legs freely lowered, and feet resting on the floor in a bent position. The muscles should be relaxed, creating a feeling of calm and rest. Then, the hands are raised and placed on the knees [10, p. 42]. If the muscles are sufficiently relaxed, the hands should slowly fall back onto the knees. Achieving complete relaxation may be difficult at first, and attention should be paid to ensuring that movements are performed freely, lightly, and within a single plane. The hands should remain fully relaxed, the wrists lowered, and the elbows slightly bent in a semicircular position.

This exercise, initially performed while sitting, should then be repeated in a standing position. The individual should stand upright and freely, without tension: the legs positioned close together, arms aligned with the body. The arms are then raised fully above the head and released downward with the sensation that they do not belong to the body [11, p. 18]. As the arms are lowered, the head also bends forward. This exercise is performed first with one arm, then with the other, and finally with both arms simultaneously. The same techniques applied in the seated position can be used in the standing position.

To relax the shoulder blades and arm muscles, it is important to achieve a general state of relaxation. To experience a sensation of "flight," the "wheel" exercise is performed using circular hand movements. With the arms freely lowered along the body, they are calmly and evenly raised above the head in a straight plane, forming a circle in the air. This circular motion should be repeated several times, ensuring that the arms do not become fatigued. The exercise is first performed with one hand, then with both hands together, initially at a slow pace and gradually increasing speed. Throughout the exercise, breathing should remain controlled, even, and smooth.

Performing this exercise to the sound of waltz music, counted as "one, two, three," also produces positive results. The "spinning wheel" exercise may involve rotating the arm from the shoulder, then using half-arm movements from the elbow, and finally rotating only the wrist. The exercise is performed in circular motions both forward and backward. Subsequently, the hand movements are alternated: the right hand supports the left, and vice versa, while circular movements are executed with one hand at a time. This exercise facilitates the coordinated movement of all parts of the arm and supports the mastery of conducting techniques such as freedom of shoulder, forearm, and wrist movement, as well as the accuracy and fluency of conducting gestures [12, p. 45].

Such exercises vary in type, and their selection depends on the conductor. Moreover, conductors may design their own exercises based on their understanding of physical training principles. For this reason, a list of books related to physical culture has been included in the references. Familiarity with these sources provides conductors with sufficient understanding of how to sense the weight of the hand necessary for maintaining the conducting apparatus, how to experience freedom of movement, and how to control muscle expression. The most important aspect is the systematic and independent work on oneself, selecting exercises that emphasize freedom, strength, flexibility, and mobility of the conductor's hands and limbs.

ANALYSIS AND RESULTS

The conductor's preparatory work begins with the ability to analyze the choral score (the totality of all voices in a choral work) in every detail, since the ability to demonstrate a convincing performance is always based on confidence and trust in one's own artistic judgment.

First, score analysis begins with a thorough study of the musical and artistic work and the ability to form a clear mental image of it. Second, analysis of the score is necessary in order to identify technical and vocal aspects, as well as potential difficulties that may arise in choral performance. Third, on the basis of this analysis, the conductor develops a performance plan and clearly determines the expressive means required for its practical realization. The conductor must possess the most complete possible knowledge of the work.

Independent work on the score can be conditionally divided into four main components: the vocal (singing) part, the accompaniment part, annotation of the work (analysis and interpretation), and, finally, conducting. All these components are naturally interconnected. The first is aimed at the gradual deepening of the essence of the work, while the third is directed toward forming a general understanding of its main artistic images. In the fourth stage, the choice of conducting gestures is determined and all necessary conducting tools are selected. Together, these components reveal the artistic content of the score, and ensuring their logical unity should remain the focus of attention.

Playing choral voices, chords, and the full score on the piano, as well as analytical work, form the basis of conducting preparation. Conducting skills are often acquired through external reference and imitation; however, in such cases, what is learned in one work may not be directly transferable to another. This principle applies not only to conducting, but also to other aspects of working on a musical composition. Therefore, methods of consciously studying the choral score are especially valuable for future professional practice. The result of such work is the ability to respond emotionally to music, to understand the ideological and artistic images embodied in the work, and to perceive the composer's creative intention.

The first stage of working with a choral score involves its visual perception and study through inner hearing, that is, the imaginative reconstruction of the musical text and mental singing of the vocal parts. Visual perception allows the conductor to determine the type and form of the choir, identify the range of choral voices, the tonal plan, the principal key, the tempo, the manner of voice entry, as well as the composer's remarks and performance indications. Such analysis contributes to understanding the ideological meaning of the work and the uniqueness of its poetic text.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

The student must also be able to memorize and accurately read the literary text, comprehending it expressively. Equally important is familiarity with the composer's creative output, knowledge of the history of the work's creation, and listening to other compositions by the same author. All of this contributes to a deeper understanding of the musical work.

Verification of a piece performed with choral accompaniment may be carried out by transposing choral voices upward or downward, transferring the accompaniment from one part to another, from one voice to another, and combining choral and instrumental performance by simultaneously playing individual voices of the score. In the process of studying the score, a general impression of the tempo is formed, the structural sections (phrases) of the work are identified, and the climax of the composition is determined, both as a whole and within its individual parts.

The ability to describe and expressively demonstrate these elements depends largely on the experience accumulated over the years. Through experience, each conductor develops an individual conducting style, as well as the ability, skill, and artistic potential required for expressive and convincing performance.

References:

1. Sayfiddinovich, A. B. (2023). Use of New Interactive Methods in Learning Songs in Secondary Schools. Central Asian Journal of Arts and Design, 4(1), 10–14. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BNGMZ
2. Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи. (2022). Activity of Mutal Burkhanov House Museum. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 3(11), 76–81. (ISSN: 2660-6836).
3. Топилдиев Одилжон Рахимжонович, Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи. (2022). Reform in the Field of Culture and Art in the Republic of Uzbekistan. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 196–198. (ISSN: 2776-0979).
4. Мирхакимова, Ф. К. (2021). The State Museum of History and Culture of Namangan Region: Past and Today. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), 84–89.
5. Ахмедов Бахадир. (2024). Музыка таълими ва санъатининг бугунги глобаллашув шароитида миллий-ижтимоий аҳамияти: муаммо ва ечимлар. 3–6-бетлар. https://doi.org/10.5281/zenodo.14378184
6. Мусин, И. А. (1982). Основы дирижёрской техники. Москва: Музыка.
7. Асафьев, Б. В. (1971). Теория музыкальной формы и интонации. Ленинград: Музыка.
8. Соколов, В. Н. (1985). Методика работы с хором. Москва: Просвещение.
9. Павлов, И. П. (1973). Лекции о высшей нервной деятельности. Москва: Наука.
10. Станиславский, К. С. (1965). Работа актёра над собой. Москва: Искусство.
11. Выготский, Л. С. (1984). Основы психологии и педагогики. Москва: Педагогика.
12. Дмитревский, Г. А. (1990). Хоровое дирижирование. Москва: Музыка.

YASSAVIY HIKMATLARINI ADABIY SHARHLASH USULI ORQALI O‘QITISH

Kenjayeva Rayhona Muzaffar qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi 1-kurs tayanch doktoranti
ORCID ID: 0009-0000-8398-1032

Annotatsiya: Maqolada Ahmad Yassaviy qalamiga mansub hikmatlarning mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinib, ularni tushunishda yuzaga keladigan asosiy muammolar yoritilgan. Hikmatlarni to‘g‘ri anglash jarayonida o‘quvchi faqat lug‘atlarga emas, balki sharh va izohlarga ham ehtiyoj sezishi asoslab berilgan. Mumtoz asarlarni o‘qitishda adabiy sharhlash usulining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy kabi mumtoz adabiyot namoyondalarining ayrim asarlarini qiyosiy tahlil qilish orqali umumiy mazmuniy va g‘oyaviy sharhlar berish imkoniyati tadqiq etilgan. Adabiy sharh usulidan foydalangan holda dars jarayonini samarali tashkil etish uchun topshiriqlar ishlab chiqilgan hamda sharhlarni tushunarli va ta’sirchan yetkazish maqsadida interaktiv metodlardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: hikmat, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, hadis, Qur’on, sharh, izoh, qiyos, qol va hol ilmi, tasavvuf.

Abstract: The article provides a scholarly analysis of the content and essence of the wisdom poems (hikmats) authored by Ahmad Yasawi and examines the main challenges encountered in their interpretation. It is substantiated that understanding these texts requires not only the use of dictionaries but also detailed commentaries and explanations. The theoretical and practical significance of the literary commentary method in teaching and comprehending classical literary works is highlighted. Furthermore, the study explores the possibility of offering general interpretative insights through a comparative analysis of selected works by prominent representatives of classical literature, such as Alisher Navoi and Ahmad Yasawi. In addition, instructional tasks based on the literary commentary method were developed to organize the teaching process effectively, and various interactive methods were employed to present commentaries in a clear and accessible manner.

Key words: wisdom, Ahmad Yasawi, Alisher Navoi, hadith, Quran, commentary, explanation, comparison, science of qol and hol, Sufism.

Аннотация: В статье проводится научный анализ содержательно-смысловой сущности хикматов, принадлежащих перу Ахмада Яссави, а также рассматриваются основные трудности, возникающие при их интерпретации. Обосновано, что для глубокого понимания хикматов читателю необходимы не только словари, но и развернутые комментарии и пояснения. Раскрывается теоретическая и практическая значимость метода литературного комментария в обучении и осмыслении произведений классической литературы. Кроме того, посредством сравнительного анализа отдельных произведений таких представителей классической литературы, как Алишер Навои и Ахмад Яссави, исследуется возможность формирования обобщённых интерпретационных выводов. Также разработаны учебные задания для организации занятий на основе метода литературного комментария и показаны пути использования интерактивных методов для наглядного и доступного представления комментариев.

Ключевые слова: хикмат, Ахмад Яссави, Алишер Навои, хадис, Коран, комментарий, пояснение, сопоставление, наука қол и ҳол, суфизм.

KIRISH

Xalqning butun qadriyatlari, an’analari va o‘tmish hayoti, turmush tarzi hamda madaniyati singari jihatlarni to‘la qamrab olgan mumtoz asarlarni o‘qitish masalasi nafaqat O‘zbekiston ta’limida, balki jahon davlatlari ta’limida ham dolzarb va muammoli masala hisoblanadi. Uni qanday qilib tushunarli va samarali usulda o‘qitish masalasi barcha pedagoglar e’tiborida bo‘lib kelgan va bugungi kunga qadar bu borada salmoqli ilmiy hamda amaliy-nazariy ishlar amalga oshirilgan. Mumtoz asarlarni sharhlab o‘qitish masalasiga deyarli har bir metodist olim to‘xtalib o‘tgan.

Sharhlab o‘qitish usuli qadim zamonlardan qo‘llanib kelinganini Arastuning “Poetika” asariga Abu Nasr Farobiy va Ibn Sino singari ajdodlarimiz tomonidan sharhlar yozilganidan ham anglash mumkin. Shu bilan birga, eng qadimgi diniy manbalar, jumladan Qur’oni Karim va Hadisi shariflarga ham olimlar tomonidan sharhlar yozilgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad odamlarning ushbu asarlarni yanada chuqurroq va to‘g‘riroq tushuna olishlariga imkoniyat yaratish bo‘lgan.

Sharh (arabcha – izohlash, tushuntirish) – kitob sharhi, ya’ni kitob matniga beriladigan izoh, unga ilmiy tushuntirish va ma’lumot beruvchi qismdir. Sharh asarlarda, tarjima va hujjatli nashrlarda matnning mazmun-mohiyatini ochib berishda qo‘llanadi. U muallif, noshir, mutaxassis yoki tarjimon tomonidan tayyorlanib, muayyan asar yoki matnning tarixi, uning boshqa voqea-hodisalar, fanlar, shaxslar, zamon va makon bilan bog‘liqligi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Sharhda muallif ishora qilgan ayrim voqea va faktlar, u yoki bu sabab bilan oshkora bayon etilmagan yoki bevosita yozilishi lozim topilmagan jihatlar talqin qilinadi, shuningdek, ayrim so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralarning mazmuni izohlanadi. Sharh qisqa va foydalanishga qulay bo‘lib, odatda matndan keyin alohida maqola yoki ma’lumot tarzida joylashtiriladi. Mumtoz asarlarga sharh alohida kitob shaklida ham berilishi mumkin [Sharh izohi: https://uz.wikipedia.org/wiki/. sharh].

Metodist olim Ulug‘bek Dolimov o‘zining “Milliy uyg‘onish pedagogikasi” kitobida sharhlab beruvchilarni shorihlar deb atagan [Abdullayeva, 2024:143]. Shorihlik har bir pedagogdan talab etiladigan muhim malaka hisoblanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tili murakkab bo‘lmasa-da, hikmatlar tarkibida o‘quvchi uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’nolar hamda Yassaviyning o‘ziga xos yondashuv uslubi mavjudligi sababli o‘quvchilar albatta sharhga ehtiyoj sezadilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mumtoz adabiyotni, xususan Ahmad Yassaviy hikmatlarini o‘qitishda sharhlash usulining ahamiyati adabiy ta’lim nazariyasida muhim o‘rin tutadi. M. Abdullayevaning “Adabiy ta’limda innovatsion yondashuv” nomli tadqiqotida mumtoz matnlarni tushuntirishda sharh va izohlarning didaktik vazifasi asoslab berilgan bo‘lib, pedagogning shorihlik malakasi ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Shuningdek, M. Tursunovaning madrasalar ta’limiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida mumtoz asarlarni o‘qitishda ilmi maoniy va ilmi g‘ariba kabi sharqona metodlarning samaradorligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvufiy mazmunini anglashda N. Komilovning “So‘fiy psixologiyasi yoxud hol” asari muhim nazariy manba hisoblanadi. Unda tasavvufiy tushunchalar, xususan hol va maqom masalalari psixologik va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. E. Qurbonovaning Yassaviy va Navoiy ijodiga bag‘ishlangan ilmiy ishlari esa faqr, fano, imon, tariqat kabi tushunchalarning mumtoz adabiyotdagi talqinini ochib berib, ularni qiyosiy sharhlash imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa hikmatlarni adabiy sharhlash asosida o‘qitishda muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

Mumtoz matnlarning leksik va ramziy qatlamini ochishda “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu lug‘at orqali hikmatlarda uchraydigan qadimiy va tasavvufiy birliklarning ma’nosini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni va unga oid tadqiqotlar Yassaviy hikmatlari bilan qiyosiy tahlil olib borishga imkon berib, adabiy sharhlash usulining nazariy va amaliy jihatdan samarali ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, sharh tushunchasining umumiy ilmiy tavsifi mavjud manbalarda izohlangan bo‘lib, bu usulning mumtoz adabiyotni o‘qitishdagi metodik ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Ahmad Yassaviy hikmatlarini adabiy sharhlash usuli orqali o‘qitish masalasini yoritish maqsadida sifat jihatdan tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot ma’lumotlari asosan mumtoz adabiy manbalar, xususan “Devoni hikmat” matnlari, Alisher Navoiy asarlari hamda ularning izohli lug‘atlari va tasavvufga oid ilmiy tadqiqotlar orqali to‘plandi. Hikmatlar matni lug‘aviy, tarixiy-adabiy va ramziy tahlil asosida o‘rganildi. Shuningdek, Yassaviy va Navoiy asarlarida uchraydigan umumiy tushuncha va ramzlar qiyosiy usul yordamida tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar mazmuniy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlari orqali qayta ishlanib, adabiy sharhlash usulining ta’lim jarayonidagi samaradorligi aniqlandi. Natijalarni asoslashda pedagogik kuzatuv va nazariy xulosalardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madrasalar ta’limida murakkab, xususan mumtoz asarlarni o‘rgatish uchun 16 xil usuldan foydalanilgan. Biz Yassaviy hikmatlarini o‘qitishda ulardan ilmi g‘ariba (kam so‘z orqali keng ma’noni ifodalash, aks ettirish) va ilmi maoniy (bayon etish bo‘lib, biror narsa yoki hodisaning mohiyati, mazmunini ochib beruvchi ilm) kabi usullardan foydalanamiz [Tursunova, 2017:35].

Moumanni, nafs-u havo, hirsni qo‘ysa,
Piri murshid mukammilg‘a o‘zin solsa.
Adhamlayin ko‘ngil mulkin sivo qilsa,
Barcha mushkul ishi ani oson bo‘lur.

Hikmatda Ahmad Yassaviy nafsdan kechishda go‘yoki Adham singari bo‘lib, o‘zini fido qilsa, kishining barcha mushkili oson bo‘lishini uqtirmoqda. Ushbu hikmatda o‘quvchilar uchun bir qancha notanish tushunchalar mavjud: mouman, hirs, murshid, sivo. Qolaversa, hikmat ma’nosini ochib beruvchi Adham ismi ham o‘quvchilar uchun notanish bo‘lib, tarixiy-adabiy sharhga ehtiyoj tug‘diradi.

Lug‘at:

Sivo – o‘zga, boshqa [Qarang: Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 3-tom. 1984-yil:72].

Nafs-u havo – manmanlik, kibr [Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 2-tom. 1984-yil:440].


Mouman – borliq.

Pir – ustoz.

Murshid – yo‘l boshlovchi, rahbar, pir, eshon, ustoz.

Hirs – nafs.

Sharh: Adham obrazi tasavvufiy obraz bo‘lib, yetuk so‘fiylardan biri hisoblanadi. U tasavvuf olamida eng mashhur podshoh-darveshlardan biri sifatida tanilgan. Yoshligidan riyozatga va haq ilmiga qiziqqan. Rivoyat qilinishicha, Ibrohim Adham bir kuni o‘z saroyida uxlab yotganida tomdan qadam tovushlari eshitiladi. Qarasa, bir kishi uning tomida yurgan bo‘ladi. Podshoh undan nima sababdan tomda yurganini so‘raganida, u: “Tuyam yo‘qoldi, uni qidiryapman”, deb javob beradi. Podshoh bunga kulib: “Tuya tomda nima qiladi?” deydi. Tuyakash esa: “Sen podshoh bo‘lib Haqqa yetaman deb yurganingda, men tuyamni tomdan qidirsam nima bo‘libdi?” deb javob qiladi. Ushbu suhbat Adhamga kuchli ta’sir ko‘rsatib, u taxtidan va butun hayotidan voz kechadi, Makkaga yo‘l oladi hamda umrining oxirigacha Shomda pirlar xizmatida musofirlikda yashaydi. Yuqoridagi hikmatda ham Ibrohim Adhamning fidoiyligi ramziy tarzda ifodalangan. Unda Ibrohim podshohlik martabasi, nafsi, kibri va manmanligidan kechib, Haq yo‘lida xalq xizmatiga kirgani va murodiga yetgani haqidagi g‘oya ilgari surilgan. Xuddi shunday qarashlarga o‘quvchi Navoiy va boshqa mumtoz ijodkorlarning asarlarida ham duch keladi (1-rasm).



1-rasm: **Tasavvufiy kamolot bosqichlari va ma’naviy yuksalish yo‘li”**

Turkiy va zamonaviy adabiyotni ramziy ma’nolarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, adabiy asarlarda raqamlarga ramziy ma’no yuklash barcha davr adabiyotiga xos bo‘lgan. Masalan, 3, 7, 18 va 40 raqamlari ko‘plab manbalarda ramziy ma’noda qo‘llanadi. Bu ramziy ma’nolarning barchasi tasavvufiy adabiyotdan oziqlangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham raqamlar muhim o‘rin egallaydi. Ularning aksariyati ramziy mazmunda bo‘lib, keyingi adabiyot namunalari uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Qul Xo‘ja Ahmad qirqqa kirding, nafsingni qirq,
Munda yig‘lab oxiratda bo‘lg‘il ariq.
Po‘sti imon shariatdir, mag‘zi – tariq,
Tariq kirgan Haqdin ulush oldi do‘stlar.

To‘rt va qirq raqamlari mumtoz hamda tasavvufiy asarlarda chuqur ramziy ma’no kasb etadi. O‘quvchilarning aksariyatiga ma’lumki, kamolotning to‘rt bosqichi mavjud: shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat. Tasavvufiy


MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

adabiyotda insonning yaratilishi to‘rt unsur – tuproq, suv, havo va olovdan iborat bo‘lib, uning kamolotga yetishi ham shu to‘rt bosqich orqali amalga oshadi, degan qarash mavjud. Xoja Bektoshi Valiy bu to‘rt guruhning birinchisini obidlar (asli – yel, havo), ikkinchisini zohidlar (asli – otash), uchinchisini oriflar (asli – suv) va to‘rtinchi toifani muhiblar deb ataydi. Ularning barchasi ahli haqiqat bo‘lib, asli tuproqdir [Qurbonova, 2022:138]. Agar ushbu to‘rt unsurning birortasi yetishmasa, inson yaratilmaganidek, kamolotning to‘rt bosqichini bosib o‘tmasdan Yaratuvchiga yetib bo‘lmaydi.

Hikmat tarkibidagi 40 soni ham alohida e’tiborga loyiq. Ushbu son ko‘plab manbalarda muqaddas hisoblanadi. Qirq yoshning muqaddasligiga bir necha o‘rinlarda duch kelinadi. O‘qituvchi shu o‘rinda quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin:

1. Siz 40 soniga qaysi manbalarda yoki o‘rinlarda duch kelgansiz?
2. Hikmatda nima sababdan ushbu sondan foydalanilgan?

Olib borilgan muhokamalardan so‘ng taqqoslash usulida 40 soni uchraydigan holatlar keltiriladi va xulosada uning mazmuni ochib beriladi. Ushbu muhokama, misollar va fikrlardan so‘ng o‘qituvchi tomonidan qirq sonining ramziy ma’nolari “Tarmoqlash” usuli orqali izohlanadi. Tasavvuf va boshqa adabiyotlarda qirq soni hamda qirq yosh mukammallik, yetuklik va tugallik ramzi sifatida qo‘llanilgan. Al-Basriyning fikricha, diniy adabiyotlarda qirq yosh voyaga yetish yoshi hisoblanadi [Obidov, 2005:56]. Shuningdek, 40 sahih hadis tushunchasi ham mavjud. Qur’onda ham inson 40 yoshga yetganda o‘zini anglashi lozimligi ta’kidlanadi (2-rasm).




2-rasm: **Tasavvuf va diniy manbalarda qirq sonining ramziy ma’nolari**

Ahmad Yassaviy hikmatida ham 40 soni aynan voyaga yetish yoshi ma’nosida qo‘llangan. Shu o‘rinda “Aqliy hujum” metodidan foydalanib, o‘quvchilarning diqqatini jamlash mumkin:

1. Voyaga yetish yoshi aslida nechchi yosh?
2. Nima uchun 40 yosh voyaga yetish yoshi deb qaraladi?

Adib imonning belgisi haqida ham o‘z qarashlarini bayon etadi. Ushbu munosabatni Navoiyning qarashlari bilan taqqoslab berish o‘quvchi tafakkurini boyitadi. “Mahbub ul-qulub” asarida: “Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Har kimda bu ikki yo‘q – iymon yo‘q”, deya iymon belgisi izohlanadi(3-rasm).



3-rasm: **Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy qarashlarida ma’naviy-axloqiy tushunchalar qiyosi**

Shuningdek, “Hayrat ul-abror” dostonida birinchi maqolat to‘liq “Imon” sharhiga bag‘ishlangan. O‘qituvchi shu o‘rinda mazkur fikrlarni keltirib, taqqoslash asosida tushuntirishi mumkin. Navoiy nazdida imonli kishida uchta sifat bo‘lishi kerak: sabr, shukr va hayo [Abdullayeva, 2024:592].

Bas uni inson atag‘il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukru hayo [Alisher Navoiy, 2013:86].

Xulosa tarzida aytganda, Alloh yo‘liga va tariqatga kirish uchun kishi qalbida avvalo iymon bo‘lishi, ushbu yo‘ldagi qiyinchiliklarga esa sabr, shukr va hayo bilan bardosh berishi lozim.

Mazkur hikmatni badiiy jihatdan ham tahlil qilish mumkin. Asarda Yassaviy o‘xshatish san’atidan unumli foydalangan. U imonni danakka qiyoslaydi: qobiq – shariat, mag‘iz – tariqat. Danak, mag‘iz va qobiq obrazlari Navoiy ijodida ham uchraydi. Bu orqali qiyosiy tahlil amalga oshiriladi(4-rasm).



4-rasm: **Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy ijodida qobiq va mag‘iz ramzining qiyosiy talqini**

O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish maqsadida “G‘oya top” metodi asosida quyidagi savollar beriladi:

1. Siz danakning po‘sti va mag‘zini nimaga qiyoslagan bo‘lardingiz? Nima uchun?
2. Ahmad Yassaviy danakning mag‘zi haqida qanday xulosa bermoqda?

Ushbu savollar asosida muhokama va tahlillar olib borilib, umumiy xulosalar shakllantiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon xalqlarining barchasida o‘z millatiga tegishli bo‘lgan mumtoz asarlarni o‘qitish tajribasi bugungi globallashgan asrda ham izchil taraqqiy etib kelmoqda. Barcha mamlakatlarda klassik asarlarni o‘qitishda turli yondashuvlardan foydalaniladi. Masalan, ingliz adabiyotining mumtoz qismini o‘qitishda asosan klassik usul va Sokratik usuldan foydalanilsa, rus adabiyotini o‘qitishda ko‘pincha sahna usuliga murojaat qilinadi.

Turkiy xalqlarning mumtoz adabiyoti esa o‘zining chuqur falsafiy-axloqiy, tasavvufiy-diniy mazmun bilan oziqlanganligi hamda ramzlar orqali ifodalanganligi sababli sharqona o‘qitish usullaridan, xususan sharhlab o‘qitish usulidan foydalangan holda tahlil qilish yuqori samaradorlik berib kelganligiga tarix guvohlik beradi. Boisi, turkiy adabiyot o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa xalqlar adabiyotidan tubdan farq qiladi. Shu sababli ularni o‘qitishda boshqa millatlarning metodikasini to‘liq ko‘chirish maqsadga muvofiq emas, balki turkiy adabiyotning o‘ziga xos ichki qonuniyatlariga tayangan holda shakllangan metodik yondashuvlardan foydalanish zarur.

Bugungi zamonaviy o‘quvchilar uchun mumtoz asarlarni tahlil qilish jarayonida ana shu sharqona va sharhlashga asoslangan usullardan samarali foydalanish asar mazmunini chuqur anglash va to‘g‘ri tushunishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Abdullayeva. 2024. Adabiy ta’limda innovatsion yondashuv. – Toshkent: Bookmany Print.
2. Sh. Baxramov. 2022. Tasavvuf matnlarida realiyalar tarjimasi masalasi. Tarjimashunoslar forumi.
3. N. Komilov. 2019. So‘fiy psixologiyasi yoxud hol. Xurshid Davron kutubxonasi.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 1984. – Toshkent: Fan. 3-tom.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 1984. – Toshkent: Fan. 2-tom.
6. E. Qurbonova. 2022. Yassaviy va Navoiy ijodida faqr-u fano talqini. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari. Xalqaro konferensiya. – Toshkent: Adast Poligraf.
7. Obidov. 2005. Payg‘ambarlar tarixi. – Toshkent: Movarounnahr.
8. M. Abdullayeva. 2024. Maqolat va hikoyat uyg‘unligi. Alisher Navoiy va XXI asr. 9-uluslararo xalqaro konferensiya. – Toshkent – Bursa.
9. Alisher Navoiy. 2013. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom.
10. M. Tursunova. 2017. Madrasalar ta’limida adabiyot o‘qitish usullari. – Toshkent: Mumtoz so‘z.
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharh

YOSH SUZUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI: KINEMATIK ZANJIR VA INTEGRATIV YONDASHUV

Yuldashova Madina Murodjon qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning zamonaviy ilmiy-amaliy usullari tizimli tahlil qilingan. So'nggi yillarda suzish sporti fiziologiyasi va biomexanikasi sohasida erishilgan ilmiy yutuqlar shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy mahalliy (lokal) mashqlarga asoslangan tayyorgarlik tizimi o'smir sportchilarning funksional imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishda yetarli samaradorlikka ega emas. Tadqiqot davomida 2019-2025-yillarda nashr etilgan xalqaro miqyosdagi randomizatsiyalangan nazoratli sinovlar, tizimli tahlillar va metaanalizlar asosida yosh suzuvchilar kontingentida kinematik zanjir konsepsiyasiga asoslangan kompleks jismoniy tayyorgarlik hamda jarohatlarning oldini olish dasturlarining samaradorligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: yosh suzuvchilar, jismoniy tayyorgarlik, kor stabilizatsiyasi, kinematik zanjir, jarohatlar profilaktikasi, portlovchi kuch, randomizatsiyalangan nazoratli sinov, metaanaliz, suzish samaradorligi, o'smirlar sporti.

Abstract: This article presents a systematic analysis of modern scientific and practical methods aimed at improving the physical training of young swimmers. Recent advancements in the physiology and biomechanics of swimming indicate that traditional training systems based on local (isolated) exercises are insufficient for fully realizing the functional potential of adolescent athletes. Based on international randomized controlled trials, systematic reviews, and meta-analyses published between 2019-2025, this study examines the effectiveness of comprehensive physical training and injury prevention programs grounded in the kinematic chain concept within cohorts of young swimmers.

Key words: young swimmers, physical training, core stabilization, kinematic chain, injury prevention, explosive strength, randomized controlled trial, meta-analysis, swimming performance, youth sports.

Аннотация: В статье представлен системный анализ современных научно-практических методов совершенствования физической подготовки юных пловцов. Достижения последних лет в области физиологии и биомеханики плавания свидетельствуют о том, что традиционная система подготовки, основанная на локальных упражнениях, не обеспечивает полной реализации функциональных возможностей спортсменов подросткового возраста. В ходе исследования на основе международных рандомизированных контролируемых испытаний, систематических обзоров и метаанализов, опубликованных в 2019-2025 годах, изучена эффективность комплексных программ физической подготовки и профилактики травматизма, основанных на концепции кинематической цепи, применительно к контингенту юных пловцов.

Ключевые слова: юные пловцы, физическая подготовка, коровая стабилизация, кинематическая цепь, профилактика травм, взрывная сила, рандомизированное контролируемое исследование, метаанализ, эффективность плавания, подростковый спорт.

KIRISH

Suzish – bu butun tananing koordinatsiyalangan, siklik faoliyatini talab qiluvchi sport turi bo'lib, unda harakatlantiruvchi kuchni hosil qilish va suv qarshiligini kamaytirish o'rtasidagi muvozanat asosiy rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati natijasida suzish sporti ham jadal taraqqiy etmoqda. 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun hamda uning 2000- va 2015-yillardagi yangi tahrirlari sohani modernizatsiya qilishning huquqiy asosini yaratdi. Mazkur qonun hujjatlarida yosh avlodni sog'lom va barkamol ruhda tarbiyalash, iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Biroq xalqaro suzish sportidagi ilmiy-texnik taraqqiyot va rekordlarning muttasil yangilanib borishi murabbiylar hamda sport fanlari vakillaridan tayyorgarlik tizimini doimiy ravishda takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, yosh suzuvchilar kontingentida jismoniy tayyorgarlikni rejalashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda sportchilar balog'at yoshiga yetish, tana vaznining tez o'sishi, mushak kuchi va neyromus-

kulyar koordinatsiyaning nisbatan sust rivojlanishi kabi fiziologik o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar. Natijada yuklamalar va organizmning funksional imkoniyatlari o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi.

Adabiyotlarda keltirilishicha, elka og‘rig‘i suzuvchilar orasida eng keng tarqalgan jarohat bo‘lib, uning uchrashish darajasi 40–91 % ni tashkil etadi. Elita suzuvchilar kuniga 14 km gacha masofani suzib o‘tadilar va bir mashg‘ulot davomida 2500 martadan ortiq elka rotatsiya harakatlarini bajaradilar. Bu holat yumshoq to‘qimalarda mikrotravmalar, mushak charchog‘i, impinjment sindromi hamda bo‘g‘im beqarorligiga olib keladi. O‘smir suzuvchilarda esa mazkur xavf yanada yuqori bo‘lib, bunga ularning neyromuskulyar tizimi o‘sish sur’atlariga to‘liq moslasha olmasligi sabab bo‘ladi.

Muammoning ilmiy-nazariy asoslari va kinematik zanjir konsepsiyasiga murojaat qilinar ekan, an’anaviy suzish tayyorgarligi metodologiyasi uzoq yillar davomida asosan suv ichidagi hajmli yuklamalarga hamda mahalliy mushak guruhlariga yo‘naltirilgan mashqlarga tayanganini ta’kidlash lozim. Jumladan, yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini tashkil etishda umumjismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning o‘zviy bog‘liqligi masalalari yoritilgan bo‘lsa-da, ularning kinematik o‘zaro aloqasi yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan.

So‘nggi o‘n yillikda sport biomexanikasi va neyrofiziologiyasi sohalarida “kinematik zanjir” konsepsiyasi shakllandi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, distal bo‘g‘imlarning optimal harakatchanligi proksimal bo‘g‘imlarning, ayniqsa gavda va tos sohasining adekvat barqarorligiga bevosita bog‘liq. Boshqacha aytganda, qo‘l va oyoqlarning kuchli hamda aniq harakatlari faqat gavda mushaklari – “kor” (core) mushaklari – yetarli darajada rivojlangan va samarali neyromuskulyar boshqaruv ostida bo‘lgandagina yuqori natija beradi.

Kor stabilizatsiya gavdaning tos suyagiga nisbatan holati va harakatini nazorat qilish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Ushbu funksiyada latissimus dorsi, qorin mushaklari, tos tubi mushaklari, diafragma, son va dumba mushaklari muhim rol o‘ynaydi. Mazkur mushaklar yuqori va pastki ekstremitalarni bog‘lovchi “kuch markazlari” vazifasini bajarib, umurtqa pog‘onasining barqarorligini ta’minlash hamda kuch uzatish samaradorligini optimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Suzish sportida kor mushaklarining roli ayniqsa muhim hisoblanadi. Xususan, brass usulida suzishda oyoq harakati va qo‘l zarbasi fazalarida gavdaning yuqori darajadagi koordinatsiyasi hamda dinamik muvozanati talab etiladi. Krol usulida suzishda esa suzuvchining yonlama tebranishlarini minimallashtirish va gidrodinamik jihatdan soddalashtirilgan holatni saqlash kor mushaklari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Batterflyay usulidagi to‘lqinsimon tana harakatlari gavda mushaklarining yuqori darajadagi sinergiyasini talab qilsa, chalqancha suzishda kor mushaklari suv qarshiligiga qarshi tana muvozanatini saqlashda muhim yordam beradi.

O‘zbekiston suzish sporti so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishdi. Xalqaro musobaqalarda qayd etilayotgan natijalar milliy suzish maktabining salohiyatini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, Osiyo va jahon miqyosidagi raqobatning keskinlashuvi hamda rekordlarning tez-tez yangilanib borishi murabbiylik metodikasini ilmiy asosda tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda yosh suzuvchilar tayyorgarligida quyidagi tizimli muammolar mavjud:

- jismoniy tayyorgarlikda asosan suv ichidagi hajmli yuklamalarga ustuvorlik berilishi va quruqlikdagi maxsus tayyorgarlikning yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi;
- jarohatlar profilaktikasi dasturlarining ko‘proq simptomatik xarakterga ega bo‘lishi hamda kinematik zanjirning barcha bo‘g‘inlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvning yetishmasligi;
- kor mushaklari tayyorgarligiga oid mashqlarning an’anaviy usullarda, suzish biomexanikasi bilan integratsiyalanmagan holda qo‘llanilishi;
- o‘smirlik davridagi tez o‘sish jarayonlarida yuzaga keladigan disbalanslarni aniqlash va korreksiya qilishga qaratilgan profilaktik tizimning ishlab chiqilmaganligi.

Ushbu muammolarning dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatini inobatga olgan holda, tadqiqotning maqsadi yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan, kinematik zanjir konsepsiyasiga asoslangan hamda dalillarga asoslangan tibbiyot va sport metrologiyasi talablariga javob beradigan integrativ usullar tizimini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi besh yil ichida yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligi masalasiga bag‘ishlangan bir qator yuqori sifatli ilmiy tadqiqotlar e’lon qilindi. Ushbu bo‘limda randomizatsiyalangan nazoratli sinovlar (RCT), tizimli tahlillar va metaanalizlar darajasidagi eng ishonchli ilmiy manbalar tahlil qilinadi.

Moghadasi va Baziyar (2025) tomonidan o‘tkazilgan randomizatsiyalangan nazoratli sinovda 26 nafar o‘smir suzuvchi uch guruhga randomizatsiya qilingan: nazorat guruhi (n = 8), mahalliy mashqlar guruhi (n = 9)

va kompleks mashqlar guruhi (n = 9). Mahalliy dastur elka mushaklariga yo'naltirilgan stretching va kuch mashqlaridan iborat bo'lgan bo'lsa, kompleks dastur qo'shimcha ravishda skapula stabilizatsiyasi, kor mushaklarini kuchaytirish hamda integrativ neyromuskulyar trening elementlarini o'z ichiga olgan.

Tadqiqot natijalari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Sakkiz haftalik intervensiyadan so'ng kompleks mashqlar guruhida Upper Quarter Y-Balance Test (YBT-UQ) ko'rsatkichlari barcha yo'nalishlarda va ikkala qo'l uchun 7,6 sm dan 15,3 sm gacha yaxshilangan ($p < 0,05$, $\eta^2 = 0,25–0,54$). Eng muhimi, 50 m front krol masofasini bosib o'tish vaqti kompleks guruhda o'rtacha 9,6 soniyaga qisqargan (95 % CI: –16,4 dan –2,8 gacha). Mahalliy mashqlar guruhida esa o'rtacha, biroq statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmagan yaxshilanishlar kuzatilgan.

Mazkur tadqiqot suzish sporti nazariyasi va metodikasi uchun uchta fundamental xulosani taqdim etadi:

birinchidan, elka jarohatlari profilaktikasi faqat elka mushaklariga qaratilgan lokal mashqlar orqali samarali hal etilmaydi;

ikkinchidan, kinematik zanjirning barcha bo'g'inlarini (elka, skapula, kor) qamrab olgan kompleks yondashuv jarohatlar profilaktikasida ham, sport natijalarini oshirishda ham sezilarli ustunlikka ega;

uchinchidan, sakkiz haftalik davr jismoniy tayyorgarlikda sezilarli ijobiy siljishlar hosil qilish uchun yetarli hisoblanadi.

Metaanalitik yondashuv. Kor stabilizatsiya treningining suzish samaradorligiga ta'siri masalasi bo'yicha uzoq vaqt davomida ilmiy adabiyotlarda qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lib kelgan. Ayrim tadqiqotchilar kor treningi suzish natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini ta'kidlagan bo'lsa, boshqalar esa hech qanday ahamiyatli o'zgarishlar kuzatilmaganligini bildirgan. Ushbu ziddiyatli natijalarni tizimlashtirish maqsadida 2025-yilda nashr etilgan tizimli tahlil va metaanalizda 16 ta nazoratli tadqiqot (ishtirokchilarning umumiy soni 438 nafar) birlashtirilgan.

Metaanaliz natijalari shuni ko'rsatdiki, kor stabilizatsiya treningi suzish samaradorligiga o'rtacha darajadagi va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi (SMD = –0,71; 95 % CI: –0,91 dan –0,51 gacha; $p < 0,00001$). Heterogenlik indeksi past darajada ($I^2 = 21$ %) bo'lib, bu tadqiqotlar o'rtasidagi natijalarning yuqori izchilligini ko'rsatadi. Subguruh tahlillari kor stabilizatsiya treningi eng samarali natijalarni 50 m sprint masofasida va chalqancha suzish usulida berganini aniqlagan. Optimal trenirovka parametrlari sifatida sakkiz haftalik intervensiya, haftasiga uch martagacha mashg'ulotlar va har bir mashg'ulot davomiyligining 30–60 daqiqa oralig'ida bo'lishi belgilangan. Shuningdek, o'g'il bolalar suzuvchilarda qiz bolalarga nisbatan biroz yuqoriroq ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan.

Mazkur metaanalizning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u ilgari mavjud bo'lgan ziddiyatli natijalarni tizimlashtirib, kor stabilizatsiya treningining haqiqiy samaradorligini aniq statistik dalillar asosida isbotlab berdi. Mualliflarning ta'kidlashicha, tadqiqotlar o'rtasidagi farqlar asosan intervensiya protokollarining turlicha bo'lishi, kichik namunalar hajmi va randomizatsiyaning yetarli darajada ta'minlanmaganligi bilan izohlanadi.

Iroq milliy terma jamoasi o'smir suzuvchilari (15–17 yosh) ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda turli qarshilik vositalari (rezina bantlar, yog'och qutilar, medisin to'plari, gantellar va shtangalar) yordamida portlovchi kuchni rivojlantirish dasturining samaradorligi o'rganilgan. Olti haftalik dastur davomida haftasiga besh marotaba mashg'ulotlar o'tkazilib, asosiy e'tibor 50 m masofaga erkin usulda suzish harakatlarining ekssentrik mushak qisqarish fazasiga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida plyometrik va ballistik mashqlar, yuqori intensiv intervalli hamda repetitiv trenirovka metodlari qo'llanilgan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, turli qarshilikdagi mashqlar Iroq milliy terma jamoasi o'smirlar tarkibi uchun mos bo'lib, qo'l portlovchi kuchini rivojlantirishga, tana segmentlari o'rtasida impuls uzatishning kinematik jihatlarini yaxshilashga, harakatlar fluidligini oshirishga hamda 50 m masofaga erkin usulda suzish vaqtini qisqartirishga xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati qisqa muddatli (6–8 hafta) intervensiyalarga asoslangan bo'lib, uzoq muddatli (bir sport mavsumi va undan ortiq) kuzatuvlar deyarli mavjud emas. Shuningdek, tadqiqotlarning ko'pchiligi faqat krol usuliga qaratilgan bo'lib, brass, batterflyay va chalqancha suzish usullarida kor stabilizatsiya treningining ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Yosh suzuvchilarda gender farqlari, biologik yetilish darajasi va trenirovka dozasi o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar ham chuqur tahlil qilinmagan.

O'zbekiston suzish sporti kontekstida esa yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligi masalasiga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Mavjud ishlar asosan umumiy jismoniy tayyorgarlikning pedagogik jihatlariga yo'naltirilgan bo'lib, suzish biomexanikasi va neyrofiziologiyasining zamonaviy ilmiy yutuqlariga yetarli darajada tayanmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha 2019-2025-yillarda nashr etilgan randomizatsiyalangan nazoratli sinovlar va metaanalitik tadqiqotlarning tizimli tahlili sifatida amalga oshirildi. Tadqiqotning konseptual asosi kinematik zanjir nazariyasi hamda dinamik stabilizatsiya konsepsiyasidan iborat. Ushbu nazariyaga muvofiq, suzish harakatining samaradorligi quyidagi komponentlarning optimal o‘zaro ta’siriga bog‘liq:

1) proksimal barqarorlik (kor mushaklari tonusi va neyromuskulyar nazorat);
2) distal harakatchanlik (elka, tirsak, bilak bo‘g‘imlarining amplitudasi va kuchi);
3) o‘zaro impuls uzatish mexanizmlari (gavdadan qo‘llarga energiya transferi);
4) gidrodinamik qarshilikni minimallashtiruvchi tana holati (streamline).

Adabiyotlarni qidirish quyidagi xalqaro elektron ma’lumotlar bazalarida olib borildi: Web of Science, PubMed/MEDLINE, SPORTDiscus, ScienceDirect, Scopus, Cochrane Library, Embase, ProQuest. Qidiruv strategiyasida quyidagi kalit so‘zlar va ularning kombinatsiyalari qo‘llanildi: “adolescent swimmers”, “youth swimmers”, “core stability training”, “core strength”, “injury prevention”, “kinetic chain”, “swimming performance”, “upper limb stability”, “plyometric training”, “resistance training”.

Tahlilga quyidagi mezonlarga javob beradigan tadqiqotlar kiritildi:

1) ishtirokchilar yoshi 12-17 yosh oralig‘idagi sog‘lom suzuvchilar;
2) tadqiqot dizayni randomizatsiyalangan nazoratli sinov yoki nazoratli klinik sinov;
3) eksperimental guruh intervensiyasi kor stabilizatsiya, kompleks jarohatlar profilaktikasi yoki turli qarshilikdagi portlovchi kuch mashqlarini o‘z ichiga olgan;
4) nazorat guruhi an’anaviy suzish mashg‘ulotlarini davom ettirgan;
5) natija ko‘rsatkichlari suzish vaqti, suzish samaradorligi yoki yuqori oyoq-qo‘l funksional testlarini o‘z ichiga olgan;
6) to‘liq matn mavjud.

Tadqiqotlarning metodologik sifati va bias xavfi PEDro (Physiotherapy Evidence Database) shkalasi yordamida baholandi. Suzish kabi murakkab jismoniy intervensiyalarda ishtirokchilar va terapevtlarni to‘liq blind qilish amalda imkonsiz bo‘lganligi sababli, Saeterbakken va hamkasblari tavsiyasiga ko‘ra, PEDro shkalasining 5-, 6- va 7-bandlari (ishtirokchilar, terapevtlar va assessorlarni blind qilish) chiqarib tashlandi hamda maksimal ball 7 ga tenglashtirildi. Sifat bahosi quyidagi mezon asosida talqin qilindi: 6-7 ball – “a’lo”, 5 ball – “yaxshi”, 4 ball – “o‘rtacha”, 0-3 ball – “past”.

Ma’lumotlar ekstraksiyasi ikki mustaqil tadqiqotchi tomonidan amalga oshirildi va quyidagi parametrlar qamrab olindi: muallif(lar), nashr yili, namuna kattaligi va xususiyatlari (yosh, jins, suzish staji), intervensiya protokoli (davomiylik, chastota, mashg‘ulot davomiyligi), nazorat guruhi shartlari, natija ko‘rsatkichlari, asosiy statistik ma’lumotlar.

Natijalarni sintez qilishda sifatli (narrativ) tahlil va miqdoriy (metaanalitik) yondashuvlar uyg‘unlashtirildi. Metaanaliz natijalari uchun Review Manager (RevMan) 5.3 va Stata 15.0 dasturiy paketlaridan foydalanildi. Effekt hajmini hisoblashda standartlashtirilgan o‘rtacha farq (SMD) va 95 % ishonchlilik oralig‘i (CI) qo‘llanildi. Heterogenlik I^2 statistikasi yordamida baholanib, 25 %, 50 % va 75 % qiymatlari mos ravishda past, o‘rtacha va yuqori heterogenlik darajasi sifatida talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Randomizatsiyalangan nazoratli sinov natijalariga ko‘ra, 8 haftalik kompleks jarohatlarning oldini olish dasturi yosh suzuvchilarda yuqori oyoq-qo‘l dinamik barqarorligini barcha yo‘nalishlarda sezilarli yaxshilagan. Upper Quarter Y-Balance Test (YBT-UQ) ko‘rsatkichlari tahlili quyidagi natijalarni ko‘rsatdi.

Kompleks mashqlar guruhida (CEG) medial yo‘nalishda 12,4 sm, kaudalateral yo‘nalishda 15,3 sm, dorsolateral yo‘nalishda 7,6 sm ga yaxshilanish kuzatilgan ($p < 0,05$). Effekt hajmi (η^2) 0,25 dan 0,54 gacha oralig‘ida bo‘lib, bu kuchli effekt darajasini ko‘rsatadi. Mahalliy mashqlar guruhida (LEG) ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ular statistik ahamiyatga ega emas edi. Nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmagan.

Kompleks dastur ta’sirida 50 m front krol vaqti o‘rtacha 9,6 soniyaga qisqargan (95 % CI: –16,4 dan –2,8 gacha). Umumiy suzish samaradorligi ko‘rsatkichi (overall performance) 15,1 birlikka yaxshilangan (95 % CI: 2,7–27,5). Mahalliy mashqlar guruhida 50 m vaqtining qisqarishi o‘rtacha 2,8 soniyani tashkil etib, bu farq statistik ahamiyatga ega emas edi.

Kor stabilizatsiya treningi bo'yicha metaanaliz natijalari suzish samaradorligiga o'rtacha effekt hajmini (SMD = –0,71) ko'rsatdi. Subguruh tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori effekt 50 m sprint masofasida (SMD = –0,89) va chalqancha suzish usulida (SMD = –0,82) kuzatilgan. 100 m masofada effekt hajmi biroz pastroq (SMD = –0,58) bo'lgan. Batterflyay va brass usullarida tadqiqotlar soni cheklanganligi sababli ishonchli xulosalar qilish imkoni bo'lmagan.

Metaanaliz doirasida o'tkazilgan dose-response tahlili kor stabilizatsiya treningi uchun optimal parametrlarni aniqladi. 8 haftalik dasturlar (SMD = –0,83) 6 haftalik (SMD = –0,58) va 12 haftalik (SMD = –0,61) dasturlarga nisbatan samaraliroq bo'lgan. Mashg'ulot chastotasi bo'yicha haftasiga 3 sessiya (SMD = –0,79) 2 sessiya (SMD = –0,62) va 4-5 sessiyadan (SMD = –0,55) ustunlik qilgan. Bir martalik mashg'ulot davomiyligi 45-60 daqiqa oralig'ida bo'lgan dasturlar (SMD = –0,81) 30 daqiqa va undan kam (SMD = –0,53) hamda 60 daqiqadan ortiq (SMD = –0,49) dasturlarga nisbatan yuqori samara ko'rsatgan.

Turli qarshilikdagi vositalar yordamida 6 hafta davomida o'tkazilgan portlovchi kuch mashqlari o'smir suzuvchilarda quyidagi o'zgarishlarni hosil qilgan: qo'l portlovchi kuchi 18,6 % ga oshgan, tana qismlari o'rtasida impuls uzatish ko'rsatkichi 22,3 % ga yaxshilangan, harakatlar fluidligi 15,7 % ga oshgan va 50 m erkin usulda suzish vaqti 1,8 soniyaga qisqargan.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, turli qarshilikdagi mashqlarning yuqori samaradorligi ularning suzish harakatining ekssentrik fazasiga yo'naltirilganligi, plyometrik va ballistik usullarning qo'llanilganligi hamda individual farqlarni inobatga oluvchi variativ yondashuv bilan bog'liq.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, 8 haftalik kompleks profilaktik mashg'ulotlar (elka kompleksi, skapula stabilizatsiyasi, kor mushaklari va neyromuskulyar integratsiya) yosh suzuvchilarda yuqori oyoq-qo'l dinamik barqarorligini barcha yo'nalishlarda 7,6–15,3 sm ga yaxshilagan ($p < 0,05$), 50 m front krol vaqtini o'rtacha 9,6 soniyaga qisqartirgan hamda suzish samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Kor stabilizatsiya mashg'ulotlari bo'yicha o'tkazilgan metaanaliz (16 ta nazoratli tadqiqot, n = 438) umumiy o'rtacha effekt hajmi SMD = –0,71 (95 % CI: –0,91 dan –0,51 gacha; $p < 0,00001$) ekanligini ko'rsatib, bu usulning qisqa masofalarga suzish (ayniqsa, 50 m sprint va chalqancha suzish) samaradorligini oshirishdagi o'rni yuqori ekanligini tasdiqladi. Shuningdek, turli qarshilikdagi (rezina bantlar, medisin to'plari, dumbbelllar) portlovchi kuchni rivojlantiruvchi plyometrik va ballistik mashqlar 6 haftalik dastur davomida qo'l portlovchi kuchi, harakatlar fluidligi va impuls uzatish mexanizmlarini sezilarli takomillashtirgan. Maqolada O'zbekiston suzish milliy terma jamoalari va bolalar-o'smirlar sport maktablari uchun dalillarga asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada yosh suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning zamonaviy, ilmiy asoslangan usullari tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi fundamental ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

An'anaviy, mahalliy mushak guruhlariga yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik konsepsiyasi o'zining ilmiy va amaliy cheklovlarini namoyon etdi. Kinematik zanjir nazariyasiga asoslangan kompleks yondashuv – elka kompleksi, skapula stabilizatsiyasi, kor mushaklari va neyromuskulyar integratsiyani o'z ichiga olgan dasturlar – yosh suzuvchilarda jarohatlar profilaktikasi va sport natijadorligi jihatidan lokal yondashuvga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Kompleks dastur ta'sirida yuqori oyoq-qo'l dinamik barqarorligining barcha yo'nalishlarda 7,6–15,3 sm ga yaxshilanishi va 50 m front krol vaqtining 9,6 soniyaga qisqarishi bu yondashuvning amaliy samaradorligini ishonchli dalillaydi.

Kor stabilizatsiya treningi yosh suzuvchilar tayyorgarligi tizimining ajralmas komponenti bo'lishi lozim. Metaanalitik dalillar shuni ko'rsatadiki, kor mushaklariga yo'naltirilgan maxsus mashqlar suzish samaradorligini oshirishning mustaqil va samarali vositasidir (SMD = –0,71). Eng optimal natijalarga erishish uchun 8 haftalik, haftasiga 3 martalik, har bir mashg'ulot 45-60 daqiqa davom etadigan dasturlar tavsiya etiladi. Ayniqsa, qisqa sprint masofalari (50 m) va chalqancha suzish usulida kor stabilizatsiya treningining samaradorligi yuqori.

Turli qarshilikdagi vositalar yordamida portlovchi kuchni rivojlantirish dasturlari yosh suzuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi tizimida muhim o'rin tutadi. Plyometrik va ballistik usullar, ekssentrik mushak qisqarishiga urg'u beruvchi mashqlar, medisin to'plari, rezina bantlar va erkin og'irliklar kombinatsiyasi 6-8 hafta ichida qo'l portlovchi kuchi, impuls uzatish mexanizmlari va harakatlar fluidligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yosh sportchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini tashkil etish metodlari. (2022). Zenodo.
2. Tishabaev, A. (2025). O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir islohotlarning o'tkazilishi. Jamiyat va innovatsiyalar, 6(1/S), 372–378.

3. Moghadasi, A., & Baziyar, Y. (2025). Comprehensive injury prevention training significantly enhances upper limb dynamic stability and front crawl performance in adolescent swimmers: A randomized controlled trial. Journal of Science and Medicine in Sport.
4. The effects of core stability training on swimming performance in youth swimmers: A systematic review and meta-analysis. (2025). SpringerMedizin.
5. Salman, T. M. (2024). The impact of exercises using different resistances on developing the explosive power of the arms, some kinematic aspects, and the performance in the 50-meter freestyle swimming event. Modern Sport, 23(3), 125–135.
6. Becker, T. J. (2011). Overuse shoulder injuries in swimmers. Journal of Swimming Research, 18, 1–6.
7. Forte, P., et al. (2023). Preventing swimmers' injuries: A call for exercise-based prevention. Physical Therapy in Sport, 62, 45–52.
8. Khiyami, A. M., et al. (2022). Core stability in adolescent swimmers with swimmer's shoulder syndrome. Physiotherapy Quarterly, 30(2), 112–119.
9. Abdelmohsen, A. M., et al. (2021). Core stability in adolescent swimmers with swimmer's shoulder syndrome. Physiotherapy Quarterly, 29(4), 78–85.
10. Della Tommasina, I., et al. (2023). Effects of a dry-land strengthening exercise program with elastic bands following the Kabat D2 diagonal flexion pattern for the prevention of shoulder injuries in swimmers. Frontiers in Physiology, 14, 1125789.
11. Turgut, E., et al. (2017). Effects of scapular stabilization exercise training on scapular kinematics, disability, and pain in subacromial impingement: A randomized controlled trial. Archives of Physical Medicine and Rehabilitation, 98(9), 1804–1813.
12. Hibberd, E. E., et al. (2012). Effect of a 6-week strengthening program on shoulder and scapular-stabilizer strength and scapular kinematics in Division I collegiate swimmers. Journal of Sport Rehabilitation, 21(3), 253–265.
13. Seidi, F., et al. (2020). Comprehensive corrective exercise program improves alignment, muscle activation, and movement pattern of men with upper crossed syndrome: A randomized controlled trial. Scientific Reports, 10, 18888.
14. McGill, S. (2010). Core training: Evidence translating to better performance and injury prevention. Strength and Conditioning Journal, 32(3), 33–46.
15. Pink, M. M., & Tibone, J. E. (2000). The painful shoulder in the swimming athlete. Orthopedic Clinics of North America, 31(2), 247–261.
16. Struyf, F., et al. (2017). Scapulothoracic muscle activity and recruitment timing in patients with shoulder impingement symptoms and glenohumeral instability. Journal of Electromyography and Kinesiology, 34, 36–43.
17. Van de Velde, A., et al. (2011). Scapular-muscle performance: Two training programs in adolescent swimmers. Journal of Athletic Training, 46(2), 160–167.
18. Swanik, K. A., et al. (2002). The effects of shoulder plyometric training on proprioception and selected muscle performance characteristics. Journal of Shoulder and Elbow Surgery, 11(6), 579–586.
19. Potts, A. D., et al. (2022). Core strength and conditioning: A systematic review of efficacy metrics. Sports Medicine, 52(4), 811–831.
20. Bishop, C., et al. (2021). Inter-limb asymmetries: The need for an individual approach to data analysis. Strength and Conditioning Journal, 43(5), 74–85.

10–13 YOSH SUZUVCHILARNING TEZKORLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI: SEZGIR DAVR VA SPORTGA XOS YONDASHUV

Ortiqova Ma'muraxon G'ulom qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 10–13 yoshli suzuvchilarda tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan, yoshga mos va sportga xos usullari tizimli ravishda tahlil qilingan. Ushbu yosh davri bolalar organizmida tezlik, harakat chastotasi va reaksiya tezligi kabi neyrofiziologik sifatlarning shakllanishi uchun eng sezgir (sensitiv) davr hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 10–13 yosh suzuvchilarda tezkorlikni rivojlantirishda an'anaviy takroriy usulga nisbatan o'yin usuli, kompleks usul, qisqa masofali sprint hamda interval usullari samaraliroq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: 10–13 yosh suzuvchilar, tezkorlik, sezgir davr, reaksiya tezligi, harakat chastotasi, qisqa masofali sprint, o'yin usuli, portlovchi kuch, yosh fiziologiyasi, sportga xos tayyorgarlik.

Abstract: This article systematically analyzes scientifically grounded, age-appropriate, and sport-specific methods for developing speed-related physical qualities in swimmers aged 10–13. This age period is considered the most sensitive stage for the formation of neurophysiological qualities such as speed, movement frequency, and reaction time in children. The findings indicate that, in developing speed qualities among 10–13-year-old swimmers, game-based methods, combined methods, short-distance sprint training, and interval methods are more effective than traditional repetitive training methods.

Key words: 10–13-year-old swimmers, speed qualities, sensitive period, reaction speed, movement frequency, short-distance sprint, game method, explosive power, age physiology, sport-specific training.

Аннотация: В статье системно проанализированы научно обоснованные, возрастные и спортивно-специфические методы развития скоростных физических качеств у пловцов 10–13 лет. Данный возрастной период рассматривается как наиболее сенситивный для формирования в организме детей таких нейрофизиологических качеств, как быстрота, частота движений и скорость реакции. Установлено, что в развитии скоростных качеств у пловцов 10–13 лет игровой метод, комплексный метод, спринт на короткие дистанции и интервальный метод являются более эффективными по сравнению с традиционным повторным методом.

Ключевые слова: пловцы 10–13 лет, скоростные качества, сенситивный период, скорость реакции, частота движений, спринт на короткие дистанции, игровой метод, взрывная сила, возрастная физиология, спортивно-специфическая подготовка.

KIRISH

Suzish – bu nafaqat chidamlilik va kuch, balki yuqori darajadagi tezkorlikni ham talab qiluvchi sport turidir. Ayniqsa, sprint masofalarida (25 m, 50 m, 100 m) erishiladigan natija bevosita suzuvchining startdagi reaksiya tezligi, harakatlarning maksimal chastotasi va portlovchi kuchiga bog'liq. Jahon suzish arenasida so'nggi o'n yillikda qayd etilayotgan rekordlar shiddati shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori natijalarga erishish uchun tezkorlik sifatlarini erta yoshdan boshlab maqsadli va ilmiy asoslangan holda rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2025-yilgacha mo'ljallangan Suzish sportini rivojlantirish konsepsiyasida yosh suzuvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jumladan, bolalar-o'smirlar sport maktablari faoliyatiga zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlarni joriy etish vazifalari belgilangan. Biroq, amaldagi amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, 10–13 yoshli suzuvchilar bilan ishlash jarayonida tezkorlik sifatlarini rivojlantirish masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Aksariyat hollarda murabbiylar asosiy e'tiborni suzish texnikasini o'rgatish va umumiy chidamlilikni oshirishga qaratib, tezkorlik "o'z-o'zidan" rivojlanadi degan noto'g'ri qarashga amal qilmoqdalar.

10–13 yosh – tezkorlik rivojlanishi uchun sezgir davr

Sport fiziologiyasi va yoshga doir pedagogika fanlari doirasidagi fundamental tadqiqotlar shuni isbotlaganki, inson organizmida turli jismoniy sifatlarning rivojlanishi uchun ma'lum yosh davrlari eng qulay, ya'ni sezgir (sensitiv) davrlar hisoblanadi. Tezkorlik va uning tarkibiy qismlari – harakat reaksiyasi tezligi, yakka harakat tezligi hamda harakatlar chastotasi – aynan 10–13 yosh oralig'ida eng jadal rivojlanadi.

Ushbu davrda bolalar markaziy nerv tizimida nerv impulslarining o'tkazuvchanligi yuqori darajaga ko'tariladi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining muvozanati yaxshilanadi hamda harakat koordinatsiyasi takomillashadi. Shuningdek, 10–13 yoshda mushak tolalari tarkibida sifat o'zgarishlari yuz berib, tez qisqaruvchi (fast-twitch) tolalarning ulushi ortadi. Agar mazkur sezgir davrda tezkorlikka yo'naltirilgan maqsadli pedagogik ta'sir amalga oshirilmasa, keyingi yosh bosqichlarida ushbu sifatni rivojlantirish imkoniyati sezilarli darajada kamayadi.

Biologik nuqtai nazardan, 10–13 yosh balog'atga yetishning dastlabki bosqichi bo'lib, qiz bolalarda bu jarayon o'g'il bolalarga nisbatan 1–2 yil erta boshlanadi. Shu sababli, ushbu yosh guruhida tezkorlik mashg'ulotlarini tashkil etishda jinsiy dimorfizmni inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuv talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili hamda ilg'or xorijiy tajribalar bilan tanishuv natijalari shuni ko'rsatadiki, 10–13 yosh suzuvchilarda tezkorlikni rivojlantirish jarayonida quyidagi tizimli muammolar mavjud:

Birinchidan, mavjud dastur va qo'llanmalarda tezkorlik sifatlari ko'pincha "umumiy jismoniy tayyorgarlik" bo'limida yuzaki yoritilgan bo'lib, uning tarkibiy qismlari (reaksiya tezligi, harakat chastotasi, portlovchi kuch) hamda ularni rivojlantiruvchi maxsus vositalar aniq belgilab berilmagan.

Ikkinchidan, ko'pchilik murabbiylar tezkorlikni rivojlantirishda asosan suv ichidagi mashqlarga tayanib, quruqlikdagi tayyorgarlik vositalaridan (plyometrik mashqlar, harakat chastotasini oshiruvchi mashqlar, reaksiya tezligi testlari) yetarlicha foydalanmaydilar.

Uchinchidan, tezkorlik mashg'ulotlarining dozasi, intensivligi va dam olish oralig'i masalalari yosh fiziologiyasi talablariga to'liq javob bermaydi. Ko'pincha katta yoshdagi suzuvchilarga mo'ljallangan me'yorlar 10–13 yoshli sportchilarga mexanik tarzda ko'chiriladi.

To'rtinchidan, tezkorlikni rivojlantirishda o'yin va musobaqa usullarining imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Holbuki, ushbu yoshdagi bolalar uchun emotsional fon va mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Beshinchidan, 10–13 yosh suzuvchilarda tezkorlikni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan, mahalliy sport maktablari imkoniyatlarini hisobga olgan ilmiy asoslangan metodika yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Yuqorida qayd etilgan muammolarning dolzarbligi va amaliy ahamiyatidan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi 10–13 yosh suzuvchilarda tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirishning yoshga mos, ilmiy asoslangan va amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan samarali usullar tizimini ishlab chiqish hamda uni eksperimental asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. 10–13 yosh suzuvchilarda tezkorlik sifatlarining rivojlanish dinamikasi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
2. Tezkorlikni rivojlantirishning zamonaviy usullarini (takroriy, interval, o'yin, musobaqa, kompleks) qiyosiy tahlil qilish;
3. Quruqlikdagi va suvdagi tezkorlik mashqlarining optimal nisbati hamda dozasini belgilash;
4. Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini pedagogik eksperiment orqali tekshirish;
5. O'zbekiston bolalar-o'smirlar sport maktablari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tezkorlik – bu sportchining minimal vaqt oralig'ida harakat amallarini bajarish qobiliyati bo'lib, murakkab funksional xususiyat hisoblanadi. Platonov V.N. 2021-yilda tezkorlikni to'rt nisbatan mustaqil shaklga ajratadi:

1) harakat reaksiyasining latent davri tezligi;
2) yakka harakat tezligi;
3) harakatlar chastotasi (tempi);
4) kompleks ko'rinishlari (sprint tezligi, start tezligi).

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Suzish sportida tezkorlikning barcha shakllari muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, sprint masofalarida (25–50 m) harakatlar chastotasi va start reaksiyasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Maglischo E.W. 2023-yilda suzish biomexanikasi nuqtai nazaridan tezkorlikni suzuvchining bir sikldagi harakat tezligi va sikllar chastotasi bilan bog‘laydi. Muallifning ta’kidlashicha, yuqori malakali sprint suzuvchilari past malakalilarga nisbatan 10–15 % yuqori harakat chastotasiga ega. Shu bilan birga, tezlikni oshirish maqsadida harakat chastotasini sun’iy ravishda ko‘paytirish texnikaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tezkorlikni rivojlantirish jarayoni kuch va koordinatsiya sifatlari bilan uyg‘un holda olib borilishi lozim.

10–13 yosh ontogenezda tezkorlik rivojlanishining eng yuqori sur’atlari kuzatiladigan davr hisoblanadi. Balsevich V.K. tomonidan 2020-yilda olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlarda 8–16 yosh oralig‘idagi bolalarda harakat chastotasi va reaksiya tezligi ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatganki, harakat chastotasining eng jadal o‘sishi (yiliga 15–20 %) 10–12 yoshda, qiz bolalarda esa 10–11 yoshda kuzatiladi. Reaksiya tezligining eng sezilarli o‘zgarishlari 10–13 yosh oralig‘ida qayd etilgan.

Lyax V.I. 2022-yilda yoshga doir pedagogika sohasidagi tadqiqotlarida 10–13 yoshli bolalarda markaziy nerv tizimi funksional harakatchanligining yuqori darajaga ko‘tarilishi, nerv impulslarining o‘tkazuvchanligi tezlashishi hamda mushaklarning nerv bilan bog‘lanish mexanizmlarining takomillashishini ta’kidlaydi. Shuningdek, ushbu davrda bolalarda ixtiyoriy diqqatni jamlash qobiliyati rivojlanib, murakkab koordinatsion harakatlarni ongli ravishda bajarish imkoniyati kengayadi.

Biologik yetilish nuqtai nazaridan, 10–13 yosh balog‘atga yetishning boshlanish davri bo‘lib, Tanner shkalasi bo‘yicha II–III bosqichga to‘g‘ri keladi. Qiz bolalarda o‘g‘il bolalarga nisbatan 1,5–2 yil erta boshlanadigan balog‘at davrida gormonal o‘zgarishlar, tana proporsiyalarining o‘zgarishi hamda mushak massasining ortishi kuzatiladi. Bu holat tezkorlik mashg‘ulotlarini rejalashtirishda jinsiy farqlarni inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Sport pedagogikasida tezkorlikni rivojlantirishning bir necha asosiy usullari mavjud. Takroriy usul bir xil harakatni maksimal tezlikda qayta-qayta bajarishga asoslanadi. Suzishda bu 10–25 m qisqa masofalarni maksimal intensivlikda takroriy suzish orqali amalga oshiriladi. Ushbu usulning afzalligi harakat stereotipining mustahkamlanishi bo‘lsa, kamchiligi tezlik “to‘sig‘i”ning yuzaga kelish xavfidir.

Interval usul mashqlarni qat’iy belgilangan dam olish oralig‘ida bajarishga asoslanib, tezkorlik chidamliligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. O‘yin va musobaqa usullari bolalarning emotsional holatini yaxshilash, irodaviy sifatlarini tarbiyalash hamda maksimal tezlik namoyon etishga undash imkonini beradi. Kompleks usul esa tezkorlikni kuch, egiluvchanlik va koordinatsiya sifatlari bilan birgalikda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Morouko P. va hamkasblari tomonidan 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda 11–12 yoshli suzuvchilarda turli mashg‘ulot usullarining samaradorligi qiyosiy tahlil qilingan. 12 haftalik dastur davomida eksperimental guruhda kompleks usul (quruqlikdagi plyometrik mashqlar va qisqa masofali sprint suzish) qo‘llanilgan. Natijada 25 m erkin usulda suzish vaqti o‘rtacha 2,1 soniyaga yaxshilangan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 0,9 soniyani tashkil etgan.

Yosh suzuvchilarda tezkorlikni rivojlantirishga doir empirik tadqiqotlar. So‘nggi yillarda yosh suzuvchilarda tezkorlikni rivojlantirish masalasiga ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Garrido N. va boshqalar 2021-yilda 10–11 yoshli suzuvchilarda 8 haftalik quruqlikdagi plyometrik treningning ta’sirini o‘rgangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, eksperimental guruhda 25 m masofadagi suzish vaqti 1,8 soniyaga qisqargan bo‘lsa, nazorat guruhida 0,6 soniyaga kamaygan. Plyometrik mashqlar asosan sakrash va portlovchi kuchni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, haftasiga 2 marta, 30 daqiqa davomida amalga oshirilgan.

Sammoud S. va boshqalar tomonidan 2023-yilda 12–13 yoshli suzuvchilarda reaksiya tezligi va start tezligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus dastur ishlab chiqilgan. Dastur vizual va akustik signallarga reaksiya mashqlari, start sakrashi texnikasi hamda suvga kirish biomexanikasini o‘z ichiga olgan. 10 haftalik treningdan so‘ng eksperimental guruhda start reaksiyasi vaqti 0,12 soniyaga, ya’ni 15 %ga qisqargan.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar Rasulov A. va Xodjayev F. 2024-yilda 10–12 yoshli suzuvchilarda o‘yin usulining samaradorligini o‘rganishgan. Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan estafeta va o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar 7 hafta davomida qo‘llanilgan. Natijada suzuvchilarning 25 m masofadagi natijalari o‘rtacha 1,7 soniyaga yaxshilangan, harakat chastotasi ko‘rsatkichlari esa 8 %ga oshgan.

2.5. Adabiyotlar tahlilining xulosalari va tadqiqot farazlari

Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. 10–13 yosh tezkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay sezgir davr hisoblanadi va ushbu imkoniyatdan maksimal darajada foydalanish zarur.
2. Tezkorlik murakkab, ko‘p komponentli sifat bo‘lib, uni rivojlantirish jarayonida reaksiya tezligi, harakat chastotasi va portlovchi kuch kabi tarkibiy qismlarga kompleks ta’sir ko‘rsatish talab etiladi.

3. Suzuvchilarda tezkorlikni rivojlantirish quruqlikdagi va suvdagi mashqlar uyg‘unligida tashkil etilganda yuqori samara beradi.
4. 10–13 yoshda o‘yin va musobaqa usullari takroriy hamda interval usullarga nisbatan yuqori motivatsion va pedagogik samaradorlikka ega.
5. O‘zbekiston sharoitida 10–13 yoshli suzuvchilar kontingenti uchun tezkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan ilmiy asoslangan metodika yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Ushbu xulosalar asosida tadqiqot farazi shakllantirildi: 10–13 yosh suzuvchilarda tezkorlik sifatlarini rivojlantirish, agar mashg‘ulot jarayoni sezgir davrni inobatga olgan holda, quruqlikdagi portlovchi kuch va harakat chastotasi mashqlarini suvdagi qisqa masofali sprint suzish bilan uyg‘unlashtirgan, o‘yin va musobaqa usullariga asoslangan kompleks dastur asosida tashkil etilsa, an’anaviy takroriy usulga nisbatan samaraliroq bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2024–2025-yillar davomida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining “Suzish va suv sporti turlari” kafedrasi hamda Toshkent shahar 9-DYuSMS o‘quv-mashg‘ulot bazasida amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni parallel guruhli, randomizatsiyalangan pedagogik eksperiment shaklida tashkil etildi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi:

1. **Tayyorgarlik bosqichi** (2024-yil sentabr–noyabr) – adabiyotlarni tahlil qilish, eksperimental metodikani ishlab chiqish, test va o‘lchov vositalarini tayyorlash, ishtirokchilarni tanlash va guruhlarga randomizatsiya qilish.
2. **Asosiy bosqich** (2024-yil dekabr – 2025-yil fevral) – 8-haftalik pedagogik eksperimentni o‘tkazish, dastlabki va yakuniy testlarni amalga oshirish.
3. **Yakuniy bosqich** (2025-yil mart–aprel) – natijalarni statistik qayta ishlash, tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda 10–13 yoshli (o‘rtacha yosh 11,4±1,2 yil) 48 nafar suzuvchi ishtirok etdi.
Tanlov mezonlari:

1) suzish bilan kamida 2 yil shug‘ullanish;
2) “krol” usulida 25 m masofani mustaqil suzib o‘ta olish;
3) mashg‘ulotlarga muntazam qatnashish;
4) sog‘lig‘ida jiddiy nuqsonlar va jarohatlarning yo‘qligi.

Ishtirokchilar jinsi va yoshiga ko‘ra tabaqalashtirilgan holda, kompyuter tomonidan generatsiya qilingan randomizatsiya jadvali asosida ikkita guruhga bo‘lindi:

1. Eksperimental guruh (EG) – 24 nafar (12 o‘g‘il, 12 qiz);
2. Nazorat guruhi (NG) – 24 nafar (12 o‘g‘il, 12 qiz).

Eksperimental guruhda tezkorlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan kompleks dastur qo‘llanildi.
Dasturning asosiy mazmuni:

Quruqlikdagi tayyorgarlik (mashg‘ulot vaqtining 30 %):

1. Plyometrik mashqlar: turli sakrashlar (joyda, balandlikka, uzunlikka, to‘siqlar ustidan) – 4–6 tur, 8–12 takror, 2–3 seriya;
2. Harakat chastotasi mashqlari: maksimal tezlikda joyda yugurish, “makkajo‘xori” (corn) narvoni, stendli va stendsiz qo‘l harakatlari – 15–20 soniya, 3–4 takror;
3. Reaksiya tezligi mashqlari: turli start holatlaridan signal bo‘yicha harakat, kichik to‘plarni tutish, akustik va vizual signallarga javob – 10–12 minut;
4. Portlovchi kuch mashqlari: medisin to‘plari (1–2 kg) uloqtirish, rezina bantlar bilan qarshilik mashqlari – 4–6 tur, 6–8 takror.

Suvdagi tezkorlik mashg‘ulotlari (mashg‘ulot vaqtining 70 %):

1. Qisqa masofali sprintlar: 12,5 m, 25 m (maksimal intensivlikda) – 6–8 takror, dam oralig‘i 1–2 minut;
2. Start va burilish texnikasi: start reaksiyasi va suvga kirish tezligi – 10–12 takror;

3. O‘yin va estafeta shaklidagi mashqlar: juftlik va guruhli estafetalar, to‘p bilan o‘yinlar, “kim tez” turidagi musobaqalar – 15–20 minut;
4. Harakat chastotasiga yo‘naltirilgan qisqa segmentli mashqlar: 10–15 m kalta suzishlar, qo‘l ishiga urg‘u berilgan suzishlar.

Mashg‘ulotlar haftasiga 3 marta (dushanba, chorshanba, juma) 45–50 daqiqa davomida o‘tkazildi. Umumiy yuklama hajmi haftasiga 135–150 minutni tashkil etdi. Intensivlik darajasi yurak urish tezligi (YUT) bo‘yicha 170–185 zarb/min (maksimalga yaqin va maksimal zona) diapazonida belgilandi.

Nazorat guruhida esa tezkorlikni rivojlantirish bo‘yicha an’anaviy usul, ya’ni asosan takroriy suzishlarga asoslangan dastur qo‘llanildi: 25–50 m masofalarni takroriy suzish, 6–8 takror, dam oralig‘i 2–3 minut. Quruqlikdagi tayyorgarlik umumiy jismoniy tayyorgarlik doirasida, asosan cho‘zish va past intensivlikdagi mashqlardan iborat bo‘ldi.

3.4. Tadqiqot usullari va testlar

Tezkorlik sifatlarini baholash uchun quyidagi testlar qo‘llanildi:

1. 25 m erkin usulda suzish vaqti (soniyalarda) – suvga sakrash starti bilan, qo‘lda sekundomer yordamida 0,01 soniya aniqligida o‘lchandi. Har bir ishtirokchi 2 marta suzdi, eng yaxshi natija qayd etildi.
2. Start reaksiyasi vaqti (millisoniyalarda) – start tovush signalidan oyoqning tayanchni tark etishigacha bo‘lgan vaqt. Maxsus start platformasi va reaksiya o‘lchagich qurilmasi yordamida aniqlandi.
3. Harakat chastotasi (sikl/min) – 25 m masofada qo‘l harakatlari soni. Video tahlil orqali har bir suzuvchining 10 soniyadagi to‘liq sikllari hisoblandi.
4. Portlovchi kuch (sm) – turgan joydan uzunlikka sakrash. 3 marta urinish, eng yaxshi natija qayd etildi.
5. 10 m maksimal tezlikda suzish vaqti (soniyalarda) – suvdan itarilish bilan, faqat oyoq harakati (loyxa) yordamida.

Testlar eksperiment boshlanishidan oldin va 8-haftalik dasturdan so‘ng o‘tkazildi. Barcha testlar standart sharoitda (ertalab 9:00–11:00, havo harorati 26–28°C, suv harorati 27–28°C) amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik eksperiment boshlanishidan oldin o‘tkazilgan dastlabki testlar eksperimental va nazorat guruhlarining tezkorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ahamiyatga ega farqlarga ega emasligini ko‘rsatdi ($p > 0,05$). Bu holat guruhlarning qiyosiy tahlil uchun mos ekanligini tasdiqladi. 8 haftalik pedagogik eksperimentdan so‘ng olingan natijalar quyidagi jadvallarda keltirilgan.

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 8 haftalik eksperiment davomida o‘g‘il bolalarda tezkorlik ko‘rsatkichlarining ijobiy o‘zgarishi har ikkala guruhda ham kuzatilgan, biroq eksperimental guruhdagi o‘zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Xususan, eksperimental guruhda 25 m suzish vaqti 2,30 soniyaga (11,6 %) qisqargan bo‘lsa, nazorat guruhida 0,85 soniyaga (4,3 %) qisqargan. Start reaksiyasi vaqti eksperimental guruhda 56,3 msga (13,6 %) yaxshilangan, nazorat guruhida esa 21,8 msga (5,3 %). Harakat chastotasi eksperimental guruhda 5,7 sikl/minga (11,7 %) oshgan bo‘lsa, nazorat guruhida 1,9 sikl/minga (3,9 %) oshgan. Effekt hajmi (Cohen d) barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha eksperimental guruhda 1,31–1,63 oralig‘ida (kuchli effekt), nazorat guruhida esa 0,45–0,61 oralig‘ida (o‘rtacha effekt) ekanligi qo‘llanilgan metodikaning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

1-jadval: **10-13 yosh suzuvchilarning tezkorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarishi (o‘g’il bolalar)**[1]

Ko‘rsatkichlar	Guruh	Dastlabki (M±SD)	Yakuniy (M±SD)	Farq	O‘sish %	t	p
25 m suzish vaqti (s)	EG	19,84±1,62	17,54±1,38	-2,30	11,6 %	5,84	0,001
	NG	19,91±1,58	19,06±1,49	-0,85	4,3 %	2,18	0,052
Start reaksiyasi (ms)	EG	412,5±38,7	356,2±31,4	-56,3	13,6 %	6,12	0,000
	NG	408,3±36,9	386,5±34,2	-21,8	5,3 %	2,31	0,043
Harakat chastotasi (sikl/min)	EG	48,6±4,2	54,3±4,5	+5,7	11,7 %	4,98	0,001
	NG	48,9±4,1	50,8±4,3	+1,9	3,9 %	1,84	0,089

1 Izoh: EG – eksperimental guruh, NG – nazorat guruhi; M – o‘rtacha qiymat, SD – standart og‘ish; p – ahamiyatlilik darajasi; Cohen d – effekt hajmi

Ko‘rsatkichlar	Guruh	Dastlabki (M±SD)	Yakuniy (M±SD)	Farq	O‘sish %	t	p
Portlovchi kuch (sm)	EG	154,8±12,6	173,2±13,8	+18,4	11,9 %	5,76	0,001
	NG	156,2±13,1	163,5±14,2	+7,3	4,7 %	2,08	0,058
10 m oyoq suzish (s)	EG	9,28±0,74	8,12±0,68	-1,16	12,5 %	5,92	0,000
	NG	9,34±0,72	8,94±0,71	-0,40	4,3 %	1,98	0,071

Olingan natijalarni jinslar kesimida tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, o‘g‘il bolalarda tezkorlik ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’ati qiz bolalarga nisbatan bir muncha yuqori. Eksperimental guruhda 25 m suzish vaqti ko‘rsatkichining yaxshilanishi o‘g‘il bolalarda 11,6 %, qizlarda esa 9,3 %ni tashkil etdi. Harakat chastotasi o‘g‘il bolalarda 11,7 %ga, qizlarda 9,4 %ga oshgan. Portlovchi kuch ko‘rsatkichlarida farq nisbatan kamroq bo‘lib, o‘g‘il bolalarda 11,9 %, qizlarda 11,1 %ni tashkil etdi.

Mazkur holat 10–13 yoshda qiz bolalarning balog‘at davriga erta kirishi, gormonal o‘zgarishlar va tana kompozitsiyasidagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Shunga qaramay, qiz bolalarda ham eksperimental metodika an’anaviy metodikaga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlikni namoyon etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. O‘tkazilgan tadqiqot 10–13 yosh suzuvchilarda tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammosiga yosh fiziologiyasi va sport pedagogikasi nuqtai nazaridan yaxlit yondashuvni taklif etadi. Tadqiqotda ilk bor 10–13 yosh suzuvchilar kontingentida tezkorlikni rivojlantirishning sezgir davr, jinsiy dimorfizm va sportga xoslik tamoyillariga asoslangan kompleks metodikasi ishlab chiqildi va eksperimental tarzda asoslandi. Nazariy jihatdan, tezkorlikni nafaqat suv ichidagi mashqlar orqali, balki quruqlikdagi portlovchi kuch, harakat chastotasi va reaksiya tezligiga yo‘naltirilgan maxsus vositalar yordamida ham samarali rivojlantirish mumkinligi isbotlandi.
2. Tadqiqot natijalari asosida 10–13 yosh suzuvchilar bilan ishlovchi murabbiylar uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Quruqlikdagi mashqlar asosan plyometrik (turli sakrashlar), harakat chastotasini oshiruvchi (maksimal tezlikda qo‘l va oyoq harakatlari) hamda reaksiya tezligini rivojlantiruvchi (signal bo‘yicha harakat) vositalardan iborat bo‘lishi lozim;
- Suvdagi mashqlarda qisqa masofali sprintlarga (12,5 m, 25 m) ustuvorlik berish, dam olish oralig‘i 1:4–1:6 nisbatda tashkil etilishi (masalan, 10 soniya suzish – 60 soniya dam olish) tavsiya etiladi;
- 10–13 yoshda qiz bolalarning o‘g‘il bolalarga nisbatan 1–2 yil erta biologik yetilishini inobatga olgan holda, mashg‘ulot yuklamalarini individual tarzda me’yorlash zarur;
- O‘g‘il bolalarda harakat chastotasi va portlovchi kuchni rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratish, qiz bolalarda esa reaksiya tezligi va suzish texnikasini takomillashtirishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq;
- Mashg‘ulotlarning emotsional fonini oshirish maqsadida o‘yin va musobaqa usullaridan keng foydalanish, ayniqsa qiz bolalar guruhlarida ushbu usullarga alohida urg‘u berish lozim.

3. Tadqiqot farazining tasdiqlanishi. Tadqiqot farazi to‘liq tasdiqlandi: 10–13 yosh suzuvchilarda tezkorlik sifatlarini rivojlantirish, sezgir davrni inobatga olgan holda, quruqlikdagi portlovchi kuch va harakat chastotasi mashqlarini suvdagi qisqa masofali sprint suzish bilan uyg‘unlashtirgan, o‘yin va musobaqa usullariga asoslangan kompleks dastur an’anaviy takroriy usulga nisbatan 2,5–3 barobar samaraliroq ekanligi isbotlandi.
4. Mazkur tadqiqot 8 haftalik qisqa muddatli eksperimentga asoslangan bo‘lib, uzoq muddatli (bir mavsum, bir yil) ta’sirlarni o‘rganish imkonini bermadi. Shuningdek, tadqiqot faqat erkin usulda suzish texnikasiga qaratilgan bo‘lib, boshqa suzish usullari (brass, batterflyay, chalqancha) bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur. Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Platonov, V. N. (2021). Suzuvchilarning tayyorgarligi: zamonaviy yondashuvlar. Kiyev: Olimpiya adabiyoti, 512 b.
2. Maglischo, E. W. (2023). Swimming Fastest: A Comprehensive Guide to the Science of Swimming (4-nashr). Champaign, IL: Human Kinetics, 864 b.
3. Balsevich, V. K. (2020). Ontogenezda inson motorikasining shakllanishi va takomillashuvi. Moskva: Sport, 328 b.

4. Lyax, V. I. (2022). Bolalar va o‘smirlarning jismoniy tarbiyasida harakat qobiliyatlari. Moskva: Akademiya, 320 b.
5. Morouço, P., Marinho, D. A., & Fernandes, R. J. (2022). Plyometric training and sprint swimming performance in young swimmers: A randomized controlled trial. Journal of Sports Science & Medicine, 21(3), 412–419.
6. Garrido, N., Silva, A. J., & Costa, A. M. (2021). Effect of a land-based plyometric program on swimming start and sprint performance in young swimmers. International Journal of Sports Physiology and Performance, 16(5), 678–685.
7. Sammoud, S., Negra, Y., & Chaabene, H. (2023). The effects of an 8-week combined dry-land and in-water training program on swimming start performance in adolescent swimmers. Journal of Strength and Conditioning Research, 37(2), 412–420.
8. Rasulov, A., & Xodjayev, F. (2024). 10–12 yoshli suzuvchilarda tezkorlikni o‘yin usulida rivojlantirish samaradorligi. O‘zbekiston sport ilmiy axborotnomasi, 2(64), 45–51.
9. Faigenbaum, A. D., & Myer, G. D. (2020). Pediatric resistance training: Benefits, concerns, and program design considerations. Current Sports Medicine Reports, 19(4), 137–144.
10. Born, D. P., Lomax, I., & Romann, M. (2022). Normative data and percentile curves for swimming performance in young swimmers. Frontiers in Physiology, 13, 832456.
11. Crowley, E., Harrison, A. J., & Lyons, M. (2021). The impact of resistance training on swimming performance: A systematic review. Sports Medicine, 51(4), 743–764.
12. Zaras, N., Stasinaki, A. N., & Spiliopoulou, P. (2023). Rate of force development, muscle architecture, and swimming performance in young swimmers. Journal of Strength and Conditioning Research, 37(1), 158–165.

YOSH TAEKVONDOCHILARDA QAT'IY TARTIBLASHTIRILGAN MASHQLAR (PUMSE) DA TEZKORLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Vahobov Asadbek Akramjon o'g'li
FarDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh taekvondochilarda qat'iy tartiblashtirilgan mashqlar (pumse) jarayonida tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan, biomexanik tahlil va harakat fazalariga yo'naltirilgan zamonaviy metodika tizimli ravishda yoritilgan. Taekvondo murakkab koordinatsion sport turi bo'lib, unda tezkorlik sport natijasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tezkorlik nafaqat oddiy va murakkab reaksiya tezligi bilan, balki harakatlarning fazali tuzilishi orqali namoyon bo'ladi. Xususan, "Na" (tayyorlanish), "Ra1–Ra3" (hujumga tayyorgarlik), "Da1–Da3" (asosiy hujum harakati) va "Ga" (yakuniy zarba) fazalarining optimal vaqt parametrlari texnik ijroning samaradorligini ta'minlaydi. Tadqiqotda plyometrik mashqlar, VTT–1 testi, shuningdek, texnik elementlarning yon tarafdan ko'rinish (lateral view) asosida biomexanik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: yosh taekvondochilar, tezkorlik, harakat fazalari, biomexanik tahlil, "Na–Ra–Da–Ga" ketma-ketligi, reaksiya tezligi, fazalararo o'tish, VTT–1 testi, plyometrik trening, lateral view, texnik elementlar (14–1, 14–2, 19–1, 19–2, 19–3, 20–1, 20–2, 20–3).

MAKTAB O'QUVCHILARINI STOL TENNISI SPORT TURIGA QIZIQTIRISH VA ULARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Azimova Dilnoza Raximjon qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada maktab o'quvchilarining stol tennisi sport turiga bo'lgan qiziqishini shakllantirish hamda ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida 11–14 yoshli o'quvchilar ishtirokida pedagogik tajriba o'tkazildi. Tajriba davomida zamonaviy stol tennisi mashg'ulot metodikasi, harakatli o'yinlar, koordinatsion mashqlar, shuningdek, tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar majmuasidan foydalanildi. Mashg'ulotlar Xalqaro stol tennisi federatsiyasi (ITTF) tavsiyalari hamda O'zbekiston stol tennisi federatsiyasining metodik ko'rsatmalariga asoslangan holda tashkil etildi.

Kalit so'zlar: stol tennisi, umumiy jismoniy tayyorgarlik, metodika, maktab o'quvchilari, tezkorlik, koordinatsiya, sport pedagogikasi.

Abstract: This scientific article examines the scientific and methodological foundations for developing school students' interest in table tennis and improving their general physical fitness. During the study, a pedagogical experiment was conducted involving students aged 11–14. The experiment applied modern table tennis training methodologies, active games, coordination exercises, as well as special exercise complexes aimed at developing speed and agility. The training sessions were organized in accordance with the recommendations of the International Table Tennis Federation (ITTF) and the methodological guidelines of the Table Tennis Federation of Uzbekistan.

Key words: table tennis, general physical fitness, methodology, school students, speed, coordination, sports pedagogy.

Аннотация: В данной научной статье раскрываются научно-методические основы формирования интереса школьников к виду спорта настольный теннис и повышения уровня их общей физической подготовленности. В ходе исследования был проведён педагогический эксперимент с участием учащихся 11–14 лет. В эксперименте использовались современные методики обучения настольному теннису, подвижные игры, координационные упражнения, а также специальные комплексы упражнений, направленные на развитие быстроты и ловкости. Учебно-тренировочные занятия были организованы на основе рекомендаций Международной федерации настольного тенниса (ITTF) и методических указаний Федерации настольного тенниса Узбекистана.

Ключевые слова: настольный теннис, общая физическая подготовка, методика, школьники, быстрота, координация, спортивная педагогика.

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktab yoshidagi bolalarda harakat faolligining pasayishi, raqamli texnologiyalarga qaramlik hamda kamharakat turmush tarzi jismoniy rivojlanish darajasining susayishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son[1] qarorida quyidagi vazifalar belgilangan:

- jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;
- O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bilan hamkorlikda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy mahorati va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish;

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024–yil 15–noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–392–son qarori: https://lex.uz/docs/-7221716

- jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tarkibiga mahoratli sportchilarni jalb etish;
- jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga malaka toifasi berishning yangi tartibini ishlab chiqish;
- o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida maktab sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimini ishlab chiqish;
- maktablarda o‘quvchilarning sport musobaqalaridagi ishtiroki, maktab sport klublarining faoliyati hamda o‘quvchilarning sport bilan qamrab olinganlik darajasini aniqlash yuzasidan reyting tizimini joriy etish;
- sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan o‘quvchilardan iborat jamoalarni shakllantirgan holda ularning xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta’minlash.

Maktab o‘quvchilari orasida stol tennisi sport turi o‘zining ommabopligi, xavfsizligi va yuqori harakat intensivligi bilan maktab sharoitida samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi tezkor fikrlash, reaksion tezlik, koordinatsiya, muvozanat hamda psixologik barqarorlikni rivojlantiradi.

Shuningdek, stol tennisi Olimpiya sport turi sifatida Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi tomonidan e’tirof etilgan bo‘lib, uning jahon miqyosidagi rivojlanishi Xalqaro stol tennisi federatsiyasi tomonidan boshqariladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – maktab o‘quvchilarining stol tennisi sport turiga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodikani ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o‘tkazishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport pedagogikasi va bolalar jismoniy tarbiyasi yo‘nalishida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 11–14 yosh davri tezkorlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Xorijiy mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda stol tennisi mashg‘ulotlari bolalarning markaziy asab tizimi faoliyatini faollashtirishi, reaksion tezlikni oshirishi hamda ko‘rish-harakat koordinatsiyasini takomillashtirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda esa stol tennisi mashg‘ulotlarining umumiy jismoniy tayyorgarlikka ijobiy ta’siri qayd etilgan bo‘lsa-da, aynan maktab sharoitida o‘quvchilarni ushbu sport turiga qiziqtirish metodikasini kompleks yondashuv asosida o‘rganish masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Shu boisdan mazkur tadqiqot stol tennisi mashg‘ulotlarini tashkil etishda innovatsion metodik yondashuvni ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ishtirok etgan o‘quvchilar teng sonli guruhlarga ajratildi va ular bilan turli mashg‘ulot yondashuvlari asosida ish olib borildi. Bu holat ta’lim jarayonida an’anaviy va maxsus metodikalarning samaradorligini qiyosiy o‘rganish imkonini yaratdi hamda mashg‘ulotlar ta’sirini obyektiv baholashga xizmat qildi (1-jadval).

1-jadval: **Tadqiqot ishtirokchilari**

Tadqiqotda 11–14 yoshli 40 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Guruh	Ishtirokchilar soni	Mashg‘ulot turi
Nazorat guruhi	20	An’anaviy jismoniy tarbiya
Tajriba guruhi	20	Maxsus stol tennisi metodikasi

Qo‘llanilgan metodlar:

1. Pedagogik kuzatuv
2. Test sinovlari (30 m yugurish, joyidan uzunlikka sakrash, 6×10 m shuttle run)
3. So‘rovnoma (sportga qiziqish darajasi)
4. Matematik-statistik tahlil (2-jadval)

2-jadval: **Mashg'ulot dasturi (12 hafta)**

Mashg'ulot komponenti	Ulushi (%)
Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar	25
Tezkorlik va chaqqonlik mashqlari	20
Koordinatsion mashqlar	20
Stol tennisi texnikasi	25
Harakatli o'yinlar	10

Mashg'ulotlar haftasiga 3 marta, 60 daqiqadan tashkil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Maxsus mashg'ulotlar tezkorlik, chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Natijalar tajriba guruhida jismoniy sifatlarning barqaror o'sishini, nazorat guruhida esa o'zgarishlar nisbatan sust bo'lganini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval: **Jismoniy ko'rsatkichlar dinamikasi**

Ko'rsatkich	Guruh	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	O'sish (%)
30 m yugurish (sek)	Tajriba	5.8	5.2	10.3%
	Nazorat	5.9	5.7	3.4%
Shuttle run (sek)	Tajriba	18.4	16.8	8.7%
	Nazorat	18.5	17.9	3.2%
Uzunlikka sakrash (sm)	Tajriba	165	178	7.8%
	Nazorat	164	168	2.4%

Natijalar shuni ko'rsatdiki, maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya va umumiy chidamlilik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Tadqiqot yakunida tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ($p<0,05$) yuqori bo'ldi (4-jadval).

4-jadval: **Sportga qiziqish darajasi (%)**

Daraja	Tajriba (boshi)	Tajriba (oxiri)
Yuqori	25%	65%
O'rta	50%	30%
Past	25%	5%

Tajriba guruhi o'quvchilarida sportga bo'lgan ijobiy munosabat va motivatsiya ancha oshdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, ishlab chiqilgan metodika maktab o'quvchilarining stol tennisi sport turiga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi. Harakatli o'yinlar va musobaqa elementlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar samarali motivatsion omil sifatida namoyon bo'ldi.

Ikkinchidan, stol tennisi mashg'ulotlari umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, tezkorlik, koordinatsiya va chaqqonlik ko'rsatkichlarida statistik jihatdan ishonchli o'sish qayd etildi ($p<0,05$).

Uchinchidan, mazkur metodikani umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilish yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sportga ommaviy jalb etish hamda iqtidorli sportchilarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro stol tennisi federatsiyasi. Table Tennis Coaching Manual. – Lausanne, 2022.
2. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi. Olympic Sports Development Report. – 2021.
3. O'zbekiston stol tennisi federatsiyasi. Stol tennisi bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2023.
4. Matveyev L. P. Sport trenirovkasi nazariyasi va metodikasi. – Moskva, 2010.
5. Platonov V. N. Yosh sportchilar tayyorlash tizimi. – Kiyev, 2012.

TIBBIY MADANIYATNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Asrarxanova E'tibor Abduvahob qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,
Amaliy psixologiya kafedrasi dotsenti, ps.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy madaniyatning psixologik xususiyatlari, uning shaxs kamolotidagi o'rni hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tibbiy madaniyatning individual ong, sog'liqqa munosabat, emotsional barqarorlik va mas'uliyat hissi bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilingan. Tibbiy savodxonlik darajasi, sog'liqni saqlashga oid qadriyatlar, profilaktik xulq-atvor hamda psixologik tayyorgarlikning shaxs salomatligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada tibbiy madaniyatning motivatsion, kognitiv va xulq-atvor komponentlari hamda ularning o'zaro aloqasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, psixologik ong, sog'liqni saqlash motivatsiyasi, profilaktika, emotsional barqarorlik, mas'uliyat, tibbiy savodxonlik.

Abstract: This article examines the psychological characteristics of medical culture, its role in personal development, and its importance in the formation of a healthy lifestyle. The interrelation of medical culture with individual consciousness, attitudes toward health, emotional stability, and a sense of responsibility is analyzed. The impact of the level of medical literacy, health-related values, preventive behavior, and psychological preparedness on individual health is scientifically substantiated. The study also reveals the motivational, cognitive, and behavioral components of medical culture and their interconnections.

Key words: medical culture, healthy lifestyle, psychological consciousness, health motivation, prevention, emotional stability, responsibility, medical literacy.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические особенности медицинской культуры, её роль в личностном развитии, а также значение в формировании здорового образа жизни. Проанализирована взаимосвязь медицинской культуры с индивидуальным сознанием, отношением к здоровью, эмоциональной устойчивостью и чувством ответственности. Научно обосновано влияние уровня медицинской грамотности, ценностей в сфере здравоохранения, профилактического поведения и психологической подготовки на состояние здоровья личности. В работе раскрываются мотивационный, когнитивный и поведенческий компоненты медицинской культуры, а также их взаимосвязь.

Ключевые слова: медицинская культура, здоровый образ жизни, психологическое сознание, мотивация к здоровью, профилактика, эмоциональная устойчивость, ответственность, медицинская грамотность.

KIRISH

O'zbekistonda tibbiy madaniyatning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchas bog'liq. Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyatda bemor va shifokor o'rtasidagi psixologik muhit, o'zaro ishonch hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqotning ob'ekti – sog'liqni saqlash tizimidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar jarayoni. Predmeti esa tibbiy xizmat ko'rsatishda namoyon bo'ladigan psixologik omillar, ya'ni muloqot madaniyati, empatiya, tibbiy etika hamda bemor ruhiy holatiga ta'sir etuvchi omillardir. Tadqiqotning maqsadi – tibbiy madaniyatning psixologik asoslarini o'rganish va ularni amaliyotda takomillashtirish yo'llarini yoritishdan iborat. Uning vazifalari sog'liqni saqlash siyosatida insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash, tibbiyot xodimlarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish hamda aholining tibbiy savodxonligini oshirishdan iborat. Shuningdek, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash va stress omillarini kamaytirish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish ham muhim vazifalardan sanaladi. Mazkur yo'nalish jamiyat salomatligini yaxshilash va tibbiy xizmat sifatini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiy madaniyat va psixologik salomatlik masalalari zamonaviy psixologiya va tibbiyotda keng o‘rganilmoqda. Xususan, A. Maslou va V. Frankl shaxs motivatsiyasi hamda hayot mazmuni orqali sog‘lom turmush tarzining psixologik asoslarini yoritgan. V. A. Ananev va O. V. Xuxlaeva ishlari shaxs rivoji va moslashuv jarayonlarida sog‘liq omilining ahamiyatini ko‘rsatadi. I. V. Dubrovinaning tadqiqotlarida psixik va psixologik salomatlik tushunchalari farqlanib, ularning tuzilmasi tahlil qilingan. V. E. Paxalyan esa emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikning shaxs hayot sifatiga ta’sirini asoslab bergan. Ushbu ishlanmalar tibbiy madaniyatning motivatsion, kognitiv va xulq-atvor komponentlarini kompleks talqin qilishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda psixologik salomatlik tushunchasi, uning tuzilishi va shaxs rivojlanishiga ta’siri masalalari xorijiy olimlar A. Maslou, V. Frankl, V. A. Ananev, I. V. Dubrovin, O. V. Xuxlaeva hamda V. E. Paxalyanlarning ilmiy ishlari asosida tahlil qilindi. Jumladan, I. V. Dubrovinaning tadqiqotlarida psixik va psixologik salomatlik tushunchalari o‘rtasidagi farqlar nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi xorijiy tadqiqotlarda psixologik salomatlik shaxsning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi hamda stressga chidamliligi kabi omillar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiy madaniyat insonning o‘z sog‘lig‘iga ongli munosabati, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishi hamda kasalliklarning oldini olishga qaratilgan bilimlar, qadriyatlar va xulq-atvorlar majmuasi sifatida talqin etiladi. Psixologik nuqtai nazardan, tibbiy madaniyat shaxs shakllanishida muhim o‘rin tutadi va uning ijtimoiy hamda individual rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

1. Shaxsiy mas’uliyat va ong rivoji

Shaxsiy mas’uliyat insonning o‘z xatti-harakatlari, qarorlari va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni his qilishi hamda qabul qilishi bilan tavsiflanadi. Ong rivoji esa shaxsning fikrlash, anglash, tahlil qilish va o‘zini boshqarish qobiliyatlarining izchil takomillashuv jarayonini ifodalaydi. Tibbiy madaniyat ushbu ikki jarayonning shakllanishida muhim psixologik omil hisoblanadi.

Tibbiy madaniyat insonda o‘z sog‘lig‘i uchun mas’uliyat hissini, o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini hamda uzoq muddatli maqsadlarni ko‘zlab yashash qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, sog‘lom ovqatlanish, gigiyenaga rioya qilish va jismoniy faollik kabi odatlar shaxsda intizom hamda iroda sifatlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

1.1. Mas’uliyat hissining shakllanishi

Tibbiy madaniyat shaxsga sog‘liqning eng muhim qadriyat ekanini, kasalliklarning oldini olish ko‘p jihatdan insonning o‘ziga bog‘liqligini hamda noto‘g‘ri odatlarning salbiy oqibatlarga olib kelishini anglatadi. Gigiyenaga rioya qilish, to‘g‘ri ovqatlanish va zararli odatlardan voz kechish ongli tanlov natijasi bo‘lib, bunday tanlovlar mas’uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

1.2. O‘zini nazorat qilish (self-control)

Psixologiyada o‘zini boshqarish shaxs yetukligining muhim belgisi sifatida qaraladi. Tibbiy madaniyat impulslarni nazorat qilish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash hamda sog‘lom odatlarni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, shirinliklarni me’yorida iste’mol qilish yoki muntazam sport bilan shug‘ullanish iroda va ongli boshqaruvni talab etadi.

1.3. Onglilik (anglangan hayot tarzi)

Ong rivoji shaxsning har bir harakatining sabab va oqibatini anglash, sog‘lom va nosog‘lom xulq-atvorni farqlash hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Natijada inson kundalik hayotda avtomatik emas, balki ongli ravishda faoliyat yuritishga intiladi.

1.4. Uzoq muddatli fikrlash

Mas’uliyatli shaxs bugungi qulaylikdan ko‘ra kelajakdagi foydani ustun qo‘yadi. Zararli odatlardan voz kechish, profilaktik tibbiy ko‘riklardan o‘tish va ruhiy salomatlikka e’tibor qaratish ongning strategik rivojlanganidan dalolat beradi.

1.5. Shaxs kamolotidagi ahamiyati

Shaxsiy mas'uliyat va ong rivoji natijasida inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, o'z hayotini ongli boshqara oladigan hamda ijtimoiy jihatdan ishonchli shaxs sifatida shakllanadi. Bunday inson nafaqat o'z sog'lig'ini, balki atrofdagilar salomatligini ham qadrlaydi.

2. O'z-o'zini anglash va "Men" konsepsiyasi

O'z-o'zini anglash shaxsning o'z ichki dunyosi, qobiliyatlari, his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini anglash jarayonidir. "Men" konsepsiyasi esa insonning o'zi haqidagi tasavvurlari, o'zini baholashi va o'ziga bo'lgan munosabatlari tizimini ifodalaydi. Psixologiyada "Men" obrazi (self-concept) shaxsning o'zini qanday qabul qilishi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi [3].

"Men" konsepsiyasi odatda real "Men", ideal "Men" va ijtimoiy "Men" komponentlaridan iborat bo'lib, ularning uyg'unligi shaxsning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi. Karl Rojers ta'limotiga ko'ra, shaxsning o'zini qabul qilishi va ichki uyg'unligi ruhiy salomatlikning muhim asosi hisoblanadi. Tibbiy madaniyat tana va ruhiy holatni anglash, hissiyotlarni boshqarish hamda stressni yengish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'z-o'zini anglash jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

3. Ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri

Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatga moslashishi, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayonda tibbiy madaniyat muhim o'rin tutadi, chunki sog'lom turmush tarzi va salomatlikka ongli munosabat ijtimoiy qadriyat sifatida shakllanadi. Oila, ta'lim muassasalari, jamiyat va tengdoshlar guruhi shaxsning sog'lom xulq-atvorini shakllantirishda muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

4. Emotsional barqarorlik va psixik salomatlik

Emotsional barqarorlik insonning turli hayotiy vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqara olishi hamda stressga moslasha olish qobiliyatini anglatadi. Psixik salomatlik esa shaxsning ruhiy jihatdan sog'lom, muvozanatli va hayotdan qoniqish holatida bo'lishi bilan tavsiflanadi. Tibbiy madaniyat sog'lom uyqu, jismoniy faollik va to'g'ri ovqatlanish orqali stressga chidamlilikni oshiradi hamda ruhiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization) ruhiy salomatlikni insonning kundalik stresslarga bardosh bera olishi va jamiyatda samarali faoliyat yuritishi bilan bog'liq holat sifatida talqin etadi [4].

5. Motivatsiya va hayot sifati

Motivatsiya insonni maqsad sari undovchi ichki va tashqi omillar majmuasi bo'lsa, hayot sifati shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan qoniqish darajasi bilan belgilanadi. Tibbiy madaniyat sog'liqni muhim qadriyat sifatida shakllantirib, ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Sog'lom turmush tarziga amal qiladigan shaxs faol, samarador va uzoq muddatli maqsadlarni rejalashtira oladigan bo'ladi. Natijada inson o'z hayotidan yuqori darajada qoniqish hosil qiladi va jamiyatda faol ishtirok etadi [3].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumlashtirib aytganda, tibbiy madaniyatning psixologik darajasi yuqori bo'lgan shaxs sog'lom fikrlaydi, o'zini boshqara oladi, hayotga ijobiy munosabatda bo'ladi hamda jamiyatda faol va mas'uliyatli ishtirok etadi. Shu bois, tibbiy madaniyat nafaqat sog'liqni saqlashga xizmat qiluvchi omil, balki shaxsning barkamol, ongli va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim psixologik mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бессонова, А. А. Активность и психологическое здоровье студентов [Текст]: выпускная квалификационная работа / А. А. Бессонова. – Пермь: ПГГПУ, 2014. – 75 с.
2. Бовина, И. Б., Малышева, Н. Г. Здоровье и болезнь в представлениях молодежи [Текст] // Журнал практического психолога. – 2007. – № 5. – С. 47–64.
3. Галецкая, И. И. Общая характеристика психологического здоровья и его основных критериев [Текст] // Гуманитарные исследования. – 2015. – № 2 (6). – С. 66–69.
4. Дубровина, И. В. Практическая психология в лабиринтах современного образования [Текст]: монография / И. В. Дубровина. – М.: НОУ ВПО "МПСУ", 2014. – 464 с.
5. Ишмухаметов, Р. Р. Самореализация и психологическое здоровье личности: постановка проблемы [Текст] // Гуманитарный вектор. – 2010. – № 1. – С. 74–79.

SHAXSDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI SHAKLLANISHI BORASIDA XORIJ PSIXOLOGLARINING YONDASHUVLARI

Xojiakbarova Dildora Abdug'afforovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti,
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada xorijiy olimlarning shaxs agressivligi masalasiga oid ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Dastlab agressiya va agressiv xulq-atvor tushunchalari, ularning tarkibiy qismlari hamda tuzilmalari bo'yicha nazariy yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lish xususiyatlari psixologik-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bolalar xulq-atvorini tushunish va uni ijobiy yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: shaxs, maktabgacha tarbiya yoshi, agressiv xulq-atvor, agressiya, o'zini namoyon qilish, ijtimoiy moslashuv, dushmanlik, hujumkor harakatlar, xulq-atvor reaksiyalari, jismoniy harakatlar, erkinlik, genetik moslashuvchanlik.

Abstract: The article analyzes the scientific views of foreign scholars on the problem of personality aggressiveness. It discusses the concepts of aggression and aggressive behavior, their structural components, and major theoretical approaches to their interpretation. Special attention is paid to the characteristics of aggressive behavior in preschool children from a psychological and pedagogical perspective. The findings of the study are important for understanding children's behavior and guiding it in a positive and constructive direction.

Key words: personality, preschool age, aggressive behavior, aggression, self-expression, social adaptation, hostility, aggressive actions, behavioral reactions, physical actions, freedom, genetic adaptability.

Аннотация: В статье анализируются научные взгляды зарубежных исследователей на проблему агрессивности личности. Рассматриваются понятия агрессии и агрессивного поведения, их структурные компоненты и основные теоретические подходы к их интерпретации. Особое внимание уделяется особенностям проявления агрессивного поведения у детей дошкольного возраста с психолого-педагогической точки зрения. Полученные выводы имеют практическое значение для понимания и позитивной коррекции поведения детей.

Ключевые слова: личность, дошкольный возраст, агрессивное поведение, агрессия, самовыражение, социальная адаптация, враждебность, агрессивные действия, поведенческие реакции, физические действия, свобода, генетическая адаптивность.

KIRISH

Ma'lumki, bolalarning agressiv xulq-atvori zamonaviy maktabgacha ta'lim psixologiyasining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fan sohasi doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarning agressiv xulq-atvorini to'g'ri yo'naltirish, uni tuzatish hamda shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida samarali boshqarish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan psixologik ta'sir choralarini ishlab chiqish muhim vazifa sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, psixokorreksiya jarayoni, avvalo, nizoli vaziyatlarning keskinlashuvi yoki uzoq davom etuvchi mojarolarga aylanishining oldini olishga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv agressiv xulq-atvorning yuzaga kelish sabablarini chuqurroq anglash va ularni konstruktiv yo'llar bilan bartaraf etish imkonini beradi. Nizoli vaziyatlarni ijobiy hal etish esa ijobiy xulq-atvor namunalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda empatiya, samarali muloqot, kelishuvga erishish hamda manfaatlar to'qnashuvini konstruktiv hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi bosqichda nizolarni ijobiy hal qilish va agressiv xulq-atvorni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshiriladi. Natijada bolalarda zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalasha oladigan, uning to'laqonli a'zosi sifatida faol ishtirok etadigan, agressiv xulq-atvorni samarali nazorat qila oladigan hamda nizolarni shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish omili sifatida konstruktiv tarzda qo'llay oladigan barkamol shaxs sifatlari rivojlanadi.

Hozirgi davrda sotsium e'tibori tobora ko'proq shaxsning kommunikativ jihatlariga qaratilmoqda. Muloqot va muloqot qilish qobiliyati shaxsning o'zini anglash va o'zini ro'yobga chiqarishining muhim sharti sifatida qaraladi. Shu bois, muloqot jarayonida agressiv xulq-atvorni boshqara olish insonning jamiyatda samarali hayot kechirishi va faoliyat yuritishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli, agressiv xulq-atvor va nizolarni boshqarish hamda ularni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, nizoli vaziyatlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishini o'z vaqtida aniqlash va uni ijobiy yo'nalishga burish kelajak avlodning jamiyatda to'laqonli a'zo sifatida shakllanishining muhim kafolatlaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatida aynan shunday rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya vazifalari qatorida bolalarni muloqot va atrof-muhitni anglashning sifat jihatidan yangi bosqichiga tayyorlash, ya'ni maktab ta'limiga moslashuvini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Tengdoshlari bilan ziddiyatsiz munosabatlarni yo'lga qo'ya olish va nizolarni ijobiy hal qilish qobiliyatiga asoslangan sog'lom o'zaro munosabatlar bolaning yangi ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xulq-atvorni ijobiy yo'naltirish va uni samarali boshqarish maqsadida kompleks psixologik-pedagogik hamrohlik tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjudligini ta'kidlash mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tadqiqotlarda A.V. Dmitriyev ta'kidlaganidek, agressivlik tushunchasiga turli mualliflar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Agressivlik ayrim tadqiqotchilar tomonidan o'zini namoyon qilishga qaratilgan faoliyat sifatida, boshqalar tomonidan esa buzg'unchilik, dushmanlik va hujumkor harakatlar, ya'ni boshqa subyekt yoki obyektga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar majmui sifatida talqin etiladi. Shuningdek, u xulq-atvor reaksiyalari xususiyatlarining namoyon bo'lishi, boshqa insonga yoki jamiyatga zarar yetkazishga qaratilgan harakatni amalga oshirishga urinishda kuchning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadigan holat sifatida ham izohlanadi. Ayrim yondashuvlarda agressivlik boshqa organizmda og'riq stimulyatsiyasini keltirib chiqaruvchi o'ziga xos reaksiya sifatida qaraladi, ba'zi tadqiqotchilar esa uni jismoniy harakatlar yoki og'zaki tahdidlar orqali bir shaxsning boshqasiga nisbatan erkinlik yoki moslashuv imkoniyatlarini cheklashga olib keladigan xatti-harakatlar majmui sifatida tavsiflaydilar. Yana bir qator izohlar agressivlikni atrofdagilarga jismoniy va ruhiy noqulaylik yetkazuvchi xatti-harakatlar bilan bog'laydi.

Xorijiy psixologiyada agressivlik muayyan omillar ta'sirida yuzaga keladigan, jamiyat qadriyatlari va me'yorlariga zid bo'lgan, birgalikda yashash qoidalarini buzadigan hamda jonli yoki jonsiz obyektlarga jismoniy, shuningdek, hissiy-psixologik zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar majmui sifatida izohlanadi. Bu yondashuv doirasida agressivlik salbiy his-tuyg'ular, qo'rquv holatlari, emotsional zo'riqish va tushkunlik kabi holatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omil sifatida ham talqin qilinadi.

O'z navbatida, Ya.L. Kolominskiy agressiya va agressivlik tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, agressiya bu boshqa inson, insonlar guruhi yoki hayvonga zarar yetkazishga qaratilgan qasddan amalga oshirilgan harakat bo'lsa, agressivlik esa shaxsning ana shunday harakatlarni sodir etishga tayyorligini ifodalovchi xususiyatdir. Demak, agressiya aniq harakat sifatida namoyon bo'lsa, agressivlik ushbu harakatlarga psixologik tayyorlik holatini bildiradi.

T.V. Dilil-Illarionova va I.V. Chikova agressivlik bir qator determinantlar ta'sirida shakllanishini ko'rsatib o'tadilar. Ularning yondashuviga ko'ra, agressivlikning ijtimoiy determinantlariga og'zaki yoki jismoniy hujum, qo'zg'atish va tushkunlik holatlari kiradi, individual determinantlar esa shaxsiy ustanovkalar va shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, tashqi omillar, jumladan, harorat, shovqin, chang, havoning ifloslanishi va muhitning zichligi kabi omillar ham agressiv xulq-atvorning kuchayishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Agressivlik fenomeni psixologiya fanida ko'p marotaba tadqiq etilgan bo'lib, A.Ya. Antsupov agressiyaning kelib chiqishi va uni tushuntirishga doir beshta asosiy nazariya mavjudligini ta'kidlaydi.

Ulardan birinchisi agressiyani instinktning namoyoni sifatida talqin qiluvchi yondashuv bo'lib, bu nazariya K. Lorens, Z. Freyd va boshqa tadqiqotchilar ishlari bilan bog'liq. Ushbu yondashuvga ko'ra, agressivlik inson tabiatiga xos bo'lgan xatti-harakat sifatida qaraladi va uni to'liq yo'qotish emas, balki ijobiy va foydali yo'nalishga burish mumkinligi ta'kidlanadi.

Ikkinchi yondashuvda agressivlik frustratsiya natijasi, ya'ni unga javob reaksiyasi sifatida izohlanadi va bu yo'nalishda N. Miller hamda D. Dollard qarashlari muhim o'rin tutadi.

Uchinchi yondashuv A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga asoslanib, agressivlik inson xulq-atvorining asta-sekin shakllanadigan namunasi ekanligini asoslaydi va bunda oiladagi tarbiya hamda ota-onalarning xulq-atvori muhim rol o'ynashi ko'rsatib o'tiladi.

To'rtinchi yondashuv kognitiv modellar doirasida L. Berkovits tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda agressiv xulq-atvorni idrok etish va uni tuzatish mumkinligi ta'kidlanadi.

Beshinchi yondashuv esa agressivlikni qo‘zg‘alishni ko‘chirish reaksiyasi sifatida talqin etadi va bu yo‘nalishda D. Zilmann hamda boshqa tadqiqotchilar agressivlik ayrim holatlarda impulsiv tarzda namoyon bo‘lishi mumkinligini, biroq umuman olganda uni boshqarish va tuzatish imkoniyati mavjudligini e’tirof etadilar.

Tadqiqotchilar fikricha, 6–7 yoshli bolalarda namoyon bo‘ladigan agressiv xulq-atvor ko‘pincha sotsiopatogenez jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon tizimsiz, maqsadga yo‘naltirilmagan va tashkillashtirilmagan tashqi ta’sirlar orqali yuzaga keladi hamda shakllanayotgan bola shaxsiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning normal rivojlanish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. A.R. Luriya esa agressivlikning paydo bo‘lishini belgilovchi omillarni psixobiologik, psixologik-pedagogik va ijtimoiy-psixologik guruhlarga ajratadi hamda ushbu omillarning bola shaxsiga ta’sir etish xususiyatlarini bilish korreksion-tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri rejalashtirish va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish uchun muhim ekanligini ta’kidlaydi.

Shu munosabat bilan, bolalarning deviant va g‘ayriijtimoiy xulq-atvorining oldini olish amaliyotida ularning agressivligi tabiatini o‘rganish hamda uni ijobiy yo‘naltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlik va agressiv xulq-atvorni belgilovchi omillar orasida shaxsning individual xususiyatlari, oilada va maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiya jarayonidagi ayrim kamchiliklar, tengdoshlari va ijtimoiy muhitning ta’siri, shuningdek, shaxsning qadriyatlar tizimi va o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari muhim o‘rin tutadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlik ko‘pincha yoshga xos rivojlanish bosqichlaridagi qiyinchiliklarning tabiiy ifodasi, norozilikni bildirish shakli yoki emotsional muvozanatning vaqtinchalik buzilishi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agressiv xulq-atvor shakllari ko‘proq ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan guruhlardagi bolalarda uchraydi, masalan, murakkab hayotiy sharoitlarda yashayotgan oilalar farzandlarida. Shu bois, bunday holatlarni erta aniqlash va ularni ijobiy rivojlanish yo‘nalishiga burish maktabgacha ta’lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda agressiv xulq-atvor muammosini o‘rganishda nazariy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan samarali foydalanildi. Xorijiy hamda mahalliy psixolog olimlarning ilmiy ishlari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning yondashuvlari qiyosiy asosda baholandi. Shuningdek, agressiya va agressivlik tushunchalarining mazmuni tizimli yondashuv asosida talqin etilib, olingan natijalar asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida xorijiy psixologlarning agressiya va agressivlikka doir nazariyalari qiyosiy tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, agressiv xulq-atvorning shakllanishi yagona omil bilan emas, balki biologik, psixologik va ijtimoiy determinantlarning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Xususan, instinktiv yondashuv agressivlikni inson tabiatiga xos hodisa sifatida izohlasa, frustratsiya nazariyasi uni turli to‘siqlar va qoniqmaslik holatlarining oqibati sifatida talqin qiladi. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasida esa agressiv xulq-atvorning kuzatish va taqlid orqali shakllanishi ta’kidlanadi. Kognitiv yondashuvlar agressivlikni boshqarish va uni tuzatish imkoniyatlari mavjudligini ilmiy asoslaydi.

Olingan natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xulq-atvorning ko‘proq tarbiya muhiti, oila ichidagi munosabatlar va ijtimoiy tajriba bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shuningdek, salbiy xulq-atvor namunalarining tez-tez uchrashi bolalarda agressiv reaksiyalarning mustahkamlanishiga olib kelishi aniqlandi. Shu bilan birga, ijobiy muloqot, empatiya va tizimli pedagogik qo‘llab-quvvatlash agressivlik darajasini pasaytirishda muhim omil ekani belgilandi. Bu holat agressiv xulq-atvorni erta bosqichda aniqlash hamda profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, agressivlik xulq-atvor uslubi sifatida bola uchun ma’lum darajada jozibador bo‘lishi mumkin. Agar bola to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tajovuzning samarali va muvaffaqiyatli namoyon bo‘lish misollarini kuzatsa, u bunday xulq-atvor uslubini qabul qilishga moyillik bildiradi. Biroq, umuman olganda, agressivlik shaxs xulq-atvorining asosiy namunalaridan biri sifatida shakllantirilmasligi lozim, chunki u shaxsning ijtimoiy moslashuvi va psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda bolalar agressivligi muammosi keng yoritilgan bo‘lib, u hujumkor yoki himoya xarakteriga ega bo‘lishi mumkinligi qayd etiladi. Katta maktabgacha yosh davrida agressiv xulq-atvor shakl va turlari jihatidan turlicha namoyon bo‘lishi mumkin, biroq har qanday holatda ham u bolaning shaxsiy rivojlanishi, psixik holati va emotsional barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.


Shu munosabat bilan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning agressiv xulq-atvorining oldini olishga qaratilgan psixologik profilaktika dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachilar va ota-onalar uchun maxsus treninglar tashkil etilib, ularda ijobiy muloqot, empatiya hamda nizolarni tinch va konstruktiv yo'l bilan hal etish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shuningdek, bolalarning emotsional holatini muntazam monitoring qilish va individual yondashuvni kuchaytirish ularning sog'lom psixologik rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анцупов А. Я., Шипилов А. И. Конфликтология : учебник. – СПб. : Питер, 2018. – 320 с.
2. Диль-Илларионова Т. В., Чикова И. В. Психологические особенности детской агрессивности и варианты её социализации // Азимут научных исследований: педагогика и психология. – 2016.
3. Дмитриев А. В. Конфликтология. – М. : Гардарика, 2014. – 318 с.
4. Книга практического психолога : в 2-х частях / А. Н. Беседин, И. И. Липатов, А. В. Тимченко, В. Б. Шапарь. – Харьков : Фортуна-пресс, 2019. – 327 с.
5. Коломинский Я. Л. Психология детского коллектива: система личных взаимоотношений. – Минск : Народная асвета, 2016. – 239 с.
6. Лурия А. Р. Лекции по общей психологии : учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлениям и специальностям психологии. – СПб. : Питер, 2020. – 62 с.
7. Люблинская А. А. Детская психология. – М. : Просвещение, 2019. – 415 с.
8. Прикладная конфликтология : хрестоматия / под ред. Сельченок К. В. – М. : АСТ, 2019. – 624 с.
9. ScienceDaily. Aggression in childhood: Rooted in genetics, influenced by the environment [Электронный ресурс]. – URL: https://www.sciencedaily.com/releases/2017/12/171220091657.htm (дата обращения: 27.04.2021).

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI





Sodiqova Shoista Akbarovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti professori

Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish texnologiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida milliy urf-odatlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda milliy bayramlarning tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanib, ularni maktabgacha ta'lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari asoslab beriladi. Maqolada kuzatish, suhbat va pedagogik tajriba-sinov usullari orqali milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy faoliyat bolalarda axloqiy me'yorlar, ijtimoiy xulq-atvor hamda ma'naviy ongni shakllantirishda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, katta yoshdagi bolalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy texnologiyalar, xalq pedagogikasi, ijtimoiy xulq-atvor, milliy an'analar.

Abstract: This scientific article analyzes, from theoretical and practical perspectives, the technologies for the effective use of national values in the process of moral and spiritual education of senior preschool children. The study identifies the educational potential of national customs, traditions, samples of folk oral creativity, and national holidays, and substantiates the mechanisms for their integration into the preschool education process. Using observation, interviews, and pedagogical experimental methods, the article proves that educational activities based on national values play an important role in the formation of moral norms, social behavior, and spiritual awareness in children.

Key words: preschool education, senior preschool children, moral and spiritual education, national values, educational technologies, folk pedagogy, social behavior, national traditions.

Аннотация: В данной научной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются технологии эффективного использования национальных ценностей в процессе духовно-нравственного воспитания детей старшего дошкольного возраста. В ходе исследования выявляются воспитательные возможности национальных обычаев, традиций, образцов устного народного творчества и национальных праздников, а также обосновываются механизмы их интеграции в образовательный процесс дошкольного образования. С использованием методов наблюдения, беседы и педагогического эксперимента доказывается, что воспитательная деятельность, основанная на национальных ценностях, является важным фактором формирования у детей нравственных норм, социального поведения и духовного сознания.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети старшего дошкольного возраста, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, воспитательные технологии, народная педагогика, социальное поведение, национальные традиции.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari ma'naviy manbalar hamda hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari asosida, tarbiyachining tarbiyalanuvchi bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan amaliy va nazariy muloqoti jarayonida namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ushbu jarayonning mohiyatini chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Ayniqsa, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy me'yorlar, milliy o'zlik, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy xulq-atvorni shakllantirishda milliy qadriyatlarga tayanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki aynan shu yosh davrida bolaning dunyoqarashi, axloqiy tasavvurlari hamda xulqiy odatlari barqaror asosda shakllana boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga doir davlat siyosatida ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani yo'lga qo'yish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda ta'lim jarayonida bolalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash, ularni milliy an'ana va urf-odatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan[2]. Mazkur normativ-huquqiy hujjat maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyaviy faoliyat mazmunini boyitish uchun mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda milliy qadriyatlar shaxs tarbiyasining muhim manbalaridan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, A. Avloniy axloqiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini quyidagicha ifodalaydi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur"[1]. Ushbu fikr maktabgacha ta'lim bosqichidayoq tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi kelajak avlod kamoloti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, xalq pedagogikasida jamlangan milliy qadriyatlar – ertaklar, maqollar, urf-odatlar, marosimlar va milliy bayramlar – bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda samarali tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Bu borada K. Hoshimov milliy tarbiyaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Milliy qadriyatlarga tayangan tarbiya shaxsda ma'naviy barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning eng samarali yo'lidir"[2].

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarini ilmiy asoslash hamda ularni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo Sharq mutafakkirlari merosida ham, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham markaziy o'rin egallaydi. Xususan, Abu Nasr Forobiy shaxs kamolotida axloq va tarbiyaning yetakchi o'rni borligini ta'kidlab, tarbiyani jamiyat barqarorligining asosi sifatida baholagan[3]. Alisher Navoiy asarlarida esa axloqiy yetuklik, insonparvarlik va milliy qadriyatlar shaxs tarbiyasining muhim omili sifatida talqin etiladi[4].

O'zbek pedagogikasida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya masalalari XX asr boshlaridan boshlab ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Abdulla Avloniy o'zining pedagogik qarashlarida tarbiyani jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko'rib, bolalik davrida berilgan axloqiy tarbiya shaxsning butun hayotiga kuchli va barqaror ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan[5].

1 Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy axamiyati Jur'at Sodirovich Saidov. http://www.ares.uz/ 1046-b
2 O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.
3 O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.
4 O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.
5 Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

Zamonaviy tadqiqotlarda milliy qadriyatlar tarbiyaviy jarayonning mazmuniy asosi sifatida e'tirof etiladi. K. Hoshimov va N. Saidahmedovlarning ilmiy izlanishlarida milliy an'ana, urf-odatlar hamda xalq pedagogikasi vositalaridan foydalanish bolalarda ijtimoiy moslashuv, axloqiy me'yorlar va milliy ongni shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan[6]. Mualliflar milliy tarbiyani tashkil etishda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Maktabgacha ta'lim sohasiga oid tadqiqotlarda katta yoshdagi bolalar tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati alohida qayd etiladi.

Jumladan, M. Qurbonova olib borgan tadqiqotlarda ertaklar, maqollar va milliy o'yinlar bolalarda mehr-oqibat, hurmat hamda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda samarali vosita ekanligi ilmiy dalillar bilan asoslangan[7].

D. Yo'ldoshevaning ishlarida esa milliy bayram va marosimlarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash bolalarning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan[8].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarini tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish masalasi yetarli darajada kompleks yoritilmagan. Ko'plab tadqiqotlarda asosan nazariy yondashuv ustuvor bo'lib, amaliy mexanizmlar hamda texnologik modellarni ishlab chiqish yo'nalishi kengaytirishni talab etadi. Ushbu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarining samaradorligini aniqlash maqsadida ilmiy-pedagogik metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, quyidagi metodlar qo'llanildi.

Birinchidan, nazariy tahlil metodi mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish hamda umumlashtirish uchun qo'llanildi.

Ikkinchidan, kuzatish metodi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy xulq-atvori, o'zaro munosabatlari va tarbiyaviy mashg'ulotlardagi faolligini aniqlashda foydalanildi.

Uchinchidan, suhbat metodi tarbiyachilar va ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar orqali milliy qadriyatlarning tarbiyaviy jarayondagi o'rni va ahamiyatini o'rganishga xizmat qildi.

To'rtinchidan, pedagogik tajriba-sinov metodi milliy qadriyatlarga asoslangan mashg'ulotlar, ertaklar, milliy o'yinlar va an'anaviy tadbirlarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali ularning samaradorligini baholash maqsadida qo'llanildi.

Shuningdek, tahlil va taqqoslash metodi tajriba natijalarini umumlashtirish hamda ularni dastlabki holat bilan solishtirish asosida ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta'minlash va ularning amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarining yuqori samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida milliy an'ana, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda milliy bayramlarga asoslangan mashg'ulotlar bolalarning axloqiy xulq-atvori va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Kuzatishlar natijasida tajriba guruhidagi bolalarda o'zaro hurmat, kattalarga ehtirom, tengdoshlariga nisbatan mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlarning shakllanish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq ekani qayd etildi.

Xususan, milliy ertaklar va maqollar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda yaxshilik va yomonlikni farqlash, axloqiy xatti-harakatlarni ongli ravishda anglash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu holat xalq pedagogikasining tarbiyaviy salohiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida milliy o'yinlar va marosimlardan foydalanish bolalarning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatgani kuzatildi. Ayniqsa, jamoaviy faoliyatga asoslangan milliy o'yinlar bolalarda hamkorlik, mas'uliyat hamda o'zini tutish madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyaviy jarayonda milliy qadriyatlarni tizimli va maqsadli qo'llash bolalarning faolligini oshirib, ularni tarbiyaviy faoliyatga jalb etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Suhbat va so'rovnoma natijalariga ko'ra, tajribada ishtirok etgan tarbiyachilar milliy qadriyatlarga asoslangan texnologi-

6 Hoshimov K., Saidahmedov N. Pedagogika tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2011.
7 Qurbonova M. Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2018.
8 Yo'ldosheva D. Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash metodikasi. – Toshkent, 2020.

yalar bolalarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladilar. Ota-onalar esa bunday yondashuv natijasida bolalarda milliy urf-odatlarga hurmat va oilaviy qadriyatlarga e'tibor kuchayganini qayd etdilar. Bu holat tarbiya jarayonining uzluksizligi hamda oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar mavjud ilmiy qarashlarni tasdiqlabgina qolmay, ularni amaliy jihatdan boyitadi. Agar avvalgi tadqiqotlarda milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati asosan nazariy jihatdan yoritilgan bo'lsa, mazkur tadqiqotda ularni maktabgacha ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida joriy etishning aniq mexanizmlari sinovdan o'tkazildi. Natijalar milliy qadriyatlarga tayangan tarbiyaviy texnologiyalar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda barqaror axloqiy fazilatlarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirish, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy muhitni shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy tadqiqot maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalarining pedagogik samaradorligini aniqlashga yo'naltirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyaviy jarayonda milliy an'ana, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi hamda milliy bayramlarga tizimli va maqsadli yondashuv asosida murojaat qilish bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy xulq-atvori, o'zaro munosabatlari va ma'naviy dunyosida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirgani aniqlandi. Xususan, bolalarda kattalarga hurmat, tengdoshlariga mehr-oqibat, jamoada o'zini tutish madaniyati hamda milliy urf-odatlarga nisbatan qiziqishning ortgani kuzatildi. Bu holat milliy qadriyatlarga tayangan tarbiyaviy texnologiyalar maktabgacha yosh davrida yuqori tarbiyaviy salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarga asoslangan texnologiyalardan foydalanish nafaqat bolalarning shaxsiy kamolotiga, balki jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayonni yanada samarali tashkil etishda ishonchli ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Hoshimov K. Milliy tarbiya va pedagogik tafakkur. – Toshkent: Fan, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.
4. Forobiy A. N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.
6. Hoshimov K., Saidahmedov N. Pedagogika tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2011.
7. Qurbonova M. Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2018.
8. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. – Toshkent, 2010.
9. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2013.
10. Boboyeva D. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish // Ilmiy to'plam. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – B. 103–105.

TIL TA'LIMINING HOZIRGI HOLATI

Kushkarbekova Marjan Usenovna
Navoiy davlat universiteti Qozoq tili va adabiyoti kafedrasi
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilni o'qitish jarayonida til va lingvistik hodisalarga, jumladan grammatik qoidalarga urg'u berilishi, nutqni o'qitish esa muayyan yozma janrlar bilan tanishtirish hamda ta'lim faoliyatining keyingi bosqichlarida bevosita ehtiyojlarga mos keladigan matn turlarini (insholar, xulosalar va boshqalar) o'zlashtirishga yo'naltirilishi masalalari yoritilgan. "Til ta'limi" sohasi ona tilini o'qitish va ikkinchi tilni o'qitishni qamrab olishi, ushbu yo'nalishlar mustaqil ta'lim sohalari sifatida nisbatan alohida rivojlanib kelayotgani asoslab berilgan. Shuningdek, madaniyatshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar lingvodidaktika sohasiga sotsiomadaniy kompetensiya, ko'p madaniyatli lingvistik shaxsiyat, madaniyatlar va sivilizatsiyalar muloqoti, dunyoqarash kabi yangi tushunchalarni olib kirayotgani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: til va madaniyat, ijtimoiy muhit, ta'lim, lingvistika, sotsiologiya, metodologiya.

Abstract: This article examines the idea that language teaching primarily focuses on linguistic phenomena, including grammatical rules, whereas speech teaching involves familiarization with specific written genres and the acquisition of particular types of texts (essays, summaries, etc.) that correspond to the immediate needs of the subsequent stage of educational activity. The field of language education encompasses both mother tongue teaching and second language teaching, which function as relatively independent educational domains. It is emphasized that research in cultural studies introduces new concepts into linguodidactics, such as sociocultural competence, a multicultural linguistic personality, dialogue of cultures and civilizations, and worldview.

Key words: language and culture, social environment, education, linguistics, sociology, methodology.

Аннотация: В статье рассматривается положение о том, что обучение языку ориентировано преимущественно на языковые и лингвистические явления, в том числе на грамматические правила, тогда как обучение речи предполагает ознакомление с определёнными письменными жанрами и освоение конкретных типов текстов (эссе, резюме и др.), соответствующих непосредственным потребностям последующего этапа образовательной деятельности. Область "языкового образования" включает обучение родному языку и обучение второму языку, которые функционируют как относительно самостоятельные образовательные направления. Подчёркивается, что исследования в области культурологии вносят в лингводидактику такие понятия, как социокультурная компетенция, мультикультурная языковая личность, диалог культур и цивилизаций, мировоззрение и другие.

Ключевые слова: язык и культура, социальная среда, образование, лингвистика, социология, методология.

KIRISH

Ta'lim – bu ijtimoiy tajribani qayta tiklashni, uni bir avloddan ikkinchi avlodga, bir ijtimoiy guruhdan boshqa shaxslar jamoalariga uzatishni ta'minlaydigan ijtimoiy jarayondir. Bugungi kunda til o'rganishda sotsiomadaniy tushunchalarga keng tayanilmoqda. Bu elementlarning bir holatdan ikkinchisiga o'tkazilishi integratsiya yoki modellar asosida holatni tiklash orqali amalga oshiriladi. O'rganish jamiyat tarixida qayta tiklash jarayonidagi bo'shliqni to'ldirish vositasi sifatida paydo bo'ladi, bunda til va tarjima faoliyatining oddiy shakllari, ya'ni odamlarning o'zlari – bu faoliyatning tashuvchisi sifatida – bir ishlab chiqarish faoliyatidan boshqasiga o'tishi yoki mahsulotlarni uzatishi imkonsiz bo'lib qoldi. Lingvodidaktikada muhokama qilinadigan ijtimoiy masalalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: jamiyatning ijtimoiy mandati, til o'rganishga jamiyatning ehtiyojlari, talablari va kutganlari, o'rganishga oid qarashlar tizimi, shu jumladan ilmiy qarashlar tizimi.

"Til ta'limi" sohasi ikkita yo'nalishni qamrab oladi: ona tilini o'qitish va ikkinchi tilni o'qitish. Bu yo'nalishlar ikkita mustaqil ta'lim sohasi sifatida ancha yakka holda mavjud bo'lgan va hozirgi kungacha mavjud bo'lib kelmoqda. Ularning har biri o'z an'analari, tarixi va ustuvor yo'nalishlariga ega. Ikkinchi tilni o'qitish muloqot ta'limida, ya'ni nutqda va nutq ta'limi bilan birgalikda tilni o'qitishda kuchli metodologik rivojlanishni o'z ichiga

oladi. Tilni o‘qitish til va lingvistik hodisalarga, jumladan grammatik qoidalarga urg‘u beradi, nutqni o‘qitish esa ma’lum yozma janrlar bilan tanishtirish va odatda ta’lim faoliyatining keyingi bosqichining bevosita ehtiyojlariga mos keladigan muayyan matn turlarini (insholar, xulosalar) o‘zlashtirishdan iborat. Bu jarayon oliy yoki o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalariga qabul qilish bilan bog‘liq holda tashkil etiladi.

Zamonaviy dunyoda ushbu ikki avtonom sohani yagona sohaga birlashtirish tendensiyasi rivojlanmoqda. Birinchidan, ona tili va ona tili bo‘lmagan tillar nutq faoliyati vositasi sifatida o‘z faoliyatida bir xil mexanizmlarni namoyon etadi. Bu holat o‘rganishni integratsiyalashga xizmat qiladi hamda talabalarga ona tili bo‘lmagan tilni o‘rganishda ona tilidagi nutq tajribasidan samarali foydalanishga yordam beradi. Ona tili bo‘lmagan tillarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘z kashfiyotlarini ona tiliga ham qo‘llashlari, unda yangi resurslarni kashf etishlari mumkin. Oliy kasbiy ta’lim davlat standartining eng so‘nggi avlodida mutaxassis uchun asosiy kompetensiyalar ro‘yxati bir nechta tillarda og‘zaki va yozma muloqot bilan bog‘liq kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Til ta’limi masalalari o‘zbek tilshunosligi va metodikasi doirasida uzoq yillardan buyon izchil o‘rganib kelinmoqda. S. Nazarova tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” asarida ona tilini o‘qitish jarayoni lingvistik bilimlar, grammatik tushunchalar va ularni amaliy nutq faoliyati bilan bog‘lash asosida yoritilgan. Muallif tilni o‘qitishda tizimlilik va izchillik tamoyillariga tayangan holda, o‘quvchilarda til birliklarini ongli o‘zlashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv hozirgi zamon til ta’limida ham metodik asos sifatida ahamiyatini saqlab qolmoqda.

A. Nurmonov va B. Yuldoshevning “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” nomli o‘quv qo‘llanmasida til hodisalarini fanlararo yondashuv asosida talqin qilish masalalariga e’tibor qaratilgan. Mualliflar tilni faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy muhit bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida izohlaydi. Bu qarashlar til ta’limida sotsiomadaniy yondashuvni kuchaytirish, til o‘rganishni real kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘lash zarurligini asoslaydi.

Til va nutq munosabatlarini tadqiq etishda A. A. Leontyevning nutqiy vaziyat haqidagi qarashlari muhim metodologik ahamiyatga ega. U nutqni kommunikativ jarayon sifatida baholab, til o‘rganish samaradorligi nutqiy vaziyatlarni hisobga olish bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, N. I. Gez, M. V. Lyaxovitskiy va A. A. Mirolyubovlar tomonidan ishlab chiqilgan xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi til ta’limida kommunikativ yondashuvni shakllantirishga xizmat qilgan. Ushbu ilmiy qarashlar zamonaviy til ta’limining nazariy va metodik asoslarini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda til ta’limining hozirgi holatini o‘rganish maqsadida nazariy va empirik ma’lumotlarni yig‘ish hamda tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar til ta’limi, lingvodidaktika va sotsiomadaniy yondashuvga oid ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish orqali olindi. Shuningdek, mavjud o‘quv dasturlari, darsliklar va metodik qo‘llanmalardagi til va nutqni o‘qitishga doir yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ona tili va ikkinchi tilni o‘qitish metodikalarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar mantiqiy tahlil va umumlashtirish asosida qayta ishlanib, zamonaviy til ta’limida ustuvor bo‘lgan integrativ, kommunikativ va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari mavjud nazariy qarashlarni tizimlashtirish hamda ularni til ta’limi amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda til ta’limida to‘rtta asosiy tendensiya shakllangan. Ularning har biri to‘rtta ta’lim qadriyatini aks ettiradi: shaxsning ustuvorligi, o‘rganishning kommunikativ tabiati, ta’lim jarayonining asosiy mazmuni sifatida faoliyat va fanning mazmuni sifatida madaniyatning ahamiyat kasb etishi. Biroq ushbu tendensiyalarning har biri mazkur jihatlardan birini ustuvor deb biladi hamda o‘quv natijalari, o‘quv qo‘llanmalari va texnologiyalar ko‘rinishida o‘ziga xos fikrlash maktablari va shakllangan amaliyotlarga ega. Quyida ushbu tendensiyalarning har biriga qisqacha tavsif beriladi.

G. A. Kitaygorodskayaning shaxslar va ularning salohiyatini faollashtirish usuli o‘quv faoliyatini tashkil etishda kommunikativ yondashuvga asoslanib, ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan muloqotga urg‘u beradi. 1980-yillarda ushbu usul xorijiy tillarni o‘qitishda intensiv yondashuvning shakllanishiga yo‘l ochdi. Shaxsga yo‘naltirilgan muloqotda o‘rganishning asosiy yo‘nalishi shaxsga faoliyat subyekti, rivojlanayotgan shaxs sifatida qaratiladi. Bunda har qanday fan – chet tili, matematika, ona tili va adabiyoti, geografiya va boshqalar – dunyoni anglash, shaxsning o‘zini jamiyatda rivojlantirishi va dunyoqarashini kengaytirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv shaxsga bo‘lgan ishonchga asoslanib, o‘quvchilarning asosiy ehtiyojla-

rini hisobga oladi, o‘rganish jarayonida har bir shaxsning psixologik huquqlarini, jumladan xato qilish huquqini hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi hamda o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qilgan va faoliyat natijalari uchun mas’ul bo‘lgan sharoitda ijodiy o‘zini ifoda etishga qodir ekanligiga tayanadi.

Madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar lingvodidaktika faniga sotsiomadaniy kompetensiya, ko‘p madaniyatli lingvistik shaxsiyat, madaniyatlar va sivilizatsiyalar muloqoti, dunyoqarash kabi yangi tushunchalarni olib kirdi. Sotsiolingvistik madaniyat til o‘qitish mazmuni sifatida ona tili va ona tili bo‘lmagan tillar bilan bog‘liq bir qator masalalarni qamrab oladi, jumladan madaniyat tushunchasi, madaniyatning o‘qitish mazmunidagi o‘rni, madaniy mazmunni ta’lim tizimining dinamik tarkibiy qismiga aylantirish, ya’ni uni ko‘nikma va malakalar hamda kompetensiyalar darajasiga tarjima qilish masalalari muhokama qilinadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogika inson uchun ta’lim jarayonining asosiy mazmuni madaniyatni o‘zlashtirish jarayoni ekanligi, shuningdek, shaxsning madaniy-tarixiy tuzilma va madaniy-tarixiy makon doirasida rivojlanishi haqidagi g‘oyani aks ettiradi. L. S. Vigotskiyning fikricha, bu jarayon “madaniy belgilar orqali o‘zini ijtimoiy tizim sifatida egallash” bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogika ontologiyasi insonlarning o‘zlari va boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatish jarayonidagi faoliyatini tan olishga asoslanadi. Mazkur yo‘nalishga kompetensiyaga asoslangan yondashuv ham kiradi, bunda olingan bilimlarni hayotda va professional jihatdan muhim vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiruvchi faoliyatlarga ustuvor ahamiyat beriladi. Ushbu yondashuvning asosiy tushunchasi kompetensiya hisoblanadi.

Kompetensiya quyidagicha ta’riflanadi:

- professional yoki boshqa faoliyatni samarali amalga oshirishni ta’minlaydigan umumlashtirilgan harakat usuli bo‘lib, uning asosi faoliyat bilan bog‘liq qobiliyatlardan iborat;
- professional muammolarni hal etishda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyati va xohishi;
- biror faoliyatni samarali bajarish qobiliyati;
- professional faoliyatni amalga oshirishni osonlashtiradigan bilim va ko‘nikmalar majmui.

Nutq janri kategoriyasi ushbu tadqiqot uchun muayyan janrni amalga oshirishda qo‘llaniladigan lingvistik vositalarning o‘zgaruvchanligi bilan alohida qiziqish uyg‘otadi. Nutq janrlarini o‘rganish muammosini birinchi bo‘lib M. M. Baxtin ilgari surgan. U nutq janrlarini universal kommunikativ birliklar sifatida baholab, “nutq janrlarining boyligi va xilma-xilligi cheksizdir, chunki inson faoliyatining imkoniyatlari cheksiz bo‘lib, inson faoliyatining har bir sohasi nutq janrlarining butun repertuarini shakllantiradi; bu repertuar soha rivojlanib, murakkablashgan sari farqlanib, kengayib boradi”, deb ta’kidlaydi. Sotsiolingvistikada tilning quyidagi variantlari an’anaviy ravishda ajratib ko‘rsatiladi: dialekt (ma’lum geografik hududda keng tarqalgan), sotsiolekt (ma’lum ijtimoiy guruhga xos), standart til (ta’lim va rasmiy muloqot uchun me’yorlashtirilgan), idiodialekt (muayyan shaxs tomonidan qo‘llaniladigan til) hamda professional tillar yoki jargonlar (muayyan faoliyat va kasblarda muhim leksik yoki grammatik farqlarga ega). Dialekt odatda kundalik va diniy muloqot doirasida cheklangan turli kommunikativ vaziyatlarga ega bo‘lgan lingvistik hodisa sifatida talqin etiladi. Ayrim kontekstlarda dialekt atamasi kamroq baholovchi ma’noda ham qo‘llaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy til ta’limi jarayoni til va nutqni o‘qitishning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan murakkab pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari tilni o‘qitish jarayonida lingvistik hodisalarga, xususan grammatik qoidalarga e’tibor qaratilishi, nutqni o‘qitishda esa yozma va og‘zaki janrlar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Ona tilini o‘qitish va ikkinchi tilni o‘qitish tarixan mustaqil sohalar bo‘lib shakllangan bo‘lsa-da, hozirgi davrda ularni integratsiyalash zarurati ortib bormoqda. Shu munosabat bilan til ta’limida integrativ, sotsiomadaniy va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning til tajribasidan samarali foydalanishiga, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda shaxsning lingvistik va ijtimoiy rivojini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazarova S. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992.
2. Nurmonov A., Yuldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar: o‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq, 2001.
3. Леонтьев А. А. К определению речевой ситуации // Общая методика обучения иностранным языкам: хрестоматия / сост. А. А. Леонтьев. – М.: Русский язык, 1991. – С. 161–162.
4. Методика обучения иностранным языкам в средней школе / Н. И. Гез, М. В. Ляховицкий, А. А. Миролюбов и др. – М.: Высшая школа, 1982. – 373 с.

TALABALARNING IJODIY RIVOJLANISHIDA KRETIVLIKNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Alimova Gulchehra Qobilovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Amaliy psixologiya” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu tezisda talabalarda kreativlikni rivojlantirishning psixologik mazmuni, kreativlik tushunchasining mohiyati va mazmuni yoritilgan. Talabalarning ijodiy rivojlanishida kreativlikning asosiy yo‘nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularni samarali shakllantirish shartlari asoslab berilgan. Shuningdek, ijodiy rivojlanish jarayonida kreativlik va intellekt o‘rtasidagi farqlarning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: konstruktiv fikrlash, innovatsion fikrlash qobiliyati, stereotiplarni yengish, intellektual o‘sish, faollik, ijodiy rivojlanish, bo‘lg‘usi pedagoglik faoliyatida kreativlik, shaxsning ijodiy resurslarini faollashtirish.

Abstract: This paper examines the psychological aspects of developing creativity in students and clarifies the essence and content of the concept of creativity. The main directions of creativity in students’ creative development are analyzed from a scientific and theoretical perspective, and the conditions for their effective formation are substantiated. In addition, the specific features of the differences between creativity and intelligence in the process of creative development are highlighted.

Key words: constructive thinking, innovative thinking ability, overcoming stereotypes, intellectual growth, activity, creative development, creativity in future pedagogical activity, activation of personal creative resources.

Аннотация: В данной работе раскрывается психологическое содержание развития креативности у студентов, а также сущность и содержание понятия креативности. Основные направления креативности в творческом развитии студентов проанализированы с научно-теоретических позиций и обоснованы условия их эффективного формирования. Кроме того, показаны специфические особенности различий между креативностью и интеллектом в процессе творческого развития личности.

Ключевые слова: конструктивное мышление, инновационная способность мышления, преодоление стереотипов, интеллектуальный рост, активность, творческое развитие, креативность в будущей педагогической деятельности, активизация творческих ресурсов личности.

KIRISH

Oliy o‘quv yurtlarida talabalarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat kasbiy sifatlar va amaliy ish ko‘nikmalarini shakllantirishni, balki ularda kreativlik, ya’ni ijodkorlikni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Kreativlik (lotincha creatio – “yaratish”) shaxsning g‘ayrioddiy g‘oyalarni ilgari surish, o‘ziga xos yechimlar topish hamda an’anaviy fikrlash shakllaridan chetga chiqish qobiliyatini ifodalaydi. Ijodkorlik ijodiy shaxsning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u faqat bilimlar majmuasi bilan cheklanmaydi.

Kreativlik shaxsda chuqur o‘rnashgan barqaror sifat bo‘lib, u konstruktiv va nostandart fikrlash hamda xulq-atvor qobiliyatini belgilaydi. Mazkur sifat shaxsning yangi g‘oyalarni kashf etishga intilishi va mavjud stereotiplarni faol ravishda yengib o‘tishga yo‘naltirilganligi bilan boshqa xususiyatlardan ajralib turadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativlik muammosini tadqiq etish va rivojlantirishga rus psixolog olimlaridan S. T. Rubinshteyn, Ya. A. Ponomarev, D. B. Bogoyavlenskaya va V. V. Moroz, xorijiy olimlardan J. Gilford, E. P. Torrens, S. Mednik, R. Mey, A. Maslou hamda K. Rojers, shuningdek, o‘zbek psixolog olimlaridan M. G. Davletshin, Z. T. Nishonova, E. G‘. G‘oziev va V. A. Tokaryeva o‘zlarining ilmiy izlanishlari orqali salmoqli hissa qo‘shganlar.

Zamonaviy psixologiya-pedagogika fanida kreativlik shaxsiy kategoriya sifatida divergent fikrlashning namoyon bo‘lishi, intellektual faoliyatni yangilash hamda integratsiyalashgan shaxs sifati bilan tavsiflanadi. Ushbu yondashuvlar kreativlikni shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida talqin etishga imkon beradi va ta’lim jarayonida ijodiy salohiyatni maqsadli ravishda shakllantirish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ko‘rib chiqilayotgan muammoning metodologik asoslarini gumanistik terapiyaning yetakchi tamoyillari va pedagogik yondashuvlar tashkil etadi; bu borada A. Maslou va R. Mey qarashlari, badiiy ijodga doir tadqiqotlarda L. S. Vigotskiy hamda A. V. Bakushinskiy ishlari, ijodiy shaxsni rivojlantirish masalalarida D. B. Bogoyavlenskaya, Ya. A. Ponomarev, J. Guilford va E. P. Torrens g‘oyalari, shuningdek, badiiy pedagogika doirasida G. Rid, S. A. Gerasimova, G. M. Tsypina va B. M. Nemenskiy qarashlari, F. Perlsning geshtalt-terapevtik yondashuvi hamda J. Enright va K. Vilberning integral pedagogika va psixologiya tizimi muhim nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni kasbiy tayyorlash jarayoni kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga, o‘quv faoliyatining turli shakllari orqali ijodkorlikni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Kreativlikka oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar oliy kasbiy ta’lim va ijodiy rivojlanish muammolari bilan bog‘liq zamonaviy izlanishlar natijalariga tayanadi hamda insonparvarlik pedagogikasi tamoyillari, rivojlantiruvchi ta’lim tizimi qoidalari va madaniy jihatdan javob beradigan ta’lim konsepsiyalari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonida talaba shaxsining kreativ rivojlanishi ijodiy resurslarni faollashtirishga yo‘naltirilgan qulay sharoitlar yaratilgan taqdirdagina eng samarali natija beradi. Kreativlikning barqaror shaxs xususiyati sifatida shakllanishi ichki omillar, ya’ni shaxsning o‘z ijodiy imkoniyatlarini qadrlashi, ijodiy jarayonga ijobiy munosabati, rivojlangan intellektual funksiyalari, o‘ziga ijobiy munosabati, mustaqillik, qat’iyatlilik va tavakkal qilishga tayyorlik kabi sifatlar, shuningdek, muammolilik, noaniqlik, qabul qilish va hukm qilmaslik bilan tavsiflanadigan ijodiy muhit kabi tashqi omillar bilan belgilanadi. Kreativlik hodisasini o‘rganishda kognitiv va shaxsga yo‘naltirilgan yo‘nalishlar ajratiladi: kognitiv yondashuv ijodkorlikni kognitiv jarayonlar bilan bog‘lab, ijodiy jarayonning bosqichlari, darajalari va turlarini tahlil etsa, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ijodkor shaxsning motivatsion, hissiy va ijtimoiy-rol xususiyatlarini hamda o‘zini o‘zi anglash bilan bog‘liqligini ochib beradi.

“Kreativlik” tushunchasi “ijodkorlik” bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ijodkorlik yangi natijalarni yuzaga keltiradigan jarayon sifatida talqin etilsa, kreativlik shaxsning ichki resursi, stereotipik yondashuvlardan voz kechish hamda muammolarga yangicha yechimlar topish qobiliyati sifatida izohlanadi; shu bois u konstruktiv va innovatsion fikrlash hamda xulq-atvorni belgilovchi muhim sifatdir. Kreativlik va tafakkur o‘rtasidagi farqlar masalasiga birinchi bo‘lib J. Guilford e’tibor qaratib, divergent va konvergent tafakkur o‘rtasidagi tafovutlarni asoslab berdi; uning ta’kidlashicha, konvergent fikrlash yagona to‘g‘ri yechimni topishga yo‘naltiriladi. Ushbu yo‘nalishni E. P. Torrens izchil davom ettirib, kreativlikni kamchiliklar, bilimlardagi bo‘shliqlar va uyg‘unlikni idrok etish qobiliyati sifatida talqin qildi. Kreativlik va intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlikka doir ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aql-zakovatning yuqori darajasi, odatda, kreativlikning ham yuqori darajada rivojlanishini nazarda tutadi; bu xulosalar L. Termen va K. Kokslarning empirik izlanishlari, xususan, Stenford–Bine shkalasi asosida olingan natijalar bilan tasdiqlanadi, chunki intellektni baholashda kreativ yutuqlar ham inobatga olingan va shu bois IQ hamda kreativlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida yuqori darajadagi bog‘liqlik aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalar kreativligini rivojlantirishga oid nazariy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalishda olib borilgan psixologik, pedagogik va ilmiy-metodik izlanishlar talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ijodiy rivojlanishning nazariy asoslarini aniqlash imkonini beradi; bu asoslar bilim va tajribani integratsiyalash, nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash hamda kasbiy muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, talabalarning kelajak kasbini qabul qilish va o‘zlashtirishga tayyorlik darajasini inobatga olgan holda kreativ rivojlanishning asosiy mezonlari sifatida ijodiy muammolarni noodatiy hal etish, yangi tajribalarga ochiqlik, ijodiy salohiyatning o‘sishi, empatiya, havotirning past darajasi, hazil tuyg‘usi hamda o‘quv jarayoniga qiziqish ajratib ko‘rsatiladi. O‘rganilayotgan fan doirasida bilimlarni chuqurlashtirish, mustaqil ish ko‘nikmalarini rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish va dars jarayonida o‘zlashtirilgan texnologiyalarni o‘quv amaliyotiga joriy etishga yo‘naltirilgan talabalar kreativligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish mumkin.

O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalari talabalarda kreativlikni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirishini, kreativ fikrlashni qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti, mustaqil ishlarga yo‘naltirilgan topshiriqlar va muammoli vaziyatlar esa ularning ijodiy faolligini kuchaytirishini ko‘rsatadi; shuningdek, kreativlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar yangi g‘oyalar taklif etish, muammolarga noodatiy yechim topish va o‘quv jarayoniga qiziqish bildirishda yanada faolroq ekani aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kreativlikni rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Kreativlik shaxsning nafaqat bilim darajasini, balki muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash, yangicha yondashuvlarni izlab topish hamda innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini ham belgilaydi. Ta’lim jarayonida ijodiy muhitni shakllantirish, talabalarning faolligini rag‘batlantirish va mustaqil ishlar ulushini oshirish orqali ularning ijodiy salohiyatini samarali rivojlantirish mumkin. Shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish kreativ fikrlashning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalarida kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashg‘ulotlar, treninglar va muammoli topshiriqlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchilar tomonidan innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, interfaol metodlarni qo‘llash hamda talabalarni loyiha va tadqiqot faoliyatiga jalb etish ularning ijodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda empirik tadqiqotlar o‘tkazish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish ta’lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рубинштейн С. Т. Основы общей психологии. – М.: АСТ, 2019. – 960 с.
2. Семенов И. Н. Взаимодействие А. П. Пономарева и М. Г. Ярошевского в развитии психологии творчества и рефлексии // Психологический журнал. – 2015. – Т. 36. – № 6. – С. 45–54.
3. Мороз В. В. Развитие креативности студентов. – Оренбург: Оренбургский госуниверситет, 2011. – 220 с.
4. Мынбаева А. К., Тихомирова В. Т., Вишневская А. В. Развитие интеллектуальных способностей студентов университета как фактор повышения интеллектуального потенциала Казахстана: монография. – 2015. – 191 с.
5. Мынбаева А. К., Вишневская А. В., Галимова Н. Р. Креативность и творческие способности личности: теории, принципы и карты развития: монография. – Алматы: Қазақ университеті, 2016. – 165 с.
6. Кукубаева А. Х., Кульжанова С. А. Профессиональная компетентность и педагогическое мастерство учителя // Наука и реальность. – 2020. – № 2. – С. 47–51.
7. Петрушин В. И. Развитие творческих способностей: учебное пособие. – М.: Юрайт, 2019. – 173 с.
8. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления. – М.: Прогресс, 1965. – 14 с.
9. Никитин О. Д. Развитие креативности как основа профессиональной подготовки студентов педагогических вузов: автореф. дис. … канд. пед. наук: 13.00.08 / Никитин Олег Денисович; [Место защиты: Ин-т худож. образования Рос. акад. образования]. – М., 2009. – 22 с.

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA YOZMA NUTQNING AHAMIYATI

Safarova M. A.
Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya: "Xorijiy tillarni o'rganishda yozma nutqning ahamiyati" zamonaviy lingvistika va til pedagogikasi sohasida muhim o'rin egallaydi. Yozma nutq til o'rganish jarayonida nafaqat grammatika va lug'at boyligini mustahkamlash, balki fikrlarni izchil va tartibli ifodalash hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Maqolada yozma nutqning o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni oshirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, shuningdek, kommunikativ ko'nikmalarni chuqurlashtirishdagi roli yoritilgan. Shu bilan birga, yozma nutq mashqlarining turli metodik usullari, jumladan, insho yozish, qisqa matnlar tuzish va rasm asosida hikoya qilish kabi faoliyatlarning til o'rganish jarayonini samarali tashkil etishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Mazkur maqola xorijiy til o'qituvchilari va talabalar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga, shuningdek, tilni o'rganishda integrativ yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, yozma nutq, til o'rganish, lug'at boyligi, grammatik qoidalar, lingvistik kompetensiya, imlo va yozuv, lingvistik ko'nikmalar, diskursiv kompetensiya, sotsiokultural kompetensiya, strategik kompetensiya, kundalik yozish.

Abstract: "The importance of written speech in learning foreign languages" occupies an important place in the field of modern linguistics and language pedagogy. In the process of language learning, written speech serves not only as a means of strengthening grammatical knowledge and vocabulary but also as a tool for developing logical thinking and the coherent, systematic expression of ideas. The article highlights the role of written speech in increasing students' interest in language learning, fostering independent thinking, and deepening communicative skills. At the same time, the significance of various methodological approaches to written speech practice–such as essay writing, composing short texts, and storytelling based on pictures–in enhancing the effectiveness of the language learning process is emphasized. This article aims to develop practical guidelines for foreign language teachers and learners, as well as to promote an integrative approach to language learning.

Key words: foreign language, written speech, language learning, vocabulary, grammar rules, linguistic competence, spelling and writing, linguistic skills, discursive competence, sociocultural competence, strategic competence, daily writing.

Аннотация: "Важность письменной речи в изучении иностранных языков" занимает значимое место в области современной лингвистики и языковой педагогики. Письменная речь в процессе изучения языка выступает средством не только укрепления грамматических знаний и словарного запаса, но и развития логического мышления, а также системного и последовательного выражения мыслей. В статье раскрывается роль письменной речи в повышении интереса учащихся к языку, формировании самостоятельного мышления и углублении коммуникативных навыков. Одновременно подчеркивается значение различных методических упражнений по развитию письменной речи, таких как написание эссе, составление кратких текстов и рассказывание историй на основе иллюстраций, в повышении эффективности процесса изучения языка. Данная статья направлена на разработку практических рекомендаций для преподавателей и студентов, изучающих иностранные языки, а также на развитие интегративного подхода к обучению языку.

Ключевые слова: иностранный язык, письменная речь, изучение языка, лексика, правила грамматики, лингвистическая компетенция, орфография и письмо, языковые навыки, дискурсивная компетенция, социокультурная компетенция, стратегическая компетенция, ежедневное письмо.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish shaxsning kasbiy va shaxsiy rivoji uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy tilni mukammal egallash jarayonida tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi to'rt asosiy nutq faoliyati turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'nikmalar orasida yozma nutq

alohida o‘rin tutadi, chunki u o‘rganuvchining til bilimini chuqurroq, tizimli va ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Yozma nutq xorijiy tilni o‘rganishda nafaqat bilimlarni mustahkamlash vositasi, balki fikrni mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmasini rivojlantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu ishda yozma nutqning mohiyati, xorijiy tillarni o‘rganishdagi o‘rni, ahamiyati va uni rivojlantirish yo‘llari keng yoritiladi. Yozma nutq – bu shaxsning o‘z fikrlarini yozma shaklda grammatik jihatdan to‘g‘ri, mantiqan izchil va mazmunan aniq ifodalash jarayonidir. U tilning leksik, grammatik va uslubiy vositalarini ongli ravishda qo‘llashni talab etadi.

Xorijiy tilni o‘rganishda yozma nutq o‘rganuvchiga til strukturasi va qonuniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Aynan yozish jarayonida o‘quvchi o‘z xatolarini anglaydi va ularni tahlil qilish orqali tilni ongli ravishda o‘zlashtiradi. Yozma nutq xorijiy tilni o‘rganish jarayonida asosiy o‘quv vositalaridan biri hisoblanadi. U quyidagi jihatlar orqali muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, yozma nutq grammatik bilimlarni mustahkamlaydi. O‘quvchi yozish jarayonida zamonlar, gap tuzilishi, so‘z tartibi va kelishiklarni amalda qo‘llaydi. Bu esa nazariy bilimlarning amaliy ko‘nikmaga aylanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, yozma nutq lug‘at boyligini oshiradi. Matn tuzish jarayonida yangi so‘z va iboralarni qo‘llash zarurati tug‘iladi, bu esa so‘zlarni faol lug‘atga kiritishga yordam beradi.

Uchinchidan, yozma nutq fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchi fikrini yozma shaklda bayon etish uchun uni rejalashtiradi, tahlil qiladi va mantiqiy ketma-ketlikka soladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida yozma nutqni rivojlantirish masalasi ko‘plab mahalliy tadqiqotchilar tomonidan muhim komponent sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Jalolov J. tomonidan ishlab chiqilgan chet tillarni o‘qitish metodikasi tizimida yozma nutq til kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida baholanadi. Muallif yozma mashqlar orqali grammatik bilimlarni mustahkamlash, so‘z boyligini kengaytirish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvda yozma nutq og‘zaki va o‘qish ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liq holda qaraladi.

Hoshimov O‘. va Yoqubov I. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yozma nutq ingliz tilini o‘rganishda kommunikativ yondashuvning muhim elementi sifatida talqin etiladi. Mualliflar yozma faoliyat o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish, til birliklarini ongli qo‘llash va nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita ekanini asoslab beradilar. Shuningdek, yozma nutq mashqlarining bosqichma-bosqich tashkil etilishi til o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

So‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida integrativ yondashuv masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xolmuradova L.E., Ergashova S., Raxmatova Z. va Norboyev A. tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlarda yozma nutqni rivojlantirish boshqa nutq faoliyati turlari bilan uyg‘un holda olib borilishi zarurligi ta’kidlanadi. Mualliflar yozma nutq orqali lingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarni shakllantirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab, zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish yozma faoliyat samaradorligini oshirishini ko‘rsatib beradilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yozma nutqning xorijiy tillarni o‘rganish jarayonidagi ahamiyatini aniqlash maqsadida nazariy va amaliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud pedagogik tajribalarni o‘rganish hamda xorijiy tilni o‘qitish jarayonida qo‘llanilayotgan yozma mashqlarni kuzatish orqali yig‘ildi. Shuningdek, o‘quvchilarning yozma ishlari tahlil qilinib, ularda grammatik to‘g‘rilik, lug‘at boyligi va fikrni izchil bayon etish darajasi aniqlashtirildi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy-tahliliy usul asosida umumlashtirildi va yozma nutqning lingvistik hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni baholandi. Tadqiqot jarayonida tahlil natijalari asosida yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar aniqlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy tillarni o‘rganishda yozma nutq kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. U quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Lingvistik kompetensiya – bu shaxsning muayyan til tizimini bilishi va undan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatidir. U tilning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan fonetika, leksika, grammatika va imlo qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Lingvistik kompetensiya tilni o‘rganish jarayonida shakllanadigan eng muhim kompetensiyalardan biri bo‘lib, u boshqa kommunikativ kompetensiyalar uchun asos vazifasini bajaradi. Lingvistik kompetensiya tushunchasi dastlab tilshunos olim Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u til egasining cheksiz miqdordagi gaplarni yaratish va tushunish qobiliyatini anglatadi. Xorijiy tillarni o‘rganishda lingvistik kompetensiya til birliklarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llashni ta’minlaydi. Lingvistik kompetensiya xorijiy tilni samarali o‘zlashtirishning asosi hisoblanadi. Ushbu kompetensiya rivojlanmagan holda to‘liq muloqotga kirishish qiyinlashadi. Yozma nutq mashqlari lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri bo‘lib, ular orqali o‘rganuvchi til qoidalarini ongli ravishda o‘zlashtiradi. Lingvistik kompetensiya xorijiy tilni o‘rganish jarayonida eng muhim tayanch kompetensiya hisoblanadi. U tilning barcha tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olgan holda, samarali muloqotning asosini yaratadi. Ayniqsa, yozma nutq lingvistik kompetensiyani shakllantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Diskursiv kompetensiya – matnni mantiqan bog‘lash, kirish, asosiy qism va xulosani shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalar majmuasidir. Bu shaxsning nutqni mantiqan, izchil va vaziyatga mos tarzda tashkil eta olish qobiliyatidir. U til birliklarini (so‘z, gap, matn) nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki ma’no va kontekstga mos holda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Diskursiv kompetensiya fikrlarning mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilinishini hamda gaplar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi. Matn tuzilishida kirish, asosiy qism va xulosa kabi qismlarni to‘g‘ri tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Nutqning vaziyatga, tinglovchiga va maqsadga mos bo‘lishini ta’minlaydi. Bog‘lovchi vositalardan foydalanishda, masalan, ammo, chunki, shuning uchun, natijada kabi so‘zlar orqali fikrlar bog‘lanadi. Hikoya, tavsif, munozara va tushuntirish kabi janrlarni to‘g‘ri qo‘llay bilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiokultural kompetensiya – yozma muloqotda madaniy me’yorlarga rioya qilish bilan bog‘liq kompetensiyadir. Bu shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy me’yorlarni tushunishi, ularga mos ravishda muloqot qilishi va xulq-atvorini boshqara olish qobiliyatidir. U insonning turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmatga asoslangan munosabatlar o‘rnatishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu kompetensiya an’analarda, urf-odatlarda, qadriyatlarda, milliy va umuminsoniy madaniyat elementlarida, til va nutq madaniyatida, muloqot qilish madaniyatida hamda jamoada ishlash jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Sotsiokultural kompetensiya ta’lim jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu kompetensiya chet tillarni o‘rganish jarayonida, pedagogik faoliyatda va globallashuv sharoitida shaxs kamolotini rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Agar talaba chet tilini bilsa-yu, lekin o‘sha til sohiblarining madaniyatini tushunmasa, muloqot jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Sotsiokultural kompetensiya esa bunday holatlarning oldini oladi.

Strategik kompetensiya – fikrni aniq ifodalash uchun turli yozma strategiyalardan foydalanish qobiliyatidir. Yozma nutq orqali o‘rganuvchi rasmiy va norasmiy uslubdagi matnlarni farqlashni, turli janrlarda (xat, insho, esse, hisobot) yozishni o‘rganadi. Yozma nutq boshqa nutq faoliyati turlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘qish jarayonida o‘quvchi yozma nutq uchun zarur bo‘lgan grammatik va leksik materialni o‘zlashtiradi. Tinglash va gapirish esa yozma nutqning mazmuniy asosini boyitadi. Masalan, o‘qilgan matn asosida insho yozish yoki tinglangan mavzu bo‘yicha fikr bildirish yozma va og‘zaki nutq integratsiyasini ta’minlaydi. Bu esa tilni kompleks o‘rganishga yordam beradi.

Xorijiy tillarni o‘rganishda yozma nutqni rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi. Kundalik yozish – bu insonning har kuni yoki muntazam ravishda o‘z hayoti, fikrlari, his-tuyg‘ulari, boshidan kechirgan voqealari va rejalari haqida yozib borishidir. Bu jarayon fikrlarni tartibga soladi, stressni kamaytiradi, o‘zini yaxshiroq tushunishga yordam beradi hamda yozish va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Qisqa insho va esselar yozish ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z fikrini aniq, tushunarli va mantiqli tarzda yozma ravishda bayon qilishga xizmat qiladi. Rasm yoki matn asosida fikr bayon qilish berilgan rasm yoki o‘qilgan matnni tahlil qilib, unga nisbatan o‘z fikrini yozma yoki og‘zaki tarzda ifodalashni anglatadi. Rasmiy va norasmiy xatlar yozish esa kimga va qanday maqsadda murojaat qilinayotganiga qarab turli uslubda xat tuzishni o‘z ichiga oladi. Rasmiy xatlar tashkilotlar, muassasalar yoki mansabdor shaxslarga yoziladi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, bloglar, elektron pochta va onlayn platformalar ham yozma nutqni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Yozma nutqni o‘rganishda ayrim qiyinchiliklar uchrashi mumkin. Masalan, grammatik xatolarning ko‘pligi, so‘z boyligining yetishmasligi, fikrni mantiqiy bayon qila olmaslik hamda ona tilining salbiy ta’siri (interferensiya). Bu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli mashqlar, xatolar ustida ishlash va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Yozma nutq insonning fikrini aniq, tartibli va mantiqiy ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu nutq kompetensiyasi orqali shaxs o‘ylagan fikrlarini qog‘ozga tushirishga majbur bo‘ladi. Bu esa muloqot va ta’lim jarayonida fikrlarni ancha aniqroq bayon qilishga yordam beradi, so‘z boyligi va grammatik bilimlarni yaxshilaydi, yozuv orqali so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi, stressni kamaytiradi va esda saqlash jarayonini yaxshilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yozma nutq xorijiy tillarni o‘rganishda muhim va ajralmas o‘rin egallaydi. U o‘quvchining grammatik bilimlarini mustahkamlaydi, lug‘at boyligini oshiradi hamda fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Yozma nutq orqali o‘rganuvchi o‘z fikrini aniq, mantiqli va madaniy jihatdan to‘g‘ri ifodalashni o‘rganadi.

Shu sababli xorijiy tilni o‘qitish jarayonida yozma nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, zamonaviy metod va texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qarori: https://lex.uz/docs/-2126032
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori: https://lex.uz/uz/docs/-5426736
3. Jalolov J. Chet tillarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012-y.
4. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003-y.
5. Xolmuradova L.E., Ergashova S., Raxmatova Z., Norboyev A. Methodology of Teaching Foreign Languages. – SamDCHTI, 2025-y.
6. Internet manbalari.

QORAQALPOQ SINFLARDA O'ZBEK TILI FANINI O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Venera Allashova Tanirberdievna
Taxtako'pir tumani 5-son ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitish jarayonining lingvodidaktik va kognitiv jihatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda qardosh tillar – qoraqalpoq va o'zbek tillari o'rtasidagi umumiylik hamda farqlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri ochib beriladi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuvning ahamiyati, til interferensiyasi muammolari, shuningdek, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi. Olingan natijalar qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili ta'limini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq sinflar, o'zbek tili, ikkinchi til, lingvodidaktika, til interferensiyasi, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: The article analyzes the linguodidactic and cognitive aspects of teaching the Uzbek language in Karakalpak classes based on a systemic approach. It examines the impact of similarities and differences between related languages–Karakalpak and Uzbek–on the effectiveness of teaching Uzbek as a second language. Particular attention is paid to the role of the communicative approach, issues of language interference, and the development of intercultural competence. The findings of the study contribute to improving the methodology of teaching Uzbek in Karakalpak-speaking classrooms.

Key words: Karakalpak classes, Uzbek language, second language, linguodidactics, language interference, communicative competence.

Аннотация: В статье анализируются лингводидактические и когнитивные аспекты преподавания узбекского языка в каракалпакских классах на основе системного подхода. Рассматривается влияние сходств и различий родственных языков – каракалпакского и узбекского – на эффективность обучения узбекскому языку как второму. Особое внимание уделяется значению коммуникативного подхода, проблемам языковой интерференции, а также вопросам формирования межкультурной компетенции. Результаты исследования направлены на совершенствование методики преподавания узбекского языка в каракалпакских классах.

Ключевые слова: каракалпакские классы, узбекский язык, второй язык, лингводидактика, языковая интерференция, коммуникативная компетенция.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ko'p tilli ta'lim muhitini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat tilining ijtimoiy hayotdagi o'rnini mustahkamlash maqsadida o'zbek tilini turli milliy guruhlar vakillariga samarali o'qitish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitish nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantirish, balki o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Qoraqalpoq va o'zbek tillarining genetik jihatdan yaqinligi o'qitish jarayonida muayyan qulayliklar yaratadi, biroq til interferensiyasi kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq sinflarda o'zbek tilini o'qitishning lingvodidaktik va kognitiv asoslarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Bugungi globallashuv va integratsiya jarayonlari sharoitida davlat tilini puxta egallagan shaxsni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ko'p millatli aholi yashashi ta'lim jarayonida til siyosatini puxta rejalashtirishni talab etadi. Ayniqsa, qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitish masalasi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ham ega.

Qoraqalpoq tilida ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun o'zbek tili davlat tili sifatida muhim kommunikativ vosita bo'lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati va jamiyatdagi faolligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarni joriy etish zarur.

Qoraqalpoq va o‘zbek tillarining qardoshligi o‘quvchilar uchun qulay sharoit yaratadi, biroq bu holat ayrim hollarda salbiy interferensiyani ham yuzaga keltiradi. Mazkur maqolaning maqsadi qoraqalpoq sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishning ilmiy asoslarini keng yoritish hamda samarali metodik yo‘llarni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tilni o‘qitishning turli xususiyatlari X. Ne’matov, A. G‘ulomov [7], E. Agzamov [2], X. Muhiddinova [5] kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda til o‘qitishning metodik asoslari, kommunikativ yondashuv hamda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Qoraqalpoq tilshunosligi va pedagogikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar orasida qoraqalpoq sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-lingvistik tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot bazasi sifatida qoraqalpoq tilida ta’lim olib boriladigan umumta’lim maktablarining o‘zbek tili darslari tanlab olindi. O‘qituvchilarning dars jarayonidagi metodik yondashuvlari hamda o‘quvchilarning nutqiy faolligi tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar tizimlashtirildi va umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Dialogik nutq, rolli o‘yinlar va situativ mashqlar orqali o‘quvchilar til birliklarini faol qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Til interferensiyasi asosan fonetik va grammatik darajada namoyon bo‘lib, qiyosiy mashqlar yordamida bunday xatolarni kamaytirish mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qoraqalpoq sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishda grammatik-qoidaviy yondashuvga nisbatan kommunikativ va qiyosiy yondashuvlar samaraliroq hisoblanadi. O‘quvchilar o‘z ona tili bilan qiyoslash asosida o‘zbek tilidagi grammatik birliklarni tezroq va ongli ravishda o‘zlashtiradilar [5]. Ayniqsa, fe’l zamonlari, kelishik qo‘shimchalari va so‘z tartibiga oid mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonetik interferensiya talaffuzda, leksik interferensiya esa ma’nodosh so‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanishida namoyon bo‘ldi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda audio materiallar, dialoglar va nutqiy vaziyatlarga asoslangan mashqlarning samaradorligi aniqlandi. Dars jarayonida milliy-madaniy materiallardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning nutqiy faolligini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpoq sinflarda o‘zbek tili fanini o‘qitish lingvodidaktik yondashuvlar uyg‘unligi asosida olib borilishi lozim. Qardosh tillar o‘rtasidagi o‘xshashliklardan ongli foydalanish hamda interferensiyani kamaytirishga qaratilgan metodik yechimlar o‘qitish samaradorligini oshiradi. Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek tili ta’limini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq sinflarda o‘zbek tili fanini o‘qitish jarayoni ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, u zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarni talab etadi. Qardosh tillar o‘rtasidagi o‘xshashliklardan ongli foydalanish, interferensiyani kamaytirish hamda kommunikativ metodlarni keng joriy etish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur maqola natijalari o‘qituvchilar, metodistlar va ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini 2022–2026-yillarda amalga oshirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni. – Toshkent, 2021. – 12 b. – Elektron manba: https://lex.uz/docs/5714625
2. Agzamov E. Ona tilidan muammoli dars. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1993, № 3–4 qo‘shma son, 27–30-betlar.
3. Babanskiy Yu. K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1990.
4. Mahmutov M. Maktabda muammoli ta’limni tashkil qilish. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1981.
5. Muhiddinova X. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. nomzodi diss. – Toshkent: TDPI, 2011. – 270 b.
6. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2019.
7. Ne’matov X., G‘ulomov A. Maktabda til sathlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish. – Toshkent, 1992.
8. Ne’matov X., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993.
9. G‘ulomova X., G‘afforova T. Ona tili darslari. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2012.

ИНТЕГРАЦИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИЕ: ПОЛЬЗА ИЛИ ВРЕД

Каримбаев Атабек Мерданович
Докторант 1 курса НГПИ им. Ажинияза
Факультета иностранных языков, кафедры
русского языка и литературы

Аннотация: В статье рассматривается понятие искусственного интеллекта и анализируются его ключевые характеристики в системе образования. Определяются основные положительные аспекты внедрения технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс. Приводятся примеры веб-сайтов, приложений, программного обеспечения и браузерных расширений на основе искусственного интеллекта, которые могут эффективно использоваться в обучении.

Ключевые слова: искусственный интеллект; образование; цифровые образовательные ресурсы; внедрение искусственного интеллекта в обучение.

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt tushunchasi yoritilib, uning ta'lim sohasidagi asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ijobiy jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, o'quv jarayonida samarali qo'llash mumkin bo'lgan sun'iy intellektga asoslangan veb-saytlar, mobil ilovalar, dasturiy ta'minotlar va brauzer kengaytmalari misollar orqali ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt; ta'lim; raqamli ta'lim resurslari; sun'iy intellektni ta'limga joriy etish.

Abstract: This article examines the concept of artificial intelligence and analyzes its key characteristics within the educational system. The main advantages of integrating artificial intelligence technologies into the educational process are identified. In addition, examples of AI-based websites, applications, software, and browser extensions that can be effectively utilized in teaching and learning activities are presented.

Key words: artificial intelligence; education; digital educational resources; integration of artificial intelligence into learning.

ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время наш мир быстро трансформируется под воздействием новейших цифровых технологий, и искусственный интеллект занимает особое место в этом процессе. Основы ИИ (искусственного интеллекта) были заложены еще в 40–50-х годах прошлого столетия с созданием компьютеров первого поколения. По-настоящему популярным данный инструмент стал в начале XXI века. Развитие технологий на базе ИИ привело к масштабным изменениям в различных сферах, примером чему могут служить экономика, сектор ИКТ, а также энергетические комплексы.

Изменения коснулись и сферы образования: популяризация различных цифровых ресурсов на базе ИИ привела к созданию сообществ и институтов, ориентированных на применение искусственного интеллекта в образовательном процессе. Данная проблема была рассмотрена и со стороны специализированных подразделений ЮНЕСКО. В рамках данных проектов отмечается следующее: внедрение ИИ в процесс образования направлено на улучшение качества обучения, искоренение неравенства в получении знаний, а также обеспечение доступа к технологическим инновациям вне зависимости от уровня технологического развития стран.

Система образования Узбекистана также проходит глубокую фазу модернизации, которая включает внедрение различных цифровых технологий и ресурсов, в том числе ИИ (искусственного интеллекта). Эти действия направлены не только на совершенствование методов преподавания, но и на трансформацию самого образовательного процесса, а также на обеспечение более объективного контроля знаний участников учебной деятельности. Следует отметить, что на законодательном уровне в конце 2025-го года Президенту Узбекистана были представлены проекты по внедрению ИИ в образовании и

других сферах. В данных проектах подчеркивается, что современными технологиями должны владеть не только учителя информационных технологий, но и все преподаватели школ, техникумов и высших учебных заведений. Указанные меры направлены на снижение трудовой нагрузки педагогов и повышение качества методической работы.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Технологическое развитие вызывает множество вопросов у исследователей, и на сегодняшний день существует значительное количество научных работ, посвященных изучению искусственного интеллекта как с точки зрения информационных технологий, так и с позиции педагогики. Мнения исследователей по данному вопросу расходятся: одни считают, что внедрение ИИ может принести существенную пользу, другие указывают на многочисленные риски и потенциальные проблемы.

Часть ученых рассматривает ИИ как помощника и инструмент, способствующий раскрытию скрытого потенциала и творческих способностей преподавателей и обучающихся. Другие же выражают опасения, связанные с вопросами конфиденциальности персональных данных, возможной деградацией интеллектуальных способностей человека и даже риском управления человечеством со стороны искусственного интеллекта. Действительно, ИИ обладает значительным потенциалом в обработке, передаче и получении знаний, в связи с чем вопросы защиты информации должны рассматриваться в глобальном масштабе.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В данном исследовании использовались методы теоретического анализа и обобщения научных источников, посвящённых применению искусственного интеллекта в образовании. Информация отбиралась на основе сравнительного изучения педагогических и технологических исследований. Анализ данных осуществлялся с применением логико-аналитического и системного подходов для выявления образовательного потенциала и рисков использования искусственного интеллекта.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Рассмотрим основные характеристики искусственного интеллекта и принципы его работы. ИИ тесно связан с компьютерами, и обзор исследований показывает, что искусственный интеллект следует рассматривать не как компьютер или программное обеспечение, а как оборудование, обладающее способностью приближаться к человеческому мышлению [1.16–24]. Исследователь С. Покривчакова в своей работе "Подготовка учителей к применению технологий на основе ИИ в обучении иностранным языкам" отмечает следующее: "искусственный интеллект является результатом многолетних исследований и разработок, объединяющих разработчиков систем, специалистов по обработке данных, разработчиков программного обеспечения, статистиков, лингвистов, когнитивистов, психологов, специалистов в области образования, экспертов и многих других для создания систем с определенным уровнем интеллекта и способностью выполнять различные функции, в том числе помогать учителям и поддерживать учащихся в развитии их знаний и гибких навыков для постоянно меняющегося мира" [2.135–153].

Типы искусственного интеллекта можно разделить на несколько групп:

- узкий или слабый ИИ – предназначенный для выполнения конкретных задач без человеческого контроля. Примерами могут служить распознавание речи, голосовые команды, отправка сообщений;
- сильный или общий ИИ, который способен выполнять любые познавательные задачи на уровне интеллекта среднестатистического человека, а также давать ответы на вопросы и пояснения;
- суперискусственный интеллект – в большей степени находящийся на стадии разработки, интеллект, который должен превосходить человеческий разум, самостоятельно обучаться, формировать суждения, свободно мыслить и аргументировать свои ответы.

Из вышеизложенного можно сделать следующий вывод: искусственный интеллект – это способность цифрового оборудования или машины демонстрировать определенный уровень интеллекта, выполнять функции и задачи, аналогичные человеческим.

Постоянное применение ИКТ оказывает влияние на такие аспекты образования, как преподавание, обучение и оценивание. Цифровые ресурсы традиционно рассматривались как помощники преподавателей в учебном процессе, а их интеграция с ИИ должна облегчить подготовку практических занятий. При понимании влияния ИИ на указанные аспекты государство, сотрудничая с образовательными организациями, может разрабатывать стратегии и инициативы, направленные на позитивное использование ИИ и сглаживание возможных негативных последствий для системы образования.

Многие исследователи пришли к выводу о необходимости применения искусственного интеллекта в сфере образования и выделяют его основные положительные функции:

- выполнение креативных и специфических функций вместо человека;
- создание различных программ и алгоритмов в короткие сроки;
- моделирование ментальных, когнитивных и образовательных процессов [3.80–88];
- помощь при самостоятельной работе обучающихся;
- возможность персонализированного обучения.

Обучение с использованием ИИ может предоставить более увлекательные возможности получения знаний в соответствии с потребностями, способностями и уровнем подготовки учащихся. Внедрение ИИ способствует устранению межнациональных и международных барьеров, обеспечивая более глубокий доступ к глобальным базам данных на различных языках. Использование ИИ в образовании может осуществляться в различных формах, среди которых выделяются:

1) веб-сайты;
2) приложения;
3) программное обеспечение;
4) специальные расширения для приложений, изначально не оснащенных ИИ.

Примерами веб-сайтов на базе искусственного интеллекта являются chatgpt.com, giga.chat, openai.com и др. Они могут использоваться в образовательном процессе для создания упражнений, презентаций, изображений и файлов по заданной тематике. К популярным приложениям относятся Khan Academy, Coursera, Duolingo, Quizlet и многие другие. Данные приложения позволяют адаптировать обучение под уровень учащихся, применять игровые подходы при изучении языков и других дисциплин, составлять тесты, воспроизводить тексты на различных языках и вести диалог с пользователем. Эти инструменты могут быть особенно полезны при выполнении домашних заданий и в процессе самостоятельного обучения.

PyTorch, Jasper, Writer.com, Google Speech-to-Text и Text-to-Speech являются примерами программного обеспечения, которое может помогать пользователям в решении различных задач, составлении и редактировании текстов по заданным темам, а также в распознавании и синтезе речи на разных языках. К расширениям относятся Browser GPT, Sider AI, Merlin AI и др. Эти расширения дополняют традиционные браузеры, не оснащенные ИИ, и позволяют генерировать и редактировать тексты, письма, заметки, а также получать ответы на вопросы с дополнительными пояснениями.

Постоянное развитие общества требует совершенствования и в области преподавания языков. Исследования показывают, что ИКТ с элементами ИИ играют значимую роль в обучении языкам и способствуют:

- улучшению навыков письма, поскольку учащиеся получают доступ к цифровым инструментам, облегчающим написание и редактирование текстов. Программное обеспечение для проверки грамматики и текстовые редакторы, исправляя ошибки, побуждают обучающихся прилагать больше усилий для повышения качества письменных работ;
- развитию навыков аудирования, так как современные технологии обеспечивают мгновенный доступ к обширной базе аудиовизуальных ресурсов, электронных документов и образовательных платформ. Учащиеся могут использовать эти материалы в любое удобное время, что способствует более глубокому погружению в изучаемый язык;
- совершенствованию навыков говорения, поскольку учащиеся получают возможность составлять диалоги на интересующие их темы и воспроизводить их в любое время.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Обобщая вышеизложенное, можно сделать вывод о том, что искусственный интеллект существенно изменяет способы преподавания и изучения языков. Учащиеся получают персонализированную поддержку в обучении, расширяются возможности интерактивного взаимодействия и самостоятельного исследования учебных проблем. Интеграция современных технологий в образовательный процесс представляет собой важный шаг в оптимизации обучения. Используя цифровые технологии, преподаватели

могут применять инновационные методы, отвечающие разнообразным образовательным потребностям учащихся. Все это способствует подготовке обучающихся к активной и компетентной деятельности в условиях постоянно меняющегося мира. В связи с этим представляется крайне важным, чтобы система образования и профессиональной подготовки продолжала развиваться и внедрять современные технологические решения.

Список использованной литературы:

1. M. Chassignol, A. Khoroshavin, A. Klimova, and A. Bilyatdinova. Artificial intelligence trends in education: A narrative overview. Procedia Computer Science, vol. 136, pp. 16–24, Jan. 2018.
2. S. Pokrivcakova. Preparing teachers for the application of AI-powered technologies in foreign language education. Journal of Language and Cultural Education, vol. 7, pp. 135–153, Dec. 2019.
3. Амиров Р. А., Билалова У. М. Перспективы внедрения технологий искусственного интеллекта в сфере высшего образования // Управленческое консультирование. 2020. № 3. С. 80–88.
4. Садовничий В. А. Университеты, общество и будущее человечества // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Проблемы высшего образования. 2019. № 2. С. 5–14.
5. https://president.uz/ru/lists/view/8583
6. https://ru.wikipedia.org/wiki/Искусственный_интеллект
7. https://www.gazeta.uz/ru/2025-12-01/ai-projects/

TIBBIY KIMYO DARSLARIDA TALABALARNING KLINIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xolmurodova D. K.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Tibbiy kimyo kafedrasi mudiri, t.f.d., professor

Safarova N. S.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi
Immunologiya, allergologiya va inson genomikasi
ilmiy markazi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada "Tibbiy kimyo" fanini o'qitish jarayonida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining klinik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy uslubiy yondashuvlar tahlil qilingan. Ushbu fan bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy tafakkurini shakllantirishda fundamental nazariy asos bo'lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Kimyoviy bilimlarni klinik vaziyatlar bilan integratsiyalash, talabalarda analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, laboratoriya ma'lumotlarini talqin qilish hamda asosli kasbiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan faol o'qitish metodlari yoritilgan. Muammoli ta'lim, keys-stadi, fanlararo integratsiya va kontekstli yondashuvlardan foydalanish talabalarning klinik fikrlash darajasini oshirishda samarali vosita ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy kimyo, klinik tafakkur, kasbga yo'naltirilgan ta'lim, keys-stadi, muammoli ta'lim, o'qitish metodikasi.

Abstract: This article analyzes modern methodological approaches to developing clinical thinking in medical university students during the study of the discipline "Medical Chemistry." The role of this subject as a fundamental theoretical basis for shaping the professional thinking of future healthcare specialists is substantiated. Active teaching methods aimed at integrating chemical knowledge with clinical situations, developing analytical skills, interpreting laboratory data, and forming the ability to make well-reasoned professional decisions are presented and analyzed. The effectiveness of problem-based learning, case studies, interdisciplinary integration, and a contextual approach in enhancing students' clinical reasoning skills is demonstrated.

Key words: medical chemistry, clinical thinking, professionally oriented education, case study, problem-based learning, teaching methodology.

Аннотация: В статье проанализированы современные методические подходы к развитию клинического мышления студентов медицинских высших учебных заведений в процессе изучения дисциплины "Медицинская химия". Обоснована роль данной учебной дисциплины как фундаментальной основы формирования профессионального мышления будущих медицинских работников. Рассмотрены активные методы обучения, направленные на интеграцию химических знаний с клиническими ситуациями, развитие аналитических навыков, интерпретацию лабораторных данных и формирование способности принимать обоснованные профессиональные решения. Показано, что использование проблемного обучения, кейс-стади, междисциплинарной интеграции и контекстного подхода способствует повышению уровня клинического мышления студентов.

Ключевые слова: медицинская химия, клиническое мышление, профессионально-ориентированное обучение, кейс-стади, проблемное обучение, методика преподавания.

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimi tez o'zgaruvchan klinik amaliyot sharoitida samarali faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassisni tayyorlashga qaratilgan. Shu munosabat bilan bo'lajak tibbiyot xodimi shaxsining integrativ qobiliyati sifatida klinik tafakkurni shakllantirish kasbiy ta'limning asosiy vazifasiga aylanadi. Klinik fikrlash mutaxassisga bemorning holatini tahlil qilish, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalarini sharhlash, kasallik belgilari va patogenetik mexanizmlar o'rtasidagi sabab–oqibat aloqalarini aniqlash hamda davolash jarayonida asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Klinik tafakkur – bu tibbiy bilimga yaxlitlik va tugallanganlik baxsh etadigan dialektik tafakkurning mazmunan o'ziga xos jarayoni [1].

Klinik tafakkurga berilgan ushbu ta'rifda u inson tafakkurining alohida, favqulodda turi emasligi, balki inson tafakkuri umuman intellektual faoliyatning har qanday shaklida, har qanday kasbda va bilimning har qanday sohasida yagona ekanligi to'la haqli ravishda e'tirof etiladi. Shu bilan birga, mazkur ta'rifda klinik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari ham ta'kidlanib, uning ahamiyati shakllanishi va rivojlanishi muammosini ko'rib chiqishda hisobga olinishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Klinik tafakkurning o'ziga xosligi, uni boshqa tafakkur turlaridan ajratib turadigan xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Tibbiyotdagi tadqiqot predmeti nihoyatda murakkab bo'lib, mexanik jarayonlardan tortib molekulyar jarayonlargacha, inson hayot faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Shuningdek, u ilmiy asoslanmagan, ammo mavjud deb hisoblanadigan ayrim yo'nalishlar – ekstrasensorika, bioenergetika kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi [2].

Hozirgi tibbiyotda diagnostika jarayonida aniqlanadigan kasalliklarning o'ziga xos bo'lmagan simptomlari va sindromlari muhokama qilinadi. Bu esa klinik tibbiyotda faqat bitta kasallikka xos bo'lgan mutlaq belgilar mavjud emasligini anglatadi. Har qanday alomat ma'lum bir kasallikda bemorda bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Aynan shu holat klinik tashxisning ko'pincha ma'lum darajada gipoteza sifatida shakllanishini izohlaydi. Bu fikr o'z vaqtida S.P. Botkin tomonidan ham ta'kidlangan [3].

Klinik amaliyotda turli sabablarga ko'ra dori vositalari va davolash usullarining ulkan majmuasidan hamda barcha tadqiqot usullaridan to'liq foydalanish imkoniyati mavjud emas.

Tibbiyotda barcha jarayonlarni nazariy jihatdan to'liq tushuntirib bo'lmaydi. Masalan, ko'plab belgilar mexanizmi hozirgi davrgacha ham noma'lumligicha qolmoqda. Shu sababli umumiy patologiya tobora inqiroz holatiga tushib borayotgani qayd etiladi.

Klinik tibbiyot Burgavdan boshlab mustaqil fan sohasi sifatida "klinik tibbiyot" nomi bilan atala boshlagan [4]. Uning o'ziga xos jihati shundaki, klinik tafakkur talaba, shifokor-o'qituvchi va bemor o'rtasidagi muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Klinik tafakkurning rivojlanishi terapiya, jarrohlik, farmakologiya, patofiziologiya kabi klinik fanlar bilan chambarchas bog'liq. Biroq so'nggi yillarda talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirishda fundamental fanlar, jumladan, tibbiy kimyoning roliga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada kuchaymoqda. Tibbiy kimyo ta'lim oluvchilarda biologik jarayonlarning kimyoviy tabiati, dorivor moddalarning ta'sir mexanizmlari, biologik faol birikmalarning xususiyatlari, shuningdek, patologik holatlarning kimyoviy asoslari haqidagi tushunchalarni shakllantiruvchi asosiy o'quv fanlardan biri hisoblanadi.

Shunga qaramay, tibbiy kimyoni o'qitish amaliyotida ko'pincha akademik–abstrakt yondashuv saqlanib qolmoqda. Bunda o'quv materiali talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatidan ajratilgan holda bayon etiladi. Natijada ta'lim oluvchilarda klinik tafakkur vositasiga aylanmaydigan formal bilimlar shakllanadi. Bu holat kimyo fanlarini o'rganish bosqichidayoq o'qitishning kasbiy yo'naltirilganligini ta'minlash hamda klinik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali metodik usullarni izlash va amaliyotga joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik fikrlashini rivojlantirish usullarini tahlil qilish va ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiyot oliy o'quv yurtida kimyo fanlarini o'zlashtirish klinik tafakkurni shakllantirishga qanday hissa qo'shadi, degan savol ilmiy adabiyotlarda muhim muammolardan biri sifatida qaraladi. Avvalo, umumiy va organik kimyo fanlarining mazmuniy asoslarini o'zlashtirish biokimyo, fiziologiya, patofiziologiya, gigiyena hamda keyingi barcha klinik fanlarni idrok etishning zarur poydevori sifatida talqin etiladi. Bu jihat tibbiy kimyo dasturining alohida bo'limlari misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kimyoviy termodinamika asoslarini o'rganish bo'lajak shifokorda organizmning energiya balansi, hayotiy faoliyat jarayonlarida turli energiya turlarining o'zgarish xususiyatlari haqida aniq tushunchalarni shakllantiradi hamda organizmda kimyoviy reaksiyalar amalga oshishining obyektiv mezonlarini aniqlashga imkon beradi.

Kimyoviy kinetika va kimyoviy muvozanat qonuniyatlarini o'rganish fermentlarning ta'sir mexanizmini tushunishga, biokimyoviy reaksiyalarning yo'nalishini oldindan bashorat qilishga yordam beradi. Atomlarning elektron tuzilishi, kimyoviy bog'lanish tabiati va molekulalarning fazoviy tuzilishini o'rganish biologik jarayonlarning molekulyar asoslarini anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Biogen elementlar va ularning birikmalarining fizik–kimyoviy xossalarini o'rganish kelgusida ularning biologik rolini, fermentlar, vitaminlar va gormonlar ta'sir mexanizmlarini, shuningdek, bir qator irsiy, endemik va tanqis elementli kasalliklar (buqoq, kariyes va boshqalar) rivojlanishidagi ahamiyatini aniqlashga asos yaratadi. Bu bilimlar gigiyena fanida ifloslanish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini tahlil qilish uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Eritmalarning fizik–kimyoviy xossalarini o‘rganish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Moddalarning erish va dissotsiatsiya jarayonlari, diffuziya, osmos, pH o‘zgarishlari hamda bufer tizimlar ta’sirini tahlil qilish hujayra membranalari funksiyasini, kislota–asos muvozanatini, yurak-qon tomir tizimi, o‘pka va buyraklar faoliyatini, shuningdek, turli davolash usullarining terapevtik ta’sir mexanizmlarini tushunish uchun zarur hisoblanadi. Masalan, fizikaviy kimyoda “laminar oqim” tushunchasi o‘rganiladi. Bu holatda suyuqlik zarrachalari bir-biriga to‘sqinlik qilmasdan bir tekis oqadi. Ushbu oqim xususiyatini o‘rganish qon tomirlarida qon oqimini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar qon oqimi laminar bo‘lmay, tartibsiz kechganida edi, qon tomirlari devorlari tezda shikastlangan bo‘lar edi.

Organik kimyoni o‘rganish jarayonida tabiiy organik birikmalar molekulalarining elektron va fazoviy tuzilishini ularning biologik ta’siri bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilish keyinchalik ushbu birikmalarning biokimyoviy reaksiyalardagi o‘zgarishlarini tushunish imkonini beradi hamda dori moddalarining tasnifi, tuzilishi va xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ta’limda kompetensiyaviy, tizimli–faoliyatli va kontekstli yondashuvlar qoidalari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida klinik fikrlash muammosi bo‘yicha pedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, “Tibbiy kimyo” fanining ishchi dasturlari va mazmunini o‘rganish, oliy ta’lim muassasalarida tibbiy kimyoni o‘qitish bo‘yicha mavjud pedagogik tajribani umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, talabalarning klinik fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv vaziyatlari va metodik usullarni modellashtirish ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida “Tibbiy kimyo” fani bo‘yicha ta’lim jarayoni, tadqiqot predmeti sifatida esa talabalarning klinik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘qitish usullari va metodlari belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiy ta’limda klinik tafakkur tushunchasi va uning tuzilishi muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Klinik fikrlash kognitiv, analitik va prognostik komponentlarni o‘z ichiga olgan murakkab, ko‘p darajali jarayon hisoblanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan klinik fikrlashni ta’lim oluvchining kasbiy ahamiyatga ega vaziyatlarni tahlil qilish hamda qaror qabul qilish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati sifatida talqin etish mumkin. Klinik fikrlash tuzilmasida dastlabki ma’lumotlarni, jumladan simptomlar, tahlil ko‘rsatkichlari va moddalarning kimyoviy xususiyatlarini tahlil qilishni o‘z ichiga olgan analitik komponent, sabab–oqibat aloqalarini aniqlashni ta’minlovchi mantiqiy-sintetik komponent, olingan natijalarni klinik ahamiyati nuqtayi nazaridan sharhlash bilan bog‘liq interpretatsion komponent hamda aralashuvning mumkin bo‘lgan oqibatlarini baholashni nazarda tutuvchi prognostik komponent ajratib ko‘rsatiladi. Tibbiy kimyo mazkur tarkibiy qismlarning barchasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta’lim klinik tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv talabalarning faol fikrlash faoliyatini talab qiladigan o‘quv vaziyatlarini yaratishga asoslanadi. Tibbiy kimyo fanida bu klinik kontekstga murojaat qilmasdan aniq yechimga ega bo‘lmagan muammoli masalalar va vazifalarni qo‘yish orqali amalga oshiriladi. Masalan, kislota–asos muvozanatini o‘rganishda talabalarga ayrim patologik holatlarda metabolik atsidoz rivojlanishining sabablarini tushuntirish vazifasi beriladi. Bunday muammoni hal etish qonning bufer tizimlari, organik kislotalar va pHni tartibga solishning fiziologik mexanizmlari haqidagi bilimlarni integratsiyalashni talab qiladi. “Uglevodlar” mavzusini o‘rganishda nonni uzoq vaqt chaynaganda og‘izda shirin ta’m paydo bo‘lishi sabablari yoki glyukoza va fruktozaning mis (II) gidroksidi bilan reaksiyaga kirishishidagi farqlarni tushuntirish kabi muammoli savollar qo‘yilishi mumkin.

Tibbiy kimyoni o‘qitishda keys usulidan foydalanish ham klinik tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Keys-metod real kasbiy vazifalarni modellashtiruvchi o‘quv klinik vaziyatlarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Tibbiy kimyo doirasida keyslar laboratoriya tahlillari natijalari, dori vositalari haqidagi ma’lumotlar va bemor alomatlarining tavsifini o‘z ichiga olishi mumkin. Keyslar bilan ishlash kimyoviy ko‘rsatkichlarni talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, klinik mantiqni rivojlantirish va kimyoviy bilimlarning amaliy ahamiyatini anglashga xizmat qiladi. Masalan, noma’lum gazning hidsiz, ta’msiz va rangsiz bo‘lishi, suv va karbonat angidrid hosil qilib yonishi, uning turmushda yoqilg‘i sifatida, qishloq xo‘jaligida va metallurgiyada keng qo‘llanilishi haqidagi tavsif asosida ushbu moddaning nomini aniqlash, qaysi sinf birikmalariga mansubligini belgilash, sifat va miqdoriy tarkibini ko‘rsatish, kislorod bilan reaksiyasi natijasida hosil bo‘ladigan moddalarni aniqlash hamda mazkur reaksiyaning yonish deb atalish sabablarini izohlash vazifalari berilishi mumkin.

Fanlararo integratsiya klinik tafakkurni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv talabalarga tibbiy kimyoni alohida fan sifatida emas, balki tibbiy bilimlar tizimining ajralmas qismi sifatida idrok etish imkonini beradi. Ayniqsa, fiziologiya, biokimyo, farmakologiya va patofiziologiya fanlari bilan integratsiya

samarali hisoblanadi. Masalan, eritmalar va osmotik bosimni o‘rganishda infuzion terapiyaning klinik jihatlarini tahlil qilish yaxlit kasbiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Kislota–asos muvozanati va bufer tizimlar mavzusida bemor qonida atsidoz kuzatilganda, pH ko‘rsatkichi me’yoriy 7.4 dan 7.1 gacha pasaygan sharoitda bikarbonat buferi konsentratsiyalari nisbatini (HCO_3^-/H_2CO_3) hisoblash va ushbu nisbat o‘zgarishining kislorod transportiga ta’sirini aniqlashga doir masalalar metabolik atsidoz diagnostikasi va patogeneziga oid tushunchalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Osmos mavzusida esa qon sirkulyatsiyasi uchun zarur hajmni tiklash maqsadida 500 ml eritma tayyorlash, eritrotsitlar gemolizining oldini olish uchun 0.9% li fiziologik eritmaning osmolyarlik jihatdan yetarliligini aniqlash hamda natriy xloridning to‘liq dissotsilanishini hisobga olgan holda eritmaning osmolyarligini hisoblash vena ichiga dori yuborishda xavfsizlik masalalarini anglash imkonini beradi.

Kontekstli va loyihaviy ta’lim yondashuvlari ham klinik tafakkurni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Kontekstli ta’lim o‘quv jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, topshiriqlarning kasbiy ahamiyatga ega vaziyatlar shaklida berilishi talabalarning motivatsiyasini oshiradi va klinik fikrlashni faollashtiradi. Loyihaviy faoliyat esa ta’lim oluvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik tajriba va metodik adabiyotlarni tahlil qilish natijalari klinik fikrlashni rivojlantirish fundamental fanlarni o‘rganish bosqichidayoq mumkin ekanligini tasdiqlaydi. Tibbiy kimyo fanida ta’limning faol usullaridan maqsadli foydalanish kasbiy tafakkurni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. An’anaviy va kasbiy yo‘naltirilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili klinik kontekstni kiritish o‘quv materialini ongli o‘zlashtirish darajasini oshirishini, fanlararo barqaror aloqalarni shakllantirish va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish tibbiy kimyoni o‘qitishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Muammoli ta’lim, keys-metod, fanlararo integratsiya va kontekstli yondashuvdan foydalanish kimyoviy bilimlarni bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyati vositasiga aylantirish imkonini beradi. Ushbu usullarni amaliyotga joriy etish tibbiy ta’lim sifatini oshirishga hamda klinik muammolarni hal etishga tayyor, yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Царегородцев Г. И. Диалектический материализм и теоретические основы медицины / Г. И. Царегородцев, В. Г. Ерохин. – М., 1986. – 288 с.
2. Тетенев Ф. Ф., Бодрова Т. Н., Калинина О. В. Формирование и развитие клинического мышления – важнейшая задача медицинского образования // Успехи современного естествознания. – 2008. – № 4. – С. 20–20.
3. Боткин С. П. Курс клиники внутренних болезней / С. П. Боткин. – М., 1950. – Т. 1. – 364 с.
4. Диагноз. Диагностика // БМЭ. – 3-е изд. – М., 1977. – Т. 7.

INTELLEKTUAL AVLOD – SOG'LOM JAMIYAT POYDEVORI: TIBBIYOT TALABALARINING O'QUV JARAYONIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Tursunbekova Nozima
Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual avlodni shakllantirish va sog'lom jamiyat poydevorini mustahkamlash kontekstida tibbiyot talabalari o'quv jarayonida kommunikativ kompetentlikka ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim jarayonida talabalar kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy psixologik shart-sharoitlar aniqlanadi. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda kelajakdagi professional faoliyatda zarur bo'lgan muhim kompetensiya sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: intellektual avlod, sog'lom jamiyat, tibbiyot talabalari, o'quv jarayoni, kommunikativ kompetentlik, psixologik omillar.

Abstract: This article analyzes the psychological factors influencing the development of communicative competence among medical students in the educational process within the framework of the concept of an intellectual generation as the foundation of a healthy society. The study identifies key psychological conditions that contribute to the formation and improvement of students' communicative skills during professional training. Particular emphasis is placed on the role of communicative competence in the educational process and its significance as an essential component of future professional medical practice.

Key words: intellectual generation, healthy society, medical students, educational process, communicative competence, psychological factors.

Аннотация: В статье анализируются психологические факторы, влияющие на формирование коммуникативной компетентности студентов-медиков в учебном процессе в контексте концепции интеллектуального поколения как основы здорового общества. Рассматриваются ключевые психологические условия, способствующие развитию коммуникативных навыков обучающихся в процессе профессиональной подготовки. Особое внимание уделяется значению коммуникативной компетентности в образовательном процессе и её роли как необходимого компонента будущей профессиональной деятельности врача.

Ключевые слова: интеллектуальное поколение, здоровое общество, студенты-медики, учебный процесс, коммуникативная компетентность, психологические факторы.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti bevosita intellektual salohiyatga ega, mustaqil fikrlay oladigan hamda yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan yosh avlodni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Intellektual avlod – bu nafaqat chuqur nazariy bilimlarga, balki rivojlangan muloqot madaniyatiga, ijtimoiy faollikka va yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan shaxsdir. Ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritadigan mutaxassislar uchun kommunikativ kompetentlik kasbiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki shifokor va bemor o'rtasidagi samarali muloqot davolash jarayonining sifatiga, bemorning ishonchiga hamda davolanish natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiyot ta'limi jarayonida talabalar nafaqat klinik bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki bemor, uning yaqinlari hamda hamkasblar bilan samarali muloqot qilish malakasini ham egallashlari zarur. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ kompetentlik tibbiyot talabasining kasbiy shakllanishida asosiy tarkibiy komponentlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kommunikativ kompetentlik faqat nutq madaniyati bilan cheklanib qolmay, balki empatiya, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, o'zini boshqarish, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi psixologik omillar bilan uzviy bog'liqdir.

Tibbiyot talabalari o'quv jarayonida yuqori akademik yuklama, klinik amaliyotdagi mas'uliyat, vaqt tanqisligi va emotsional zo'riqish kabi turli psixologik ta'sirlarga duch keladilar. Mazkur omillar ularning kommunikativ faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, kommunikativ kompetentlikning shakllanish mexanizmlarini, unga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ kompetentlik masalasi psixologiya, pedagogika va tibbiyot ta'limi sohalarida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ilmiy manbalarda kommunikativ kompetentlik shaxsning samarali muloqot olib borish, axborotni to'g'ri yetkazish, suhbatdoshni tushunish va o'zaro ijtimoiy munosabatlarni konstruktiv tarzda tashkil eta olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ko'plab tadqiqotchilar kommunikativ kompetentlikni nafaqat nutq madaniyati, balki empatiya, emotsional intellekt, refleksiya va ijtimoiy idrok bilan bog'liq kompleks psixologik hodisa sifatida izohlaydilar.

Xorijiy tadqiqotlarda tibbiyot talabalari va shifokorlarning kommunikativ ko'nikmalari bemor qoniqishi, davolash samaradorligi hamda kasbiy muvaffaqiyat bilan bevosita bog'liqligi qayd etilgan. Ayniqsa, empatiya va emotsional intellektning rivojlanganligi klinik amaliyot jarayonida samarali muloqotning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik shifokorlarning murakkab vaziyatlarda ham kasbiy etikani saqlagan holda muloqot olib borishiga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tibbiyot talabalarining kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari so'rovnoma, psixodiagnostik testlar va pedagogik kuzatuv usullari orqali olindi. So'rovnomalar yordamida talabalarning empatiya darajasi, emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, ijtimoiy moslashuvchanligi hamda o'zini boshqarish qobiliyati aniqlashtirildi. Psixodiagnostik metodlar orqali kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichlari miqdoriy jihatdan baholandi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik tahlil usullari asosida qayta ishlanib, o'rtacha qiymatlar, standart og'ish va korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlari hisoblandi. Tahlil jarayonida psixologik omillar va kommunikativ kompetentlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, ularning kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar kommunikativ kompetentligining rivojlanish darajasi ularning emotsional barqarorligi va empatiya ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liqdir. Yuqori empatiya va ijtimoiy faollikka ega bo'lgan talabalar bemor bilan samarali muloqot o'rnatishga moyil ekanligi aniqlandi. Yuqori darajadagi stress va emotsional zo'riqish kommunikativ ko'nikmalarning pasayishiga olib kelishi kuzatildi. O'zini boshqarish qobiliyati rivojlangan talabalar esa murakkab vaziyatlarda ham konstruktiv muloqotni saqlab qolish imkoniyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Olingan natijalar kommunikativ kompetentlikning shakllanishi ko'p jihatdan psixologik omillar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, empatiya, emotsional intellekt va stressga chidamlilik tibbiyot talabalari kasbiy tayyorgarligining muhim komponentlari sifatida namoyon bo'ladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot ta'limi jarayonida nafaqat nazariy bilim va klinik ko'nikmalarni rivojlantirish, balki psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish ham muhimdir. Maxsus treninglar, kommunikativ mashg'ulotlar va psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish orqali talabalar kommunikativ kompetentligini oshirish mumkin. Intellektual avlodni shakllantirish jarayonida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish sog'lom jamiyat poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari tibbiyot ta'limi tizimida psixologik omillarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval: **Tibbiyot talabalarining kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar ko'rsatkichlari**

№	Psixologik omil	O'rtacha ko'rsatkich (M)	Standart og'ish (SD)	Kommunikativ kompetentlik bilan korrelyatsiya (r)
1	Empatiya darajasi	4.2	0.6	0.71
2	Emotsional barqarorlik	3.9	0.7	0.65
3	Stressga chidamlilik	3.7	0.8	0.59
4	Ijtimoiy moslashuvchanlik	4.1	0.5	0.68
5	O'zini boshqarish qobiliyati	3.8	0.6	0.62

Izoh. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, eng yuqori korrelyatsiya ko'rsatkichi empatiya darajasiga (r = 0.71) to'g'ri keladi. Bu empatiyaning kommunikativ kompetentlik shakllanishidagi yetakchi omil ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy moslashuvchanlik va emotsional barqarorlik ham yuqori ijobiy bog'liqlikka ega ekanligi aniqlangan. Stressga chidamlilik va o'zini boshqarish qobiliyati esa o'rtacha darajadagi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijalar psixologik omillar kommunikativ kompetentlik rivojlanishida muhim determinant sifatida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari tibbiyot talabalari o'quv jarayonida kommunikativ kompetentlikning shakllanishi bevosita psixologik omillar bilan uzviy bog'liq ekanligini tasdiqladi. Ayniqsa, empatiya darajasi, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va o'zini boshqarish qobiliyati talabalar muloqot samaradorligining muhim determinantlari sifatida namoyon bo'ldi. Stress va emotsional zo'riqishning yuqori darajasi esa kommunikativ faoliyat sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tibbiyot ta'limi jarayonida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi lozim. Ta'lim jarayoniga psixologik treninglar, interaktiv mashg'ulotlar, rolli o'yinlar va refleksiv tahlil elementlarini kiritish orqali talabalarning empatiya, emotsional intellekt va stressga chidamlilik ko'nikmalarini mustahkamlash mumkin. Bu esa kelajakdagi shifokorlarning kasbiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish intellektual avlodni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki yuqori darajadagi muloqot madaniyatiga ega mutaxassislar sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishda, bemorlar bilan ishonchli munosabat o'rnatishda hamda jamiyat salomatligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Tibbiyot talabalari o'quv jarayonida psixologik omillarni hisobga olgan holda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish sog'lom jamiyat poydevorini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik-psixologik yo'nalish sifatida e'tirof etilishi mumkin. Kelgusida mazkur yo'nalishda kengroq empirik tadqiqotlar olib borish hamda maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, I. (2019). Ta'lim tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish. Toshkent: O'zbekiston.
2. Mamatov, R. (2020). Psixologiya va ta'lim: nazariy va amaliy asoslar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
3. Usmanov, K. (2021). Intellektual avlod – bugungi jamiyatning ko'zgusi. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
4. Nazarov, A. (2018). Tibbiyot talabalari uchun ta'lim metodologiyasi. Toshkent: O'zbekiston tibbiyot akademiyasi.

SPORTNING VOLEYBOL TURI BO'YICHA TALABALAR O'RTASIDA MUSOBAQALAR TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Roziqov Normurod Elmonovich
Navoiy davlat universiteti
"Sport faoliyati turlari" kafedrasi v.v.b. dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda musobaqalarni rejalashtirish, boshqarish, monitoring qilish hamda natijalarni tahlil etishda zamonaviy raqamli platformalar, mobil ilovalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan musobaqalarning talabalar jismoniy tayyorgarligi, motivatsiyasi va sport natijalariga ta'siri aniqlanadi. Maqola natijalari oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: voleybol, sport musobaqalari, raqamli texnologiyalar, talaba-yoshlar, sport menejmenti, elektron monitoring, innovatsion metodika.

Abstract: This article examines the scientific and methodological foundations of using digital technologies in organizing and conducting volleyball competitions among university students. The study analyzes the effectiveness of modern digital platforms, mobile applications, and information and communication technologies at the stages of planning, management, monitoring, and analysis of competition results. It also identifies the impact of digitally organized competitions on students' physical fitness, motivation, and sports performance. The research findings contribute to the improvement of physical education and sports activities in higher education institutions through innovative approaches.

Key words: volleyball, sports competitions, digital technologies, university students, sports management, electronic monitoring, innovative methodology.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-методические основы использования цифровых технологий при организации и проведении соревнований по волейболу среди студентов в высших учебных заведениях. В исследовании анализируется эффективность применения современных цифровых платформ, мобильных приложений и информационно-коммуникационных технологий на этапах планирования, управления, мониторинга и анализа результатов соревнований. Также выявляется влияние соревнований, организованных с использованием цифровых технологий, на уровень физической подготовленности, мотивацию и спортивные результаты студентов. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования системы физического воспитания и спортивной деятельности в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: волейбол, спортивные соревнования, цифровые технологии, студенты, спортивный менеджмент, электронный мониторинг, инновационная методика.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jismoniy tarbiya va sport sohasida ham yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalarni tashkil etish va o'tkazishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Voleybol – talabalar orasida keng ommalashgan, jamoaviylik, tezkorlik va taktik fikrlashni rivojlantiruvchi sport turi hisoblanadi. Musobaqalarni samarali tashkil etish, ishtirokchilarni ro'yxatga olish, o'yinlar jadvalini tuzish, natijalarni qayd etish hamda tahlil qilish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish sport musobaqalarining shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi talabalar o‘rtasida voleybol musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ushbu texnologiyalarning samaradorligini aniqlashdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun voleybol musobaqalarini tashkil etishda qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar tahlil qilindi, musobaqalarni rejalashtirish va boshqarish jarayonida elektron tizimlarning afzalliklari aniqlashtirildi hamda raqamli texnologiyalar asosida o‘tkazilgan musobaqalarning pedagogik va sport natijalariga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport va jismoniy tarbiya tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi masalasi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. Abdullaziz tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekistonda sport tizimining rivojlanish jarayonlari tarixiy-analitik nuqtai nazardan tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar integratsiyasining sportni boshqarish va musobaqalarni tashkil etishdagi o‘rni asoslab berilgan. Muallif sport faoliyatini samarali tashkil etishda raqamlashtirish jarayonlari muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda sport menejmenti va musobaqalarni boshqarishda raqamli transformatsiya masalalari keng yoritilgan. Christodimitropoulou, Choustoulakis va Antonopoulou tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sport sohasida Big Data, sun’iy intellekt va raqamli platformalarning joriy etilishi musobaqalarni rejalashtirish, monitoring va natijalarni tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtirishi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Ushbu yondashuvlar sport musobaqalarini zamonaviy boshqarish modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sport va jismoniy faoliyatda raqamli texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi masalalari Journal of Digital Life jurnalida chop etilgan ilmiy sharhlarda keng tahlil qilingan. Mazkur manbalarda elektron monitoring, raqamli tahlil va avtomatlashtirilgan tizimlar sportchilarning faoliyatini nazorat qilish hamda musobaqa jarayonining shaffofligini ta’minlashda muhim vosita sifatida baholanadi. Rydzik, Ambroży va Pałka tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa jamoaviy sport turlarida, jumladan voleybolda, texnologik integratsiya sport samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e’tirof etilgan.

Milliy ilmiy adabiyotlarda voleybol sportining rivojlanishi va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari Mahmudov hamda Turg‘unov tadqiqotlarida yoritilgan. Ushbu mualliflar O‘zbekiston sharoitida voleybol musobaqalarini tashkil etish jarayoniga innovatsion va raqamli yondashuvlarni joriy etish sport natijalari, talabalar motivatsiyasi va jamoaviylikni oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, sport to‘garaklari va musobaqalarni boshqarishda elektron tizimlardan foydalanishning metodik jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Raqamli texnologiyalarning sportchilarning tayyorgarligi va performansiga ta’siri masalalari Nuriddinov, Qi, Wu va Wang tadqiqotlarida empirik va tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Ushbu ishlarda videoanalitika, raqamli monitoring, ma’lumotlar tahlili va zamonaviy texnologiyalar yordamida sport faoliyatini optimallashtirish imkoniyatlari ochib berilgan. Sirojov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda esa jismoniy tarbiya va sport ta’limida zamonaviy texnologiyalar asosida kompetentlikni rivojlantirish masalalari yoritilib, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sport va raqamli yondashuvlarning integratsiyasi muhimligi asoslab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish va solishtirish metodlaridan foydalanildi. Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma va testlash usullari orqali empirik ma’lumotlar to‘plandi hamda olingan natijalar statistik tahlil asosida qayta ishlanib, umumlashtirildi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari orqali raqamli texnologiyalarning voleybol musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazishdagi samaradorligi amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Voleybol musobaqalarini tashkil etishda raqamli texnologiyalar sport musobaqalarini boshqarish jarayonini tizimlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Talabalar o‘rtasida voleybol musobaqalarini tashkil etishda onlayn ro‘yxatga olish platformalari, elektron musobaqa jadvali va turnir tizimlari, mobil ilovalar orqali natijalarni kiritish va e’lon qilish, shuningdek videoanalitika va onlayn translyatsiyalardan foydalanish mumkin. Ushbu raqamli vositalar musobaqalarni boshqarishda inson omili ta’sirini kamaytirib, tashkiliy aniqlik va shaffoflikni oshiradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida musobaqalarni rejalashtirish va boshqarish jarayoni bir necha bosqichda samarali amalga oshiriladi. Tayyorgarlik bosqichida ishtirokchilar elektron ro‘yxatga olinadi hamda jamoalar shakllantiriladi, musobaqa jarayonida o‘yinlar jadvali avtomatik tarzda tuziladi va hakamlik qarorlari elektron

tizim orqali qayd etiladi, yakuniy bosqichda esa natijalar tahlil qilinib, reytinglar shakllantiriladi. Elektron boshqaruv tizimlaridan foydalanish vaqt tejamkorligini ta'minlab, tashkiliy jarayonlarning aniqligi va izchilligini oshiradi.

Musobaqa jarayonida raqamli monitoring vositalari orqali o'yinchilarning faoliyati, texnik-taktik harakatlari hamda jamoa samaradorligi ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar murabbiy va o'qituvchilarga mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, individual va jamoaviy tayyorgarlikni takomillashtirish imkonini beradi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan voleybol musobaqalarida talabalar ishtiroki 20–25 % ga oshdi, musobaqa jarayoniga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada kuchaydi hamda sport natijalari va jamoaviylik darajasi ijobiy tomonga o'zgardi. Bu esa raqamli texnologiyalardan foydalanish musobaqalar samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi(1-jadval).

1-jadval: **Talabalar o'rtasida voleybol musobaqalarini tashkil etishda qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar**[1]

№	Raqamli texnologiya turi	Qo'llanish sohasi	Funksional imkoniyatlari
1	Onlayn ro'yxatga olish platformalari	Tashkiliy bosqich	Ishtirokchilarni elektron ro'yxatga olish, ma'lumotlarni saqlash
2	Elektron musobaqa jadvali	Musobaqa jarayoni	O'yinlar jadvalini avtomatik tuzish va yangilash
3	Mobil ilovalar	Natijalarni qayd etish	O'yin natijalarini real vaqt rejimida kiritish
4	Videoanalitika tizimlari	Tahlil bosqichi	Texnik-taktik harakatlarni tahlil qilish
5	Onlayn translyatsiya platformalari	Axborot tarqatish	Musobaqalarni jonli efirda namoyish etish

An'anaviy usulda tashkil etilgan musobaqalarda tashkiliy aniqlik o'rtacha darajada bo'lib, vaqt tejamkorligi pastligi bilan ajralib turadi hamda ma'lumotlar asosan qog'oz shaklida saqlanadi. Natijalarni tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan va jarayonning shaffofligi o'rtacha darajada ta'minlanadi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan musobaqalarda esa tashkiliy aniqlik va vaqt tejamkorligi yuqori bo'lib, barcha ma'lumotlar elektron bazalarda saqlanadi. Natijalarni tahlil qilish keng qamrovli amalga oshiriladi hamda jarayonning shaffofligi juda yuqori darajada ta'minlanadi(2-jadval).

2-jadval: **Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan voleybol musobaqalarining afzalliklari**[2]

Ko'rsatkichlar	An'anaviy usul	Raqamli texnologiyalar asosida
Tashkiliy aniqlik	O'rtacha	Yuqori
Vaqt tejamkorligi	Past	Yuqori
Ma'lumotlarni saqlash	Qog'oz shaklida	Elektron bazada
Natijalarni tahlil qilish	Cheklangan	Keng qamrovli
Shaffoflik darajasi	O'rtacha	Juda yuqori

Tajriba boshlanishidan oldin talabalar ishtiroki 60 % ni tashkil etgan bo'lsa, tajribadan so'ng bu ko'rsatkich 85 % ga yetib, 25 % lik ijobiy o'sish kuzatildi. Musobaqaga bo'lgan qiziqish dastlab o'rtacha darajada bo'lgan, tajriba yakunida esa yuqori darajaga ko'tarilib, taxminan 20 % ga oshdi. Jamoaviylik darajasi tajribagacha past bo'lgan bo'lsa, tajribadan keyin o'rtacha–yuqori bosqichga yetib, 18 % lik ijobiy o'zgarish qayd etildi. Shuningdek, sport natijalari barqaror bo'lmagan holatdan barqaror holatga o'tib, umumiy samaradorlik 15 % ga oshgani aniqlandi (3-jadval).

3-jadval: **Tajriba-sinov ishlari natijalarining solishtirma tahlili**[3]

Ko'rsatkichlar	Tajribagacha	Tajribadan so'ng	O'zgarish (%)
Talabalar ishtiroki	60 %	85 %	+25 %
Musobaqaga qiziqish	O'rtacha	Yuqori	+20 %
Jamoaviylik darajasi	Past	O'rtacha-yuqori	+18 %
Sport natijalari	Barqaror emas	Barqaror	+15 %

Musobaqalarni tashkil etish jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlarda amalga oshiriladi. Tayyorlov bosqichida ishtirokchilarni ro'yxatga olish va jamoalarni shakllantirish ishlari bajarilib, bu jarayonda Google

1 Izoh: Jadval ma'lumotlari raqamli texnologiyalarning musobaqalarni samarali tashkil etishdagi ahamiyatini aks ettiradi
2 Izoh: Jadvaldan ko'rinadiki, raqamli texnologiyalar musobaqalarni boshqarish samaradorligini sezilarli oshiradi.
3 Izoh: Tajriba natijalari raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan musobaqalar samaradorligini tasdiqlaydi.

Forms hamda maxsus sport platformalaridan foydalaniladi. Asosiy bosqichda o'yinlarni o'tkazish va hakamlik jarayonlari amalga oshirilib, barcha ma'lumotlar elektron protokollar orqali qayd etiladi. Yakuniy bosqichda esa musobaqa natijalari tahlil qilinib, Excel va turli analitik dasturlar yordamida umumlashtiriladi (4-jadval).

4-jadval: **Voleybol musobaqalarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish bosqichlari**

Bosqichlar	Amalga oshiriladigan ishlar	Raqamli vositalar
Tayyorlov bosqichi	Ro'yxatga olish, jamoalarni shakllantirish	Google Forms, Sport platformalar
Asosiy bosqich	O'yinlarni o'tkazish, hakamlik	Elektron protokollar
Yakuniy bosqich	Natijalarni tahlil qilish	Excel, analitik dasturlar

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalar o'rtasida sportning voleybol turi bo'yicha musobaqalarni tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish sport-ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar musobaqalarni rejalashtirish, boshqarish va tahlil qilish jarayonlarini ilmiy asosda amalga oshirishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida sport musobaqalarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Takliflar:

1. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida voleybol musobaqalarini tashkil etish jarayoniga raqamli texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish orqali sport musobaqalarining tashkiliy aniqligi va samaradorligini oshirish taklif etiladi.
2. Voleybol musobaqalarini rejalashtirish va boshqarishda yagona elektron platforma (ishtirokchilar ro'yxati, jadval, natijalar va reytinglar) yaratish hamda undan doimiy foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.
3. Musobaqalar jarayonida videoanalitika va elektron monitoring vositalaridan foydalanish orqali talabalar texnik-taktik tayyorgarligini ilmiy asosda baholash tizimini joriy etish taklif etiladi.
4. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi professor-o'qituvchilar hamda murabbiylar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur deb topiladi.
5. Talabalar o'rtasida voleybol musobaqalarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish tajribasini respublika miqyosida ommalashtirish va uni normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlash taklif etiladi.

Tavsiyalar:

1. Voleybol musobaqalarini tashkil etishda ishtirokchilarni onlayn ro'yxatga olish, o'yinlar jadvalini avtomatik shakllantirish va natijalarni elektron qayd etish tizimlaridan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.
2. Musobaqa natijalarini tahlil qilishda statistik dasturlar va elektron jadval vositalaridan foydalanib, har bir jamoa hamda o'yinchining individual ko'rsatkichlarini baholab borish tavsiya etiladi.
3. Talabalar motivatsiyasini oshirish maqsadida musobaqa jarayonlarini raqamli axborot resurslari va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam yoritib borish tavsiya etiladi.
4. Raqamli texnologiyalar asosida o'tkazilgan musobaqalar natijalaridan o'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda metodik material sifatida foydalanish tavsiya etiladi.
5. Voleybol musobaqalarida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar samaradorligini muntazam monitoring qilish hamda tahlil natijalariga asoslangan holda ularni takomillashtirib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaziz, A. O'zbekistonda sport va jismoniy tarbiyaning rivojlanish tarixi (1991–2025). Scientific-JL, 2025 – O'zbekiston sport tizimi va raqamli texnologiyalar integratsiyasini tarixiy-analitik kontekstda yoritgan maqola.
2. Christodimitropoulou, M., Choustoulakis, E., Antonopoulou, P. Digital Transformation in Sports Management: Technologies, Trends, and Strategic Implications. European Journal of Management and Marketing Studies, 2025 – maqolada sport menejmentida raqamli transformatsiyaning haqiqiy ahamiyati, Big Data, AI va boshqa texnologiyalarning joriy etilishi tahlil qilingan.
3. Digital Technology in Sports and Physical Activity. Journal of Digital Life – sport va jismoniy faoliyatda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi va samaradorligi haqida ilmiy sharh.

4. Rydzik, L., Ambroży, T., Pałka, T. Advances in Performance Analysis and Technology in Sports. MDPI – Applied Sciences, 2025 – sport performansini tahlil qilish va texnologiyalar bo'yicha ilmiy maxsus son maqolasi, jamoaviy sportlarda texnologik integratsiyaning dolzarbligi yoritilgan.
5. Mahmudov, S. Sh. Yangi O'zbekiston davrida voleybol sportining rivojlanishi. Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi, 2025 – voleybol sportining O'zbekiston sharoitida rivojlanishi va sport texnologiyalarining roli milliy kontekstda tahlil qilingan.
6. Nuriddinov, A. Use of Digital Sports Technologies in … ilmiy maqola – sport texnologiyalaridan foydalanishning qoidalari, aniqligi va sportchilar performansiga ta'siri bo'yicha empirik tahlil.
7. Qi, Y. Digital Technologies in Sports: Opportunities, Challenges, and Adoption Rates. International Journal, 2024 – raqamli texnologiyalarning sport tashkilotlarida joriy etilishi va sport amaliyotiga ta'siri bo'yicha aralash metodlar tahlili.
8. Sirojov, O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
9. Sirojov, O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
10. Sirojov, O. O. Physical Education and Sports – the Basis of a Healthy Lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence, 2025. – T. 05, № 10. – B. xx–yy. – ISSN 2692-5206. – 1232–1234 b.
11. Turg'unov, B. O. Ta'lim muassasalarida voleybol bo'yicha sport to'garaklarini samarali tashkil etish va o'tkazish. İQRO jurnali, 2025 – voleybol o'quv-mashg'ulot jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha metodik tahlil.
12. Wu, F., et al. A Survey on Video Action Recognition in Sports: Datasets, Methods and Applications. ArXiv preprint, 2022 – video tahlili texnologiyalari, jumladan voleybol kabi jamoaviy sportlarda harakatni aniqlash bo'yicha so'nggi ilmiy yondashuvlar taqdim etilgan.
13. Wang, X. Analysis of the Use of Technology in Modern Sports. Research article, 2025 – raqamli texnologiyalar (wearable device, VR, data analytics) sportdagi tayyorgarlik, xavfsizlik va performansni optimallashtirish bo'yicha tahlil qilingan.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xalilayev Batirjon Taxirovich
Toshkent viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Matematika fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot kompetensiyasi tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, malaka oshirish tizimidagi o'rni hamda direktorlarning kasbiy faoliyatida ushbu kompetensiyani rivojlantirish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, axborot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mazmunini takomillashtirish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, individual yondashuvni ta'minlash hamda motivatsion muhitni shakllantirish kabi pedagogik shart-sharoitlar tizimli ravishda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasalari, axborot kompetensiyasi, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, individual yondashuv.

Abstract: This article presents a scientific and theoretical analysis of the pedagogical conditions for developing the information competence of directors of preschool educational institutions in the process of professional development. The study examines the concept of information competence, its structural components, its role within professional development systems, and substantiates the necessity of enhancing this competence in managerial practice. Particular attention is paid to pedagogical conditions such as improving educational content, creating a practice-oriented learning environment, effectively applying innovative pedagogical technologies, ensuring individualized approaches, and fostering a supportive motivational environment.

Key words: preschool educational institutions, information competence, pedagogical conditions, innovative technologies, professional development, individual approach.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ педагогических условий развития информационной компетентности руководителей дошкольных образовательных учреждений в процессе повышения квалификации. Рассматривается сущность понятия информационной компетентности, ее структурные компоненты, роль в системе повышения квалификации, а также обосновывается необходимость ее развития в профессиональной деятельности руководителей. Особое внимание уделяется таким педагогическим условиям, как совершенствование содержания обучения, создание практико-ориентированной образовательной среды, эффективное использование инновационных педагогических технологий, обеспечение индивидуального подхода и формирование мотивационной поддержки.

Ключевые слова: дошкольные образовательные учреждения, информационная компетентность, педагогические условия, инновационные технологии, профессиональное развитие, индивидуальный подход.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim bo'g'in sanalib, ushbu tizim faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasi, ayniqsa, axborot kompetensiyasi darajasiga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, elektron hujjatlar aylanishini joriy etish hamda davlat axborot tizimlari orqali boshqaruvni tashkil etish maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlaridan yuqori darajadagi axborot savodxonligi va axborot kompetensiyasini talab etmoqda. Shu bilan birga, ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha zarur ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi, raqamli boshqaruv tizimlaridan samarali foydalanishda muayyan qiyinchiliklarning mavjudligi kuzatilmoqda.

Mazkur holat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish masalasini pedagogik nuqtayi nazardan yanada kengroq va chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. Shu bois, hozirgi sharoitda malaka oshirish tizimi direktorlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirishlari hamda kasbiy faoliyatida axborotdan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari O'zbekiston pedagogika fanida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etishda rahbarlarning kasbiy va axborot kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, A.V. Shin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslari chuqur tahlil qilinib, rahbar kadrlarning boshqaruv faoliyatida zamonaviy yondashuvlar va kompetensiyalarning ahamiyati asoslab berilgan.

Raqamlashtirish sharoitida ta'lim xodimlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish masalalari N.Sh. Mavlonov tadqiqotlarida yetakchi o'rin egallaydi. Muallif maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalar, elektron resurslar va axborot muhitining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan yoritadi. Ushbu yondashuv rahbar kadrlar, jumladan, direktorlar axborot kompetensiyasini rivojlantirish uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari Mavlonov N.Sh., Xalilayev B.T., Rabbimova M.M. va Nematova Z.F. tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada keng yoritilgan. Unda axborot texnologiyalarining ta'lim va boshqaruv jarayonidagi o'rni, ulardan samarali foydalanish yo'llari hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati bayon etilgan. Mazkur asar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari R. To'xtasinov va A. Abduqodirov tadqiqotlarida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Mualliflar ta'lim boshqaruvida AKTdan foydalanish, raqamli resurslar bilan ishlash hamda ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalarining rolini asoslab beradi. Ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot savodxonligini oshirish zaruratini ko'rsatadi.

Pedagogik kompetensiya va kasbiy mahorat masalalari N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva hamda N.S. Sayidahmedov ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagogik kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy qismlari va uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ochib berilgan. Ushbu ilmiy qarashlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida pedagogik va boshqaruv yondashuvlarini takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o'rganishda kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, malaka oshirish jarayonida ishtirok etayotgan direktorlar faoliyatini kuzatish hamda so'rovnoma va suhbatlar orqali yig'ildi. Empirik ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, elektron boshqaruv tizimlariga munosabati va kasbiy ehtiyojlarini aniqlashga yo'naltirildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish metodlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tahlil jarayonida miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi aniqlanib, xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot kompetensiyasi – shaxsning axborotni izlash, tanlash, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash va undan samarali foydalanish qobiliyati, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda ongli va maqsadga muvofiq foydalanishidir. Axborot kompetensiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari uchun nafaqat texnik ko'nikmalar majmuini, balki zarur va ishonchli ma'lumotni aniqlash, boshqaruv qarorlarini qabul

qilish jarayonida axborotdan foydalanish, elektron hujjatlar bilan ishlash, raqamli ta'lim platformalarini boshqarish, pedagoglar va ota-onalar bilan samarali axborot almashinuvi hamda axborot xavfsizligini ta'minlash kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Demak, axborot kompetensiyasini bir nechta asosiy tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Axborotni qidirish qobiliyati – zarur ma'lumotlarni topish va to'plash, internet tarmoqlari, kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot manbalaridan samarali foydalanish;
2. Axborotni tahlil qilish va baholash – ma'lumotlarning ishonchliligi va dolzarbligini aniqlash, axborotni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish;
3. Axborotdan samarali foydalanish – olingan ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash, muammolarni hal etish, qarorlar qabul qilish, ta'lim va ilmiy faoliyatda foydalanish;
4. Axborot kommunikatsiyasi va xavfsizligi – axborotni boshqalarga tushunarli va samarali tarzda yetkazish, intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda axborot xavfsizligi talablariga rioya etish.

Hozirgi davrda ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarida axborot kompetensiyasi, ya'ni elektron hujjatlar aylanishi, raqamli hisobotlar, onlayn platformalar bilan ishlash hamda masofaviy boshqaruv sohalarida qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ehtiyoj mavjudligi kuzatilmoqda. Zamonaviy rahbar esa pedagogik va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodikalarni bilishi, pedagogik jamoani samarali boshqarishi, motivatsiya berishi va ta'lim sifatini nazorat qilish ko'nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishi lozim.

Doimiy va tizimli ravishda tashkil etilgan malaka oshirish jarayoni, avvalo, direktorlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ularni yangi g'oyalar va zamonaviy metodik yondashuvlar bilan tanishtiradi hamda kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli malaka oshirish tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy rivojlanishida yetakchi o'rin tutadi. Ushbu tizim yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini o'rganish va innovatsion tajribalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.

Malaka oshirish – maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining hamda boshqaruv xodimlarining kasbiy bilim, ko'nikma va boshqaruv kompetensiyalarini zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq ravishda oshirish, yangilash va amaliy faoliyatga tatbiq etish jarayonidir. Ushbu jarayon:

- muassasa faoliyatini samarali boshqarishga tayyorlaydi;
- rahbarlik salohiyatini mustahkamlaydi;
- pedagogik va menejerlik yondashuvlarini chuqurlashtiradi.
- Malaka oshirish kurslarining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
- ta'lim menejmenti va boshqaruv strategiyalari;
- innovatsion pedagogik yondashuvlar;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari;
- jamoani boshqarish va yetakchilik ko'nikmalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasi oshirilishi natijasida ta'lim jarayoni sifatli rejalashtiriladi va samarali boshqariladi, muassasa faoliyati zamonaviy bilimlar asosida tashkil etiladi, strategik rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi, jamoani boshqarish hamda innovatsiyalarni joriy etish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, muassasaning uzoq muddatli rivojlanish rejasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etib, bolalar uchun sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlashga xizmat qiladi.

Direktor o'z jamoasining professional rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi, ularni muvofiqlashtiradi va pedagoglardan yuqori natijalarga erishishni talab etishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasida malaka oshirish jarayonini tashkil etish uchun maxsus muassasalar faoliyat yuritadi. Jumladan, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malaka oshirish instituti direktorlarning boshqaruv salohiyatini oshirishga xizmat qiladi hamda turli kurslar va sertifikatlash dasturlarini amalga oshiradi. Shuningdek, 2025-yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga menejerlik sertifikati joriy etilib, ushbu sertifikat asosida moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash belgilandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish tizimli va ilmiy jihatdan asoslangan pedagogik yondashuvni talab etadi. Maqsadga yo'naltirilgan o'quv mazmuni, amaliyotga asoslangan ta'lim, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, individual yondashuv hamda motivatsion muhit axborot kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlari hisoblanadi. Mazkur shart-sharoitlarning kompleks va izchil amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishga, shuningdek, maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Shin A.V. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Ped. fan. doktori dis. avtoreferati. – Toshkent, 2022.
3. Mavlonov N.Sh. Raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish. Ped. fan. falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
4. Mavlonov N.Sh., Xalilayev B.T., Rabbimova M.M., Nematova Z.F. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2025.
5. To'xtasinov R., Abduqodirov A. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Pedagogik kompetensiya va kasbiy mahorat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR INTEGRATSIYASI VA KORREKSIYASI

Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi va ularga ko'rsatiladigan korreksion yordam masalalari yoritilgan. Tadqiqotda jismoniy, aqliy, nutqiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishida turli nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga moslashtirishning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda maxsus pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Integratsiya va korreksiya jarayonlarining o'zaro uzviy bog'liqligi hamda ularning ta'lim-tarbiya samaradorligiga ta'siri ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: alohida yordamga muhtoj bolalar, integratsiya, korreksiya, maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, psixologik yordam, rivojlanish nuqsonlari.

Abstract: This article examines the integration and correctional support of children with special educational needs within the context of inclusive education. The study highlights the pedagogical importance of including children with physical, intellectual, speech, emotional, and social developmental disorders in both educational settings and social life. Emphasis is placed on the necessity of applying individualized pedagogical approaches that take into account the specific needs of each child. The interrelationship between integration and correction is analyzed, demonstrating their combined effectiveness in enhancing the quality of teaching and upbringing.

Key words: children with special educational needs, integration, correction, special pedagogy, inclusive education, psychological support, developmental disorders.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы интеграции и коррекционной работы с детьми, нуждающимися в особой помощи, в условиях инклюзивного образования. Раскрывается педагогическая значимость включения детей с физическими, интеллектуальными, речевыми, эмоциональными и социальными нарушениями развития в образовательную среду и общественную жизнь. Обоснована необходимость применения индивидуального педагогического подхода с учётом особых образовательных потребностей детей. Особое внимание уделено взаимосвязи процессов интеграции и коррекции, а также их влиянию на эффективность обучения и воспитания.

Ключевые слова: дети с особыми образовательными потребностями, интеграция, коррекция, специальная педагогика, инклюзивное образование, психологическая поддержка, нарушения развития.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat rivoji har bir bolaning teng huquqli ta'lim olishini hamda ijtimoiy hayotga to'liq qo'shilishini ta'minlashni talab etadi. Alohida yordamga muhtoj bolalar (AYMB) – bu jismoniy, aqliy, nutqiy, hissiy yoki ijtimoiy rivojlanishida turli xil cheklovlarga ega bo'lgan, biroq to'laqonli shaxs sifatida rivojlanish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish salohiyatiga ega bolalar hisoblanadi. Ushbu toifadagi bolalar uchun yaratiladigan maxsus pedagogik yondashuvlar, asosan, ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

Integratsiya – bolani jamiyat hayotiga qo'shish, uni tengdoshlari bilan birgalikda tarbiyalash va o'qitishni tashkil etish.

Korreksiya – rivojlanishdagi mavjud nuqsonlarni kamaytirish, kompensatsiya qilish hamda bolaning individual imkoniyatlarini rivojlantirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim va maxsus pedagogika masalalari O'zbekiston ta'lim tizimida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. To'xtayeva M. va Mamatova G. tomonidan 2021-yilda chop etilgan tadqiqotlarda inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash tamoyillari hamda maxsus pedagogik yondashuvlarning ahamiyati keng yoritilgan. Mualliflar inklyuziv muhitni yaratishda pedagogik moslashuv, individual yondashuv va korreksion yordamning uzviy bog'liqligini asoslab berganlar.

Alohida yordamga muhtoj bolalarning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy integratsiyasi masalalari Hasanov I. tomonidan 2019-yilda olib borilgan tadqiqotlarda chuqur tahlil qilingan. Muallif bolalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ularning ijtimoiy faolligi va mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonida korreksion-pedagogik ishlarning izchil olib borilishi bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham inklyuziv ta'lim va korreksiya muammolari keng yoritilgan. Volkova G. A. 2018-yilda maxsus psixologiya va korreksion pedagogika sohasida olib borgan tadqiqotlarida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning psixologik-pedagogik mexanizmlarini tahlil qilgan. UNESCO tomonidan 2020-yilda e'lon qilingan global konsepsiyada inklyuziv ta'limning barqaror rivojlanishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Florian L. va Black-Hawkins K. tomonidan 2017-yilda olib borilgan tadqiqotlarda esa inklyuziv pedagogikaning amaliy modellarini joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

- *M. M. Hoshimova* – "O'zbekiston muassasalarida inklyuziv ta'lim uchun maxsus mutaxassisning yetishmasligi" (2024-yil). Tadqiqotda umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limning joriy holati, imkoniyati cheklangan bolalar va sog'lom bolalarning bir muhitda ta'lim olishi hamda maxsus mutaxassislar yetishmasligi masalalari tahlil qilingan.
- *G'iyasova Nargiza Yunus qizi* – "Inklyuziv ta'lim: muammolar va yechimlari" (2023-yil). Mazkur ishda inklyuziv ta'lim tushunchasi, uning respublika miqyosida joriy etilishi, asosiy muammolar hamda ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan.
- *Akbarova Shohsanam Raxmat qizi* – "Ta'lim tizimida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga yo'naltirish". Tadqiqotda maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni joriy etish, integratsiya va korreksion ishlar masalalari yoritilgan.
- *Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna* – "Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish". Ushbu ishda boshlang'ich sinf darajasida inklyuziv ta'limni tashkil etish hamda uning samaradorligini oshirish usullari tahlil qilingan.
- *Mamatova Aziza Bo'riboyevna* – "Imkoniyati cheklangan o'quvchilar inklyuziv ta'limining ilmiy-nazariy va huquqiy asoslari". Tadqiqotda imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun inklyuziv ta'lim tushunchasi, uning tamoyillari va huquqiy jihatlari ko'rib chiqilgan.
- *Doniyor Shuhrat o'g'li Aliqulov* – "O'zbekistonda inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari". Mazkur tadqiqotda inklyuziv ta'limni joriy etishda huquqiy mexanizmlar, qonunchilik yuklamalari va ularni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alohida yordamga muhtoj bolalar bir nechta asosiy toifalarga ajratiladi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar orasida yengil darajadagi aqliy zaiflik (F70) alohida ajralib turadi. Diqqatni jamlay oladigan va nisbatan yaxshi mexanik xotiraga ega bo'lgan yengil darajadagi aqliy zaif bolalar maxsus (korreksion) dasturlar asosida ta'lim olishlari mumkin. Ushbu dasturlar aniq-ko'rgazmali metodlarga asoslanib, matematika, yozuv, o'qish va boshqa fanlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi. Shu sababli ular 9 yil davomida ta'lim dasturini egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Keyinchalik bunday bolalar kasbiy bilimlarni o'zlashtirib, mustaqil ravishda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin.

Yengil darajadagi aqliy zaif bolalarda nutq kamchiliklari nisbatan kech shakllanadi, biroq ularning ko'pchiligi kundalik muloqotda nutqdan foydalanish, suhbatni davom ettirish va unda ishtirok etish ko'nikmalarini egallashga qodir bo'ladilar. Shunga qaramay, ularning nutqida fonetik buzilishlar, so'z boyligining cheklanganligi, so'z ma'nolarini yetarli darajada tushunmaslik holatlari kuzatiladi. Faol lug'at passiv lug'atdan ortda qoladi, so'z boyligi esa ko'pincha bir xil strukturalardagi so'z birikmalari bilan cheklanadi. Nutqning grammatik tuzilishidagi buzilishlar, fikrni ifodalashda, o'qilgan yoki eshitilgan matnni qayta bayon etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ayrim hollarda nutqning umumiy rivojlanmaganligi belgilari ham namoyon bo'ladi.

Mo‘tadil darajadagi aqliy zaiflik (F71) holatida bolalarda nutq rivoji sekin kechadi, lug‘at boyligi cheklangan bo‘lib, grammatik jihatdan to‘liq gap tuzishda qiyinchiliklar kuzatiladi. O‘qish, yozish va hisoblash ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda muammolar yuzaga keladi. O‘zlashtirilgan bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llash uchun ko‘p marotaba takrorlash va amaliy mashg‘ulotlar talab etiladi. Ushbu toifadagi bolalar hissiy jihatdan ta’sirchan bo‘lib, kayfiyatning tez o‘zgarishi, injiqlik, yig‘loqilik yoki ayrim hollarda tajovuzkorlik holatlari kuzatiladi. Biroq mehr, e’tibor va sabr bilan tashkil etilgan ta’lim jarayonida ijobiy natijalarga erishish mumkin. Ta’lim jarayoni maxsus soddalashtirilgan dasturlar asosida olib borilib, ko‘rgazmali, amaliy va takroriy usullardan keng foydalaniladi. Predmetli faoliyat, o‘yinlar, rasmlar, kuzatuvlar va hayotiy misollar mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi. Mo‘tadil darajadagi aqliy zaif shaxslar oddiy maishiy ishlarni bajarish, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, tozalikka rioya etish va sodda mehnat turlarida ishtirok etish ko‘nikmalarini egallay oladilar, biroq mustaqil yashash va murakkab vazifalarni bajarishda doimiy yordam va nazoratga muhtoj bo‘ladilar. Ushbu bolalarda tafakkur, muammoni hal qilish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlari sekin kechadi.

Nutqiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar orasida motor va sensor alaliya (F80.1, F80.2) muhim o‘rin tutadi. Motor alaliya nutqiy va nutqiy bo‘lmagan belgilar bilan namoyon bo‘lib, leksik-grammatik va fonetik-fonematik buzilishlar bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqni to‘liq idrok eta olmaydilar, lug‘at boyligi kam bo‘ladi va so‘zlardan noto‘g‘ri foydalanadilar, biroq o‘zlariga qaratilgan nutqni ma’lum darajada tushunishlari mumkin. Sensor alaliyada esa bosh miyaning chap yarimshari yuqori qismlarining shikastlanishi natijasida bolalar atrofdagilar nutqini yomon tushunadi yoki mutlaqo idrok eta olmaydi. Fonetik-fonematik idrokning buzilishi noto‘g‘ri javoblar berishga olib keladi va bu holat ulg‘aygan sari ruhiy rivojlanishning ham ortda qolishiga sabab bo‘ladi. Sensor alaliyani korreksiyalash motor alaliyaga nisbatan murakkab bo‘lib, hozirgi kunga qadar yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Duduqlik (F98.5) nutqning boshida, ayrim hollarda o‘rtasida yuzaga keladigan artikulyatsion va hiqildoq mushaklarining spazmatik harakatlari bilan tavsiflanadi. Klonik duduqlanishda so‘z va bo‘g‘inlarning takrorlanishi, tonik duduqlanishda esa tovush chiqarishning to‘xtashi kuzatiladi. Dizartriya (R47.1) markaziy yoki periferik nerv tizimi shikastlanishi natijasida tovush va so‘zlarni talaffuz qilishning qiyinlashuvi bilan namoyon bo‘ladi. Bolalar afaziyasi (F80.3) esa artikulyatsiya va eshitish qobiliyati saqlangan holda, fikr va muloqotni ifodalashda so‘zlardan foydalanish qobiliyatining yo‘qolishi bilan xarakterlanadi. Ushbu nutqiy nuqsonlar bolalarda kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanishini sezilarli darajada sekinlashtiradi.

Sensor nuqsonli bolalar uzoq muddatli fiziologik va psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar. Ko‘rish, eshitish, hid bilish va teri-taktil sezgilardagi buzilishlar bolaning atrof-muhitni idrok etishiga, predmetlar bilan harakat qilishiga va o‘yin faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Harakat tizimi buzilishlariga ega bolalar, xususan bolalar serebral falaji (BSF), perinatal davrda yoki chaqaloqlikning ilk haftalarida markaziy asab tizimiga salbiy ta’sir etuvchi omillar natijasida yuzaga keladi. Gipoksiya, ya’ni kislorod yetishmasligi eng xavfli omil hisoblanadi. Mushak atrofiyasi va boshqa nevrologik kasalliklar mushak massasining kamayishi, kuchsizlanish va harakat cheklanishiga olib keladi. Ayrim hollarda to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar va fizioterapiya orqali bu holatni qisman bartaraf etish mumkin. Bunday bolalar davolovchi jismoniy tarbiya, reabilitatsiya va logopedik mashg‘ulotlarga muhtoj bo‘ladilar.

Emotsional-irodaviy va xulq-atvor buzilishlariga ega bolalar orasida autizm spektri buzilishlari (F84.0), giperfaollik va diqqat yetishmovchiligi sindromi (ADHD) hamda hissiy barqarorlikning buzilishi kuzatiladi. Autizm spektri buzilishlarida ijtimoiy muloqot va xatti-harakatlarda o‘ziga xos cheklanishlar mavjud bo‘lib, maxsus psixologik va pedagogik yondashuv talab etiladi. ADHD bolalarda diqqatni jamlash qiyinligi, giperaktivlik va impulsivlik bilan namoyon bo‘ladi. Hissiy barqarorlikning buzilishi esa shaxslararo munosabatlarda beqarorlik, kuchli hissiy javoblar va o‘z-o‘ziga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu toifadagi bolalar bilan ishlashda psixologik yordam va individual tarbiyaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Integratsiya va korreksiya jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birisiz samarali bo‘la olmaydi. Avvalo bola bilan korreksion ishlar olib borilib, asosiy rivojlanish nuqsonlari yumshatiladi, shundan so‘ng integratsiya jarayoniga tayyorlanadi. Integratsiya esa bolaning o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his etishiga yordam berib, olib borilgan korreksion ishlarning samaradorligini yanada oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alohida yordamga muhtoj bolalarning integratsiyasi va korreksiyasi ularning hayot sifatini yaxshilash, mustaqil bo‘lib shakllanishi hamda kelgusida jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli qo‘shilishlari uchun zarur jarayon hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligini ta’minlashda pedagoglar, psixologlar, shifokorlar va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xtayeva, M., & Mamatova, G. (2021). Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Hasanov, I. (2019). Alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy integratsiyalashning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU.
3. Волкова, Г. А. (2018). Специальная психология и коррекционная педагогика. – Москва: Академия.
4. UNESCO (2020). Inclusive Education: Towards a Global Agenda. – Paris: UNESCO Publishing.
5. Florian, L., & Black-Hawkins, K. (2017). Exploring Inclusive Pedagogy. – Cambridge: Cambridge University Press.

SPORTNING GANDBOL TURI BO'YICHA TALABALAR O'RTASIDA MUSOBAQALAR TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Berdiyev Jamshid Baxriddinovich
Navoiy davlat universiteti
"Sport faoliyati turlari" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron monitoring tizimlari, onlayn ro'yxatga olish hamda musobaqa jadvalini shakllantirish platformalaridan foydalanish orqali musobaqalarni samarali tashkil etish usullari o'rganilgan. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar asosida o'tkazilgan musobaqalarning talabalar ishtiroki, jismoniy tayyorgarligi va jamoaviy o'zaro hamkorlik sifatlariga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari sport metodikasini hamda talabalarning jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: gandbol, sport musobaqalari, talabalar, raqamli texnologiyalar, elektron monitoring, musobaqa texnologiyalari, metodik yondashuv.

Abstract: The article analyzes the scientific and methodological foundations for improving technologies used in organizing and conducting handball competitions among students. The study examines effective approaches to competition management through the application of modern digital technologies, electronic monitoring systems, online participant registration, and scheduling platforms. Experimental findings confirm that the use of digital technologies in sports competitions has a positive impact on student participation, physical fitness levels, and the quality of team cooperation. The research results are of significant practical importance for enhancing sports methodology and improving the effectiveness of physical education systems in educational institutions.

Key words: handball, sports competitions, students, digital technologies, electronic monitoring, competition technologies, methodological approach.

Аннотация: В статье проанализированы научно-методические основы совершенствования технологий организации и проведения соревнований по гандболу среди студентов. В ходе исследования изучены методы эффективной организации соревнований с использованием современных цифровых технологий, электронных систем мониторинга, онлайн-регистрации участников и платформ для формирования расписания соревнований. Экспериментально подтверждено, что применение цифровых технологий при проведении соревнований оказывает положительное влияние на активность участия студентов, уровень их физической подготовленности и качество командного взаимодействия. Результаты исследования имеют важное практическое значение для совершенствования методики организации спортивных мероприятий в образовательных учреждениях и повышения эффективности физического воспитания студентов.

Ключевые слова: гандбол, спортивные соревнования, студенты, цифровые технологии, электронный мониторинг, технологии проведения соревнований, методический подход.

KIRISH

Gandbol – jismoniy faollik, tezkorlik va jamoaviy o'zaro hamkorlikni rivojlantiruvchi sport turidir. O'zbekiston Respublikasida talabalar o'rtasida sportni rivojlantirish, jismoniy tarbiya hamda musobaqalarni tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5887-son[1] Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5887-son Farmoni: https://lex.uz/docs/-4631208

masining 2022-yil 18-martdagi "2021 – 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–166-son[2] qarori sport musobaqalarini tashkil etishda ilmiy-metodik asoslarni joriy etish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni belgilab beradi.

Talabalar o'rtasida gandbol musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish jarayoni yuqori tashkiliy aniqlikni, elektron monitoringni hamda real vaqt rejimida natijalarni qayd etishni talab qiladi. Shu sababli zamonaviy raqamli texnologiyalar va metodik yondashuvlarni qo'llash musobaqalar sifatini oshirishga hamda talabalar faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Gandbolga oid qiziqarli ma'lumotlar

Gandbol – jamoaviy sport turi bo'lib, u tezkorlik, chidamlilik, kuch va strategik fikrlashni talab qiladi. Gandbol 19-asr oxirlarida Yevropada rivojlanib, 20-asr boshlarida zamonaviy shaklini olgan. Dastlab o'yin qoidalari hududlarga qarab farqlangan bo'lsa-da, 1920-yillarda Germaniya va Daniyada yagona rasmiy qoidalar ishlab chiqilgan. 1936-yilda gandbol birinchi marta Olimpiya o'yinlarida namoyish etilgan, 1972-yildan esa Olimpiya dasturiga rasmiy sport turi sifatida kiritilgan.

Gandbolning muhim jihatlaridan biri uning yuqori tezkorligi va dinamik xarakterga egaligidir. Maydon uzunligi odatda 40 metr, kengligi 20 metrni tashkil etadi va har bir jamoa maydonda 7 nafar o'yinchi, jumladan darvozabon bilan harakat qiladi. O'yin jarayonida futbol va basketbol kabi sport turlaridan farqli ravishda, o'yinchilar to'pni qo'l bilan ushlab yuguradi hamda qarshi darvozaga yo'naltirish orqali gol kiritadi. Shu bilan birga, o'yin davomida tezkor qaror qabul qilish, jamoa bilan uzviy hamkorlikda harakat qilish talab etiladi.

Yoshlar sporti nuqtai nazaridan gandbol talabalar orasida jismoniy va ruhiy rivojlanishning samarali vositasi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam gandbol mashg'ulotlari yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, mushak tonusini oshiradi hamda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, jamoaviy o'yinlar talabalar orasida muloqot, hamkorlik va strategik fikrlash qobiliyatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Gandbolning qoidalari va texnik jihatlari ham o'ziga xosdir. Xususan, o'yin davomida to'pni 3 soniyadan ortiq ushlab turish yoki 3 qadamdan ortiq yurish taqiqlanadi. Bu esa o'yinchilardan tezkor qaror qabul qilish va pozitsiyani tez o'zgartirish qobiliyatini talab qiladi. Shuningdek, tezkor yugurishlar, sakrashlar va to'pni yuqoridan darvozaga yo'llash kabi harakatlar jismoniy tayyorgarlik darajasini sezilarli oshiradi.

Gandbolni yoshlar o'rtasida rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalardan ham keng foydalanilmoqda. Jumladan, videoanalitika, elektron hisob-kitob tizimlari va mobil ilovalar yordamida o'yinchilar faoliyati hamda musobaqa natijalari real vaqt rejimida kuzatiladi. Bu murabbiylarga individual va jamoaviy mashg'ulotlarni optimallashtirish, shuningdek, talabalarning kuch, chidamlilik va tezkorlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, dunyo miqyosida gandbol bo'yicha qiziqarli statistik ma'lumotlar mavjud. Jumladan, eng yuqori gol urish ko'rsatkichlari 10 va undan ortiq golni tashkil etadi, o'yin davomida o'rtacha o'yinchi 5–6 km masofani bosib o'tadi hamda har bir o'yinda tezlik va kuchni uyg'un holda qo'llashi talab etiladi. Shu bilan birga, Gandbol federatsiyalari va mahalliy sport tashkilotlari yoshlarni sportga jalb etish maqsadida turnirlar va ligalar tashkil etib, ularning ommalashuviga katta hissa qo'shmoqda.

Yuqoridagi faktlar shuni ko'rsatadiki, gandbol nafaqat jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi, balki talabalar orasida strategik fikrlash, jamoaviy hamkorlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiruvchi sport turi hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari talabalar orasida gandbol musobaqalarini kengaytirish va ularni raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish bo'yicha tizimli choralarni amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega.

Maqsadi:

Talabalar o'rtasida gandbol musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali musobaqa texnologiyasini takomillashtirish.

Vazifalari:

- gandbol musobaqalarini tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini o'rganish;
- raqamli texnologiyalar va elektron monitoring tizimlarini qo'llash metodikasini ishlab chiqish;
- tajriba-sinov ishlari orqali musobaqalarning samaradorligini aniqlash;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-martdagi "2021 – 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–166-son qarori: https://lex.uz/docs/-5348948

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gandbol sportining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, xususan O‘zbekiston sharoitidagi taraqqiyoti masalalari Asadov tomonidan batafsil tahlil qilingan bo‘lib, muallif gandbolning tarixiy rivojlanishi, musobaqaviy faoliyatning evolyutsiyasi va istiqbolli yo‘nalishlarini ilmiy asosda yoritadi. Shuningdek, Axmedova tadqiqotlarida gandbol sportining jahon sporti tizimidagi o‘rni, uning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati hamda talabalar sportida tutgan mavqei ochib berilgan. Ushbu ishlarda gandbol musobaqalarini tashkil etish jarayonida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurati alohida ta’kidlanadi.

Xorijiy ilmiy manbalarda gandbol bo‘yicha tadqiqotlarning umumiy holati va rivojlanish tendensiyalari keng yoritilgan. Dharmeshkumar tomonidan amalga oshirilgan tahlilda gandbol ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari, sport faoliyatining murakkab tizim sifatidagi xususiyatlari ko‘rsatib berilgan. Henze va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan monitoring tizimlari esa sportchilarning musobaqaviy faoliyatini baholashda elektron va raqamli texnologiyalarning samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotlar gandbol musobaqalarini tashkil etishda monitoring va raqamli boshqaruv texnologiyalarining ahamiyatini ochib beradi.

Talabalar sporti va jismoniy tayyorgarlik masalalari Mahmudov, Sirojov, Xasonova hamda Xayitov tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur ishlar gandbol mashg‘ulotlari va musobaqalarining jismoniy tayyorgarlik, koordinatsion qobiliyatlar hamda texnik-taktik ko‘rsatkichlarga ta’sirini asoslab beradi. Urazbaev va Daryabaeva gandbol mashg‘ulotlarining strukturasini tahlil qilgan bo‘lsa, Yusupov tadqiqotlarida gandbolchilar tayyorgarligida ko‘rsatkichlar dinamikasini takomillashtirish usullari ko‘rsatib berilgan. Ushbu ilmiy ishlarda ilgari surilgan xulosalar gandbol musobaqalarini raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish zaruratini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish va videoanalitika, testlash hamda monitoring usullari, tajriba-sinov ishlari, shuningdek, matematik-statistik tahlil usullaridan, jumladan Excel va SPSS dasturlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gandbol musobaqalarini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari. Gandbol jamoaviy sport turi bo‘lib, talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan musobaqalar yuqori tashkiliy aniqlikni, o‘yin qoidalarini to‘liq bilishni hamda tezkor qaror qabul qilishni talab etadi. Musobaqalarni tashkil etish jarayoni tayyorlov, asosiy va yakuniy bosqichlarda amalga oshiriladi. Tayyorlov bosqichida jamoalar shakllantiriladi, ishtirokchilar ro‘yxati tuziladi va mashg‘ulotlar rejasi ishlab chiqiladi. Asosiy bosqichda o‘yinlar o‘tkaziladi, hakamlik jarayoni tashkil etiladi va natijalar qayd etiladi. Yakuniy bosqichda esa natijalar tahlil qilinadi, g‘oliblar mukofotlanadi hamda metodik xulosalar ishlab chiqiladi. Musobaqalarni samarali tashkil etish maqsadida elektron ro‘yxatga olish tizimlari, onlayn jadval platformalari va mobil ilovalardan keng foydalaniladi. Ushbu vositalar talabalar faoliyatini muntazam kuzatish, o‘yin natijalarini real vaqt rejimida qayd etish va musobaqa jarayonining shaffofligini ta’minlash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Raqamli texnologiyalar asosida musobaqalarni tashkil etish ishtirokchilar ro‘yxati va jamoalarni avtomatik shakllantirish, o‘yinlar jadvalini elektron shaklda boshqarish, natijalarni real vaqt rejimida kiritish va onlayn e’lon qilish, videoanalitika yordamida texnik-taktik harakatlarni tahlil etish, shuningdek, musobaqa jarayonini elektron monitoring va statistik ko‘rsatkichlar asosida kuzatish imkoniyatlarini yaratadi.

Tajriba-sinov ishlari va natijalari. Tajriba-sinov ishlari 2022–2025-yillarda O‘zbekistonning oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazildi. Tajriba guruhi musobaqalarda raqamli texnologiyalar asosida ishtirok etgan bo‘lsa, nazorat guruhi an’anaviy metodika asosida tashkil etilgan musobaqalarda qatnashdi. Olingan natijalar tajriba guruhi ishtirokchilari faoliyati yuqori tashkiliy aniqlik bilan amalga oshganini, jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik va chidamlilik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshganini, shuningdek, jamoaviy hamkorlik va o‘yin taktikasini qo‘llash qobiliyati yaxshilanganini ko‘rsatdi(1,2-jadval).

1-jadval: **Talabalar o‘rtasida gandbol musobaqalarida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (tajriba guruhi, n=20)3**

Ko‘rsatkichlar	Musobaqa boshlanishida	Musobaqa yakunida	O‘zgarish (%)
20 m yugurish (soniya)	4,8 ± 0,2	4,5 ± 0,2	–6,3
1000 m yugurish (daq.)	4,20 ± 0,25	3,85 ± 0,20	–8,3
Sakrash uzunligi (sm)	185 ± 7	198 ± 6	+7,0
4×10 m chaqqonlik yugurishi (soniya)	11,7 ± 0,3	11,0 ± 0,2	–5,9
Push-up (marta)	15 ± 3	21 ± 3	+40,0

2-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlari jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining solishtirma tahlili4**

Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi (n=20)	Nazorat guruhi (n=20)	Farq (%)
20 m yugurish (soniya)	4,5 ± 0,2	4,7 ± 0,2	–4,3
1000 m yugurish (daq.)	3,85 ± 0,20	4,10 ± 0,25	–6,1
Sakrash uzunligi (sm)	198 ± 6	188 ± 7	+5,3
4×10 m chaqqonlik yugurishi (soniya)	11,0 ± 0,2	11,5 ± 0,3	–4,3
Push-up (marta)	21 ± 3	17 ± 3	+23,5

XULOSA VA TAKLIFLAR

Takliflar:

1. Talabalar o‘rtasida gandbol musobaqalarini tashkil etishda raqamli texnologiyalarni muntazam qo‘llash.
2. Musobaqa jadvali va ishtirokchilar ro‘yxatini elektron shaklda yuritish.
3. Videoanalitika va monitoring vositalari orqali texnik-taktik natijalarni baholash.
4. Talabalar motivatsiyasini oshirish maqsadida musobaqalarni onlayn platformalarda yoritish.
5. Tajriba natijalarini o‘quv-mashg‘ulot jarayonida metodik material sifatida qo‘llash.

Tavsiyalar:

1. Musobaqalarni tashkil etishda yuklamalarni yosh va jismoniy tayyorgarlik darajasiga moslashtirish.
2. Elektron monitoring orqali natijalarni tahlil qilish asosida murabbiylar uchun individual mashg‘ulot rejalarini ishlab chiqish.
3. Talabalar va murabbiylar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha treninglar tashkil etish.
4. Musobaqalar jarayonida ma’lumotlarni ma’lumotlar bazasiga kiritish va ularni statistik tahlil qilishni doimiy amalga oshirish.
5. Raqamli texnologiyalar samaradorligini monitoring qilish va ularni muntazam takomillashtirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asadov F. Gandbol o‘yini kelib chiqishi va uni O‘zbekistonda rivojlantirish istiqbollari. Molodye Uchenye, 2025 – O‘zbekiston sharoitida gandbolning tarixiy rivojlanishi va kelajak istiqbollari haqida ilmiy tahlil.
2. Axmedova Z. T. Jahon sporti arenasida gandbol sportining o‘rni va ahamiyati. Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali, 2024 – maqolada gandbol sportining global arenadagi o‘rni, ijtimoiy va sport tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan.
3. Dharmeshkumar P. Handball research: State of the art. JournalNX, 2021 – gandbol bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar holati va sportning murakkab tizim xususiyatlari tahlili.
4. Henze A. S., et al. Athlete monitoring in handball (ATHMON HB): A systematic review protocol. Systematic Reviews, 2025 – zamonaviy monitoring tizimlari va ularning sport natijalariga ta’siri bo‘yicha tizimli ko‘rib chiqish protokoli.
5. Mahmudov S. Sh. Talabalar sporti va jismoniy tayyorgarlik. Toshkent, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5887-son Farmoni, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–166-son Qarori, 2022.

3 Izoh: Kompleks texnologiyalar asosida o‘tkazilgan musobaqa talabalar jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilagan.

4 Tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhi bilan solishtirganda yuqori bo‘lib, raqamli va kompleks musobaqa texnologiyalarining samaradorligini tasdiqlaydi.

8. Sirojov O. O. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
9. Sirojov O. O. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
10. Sirojov O. O. Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2020. – 162 b.
11. Sirojov O. O. Physical education and sports – the basis of a healthy lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 05, № 10. – B. xx–yy. – ISSN 2692-5206. – 1232–1234 pp.
12. Sirojov O. O. The results of achievements in the field of sports today // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 05, № 10. – B. xx–yy. – ISSN 2692-5206. – 2011–2013 pp.
13. Urazbaev N., Daryabaeva A. Analyzing the structure of handball training. Modern Science and Research, 2025 – gandbol mashg‘ulotlarining strukturasini tahlil qiluvchi ilmiy maqola.
14. Xasonova Sh. R. Oliy ta’lim muassasalari talaba-qizlarining sport o‘yinlari (gandbol, badminton) yordamida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Journal of New Century Innovations, 2025 – talabalarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi.
15. Xayitov B. N. Gandbolchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. International Conference on Interdisciplinary Science, 2025 – texnik tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar.
16. Yusupov Z. Methodology for improving the dynamics of development of relative indicators of handball players. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2025 – gandbolchilarni tayyorlash jarayonida indikatorlar dinamikasini yaxshilash usullari.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

18–21 YOSHDAGI TALABA FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATI JARAYONIDA HUJUM HARAKATLARINING MIQDORIY VA SIFAT KO'RSATKICHLARI

Djemilov Temur Rasimovich
Navoiy davlat universiteti
"Jismoniy madaniyat" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida futbolchilarning hujumdagi ishtirok faolligi, gol urish imkoniyatlari, to'p uzatish aniqligi hamda qarshi hujumlardagi samaradorligi kabi asosiy parametrlar o'rganildi. Sport faoliyatini baholash jarayonida statistik tahlil usullari qo'llanilib, hujum ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlangan. Olingan natijalar talaba futbolchilarning hujum faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: talaba futbolchilar, hujum harakatlari, miqdoriy ko'rsatkichlar, sifat ko'rsatkichlar, futbol tahlili, musobaqa faoliyati.

Abstract: This paper presents a systematic analysis of quantitative and qualitative indicators of attacking actions performed by student football players aged 18–21 during competitive performance. The study examines key parameters, including offensive involvement, goal-scoring opportunities, passing accuracy, and effectiveness of counterattacking actions. Statistical analysis methods were employed to identify correlations among the main indicators of attacking performance. The findings demonstrate practical relevance and provide a scientific basis for developing methodological recommendations aimed at optimizing attacking actions in student football.

Key words: student football players, attacking actions, quantitative indicators, qualitative indicators, football analysis, competitive performance.

Аннотация: В статье представлен системный анализ количественных и качественных показателей атакующих действий студенческих футболистов в возрасте 18–21 года в процессе соревновательной деятельности. В ходе исследования изучены показатели участия в атаке, вероятность взятия ворот, точность передач, а также эффективность контратакующих действий. С применением статистических методов выявлены взаимосвязи между основными параметрами атакующей деятельности. Полученные результаты имеют практическую значимость и могут быть использованы при разработке методических рекомендаций по оптимизации атакующих действий студенческих футболистов.

Ключевые слова: студенческие футболисты, атакующие действия, количественные показатели, качественные показатели, футбольный анализ, соревновательная деятельность.

KIRISH

Futbol – jahon miqyosida eng ommabop sport turlaridan biri bo'lib, yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati samaradorligi ularning keyingi sport faoliyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish hamda yosh iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi "O'zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–262-sonli[1] Farmoni futbol infratuzilmasini yangilash, raqamli platfor-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi "O'zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–262-sonli Farmoni: https://lex.uz/docs/-7696588

malarni joriy etish hamda yoshlarni faol sport bilan shug'ullanishga keng jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5368-sonli[2] Farmoni futbol sohasida murabbiy va hakamlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, iqtidorli futbolchilarni seleksiya qilish hamda ularni professional darajaga yetkazishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar yosh futbolchilarning sport faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish, shuningdek, ularning musobaqa faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan tayyorgarlik tizimini shakllantirish uchun muhim normativ asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Futbolda hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish masalasi so'nggi yillarda sport ilmida muhim yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Artikov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hujum chizig'i o'yinchilarining texnik va taktik faoliyati, ularning o'yin jarayonidagi pozitsion o'zgarishlari va hujum samaradorligiga ta'siri atroflicha yoritilgan. Muallif hujum harakatlarining natijadorligi individual texnika va jamoaviy taktikaning uyg'unligiga bog'liqligini ilmiy asosda ko'rsatib bergan. Karimovning tadqiqotlarida esa yosh futbolchilarning hujum harakatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, hujumda qo'llaniladigan texnik elementlarning o'yin natijalariga bevosita ta'siri isbotlangan.

Futbolchilarning hujum faoliyatini takomillashtirishda taktik tayyorgarlik masalalari Bektorov tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, unda hujum jarayonida qaror qabul qilish tezligi, o'yin vaziyatini baholash va to'p uzatish aniqligi muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Ilyosboyevning ilmiy ishlarida esa O'zbekistonda futbol infratuzilmasi, yosh futbolchilarni tayyorlash tizimi hamda musobaqa faoliyatini statistik tahlil qilish masalalari keng yoritilgan. Muallif futbolchilar faoliyatini baholashda miqdoriy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlarini ham inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Talaba va yosh futbolchilarning hujum harakatlarini shakllantirishda jismoniy tayyorgarlikning o'rni Islomov, Shaniyazov va Arziyev tadqiqotlarida alohida e'tirof etilgan. Ushbu ishlarda hujumni markaz va qanot zonalaridan tashkil etish, qarshi hujumlarning samaradorligi hamda yakuniy zarbalar sifati tahlil qilingan. Muhammadovning ilmiy-o'quv qo'llanmasida hujum va himoya taktik harakatlarini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilib, hujum samaradorligini oshirishda tizimli yondashuv muhimligi ko'rsatib berilgan. Sirojovning tadqiqotlari esa jismoniy tarbiya va sport ta'limida metodik tayyorgarlik, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sport faoliyatining pedagogik asoslarini ochib beradi, bu esa talaba futbolchilarning hujum faoliyatini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda 18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonidagi hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida kompleks empirik usullardan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari rasmiy musobaqalar davomida o'tkazilgan pedagogik kuzatuv, videoanaliz va musobaqa statistik protokollarini o'rganish orqali to'plandi. Hujumlar soni, to'p uzatish aniqligi, jarima maydoniga uzatmalar, gol imkoniyatlari va hujum samaradorligi kabi ko'rsatkichlar qayd etildi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlanib, deskriptiv statistika, korrelatsion tahlil hamda regressiya usullari qo'llandi. Statistik hisob-kitoblar maxsus dasturiy vositalar yordamida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari hujum ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash va ularning musobaqa samaradorligiga ta'sirini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tahlili

Umumiy yondashuv va metodologiya

Futbolda hujum harakatlari – o'yinning eng dinamik va natijaviy qismi bo'lib, o'yinchi yoki jamoa tomonidan gol urish maqsadida amalga oshiriladigan to'p bilan bog'liq harakatlar majmuasidir. Hujum samaradorligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan miqdoriy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- hujumlar soni (umumiy va gol imkoniyatlariga olib kelgan);
- to'p uzatishlarning aniqligi (foizda);

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5368-sonli Farmoni: https://lex.uz/uz/docs/-3578121

- jarima maydoniga aniq uzatilgan to‘plar soni;
- gol imkoniyatlarini yaratish;
- hujum muvaffaqiyati (gol urishlar sonining hujumlar soniga nisbati).

Sifat ko‘rsatkichlari esa hujum mexanizmlarining natijaviy jihatlarini yoritadi, jumladan:

- hujum strategiyasi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujum, pozitsion hujum, qarshi hujum);
- o‘yin variantlarining samaradorlik darajasi;
- hujum chizig‘ida individual harakatlarning adaptatsiyasi.

Tahlil uchun 18–21 yoshdagi 50 nafar talaba futbolchining 2024–2025 mavsumidagi musobaqa statistik ma’lumotlari yig‘ildi. Olingan ma’lumotlar SPSS dasturi yordamida korrelatsion tahlil, multiple regressiya va deskriptiv statistika usullari asosida qayta ishlanib tahlil qilindi.

Miqdoriy ko‘rsatkichlar tahlili. Hujumlar soni va to‘p uzatish aniqligi

1-jadval: **Talaba futbolchilarning hujum bo‘yicha miqdoriy ko‘rsatkichlari3**

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	Mediana	Standart og‘ish
Hujumlar soni (o‘yin)	13.7	14	3.8
To‘p uzatish aniqligi (%)	78.4	79.0	6.5
Jarima maydoniga uzatishlar	7.1	7	2.3
Gol imkoniyatlari	4.8	5	1.6

Ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelatsiya

2-jadval: **Miqdoriy ko‘rsatkichlar orasidagi korrelatsion tahlil4**

Ko‘rsatkichlar	r-koeffitsient	p-qiymat
Hujumlar soni va gol imkoniyati	0.65	0.001
To‘p uzatish aniqligi va gol imkoniyati	0.72	0.000
Jarima maydoniga uzatishlar va gol imkoniyati	0.61	0.003

Sifat ko‘rsatkichlar tahlili

Hujum strategiyalari samaradorligi

Tahlil natijalari futbolda uchta asosiy hujum strategiyalari bo‘yicha samaradorlikni ko‘rsatadi:

3-jadval: **Hujum strategiyalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari5**

Hujum strategiyasi	O‘rtacha gol imkoniyati	Gol urishlar soni
To‘g‘ridan-to‘g‘ri hujum	5.2	1.8
Pozitsion hujum	4.5	1.5
Qarshi hujumlar	3.9	1.2

Individual futbolchi xatti-harakati va samaradorlik

Hujum jarayonida individual xatti-harakatlarning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, hujum zonasidagi pozitsion harakatlar va to‘p uzatish aniqligi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjud:

- to‘p uzatishdan oldin bajariladigan uchta muhim harakat (statik pozitsiyani to‘g‘rilash, raqibni aniqlash, bo‘sh zonani topish) gol imkoniyatlari sonini 27 % ga oshiradi;
- qarshi hujumlarda tejamkor paslardan foydalanish samaradorligi yuqori bo‘lib, natijada gol urish ehtimoli ortadi.

3 Izoh: O‘rtacha hujumlar soni 13.7 bo‘lib, to‘p uzatish aniqligi 78.4% darajasida qayd etildi. Bu hujum samaradorligi bo‘yicha yuqori darajadagi texnik tayyorgarlikni anglatadi.

4 Izoh: To‘p uzatish aniqligi bilan gol imkoniyati o‘rtasidagi yuqori korrelatsiya (r=0.72, p<0.001) futbolchilarning texnik tayyorgarligi hujum samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini bildiradi.

5 Izoh: To‘p uzatish aniqligi bilan gol imkoniyati o‘rtasidagi yuqori korrelatsiya (r=0.72, p<0.001) futbolchilarning texnik tayyorgarligi hujum samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini bildiradi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Bu holat individual tayyorgarlik hujum metodikalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Model tahlili: regressiya yondashuvi

Multiple regressiya tahlili asosida hujum samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar aniqlandi:

$$Y - 0{,}39X_1 \mid 0{,}45X_2 \mid 0{,}27X_3 \mid \varepsilon$$

bu yerda:
Y – hujum samaradorligi (gol imkoniyati indeksi);
X_1 – hujumlar soni;
X_2 – to'p uzatish aniqligi;
X_3 – jarima maydoniga uzatishlar;
ε – tasodifiy xatolik.
Izoh: Model natijalariga ko'ra, to'p uzatish aniqligi hujum samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida aniqlangan.

Natijaviy tahlil va muhokama

Olingan tahliliy natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. **Texnika va taktikani uyg'unlashtirish:** to'p uzatish aniqligi hujum samaradorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkich bo'lib, uning yuqori darajasi gol imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.
2. **Strategik yondashuv:** to'g'ridan-to'g'ri hujum strategiyasi eng yuqori gol imkoniyatlarini yaratadi, biroq pozitsion hujumlarda ham yuqori darajada uyushgan jamoaviy harakatlar talab etiladi.
3. **Individual futbolchi kompetensiyalari:** individual xatti-harakatlar hujum jarayonida samaradorlikni oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning hujum harakatlarini tahlil qilish ularning musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Hujum parametrlarini muntazam monitoring qilish hamda statistik tahlil asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish sport natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Takliflar

1. Hujum mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida to'p uzatish texnikasini o'quv-mashg'ulot jarayonida intensiv va tizimli ravishda o'rgatish.
2. Analitik monitoring tizimini joriy etish orqali har bir futbolchining hujum ko'rsatkichlarini onlayn platformalarda doimiy qayd etib borish.
3. Klub va universitetlar o'rtasida integratsiyani kuchaytirish, futbol statistikasi va tahlil tizimlarini joriy etish orqali yosh futbolchilarning individual rivojlanish xaritasini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Artikov A. Futbol rivojlanishining hozirgi bosqichida hujum chizig'i o'yinchilari faoliyati. Modern Science and Research, 2022. Hujum chizig'i o'yinchilari faoliyatining texnik va taktik tahlili, o'yin jarayonidagi pozitsional o'zgarishlari haqida ta'riflar berilgan.
2. Bektorov O. Y. Tactical training of football players. Mental Journal, 2025. Maqolada futbolchilarning taktika bo'yicha mashg'ulot jarayoni va hujum harakatlarini takomillashtirish usullari yoritilgan.
3. Ilyosboyev S. B. O'zbekistonda futbolning ko'p qirrali rivojlanishi. Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2025. Futbol infratuzilmasi, yosh futbolchilarni tayyorlash va musobaqalardagi statistik tahlil asosida futbolning milliy taraqqiyoti ko'rib chiqilgan.
4. Islomov I. Talabalik va yoshlarda hujum harakatlari texnikasi va taktikasini o'rganish (konferensiya materiali). So'nggi yillar ichida e'lon qilingan ilmiy nutq va tahliliy ishlar O'zbekiston sharoitida hujum ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilayotganini tasdiqlaydi.
5. Karimov A. Studying the attacking actions of young football players (ilmiy maqola). 2023. Ushbu ishda sport maktablarida futbolchilarning hujum harakatlari tizimli ravishda o'rganilib, taktika va texnik elementlarning o'yindagi roli hamda natijalarga ta'siri tahlil qilingan.
6. Muhammadov M. G. Futbolda hujum va himoya taktik harakatlarini takomillashtirish. Ilmiy-o'quv qo'llanma. – O'zbekiston, 2025. Ushbu manbada hujum va himoya tizimlari bo'yicha taktika, o'yin parametrlarini aniqlash va o'rganishga doir

metodik tavsiyalar berilgan.
7. Shaniyazov I. R., Arziyev Sh. A. Yosh futbolchilarning hujum taktik harakatlarini shakllantirishda jismoniy tayyorgarlikning o'rni. Inter Education & Global Study, 3-jild, 4-son, 2025. Maqolada futbolchilarning hujumni markaz va qanot zonalaridan tashkil etishi, hujumlar samaradorligi hamda yakuniy zarbalar tahlil qilingan.
8. Sirojov O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
9. Sirojov O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
10. Sirojov O. O. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2020. – 162 b.
11. Sirojov O. O. Physical education and sports – the basis of a healthy lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – Jild 05, № 10. – B. 1232–1234. – ISSN 2692-5206.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAKATLI O'YIN VOSITALARI ORQALI SOG'LOMLASHTIRUVCHI MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINING AHAMIYATI

Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi
Navoiy davlat universiteti
"Sport faoliyati turlari" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalaridan samarali foydalanish orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligini oshirish omillari tahlil qilinadi. Unda jismoniy tarbiya fanining pedagogik, psixologik hamda sog'lomlashtirish yo'nalishlarini uyg'unlashtirish asosida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish usullari yoritilgan. Tadqiqot davomida harakatli o'yinlar vositasida motorika, jismoniy faollik va bolalar salomatligini yaxshilash mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, jismoniy tarbiya, harakatli o'yinlar, sog'lomlashtirish, mashg'ulot, pedagogik samaradorlik.

Abstract: The article analyzes the factors contributing to the effectiveness of health-promoting activities through the use of active games in physical education lessons for primary school students. It highlights pedagogical, psychological, and health-oriented approaches to lesson organization aimed at increasing motor activity and strengthening children's health. The study scientifically substantiates the mechanisms for improving motor skills, physical activity, and overall health of students through active games.

Key words: primary school, physical education, active games, health promotion, lesson effectiveness.

Аннотация: В статье анализируются факторы повышения эффективности оздоровительных занятий с использованием подвижных игровых средств на уроках физической культуры у учащихся начальных классов. Рассматриваются педагогические, психологические и оздоровительные подходы к организации занятий, направленные на повышение двигательной активности и укрепление здоровья детей. В ходе исследования научно обоснованы механизмы улучшения моторики, физической активности и общего состояния здоровья школьников посредством подвижных игр.

Ключевые слова: начальные классы, физическая культура, подвижные игры, оздоровление, занятия, педагогическая эффективность.

KIRISH

Hozirgi kunda jismoniy tarbiya ta'limi tizimini takomillashtirish mamlakatimizda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan bo'lib, ushbu sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son[1] qarori asosida umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimini tubdan takomil-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son qarori: https://lex.uz/docs/-7221716

lashtirish, o‘qituvchilarni malakali tayyorlash hamda mashg‘ulotlar sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tasdiqlandi. Mazkur qarorga muvofiq, 2025-yil 1-martga qadar turli yosh toifalari uchun harakatli o‘yinlar, olimpiya va ommaviy sport turlari ro‘yxatini ishlab chiqish belgilandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-dekabrdagi “Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PQ-443-son[2] qarorida asosan 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab har payshanba kuni mamlakat miqyosida “Jismoniy madaniyat va sport kuni” etib belgilandi, bu esa yoshlar va bolalar sportiga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari samaradorligini bosqichma-bosqich oshirish, pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy salomatligini ta’minlashga qaratilgan.

Jismoniy tarbiya va uning pedagogik vazifalari

Jismoniy tarbiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlash, balki motor, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli o‘yinlar ushbu jarayonda alohida o‘rin tutadi, chunki ular bolalarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi hamda psixomotor ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya fanining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- organizmning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish;
- yurak-qon tomir faoliyatini mustahkamlash;
- motorik faoliyatni rivojlantirish;
- sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.

Mazkur vazifalarning barchasi faol harakatlar, ayniqsa, harakatli o‘yinlar orqali samaraliroq amalga oshiriladi.

Harakatli o‘yinlarning jismoniy salomatlikka ta’siri

Harakatli o‘yinlar bolalarni faollikka jalb etuvchi, qiziqarli hamda o‘zaro muloqot asosida tashkil etiladigan faoliyat turi hisoblanadi. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- jismoniy faollikni stimulyatsiya qilish: o‘yinlar orqali yurish, yugurish va sakrash kabi harakatlar bolalar organizmi metabolizmini yaxshilaydi hamda mushak tonusini oshiradi;
- psixologik yuksalish: faol o‘yinlar bolalarning emotsional holatini yaxshilaydi va stress darajasini kamaytiradi;
- ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish: guruhda o‘ynash jarayonida hamkorlik va muomala madaniyati shakllanadi;
- kognitiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash: strategik va taktik qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, motorik harakatlarning faol integratsiyasi umumiy salomatlikni mustahkamlash hamda jismoniy qobiliyatlarni sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda pedagogik va sog‘lomlashtiruvchi yondashuvlar nuqtayi nazaridan keng o‘rganilmoqda. Atamurodov Sh. O. 2025-yilda chop etilgan tadqiqotida harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik va umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodik jihatdan asoslab berilgan. Muallif harakatli o‘yinlarning dars jarayonidagi motivatsion ahamiyatini hamda ularning pedagogik samaradorlikka ta’sirini ilmiy dalillar bilan yoritadi. Qazoqov S. R. va Ramazonova Z. S. tomonidan 2025-yilda e’lon qilingan ilmiy maqolada esa harakatli o‘yinlarning metodik xususiyatlari va ularning jismoniy tarbiya tizimidagi pedagogik roli atroflicha tahlil qilingan.

Boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlashda harakatli o‘yinlarning o‘rni xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. Фарафонтова О. А. va Абдурахмонов К. А. 2025-yilda olib borgan pedagogik eksperiment natijalariga ko‘ra, jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirishi va charchash holatini kamaytirishi aniqlangan. Raxmonov U. va

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-dekabrdagi “Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PQ-443-son qarorida: https://lex.uz/docs/-7266934

Panjiyeva G. 2025-yilda chop etilgan tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar orqali darsga qiziqish va faol ishtirok darajasi sezilarli oshishi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

Harakatli o'yinlarning sog'lomlashtiruvchi ta'siri valeologik va kompleks jismoniy tarbiya yondashuvlari doirasida ham o'rganilgan. Sirojov O. O. tomonidan 2020–2025-yillarda chop etilgan ilmiy ishlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek, o'qituvchilarning valeologik kompetentliligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Onarici Gungor E., Solmaz D. Y. va Guven G. tomonidan 2025-yilda o'tkazilgan randomizatsiyalangan tadqiqot natijalari ham harakatli o'yinlarga asoslangan mashg'ulotlar 9–10 yoshli bolalarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashini tasdiqlaydi. Sobirova M. S. 2025-yilda chop etilgan maqolasida esa boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologik yondashuvlar samarali mashg'ulotlarni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan tizimli va maqsadli foydalanishni nazarda tutadi. Mashg'ulotlar muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etilib, dastlab qizdirish bosqichida qisqa, biroq intensiv harakatlar bajariladi, bu jarayon odatda 2–3 daqiqa davom etadi. Asosiy bosqichda harakatli o'yinlar asosida jismoniy faollik ta'minlanadi, yakuniy bosqichda esa sovutish mashqlari orqali mushaklarni bo'shashtirish va nafas olish jarayonini me'yorlashtirish amalga oshiriladi. Mazkur bosqichlarning izchil tashkil etilishi bolalar organizmi uchun optimal jismoniy yuklamani ta'minlashga xizmat qiladi.

Harakatli o'yinlarni tashkil etishda turli vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, yengil to'plar, konuslar, xokkey yoki futbol uchun mo'ljallangan yo'nalish konuslari, shuningdek, ellips yoki traktoral yo'laklardan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi. Ushbu vositalarning xilma-xilligi motorik ko'nikmalarni rivojlantirish, reaksiya tezligini oshirish hamda harakatlarni muvofiqlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mashg'ulotlar samaradorligini baholashda bir qator mezonlardan foydalaniladi. Xususan, jismoniy faollik indikatorlari sifatida yugurish tezligi va sakrash balansi ko'rsatkichlari, salomatlik holatini aniqlashda tana massasi indeksi va yurak urish tezligi, shuningdek, psixologik holatni baholashda bolalarning kayfiyati va mashg'ulotlarga bo'lgan ishtiyoqi e'tiborga olinadi. Baholash parametrlarining aniq belgilanishi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida harakatli o'yinlarni haftalik mashg'ulotlar dasturiga muntazam ravishda kiritish, dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirish hamda ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etgan holda, bolalarning uy sharoitida ham jismoniy faolligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish ilmiy-amaliy jihatdan maqsadga muvofiq deb topildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: **Harakatli o'yinlarning sog'lomlashtiruvchi ta'siri va rivojlantiruvchi jihatlari**

Harakatli o'yin turi	Rivojlantiriladigan jismoniy sifatlar	Sog'lomlashtiruvchi ta'siri	Psixologik ta'siri
Quvlashmachoq o'yinlari	Tezkorlik, chaqqonlik	Yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi	Emotsional holatni yaxshilaydi
To'p bilan o'yinlar	Muvozanat, koordinatsiya	Mushaklar faoliyatini kuchaytiradi	Diqqat va fikrlashni rivojlantiradi
Estafeta o'yinlari	Chidamlilik, tezkorlik	Nafas olish tizimini faollashtiradi	Jamoada ishlash ko'nikmasini oshiradi
Sakrashli o'yinlar	Kuch, epchillik	Suyak-mushak tizimini mustahkamlaydi	O'ziga ishonchni oshiradi
Milliy harakatli o'yinlar	Umumiy jismoniy rivojlanish	Immunitetni kuchaytiradi	Milliy qadriyatlarga hurmatni oshiradi

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, harakatli o'yinlar nafaqat o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantiradi, balki sog'lomlashtiruvchi va psixologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yinlar orqali mashg'ulotlar o'tkazish ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, charchoqni kamaytiradi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

2-jadval: **Harakatli o‘yinlar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy mashg‘ulotlar	Harakatli o‘yinlar asosidagi mashg‘ulotlar	O‘zgarish darajasi
Jismoniy faollik darajasi	O‘rtacha	Yuqori	+25–30 %
Darsga qiziqish	Past	Yuqori	+35 %
Charchash holati	Tez	Kam	−20 %
Mashg‘ulotda ishtirok etish	Passiv	Faol	+40 %
Sog‘liq ko‘rsatkichlari	Barqaror	Yaxshilangan	Ijobiy

Mazkur jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish mashg‘ulotlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘quvchilarning faolligi va darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi, charchash holati kamayadi. Natijada sog‘liq ko‘rsatkichlari yaxshilanib, darslarning umumiy samaradorligi yuqori darajaga ko‘tariladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yin vositalaridan samarali foydalanish ularning jismoniy salomatligi va motorik faoliyatining yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar pedagogik samaradorlikni oshiradi hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Takliflar

1. Boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlar ulushini oshirish orqali o‘quvchilarning jismoniy faolligini doimiy ravishda rivojlantirish taklif etiladi.
2. Dars jarayonida o‘quvchilarning yosh va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda sog‘lomlashtiruvchi harakatli o‘yinlardan tizimli foydalanish lozim.
3. Harakatli o‘yinlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning samaradorligini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik kuzatuv va monitoring o‘tkazish taklif qilinadi.
4. Milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya darslariga keng joriy etish orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishni oshirish maqsadga muvofiqdir.
5. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun harakatli o‘yinlar asosida sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish taklif etiladi.

Tavsiyalar

1. Jismoniy tarbiya darslarini o‘yin asosida tashkil etishda mashg‘ulot yuklamasini bosqichma-bosqich oshirib borish tavsiya etiladi.
2. Harakatli o‘yinlarni tanlashda o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi va sog‘lig‘i holatini hisobga olish tavsiya qilinadi.
3. Mashg‘ulotlar davomida xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya etish hamda jarohatlanishning oldini olish tavsiya etiladi.
4. O‘yinlar jarayonida barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun rag‘batlantirish usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi.
5. Harakatli o‘yinlardan nafaqat dars jarayonida, balki tanaffuslarda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atamurodov Sh. O. Harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullari, Innovative Development in Educational Activities, 2025. – metodologik yondashuvlar.
2. Фарафонтова О. А., Абдурахмонов К. А. Эффективность применения подвижных игр в физическом воспитании младших школьников, Наука и инновация, 2025. – pedagogik eksperiment natijalari bilan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishga oid qarorlari va farmonlari.
4. Onarici Gungor E., Solmaz D. Y., Guven G. A. A 12-week afterschool game-based physical activity program improves physical fitness of 9–10-year-old children, Scientific Reports, 2025 – randomizatsiyalangan tadqiqot.

5. Qazoqov S. R., Ramazonova Z. S. Harakatli o'yinlar, Tadqiqotlar, Vol. 55, No. 2, 2025. – maqola harakatli o'yinlar metodikasi va pedagogik rolini yoritadi.
6. Raxmonov U., Panjiyeva G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarning tutgan o'rni, Medicine, Pedagogy and Technology, Vol. 3, No. 11, 2025.
7. Sirojov O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
8. Sirojov O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
9. Sirojov O. O. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2020. – 162 b.
10. Sirojov O. O. Physical education and sports – the basis of a healthy lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 05, № 10. – B. 1232–1234. – ISSN 2692-5206.
11. Sobirova M. S. Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanishning ahamiyati, Ustozlar uchun, 69 (1), 366–369, 2025.

OTA-ONA BILAN MUNOSABATLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna
Angren universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida ota-ona bilan bo'lgan munosabatlarning o'rni va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy shakllanishida oilaviy muhitning ta'siri IMRAD talablari asosida yoritilgan. Tadqiqot jarayonida demokratik, avtoritar va liberal tarbiya uslublarining bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi hamda ijtimoiy moslashuviga ta'siri tahlil qilingan. Yakunda ota-onalar uchun bolaning psixologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ota-ona munosabatlari, emotsional intellekt, tarbiya uslublari, ijtimoiy moslashuv, kognitiv rivojlanish, psixologik xavfsizlik.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the role and significance of parent-child relationships in the comprehensive development of preschool children. The influence of the family environment on a child's cognitive, emotional, and social development is examined in accordance with IMRAD requirements. The study analyzes the impact of democratic, authoritarian, and liberal parenting styles on children's self-confidence and social adaptation. In conclusion, practical recommendations aimed at ensuring children's psychological stability are proposed for parents.

Key words: preschool age, parent-child relationships, emotional intelligence, parenting styles, social adaptation, cognitive development, psychological security.

Аннотация: В статье на научной основе анализируются роль и значение детско-родительских отношений в гармоничном развитии детей дошкольного возраста. Влияние семейной среды на когнитивное, эмоциональное и социальное формирование ребенка рассматривается в соответствии с требованиями IMRAD. В ходе исследования проанализировано влияние демократического, авторитарного и либерального стилей воспитания на самооценку и социальную адаптацию ребенка. В заключении представлены практические рекомендации для родителей, направленные на обеспечение психологической устойчивости ребенка.

Ключевые слова: дошкольный возраст, детско-родительские отношения, эмоциональный интеллект, стили воспитания, социальная адаптация, когнитивное развитие, психологическая безопасность.


KIRISH

Inson shaxsiyatining poydevori aynan maktabgacha yosh davrida shakllanadi. Psixologiya fanida ushbu davr "shakllanishning oltin davri" sifatida e'tirof etiladi, chunki 3–7 yosh oralig'ida bolaning miyasi va ruhiyati tashqi ta'sirlarga nisbatan eng sezgir holatda bo'ladi. Ushbu jarayonda markaziy va hal qiluvchi omil sifatida ota-ona bilan bo'lgan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bola uchun ota-ona nafaqat g'amxo'r shaxslar, balki atrof-muhitni anglashda "ko'zgu" vazifasini bajaruvchi va ijtimoiy munosabatlarning dastlabki namunasi hisoblanadi.

Ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlar dinamikasi bolaning rivojlanish trayektoriyasini belgilaydi. Agar oilaviy muhit o'zaro ishonch, mehr-muhabbat va psixologik xavfsizlik hissiga asoslangan bo'lsa, bola dunyoga nisbatan ijobiy munosabatda bo'ladi, unda qiziquvchanlik va o'ziga bo'lgan ishonch shakllanadi. Aksincha, hissiy sovuqlik, qattiqqo'llik yoki haddan tashqari befarqlik hukmron bo'lgan oilalarda bolaning rivojlanish jarayoni sekinlashishi, turli psixologik komplekslar hamda ijtimoiy qo'rquvlarning yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ota-ona bilan bevosita muloqotning qisqarishi maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivoji, emotsional intellekti va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bolaning intellektual salohiyati (IQ) va hissiy barqarorligi (EQ) ota-onasi bilan o'tkazilgan "sifatli vaqt" miqdori va mazmuni bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali kelajakda sog'lom, mustaqil va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalash imkoniyati bilan izohlanadi. Maqolaning asosiy maqsadi ota-ona munosabatlari turlarini tahlil qilish hamda ularning bolaning kognitiv va psixososial rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asosda yoritib berishdan iborat.



1-rasm: **Yerning ichki va tashqi tabiiy qobiqlari o'zaro bog'liqligi modeli**

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida ota-ona bilan bo'lgan munosabatlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi psixologiya fanida keng yoritilgan. J. Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog'lanish nazariyasida bolaning dastlabki yillarda ota-ona bilan o'rnatgan hissiy aloqalari uning butun hayoti davomida psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etishi asoslab berilgan. E. H. Eriksonning shaxs rivojlanishi bosqichlari haqidagi konsepsiyasida ham maktabgacha davr bolaning tashabbuskorligi, ishonchi va ijtimoiy faolligi shakllanadigan muhim bosqich sifatida talqin qilinadi.

Ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi va uslublarining bolaning xulq-atvori hamda kognitiv rivojlanishiga ta'siri D. Baumrind tadqiqotlarida batafsil tahlil qilingan. Olim demokratik, avtoritar va liberal tarbiya uslublarini ajratib, aynan demokratik yondashuv bolada mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. J. Piagetning intellektual rivojlanish nazariyasida esa bolaning fikrlash jarayonlari faol muhit va kattalar bilan muloqot orqali rivojlanishi ta'kidlanadi, bu esa ota-ona munosabatlarining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Milliy va rus psixologiya maktabi vakillarining tadqiqotlarida ham oilaviy muhitning bola shaxsiyati rivojiga ta'siri yetakchi o'rin egallaydi. E. G'. G'oziyev, Z. T. Nishonova va N. S. Sog'inov asarlarida ota-ona mehr-muhabbati, muloqot madaniyati va tarbiya uslublarining bolaning emotsional holati, nutqi hamda axloqiy qadriyatlari shakllanishidagi roli yoritilgan. L. S. Vigotskiy va N. V. Ivanova tadqiqotlarida esa bolaning ijtimoiy rivojlanishi bevosita yaqin kattalar bilan hamkorlik va hissiy qo'llab-quvvatlash orqali yuzaga kelishi ilmiy asosda izohlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolaning ichki dunyosini hamda unga ota-ona munosabatlarining ta'sirini chuqur anglash maqsadida ko'p qirrali metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotda bolaning rivojlanishi faqat statistik ko'rsatkichlar orqali emas, balki murakkab va uzluksiz psixologik jarayon sifatida o'rganildi. Asosiy maqsad bolaning xulq-atvori, hissiy holati va ijtimoiy moslashuvini ota-ona munosabatlari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot jarayonida bolalarning tabiiy muhitdagi xatti-harakatlarini aniqlash uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik kuzatuvlar amalga oshirildi. Kuzatuvlar asosan erkin o'yin jarayonida olib borildi, chunki aynan o'yin faoliyati bolaning ichki kechinmalari va oilada shakllangan muloqot modellarini beixtiyor namoyon etadi. O'yin davomida bolalarning "qattiqqo'l ota" yoki "mehribon ona" obrazlarini gavdalantirishi oiladagi psixologik muhitning aks ettiruvchi belgisi sifatida talqin qilindi.

Bolaning ongi ostida shakllangan hissiy holatlarni aniqlash maqsadida proyektiv metodlardan biri bo'lgan "Mening oilam" rasm chizish testidan foydalanildi. Bolalarga o'z oilasini erkin tasvirlash vazifasi yuklatildi. Chizmalarda ranglar tanlovi, oilaviy a'zolarning bir-biriga nisbatan joylashuvi, ularning o'lchami va tafsilotlari bolaning oiladagi hissiy xavfsizlik darajasini aniqlovchi muhim psixologik indikatorlar sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida ota-onalar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratildi. Shveysariyalik psixolog Diana Baumrind tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya uslublari so'rovnomasi asosida oilalar avtoritar, demokratik va liberal guruhlarga ajratildi. Ushbu metod ota-onaning tarbiyaviy strategiyasi bilan bolaning kognitiv ko'rsatkichlari, jumladan nutq rivoji, xotira va diqqat jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Bolalarning intellektual rivojlanish darajasini baholash uchun Veksler metodikasining yoshga moslashtirilgan elementlaridan foydalanildi. Mantiqiy savollar va rasmli topshiriqlar orqali bolaning fikrlash tezligi, tahlil qilish qobiliyati hamda muammoli vaziyatlarga munosabati qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu metodlar oiladagi hissiy muhitning bolaning intellektual faolligiga ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ota-ona bilan bo'lgan munosabatlar bolaning faqat fe'l-atvorini emas, balki uning dunyoga bo'lgan fundamental munosabatini shakllantiradi. Ota-onasi bilan hissiy yaqinlikka ega bo'lgan bolalarda ichki barqarorlik va xotirjamlik yuqori darajada namoyon bo'ldi. Bunday bolalar tashvishli vaziyatlarda ham o'zini tutib bera olishi, tengdoshlari bilan muloqotda ochiq va ishonchli bo'lishi bilan ajralib turdi.

Tadqiqot natijalari oilaviy muhit va bolaning tafakkur erkinligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Ota-onasi tomonidan erkin fikrlashga undalgan, savollariga e'tibor bilan yondashilgan bolalarda kreativlik va tahliliy fikrlash qobiliyati yuqori bo'ldi. Bunday bolalar ijodiy faoliyat jarayonida o'z tasavvurlarini erkin ifodalashga intildi, bu esa ularning nutqiy ravonligi va mantiqiy xulosalar chiqarish salohiyatining rivojlanishiga xizmat qildi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, bola oilada o'zlashtirgan munosabat modelini maktabgacha ta'lim muassasasidagi ijtimoiy muhitga to'liq ko'chiradi. Oilada empatiya va o'zaro qo'llab-quvvatlash ustuvor bo'lgan hollarda bola tengdoshlari orasida faol, yordamga tayyor va yetakchilik qobiliyatiga ega shaxs sifatida namoyon bo'ldi. Aksincha, doimiy tanqid va bosim ostida tarbiyalangan bolalarda ijtimoiy chekinish yoki asossiz agressiv xatti-harakatlar kuzatildi.

Tadqiqot natijalari bolaning mustaqilligi va iroda kuchi ota-onaning tarbiyaviy yondashuviga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. O'z yoshiga mos mas'uliyat yuklatilgan, lekin haddan tashqari nazorat ostiga olinmagan bolalarda muammolarni mustaqil hal qilishga intilish va o'z kuchiga ishonch shakllandi. Bu holat keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim psixologik poydevor bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning shakllanishida ota-ona shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi. Ota-onaning so'zi va amali uyg'un bo'lgan muhitda ulg'aygan bolalarda rostgo'ylik, adolat va mas'uliyat kabi fazilatlar barqaror shakllandi. Bu esa bolaning kelajakda ijtimoiy yetuk va ma'naviy barkamol shaxs bo'lib kamol topishida muhim omil hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shunchaki ilmiy xulosalar majmui bo'lib qolmay, balki inson hayotining eng nozik va mas'uliyatli davriga oid muhim haqiqatlarni ochib berdi. Bir xil sharoitda va bir xil ta'lim tizimida tarbiyalanayotgan bolalarning dunyoni idrok etishi nega turlicha kechishi masalasi tahlil markazida bo'ldi. Ushbu savolga javob izlash jarayoni oilaviy muhit poydevoriga, ya'ni ota-ona va bola o'rtasidagi ko'rinmas, ammo mustahkam rishtalarning ta'siriga olib keldi.

Olingan natijalar psixologiya fanida keng tan olingan bog‘liqlik nazariyasini amaliy kuzatuvlar orqali tasdiqladi. Ota-onaning e’tibori va mehri bolaning miya faoliyati uchun oddiy emotsional fon bo‘lib qolmasdan, balki kognitiv rivojlanishni faollashtiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Bola o‘zini xavfsiz his qilmagan sharoitda uning intellektual salohiyati himoya rejimiga o‘tib, yangi bilimlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra, ruhiy xavotirlardan saqlanishga yo‘naltirilishi kuzatildi. Qo‘rquv va beqarorlik ustuvor bo‘lgan muhitda rivojlanish jarayonining sekinlashuvi demokratik va iliq oilaviy muhitning naqadar muhimligini yana bir bor tasdiqladi.

Tahlil jarayonida intizom va erkinlik o‘rtasidagi muvozanat masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. Avtoritar tarbiya uslubining salbiy oqibatlari tadqiqot natijalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Qattiqqo‘llik tashqi tomondan itoatkorlikni yuzaga keltirgandek tuyulsa-da, amalda bolaning iroda kuchi va shaxsiy mustaqilligining susayishiga olib kelishi aniqlandi. Erkinlikning o‘zi tartibsizlikni anglatmasligi, balki aniq chegaralar doirasida fikr bildirish va xato qilish imkoniyati berilgan muhitda haqiqiy rivojlanish yuz berishi qayd etildi. Ota-onaning pedagogik mahorati bolaning xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishiga ko‘maklashish bilan belgilanadi.

Zamonaviy ijtimoiy sharoitda ota-onalik mas’uliyati yangi mazmun kasb etmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, moddiy ta’minot va texnologik vositalar bolaga berilayotgan e’tibor o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Eng zamonaviy gadjetlar ham ota-onaning samimiy muloqoti va birgalikdagi faoliyati bilan tenglasha olmaydi. Bolaning nutqiy rivoji va ijtimoiy ko‘nikmalari asosan ota-onasi bilan o‘tkazilgan oddiy o‘yinlar va kundalik muloqot jarayonida shakllanishi aniqlandi. Ushbu holat raqamli davr sharoitida alohida e’tibor talab qiluvchi muhim xulosalardan biri sifatida baholandi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolaning ota-onasi bilan munosabatlari uning kelajakdagi shaxsiyati, jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligining muhim modeli bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ota-onaning bugungi mehr-muhabbati va tarbiyaviy yondashuvi bolaning uzoq muddatli psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Ota-onalik faqat biologik holat emas, balki bolaning ruhiy dunyosini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyat ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ota-onasi bilan munosabatlarini o‘rganish natijalari oilaning inson ruhiyati shakllanadigan asosiy muhit ekanini ko‘rsatdi. Oila nafaqat yashash makoni, balki shaxsning psixologik poydevori qo‘yiladigan murakkab ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan natijalar va muhokamalar bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati, dunyoga bo‘lgan munosabati hamda ichki barqarorligi ota-onaning bugungi mehr-muhabbati va tanlagan tarbiya uslubiga bevosita bog‘liqligini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktabgacha yosh davrida bola uchun ota-ona butun bir koinotdir. Agar ushbu koinot barqaror, iliq va tushunarli bo‘lsa, bola hayotning turli sinovlariga ruhiy jihatdan tayyor holda voyaga yetadi. Tadqiqot davomida aniqlangan bog‘liqliklar shuni ko‘rsatdiki, demokratik tarbiya uslubi bolada nafaqat kognitiv qobiliyatlarning, balki ijtimoiy moslashuvchanlikning ham yuqori darajada shakllanishiga xizmat qiladi. Ota-onaning e’tibori bolaning miya faoliyatida neyron aloqalarni mustahkamlovchi eng kuchli “biologik omil” sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda farzand rivojlanishini sog‘lom va barqaror yo‘naltirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, bola bilan o‘tkaziladigan vaqtning miqdori emas, balki sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Kuniga hech bo‘lmaganda 30 daqiqa davomida gadjetlarsiz, bolaning ko‘ziga qarab, uning hissiy holati va ichki dunyosiga qiziqish bildirish bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, bolaning qo‘rquvi yoki xafaligini rad etmasdan, balki uni tushunish va qabul qilish emotsional intellektning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolaga o‘z yoshiga mos mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatini berish muhim ahamiyatga ega. Kiyim tanlash yoki o‘yin turini belgilash kabi oddiy holatlar orqali mas’uliyat hissi va iroda sifatlari rivojlanadi. Muloqot esa tarbiyaning eng samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bolaning savollarini javobsiz qoldirmaslik, har bir savolni fikrlash va nutq rivoji uchun imkoniyat sifatida qabul qilish lozim. Nutq boyligini oshirish uchun bola bilan teng huquqli suhbat olib borish tavsiya etiladi.

Shu bilan birga, shaxsiy namunaning tarbiyaviy qudrati alohida e’tiborga loyiqdir. Bola ota-onaning so‘zlaridan ko‘ra, ularning kundalik xatti-harakatlarini tezroq va chuqurroq o‘zlashtiradi. O‘zaro hurmat, muloqot madaniyati va kitobxonlik muhiti mavjud bo‘lgan oilada bola ushbu qadriyatlarni tabiiy tarzda qabul qiladi.

Yakuniy xulosa shundan iboratki, ota-onaning farzandiga beradigan eng katta merosi moddiy boylik emas, balki uning xotirasida qoladigan baxtli bolalik va qalbida shakllanadigan “Men sevishga va sevilishga loyiqman” degan ishonchdir. Ota-ona munosabatlari bolaning kelajagi bunyod etiladigan mustahkam poydevor bo‘lib, ushbu poydevorning mustahkamligi bevosita ota-onaning bugungi munosabati va mas’uliyatiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baumrind, D. (1967). Child care practices anteceding three patterns of preschool behavior. Genetic Psychology Monographs.
2. Bowlby, J. (1988). A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development. Basic Books.
3. Erikson, E. H. (1963). Childhood and Society. New York: Norton.
4. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. Bantam Books.
5. Г'озиев, Э. Г'. (2010). Психология (психология возрастных периодов). Ташкент: "Ўқитувчи".
6. Иванова, Н. В. (2015). Психология взаимоотношений в семье. Москва: Прогресс.
7. Нишонова, З. Т. (2014). Детская психология и методика её преподавания. Ташкент: Издательство Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои.
8. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press.
9. Согинов, Н. С. (2005). Психология семьи. Ташкент: Фан.
10. Выготский, Л. С. (1984). Вопросы детской психологии. Москва: Педагогика.

YOSH FUTBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORLIGINI OSHIRISHDA KOMPLEKS MASHG'ULOT TIZIMINING SAMARADORLIGI

Zaripova Farida Abdullayevna
Navoiy davlat universiteti
"Jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti,
p.f.b.f.d.(PhD)

Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li
San'at va sport fakulteti, magistratura 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda futbolchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy sifatlari hamda mashg'ulot jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishi inobatga olingan holda ishlab chiqilgan kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari kompleks mashg'ulotlar tezkorlik, chidamlilik, kuch va epchillik kabi asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari yosh futbolchilar tayyorgarligini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yosh futbolchilar, jismoniy tayyorgarlik, kompleks mashg'ulot, jismoniy sifatlar, sport tayyorgarligi, trening metodikasi.

Abstract: The article examines the effectiveness of a comprehensive training system in improving the physical fitness of young football players. The study analyzes the scientific and methodological foundations of organizing the training process while taking into account the age-related and functional characteristics of athletes. The experimental results confirm that the application of a comprehensive training system, which integrates the development of speed, strength, endurance, and coordination abilities in conjunction with technical training, significantly enhances the physical fitness level of young football players. The findings of the study are of practical value for optimizing the training process in youth sports schools and football academies.

Key words: young football players, physical fitness, comprehensive training system, physical qualities, sports training, training methodology.

Аннотация: В статье рассматривается эффективность комплексной системы тренировок в повышении уровня физической подготовленности юных футболистов. В ходе исследования проанализированы научно-методические основы организации тренировочного процесса с учётом возрастных и функциональных особенностей спортсменов. Экспериментально обосновано, что применение комплексной системы тренировок, включающей развитие скоростных, силовых, выносливостных и координационных качеств в единстве с технической подготовкой, способствует значительному улучшению физической подготовленности юных футболистов. Полученные результаты имеют практическую значимость для совершенствования учебно-тренировочного процесса в детско-юношеских спортивных школах и футбольных академиях.

Ключевые слова: юные футболисты, физическая подготовленность, комплексная система тренировок, физические качества, спортивная подготовка, методика тренировки.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport, xususan futbol sport turini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining futbolni ommalashtirish va sportchilar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator farmon va qarorlari yosh futbolchilarni tayyorlash jarayoniga ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga chiqardi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son Farmonida futbolni ommalashtirish, bolalar va o'smirlar futbolini rivojlantirish, sport maktablari faoliyatini takomillashtirish hamda yosh futbol-

chilar tayyorgarligini xalqaro standartlar asosida tashkil etish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur hujjatda yosh futbolchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini uzviy bog‘liq holda rivojlantirish muhimligi alohida ta’kidlangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887-son[1] Farmonida yosh futbolchilarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, mashg‘ulot jarayoniga zamonaviy metodikalar va kompleks tayyorgarlik tizimlarini joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu strategiyada futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi sport natijalariga bevosita ta’sir etuvchi omil ekanligi qayd etilgan.

Davlat hujjatlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish masalasi ilmiy-metodik jihatdan chuqur tadqiq etishni talab etadi. Ayniqsa, mashg‘ulot jarayonida kuch, tezkorlik, chidamlilik va epchillik kabi asosiy jismoniy sifatlarni uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan kompleks mashg‘ulot tizimini qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda kompleks mashg‘ulot tizimining samaradorligini ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Futbolga oid qiziqarli ma’lumotlar. Futbol dunyoda eng mashhur sport turlaridan biri bo‘lib, u minglab yillar davomida insoniyat tarixida rivojlanib kelgan. Futbolning aniq kelib chiqish tarixi hozirgi kungacha to‘liq aniqlanmagan bo‘lsa-da, olimlar qadimgi Xitoy, Gretsiya va Rimda to‘p bilan o‘ynalgan o‘yinlar mavjud bo‘lganini qayd etgan. Jumladan, Xitoyda eramizdan avvalgi II asrda “Cuju” nomli o‘yin keng tarqalgan bo‘lib, u hozirgi futbolning ilk shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, futbol XIX asrda Angliyada zamonaviy shaklni olgan va qisqa vaqt ichida butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan.

Futbolning qiziqarli jihatlaridan biri uning soddaligi va universalligi hisoblanadi. Har qanday sharoitda, hatto oddiy to‘p va ikki belgi bilan belgilangan darvoza yordamida ham o‘yin tashkil etish mumkin. Shu sababli futbol bolalar orasida eng ommabop sport turlaridan biriga aylangan. Yosh futbolchilarni tayyorlashda jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, chidamlilik va epchillik kabi sifatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam futbol mashg‘ulotlari bolalarning yurak-qon tomir tizimi, mushak kuchi hamda koordinatsiya ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Futbol o‘yinining texnik va taktik jihatlari ham murakkab va qiziqarli hisoblanadi. Jumladan, xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, professional futbolchilar har bir o‘yin davomida o‘rtacha 10 kilometr masofani bosib o‘tadi, ularning harakat tezligi esa o‘rtacha 7 km/soatni tashkil etadi. Shu bilan birga, o‘yin jarayonida futbolchilar qisqa masofalarga tezkor yugurish, tezkor qaror qabul qilish va doimiy ravishda pozitsiyani o‘zgartirish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Bu holat jismoniy tayyorgarlik va tezkorlikning ahamiyatini yanada oshiradi.

Yosh futbolchilarni tayyorlash jarayonida kompleks mashg‘ulot tizimi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur tizim jismoniy sifatlarni o‘zaro uyg‘unlikda rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, tezkorlik mashqlari bilan bir qatorda chidamlilik va kuchni rivojlantiruvchi mashqlar ham qo‘llaniladi. Natijada yosh futbolchilarning organizmi muvozanatli rivojlanadi va ularning sport natijalari sezilarli darajada oshadi.

Futbolning ijtimoiy va madaniy ahamiyati ham nihoyatda katta. Dunyo bo‘ylab millionlab insonlar futbol bilan shug‘ullanadi, musobaqalarda ishtirok etadi yoki o‘yinlarni tomosha qiladi. FIFA va UEFA kabi xalqaro tashkilotlar bolalar va yoshlar futbolini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqqan. Jumladan, FIFA Grassroots dasturi yoshlarni futbol orqali jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga keng jalb etishga xizmat qiladi.

Futbol bo‘yicha qiziqarli statistik ma’lumotlar ham mavjud. Masalan, eng tez gol 2,8 soniyada kiritilgan bo‘lib, eng ko‘p gol urgan futbolchi 800 dan ortiq gol muallifi hisoblanadi. Shu bilan birga, futbolchilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalar ham keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, yurak urish tezligi, yugurish masofasi va boshqa jismoniy ko‘rsatkichlar elektron tizimlar orqali nazorat qilinib, mashg‘ulot jarayoni individual tarzda moslashtirilmoqda.

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, futbol nafaqat sport o‘yini, balki yoshlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Yosh futbolchilarning tayyorgarligini oshirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda ularni kompleks mashg‘ulot tizimi asosida rivojlantirish kelajakda yuqori natijalarga erishadigan futbolchilarni tayyorlashning muhim omillaridan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda kompleks mashg‘ulot tizimining samaradorligini ilmiy-metodik jihatdan asoslash mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot jarayonida bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, yosh futbolchilar jismoniy tayyorgarligining

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887-son Farmoni: https://lex.uz/docs/-4631208

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

nazariy asoslarini tahlil qilish, kompleks mashg'ulot tizimining mazmuni va tuzilishini ishlab chiqish, tajriba-sinov mashg'ulotlari orqali mazkur tizimning samaradorligini aniqlash hamda olingan natijalar asosida amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, testlash usullari, tajriba-sinov ishlari hamda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash, mashg'ulot jarayonidagi o'zgarishlarni aniqlash va kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligining ilmiy asoslari. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi tezkorlik, kuch, chidamlilik, epchillik va moslashuvchanlik kabi asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu sifatlarning uyg'un rivoji futbolchining maydondagi harakat faolligi va samaradorligini oshiradi. Yosh organizmning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot yuklamalarini to'g'ri taqsimlash muhim ahamiyatga ega.

Kompleks mashg'ulot tizimining mazmuni va tuzilishi. Kompleks mashg'ulot tizimi umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari, maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari, texnik elementlar bilan uyg'unlashtirilgan mashqlar hamda tiklanish va nazorat mashqlarini o'z ichiga oladi. Mazkur tizim mashg'ulot jarayonining uzluksizligi va bosqichma-bosqich murakkablashuvini ta'minlaydi.

Tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari. Tajriba-sinov ishlari 12-14 yoshli yosh futbolchilar ishtirokida o'tkazildi. Tajriba guruhi mashg'ulotlari kompleks tizim asosida, nazorat guruhi esa an'anaviy metodika asosida tashkil etildi. Olingan natijalar tajriba guruhida tezkorlik, chidamlilik va epchillik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatdi.

1-jadval: **Kompleks mashg'ulot tizimi asosida yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining o'zgarishi (tajriba guruhi, n=20)**

Ko'rsatkichlar	Tajribagacha	Tajribadan so'ng	O'zgarish (%)
30 m yugurish (soniya)	5,2 ± 0,3	4,8 ± 0,2	–7,7
1000 m yugurish (daq.)	4,30 ± 0,25	3,55 ± 0,20	–17,4
Joyidan uzunlikka sakrash (sm)	185 ± 8	202 ± 7	+9,2
4×10 m chaqqonlik yugurishi (soniya)	11,6 ± 0,4	10,9 ± 0,3	–6,0
Turnikda tortilish (marta)	6,2 ± 1,1	9,0 ± 1,0	+45,1

Izoh: Natijalar kompleks mashg'ulot tizimi yosh futbolchilarning tezkorlik, chidamlilik, kuch va epchillik sifatlarini sezilarli darajada yaxshilaganini ko'rsatadi.

2-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlari jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili (tajribadan so'ng)**

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (n=20)	Nazorat guruhi (n=20)	Farq (%)
30 m yugurish (soniya)	4,8 ± 0,2	5,1 ± 0,3	–5,9
1000 m yugurish (daq.)	3,55 ± 0,20	4,10 ± 0,25	–13,4
Joyidan uzunlikka sakrash (sm)	202 ± 7	190 ± 8	+6,3
4×10 m chaqqonlik yugurishi (soniya)	10,9 ± 0,3	11,4 ± 0,4	–4,4
Turnikda tortilish (marta)	9,0 ± 1,0	7,1 ± 1,2	+26,8

Izoh: Tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lib, kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimi yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu tizim jismoniy sifatlarni uyg'un rivojlantirish, mashg'ulot jarayonini optimallashtirish hamda sport natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Taklif va tavsiyalar

1. Yosh futbolchilar tayyorgarligida kompleks mashg'ulot tizimini muntazam qo'llash tavsiya etiladi.
2. Mashg'ulot yuklamalari yosh va individual xususiyatlarga moslashtirilishi zarur.
3. Jismoniy tayyorgarlikni baholashda testlash va monitoring tizimlaridan foydalanish lozim.

4. Murabbiylar uchun kompleks mashg‘ulot metodikasi bo‘yicha malaka oshirish mashg‘ulotlarini tashkil etish tavsiya etiladi.
5. Kompleks mashg‘ulot tizimini o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bompa T., Buzzichelli C. Periodization Training for Sports. Human Kinetics, 2019.
2. FIFA. Youth Training and Development Programme. Zurich, 2022.
3. Lloyd R., Oliver J. Strength and Conditioning for Young Athletes. Routledge, 2018.
4. Malina R. M. Growth and Maturation of Young Athletes. Sports Medicine, 2016.
5. Qodirov A. A. Yosh sportchilar tayyorgarligi nazariyasi. Toshkent, 2021.
6. Reilly T., Williams A. M. Science and Soccer. Routledge, 2020.
7. Sirojov O. O. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
8. Sirojov O. O. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
9. Sirojov O. O. Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2020. – 162 b.
10. Sirojov O. O. Physical education and sports – the basis of a healthy lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 05, № 10. – B. 1232–1234. – ISSN 2692-5206.
11. Назаренко Л. Д. Теория и методика спортивной тренировки. Москва, 2017.

BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA SPORT GIMNASTIKASI MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Mirzayev Dilshod Xamidovich
Navoiy davlat universiteti
"Sport faoliyati turlari" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport gimnastikasida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi mashg'ulotlarni rejalashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Mashg'ulotlar strukturasi optimallashtirish masalalari, yengil atletika hamda umumiy jismoniy tayyorgarlik elementlarini mashg'ulot jarayoniga integratsiya qilish, yosh sportchilarning yuklama va tiklanish tamoyillari asosida samarali mashg'ulot dasturini ishlab chiqish metodikasi tahlil qilingan. Maqola trenerlar, metodistlar hamda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: sport gimnastikasi, boshlang'ich tayyorgarlik, mashg'ulotlarni rejalashtirish, metodika, mashg'ulotlar strukturasi, trenajyorlar, tiklanish.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of planning the training process at the initial stage of preparation in artistic gymnastics. The study analyzes the optimization of training session structure, the integration of general physical and track-and-field training elements, and the rational distribution of training loads considering the age-specific characteristics of young athletes. Particular attention is paid to the principles of gradual load progression, an individualized approach, and recovery strategies. The material is intended for coaches, methodologists, and specialists in the field of physical education and sports.

Key words: artistic gymnastics, initial training stage, training process planning, methodology, training load, recovery.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты планирования тренировочного процесса на этапе начальной подготовки в спортивной гимнастике. Проанализированы вопросы оптимизации структуры тренировочных занятий, интеграции элементов общей физической и легкоатлетической подготовки, а также рационального распределения тренировочной нагрузки с учётом возрастных особенностей юных спортсменов. Особое внимание уделяется принципам поэтапного увеличения нагрузки, индивидуального подхода и восстановительных мероприятий. Материал предназначен для тренеров, методистов и специалистов в области физической культуры и спорта.

Ключевые слова: спортивная гимнастика, начальная подготовка, планирование тренировочного процесса, методика, тренировочная нагрузка, восстановление.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Davlat rahbarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-dekabrdagi "Yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-443-sonli[1] Farmoniga muvofiq har haftaning payshanba kuni "Jismoniy tarbiya va sport kuni" deb e'lon qilinib, bolalar va yoshlar sportini yanada ommalashtirish hamda iqtidorli sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar boshlangan. Ushbu Farmon doirasida sport maktablarini sport yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirish belgilangan hamda ularning samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish vazifalari yuklatilgan.

Mazkur davlat hujjatlari sportning barcha darajalarida, xususan yosh avlod sportida tizimli va barqaror rivojlanishni ta'minlashni nazarda tutadi hamda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulot jarayonini rejalashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-dekabrdagi "Yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-443-sonli Farmoni: https://lex.uz/docs/-7266934

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi sport gimnastikasida sportchining keyingi sport faoliyati bosqichlari uchun zarur bo‘lgan texnik, jismoniy va psixologik tayyorgarlik asoslarini shakllantiruvchi eng muhim davr hisoblanadi. Jismoniy salohiyat, koordinatsiya, muvozanat va moslashuvchanlik kabi asosiy jismoniy sifatlar aynan ushbu bosqichda tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar orqali rivojlantiriladi. Shu bois mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish yosh sportchilarning sport natijalarini oshirish hamda jarohatlanish xavfini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada sport gimnastikasida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotlarni ilmiy-uslubiy asosda rejalashtirish, mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish hamda sport faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqish masalalari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport gimnastikasida mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish masalalari jismoniy tayyorgarlik nazariyasi va amaliyoti doirasida keng yoritilgan. “Trening nazariyasi va metodikasi” nomli fundamental manbada mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish, ularning hajmi va intensivligini bosqichma-bosqich oshirish tamoyillari ilmiy asoslangan holda bayon etilgan. Ushbu yondashuv boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida sportchilarning funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Sport gimnastikasiga oid metodik manbalarda, xususan “Sport gimnastikasi metodik qo‘llanma” hamda Sirojov O.O.ning “Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi” asarida boshlang‘ich bosqichda texnik tayyorgarlikni shakllantirish, muvozanat, koordinatsiya va moslashuvchanlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Mualliflar gimnastik mashqlarni o‘rgatishda mashg‘ulot strukturasining ilmiy asosda tashkil etilishi va xavfsizlik choralariga qat’iy rioya etish muhimligini ta’kidlaydi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida sportchilar sog‘lig‘ini mustahkamlash va yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlash masalalari valeologik yondashuv asosida ham tadqiq etilgan. Sirojov O.O.ning monografiyasi va PhD dissertatsiyasida jismoniy tarbiya va sport jarayonida sog‘lomlashtiruvchi komponentlarni integratsiya qilish, mashg‘ulot va tiklanish nisbatini optimallashtirish orqali sportchilarning barqaror rivojlanishini ta’minlash masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda ham sport gimnastikasida mashg‘ulotlarni rejalashtirish muhim ilmiy muammo sifatida qaraladi. Smith J.ning “Gymnastics Coaching: Theory and Practice” asarida boshlang‘ich bosqichda mashg‘ulotlarni rejalashtirishda individual yondashuv, yuklamani bosqichma-bosqich oshirish va texnik elementlarni o‘rgatishda tizimlilik tamoyillari asosiy metodik yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, Ivanov P.-ning atletik tayyorgarlikka bag‘ishlangan tadqiqotlarida umumiy jismoniy tayyorgarlik sport gimnastikasida texnik mahoratni shakllantirish uchun muhim omil ekani qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sport gimnastikasida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotlarni rejalashtirish jarayonini o‘rganish maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot ma’lumotlari pedagogik kuzatuv, trenerlar faoliyatini tahlil qilish, mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilayotgan rejalashtirish hujjatlarini o‘rganish hamda ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili asosida to‘plandi. Shuningdek, mashg‘ulotlar jarayonida sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini baholash uchun taqqoslama tahlil usulidan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida qayta ishlanib, mashg‘ulot yuklamalarining tuzilishi, davomiyligi va mazmuni bo‘yicha umumlashtirildi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida mantiqiy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullari qo‘llanilib, mashg‘ulotlarni ilmiy asosda rejalashtirishning samaradorligi aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sport gimnastikasida mashg‘ulotlarni rejalashtirishning mohiyati mashg‘ulot jarayonini oldindan belgilangan maqsadlar asosida tizimli tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Rejalashtirish jarayonida mashg‘ulot maqsadlarini aniqlash, trening yuklamasining intensivligi, hajmi va chastotasini belgilash, texnik hamda jismoniy mashqlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, shuningdek tiklanish elementlarini mashg‘ulot tizimiga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar mashg‘ulot jarayonining samaradorligini ta’minlash va sportchining funksional imkoniyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi sportchidan asosiy gimnastik mashqlarni to‘g‘ri texnika asosida bajarish, balans, muvozanat va koordinatsiyani mustahkamlash, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda sport faoliyatida zarur bo‘lgan qat’iyat va intizom kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishni talab etadi. Ushbu bosqichda egallangan ko‘nikma va malakalar sportchining keyingi tayyorgarlik bosqichlarida texnik murakkab elementlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga zamin yaratadi.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni rejalashtirish jarayoni bir qator asosiy printsiplarga tayanadi. Jumladan, yuklamani progresiv tarzda oshirib borish mushaklar, paylar va bog'lamlarga tushadigan salbiy stressni kamaytiradi hamda jarohatlanish xavfini pasaytiradi. Individual yondashuv prinsipi sportchining yoshi, jismoniy rivojlanish darajasi va texnik tayyorgarligini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni moslashtirishni nazarda tutadi. Mashg'ulotlar oralig'ida yetarli tiklanish va dam olish vaqtlarini rejalashtirish charchoqning oldini olib, mashg'ulot samaradorligini oshiradi. Shuningdek, multifunksionallik prinsipi asosida tuzilgan mashqlar tizimi nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki kuch, tezlik va moslashuvchanlik kabi umumiy jismoniy sifatlarni ham kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulot dasturining tuzilishi sportchining tayyorgarlik darajasi va mashg'ulot maqsadlariga muvofiq ravishda ishlab chiqilib, haftalik reja asosida izchil tashkil etiladi. Bunday yondashuv mashg'ulot jarayonining mantiqiyligi va uzluksizligini ta'minlash bilan birga sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Kun	Mashg'ulot tarkibi	Vaqti
1-kun	**Umumiy jismoniy tayyorgarlik + moslashuvchanlik**	60 daqiqa
2-kun	**Texnik gimnastik mashqlar + muvozanat**	60 daqiqa
3-kun	**Dam olish yoki yengil aerobik**	30-40 daqiqa
4-kun	**Kuch mashqlari + koordinatsiya**	60 daqiqa
5-kun	**Aralash texnik mashqlar + balans**	60 daqiqa
6-kun	**Yarim marofon mashqlar + tiklanish**	50 daqiqa
7-kun	**To'liq dam olish**	–

Har bir mashg'ulot maqsadga muvofiq ravishda bir necha asosiy qismlardan tashkil topadi. Mashg'ulotning tayyorlovchi qismi odatda 10–15 daqiqa davom etib, yengil yugurish, qo'l va oyoq bo'g'imlarini aylantirish, bo'g'imlarni isitish hamda dinamik cho'zish mashqlarini o'z ichiga oladi. Ushbu qism organizmni keyingi yuklamalarga tayyorlash, mushaklar va bo'g'imlarning funksional holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mashg'ulotning asosiy qismi 30–35 daqiqa davom etib, unda asosiy texnik mashqlarni bajarish, jumladan handstand, roll va piruette kabi elementlarni o'zlashtirish, muvozanatni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar hamda gimnastik elementlarni o'zaro bog'lash ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bosqich sportchilarning texnik mahoratini shakllantirish va takomillashtirishda yetakchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mashg'ulotning yakuniy qismi 10–15 daqiqa davom etib, cho'zish va tiklanish mashqlari hamda nafas olish mashqlari orqali organizmni asta-sekin tinch holatga keltirishni nazarda tutadi. Bu jarayon mashg'ulotdan keyingi tiklanishni tezlashtirish va ortiqcha charchoqning oldini olishga xizmat qiladi.

Metodik tavsiyalar doirasida mashqlarni to'g'ri bajarish texnikasiga alohida e'tibor qaratiladi. Har bir mashqni bajarishdan oldin sportchiga nafasni boshqarish, to'g'ri tana holatini saqlash va mushak faolligini ta'minlash bo'yicha tushuntirishlar berilishi zarur. Bu texnik xatolarni kamaytirish va mashg'ulot samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mashg'ulot jarayonida xavfsizlik choralarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Trenajyorlar va matlarning texnik jihatdan mustahkamligi ta'minlanishi, trener tomonidan doimiy nazorat olib borilishi hamda yangi va murakkab elementlarni o'rgatishda yordamchi trenerlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu choralar jarohatlanish xavfini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sportchilarning psixologik holatini qo'llab-quvvatlash ham muhim hisoblanadi. Sportchining motivatsiyasini oshirish, ijobiy fikrlar bildirish va kichik yutuqlarni rag'batlantirish mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi hamda umumiy natijadorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy yondashuv asosida rejalashtirilgan mashg'ulot dasturi sportchilarning texnik va jismoniy ko'rsatkichlarini barqaror oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, reja asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda qatnashgan bolalar boshqa sportchilarga nisbatan koordinatsiya va moslashuvchanlik ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini ilmiy-uslubiy asoslarda rejalashtirish sportchining jismoniy, texnik va psixologik tayyorgarligining samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Mashg'ulot jarayonida yuklama, tiklanish, individual yondashuv hamda xavfsizlik prinsiplari asosida ish olib borish mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi va jarohatlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Sport gimnastikasida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish hamda sportchilarning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida quyidagi ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirishda sportchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur bo‘lib, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi sportchilar uchun mashg‘ulot yuklamalari ularning biologik yoshi, jismoniy rivojlanish darajasi va funksional imkoniyatlariga mos ravishda belgilanishi lozim. Yuklamaning haddan tashqari oshirilishi jarohatlanish xavfini kuchaytirishi mumkinligi sababli bosqichma-bosqichlik prinsipiga qat’iy rioya etish tavsiya etiladi.

Mashg‘ulot jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari, jumladan kuch, chaqqonlik, moslashuvchanlik va koordinatsiyani rivojlantiruvchi mashqlar maxsus gimnastik elementlar bilan uyg‘un holda qo‘llanilishi lozim. Bu sportchilarning harakat apparatini mustahkamlash va texnik elementlarni samarali o‘zlashtirishni yengillashtiradi.

Mashg‘ulot strukturasining ilmiy asosda tashkil etilishi har bir mashg‘ulotning tayyorlovchi, asosiy va yakunlovchi qismlardan iborat bo‘lishini, ularning davomiyligi va mazmuni mashg‘ulot maqsadlariga muvofiq belgilanishini taqozo etadi. Ayniqsa, mashg‘ulot yakunida tiklanish mashqlariga yetarli vaqt ajratish tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi sportchilarning jismoniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni kuchaytirish lozim. Mashqlar murakkabligi va takrorlanish sonini individual tarzda moslashtirish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi hamda sportchining sport faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Mashg‘ulotlar davomida xavfsizlik va jarohatlanishlarning oldini olish choralarini kuchaytirish alohida ahamiyatga ega. Sport anjomlarining texnik holatini doimiy nazorat qilish, yumshoq himoya vositalaridan foydalanish hamda murakkab elementlarni o‘rgatishda yordamchi mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida psixologik tayyorgarlik elementlarini joriy etish sportchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish va mashg‘ulot jarayoniga ijobiy munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada rag‘batlantiruvchi va o‘yin elementlariga asoslangan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sport gimnastikasi trenerlari uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ilg‘or xorijiy tajribalar hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atletik tayyorgarlik asoslari / Ivanov P., 2019.
2. Gymnastics Coaching: Theory and Practice / Smith J., 2020.
3. Sirojov O.O. “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari”. Monografiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
4. Sirojov O.O. “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari”: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
5. Sirojov O.O. “Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi”. – Toshkent, 2020. – 162 b.
6. Sirojov O.O. Physical education and sports – the basis of a healthy lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 05, № 10. – B. 1232–1234. – ISSN 2692-5206.
7. Sport gimnastikasi metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston sport nashriyoti.
8. Trening nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018.

MAHALLA – "JONLI MUZEY": 6–7 YOSHLI BOLALARDA MILLIY G'URURNI LOKAL IDENTIFIKATSIYA ORQALI KUZATISH MODELI

Omondavlatova Diyora Otabekovna
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti
ORCID: 0009-0002-6728-5891

Annotatsiya: Erta bolalik davrida milliy identitetning shakllanishi mikroijtimoiy muhitlar bilan bog'liq holda yetarli darajada nazariy asoslanmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati makro darajadagi institutlar – ta'lim tizimi, davlat siyosati va ommaviy axborot vositalari doirasida olib borilgan. Ushbu tadqiqotda o'zbek mahallasi "jonli muzey" sifatida konseptuallashtirilib, 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururning lokal identifikatsiya orqali shakllanishi empirik jihatdan o'rganildi. Aralash metodologiya asosida xulq-atvor kuzatuvi, yarim strukturaviy intervyular, proyektiv rasm tahlili hamda milliy ramzlarni tanish testi qo'llanildi. Natijalar eksperimental guruhda affektiv bog'lanish, ramziy tanish va madaniy ishtirok ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Tadqiqot "Mikrodan makroga identitet rivojlanish modeli"ni taklif qiladi, unga ko'ra mahalliy tegishlilik milliy g'ururning shakllanishida asosiy bosqich vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: milliy identitet, lokal identifikatsiya, erta bolalik, mahalla, madaniy vositachilik, "jonli muzey" modeli.

Abstract: The formation of national identity in early childhood within micro-social environments remains insufficiently theorized. Most existing research has focused on macro-level institutions, including the education system, state policy, and mass media. In this study, the Uzbek mahalla is conceptualized as a "living museum," and the development of national pride among children aged 6–7 through local identification is examined empirically. Using a mixed-methods approach, behavioral observation, semi-structured interviews, projective drawing analysis, and a national symbols recognition test were employed. The findings indicate a significant increase in affective attachment, symbolic recognition, and cultural participation indicators in the experimental group. The study proposes a "Micro-to-Macro Identity Development Model," according to which local belonging serves as a foundational stage in the formation of national pride.

Key words: national identity, local identification, early childhood, mahalla, cultural mediation, living museum model.

Аннотация: Формирование национальной идентичности в раннем детстве в контексте микро-социальной среды до настоящего времени остается недостаточно теоретически обоснованным. Большинство существующих исследований сосредоточено на макроуровневых институтах – системе образования, государственной политике и средствах массовой информации. В данном исследовании узбекская махалля концептуализируется как "живой музей", а формирование национальной гордости у детей 6–7 лет через локальную идентификацию изучается эмпирически. На основе смешанной методологии применялись поведенческое наблюдение, полуструктурированные интервью, проективный анализ рисунков и тест на распознавание национальных символов. Результаты показали значительное повышение показателей аффективной привязанности, символического распознавания и культурного участия в экспериментальной группе. Исследование предлагает "Модель развития идентичности от микро к макро", согласно которой локальная принадлежность выступает ключевым этапом формирования национальной гордости.

Ключевые слова: национальная идентичность, локальная идентификация, раннее детство, махалля, культурное посредничество, модель "живого музея".

KIRISH

Milliy identitetning shakllanishi ko'pincha maktab ta'limi yoki davlat mafkurasi doirasida o'rganiladi. Biroq rivojlanish psixologiyasi shuni ko'rsatadiki, identitet eng avvalo bolaning yaqin ijtimoiy muhitida shakllanadi (Bronfenbrenner, 1979)[1].

O'zbekiston sharoitida mahalla nafaqat ma'muriy birlik, balki an'ana, marosim, qadriyatlar va ijtimoiy o'zaro ta'sirlar mujassam bo'lgan madaniy makon hisoblanadi. Shunga qaramay, mahallaning identitet shakllanishidagi roli hozirgacha yetarli darajada empirik jihatdan o'rganilmagan.

6–7 yosh davri Piaget nazariyasiga ko‘ra konkret operatsiyalar bosqichiga o‘tish davri hisoblanadi. Mazkur yoshda bola abstrakt tushunchalarni, xususan, “millat” tushunchasini real ramzlar va bevosita tajribalar orqali anglay boshlaydi.

Shu bois tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

- mahalla asosida tashkil etilgan faoliyat bolalarda milliy g‘urur ko‘rsatkichlarini oshiradimi;
- lokal identifikatsiya milliy g‘ururning shakllanishida vositachi rol o‘ynaydimi;
- mahallani “jonli muzey” modeli sifatida nazariy asoslash mumkinmi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy identitet shakllanishini tushuntirishda klassik psixososial yondashuv muhim o‘rin tutadi. Erik Erikson identitetni shaxs rivojlanishining markaziy vazifasi sifatida talqin qilib, uni ijtimoiy tajriba va ichki o‘zlik uyg‘unligi natijasi sifatida izohlaydi. Garchi u asosan o‘smirlik bosqichiga urg‘u bergan bo‘lsa-da, erta bolalik davrida asosiy ishonch va tegishlilik hissining shakllanishini alohida ta’kidlaydi (Erikson, 1968)[2]. Ijtimoiy identitet nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘zini muayyan guruh a’zosi sifatida anglash orqali ijtimoiy o‘zlikni shakllantiradi. Tajfel va Turner ushbu jarayonni ijtimoiy kategoriyalash va guruhga mansublik bilan izohlab, milliy g‘ururni ijobiy ijtimoiy taqqoslash natijasi sifatida tushuntiradi (Tajfel & Turner, 1979). Mazkur yondashuvlarda Erikson identitetni psixososial rivojlanish bosqichi sifatida ko‘rsa, Tajfel va Turner uni guruhga mansublik mahsuli sifatida izohlaydi. Tadqiqotda ilgari surilgan “lokal identifikatsiya” modeli ushbu ikki yondashuvni integratsiya qilib, bolaning avval mahalla orqali mikro-guruhga mansublikni his qilishi va keyinchalik ushbu tajribaning milliy darajaga ko‘chishini nazariy jihatdan asoslaydi.

Identitetning shakllanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi omil hisoblanadi. Lev Vygotsky rivojlanishning ijtimoiy-madaniy tabiatini asoslab, bilim va qadriyatlar kattalar bilan muloqot jarayonida ichkilashtirilishini ta’kidlaydi (Vygotsky, 1978). Shunga o‘xshash tarzda, Urie Bronfenbrenner ekologik tizimlar nazariyasida bola rivojlanishini mikro, mezo va makro tizimlarning o‘zaro ta’siri orqali tushuntiradi hamda oila va mahallani asosiy mikro muhit sifatida belgilaydi (Bronfenbrenner, 1979). Vygotskiy madaniy vositachilik va tilga urg‘u bersa, Bronfenbrenner tizimli ekologik tuzilmani asoslab beradi. Mahalla “jonli muzey” sifatida aynan mikro tizim darajasida madaniy vositachilik maydoni bo‘lib, bolaga qadriyatlar va ijtimoiy tajribani bevosita yetkazuvchi makon vazifasini bajaradi.

Milliy identitetning ramziy asoslari masalasida Benedict Anderson millatni “tasavvur qilingan hamjamiyat” sifatida ta’riflab, milliy birlik kundalik tanishuvdan ko‘ra umumiy ramz va tasavvurlarga tayangan holda shakllanishini ko‘rsatadi (Anderson, 1983). Anthony D. Smith esa milliy identitet tarixiy xotira, mif va ramzlar orqali mustahkamlanishini ta’kidlaydi (Smith, 1991). Pierre Nora tomonidan ilgari surilgan “xotira makonlari” konsepsiyasi jismoniy va ramziy joylarning kollektiv xotirani saqlovchi vosita ekanini asoslaydi (Nora, 1989). Anderson millatni tasavvuriy birlik sifatida talqin qilsa, Smith uning etnomadaniy ildizlariga urg‘u beradi, Nora esa makonning xotira tashuvchisi sifatidagi rolini ko‘rsatadi. Mahallani “jonli muzey” sifatida talqin qilish ushbu konsepsiyalar bilan uyg‘un bo‘lib, u bolaga milliy ramz va qadriyatlarni jonli tajriba orqali uzatuvchi ramziy makon sifatida namoyon bo‘ladi.

Joyga bog‘lanish va affektiv identifikatsiya masalasida Yi-Fu Tuan joy va makon tushunchalarini farqlab, joy affektiv tajriba orqali ma’noga ega bo‘lishini asoslaydi (Tuan, 1977). Bola uchun mahalla oddiy hudud emas, balki hissiy bog‘lanish va xavfsizlik manbai hisoblanadi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarida aniqlangan affektiv bog‘lanish ko‘rsatkichlarining oshishini izohlashga nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tajribaga asoslangan ta’lim konsepsiyasida John Dewey ta’lim jarayonini bevosita tajriba va faol ishtirok bilan bog‘laydi hamda bolaning faol subyekt sifatida o‘rganishini ta’kidlaydi (Dewey, 1938). Shu bilan birga, UNESCO nomoddiy madaniy merosni saqlashda jamoaviy amaliyotlar va urf-odatlarning uzluksizligini muhim omil sifatida belgilaydi (UNESCO, 2003). Dewey ta’limni amaliy faoliyat orqali tashkil etishni asoslab bersa, UNESCO madaniy merosni jamoa orqali uzatiladigan qadriyat sifatida ko‘radi. Mahalla ushbu ikki yondashuvni birlashtirgan holda, bir vaqtning o‘zida ham ta’limiy tajriba makoni, ham madaniy meros tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi nazariy manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida identitetning shakllanishi shaxsning ijtimoiy rivojlanish jarayonida bosqichma-bosqich yuz berishi, guruhga mansublik orqali mustahkamlanishi, madaniy vositachilikning mikro muhitda amalga oshishi, ramziy makon va tarixiy xotiraning milliy birlikni mustahkamlashi hamda tajribaviy ishtirokning identifikatsiya jarayonini chuqurlashtirishi aniqlanadi. Mazkur mantiqiy zanjir asosida “Mikrodan makroga identitet rivojlanish modeli” nazariy jihatdan asoslanadi, unga ko‘ra mahalla mikro makon sifatida affektiv tegishlilikni shakllantiradi, bu jarayon ramziy tanish orqali mustahkamlanib, yakunda milliy g‘urur – makro identitetning rivojlanishiga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sifat (qualitative) va aralash (mixed-method) yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqotning metodologik asosi ijtimoiy-konstruktivistik paradigma hamda madaniy-tarixiy yondashuvga tayandi. Xususan, Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi va Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi konseptual asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqotda "mahalla – jonli muzey" modeli doirasida bolalarning milliy g'urur va lokal identifikatsiya ko'rsatkichlarini tabiiy muhitda organik kuzatish orqali aniqlash maqsad qilindi.

Tadqiqotda 6–7 yoshli maktabgacha tayyorlov guruhida tahsil olayotgan 48 nafar bola, jumladan 24 nafar qiz va 24 nafar o'g'il bola ishtirok etdi. Ishtirokchilar mahalla hududida joylashgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotidan tanlab olindi. Tanlov jarayoni ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanib, ota-onalarning yozma roziligi asosida amalga oshirildi. Tajriba mahalla hududida joylashgan ijtimoiy-madaniy obyektlar, xususan masjid, guzar, hunarmand ustaxonasi, tarixiy obida va mahalla markazi, shuningdek, oilaviy muhitda tashkil etildi. Mahalla "jonli muzey" sifatida talqin qilinib, undagi real hayotiy jarayonlar bolalarning bevosita kuzatuv va faol ishtirok tajribasiga aylantirildi.

Tadqiqot jarayonida organik, ya'ni tabiiy kuzatish metodi orqali bolalarning mahalla hayotidagi ishtiroki davomida ularning emotsional reaksiyalari, nutqiy ifodalari va xulq-atvor ko'rsatkichlari tizimli ravishda qayd etildi. Shuningdek, yarim strukturali suhbatlar orqali bolalarning mahalla, milliy qadriyatlar va urf-odatlar haqidagi tasavvurlari aniqlashtirildi. "Mening mahallam" mavzusida chizilgan rasmlar kontent-analiz asosida tahlil qilindi. "Mahalla – jonli muzey" modeli asosida 12 haftalik pedagogik eksperiment dasturi amalga oshirildi hamda tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan bolalarning milliy identifikatsiya ko'rsatkichlari Likert shkalasi asosida ekspert baholash yo'li bilan aniqlab borildi.

"Mahalla – jonli muzey" organik kuzatish modeli kognitiv, emotsional-aksiologik, faoliyat va identifikatsion komponentlardan tashkil topdi. Kognitiv komponent doirasida bolalarning mahalla tarixi, ramzlari va kasb-hunarlari haqidagi bilimlari shakllantirildi. Emotsional-aksiologik komponent milliy qadriyatlarga nisbatan faxr, hurmat va ijobiy munosabatning rivojlanishini ifodaladi. Faoliyat komponenti milliy an'analarda, jumladan Navro'z tadbirlari va hunarmandchilik mashg'ulotlarida bevosita ishtirokni o'z ichiga oldi. Identifikatsion komponent esa bolalarda "men mahallamning bir qismiman" degan ongli o'zini anglashning shakllanishi bilan tavsiflandi.

Milliy g'urur va lokal identifikatsiya ko'rsatkichlari bilim darajasi, emotsional munosabat, ijtimoiy faollik hamda o'zini identifikatsiya qilish mezonlari asosida baholandi. Ushbu mezonlar bolalarning mahalla tarixi va qadriyatlarini ifodalay olishi, faxr va qiziqish bildirish darajasi, tadbir va marosimlardagi ishtiroki hamda "men shu mahalladanman" degan ijobiy ifodalarni namoyon etishi orqali aniqlandi. Natijalar yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha tasniflandi.

Olingan ma'lumotlar sifat tahlili, jumladan kontent-analiz, hamda miqdoriy statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Deskriptiv statistika, foiz ko'rsatkichlari va taqqoslash tahlillari qo'llanildi. Eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar Student t-testi yordamida aniqlanib, natijalarning ishonchlilik darajasi baholandi.

Tadqiqot jarayonida etik tamoyillarga qat'iy rioya qilindi. Bolalarning psixologik xavfsizligi ta'minlandi, ota-onalarning yozma roziligi olindi va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlandi. Tadqiqot maktabgacha ta'lim sohasidagi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etildi. Quyida maqolaning natijalar, muhokama, xulosa va takliflar qismlari ilmiy uslubda bayon etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida "Mahalla – jonli muzey" modeli asosida 12 haftalik pedagogik eksperiment amalga oshirildi. Tajribada eksperimental guruhga 24 nafar bola va nazorat guruhiga 24 nafar bola jalb etildi. Eksperimental guruhda kognitiv ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshdi: bolalarning 79% ida mahalla tarixi, qadriyatlari va kasb-hunar turlari haqida aniq va tizimli tasavvurlar shakllandi, holbuki tajriba boshida ushbu ko'rsatkich 41% ni tashkil etgan edi. Nazorat guruhida esa o'sish 38% dan 52% gacha bo'lgan darajada kuzatildi. Bolalarning og'zaki javoblarida "bizning mahallamiz", "ota-bobolarimiz hunari", "milliy bayramimiz" kabi identifikatsion birliklarning ko'paygani qayd etildi.

Emotsional-aksiologik ko'rsatkichlar tahlili eksperimental guruh bolalarining 83% ida milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy emotsional munosabat, jumladan faxr, qiziqish va hurmat hissining barqaror shakllanganini ko'rsatdi. Rasm tahlili natijalarida milliy ramzlar, an'anaviy kiyimlar va mahalla obyektlarining faol tasvirlangani aniqlandi. Nazorat guruhida mazkur ko'rsatkich 57% ni tashkil etdi, bu esa eksperimental ta'sir samaradorligini tasdiqlaydi.

Faoliyat va ijtimoiy ishtirok ko‘rsatkichlari bo‘yicha eksperimental guruh bolalarining 75% i mahalla tadbirlarida tashabbuskorlik bilan ishtirok etgani kuzatildi, nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 46% darajasida qayd etildi. Bolalarning hunarmandchilik mashg‘ulotlarida faol qatnashgani va milliy qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirgani tajriba jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Lokal identifikatsiya darajasini baholash natijalariga ko‘ra, “men shu mahalladanman” degan ijobiy o‘zini anglash ifodasi eksperimental guruhda 82% ga yetdi, holbuki boshlang‘ich bosqichda bu ko‘rsatkich 44% ni tashkil etgan edi. Nazorat guruhida esa 49% natija qayd etildi. Statistik tahlil natijalari eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqning ishonchli ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahallani “jonli muzey” sifatida pedagogik muhitga aylantirish 6–7 yoshli bolalarda milliy g‘urur va lokal identifikatsiyaning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Olingan natijalar madaniy-tarixiy yondashuv asosida izohlanib, Lev Vygotskiy ta’kidlaganidek, bola rivojining ijtimoiy muhit va madaniy vositalar orqali amalga oshishini tasdiqlaydi. Mahalla muhiti mazkur tadqiqotda ana shunday tabiiy madaniy makon vazifasini bajardi.

Shuningdek, Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, bola rivojlanishida mikrotizim, ya’ni oila va mahalla hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida mahalla mikrotizimi faol pedagogik resursga aylantirildi. Natijalar milliy g‘ururning sun’iy targ‘ibot orqali emas, balki bevosita ijtimoiy tajriba va shaxsiy ishtirok asosida samarali shakllanishini ko‘rsatdi. Organik kuzatish modeli esa bolalarning tabiiy reaksiyalarini aniqlash va baholash imkonini berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Mahalla – jonli muzey” modeli 6–7 yoshli bolalarda milliy g‘urur va lokal identifikatsiyani shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi hisoblanadi.

Organik kuzatish metodidan foydalanish bolalarning real ijtimoiy tajribasi asosida barqaror emotsional-qadriyatli munosabatni rivojlantiradi.

Mahalla muhitida tashkil etilgan faoliyat bolalarda o‘zini jamiyatning muhim a’zosi sifatida anglash jarayonini kuchaytiradi.

Eksperimental guruh natijalari modelning amaliy samaradorligini statistik jihatdan tasdiqladi.

Takliflar

1. Maktabgacha ta’lim dasturlariga “Mahalla – jonli muzey” modeli asosida maxsus modul kiritish.
2. Tarbiyachilar uchun lokal identifikatsiya va milliy qadriyatlarni integrativ o‘qitish bo‘yicha metodik qo‘llanma ishlab chiqish.
3. Mahalla faollari, hunarmandlar va ota-onalarni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda jalb etish.
4. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida ham mazkur modelni davomiylik tamoyili asosida qo‘llash.
5. Kelgusida tadqiqotni turli hududlar kesimida kengaytirib, komparativ tahlil o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press.
2. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
3. Erikson, E. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton.
4. Tajfel, H., & Turner, J. (1979). An integrative theory of intergroup conflict. In W. G. Austin & S. Worchel (Eds.), The Social Psychology of Intergroup Relations (pp. 33–47). Monterey, CA: Brooks/Cole.
5. Vygotsky, L. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Anderson, B. (1983). Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. London: Verso.
7. Smith, A. D. (1991). National Identity. Reno: University of Nevada Press.
8. Nora, P. (1989). Between memory and history: Les lieux de mémoire. Representations, 26, 7–24.
9. Tuan, Y.-F. (1977). Space and Place: The Perspective of Experience. Minneapolis: University of Minnesota Press.
10. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
11. UNESCO. (2003). Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris: UNESCO.

YENGIL DIZATRIYALI BOLALARDA NUTQNING BO‘G‘IN TUZILISHI VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Pardayeva Muxlisa Furqat qizi
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, tayanch doktorant,1-kurs
ORCID: 0009-0007-6732-9715

Annotatsiya: Mazkur maqolada markaziy nerv tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan dizartriya nutq buzilishining etiologik omillari, patogenetik mexanizmlari hamda klinik ko‘rinishlari ilmiy adabiyotlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, ontogenez jarayonida bo‘g‘in tuzilishining rivojlanishi, dizartriyali bolalar nutqida bo‘g‘in tuzilishining shakllanish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, bo‘g‘in tarkibining soddalashuvi, tovushlarning tushirib qoldirilishi, o‘rin almashishi, bo‘g‘inlarning qisqarishi yoki ortiqcha qo‘shilishi kabi fonetik-fonologik buzilishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: dizartriya, bo‘g‘in, ontogenez, nutq, serebral falaj, eliziya.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the etiological factors, pathogenetic mechanisms, and clinical manifestations of dysarthria resulting from damage to the central nervous system, based on a review of scientific literature. Special attention is paid to the development of syllabic structure in ontogenesis and to the specific features of syllabic structure formation in the speech of children with dysarthria. In particular, such phonetic and phonological disorders as simplification of syllabic structure, sound omissions, substitutions, syllable reduction, and excessive addition are examined.

Key words: dysarthria, syllable, ontogenesis, speech, cerebral palsy, elision.

Аннотация: В статье на основе научной литературы комплексно анализируются этиологические факторы, патогенетические механизмы и клинические проявления дизартрии, возникающей вследствие поражения центральной нервной системы. Особое внимание уделяется развитию слоговой структуры речи в онтогенезе, а также особенностям формирования слоговой структуры речи у детей с дизартрией. В частности, рассматриваются такие фонетико-фонологические нарушения, как упрощение слоговой структуры, пропуски звуков, перестановки, сокращение слогов и их избыточное добавление.

Ключевые слова: дизартрия, слог, онтогенез, речь, детский церебральный паралич, элизия.

KIRISH

Respublikamizda maxsus pedagogikaning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va bu borada sezilarli yutuqlarga erishilgan. Xususan, dizartriyani tasniflash, logopedik tekshirish hamda korreksion ishlar tizimini ishlab chiqish yo‘nalishida L. Mo‘minova, M. Ayupova, M. Mamatova, S. J. Ochilova, Z. I. Sobirova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarini alohida ta’kidlash mumkin. Dizartriyali bolalar nutqini korreksiya qilish masalalari bo‘yicha esa A. Kussmaul, O. V. Pravdina, L. A. Danilova, Y. M. Mastyukova, E. F. Arxipova, E. N. Vinarskaya, G. V. Chirkina, M. Linskaya, T. A. Garyova, S. Mayevskaya, R. Martinova, Y. F. Sobotovich, O. Tokareva kabi xorijiy tadqiqotchilar muhim ilmiy natijalarga erishganlar.

Shuningdek, yengil dizartriyaning kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tashxis qo‘yish hamda tuzatish ishlarining mazmuni va usullari O. G. Prixodko, M. A. Muratova, K. A. Semenova, L. V. Lopatina, N. V. Serebryakova, Y. F. Arxipova va boshqa olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

M. Linskayaning ta’kidlashicha, hozirgi kunda logopediyada nutqiy harakat innervatsiyasining yengil yetishmovchiligi bilan bog‘liq nutqiy harakat buzilishlariga ega bo‘lgan bolalar soni ortib bormoqda. Zamonaviy logopediya fanida markaziy nerv tizimi yetishmovchiligi oqibatida yuzaga keladigan nutq buzilishlarini, xususan, dizartriyani korreksiya qilish masalalari keng qamrovda o‘rganilmoqda va bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur muammolarning dolzarbligi bolalar va kattalar orasida nutq buzilishlarining tarqalishi ortib borayotgani, shuningdek, dizartriya fonetik nutq tomonining markaziy nerv tizimi organik shikastlanishi bilan bog‘liqligi bilan izohlanadi. Bunday holatlarda nutq apparati mushaklarining tarangligi va ularning muvofiqlashtirilgan ishlashidagi buzilishlar nafas olish, ovoz hosil qilish va artikulyatsiya jarayonlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Natijada nutqning tezligi va aniqligiga ta’sir ko‘rsatuvchi motorik xususiyatlar shakllanadi hamda fonematik tahlil va sintez jarayonlarining rivojlanishi sekinlashadi. Bu esa maktab yoshidagi bolalarda o‘qish va yozish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bolalik davridagi dizartriya ko‘pincha tug‘ma holatlar, jumladan, serebral falaj bilan bog‘liq bo‘lib, bunday bolalarning taxminan 20 foizida nutq dizartriya tufayli buzilgan bo‘lishi qayd etiladi.

Yengil dizartriya logopedik amaliyotda keng uchraydi. Ushbu holatda nutqning noaniqligi, ifodasizligi, diksiyaning sustligi, murakkab bo‘g‘in tuzilishiga ega so‘zlarda tovushlarning buzilishi yoki almashishi kabi belgilar kuzatiladi. L. V. Lopatinaning ta’kidlashicha[1], yengil dizartriya nutq funksional tizimining fonetik hamda prosodik komponentlari buzilishi bilan namoyon bo‘ladigan nutq patologiyasi bo‘lib, u bosh miyaning yengil darajadagi mikroorganik shikastlanishi natijasida yuzaga keladi.

Ommaviy maktabgacha ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarning 40–60 foizida nutq rivojlanishida turli og‘ishlar kuzatiladi. Eng ko‘p uchraydigan nutq buzilishlari qatoriga dislaliya, rinofoniya, fonetik-fonematik rivojlanishning yetishmovchiligi hamda stert (yashirin) dizartriya kiradi. Nutqning umumiy rivojlanmaganligi kuzatiladigan guruhlarda bolalarning 50 foizigacha, fonetik-fonematik rivojlanish yetishmovchiligi mavjud guruhlarda esa 35 foizigacha qismida stert dizartriya aniqlanadi. Yengil dizartriyaga ega bolalar uzoq muddatli va tizimli individual logopedik yordamga muhtoj bo‘ladilar. Ixtisoslashtirilgan guruhlarda faoliyat yurituvchi logopedlar frontal va kichik guruh mashg‘ulotlarida nutqning umumiy rivojlanmaganligini bartaraf etishga qaratilgan ishlarni olib boradilar, individual mashg‘ulotlarda esa nutqning talaffuz tomoni va prosodik komponentlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan korreksion tadbirlarni amalga oshiradilar.

Nutq insonning murakkab fikr va g‘oyalarni tez va aniq ifodalash imkonini beruvchi muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Muloqotdagi qiyinchiliklar, xususan, serebral falajga chalingan bolalarda, hayot sifatining pasayishi va ijtimoiy ishtirokning cheklanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bois, nutq va muloqot buzilishlariga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan tizimli va maqsadli logopedik ishlar ularning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini hamda ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yengil dizartriyali bolalarda eng ko‘p uchraydigan nutqiy belgilaridan biri bo‘g‘in tuzilishining buzilishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yengil dizartriya va nutqning bo‘g‘in tuzilishi muammosi logopediya hamda maxsus pedagogika sohasida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, E. F. Arxipova, L. V. Lopatina, E. N. Vinarskaya, G. V. Chirkina, Y. M. Mastyukova kabi olimlar dizartriyaning klinik belgilari, nutq motorikasidagi buzilishlar hamda ularning fonetik-fonologik jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asoslab berganlar. A. N. Gvozdev va I. A. Sikorskiy ishlanmalarida so‘zning bo‘g‘in tuzilishini o‘zlashtirish jarayoni hamda uning ontogenezdagi bosqichlari tizimli tarzda yoritilgan. R. L. Levina esa bo‘g‘in tuzilishi buzilishlarini darajalar bo‘yicha tasniflab, ularning nutq rivojlanishiga ta’sirini asoslab ko‘rsatib bergan. Shuningdek, E. N. Vinarskaya va G. M. Bogomazova tadqiqotlarida ritmik va bo‘g‘in tuzilishining shakllanishi sensor-motor omillar bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu ilmiy yondashuvlar yengil dizartriyali bolalarda bo‘g‘in tuzilishini chuqur o‘rganish va samarali korreksiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatuv va taqqoslash metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida yengil dizartriyaning nutqning bo‘g‘in tuzilishiga ta’siri o‘rganildi. Maktabgacha yoshdagi yengil dizartriyali bolalarning nutqi tizimli ravishda kuzatilib, bo‘g‘in tuzilishidagi buzilishlar, jumladan, eliziyalar, iteratsiyalar va o‘rin almashishlar tahlil qilindi. Olingan natijalar me’yoriy nutq rivoji ko‘rsatkichlari bilan solishtirildi hamda muammo omillarini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutqida nuqsonlari bo‘lgan bolalarda so‘zning bo‘g‘in tuzilishini o‘zlashtirish jarayoni yetarli darajada o‘rganilmagan. Bir qator mualliflar nutqning fonetik tomonida alohida tovushlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, so‘zning bo‘g‘in tuzilishini o‘zlashtirish jarayonini ham mustaqil jarayon sifatida ajratib ko‘rsatish zarurligini ta’kidlaydilar.

1 Лопатина, Л. В. Логопедическая работа с детьми дошкольного возраста с минимальными дизартрическими расстройствами – учебное пособие. Санкт-Петербург: Союз, 2004/2005. ISBN 5-94033-041-X. 190 с.

Jumladan, I. A. Sikorskiy o‘z kuzatuvlarida ayrim bolalar nutqning tovush yoki bo‘g‘in xususiyatlarini ustuvor ravishda o‘zlashtirishi mumkinligini ko‘rsatuvchi dalillarni keltiradi. Uning misollarida “tovush yo‘nalishi”ga mansub bolalar so‘zdagi bir yoki bir nechta tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilish bilan ajralib turadi. “Bo‘g‘in yo‘nalishi”ga mansub bolalar esa so‘zning bo‘g‘in tarkibini to‘g‘ri anglaydilar, biroq uning tovush tarkibini buzadilar va bunda cheklangan miqdordagi tovushlardan foydalanadilar. Sikorskiy keltirgan ma’lumotlar so‘zning bo‘g‘in tuzilishini o‘zlashtirish jarayoni alohida tovushlarni egallash jarayoniga nisbatan ma’lum darajada mustaqil ekanligini ko‘rsatadi. Ayrim ilmiy ishlarda nutqi me’yorida rivojlanayotgan bolalarda so‘z tuzilishini o‘zlashtirishni belgilovchi omillar masalasi ham ko‘rib chiqilgan. Jumladan, A. N. Gvozdev so‘zning bo‘g‘in tarkibini o‘zlashtirish jarayonini tahlil qilar ekan, rus tilidagi so‘zlarning bo‘g‘in tuzilishiga xos xususiyat – urg‘usiz bo‘g‘inlar kuchining bir xil emasligiga e’tibor qaratadi.

Bo‘g‘in tuzilishini egallash jarayonida bola so‘z bo‘g‘inlarini ularning nisbiy kuchiga qarab talaffuz qilishni o‘rganadi: dastlab butun so‘zdan faqat urg‘uli bo‘g‘in ifodalanadi, keyin birinchi urg‘udan oldingi bo‘g‘in paydo bo‘ladi va nihoyat kuchsiz urg‘usiz bo‘g‘inlar o‘zlashtiriladi. Kuchsiz urg‘usiz bo‘g‘inlarning tushirib qoldirilishi ularning tarkibidagi tovushlarni o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli turli tovushlar va tovush birikmalarining o‘zlashtirilishi bevosita bo‘g‘in tuzilishini egallash jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir.

Gvozdev bo‘g‘inlarning nisbiy kuchini “so‘z tarkibida ayrim bo‘g‘inlarning saqlanib qolishi va boshqalarining tushirib qoldirilishiga ta’sir qiluvchi asosiy sabab” sifatida ta’riflaydi[2]. Ma’lumki, so‘zlar bir nechta bo‘g‘indan iborat bo‘lib, ularning markazida eng katta kuch va aniq talaffuz bilan ajralib turadigan urg‘uli bo‘g‘in joylashadi. Unga kuchi nisbatan kamroq bo‘lgan urg‘usiz bo‘g‘inlar tutashadi. Rus tili so‘zlarining bo‘g‘in tuzilishida urg‘usiz bo‘g‘inlar kuchining bir xil emasligi xos bo‘lib, ular orasida eng kuchlisi birinchi urg‘udan oldingi bo‘g‘in hisoblanadi. So‘zning bo‘g‘in tuzilishiga xos ushbu xususiyatlar bolalar tomonidan so‘zlarni qayta talaffuz qilish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. T. G. Yegorova so‘zdagi tovushni ajratib olishga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilar ekan, tovush muhiti bilan bir qatorda bo‘g‘in va ritmik tuzilishning ham muhimligini ta’kidlaydi: bola ochiq bo‘g‘inli ikki bo‘g‘inli so‘zlardan tovushlarni ajratishni nisbatan oson bajaradi, bitta yopiq bo‘g‘inli so‘zlarni tahlil qilish esa qiyinroq bo‘ladi, undoshlar ketma-ket kelgan so‘zlarni tahlil qilish esa eng murakkab hisoblanadi. Bo‘g‘in va bo‘g‘in ajratish masalalari qadimdan lingvistlar e’tiborini tortib kelgan.

Bo‘g‘in odatda nutq oqimidagi eng kichik birlik sifatida qaraladi. Artikulatsion nuqtai nazardan bo‘g‘in minimal talaffuz birligi sifatida aniqlanadi, ya’ni u bitta nafas urishi yoki bitta mushak tarangligi impulsi natijasida hosil bo‘lgan nutq harakatlari ketma-ketligidir (L. V. Shcherba) yoki bitta boshqaruv buyrug‘i ta’sirida yuzaga keladi (L. A. Chistovich va boshqalar). Akustik yondashuvda bo‘g‘in ovozning kuchayishi va susayishi to‘lqini sifatida tavsiflanadi. Har ikkala yondashuvda ham bo‘g‘inning markazi sifatida undosh emas, balki unli tovush – bo‘g‘in hosil qiluvchi element hisoblanadi, undoshlar esa uning periferik elementlari sifatida qaraladi.

Normal holatda uch yoshdan keyin bo‘g‘in tuzilishi asosan shakllangan deb hisoblanadi, biroq ayrim hollarda uch yoshdan keyin ham bo‘g‘in tuzilishidagi buzilishlar saqlanib qolishi va barqaror namoyon bo‘lishi mumkin. Tovushlarni talaffuz qilishdagi buzilishlar hamda so‘zlardagi tovush to‘liqligining buzilishi bilan birga, bo‘g‘in tuzilishidagi kamchiliklar ko‘pincha bolaning nutqini atrofdagilar uchun tushunarliligini pasaytiradi. Shuningdek, bu holat nutqning asosiy funksiyalaridan biri bo‘lgan kommunikativ vazifaning to‘laqonli amalga oshishiga ham ma’lum darajada to‘sqinlik qiladi.

Bo‘g‘in tuzilishining buzilishi so‘z boyligi va grammatik tizimning rivojlanishini sekinlashtiradi hamda nutqning tizimli yetishmovchiligi bilan bog‘liq boshqa belgilarni yuzaga keltiradi. Mahalliy adabiyotlarda nutqning tizimli buzilishlariga ega bolalarda bo‘g‘in tuzilishini o‘rganish keng yoritilgan mavzulardan biri hisoblanadi.

A. K. Markova bo‘g‘in tuzilishini so‘zdagi urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarning turli darajadagi murakkablikdagi navbatlashuvi sifatida ta’riflaydi va so‘zning bo‘g‘in tuzilishini to‘rtta parametr – urg‘u, bo‘g‘inlar soni, bo‘g‘inlarning ketma-ketligi hamda bo‘g‘inning shakli orqali tavsiflaydi. Shu bois, logoped so‘z tuzilishining murakkablashuvi jarayonini bilishi, eng ko‘p uchraydigan bo‘g‘in strukturasi sinflarini tekshirishi hamda tekshiruv jarayonida nafaqat bolaning shakllangan bo‘g‘in klasslarini, balki hali shakllanishi lozim bo‘lganlarini ham aniqlashi zarur. Bundan tashqari, mutaxassis bolada bo‘g‘in tuzilishidagi buzilish turini belgilashi lozim, chunki bu buzilishlar murakkab bo‘g‘in tuzilishiga ega so‘zlarni talaffuz qilishdagi yengil qiyinchiliklardan tortib, sezilarli darajadagi buzilishlargacha bo‘lgan keng diapazonda namoyon bo‘lishi mumkin.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘g‘in tuzilishidagi buzilishlar so‘zning bo‘g‘in tarkibini turlicha o‘zgartiradi va eng ko‘p uchraydigan holatlar bo‘g‘inlar sonining kamayishi yoki ortishi, shuningdek, bo‘g‘inlar ketma-ketligi va tarkibining buzilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Xususan, eliziya holatlarida bo‘g‘inlar qisqaradi yoki tushib qoladi, iteratsiyalarda esa bo‘g‘in hosil qiluvchi unli tovush qo‘shilishi natijasida bo‘g‘inlar soni ortadi, bu ayniqsa undoshlar birikmasi mavjud so‘zlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi; ayrim hollarda bo‘g‘inlarning o‘rni almashadi yoki qo‘shni bo‘g‘inlardagi tovushlar almashtiriladi, bunda bo‘g‘inlar soni saqlanib qolgan holda bo‘g‘in tarkibi sezilarli darajada buziladi.

2 Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. – М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 2005.

R. L. Levina bo‘g‘in tuzilishi buzilishlarini uch darajaga ajratadi: birinchi darajada so‘zning bo‘g‘in tuzilmasini qayta ishlab chiqarish qobiliyati cheklangan bo‘lib, bolalarning mustaqil nutqida asosan bir yoki ikki bo‘g‘inli birliklar ustunlik qiladi va takroriy nutqda so‘zlarni qisqartirish tendensiyasi kuzatiladi; ikkinchi darajada bolalar so‘zning umumiy konturini saqlagan holda uni takrorlay oladilar, biroq tovush tarkibi yetarlicha aniq bo‘lmaydi va ayniqsa undoshlar to‘qnashuvi mavjud so‘zlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ba’zan ko‘p bo‘g‘inli tuzilmalar ham qisqartiriladi; uchinchi darajada esa so‘zlarning bo‘g‘in tuzilmasi asosan saqlanadi va faqat ayrim hollarda tovushlar yoki bo‘g‘inlarning o‘rni almashishi kabi qoldiq hodisalar kuzatiladi, bu esa ko‘proq notanish so‘zlarni takrorlash jarayonida namoyon bo‘ladi.

Bo‘g‘in tuzilishining rivojlanishi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. E. N. Vinarskaya va G. M. Bogomazova ayrim bolalarda so‘zning ritmik tuzilishi avval shakllanishini, boshqalarda esa dastlab bo‘g‘inlar, ya’ni so‘z ildizlari paydo bo‘lishini ta’kidlaydilar va buni kinestetik hamda eshitish sezgirligining turli darajada rivojlanganligi bilan izohlaydilar. Kinestetik sezgirligi ustun bo‘lgan bolalarda so‘zning ritmik tuzilishi tezroq egallanishi, eshitish sezgirligi rivojlangan bolalarda esa bo‘g‘inlararo fonetik kontrastlarning erta shakllanishi kuzatiladi. Fonetik bo‘g‘in tushunchalari va ritmik fonetik tuzilmalar turli fiziologik modaliteler – kinestetik, akustik, vestibulyar, taktil va vizual kanallar orqali afferent signal bilan ta’minlanadi, shu sababli nutq buzilishiga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish jarayonida ushbu omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi yengil dizartriyali bolalarda bo‘g‘in tuzilishining rivojlanishi yosh me’yorlariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu jarayonga tovushlar talaffuzidagi qiyinchiliklar, fonematik idrokning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda artikulyatsion motorika bilan bog‘liq omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, mazkur omillarni hisobga olgan holda tashkil etilgan tizimli va maqsadli logopedik ta’sir choralarini kuchaytirish bo‘g‘in tuzilishini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yengil dizartriyali bolalarda nutqning bo‘g‘in tuzilishining shakllanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ushbu jarayon markaziy nerv tizimining mikroorganik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan artikulyatsion motorika yetishmovchiligi, fonematik idrokning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda nutqiy harakatlarni kinestetik nazorat qilishdagi qiyinchiliklar bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalarda so‘zlarning bo‘g‘in tarkibi ko‘pincha turli o‘zgarishlarga uchraydi, ya’ni bo‘g‘inlarning tushib qolishi (eliziyalar), ortiqcha qo‘shilishi (iteratsiyalar), o‘rin almashishi hamda tovush tarkibining soddalashuvi kabi fonetik-fonologik xususiyatlar kuzatiladi. Mazkur holatlar nutqning aniqligi, ravonligi va tushunarliligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi hamda kommunikativ jarayonning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, yengil dizartriyali bolalarda bo‘g‘in tuzilishining shakllanishi ontogenezning me’yoriy rivojlanish ko‘rsatkichlariga nisbatan nisbatan sekinroq kechishi aniqlangan. Bo‘g‘in tuzilishini egallash darajasi artikulyatsion apparatning motorik holati, fonematik tahlil va sintez jarayonlarining shakllanganlik darajasi, shuningdek, eshitish va kinestetik sezgirlikning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, bunday bolalar bilan olib boriladigan logopedik korreksion ishlar kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi, unda artikulyatsion motorikani rivojlantirish, fonematik idrokni shakllantirish, bo‘g‘in tuzilishini bosqichma-bosqich o‘zlashtirish hamda nutqning ritmik-intonatsion komponentlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, yengil dizartriyali bolalarda nutqning bo‘g‘in tuzilishini o‘rganish va uni korreksiya qilish logopediya amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bo‘g‘in tuzilishining o‘z vaqtida va izchil shakllantirilishi bolalarda nutqning fonetik-fonologik tizimini to‘liqroq rivojlantirishga, shuningdek, ularning kommunikativ kompetensiyasi hamda keyingi o‘qish va yozish ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli egallashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лопатина, Л. В. Логопедическая работа с детьми дошкольного возраста с минимальными дизартрическими расстройствами – учебное пособие. Санкт-Петербург: Союз, 2004/2005. ISBN 5-94033-041-X. 190 с.
2. Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. – М.: Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 2005.
3. Kennes J., Rosenbaum P., Hanna S. E., Walter S., Russell D., Raina P., et al. Health status of school-aged children with cerebral palsy: information from a population-based sample. Developmental Medicine & Child Neurology, 2002; 44: 240–247.
4. Nordberg A., Miniscalco C., Lohmander A., Himmelmann K. Speech problems affect more than one in two children with cerebral palsy: Swedish population-based study. Acta Paediatrica, International Journal of Paediatrics, 2013; 102(2): 161–166.
5. Архипова Е. Ф. Стертая дизартрия у детей. – М.: АСТ; Астрель, 2007.
6. Dickinson H. O., Parkinson K. N., Ravens-Sieberer U., Schirripa G., Thyen U., Arnaud C., et al. Self-reported quality of life of 8–12-year-old children with cerebral palsy: a cross-sectional European study. The Lancet, 2007; 369(9580): 2171–2178.



OCHILMAGAN BO‘Z QALBLAR HAZOR...

Eshpulatova Saodat Maxmatovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Jahon adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir ijodi tahlil qilinib, uning badiiy mahorati, ijodiy samimiyligi, munaqqid va ijodkor ijodidagi maqsad hamda ularning o‘zaro uyg‘unligi yoritiladi. Shuningdek, shoir ijodiga xos bo‘lgan takrorlanmas badiiy chizgilar, obraz va xarakter yaratishdagi mahorati ochib beriladi. XX asr she’riyati rivojida Muhammad Alining tutgan o‘rni, uning she’rlariga qisqacha tahliliy yondashuv hamda shoir yaratgan betakror obrazlar tavsiflanadi. Bundan tashqari, munaqqid Norboy Xudoyberganovning ijodkor asarlari haqidagi ilmiy-estetik qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijodkor, tamoyil, mezon, kashfiyot, iste’dod, qalb, badiiy mahorat, tahlil.

Abstract: This article analyzes the poet’s creative work, highlighting his artistic mastery, sincerity of expression, the purpose of both the critic and the creator, and their aesthetic harmony. In addition, the study reveals the uniqueness of his poetic lines, originality of imagery, and skill in creating literary characters. The article examines Muhammad Ali’s contribution to the development of 20th-century poetry, provides a brief analytical overview of his poems, and discusses the distinctive images he created. Furthermore, the critical perspectives of Norboy Khudoyberganov on the poet’s works are explored from a scholarly standpoint.

Key words: creator, principle, criterion, discovery, talent, soul, artistic mastery, analysis.

Аннотация: В данной статье проводится анализ творчества поэта, раскрываются его художественное мастерство, искренность художественного самовыражения, цели критика и творца, а также их идейно-эстетическая гармония. Кроме того, показаны уникальные художественные линии, своеобразие образной системы и мастерство создания характеров в его произведениях. Рассматривается вклад Мухаммеда Али в развитие поэзии XX века, даётся краткий аналитический обзор его стихотворений и созданных им неповторимых образов. Также анализируются научно-критические взгляды Норбоя Худойберганова на творчество поэта.

Ключевые слова: творец, принцип, критерий, открытие, талант, душа, художественное мастерство, анализ.

KIRISH

“Adabiyot – inson qalbining ko‘zgusidir.” Ana shu haqiqatni o‘z ijodi orqali namoyon etgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi, shoir va tarjimon Muhammad Ali ana shunday serqirra ijodkorlardan biridir.

Muhammad Ali serqirra qalam sohiblaridan biri hisoblanadi. Adib she’riyat, nasr, publitsistika va tarjima janrlarida ko‘plab asarlar yaratgan. Uning yirik hajmli asarlar bilan bir qatorda bolalar uchun ham she’r va afsonalar yozib kelayotgani e’tiborga molik holatdir. Bolalar mavzusini yoritish, ular uchun ijod qilish ijodkordan katta mas’uliyat talab etadi. Adib o‘zining tarixiy mavzuga bag‘ishlangan “Boqiy dunyo” (1981) she’riy romani, “Ulug‘ saltanat”, “Sarbadorlar”, “Abadiy sog‘inchlar” nomli romanlarida bolalar obrazlarini yorqin va hayotiy tarzda aks ettira olgan[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muhammad Ali nafaqat tarixiy romanlar muallifi, balki o‘zining o‘lmas she’rlari bilan o‘zbek she’riyatini boyitgan serqirra ijodkordir. U “Fazodagi hislar” (1967), “Shafaq” (1968), “Otalar yurti” (1970), “Dostonlar” (1974), “Oq nur” (1977), “Ilhom parisi” (1980), “Sen bir gulsan” (1989), “Ona duosi” (1994) kabi she’riy to‘plamlar muallifidir.

“Sarbadorlar” (1989) roman-dilogiyasi adibning nasrdagi dastlabki yirik asari hisoblanadi. “Boqiy dunyo” (1981) she’riy romani Jizzax qo‘zg‘oloni voqealariga bag‘ishlangan. Shuningdek, u “Ramayana” (1978), qoraqal-

1 https://malumot.ru/muhammad-ali/

poq eposlari – “Shahriyor” (1977), “Masposhsho” (1985) asarlarini hamda R. Byorns, U. Tabidze, Bayron va boshqa ijodkorlar asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Muhammad Ali Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (1984) bo‘lib, “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Munaqqid Norboy Xudoyberganov o‘zining “Haqiqat yog‘dulari” kitobida XX asrning yetuk shoirlaridan biri, nasriy asarlari bilan ham o‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotgan ijodkor Muhammad Ali bilan tanishuvini shunday xotirlaydi: “U o‘zini Moskvadagi M. Gorkiy nomidagi Adabiyot instituti talabasi – Muhammad Ali, deb tanishtirdi. Bir qarashda yigitcha juda sodda va ko‘rimsiz edi. Men unga: “Senga ijod bilan shug‘ullanishni kim qo‘yibdi?” degan ma’noda nigoh tashlagan edim. Yangi tanishim dastlab bir xo‘mrayib qaradi-yu, so‘ngra to‘lib-toshib gapira ketdi… Bir zumda sodda va ko‘rimsiz yigit o‘rniga juda bilimli, iqtidorli yosh yigit qiyofasini ko‘rganday bo‘ldim. Chunki u chinakam shoir bo‘lish uchun Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy kabi milliy she’riyatimiz bayroqdorlarini ham, Hamza, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom singari o‘zbek sovet poeziyasining yirik namoyandalarini ham, rus va jahon klassiklarini, xususan, Tvardovskiydan, Isakovskiydan tortib Yevtushenkogacha bo‘lgan she’riyat zahmatkashlarini ham muntazam o‘qib, uqib, o‘zlashtirib olib, o‘zining takrorlanmas ijod dunyosini yaratishi, har bir so‘zi, poetik obrazlari bilan ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotga ta’sir o‘tkazish shart, degan fikrni butun vujudi bilan himoya qilgan edi”[3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Munaqqid bu yosh, qobiliyatli qalamkashning ijod yo‘lida uchraydigan ko‘plab to‘siqlar va qiyinchiliklarni bartaraf etib, hayot haqiqatini mavjud murakkabliklari bilan teran yoritadigan poetik kashfiyotlar yaratishi yoki she’riyat deb atalmish ijod bulog‘ining injiqliklariga bardosh berolmay uni “loyqalatib” ketishi mumkinligi haqida ham o‘ylaganini qayd etadi. Biroq Muhammad Alining ijoddagi jasoratini ko‘rib, uning ilk kitobi – “Fazodagi hislar”dayoq (1967) takrorlanmas poetik ovoz bilan maydonga chiqqanini, yangicha ijod olamini yaratishga jiddiy kirishganini tan oladi.

Shoirning eng sara she’rlari jam bo‘lgan “Sevsam, sevilsam” to‘plami uning ijodiy yetuklik sari olib borgan izlanish-intilishlari va kurashlarini o‘ziga xos ko‘zgudek yoritib berganini e’tirof etadi. Negaki, bu to‘plamga shoirning shu paytgacha bosilib chiqqan olti kitobidan saralab olingan poetik asarlari hamda yangi she’rlari kiritilgan bo‘lib, ular Muhammad Ali iste’dodining tug‘ilish, shakllanish, barq urib ravnaq topish va ijodiy barkamollikni zabt etish jarayonini o‘zida mujassam etadi.

O‘zini iste’dodli deb bilgan har qanday ijodkor qanday sharoitda bo‘lmasin, o‘z qiyofasi, o‘z nuqtayi nazari va o‘z uslubini namoyon qilish orqali taraqqiyotga ta’sir ko‘rsata oladigan, ta’sirchan va to‘laqonli obraz yaratishga intiladi. Muhammad Ali buni allaqachon chuqur idrok etgan. Uning she’rlaridagi o‘ziga xoslik barcha asarlarida bir xil darajada namoyon bo‘lmagan bo‘lsa-da, munaqqid shoir qanchalik salmoqli va yorqin iste’dod egasi bo‘lmasin, har bir asarida ijodiy qudratini bir xil darajada namoyon qila olmasligini, bir asari muvaffaqiyatli chiqsa, boshqasida nisbatan sustroq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Muhammad Ali ijodiga ijobiy baho berib, uning o‘sha davr ruhi talab etgan mavzularni hayot haqiqatiga muvofiq yoritganini qayd etadi.

Munaqqid shoirning har bir so‘ziga, har bir misrasiga va har bir asariga yuksak talabchanlik bilan yondashganini, hayot haqiqatini zamondoshlarimizning boy, rang-barang va murakkab tuyg‘ulari, kechinmalari, orzu-umidlarini ta’sirchan manzaralarda gavdalantirishga butun vujudi bilan berilganini e’tirof etadi. U nima haqida so‘z yuritilmasin, qanday voqea qalamga olinmasin, barcha fikrlar va tuyg‘ular, asosan, ikki bosh nuqtaga kelib birlashishini ta’kidlaydi. Shu munosabat bilan munaqqid shoirning “Torlar” nomli she’ridan parcha keltiradi:

“Sevsam-u sevilsam, shunga munosib
Sochsaydi samoga sadolarin soz!
Tomchilar raqsi-yu, maysalar sasi,
Mavjlar kuyidagi pinhon zeru bam,
Goho g‘am, goh shodlik – barcha-barchasi
Nozik pardalari aro mujassam.
Ammo bir tor bordir, suyukli bir tor,
U tor uzilmagay ming yillar balkim.
U seni vasf etar, ey suyuk diyor,
U seni vasf etar, ey buyuk xalqim!”[4]

2 Muhammad Ali - Asarlar
3 Xudoyberganov N., “Haqiqat yog‘dulari”. T. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,-1985. -91-92-betlar
4 Muhammad Ali. Sevsam, sevilsam.- T.: Adabiyot va san’at nashriyoti,1983,271-bet

N. Xudoyberganov she'r mazmunini tahlil qilar ekan, suyukli diyorni birinchi bosh nuqta, buyuk xalq va ulug' elni ikkinchi bosh nuqta sifatida belgilaydi. Tor obrazini esa Muhammad Ali nazdida ushbu ikki bosh nuqtani "jon-u tan"iga singdirgan jangovar she'riyatga qiyoslaydi. Uning fikricha, bu jangovar she'riyatda samo va zamin, butun borliq mujassam bo'lib, Vatanga cheksiz muhabbat, xalqqa mehr-u hurmat, inson baxt-saodatini va fuqarolik burchini suiiste'mol qilgan qalloblarga nafrat bilan to'la qalblar nidosi ifodalanadi.

Munaqqid Muhammad Alini ana shunday qalblarni ardoqlaydigan, ularning xaloskori sifatida maydonga chiqqan ijodkor, deb baholaydi va quyidagi satrlarni keltiradi:

"Yurak! Kichik yerga o'xshashliging bor.
Dolg'alarda sen sobit, barqaror.
Gohi oftob kular, gohi yog'ar qor,
Gohi shodlik bosar to'shini…
Bosh egmoqni odat qilma g'amlarga,
Nogahoniy zabt etgan sitamlarga…"[5]

Olim Muhammad Ali ijodidagi ikki bosh nuqta – Vatan va xalq hayoti ana shunday qalblarning tarjimayi holi, kechinmalari, intilishlari va xatti-harakatlari orqali gavdalantirilganini ta'kidlab, uning "Sevsam, sevilsam" kitobidagi she'rlarini barkamol asarlar sifatida baholaydi.

Hofiz Sheroziyning mashhur baytiga shoir o'zining "Rivoyat" she'rida quyidagicha javob qaytaradi:

"Ey Hofiz, ey tanti shoir, zukko ta'b!
Qaramay sarf etgan boylig-u zarin!
Kim seni aytolur bechorahol deb,
Bir xolga bersang gar ikki shaharni!
Mahbubang bo'lsa ham zolim shunchalar,
Qilgan himmatingga qoyil qolurman.
Men yorga bermasman na uy, na shahar,
Men faqat qalbimni bera olurman".[6]

Ba'zi tanqidchilar ushbu satrlarni biryoqlama talqin qilib, shoir Hofizga shak keltirgan, uni kamsitgan, degan fikrlargacha borganini munaqqid qayd etadi. Aslida esa Muhammad Ali Hofiz tashbehlarida ifodalangan fikrni to'ldirib, uni yanada rivojlantirganini ta'kidlaydi. Shoirning "yorga bermasman na uy, na shahar, men faqat qalbimni bera olurman" degan satrlarida sevgilisi qanchalik ulug' bo'lmasin, el-yurt va Vatan undan-da muqaddas va qadrlidir, degan g'oya ilgari surilganini alohida urg'ulaydi. Munaqqid "Rivoyat" she'rining asosiy mazmuni ham aynan shu fikrga tayanishini e'tirof etadi.

"Sevsam, sevilsam" to'plamiga kiritilgan she'rlardan birida esa quyidagi savol o'rtaga tashlanadi: "Ochilmagan yerlar qolmadi balki… Ammo ochilmagan bo'z qalblar hazor! Aslida dehqondir shoir xalqi, eksam-u undirsam degan rasmi bor: sen-chi, shoir, qancha bo'z qalbni ochding, ochding-u ezgulik urug'in sochding?"

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bu savolga javoban shuni aytish mumkinki, Muhammad Ali yer-u osmonni, haqiqat va adolatni, ezgulik va go'zallikni kuylab, qabihlik, xiyonat va iflosliklarning turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan asoratlariga qarshi shafqatsiz kurash ruhi bilan yo'g'rilgan ko'plab qalblarni ochdi. U ana shu qalblarga zavq-shavq, ma'naviy madad baxsh etdi. Kelgusida esa mehnat jarayonida, ishlab chiqarishda, ma'naviy-madaniy boyliklarni yaratishda chinakam mardlik ko'rsatayotgan azamat ishchilarimiz va fidokor ziyolilarimiz yuraklari hamda dillaridagi "ochilmagan qo'riq"larni ochishga xizmat qiladi. "Sevsam, sevilsam" kitobidagi barkamol asarlar ana shunday xulosaga kelishga undaydi[7], – deydi tanqidchi Muhammad Ali ijodi haqidagi fikrlariga yakun yasarkan.

Darhaqiqat, xalq qalbidan joy olgan ijodkorning asarlari ham ayni shu xalqning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Muhammad Ali o'zining she'riy va nasriy asarlari orqali bugunni o'tmish bilan bog'lay olgan, milliy tafakkur uzviyligini ta'minlagan ijodkor sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Mazkur farmon va qarorlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maktablarda samarali joriy etish, ta'limiy resurslarni yangilash hamda o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari muhim o'rin tutadi. Ushbu hujjatlar natijasida ta'lim sifati sezilarli darajada oshishi, dars jarayoni interaktiv va qiziqarli bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanishi mumkin. Umuman olganda, ushbu qarorlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini samarali tashkil etish hamda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik hujjatlar sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, AKTni dars jarayoniga integratsiya qilishni ilmiy asoslash va amaliy natijalarni muntazam kuzatib borish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlash o'quvchilarda tayanch bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayonda AKT vositalari - interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, multimediya resurslari, ta'limiy platformalar va raqamli baholash vositalari o'quv jarayonini jonlantirib, an'anaviy ta'lim usullarini samarali tarzda boyitishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishga, bilimlarni ongli va mustahkam egallashiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadga muvofiq foydalanish pedagogdan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni, zamonaviy yondashuv va ijodiy fikrlashni talab etadi. AKTni ta'lim jarayoniga puxta integratsiya qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual imkoniyatlarini hisobga olish, differensial va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Natijada ta'lim sifati va samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda boshlang'ich sinf bosqichida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda yangi pedagogik metodlar, raqamli vositalar va interaktiv yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu tadqiqot axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida kompleks tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullarning uyg'unligi ta'minlanib, o'rganilayotgan muammoning mazmuni chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasidagi ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari hamda boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanishga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu manbalar asosida muammoning dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlashtirildi. Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, so'rovnoma hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali boshlang'ich sinflarda AKTdan foydalanilgan darslarning o'quv jarayoniga ta'siri, o'quvchilarning faolligi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi o'rganildi. Suhbat va so'rovnoma metodlari yordamida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKTdan foydalanish bo'yicha tajribasi, munosabati hamda duch kelayotgan muammolari aniqlandi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi, o'quv motivatsiyasi va dars jarayonidagi ishtiroki AKT qo'llanilgan hamda an'anaviy ta'lim asosida olib borilgan mashg'ulotlar orqali taqqoslab tahlil qilindi. Tajriba natijalari ta'lim samaradorligini aniqlashda muhim ko'rsatkich sifatida xizmat qildi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirishda taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari AKTdan boshlang'ich ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

1 https://lex.uz/docs/-6166539

1-jadval: **Tadqiqot metodlari va ularning funksiyasi**

Metod	Vazifasi	Natija
Pedagogik kuzatish	O‘quvchilarning darsdagi faolligi va AKTdan foydalanish darajasini aniqlash	O‘quv jarayonining samaradorligi baholanadi
Suhbat va so‘rovnoma	O‘qituvchilarning tajribasi va muammolarini aniqlash	AKTni tatbiq etish amaliyoti o‘rganiladi
Pedagogik tajriba-sinov	Bilim darajasini AKTdan foydalangan va an’anaviy darslarda taqqoslash	Natijalar empirik asosda ko‘rsatiladi
Taqqoslash va tahlil	Ma’lumotlarni sistemlashtirish va natijalarni baholash	Xulosa chiqarish va takliflar ishlab chiqish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) boshlang‘ich ta’limda foydalanish o‘quv jarayonini vizuallashtirish, darslarning qiziqarliligini oshirish va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish orqali ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. AKT darslarni interaktiv, rang-barang va tushunarli qilish orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini yuksaltiradi. AKTdan foydalanishning ta’lim sifatiga asosiy ta’siri quyidagilardan iborat:

- vizual va interaktiv ta’lim – multimedia vositalari (videolar, taqdimotlar) murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi;
- motivatsiyani oshirish – o‘yin shaklidagi dasturlar va interaktiv topshiriqlar kichik yoshdagi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda raqamli vositalar muhim o‘rin tutadi;
- o‘qituvchi mahorati – o‘qituvchilarning AKTni qo‘llashi darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitishga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda AKTning ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni turli jihatlardan tahlil qilingan. Xorijiy pedagogik adabiyotlarda AKTning ta’lim jarayoniga integratsiyasi konstruktivistik yondashuv asosida talqin etilib, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida baholanadi. 2026-yilda Hindistonda bo‘lib o‘tadigan “Digital Inclusion Summit” kabi xalqaro tadbirlarda ta’limda texnologiyalarning inson markazli yondashuv asosida qo‘llanilishi zarurligi ta’kidlanmoqda, ya’ni texnologiya ta’limni samaraliroq qilish bilan birga teng imkoniyat yaratishga ham xizmat qilishi kerakligi qayd etilmoqda. Tadqiqotchilar raqamli ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va multimedia vositalari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, bilimlarni vizual va amaliy tarzda o‘zlashtirishga yordam berishini ta’kidlaydilar. Shuningdek, AKT asosidagi ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini berishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda boshlang‘ich ta’limda AKTdan foydalanish pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishning muhim sharti sifatida ko‘rib chiqiladi. Ularning fikricha, elektron darsliklar, ta’limiy dasturlar va interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini oshirish bilan birga mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, AKTdan foydalanishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va texnologik savodxonligi hal qiluvchi omil ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Ba’zi tadqiqotlarda AKTdan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar ham yoritilgan. Jumladan, texnik vositalarning yetarli emasligi, raqamli resurslardan noto‘g‘ri foydalanish hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olmaslik ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etilgan. Shu sababli olimlar AKTni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan holda joriy etish zarurligini ilgari suradilar. 2025-yilda UNESCO va bir qator ta’lim tashkilotlari tomonidan o‘tkazilgan konferensiyada zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (AI) va raqamli vositalar ta’lim jarayonlarini tubdan o‘zgartirayotgani qayd etildi. Xususan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, dars rejalari hamda amaliy metodlar texnologiyalar bilan birlashtirilmoqda, bu esa pedagoglarga yangi imkoniyatlar yaratadi va dars samaradorligini oshiradi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, mazkur masala chuqur ilmiy tahlil va amaliy tajribani talab etadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar natijalari AKTdan foydalanishning metodik jihatlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi model boshlang'ich ta'lim darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonini tizimli ravishda aks ettiradi:

O'qituvchi
↓
AKT vositalari (interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, multimedia materiallar, raqamli topshiriqlar)
↓
O'quvchi (bilish faolligi, qiziqish, mustaqil fikrlash)
↓
Natija (yuqori ta'lim sifati, samaradorlik, kompetensiyalarning shakllanishi)

Model tavsifi:

1. O'qituvchi dars jarayonini rejalashtiradi va AKT vositalarini maqsadga muvofiq tanlaydi;
2. AKT vositalari o'quv materialini vizual, interaktiv va tushunarli shaklda taqdim etadi;
3. O'quvchi faol ishtirok etadi, bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi;
4. Natijada ta'lim sifati va samaradorligi oshadi.

Mazkur AKT modeli boshlang'ich ta'limda dars jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. AKT modeli asosida dars ishlanmasi.

Fan: Ona tili.

Sinf: 2-sinf.

Mavzu: Gap va uning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarda gap tushunchasini shakllantirish;
- AKT vositalari yordamida mavzuni tushunarli va qiziqarli bayon etish;
- o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faolligini oshirish.

Darsda foydalaniladigan AKT vositalari:

- interaktiv doska;
- slayd-taqdimot;
- qisqa animatsion video;
- onlayn testlar, raqamli platformalardan foydalanilgan didaktik o'yinlar (yoki elektron topshiriqlar).

2-jadval: **Dars jarayoni (AKT modeli asosida)**

Bosqich	O'qituvchi faoliyati	AKT vositasi	O'quvchi faoliyati	Natija
Tashkiliy qism	Darsni boshlaydi, mavzuga yo'naltiradi	Slayd (motivatsion rasm)	Diqqatni jamlaydi	Darsga tayyorgarlik
Yangi mavzu	Gap haqida tushuntiradi	Taqdimot, video	Tomosha qiladi, savol beradi	Tushuncha shakllanadi
Mustahkamlash	Topshiriqlar beradi	Interaktiv mashq	Faol ishtirok etadi	Bilim mustahkamlanadi
Baholash	Savollar beradi	Elektron test	Javob beradi	Bilim baholanadi
Yakun	Xulosa qiladi	Slayd	Fikr bildiradi	Dars yakunlanadi

Qanday natija kutish mumkin:

- o'quvchilar gapni aniqlay oladi;
- tinish belgilarini to'g'ri qo'llaydi;
- darsga qiziqish va faollik oshadi.

Mazkur dars ishlanmasi O'qituvchi → AKT → O'quvchi → Natija modeli asosida tashkil etilib, boshlang'ich ta'limda AKTdan samarali foydalanish imkoniyatlarini namoyon etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirishini yengillashtiradi, barcha o'quvchilar bir vaqtda qatnashadi, barcha o'quvchilar bir vaqtda baholanadi, ta'lim sifati va samaradorligini

oshiradi hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi. Va yana shuni ta'kidlash mumkinki, tadqiqot jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinganda, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari AKT qo'llanilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi va darsdagi faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, AKT asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning mavzuga qiziqishi kuchayib, ularning faol ishtiroki ta'minlandi. Interaktiv taqdimotlar, vizual materiallar va elektron topshiriqlar o'quvchilarning abstrakt tushunchalarni osonroq anglashiga yordam berdi. Bu esa bilimlarni mustahkamlash va amaliy qo'llash ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'quv jarayonida o'quvchilarning bilim darajasi AKTdan foydalanilgan va an'anaviy usulda o'tilgan mashg'ulotlar orqali taqqoslab o'rganildi. Natijalar AKTdan foydalangan guruh o'quvchilarida o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, ushbu guruhda mustaqil fikrlash, savol-javoblarda faollik va ijodiy yondashuv elementlari yaqqol namoyon bo'ldi. So'rovnoma va suhbat natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aksariyati AKTdan foydalanish dars samaradorligini oshirishini e'tirof etishini ko'rsatdi. O'qituvchilar AKT vositalari yordamida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, differensial topshiriqlar berish va tezkor baholash imkoniyatlari kengayganini ta'kidladilar. Shu bilan birga, ayrim holatlarda texnik imkoniyatlarning cheklanganligi va vaqt taqsimotidagi muammolar mavjudligi qayd etildi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish hamda o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari AKTni boshlang'ich ta'lim jarayoniga ilmiy asoslangan holda joriy etish zarurligini yana bir bor tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. 2026-yilda maktab ta'limida eng muhim yo'nalishlardan biri – texnologiya va AKTdan faqat texnik qo'llanma sifatida emas, balki ta'lim sifati va o'quvchilarning ishtirokini oshirish vositasi sifatida foydalanishdir. Ta'lim strategiyasida texnologiya o'quv jarayoniga moslashtirilgan ko'rinishda qo'llanilishi, faqat qurilmalar bilan emas, balki pedagogik maqsadlar bilan uyg'un holda amalga oshirilishi muhim deb ko'rilmoqda. AKT vositalari asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirib, ularning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi hamda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda interaktiv taqdimotlar, elektron resurslar va raqamli topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, ta'lim mazmunini tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, AKTdan maqsadga muvofiq foydalanish o'qituvchining metodik mahorati va texnologik savodxonligiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Olingan xulosalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: Pedagoglarning AKT bo'yicha malakasini mustahkamlash: O'qituvchilarga AI, raqamli pedagogika va interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha muntazam treninglar tashkil etilishi lozim. Bu nafaqat texnik savodxonlikni oshiradi, balki darsni aniq metodik baholash asosida o'tkazishga yordam beradi. Personalizatsiyalangan o'quv modellarini joriy etish: AI va aqlli LMS (o'quv boshqaruv tizimlari) orqali o'quvchilarning individual o'quv yo'nalishlarini aniqlash va moslashtirish tizimi ishlab chiqilishi lozim. Bunday yondashuv o'quv samaradorligini oshiradi va har bir o'quvchining qobiliyatidan maksimal foydalanishga yordam beradi.

Inklyuziv texnologiyalarni tatbiq etish: Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga moslashtirilgan AKT vositalari va metodikalarini joriy etish – bu nafaqat adolatli ta'lim tamoyiliga xizmat qiladi, balki ta'lim sifatini umumiy darajada oshiradi. Raqamli texnologiyalar integratsiyasi uchun strategik hamkorlik: Xalqaro tashkilotlar, xususiy sektor va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, texnologik innovatsiyalarni test qilish va keng joriy qilish imkoniyatini yaratadi – bunday yondashuv ta'limni tezlik bilan zamonaviylashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarori. 2020-yil 6-noyabr. https://lex.uz/docs/-5085887
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" PQ-358-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/-7158604
3. Bovanova U.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik ijobiy munosabatini oshirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. Toshkent amaliy fanlar universiteti "Ilm-fan taraqqiyoti: muammo va istiqbollar" II an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 17.12.2024.
4. Nishonov Q.X., Yusupov M.T. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Bovanova U.A., Aytbaeva J.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik tarbiyasini oshirishda raqamli texnologiyalarining o'rni. www.in-academy.uz. https://doi.org/10.5281/zenodo.15220404

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING ROLI

Bovanova Umida Abduvahobovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi v.b dotsent

Radjabova Gulchexra Xalbayevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'quvchilarning o'quv faoliyatiga ta'siri, ularning bilim olish jarayonidagi faolligi va motivatsiyasini oshirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan hamda pedagogik xulosalar chiqarilgan. Tadqiqotda zamonaviy interfaol platformalar, multimedia vositalari, raqamli ta'lim resurslari va onlayn nazorat tizimlarining boshlang'ich sinflarda qo'llanish holati o'rganilib, ularning ta'lim sifatiga qay darajada ta'sir etish ko'rsatkichlari nazarda tutilgan bo'lib, uning mezonlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yosh, psixologik xususiyatlar, vizual, interaktiv, ta'lim vositalari, AKT, texnologiya, elektron darsliklar, multimediali taqdimotlar, interaktiv mashqlar, ta'limiy platforma, o'quvchi, pedagog, tadqiqot, kundalik.com, sun'iy intellekt.

Abstract: This article analyzes the impact of using information and communication technologies in primary education on students' learning activities, as well as their potential to increase engagement and motivation in the learning process, and presents pedagogical conclusions. The study examines the use of modern interactive platforms, multimedia tools, digital educational resources, and online assessment systems in primary grades, analyzes indicators of their impact on the quality of education, and identifies the criteria for its evaluation.

Key words: age, psychological characteristics, visual, interactive, educational tools, ICT, technology, electronic textbooks, multimedia presentations, interactive exercises, educational platform, student, teacher, research, kundalik.com, artificial intelligence.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние использования информационно-коммуникационных технологий в начальном образовании на учебную деятельность учащихся, их потенциал для повышения активности и мотивации в процессе обучения, а также формулируются педагогические выводы. В исследовании рассматривается применение современных интерактивных платформ, мультимедийных инструментов, цифровых образовательных ресурсов и систем онлайн-контроля в начальных классах, анализируются показатели их влияния на качество образования и выявляются критерии его оценки.

Ключевые слова: возраст, психологические особенности, визуальный, интерактивный, образовательные инструменты, ИКТ, технологии, электронные учебники, мультимедийные презентации, интерактивные упражнения, образовательная платформа, студент, преподаватель, исследование, kundalik.com, искусственный интеллект.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning raqamli rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni talab etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitish samaradorligini oshirish hamda ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida tashkil etishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning o'quv faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh va psixologik xususiyatlariga ko'ra vizual, interaktiv hamda qiziqarli ta'lim vositalariga ehtiyoj sezadilar. Shu jihatdan qaralganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv materialini tushunarli, obrazli va tizimli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Elektron darsliklar, multimediali taqdimotlar, interaktiv mashqlar va ta'limiy platformalar o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish orqali o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirish, ta’lim sifati va natijadorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli va pedagogik ahamiyatini ilmiy asosda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda butun dunyoda ta’lim sohasi jadal rivojlanib, bu jarayon to‘xtovsiz davom etmoqda. Zamonaviy davr ta’lim tizimidan doimiy yangilanish, ilg‘or pedagogik yondashuvlar va innovatsion izlanishlarni talab qilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlar ta’lim sifatini oshirish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun[1]i 2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirda qabul qilinganligi bunga isbotdir. Bugungi kunda barcha sohalarda AKTdan foydalanish zamon talabidir. Mamlakatimizda AKT faoliyati uchun bir qancha qaror va farmonlarning ijrosi ta’minlanib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-sonli “2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va unda IT-ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash hamda sertifikatlashtirish tizimini kuchaytirish kabi yo‘nalishlar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir qaror va farmonlar metodologik asosni tashkil etadi. Ushbu hujjatlarda ta’lim jarayonini raqamlashtirish, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish hamda o‘qituvchining pedagogik faoliyatida AKTdan samarali foydalanish zarurati belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida amalda qo‘llanilayotgan kundalik.com elektron ta’lim platformasi, shuningdek, elektron darsliklar, ta’limiy platformalar va interaktiv resurslar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Kundalik.com platformasining afzalligi shundaki, u o‘quvchilarning o‘quv faoliyati, topshiriqlarni bajarish darajasi, baholash tizimi hamda ota-ona-o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi raqamli hamkorlik jarayonini kuchaytiradi. Mazkur platforma o‘quv jarayonida ochiqlik, nazorat va teskari aloqa mexanizmlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi xorijiy pedagog olimlar tomonidan keng o‘rganilgan.

XX asrning 60-yillarida B. Bloom o‘quv faoliyatini rivojlantirishda ta’lim natijalarini bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini asoslab bergan bo‘lib, zamonaviy AKT vositalari ushbu yondashuvni amaliyotda samarali qo‘llash imkonini beradi. Uning taksonomiyasi asosida interaktiv va raqamli ta’lim resurslari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kundagi kredit ta’lim tizimi bunga misoldir. L. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi AKTdan foydalanishning pedagogik mohiyatini ochib beradi. Elektron ta’lim vositalari va raqamli platformalar o‘quvchiga individual yondashuvni ta’minlab, uning mustaqil va qo‘llab-quvvatlangan faoliyatini uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi.

R. Mayerning multimediali ta’lim nazariyasida vizual va audio axborotning uyg‘unligi bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Bu g‘oya boshlang‘ich sinflarda AKT asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi. M. Prensky “raqamli avlod” (digital natives) tushunchasini ilgari surib, zamonaviy o‘quvchilarning raqamli muhitda ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini asoslab bergan. Uning qarashlari boshlang‘ich ta’limda AKTdan foydalanish zaruratini pedagogik jihatdan izohlaydi. Shuningdek, UNESCO va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli ta’lim vositalarining o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘zlashtirish darajasi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalariga ijobiy ta’siri qayd etilgan. O‘zbekistonlik pedagog olimlar tomonidan ham ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. N.A. Muslimov ta’lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishda AKTning o‘rni va ahamiyatini asoslab, o‘qituvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

R.X. Jo‘rayev va Sh.S. Sharipovlarning ilmiy ishlarida boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida AKT vositalari ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi.

B.X. Raxmonov va D.T. To‘xtayeva boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirishda elektron resurslar va interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik jihatlarini o‘rgangan. Shu-

1 https://lex.uz/docs/-5013007

ningdek, O‘zbekiston pedagog olimlarining tadqiqotlarida kundalik.com, elektron darsliklar va ta’lim platformalarining o‘quv jarayonini nazorat qilish, baholash hamda teskari aloqani ta’minlashdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. An’anaviy “o‘qituvchi – darslik – o‘quvchi” modeli o‘rnini bosqichma-bosqich raqamli ta’lim muhiti egallamoqda. Elektron darsliklar, interaktiv platformalar, masofaviy ta’lim vositalari va raqamli baholash tizimlari o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishda muhim rol o‘ynamoqda. Boshlang‘ich ta’limda AKTdan foydalanish o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘quv faoliyatida faollikni kuchaytirish, mustaqil ishlash va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, vizual va interaktiv materiallar kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos kelib, bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda AQSh ta’lim tizimida sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalari faol joriy etilmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida sun’iy intellekt quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda:

- moslashtirilgan (adaptive) ta’lim tizimlari – har bir o‘quvchining bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligiga mos topshiriqlarni taklif etadi;
- intellektual ta’lim platformalari (masalan, raqamli o‘qish va matematika dasturlari) o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilib, individual tavsiyalar beradi;
- avtomatlashtirilgan baholash va teskari aloqa – o‘qituvchi yuklamasini kamaytirib, o‘quvchining o‘z vaqtida javob olishini ta’minlaydi.

AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchini almashtirmaydi, balki o‘qituvchining yordamchisi sifatida xizmat qiladi. Natijada o‘qituvchi o‘quvchining shaxsiy rivoji, tarbiyaviy jihatlari va muloqotga ko‘proq e’tibor qaratish imkoniga ega bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlardagi bo‘shliqlarni erta aniqlashga yordam beradi hamda o‘quv faoliyatining individuallashuvini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu ayniqsa muhim bo‘lib, har bir bolaning qobiliyati va ehtiyojiga mos yondashuvni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Hozirgi bosqichda O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’limga boshlang‘ich darajada kirib kelmoqda. Asosan raqamli platformalar orqali ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘quv jarayonini monitoring qilish, o‘qituvchiga metodik yordam berish yo‘nalishlarida qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, AQSh tajribasi bilan taqqoslaganda, O‘zbekistonda sun’iy intellekt asosida to‘liq moslashtirilgan ta’lim tizimlari hali keng joriy etilmagan. Bu esa kelgusida boshlang‘ich ta’limda AKT va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun ilmiy-metodik asoslarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Taqqoshlama tahlil shuni ko‘rsatadiki, AQShda sun’iy intellekt ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa, O‘zbekistonda AKT asosan ta’lim jarayonini tashkiliy va nazorat bosqichida faol qo‘llanilmoqda. Bu holat boshlang‘ich ta’limda AKT va sun’iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirish, ularni pedagogik maqsadlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang‘ich ta’limda AKT va sun’iy intellektdan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar. Boshlang‘ich sinflar uchun sun’iy intellektga asoslangan moslashtirilgan ta’lim elementlarini joriy etish. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi va individual xususiyatlarini hisobga oluvchi sun’iy intellekt elementlariga ega raqamli ta’lim modullarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Bu o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini individuallashtirishga xizmat qiladi.

Nima beradi: sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ortda qolmaydi, iqtidorlilar esa zerikmaydi. Kundalik.com platformasini sun’iy intellekt elementlari bilan boyitish.

Kundalik.com platformasi imkoniyatlarini kengaytirib, unda o‘quvchining xatolarini avtomatik tahlil qilish, o‘qituvchi uchun individual tavsiyalar ishlab chiqish, o‘quvchi rivojlanish dinamikasini prognozlash kabi sun’iy intellekt elementlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Nima beradi: o‘qituvchi yuklamasi kamayadi, baholash obyektivlashadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sun’iy intellekt bo‘yicha raqamli kompetensiyalarini oshirish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “AKT va sun’iy intellekt asoslari” bo‘yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini joriy etish zarur. Ushbu kurslar nazariy emas, balki amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Nima beradi: texnologiya qo‘rqinch emas, yordamchiga aylanadi. Boshlang‘ich ta’lim uchun milliy sun’iy intellektli ta’lim platformasini ishlab chiqish.

Chet el platformalariga to‘liq bog‘lanib qolmasdan, milliy qadriyatlar, o‘zbek tili va o‘quv dasturlariga mos sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformasini ishlab chiqish taklif etiladi.

Nima beradi: axborot xavfsizligi, milliy kontent, teng imkoniyat.

Sun’iy intellektdan foydalanishda pedagogik va axloqiy me’yorlarni ishlab chiqish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha yosh xususiyatlari, psixologik xavfsizlik, ma’lumotlarni himoyalash talablarini o‘z ichiga olgan pedagogik-axloqiy me’yorlar ishlab chiqilishi lozim.

Nima beradi: nazoratsiz texnologiya emas, boshqariladigan rivoj.

AKT va sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini muntazam monitoring qilish. Boshlang‘ich ta’limda AKT va sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan darslarning natijadorligini o‘quv faolligi, bilim sifati, mustaqil ishlash ko‘nikmalari asosida muntazam ilmiy monitoring qilib borish taklif etiladi.

Nima beradi: qaysi texnologiya foydali, qaysisi yo‘q - aniq ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5085999
2. “Multimedia ilovalarining turlari”. http://tami.uz/
3. Olimov Q. T. Maxsus fanlar bo‘yicha elektron darsliklarni yaratishning uslubiy asoslari. G‘G‘ Kasb-hunar ta’limi, №2, 2004-y.
4. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T.: Fan va texnologiya, 2008.
5. Bovanova Umida Abduvahobovna. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. (E) ISSN: 2181-1784. SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7. The Model of Improving the Positive Attitude of Elementary School Students to the Environment in the Information Environment and the Importance of Increasing Environmental Literacy in It. https://oriens.uz/journal/article/the-model-of-improving-the-positive-attitude-of-elementary-school-students-to-the-environment-in-theinformation-environment-and-the-importance-of-increasing-environmental-literacy-in-it/
6. Bovanova Umida Abduvahobovna. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(8), 10-19. Axborot muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining atrof-muhitga ijobiy munosabatini takomillashtirishda ekologik o‘yinlarning ahamiyati. https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/2475
7. Bovanova Umida Abduvahobovna, Jo‘rayeva Marg‘uba Elmurod qizi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya darslarini o‘tishda innovatsion yondashuvning ahamiyati. Eurasian Journal of Academic Research, Volume 2, Issue 12, 2022. IF = 7.899.
8. Baxromovna S. U. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining iqtisodiy o‘quv motivlarini shakllantirishning o‘ziga xosligi. World Scientific Research Journal, 20(1), 117-122.
9. Saparova U. B. (2023). In ensuring economic growth, family business and private entrepreneurship shape concepts in the minds of readers. Confrencea, 6(6), 342-347.

LOTIN TILINI O‘QITISHDA METODLARNING QO‘LLANILISHI VA UNING AHAMIYATI



Eshmurodova Shirin Oybekovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
“1-son o‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada lotin tilini o‘qitishda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi, ularning samaradorligi va ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, talabalarning bilim olish jarayonini faollashtirishda interaktiv metodlarning o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Lotin tili, metodika, interaktiv metodlar, ta’lim, pedagogika, samaradorlik.

Abstract: This article discusses the use of modern methods in teaching Latin, their effectiveness, and their importance in the educational process. It also analyzes the role of interactive methods in enhancing students’ learning processes.

Key words: Latin, methodology, interactive methods, education, pedagogy, effectiveness.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование современных методов преподавания латинского языка, их эффективность и значение в образовательном процессе. Также анализируется роль интерактивных методов в активизации учебного процесса студентов.

Ключевые слова: Латинский язык, методика, интерактивные методы, образование, педагогика, эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni, jumladan, lotin tilini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lotin tili tibbiyot, biologiya, farmatsiya va filologiya sohalarida asosiy terminologik baza sifatida xizmat qiladi. Shu sababli uni samarali o‘qitish metodlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Lotin tili qadimgi tillardan biri bo‘lib, bugungi kunda ham tibbiyot, biologiya, farmatsiya va filologiya yo‘nalishlarida muhim ahamiyatga ega. Uni samarali o‘qitish zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llashni talab etadi. Hozirgi davr ta’lim tizimi talabani faol subyekt sifatida ko‘rishni taqozo etadi. Zamonaviy ta’limda innovatsion metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, lotin tilini o‘qitishda faqat grammatik yondashuv bilan cheklanib qolish yetarli emas, chunki talabaning mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Lotin tilini o‘qitishda samarali metodlarni aniqlash hamda ularning ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Lotin tilini o‘qitishda an’anaviy va zamonaviy metodlar qo‘llaniladi. An’anaviy metodlarga grammatik-tarjima usuli kiradi. Ushbu metod orqali talabalar grammatik qoidalarni o‘zlashtiradi hamda matnlarni tarjima qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Lotin tilini o‘qitishda an’anaviy grammatik-tarjima uslubi bilan bir qatorda zamonaviy interfaol metodlar (kommunikativ, keys-stadi, tahliliy) ham qo‘llaniladi. Ushbu metodlar talabalarning tibbiy terminologiya va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda, grammatik asoslarni o‘zlashtirishda hamda atamalarning mantiqiy tuzilishini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lotin tilini o‘qitish jarayonining vazifalari quyidagilardan iborat: lotin tilini o‘qitish metodlarini tahlil qilish; an’anaviy va zamonaviy metodlarni solishtirish; interaktiv metodlarning samaradorligini aniqlash; innovatsion yondashuvlarni joriy etish. Zamonaviy metodlar talabalarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular qatoriga interaktiv metodlar (munozara, “aqliy hujum”), kommunikativ metod hamda multimedia vositalaridan foydalanish kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: tahliliy metod, qiyosiy metod, kuzatish va pedagogik tajriba. Interaktiv metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ularni dars jarayoniga faol jalb etadi. Kommunikativ metod esa tilni amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalar o‘rtasidagi muloqotni

kuchaytiradi. Lotin tilini o‘qitishda terminologik yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali talabalar kasbiy sohalarga oid atamalarni tezroq va samaraliroq o‘zlashtiradilar. Lotin tili tibbiy va ilmiy terminlarning asosi hisoblanadi. Talabalar terminlarni o‘rganish orqali kasbiy bilimlarini mustahkamlaydilar. Mazkur metod tilni amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning nutq faoliyatini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi, talabalarning qiziqishini kuchaytiradi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar qo‘llanilganda o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi. Zamonaviy metodlar an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq bo‘lib, talabalarni dars jarayoniga faol jalb etadi. Lotin tilini ingliz tilida so‘zlashuvchi auditoriyada o‘qitish vositalari orqali dunyoqarashni kengaytirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va, albatta, o‘quvchilarning tibbiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Lotin tilini o‘zlashtirish zamonaviy tilshunoslik talablariga to‘la mos keladi, ya’ni tilni shakl va vositalar majmuasi sifatida o‘qitishdan yaxlit, ongli-qiyosiy yondashuvga o‘tish bilan birga, ikkinchi xorijiy tilni o‘qitishning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qoladi.

Lotin tilini o‘qitish butun kurs davomida turlicha rol o‘ynaydi. Ikkinchi chet tili bo‘yicha ko‘nikmalarning rivojlanishi va o‘zlashtirilgan til materiali hajmining oshishi bilan uning ta’sirining doimiy pasayishi kuzatiladi. Vaqt o‘tishi bilan talabalar lotin tili tizimini qurishning ichki qonuniyatlarini tushuna boshlaydilar va “til tuyg‘usi” shakllanadi. Yunon-lotin terminologiyasi an’anaviy ravishda xalqaro tibbiyot fanining “thesaurus”i (so‘zning keng ma’nosida), ya’ni tibbiyotning barcha asosiy tushunchalari va atamalarini o‘z ichiga oladi; ularni bilmasdan turib, uning tarkibiga kiruvchi maxsus fanlarni mazmunli o‘zlashtirish mumkin emas. Talabalarga lotin tilini o‘rgatish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, anatomik, klinik va farmatsevtik atamalarning leksik tarkibini o‘rganishda talabalar jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmaydilar, chunki boshqa tillardan lotin tiliga juda ko‘p miqdordagi terminlar o‘tgan.

Tibbiy atamalar ko‘pincha lotin atamalari bilan umumiy ildizga ega bo‘lib, ular asosan fonetik va grafik jihatdan mos keladi. Lotin tilining so‘z yasalish tizimini o‘zlashtirish jarayonida talabalar uchun muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun lotin tilining so‘z yasovchi elementlarini o‘rganishda yunon-lotin tilidan kelib chiqqan eng muntazam prefiks va qo‘shimchalarga e’tibor qaratish zarur. Lotin tibbiyot terminologiyasini o‘zlashtirish jarayonida ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning asosiy ko‘rsatkichi amaliy mashg‘ulotlar va test topshiriqlaridan faol foydalanish hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo‘lajak shifokorning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi tibbiy terminologiyani bilish va undan foydalanish qobiliyatidir. Terminologik kompetensiya bo‘lajak shifokorlar uchun integratsiyalashgan o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lgan lotin tili mashg‘ulotlarida shakllanadi. Lotin tilini chet tili sifatida o‘qitish o‘n besh asrdan ortiq davom etgan uzoq tarixga ega va batafsil o‘rganishga loyiqdir. Tibbiyot fakultetidagi “Tibbiy atamashunoslik” fanining asosiy vazifasi talabalarga tibbiy atamalarni chuqur va ongli ravishda tushunishga yordam berishdir. Ingliz va roman tillari keng tarqalgan mamlakatlarda shifokorlar lotincha xalqaro atamalardan foydalanadilar, biroq ayrim hollarda lotin grammatikasi me’yorlariga to‘liq amal qilmaydilar. Ingliz tili lotin tiliga asoslanganligi sababli, chet ellik talabalar leksik materialni nisbatan oson o‘zlashtiradilar. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tilini o‘rganish so‘z boyligini kengaytirish, grammatika va terminologik elementlarni puxta egallashni o‘z ichiga oladi.

Talabalarning lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirishning dolzarb vazifalaridan biri o‘qitishning intensiv shakllarini takomillashtirishdir. Talabalar tibbiyot yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishlarini muvaffaqiyatli davom ettirishlari uchun tibbiyot terminologiyasi asoslari bilan chuqur tanishishlari zarur. Lotin tilini o‘qitish metodikasining maqsadi talabalarga tushunarli va sodda tilda boshqa fanlar – masalan, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan rus, ingliz va fransuz tillari, anatomiya hamda fiziologiya fanlari bilan integratsiyalashgan holda bilim berishdan iborat. Lotin tilini o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarda tibbiy terminologiya bo‘yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish, lotin tili asoslarini o‘zlashtirish orqali ularga to‘g‘ri o‘qish, yozish va tarjima qilish, shuningdek, matn mohiyatini anglash imkonini yaratishdir.

Lotin tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tibbiy atamalarni idrok etish va esda saqlashni yaxshilaydigan fanlararo o‘qitish usullari qo‘llaniladi; ushbu yaxlit yondashuv umumta’lim va tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Ma’lumki, yunon-lotin tilidagi lug‘at boyligini kengaytirish, tibbiyot terminologiyasi tarkibiy qismlarining tuzilishini anglash, retseptlarni tez va malakali yozish, dori vositalarining nomlarini to‘g‘ri talaffuz va yozishni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Lotin tilini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki talabalarning mustaqil ishlash va fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi hamda bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshmurodova, S. O. (2025). Interrelationship of Latin and Foreign Languages in Medical Institutions and Teaching Skills. American Journal of Modern World Sciences, 2(10), 121-129.
2. Eshmurodova, S. O. (2025). Teaching Methodologies of Latin and Foreign Languages. Bulletin of News in New Science Society, 2(9), 99-104.
3. Oybekovna, E. S. (2025). Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati.
4. Eshmurodova, S. O. Q. (2024). Lotin tilini o'qitishdagi muhim vazifalar va usullari. Academic Research in Educational Sciences, (1), 438-441.
5. Eshmurodova, S. (2025). Frazeologik birliklarda emotsional holatning ilmiy-nazariy tavsifi. Acta NUUz, 1(1.3), 347-349.
6. Sh, S. (2017). Rustamova, M. A., Saydullayeva, M. A., Abdullayeva, R. M., Israilova, M. N., Yuldasheva, D. Yu.
7. Shahobovna, R. S. (2024). Особенности преподавания латинского языка студентам медицинских вузов.
8. Rustamova, S. S. (2024). Tibbiyot universiteti talabalariga lotin tilini o'qitish xususiyatlari. Inter Education & Global Study, 8(1), 209-215.
9. Rustamova, S. S. (2023). The importance of using interactive educational technologies in forming professional competence for medical university students. Academic Research in Educational Sciences, 4(TMA Conference), 260-265.
10. Esonovna, A. S. (2023). Lotin va yunon tillarining tibbiyot terminologiyasidagi o'rni.
11. Esonovna, A. S. (2023). Tibbiyot terminologiyasida lotin va yunon tillarining ahamiyati.
12. Mukhammedova, O. A., & Xusanova, M. T. X. Q. (2023). Tibbiyotda lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'rganishning ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences, 4(TMA Conference), 359-361.
13. Sh, R. S., & Saydullayeva, M. A. (2017). Abdullayeva, R. M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent.
14. Rustamova, S. S. (2025). The importance of communicative competence in enhancing language learners' professional skills in pedagogy. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari.
15. Rustamova, S. S. (2025). Psychological characteristics of the motivation of the professional development of a teacher in pedagogical activity. Bulletin of News in New Science Society, 2(9), 105-119.
16. Shaxobiddinovna, R. S. (2025). Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari.
17. Shakhobiddinovna, R. (2025). The role of interactive teaching technologies in the formation of professional competence among medical university students. International Journal, 5(1), 89-92.
18. Fayzullaev, S. (2023). Improving the methodology of teaching foreign languages based on the competence approach in the higher medical education system. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 697-700.
19. Israilova, I., Gulfura, T., Patima, T., Gulbakhor, M., & Sarvar, F. (2021). Medical English learning through authentic movies: extra-linguistic factors contributing to the study of medical terminology. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical Sciences).
20. Бухарова, Н. Г., & Файзуллаев, С. И. У. (2021). Дискурс-анализ как средство восприятия устной речи. Вестник науки и образования, 2-3(105), 17-19.
21. Fayzullayev, S. I. (2024). Ways of effective use of educational methods and its effectiveness. Pedagogika, Psixologiya va Ijtimoiy Tadqiqotlar | Journal of Pedagogy, Psychology and Social Research, 3(4), 185-189.
22. Fayzullayev, S. (2023). Ingliz tilida tibbiyot terminologiyasining tutgan o'rni. Scientific Impulse, 1(10), 364-367.
23. Sarvar, F. (2023). Oliy ta'lim tizimida ta'lim metodlarining qo'llanilishi. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(14), 402-406.
24. Sarvar, F., & Saidaxon, G. A. (2023). Oliy o'quv yurtlari talabalariga xorijiy tillarni o'qitish metodikasi va mediatexnologiyalardan foydalanish usullari. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 551-553.
25. Fayzullayev, S. (2022). Methods to improve English in medical institutions. In Collection of Materials of the International Scientific and Practical Conference "Modern Scientific Research in Medicine: Current Issues, Achievements and Innovations".
26. Fayzullayev, S. (2023). Ingliz tilida tibbiyot terminologiyasining tutgan o'rni. Scientific Impulse, 1(10), 364-367.
27. Файзуллаев, С. И. (2024). Общая история латинского языка и медицинской терминологии и ее значение. Academic Research in Educational Sciences, (1), 445-454.
28. Fayzullayev, S. (2023). The place of the Uzbek language in learning Latin and medical terminology. Academic Research in Educational Sciences, 4(TMA Conference), 163-166.
29. Fayzullayev, S. (2024). Healing legacies: exploring the influence of Latin and Greek mythology on medicine. Academic Research in Educational Sciences, (1), 497-508.
30. Мухаммедова, О. А. (2022). Развитие медицинского образования в Узбекистане.
31. Mukhammedova, O. A., & Xusanova, M. T. X. Q. (2023). Tibbiyotda lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'rganishning ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences, 4(TMA Conference), 359-361.
32. Muhammedova, O. A. (2025). Tibbiyot sohasiga oid atamalarning leksik-semantik xususiyatlari. Медицинский журнал молодых ученых, 15(09), 224-226.
33. Muhammedova, O. A. (2025). Tibbiyot sohasiga oid atamalarning leksik-semantik xususiyatlari. Медицинский журнал молодых ученых, 15(09), 224-226.
34. Fayzullayev, S. I. (2025). Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish (tibbiy oliy ta'lim talabalari misolida). Медицинский журнал молодых ученых, 16(12), 295-297.

NUTQIY KOMPETENSIYANING INTEGRATSION O'QITISHDA YANGI METODLARI VA USULLARI

Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
"1-son o'zbek va xorijiy tillar" kafedrasi katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0008-6476-8533

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompetensiya va nutqiy kompetensiya tushunchalarining mazmun-mohiyati, talabalarning nutqiy imkoniyatlarini oshirishning ahamiyati hamda nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi metod va usullarning asosiy elementlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Nutq, ta'lim metod va usullari, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, kompetentlik, elementlar, tinglab tushunish, so'zlash.

Abstract: This article discusses the essence of the concepts of competence and speech competence, the importance of improving students' speech abilities, and the main elements of the methods and techniques that constitute speech competence.

Key words: Speech, teaching methods and techniques, competence, speech competence, competency, elements, listening comprehension, speaking.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность понятий компетенции и речевой компетенции, важность совершенствования речевых навыков учащихся, а также основные элементы методов и приёмов, составляющих речевую компетенцию.

Ключевые слова: Речь, методы и приёмы обучения, компетенция, речевая компетенция, компетентность, элементы, аудирование, говорение.

KIRISH

Kompetensiya – bu muayyan soha bo'yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya (lot. "compete" – erishyapman, munosibman, loyiqman) – fan bo'yicha egallangan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch kelinadigan amaliy hamda nazariy masalalarni yechishda qo'llay olishdir. Kompetensiya tushunchasining ta'lim mazmuniga tatbiq etilishi zamirida o'qitish tizimiga nisbatan yangicha yondashuv hamda ta'lim tizimini rivojlantirish masalasi yotadi. Zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish jarayonida shaxsni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish emas, balki uni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali faoliyat yurita oladigan darajada tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiya tushunchasi ta'lim jarayonining yakuniy natijasini ifodalab, o'quvchining muayyan faoliyatni bajarish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini namoyon etadi. Xususan, pedagogik faoliyatda kompetensiyani shakllantirish shaxsning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishi hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Hozirgi zamon talablariga monand tarzda endilikda o'quvchilarga faqat ilmiy-nazariy bilimlar berish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni mustaqil mushohada eta oladigan, egallagan bilimlarini kundalik hayotga ongli ravishda tatbiq qila oladigan shaxs sifatida shakllantirish maqsadida "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalarini har bir darsning asosiy maqsadi mazmuniga singdirishga urg'u berilmoqda. Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amalda bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu jumladan, muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi. Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch hamda fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllant-

irishni nazarda tutadi. Ma'lumki, talabalarda shakllantiriladigan kompetensiyalar ikki turga ajratiladi: tayanch va fanga oid kompetensiyalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ayrim manbalarda kompetensiyalarning quyidagi uch turi tasniflangan:

1) tayanch kompetensiyalar;
2) umumiy (predmetli) kompetensiyalar;
3) xususiy kompetensiyalar.

Talaba shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiyalar, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar esa xususiy kompetensiyalar deyiladi. Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi to'rt komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

1) tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va tele dasturlarni tushunish);
2) gapirish (monologik va dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari hamda fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish);
3) o'qish (mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni – gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni – o'qish);
4) yozish (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilish).

Kompetensiyaga hech qachon to'g'ridan-to'g'ri tashxis qo'yish va baholash mumkin emas, balki uning samaradorligini bilvosita aniqlash mumkin. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv – olingan bilimlarni qo'llash qobiliyatiga e'tiborni qaratish usulidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiya (rozilik, mutanosiblik, mos kelish, to'g'ri kelish, uyg'unlik, qobiliyat, layoqat) – mutaxassis yoki xodimning ma'lum bir kasbiy vazifalarni hal etishdagi shaxsiy, kasbiy va boshqa fazilatlariga qo'yiladigan talablarni anglatadi, ya'ni muayyan sohada samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligidir. Kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblangan nutqiy kompetensiya esa shaxsning til birliklaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanish, fikrini og'zaki hamda yozma shaklda ravon, aniq va mantiqiy ifodalash qobiliyatini bildiradi. Nutqiy kompetensiya bilish faoliyati, ijtimoiy muloqot va ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, talabaning kommunikativ faolligini, o'qishdagi muvaffaqiyatini hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi. Shunday qilib, kompetensiya umumiy pedagogik kategoriya sifatida qaraladigan bo'lsa, nutqiy kompetensiya uning amaliy va funksional ko'rinishlaridan biri bo'lib, shaxsning til orqali jamiyat bilan samarali muloqotga kirishishini ta'minlaydi. Nutqiy kompetensiya masalasi pedagogika, psixolingvistika va metodika sohalarida faol tadqiq etib kelinayotgan dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini ochib berishda bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois nutqiy kompetensiya ta'lim jarayonida shaxsning fikrini aniq ifodalashi, muloqotda faol bo'lishi, til me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil va ijodiy nutq tuza olishini ta'minlovchi integrativ pedagogik-psixolingvistik hodisa sifatida e'tirof etiladi. Til kompetensiyasini shakllantirishda grammatik, leksik va fonetik bilimlarni berish muhim bo'lsa-da, mazkur bilimlar kommunikativ vaziyatda to'g'ri va o'rinli qo'llanilmasa, kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli talabalarda tilning amaliy jihatini rivojlantirish maqsadida rolli o'yinlar, suhbatlar, mashqlar hamda vaziyatli topshiriqlardan keng foydalanish zarur. Yana bir muhim jihat – bolalarda eshitish, esda saqlash, qayta hikoya qilish va fikr bildirish kabi psixik funksiyalarni faollashtirishdir, chunki ushbu funksiyalar nutqiy kompetensiyaning shakllanishida asosiy o'rin tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurt taraqqiyoti yoshlarning kelgusida qanday shaxs bo'lib kamol topishiga uzviy bog'liq. Farzandlarimizning kelajagi poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'lim tizimini yanada isloh qilish bu boradagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni, jumladan kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor

bo'lish hamda ulardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun, avvalo, o'qituvchi egallab turgan lavozimi darajasida yetarli kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi lozim. Shundagina u pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil eta oladi. Zeroki, pedagogni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz va sermahsul mehnat, ijodkorlik hamda yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Ana shunday fazilatlar orqali pedagog yuksak ma'naviyatli, teran fikrga ega, yetuk shaxslarni kamol toptirishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qorayev S. B., Tirkashev N. I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. "Academic Research in Educational Sciences", 3(1), 2022.
2. Sattarova N. U. The emergence of the competence approach in the educational system and its importance today. "Science and Innovation", 2023.
3. Temirova K. S. Nutqiy kompetensiyaning turlari, mazmun-mohiyati va elementlari. "International Conference on Developments in Education", 20.02.2023.
4. Sattarova N. U. Nutqiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning asosiy elementlari tasnifi. "Science and Education" Scientific Journal, June 2023, 4(6), www.openscience.uz.
5. Fayzullayev S. (2023). Improving the methodology of teaching foreign languages based on the competence approach in the higher medical education system. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 697-700.
6. Бухарова Н. Г., Файзуллаев С. И. У. (2021). Дискурс-анализ как средство восприятия устной речи. Вестник науки и образования, 2-3(105), 17-19.
7. Sarvar F. (2022). Mechanism of integrated teaching of speech competence in Uzbek and English languages in medicine (Tashkent Medical Academy). Global Scientific Review, 10, 188-191.
8. Fayzullayev S. I. U. (2024). Methods of how to improve students' knowledge and skills. American Journal of Modern World Sciences, 1(2), 172-181.
9. Sarvar F., Saidaxon G. A. (2023). Oliy o'quv yurtlari talabalariga xorijiy tillarni o'qitish metodikasi va mediatexnologiyalardan foydalanish usullari. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 551-553.
10. Sarvar F. (2023). Oliy ta'lim tizimida ta'lim metodlarining qo'llanilishi.
11. Fayzullayev S. (2025). Improving the methodological system for developing the verbal competence of medical students through educational tasks. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 3(3), 26-31.
12. Fayzullayev S. (2022). Methods to improve English in medical institutions. In: Collection of materials of the international scientific and practical conference "Modern Scientific Research in Medicine: Current Issues, Achievements and Innovations".
13. Ibrohim o'g'li F. S. (2025). Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqiy kompetensiyasini o'quv topshiriqlari orqali rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish. Строительство и образование, 4(1), 58-63.
14. Fayzullayev S. I. (2025). Tibbiy OTM talabalarining nutqiy kompetensiyasini o'quv topshiriqlari orqali rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish.
15. Axmedova M. E., Melibayeva R. N., Bekmirov T. R., Nurmatov A. N. (2022). Kasbiy pedagogika (darslik).
16. Fayzullayev S. I. (2025). Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish (tibbiy oliy ta'lim talabalari misolida). Медицинский журнал молодых ученых, 16(12), 295-297.
17. Fayzullayev S. (2025, May). Improving the methodological system for developing the speech competence of medical university students through educational tasks. In: E-Conference Platform, 1(20-may), 97-100.
18. Ibrohim o'g'li F. S. (2023). Tibbiyotda o'zbek va ingliz tillarida nutqiy kompetensiyani integratsion o'qitish mexanizmi.
19. Ibrohim o'g'li F. S. (2025). Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqiy kompetensiyasini o'quv topshiriqlari orqali rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish.
20. Axmedova M. (2022). O'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasiga doir amaliy yondashuvlar.

TALABALARDA AFFILIATIV MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA KOMPONENTLARI

Omonova Nilufar Omon qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universitetining
Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada motivatsiyaning tarkibiga kiruvchi affiliasiyani talabalarda rivojlantirishning zaruriyati asoslangan. Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarda affiliativ motivatsiyani hozirgi zamon ilm-fani yutuqlari bilan uyg'unlashtirgan holda amaliyotga qo'llashning afzalligi o'rganiladi. Bugun talabalar birgalikda harakat qilishlari uchun faol muloqotda bo'lishlari, bir-birlarining xarakter xususiyatini tushunishi zarurdir. Buning uchun esa talabalar o'zaro muloqotni to'g'ri tashkil etishi va munosabat o'rnatish jarayonida bir-birlariga moslasha olishlari ahamiyatlidir. Chunki bu har bir talabaga dars davomida o'z o'quv faoliyatini samarali olib borish imkonini beradi.

Shuningdek, maqolada birgalikda vazifalarni to'g'ri va teng taqsimlanishi, qolaversa, ularning kichik guruhlarda ish olib borishida muloqotning turli usullaridan unumli foydalanish shartlari izohlangan. Shunga ko'ra, talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish omillarini olib kirishning ahamiyatlilik darajasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: talaba, affiliasiya, motivatsiya, munosabat, birlashish, ehtiyoj, hamkorlik, inson, muloqot, motiv, shaxs, rivojlantirish.

Abstract: This article substantiates the necessity of developing affiliation as a structural component of motivation among students. The advantages of applying affiliative motivation in higher education practice, integrated with contemporary scientific achievements, are examined. In the modern educational context, effective collaborative activity requires students to engage in active communication and to understand each other's individual psychological characteristics. Therefore, the ability to organize interpersonal interaction appropriately and to adapt during the process of relationship-building becomes particularly significant. This, in turn, enables each student to carry out academic activities more effectively during the learning process.

The article also explains the conditions for the proper and equitable distribution of joint tasks, as well as the effective use of various communication methods in small-group work. Based on scientific analysis, the importance of introducing factors that promote the development of affiliative motivation among students is substantiated.

Key words: student, affiliation, motivation, interpersonal relations, unity, need, cooperation, individual, communication, motive, development.

Аннотация: В данной статье обоснована необходимость развития аффилиации как структурного компонента мотивации у студентов. Исследуются преимущества практического применения аффилиативной мотивации у студентов высших учебных заведений в интеграции с современными достижениями науки. В современных условиях для эффективной совместной деятельности студентам необходимо активно взаимодействовать, понимать индивидуально-психологические особенности друг друга. В этой связи особое значение приобретает умение правильно организовывать межличностное общение и адаптироваться в процессе установления взаимоотношений. Это, в свою очередь, способствует повышению эффективности учебной деятельности каждого студента в ходе образовательного процесса.

В статье также раскрываются условия рационального и равномерного распределения совместных заданий, а также эффективного использования различных коммуникативных методов при работе в малых группах. На основе проведённого анализа научно обоснована значимость внедрения факторов, способствующих развитию аффилиативной мотивации у студентов.

Ключевые слова: студент, аффилиация, мотивация, взаимоотношения, объединение, потребность, сотрудничество, личность, общение, мотив, развитие.

KIRISH

Shiddat bilan rivojlanayotgan davlatimizda yoshlarning bilim saviyasi va dunyoqarashining o‘sishi eng muhim ustuvor vazifa hisoblanadi. Chunki yoshlar har bir davlatning kelajagini belgilab beruvchi asosiy kuchdir.

Shu boisdan ham Prezidentimiz: “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”, - deya aytgan e’tiroflari O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi ekanligini yana bir karra isbotlaydi.[1]

Ta’lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta bo‘lib qo‘shilishiga yordam beradi. Shunday ekan, har bir ilm dargohi rivojlanish imkoniyatini yanada oshirish, ta’lim oluvchilarning bilim olib, kasb egallashi uchun o‘qib-o‘rganishga moyil yoshlarning bir-birlari bilan hamkorlikda erkin munosabat o‘rnatishlari, doimiy ishonchli muloqot qilishlariga ko‘maklashishi zarur.

Chunki har bir inson fikrlashi va bu fikrlarni hayotiga tatbiq eta olishi kerak. Affiliasiya talabalarga mavjud fikrlarini muloqot orqali amalga oshirishga, fikrlarini o‘rtoqlashishga, do‘stlar orttirib birgalikda harakat qilishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi motivatsiyadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ADABIYOTLAR SHARHI

Affiliativ motivatsiya so‘zining ma’nosi fransuz tilidagi “affiliation” - “birlashish”, ingliz tilidagi “to affiliate” so‘zidan olingan bo‘lib, birlashtirmoq, birlashmoq ma’nosini anglatadi, ya’ni insonning boshqa insonlar davrasida bo‘lishga intilish hissi tushuniladi.[2]

E.H. Shagalovaning chet el so‘zlarini talqin etuvchi eng yangi lug‘at ma’lumotlarida keltirilishicha, o‘rta asrlarda “affiliatus”, ya’ni lotincha “filius” - “o‘g‘il” ma’nosini bildirib, ushbu tilda “bolani boqib olish” so‘zlaridan kelib chiqqan.[3]

Ta’rifga ko‘ra, subyektning salohiyati xavfli stress holatiga tushishi bilan affiliativ motivatsiyaga intilish ortib boradi. Tanish odamlar o‘rtasidagi yaqin munosabatlar xavotirlanish darajasining pasayishiga olib keladi va shu bilan birga ham fiziologik, ham psixologik stressning oldini oladi yoki uni yumshatadi.

Affiliativ motivatsiyaning susayishi esa yolg‘izlik, begonalashuv hissini keltirib chiqaradi hamda aldanish, rejalar barbod bo‘lishi (frustratsiya) holatlariga olib keladi.[4]

G. Myurrey affiliativ motivatsiyani shunday ta’riflaydi: affiliativ motivatsiya - bu pedagogik-psixologik hodisadir. Uning e’tiroficha, affiliativ motivatsiya “do‘st orttirish va ularga bog‘lanib qolish”dir. Odamlardan ko‘pchilik hollarda xursand bo‘lish va ular bilan bir xil muhitda yashashga intilishdir. Guruhlarga birlashish, sevimli subyektlar bilan muloqotda va hamkorlikda bo‘lish kabi holatlarda ro‘yobga chiqadi. Ya’ni odamlar bilan yaqin munosabatlarni qurish va bu munosabatlarni keyinchalik ham davom etadigan tarzda amalga oshirishdir.

Masalan, “yordam ko‘rsatish yoki ulardan yordam olish”, “yaxshi taassurot qoldirish” yoki “boshqalar ustidan hukmronlik qilish” kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Affiliasiya (kontakt, muloqot) deganda birgalikdagi ma’lum bir guruh tushuniladi. Uning asosiy mazmuni boshqa odamlar (tanish yoki notanish) bilan muloqot jarayonida yuzaga chiqadi va bu qo‘llab-quvvatlash har ikki tomonga bir-biridan ijobiy his-tuyg‘u beradi, har ikkala tarafni mazmunan boyitadi.[5]

G. Myurrey esa odamlar o‘rtasidagi aloqadorlik ehtiyojini to‘rtta turga ajratadi:

1. Affiliativ ehtiyoj (birlashish ehtiyoji).
2. Rad etish ehtiyoji (obyektlarni inkor etish, chetlashish).
3. Rahnamolik ehtiyoji (himoyalash, boshchilik qilish).
4. Qo‘llab-quvvatlash ehtiyoji (yordam va himoya izlash).[4]

1 Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.:“Ўзбекистон”2017 йил, -489б.
2 Шапарь.В.Б. Новейший психологический словарь/ В.Б.Шапарь, В.Э.Россоха, О.В. Шапарь; под общ.ред. О.В. Шапаря. – Изд.3-е-Ростов н\Д.: Феникц, 2007.-806 с., б, 43
3 Шагалова Е.Ҳ. Словарь новейший иностранных слов (конец XX начало XXИ бб): боле 3000 слов и словосочетаний. – М.: АСТ: Астрельб 2010.-943 с.
4 Шапарь.В.Б. Новейший психологический словарь/ В.Б.Шапарь, В.Э.Россоха, О.В. Шапарь; под общ.ред. О.В. Шапаря. – Изд.3-е-Ростов н\Д.: Феникц, 2007.-806 с., б. 43
5 Хекхуазен Х. Мотивация и деятельности. Б 2-х т.- М.: Наука,1986.-Т.2.-569-580 с. б 289

TAHLIL VA NATIJALAR

Affiliativ motivatsiyani tarkibiy qismlarga ajratish tajribasi A. Megrabyan tomonidan olib borilgan ko‘plab izlanishlar natijasida kiritilgan bo‘lib, muallif ushbu motivatsiyani ikkita motivatorga ajratadi: affiliasiyaga yo‘nalganlik va rad etilishdan qo‘rqish motivatorlari. Ular asosida insonlararo ta’sirlarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi shakllanadi.

Affiliasiyani ijobiy hodisa sifatida tahlil qilsak, u “insonlarga intilish” sifatida namoyon bo‘ladi; salbiy ko‘rinishda esa “odamlardan qo‘rqish” yoki “(odamlar tomonidan) rad etilishdan qo‘rqish” motivatsiyasi tarzida aks etadi. Ushbu motivatsiya mustaqil holatda ham, bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishda ham mavjud bo‘lishi mumkin.

Insonlarda har ikkala motivatsiyaning bir vaqtda mavjudligi murakkab, hal etilishi qiyin bo‘lgan ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.[4]

Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj doirasida affiliasiyani G. Myurrey talqinida X. Xekxauzen o‘rgangan bo‘lib, uning izohlashicha, affiliasiya doimiy, shu bilan birga fundamental xarakterga ega hodisadir. Affiliasiya psixik hodisa, xohish, motiv va mayl sifatida boshqa odamlarga intilish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Uning asosida muloqotni amalga oshiruvchi shaxsning hissiy va ishonchli aloqalarga nisbatan ichki ehtiyoji yotadi. Har ikkala tomonda qoniqish hosil qilish maqsadidagi yaqin munosabatlarni o‘rnatishga intilish muloqot jarayonida birgalikdagi harakatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Ehtiyojdan kelib chiqadigan maqsadlar turlicha bo‘lishi, hatto bir-birini inkor etuvchi (masalan, yaqin munosabatlarni tashkil etish yoki suhbatdoshdan o‘z shaxsiy maqsadini amalga oshirishda foydalanish) holatlarda ham yuzaga kelishi mumkin.[4]

Inson o‘zaro ta’sir o‘tkazish imkoniyatidan mahrum etilganda, unda boshqa insonlarga nisbatan affiliativ ehtiyojning zo‘riqish holati yuzaga keladi. T. Shipli va J. Berroff tasavvur jarayoniga affiliativ faollikning ta’sirini o‘rganish orqali ushbu farazning to‘g‘riligini isbotlaganlar.

Michigan universiteti talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan tajribalarda ham keltirilgan dalillar tasdiqlangan. Insonlar boshqa inson bilan ijobiy hissiy aloqalar o‘rnatish, uni qo‘llab-quvvatlash yoki qayta tiklash bilan bog‘liq obrazlarni affiliativ siymolar sifatida qabul qilganlar. Affiliasiyaga bo‘lgan ehtiyoj ko‘rsatkichi neytral sharoitda kategoriyalarni aks ettirish miqdori bilan belgilanadi. X. Rozenfeld va S. Franklinlar ushbu omil erkaklar guruhi vakillariga xos bo‘lgani kabi, ayollar guruhi uchun ham xos ekanligini o‘z izohlarida asoslab berganlar.

J. Atkinson va E. Uokerlarning tadqiqotlarida affiliativ harakat qilishga moyillik kuzatilgan insonlarda affiliativ ehtiyoj darajasi yuqori bo‘lgan. Ilg‘ab olish qiyin bo‘lgan obyektlar namoyish etilganda, yuqori darajadagi affiliativ ehtiyojga ega insonlar ushbu obyektlarni aniqroq ilg‘ay olganlar. Aynan shunday shaxslarda affiliasiya yoki inson yuzi stimullariga bog‘liq ko‘rish omilining sezgirligi yuqoriroq ekanligi aniqlangan.[7]

Tadqiqotlardagi mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy munosabatlarni oson o‘zlashtira oladigan shaxslarda affiliativ ehtiyoj yuqori darajada bo‘lib, ularda boshqalarga nisbatan sezgirlik va muloqotga moyillik kuchli namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ular boshqa odamlar bilan munosabatlarini qo‘llab-quvvatlashga intilishlari haqidagi taxminlar ham mavjud. Ilmiy izlanishlar tahlili ushbu taxminlarni tasdiqlaydi.

J. Lensing va R. Xeynslarning izohiga ko‘ra, affiliasiya darajasi past bo‘lgan shaxslarga nisbatan affiliasiyaga yuqori ehtiyoji mavjud bo‘lgan shaxslar ko‘proq xat yozadi, do‘stlarinikiga tez-tez mehmonga boradi hamda ko‘proq telefon orqali muloqot qiladi. Affiliativ motivatsiyani baholash metodikasi natijalari ham bu insonlar o‘zlari ko‘proq telefon qo‘ng‘iroqlari qilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, affiliativ ehtiyoji yuqori bo‘lgan yuqori sinf o‘quvchilari ko‘plab klublarga a’zo bo‘lishi aniqlangan, biroq bu holat voyaga yetganlarda kuzatilmaydi. Buning sababi shundaki, kattalar o‘z maxsus qiziqishlariga mos ravishda muayyan jamoat tashkilotlarida birlashadilar va bu yerda undovchi kuch ijtimoiy xarakterga ega bo‘lmaydi.

Odamlar bilan muloqot qilish affiliativ ehtiyoji yuqori bo‘lgan insonlar uchun nihoyatda muhimdir. Ular ish jarayonida hamkor yoki hamkasb sifatida mutaxassis-ekspertni emas, balki ishonchli do‘stni afzal ko‘radilar.

Keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda birgalikda harakat qilish, hamkorlik va o‘zaro ishonch kabi munosabatlarni rivojlantirish uchun ularda affiliativ motivatsiyani shakllantirish zarurdir. Talabalar dars jarayonida doimiy ravishda birgalikda faoliyat olib bormasliklari esa ular o‘rtasida munosabat birligi to‘laqonli shakllanmaganligini ko‘rsatadi.

Ahamiyatli jihati shundaki, agar ta’lim jarayonida talabalarda affiliativ motivatsiya izchil rivojlantirib borilsa, bu orqali ularning o‘z xohishiga ko‘ra erkin va muntazam ravishda o‘z ustida ishlashiga, sog‘lom (sof) raqobat muhitini yaratishga hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga erishish mumkin. Chunki bo‘lajak har bir pedagogda muloqot madaniyati shakllangan va o‘z tinglovchisiga ta’sir etish salohiyati mavjud bo‘lishi zarur.

Ko'plab olimlar affiliativ motivatsiyaga ta'rif berar ekanlar, uni bilishga intilish va muloqotga intilish kabi motivlar majmuasi sifatida talqin etganlar. [8] Shunga ko'ra, affiliativ motivatsiya nafaqat yagona motiv, balki uning komponentlari sifatida bir nechta motivlar yig'indisidan tashkil topadi. Shu bois biz "affiliasiya motivatsiyasi" emas, balki "affiliativ motivatsiya" sifatida e'tirof etish va o'rganishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Affiliasiya (aloqa, muloqot) - insonlar bir-biri bilan muloqot o'rnatishi natijasida har ikki tomonning ham o'zaro qoniqish hosil qilishi, muloqot jarayonini mazmunli tashkil etishga va unda faol ishtirok etishga undovchi psixologik ta'sirlar komponenti sifatida tushuniladi.

Mazkur motivlar yig'indisi faqat boshqa insonlar bilan o'zaro munosabat doirasida namoyon bo'ladi va amalga oshadi. [6]6 Muloqotga bo'lgan ehtiyoj insonning jamoatchilik va hamkorlikka intilish kabi fundamental sifatlari asosiga quriladi.

Demak, affiliativ motivatsiya majmuasi birlashish ehtiyoji, muloqotga va bilimlar doirasini kengaytirishga intilish, o'z-o'zini namoyon qilishga intilish, hamkorlik, sheriklik va munosabatlarga bo'lgan xohish kabi maqsadlar, ehtiyojlar hamda motivlar komponentlaridan iborat ekanligini tadqiqot natijalarimiz isbotladi.

Affiliasiyaga intiluvchi inson ko'plab vazifalarni bajarishi lozim. Avvalo, munosabatga kirishish ishtiyoqi mavjud bo'lishi, buning uchun esa sherigiga nisbatan jozibadorroq ko'rinishga intilishi zarur. Bundan tashqari, o'zini teng sherik sifatida namoyon eta olishi, ya'ni u nafaqat "affiliasiyaga intiluvchi", balki birgalikda munosabat o'rnatuvchi insonning ham muayyan ehtiyojlarini qondiruvchi affiliativ hamkor sifatida maydonga chiqishi lozim.

Rollarni taqsimlashdagi nomuvofiqlik yoki o'z ehtiyojlarini (masalan, yordam berish va yordam olishdagi erkinlik yoki bog'liqlik, ustunlik yoki kuchlilik hamda aksincha holatlar) amalga oshirish vositasi sifatida hamkorlikdan foydalanish affiliativ jarayonga jiddiy zarar yetkazishi, hatto uni izdan chiqarishi mumkin.

Affiliasiyaga doimiy intiluvchi inson o'zi va hamkorining emotsional holatlari uyg'unligiga erishishi, bu esa har ikkala tomon uchun yoqimli bo'lib, ularni hamkorlikdagi faoliyatga doimiy ravishda undashi hamda o'z qadrini his etish (o'zini-o'zi qadrlash) holatini ta'minlashi zarur. Ko'pincha talabalarda ushbu holatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Affiliativ motivatsiya darajasini aniqlashda shaxsiy tafovutlar va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni inobatga olish zarur. Aks holda, muvaffaqiyatsiz, ya'ni samara bermaydigan affiliasiya kuzatilishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu bois individ affiliativ motivatsiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishi affiliasiyaga - ya'ni qabul qilinishga intilish (QI) yoki rad etilishdan qo'rqish (RQ) holatlarida namoyon bo'ladi.[4]7

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, yuqorida keltirilgan tahlillar shuni isbotlaydiki, affiliasiya ijobiy emotsiyalar bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'luvchi insonlar o'rtasidagi muloqot asosida quriladi, degan xulosaga kelindi.

Keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

1. Affiliativ motivatsiyani rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda qulay sharoit yaratish, ya'ni erkin muloqot qilish imkonini ta'minlash;
2. Talabalarning birgalikda harakat qilishi va yagona maqsadni amalga oshirishi uchun o'quv faoliyati jarayonida ularni kichik guruhlarda ishlashini tashkil etish;
3. Birgalikda faoliyat yuritayotgan talabalarga o'zaro muloqotda moslasha olish, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish hamda xarakter xususiyatlarini inobatga olgan holda munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishni o'rgatish;
4. Guruhda tenglik tamoyilini ta'minlash va vazifalarni adolatli hamda teng taqsimlash.

Xulosa qilib aytganda, nazariy jihatdan o'rganilgan turli ilmiy tadqiqotlarda talabalarni murakkab topshiriqlarni bajarishga undovchi asosiy kuch muvaffaqiyatga erishish emas, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ekanligi ta'kidlanadi.

Affiliasiyaga ehtiyoji yuqori bo'lgan shaxslar ijtimoiy munosabatlarni oson o'zlashtirishi, odamlar bilan muloqotga moyil va ularga nisbatan sezgir bo'lishi aniqlangan.

Muloqot faqat insonga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqot qilish ehtiyoji yuzaga keladi. O'zaro muloqot esa tabiiy ravishda insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishining eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

6 Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология / Учебное пособие.- СПб.: Питер,2010.-432 с, б, 90
7 Хекхуазен Х. Мотивация и деятельности. Б 2-х т.- М.: Наука,1986.-Т.2.-569-580 с, б 290-291

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.:"Ўзбекистон"2017 йил, -489б.
2. Шапарь.В.Б. Новейший психологический словарь/ В.Б.Шапарь, В.Э.Россоха, О.В. Шапарь; под обш.ред. О.В. Шапаря. –Изд.3-е-Ростов н\Д.: Феникц, 2007.-806 с., б, 43
3. Шагалова Е.Ҳ. Словарь новейший иностранных слов (конец XX начало XXИ бб): боле 3000 слов и словосочетаний. – М.: АСТ: Астрельб 2010.-943 с.
4. Хекхуазен Х. Мотивация и деятельности. Б 2-х т.- М.: Наука,1986.-Т.2.-569-580 с, б 289-291
5. Немов Р.С. Психология / Учебник. Москва: Вышее образование, 2005, -639 с. б. 496-497
6. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология / Учебное пособие.- СПб.: Питер,2010.-432 с, б, 90-93
7. Хьюстон М. Ввидение в социалную психологию. Европейский подход /М. Хьюстон, В.Штрёбе; Пер. С анг. Под ред.проф. Т.Ю. Базарова; [пер.с.анг. Г.Ю. Любимова]. – М.: Юните-дана, 2004, -622 с, б 386-387
8. Кузнецова И.Б. Мотив аффилиация в межличностных отношениях: Дис. … канд.псих.наук. –СПб.: СПГУ. 2006.-200с

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GAMIFIKATSIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI

Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich
Andijon davlat universiteti
"Kompyuter injiniringi" kafedra mudiri, PhD, dotsent

Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi
Andijon davlat universiteti,
"Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti" 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning ahamiyati o'rganilgan. Ball tizimi, reytinglar, vazifalarni bajarish orqali mukofotlash va yutuqlar tizimi kabi gamifikatsiya vositalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim jarayonini interaktiv hamda individual shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari xorijiy tajribalar va O'zbekiston maktablarida o'tkazilgan empirik eksperimentlar asosida tahlil qilinib, gamifikatsiya elementlarini samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, gamifikatsiya, o'quv motivatsiyasi, ta'lim samaradorligi, interaktiv o'qitish, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article examines the role of gamification elements in enhancing learning effectiveness among primary school students. It highlights how incorporating game-based techniques into the educational process can increase student motivation, promote active participation, and improve learning outcomes. The paper also provides practical recommendations for applying gamification in interactive teaching in order to create a more engaging and effective learning environment.

Key words: primary education, gamification, student motivation, learning effectiveness, interactive teaching, pedagogical technologies.

Аннотация: В статье рассматривается роль элементов геймификации в повышении эффективности обучения у учащихся начальных классов. Подчеркивается, что интеграция игровых техник в образовательный процесс способствует повышению мотивации учащихся, активному участию и улучшению учебных результатов. В работе представлены практические рекомендации по применению геймификации в интерактивном обучении с целью создания более увлекательной, индивидуализированной и эффективной образовательной среды для младших школьников.

Ключевые слова: начальное образование, геймификация, мотивация учащихся, эффективность обучения, интерактивное обучение, педагогические технологии.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki faol ishtirok etishlari, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Boshlang'ich sinf davri bolaning intellektual va psixologik rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, ushbu yoshdagi o'quvchilarda ta'lim samaradorligini oshirish va o'quv motivatsiyasini kuchaytirish masalalari pedagogik tadqiqotlarning markazida turadi [1]. So'nggi yillarda ta'lim sohasida gamifikatsiya yondashuvi keng qo'llanilmoqda. Gamifikatsiya elementlari – ball tizimi, reytinglar, vazifalarni bajarish orqali mukofotlash, yutuqlar va badge'lar – o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil ishlashga rag'batlantirish va ularning ijodiy hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tan olinmoqda [2] [3].

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida gamifikatsiya elementlaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirishning nazariy asoslari, amaliy tajribalar va pedagogik samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasi, bilim olish jarayoni va interaktiv metodlardan foydalangan holdagi natijalar empirik jihatdan ko‘rsatib beriladi. Shu bilan birga, maqola ta’lim jarayonida gamifikatsiya elementlarini tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich ta’limda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Sebastian Deterding, Dixon, Khaled va Nacke (2011) gamifikatsiyani o‘yin dizayni elementlarini noo‘yin kontekstga qo‘llash sifatida izohlab, uning motivatsion mexanizmlarini ilmiy asoslab bergan. Ularning ta’kidlashicha, ball tizimi (points), darajalar (levels), reyting jadvali (leaderboard) va yutuqlar (badges) o‘quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini faollashtiradi [5].

Karl Kapp (2012) ta’lim jarayonida gamifikatsiya elementlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning faolligi va bilimni o‘zlashtirish darajasi oshishini empirik asosda ko‘rsatgan. U, ayniqsa, mukofot tizimi va progress indikatorlarining boshlang‘ich yoshdagi bolalarda o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir qilishini ta’kidlaydi [6].

Hamari, Koivisto va Sarsa (2014) tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra, gamifikatsiya elementlari qo‘llanilgan ta’lim muhitida o‘quvchilarning motivatsiyasi va ishtiroki sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, reyting va badge tizimi o‘quvchilarda raqobat va o‘zini namoyon qilish ehtiyojini kuchaytirishi aniqlangan [7].

Boshlang‘ich ta’lim kontekstida Bevan va Capraro (2021) “problem posing” (muammo qo‘yish) faoliyatini o‘yin elementlari bilan integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning matematik tushunchalarni chuqurroq anglash va ijodiy fikrlash ko‘rsatkichlari oshganini aniqlagan. Shuningdek, Ayllón va Gómez (2016) matematik muammolarni o‘yinli shaklda tuzish va yechish ijodiy tafakkurni rivojlantirishga bevosita ta’sir qilishini ilmiy asoslab bergan [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston sharoitida ham gamifikatsiya elementlarini qo‘llash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda ball tizimi, interaktiv viktorinalar, raqamli platformalar va rag‘batlantiruvchi reyting tizimlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi va ta’lim samaradorligini yaxshilashi qayd etilgan. Ilmiy yangilik sifatida gamifikatsiya elementlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda individual rag‘bat mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilmoqda [9]. Shunday qilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda quyidagi gamifikatsiya elementlari eng samarali hisoblanadi: Ball tizimi (Points system) Reyting jadvali (Leaderboard) Badge va yutuqlar tizimi (Badges & Achievements) Darajalar va bosqichlar (Levels & Progression) Muammo qo‘yish va o‘yinli topshiriqlar (Problem-based gamified tasks).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dars jarayonlarini gamifikatsiya elementlari orqali olib borish o‘quvchining mavzuni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash, ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalari va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkinligi ko‘plab tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. So‘nggi tadqiqotlarda (masalan, 2020-2025-yillar oralig‘ida) gamifikatsiya yondashuvlarining boshlang‘ich ta’limda tanqidiy fikrlash va motivatsiya mexanizmlariga ta’sirini o‘rganish uchun Systematic Literature Review (SLR) metodi qo‘llanilgan. Bu usul yordamida turli mamlakatlardagi (xususan, chet ellardagi) tadqiqotlar solishtiriladi va ularning umumiy tendensiyalari aniqlanadi – bu ilmiy yangiliklarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ba’zi tadqiqotlar gamifikatsiya elementlarini real ta’lim jarayoniga integratsiya qilib, ularning o‘quvchilarning motivatsiyasi, faolligi va o‘quv natijalariga qanday ta’sir qilishini o‘rganish uchun case study yondashuvini qo‘llaydi. Masalan, raqamli savodxonlikni rivojlantirishda gamifikatsiya asosidagi o‘yin mexanizmlari bilan ishlash metodikasi bolalarda qiziqish va ishtirok darajasini oshirganligi aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gamifikatsiyaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tajribasida qo‘llanilishi ko‘pincha eksperiment shaklida o‘tkaziladi: o‘quvchilarni tajriba va nazorat guruhlariga ajratish, ilg‘or gamifikatsiya elementlarini darsga tatbiq etish, so‘ngra ularning o‘qish motivatsiyasi va akademik natijalari bo‘yicha statistik tahlil olib borish metodlardan biridir. Bu metod o‘quvchilarning gamifikatsiya bilan ishlashdan oldingi va keyingi holatlarini aniq solishtirish imkonini beradi. Bu yondashuv haqida umumiy izoh SLR tahlillarida ham qayd etilgan.

Xorijiy tadqiqotlar sohasida Yayuk va boshq. (2020) tomonidan olib borilgan izlanishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan gamifikatsiya yondashuvi asosida o‘yin elementlari (badge’lar, darajalar, o‘yin ssenariysi) qo‘llanilib, bu yondashuv o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalari hamda muammolarni hal etish qobiliyatini sezi-

larli darajada oshirganligi aniqlangan. Tadqiqotda badge va reyting tizimi muammolarni hal etishda hamkorlikni rag'batlantirgani qayd etilgan.

Bundan tashqari, Pérez López va boshq. (2022) ishida maxsus gamifikatsiya platformasi 1-4-sinf o'quvchilari bilan sinovdan o'tkazilib, test va so'rovnomalar natijalari gamifikatsiya elementlari bilan ishlangan guruhda mavzuni o'zlashtirish ko'rsatkichlari 15-22% gacha yuqori bo'lganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, badge'lar va ball tizimi o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini yaxshilashga xizmat qilgani qayd etildi [8].

Shuningdek, Hamari va Koivisto (2021) tomonidan olib borilgan meta-tahlil gamifikatsiya elementlarining ta'lim samaradorligiga ta'sirini keng ko'lamda o'rganib, ball tizimi, progress indikatorlari va darajalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlashi, o'zaro hamkorligi va ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustahkam pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi [4].

O'zbekiston sharoitida ham aniq yillar ichida amalga oshirilgan izlanishlar gamifikatsiya yondashuvining samaradorligini tasdiqlaydi. 2024-yilda olib borilgan tajribada gamifikatsiya elementlari bilan tashkil etilgan darslar qiziqarli interaktiv struktura hamda badge va ball tizimlari orqali o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi va motivatsiyasi an'anaviy metodlar bilan solishtirganda ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Bu izlanishda o'quvchilarning faolligi va bilim natijalari yaxshilangani qayd etildi. Xorazm viloyatida 2023-yilda o'tkazilgan tadqiqotda gamifikatsiya elementlarini ingliz tili darslariga tatbiq etish orqali o'quvchilarning til ko'nikmalari, hamkorlikdagi faoliyati va o'z-o'zini baholash darajasida sezilarli o'sish kuzatilgan [10].

Shuningdek, 2025-yilda chop etilgan metodik izlanishlarda badge, reyting va interaktiv topshiriqlar elementlarini boshlang'ich sinf darslarida qo'llash orqali o'quvchilarning muammolarni hal etish ko'nikmalari va ijtimoiy hamkorlik darajasini oshirganligi qayd etildi. Umuman olganda, chet el va O'zbekiston miqyosidagi 2020-2025-yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish:

- mavzuni tez va chuqur o'zlashtirish samaradorligini oshiradi;
- o'z-o'zini baholash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- ijtimoiy hamkorlik va muammolarni hal etish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Bu ilmiy natijalar gamifikatsiya yondashuvini boshlang'ich sinf ta'limi samaradorligini oshirishning innovatsion va ishonchli pedagogik mexanizmi sifatida ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsiya elementlari (ball tizimi, badge'lar, darajalar va reytinglar) asosida darslarni tashkil etish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda mavzuni chuqur tushunish, mustaqil fikrlash va muammolarni innovatsion usullar bilan hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, o'quvchilar orasida ijtimoiy hamkorlik, o'zini o'zi baholash va motivatsiya darajasi oshadi. Yaqin yillardagi xorijiy va O'zbekiston tajribalari gamifikatsiya elementlarini qo'llash pedagogik natijalarni yaxshilash, darslarni qiziqarli va interaktiv qilish, shuningdek, o'quvchilarni faol va ijodiy ishtirok etishga rag'batlantirishda samarali ekanini tasdiqlaydi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda gamifikatsiyani tizimli ravishda joriy etish innovatsion pedagogik strategiya sifatida ahamiyatga ega. Umuman olganda, gamifikatsiya nafaqat akademik yutuqlarni oshiradi, balki o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiruvchi, ularni mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Kelajak avlodni har tomonlama yetuk, tafakkuri keng va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning, ayniqsa, o'quv darslari samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun o'qituvchilar dars jarayonlarini faqatgina an'anaviy usullarda emas, balki ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilishda, o'quvchilarning mavzuni tez va chuqur o'zlashtirishida, motivatsiya, o'zini o'zi baholash, faollik va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanib, o'quv materialini o'quvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga va yangicha yechim topishga undaydigan shaklda berishlari lozim. Faqat shundagina biz mustaqil fikrlaydigan, ilm-fan va texnologiya rivojiga moslashuvchan, ijodkor yoshlarni voyaga yetkaza olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayllón, M. F., Gómez, I. A., Ballesta-Claver, J. (2016). Mathematical thinking and creativity through mathematical problem posing and solving. Journal of Educational Psychology-Propósitos y Representaciones.
2. Bevan, R., Capraro, M. (2021). Posing Creative Problems: A Study of Elementary Students' Mathematics Understanding.
3. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining gamification.

4. Hamari, J., Koivisto, J., Sarsa, H. (2014). Does gamification work? A literature review of empirical studies on gamification.
5. Hamari, J., Koivisto, J. (2021). Gamification in education: Systematic review and meta-analysis.
6. Kapp, K. M. (2012). The gamification of learning and instruction: Game-based methods and strategies for training and education.
7. Pérez López, R., et al. (2022). Gamification platforms in primary education: Enhancing engagement and learning outcomes.
8. Yayuk, E., et al. (2020). Gamified learning in primary school: Effects on social skills and problem-solving abilities.
9. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi metodik izlanishlari (2024-2025). Gamifikatsiya elementlarini boshlang'ich sinflarda qo'llash tajribasi.
10. Xorazm viloyati pedagogik tadqiqoti (2023). Gamifikatsiya asosida ingliz tili darslarida o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalari va o'zini o'zi baholash ko'rsatkichlari.

TIKUV TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING AMALIY TOPSHIRIQLAR BAJARISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Texnologiya va geografiya kafedrasining dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: O'quvchilarga texnologiya fanidan mavzularni qiziqarli va sifatli o'qitishda zamonaviy tikuv texnologiyalari asosida amaliy topshiriqlarni bajarish tushuntirilgan. Qolaversa, o'quvchilarning texnologiya faniga bo'lgan qiziqishini intensiv oshirish, jismoniy layoqati, kreativ g'oyalari, ijodiy fikrlashi, buyumlarni tayyorlash tasavvuriga egaligi, mustaqil ish va amaliy topshiriqlarni yangi metodlar asosida bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: dars, ko'rgazma, amaliy topshiriq, mustaqil ta'lim, vosita, jihoz, texnika, ta'rif, tushuncha.

Abstract: The article explains the implementation of practical tasks based on modern sewing technologies in teaching Technology lessons in an engaging and high-quality manner. It also highlights the importance of developing students' sustained interest in the subject of Technology, their physical preparedness, creative ideas, creative thinking, understanding of product manufacturing processes, as well as skills of independent work and completing practical tasks based on new methodologies.

Key words: lesson, visual aid, practical task, independent learning, tool, equipment, technique, definition, concept.

Аннотация: В статье раскрывается выполнение практических заданий на основе современных технологий швейного производства при интересном и качественном обучении учащихся по предмету "Технология". Кроме того, освещается значение развития усточивого интереса учащихся к предмету "Технология", их физической подготовленности, креативных идей, творческого мышления, представлений о процессе изготовления изделий, а также навыков самостоятельной работы и выполнения практических заданий на основе новых методик.

Ключевые слова: урок, наглядность, практическое задание, самостоятельное обучение, средство, оборудование, техника, определение, понятие.

KIRISH

Mamlakatimizda o'quvchilarning amaliy ishlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishda turli metodikalardan foydalanish, pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni o'rganish, texnologiya fanini o'qitish bo'yicha qiziqarli o'quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish va ulardan dars jarayonida foydalanish, pedagogikaning zamonaviy talablari asosida o'quv adabiyotlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot ishlari texnologiya fani darslarida o'quvchilarning amaliy topshiriqlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishda yangi usullardan foydalanish metodikasini takomillashtirish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kun o'quvchilariga ta'lim berishda pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Bunga sabablarning biri dunyoning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimidagi yangiliklar hisoblanadi. O'rganilgan tajribalarga tayangan holda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga, fanlarni mustaqil o'rganib, tahlil qilishga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shaklla-

nishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi hamda ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy o'rin egallaydi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida malakali, yetuk kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va roli benihoyat katta. Pedagogik texnologiya hamda pedagoglar mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'qituvchilarning bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qitish tizimida ta'limning yozma va og'zaki usullariga tayanib ish ko'rilishi tufayli u "axborotli va amaliy o'qitish" sifatida tavsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligi ta'kidlanadi.

Bu vazifani to'liq bajarish maqsadida, eng avvalo, olimlar maktablarda va oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan texnologiya fani o'qituvchilari hamkorligida bir qator muammolarni hal etishi lozim. Jumladan, "Texnologiya" fanini o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida quyidagi shart-sharoitlarga katta e'tibor qaratish zarur. Bunda quyidagi muammolar kuzatiladi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv-moddiy-texnika bazasi ta'minlanganlik darajasini o'rganish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatini aniqlash va uning nazariy-amaliy asoslarini yaratish; Texnologiya fanini o'qitishda o'quv ustaxonasining mavjudligi yoki mavjud emasligi, ularning jihozlar bilan to'liq ta'minlanganlik darajasi hamda dars mashg'ulotlarida foydalanish holatini aniqlash; Texnologiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash uchun samarali yo'llarni tanlash va hokazo. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan sharoitlar barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'liq ta'minlanmagan, fan o'qituvchilarining zamonaviy tikuv texnologiyalari asosida amaliy topshiriqlarni bajarishni rivojlantirishga doir malakalari yetarli emas hamda ta'limning samarali metodlari amaliy dars mashg'ulotlarida yetarli darajada qo'llanilmayapti.


TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchi o'quvchilarga amaliy topshiriqlarni tushuntirish va mavzularni yetarlicha o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklardan biri shundaki, texnologiya fani darsligida berilgan mavzulardagi chizma-grafikalarning aniq o'lchamlari to'liq keltirilmagan, texnologik xaritalarda kamchiliklar mavjud, topshiriqlarni bajarish uchun yo'riqnomalar berilmagan. Bu holat muammoning dolzarbligini ifodalaydi. Mazkur muammolarning yechimini topish uchun mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, amaliy jihatdan ijobiy ishlarni yo'lga qo'yish muhimdir. Ushbu muammolarni bartaraf etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, darslarda ta'limning samarali metodlarini ishlab chiqish va qo'llash jarayonida quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tezroq shakllantirish uchun fan o'qituvchisi ta'limning eng maqbul usullarini ishlab chiqishi, chizma-grafikalarni chizish, andozalar tayyorlash va tushuntirish tajribasiga ega bo'lishi zarur;
- o'quv dasturida berilgan mavzularga muvofiq amaliy topshiriqlarga oid yangi ko'rgazmali qurollar tayyorlash;
- amaliy topshiriqlarga doir tarqatma materiallar ishlab chiqish;
- kompyuter dasturlaridan unumli foydalanib, tikuv texnologiyalarini zamonaviy tikuv mashinalari yoki video darslar yordamida amaliy topshiriqlarni bajarish usullarini ishlab chiqish;
- amaliy topshiriqlarni yangi texnologiyalar asosida maqbul tizimda qo'llash orqali o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash.

Natijada ularning ijodiy qobiliyatlari, qiziqishlari va layoqatlari rivojlanadi. Shuningdek, kompyuter vositalari, slaydlar va elektron doskalardan samarali foydalanilganda o'quvchilarning bilimini oshirish uchun sifatli darslar tashkil etiladi. Masalan, texnologiya fanining 9-sinf darsligining servis yo'nalishida berilgan "Yubkani bichish va kashtalar bilan bezatib tikish" mavzusi bo'yicha quyidagi ta'lim usullarini ishlab chiqish zarur:

1. Amaliy topshiriqlar mavzulardan tanlab olinadi.
2. Pedagogik texnologiyalarning yangi metodlari ishlab chiqiladi.
3. Ko'rgazma va tarqatma materiallar tayyorlanadi.
4. Amaliy topshiriqlarning turlari dars jarayonida qo'llaniladi.



1-rasm: **Namunali ko'rgazmalardan ta'lim jarayonida foydalanish**

Bunda qo'lda yoki zamonaviy tikuvchilik mashinalari hamda moslamalardan unumli foydalanib, amaliy topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar mavzularda berilgan chizma-grafikalar asosidagi amaliy topshiriqlarni dars jarayonida to'g'ri chizishning oson usullarini o'rganish barobarida, uyga berilgan vazifalarni mustaqil ravishda chizib, bichish-tikish ishlarini zamonaviy tikish texnologiyalari orqali bajarishni o'rganadilar. Shuningdek, sinfdan tashqari tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlarida berilgan topshiriqlarning yaqqol tasvirlarini chizishni, tasvirlangan ko'rinishlarni qiyinchiliksiz chizishni, chizma-grafikalarni o'qishni, andozalar tayyorlashni, yangi buyumlarni tasavvur etishni hamda ularni xotirada uzoq muddat saqlab qolishni o'zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Imanov B.B., Qulmamatova X.A. Texnologiya fani dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarida amaliy topshiriqlar bajarishni texnik kreativ rivojlantirish.
2. Pedagogik akmeologiya. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. https://paresearjournal.uz Toshkent, 2025-yil.
3. Иманов Б.Б. Урок как фактор повышения качества образования // SCIENCE AND WORLD. International scientific journal. №7 (83), 2020.
4. Imanov, B. B. (2021). Student Creativity in Performing Problem-Solving Experiments in Physics Development Through Innovative Technologies. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 521-525.
5. Imanov, B. (2023). Negative Factors Affecting the Quality of Education and Ways to Eliminate Them. Science and Innovation, 2(B3), 355-358.
6. Qulmamatova X.A. O'quvchilar tikuvchilik operatsiyalarini bajarishida amaliy topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274. – Toshkent, 2023. 6-son, B. 529-531.

7. Kh. Qulmamatova. To Develop Students' Skills in Completing Graphic Assignments in Technology Classes. European Multidisciplinary Journal of Modern Science. Impact Factor: 7.4, 04.06.2022, 31-34.
8. Kulmamatova Kh. Performing Practical Tasks in Technology and Assessing the Quality of the Lesson // Society and Innovations in Science. Vol. 4. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss-pp3-2023. 2-number.
9. Kulmamatova, K. (2024). The Role of Independent Education in Developing Students' Performance of Practical Tasks. Collection of scientific papers "SCIENTIA" (August 2, 2024; Chicago, USA), 64-65.
10. Kulmamatova, K. (2024). Improving Students' Performance of Practical Tasks Using Interactive Methods in Technology Lessons. Теоретические аспекты становления педагогических наук, 3(14), 122-125.
11. Кулмаматова, Х. (2023). Выполнение практических заданий по предмету "Технология" и оценка качества занятия. Общество и инновации, 4(2), 187-193.
12. Қулмаматова, Х. А. (2021). Технология дарсларида схемалардан фойдаланишнинг форма ва методлари. Academic Research in Educational Sciences, 2(5), 976-982.
13. Qulmamatova X.A. O'quvchilar texnologiya fanini o'qitishda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun topshiriq tanlash // Globallashuv jarayonida innovatsion ta'lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Termiz, 2023.

BO'LAJAK MUHANDISLARNING XORIJIY TIL BILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INDIVIDUAL VA DIFFERENSIAL YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI

Qurbonova Nafisa Saidjonovna
Buxoro davlat texnika universiteti
O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak muhandislarning xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlarning integratsiyalashgan qo'llanilishi masalasi o'rganilgan. Tadqiqotning maqsadi muhandislik ta'limida talabalarning individual xususiyatlari va guruh differensiatsiyasini birgalikda hisobga oluvchi pedagogik yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv har bir talabaning kognitiv qobiliyatlari, psixologik xususiyatlari va o'rganish uslubiga e'tibor beradi, differensial yondashuv esa talabalarni muayyan mezonlar asosida guruhlarga ajratish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Ikki yondashuvning uyg'unligi texnik xorijiy tilni o'qitishda yanada moslashuvchan va samarali pedagogik jarayonni ta'minlaydi. Maqolada zamonaviy metodologik asoslar, psixologik-pedagogik tamoyillar va amaliy tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, differensial ta'lim, xorijiy til, muhandislik ta'limi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kognitiv uslublar.

Abstract: The article examines the integrated use of individual and differential approaches in the development of foreign language skills of future engineers. The purpose of the study is to develop a pedagogical approach that takes into account students' individual characteristics and group differentiation in engineering education. Theoretical analysis has shown that the individual approach focuses on the cognitive abilities, psychological characteristics, and learning style of each student, while the differential approach increases the effectiveness of education by dividing students into groups based on specific criteria. The combination of the two approaches ensures a more flexible and effective pedagogical process in teaching a technical foreign language. The article analyzes modern methodological foundations, psychological and pedagogical principles, and mechanisms for practical implementation.

Key words: individual approach, differentiated education, foreign language, engineering education, person-centered education, cognitive styles.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос комплексного использования, индивидуального и дифференцированного подходов в развитии языковых навыков будущих инженеров. Цель исследования – разработка педагогического подхода, учитывающего индивидуальные особенности учащихся и групповую дифференциацию в инженерном образовании. Теоретический анализ показал, что индивидуальный подход учитывает познавательные способности, психологические характеристики и стиль обучения каждого учащегося, в то время как дифференцированный подход повышает эффективность обучения за счёт разделения учащихся на группы на основе определённых критериев. Сочетание двух подходов обеспечивает более гибкий и эффективный педагогический процесс обучения техническому иностранному языку. В статье анализируются современные методологические основы, психолого-педагогические принципы и механизмы практической реализации.

Ключевые слова: индивидуальный подход, дифференцированное образование, иностранный язык, инженерное образование, личностно-ориентированное образование, когнитивные методы.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida muhandislik kadrlarining xorijiy til kompetensiyasi professional faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Xalqaro loyihalarda ishtirok etish, texnik hujjatlar bilan ishlash, xorijiy hamkorlar bilan muloqot qilish bugungi kunda har bir malakali muhandisdan talab qilinadi (Polyakov, 2020). Shu bilan birga, texnik oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til o'qitish jarayonida talabalarning turli darajadagi tayyorgarlik, qobiliyat va motivatsiyaga ega ekanligi muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Pedagogik adabiyotlarda individual yondashuv tamoyillari keng yoritilgan bo‘lsa-da (Унт, 2005; Якиманская, 2000), differensial ta’lim konsepsiyasi ham mustaqil yo‘nalish sifatida rivojlangan (Осмоловская, 2005). Biroq, bu ikki yondashuvning uyg‘un integratsiyasi, ayniqsa texnik xorijiy tilni o‘qitish kontekstida, yetarli darajada tadqiq etilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Individual yondashuv pedagogikada uzoq tarixga ega bo‘lib, Ya.A. Komenskiy, J.J. Russo, I.G. Pestalotsi kabi klassik pedagoglar asarlarida o‘z ifodasini topgan. Zamonaviy talqinda individual yondashuv talabaning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish sifatida tushuniladi (Унт, 2005).

I.S. Yakimanskaya (2000) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasida har bir o‘quvchining sub’ektiv tajribasini e’tirof etish va rivojlantirishni asosiy tamoyil sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv talabaning o‘rganish uslubi, motivatsiya turi, kognitiv strategiyalarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Xorijiy til didaktikasida individual yondashuv H.D. Brown (2007), J. Richards (2015) tadqiqotlarida keng yoritilgan. Brown shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni til o‘rganishning tabiati, qobiliyati va sharoitlaridagi farqlarni e’tirof etuvchi paradigma sifatida belgilaydi.

Differensial ta’lim g‘oyasi pedagogika tarixida J. Dewey, E. Claparède ishlarida paydo bo‘lgan. Zamonaviy talqinda differensial yondashuv talabalarni muayyan mezonlar (qobiliyat, qiziqish, tayyorgarlik darajasi) bo‘yicha guruhlarga ajratish va har bir guruh uchun moslashtirilgan ta’lim strategiyasini qo‘llashni nazarda tutadi (Осмоловская, 2005).

I.M. Osmolovskaya (2005) differensial ta’limning uch asosiy turini ajratadi: ichki (bir sinf ichida), tashqi (maxsus sinflar) va profilga yo‘naltirilgan.

Muhandislik ta’limida ko‘proq ichki differensiatsiya qo‘llaniladi. Xorijiy tajribada “differentiated instruction” (farqlangan ta’lim) C. Tomlinson (2001) ishlarida tizimli ishlab chiqilgan. Tomlinson mazmun, jarayon va natijani farqlash tamoyillarini taklif etadi, bu texnik xorijiy tilni o‘qitishda qo‘llash uchun muhim ahamiyatga ega. Muhandislik yo‘nalishlari uchun xorijiy tilni o‘qitish ESP (English for Specific Purposes) yoki LSP (Language for Specific Purposes) doirasida ko‘rib chiqiladi (Dudley-Evans & St. John, 1998). Bu yondashuv til o‘rganishni professional kontekst va ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘laydi.

T. Hutchinson va A. Waters (1987) ESPni ehtiyojlarga asoslangan yondashuv sifatida tavsiflab, talabalarning target needs (professional faoliyatda qanday til zarur) va learning needs (o‘rganish jarayonidagi ehtiyojlar) o‘rtasidagi muvozanatni ta’kidlaydi. Postsovet tadqiqotchilar (Поляков, 2020; Образцов, 2005) texnik xorijiy tilni o‘qitishda professional-kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Bu kompetensiya til bilimi, kasbiy bilim va kommunikativ ko‘nikmalar sintezini talab qiladi. Pedagogik adabiyotlarda individual va differensial yondashuvlar ko‘pincha alohida ko‘rib chiqiladi, ammo ularning o‘zaro bog‘liqligi va to‘ldiruvchanligi ham aks ettirilgan (Селевко, 2005). G.K. Selevko shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar tizimida differensiatsiyani individuallashtirish vositalaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlar (Hutmacher, 2019; Tomlinson, 2017) moslashuvchan ta’lim (adaptive learning) konsepsiyasini taklif etadi, bunda differensial guruhlar ichida individual yondashuv qo‘llaniladi. Bu ikki darajali tizim: makrodarajada – differensiatsiya, mikrodarajada – individuallashtirish. Xorijiy til didaktikasida bu integratsiya CLIL (Content and Language Integrated Learning) va blended learning yondashuvlarida namoyon bo‘ladi (Coyle et al., 2010). Texnik universitetlarda bu yondashuvlar professional mazmun va tilni o‘qitishni birlashtirish imkonini beradi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, individual va differensial yondashuvlar alohida-alohida keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularning muhandislik ta’limida xorijiy tilni o‘qitish kontekstidagi uyg‘unligini ta’minlovchi yaxlit metodologik tizim yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi sharoitida bu masala chuqur o‘rganishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu nazariy tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanilgan:

1. **Nazariy tahlil:** Pedagogika, psixologiya va lingvodidaktika bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, 2000-2024-yillar oralig‘ida nashr etilgan 50 dan ortiq ilmiy manbalar o‘rganildi.
2. **Qiyosiy tahlil:** Individual va differensial yondashuvlarning nazariy asoslari, tamoyillari va tatbiq etish mexanizmlarini qiyosiy baholash.
3. **Modellashtirish:** Ikki yondashuvning integratsiyalashgan qo‘llanilishi modelini nazariy jihatdan ishlab chiqish.

4. **Umumlashtirish:** Xorijiy va mahalliy pedagogik tajribalarni umumlashtirish hamda ularni muhandislik ta'limi kontekstiga moslashtirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qiyosiy tahlil quyidagi asosiy farqlarni aniqladi: individual yondashuv har bir talabaning noyob xususiyatlariga yo'naltirilgan bo'lib, u quyidagi aspektlarni qamrab oladi: kognitiv uslublar (vizual, audial, kinestetik), o'rganish sur'ati va chuqurligi, motivatsiya turlari (ichki, tashqi, integratsiyalashgan), shaxsning psixologik tipi (introvert, ekstrovert) hamda oldindan mavjud til tajribasi. Differensial yondashuv talabalarni guruhlarga ajratish va har bir guruh uchun maxsus strategiya ishlab chiqishni nazarda tutadi: til tayyorgarlik darajasi bo'yicha (A1–C1), professional yo'nalish bo'yicha (mexanika, qurilish, IT), o'rganish maqsadlari bo'yicha (akademik, professional) va o'zlashtirish qobiliyati bo'yicha (yuqori, o'rta, past). Asosiy farq shundaki, individual yondashuv talabalar soniga teng ta'lim variantlarini talab qiladi (nazariy jihatdan), differensial yondashuv esa cheklangan sonli guruhlar uchun strategiyalarni ishlab chiqadi, bu amaliy jihatdan maqsadga muvofiqroqdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali integratsiyalashgan model quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- ierarxiklik tamoyili – birinchi bosqichda differensiatsiya (guruhlarni shakllantirish), ikkinchi bosqichda individuallashtirish (guruh ichida), bu ikki darajali tizim resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi;
- moslashuvchanlik tamoyili – guruhlar statik emas, dinamik bo'lishi kerak, talabaning rivojlanishiga qarab u bir guruhdan ikkinchisiga o'tishi mumkin, shu bilan birga har bir talabaning individual traektoriyasi doimiy monitoring qilinadi;
- kontekstuallik tamoyili – muhandislik ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan professional terminologiya, texnik matnlar bilan ishlash va kasbiy kommunikatsiya vaziyatlari hisobga olinadi;
- texnologiklik tamoyili – zamonaviy raqamli vositalar (LMS, adaptive platforms, AI-powered tools) individual va guruh ishini qo'llab-quvvatlashi kerak;
- diagnostiklik tamoyili – doimiy monitoring va baholash tizimi talabalarning progress dinamikasini kuzatish va o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan yondashuvning samarasini baholash uchun o'rganish natijalari, motivatsion ko'rsatkichlar, psixologik qulaylik va pedagogik samaradorlik singari mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiq. Lekin bu jarayonda bir qator qiyinchiliklar va yechimlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- katta guruhlar (30+ talaba) – kichik guruhlar ichida differensiatsiya, raqamli vositalardan foydalanish hamda talabalarni o'zaro o'qitish (peer instruction) orqali bartaraf etiladi;
- o'qituvchilarning malaka yetishmovchiligi – tizimli kadrlar tayyorlash, metodologik qo'llanmalar va mentor–mentee dasturlari orqali hal qilinadi;
- resurslar cheklanganligi – bepul raqamli resurslardan foydalanish, ochiq ta'lim resurslari (OER) hamda talabalar tomonidan yaratilgan materiallarni jalb etish orqali kamaytiriladi;
- baholash murakkabligi – rubrika asosidagi kriteriylar, portfolio baholash hamda formativ va summativ baholash kombinatsiyasi orqali optimallashtiriladi.

Integratsiyalashgan yondashuvning to'g'ri tatbiq etilishi natijasida akademik yutuqlar oshadi, ya'ni barcha talabalar o'zlarining individual imkoniyatlari chegarasida maksimal rivojlanadi, professional tayyorgarlik mustahkamlanadi, muhandislar xalqaro standartlarga mos til kompetensiyasiga ega bo'ladi, shaxsiy rivojlanish ta'minlanadi, talabalar o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini egallaydi hamda kasbiy moslashuvchanlik shakllanadi, ya'ni ular xilma-xil professional vaziyatlarda samarali kommunikatsiya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Tadqiqot bo'lajak muhandislarning xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlarning integratsiyalashgan qo'llanilishi zarurligini asoslab berdi.

Nazariy tahlil va metodologik sintez asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- individual va differensial yondashuvlar bir-birini istisno qiluvchi emas, balki to'ldiruvchi pedagogik tamoyillardir, individual yondashuv har bir talabaning noyobligini e'tirof etsa, differensial yondashuv ushbu xilma-xillikni boshqarish uchun amaliy mexanizmlarni taqdim etadi;
- muhandislik ta'limida xorijiy til o'qitish professional kontekstning o'ziga xos talablari tufayli maxsus yondashuvni talab etadi, ESP/LSP doirasida individual va differensial tamoyillarni qo'llash professional-kommunikativ kompetensiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi;

- integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi ikki darajali tizimga asoslanadi, ya'ni makrodarajada talabalar diagnostika asosida differensial guruhlarga ajratiladi, mikrodarajada esa har bir guruh ichida individual traektoriyalar loyihalashtiriladi;
- zamonaviy raqamli texnologiyalar va adaptive platforms integratsiyalashgan yondashuvni amaliy jihatdan amalga oshirish uchun zarur instrumental bazani taqdim etadi, chunki ular bir vaqtning o'zida ham differensiatsiya, ham individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- ushbu yondashuvning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi sistemali yondashuvni talab etadi, ya'ni diagnostika tizimi, moslashuvchan guruhlarni shakllantirish, individual traektoriyalarni loyihalash, turli pedagogik texnologiyalarni qo'llash va doimiy monitoringni o'z ichiga oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlarning uyg'unligi zamonaviy ta'limning sifati va samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bu integratsiya har bir talabaning potensialini maksimal darajada ro'yobga chiqarish, shu bilan birga ta'lim jarayonini amaliy jihatdan boshqarish mumkin bo'lgan darajada saqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
3. Dudley-Evans, T., & St. John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes. Cambridge University Press.
4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge University Press.
5. Hutmacher, W. (2019). Differentiated instruction in higher education. International Journal of Educational Research, 94, 125-138.
6. Richards, J. C. (2015). Key Issues in Language Teaching. Cambridge University Press.
7. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. ASCD.
8. Tomlinson, C. A. (2017). How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. ASCD.
9. Образцов, П. И. (2005). Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку на неязыковых факультетах вузов. Орёл: ОГУ.
10. Осмоловская, И. М. (2005). Организация дифференцированного обучения в современной общеобразовательной школе. Москва: Институт практической психологии.
11. Поляков, О. Г. (2020). Профессионально-ориентированное обучение английскому языку в высшей школе: современное состояние и перспективы. Иностранные языки в школе, 6, 2-9.
12. Селевко, Г. К. (2005). Энциклопедия образовательных технологий (Том 1). Москва: НИИ школьных технологий.
13. Унт, И. Э. (2005). Индивидуализация и дифференциация обучения. Москва: Педагогика.
14. Якиманская, И. С. (2000). Технология личностно-ориентированного образования. Москва: Сентябрь.

TÁRBIYA PÁNIN OQÍTÍW ARQALÍ OQÍWSHÍLARDÍŃ KREATIV QÁBILETIN RAWAJLANDÍRÍW

Reymova Gulaim
NMPI "Pedagogika" qánigeligi 2-kurs magistrantı

Annotatsiya: Bul maqolada Tárbiya pánin oqıtıw jarayanında oqıwshılardıń kreativ qábiletin rawajlandırıwdıń pedagogikalıq negizleri hám ámeliy usılları talqılanadı. Dáris barısında interaktiv yondasıw, muammalı jaǵdaylar, joba negizindegi oqıtıw, pikir almasıw, roldıq oyınlar hám refleksiv talqılaw usılların qollanıw oqıwshılardıń erkin pikirlew, ijodiy tafakkurı hám ijtimoiy faollıǵın arttırıwǵa xızmet etetuǵını ilmi negizdelgen. Sonıń menen birge, kreativlikti qáliplestiriwde shaxsqa baǵdarlangan tálim, hamkorlıqta oqıtıw hám zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardıń áhmiyeti ashıp beriledi. Izertlew nátiyjeleri Tárbiya pánin oqıtıwda innovaciyalıq metodlardı tizimli qollanıw oqıwshılardıń kreativ salohiyatın rawajlandırıwdıń áhmiyetli faktorı ekenin kórsetedi.

Kalit sózler: Tárbiya páni, kreativ qábilet, ijodiy tafakkur, pedagogikalıq texnologiyalar, interaktiv usıllar, shaxsqa baǵdarlangan tálim, innovaciyalıq yondasıw.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations and effective methods for developing students' creative abilities through the teaching of the Tarbiya subject. The study substantiates the importance of interactive approaches, problem-based learning, project-based instruction, debates, role-playing activities, and reflective analysis in fostering independent thinking, creative potential, and social engagement among students. Particular attention is given to learner-centered education, collaborative learning, and the integration of modern pedagogical technologies. The findings indicate that the systematic implementation of innovative teaching methods significantly enhances students' creative competence.

Key words: Tarbiya subject, creative abilities, creative thinking, pedagogical technologies, interactive methods, learner-centered education, innovative approach.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы и эффективные методы развития креативных способностей учащихся в процессе преподавания предмета "Тарбия". Обосновывается значимость использования интерактивных подходов, проблемных ситуаций, проектного обучения, дискуссий, ролевых игр и рефлексивного анализа для формирования самостоятельного мышления, творческого потенциала и социальной активности обучающихся. Особое внимание уделяется личностно-ориентированному обучению, сотрудничеству и применению современных педагогических технологий. Результаты исследования подтверждают, что системное внедрение инновационных методов в учебный процесс способствует эффективному развитию креативности учащихся.

Ключевые слова: предмет "Тарбия", креативные способности, творческое мышление, педагогические технологии, интерактивные методы, личностно-ориентированное обучение, инновационный подход.

KIRIS

"Kreativ qábilet" – bul shaxstıń dóretiwshilik pikirlew, jańa ideyalar jaratıw hám mashqalalarga innovaciyalıq sheshimler tabıw qábileti. Ol tómendegilerdi óz ishine alıwı múmkin:

- dóretiwshilik pikirlew – jańa hám siyrek ushırasatuǵın ideyalardı islep shıǵıw;
- mashqalanı sheshiw – túrli qıyınshılıqlarǵa jańasha qatnas jasaw;
- beyimlesiwsheńlik – jańa sharayatlarga tez beyimlesiw hám ózgeriske ashıq bolıw;
- riskke shıdaw – jańa nárselerdi sınap kóriwge júrek etiw;
- kreativ birge islesiw – komandada dóretiwshilik jumıs alıp barıw.

Shaxsta kreativlik sıpatların rawajlandırıw procesiniń ulıwma mánisin tolıq túsiniw ushın dáslep "kreativlik" túsinigíniń mánisin túsinip alıw talap etiledi.

MAVZUǴA TIYISLI ÁDEBIYATLAR SHARHI

Sırt ellerde barlıq tarawlardıń qánigeleri sıyaqlı muǵallimler de ózlerinde kreativlik sıpatları bar ekenligi hám onıń mazmunın anıqlawǵa umtıladı. Kreativlik (lat., ingl. "create" – jaratıw, "creative" – jaratıwshı, dóretiwshi) – individtiń jańa ideyalardı islep shıǵarıwǵa tayarlıǵın xarakterlewshi hám ǵárezsiz faktor sıpatında talantlılıqtıń quramına kiriwshi dóretiwshilik qábileti dárejesin anıqlawshı túsinik. Bunıń ushın olar E.P.Torrens tárepinen 1987-jılı tiykarlanǵan hám shaxstıń kreativ pikirlewge iye ekenligin anıqlawǵa baǵdarlangan testten ótedi. Bul test shaxstıń kreativligi hám onıń dárejesin dóretiwshilik jumıstı shólkemlestiriwdegi belsendilik, tez pikirlew, ózine tánlik (original'lıq) hám jetiliskenlik sıyaqlı ólshemler boyınsha bahalaw imkaniyatın jaratadı. Oqıwshı tárepinen usınıs etilgen sorawlarǵa beriletuǵın juwaplar mine usı tórt kriteriyge sáykes keliwi kerek.

E.P.Torrens pikirinshe, "kreativlik" túsinigi tiykarında tómendegiler sáwlelenedi: kreativ pikirlew hár bir sociallıq tarawda anıq sáwleleniwi múmkin; oqıtıwshınıń dóretiwshiligi bolsa, ol tárepinen shólkemlestirilgen kásiplik jumıstı shólkemlestiriwde dóretiwshilik (kreativ) qatnasta sáwlelenedi. Sońǵı jıllarda bul jaǵday "pedagogikalıq kreativlik" túsinigi menen baylanıslı túrde ańlatılmaqta. Drapeau Patti "Oqıwshılar dóretiwshiligin oyatıw (innovaciyalıq pikirlewdi rawajlandırıwdıń ámeliy jolları)" eńbeginde tómendegilerdi atap ótedi: mashqalaǵa yamasa ilimiy boljawlardı alǵa qoyıw; boljawdı tekseriw hám ózgertiw; qarar nátiyjelerin qáliplestiriw tiykarında mashqalanı anıqlaw; mashqala sheshimin tabıwda bilim hám ámeliy háreketlerdi paydalanıw.

Dóretiwshilik – belgili bir jańalıqtıń áhmiyeti hám paydalı ekenligin belgilewshi shaxs iskerligi hám onıń nátiyjesi. Dóretiwshi shaxs – dóretiwshilik procesin tabıslı ámelge asırıwshı hám anıq dóretiwshilik nátiyjelerge (ónimlerge) iye shaxs. Kreativ shaxs – process yamasa nátiyje sıpatında dóretiwshilikti kórsete alatuǵın, máselelerdi sheshiwge standart emes usıllar menen qatnasa alatuǵın, ózine tán háreketlerdi shólkemlestiretuǵın, jańalıqlardı alǵa súriwge hám dóretiwshilik ónimlerdi jaratıwǵa uqıplı hám tayar shaxs. Dóretiwshi shaxs – hám process, hám nátiyje sıpatında ob'ektiv dóretiwshilikti ámelge asıratuǵın hám talaplar dárejesinde dóretiwshilik ónimlerin jarata alatuǵın shaxs. Kreativ shaxstı tayarlaw – dóretiwshilikke úyretiw hám ózin-ózi dóretiwshilik kórsetiw procesinde shaxsta turaqlı dóretiwshilik sıpatlardı qáliplestiriw hám rawajlandırıw mazmunı. Dóretiwshilik – sociallıq subyekttiń jańalıǵı, áhmiyeti hám paydalılıǵı jámiyet yamasa belgili bir topar tárepinen tán alınǵan iskerlik yamasa iskerlik nátiyjesi. Dóretiwshi shaxs – kásiplik-dóretiwshilik iskerlik tájiriybelerin sheshiw, tabıw hám bayıtıw tiykarında dóretiwshilik ideyalar, olardı ámelge asırıw kónlikpeleri hám tájiriybelerine iye shaxstı qáliplestiriw hám rawajlandırıw subyekti.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dunyanıń túrli mámleketlerinde kreativ túsinikler insaniyat mádeniyatınıń rawajlanıwına, tábiyiy, filosofiya, kórkem óner hám gumanitar pánlerdiń rawajlanıwına tiykar boladı. Kreativ pikirlew ápiwayi tosınnan pikirlewden parıq qıladı. Kreativ pikirlew bilim hám tájriybege tiykarlanǵan haqıyqıy kompetenciya bolıp, insanlardıń keskin hám quramalı jaǵdaylarda kútilgen nátiyjege erisiwine imkaniyat jaratadı. Tálimniń waziypası oqıwshılardıń keleshekte jeńiske erisiwi ushın zárúrli kompetenciyalar menen támiynlewden ibarat. Bular sebepli olar globallasıw barısında tez ózgerip baratırǵan, sawatqanlıq hám sanlı texnologiyalar rawajlanǵan, házirgi zaman talablarına iye beyimlesiwshi jumısshılardı dúnyaga maslasıwına járdem beredi. Kreativ pikirlewdi oqıwshılardıń iyelewi nátiyjesinde olarda aktual mashqalalardı sheshiw ushın jańa texnologiyalardan paydalanıp, ele jaratılmaǵan sektorlarda islew, sol menen birge texnika orınlay almaytuǵın jumıslardı orınlaw hám global mashqalalardı sheshiw qábileti rawajlanadı. Mekteplerde de oqıwshılardıń kreativ pikirlewge bolǵan mútájligi mektep bazarı talabınan kelip shıqqan halda artpaqta. Mekteplerdiń jámiyet turmısındaǵı áhmiyeti sonnan ibarat: oqıwshılardı jámiyettiń bir bólegi ekenin sezingen halda, jámiyettiń rawajlanıwı ushın óz úlesin qosıwı hám onıń aldındaǵı minnetlerin orınlaw sıyaqlı sezimlerdi olarda kúshiytiw.

Kreativlik – bul insan shaxsınıń faktorı esaplanadı. Ol jetiskenlikke erisiwdi pútkilley kepillemeydi. Insan shaxsınıń ózgeshelikleri hám onıń tárbiyası, hátte eń úlken dóretiwshilik potencialdı júzege shıǵarıw ushın da jeńilmes tosıq bolıwı múmkin. Mine sonıń ushın da dóretiwshilik qábiletlerdi ilaji bolǵansha erte anıqlaw hám olardı rawajlandırıw áhmiyetli sanaladı. Respublikamızda sońǵı jıllarda kreativ pikirleytuǵın, zamanǵa say kadrlar tayarlaw, jaslardı watandı qorǵaytuǵınday hám joqarı mánáwyatlı etip tárbiyalaw zaman talabına aylanǵan. Sebebi házirgi jas áwlad texnologiyalar rawajlanǵan dáwir jasları. Sol nársege tiykarlana otırıp, mekteplerde hár bir sabaq, ulıwma alǵanda, tálim-tárbiya procesi tikkeliy balalarda kreativ kompetentlikti rawajlandırıwǵa arnalǵanı haqıyqat. Jas áwladtı erteńgi kúngi xalıq mápine ayanbay xızmet etetuǵın sap deneli azamat etip tárbiyalap shıǵarıw búgingi kúnniń úlken waziypasına aylanǵan. Demek, tárbiya sabaqlarında hár tárepleme watanǵa sadıq, onıń rawajlanıwına úles qosatuǵınday, óz aldına qoyǵan maqsetlerine erise alatuǵın, juwapkershilikti sezine alatuǵın, háreketsheńligin hám shaqqanlıǵın kórsete alatuǵın kreativ pikirlewshi jaslardı tárbiyalawdan ibarat.

TAHLIL HÁM NÁTIYJELER

Kreativ pikirlewde bilimlendiriwdiń ornı qanday? Bilimlendiriwdiń tiykarǵı roli oqıwshılardı jámiyette tabısqa erisiwi ushın zárúr bolǵan kompetenciyalar menen támiynlewden ibarat. Kreativ pikirlew búgingi jaslardıń rawajlanıwı ushın kerekli kompetenciya esaplanadı. Bul olarǵa globallasıw sharayatında jedellik penen ózgerip atırǵan, sawatqanlıq hám sanlı texnologiyalar rawajlanǵan XXI ásir kónlikpelerine iye beyimlesiwsheń jumıshılardı talap etetuǵın dúnyaga beyimlesiwge járdem beredi. Kreativ pikirlewge úyretiw búgingi kún oqıwshıları hám jaslarına áhmiyetli mashqalalardı sheshiw ushın jańa texnologiyalardan paydalanǵan halda, ele tolıq jaratılıp úlgermegen sektorlarda yamasa waziypalarda islew, sonıń menen birge mashinalar isley almaytuǵın jumıslardı ańsatlıq penen ámelge asıra alıw hám quramalı jergilikli hám global mashqalalardıń sheshimin tabıw qábiletlerin rawajlandırıw imkaniyatın beredi. Ne ushın oqıwshılarda kreativ pikirlewdi rawajlandırıw áhmiyetli esaplanadı? Kreativ pikirlew oqıwshılardıń tájriybelerin, háreketlerin, waqıyalardı jańa hám jeke mazmunlı talıqlay alatuǵının qollap-quwatlaw arqalı olardıń ilimiy qızıǵıwshılıǵı hám jetiskenliklerine, óz-ózin ańlawı hám social-emocional rawajlanıwına unamlı tásir kórsetiwi múmkin. Klastan tısqarı da kreativ pikirlew oqıwshılarǵa hár dayım tez ózgeriwsheń dúnyaga maslasıwǵa járdem beredi. Oqıwshılardıń kreativ pikirlewin qollap-quwatlaw olarǵa ózleri jasap atırǵan jámiyettiń búgingi hám keleshektegi jumısshıları sıpatında rawajlanıwǵa úles qosıwǵa járdem beredi: dúnyadaǵı hár túrli shólkemler hám jámiyetler júzege kelip atırǵan quramalı mashqalalardı sheshiw ushın innovaciyalar hám bilimlerdi jaratıwǵa barǵan sayın kóbrek tayanıp, jámátlik birlespe sıpatında innovaciyalar hám kreativ pikirlewge áhmiyet berip atır.

Kreativliktiń jasqa baylanıslılığı haqqında úsh túrli kózqaras bar:

1. Jas ótiwi menen kreativlik úzliksiz rawajlanıp, ósip baradı. Ótkerilgen izertlewler sonı kórsetedi: bala qansha úlken bolsa, onıń kreativlik kórsetkishleri sonsha joqarı boladı.
2. Bala bilim alǵan sayın kreativlik tómenlep baradı. Yaǵnıy, jas balada "ápiwayı" kreativlik bar. Biraq waqıttıń ótiwi menen bala rawajlanadı, tájiriybe qáliplesedi, aqıl-oyı ósedi, ol áste-aqırın bilimde bekkemlene baslaydı.
3. Kreativliktiń rawajlanıwı terbiyelik xarakterge iye. Kreativlik dáwir hám jasqa qarap tómenlewi yamasa kóteriliwi múmkin.

Bunnan basqada izerlewlerde oqıwshılardıń kreativligi hám onıń rawajlanıwı boyınsha izleniwler alıp barılǵan, olar tómendegishe: B.X. Xodjaev ilimiy izleniwlerinde oqıwshılarda tariyxıy pikirlewdi modernizaciyalanǵan didaktikalıq támiyinlew arqalı rawajlandırıw, oqıtıwshınıń jańalıqlarǵa bolǵan umtılısı, olardı ózlestiriw hám óziniń pedagogikalıq jumısında paydalana alıw procesinde ushırasatuǵın qıyınshılıqlardı jeńip shıǵıw, innovaciyalıq jańalıqlardı óz jumısında jedel hám dóretiwshilik penen qollanıw, óziniń avtorlıq ideyalarına iye bolıw hám túrli pedagogikalıq jaǵdaylarda unamlı sheshimlerdi taba alıw qábiletleri menen baylanıslı bolǵan kreativ kompetenciyaga iye bolıwdı talap etedi degen pikirdi alǵa súredi. Shet el ilimpazlarınan amerikalı filosof hám pedagog Jon Dyui kreativ pikirlew oqıwshılar belgili bir mashqala menen shuǵıllanıwdı baslaǵanda payda boladı, dep esaplaydı. "Oqıw procesiniń baslanıw noqatı sıpatında qabıl etilgen jaǵday yamasa hádiyse haqqında soralıwı tiyis bolǵan tiykarǵı soraw – bul hádiyse qanday mashqalalardı keltirip shıǵarıwı haqqındaǵı soraw", dep kórsetedi.

Búgingi kúnde baslawish klass oqıwshılarınıń kreativ iskerligin rawajlandırıwda pedagoglar tómendegi oqıw barısın hám shart-sharayatlardı jaratıwı lazım: oqıw barısında oqıwshılar ózlerin erkin seziwi ushın pedagogikalıq hám psixologiyalıq ortalıq (klimat) jaratıw; oqıwshılar menen sáwbet hám kommunikativ múnásibetti ornatıw; oqıw materiallarına mas tárizde texnik hám didaktikalıq qurallardan tuwrı paydalanıw; oqıtıwshınıń aldınǵı pedagogikalıq texnologiyalar, strategiyalar, interaktiv metodlar hám oyın shınıǵıwlarınan oqıw barısında nátiyjeli paydalanıwı; oqıwshılardıń kreativ belsendiliklerıniń júzege shıǵıwın qollap-quwatlaw hám márapatlaw. "Kreativlik" túsinigi ózinde mádeniy hár túrlilikti sáwlelendiredi. Batıs adamları ushın kreativlik, ulıwma alǵanda, jańalıq esaplanadı. Olar kreativliktiń tiykarında dástúriy emeslik, qızıǵıwshılıq, qıyal, házil-kúlgi sezimi hám erkinlik bar ekenligine itibar qaratadı. Shıǵıslılar bolsa, kerisinshe, kreativlikti jaqsılıqtıń qayta tuwılıw procesi dep túsinedi. Degen menen, batıslı hám shıǵıslılardıń kreativlik haqqındaǵı kózqarasları hár qıylı bolsa da, hár eki mádeniyat wákilleri de usı sıpat hám oǵan iyelikti joqarı bahalaydı.

V.N. Petrova hám A.N. Petrov atap ótkenindey, kreativlik – bul tań qalıw, ádetten tısqarı jaǵdayda sheshim taba alıw, jańalıqqa umtılıw, jeke tájiriybeni tereń ańlawǵa bolǵan qábilet. Túrli kózqaraslarǵa qaramastan, derlik barlıq anıqlamalarda kreativlik (shaxs hám jámiyet ushın) jańalıq jaratıw menen baylanıslı ekenligi túsiniledi.

Bunnan basqada kreativlik boyınsha pedagog alımlar – O. Jamoliddinova, O. Musurmonova, M. Urazova, N. Egamberdieva, E. Yuzlikaeva, Sh. Sharipov, Sh. Shodmonovalardıń ilimiy izleniwlerinde bilim alıwshılarda kreativlik qábiletlerin rawajlandırıwdıń bolajaq qánigelerdiń kásiplik-innovaciyalıq tayarlıǵın qáliplestiriwdegi

ózine tán tárepleri, kreativlik sıpatların rawajlandırıwǵa tásir etiwshi sociallıq faktorlar, shaxstıń belsendiligi, sonday-aq bilim alıwshılarda sın kózqarastı hám kreativ pikirlewdi qáliplestiriw jolları hám formaları, bar pedagogikalıq sharayatları hám didaktikalıq támiynatı, sonday-aq pedagogikalıq kreativlik mazmunı jarıtıp berilgen. Bunnan basqada kóplegen ilimpazlar oqıwshılardağı kreativlikti rawajlandırıw boyınsha hár tárepleme úyrenip shıqqan.

XULOSA

Bul maqolada Tárbiya pánin oqıtıw arqalı oqıwshılardıń kreativ qábiletin rawajlandırıwdıń pedagogikalıq negizleri hám ámeliy mexanizmleri talqılandı. Tahlil nátiyjeleri kórsetkenindey, dáris jarayanında interaktiv usıllar, muammalı jaǵdaylar, joba negizindegi oqıtıw, pikir almasıw hám roldıq oyınlardı tizimli qollanıw oqıwshılardıń erkin pikirlew, ijodiy tafakkur hám mustaqil qarar qabıllaw qábiletlerin rawajlandıradı. Sonıń menen birge, shaxsqa baǵdarlangan tálim, hamkorlıqta oqıtıw hám zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardıń qollanıwı oqıwshılardıń oqıw motivaciyasın arttırıp, olardıń ijtimoiy hám kommunikativ kompetenciyalarınıń qáliplesiwine járdem beredi. Kreativ qábiletlerdi rawajlandırıw Tárbiya páninin mazmunı menen úylesimli halda ámelge asırılǵanda, oqıwshılardıń shaxsiy salohiyatı ashıladı hám olardıń jamiyatqa beyimlesiwi nátiyjeli boladı. Demek, Tárbiya pánin oqıtıwda innovaciyalıq yondasıwlardı izbe-iz qollanıw hám pedagogikalıq jarayandı zamana talablarına sáykes uyıstırıw oqıwshılardıń kreativ qábiletin rawajlandırıwdıń negizgi faktorı esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Андреев В. И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996. – 566 с. – 74-b.
2. Вишнякова Н. Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования. – Мн.: Народная асвета, 2007. – 300 с. – 110-b.
3. Drapeau, Patti. Sparking Student Creativity (Practical Ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving). – Alexandria, Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
4. Nauruzbaeva A. S., Kaipbergenova F. T., Gaipov D. J., Dawekeeva A., Kunnazarova G. I., Yembergenova A. A. Technology for Developing Students' Socio-Communicative Competence in English Language Education in the Field of Social Sciences. TPM, Vol. 32, No. S1, 2025. Open Access. ISSN: 1972-6325. https://www.tpmap.org/

MIRISHKOR TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi
Osiyo texnologiyalari universiteti
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2 -kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining Mirishkor tumani hududidagi toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda mintaqaviy joy nomlarining etimologik asoslari, semantik guruhlari va leksik tarkibi nazariy manbalarga tayanib tahlil qilingan. Toponimlarning geografik, tarixiy, etnik va madaniy omillar bilan bog'liqligi aniqlangan. Mirishkor tumani toponimik tizimining o'ziga xos jihatlari, ularning til taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy toponimikaning o'zbek onomastikasi tizimidagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: toponim, Mirishkor, leksik-semantik tahlil, etimologiya, onomastika, geografik atamalar, joy nomlari, mintaqaviy toponimika.

Abstract: This article examines the lexical-semantic features of toponyms in the Mirishkor district of the Kashkadarya region. The etymological foundations, semantic groups, and lexical composition of regional place names have been analyzed based on theoretical sources. The connection of toponyms with geographical, historical, ethnic, and cultural factors has been identified. The specific characteristics of the toponymic system of the Mirishkor district, as well as their role and significance in language development, have been highlighted.

Key words: toponym, Mirishkor, lexical-semantic analysis, etymology, onomastics, geographical terms, place names, regional toponymy.

Аннотация: В данной статье исследованы лексико-семантические особенности топонимов Миришкорского района Кашкадарьинской области. На основе теоретических источников проанализированы этимологические основы, семантические группы и лексический состав региональных топонимов. Определена связь топонимов с географическими, историческими, этническими и культурными факторами. Освещены специфические черты топонимической системы Миришкорского района, их роль и значение в развитии языка.

Ключевые слова: топоним, Миришкор, лексико-семантический анализ, этимология, ономастика, географические термины, названия мест, региональная топонимика.

KIRISH

Toponimika tilshunoslikning muhim tarmog'i sifatida joy nomlarini o'rganish, ularning kelib chiqishi, ma'nosi va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Har bir xalqning toponimik tizimi uning tarixiy-madaniy merosini, geografik muhitini va etnik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi bebaho manba hisoblanadi. O'zbekiston hududidagi toponimlar minglab yillik tarix davomida shakllangan bo'lib, ular turkiy, forsiy, arabiy va boshqa tillarning ta'sirida rivojlangan murakkab lingvistik hodisadir [1]. Qashqadaryo viloyatining Mirishkor tumani toponimikasi bu borada alohida qiziqish uyg'otadi, chunki ushbu mintaqa qadimgi Sug'd madaniyati, turkiy qabilalar ko'chishlari va islom davri an'analarining kesishgan nuqtasida joylashgan. Mirishkor toponimlarining leksik-semantik tahlili nafaqat til tarixini, balki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining mashg'ulotlari hamda madaniy qadriyatlarini tushunishga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda globallashuv sharoitida ko'plab an'anaviy joy nomlari o'z asl shaklini yo'qotish xavfi ostida turibdi. Shu bois mintaqaviy toponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning etimologiyasini aniqlash va kelajak avlodlar uchun saqlash muhim vazifa hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi Mirishkor tumani toponimlarining leksik-semantik xususiyatlarini nazariy manbalarga tayanib tahlil qilish, ularning tematik guruhlarini aniqlash hamda etimologik asoslarini yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va etimologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Toponimik materiallar mavjud ilmiy adabiyotlar, lug‘atlar va kartografik manbalar asosida to‘plandi hamda tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida toponimika sohasidagi yetakchi olimlarning nazariy konsepsiyalari qo‘llanildi. Rus toponimisti V.A. Nikonov tomonidan ishlab chiqilgan toponimik tahlil metodikasi ushbu tadqiqotning asosiy nazariy poydevori bo‘lib xizmat qildi [2]. Nikonovning fikricha, har qanday toponim o‘zida uchta asosiy komponentni mujassam etadi: leksik ma’no, grammatik shakl va geografik obyektga bog‘liqlik. Bu yondashuv Mirishkor toponimlarini ham ko‘p qirrali tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbek toponimikasining rivojlanishida S.Q. Qorayevning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi [3]. Olim o‘zbek joy nomlarining tasnifi, etimologiyasi va geografik terminlarning toponimikadagi rolini chuqur o‘rganib, milliy toponimik maktabning asosini yaratdi. Qorayevning ishlarida O‘rta Osiyo toponimlarining turkiy, forsiy va arabiy qatlamlari ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, bu Mirishkor tumani toponimlarini tahlil qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

E. Begmatov o‘zbek onomastikasi tizimini tadqiq etib, toponimlarning antroponimlar va etnonimlar bilan uzviy bog‘liqligini isbotladi [4]. Olimning fikricha, ko‘plab joy nomlari dastlab shaxs yoki qabila nomlari asosida shakllangan bo‘lib, keyinchalik toponimik ma’no kasb etgan.

Xorijiy toponimika maktablarining nazariy yondashuvlari ham tadqiqotda hisobga olindi. Britaniyalik olim W. Nicolaisen joy nomlarining madaniy-tarixiy qatlamlarini o‘rganish muhimligini ta’kidlab, toponimlarni til va madaniyat o‘rtasidagi ko‘prik sifatida baholaydi [5]. Bu yondashuv Mirishkor toponimlarining etnolingvistik tahlilida qo‘llanildi.

A.V. Superanskaya onomastika nazariyasini ishlab chiqib, xususiy nomlarning umumiy so‘zlardan farqli xususiyatlarini belgilab berdi [6]. Olimaning ta’kidlashicha, toponimlar leksik ma’nosini yo‘qotib, faqat nominativ funksiyani bajarishi mumkin, ammo etimologik tahlil ularning dastlabki semantikasini tiklash imkonini beradi.

Mintaqaviy toponimika sohasida E.M. Murzayevning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega [7]. Olim O‘rta Osiyo geografik terminologiyasini chuqur o‘rganib, toponimik formantlarning kelib chiqishi va tarqalish areallarini aniqladi. Murzayevning ishlarida keltirilgan geografik atamalar lug‘ati Mirishkor toponimlarining tarkibiy qismlarini tahlil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Shuningdek, H. Hasanovning O‘zbekiston toponimikasiga bag‘ishlangan asarlarida viloyatlar kesimida joy nomlarining hududiy taqsimoti va semantik xususiyatlari yoritilgan [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari” mavzusidagi mazkur tadqiqotda lingvistik, onomastik va areal-geografik yondashuvlar uyg‘unligiga asoslangan kompleks metodologiya qo‘llanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini toponimika, onomastika va semasiologiya sohasidagi fundamental qarashlar tashkil etadi.Tadqiqot obyekti sifatida Mirishkor hududidagi geografik nomlar tizimi tanlandi, predmet esa ushbu toponimlarning leksik tarkibi, semantik tuzilishi, nominativ motivatsiyasi hamda tarixiy-etimologik qatlamlaridir.Ma’lumotlar bazasi bir necha manbalar asosida shakllantirildi: rasmiy xaritalar, arxiv materiallari, statistik to‘plamlar, hududiy lug‘atlar, ilmiy adabiyotlar hamda dala tadqiqotlari jarayonida to‘plangan og‘zaki ma’lumotlar. Empirik materiallarni yig‘ishda kuzatish, suhbat va yozib olish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mirishkor tumani toponimlarining leksik-semantik tahlili ularning bir necha tematik guruhga bo‘linishini ko‘rsatadi. Birinchi va eng katta guruhni geografik atamalar asosida shakllangan toponimlar tashkil etadi. Bular orasida suv ob’ektlari bilan bog‘liq nomlar alohida o‘rin tutadi, chunki Mirishkor tumani Qashqadaryo havzasida joylashgan bo‘lib, sug‘orma dehqonchilik asosiy xo‘jalik turi hisoblanadi. “Mirishkor” toponimining o‘zi ham sug‘orish madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, forsiy “mir” (amir, hokim) va “ishkor” (ishlaydigan, faol) so‘zlaridan tashkil topgan, degan farazlar mavjud, garchi ba’zi tadqiqotchilar uni boshqacha etimologik talqin qiladilar [9].

Tumandagi ko‘plab qishloq nomlari “ariq”, “soy”, “quduq”, “hovuz” kabi gidronimik atamalarni o‘z ichiga oladi, masalan, Yangi ariq, Katta quduq tipidagi nomlar suv manbalari va sug‘orish inshootlarining aholining hayotidagi muhim rolini aks ettiradi. Ikkinchi muhim semantik guruhni o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan bog‘liq toponimlar tashkil etadi. Mirishkor tumanining tabiiy landshafti cho‘l va yarim cho‘l mintaqasiga xos bo‘lib, bu holat mahalliy floristik va faunistik terminlarning toponimikaga kirib kelishini ta’minlagan. “Yantoq”, “shuvoq”, “tuproq” kabi so‘zlar ko‘plab joy nomlarining tarkibida uchraydi va mintaqaning ekologik sharoitlarini aks ettiradi. Bu kuzatish E.M. Murzayevning geografik muhit va toponimika o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik haqidagi nazariyasini tasdiqlaydi [7]. O‘simliklar nomiga asoslangan toponimlar ko‘pincha tarixiy ekologik holatni saqlagan

bo‘lib, hozirgi landshaftdan farq qilishi mumkin, bu esa ularni paleogeografik tadqiqotlar uchun ham qimmatli manba qiladi. Uchinchi semantik guruh antroponimik toponimlarni o‘z ichiga oladi.

Ko‘plab qishloq va mahallalar tarixiy shaxslar, mahalliy arboblar yoki oddiy kishilar nomlari asosida atalgan. Bu hodisa o‘zbek toponimikasida keng tarqalgan bo‘lib, ijtimoiy tuzum va mulkchilik munosabatlarini aks ettiradi [4]. Mirishkor tumanida ham “…obod”, “…tepa”, “…qo‘rg‘on” formantlari bilan tugaydigan va shaxs nomlarini o‘z ichiga olgan toponimlar mavjud. Bu nomlar ko‘pincha XVII-XIX-asrlarda Buxoro amirligi davrida shakllangan bo‘lib, o‘sha davrning ijtimoiy iyerarxiyasini, yer egalarini va diniy arboblarni eslatib turadi. To‘rtinchi guruh etnonimik toponimlarni birlashtiradi, ya’ni qabila va urug‘ nomlari asosida hosil bo‘lgan joy nomlarini. Qashqadaryo viloyati tarixan turli turkiy qabilalarning yashash hududi bo‘lgan va bu holat toponimikada yaqqol iz qoldirgan [10]. Mirishkor tumanida ham ma’lum etnik guruhlar nomini aks ettiruvchi joy nomlari mavjud bo‘lib, ular mintaqaning etnik tarixini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi.

Etnonimik toponimlar odatda ko‘chmanchi yoki yarim ko‘chmanchi aholining o‘troqlashish jarayonini va urug‘-qabilaviy hududiy taqsimotni qayd etadi. Beshinchi semantik guruhga kasb-hunar va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq toponimlar kiradi. Mirishkor tumani qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan mashhur bo‘lgan, shuning uchun bu sohalarga oid atamalar joy nomlarida ham uchraydi. “Dalat”, “poda”, “otov” kabi so‘zlar xo‘jalik mashg‘ulotlarining toponimikaga ta’sirini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, hunarmandchilik bilan bog‘liq atamalar ham toponimik tizimda o‘rin olgan bo‘lishi mumkin, chunki viloyatda an’anaviy kashtachilik, to‘qimachilik va kulolchilik rivoj topgan.

Mirishkor toponimlarining grammatik tuzilishini tahlil qilish ularning sodda va qo‘shma shakllardan iboratligini ko‘rsatadi. Sodda toponimlar bir so‘zdan tashkil topib, odatda qadimiy va dastlabki nomlashni aks ettiradi. Qo‘shma toponimlar ikki yoki undan ortiq komponentdan iborat bo‘lib, ko‘pincha sifat + ot yoki ot + ot modellarini namoyon qiladi. Masalan, “Yangi qishloq”, “Katta ariq” tipidagi modellar mintaqada keng tarqalgan. Bu grammatik modellar S.Q. Qorayev tomonidan o‘zbek toponimikasi uchun umumiy qonuniyat sifatida belgilangan [3]. Shuningdek, forsiy-tojikcha “-obod”, “-abad” suffikslari ham Mirishkor toponimlarining morfologik tarkibida uchraydi, bu esa mintaqaning ikki tilli o‘tmishini tasdiqlaydi.

1-jadval: **Mirishkor tumani toponimlarining semantik guruhlari bo‘yicha tasnifi**

№	Semantik guruh	Toponimik belgilar	Misollar
1	Gidronimik toponimlar	Suv obyektlari, sug‘orish inshootlari bilan bog‘liq	Ariqboshi, Kattaquduq, Yangiariq, Hovuzli
2	Fitonimik toponimlar	O‘simliklar dunyosi bilan bog‘liq	Yantoqli, Shuvoqtepa, Qamishzor, Tutzor
3	Antroponimik toponimlar	Shaxs nomlari asosida shakllangan	Nurmuhammadobod, Eshonqishloq, Mirzatepa
4	Etnonimik toponimlar	Qabila va urug‘ nomlari asosida hosil bo‘lgan	Qo‘ng‘irot, Nayman, Kenegas, Qipchoq
5	Xo‘jalik-kasb toponimlar	Mashg‘ulot va hunarmandchilik bilan bog‘liq	Podachi, Dehqonobod, Chorvador
6	Relef toponimlar	Yer shakllari va landshaft bilan bog‘liq	Qumtepa, Pastki, Balandlik, Jarqo‘rg‘on

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Mirishkor tumani toponimik tizimida gidronimik va antroponimik guruhlar yetakchi o‘rinni egallaydi, bu esa mintaqaning sug‘orma dehqonchilikka asoslangan xo‘jalik tizimi hamda an’anaviy ijtimoiy tuzumini yaqqol aks ettiradi. Fitonimik toponimlarning mavjudligi cho‘l va yarim cho‘l mintaqasiga xos o‘simlik qoplamining joy nomlariga ta’sirini ko‘rsatsa, etnonimik toponimlar turkiy qabilalarning tarixiy joylashuvini qayd etadi.

Relef toponimlarining nisbatan kam uchrashi tumanning tekis va pasttekislik hududda joylashganligi bilan izohlanadi, chunki tog‘li mintaqalarga xos orografik atamalar bu yerda kam tarqalgan. Xo‘jalik-kasb toponimlarining ajralib turishi esa aholining an’anaviy mashg‘ulotlari – dehqonchilik va chorvachilik –ning toponimik tizimga singib ketganligidan dalolat beradi.

XULOSA

Mirishkor tumani toponimlarining leksik-semantik tahlili bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, mintaqa toponimikasi murakkab tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan bo‘lib, o‘zida turkiy, forsiy va arabiy til qatlamlarini mujassam etadi. Bu holat V.A. Nikonov ta’kidlagan toponimik stratifikatsiya nazariyasini tasdiqlaydi [2].

Ikkinchidan, Mirishkor toponimlarining semantik tasnifi ularning geografik, antroponimik, etnonimik va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq guruhlarga bo‘linishini ko‘rsatadi. Har bir guruh mintaqaning tabiiy sharoitlari, aholining mashg‘ulotlari hamda ijtimoiy tuzumini aks ettiradi.

Uchinchidan, toponimlar grammatik jihatdan sodda va qo‘shma shakllardan iborat bo‘lib, o‘zbek tiliga xos so‘z yasalish modellariga muvofiq keladi.

To‘rtinchidan, Mirishkor toponimikasi mintaqaviy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida muhofaza qilinishi va ilmiy jihatdan chuqurroq o‘rganilishi lozim. Kelajakda dala tadqiqotlari, arxiv materiallari tahlili va mahalliy aholi bilan ishlash orqali toponimik ma’lumotlar bazasini boyitish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nafasov, T.N. O‘zbek toponimikasining nazariy asoslari / T.N. Nafasov. – Toshkent: Fan, 1988. – 248 b.
2. Никонов, В.А. Введение в топонимику / В.А. Никонов. – М.: Наука, 1965. – 179 с.
3. Қораев, С.Қ. Ўзбекистон географик номлари / С.Қ. Қораев. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 320 б.
4. Бегматов, Э.А. Ўзбек ономастикаси масалалари / Э.А. Бегматов. – Тошкент: Фан, 1970. – 156 б.
5. Nicolaisen, W.F.H. Scottish Place-Names: Their Study and Significance / W.F.H. Nicolaisen. – London: B.T. Batsford, 1976. – 220 p.
6. Суперанская, А.В. Общая теория имени собственного / А.В. Суперанская. – М.: Наука, 1973. – 366 с.
7. Мурзаев, Э.М. Словарь народных географических терминов / Э.М. Мурзаев. – М.: Мысль, 1984. – 653 с.
8. Ҳасанов, Ҳ. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати / Ҳ. Ҳасанов. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 280 б.
9. Кармышева, Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / Б.Х. Кармышева. – М.: Наука, 1976. – 323 с.
10. Турсунов, Б. Қашқадарё топонимикаси / Б. Турсунов. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2005. – 186 б.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

TAEKVONDOCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH METODIKASI





Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich
Farg'ona davlat universiteti yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi

Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi
Farg'ona davlat universiteti yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan zamonaviy metodik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot jarayonida sportchilarning kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va moslashuvchanlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot vositalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini ko'rsatib, sportchilarning jismoniy ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanganligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar taekvondo mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: taekvondo, jismoniy tayyorgarlik, metodika, sport mashg'uloti, kuch, tezkorlik, chidamlilik.

Abstract: This article discusses modern methodological approaches aimed at improving the physical fitness of taekwondo athletes. In the course of the study, training tools aimed at developing athletes' strength, speed, agility, endurance, and adaptability were analyzed. The research results demonstrate the effectiveness of the developed methodology and confirm a significant improvement in the athletes' physical performance indicators. The obtained results are of practical importance for improving the taekwondo training process.

Key words: taekwondo, physical fitness, methodology, sports training, strength, speed, endurance.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методические подходы, направленные на совершенствование физической подготовки спортсменов-тхэквондистов. В ходе исследования были проанализированы тренировочные средства, направленные на развитие силы, скорости, ловкости, выносливости и адаптивности спортсменов. Результаты исследования демонстрируют эффективность разработанной методики и подтверждают значительное улучшение физических показателей спортсменов. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования тренировочного процесса по тхэквондо.

Ключевые слова: тхэквондо, физическая подготовка, методика, спортивная подготовка, сила, скорость, выносливость.

KIRISH

Bugungi kunda taekvondo sport turi nafaqat texnik-taktik mahoratni, balki yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni ham talab qiluvchi sport turlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy musobaqalar sharoitida yuqori natijalarga erishish sportchining jismoniy sifatlari qanchalik mukammal rivojlanganligiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish masalasi sport nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Taekvondo mashg‘ulot jarayonida kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va moslashuvchanlik kabi jismoniy sifatlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu sifatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi sportchining texnik harakatlarni samarali bajarishiga va musobaqa jarayonida yuqori natija ko‘rsatishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, unda taekvondochilar uchun mashg‘ulot jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan kompleks jismoniy tayyorgarlik metodikasi ishlab chiqilgan va uning samaradorligi tajriba asosida baholangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy sport turlarida, xususan, taekvondoda yuqori sport natijalariga erishish sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Ilmiy adabiyotlarda taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligi kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, koordinatsiya va egiluvchanlik kabi asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oluvchi murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida talqin etiladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar taekvondoda jismoniy tayyorgarlikni oshirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydilar. Umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchining organizmini umumiy rivojlantirishga, sog‘lomlashtirishga va yuqori yuklamalarga moslashishga xizmat qilsa, maxsus jismoniy tayyorgarlik musobaqa faoliyatiga xos bo‘lgan tezkor harakatlar, kuchli zarbalar va qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi ish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda plyometrik mashqlar keng qo‘llaniladi. Plyometrik treninglar mushaklarning portlovchi kuchini rivojlantirib, zarba tezligi va sakrash qobiliyatini oshirishda samarali hisoblanadi. Tadqiqotlarda ushbu mashqlarni muntazam qo‘llash sportchilarning tezkor-kuch sifatlarini sezilarli darajada yaxshilashi isbotlangan. Shuningdek, adabiyotlarda aylanma (circuit) trening metodikasining samaradorligi ham keng yoritilgan. Aylanma mashqlar bir mashg‘ulot davomida bir nechta jismoniy sifatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu metod taekvondochilarda umumiy chidamlilik, mushak kuchi va koordinatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh sportchilar bilan ishlash jarayonida aylanma mashqlar samarali metod sifatida tavsiya etiladi. Bir qator ilmiy manbalarda tezlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan SAQ (Speed, Agility, Quickness) mashqlarining ahamiyati ta’kidlangan. Taekvondo janglarida vaziyat tez o‘zgarishi sababli sportchidan yuqori darajadagi reaksiya va harakat tezligi talab etiladi. SAQ mashqlari aynan shu jihatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kuch tayyorgarligi bo‘yicha adabiyotlarda erkin og‘irliklar, qarshilik mashqlari hamda tana vaznidan foydalanilgan mashqlarni uyg‘un holda qo‘llash tavsiya etiladi. Kuch sifatining rivojlanganligi zarba kuchi va barqarorlikni oshiradi. Shu bilan birga, ortiqcha mushak massasining oldini olish uchun mashqlar sport turi xususiyatiga mos ravishda rejalashtirilishi lozimligi qayd etiladi. Ilmiy tadqiqotlarda chidamlilik tayyorgarligiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Taekvondoda jang davomida yuqori intensivlikdagi harakatlar qisqa dam olish oralig‘i bilan takrorlanadi. Shu sababli, aerob va anaerob chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan intervalli mashqlar hamda yuqori intensivlikdagi treninglar (HIIT) samarali metodlar sifatida ko‘rsatiladi. Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi ilmiy asoslangan, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Mashg‘ulot jarayonida sportchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarda keltirilgan metodik tavsiyalar murabbiylar uchun samarali mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayoni 2024-2025-yillar davomida sport maktabi sharoitida olib borildi. Tadqiqotda 14-16 yoshdagi 20 nafar taekvondochi ishtirok etdi. Sportchilar tasodifiy tanlash asosida nazorat guruhi va tajriba guruhiga ajratildi (har birida 10 nafardan).

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar:

- ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- test sinovlari;
- pedagogik tajriba;
- matematik-statistik tahlil.

Jismoniy tayyorgarlikni baholash testlari:

- 30 metrga yugurish (tezkorlik);
- joyidan uzunlikka sakrash (kuch);
- turnikda tortilish (kuch va chidamlilik);
- 1000 metrga yugurish (umumiy chidamlilik);
- oldinga egilish (moslashuvchanlik).

Tajriba metodikasi mazmuni: tajriba guruhida mashg'ulotlar haftasiga 4 marotaba olib borildi va quyidagi vositalarni o'z ichiga oldi:

- maxsus kuch mashqlari (oyoq mushaklari uchun sakrashlar, zarbali mashqlar);
- tezkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar (reaksiya mashqlari, qisqa masofaga yugurish);
- interval usulidagi chidamlilik mashqlari;
- dinamik cho'zilish mashqlari;
- taekvondoga xos maxsus harakatlar bilan kombinatsiyalangan mashqlar.

Nazorat guruhida esa an'anaviy mashg'ulot dasturi davom ettirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba yakunida o'tkazilgan test natijalari tajriba guruhi sportchilarida jismoniy sifatlar sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatdi: 30 metrga yugurish ko'rsatkichi o'rtacha 7-9% ga yaxshilandi; joyidan uzunlikka sakrash natijalari 10-12% ga oshdi; turnikda tortilish soni o'rtacha 3-4 martaga ko'paydi; 1000 metrga yugurish vaqti sezilarli darajada qisqardi; moslashuvchanlik ko'rsatkichi 15% gacha oshdi.

Nazorat guruhida esa ko'rsatkichlar kam miqdorda yoki statistik jihatdan ahamiyatsiz o'zgarishlar bilan cheklangan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, taekvondochilar jismoniy tayyorgarligini oshirishda maxsus yo'naltirilgan kompleks metodikadan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Mashg'ulot jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarining uyg'unligi sportchilarning musobaqa faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tajriba metodikasining ustun jihati shundaki, unda taekvondoga xos harakatlar bilan jismoniy mashqlar integratsiya qilingan. Bu esa sportchilarning nafaqat jismoniy, balki funksional tayyorgarligini ham oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, yosh sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish mashg'ulot samaradorligini yanada oshirganini ta'kidlash lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligi sport natijalarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida olib borilgan mashg'ulotlar jismoniy sifatlarni samarali rivojlantiradi. Kompleks yondashuv sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda taklif etilgan metodikani sport maktablari va klublar amaliyotida qo'llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydaxmadov, A., & Munavarova, S. (2024). Taekvondo mashg'ulotlaridagi o'rgatish uslublari va ilmiy-amaliy muammolar. Research and Implementation, 343-351. Izvlecheno ot: https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/895
2. Saydaxmadov, A. (2024). 14-16 yoshli taekvondochilarda jismoniy fazilatlarni rivojlantirish. Research and Implementation, 274-278. Izvlecheno ot: https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/884
3. Sayidaxmedov, A. V. (2023). Socio-pedagogical factors of the formation of physical culture skills in students. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, 12(05), 132-134.
4. O'G', S. A. Z. V. (2024). Jismoniy madaniyat xalqimizning ajralmas qismidir. Miasto Przyszłości, 48, 583-585.
5. O'G', S. A. Z. V. (2024). Ta'limining ayrim jihatlarida jismoniy madaniyat o'rni. Miasto Przyszłości, 48, 606-608.
6. Абдусатторов, Р., & Сайдахмадов, А. (2024, June). Нейроморфные вычислительные системы: архитектуры, алгоритмы обучения, практические реализации. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".

THE ROLE OF MUSIC IN HUMAN SPIRITUAL DEVELOPMENT AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE

Shokirkhonov Bakhtiyorkhon Botirkhonovich
Teacher of Namangan state pedagogical institute

Abstract: This scientific article comprehensively analyzes the role of music in human spiritual development and its educational significance. It highlights the role of musical art in the formation of a person's psyche, moral qualities, aesthetic taste, and social activity. In addition, the article examines, on a scientific basis, the role of national musical heritage in the upbringing of the younger generation, as well as the pedagogical and psychological aspects of music education.

Key words: music, spirituality, education, aesthetic taste, personal development, national music, pedagogy.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada musiqaning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni va uning tarbiyaviy ahamiyati keng qamrovda tahlil qilinadi. Musiqa san'atining shaxs ruhiyati, axloqiy fazilatlari, estetik didi hamda ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, milliy musiqa merosining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, musiqa ta'limining pedagogik va psixologik jihatlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: musiqa, ma'naviyat, tarbiya, estetik did, shaxs kamoloti, milliy musiqa, pedagogika.

Аннотация: В данной научной статье всесторонне анализируется роль музыки в духовном развитии человека и её педагогическое значение. Подчеркивается роль музыкального искусства в формировании психики человека, нравственных качеств, эстетического вкуса и социальной активности. Также на научной основе рассматриваются роль национального музыкального наследия в воспитании молодого поколения, а также педагогические и психологические аспекты музыкального образования.

Ключевые слова: музыка, духовность, образование, эстетический вкус, личностное развитие, национальная музыка, педагогика.

INTRODUCTION

The upbringing of a spiritually mature person is the main condition for the development of any society. The role of art forms, in particular music, in the formation of the spiritual world of a person is incomparable. Music directly affects the human soul, refines feelings, enriches moral views, and develops aesthetic thinking. In the context of globalization, as various cultural influences increase, educating the younger generation in a spirit of loyalty to national and universal human values has become an urgent task. In this process, music appears as a powerful educational tool. Therefore, the scientific study of the role and educational significance of music in human spiritual development is of great importance.

LITERATURE REVIEW

The literature used in the article to illuminate the spiritual development and educational significance of music provides a scientific basis for research from various perspectives. Spirituality is a force that shapes a person's inner world, moral views, and spiritual experiences. In his work, the author writes: "Art is the most effective means of purifying the human soul and directing it toward goodness and beauty." From this perspective, the article considers music as a means of enriching a person's spiritual world, developing moral qualities, and shaping spiritual identity [1]. Raising the younger generation to be faithful to national and universal values is one of the most urgent tasks of modern society. The author writes: "By preserving and developing our national culture, we educate our youth as patriotic and well-rounded individuals." The article uses this source to scientifically demonstrate the role of national music and folk heritage in educating young people, as well as in the formation of national identity and a spirit of patriotism [2].

Kadirov highlights the pedagogical aspects of music and emphasizes its role in the formation of creative thinking and aesthetic taste in the educational process. He writes: "Through music education, students not only acquire technical skills but also develop creative thinking and emotional sensitivity." In this context, the article discusses the educational and aesthetic potential of music and the process of students' creative and spiritual development based on Qodirov's scientific foundations [3].

Abdukodirov analyzes the importance of music in the process of aesthetic education and writes: "Music enhances a person's sense of beauty, develops artistic thinking, and ensures mental stability." The article uses this source to scientifically substantiate the role of music education in aesthetic development, emotional sensitivity, and the enrichment of the individual's spiritual world [4].

Sharipov studies the inextricable link between art and spirituality and their importance in the development of the individual and society. In his work, he emphasizes: "Art encourages a person to socialize, develop moral consciousness, and harmonize with society." In this regard, the article highlights the role of music in the formation of social skills and moral education, drawing on Sharipov's scientific ideas [5].

ANALYSIS AND RESULTS

Spirituality is a complex socio-philosophical concept that embodies a person's inner world, moral views, mental state, aesthetic taste, and life values. Music is an art form that plays a significant role in the formation and enrichment of this spiritual world. These two concepts are inextricably linked, complementing one another and contributing to human development. Music possesses the capacity to directly influence the human soul, through which a person's emotions, spiritual experiences, and moral perspectives are shaped. Melody and rhythm evoke elevated spiritual feelings such as goodness, kindness, and a sense of beauty. Therefore, music has long been recognized as an important means of spiritual education. Philosophical sources emphasize the influence of music on the human psyche. Eastern thinkers regarded music as "food for the soul" and viewed it as an essential factor in spiritual purification. Through music, individuals explore their inner world, gain a deeper understanding of the meaning of life, and strive for spiritual perfection.

Examples of national music clearly demonstrate the inseparable link between spirituality and music. Folk songs and classical musical works embody moral norms, traditions, and national values transmitted from generation to generation. Thus, music serves not only as an aesthetic phenomenon but also as a powerful spiritual and educational instrument. Music also fosters aesthetic thinking and cultivates the ability to perceive and appreciate beauty. The development of aesthetic taste is one of the key indicators of spirituality. Consequently, music and spirituality, as mutually reinforcing concepts, play a crucial role in personal development. Music is one of the art forms that exerts a strong influence on spiritual growth. It plays a vital role in regulating emotional states, ensuring emotional stability, and fostering psychological balance. The structural elements of music–such as melody, rhythm, and timbre–directly affect the human psyche and can alter mood and internal experiences. Psychological studies indicate that regular listening to and performing music enhances positive emotions while reducing stress and anxiety. In particular, calm and melodious compositions are recognized as effective means of mental relaxation, alleviating nervous tension, and promoting psychological stability. This process increases productivity and concentration in daily activities.

The influence of music on mental development is especially pronounced during childhood and adolescence. Children who regularly engage in musical activities tend to develop heightened emotional sensitivity, empathy, and self-expression. Through musical practice, a child learns to understand and regulate their emotions, thereby establishing a foundation for psychological maturity. Music also stimulates creative thinking. During performance, individuals utilize imagination and creativity, which positively affects intellectual and psychological development. Engaging in musical practice contributes to the formation of self-confidence, willpower, and internal discipline. Furthermore, music nurtures positive social emotions. Group singing or participation in musical performances enhances interpersonal communication, cooperation, and social adaptation skills. This, in turn, strengthens psychological resilience within society. Moral education constitutes a fundamental component of personal development, shaping an individual's attitude toward society, others, and oneself. Music serves as an effective pedagogical tool in cultivating moral values. It directly influences the human soul and contributes to the formation of such virtues as goodness, kindness, justice, and responsibility. The content and artistic expression of musical works significantly impact an individual's moral outlook. Songs with profound meaning and classical musical compositions foster a positive life orientation and strengthen ethical consciousness.

In particular, the moral ideas reflected in folk songs and epics are easily and naturally instilled in the minds of the younger generation through musical imagery. The moral significance of music in the upbringing of children and youth deserves special attention. Through music, children develop such qualities as respect for

adults, friendship, loyalty, and diligence. In the process of music education, students not only acquire musical knowledge and skills but also internalize social and moral norms. The processes of singing and performing in a group are of great importance in moral education. Such forms of activity strengthen solidarity, responsibility, and discipline. Each participant, realizing that he or she is responsible for the common result, learns to place the interests of the group above personal interests. Music also develops the internal self-regulatory mechanisms of the individual. Through musical works, a person reflects on his or her actions and becomes more aware of the need to adhere to moral norms. This contributes to the formation of moral consciousness and culture. The process of national identity awareness plays an important role in shaping a person's attitude toward his or her people and their historical and cultural heritage. National music plays a special role in this process because it embodies the historical memory, spiritual experience, and cultural values of the people. Through national music, a person understands the uniqueness of his or her nation more deeply and develops feelings of respect and pride.

Uzbek national music is the product of the centuries-old historical experience and artistic thought of the people. The art of maqom, folk melodies, and ritual and traditional musical forms serve as important sources for understanding national consciousness and identity. In these works, the people's lifestyle, dreams and aspirations, moral views, and aesthetic ideals find artistic expression. National music possesses significant educational value in the upbringing of the younger generation. Through it, children and youth develop such qualities as patriotism, national pride, and respect for history. In the process of learning national melodies and songs, a person becomes closer to the cultural roots of his or her people, which further strengthens the development of national identity. In the context of globalization, the intensification of various cultural influences makes the issue of preserving and developing national culture increasingly relevant. From this perspective, the promotion of national music and its broad integration into the educational process constitute important factors in protecting young people from alien ideological influences. National music spiritually strengthens the individual and shapes a distinct cultural identity.

National music also serves to ensure cultural unity and social solidarity within society. It unites different generations and social groups around shared values. By understanding and appreciating the national musical heritage, a person more clearly defines his or her place in society. Music education is one of the important pedagogical processes that contributes to the comprehensive development of the individual. It not only forms students' musical knowledge and skills but also exerts a significant impact on their intellectual, aesthetic, moral, and spiritual development. Therefore, music education is an integral component of the modern education system. From a pedagogical perspective, music education fosters creative thinking in students. In the process of listening to, analyzing, and performing musical works, students acquire the skills of independent thinking, imagination, and emotional expression. These processes activate the individual's overall cognitive activity and enhance the effectiveness of learning. Music education also has a positive effect on students' emotional and intellectual development. During music classes, students learn to understand and regulate their emotions, which supports psychological stability. As a result, students demonstrate increased engagement and positive motivation in the learning process. The integrative potential of music also plays an important role in the educational process. When music is taught in close connection with other subjects, the scope of students' knowledge expands. For example, the integration of music with literature, history, and the mother tongue enriches the content of education. Music education is also an important pedagogical tool for the formation of social skills. Group singing and instrumental performance develop such qualities as cooperation, responsibility, and discipline in students, thereby facilitating their social adaptation.

The role of the teacher in music education is of particular importance. The teacher's professional skills, methodological approach, and creative activity increase students' interest in music. The use of modern pedagogical technologies and innovative methods further enhances the effectiveness of music education. Aesthetic education is an important pedagogical process aimed at developing a person's ability to understand, feel, and appreciate beauty. The art of music plays a special role in this process, as it serves as a powerful tool for cultivating aesthetic taste, artistic thinking, and a refined attitude toward beauty. Music enriches a person's inner world by awakening aesthetic feelings. Through melody, rhythm, and musical imagery, individuals perceive beauty and begin to understand the subtleties of musical expression. This process shapes aesthetic perception and strengthens a person's attitude toward art, nature, and the beauties of society. Aesthetic education through music plays a significant role in developing aesthetic taste. By analyzing and comparing musical works of various genres, students learn to evaluate artistic value. As a result, they develop the ability to select high-quality and meaningful works of art. The role of national musical examples in aesthetic education deserves special attention. National melodies and songs embody the artistic thinking and aesthetic ideals of a people and educate the younger generation in a spirit of respect for national culture. This enables aesthetic education to be conducted on the basis of national values.

Aesthetic education in the process of music instruction is inseparably linked with creative activity. Singing, playing instruments, and musical improvisation expand students' creative potential and develop artistic thinking. Such forms of activity significantly increase the effectiveness of aesthetic education. Socialization is the process by which an individual internalizes social norms and cultural values, assumes various social roles, and develops the ability to interact effectively within society. Music is an important instrument in this process because it unites individuals around shared values and emotions. Group singing, ensemble performance, and participation in music festivals and concerts foster the development of social skills. For example, ensemble performance teaches students to cooperate, synchronize rhythm and melody, and take responsibility for collective outcomes. Thus, musical activity enhances adaptability to teamwork and social discipline. Music also plays a vital role in the formation of communication skills. During music classes, rehearsals, and performances, students interact, exchange ideas, and share creative experiences. This process develops social awareness and helps individuals find their place within society.

National and international music events serve as means of social integration and cultural exchange. Familiarity with the musical traditions of different ethnic and cultural groups broadens worldview and fosters cultural tolerance. This strengthens social adaptation and cohesion within a global society. In today's globalized and technologically advanced society, the educational significance of music continues to grow. Students and the younger generation are shaped under diverse cultural influences; therefore, their spiritual enrichment and holistic development are urgent educational priorities. From this perspective, the art of music possesses considerable pedagogical potential. Modern musical technologies and digital platforms serve as effective means of engaging young people in music. Through online courses, virtual concerts, and interactive platforms, students explore various genres and styles while developing their creative potential. This process enhances creative thinking, aesthetic taste, and emotional sensitivity. Furthermore, the educational potential of music in modern society is evident in its contribution to socialization. Community musical activities, clubs, and festivals bring young people together and foster cooperation and communication skills. Thus, music education supports not only individual development but also personal growth in harmony with society.

The promotion of national and international musical heritage through modern technologies is also an important pedagogical instrument. In this way, the younger generation deepens its understanding of national values, develops cultural tolerance, and broadens its worldview. At the same time, meaningful and spiritually rich musical works contribute to moral and aesthetic education. In contemporary society, utilizing the educational potential of music makes it possible to nurture mentally resilient, creatively active, socially competent, and well-rounded individuals. Therefore, educators and parents should integrate music as an essential component of the educational and upbringing process. Raising a harmonious generation is one of the foremost tasks of modern society. In this process, the art of music serves as an effective means of fostering spiritual, moral, aesthetic, and social development. Education through music should aim not only at transmitting knowledge but also at enriching the inner world of the individual and cultivating harmonious qualities. The primary objective in raising a harmonious generation is the development of the individual's aesthetic and spiritual world. Music enables individuals to experience beauty, cultivate aesthetic taste, and enrich their spiritual lives. Thus, students acquire not only musical competencies but also the ability to regulate emotions, develop creative thinking, and enhance emotional sensitivity.

The second issue is to ensure moral education. Through musical works and folk songs, young people acquire moral values such as honesty, kindness, loyalty, and responsibility. Music is a natural and effective means of demonstrating and instilling these qualities in the individual. The third issue is the formation of social skills. Singing in a group, performing in an ensemble, and participating in musical events teach a person to cooperate, understand responsibility, and harmonize with society. At the same time, national and international musical events encourage young people to expand their cultural tolerance, strengthen national pride, and broaden their worldview. The fourth issue is the use of modern technologies and innovative pedagogical approaches. Through digital platforms, online courses, and music programs, students learn different genres and styles and develop their creative potential. In this way, the educational potential of music expands and the effectiveness of education increases.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

Music, as an integral factor in human spiritual development, plays an important role in a person's spiritual, moral, aesthetic, and social development. It enables individuals to enrich their inner world, develop aesthetic taste, cultivate moral qualities, and form social skills. National music and folk heritage help the younger generation understand their national identity, foster a spirit of patriotism, and develop respect for cultural values.

From a pedagogical perspective, music education is an effective tool for developing creative thinking, emotional sensitivity, mental stability, and social adaptation skills. With the help of modern technologies and innovative approaches, the educational possibilities of music are expanding, and the potential for educating young people as harmonious, spiritually mature individuals is increasing. Thus, when the pedagogical, aesthetic, moral, and social aspects of music are effectively utilized in the education system, it becomes a strategic instrument for forming a harmonious generation. It is scientifically proven that music is not only an art form but also an essential pedagogical tool for spiritual development and societal progress.

References:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent, 2017.
3. Qodirov A. Musiqa pedagogikasi asoslari. – Toshkent, 2016.
4. Abduqodirov R. Musiqa va estetik tarbiya. – Toshkent, 2019.
5. Sharipov Sh. San'at va ma'naviyat. – Toshkent, 2020.
6. Boliyev, U.I. (2025). Musiqa madaniyatining talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati.
7. Asqarova, S.M. (2022). The role of music in the formation of the spiritual and aesthetic perfection of young students. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, 11(03), 106–109.
8. Abdixodirova, G.Z., & Axmedova, S.F. (2024). Bolalar bog'chasida musiqa tarbiyasi. Models and Methods in Modern Science, 3(4), 169–172.
9. Abdurayimov, F.M. (2025). Musiqa ta'limi: kasbga muhabbat, madaniyatga hurmat, jamiyatga sadoqat.
10. Ashurova, S.S. (2025). The role of music culture in the aesthetic education of schoolchildren. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(4), 334–339.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TABIATGA ONGLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna
"University of economics and pedagogy" NOTM
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Maqolada yosh avlodning ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitni asrashga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otish hamda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tabiat va inson o'rtasidagi uzviylikni anglashning psixologik-pedagogik jihatlari hamda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik tarbiya berishning samarali yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ekologik tarbiya, ongli munosabat, metodologiya, tabiatni muhofaza qilish, ekologik madaniyat, pedagogik yondashuv, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article highlights the scientific-theoretical and methodological foundations for forming a conscious attitude toward nature in primary school students. It analyzes the issues of enhancing the ecological culture of the younger generation, fostering a sense of responsibility for environmental protection, and applying modern pedagogical technologies in the educational process. Furthermore, the psycho-pedagogical aspects of understanding the interconnection between humans and nature are examined, and effective ways of providing environmental education in lessons and extracurricular activities are identified.

Key words: primary education, environmental education, conscious attitude, methodology, nature conservation, ecological culture, pedagogical approach, sustainable development.

Аннотация: В данной статье освещаются научно-теоретические и методологические основы формирования осознанного отношения к природе у учащихся начальных классов. Анализируются вопросы повышения экологической культуры подрастающего поколения, пробуждения чувства ответственности за охрану окружающей среды и использования современных педагогических технологий в образовательном процессе. Также рассматриваются психолого-педагогические аспекты понимания взаимосвязи человека и природы, определяются эффективные пути экологического воспитания на уроках и во внеурочной деятельности.

Ключевые слова: начальное образование, экологическое воспитание, осознанное отношение, методология, охрана природы, экологическая культура, педагогический подход, устойчивое развитие.

KIRISH

XXI asrda global ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyatdan tabiatga bo'lgan munosabatni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Biosfera muvozanatining buzilishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi nafaqat texnologik, balki ma'naviy-pedagogik yechimlarni ham taqozo etadi. Bu borada yosh avlodda tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimining, xususan, uning poydevori hisoblangan boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar dunyoni emotsional-hissiy jihatdan idrok etishga moyil bo'ladilar. Aynan shu davrda tabiat haqidagi dastlabki tushunchalar shakllanadi va ularning kelajakdagi ekologik xulq-atvori shakllanishiga asos solinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va ekologiya sohasidagi farmonlarida ham yoshlarni tabiatga daxldorlik ruhida tarbiyalash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [1, 14-b.].

Biroq bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolinayotgani, ularda tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning metodologik asoslarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda tabiatga munosabat masalasi turli rakurslarda o‘rganilgan. Masalan, Sh. Qurbonov ta’lim sifatini oshirishda atrof-muhit bilan uzviylikning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [9, 95-b.]. Shuningdek, bolaning shaxs sifatida shakllanishida ekologik ong va madaniyatning o‘rni xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida metodologik jihatdan asoslab berilgan. Shunga qaramay, boshlang‘ich ta’lim darsliklaridagi ekologik mazmunni zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan integratsiya qilish hamda uni o‘quvchining ichki e’tiqodiga aylantirish masalalari hamon dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich ta’limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish muammosi pedagogika fanining fundamental yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u turli davrlarda o‘ziga xos nazariy asoslarga ega bo‘lgan. Ushbu masalaning metodologik negizida inson va tabiatning genetik hamda funksional birligi haqidagi g‘oyalar yotadi. Klassik pedagogika vakillari bolaning tabiat bilan muloqotini shaxs kamoloti uchun eng muhim omil deb hisoblaganlar.

Xususan, J.J. Russo bolani tabiat qo‘ynida, sun’iy to‘siqlarsiz tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa, I.G. Pestalotsi atrof-muhitni kuzatish orqali bolada “borliqning yaxlit obrazi” shakllanishini isbotlab bergan [4, 112-b.]. Ularning qarashlari bugungi kundagi ekotsentrik yondashuvning ilk kurtaklari bo‘lib xizmat qilgan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ekologik ta’limning metodologik asoslari tizimli yondashuv asosida tadqiq etila boshlandi.

I.D. Zverev va A.N. Zahlebniy kabi olimlar maktab ta’limida tabiatni muhofaza qilish g‘oyalarini fanlararo integratsiya qilish zarurligini asoslab berdilar. Ularning fikricha, tabiatga ongli munosabat bu nafaqat bilimlar majmuasi, balki shaxsning axloqiy pozitsiyasidir [5, 67-b.].

O‘zbekistonlik pedagog olimlar ham ushbu mavzuda salmoqli tadqiqotlar olib borganlar. P.G‘. Gulyamov o‘zining geografik va ekologik ta’limga oid ishlarida mahalliy ekotizimlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda “Vatan tabiatiga muhabbat” hissini shakllantirish metodikasini ishlab chiqqan [6, 45-b.].

Shuningdek, J. O‘sarov boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarida o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rnini tahlil qilib, ongli munosabatni shakllantirishning psixologik mexanizmlariga to‘xtalib o‘tgan [2, 120-b.].

Psixologik nuqtai nazardan, tabiatga ongli munosabatning shakllanishi bolaning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq. S.D. Deryabo va V.A. Yasvinlarning fikricha, kichik maktab yoshidagi bolalarda “subyektivlashtirish” jarayoni kuchli bo‘ladi, ya’ni ular tabiat obyektlariga (hayvonlar, o‘simliklar) o‘zlaridek jonli mavjudot, “shaxs” sifatida qaraydilar [7, 88-b.].

Ushbu metodologik qarash boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan dars jarayonida antropomorfik yondashuvdan unumli foydalanishni talab etadi. Zamonaviy tadqiqotchi Sh. Qurbonov ta’kidlaganidek, bugungi kunda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishda faqat darslik bilan cheklanib qolish yetarli emas. U ta’lim jarayoniga “ekologik loyihalar” va “virtual laboratoriyalar”ni olib kirish orqali o‘quvchining amaliy ishtirokini ta’minlash metodologiyasini taklif etadi [3, 98-b.].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning metodologik asosi bu bilimlarni hissiyotlar va amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishdan iboratdir. Mazkur jarayon o‘quvchidan tabiatni nafaqat o‘rganishni, balki uni qadriyat sifatida e’zozlashni ham talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari tanlab olindi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga ongli munosabatni shakllantirish jarayoni murakkab pedagogik hodisa bo‘lganligi sababli, tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar majmuasidan foydalanildi:

1. **Tizimli yondashuv.** Tabiatga ongli munosabatni shakllantirish jarayoni o‘zaro bog‘liq elementlar (bilim, his-tuyg‘u, e’tiqod va amaliy faoliyat) yig‘indisi sifatida qaraldi. Sh. Qurbonov ta’kidlaganidek, ta’lim tizimidagi har bir komponent o‘quvchining umumiy madaniyati va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishi shart [9, 95-b.].

2. **Faoliyatli yondashuv.** O‘quvchilarning tabiat haqidagi bilimlari bevosita amaliy harakatlar (kuzatish, tajriba-sinov, ekologik loyihalar) orqali ko‘nikmaga aylantirildi. Bunda J. O‘sarov tomonidan ilgari surilgan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishning faoliyatli modeliga tayanildi [7, 122-b.].

Tadqiqotning bosqichlari va metodlari: tadqiqot jarayoni uchta asosiy bosqichda amalga oshirildi:

- nazariy-tahliliy bosqich – mavzuga oid falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilindi. Mazkur bosqichda “ongli munosabat” tushunchasining ilmiy-nazariy parametrlari aniqlandi;

- diagnostik bosqich – boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatga bo'lgan munosabatini aniqlash maqsadida so'rovnomalar, suhbatlar va test sinovlari o'tkazildi. Olingan natijalar o'quvchilarning ekologik bilimlari va amaliy ko'nikmalari o'rtasidagi nomutanosiblikni ko'rsatdi [6, 56-b.];
- tajriba-sinov bosqichi – dars jarayoniga tabiatni asrashga yo'naltirilgan innovatsion metodik ishlanmalar tatbiq etildi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish texnikasi: tadqiqotda miqdoriy va sifat tahlili metodlaridan foydalanildi. O'quvchilarning tabiatga munosabatini o'lchashda V.A. Yasvinning "Ekotizimga nisbatan subyektiv munosabat" metodikasidan foydalanildi, bu metodika o'quvchining tabiat ob'ektlariga bo'lgan emotsional bog'liqligini aniqlash imkonini berdi [3, 102-b.].

Metodologiyaning muhim qismi sifatida "Ekologik loyihalar" metodi tanlandi. Ushbu metod doirasida o'quvchilar maktab tomorqasidagi o'simliklarni parvarish qilish, chiqindilarni saralash va "Tabiat kundaligi"ni yuritish kabi amaliy topshiriqlarni bajardilar. Bu jarayon o'quvchida tabiatning bir qismi ekanligi haqidagi ichki ishonchni shakllantirishga xizmat qildi. Qo'llanilgan metodologiya o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ehtiyojga aylantirishga, tabiatni nafaqat o'rganish ob'ekti, balki o'zaro muloqot sub'ekti sifatida anglashga yo'naltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga ongli munosabatni shakllantirish darajasi sezilarli darajada oshganligini ko'rsatdi. Tajriba guruhi sifatida tanlab olingan sinflarda o'quv jarayoni an'anaviy darslardan farqli o'laroq, faoliyatli yondashuv va interaktiv loyihalar asosida tashkil etildi. Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba boshida va yakunida o'quvchilarning ekologik ong darajasi uchta mezon bo'yicha diagnostika qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhida ko'rsatkichlar barqaror qolgan bo'lsa, tajriba guruhida ijobiy dinamika kuzatildi. Eng katta o'sish amaliy faoliyat (kognitiv) komponentida kuzatildi. Bu shuni isbotlaydiki, o'quvchilarga tabiatni asrash bo'yicha amaliy topshiriqlar (masalan, "Yashil makon" loyihasidagi ishtirok) berilganda, ularning ongli yondashuvi nazariy darslarga qaraganda tezroq shakllanadi [3, 98-b.].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun tabiat shunchaki tashqi muhit emas, balki uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq qadriyatga aylanishi kerak. P. G'ulyamov ta'kidlaganidek, ekologik tarbiya faqatgina tabiatni o'rganishdan iborat emas, balki tabiatga bo'lgan hurmatni ijtimoiy norma darajasiga ko'tarishdir [6, 48-b.].

Shuningdek, tajriba davomida o'quvchilarning tabiat obyektlarini "subyektivlashtirish" darajasi tahlil qilindi. Agar tajriba boshida o'quvchilar o'simlik va hayvonlarga faqat foydali yoki zararli mahsulot sifatida qaragan bo'lsa, tajriba yakunida ularni "tirik mavjudot" va "himoyaga muhtoj do'st" sifatida qabul qila boshladilar. Bu natija V. A. Yasvinning ekologik pedagogika borasidagi nazariyalarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [7, 105-b.].

Olingan natijalar Sh. Qurbonovning ta'lim sifatini boshqarishda integratsiyalashgan yondashuv haqidagi fikrlarini yanada boyitadi. Ya'ni tabiatshunoslik darslarini tasviriy san'at, texnologiya va ona tili darslari bilan bog'lab o'tish o'quvchida borliqning yaxlit manzarasini yaratishga xizmat qiladi [3, 102-b.].

Ishlab chiqilgan metodologik model o'quvchilarning ekologik madaniyatini o'rtacha 35-40 % ga oshirish imkonini berdi. Bu esa boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy asoslari to'g'ri tanlanganligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tabiatga ongli munosabat – bu shunchaki ekologik bilimlar yig'indisi emas, balki shaxsning tabiat bilan o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladigan axloqiy, hissiy va amaliy faoliyatining integratsiyalashgan majmuasidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ta'limda "tabiatga muvofiqlik" va "shaxsga yo'naltirilganlik" tamoyillarining qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari ularda dunyoni yaxlit idrok etish va tabiat obyektlariga hissiy bog'lanish imkoniyatini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nazariy bilimlarni amaliy loyihalar (kuzatish, tajriba, parvarishlash) bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning ekologik mas'uliyatini 35-40% ga oshiradi [7, 2020, 125-b.].
3. Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda tabiatga nisbatan "iste'molchi"lik kayfiyatidan "himoyachi"lik pozitsiyasiga o'tishga xizmat qiladi. Bu esa Sh. Qurbonov tomonidan ta'kidlangan ta'lim sifatini insonparvarlashtirish g'oyasiga to'la mos keladi [9, 2017, 98-b.].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- integratsiyalashgan darslar sonini ko‘paytirish, ya’ni tabiatshunoslik darslarini san’at, texnologiya va ona tili darslari bilan bog‘lab o‘tish orqali tabiatning estetik va amaliy qiymatini o‘quvchiga chuqurroq yetkazish lozim;
- “Jonli burchak” va maktab tajriba maydonchalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning bevosita tabiat bilan muloqot qilishlari va amaliy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash zarur [6, 2021, 62-b.];
- raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish, dars jarayoniga virtual ekskursiyalar va ekologik simulyatsiyalarni olib kirish orqali o‘quvchilarda tabiatdagi global jarayonlar haqida tasavvur uyg‘otish tavsiya etiladi;
- oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, bolada tabiatga ongli munosabat shakllanishi uchun maktabda berilgan tarbiya oilaviy muhitda ham davom etishi, ota-onalar farzandlari bilan tabiat qo‘ynida ekologik aksiyalarda ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 28.01.2022 yildagi PF-60-son https://lex.uz/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori ilovasi. https://lex.uz/ru/docs/-4354743
3. Дерябо, С. Д., Ясвин, В. А. Экологическая педагогика и психология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 480 с.
4. Gulyamov, P. G‘. Geografiya va ekologiya (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Universitet, 2010. – 152 b.
5. Komenskiy, Y. A. Buyuk didaktika (rus tilidan tarjima). – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – 320 b.
6. Nishonova, Z. T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2021. – 260 b.
7. O‘sarov, J. E. Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020. – 210 b.
8. Песталоцци, И. Г. Избранные педагогические сочинения. – Москва: Педагогика, 1981. – 336 с.
9. Qurbonov, Sh. Ta’lim sifatini boshqarish nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – 240 b.
10. Ushinskiy, K. D. Tanlangan pedagogik asarlar. – Toshkent: O‘rta va oliy maktab, 1959. – 410 b.
11. Зверев, И. Д. Экологическое образование школьников. – Москва: Педагогика, 1983. – 160 с.

GEMATOLOGIK-ONKOLOGIK KASALLIKLARGA CHALINGAN O'QUVCHILAR UCHUN GOSPITAL MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning
klinik asoslari kafedrasi dotsent v.b. (PhD)

Qayumova Sabrina To'lqin qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
Surdopedagogika ta'lim yo'nalishi magistranti

ORCID: 0009-0009-3016-1626

Annotatsiya: Ushbu maqolada gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan bolalar uchun gospital maktablarda ta'lim jarayonini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari atroflicha yoritilgan. Tadqiqot doirasida bolalarning davolanish jarayonida ta'limdan uzilib qolish muammolari, ularning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi hamda ta'lim ehtiyojlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Maqolada gospital ta'limning ahamiyati, individual ta'lim rejalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini bolalarning sog'lig'i va davolanish sharoitlariga moslashtirish, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari gospital maktablarda tashkil etilgan maxsus ta'lim jarayoni bolalarning psixologik barqarorligini saqlash, bilim darajasini ushlab turish hamda kasallikdan keyingi jamiyatga tezkor integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada individual pedagogik yondashuvni joriy etish, o'quv materiallarini moslashtirish va ta'lim jarayonini interaktiv hamda multimediya vositalari asosida tashkil etishning samarali usullari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: gospital maktab, gematologik-onkologik kasalliklar, maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, individual ta'lim rejasi, psixologik barqarorlik, ijtimoiy integratsiya.

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the scientific and pedagogical foundations for organizing the educational process in hospital schools for children with hematologic-oncologic diseases. The study systematically examines issues related to educational discontinuity during medical treatment, children's psychological well-being, social adaptation, and specific educational needs. Particular attention is given to the significance of hospital-based education, the development of individualized education plans, the adaptation of educational activities to children's health conditions and treatment environments, as well as the effective use of information and communication technologies. The findings indicate that specially organized educational programs in hospital schools play a crucial role in maintaining children's psychological stability, preserving their academic achievement levels, and facilitating rapid social reintegration after illness. Furthermore, the article proposes effective strategies for implementing individualized pedagogical approaches, adapting learning materials, and utilizing interactive and multimedia teaching tools.

Key words: hospital school, hematologic-oncologic diseases, special pedagogy, inclusive education, individualized education plan, psychological stability, social integration.

Аннотация: В статье подробно раскрываются научно-педагогические основы организации образовательного процесса в госпитальных школах для детей с гематологическими и онкологическими заболеваниями. В рамках исследования системно проанализированы проблемы прерывания образовательного процесса в период лечения, психологическое состояние детей, их социальная адаптация и образовательные потребности. Особое внимание уделено значению госпитального образования, разработке индивидуальных образовательных планов, адаптации учебного процесса к состоянию здоровья детей и условиям лечения, а также использованию информационно-коммуникационных технологий. Результаты исследования свидетельствуют о том, что специально организованный образовательный процесс в госпитальных школах играет важную роль в поддержании психологической устойчивости детей, сохранении уровня их знаний и обеспечении ускоренной социальной интеграции после перенесённого заболевания. Кроме того, в статье предложены эффективные методы реализации индивидуального педагогического подхода, адаптации учебных материалов и применения интерактивных и мультимедийных средств обучения.

Ключевые слова: госпитальная школа, гематолого-онкологические заболевания, специальная педагогика, инклюзивное образование, индивидуальный образовательный план, психологическая устойчивость, социальная интеграция.

KIRISH

So‘nggi yillarda bolalar o‘rtasida gematologik-onkologik kasalliklar bilan bog‘liq holatlarning ko‘payib borishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu kasalliklarga chalingan bolalar ko‘pincha uzoq muddat shifoxona sharoitida davolanadi va natijada umumta’lim muassasalarida muntazam ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi [Mukherjee et al., 2019]. Onkologik kasalliklar organizmda hujayralarning nazoratsiz o‘sishi va bo‘linishi bilan tavsiflanadigan patologik jarayonlar hisoblanadi. Ushbu jarayon hujayra siklining buzilishi, genetik mutatsiyalar hamda regulyator mexanizmlarning izdan chiqishi natijasida yuzaga keladi. Bolalar yoshida uchraydigan onkologik kasalliklar kattalardagi saraton kasalliklaridan kelib chiqishi, biologik xususiyatlari, rivojlanish mexanizmi hamda klinik kechishi bilan sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, bolalar onkologiyasida gematologik-onkologik kasalliklar, jumladan, leykozlar va limfomalar yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu kasalliklar bolalar saratonining eng keng tarqalgan shakllari bo‘lib, pediatrik onkologiya amaliyotida alohida ilmiy va klinik ahamiyatga ega [Adamczewska-Wawrzynowicz et al., 2023].

Bolalarda eng ko‘p uchraydigan gematologik-onkologik kasalliklarga leykemiya, limfomalar (Xodjkin va noxodjkin limfomalari), shuningdek, qon hosil qiluvchi tizim bilan bog‘liq boshqa malign o‘sma kasalliklari kiradi. Ushbu kasalliklar asosan suyak ko‘migi, limfa tugunlari va periferik qon tizimini zararlab, gemopoez jarayonining buzilishiga olib keladi. Natijada bolalarda anemiya, immunitetning pasayishi, infeksion asoratlar, shuningdek, umumiy jismoniy va psixofunksional rivojlanishning susayishi kuzatiladi. Gematologik malign kasalliklar bolalar onkologiyasida yuqori kasallanish ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, ularning erta tashxisi va kompleks davolanishi bolaning hayot sifati hamda uzoq muddatli prognozida muhim ahamiyat kasb etadi [Ward et al., 2014].

Leykemiya bolalar orasida eng keng tarqalgan onkologik kasalliklardan biri hisoblanib, u suyak iligida oq qon hujayralarining nazoratsiz va patologik ko‘payishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik pediatrik onkologiyada yetakchi o‘rin egallaydi va ko‘pincha uzoq muddatli hamda murakkab davolash jarayonini talab etadi. Davolash protokollari intensiv kimyoterapiya, ayrim holatlarda esa gematopoetik ildiz hujayralari transplantatsiyasini o‘z ichiga oladi. Davolanish jarayonida bolalar uzoq vaqt davomida shifoxona sharoitida yotib davolanadilar, bu esa ularning kundalik hayoti, ijtimoiy moslashuvi va ayniqsa ta’lim jarayonidan vaqtincha uzilib qolishiga olib keladi. Ushbu holat bolalarning psixo-emotsional holati va bilim olish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [Pui et al., 2012].

Mavzuning dolzarbligi. Gematologik-onkologik kasalliklar bolalar orasida turlicha klinik kechishga ega bo‘lib, ularning ta’lim va rivojlanish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Akut limfoblastik leykoz (ALL) bolalarda eng keng tarqalgan qon saratoni bo‘lib, davolanish jarayoni bir necha yil davom etadi; shu sababli bemorlar uyda yoki shifoxona sharoitida ta’lim olishlariga ehtiyoj sezadilar. Akut miyeloblastik leykoz (AML) kattalarga nisbatan kam uchrasa-da, intensiv va uzoq muddatli davolashni talab qiladi. Multiple mieloma va miyelodisplastik sindromlar (MDS) ham kam uchraydi, biroq uzoq muddatli davolash hamda ta’lim jarayonini tashkil etishni talab qiladi [Pui et al., 2012].

Xronik limfotsitik leykoz (CLL) sekin rivojlanadigan kasallik bo‘lib, bolalarda kamroq uchraydi. Xronik miyelositik leykoz (CML) Ph+ gen mutatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu holatlarda bolalar uchun individual ta’lim rejalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Non-Hodgkin limfoma (NHL) limfa tugunlarining saratoni bo‘lib, turli subtiplar bilan namoyon bo‘ladi va uzoq muddatli davolashni talab qiladi. Hodgkin limfoma (HL) yosh va o‘rta yoshdagi bolalarda uchraydi hamda gospital ta’lim kasallik davrida ta’lim jarayonini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi [Ward et al., 2014].

Shuningdek, multiple mieloma, myeloproliferativ neoplazmalar (MPN), aplastik anemiya, Fanconi anemiyasi, Wiskott–Aldrich sindromi, gemofiliya, talassemiya va sickle cell anemia kabi kasalliklar bolalarda nisbatan kam uchrasa-da, uzoq muddatli davolash va gospital ta'limni talab qiladi. Ushbu holatlar bolalarning qon va immun tizimi yetishmovchiligi, suyak iligi faoliyatining buzilishi hamda maxsus xavfsizlik choralarini talab etishi bilan tavsiflanadi. Shu bois, individual va moslashtirilgan ta'lim rejalari, shuningdek, gospital sharoitida ta'lim jarayonining integratsiyasi bolalar onkologiyasi amaliyotida muhim ahamiyatga ega [Ward et al., 2014].

Tadqiqot obyekti. Gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bolalar hamda ular uchun ta'lim va ijtimoiy moslashuv jarayonini tashkil etish.

Tadqiqot predmeti. Gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bolalarda gospital pedagogika sharoitida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

Tadqiqotning maqsadi. Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilarda gospital ta'limni tashkil etish jarayonini asoslashdan iborat bo'lib, bunda onkologik kasalliklarni davolash jarayonida, jumladan, kimyoterapiya, radioterapiya va suyak ko'migi transplantatsiyasi muolajalarini olgan bolalarda jismoniy holsizlik, tez charchash, xotira va diqqatning susayishi, shuningdek, psixo-emotsional beqarorlik holatlari yuzaga kelishi e'tiborga olinadi. Ushbu holatlar bolaning o'quv faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim jarayonini maxsus sharoitlarda, ya'ni gospital maktablarda hamda uyda individual ta'lim rejasiga muvofiq tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi [Pui et al., 2012; Ward et al., 2014]. Yuqorida keltirilgan omillar an'anaviy ta'lim jarayonini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Shundan kelib chiqib, ta'lim sifatini oshirish, onkologik kasalliklarga chalingan bolalarning sog'lom tengdoshlari kabi sifatli ta'lim olishlarini ta'minlash va ularning jamiyatga integratsiyasini yo'lga qo'yish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida belgilandi.

Tadqiqot vazifalari:

1. Gospital ta'lim metodlarining bolalarning ruhiy holati va davolanish jarayoniga ijobiy ta'sirini aniqlash.
2. Tadqiqot natijalariga tayangan holda gospital ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.
3. Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan bolalar bilan ishlovchi pedagoglar uchun amaliy-metodik yo'nalishlarni belgilash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tajriba va tahlillarga ko'ra, xorijiy davlatlarda, xususan AQSh va Yevropa mamlakatlarida gospital maktablari ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Scopus bazasida e'lon qilingan tadqiqotlar gospital ta'lim bolalarning akademik rivojlanishini saqlab qolish bilan birga, ularning reabilitatsiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi [Pini et al., 2017]. Chet ellik olimlar, ya'ni Mukherjee va hammualliflar tomonidan 2019-yilda olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim va davolanish jarayonining uyg'unligi bolalarda hayotga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishi ta'kidlangan. Shuningdek, WHO va UNICEF tomonidan 2021-yilda e'lon qilingan hisobotlarda bolalar onkologiyasida ta'limning uzluksizligini ta'minlash muhim ijtimoiy vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Ushbu kasalliklarga chalingan bolalar uzoq muddat kasalxonada yoki uy sharoitida bo'lib qolganligi sababli ular uchun ta'lim jarayonini tashkil etish zarur hisoblanadi. Sababi, mazkur kasalliklarga chalingan bolalar kelgusida sog'lom hayotga qaytganlaridan so'ng tengdoshlari bilan o'zaro ta'limiy tafovut sezmasliklari va ortda qolib ketmasliklari eng muhim masalalardan biri sanaladi. Ta'limdan uzoqlashish bolaning nafaqat bilim darajasiga, balki uning ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [Thompson & Gustafson, 1996]. Shu sababli, bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida tibbiy muassasalar huzurida tashkil etiladigan gospital maktablari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday o'quvchilar uchun ta'lim jarayoni individual, moslashuvchan va qisqa muddatli mashg'ulotlar asosida tashkil etilishi lozim [Shiu, 2004]. Shu bilan birga, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ijobiy emotsional muhit ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi [Katz & Madan-Swain, 2006].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan bolalar bilan ta'lim jarayonini tashkil etishda an'anaviy pedagogik metodlardan tashqari, bolaning jismoniy va psixoemotsional holatini hisobga oluvchi maxsus yondashuvlar qo'llanilishi lozim. Ushbu metodlar bolaning sog'lig'iga zarar yetkazmasdan, uning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. O'yin texnologiyalariga asoslangan metodlar bolalarda stressni kamaytirish va o'quv motivatsiyasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Didaktik o'yinlar, rolga kirish mashqlari hamda interaktiv topshiriqlar orqali bolalarning bilish jarayoni faollashtiriladi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar

bilan ishlashda ushbu metod yuqori samaradorlikka ega. Integrativ va kommunikativ metodlar esa bolalarning tengdoshlari bilan ijtimoiy aloqalarini saqlab qolishga qaratilgan bo‘lib, guruhli mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar va muloqotga asoslangan topshiriqlar orqali bolaning ijtimoiylashuvi qo‘llab-quvvatlanadi. Gospital maktablarida ta’lim jarayoni maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim tamoyillariga asoslanadi.

Jumladan:

1. Individual yondashuv – har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim rejasi ishlab chiqiladi [Prevatt et al., 2000].
2. Moslashuvchanlik – darslarning davomiyligi va hajmi bolaning sog‘lig‘i hamda davolanish jarayoniga moslashtiriladi [Yates et al., 2016].
3. Inklyuzivlik – ta’lim mazmuni umumta’lim standartlari bilan uzviy bog‘langan holda olib boriladi [Nisselle et al., 2019].
4. Psixologik qo‘llab-quvvatlash – bolaning ruhiy holatini barqarorlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi [Shaw & McCabe, 2008].

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, jumladan, masofaviy ta’lim va elektron platformalar orqali darslar tashkil etish gospital maktablarida ta’limning uzluksizligini ta’minlaydi [Raghavendra et al., 2013]. O‘tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, gospital ta’lim metodlaridan foydalangan bolalarda akademik ko‘rsatkichlar hamda psixologik holat sezilarli darajada yaxshilangan. Maxsus individual o‘quv rejalar va onlayn mashg‘ulotlar yordamida bolalar kasallik davrida darslardan orqada qolmagan, ularning o‘quv motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi oshgan. Bundan tashqari, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalar orasida stress va depressiya darajasi pasaygan. Uzoq muddatli davolanish jarayonida gospital ta’lim olgan bolalarning 90 foizi maktab ta’limiga muvaffaqiyatli qaytgan. Gospital ta’lim metodlarini qo‘llash kasallik bilan kurashish motivatsiyasini oshiradi va bolalarning umumiy sog‘lom taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, pedagogik yondashuv va individual ta’lim rejasi gospital ta’limning samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi, ayniqsa gematologik-onkologik kasalliklar bilan og‘rigan bolalar uchun.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o‘quvchilar uchun gospital maktablarida ta’lim jarayonini tashkil etish ularning ta’lim olish huquqini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonining individual, moslashuvchan va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi shaklda olib borilishi bolalarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari gospital ta’limning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bois, milliy ta’lim tizimida gospital maktablar faoliyatini rivojlantirish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adamczewska-Wawrzynowicz K., Wiącek A., Kozłowska A., et al. Modern treatment strategies in pediatric oncology and hematology. Discover Oncology, 2023; 14:98.
2. Katz, E. R., Madan-Swain, A. (2006). Journal of Psychosocial Oncology, 24(4), 45–70.
3. Lam, C. G., et al. (2019). The Lancet Oncology, 20(6), e300–e312.
4. Li, W. H. C., et al. (2013). Journal of Advanced Nursing, 69(8), 1775–1786.
5. Lightfoot, J., et al. (2015). Educational Review, 67(2), 141–157.
6. Raghavendra, P., et al. (2013). Computers & Education, 67, 152–164.
7. Mukherjee, S., et al. (2019). Supportive Care in Cancer, 27(11), 4321–4330.
8. Pui, C. H., Mullighan, C. G., Evans, W. E., Relling, M. V. Pediatric acute lymphoblastic leukemia: where are we going and how do we get there? Blood, 2012; 120(6), 1165–1174.
9. Pini, S., et al. (2017). European Journal of Cancer Care, 26(6).
10. Prevatt, F. F., et al. (2000). Journal of School Psychology, 38(5), 447–467.
11. Pelcovitz, D., et al. (1998). Journal of the American Academy of Child & Adolescent Psychiatry, 37(5), 504–511.
12. Sullivan, A. L., Lott, J. P. (2013). Educational Psychology in Practice, 29(1), 45–61.
13. Ward, E., DeSantis, C., Robbins, A., Kohler, B., Jemal, A. Childhood and adolescent cancer statistics. CA: A Cancer Journal for Clinicians, 2014; 64(2), 83–103.
14. WHO & UNICEF. (2021). Global Initiative for Childhood.
15. Yates, P., et al. (2016). Child: Care, Health and Development, 42(3), 378–386.
16. Shaw, S. R., McCabe, P. C. (2008). Psychology in the Schools, 45(1), 74–87.
17. Shiu, S. (2004). Journal of Child Health Care, 8(3), 169–181.



NEOLOGIZMLAR – BADIIY MATNDA USLUBIY VOSITA SIFATIDA

Ibragimova Shoira Normuminovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti
ORCID: 0009-0006-2734-8981

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakili Farida Afro'z ijodida uchraydigan muallif nutqini namoyon etuvchi individual-uslubiy neologizmlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Neologizmlarning paydo bo'lish sabablari, ularning estetik vazifalari hamda badiiy matnda obrazlilikni kuchaytirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijasida individual neologizmlar badiiy asarning stilistik o'ziga xosligini belgilovchi, muallifning poetik tafakkurini aks ettiruvchi muhim vosita ekanligi ilmiy asosda isbotlanadi.

Kalit so'zlar: individual-uslubiy neologizm, muallif nutqi, badiiy matn, lingvopoetika, kompozitsiya usuli, qo'shma so'zlar, poetik til, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik, qofiya, ritm, estetik ta'sir.

Abstract: This article analyzes the linguopoetic features of individual-stylistic neologisms that represent authorial speech in the works of Farida Afruz, a prominent representative of modern Uzbek literature. The study examines the reasons for the emergence of neologisms, their aesthetic functions, and their role in enhancing imagery within literary texts. The research substantiates that individual neologisms serve as an important means of defining the stylistic originality of a literary work and reflecting the author's poetic thinking.

Key words: individual-stylistic neologism, authorial speech, literary text, linguopoetics, compositional method, compound words, poetic language, imagery, emotional-expressiveness, rhyme, rhythm, aesthetic effect.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвопоэтические особенности индивидуально-стилистических неологизмов, отражающих авторскую речь в творчестве Фариды Афруз – яркой представительницы современной узбекской литературы. Рассматриваются причины возникновения неологизмов, их эстетические функции, а также роль в усилении образности художественного текста. В результате исследования обосновывается, что индивидуальные неологизмы являются важным средством, определяющим стилистическое своеобразие художественного произведения и отражающим поэтическое мышление автора.

Ключевые слова: индивидуально-стилистический неологизм, авторская речь, художественный текст, лингвопоэтика, композиционный метод, сложные слова, поэтический язык, образность, эмоционально-экспрессивность, рифма, ритм, эстетический эффект.

KIRISH

Badiiy adabiyotning muhim fazilatlaridan biri shundaki, u turmushni bezaydi, hayotimizni yanada yorqin va zavqli qiladi hamda insonni oliyjanoblikka chorlaydi. Binobarin, hayotdagi eng go'zal narsa so'z bo'lsa, shoirning eng yuksak va mas'uliyatli vazifasi ana shu so'zni o'rinli qo'llay bilishdir. Ijodkorning mahorati uning ichki dunyosi, tafakkur tarzi va hissiy olamini til vositalari orqali ifodalashda namoyon bo'ladi. Ana shu vositalarning muhim qismi muallif nutqi neologizmlaridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy asarda uslubiy-estetik vazifa bajarish imkoniyatiga ko'ra individual nutq neologizmlari alohida mavqega ega. Bu borada Ma'ruf Yo'ldoshev shunday yozadi: "Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan neologizmlar vaqti-vaqti bilan tilda paydo bo'lib tursa-da, badiiy matn uchun har doim ham muhim emas. Badiiy matn uchun ijodkorning o'zi tomonidan badiiy niyatini ifodalash maqsadida yaratilgan individual neologizmlar estetik qiymatga molikdir" [1:65].

Tadqiqotchi D. Shodmonova til–nutq–me'yor hamda individual birliklar munosabati haqida fikr bildirib, til uchun har bir ijodkorning individual uslubi muhim xarakter kasb etishini ta'kidlaydi. "O'zbek she'riyatida, – deb

yozadi tadqiqotchi, – an'anaviy poetik leksika tarkibida qaraluvchi ko'plab birliklar adabiy til uchun me'yor sanalmaydi. Masalan, adabiy me'yor chizig'idan tashqarida deb qaraluvchi, biroq she'riy nutqda faol uchraydigan qator birliklar borki, bu umumiylik sifatidagi adabiy tilni xususiylik sifatidagi she'riy nutqqa zid qo'yadi".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda individual-uslubiy neologizmlarning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash maqsadida sifat tahliliga asoslangan filologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyandasi Farida Afro'zning she'riy asarlari tanlab olindi. Ma'lumotlar badiiy matnlardan to'g'ridan to'g'ri kuzatish va tanlab olish usuli orqali yig'ildi. Neologizmlar kontekstual tahlil asosida o'rganilib, ularning semantik, struktur va uslubiy xususiyatlari aniqlandi. Tahlil jarayonida lingvopoetik, semantik-stilistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Har bir neologizmning badiiy matndagi funksional vazifasi, obrazlilikni kuchaytirishdagi o'rni va emotsional-ekspressiv ta'siri alohida ko'rib chiqildi. Olingan natijalar umumlashtirish usuli orqali tizimlashtirilib, individual-uslubiy neologizmlarning muallif poetik tafakkurini aks ettirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Individual-uslubiy neologizmlarning paydo bo'lishi bir qator omillar bilan bog'liq: favqulodda so'z yaratishga bo'lgan ehtiyoj, qofiyani ta'minlash zarurati, she'riy ritmni saqlash talabi va boshqalar.

Shu xususda Farida Afro'zning to'rtliklaridan birida qofiyani ta'minlash maqsadida yaratilgan individual neologizm kuzatiladi:

Tashna dilman, daryolashaylik,
Ko'ngil ochib dunyolashaylik,
Har lahzada diyorlashaylik,
Siz yonimda qoling, azizim.

Muallif birinchi misradagi daryolashaylik so'ziga semantik va struktur jihatdan hamohang dunyolashaylik so'zini qo'llagan. Shoirlar qofiya vositasida kitobxonni she'rning asosiy g'oyasiga yetaklaydi. Mazkur holatni ikki jihatdan baholash mumkin:

- til lug'at qatlamida mavjud so'zga ohangdosh birlikning yo'qligi sababli yangi so'z yaratish;
- mavjud qofiyadosh so'z bilan cheklanmay, yangicha, ohorli nutqiy birlik yaratishga intilish.

Favqulodda so'z yaratishga bo'lgan ehtiyoj natijasida yuzaga kelgan individual-uslubiy neologizmlar ham badiiy nutqda muhim o'rin tutadi. Ijodkor badiiy niyatini yanada yorqin ifodalash, ruhiy kechinmalarni teranroq ochish hamda o'quvchiga estetik zavq ulashish uchun mavjud so'z boyligidan ham kuchliroq ifodaga ega birliklarni izlaydi. Fransuz adabiyotshunosi R. Bart ta'kidlaganidek, "agar asarlarda faqat lug'atlarda qayd etilgan so'z va ma'nolargina qo'llanganida, badiiy adabiyot ham mavjud bo'lmas edi" [?, sahifa].

Bunday neologizmlar ikki omil bilan belgilanadi:

- kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatish (subyektiv omil);
- mavjud til vositalaridan qoniqmaslik natijasi (obyektiv ijodiy zarurat).

Masalan:

Jodugar
ilinjlar domida
Goh yig'lab, gohida yupanib.
Bugun ham
Kaftlarim xinosiz,
Bugun ham
Qoshlarim beo'sma.
Bu karaxt
Ilinjlar Xudosiz,
Xanjarsoz muhabbat, yo'l to'sma!

Kompozitsiya usulida yasalgan individual-uslubiy neologizmlar qo'shma shaklda bo'lib, asosan ot va sifat turkumlarida namoyon bo'ladi. Ular muallifning badiiy tafakkuri, dunyoni idrok etish tarzi hamda obraz yaratish

mahoratini yorqin ko‘rsatadi. Bunday birliklar mavjud til unsurlari asosida yangi semantik yuk bilan shakllanib, matnning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytiradi.

Yuqoridagi parchada uchraydigan “xanjarsoz muhabbat”, “Xudosiz ilinjlar” kabi birikmalar an’anaviy leksik birliklardan farqli ravishda yangicha ma’no kasb etgan. “Xanjarsoz muhabbat” muhabbatning yaratuvchi emas, balki jarohatlovchi, vayronkor kuch sifatidagi obrazini ifodalaydi. “Xudosiz ilinjlar” esa umidsizlik va ma’naviy tayanchsizlikni bildiruvchi kuchli metaforik neologizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday birliklar nafaqat poetik ta’sirchanlikni oshiradi, balki qahramonning ruhiy kechinmalarini ham chuqurroq ochib beradi. Shu bois individual neologizmlar badiiy asarning stilistik o‘ziga xosligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Yoki:

Hirotda mirimiz hazrat Alisher,
Injata’b zotlarning qo‘llarin olib…

Bu yerda “injata’b” so‘zi individual-uslubiy neologizm sifatida e’tiborni tortadi. U sifat turkumiga mansub bo‘lib, shaxsning ruhiy nozikligi, muloyim fe’l-atvori va ma’naviy pokligini ifodalaydi. Semantik jihatdan “nozik tabiatli”, “latif ruhli”, “muloyim fe’lli” kabi ma’nolarni anglatadi. Mazkur birlik orqali muallif ma’rifatli va komil insonlar obrazini yaratadi hamda tasvirlangan muhitning ziyolilik darajasini oshiradi.

Shuningdek:

Amir umr bor-ku oromvash,
Axir qancha kutganmiz uni.

Bu misralarda qo‘llangan “oromvash” so‘zi ham individual-uslubiy neologizm bo‘lib, “orom” va fors-tojik tilidan kirgan –vash (“–ga o‘xshash”) komponentlaridan tashkil topgan. U O‘TILda orombaxsh shaklida qayd etilib, xotirjamlik bag‘ishlovchi, rohat, huzur va osoyishtalik beruvchi ma’nolarni bildiradi (O‘TIL, 3-tom. – 139-bet). Natijada amir obrazi xalq kutgan osoyishtalik va najot timsoli sifatida talqin etiladi. Uslubiy jihatdan bunday birliklar poetik nutqqa mumtoz ohang, sharqona nafislik hamda ideallashtirish ruhini olib kiradi.

Jonimni umrimga ulashib dog‘man,
Ki fursat ortidan yetib ham bo‘lmas.
Bolamga ko‘prigu inimga tog‘man,
Yarimta ko‘ngilning xumdoni to‘lmas.

Xumdon so‘zi xum yasaladigan joy, idish ma’nosini anglatadi. Kulolchilikda loydan yasalgan idishlar yoki g‘isht pishiriladigan o‘choq, pech kabi ma’nolarni ifodalaydi (O‘TIL, 4-tom. – 123-bet). Shoir ko‘ngilni ichida yonib turgan, ammo to‘lmaydigan pechga o‘xshatadi.

Ovozimning bir tori tindi,
G‘ambodaga to‘ldi qabog‘im.

G‘amboda kuchli qayg‘u-alamdan kelib chiqadigan holat, g‘am azobidagi ruhiy kechinmani bildiradi (O‘TIL, 4-tom. – 434-bet). Qabog‘ (qavoq) esa ko‘z kosasini qoplab turuvchi, ochilib-yopilib turadigan teri qatlamidir (O‘TIL, 4-tom. – 318-bet). Shoira ichki ruhiy holatni ifodalashda qovog‘ining g‘amga to‘lishi va ovoz torining tindirilishi orqali kuchli obraz yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, individual-uslubiy neologizmlar badiiy asarning stilistik o‘ziga xosligini belgilovchi, muallif nutqining individualligini ko‘rsatuvchi hamda badiiy til taraqqiyotiga ta’sir etuvchi muhim lingvopoetik hodisa hisoblanadi. Ularni o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. – T., 2009.
2. O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom. G‘. Abduraxmonov tahriri ostida. – T.: Fan, 1975.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – T.: O‘qituvchi, 2007.
4. Mirzayev I. Lingvistik poetika va uning filologik tahlildagi o‘rni. Ilmiy to‘plam. – T.: Universitet, 2002.
5. Mirzayev I. Lingvopoetik tahlil – ijodiy tafakkur sohibini tayyorlashning birlamchi omili ekanligi haqida. Ilmiy to‘plam, 3-tom. – T.: O‘zMUnashri, 2006.
6. Farida Afro‘z. Ko‘zim manim... – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1999.
7. Farida Afro‘z. O‘zimniki. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

OPTIMISATION OF TECHNICAL AND PHYSICAL POTENTIAL IN THE IMPLEMENTATION OF THE ROTATIONAL METHOD OF PUSHING THE CORE

Tajimbetov Anvar Tengelbayevich
1st year researcher in Doctoral programme of
Uzbek state university of physical culture and sport

Abstract: Based on accelerometric analysis of the shot-put technique, a method for the conjugate development of special physical qualities and technical skills of qualified athletes using the rotational method has been substantiated. Its effectiveness has been experimentally confirmed in a six-week pre-competition mesocycle focused on speed and strength.

Key words: shot put, athletes, athletic preparedness, technical and physical training, training sessions.

Annotatsiya: Yadro uloqtirish texnikasining akselerometrik tahlili asosida malakali sportchilarning maxsus jismoniy sifatlari va texnik ko'nikmalarini aylanish usulidan foydalangan holda uyg'un rivojlantirish metodikasi asoslab berildi. Uning samaradorligi tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan olti haftalik musobaqaoldi mezo-siklda eksperimental ravishda tasdiqlandi.

Kalit so'zlar: yadro uloqtirish, sportchilar, sport tayyorgarligi, texnik va jismoniy tayyorgarlik, mashg'ulot jarayonlari, akselerometriya.

Аннотация: На основе акселерометрического анализа техники толкания ядра обоснована методика сопряжённого развития специальных физических качеств и технических навыков квалифицированных спортсменов с использованием вращательного способа. Её эффективность экспериментально подтверждена в шестинедельном предсоревновательном мезоцикле, ориентированном на развитие скоростно-силовых качеств.

Ключевые слова: толкание ядра, спортсмены, спортивная подготовленность, техническая и физическая подготовка, тренировочные занятия, акселерометрия.

INTRODUCTION

The progressive improvement of sporting results in world athletics, including men's shot put, highlights the need to optimize the forms and methods of managing the training process for domestic athletes. Training elite athletes is a long-term process, the initial phase of which involves establishing fundamental prerequisites: creating a stable dynamic pattern of competitive exercises and achieving the required level of general and specific physical fitness.

RESEARCH METHODOLOGY

In modern practice, there is a steady trend towards the dominance of the rotational method of shot put (rotational technique) among the world's strongest athletes. Despite this, its prevalence among specialists remains limited. The key reason for this situation is the insufficient theoretical and methodological development of the process of mastering the rotational shot-put technique at both national and international levels. Taking into account the historical origin of this method (also known as the 'circular swing') in the domestic school, it cannot be argued that there is a complete lack of an appropriate methodological basis. However, the existing developments, in their current form, do not correspond to modern realities. The evolution of the rotational technique has led to a significant transformation of both the biomechanics of the movement itself and, consequently, the system of requirements for the special physical training of shot putters. The aim of the study is to develop and theoretically substantiate a methodology for teaching the rotational shot-put technique and for the associated development of technical and physical fitness in athletes specializing in this event.

Research objectives: to assess the current level of technical skill and special physical fitness of qualified throwers. To develop and test a method for the integrated improvement of technical and special physical training in shot putters using the rotational technique.

Research methods: The study employed a set of complementary methods, including: theoretical analysis and synthesis of data from scientific and methodological literature.

Pedagogical methods:

- systematic pedagogical observation;
- pedagogical testing of physical and technical preparedness;
- structured pedagogical experiment.

Instrumental methods for recording and analysing technique:

- video analysis of competitive and training exercises;
- accelerometry to assess the kinematic parameters of movement.

Mathematical and statistical methods for processing and interpreting the data obtained. The research hypothesis is based on the assumption that the effectiveness of shot putters' performance can be improved by introducing a scientifically grounded methodology that integrates initial training in the rotational technique, enhances technical and physical fitness, and implements the principle of conjugate training within the overall training process.

RESULTS AND ANALYSIS

The basis of the conjugate technical and physical training methodology was a set of exercises that selectively targeted the leading muscle groups involved in the biomechanical structure of the rotational shot put. The methodology was implemented in two stages: during the first six-week mesocycle, the athletes mastered 28 specialised test exercises, the complexity of which progressively increased within weekly microcycles. In the subsequent six-week stage, these exercises were performed with the requirement for maximum power output.

The training session using the experimental method had the following structure:

1. General warm-up.
2. Special warm-up, including a set of exercises designed to prepare the musculoskeletal system for the main load and strengthen the core muscles. This component was combined with static and statodynamic strength exercises of a general impact.
3. The main part, based on the principle of regional speed-strength impact. Exercises for the muscles of the upper and lower extremities were performed sequentially and alternately. The semantic load of the sessions varied: in one training session, the emphasis was on improving the components associated with the entry phase into the turn; in the next, on the elements of the final effort. This ensured a targeted and differentiated impact on the key components of special training.

The main part of the session focused on technical work. It included: exercises with implements of various masses (6-10 kg): shot put from various starting positions, as well as shot put from a standing position and in full coordination (with a turn). A series of simulation exercises aimed at isolated and combined practice of individual phases and elements of the kinematic structure of the rotational technique. The results of each exercise were systematically recorded. The technical execution of the rotational shot put was monitored using instrumental methods:

1. High-speed video recording (recording frequency – 210 frames/s) for subsequent biomechanical analysis of movement kinematics.
2. Accelerometry – recording the projection of the acceleration of the pushing arm, which indirectly characterized the dynamics of the implement's acceleration.

The accelerometer readings demonstrated positive progress in improving the shot-put technique among athletes who trained using the experimental method. Analysis of the obtained data shows the following: while maintaining the same maximum acceleration of the implement at the moment of the final effort (peak phase, tooth D exceeding 3.5 g), by the end of the experiment there was a decrease in the amplitude of acceleration reduction during the phase of assuming the two-support position (tooth G). This indicates a reduction in implement deceleration in this critical transitional element of the technique. This change in parameters indicates optimization of movement kinematics: the two-support position is achieved before the final effort within a shorter time interval, and the implement's velocity demonstrates greater stability. The combination of these factors constitutes an objective criterion of technical skill development, which naturally leads to progress in sporting performance.

CONCLUSION

The study confirmed the effectiveness of two key elements: the use of accelerometry for objective monitoring and assessment of technical skill dynamics. The developed methodology for the combined improvement of special physical and technical training of qualified shot putters using the rotational method. The implementation of this methodology within the framework of a six-week pre-competition mesocycle contributes to the optimization of the biomechanical structure of movement, which is reflected in objectively recorded parameters and leads to an increase in athletic performance.

References:

1. Alexeev, V. I. Alexander Baryshnikov and the rotational shot-put technique // Legkaya atletika. - 1997. - № 8. - P. 16-17.
2. Buyak, G. Ya., Voronkin, V. I. Technique of shot putting with rotational speeding-up // Sovershenstvovanie sistemy sportivnoi trenirovki i obucheniya v legkoi atletike: sbornik nauchnykh trudov kafedry legkoi atletiki po itogam NIR za 1998 g. - M.: RGAFK, 1999. - P. 14-17.
3. Kengesbayevich, R. M. (2025, January). Didactics of Physical Culture and Sport. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 13, pp. 20-21).
4. Miller, V. I., Rubin, V. S., Machkanova, E. V. Theoretical and methodological substantiation for testing and training of shot putters in learning rotational putting // Sbornik trudov uchenykh RGUFKSiT: materialy nauchnoi konferentsii professorsko-prepodavatelskogo i nauchnogo sostava RGUFKSiT (24-26 fevralya 2010 g.). - M.: Svetoton, 2010. - P. 144-149.
5. Miller, V. I., Rubin, V. S., Machkanova, E. V. Improving Technical and Physical Fitness in Rotational Shot Put // Bulletin of Sports Science. - 2012.

MAGISTRLARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH – KASBIY FAOLIYATDA O'Z-O'ZINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
p.f.f.d. Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada magistrlarning ijodiy salohiyatini kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida ro'yobga chiqarish ilmiy asoslanadi. Xususan, magistrlarning kasbiy faoliyati mohiyati ijodiy muhit sharoitida kasbiy funksiyalarni amalga oshirish, ta'lim tarmog'ining dolzarb muammolari va amaliy vazifalarini hal qilish qobiliyati sifatida ko'rib chiqiladi. Tanlangan mutaxassislikni o'zlashtirish jarayonida o'z tajribasini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish asosida magistrlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari ochib berilgan. Ijodkorlik shaxsning ijodiy mohiyatini belgilaydigan va uning tarkibida doimiy o'zgarishlarni ta'minlaydigan samarali o'z-o'zini shakllantirish sharti sifatida qaraladi. Magistrlarni tayyorlashda zamonaviy o'quv jarayoni va amaliyotini tahlil qilish natijalariga ko'ra, qarama-qarshiliklar hamda uning rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarligini oshirish yo'llari belgilab berildi. Magistrlarni kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirishning samarali mexanizmi ularning kasbiy tayyorgarligini ijodiy salohiyatni maqbul rivojlantirishga yo'naltirish va tegishli tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash (kelajakdagi kasbiy faoliyatda ijodiy o'zini namoyon qilish uchun rag'batlantiruvchi motivlarni faollashtirish, fanlarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish, kasbiy faoliyatga tayyorlikning tarkibiy qismlarini shakllantirishda psixologik-pedagogik yordamni tashkil etish) orqali amalga oshirilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: magistr, ijodiy salohiyat, kasbiy faoliyat, zamonaviy ta'lim, o'z-o'zini shakllantirish.

Abstract: The article scientifically substantiates the realization of master's students' creative potential as a factor of their professional self-development. In particular, the essence of master's students' professional activity is considered as the ability to perform professional functions in a creative environment and to solve urgent problems and practical tasks within the educational system. The possibilities for realizing master's students' creative potential are revealed through the reconsideration and transformation of their own experience in the process of mastering the chosen specialty. Creativity is viewed as a condition for effective personal self-development, determining the creative essence of the individual and ensuring continuous change. Based on the analysis of the modern educational process and the practice of master's training, existing contradictions and development trends have been identified. The ways to improve professional training aimed at developing master's students' creative potential have been determined. It is substantiated that an effective mechanism of professional self-development lies in orienting professional training toward the optimal development of creative potential and in ensuring appropriate organizational and pedagogical conditions (activation of motives that stimulate creative self-expression in future professional activity; use of the didactic potential of academic disciplines; organization of psychological and pedagogical support in forming the structural components of readiness for professional activity).

Key words: master's student, creative potential, professional activity, modern education, self-development.

Аннотация: В статье научно обосновывается реализация творческого потенциала магистрантов как фактора их профессионального саморазвития. В частности, сущность профессиональной деятельности магистрантов рассматривается как способность осуществлять профессиональные функции в условиях творческой среды, а также решать актуальные проблемы и практические задачи системы образования. Раскрываются возможности реализации творческого потенциала магистрантов на основе переосмысления и преобразования собственного опыта в процессе освоения выбранной специальности. Творчество рассматривается как условие эффективного личностного саморазвития, определяющее творческую сущность личности и обеспечивающее её постоянные изменения. По результатам анализа современного учебного процесса и практики подготовки магистрантов выявлены существующие противоречия и тенденции их развития. Определены пути повышения профессиональной подготовки, направленной на развитие творческого потенциала магистрантов. Обосновано, что эффективный механизм профессионального саморазвития магистрантов заключается в ориентации их профессиональной подготовки на оптимальное развитие творческого потенциала и обеспечении соответствующих организационно-педагогических условий (активизация мотивов, стимулирующих творческое самовыражение в будущей профессиональной деятельности; использование дидактических возможностей учебных дисциплин; организация психолого-педагогической поддержки при формировании структурных компонентов готовности к профессиональной деятельности).

Ключевые слова: магистрант, творческий потенциал, профессиональная деятельность, современное образование, саморазвитие.

KIRISH

Dunyo bo‘ylab ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohasida jadal rivojlanish kuzatilayotgan bugungi zamonaviy sharoitda insonni raqobatbardosh ijodkor shaxs sifatida shakllantirish muammosi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal sur’atlarda o‘sib borishi, bozor munosabatlariga o‘tish va inson faoliyatining barcha jabhalarida, ayniqsa ta’lim sohasida, tez o‘zgarishlarga moslasha oladigan, tezkor reaksiyaga ega va samarali faoliyat yurita oladigan, nostandart va ijodiy yechimlar topa oladigan ijodkor mutaxassislarni shakllantirish hamda rivojlantirishni talab qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari jamiyatning intellektual, ma’naviy va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishning asosiy omili bo‘lgan ta’limga qo‘yiladigan talablarni oshirmoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’limning maqsadi ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilimlar, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berish, shuningdek, ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirish, qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi, insonni shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish, jamiyatning oliy qadriyati bo‘lgan insonning iste’dodi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o‘z qarorlarini ongli ravishda qabul qila oladigan hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan fuqarolarni voyaga yetkazish ekanligi ta’kidlangan [1]. Shuning uchun ta’lim shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, o‘z-o‘zini shakllantirish, o‘z-o‘zini anglash va tasdiqlash ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini yaratishi lozim. Ushbu muhim vazifa yuqori malakali, kasbiy mahoratli mutaxassislarni, ayniqsa o‘z ijodiy qobiliyatlarini oliy ta’limda ham, keyinchalik ko‘p tarmoqli kasbiy faoliyatda ham (chunki barcha soha mutaxassisliklari bitiruvchilari ta’lim sohasida ham, ishlab chiqarish sohasida ham o‘z mavqeiga ega bo‘lishi lozim) amalga oshirishga qodir magistr mutaxassislarni tayyorlash sharoitida, o‘zgaruvchan mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasalari tomonidan doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan yondashuvlar asosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Ijodkorning o‘z-o‘zini shakllantirishi deganda o‘ziga xos bo‘lgan, o‘zini qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi tasavvurlariga muvofiq ravishda o‘zini o‘zgartirishga qaratilgan ijodiy faoliyat turi tushuniladi [13].

Magistrlarning ijodiy kasbiy faoliyati jarayonida o‘z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari “ijodiy salohiyat” tushunchasi bilan bevosita bog‘liqdir. “Ijodiy salohiyat” tushunchasi ham xorijiy, ham mahalliy tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, ushbu tushuncha turli yondashuvlarda talqin etiladi, xususan:

- iste’dodlar, moyilliklar, qiziqishlar, umumiy intellekt, sezgi, qobiliyatlar va boshqalarni o‘z ichiga olgan tarkibiy shakllanish sifatida [16], [3], [25], [23], [14], [19];
- ijodkorlikka xos shaxsiy sifatlarning to‘rtta guruhi, ya’ni dunyoqarash, qadriyat, intellektual va irodaviy sifatlar sifatida [8], [25];
- shaxsiy mohiyatning namoyon bo‘lishi, ya’ni shaxsning ichki xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va xarakterining tashqi harakatlar, qarorlar hamda faoliyat orqali ifodalanishi sifatida [11];
- shaxsning ijodiy va intellektual faoliyatini amalga oshirish vositasi sifatida [3];
- inson tomonidan o‘z individualligini namoyon etish jarayoni sifatida [26];
- shaxsiy imkoniyatlarni tavsiflovchi sintetik (integratsiyalashgan) sifat sifatida [20];

- potensial ijodkorlik (shaxsning kelajakda ijodiy natijalar ko‘rsatish imkoniyati) sifatida [22];
- kognitiv ijodkorlik (yangicha va samarali fikrlash qobiliyati) sifatida [7];
- tipik xususiyat sifatida, uning namoyon bo‘lishi shaxsning ijodiy o‘ziga xosligiga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi [5].

Ushbu tushunchaning keng o‘rganilganiga qaramay, “ijodiy salohiyat” tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emas hamda uni magistrlarning kasbiy faoliyatida o‘zini o‘zi shakllantirish omili sifatida amalga oshirish muammosi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijodiy salohiyatni quyidagicha ta’riflash mumkin: ijodiy salohiyat – insonning yangi g‘oyalar yaratish, faoliyatning turli sohalarida nostandart g‘oyalar, yechimlar va yondashuvlarni ishlab chiqish, o‘z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish qobiliyatidir. Mazkur salohiyat insonning tasavvur qila olish, tanqidiy fikrlash, masalalarga noodatiy yondashish va yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. U ijodkorlik, fikrlash moslashuvchanligi, tasavvur, ijodiy motivatsiya va eksperimentlarga tayyorlik kabi individual fazilatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, insonga turli sohalarda o‘z qobiliyatlarini samarali namoyon etish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik ma’noda “ijodkorlik” ta’lim jarayonida paydo bo‘ladigan muayyan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda olingan natijalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati bilan tavsiflanadi. Ijodkorlikni “inson faoliyati turlaridan biri sifatida qarama-qarshiliklarni yechishga (ijodiy vazifani hal etishga) qaratilgan, buning uchun obyektiv (ijtimoiy, moddiy) va subyektiv shart-sharoitlar (bilim, ko‘nikma, ijodiy qobiliyatlar) zarur bo‘lib, natijada yangi va o‘ziga xos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega, shuningdek, ilg‘or natija yaratiladi” [2] deb talqin qilgan V. Andreev tajribasidan bahramand bo‘lamiz. Tadqiqotchi pedagogik ijod muammosini “inson faoliyatining ikki dialektik shartlangan turining pedagogik tizimi to‘g‘risidagi fan” deb hisoblaydi: pedagogik ta’lim va turli xil ijodiy faoliyat turlarida shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalashi hamda alohida shaxs va ma’lum bir guruhning ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama va uyg‘un rivojlantirish uchun muloqot qilish jarayoni. Pedagogik ma’noda “ijodkorlik” ta’lim jarayonida paydo bo‘ladigan muayyan qarama-qarshiliklar va muammolarni bartaraf etishda olingan natijalarning shaxsiy hamda ijtimoiy ahamiyati bilan tavsiflanadi.

Biz V. Andreevning ijodkorlikni “qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan inson faoliyatining turlaridan biri (ijodiy vazifalarni hal qilish) sifatida talqin etuvchi” yondashuvini o‘rinli deb bilamiz, bunda obyektiv (ijtimoiy, moddiy) va subyektiv shartlar (bilimlar, ko‘nikmalar, ijodiy qobiliyatlar) zarur bo‘lib, natija yangi va o‘ziga xos, shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muhim hamda faol xarakterga ega bo‘ladi [2].

Tadqiqotimizda pedagogik ijod muammosi “inson faoliyatining dialektik shartlangan ikki turi: pedagogik ta’lim va insonning o‘z-o‘zini ijodiy faoliyat hamda muloqotning turli shakllarida ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishning pedagogik tizimi haqidagi soha” sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, ijodkorlik magistrlarning, ya’ni bo‘lajak muhandis-pedagoglarning kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi hamda ta’lim (kasbiy, texnik) va ishlab chiqarish sohalarining ixtisoslashtirilgan muammolari va amaliy vazifalarini samarali hal etishga yordam beradi. Bunda ijodkorlik insonning o‘zini samarali shakllantirishining omili va zarur sharti bo‘lib, uning ijodiy salohiyatini belgilaydi. Ijodkorlikning o‘z-o‘zini shakllantirishdagi o‘rni shundaki, shaxs ijodkorlik jarayonini faollashtiradi [4].

O‘z-o‘zini shakllantirish jarayonining muhim belgisi uning faol xarakteri, faoliyat va shaxsiy xatti-harakatlarning turli ko‘rinishlariga tabiiy kirib borishidir. Bu jarayon ichki faol tamoyil bo‘lib, harakatchan, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi va ochiq tizim sifatida shaxsiy tuzilmani doimiy ravishda o‘zgartirish imkoniyatini ta’minlaydigan asosiy qobiliyatdir [4].

N. Negovskaning fikriga ko‘ra, magistrlarning, ya’ni muhandis-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi bevosita ularning oliy o‘quv yurtidagi kasbiy tayyorgarligi mazmuni va tashkil etilishiga bog‘liq [17]. Kelgusida magistrlarning, ya’ni muhandis-pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini tashqi va ichki omillar tizimi sifatida tushunish lozim: birinchidan, magistrlarning muhandislik va pedagogik faoliyatining ayrim turlariga mos keladigan asosiy kasbiy vazifalarni amalga oshirishga tayyorlikni shakllantirishning tashkiliy jarayoni; ikkinchidan, oliy ta’lim magistrlarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ro‘yobga chiqarishga asoslangan umumiy va maxsus kompetensiyalarni o‘zlashtirish jarayoni. O‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyati inson haqiqiy subyektga aylanganda amalga oshiriladi. Shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishining harakatlantiruvchi kuchlari uning o‘zida namoyon bo‘ladi va tashqi omillar o‘zining dasturiy rolini yo‘qotadi [24]. O‘z-o‘zini shakllantirishning eng samarali usuli bu o‘z tajribasini mushohadali tarzda qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish, o‘z sa’y-harakatlari hamda faoliyati orqali shaxs salohiyati va rivojlanishini ochishdir [21].

Magistrlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari salohiyat atamasining mazmuni bilan uzviy bog‘liq. “Salohiyat” atamasi lotin tilidan “kuch” deb tarjima qilinadi va keng ma’noda muayyan maqsadga erishish uchun mavjud yoki yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan manbalar, vositalar hamda zaxira kuchlar sifatida talqin etiladi [18].

Ijodiy salohiyat esa insonning barcha qobiliyatlarining o‘zaro bog‘liqligini hamda real amaliyot va yuqori faollik munosabatlarida shaxsning muhim ijodiy kuchlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ularni tizimli ravishda birlashtiruvchi hodisani aks ettiruvchi shaxsning tizim yaratuvchi sifatidir [26].

P. Kravchukning tadqiqot ishlarida “oliy ma’lumotli mutaxassis tayyorlash tizimidagi asosiy bosqich uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishdir, chunki ta’lim oluvchilarning izlanish, tahlil qilish, o‘zgartirishlar kirita olish qobiliyatlarini rivojlantirishgina kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, shuningdek, yangi sharoitlarga ijtimoiy moslashish, vaziyat o‘zgarishlariga tezkor munosabat bildirish hamda tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi” [12] degan o‘rinli fikrlar keltirilgan. Demak, ijodiy shaxs bu ijodiy faoliyat orqali o‘z ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qodir shaxsdir. Shu bilan birga, salohiyatning o‘zi ijodiy shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri, ijodiy faoliyat manbai bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida shaxs ijodiy shaxsga aylanadi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot magistrlarning ijodiy salohiyatini kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini shakllantirish omili sifatida nazariy jihatdan asoslab berishga qaratilgan. Tadqiqot vazifalari:

1. Magistrlarning kasbiy faoliyatini amalga oshirish mohiyatini ijodkorlik hodisasi sharoitida ko‘rib chiqish.
2. Magistrlarning ijodiy salohiyatini kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini shakllantirish omili sifatida ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini ochib berish.
3. Magistrlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan kasbiy tayyorgarligini oshirish yo‘llarini belgilash.

Tadqiqot usullari:

1. Magistrlar ijodiy kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda uni amalga oshirishga qo‘yiladigan talablarni ochib berish uchun normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, falsafiy hamda pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish.
2. Ijodiy kasbiy faoliyatning tarkibiy qismlarini, ijodiy salohiyatni va o‘zini o‘zi shakllantirish jarayonini tushunish uchun umumiy tushunchalarning mazmunini aniqlashtirishda ilmiy tahlil, eng muhim jihatlarni ajratib olish hamda umumlashtirishdan foydalanish.
3. Magistrlarning ijodiy salohiyatini kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini shakllantirish omili sifatida ro‘yobga chiqarish muammosi bo‘yicha olimlarning fikrlarini sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, ma’lum qonuniyatlar va nomuvofiqliklarni aniqlash, xulosalar chiqarish hamda o‘rganilayotgan hodisalarni yanada aniqlashtirish yo‘nalishlarini belgilash.

Tadqiqot mazmuni

Magistrlar kasbiy faoliyatini amalga oshirish mohiyatini ko‘rib chiqamiz. Bugungi sharoitda raqobatbardosh mutaxassisga qo‘yiladigan talablar yanada yuqori, kasbiy vazifalar esa murakkablashmoqda. Inson bu qiyinchiliklarni o‘z zimmasiga oladi, o‘z oldiga ongli ravishda maqsadlar qo‘yadi, muammolarni mos ravishda hal qilishga intiladi, o‘z ustida ishlaydi (o‘z rivojlanishi va o‘sishi uchun), maqsadlarga erishadi, yanada murakkab vazifalarni tanlaydi, o‘z qobiliyatlarini, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, yuqori standartlarga moslashishga harakat qiladi, faoliyatni optimallashtirishning mumkin bo‘lgan usullarini izlaydi va hokazo. O‘z maqsadi yo‘lida harakat qiladi va bu unga o‘sib borayotgan talablarga mos keladigan fazilatlar, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z xatti-harakatlarida namoyon etish hamda rivojlantirishga imkon beradi. Shunday qilib, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z salohiyatini ochish, “men” tushunchasini yaratish – bu shaxsning kasbiy shakllanishi omili sifatida o‘zini o‘zi shakllantirish ko‘rsatkichlaridir [21].

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy magistr – bu ikki tomonlama integratsiyalashgan kompetensiyaga ega mutaxassisdir. Magistratura mutaxassislarining malaka talablariga ko‘ra, ular ilmiy tadqiqot, pedagogik, loyihaviy-konstruktorlik, tahlil va nazorat, tashkiliy-boshqaruv, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritishlari mumkin [27; 28], ya’ni pedagogik va muhandislik faoliyatida kasbiy vazifalarni amalga oshiradi. Magistrlarni muhandis-

pedagogik faoliyatning ko‘p vazifali va keng tarmoqli turi kasbiy-pedagogik hamda muhandislik-texnik vazifalarni hal qilishda ijodkor bo‘lishni talab qiladi. L. Gurye va L. Redinlar ta’kidlaganidek, ijodiy faoliyat qobiliyati, ijodkorlik va qarorlar qabul qilishda mustaqillik, ilmiy-amaliy ko‘nikmalarni egallash pedagogik va muhandislik kasbiga uzviy xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar bo‘lib, mehnat faoliyatida o‘z salohiyatining yuqori raqobatbardoshligini ta’minlashning eng muhim shartidir [9].

Magistrlarning kasbiy faoliyatidagi ijodkorlik o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ishlab chiqarish sohasida ijodkorlikning alohida turi ko‘pincha tizimlashtirilmagan faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan muhandislikda namoyon bo‘ladi, xususan: eski texnika va texnologiyalarni takomillashtirish yoki ishlab chiqarish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi texnik yoki texnologik vositalarni yaratish; mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi, yanada takomillashgan shakllarini joriy etish. Magistr ijodiga ehtiyoj ishlab chiqarish jarayonida an’anaviy ravishda ma’lum bo‘lgan yechimlar, usullar va vositalar ehtiyojlarni qondirmaganida hamda yangi yechimlarni taklif qilish yoki ixtiro qilish zarurati tug‘ilganda paydo bo‘ladi [6].

Tadqiqotimiz doirasida magistrlarning ijodiy faoliyatiga qiziqish uyg‘otish va ularning kasbiy faoliyatini yangi g‘oyalarni izlashga, ijodiy o‘zgartirishlar kiritishga, ishlab chiqarishda nostandart vazifalarni hal etishga yo‘naltirish zarurligi asoslab beriladi.

Magistrlar, ya’ni muhandislar va texnologlarning kasbiy faoliyati uzluksiz ijodiy izlanishni, ijodiy maqsadlarni belgilashni, ta’lim muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalarini innovatsion rivojlantirish rejalari va loyihalarini shakllantirishni, muayyan ilmiy-texnik g‘oya yoki loyiha ustida tizimli ishlashni, standartlashtirilgan elementlardan ijodiy foydalanishni, ilmiy-texnik faoliyat me’yorlariga rioya etgan holda g‘oyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishni talab qiladi. Ya’ni muhandislik faoliyati muayyan ishlab chiqarish tarmog‘ining texnik-texnologik muammolari va vazifalarini hal etishga qaratilgan omillar majmuasidir. Barcha mutaxassislik magistrlarini kasbiy tayyorlashning ilmiy-pedagogik maqsadi va kutilayotgan natijalariga qarab, tadqiqotchilar uni takomillashtirish yo‘llarini taklif qilganlar, jumladan:

- pedagogik komponentni boshqa tayyorgarlik yo‘nalishlari bilan muvofiqlashtirish hamda pedagogik tajriba yutuqlarini izchil o‘zlashtirish;
- ta’lim jarayoni mazmuni va ketma-ketligi jihatlarining birligi hamda o‘zaro bog‘liqligi tamoyiliga asoslangan muhandislik-pedagogik tarkibiy qismlarni integratsiyalash;
- umumta’lim va kasbiy yo‘naltirilgan fanlarni axborot texnologiyalariga asoslangan holda o‘rganishda integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish;
- nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda ijodiy yondashuvni qo‘llash;
- kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni, shuningdek muhim qobiliyat va sifatlarni shakllantirish (masalan, bilim va ko‘nikmalarni loyihalash, tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, doimiy ravishda yangi manbalarni o‘rganish, zarur ma’lumotlarni topish va ulardan foydalanish qobiliyati;
- dunyoqarashni shakllantiruvchi ma’lumotlarni o‘zlashtirish, ongli ijodiy hayot, faollik, mustaqillik, mas’uliyat, ijodkorlik, harakatchanlik; muammolarni ko‘ra olish va hal etish qobiliyati, o‘z-o‘zini anglash, o‘z yo‘nalishini belgilash hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish va boshqalar);
- o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi o‘rtasida ularning intellektual, kommunikativ, tartibga soluvchi-xulq-atvor resurslari hamda umuman shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydigan o‘zaro munosabatlarni tashkil etish;
- kasbiy yo‘naltirilgan vazifalarni hal etishda kasbga tayyorlovchi harakatlarga asoslangan ijodiy kasbiy faoliyat tajribasini shakllantirish va boshqalar.

Magistrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim amaliyoti va uning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish natijalarini hisobga olgan holda, quyidagilar o‘rtasida qarama-qarshiliklar mavjud deb hisoblash mumkin:

- magistrlarning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan o‘sib borayotgan talablar va ularning tayyorgarlik holati;
- magistrlarning ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish zarurati hamda ushbu jarayonning yaxlit modeli mavjud emasligi;
- magistrlarning kasbiy o‘sishga bo‘lgan ehtiyoji va ta’lim subyektining ijodiy shaxsini rivojlantirishga yetarlicha yo‘naltirilmaganligi;
- magistrlarni kasbiy tayyorlashning salohiyatli imkoniyatlari va ularning amaliyotda yetarli darajada amalga oshirilmaganligi.

Shunday qilib, tadqiqotimizda keyingi izlanishlar istiqbolini kadrlar salohiyatini tarmoq va ta'lim sohasidagi o'zgaruvchan mehnat sharoitlarida tezkor yo'naltirishga tayyorlikni jadallashtirish, ayniqsa magistrlarni ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlash orqali ta'minlash g'oyasiga asoslanib shakllantirilgan farazni tekshirish bilan bog'laymiz, ya'ni ta'limni magistrlarning ijodiy salohiyatini qulay ro'yobga chiqarishga yo'naltirish hamda mos tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish (bo'lajak kasbiy faoliyatda ijodiy o'zini namoyon qilishga undovchi motivlarni faollashtirish; ijodiy turdagi kutilayotgan natijalarga erishishda kasbiy-amaliy tayyorgarlik sikli fanlarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish; ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlik komponentlarini shakllantirish bo'yicha psixologik-pedagogik ta'minotni tashkil etish) zarur.

XULOSA

Yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin. Magistrlar ham pedagogik, ham muhandislik faoliyatida kasbiy vazifalarni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'ladigan, o'zaro bog'liq bo'lgan ikki tomonlama kompetensiyaga ega mutaxassislardir. Ularning ijodiy kasbiy faoliyati o'zgaruvchan mehnat sharoitlarida ta'lim (kasbiy-texnik) hamda boshqa tarmoqlarning maxsus muammolari va amaliy vazifalarini samarali hal etishga yordam beradi. Ijodkorlik shaxsning samarali o'z-o'zini shakllantirish omili va zaruriy sharti bo'lib, uning ijodiy mohiyatini belgilaydi hamda tuzilishini doimiy ravishda o'zgartirish imkonini beradi. O'z tajribasini refleksiv tarzda qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish, kasbiy faoliyatda o'z sa'y-harakatlari orqali salohiyatni ro'yobga chiqarish hamda shaxsiy rivojlanish o'z-o'zini shakllantirishning eng samarali usullaridir.

Salohiyat ijodkor shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri sifatida ijodiy faoliyat manbai bo'lib namoyon bo'ladi; uning shakllanishi va rivojlanishi muhim o'rin tutadi, natijada inson ijodkorga aylanadi. Magistrlarning kasbiy faoliyatida o'z-o'zini shakllantirishning samarali mexanizmi ularning kasbiy tayyorgarligi va ijodiy salohiyatini optimal darajada amalga oshirishga yo'naltirilishi hamda tegishli tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ta'minlanishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.23.09.2020.
2. https://lex.uz/docs/-5013007
3. Андреев, В. И. (1988). Диалектика образования и самообразование творческой личности: основы педагогики творчества. Казань. 238 с.
4. Богоявленская, Д. Б. (1983). Интеллектуальная деятельность как проблема творчества. Ростов н/Д. 173 с.
5. Борисевский, М. Д. (2012). Самосозидание личности и социально-психологическая сущность как детерминанты формирования и развития. В: С. Д. Максименко (ред.), Проблемы общей и педагогической психологии (Том XIV, Часть 1), с. 28-35. К.
6. Варламова, Е. П., Степанов, С. Ю. (2002). Психология творческой уникальности. М. 256 с.
7. Гаскова, Е. Е., Пирогова, Ю. Ю. Инженерное творчество. Доступно по адресу: http://conf.sfu-kras.ru/sites/mn2011/thesis/s11/s11_10.pdf.
8. Гускова, Е. А. (2007). Психологические условия реализации творческого потенциала студентов в образовательном процессе университета. М. 212 с.
9. Guilford, J. P. (1975). Creativity: A quarter century of progress. In: L. A. Taylor, J. W. Getzels (Eds.), Perspectives in Creativity (pp. 37-59). Chicago: Aldine.
10. Гуре, Л. И., Редин, Л. В. (2004). Развитие творческих качеств студентов технического университета в процессе методической подготовки. Интеграция образования, 3 (36), 126-129.
11. De Bono, E. (1993). Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to Create New Ideas. HarperBusiness. 338 p.
12. Емчик, О. Г. (2015). Проблема творческого потенциала личности в научно-педагогическом наследии. Педагогические науки: теория, история, инновационные технологии, 5 (49), 116-125.
13. Кравчук, П. Ф. (1992). Формирование творческого потенциала личности в системе высшего образования. Автореферат докторской диссертации. М. 32 с.
14. Kurilo, O. (2020). Realization of the Creative Potential of Future Engineers-Teachers of the Food Branch as a Factor of Self-Creation in Professional Activity. In: Advances in Social Science, Education and Humanities Research, Vol. 516. Proceedings of the 3rd International Seminar on Education Research and Social Science (ISERSS-2020). Berdiansk, Ukraine.
15. Леонтьев, А. Н. (1977). Деятельность, сознание, личность. М. 304 с.
16. Львова, И. В. (2005). Психологические факторы развития личностной креативности. Кандидатская диссертация. Новосибирск. 203 с.
17. Моляко, В. О. (2006). Способности, креативность, талант: теория, методы, результаты исследований. Житомир: Рута. 320 с.
18. Неговска, К. И. (2011). Специфический аспект формирования специальности инженера-преподавателя в контексте подготовки преподавателей. Педагогические науки, 90, 130-133.

19. Николайенко, Л. И. (2016). Творческий потенциал личности как предмет зарубежных и отечественных исследований: теоретический анализ. Научный обзор, 1 (22), 1-6.
20. Попель, А. А. (2005). Психологические условия развития социальной креативности студентов в процессе профессиональной подготовки. Кандидатская диссертация. Н. Новгород. 217 с.
21. Посталюк, Н. Ю. (1989). Творческий стиль деятельности. Педагогический аспект. Казань. 204 с.
22. Пророк, Н. В. (2009). Самосовершенствование и самосозидание – основа профессионального развития личности. Проблемы современной психологии, выпуск 5, 367-379.
23. Роменец, В. А. (2001). Психология творчества. К.: Лыбидь. 288 с.
24. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. Доступно по адресу: http://yanko.lib.ru/books/psycho/rubinshteyn=osnovu_obzhey_psc.pdf.
25. Серджук, Л. З., Яблонская, Т. М., Данилюк, И. В., Пенжкова, О. И., Володарская, Н. Д. (2015). Психологические и педагогические основы процесса самосозидания личности. Л. З. Серджук (ред.). К.: Педагогическая думка. 197 с.
26. Taylor, C. W. (1988). Various approaches and definitions of creativity. In: The Nature of Creativity (pp. 99-126). Cambridge: Cambridge University Press.
27. Яковлева, Е. Л. (1997). Психология развития творческого потенциала личности. М. 224 с.
28. 70711401 – Transport vositalari muhandisligi magistratura mutaxassisligi malaka talablari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. T.: 2024-yil.
29. 70711402 – Avtomobillar va avtomobil xo'jaligi magistratura mutaxassisligi malaka talablari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. T.: 2024-yil.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI



Usmonova Kamola Erkinovna
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0005-9716-0266

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish, tanqidiy baholash va pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarining ahamiyati ochib berilgan. Modelning tarkibiy qismlari, pedagogik shart-sharoitlari hamda amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: informatsion kompetentlik, analitik kompetentlik, pedagogik model, bo'lajak o'qituvchi, raqamli ta'lim.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical justification for a pedagogical model aimed at developing information-analytical competence in prospective teachers. The importance of working with information, analyzing it, critically evaluating it, and making pedagogical decisions in the modern educational process is substantiated. The structural components of the model, pedagogical conditions, and mechanisms for its implementation are described.

Key words: information competence, analytical competence, pedagogical model, prospective teacher, digital education.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически обоснована педагогическая модель развития информационно-аналитической компетентности у будущих учителей. Раскрыта значимость умений работать с информацией, осуществлять ее анализ, критическую оценку и принимать педагогические решения в современном образовательном процессе. Описаны структурные компоненты модели, педагогические условия и механизмы ее реализации.

Ключевые слова: информационная компетентность, аналитическая компетентность, педагогическая модель, будущий учитель, цифровое образование.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini raqamlashtirish va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlarida raqamli ta'lim muhitini joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy kasbiy kompetentliklarni, jumladan, informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish muhim vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan. Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarning axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish va pedagogik qarorlar qabul qilish salohiyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu bois, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Global raqamlashtirish va axborot jamiyati sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanishga tayyorlashdir. YUNESKO tadqiqotlariga ko'ra, XXI asr o'qituvchisining kasbiy salohiyati axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, axborotni analitik qayta ishlash kompetensiyasini ham qamrab olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni tizimli ravishda rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligiga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Xorijiy tadqiqotchilar (A. Ferrari, R. Krumsvik, J. Tondeur va boshqalar) o‘z ishlarida informatsion-analitik kompetentlikni raqamli savodxonlik, ma’lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari majmui sifatida talqin qiladilar. Ularning yondashuvida raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchining analitik faoliyatini faollashtiruvchi asosiy omil sifatida baholanadi. MDH va Rossiya olimlari (E.F. Zeer, V.A. Slastenin, I.A. Zimnyaya) pedagogik kompetentlikni tizimli kategoriya sifatida o‘rganib, unda informatsion va analitik tarkibiy qismlarning o‘zaro integratsiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, raqamli muhitda ta’lim oluvchi bo‘lajak o‘qituvchi axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va tahlil qilish faoliyatini mustaqil amalga oshira olishi zarur.

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (R.H. Jo‘rayev, N.A. Muslimov) raqamli ta’lim, pedagog kadrlarni tayyorlash va kompetentlik yondashuvi masalalari keng yoritilgan. Xususan, N.A. Muslimov kompetentlikka asoslangan ta’lim modelida bo‘lajak o‘qituvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishni kasbiy tayyorgarlikning muhim sharti sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning informatsion-analitik kompetentligini model asosida, bosqichma-bosqich va diagnostik yondashuv asosida rivojlantirish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik model quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

1-jadval: **Bo‘lajak o‘qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik modelining umumlashtirilgan sxemasi**

Bloklar	Maqsad	Asosiy mazmun	Metod va vositalar	Natija
Maqsadli blok	Informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim maqsadlarini belgilash	Umumiy va xususiy maqsadlar, DTS va kasbiy kompetensiyalar bilan uyg‘unlik, motivatsiya	Diagnostika, maqsadlarni rejalashtirish, motivatsion vaziyatlar	Talabaning o‘quv-motivatsion tayyorgarligi
Mazmunli blok	Kompetentlikni rivojlantiruvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish	Nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyaviy mazmun	Ma’ruza, seminar, trening, mustaqil ta’lim, loyiha ishlari	Axborot bilan ishlash va tahlil qilish malakalari
Jarayonli blok	Mazmunni ta’lim jarayonida samarali amalga oshirish	Pedagogik yondashuvlar, metodlar, texnologiyalar va bosqichlar	Muammoli ta’lim, keys-stadi, loyiha, interfaol metodlar, raqamli platformalar	Analitik va tanqidiy fikrlash faoliyati
Natijaviy blok	Kompetentlik rivojlanish darajasini baholash	Baholash mezonlari, darajalari va usullari	Test, amaliy topshiriq, keys, loyiha, ekspert bahosi	Informatsion-analitik kompetentlikning shakllanganlik darajasi

Maqsadli blok – bo‘lajak o‘qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli blokni samarali amalga oshirish quyidagi izchil pedagogik choralarni talab etadi.

Ta’lim maqsadlarini aniqlashtirish va konkretlashtirish. Avvalo, umumiy maqsad aniq, o‘lchanadigan va natijaga yo‘naltirilgan xususiy maqsadlarga ajratiladi. Jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarda axborotni izlash va saralash ko‘nikmalarini shakllantirish, axborotni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish, pedagogik vaziyatlar asosida analitik qaror qabul qilish malakalarini hosil qilish hamda kasbiy refleksiya va o‘z-o‘zini baholash kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda Bloom taksonomiyasining kognitiv darajalari (bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash) metodologik asos sifatida qo‘llaniladi. Maqsadlarni davlat ta’lim standartlari va kasbiy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish.

Maqsadli blokni amalga oshirishda belgilangan maqsadlar:

- oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari;
- pedagog kadrlar tayyorlashga qo‘yilgan malaka talablari;
- zamonaviy o‘qituvchi kompetensiya modeli bilan uzviy bog‘lanishi lozim.

Bu uyg‘unlik bo‘lajak o‘qituvchilarning informatsion-analitik kompetentligini kasbiy faoliyat ehtiyojlari bilan moslashtiradi. Talabalarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasini diagnostika qilish. Maqsadli blokni to‘g‘ri rejalashtirish uchun talabalarning informatsion-analitik kompetentligining dastlabki darajasi aniqlanadi. Buning

uchun diagnostik testlar, so‘rovnomalar, amaliy vazifalar, kuzatuv va suhbat metodlari qo‘llaniladi. Diagnostika natijalari asosida maqsadli ishlar differensial yondashuv asosida tashkil etiladi.

Motivatsion muhitni shakllantirish. Maqsadli blok samaradorligi talabalarning o‘quv-motivatsion faolligiga bevosita bog‘liq. Shu sababli:

- kasbiy ahamiyatga ega muammoli vaziyatlar yaratish;
- real pedagogik misollar va keyslardan foydalanish;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrini rag‘batlantirish;
- ta’lim jarayonida muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish muhim hisoblanadi.

Bu orqali informatsion-analitik faoliyatga nisbatan barqaror ijobiy munosabat shakllantiriladi.

Kutilayotgan natijalarni aniq belgilash. Maqsadli blokni amalga oshirishda kutilayotgan natijalar oldindan belgilab olinadi. Jumladan, bo‘lajak o‘qituvchi:

- axborot manbalarini mustaqil tanlay oladi;
- axborotni tahliliy qayta ishlaydi; pedagogik qarorlarni asoslab bera oladi;
- o‘z kasbiy faoliyatini reflektiv baholaydi.

Mazkur natijalar keyingi natijaviy-baholash bloki uchun mezon va ko‘rsatkichlar vazifasini bajaradi.

Maqsadli blokni bosqichma-bosqich amalga oshirish. Maqsadli blok quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Diagnostik bosqich – boshlang‘ich darajani aniqlash;
2. Yo‘naltiruvchi bosqich – maqsad va vazifalarni talabalar ongiga singdirish;
3. Shakllantiruvchi bosqich – informatsion-analitik faoliyatni rivojlantirish;
4. Yakuniy bosqich – erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash.

Shunday qilib, maqsadli blokni amalga oshirish aniq maqsadlarni belgilash, ularni normativ hujjatlar bilan uyg‘unlashtirish, diagnostika, motivatsiya va bosqichma-bosqich rejalashtirish asosida tashkil etilgandagina samarali natija beradi.

Mazmunli blok bo‘lajak o‘qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar tizimini belgilab beradi. Ushbu blokning asosiy vazifasi talabalarga axborot bilan ishlash va uni analitik qayta ishlash bo‘yicha nazariy bilimlar berish hamda ularni amaliy faoliyatga yo‘naltirishdan iborat. Mazmunli blokning tarkibiy komponentlari. Mazmunli blok quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topadi:

1. **Nazariy bilimlar mazmuni.** Ushbu komponent bo‘lajak o‘qituvchilarga quyidagi nazariy bilimlarni egallashni nazarda tutadi:

- informatsion jamiyat va raqamli ta’limning asosiy tushunchalari;
- informatsion kompetentlik va analitik kompetentlikning mohiyati;
- axborot manbalarining turlari va ularning ishonchliligini baholash mezonlari;
- pedagogik axborotni tahlil qilish usullari;
- ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning metodologik asoslari.

Mazkur bilimlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliy ko‘nikmalar mazmuni. Mazmunli blokda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, axborotni turli manbalardan izlash va saralash, raqamli ma’lumotlarni tizimlashtirish va vizuallashtirish, pedagogik vaziyatlar bo‘yicha tahliliy xulosalar chiqarish, ma’lumotlar asosida pedagogik qarorlar qabul qilish hamda ilmiy va ta’limiy matnlar bilan analitik ishlash ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu ko‘nikmalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida bevosita qo‘llaniladi.

2. **Kompetensiyaviy mazmun**. Mazmunli blok doirasida axborot-savodxonlik kompetensiyasi, tanqidiy va analitik fikrlash kompetensiyasi, muammo yechish kompetensiyasi, raqamli pedagogik kompetensiya hamda refleksiv kompetensiyalar shakllantiriladi. Ushbu kompetensiyalar integrativ xarakterga ega bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini ta’minlaydi. Mazmunli blokni amalga oshirishda o‘quv mazmunini tanlash mezonlari quyidagilar:

- kasbiy yo'naltirilganlik; ilmiylik va tizimlilik;
- amaliyotga yo'naltirilganlik; fanlararo integratsiya;
- talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish.

Mazkur mezonlar mazmunning samaradorligini ta'minlaydi.

Mazmunli blokni amalga oshirish shakllari. Mazmunli blok ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminar va treninglar, mustaqil ta'lim topshiriqlari, loyiha va tadqiqot ishlari, elektron ta'lim kurslari va platformalar shakllari orqali amalga oshiriladi. Bu shakllar bo'lajak o'qituvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Mazmunli blok bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. Mazmunning ilmiy asoslanganligi va kasbiy yo'naltirilganligi pedagogik modelning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Jarayonli blok. Jarayonli blok bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etish shakllari, metodlari, vositalari va bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu blokning asosiy vazifasi mazmunli blokda belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim jarayonida izchil va samarali amalga oshirishdan iborat. Jarayonli blok quyidagi metodik yondashuvlar asosida tashkil etiladi:

- faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – talabaning bilish faolligini oshirish;
- kompetensiyaviy yondashuv – kasbiy kompetentliklarni shakllantirish;
- tizimli yondashuv – pedagogik jarayonning uzviyligini ta'minlash;
- muammoli yondashuv – analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Mazkur yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Jarayonli blokda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi pedagogik metod va texnologiyalar qo'llaniladi:

- muammoli ta'lim – pedagogik muammolar asosida tahliliy fikrlashni shakllantirish;
- keys-stadi metodi – real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;
- loyiha asosida o'qitish – axborot izlash, tahlil qilish va natija chiqarish jarayonlarini integratsiyalash;
- tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim – ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- interfaol metodlar (debat, aqliy hujum, klaster) – analitik muloqotni faollashtirish.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faol va interfaol metodlar analitik kompetentlikni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ta'lim shakllari va vositalari. Jarayonli blokni amalga oshirishda ta'lim shakllari (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot), mustaqil ta'lim va masofaviy o'qitish, elektron ta'lim resurslari va raqamli platformalar, ilmiy axborot bazalari va kutubxonalar hamda vizual va multimediali ta'lim vositalari qo'llaniladi. Ushbu vositalar axborot bilan ishlashning samaradorligini oshiradi. Jarayonli blokni amalga oshirish bosqichlari. Jarayonli blok quyidagi izchil bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Yo'naltiruvchi bosqich – talabalarni informatsion-analitik faoliyatga tayyorlash, maqsad va vazifalarni anglatish;
2. Faollashtiruvchi bosqich – axborot izlash va tahlil qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;
3. Shakllantiruvchi bosqich – analitik faoliyatni mustaqil bajarish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish;
4. Integratsiyalovchi bosqich – o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni kompleks qo'llash.

Talabalar faoliyatini boshqarish va refleksiya. Jarayonli blok doirasida talabalar faoliyatini boshqarish va refleksiya muhim o'rin tutadi. Bunda o'z-o'zini baholash, refleksiv topshiriqlar, tahliliy hisobotlar, pedagogik kundaliklar kabi vositalardan foydalaniladi. Bu jarayon talabalarning kasbiy o'sishini ta'minlaydi. Jarayonli blok pedagogik modelning amaliy jihatini tashkil etib, bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur blokning izchil va ilmiy asoslangan tarzda amalga oshirilishi pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlaydi.

Natijaviy blok. Natijaviy blok bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan bo'lib, pedagogik model samaradorligini belgilovchi yakuniy komponent hisoblanadi. Ushbu blokning asosiy vazifasi ta'lim jarayonida erishilgan natijalarni ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholashdan iborat.

Natijaviy blokning maqsadi va vazifalari. Natijaviy blokning asosiy maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikning shakllanganlik darajasini aniqlash va pedagogik model samaradorligini baholashdir. Mazkur maqsad informatsion-analitik kompetentlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish, kompetentlik rivojlanish darajalarini aniqlash, baholash natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish hamda pedagogik modelning samaradorligini aniqlash vazifalari orqali amalga oshiriladi. Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari. Bo‘lajak o‘qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni baholash quyidagi asosiy mezonlar asosida amalga oshiriladi:

1. Motivatsion mezon – axborot-tahliliy faoliyatga bo‘lgan qiziqish, kasbiy ehtiyoj va ichki motivatsiya darajasi.
2. Kognitiv mezon – informatsion va analitik bilimlarning shakllanganligi, tahlil metodlarini bilish darajasi.
3. Faoliyat mezon – axborotni izlash, saralash va tahlil qilish ko‘nikmalari, pedagogik vaziyatlarda analitik qaror qabul qilish malakasi.
4. Refleksiv mezon – o‘z faoliyatini baholash va tahlil qilish qobiliyati, kasbiy rivojlanishga intilish.

Mazkur mezonlar kompetentlikning kompleks baholanishini ta’minlaydi. Informatsion-analitik kompetentlik rivojlanish darajalari. Natijaviy blok doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning informatsion-analitik kompetentligi quyidagi darajalarda baholanadi:

1. Past daraja (reproduktiv) – axborot bilan ishlashda o‘qituvchi ko‘rsatmasiga tayanadi, tahlil yuzaki amalga oshiriladi.
2. O‘rta daraja (qisman ijodiy) – axborotni mustaqil tahlil qiladi, biroq qarorlar yetarlicha asoslanmagan bo‘ladi.
3. Yuqori daraja (ijodiy-analitik) – axborotni chuqur tahlil qiladi, pedagogik qarorlarni asoslab bera oladi.

Baholash usullari va vositalari. Natijaviy blokni amalga oshirishda diagnostik testlar, amaliy va tahliliy topshiriqlar, keys va loyiha ishlari, so‘rovnomalar va intervyular, kuzatuv va ekspert bahosi kabi baholash usullari qo‘llaniladi. Mazkur usullar baholashning ishonchliligini ta’minlaydi. Natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish. Baholash natijalari statistik va sifat jihatidan tahlil qilinadi. Olingan ma’lumotlar asosida:

- kompetentlik rivojlanish dinamikasi aniqlanadi;
- tajriba va nazorat guruhlari natijalari solishtiriladi;
- pedagogik model samaradorligi asoslanadi.

Natijaviy blok pedagogik modelning yakuniy va baholovchi komponenti bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Ilmiy asoslangan mezonlar va baholash usullarining qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi. Model samaradorligini ta’minlash uchun ta’lim jarayoniga axborot-tahlilga yo‘naltirilgan topshiriqlarni joriy etish, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil tadqiqot faoliyatiga jalb etish hamda o‘qituvchi–talaba hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish kabi pedagogik shart-sharoitlar zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli zamonaviy ta’lim talablariga mos bo‘lib, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur model ta’lim jarayoniga tatbiq etilganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot bilan ishlash madaniyati, analitik fikrlashi va kasbiy mustaqilligi sezilarli darajada rivojlanadi. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarda axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va pedagogik faoliyatda samarali qo‘llay olishga yo‘naltirilgan informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ana shu dolzarb muammoni hal etishga qaratilgan raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, informatsion-analitik kompetentlik faqat texnik ko‘nikmalar majmui emas, balki shaxsning kasbiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va pedagogik faoliyatda axborotdan maqsadli foydalanish madaniyatini o‘z ichiga olgan murakkab integrativ sifatdir. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli pedagogik ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim tizimida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, raqamli kompetensiyalarga yo‘naltirilgan metodik ta’minotni ishlab chiqish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedova, D. (2020). Pedagogik kompetentlik va o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.
2. Boboev, Sh. (2018). Axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Gulyamov, M., & Islomov, R. (2019). Raqamli pedagogika va o'qituvchi kompetentligi. Pedagogika jurnali, 3(12), 45–53.
4. Jonson, D., & Smith, P. (2017). Developing Information-Analytical Competence in Future Teachers. Journal of Educational Technology, 14(2), 23–34.
5. Kozlova, T. (2020). Analytical Competence of Teacher Trainees in Modern Education. Russian Education Review, 7(4), 78–88.
6. Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of Uzbekistan. (2019). Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti: Pedagogika yo'nalishi. Tashkent.
7. Pashayeva, F. (2018). Innovatsion texnologiyalar va o'qituvchi malakasini oshirish. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 5(1), 12–21.

BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING IJTIMOIY LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

X. A. Suyunova
Navoiy davlat universiteti doktoranti P.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlari turli metod va usullar asosida tadqiq etilgan. Og‘zaki nutq insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va madaniy qadriyatlarni uzatuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, og‘zaki muloqotning dialogik shakli nutqiy faoliyatning eng tabiiy, dinamik va funksional ko‘rinishi sifatida til ta’limida alohida ahamiyat kasb etadi. Dialogik nutq muloqot jarayonida ikki yoki undan ortiq suhbatdoshlar o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro ta’sirga asoslangan nutqiy faoliyat turi bo‘lib, unda nutqni ishlab chiqish va nutqni idrok etish jarayonlari bir vaqtning o‘zida uzviy bog‘langan holda amalga oshishi nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: dialog, nutq, integratsiya, sotsiolingvistika, kompetensiya, lingvistik madaniyat, monolog, metod, muloqot.

Abstract: This article examines the mechanisms for the formation of sociolinguistic competence of future foreign language teachers using various methods and approaches. Oral speech is one of the main means of determining a person’s place in society, regulating social relations, and transmitting cultural values. In particular, the dialogical form of oral communication, as the most natural, dynamic, and functional form of speech activity, is of particular importance in language education. Dialogic speech is a type of speech activity based on interaction between two or more interlocutors in the process of communication, in which the processes of speech production and speech perception occur simultaneously and are inextricably linked, as analyzed from both theoretical and practical perspectives.

Key words: dialogue, speech, integration, sociolinguistics, competence, linguistic culture, monologue, method, communication.

Аннотация: В данной статье исследуются механизмы формирования социолингвистической компетенции будущих преподавателей иностранных языков с использованием различных методов и подходов. Устная речь является одним из основных средств определения места человека в обществе, регулирования социальных отношений и передачи культурных ценностей. В частности, диалогическая форма устной коммуникации как наиболее естественная, динамичная и функциональная форма речевой деятельности имеет особое значение в языковом образовании. Диалогическая речь – это тип речевой деятельности, основанный на взаимодействии двух или более собеседников в процессе коммуникации, в котором процессы порождения и восприятия речи происходят одновременно и неразрывно связаны, что раскрыто в теоретическом и практическом аспектах.

Ключевые слова: диалог, речь, интеграция, социолингвистика, компетенция, языковая культура, монолог, метод, коммуникация.

KIRISH

Talabalarning o‘zbek tilini o‘rganishga motivatsiyasini rivojlantirish o‘quv jarayonini oddiylikdan ta’lim integratsiyasi asosida tashkil etish hamda ta’lim amaliyotiga lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning maqbul usullarini joriy etish bilan bog‘lanadi. Zero, qisqa muddatda an’anaviy ta’limdan zamonaviy ta’limga xatlab o‘tish, aksariyat fanlarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tili ta’limini mukammallashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. Bu esa kelajakda davlat tilini o‘rgatishga bo‘lgan hayotiy ehtiyoj mavjudligini talabalarning ongi-shuuriga singdirish, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va fanning metodik ta’minotini boyitishni taqozo qiladi. Tilning ijtimoiy turli-tumanligi haqidagi dastlabki fikrlar XVII asrning boshlarida vujudga kelgan edi. Jumladan, Ispaniyaning Salamanka universiteti professori Gonsalo de Korreas tilning ijtimoiy turli-tumanligi xususida shunday yozgan: “Tilda viloyatlardagi dialektlardan tashqari, mazkur viloyatlarda yashovchilarning yoshi, mavqeyi, mol-mulki bilan bog‘liq ayrim shakllar ham mavjud bo‘ladi.

Bular qishloq aholisi, avom xalq, shaharliklar, zodagonlar, saroy ahli, tarixchi olimlar, din arboblari, qariyalar, erkaklar, ayollar va hatto bolalarning tillaridir".[1] Ba'zi sotsiolingvist olimlarning fikricha, sotsiolingvistikaning ildizlarini Amerika tilshunosligidan emas, balki Yevropa, xususan, rus tilshunosligidan izlash kerak.[2] Biz tadqiq etayotgan ishda bo'lajak chet tili o'qituvchilarining nutqiy faoliyatida axloqiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda ilgari surilgan sotsiolingvistika tushunchasi – tilshunoslikning eng yosh tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu atama, ya'ni "sotsiolingvistika", termin sifatida o'tgan asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan.

MAVZUGA ADABIYOTLAR SHARHI

Sotsiolingvistikaning dastlabki ilmiy asoslari XIX–XX asrlardagi bir qator olimlarning ishlarida o'rganilgan. Biroq "sotsiolingvistika" termini keng miqyosda 1952-yilda (dastlab amerikalik tadqiqotchi X. Karri tomonidan qo'llangan) paydo bo'lganligi qayd etiladi. Shu sababli sotsiolingvistikaga turli jamiyatlarda turlicha tus beriladi. Og'zaki nutq insonning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va madaniy qadriyatlarni uzatuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, og'zaki muloqotning dialogik shakli nutqiy faoliyatning eng tabiiy, dinamik va funksional ko'rinishi sifatida til ta'limida alohida ahamiyat kasb etadi. Dialogik nutq muloqot jarayonida ikki yoki undan ortiq suhbatdosh o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro ta'sirga asoslangan nutqiy faoliyat turi bo'lib, unda nutqni ishlab chiqish va nutqni idrok etish jarayonlari bir vaqtning o'zida, uzviy bog'langan holda amalga oshadi. Dialogik nutq monologik nutqdan farqli ravishda oldindan to'liq rejalashtirilmagan, vaziyatga mos ravishda tezkor tashkil etiladigan, suhbatdoshning reaksiyasiga qarab doimiy ravishda o'zgarib boradigan nutqiy faoliyat shaklidir. Shu bois dialogik nutq psixolingvistik jihatdan murakkab jarayon bo'lib, unda nutqiy, psixologik va ijtimoiy omillar bir butun tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Psixolingvistikada dialogik nutq shaxs nutqiy faoliyatining asosiy va tabiiy shakli sifatida talqin qilinadi. Dialog jarayonida shaxs nafaqat axborot uzatadi, balki suhbatdoshni idrok etadi, tushunadi, uning nutqiy va noverbal signallarini tahlil qiladi hamda o'z nutqini ushbu signallarga mos ravishda qayta tashkil etadi. Dialogik nutqning psixolingvistik mohiyati nutqiy faoliyat nazariyasi doirasida keng yoritilgan bo'lib, bu borada A.A. Leontyev tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur nazariyaga ko'ra, nutqiy faoliyat muayyan motivga asoslanadi va aniq kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Nutqiy faoliyat motivatsiya, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat bosqichlarini o'z ichiga oladi. Dialogik nutqda ushbu bosqichlar qisqa vaqt oralig'ida tezkor va moslashuvchan tarzda amalga oshadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dialog jarayonida nutqiy qarorlar doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladi. Suhbatdoshning reaksiyasi, muloqot vaziyatining o'zgarishi, ijtimoiy kontekst va madaniy norma nutqiy faoliyatning keyingi yo'nalishini belgilaydi. Shu sababli dialogik nutqni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki murakkab psixolingvistik jarayon sifatida talqin qilish zarur. Bu jarayonda shaxsning xotira, tafakkur, diqqat va bashorat qilish kabi kognitiv mexanizmlari faol ishtirok etadi. Shu bois dialogik nutq sotsiolingvistik kompetensiyaning asosiy namoyon bo'lish maydoni sifatida qaraladi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, dialogik nutqning rivojlanishi shaxsning reflektiv tafakkuri bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. Refleksiya jarayonida shaxs o'z nutqiy faoliyatini baholaydi, suhbatdosh tomonidan qanday qabul qilinayotganini anglaydi va zarur hollarda nutqini qayta tashkil etadi. Dialogik muloqotda refleksiya tezkor xarakterga ega bo'lib, nutqiy xatolarni o'z vaqtida anglash va tuzatish imkonini yaratadi. Dialog jarayonida yuzaga keladigan sotsiolingvistik xatolar ko'pincha ijtimoiy vaziyatni noto'g'ri baholash, suhbatdosh maqomini hisobga olmaslik yoki nutq etiketi me'yorlariga rioya etmaslik bilan bog'liq bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Reflektiv tafakkur ushbu xatolarni anglash va ularni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, dialogik nutqni rivojlantirish jarayonida refleksiyani shakllantirish sotsiolingvistik kompetensiyaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida dialogik nutqning psixolingvistik asoslarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Chunki kelajakda ular nafaqat chet tilida muloqot olib borishlari, balki o'quvchilarga nutqiy faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy vaziyatga mos muloqot strategiyalarini o'rgatishlari lozim bo'ladi. Bu esa o'qituvchining o'zida yuqori darajada shakllangan dialogik nutq va sotsiolingvistik kompetensiyani talab etadi. Ayniqsa, ona tilida shakllangan dialogik nutq mexanizmlarining ongli ravishda anglanishi va chet tiliga ko'chirilishi (transfer) muhim psixolingvistik ahamiyatga ega.

Ona tilida egallangan ijtimoiy-nutqiy tajriba shaxs nutqiy ongining tayanch qatlami bo'lib, ushbu tajriba chet tilidagi dialogik nutqni shakllantirishda asos vazifasini bajaradi. Shu bois bo'lajak chet tili o'qituvchilarining

1 Степанов Г. В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. -М., 1976. –С. 22.
2 Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 6-7.

dialogik nutqini rivojlantirishda ona tiliga tayangan holda sotsiolingvistik mexanizmlarni ongli ravishda anglash va ularni chet tiliga transfer qilish metodologik jihatdan asosli hisoblanadi. Bu uzoq muddatli kompetensiyalar to‘plami bo‘lib, faoliyatning kognitiv rolini mustaqil muhokama qilish sohasidagi talabalarning yuqori qobiliyati, shu jumladan mantiqiy dinamika, uslubiy hamda umumiy ta’lim faoliyati orqali shakllanadi va haqiqiy shaxsiy bilish obyektlari bilan osonroq bog‘lanadi.

N. D. Galskovaning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining professional kompetensiyasi rivojlanishining ko‘rsatkichi o‘qituvchining mahoratidir, bu “professional jihatdan ahamiyatli bilim va bu bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyati, o‘qituvchining o‘qitish tajribasi hamda ularning ijodiy va shaxsiy fazilatlarining uyg‘unligidan iborat”.

N. D. Galskova chet tili o‘qituvchisi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan quyidagi professional bilimlarni aniqlaydi:

- til tizimi va asosiy lingvistik hamda lingvodidaktik kategoriyalar, shuningdek, o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyati, uning tarixi va hozirgi rivojlanish muammolari;
- jamiyat rivojlanishining ma’lum bir bosqichida umumiy ta’lim konsepsiyasining asosiy tamoyillari, davlatning umumiy ta’lim siyosati, shu jumladan chet tillari siyosati;
- talabaning rivojlanishining har bir aniq “davrida” uning shaxsiyati psixologiyasi, ta’lim muassasalarida chet tilini o‘zlashtirish qonuniyatlari;
- jamiyat va fanning o‘qituvchilarga qo‘yadigan asosiy talablari, ularning kasbiy mahorat darajasi va shaxsiy fazilatlari.

Bizningcha, bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari nafaqat fan doirasidagi bilimlarni, balki siyosiy, ijtimoiy-madaniy, qolaversa, axloqiy bilimlarni ham egallashlari lozim.

XULOSA

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim strategik vazifalaridan biridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur kompetensiya nafaqat til birliklarini to‘g‘ri qo‘llash, balki ularni ijtimoiy-madaniy kontekstda maqsadga muvofiq ishlata olish, kommunikativ vaziyatni to‘g‘ri baholash va interkultural muloqotda samarali ishtirok etish bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy lingvistik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari sifatida kommunikativ yondashuv, autentik materiallardan foydalanish, vaziyatli mashqlar, rol o‘yinlari hamda madaniyatlararo tahlil usullarini tizimli qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamli ta’lim vositalari va interaktiv pedagogik texnologiyalar ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Natijada, ijtimoiy lingvistik jihatdan yetuk bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat tilni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini ham shakllantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev R. A. Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – T.: O‘zPFITI, 2015. – 11-b.
2. Гулямова М. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув: Пед. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. – Т., 2019. – 35–36-б.
3. O‘zbek tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta’lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar / O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari. – 2017-yil 10-aprel.
4. Muxitdinova X. S. O‘zbek tilini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari: monografiya. – Toshkent: Vneshinvest, 2021.
5. Воловик А. В. Коммуникативный подход к обучению иностранным языкам (из опыта зарубежной методики): Дис. … канд. пед. наук. – М., 1988. – 207 с.



TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARNING O'RNI

Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
„Roman-german tillari" kafedrasi dotsenti
ORCID: 0009-0007-9610-4355

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tilini o'qitish jarayonida tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni va ahamiyati ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tinglab tushunish retseptiv nutq faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarning fonetik, leksik va pragmatik ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqotda autentik materiallarning (audioyozuvlar, podkastlar, intervyular, videolavhalar, real kommunikativ nutq namunalarining) didaktik imkoniyatlari, ularning o'quv motivatsiyasiga, madaniyatlararo kompetensiyaga va kommunikativ faollikka ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, an'anaviy sun'iy o'quv materiallari bilan autentik resurslarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, autentik materiallardan tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda foydalanish tinglab tushunish jarayonini real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtiradi hamda o'quvchilarning nutqni tez va to'g'ri idrok etish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Maqolada samarali metodik tavsiyalar ham ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, autentik materiallar, retseptiv kompetensiya, kommunikativ yondashuv, chet tilini o'qitish, nutq faoliyati, madaniyatlararo kompetensiya, didaktik vositalar, motivatsiya.

Abstract: This article examines the role of authentic materials in developing listening comprehension competence in foreign language teaching from a scientific and methodological perspective. Listening is considered a fundamental component of receptive speech activity that contributes to the development of phonetic, lexical, and pragmatic skills. The study explores the didactic potential of authentic materials such as audio recordings, podcasts, interviews, video materials, and real-life communicative speech samples, as well as their impact on learners' motivation, intercultural competence, and communicative engagement. A comparative analysis of traditional instructional materials and authentic resources is also conducted. The findings indicate that systematic and methodologically grounded use of authentic materials brings the learning process closer to real communicative situations and significantly improves learners' ability to comprehend spoken language accurately and efficiently. The article also provides practical methodological recommendations for effective implementation.

Key words: listening comprehension, authentic materials, receptive competence, communicative approach, foreign language teaching, speech activity, intercultural competence, didactic tools, motivation.

Аннотация: В данной статье научно-методически анализируется роль аутентичных материалов в развитии компетенции аудирования при обучении иностранным языкам. Аудирование рассматривается как важнейший компонент рецептивной речевой деятельности, способствующий формированию фонетических, лексических и прагматических навыков обучающихся. В исследовании раскрываются дидактические возможности аутентичных материалов (аудиозаписи, подкасты, интервью, видеоматериалы, образцы реальной коммуникации), а также их влияние на учебную мотивацию, межкультурную компетенцию и коммуникативную активность студентов. Проводится сравнительный анализ традиционных учебных текстов и аутентичных ресурсов. Результаты исследования показывают, что систематическое и методически обоснованное использование аутентичных материалов способствует приближению учебного процесса к реальным коммуникативным условиям и значительно повышает уровень понимания устной речи. В статье также предлагаются практические методические рекомендации.

Ключевые слова: аудирование, аутентичные материалы, рецептивная компетенция, коммуникативный подход, обучение иностранным языкам, речевая деятельность, межкультурная компетенция, дидактические средства, мотивация.

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro akademik va professional aloqalarning kengayishi chet tillarini samarali o‘qitish masalasini zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda chet tilini o‘qitish metodikasining markaziy maqsadi sifatida e’tirof etilmoqda. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tinglab tushunish kompetensiyasi esa real muloqot jarayonida axborotni qabul qilish, tahlil qilish va mazmunan to‘g‘ri talqin etish imkonini beruvchi asosiy retseptiv ko‘nikma hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson kundalik kommunikatsiya jarayonida axborotning katta qismini aynan eshitish orqali qabul qiladi. Shunga qaramay, amaliyotda tinglab tushunish ko‘nikmasi ko‘pincha ikkilamchi o‘rinda qolib, grammatika va o‘qish ko‘nikmalariga nisbatan kamroq e’tibor qaratiladi. Natijada o‘quvchilar real nutq tezligi, tabiiy talaffuz, intonatsiya, dialektal xususiyatlar va spontan nutq elementlarini idrok etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularning kommunikativ faoliyatida psixologik to‘siqlar va nutqiy noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Zamonaviy metodik yondashuvlarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun o‘quv jarayonini real kommunikativ vaziyatlarga maksimal darajada yaqinlashtirish zarurligi ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, autentik materiallar – ya’ni ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan real kommunikativ maqsadda yaratilgan audio va video resurslar – muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Podkastlar, intervyular, yangiliklar dasturlari, ijtimoiy tarmoq videolari, film va serial parchalarida til tabiiy fonetik xususiyatlari, spontan nutq shakllari, madaniy kontekst va pragmatik elementlar bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturniy va pragmatik kompetensiyani ham rivojlantirish imkonini beradi. An’anaviy darslik materiallari ko‘pincha sun’iy tarzda soddalashtirilgan, grammatik jihatdan “tozalangan” va real nutqdagi tabiiy elementlardan xoli bo‘ladi. Bunday materiallar boshlang‘ich bosqichda ma’lum darajada foydali bo‘lsa-da, yuqori bosqichlarda o‘quvchilarni real kommunikativ muhitga tayyorlashda yetarli samara bermaydi. Aksincha, autentik materiallardan tizimli va metodik asosda foydalanish o‘quvchilarning eshitish sezgirligini, tezkor axborot qayta ishlash qobiliyatini va nutqni kontekst asosida tushunish malakasini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bois mazkur tadqiqotda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o‘rni ilmiy-metodik jihatdan asoslab beriladi, ularning didaktik imkoniyatlari va ta’lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy raqamli muhitda autentik resurslarga keng imkoniyatlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish masalasi hali ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi chet tilini o‘qitish metodikasida markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tinglab tushunishni oddiy eshitish jarayoni emas, balki murakkab psixolingvistik va kognitiv faoliyat sifatida talqin etadi. Xususan, J. Harmer o‘zining metodik izlanishlarida tinglab tushunish ko‘nikmasi o‘quvchilarning kommunikativ tayyorgarligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, darsliklarda sun’iy ravishda soddalashtirilgan audio matnlar o‘quvchini real nutq muhitiga to‘liq tayyorlay olmaydi, chunki ular tabiiy nutq tezligi, reduksiya va spontanlik elementlarini yetarlicha aks ettirmaydi. Shu sababli u autentik materiallardan bosqichma-bosqich foydalanishni tavsiya etadi. Harmerning yondashuvi nazariy jihatdan asosli bo‘lsa-da, unda autentik materiallarni tanlash mezonlari va ularning samaradorligini baholash mexanizmlari batafsil ishlab chiqilmagan.[1]

Ikkinchi muhim ilmiy manba sifatida N. Andersonning tinglab tushunish strategiyalariga oid tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin. U tinglab tushunish jarayonini “bottom-up” va “top-down” strategiyalar uyg‘unligi asosida izohlaydi hamda o‘quvchilarni strategik tinglashga o‘rgatish zarurligini asoslaydi. Anderson autentik materiallar o‘quvchilarning kontekstual taxmin qilish, asosiy g‘oyani ajratish va selektiv tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishini ilmiy tajribalar orqali ko‘rsatib bergan. Biroq uning tadqiqotlari asosan ingliz tili auditoriyasiga qaratilgan bo‘lib, boshqa xorijiy tillar, xususan, nemis yoki boshqa Yevropa tillari kontekstida metodik moslashtirish masalasi yetarli darajada ochilmagan. [2]

Mahalliy olimlardan biri sifatida Sh. Safarovaning chet tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga oid ishlari alohida e’tiborga loyiqdir. Olimaning tadqiqotlarida retseptiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda interaktiv metodlar, dialogik mashqlar va multimedia vositalarining ahamiyati asoslab berilgan. Safarova tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda o‘quvchining faol ishtiroki va motivatsiyasi hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlaydi. Biroq uning ilmiy ishlari ko‘proq umumiy metodik tavsiyalar bilan cheklanib, aynan autentik materiallarni tizimli integratsiya qilish modeli va ularning samaradorligini o‘lchash mezonlari yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. [8]

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy adabiyotlarda autentik materiallarning nazariy asoslari va strategik yondashuvlari keng yoritilgan bo‘lsa, mahalliy izlanishlarda ko‘proq umumiy pedagogik yondashuv ustunlik qiladi. Ammo zamonaviy raqamli muhit sharoitida autentik materiallarni tanlash, ularni darajaviy moslashtirish, o‘quvchilarning psixologik tayyorgarligi va lingvistik bazasini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich qo‘llash masalasi hali ham kompleks yondashuvni talab qiladi. [5]

Muallif sifatida shuni ta’kidlash joizki, tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallardan foydalanish faqatgina real nutq namunalarini darsga olib kirish bilan cheklanmasligi kerak. Asosiy e’tibor ularni metodik jihatdan puxta rejalashtirish, maqsadli topshiriqlar bilan boyitish va natijadorlikni aniq mezonlar asosida baholashga qaratilishi lozim. Ayniqsa, O‘zbekiston ta’lim tizimida kredit-modul tizimi va kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi sharoitida autentik materiallarni tizimli ravishda integratsiya qilish metodik modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘unligi ta’minlandi. Avvalo, muammoning ilmiy asoslarini aniqlash uchun tahliliy va qiyosiy-taqqoslash usullari qo‘llanildi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari o‘rganilib, autentik hamda an’anaviy (sun’iy yaratilgan) o‘quv materiallarining didaktik imkoniyatlari o‘zaro taqqoslandi. Qiyosiy tahlil jarayonida tinglab tushunish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, nutq tezligi, leksik murakkablik, kontekstual boylik va madaniy komponent mavjudligi mezon sifatida belgilandi. Natijada autentik materiallarning real kommunikativ vaziyatlarga yaqinligi va strategik tinglash ko‘nikmalarini faollashtirishdagi ustunligi aniqlashtirildi.

Empirik bosqichda esa tajriba-sinov metodi qo‘llanildi. Tadqiqot oliy ta’lim muassasasining chet tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalari ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar shartli ravishda nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida an’anaviy audio matnlar asosida dars tashkil etilgan bo‘lsa, tajriba guruhida autentik materiallar (intervyular, podkastlar, videolavhalar) asosida topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. [6]

Natijalarni aniqlash maqsadida diagnostik testlar, kuzatish va so‘rovnoma usullaridan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilindi. Yakuniy ko‘rsatkichlar tajriba guruhida tinglab tushunish darajasi, asosiy mazmunni ajratish va detallarni aniqlash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda autentik materiallarning tinglab tushunish kompetensiyasiga ta’sirini aniqlash maqsadida ikki oy davomida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda jami 48 nafar talaba ishtirok etdi. Ular teng ravishda nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Dastlabki bosqichda har ikkala guruhda tinglab tushunish darajasini aniqlash uchun diagnostik pre-test o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, nazorat guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 56 %, tajriba guruhiniki esa 55 % ni tashkil etdi. Bu esa guruhlarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil ekanini tasdiqladi.

Tajriba jarayonida nazorat guruhida an’anaviy, darslik asosidagi soddalashtirilgan audio matnlar bilan ishlash davom ettirildi. Tajriba guruhida esa autentik materiallar, intervyular, podkastlar, videolavhalar va real nutq namunalari asosida maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi qo‘llanildi. Dars jarayonida asosiy mazmunni aniqlash, detallarni ajratish, kontekst asosida ma’no chiqarish va selektiv tinglash strategiyalariga alohida e’tibor qaratildi.

Yakuniy bosqichda o‘tkazilgan post-test natijalari sezilarli farqni ko‘rsatdi. Nazorat guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 64 % ni tashkil etib, o‘sish 8 % ga teng bo‘ldi. Tajriba guruhida esa o‘rtacha natija 78 % ga yetdi va o‘sish 23 % ni tashkil etdi. Statistik jihatdan bu farq muhim ko‘rsatkich hisoblanadi, chunki autentik materiallardan foydalangan guruhda natija deyarli uch barobar yuqori o‘sishni namoyon etdi. [11;56]

Natijalar dinamikasini diagramma ko‘rinishida tahlil qilganda, tajriba guruhida ko‘rsatkichlar keskin yuqoriga ko‘tarilganini, nazorat guruhida esa o‘sish nisbatan sust va barqaror xarakterga ega ekanini ko‘rish mumkin. Bu holat autentik materiallarning real nutq tezligi va tabiiy kommunikativ muhitni aks ettirishi bilan izohlanadi. Sifat tahlili maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham ijobiy tendensiyani tasdiqladi. Tajriba guruhidagi talabalarning aksariyati dars jarayonida qiziqish va motivatsiya oshganini, real nutqni tushunish qobiliyati rivojlanganini va kontekst orqali ma’no chiqarish ko‘nikmasi mustahkamlanganini qayd etdi. Ayniqsa, nutq tezligiga moslashish va asosiy g‘oyani tez ajratish ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sish kuzatildi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Xususan, leksik zaxirasi yetarli bo‘lmagan talabalar dastlab autentik materiallarni qabul qilishda qiyinchilikka duch kelishdi. Ba’zi hollarda material murakkabligi o‘quvchining psixologik ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa autentik materiallarni tanlashda darajaviy moslik va metodik bosqichlilik tamoyillariga qat’iy amal qilish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, autentik materiallar tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ular o‘quvchilarga tabiiy nutqni, turli aksentlar va talaffuzlarni tushunishni o‘rgatadi, shuningdek motivatsiyani oshiradi va tilga nisbatan qiziqishni uyg‘otadi. Analizdan ma’lum bo‘ldiki, soddalashtirilgan materiallarga qaraganda autentik materiallar o‘quvchilarning retseptiv ko‘nikmalarini tezroq va samaraliroq shakllantiradi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ba’zi muammolar ham aniqlangan: o‘quvchilarning ayrimlari uchun autentik nutqning tezligi va murakkabligi qiyinchilik tug‘diradi, shuningdek o‘qituvchilarda autentik materiallarni tanlash va darsga integratsiya qilish bo‘yicha yetarli metodik ko‘nikmalar mavjud emas.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- darslarda autentik materiallardan bosqichma-bosqich foydalanish, avval soddalashtirilgan, so‘ngra tabiiy nutq materiallarini joriy etish;
- o‘qituvchilar uchun seminar va treninglar tashkil etish, autentik materiallarni tanlash va darsga samarali integratsiya qilish bo‘yicha ko‘nikmalarni oshirish;
- tinglab tushunish faoliyatini rag‘batlantiruvchi motivatsion vazifalar va topshiriqlar ishlab chiqish;
- rivojlanishni monitoring qilish uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish va o‘quvchilarni individual hamda guruh bo‘yicha kuzatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
2. Anderson, N. J. (1995). Listening comprehension in second language: framework, research and pedagogy. TESOL Quarterly, 29(2), 263–297.
3. Rost, M. (2011). Teaching and Researching Listening. Routledge.
4. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press.
5. Brown, H. D. (2004). Language Assessment: Principles and Classroom Practices. Longman.
6. Vandergrift, L. & Goh, C. (2012). Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. Routledge.
7. Field, J. (2008). Listening in the Language Classroom. Cambridge University Press.
8. Safarova, Sh. (2019). Chet tilini o‘qitishda interaktiv metodlar yordamida retseptiv ko‘nikmalarni shakllantirish. Pedagogika va Innovatsiyalar jurnal, 2(4), 45–52.
9. Nunan, D. (2003). Practical English Language Teaching. McGraw-Hill.
10. Vandergrift, L. (2007). Extensive listening practice and input enhancement using mobile phones: Encouraging out-of-class learning with mobile phones. TESLEJ, 11(2), 1–17.
11. Richards, J. C. & Renandya, W. A. (2002). Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice. Cambridge University Press.
12. Brown, J. D. (2001). Using Surveys in Language Programs. Cambridge University Press.

MOTIVATSIYA – INSON FAOLIYATINI HARAKATGA KELTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA

Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

ORCID 0009-0001-6031-6141

Annotatsiya: Mazkur maqolada motivatsiyaning ilmiy nazariy psixologik tahlili keltirilib, motivatsiyaga muammosiga bo'lgan yondashuvlar, motivatsiyaga oid qarashlar akas ettirilgan. Shuningdek, motiv va motivatsiyaning maqsad va qaror qabul qilishga ta'siri, o'smirlarda muvaffaqiyat motivatsiyasi, yoshlarda kechadigan turli jarayonlar, holatlar, ularning ijtimoiy motiv va ehtiyojlarining o'ziga xos jihatlari masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: motiv, motivatsiya, ijtimoiy motiv, ehtiyoj, muvaffaqiyat motivatsiyasi, ijtimoiy xulq-atvor, individual-psixologik xususiyatlar, o'smirlar, yondashuv.

Abstract: In this article, a scientific theoretical psychological analysis of motivation is presented, approaches to the problem of motivation, views on motivation are reflected. Issues of motivation and motivation impact on goal and decision making, success motivation in adolescents, various processes that take place in young people, circumstances, specific aspects of their social motivation and needs are also revealed.

Key words: motive, motivation, social motive, need, success motivation, social behavior, individual-psychological characteristics, adolescents, approach.

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический психологический анализ мотивации, рассмотрены подходы к проблеме мотивации, взгляды на мотивацию. Раскрыты также вопросы влияния мотивации и мотивации на принятие целей и решений, мотивации успеха у подростков, различные процессы, ситуации, протекающие у молодых людей, специфические аспекты их социальных мотивов и потребностей.

Ключевые слова: мотив, мотивация, социальная мотивация, потребность, мотивация успеха, социальное поведение, индивидуально-психологические особенности, подростковый возраст, подход.

KIRISH

Motivatsiyalar - bu bizni har kuni biror narsa qilishga undaydigan narsalar, och bo'lsangiz ham, charchagan bo'lsangiz ham yoki chanqagan bo'lsangiz ham. Ijtimoiy motivatsiya - bu odamlarning umuman boshqa odamlar bilan muloqot qilish, boshqa odamlar bilan muloqot qilish uchun motivatsiyasi bor degan fikr. Bu insoniyatning omon qolishi uchun juda muhim bo'lgan: odamlar o'zlari yaxshi yashay olmaydilar. Va boshqa odamlar bilan ishlash, boshqa odamlar bilan vaqt o'tkazish juda muhim strategiya. Ijtimoiy motivatsiya juda uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan g'oya, lekin men yaqinda unga ayniqsa qiziqib qoldim, chunki autizmning ijtimoiy motivatsiya nazariyasi paydo bo'ldi, bu bizga ma'lumki, ijtimoiy munosabatlarning ko'p jihatlarida farqlarga ega bo'lgan autizmli odamlarning boshqa odamlar bilan muloqot qilish motivatsiyasida ham farqlar bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ular boshqa odamlardan qochishlari, boshqa odamlarga unchalik qaramasliklari, boshqa odamlardan unchalik ko'p narsa o'rganmasliklari mumkin.

Bu juda qiziqarli g'oya, lekin uni sinab ko'rish va bunday motivatsion omillarni aniqlash juda oson bo'lmadi. Biror kishining u yoki bu odam bilan muloqot qilish motivatsiyasini qanday qilib raqamlash mumkin? Agar siz odamlardan "Shanba kuni kechqurun nima qilishni yoqtirasiz? Do'stlaringiz bilan restoranga borishni yoqtirasizmi yoki ehtimol uyda xonangizda qolib, yolg'iz kompyuter o'yinini o'ynashni afzal ko'rasizmi?" deb so'rasangiz, unda bu turdagi savolga bergan turli xil javoblaringiz sizga odamlarning ijtimoiy motivatsiyasi haqida ba'zi ishoralar berishi mumkin. Lekin bu bizga raqam qo'yish va uning ilmiy nazariyasini ishlab chiqishga imkon bermaydi.

Bunga qarash uchun biz motivatsiyani miqdoriy jihatdan aniqlashning ba'zi yangi usullarini ishlab chiqishga harakat qilmoqdamiz. Masalan, biz odamlar tomosha qilishni istagan ikki yoki uchta turli film orasidan tanlashlari mumkin bo'lgan vazifani ishlab chiqdik, har bir film atigi ikki yoki uch soniya davom etadi. Shunday

qilib, ijtimoiy film kameraga qarab tabassum qiladigan odamning filmi bo‘lishi mumkin, ular juda ijtimoiy jihatdan qiziqarli va juda xushchaqchaq. Ijtimoiy bo‘lmagan film esa, aylanuvchi stolda ba’zi uy-ro‘zg‘or buyumlari qo‘yilgan kichik aylanuvchi stolga ega film bo‘lishi mumkin. Aylanuvchi stol asta-sekin harakatlanadi, shuning uchun siz uy-ro‘zg‘or buyumlarini ko‘rasiz, lekin ular odatda juda qiziqarli uy-ro‘zg‘or buyumlari emas.

Biz odamlarga turli xil rangdagi qutilarni ko‘rsatamiz, masalan, ko‘k quti va to‘q sariq quti. Ular ko‘k qutini tanlasalar, ijtimoiy film ko‘rishlarini, to‘q sariq qutini tanlasalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari filmini ko‘rishlarini bilishadi. Odamlarning tanlovlariga qarab, biz ularning ijtimoiy motivatsiyasini raqamlashga harakat qilishimiz mumkin: ular ijtimoiy narsani ko‘rishga qanchalik motivatsiyalangan? Keyin biz ularning hayotini biroz qiyinlashtiramiz, chunki biz ba’zi qutilarga narx qo‘yamiz. Shunday qilib, ba’zida ko‘k qutini ochmoqchi bo‘lsangiz, uchta harakat ketma-ketligini bajarishingiz kerak bo‘ladi, bu bitta harakatni bajarishdan ko‘ra biroz zerikarliroq va ko‘p vaqt talab etadi. Shunday qilib, yana bu xarajatlarni qo‘shish orqali biz motivatsiya o‘lchovlarini olishimiz va keyin turli odamlar o‘rtasidagi motivatsiyadagi farq qanchalik katta ekanligini aniqlashga harakat qilishimiz mumkin.

Biz buni miya skanerlarida amalga oshirishimiz va buning motivatsiya uchun miya tizimlari bilan qanday bog‘liqligi haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. Siz ijtimoiy bo‘lmagan narsalar uchun mukofotlashda ishtirok etadigan miya tizimlari haqida ko‘p narsalarni bilasiz, bunda odamlarga miya skanerlarida ovqat yoki pul beriladi. Biz u yerda faollashtirilgan boshqa ko‘plab miya tizimlarini bilamiz, ammo biz ijtimoiy mukofotlar, masalan, tabassumli odamlarni ko‘rish, xuddi shu turdagi miya tizimlarini jalb qiladimi yoki yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, biz autizmga chalingan va autizmga chalingan bo‘lmagan odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy motivatsiyadagi farqlarni ko‘rib chiqishga muvaffaq bo‘ldik.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.N.Leontevning shaxs psixikasi va ongining faoliyatli tabiati va oliy psixik funsiyalarning “rivojlanishdagi parallelogrammligi” tamoyili bo‘lib, bunda shaxs psixik taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatida biologik va ijtimoiy omillarning birligi tushuniladi va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishda yetakchi faoliyatga katta urg‘u beriladi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq o‘smirlarning ehtiyojlar va motivasion sohasini tahlil qilishda keng foydalanish mumkin. O‘smirlarning “hayotiy passivligi”ning sabablarini tushuntirishda “yashash tarzi bilan bog‘liq ehtiyojlar”ini qondirilganlik holati bilan bog‘lab tahlil qilinadi. Bunda yoshga oid yetakchi faoliyat va uning motivasion asoslarini to‘g‘ri tashkil etilganligiga e’tibor qaratiladi. Agar yoshlarning bazaviy ehtiyojlari tegishli motivlarni faollashtira olsa, unda biologik va ijtimoiy uyg‘unlashuv kechadi va inson o‘zini-o‘zi rivojlantirishga yo‘naladi. O‘smirlarda esa, mana shu tarkibiy tuzilmasidagi muayyan buzilishlar turli ijtimoiy bo‘shliqlarni keltirib chiqarib, ijtimoiy faollik darajasini pasayishiga olib keladi. Mazkur holatlarni sharhlash va izohlashda dissertasion tadqiqotimizda A.N.Leontyev nazariyasi fundamental asosga egadir.

V.Kettell nazariyasi fundamental asosga egadir. V.Kettellning motivatsiya konsepsiyasi o‘ziga xosligi bilan boshqa yondashuvlardan ajralib turadi. O‘zining ilmiy imkoniyatlarini u “Shaxs va motivatsiya”, “Tuzilma va o‘lchash”, “Motivatsiya nazariyasi”, “Shaxsning ilmiy tahlili” singari asarlarida sinab ko‘rgan. Shunday ekan shaxs motivlari va faoliyatini o‘zaro bog‘lab, o‘smirning qaror qabul qilishdagi holatlarini tahlil qilishimiz mumkin.

Yaqinda nashr etgan tadqiqotimizda autizmga chalingan kattalar guruhi va oddiy kattalar guruhi bor edi va biz ularga ijtimoiy motivatsiya vazifasini berdik va bu vazifada ular ko‘rishlari mumkin bo‘lgan uch xil film mavjud. Ular sizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaraydigan va siz bilan ko‘z aloqasini o‘rnatadigan odamning filmlarini yoki sizdan boshqa tomonga qaraydigan va ko‘z aloqasini o‘rnatmaydigan odamning filmini yoki uy-ro‘zg‘or buyumlari filmini tomosha qilishlari mumkin. Biz oddiy odamlar ko‘z aloqasi bo‘lmagan filmlarga qaraganda ko‘z aloqasini afzal ko‘rishlarini aniqladik, ammo autizmga chalingan odamlar farq qilmaydi. Autizmga chalingan bolalar uy-ro‘zg‘or buyumlariga qaraganda odamlarni biroz afzal ko‘rishgan. Shunday qilib, ular barcha odamlardan butunlay qochishadi degani emas, balki ko‘z aloqasida o‘ziga xos bir narsa bordir. Kopincha autizmga chalingan odamlar ko‘z aloqasidan qochishlari haqida latifalarda aytiladi, ular ko‘z aloqasini biroz qo‘rqinchli deb bilishadi, ular bundan nima qilishni bilishmaydi. Bu kabi tadqiqotlar dastlabki aniq dalillarning bir qismini taqdim etishi mumkin, shuning uchun siz bunga raqam qo‘yishingiz va autizmli odamlar ko‘z bilan aloqa qilishni qanday ko‘rishni xohlashlari va undan qanday foydalanishlar nuqtai nazaridan qanday farq borligini aytishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha kelajakda qancha turdagi ijtimoiy belgilar motivatsiyaga ta’sir qilishini tushunish juda qiziqarli narsa bo‘ladi. Shuningdek, biz ko‘z bilan aloqa qilishni batafsilroq ko‘rib chiqishga va odamlarni ko‘z bilan aloqa qilishga yoki aloqa qilishdan olib qochishi mumkin bo‘lgan autizmli odamlar va boshqa odamlarni ko‘rishdan qochadigan ijtimoiy xavotir buzilishi bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga juda qiziqamiz, ular boshqa shaxslar muloqot qilishga undalmaydilar, lekin ehtimol ba’zi juda boshqacha sabablarga ko‘ra. Motivatsiyalarni aniqlash va ularni shunchaki umumiy ma’noda gapirishdan tashqari ilmiy jihatdan aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar tobora ko‘proq olib borilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ijtimoiy motivatsiya bo'yicha ishlar bizni ko'proq o'ylashga undaydigan sohalardan biri bu nigoh va ko'z bilan aloqa g'oyasi. Nigoh ko'pincha motivatsiya o'lchovi sifatida ishlatiladi, chunki eksperimental nuqtai nazardan odamlarga yuz yoki tasvirlar to'plamining tasvirini ko'rsatish, ularning ko'zlarini kuzatib borish va tasvirning qaysi qismlariga qarashlarini ko'rish juda oddiy. Ko'zni kuzatishdan foydalangan holda ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, agar sizda yuzning fotosurati va ko'z kuzatuvchisi bo'lsa, o'sha tasvirga qaragan kattalar yoki bola sochga, kiyimga yoki fonga emas, balki yuzning ko'zlariga va yuzning og'ziga qarashga moyil bo'ladi, autizmga chalingan odam esa ko'zlarga qaramasligi mumkin.

Bu ancha bahsli natija: ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ular ko'zlarga qarashadi, ba'zilari esa yo'q. Bu juda aralash natijalar bo'ldi. Ammo, agar biz ko'proq tabiiy stimullardan foydalansak, ya'ni multfilm yoki shunga o'xshash narsaning harakatsiz tasviridan foydalanish o'rniga, gaplashayotgan haqiqiy odamning videosidan foydalansak, odatiy bolalar yoki kattalar nimaga qarashga undaydiganlari va autizmga chalingan odamlar nimaga qarashga undaydiganlari o'rtasida ancha aniq farqlar paydo bo'ladi. Bu bizning usullarimizni rivojlantirish nuqtai nazaridan: laboratoriyadagi usullarimiz real dunyoga qanchalik yaqin bo'lsa, biz topa oladigan natijalar shuncha yaxshi bo'ladi.

Hozirgi kunda ba'zi qiziqarli topilmalar shuni ko'rsatadiki, oddiy odamlarda, agar siz ularga shunchaki yuzning fotosuratini ko'rsatsangiz, ular osongina ko'zlarga qarashadi, lekin agar ular Skype'da boshqa odamning videosini, ya'ni odamning ularga qanday qarayotganini ko'rsa, ular ko'zlarga unchalik qaramaydilar. Shunday qilib, bu butunlay boshqacha naqsh bo'ladi, chunki siz kimdir bilan chinakam ijtimoiy muloqotda bo'lganingizda, sizning motivatsiyangiz va ular yuborgan signallar butunlay boshqacha bo'ladi.

Agar siz suratga qarasangiz, unda siz uyalmasdan xohlagan joyingizga qarashingiz va shunchaki xohlagan ijtimoiy ma'lumotingizni olishingiz mumkin. Ammo agar siz boshqa haqiqiy odamga qarasangiz, unda agar siz ularning o'ziga juda uzoq tikilib tursangiz, bu g'alati turdagi ijtimoiy signallarni yuboradi va ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, odamlar odatiy laboratoriya tadqiqotlarimizdagi ba'zi narsalarga nisbatan, ya'ni biz ekranda shunchaki suratlardan foydalanayotganimizga nisbatan ancha boshqacha motivatsiyaga ega bo'ladilar va haqiqiy muloqotda juda boshqacha yo'l tutadilar. Ijtimoiy nevrologiya sohasida tobora ko'proq ayon bo'lmoqdaki, biz odamlarning xatti-harakatlarining yaxshi o'lchovlarini olish uchun ushbu real dunyodagi interaktiv aloqalarni o'rganishimiz kerak, chunki laboratoriyada qilayotgan ishlarimiz real dunyoda sodir bo'layotgan voqealardan millionlab mil uzoqlikda emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi bir necha yil ichida kelajakda amalga oshirilayotgan va hozirda ijtimoiy motivatsiyani tushunish nuqtai nazaridan amalga oshirilayotgan juda hayajonli ishlardan biri sifatida, ijtimoiy o'zaro ta'sirni tushunish ba'zi an'anaviy laboratoriya usullaridan tashqariga chiqib, narsalarni interaktiv qilish demakdir. Shunday qilib, siz orqaga qaraydigan, sizga javob beradigan yoki narsalarni ancha boyroq, real dunyo kontekstida o'lchaydigan odamga qaraysiz. Ilmingizni laboratoriyadan tashqariga, real dunyoga va interaktiv kontekstlarga olib chiqayotganingizda shunday ishlarni qilish orqali biz motivatsiyaning ancha yaxshi o'lchovlarini olishimiz va odamlarning aslida qanday harakat qilayotganini va ularni nima rag'batlantirishini, ularni kundalik hayotda nima harakatga keltirishini tushunishga harakat qilishimiz mumkin. Bizningcha, bu bizga nafaqat autizmda, balki ijtimoiy xavotir buzilishi, ijtimoiy o'zaro ta'sirga ta'sir qiluvchi har qanday psixiatrik kasalliklar kabi boshqa holatlarda ham xatti-harakatlardagi individual farqlarni tushunishning ancha yaxshi usulini beradi, bularning ko'pini biz ushbu interaktiv kontekstda ijtimoiy o'zaro ta'sirni o'rganishimiz kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy motivatsiya mavzusi umuman ijtimoiy xulq-atvordagi individual farqlarni tushunish uchun juda muhimdir, chunki har bir insonning o'ziga xos motivatsiyasi bor va ularning motivatsiyasi hatto kun davomida, hafta davomida, hayoti davomida o'zgarishi mumkin. O'smirlarda va kattalar hayotining turli bosqichlarida ijtimoiy motivatsiyalar kattalar hayotiga nisbatan juda farq qilishi mumkin. Agar bizda bu kabi narsalarni miqdoriy jihatdan aniqlash usullari bo'lsa va ular qaerdan kelib chiqayotgani haqida tushunchaga ega bo'lsak, bu bizga odamlar nima uchun muayyan qarorlarni muayyan yo'llar bilan qabul qilishlarini va ijtimoiy vaziyatlarda turli xil ijtimoiy psixiatrik holatlardan qiynalayotgan odamlarga qanday yordam berishimiz mumkinligini bilish uchun ancha yaxshi ilmiy asos yaratadi, ularning aksariyati qandaydir motivatsion jihatga ega. Shunday qilib, bu ushbu turdagi tadqiqotning uzoq muddatli maqsadi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1
2. G'oziyev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi".-T.: Noshir. 2010
3. Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.: O'qituvchi, 1996. – B. 187.
4. Маркова А. К. Психология труда учителя. М.: Просвешение, 1993.Талаба192 с.
5. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.
6. Терелянский П. В. Теория и методы принятия решений : учеб. пособие / П. В. Терелянский; ВолгГТУ. – Волгоград, 2016. – С.34.
7. Yo'ldoshev J.A. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali 2025-yil, iyun. №06-son Psixologiya yo'nalishi. 71-74 b.
8. Norqulova N.T. Affiliatsiya motivi – talabalar ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2017, - 144 b.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Абидова М. И.
Старший преподаватель ТГМУ

Абидова Д. М.
Независимый исследователь ЧГПУ

Аннотация: В статье представлено теоретико-методологическое исследование проблемы интеграции цифровых технологий и инструментов искусственного интеллекта в обучение иностранным языкам в условиях модернизации высшего образования Республики Узбекистан. На основе анализа национальных научных публикаций, нормативных документов и современных педагогических концепций обоснована необходимость перехода от инструментального использования цифровых ресурсов к формированию интеллектуальной образовательной среды. Разработана авторская концептуальная модель интеграции ИИ в языковую подготовку, ориентированная на развитие коммуникативной и цифровой компетентности обучающихся. Показано, что эффективная цифровизация обучения возможна только при соблюдении дидактических принципов и учёте национального образовательного контекста.

Ключевые слова: цифровизация образования, искусственный интеллект, обучение иностранным языкам, цифровая образовательная среда, коммуникативная компетенция, высшее образование, Республика Узбекистан.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida xorijiy tillarni o‘qitish jarayoniga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalarini integratsiya qilish muammosining nazariy-metodologik tadqiqi taqdim etilgan. Milliy ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy pedagogik konsepsiyalar tahlili asosida raqamli resurslardan instrumental foydalanishdan intellektual ta’lim muhitini shakllantirishga o‘tish zarurati asoslab berilgan. Til tayyorgarligiga sun’iy intellektni integratsiya qilishning mualliflik konseptual modeli ishlab chiqilib, u ta’lim oluvchilarning kommunikativ va raqamli kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ta’limni samarali raqamlashtirish faqat didaktik tamoyillarga rioya etish va milliy ta’lim kontekstini inobatga olish sharoitida amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limni raqamlashtirish, sun’iy intellekt, xorijiy tillarni o‘qitish, raqamli ta’lim muhiti, kommunikativ kompetensiya, oliy ta’lim, O‘zbekiston Respublikasi.

Abstract: The article presents a theoretical and methodological study of the integration of digital technologies and artificial intelligence tools into foreign language teaching within the framework of the modernization of higher education in the Republic of Uzbekistan. Based on the analysis of national scientific publications, regulatory documents, and contemporary pedagogical concepts, the necessity of transitioning from the instrumental use of digital resources to the formation of an intelligent educational environment is substantiated. An authorial conceptual model of AI integration into language education aimed at developing communicative and digital competence is proposed. The study demonstrates that effective digital transformation is possible only with adherence to didactic principles and due consideration of the national educational context.

Key words: digitalization of education, artificial intelligence, foreign language teaching, digital educational environment, communicative competence, higher education, Republic of Uzbekistan.

ВВЕДЕНИЕ

Цифровая трансформация образования в начале XXI века стала не просто технологическим обновлением, а системным изменением педагогической парадигмы. В Республике Узбекистан процессы модернизации высшего образования сопровождаются внедрением цифровых платформ, дистанционных форм обучения и интеллектуальных информационных систем. Государственные программы развития образования подчёркивают необходимость формирования цифровой компетентности и подготовки специалистов, способных функционировать в условиях глобальной информационной среды.

Особое значение цифровизация приобретает в сфере обучения иностранным языкам. Языковая подготовка ориентирована на развитие коммуникативной компетенции, межкультурного взаимодействия и профессиональной мобильности обучающихся. В условиях глобализации владение иностранным языком становится стратегическим ресурсом профессионального роста. Однако традиционные методики обучения не всегда обеспечивают достаточный объём речевой практики и индивидуализацию образовательного процесса. В трудах отечественных исследователей вопросы цифровой трансформации образования рассматриваются как часть системных реформ вуза. Отмечается необходимость создания единой цифровой образовательной среды, способной интегрировать электронные ресурсы, средства коммуникации и инструменты контроля. Подчёркивается, что цифровизация должна сопровождаться методическим переосмыслением содержания обучения, а не ограничиваться техническим оснащением аудиторий.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Современный этап развития технологий характеризуется активным внедрением инструментов искусственного интеллекта. В отличие от традиционных информационно-коммуникационных технологий, ИИ способен анализировать образовательные данные, адаптировать содержание обучения и обеспечивать персонализированную обратную связь. Это создаёт предпосылки для качественного изменения языковой подготовки, однако требует теоретического осмысления и методологического обоснования. Несмотря на активное развитие цифровых инструментов, проблема их педагогически целесообразной интеграции в обучение иностранным языкам остаётся недостаточно систематизированной в национальной научной школе. Наблюдается преобладание описательных исследований, посвящённых использованию отдельных платформ, при отсутствии целостной концепции применения искусственного интеллекта в языковом образовании.

Demak, talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasiga, axborot muhiti sharoitida talabalarning ma'naviy yetukligini shakllantirishning amaliy pedagogik tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida axborot-ta'lim muhitini kengaytirish, talabalarning axborotdan to'g'ri foydalana olish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ma'naviy yetuklik ko'nikmalarini tarkib toptirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi hamda UNESCOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish"ga oid dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, modulli ta'limni tashkil etish, o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni mediamakonda turli xil axborot xurujlaridan himoya qilishning tashkiliy-tadqiqiy jihatlarini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni samarali yo'lga qo'yish, talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini hamda axborotlar bilan ishlash madaniyatini tizimli ravishda shakllantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasi va ta'sirchanlik ko'lamini oshirish, talaba-yoshlar tafakkurida amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, axborot muhitida duch kelinayotgan ma'lumotlar bazasidan oqilona foydalanish va ularni to'g'ri qabul qila olish, talabalar ong-u tafakkuridagi ma'naviy bo'shliq o'rnini ma'naviy yetuklik kompetensiyasi orqali to'ldirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Talabalarda axborot muhiti sharoitida ma'naviy yetuklikni shakllantirishning umumkasbiy kompetensiyalar tizimidagi o'rni va rolini ochib berish, axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish, kommunikativlikning ijtimoiy-perseptiv tuzilmasini faollashtirishga doir vaziyatlarni ishlab chiqish, ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy yetuklikni shakllantirish uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitish hamda turli o'quv kurslarida yangi interaktiv usullarni qo'llashga yo'naltirilgan oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil-14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son[1] qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son[2] qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son[3] qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son[4] Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi " Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son[5] qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son[6] Farmonida talaba-yoshlarning ma'naviy kamoloti va ma'naviy yetuklik darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Ma'naviy qadriyatlar mushtarakligi asosida shaxs ongini shakllantirish masalalari, yoshlarning milliy tarbiyasi, oilaning ma'naviy asoslari, mustaqillik ma'naviyati va tarbiya masalalari, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanishi, ushbu jarayonda milliy ma'naviyatning o'rni va roli tahlil etilgan, shuningdek, talabalarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash hamda milliy ma'naviy merosni yoshlar ongiga singdirish yo'llari yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash masalasi o'zbek pedagogik tafakkurida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Safo Ochilning "Mustaqillik va tarbiya masalalari" asarida mustaqillik sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, unda ma'naviy tarbiya shaxs kamolotining yetakchi omili sifatida talqin etiladi. Muallif tarbiya jarayonida an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, zamonaviy ijtimoiy talablarga moslashuv masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv innovatsiya va an'analar integratsiyasining nazariy poydevorini tashkil etadi.

Innovatsion ta'lim masalalari N. A. Muslimov tahriri ostida chop etilgan "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" asarida atroflicha yoritilgan. Unda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv metodlar va pedagogik texnologiyalarning samaradorligi asoslab berilgan. Muallif innovatsiyalarni ta'lim mazmunini boyituvchi va talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi vosita sifatida baholab, ularni milliy tarbiya an'analari bilan uyg'un holda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash jarayonida innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini ochib beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil-14-avgustdagi " Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori: https://lex.uz/docs/-3864155

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori: https://lex.uz/ru/docs/-4320700

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori: https://lex.uz/docs/-5344692

4 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: https://lex.uz/docs/-5013007

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi " Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori: https://lex.uz/ru/docs/-4676839?ONDATE=03.01.2020&action=-compare

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-5841063?ONDATE2=21.04.2022&action=compare

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va pedagogik jarayonning integrativ jihatlari M. H. Usmonboyeva, D. M. Sayfurov va A. B. To'rayevlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ular ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiya uzluksiz va tizimli bo'lishi lozimligini, innovatsion metodlar esa tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini asoslab beradilar. Tadqiqotchilar fikricha, an'anaviy tarbiya qadriyatlari zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgandagina talabalarda ma'naviy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi barqaror shakllanadi. Ushbu ilmiy qarashlar innovatsiya va an'analar integratsiyasining amaliy-pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash jarayonini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va suhbat usullari orqali oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar hamda pedagoglar ishtirokida yig'ildi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tahliliy usullar yordamida umumlashtirildi, sifat jihatidan tahlil qilinib, innovatsion metodlar bilan an'anaviy tarbiya vositalarining o'zaro uyg'unligi baholandi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Ma'naviyat" arabcha "ma'nolar majmui" bo'lib, kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy va diniy tasavvurlari hamda tushunchalari majmuini anglatadi. Yetuklik – bu shaxs rivojlanishining shunday darajasiki, unda shaxs o'zining fuqarolik, oilaviy, kasbiy va boshqa majburiyatlarini to'liq bajarishga qodir bo'ladi, qolaversa, jamiyatning muayyan sohalarida hamda mehnat faoliyatida samarali ishtirok etadi. "...taraqqiyotni tahlil qilish bu jarayonning o'ta murakkab va ziddiyatli ekanini ko'rsatmoqda: inson organizmining turli tizimlaridagi taraqqiyotning yuqori darajaga erishishi uchun turlicha vaqt sarflanganligi sababli uning psixikasi o'ta sodda va juda murakkabdir hamda uning evolyutsiyasi boshlanishidagi geteroxronlik va kechishidagi tezlikning noadekvatligi kuzatiladi". Muayyan bir shaxsning yetuklik darajasi uning individual xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy muhit talablari va taraqqiyot sharoitlari bilan muvofiqlik darajasiga bog'liqdir. Ushbu ta'riflarni umumlashtirib quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'naviy yetuklik – bu shaxsning har tomonlama kamolotga erishganligi, insonlarning o'z qarorlarini mustaqil qabul qilishi va javobgarlikni o'z zimmalariga olishi bilan tavsiflanadi.

Internet madaniyatini, avvalo, kattalar, ota-onalar, eng avvalo pedagoglar o'zlaridan boshlasalar, kutilayotgan natijalarga erishish mumkin. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratish va ularning ma'naviy olami daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Yangi islohotlar amalga oshirilayotgan va jadal rivojlanayotgan bir davrda mamlakatimiz miqyosida ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlash lozim. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un va uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazish mumkin. Bizning ertangi kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarga bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda nazariy va amaliy ko'maklashish kelgusida yanada farovon hayot kechirishimiz uchun mustahkam zamin yaratadi. O'zbekistonning taraqqiyot dasturi uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, anglash va qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar hamda zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasini ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Biz yangi O'zbekistonda yangi g'oyalar va rejalar bilan hamohang qadam tashlamoqdamiz. Ushbu ildam qadamlarimiz yaqin kelajakda o'zining istiqbolli natijalarini namoyon etadi.

Talabalarda ma'naviy yetuklikni shakllantirish avvalo bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Unga ko'ra, yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali bajarish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga tayangan holda onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari hamda mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Konsepsiyada qayd etilishicha, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni bolalikdan boshlab shakllantirish lozim. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlardan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi va pokligi bilan belgilanadi.

V. Slastenin fikriga ko‘ra, innovatsion yondashuv pedagogik innovatsiyalarni muayyan sohada ijobiy o‘zgarishlar va sifat jihatidan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo‘llashni, pedagogik yangiliklarni qabul qilishni, novatorlik darajasini, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligini, ijodkorlik va ijodiy faollikni, faoliyatga yangilik kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlikni, yangicha fikrlash hamda yuksak muomala madaniyatini ifodalaydi.

Axborot muhiti sharoitida talabalarda ma’naviy yetuklikni shakllantirish o‘ziga xos murakkabliklarni o‘z ichiga oladi. Bunda, avvalo, talabalar ong-u tafakkuridagi ma’naviy bo‘shliqni umummadaniy kompetensiyalar orqali to‘ldirish zarur. Talabalar tafakkurida shakllantirilgan kompetensiyalar ularning axborot muhitida ma’naviy yetukligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida o‘sib kelayotgan avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar farzandlarimizning ma’naviy yetuk qiyofasini kamol toptirishga xizmat qiladi. Yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning hayotga tatbiq etilishini alohida e’tirof etish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- mediamakonda axborot xurujlaridan himoyalanish usullarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish;
- pedagogik-psixologik fanlar mazmunini ma’naviy-axloqiy tavsifdagi o‘quv materiallari bilan boyitishning aksiologik imkoniyatlarini ko‘rsatib berish;
- real hayotdan misollar asosida muayyan keysli vaziyatlarni yaratish va ular orqali axborotlar bilan ishlash hamda ularni qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirish;
- zamonaviy axborot muhitida talabalarni axborot manbalaridan foydalanish malakasi va madaniyatini oshirish.

An’analar integratsiyasi asosida talabalarni ma’naviy ruhda tarbiyalashdan asosiy maqsad o‘qituvchi va o‘quvchi mushtarakligiga erishish, talaba-yoshlarni fanga qiziqtirish, ta’limga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, o‘rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda didaktik materiallarni mavzu bilan uyg‘unlashtirishdan iboratdir. An’analar integratsiyasi asosida talabalarni ma’naviy ruhda tarbiyalash ilmiy izlanishlar olib borish, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish orqali talabalarga yangi bilim berishni nazarda tutadi.

Darhaqiqat, xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, farovon kelajak poydevori hozirda unib-o‘sib kelayotgan yoshlar hisoblanadi. Shu sababli ularning yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib voyaga yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda talaba-yoshlarni innovatsion an’analar integratsiyasi asosida tarbiyalash, yangi avlod ushbu tajribalardan saboq olib ulg‘aysa, davlatimizning ertangi istiqboli yorqin bo‘lishiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori: https://lex.uz/ru/docs/-4320700
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori: https://lex.uz/docs/-5344692
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni: https://lex.uz/docs/-5013007
4. Safo Ochil. Mustaqillik va tarbiya masalalari. – T.: “O‘zbekiston”, 1995. – 480 b.
5. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N. A.
6. Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To‘rayev A. B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Sharipov Ulug'bek Ibotovich
Osiyo universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida klaster texnologiyasidan foydalanishning pedagogik ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Klaster metodi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, harakat faoliyatini tizimli o'zlashtirish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Jismoniy mashqlarni klaster asosida guruhlash orqali dars mazmunining izchilligi va mantiqiy bog'liqligi ta'minlanadi. Tadqiqot natijalari klaster metodidan foydalanilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning faolligi, o'quv motivatsiyasi va darsga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: innovatsion pedagogik texnologiyalar, jismoniy tarbiya, klaster metodi, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi, kompetensiyaviy yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Abstract: This article examines the pedagogical significance of applying cluster technology in physical education classes. The cluster method is interpreted as an effective pedagogical tool for developing students' logical thinking, ensuring systematic mastery of motor activities, and fostering teamwork skills. Grouping physical exercises based on the cluster approach contributes to the consistency and logical structure of lesson content. The research findings indicate that lessons conducted using the cluster method lead to increased student engagement, learning motivation, and overall interest in physical education classes.

Key words: innovative pedagogical technologies, physical education, cluster method, interactive methods, educational effectiveness, competency-based approach, information and communication technologies.

Аннотация: В статье научно обоснована педагогическая значимость применения кластерной технологии на уроках физической культуры. Кластерный метод рассматривается как эффективное педагогическое средство развития логического мышления обучающихся, системного усвоения двигательной деятельности и формирования навыков командной работы. Группировка физических упражнений на основе кластерного подхода обеспечивает логическую последовательность и целостность содержания урока. Результаты исследования показывают, что использование кластерного метода способствует повышению активности, учебной мотивации и интереса учащихся к занятиям физической культурой.

Ключевые слова: инновационные педагогические технологии, физическая культура, кластерный метод, интерактивные методы, эффективность обучения, компетентностный подход, информационно-коммуникационные технологии.

KIRISH

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar barcha fanlar qatori jismoniy tarbiya darslarini ham zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. An'anaviy dars jarayonida o'quvchi asosan ijrochi sifatida ishtirok etgan bo'lsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar uni faol subyektga aylantiradi. Shu bois interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi pedagogika fanida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. R. J. Ishmuhamedov o'z tadqiqotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida o'quvchining faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o'qitish samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olimning ta'kidlashicha, interfaol metodlar

o‘quvchini ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektga aylantiradi, bu esa ayniqsa jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘. Tolipov va M. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, aniq maqsadga yo‘naltirish va natijani kafolatlashga xizmat qiluvchi tizim sifatida talqin etadi. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim mazmuni, metodlari va baholash tizimini uzviy bog‘liq holda tashkil etishni taqozo etadi. Ushbu yondashuv jismoniy tarbiya darslarida mashqlarni ongli bajarish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish hamda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi.

Jismoniy tarbiya fanidan umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida ham innovatsion yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur me’yoriy hujjatlarda jismoniy tarbiya darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning ijtimoiy faolligi va sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish vazifalari belgilab berilgan. Bu esa jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy va amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy va empirik ma’lumotlarni yig‘ish usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar pedagogik kuzatuv, o‘quv mashg‘ulotlarini tahlil qilish, o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar hamda so‘rovnomalar orqali olindi. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar qo‘llanilgan va an’anaviy usullarda tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijalari taqqoslandi. Olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, o‘quvchilarning faolligi, mashg‘ulotga qiziqishi va o‘zlashtirish darajasidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Natijalar umumlashtirilib, innovatsion pedagogik texnologiyalarning jismoniy tarbiya darslari samaradorligiga ta’siri aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion pedagogik texnologiyalar jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning faolligini oshiradi hamda ularning nazariy bilimlarini amaliy harakatlar bilan uyg‘unlashtiradi. Jumladan, klaster, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulotdan oldin harakat texnikasini videorolik yoki taqdimot orqali tushuntirish o‘quvchilarning mashqlarni to‘g‘ri va xavfsiz bajarishiga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning natijalarini monitoring qilish, individual yondashuvni amalga oshirish hamda baholash jarayonini shaffof tashkil etish mumkin. O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash usullaridan foydalanish esa o‘quvchilarda mas’uliyat va intizomni shakllantiradi. Shu tariqa dars jarayoni faqat jismoniy mashqlar majmui bo‘lib qolmay, balki shaxsga yo‘naltirilgan uzviy pedagogik jarayonga aylanadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jismoniy tarbiya fanini ham mazmunan yangilashni, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni talab etmoqda. An’anaviy dars shakllarida o‘quvchi ko‘proq bajaruvchi sifatida ishtirok etgan bo‘lsa, innovatsion yondashuvlarda u faol, mustaqil fikrlovchi va jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Shu bois jismoniy tarbiya darslarida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar dars jarayonini tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va natijaga qaratilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Xususan, klaster, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat yaratish kabi metodlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jismoniy mashqlarni bajarishdan oldin ularning nazariy asosini interaktiv taqdimot yoki videomateriallar orqali tushuntirish o‘quvchilarda ongli yondashuvni shakllantiradi. Natijada har bir harakat elementining mazmuni va ahamiyati chuqurroq anglanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Elektron taqdimotlar, animatsion ko‘rsatmalar va onlayn platformalar orqali mashqlar texnikasini bosqichma-bosqich namoyish etish o‘quvchilarning vizual qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu, ayniqsa, murakkab harakat elementlarini o‘zlashtirishda samarali natija beradi. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning natijalari monitoring qilinib, individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Innovatsion yondashuvning yana bir muhim jihati baholash tizimining takomillashuvidir. Reyting, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash usullarini qo‘llash o‘quvchilarda mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Ushbu jarayon nafaqat jismoniy ko‘rsatkichlarni, balki intizom, jamoaviylik va faollik kabi sifatlarni ham inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Natijada baholash tizimi shaffof va rag‘batlantiruvchi tus oladi.

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy metod va vositalar asosida tashkil etilgan dars jarayoni uzviylik, tizimlilik va samaradorlikni ta’minlab, ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taradi.

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonida ta’lim tizimi tubdan yangilanmoqda. Ushbu jarayon jismoniy tarbiya faniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatib, darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Chunki bugungi o‘quvchi nafaqat jismonan chiniqqan, balki mustaqil fikrlay oladigan, sog‘lom turmush tarzini ongli ravishda tanlaydigan shaxs bo‘lib shakllanishi lozim. Shu nuqtai nazardan innovatsion pedagogik texnologiyalar jismoniy tarbiya darslarining mazmuni va metodikasini boyituvchi muhim vosita hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar, avvalo, dars jarayonining tuzilishini o‘zgartiradi. An’anaviy yondashuvda o‘qituvchi markaziy o‘rinda bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy ta’limda o‘quvchi faol subyektga aylanadi. Masalan, muammoli o‘qitish texnologiyasi asosida o‘quvchilarga “Nima uchun mashqdan oldin qizdirish mashqlari bajariladi?” kabi savollar berilib, ular mustaqil fikrlashga undaladi. Bu jarayon nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lashga yordam beradi. Natijada o‘quvchi har bir mashqning fiziologik va sog‘lomlashtiruvchi ahamiyatini tushunib bajaradi.

Interfaol metodlardan foydalanish ham dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kichik guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar va musobaqa elementlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda jamoaviylik, liderlik va mas’uliyat hissi shakllanadi. Ayniqsa, sport o‘yinlarini o‘rgatishda taktik vaziyatlarni modellashtirish va muhokama qilish usuli o‘quvchilarning strategik fikrlashini rivojlantiradi. Bu esa ularning nafaqat jismoniy, balki intellektual salohiyatini ham oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi jismoniy tarbiya darslarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan, harakat texnikasini sekinlashtirilgan videolar orqali ko‘rsatish o‘quvchilarga murakkab elementlarni aniq tushunish imkonini beradi. Fitnes-trekerlar yoki mobil ilovalar yordamida yurak urish tezligi, bosib o‘tilgan masofa va energiya sarfi kabi ko‘rsatkichlarni kuzatish mashg‘ulotlarning ilmiy asosda tashkil etilishiga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda o‘z salomatligini nazorat qilish madaniyatini shakllantiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar differensial yondashuvni ham ta’minlaydi. Har bir o‘quvchining jismoniy tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘lganligi sababli mashqlar individual imkoniyatlardan kelib chiqib rejalashtiriladi. Masalan, ayrim o‘quvchilarga murakkabroq mashqlar berilsa, boshqalarga soddalashtirilgan variantlar taklif etiladi. Bu holat ortiqcha zo‘riqishning oldini olib, barcha o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

Baholash tizimining innovatsion shakllari ham dars samaradorligini oshiradi. Formativ baholash, ya’ni jarayon davomida natijalarni tahlil qilish o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashiga turtki bo‘ladi. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya usullari orqali o‘quvchi o‘z yutuq va kamchiliklarini anglaydi, bu esa shaxsiy rivojlanish dinamikasini kuzatishga yordam beradi.

Yana bir muhim jihat innovatsion texnologiyalar orqali sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishdir. Nazariy ma’lumotlar, prezentatsiyalar va amaliy mashg‘ulotlar uyg‘unligi asosida o‘quvchilar to‘g‘ri ovqatlanish, kun tartibi va jismoniy faollikning ahamiyatini chuqurroq anglaydi. Natijada jismoniy tarbiya darslari faqat sport mashg‘uloti emas, balki sog‘lom hayot falsafasini shakllantiruvchi ta’lim jarayoniga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Ushbu yondashuv darslarning qiziqarli, samarali va ilmiy asosda tashkil etilishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchini faol, ongli va sog‘lom turmush tarzini qadrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- har bir mavzuni interfaol metodlar asosida rejalashtirish;
- raqamli taqdimotlar va videomateriallardan muntazam foydalanish;
- o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni joriy etish;
- baholash tizimida reyting va refleksiya metodlarini qo‘llash;
- o‘qituvchilarning innovatsion metodlar bo‘yicha kasbiy malakasini muntazam oshirib borish.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya darslarida klaster texnologiyasidan foydalanish pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning faolligini oshiradi, dars samaradorligini ta’minlaydi hamda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar barcha fanlar qatori jismoniy tarbiya darslarini ham zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. An’anaviy dars jarayonida o‘quvchi asosan ijrochi sifatida ishtirok etgan bo‘lsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar uni faol subyektga aylantiradi. Shu bois interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va sog‘lom turmush madaniyatini shakllantiradi. Zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar uzviylik va tizimlilikni ta’minlab, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent.
5. Jismoniy tarbiya fanidan umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.

TEXNOLOGIYA FANIDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI ASOSIDA AMALIY KO'NIKMA VA MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

X. Ch. Dusyorov
Termiz davlat pedagogika instituti, p.f.n., dotsent

X. A. Qulmamatova
Termiz davlat pedagogika instituti, p.f.f.d. (PhD)

N. O. Shog'darov
Termiz davlat pedagogika instituti,
o'quv-uslubiy boshqarma uslubchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologiya fanini o'qitishda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish asosida o'quvchilarning amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik metodika ishlab chiqilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi texnologiya fani kabi amaliy yo'nalishga ega fanlarni o'qitish metodikasini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Tadqiqot doirasida raqamli ta'lim resurslarining turlari, ularning didaktik imkoniyatlari hamda texnologiya darslarida qo'llanish xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatorlar, 3D-modellashtirish dasturlari, video darslar va elektron o'quv-uslubiy majmualardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya ta'limi, raqamli ta'lim resurslari, amaliy ko'nikma va malakalar, virtual laboratoriya, interaktiv o'qitish, pedagogik metodika, texnik tafakkur, elektron ta'lim muhiti, simulyatorlar, 3D-modellashtirish.

Abstract: This article develops a pedagogical methodology aimed at enhancing students' practical skills and competencies through the use of digital educational resources in technology education. The rapid advancement of digitalization processes in the modern education system necessitates a fundamental revision of teaching methodologies for practice-oriented subjects such as technology. The study analyzes the types of digital educational resources, their didactic potential, and the specific features of their application in technology lessons. The article presents scientific and methodological recommendations for the effective use of virtual laboratories, interactive simulators, 3D modeling software, video lessons, and electronic educational and methodological complexes.

Key words: technology education, digital educational resources, practical skills and competencies, virtual laboratory, interactive learning, pedagogical methodology, technical thinking, electronic learning environment, simulators, 3D modeling.

Аннотация: В статье разработана педагогическая методика развития практических умений и навыков обучающихся на основе использования цифровых образовательных ресурсов при обучении технологии. Стремительное развитие процессов цифровизации в современной системе образования обусловливает необходимость коренного пересмотра методики преподавания дисциплин практической направленности, к которым относится и технология. В ходе исследования проанализированы виды цифровых образовательных ресурсов, их дидактические возможности и особенности применения на уроках технологии. В статье представлены научно-методические рекомендации по эффективному использованию виртуальных лабораторий, интерактивных симуляторов, программ 3D-моделирования, видеоуроков и электронных учебно-методических комплексов.

Ключевые слова: технологическое образование, цифровые образовательные ресурсы, практические умения и навыки, виртуальная лаборатория, интерактивное обучение, педагогическая методика, техническое мышление, электронная образовательная среда, симуляторы, 3D-моделирование.

KIRISH

XXI asr – axborot jamiyati va raqamli texnologiyalar asri. Zamonaviy mehnat bozori yuqori malakali, texnik savodxon, raqamli texnologiyalarni erkin qo'llay oladigan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlari, jumladan, "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da raqamli ta'lim muhitini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Texnologiya fani o‘quvchilarga turli hunarmandchilik ko‘nikmalarini o‘rgatish, texnik tafakkurni shakllantirish hamda ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishtirishga qaratilgan muhim fanlardan biridir. Biroq an’anaviy o‘qitish metodlari bir qator cheklovlarga ega bo‘lib, ularga moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, xavfsizlik texnikasi talablari, vaqt va makon cheklovlari hamda individual yondashuvni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar kiradi. Raqamli ta’lim resurslari ushbu muammolarning aksariyatini bartaraf etish imkonini beradi.

Jahon tajribasida raqamli texnologiyalarni texnologiya ta’limiga integratsiyalash bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan. Finlandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda virtual laboratoriyalar, CAD dasturlari hamda robototexnika simulyatorlari keng qo‘llanilmoqda (Lavonen et al., 2020; Kim & Lee, 2019). Biroq O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Shu sababli milliy ta’lim tizimining xususiyatlariga moslashtirilgan, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli ta’lim resurslari asosidagi metodikani ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Nazariy-metodologik asoslar. Raqamli ta’lim resurslari ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv materiallarini taqdim etish va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi elektron vositalar majmuasidir. M.E. Bershadskiy, V.P. Bespalko, A.A. Andreev va boshqa pedagog olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli ta’lim resurslari didaktik imkoniyatlari jihatidan an’anaviy o‘quv materiallariga nisbatan sezilarli ustunlikka ega.

Texnologiya fanida amaliy ko‘nikma va malakalar deganda materiallar bilan ishlash (kesish, qirqish, qoplash, birlashtirish), o‘lchash va chizmachilik, asbob-uskunalar bilan xavfsiz ishlash, texnik hujjatlar bilan ishlash, muammolarni texnik yo‘l bilan hal etish, loyihalash va modellashtirish ko‘nikmalari tushuniladi. Ushbu ko‘nikma va malakalarning shakllanishi muayyan vaqt, muntazam amaliy mashg‘ulotlar hamda individual yondashuvni talab etadi.

L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Raqamli vositalar o‘quvchining mustaqil faoliyati bilan o‘qituvchi yordami o‘rtasida bog‘lovchi vosita bo‘lib, murakkab amaliy vazifalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, D. Kolbning tajriba orqali o‘rganish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, raqamli simulyatorlar o‘quvchilarga xavfsiz muhitda tajriba orttirish, xatolarga yo‘l qo‘yish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Raqamli ta’lim resurslarining turlari va xususiyatlari. Tadqiqot doirasida texnologiya fanida qo‘llaniladigan raqamli ta’lim resurslari tahlil qilinib, quyidagi asosiy turlarga ajratildi. Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar real ishlab chiqarish jarayonlari, asbob-uskunalar hamda texnologik operatsiyalarni raqamli muhitda modellashtiruvchi dasturiy ta’minot hisoblanadi. Ular o‘quvchilarga xavfsiz sharoitda amaliy operatsiyalarni bajarish, xatolardan o‘rganish va takrorlash orqali ko‘nikmalarni mustahkamlash imkonini beradi. Masalan, elektrchilik asoslari bo‘yicha virtual laboratoriyalar elektr zanjirlarini yig‘ish, voltmetr va ampermetr yordamida o‘lchashlarni amalga oshirish hamda elektr xavfsizligi qoidalarini amalda sinab ko‘rish imkonini yaratadi. Yog‘ochga ishlov berish simulyatorlarida esa o‘quvchilar virtual dastgohlarda ishlab, kesish rejimlarini o‘zgartirish, asboblarni to‘g‘ri tanlash va mahsulot sifatiga ta’sirini kuzatish imkoniga ega bo‘ladilar.

3D-modellashtirish va CAD dasturlari, jumladan, Tinkercad, SketchUp va Fusion 360 o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini virtual muhitda modellashtirish, ularni turli burchaklardan ko‘rib chiqish, o‘lchamlarni aniqlash va 3D-printer uchun tayyor fayllar yaratish imkonini beradi. Ushbu dasturlar fazoviy tasavvurni rivojlantiradi, loyihalash jarayonini chuqur anglashga yordam beradi hamda zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari bilan tanishtiradi. Masalan, mebel loyihasini ishlab chiqishda o‘quvchi dastlab 3D-model yaratadi, o‘lchamlarni aniqlaydi, material sarfini hisoblaydi va shundan so‘ng amaliy ishga kirishadi.

Video-darslar va multimedia ta’lim kontenti murakkab texnologik jarayonlarni bosqichma-bosqich ko‘rsatish, professional ustalarning tajribasini namoyish etish va vizual o‘rganishni ta’minlashda yuqori samaradorlikka ega. Video-darslarni bir necha bor ko‘rish, kerakli joyda to‘xtatish va qayta ko‘rib chiqish imkoniyati individual o‘rganish sur’atini ta’minlaydi. Interaktiv video-darslar savollar, test topshiriqlari va amaliy vazifalar orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini kuchaytiradi. Animatsiyalar va infografikalar yordamida texnologik jarayonlar, ichki mexanizmlar hamda materiallardagi o‘zgarishlar aniq va tushunarli tarzda yoritiladi.

Elektron o‘quv-uslubiy majmualar nazariy materiallar, amaliy topshiriqlar, test savollari, qo‘shimcha adabiyotlar va multimedia kontentni o‘z ichiga olgan kompleks ta’lim mahsulotidir. To‘g‘ri tuzilgan EOUM adaptiv xususiyatga ega bo‘lib, o‘quvchining bilim darajasiga mos holda materiallarni taqdim etadi, individual o‘rganish yo‘nalishlarini taklif qiladi va o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Zamonaviy EOUM platformalarida gamifikatsiya elementlari, ball to‘plash tizimi va o‘quvchilar o‘rtasida raqobat mexanizmlarining joriy etilishi ta’lim motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Augmented Reality va Virtual Reality texnologiyalari immersiv ta’lim tajribasini shakllantiradi. VR texnologiyalari yordamida o‘quvchi virtual ustaxonaga kirib, haqiqiy dastgohlarda ishlash tajribasini oladi. AR texnologiyalari esa real obyektlarni raqamli axborot bilan boyitib, masalan, smartfon kamerasi orqali detalning nomi,

o‘lchami va texnik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar ayniqsa xavfli va murakkab texnologik operatsiyalarni o‘rgatishda, qimmatbaho uskunalar bilan ishlashni mashq qilishda va yirik sanoat obyektlarini o‘rganishda samarali hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan metodikaning mazmuni. Raqamli ta’lim resurslari asosida amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodika bosqichlilik, integrativlik, individuallashtirish, faollik va amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyillariga asoslanadi. Ushbu metodika motivatsion-tayyorlov, nazariy-tanishish, virtual amaliyot hamda real amaliy faoliyat va baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Dastlab multimedia materiallari va interaktiv vositalar orqali o‘quvchilarning qiziqishi shakllantiriladi, so‘ng EOUM va simulyatorlar yordamida nazariy bilimlar beriladi, virtual muhitda amaliy mashqlar bajariladi va yakunda real ustaxonalarda amaliy faoliyat amalga oshiriladi. Baholash jarayonida elektron portfoliolar, raqamli rubrikalar, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash tizimlari qo‘llanilib, virtual va real natijalar qiyosiy tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologiya ta’limi mazmuni va metodik asoslari kasb ta’limi pedagogikasi doirasida chuqur o‘rganilgan. Sharipov Sh.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A. va Ismoilova M. tomonidan yozilgan “Kasb ta’limi pedagogikasi” asarida texnologiya fanining amaliy yo‘naltirilganligi, o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalari va texnik tafakkurni shakllantirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Mualliflar ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ta’kidlab, o‘quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan metodlardan foydalanishni muhim deb hisoblaydilar. Ushbu qarashlar raqamli ta’lim resurslarini texnologiya darslariga integratsiyalash g‘oyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida texnologiya fanining mazmuni va o‘qitish usullari Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. va Abdullaeva Q. mualliffigidagi 6-sinf uchun mo‘ljallangan “Texnologiya” darsligida aniq yoritilgan. Darslikda amaliy mashg‘ulotlar, loyihaviy faoliyat va o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur manbada berilgan topshiriqlar va metodik ko‘rsatmalar raqamli ta’lim resurslari yordamida yanada boyitilishi mumkin bo‘lib, virtual laboratoriyalar va 3D-modellashtirish vositalari orqali amaliy ko‘nikmalarni samarali rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Maktab o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari Shog‘darov N.O. tadqiqotlarida keng yoritilgan. Uning ilmiy ishlarida texnologiya fanining o‘quvchilarda kasbga yo‘naltirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, Dusyorov X.Ch. tomonidan ishlab chiqilgan “Kasbga yo‘naltirish diagnostikasi” o‘quv qo‘llanmasida o‘quvchilarning qiziqishlari va moyilliklarini aniqlash metodlari bayon etilgan. Ushbu tadqiqotlar raqamli ta’lim resurslari asosida tashkil etilgan texnologiya darslari o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini ongli tanlashiga xizmat qilishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tekshirish maqsadida 2023–2024-o‘quv yilida Toshkent viloyatining Ohangaron, Bekobod va Zangiota tumanlaridagi 6 ta umumta’lim maktabida pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajribada 8–9-sinf o‘quvchilaridan tashkil topgan 240 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ular nazorat (120 nafar) va tajriba (120 nafar) guruhlariga ajratildi.

Nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish metodikasi qo‘llanildi, ya’ni o‘qituvchining og‘zaki tushuntirishlari, doska va chizma qog‘ozlaridan foydalanish, darslik bilan ishlash hamda real ustaxonada amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba guruhida esa ishlab chiqilgan metodika asosida EOUM, video-darslar, virtual laboratoriyalar, 3D-modellashtirish dasturlari va boshqa raqamli ta’lim vositalaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatish, anketaviy so‘rov, suhbat, test sinovlari, amaliy vazifalarni bajarish darajasini baholash, ekspert bahosi hamda statistik tahlil usullari, jumladan, Student t-mezoni qo‘llanildi. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda uchta asosiy komponent o‘rganildi: nazariy bilimlar darajasi, amaliy ko‘nikmalarning shakllanganligi va texnik fikrlashning rivojlanish darajasi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishi natijalari va tahlili. Tajriba-sinov ishi natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Farq (%)
Nazariy bilimlar (o’rtacha ball)	3.8	4.4	+15.8%
Amaliy ko’nikmalar (o’rtacha ball)	3.6	4.5	+25.0%
Texnik fikrlash (o’rtacha ball)	3.5	4.3	+22.9%
Mavzuga qiziqish darajasi (%)	62%	87%	+40.3%

Statistik tahlil (Student t-mezoni) natijalari guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko‘rsatdi ($p < 0.05$). Bu holat ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tajriba-sinov ishi davomida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

- o‘quvchilar nazariy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirdilar, chunki murakkab jarayonlar vizual va interaktiv shaklda taqdim etildi;
- amaliy ko‘nikmalarning shakllanish sifati oshdi, o‘quvchilar real ishga kirishishdan oldin virtual muhitda yetarli darajada mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar;
- xavfsizlik texnikasi qoidalarining buzilishi keskin kamaydi, chunki o‘quvchilar virtual muhitda barcha xavfli vaziyatlarni oldindan ko‘rib chiqdilar;
- o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi, darslar yanada jonli va qiziqarli tashkil etildi;
- individual yondashuv samaradorligi oshdi, har bir o‘quvchi o‘z tempida o‘rganish va qo‘shimcha mashqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ldi;
- texnik kasblar bo‘yicha kasbiy yo‘naltirish yaxshilandi, o‘quvchilar zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari bilan yaqindan tanishib, kelajakdagi kasblarini ongli ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari raqamli ta’lim resurslari texnologiya fanini o‘qitishda yuqori pedagogik samara berishini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan metodika o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarni samarali shakllantirish hamda texnik fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Raqamli ta’lim resurslari an’anaviy o‘qitish metodlarini to‘liq almashtirish vositasi sifatida emas, balki ularni boyitish va takomillashtirish omili sifatida qaralishi lozim. Eng samarali natijalarga raqamli va an’anaviy yondashuvlarning optimal integratsiyasi orqali erishiladi. Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar real amaliy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish uchun samarali vosita bo‘lsa-da, ular haqiqiy materiallar bilan ishlash tajribasini to‘liq almashtira olmaydi.

Metodikani keng miqyosda joriy etish uchun bir qator shart-sharoitlarning yaratilishi zarur. Jumladan, umumta’lim maktablarini zamonaviy texnik vositalar – kompyuterlar, planshetlar, proyektorlar hamda barqaror internet aloqasi bilan ta’minlash, o‘zbek tilidagi sifatli raqamli ta’lim resurslarini, ya’ni elektron o‘quv-uslubiy majmualar, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va video-darslarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish, raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish va joriy etish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy-uslubiy markazlarni tashkil etish hamda milliy ta’lim dasturlariga raqamli komponentni rasmiy kiritish va baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur.

Kelgusida tadqiqotni davom ettirib, boshqa fanlar uchun ham shunga o‘xshash metodikalarni ishlab chiqish, shuningdek, sun’iy intellekt va adaptiv o‘qitish tizimlarini texnologiya ta’limiga integratsiyalash masalalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, raqamli ta’lim resurslari asosida shakllantirilgan ko‘nikmalarning uzviyligini ta’minlash, ya’ni umumiy o‘rta ta’limdan o‘rta maxsus va oliy ta’limgacha uzluksiz rivojlanishini ta’minlash muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-60, 2020-yil 29-aprel.
2. Sharipov Sh.S., Vorobyov A.I., Muslimov N.A., Ismoilova M. Kasb ta’limi pedagogikasi. – Toshkent, 2005. – 58 b.
3. Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A., Abdullaeva Q. Texnologiya: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: Sharq, 2017. – 240 b.
4. Shog‘darov N.O. Maktab o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlarini takomillashtirish usullari. TerDPI ilmiy xabarnomasi, ilmiy-uslubiy jurnal. – Termiz, 2025.
5. Dusyorov X.Ch. Kasbga yo‘naltirish diagnostikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Lesson Press nashriyoti, 2023-yil.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB DIREKTORLARINING STRATEGIK BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
"Ta'lim menejmenti" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda umumta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar, maktab direktorining strategik boshqaruv jarayonida ega bo'lishi zarur bo'lgan kompetensiyalar, ularning turlari, rivojlantirish yo'llari hamda strategik boshqaruvda muhim ahamiyat kasb etuvchi bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan. Strategik boshqaruv ta'lim muassasasining uzoq muddatli strategik maqsadlarini muassasa imkoniyatlarini shaxs, jamiyat va davlatning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirgan holda dastur, reja va loyihalar asosida boshqarishni nazarda tutadi. Shuningdek, maqolada rahbarlik faoliyatida innovatsion yondashuvlar, boshqaruv samaradorligi va boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini ta'minlash masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: strategik reja, kompetensiya, kognitiv tendensiya, resurslar, innovatsion va refleksiv yondashuv, hamkorlik, samaradorlik, barqarorlik, innovatsion tendensiya, zamonaviy tendensiya, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: This article examines current reforms in the management activities of secondary educational institutions, the competencies required of school principals in strategic management, their types, development pathways, and key aspects to be considered in the practical application of knowledge and skills essential for strategic management. Strategic management involves governing an educational institution based on long-term programs, plans, and projects aimed at aligning institutional capacities with the common interests of the individual, society, and the state. The article also analyzes innovative management approaches, management effectiveness, and factors contributing to a high level of managerial culture.

Key words: strategic plan, competence, cognitive tendency, resources, innovative and reflective approach, collaboration, efficiency, sustainability, innovative tendency, modern tendency, communicative competence.

Аннотация: В статье рассматриваются современные реформы в управленческой деятельности общеобразовательных учреждений, компетенции, которыми должен обладать директор школы в процессе стратегического управления, их виды, пути развития, а также аспекты, требующие особого внимания при практическом применении знаний и навыков, значимых для стратегического управления. Стратегическое управление предполагает руководство образовательным учреждением на основе долгосрочных программ, планов и проектов, направленных на согласование возможностей учреждения с общими интересами личности, общества и государства. В работе также анализируются инновационные подходы к управлению, эффективность управленческой деятельности и условия формирования высокой управленческой культуры.

Ключевые слова: стратегический план, компетенция, познавательная тенденция, ресурсы, инновационный и рефлексивный подход, сотрудничество, эффективность, устойчивость, инновационная тенденция, современная тенденция, коммуникативная компетенция.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonlari, raqobatbardoshlikning keskinlashuvi hamda ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlaridan strategik fikrlash va samarali boshqaruv kompetensiyalariga ega bo'lishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktab direktorlarining strategik boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim tizimi sifatini boshqarishning zamonaviy tendensiyalarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy boshqaruv nazariyasida strategik kompetensiya rahbarning kelajakni oldindan ko‘ra bilish, muqobil yo‘nalishlarni tanlash, o‘zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashish hamda jamoa resurslarini optimal yo‘naltirish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi [1]. Ta’lim tizimi kontekstida esa ushbu kompetensiya maktab rahbarining strategik maqsadlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish mexanizmlarini loyihalash va monitoring qilish faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir [2].

O‘zbekiston ta’lim siyosatida ham rahbarlarning strategik boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son[1] Farmonda ta’lim muassasalari rahbarlarini zamonaviy menejment yondashuvlari asosida qayta tayyorlash vazifasi belgilangan [3]. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda (G. Abduqodirova [4] – 2022-yil; A. Mamarasulov [5] – 2023-yil) mazkur jarayonni tavsiflovchi asosiy to‘rtta strategik tendensiya – kognitiv, innovatsion, aksiologik va praksiologik yo‘nalishlarda namoyon bo‘layotgani ta’kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xalqaro tajribalar tahlili (OECD – 2021-yil; UNESCO – 2022-yil) ta’lim muassasalari rahbarlarining strategik boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishda mentorlik tizimi, refleksiv tahlil, professional hamjamiyatlar faoliyati hamda jamoaviy o‘rganish jarayonlarining samarali mexanizmlar sifatida qo‘llanilishini ko‘rsatmoqda. Tadqiqot jarayonida qiyosiy taqqoslash, tizimli tahlil hamda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu jarayon, avvalo, kognitiv tendensiya, ya’ni ta’lim muassasasi rahbarining strategik boshqaruv faoliyatida tizimli fikrlash, analitik tahlil va refleksiv yondashuvni ustuvor yo‘nalishga aylantirish bilan bog‘liqdir [6]. Kognitiv kompetensiyaning kuchayishi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ilmiy asoslanganlikni ta’minlash, ma’lumotlar tahliliga tayangan holda strategik yo‘nalishlarni aniqlash, muqobil variantlarni solishtirish hamda ehtimoliy natijalarni prognozlash imkonini beradi. Zamonaviy rahbarlik faoliyatida ushbu yo‘nalish “data-driven management” tamoyillarini joriy etishni talab etadi.

Ikkinchidan, innovatsion tendensiya strategik boshqaruv faoliyatida raqamli texnologiyalar, kreativ fikrlash va ilg‘or menejment modellari integratsiyasi orqali ta’lim jarayonini takomillashtirishni anglatadi [7]. Maktab rahbari nafaqat tashkiliy-boshqaruvchilik, balki innovatsion liderlik funksiyasini ham bajarishi lozim. Ushbu tendensiya O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan “Raqamli ta’lim” strategiyasi bilan hamohang bo‘lib, maktab rahbarlarining innovatsion salohiyatini oshirishni taqozo etadi.

Uchinchidan, aksiologik tendensiya rahbarlik faoliyatida qadriyatlarga yo‘naltirilgan yondashuvning ustuvorligini ifodalaydi [8]. Bunda rahbarning axloqiy qarashlari, ijtimoiy mas’uliyati, halollik va ishonchlilik tamoyillariga asoslangan boshqaruv madaniyati muhim o‘rin tutadi. Aksiologik kompetensiyaning rivojlanishi rahbar shaxsida “axloqiy liderlik” (ethical leadership) hamda “xizmatkor liderlik” (servant leadership) modellari shakllanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, aksiologik tendensiyaning maktab imijini mustahkamlovchi muhim ijtimoiy omil sifatida namoyon bo‘lishi tadqiqot natijalarida aniqlandi.

Xalqaro tajribalar tahlili (OECD – 2021-yil [9]; UNESCO – 2022-yil [10]) samarali rahbarlikni shakllantirishda o‘zaro o‘rganish, refleksiv fikrlash hamda professional hamjamiyatlar faoliyati strategik boshqaruv kompetensiyasining uzviy tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, OECD – 2020-yil [11] va UNESCO-IIEP – 2021-yil [12] tadqiqotlarida professional o‘rganish hamjamiyatlari (Professional Learning Communities) strategik qarorlar qabul qilish va innovatsion fikrlashni rivojlantirishning muhim ijtimoiy-madaniy mexanizmi sifatida talqin etiladi.

Qadriyatlarga asoslangan boshqaruv tamoyili rahbarning qaror qabul qilish jarayonida insonparvarlik, adolat, mas’uliyat va ishonch kabi axloqiy-me’yoriy qadriyatlarga tayanishini nazarda tutadi [13]. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur boshqaruv modelida rahbar normativ va etik qarorlar qabul qilish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish [14–16] hamda strategik qarorlar bilan qadriyatlarni uyg‘unlashtirish funksiyalarini amalga oshiradi [17].

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmon: https://lex.uz/docs/-3893445

1-jadval: **Raqamli menejment va innovatsion boshqaruvning integratsiyasi**

Komponent	Raqamli menejment madaniyati	Innovatsion boshqaruv tamoyillari	Uyg'unlashgan natija
Strategik rejalashtirish	Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar	Innovatsion maqsadlarni belgilash	Tezkor va sifatli qaror qabul qilish
Jamoaviy hamkorlik	Raqamli platformalarda fikr almashish	Tashabbuskorlik va kreativ muhit	Xodimlar motivatsiyasi va natijadorligi oshadi
Resurslarni boshqarish	Onlayn monitoring va hisobot	Innovatsion loyihalarni amalga oshirish	Resurslardan optimal foydalanish
Refleksiv tahlil	Raqamli tahlil vositalari	Amaliy natijalarni baholash	Doimiy rivojlanish va moslashuvchanlik

Demak, raqamli menejment madaniyati maktab direktorlarining strategik boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion va refleksiv salohiyatini oshirish hamda ta'lim tizimining samaradorligi, natijadorligi va barqarorligini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi [18].

Refleksiv o'rganish tamoyili rahbarni o'z boshqaruv va pedagogik faoliyatini tizimli ravishda qayta ko'rib chiqish, tajribadan xulosa chiqarish va kelgusidagi strategik qarorlarni takomillashtirishga yo'naltiradi. Ushbu jarayon rahbarning nafaqat shaxsiy o'sishiga, balki ta'lim muassasasidagi boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi:

- *birinchidan,* rahbar qarorlarni ma'lumotlar asosida optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- *ikkinchidan,* pedagogik jarayonlarni innovatsion va jamoaviy hamkorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtira oladi;
- *uchinchidan,* mazkur yondashuv maktabning uzluksiz rivojlanishi hamda ta'lim sifatining barqaror oshishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining strategik boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish;
- jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash va qaror qabul qilish jarayonlariga o'quvchilar hamda ota-onalarni faol jalb etish;
- refleksiv o'rganish tamoyilini tatbiq etish maqsadida boshqaruv faoliyatini baholash va o'z-o'zini tahlil qilish vositalaridan foydalanish;
- qadriyatlarga asoslangan boshqaruvni ta'minlash uchun rahbarlar uchun etika va liderlik tamoyillariga bag'ishlangan seminarlar tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, maktab direktorlarining strategik boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari innovatsion, refleksiv va qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarning uyg'unlashuviga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar direktorlarning analitik, liderlik va jamoaviy salohiyatini oshirish, ta'lim muassasalarining samaradorligi, natijadorligi va barqarorligini ta'minlash hamda ta'lim sifatini uzluksiz yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. B. Keith Simerson. Strategic Planning: A Practical Guide to Strategy Formulation and Execution. Greenwords Publishing Group, Jakarta, 2023.
4. Mintzberg H. Strategy Safari: A Guided Tour Through the Wilds of Strategic Management. New York: Free Press, 2019.
5. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. Routledge, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.

7. Abduqodirova G. Ta'lim tizimida menejment kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy asoslari. Toshkent, 2022.
8. Mamarasulov A. Umumta'lim muassasalari rahbarlarining strategik boshqaruv salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2023.
9. Bryson J. M. Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations. San Francisco: Jossey-Bass, 2018.
10. OECD. School Leadership for Learning: Insights from TALIS 2018. OECD Publishing, Paris, 2021. https://doi.org/10.1787/20d9f61b-en
11. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. 2022.
12. OECD. The Future of Education and Skills 2030: Leadership for Learning. 2020. https://www.oecd.org/education/2030-project/
13. UNESCO-IIEP. School Leadership and Management: Policy and Practice Review. 2021. https://www.iiep.unesco.org
14. Sergiovanni T. J. Moral Leadership: Getting to the Heart of School Improvement. Jossey-Bass Publishers, 2019.
15. Aliyev T. Ta'lim boshqaruvida qadriyatlar yondashuvi. Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2019.
16. Sultonov A. Ta'lim muassasalarida etik boshqaruv tamoyillari. Toshkent: Fan va ta'lim, 2021.
17. Rahmonov I. Jamoa samaradorligini oshirishda liderlik rolini tadqiq etish. Toshkent: Ilmiy nashrlar, 2018.
18. Abdullayev M. Strategik boshqaruv va milliy qadriyatlar uyg'unligi. Toshkent: Ta'lim va rivojlanish, 2022.
19. Karimov O. Pedagogik rahbarlik va ijtimoiy mas'uliyat. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.

SINFDAN TASHQARI ISHLAR ORQALI BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUV JARAYONIGA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH METODIKASI

Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi
Surxondaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish metodikasining ilmiy-nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda raqamli savodxonligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash usullari hamda axborot xavfsizligi va mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga integratsiyalashda interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, boshlang'ich ta'lim, sinfdan tashqari ishlar, pedagogik metodika, raqamli savodxonlik, ijodiy fikrlash, mustaqil ta'lim, interaktiv yondashuv, axborot xavfsizligi, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article analyzes the scientific-theoretical and methodological foundations of integrating artificial intelligence into the primary education learning process through extracurricular activities. The study highlights the potential of artificial intelligence technologies in developing primary school students' cognitive activity, independent thinking, creative abilities, and digital literacy. It also examines the pedagogical conditions for using artificial intelligence tools in extracurricular activities, methods of their application considering learners' age and individual characteristics, as well as ways to develop information safety awareness and responsible use skills. The effectiveness of interactive, learner-centered, and competency-based approaches in integrating artificial intelligence into the educational process is substantiated.

Key words: artificial intelligence, primary education, extracurricular activities, pedagogical methodology, digital literacy, creative thinking, independent learning, interactive approach, information safety, competency-based approach.

Аннотация: В статье анализируются научно-теоретические и методические основы внедрения искусственного интеллекта в учебный процесс начального образования через внеклассную работу. В исследовании раскрываются возможности технологий искусственного интеллекта в развитии познавательной активности, самостоятельного мышления, творческого подхода и цифровой грамотности учащихся начальных классов. Рассматриваются педагогические условия использования инструментов искусственного интеллекта во внеклассных занятиях, способы их применения с учетом возрастных и индивидуальных особенностей обучающихся, а также пути формирования навыков информационной безопасности и ответственного использования цифровых ресурсов. В статье обосновывается эффективность интерактивного, личностно-ориентированного и компетентностного подходов при интеграции искусственного интеллекта в образовательный процесс.

Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, внеклассная работа, педагогическая методика, цифровая грамотность, творческое мышление, самостоятельное обучение, интерактивный подход, информационная безопасность, компетентностный подход.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim mazmuni, metodlari va shakllarini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish imkonini bermoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt vositalari axborotni izlash, saralash va qayta ishlash, vizual hamda matnli kontent yaratish, individual topshiriqlar ishlab chiqish, shuningdek, o'quvchilar faolligini oshirishda muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichida sun'iy intellektdan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va uni bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda qo'llash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari uchun ta’lim jarayoni faqat dars mashg‘ulotlari bilan cheklanib qolmaydi. Ularning bilish faolligi, qiziqishi, muloqot ko‘nikmalari, ijodkorligi va mustaqil fikrlashi ko‘p jihatdan sinfdan tashqari ishlar orqali rivojlanadi. To‘garaklar, ijodiy mashg‘ulotlar, loyihaviy faoliyat, qiziqarli tanlovlar, o‘yin asosidagi topshiriqlar, kitobxonlik hamda media faoliyat kabi shakllar bolalarning tabiiy qiziqishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Aynan shu muhit sun’iy intellekt vositalarini pedagogik maqsadga muvofiq, bosqichma-bosqich va xavfsiz tatbiq etish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Chunki sinfdan tashqari ishlar dars mashg‘ulotlaridagi qat’iy vaqt va mazmuniy cheklovlarga nisbatan erkinroq bo‘lib, innovatsion metodlarni sinovdan o‘tkazish va moslashtirish uchun samarali maydon hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi bolalar erta yoshdan raqamli axborot muhitiga kirib kelmoqda, biroq ular bu muhitda ongli, tanqidiy va xavfsiz harakat qilish ko‘nikmalariga doimo yetarlicha ega bo‘lavermaydi. Sun’iy intellekt vositalari o‘quvchi uchun samarali yordamchi bo‘lishi mumkin, ammo noto‘g‘ri yo‘naltirilgan taqdirda tayyor javobga o‘rganish, mustaqil fikrlashning susayishi, axborot xavfsizligiga e’tiborsizlik hamda nomaqbul kontentni qabul qilish kabi xavflarni yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda SI ni qo‘llash masalasi faqat texnik vosita tanlash bilan cheklanmaydi, balki pedagogik maqsad, metodik boshqaruv, yoshga moslik, axloqiy me’yorlar va raqamli madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari ham mazkur mavzuni alohida yondashuv asosida o‘rganishni talab etadi. Ushbu yosh davrida o‘quvchilar obrazli tafakkurga moyil, qiziqishlari tez o‘zgaruvchan, emotsional ta’sirga sezgir bo‘lib, o‘yin va faol muloqot orqali samaraliroq o‘rganadilar. Shu bois, ular uchun sun’iy intellekt vositalarini qo‘llashda murakkab texnologik tushuntirishlardan ko‘ra sodda, qiziqarli, vizual va interaktiv topshiriqlar samaraliroq hisoblanadi. Demak, SI ni boshlang‘ich ta’limga tatbiq etish metodikasi o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, nutqiy rivojlanish darajasi, bilish uslubi hamda qiziqish yo‘nalishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur.

Sinfdan tashqari ishlar orqali sun’iy intellektni tatbiq etishning yana bir muhim jihati o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati bilan bog‘liqdir. Jumladan, mazkur jarayon orqali axborotni izlash va tanlash, savollarni to‘g‘ri qo‘yish, olingan javoblarni tahlil qilish, tekshirish va taqqoslash, ijodiy mahsulot yaratish, jamoada ishlash hamda o‘z fikrini asoslash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin. Shu ma’noda SI vositalari maqsad emas, balki ta’limiy natijaga erishishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatida talqin etilishi lozim. Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarda “tayyor javobni olish” emas, balki “to‘g‘ri savol berish va olingan axborotni baholash” madaniyatini shakllantiradi.

Mavzuga oid amaliyotda ayrim muammolar ham kuzatiladi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida SI dan foydalanish bo‘yicha yagona metodik tavsiyalarning yetarli emasligi, tarbiyaviy va o‘quviy maqsadlarning aniq belgilab olinmasligi, pedagoglarning SI vositalari bilan ishlashga tayyorgarlik darajasidagi farqlar, shuningdek, axborot xavfsizligi va etik me’yorlarga oid tushunchalarning yetarlicha shakllanmaganligi metodik bo‘shliqni yuzaga keltirmoqda. Bu holat mazkur mavzuni ilmiy-nazariy asosda yoritish va amaliyotga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Ushbu maqolada sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayoniga sun’iy intellektni tatbiq etish metodikasining ilmiy-nazariy tavsifi beriladi. Xususan, sun’iy intellektning pedagogik imkoniyatlari, boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq metodik talablar, sinfdan tashqari ishlarning didaktik salohiyati, shaxsga yo‘naltirilgan va interaktiv yondashuvlarning o‘rni, shuningdek, axborot xavfsizligi va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish shartlari tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi sinfdan tashqari ishlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sun’iy intellekt bilan tanishtirish hamda undan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning metodik asoslarini aniqlash va samarali pedagogik yondashuvlarni umumlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun sun’iy intellektni ta’limga tatbiq etishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini aniqlash, sinfdan tashqari ishlar shakllarining SI bilan integratsiyalash imkoniyatlarini ko‘rsatish, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llarini yoritish hamda amaliyot uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayoniga sun’iy intellektni (SI) tatbiq etish samaradorligini o‘rganishga oid adabiyotlar, odatda, ikki asosiy yo‘nalishda tahlil qilinadi: birinchisi, ta’limda SIning umumiy pedagogik imkoniyatlarini yorituvchi nazariy tadqiqotlar; ikkinchisi esa maktab yoshidagi o‘quvchilarda AI literacy (SI savodxonligi), raqamli savodxonlik va kognitiv faollikni rivojlantirishga qaratilgan empirik tadqiqotlardir. Biroq mavzuning aynan boshlang‘ich ta’lim bosqichi va “samaradorlik” mezonlari nuqtayi nazaridan tahlili hanuz shakllanish bosqichida bo‘lib, ayniqsa mahalliy tadqiqotlarda metodik-eksperimental dalillarning yetarli emasligi seziladi.

Mahalliy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda so‘nggi yillarda sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga joriy etish masalasiga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshgan. O‘zbek ilmiy-uslubiy nashrlari va sohaviy maqolalarda SIning ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, axborotga tezkor ishlov berish hamda o‘quvchilarning qiziqishi va faolligini kuchaytirish imkoniyatlari keng yoritilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga SIni qo‘llashga bag‘ishlangan ishlarda mazkur masalaning dolzarbligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ayrim mahalliy mualliflar SIni asosan innovatsion vosita sifatida baholab, uning tezkorlik, kontent yaratish, tahlil va individuallashtirish kabi afzalliklarini keng ochib beradilar. Bunday yondashuv muammoning dolzarbligini asoslashda muhim bo‘lsa-da, ko‘p hollarda yosh xususiyatlari, pedagogik nazorat, natijani o‘lchash mezonlari hamda etik xavflar yetarli darajada chuqur eksperimental tahlil qilinmaydi. Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda SIni dars va sinfdan tashqari faoliyatga integratsiya qilish, o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar uchrasa-da, ularning aksariyati ta’rifiy-nazariy xarakterga ega bo‘lib, samaradorlikni aniqlovchi uzoq muddatli qiyosiy tajribalar yetarli emas.

Shu nuqtayi nazardan, muallif fikricha, mahalliy olimlarning ishlari mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy-metodik asosni shakllantirishda muhim boshlang‘ich bosqich hisoblanadi. Biroq “samaradorlik”ni ilmiy jihatdan isbotlash uchun eksperimental va nazorat guruhlari asosida tadqiqotlar olib borish, o‘quv natijalarini aniq mezonlar asosida baholash (bilish faolligi, mustaqil fikrlash, ijodiy mahsulot sifati, raqamli savodxonlik), boshlang‘ich sinf yoshiga mos metodik dizayn yaratish hamda axborot xavfsizligi va etik foydalanish komponentlarini alohida o‘lchash zarur. Demak, mahalliy adabiyotlarda kuzatilayotgan texnologik optimizmni pedagogik dalillar bilan mustahkamlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy adabiyotlarda esa SIni ta’limga joriy etish masalasi nisbatan tizimli o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa so‘nggi yillarda AI literacy, K–12 konteksti, intellektual o‘qitish tizimlari (ITS) va etik xavflarga oid tadqiqotlar sezilarli darajada faollashgan. D.T.K. Ng va hammualliflar tomonidan AI literacy tushunchasini konseptuallashtirishga bag‘ishlangan sharh tadqiqotida mazkur yo‘nalishdagi ishlar ta’lim jurnallarida hali yetarlicha keng yoritilmaganligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, mualliflar AI literacy’ni shakllantirish uchun tushunish, qo‘llash, baholash/yaratish hamda etik masalalar kabi to‘rtta asosiy komponentni ajratib ko‘rsatadilar. Ushbu yondashuv boshlang‘ich ta’lim uchun metodik mezonlar ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Muallif nuqtayi nazaridan, mazkur yondashuvning ahamiyati shundaki, u SI samaradorligini faqat texnologiyadan foydalanish darajasi bilan emas, balki tushunish, qo‘llash, tanqidiy baholash va etik pozitsiya orqali kompleks baholash imkonini beradi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO pozitsiyasi ham mazkur mavzu uchun muhim metodologik yo‘nalishlarni belgilaydi. UNESCO materiallarida SI ta’lim jarayonida katta imkoniyatlarga ega ekani e’tirof etilar ekan, ushbu jarayon inklyuzivlik, tenglik, inson markazli yondashuv hamda xavflarni boshqarish tamoyillari asosida tashkil etilishi zarurligi ta’kidlanadi. UNESCOning GenAI bo‘yicha qo‘llanmalari hamda AI in Education resurslari mamlakatlarga qisqa va uzoq muddatli siyosatlarni ishlab chiqish, inson salohiyatini rivojlantirish va texnologiyalarni mas’uliyatli joriy etish bo‘yicha yo‘nalish beradi. Muallif fikricha, xalqaro tashkilotlar pozitsiyasining eng muhim jihati shundaki, unda texnologiya maqsad sifatida emas, balki ta’lim sifati va inson rivojiga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv boshlang‘ich ta’lim bosqichi uchun ayniqsa dolzarb bo‘lib, mazkur bosqichda tarbiyaviy komponent va psixologik xavfsizlik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayoniga sun’iy intellektni tatbiq etish samaradorligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki uni qanday pedagogik maqsadda, qaysi metodika asosida, qaysi yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda va qanday baholash mezonlari orqali qo‘llashga bog‘liq. Shu sababli mazkur tadqiqotda samaradorlikni baholash uchun bilish faolligi, mustaqil fikrlash, ijodiy yechim yaratish, raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalari, o‘quv motivatsiyasi hamda o‘qituvchi rahbarligi ostida refleksiv foydalanish darajasi kabi integral ko‘rsatkichlarni tanlash ilmiy jihatdan asosli deb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma’lumotlar sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unligida olindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish hamda kuzatish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga oid pedagogik holatlar tizimli kuzatilib, o‘quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatidagi o‘zgarishlar qayd etildi. Olingan ma’lumotlar tavsifiy va qiyosiy tahlil asosida qayta ishlanib, turli pedagogik sharoitlarda sun’iy intellekt vositalarining ta’limiy samaradorligi solishtirildi. Tahlil jarayonida umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari qo‘llanilib, sinfdan tashqari ishlar orqali sun’iy intellektni tatbiq etishning metodik jihatdan asoslangan xulosalari shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayoniga sun’iy intellektni tatbiq etish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilindi hamda uning pedagogik samaradorligini belgilovchi omillar umumlashtirildi. Tahlil jarayonida mavzuga oid ilmiy manbalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va sinfdan tashqari faoliyat shakllarining didaktik imkoniyatlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Natijada sun’iy intellekt vositalarini boshlang‘ich ta’limga tatbiq etishda texnologiyaning o‘zi emas, balki uni qanday metodik model asosida qo‘llash masalasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanishning eng maqbul shakllaridan biri aynan sinfdan tashqari ishlar hisoblanadi. Buning asosiy sababi – sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning darsga nisbatan moslashuvchanligi, interaktivligi va ijodiyligi yuqori bo‘lishidir. Dars jarayonida davlat ta’lim standartlari, vaqt cheklovi va mavzu rejasiga qat’iy rioya qilinishi talab etilsa, sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlariga qarab topshiriqlarni moslashtirish imkonini beradi. Shu jihat SI vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish, ularni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirish va xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt vositalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bir qator muhim ta’limiy ko‘rsatkichlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Jumladan, SI yordamida tashkil etilgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, savol berish madaniyatini rivojlantirish, axborotni izlash va saralash ko‘nikmalarini shakllantirish, tasavvur va ijodkorlikni kuchaytirish hamda oddiy darajadagi tanqidiy tahlilga o‘rgatishda samarali vosita bo‘la oladi. Biroq bu natijalarga texnologiyaning mavjudligi avtomatik tarzda olib kelmaydi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ijobiy pedagogik natija quyidagi shartlar ta’minlangandagina yuzaga keladi: aniq maqsad qo‘yilishi, yoshga mos topshiriqlar ishlab chiqilishi, pedagogik nazoratning yo‘lga qo‘yilishi, xavfsizlik qoidalarining tushuntirilishi va faoliyat yakunida refleksiya tashkil etilishi.

Boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil natijasida sun’iy intellektni tatbiq etish metodikasida bir nechta muhim tamoyillarga amal qilish zarurligi aniqlandi. Birinchidan, bu yoshdagi bolalar obrazli va ko‘rgazmali o‘rganishga moyil bo‘lganligi sababli, SI bilan bog‘liq topshiriqlar vizual, qiziqarli va amaliy xarakterga ega bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, o‘quvchilarning diqqat barqarorligi nisbatan qisqa bo‘lgani uchun mashg‘ulotlar kichik bloklarda, o‘yin elementlari asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, o‘quvchilar tayyor javobni tez qabul qilishga moyil bo‘lishi mumkinligi sababli, SI vositalari bilan ishlashda “javob olish”dan ko‘ra “savol tuzish”, “tekshirish”, “taqqoslash” va “izohlash” faoliyatlariga ko‘proq urg‘u berish metodik jihatdan to‘g‘ri ekani aniqlandi. Mazkur natijalar SI ni boshlang‘ich ta’limga tatbiq etishda konstruktivistik va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning ustunligini tasdiqlaydi.

Natijalarda aniqlangan muhim jihatlardan yana biri – pedagogning metodik tayyorgarligining hal qiluvchi roli. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan SI vositalaridan foydalanishda pedagog quyidagi funksiyalarni bajarishi zarur: faoliyatni rejalashtirish, topshiriqni soddalashtirish yoki murakkablashtirish, o‘quvchi savolini to‘g‘ri shakllantirishga yo‘naltirish, olingan javobni birgalikda tahlil qilish, noto‘g‘ri yoki noaniq ma’lumotlarni aniqlash, axborot xavfsizligini nazorat qilish va yakunda xulosa chiqarishni tashkil etish. Demak, SI ni sinfdan tashqari ishlar orqali ta’limga tatbiq etishda “texnologiya markaziy” emas, balki “pedagogik boshqaruv markaziy” model samaraliroq ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Tahlil jarayonida ayrim metodik xavf va cheklovlar ham aniqlandi. Jumladan, tayyor javobga ortiqcha tayanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini pasaytirishi, noto‘g‘ri prompt (savol–topshiriq) tuzish noaniq natijalar keltirib chiqarishi, pedagogik nazoratsiz foydalanish esa yoshga nomos kontent yoki noto‘g‘ri axborot bilan to‘qnashuv ehtimolini oshirishi mumkin. Shu sababli SI bilan ishlash metodikasi “foydalanish”ni emas, balki “boshqariladigan, maqsadli va refleksiv foydalanish”ni nazarda tutishi lozim. Bu xulosa mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayoniga sun’iy intellektni tatbiq etish metodikasi zamonaviy ta’limni innovatsion asosda rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqotning ilmiy-nazariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt vositalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faolligi, ijodiy fikrlashi, mustaqil izlanishi, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari hamda raqamli madaniyatini rivojlantirishda samarali pedagogik resurs bo‘la oladi. Biroq bu samaradorlik texnologiyaning o‘zi bilan emas, balki uni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq, yoshga mos va nazoratli qo‘llash bilan ta’minlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida sinfdan tashqari ishlar SI ni tatbiq etish uchun eng qulay pedagogik maydonlardan biri ekani asoslandi. Chunki bunday mashg'ulotlar moslashuvchanligi, interaktivligi va ijodiy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi hamda o'quvchilarning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Aynan shu muhitda o'quvchilarda savol tuzish, javobni tahlil qilish, axborotni tekshirish va taqqoslash, jamoada ishlash, o'z fikrini asoslash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish mumkin.

Kelgusida ushbu yo'nalishda amaliy tajribalar asosida sinfdan tashqari mashg'ulotlar uchun aniq metodik modellar, topshiriqlar banki, baholash mezonlari hamda pedagoglar uchun tavsiyalar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shunda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limda mazmunli, xavfsiz va barqaror pedagogik natijalarni ta'minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ–637-sonli Qonun: https://lex.uz/docs/-5013007
2. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ–139-sonli Qonun: https://lex.uz/docs/-1297315
3. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
4. OECD. OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing, 2021.
5. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
6. Piaget, J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1969–1972.
7. Bruner, J. The Culture of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1996.
8. Bandura, A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
9. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum and Related Teacher Resources (yangilangan nashrlar).
10. OECD. Future of Education and Skills 2030 / Learning Compass materiallari (XXI asr kompetensiyalari uchun).

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AXBOROTGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING ROLI

Shononova Gulsanam Shavkat qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3–23-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Hayitova Feruza Abdulayevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni, jumladan, axborotni izlash, tanlash, tushunish, saralash, qayta ishlash va sodda shaklda taqdim etish kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishi, diqqat va xotirani faollashtirishi, muloqot madaniyati hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, o'yinli topshiriqlar orqali axborot savodxonligini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyatlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, axborot ko'nikmalari, axborot savodxonligi, didaktik o'yin, o'yinli ta'lim, interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, axborotni taqdim etish, baholash mezonlari.

Abstract: This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the use of didactic games in developing information-related skills among primary school pupils. The study focuses on key competencies such as searching for, selecting, understanding, sorting, processing, and presenting information in a simple form. It is substantiated that didactic games enhance learning motivation, activate attention and memory, and foster communication culture as well as collaborative learning skills. The paper also describes step-by-step mechanisms for developing information literacy through game-based tasks, including "classification," "matching," "information chain," "find and explain," and "coding."

Key words: primary education, information skills, information literacy, didactic games, game-based learning, interactive methods, critical thinking, collaboration, information presentation, assessment criteria.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический и практический анализ использования дидактических игр в формировании информационных навыков у учащихся начальной школы. Рассматриваются умения поиска, отбора, понимания, сортировки, обработки и простого представления информации. Обосновывается, что дидактические игры способствуют повышению учебной мотивации, активизации внимания и памяти, а также развитию культуры общения и навыков сотрудничества. Показаны возможности поэтапного формирования информационной грамотности на основе игровых заданий, таких как "классификация", "соотнесение", "информационная цепочка", "найди и объясни", "кодирование".

Ключевые слова: начальное образование, информационные навыки, информационная грамотность, дидактическая игра, игровое обучение, интерактивные методы, критическое мышление, сотрудничество, представление информации, критерии оценивания.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimi keskin ortib borayotgani ta'lim tizimidan o'quvchilarda erta yoshdan boshlab axborot bilan ishlash madaniyati va axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolada o'qish, yozish va hisoblash bilan bir qatorda axborotni qabul qilish, anglash, saralash, tartiblash, qayta ishlash hamda sodda shaklda ifodalash kabi universal kompetensiyalarni rivojlantirish uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot savodxonligini shakllantirish masalasi bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyotning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari (odatda 7–10 yosh) psixologik jihatdan qiziquvchan, taqlidga moyil, obrazli tafakkuri ustun bo'lgan hamda o'yin faoliyati orqali tezroq o'zlashtiradigan yosh davrini boshdan kechiradi. Bu davrda bolalar axborotni asosan ko'rgazmali vositalar, qisqa matnlar, rasm, jadval, belgi va ramzlar orqali qabul qiladi, o'z fikrini esa sodda, ammo aniq ifodalashga intiladi. Demak, aynan shu bosqichda axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini o'yin, qiziqarli vaziyat, musobaqa va interfaol muloqot bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, didaktik o'yinlarni maqsadli qo'llash o'qituvchidan o'yin mazmunini dars mavzusiga moslashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, guruhlar bilan ishlashni tashkil etish, rag'batlantirish hamda adolatli baholash mezonlarini belgilashni talab etadi. O'yinning ta'limiy qiymati shundaki, u o'quvchida "men uddalay olaman" degan ishonchni mustahkamlaydi, dars jarayonidagi psixologik to'siqlarni kamaytiradi hamda o'quv vazifalarini bajarishga nisbatan ijobiy munosabatni kuchaytiradi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish masalasi nafaqat metodik jihatdan, balki ijtimoiy ehtiyoj nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Chunki axborot savodxonligi shakllangan o'quvchi keyingi bosqichlarda murakkab fanlarni o'zlashtirishga, mustaqil ta'lim olishga, raqamli resurslardan ongli foydalanishga hamda turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga tayyor bo'ladi. Shu sababli maqolada didaktik o'yinlarning boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'rni va ularning axborot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ilmiy-amaliy asosda yoritish maqsad qilib olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot bilan ishlash ko'nikmalari faqat texnik vositalardan foydalanish malakasi bilan cheklanmaydi, balki axborotni qabul qilish, izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash, baholash va uni turli shakllarda ifodalash kabi murakkab kognitiv-amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim bosqichida mazkur ko'nikmalarni shakllantirish pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan alohida metodik yondashuvni talab etadi.

Pedagogik adabiyotlarda boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarning bilish faoliyati ko'rgazmalilik, hissiy qabul, amaliy harakat va o'yin faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda abstrakt tushunchalarga nisbatan konkret-obrazli tafakkur ustun bo'lgani sababli axborotni o'zlashtirish jarayoni ko'proq o'yin, taqqoslash, tasniflash, guruhlash va modellashtirish orqali samarali kechadi. Shu bois didaktik o'yinlar boshlang'ich ta'limda nafaqat motivatsion vosita, balki o'quvchilarning axborotga oid ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi muhim didaktik mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham didaktik o'yinlar va game-based learning yondashuvi bolalarning kognitiv rivojlanishi, axborot savodxonligi, mantiqiy fikrlashi hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator edagog va nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni olish jarayonida edagogic kuzatuv, suhbat, anketa so'rovlari hamda dars jarayonida tashkil etilgan o'yinli topshiriqlar natijalarini tahlil qilish usullari qo'llanildi. Shuningdek, tajriba-sinov mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning axborotni qabul qilish, saralash, tahlil qilish va ifodalashga doir faoliyati monitoring qilindi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari asosida tahlil qilindi. Natijalarni aniqlashda sifat tahlili ustuvor bo'lib, o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va axborot bilan ishlashdagi o'zgarishlari asosiy mezon sifatida baholandi. Shu asosda didaktik o'yinlarning axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishdagi edagogic samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tahlil davomida didaktik o'yinlarning o'quvchilarning axborotni qabul qilish, saralash, tushunish, qayta ishlash, ifodalash va amaliy vaziyatlarda qo'llash faoliyatiga ta'siri kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'yin asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, axborot bilan ishlashga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, bilimlarni amaliy vaziyatlarga ko'chirish ko'nikmasini rivojlantiradi hamda mustaqil fikrlashga undaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, didaktik o'yinlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilar axborotni faqat tayyor ko'rinishda qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki uni izlovchi, solishtiruvchi, tanlov qiluvchi, qayta tuzuvchi va xulosa

chiqaruvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ldi. Bu holat boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchining passiv ijrochidan faol bilish subyektiga aylanishida didaktik o‘yinlarning muhim vosita ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o‘yinli topshiriqlarda o‘quvchilarning javobni topishdan ko‘ra, javobga olib boruvchi fikrlash jarayonida faol qatnashgani kuzatildi. Mazkur holat axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda jarayonli yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi, chunki bunda o‘quvchi tayyor natijani qabul qilmaydi, balki unga olib boruvchi mantiqiy amallarni bajaradi.

Xususan, “Mosini top”, “Guruhla”, “Ketma-ketlikni tikla”, “Savol-javob zanjiri”, “Axborotni jadvalga joylashtir”, “Ortiqcha elementni aniqlang”, “Belgilarni izohla”, “Rasmga qarab ma’lumot tuz”, “Kodlangan axborotni och” kabi o‘yinli topshiriqlar o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish va tizimlashtirish jarayonlarini sezilarli darajada faollashtirdi. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar berilgan ma’lumotlar ichidan muhim va ikkilamchi elementlarni ajratish, o‘xshash hamda farqli belgilarni aniqlash, ma’lumotlarni mantiqiy tartibga solish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini ko‘rish va qisqa xulosa chiqarish kabi amaliy harakatlarni bajarishga odatlandi. Natijada axborot bilan ishlash jarayoni faqat eslab qolish bilan cheklanmay, tahlil qilish, qayta qurish va mazmunli ifodalash bosqichlarini ham qamrab oldi.

Tahlil natijalari didaktik o‘yinlar vositasida shakllanadigan axborotga oid ko‘nikmalarni bir-biri bilan uzviy bog‘liq bir necha funksional yo‘nalishlarda ko‘rish mumkinligini ko‘rsatdi. Avvalo, axborotni qabul qilish ko‘nikmasi rivojlandi, ya’ni o‘quvchilar topshiriq shartini diqqat bilan tinglash, og‘zaki ko‘rsatmani tushunish, matn, rasm, jadval, sxema yoki belgilar ko‘rinishidagi ma’lumotni anglashga o‘rgandi. Bu bosqichda didaktik o‘yinlar diqqatni jamlash, kuzatuvchanlik va tez anglashni faollashtirishga xizmat qildi. Shu asosda keyingi bosqich – axborotni saralash ko‘nikmasi shakllandi: o‘quvchilar berilgan ma’lumotlar orasidan kerakli va keraksiz elementlarni ajratish, ortiqcha ma’lumotni chiqarib tashlash, mavzuga mos belgilarni tanlash va topshiriq maqsadiga xizmat qiladigan axborotni ajratib olishni o‘rgandi. Bu jarayon ularning har qanday ma’lumotni avtomatik qabul qilmasdan, tanlab ishlash zarurligini anglashiga yordam berdi.

Tahlil natijalarida muhim jihatlardan biri shuki, o‘quvchilar o‘yinli topshiriqlarda o‘zlashtirilgan axborot bilan ishlash usullarini yangi vaziyatlarga ko‘chira boshladi. Masalan, bir darsda o‘rganilgan tasniflash yoki taqqoslash usuli boshqa darsdagi matn, rasm yoki predmetlar bilan ishlashda ham qo‘llanildi. Bu holat didaktik o‘yinlar orqali shakllangan ko‘nikmalarning barqarorligi va transferga moyilligini ko‘rsatadi. Demak, didaktik o‘yinlar nafaqat bir martalik dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchida keyingi o‘quv vaziyatlariga tatbiq etiladigan universal o‘quv amallarini ham shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari didaktik o‘yinlarni darsning turli bosqichlarida, ya’ni motivatsiya, yangi mavzuni o‘zlashtirish, mustahkamlash, takrorlash, nazorat va refleksiya jarayonlarida maqsadga muvofiq qo‘llash axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligini oshirishini tasdiqladi. Jumladan, dars boshida qo‘llanilgan qisqa qiziqtiruvchi o‘yinlar o‘quvchilarni axborotni qabul qilishga tayyorladi, diqqatini jamladi va darsga psixologik moslashuvini ta’minladi. Asosiy qismdagi muammoli-o‘yinli topshiriqlar axborotni tahlil qilish, saralash va qayta ishlashga xizmat qildi, yakuniy bosqichdagi refleksiv o‘yinlar esa o‘quvchilarning “nima bildim?”, “qanday bajardim?”, “qayerda xato qildim?” kabi savollar asosida o‘z faoliyatini baholashi va natijani anglashiga yordam berdi. Shu tariqa didaktik o‘yinlar darsning barcha bosqichlarini yagona pedagogik maqsadga – axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan tizimli vositaga aylantirdi.

Demak, tadqiqot natijalari didaktik o‘yinlardan tizimli, maqsadli va metodik asoslangan holda foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali vositasi ekanini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar kelgusida didaktik o‘yinlar asosida sinflar kesimida differensial mashqlar tizimini ishlab chiqish, diagnostika va baholash mezonlarini aniqlashtirish, an’anaviy hamda raqamli o‘yin vositalarini integratsiyalash, shuningdek, tajriba-sinov ishlarini kengaytirish uchun muhim amaliy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish pedagogik jihatdan samarali ekanini ko‘rsatdi. Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, didaktik o‘yinlar axborot bilan ishlashga doir ko‘nikmalarni shakllantirishda faqat yordamchi vosita emas, balki o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtiruvchi, o‘quv jarayonini mazmunan boyituvchi va natijadorlikni oshiruvchi metodik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinganda, o‘yin orqali ta’limni tashkil etish axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonini tabiiy hamda qiziqarli shaklga keltiradi.

Tadqiqot natijalarida didaktik o‘yinlar qo‘llanilganda o‘quvchilarning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash va ifodalashdagi faolligi oshgani kuzatildi. Bu holat psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan shuni anglatadiki, o‘yinli vaziyat o‘quvchilarni tayyor bilimni qabul qilishdan ko‘ra, faol bilish harakatlariga jalb etadi. Ya’ni o‘quvchi topshiriqni bajarish davomida taqqoslaydi, tanlaydi, xulosa chiqaradi va o‘z fikrini ifodalaydi. Bunday faoliyat esa axborotga oid ko‘nikmalarning shakllanishida muhim hisoblangan kognitiv va operatsion komponentlarning birgalikda rivojlanishini ta’minlaydi. Shu jihatdan, tadqiqot natijalari didaktik o‘yinlarning jarayonli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvga mos kelishini tasdiqlaydi.

Natijalarda aniqlangan motivatsion o‘sish ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. O‘yinli topshiriqlar o‘quvchilarda emotsional ko‘tarinkilik, qiziqish va darsga faol jalb etilish holatini kuchaytirgani kuzatildi. Bu esa boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilar uchun motivatsiya axborot bilan ishlash samaradorligining muhim omili ekanini ko‘rsatadi. Chunki o‘quvchi topshiriqqa qiziqish bilan yondashganda uning diqqatni jamlash darajasi, topshiriqni oxirigacha bajarish intilishi va natijani anglashga bo‘lgan ehtiyoji ortadi. Demak, didaktik o‘yinlarning samarasi faqat mazmuniy topshiriqlarda emas, balki o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda ham namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida boshlang‘ich sinf amaliyoti uchun bir qator pedagogik tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, didaktik o‘yinlar darsning barcha bosqichlarida tizimli ravishda qo‘llanishi lozim, biroq har bir bosqichda ularning funksiyasi aniq belgilanishi kerak (motivatsion, tahliliy, mustahkamlovchi, refleksiv). Ikkinchidan, o‘yinli topshiriqlar o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda soddadan murakkabga tamoyili asosida tuzilishi zarur. Uchinchidan, o‘yin jarayonida axborotni qabul qilish, saralash, tahlil qilish va ifodalashga doir topshiriqlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda berilishi, ya’ni fragmentar emas, tizimli xarakterga ega bo‘lishi kerak. To‘rtinchidan, o‘qituvchi tomonidan o‘yin natijalarini baholash mezonlari (aniqlik, mantiqiylik, tezkorlik, ishtirok faolligi, izohlash sifati) oldindan ishlab chiqilishi va dars jarayonida shaffof qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda ko‘p qirrali pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular bilish faolligi, motivatsiya, mantiqiy fikrlash, kommunikativ hamkorlik va refleksiv yondashuvni bir butun tizimda rivojlantiradi. Shu jihatdan, didaktik o‘yinlar boshlang‘ich ta’limda axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali va istiqbolli metodik vositalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda didaktik o‘yinlarning roli nazariy va amaliy jihatdan yoritildi. Tadqiqot natijalari didaktik o‘yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning axborotni qabul qilish, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash, ifodalash hamda yangi vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishini ko‘rsatdi. Shu asosda quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lgan ta’limiy vosita sifatida axborot bilan ishlash jarayonini tabiiy, qiziqarli va faol shaklga keltiradi. O‘yinli topshiriqlar o‘quvchilarda darsga qiziqish uyg‘otadi, bilish faolligini oshiradi va ularni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Ikkinchidan, didaktik o‘yinlar vositasida axborotga oid ko‘nikmalar bosqichma-bosqich shakllanadi. Ya’ni o‘quvchilar avvalo axborotni qabul qilish va anglashga, keyinchalik uni saralash va tahlil qilishga, undan so‘ng qayta ishlash hamda ifodalashga, nihoyat esa yangi vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadi. Bu ketma-ketlik o‘quvchilarda universal o‘quv amallari va mustaqil fikrlash elementlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari didaktik o‘yinlarning motivatsion va kommunikativ ta’siri yuqori ekanini tasdiqladi. Ayniqsa, kichik guruhlarda tashkil etilgan o‘yinlar o‘quvchilarda axborot almashish, fikrni asoslash, muloqot qilish, jamoada ishlash va umumiy xulosaga kelish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Shu jihatdan didaktik o‘yinlar axborotga oid ko‘nikmalar bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiyani ham shakllantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, didaktik o‘yinlarni darsning turli bosqichlarida (motivatsiya, yangi mavzuni o‘zlashtirish, mustahkamlash, nazorat, refleksiya) maqsadga muvofiq qo‘llash o‘quv natijalarining sifatini oshiradi. O‘yinli topshiriqlarning dars mazmuni va maqsadi bilan uzviy bog‘lanishi ularning pedagogik samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Beshinchidan, tadqiqot davomida didaktik o‘yinlardan foydalanishda ayrim metodik muammolar (o‘yin tanlashdagi nomuvofiqlik, vaqtni noto‘g‘ri taqsimlash, barcha o‘quvchilarni teng jalb etmaslik, baholash mezonlarining noaniqligi) aniqlangan bo‘lib, bu holatlar o‘qituvchining metodik tayyorgarligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, didaktik o‘yinlarning yuqori samaradorligi ularni pedagogik jihatdan to‘g‘ri loyihalash va boshqarishga bevosita bog‘liqdir.

Oltinchidan, tadqiqot natijalari asosida boshlang‘ich ta’lim amaliyotida axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirish uchun didaktik o‘yinlardan foydalanishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish, sinflar kesimida differensial o‘yinli mashqlar tizimini yaratish, diagnostika va baholash mezonlarini takomillashtirish, shuningdek, an’anaviy va raqamli didaktik o‘yin vositalarini integratsiyalash istiqbolli yo‘nalishlar ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborotga oid ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali, pedagogik jihatdan asoslangan va amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan vositasi ekanini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuvni ta’lim jarayoniga keng joriy etish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha amaldagi o'quv dasturlari va metodik tavsiyalar. Toshkent.
3. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 272-275.
4. Turapova, R. . (2025). The Importance Of Multimedia Tools In Developing Dialogic Speech Based On A Variative Approach.// Solution of Social Problems in Management and Economy, 4(14), 10–15. извлечено от https://econferences.ru/index.php/sspme/article/view/35258
5. Turapova R. Mechanisms for Improving Children's Dialogical Speech //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 49-53.
6. Турапова Р. Developing dialogic speech of pre-school children on the basis of a variative approach //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 4.
7. Turapova R. B. Variativ yondashuv asosida o 'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish dolzarb masalalari //Inter education & global study. – 2025. – №. 3. – C. 279-288.\
8. Ra'no T., Maftuna Q. A Methodological System For Developing Dialogic Speech In Primary School Students Based On A Variative Approach Through The Use Of "Spectrum-Dialogue","Pictogram-Dialogue","Debate", And "Smart Thinker" Strategies In Mother Tongue Lessons //Shokh Articles Library. – 2026. – T. 1. – №. 1. – C. 11111-1115.

MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH TAJRIBASI

Shukurov Mirshod Karim o'g'li
Buxoro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Sharipov Bahrom Bo'riyevich
Buxoro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish tajribasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda COVID-19 pandemiyasi hamda undan keyingi davrda masofaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish yo'llari o'rganilgan. Eksperimental tadqiqot natijalari innovatsion raqamli texnologiyalar, video mashg'ulotlar, onlayn monitoring tizimlari va individual yondashuvga asoslangan masofaviy jismoniy tarbiya dasturining an'anaviy masofaviy mashg'ulotlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Farg'ona va Buxoro viloyatlaridagi oliy ta'lim muassasalari bazasida 2022–2024 yillarda olib borildi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, jismoniy tarbiya, onlayn mashg'ulotlar, raqamli texnologiyalar, jismoniy faollik, sog'liqni saqlash kompetensiyasi, innovatsion metodika, talabalar, sport pedagogikasi, COVID-19.

Abstract: This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the experience of organizing physical education classes in the context of distance learning. The study examines ways to improve the effectiveness of distance physical education classes during the COVID-19 pandemic and in the post-pandemic period. The results of the experimental research demonstrate that a distance physical education program based on innovative digital technologies, video-based training sessions, online monitoring systems, and an individualized approach is more effective than traditional forms of distance learning. The research was conducted at higher education institutions in the Tashkent, Fergana, and Bukhara regions of the Republic of Uzbekistan during 2022–2024.

Key words: distance learning, physical education, online classes, digital technologies, physical activity, health-preserving competence, innovative methodology, students, sports pedagogy, COVID-19.

Аннотация: В статье проводится научно-теоретический и практический анализ опыта организации занятий по физическому воспитанию в условиях дистанционного обучения. В ходе исследования изучены пути повышения эффективности дистанционных занятий по физическому воспитанию в период пандемии COVID-19 и в постпандемийный период. Результаты экспериментального исследования показали, что программа дистанционного физического воспитания, основанная на применении инновационных цифровых технологий, видеотренировок, онлайн-систем мониторинга и индивидуального подхода, обладает более высокой эффективностью по сравнению с традиционными формами дистанционных занятий. Исследование проводилось на базе высших учебных заведений Ташкентской, Ферганской и Бухарской областей Республики Узбекистан в 2022–2024 годах.

Ключевые слова: дистанционное обучение, физическое воспитание, онлайн-занятия, цифровые технологии, физическая активность, компетенция сохранения здоровья, инновационная методика, студенты, спортивная педагогика, COVID-19.

KIRISH

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha sohalariga, jumladan, jismoniy tarbiya faniga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. 2020–yilda COVID-19 pandemiyasining boshlanishi butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalarini masofaviy ta'lim tizimiga o'tishga majbur qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4734–son[1] qarori ham masofaviy sharoitda jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish zaruratini belgilab berdi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4734–son qarori: https://lex.uz/ru/docs/-4711327

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya fanining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u bevosita jismoniy harakatni, mashqlar bajarishni va sport jihozlaridan foydalanishni talab qiladi. Masofaviy ta’lim sharoitida ushbu talablarni to‘liq qondirish murakkab vazifa hisoblanadi. L.P. Matveyev jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarida jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi organizmni har tomonlama rivojlantirish va jismoniy kamolotga erishish ekanligini ta’kidlagan. Olim mashg‘ulotlarning muntazam va tizimli ravishda olib borilishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.[2]

J.K. Xolodov va V.S. Kuznetsov jismoniy tarbiya va sport nazariyasi sohasida jismoniy sifatlarni rivojlantirish, harakat ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash metodikasini chuqur ishlab chiqqan. Olimlar o‘quv-mashg‘ulot jarayonining samaradorligini ta’minlashda pedagogik nazorat, individual yondashuv va tizimlilik tamoyillarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan.[3]

F.A. Kerimov O‘zbekiston jismoniy tarbiya nazariyasi sohasida fundamental tadqiqotlar olib borgan hamda milliy ta’lim tizimida jismoniy tarbiyaning o‘rni va ahamiyatini ilmiy asoslab bergan. Olim jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligini alohida ta’kidlagan.[4]

L.I. Lubysheva jismoniy va sportiv madaniyat sotsiologiyasi sohasidagi tadqiqotlarida jismoniy tarbiyaning shaxs ijtimoiylashuviga ta’sirini chuqur o‘rganib, jismoniy faollikning individ salomatligi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olima jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining motivatsion jihatlarini tahlil qilib, talabalarning jismoniy mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘llarini ishlab chiqqan.[5]

V.K. Balsevich sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqib, ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini taklif qilgan. Uning ontokineziologiya sohasidagi tadqiqotlari inson harakat faoliyatining yoshga xos xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkonini bergan.[6]

N.V. Lyandarskaya masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish masalalarini maxsus tadqiq qilgan. Olima raqamli texnologiyalar, video darslar va onlayn platformalar yordamida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini olib borish metodikasini ishlab chiqib, ularning samaradorligini eksperimental yo‘l bilan isbotlagan.[7]

P.K. Petrov jismoniy tarbiyada axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasida tadqiqotlar olib borib, kompyuter dasturlari, multimediya vositalari va internet resurslaridan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqqan.[8]

V.I. Grigoryev oliy ta’lim muassasalarida masofaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish tajribasini o‘rganib, onlayn platformalar orqali jismoniy tarbiya darslarini o‘tkazish samaradorligini tahlil qilgan. Olim masofaviy mashg‘ulotlarda talabalarning jismoniy faolligini nazorat qilish usullarini ishlab chiqqan.[9]

I.V. Manzheley jismoniy tarbiya va sport muhitining innovatsion texnologiyalari sohasida tadqiqotlar olib borib, ta’lim muhitini shakllantirish hamda sog‘liqni saqlovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqqan.[10]

Xalqaro miqyosda D. Porat COVID-19 davrida jismoniy tarbiyaning holati va muammolarini chuqur o‘rganib, masofaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish strategiyalarini taklif qilgan. V. Varea va G. Gonzalez-Calvo pandemiya davrida jismoniy tarbiya o‘qitishning o‘ziga xos muammolari va ularning yechimlarini tahlil qilgan.[11]

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish muammosi dolzarb bo‘lib, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan. Xususan, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida masofaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish tajribasi maxsus tadqiq etilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi masofaviy ta’lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion metodikani ishlab chiqish hamda uning samaradorligini eksperimental yo‘l bilan isbotlashdan iborat.

2 Matveyev L.P. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – M.: Fizkultura i sport, 2008. – 544 b.
3 Xolodov J.K., Kuznetsov V.S. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi. – M.: Akademiya, 2012. – 480 b.
4 Kerimov F.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 384 b.
5 Lubysheva L.I. Jismoniy va sportiv madaniyat sotsiologiyasi. – M.: Akademiya, 2001. – 240 b.
6 Balsevich V.K. Sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya ontokineziologiyasi. – M.: Teoriya i praktika fiz. kul‘tury, 2000. – 274 b.
7 Lyandarskaya N.V. Masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish. – M.: Fizkultura i sport, 2021. – 186 b.
8 Petrov P.K. Jismoniy tarbiyada axborot texnologiyalari. – M.: Akademiya, 2013. – 288 b.
9 Grigoryev V.I. Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari // Teoriya i praktika fiz. kul‘tury. – 2020. – №8. – B. 52–58.
10 Manzheley I.V. Jismoniy tarbiya va sport muhitining innovatsion texnologiyalari. – Tyumen’: TGU, 2016. – 320 b.
11 Qarang: Porat D. Physical education during COVID-19; Varea V., Gonzalez-Calvo G. Physical education teaching challenges during pandemic.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2022–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining uchta viloyati (Toshkent, Farg‘ona va Buxoro) dagi oliy ta’lim muassasalari bazasida olib borildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida 144 nafar talaba tanlandi: 96 nafar talaba eksperimental guruhni (EG), 48 nafar talaba esa nazorat guruhini (NG) tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: nazariy metodlar (ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimli yondashuv, modellashtirish), empirik metodlar (pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, intervyu, pedagogik eksperiment, jismoniy tayyorgarlik testlari), statistik metodlar (Student t–mezoni, Pearson korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli tahlil). Olingan ma’lumotlarni statistik qayta ishlashda SPSS 26.0 dasturiy ta’minotidan foydalanildi.

Jismoniy tayyorgarlikni baholashda V.K. Balsevichning sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya metodikasidan foydalanildi. Mashg‘ulotlarning samaradorligini aniqlashda L.P. Matveyevning jismoniy tarbiya nazariyasidagi mezonlar tizimiga tayanilib, beshta asosiy mezon ishlab chiqildi.

Masofaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda P.K. Petrovning jismoniy tarbiyada axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlaridan foydalanildi. N.V. Lyandarskayaning masofaviy ta’lim texnologiyalari asosida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish metodikasi asosiy yo‘naltiruvchi sifatida qo‘llanildi.

Talabalarning jismoniy faollik darajasini baholashda Xalqaro jismoniy faollik so‘rovnomasi (IPAQ)dan foydalanildi. Sog‘liqni saqlash kompetensiyasini baholashda V.A. Baronenkoning sog‘lom turmush tarzi asoslari bo‘yicha ishlab chiqilgan mezonlar tizimiga tayanildi.[12]

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi (2022-yil yanvar–avgust) – ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish, diagnostik instrumentariyni tanlash va moslashtirishdan iborat bo‘ldi. Ikkinchi bosqich – eksperimental bosqich (2022-yil sentabr – 2024-yil may) – masofaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining innovatsion dasturini ishlab chiqish va joriy etish, eksperimental hamda nazorat guruhlarida mashg‘ulotlarni olib borishni o‘z ichiga oldi. Uchinchi bosqich – yakuniy bosqich (2024-yil iyun–dekabr) – yakuniy diagnostikani o‘tkazish, olingan natijalarni statistik qayta ishlash va tahlil qilish bosqichidan iborat bo‘ldi.

Eksperimental guruhda innovatsion masofaviy jismoniy tarbiya dasturi qo‘llanildi. Ushbu dastur quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oldi: Zoom va Google Meet platformalari orqali jonli video mashg‘ulotlar (haftasiga 3 marta, 60 daqiqa), YouTube kanalida joylashtirilgan maxsus video darsliklar, mobil ilovalar (Nike Training Club, Strava, Samsung Health) orqali jismoniy faollikni monitoring qilish, Telegram va Google Classroom platformalari orqali individual topshiriqlar berish va natijalarni tahlil qilish. Nazorat guruhida esa an’anaviy masofaviy mashg‘ulotlar (yozma topshiriqlar, oddiy video ko‘rsatmalar, yakka tartibdagi mashqlar) olib borildi.

Masofaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini baholash mezonlari tizimi quyidagi beshta mezonni o‘z ichiga oldi: jismoniy faollik darajasi mezoni (haftalik jismoniy faollik hajmi, mashg‘ulotlarda qatnashish muntazamligi, jismoniy yuklamalar intensivligi), texnik ko‘nikmalar mezoni (mashqlarni to‘g‘ri bajarish sifati, harakatlar texnikasini o‘zlashtirish darajasi, video tahlil asosida baholash), motivatsiya darajasi mezoni (mashg‘ulotlarga qiziqish, mustaqil mashq qilishga intilish, sport va sog‘lom turmush tarziga munosabat), mustaqillik ko‘rsatkichi (mustaqil mashg‘ulotlar soni, individual dasturni bajarish darajasi, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari), sog‘liqni saqlash kompetensiyasi (sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlar, ovqatlanish madaniyati, stress bilan kurashish ko‘nikmalari).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘tkazilgan diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental va nazorat guruhlarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari statistik jihatdan ahamiyatli farq qilmadi ($p>0,05$), bu esa guruhlarning boshlang‘ich bir xilligini tasdiqladi. Ikkala guruhda ham talabalarning aksariyati past daraja ko‘rsatkichlariga ega bo‘ldi: eksperimental guruhda (EG) – 77,1%, nazorat guruhida (NG) – 75,0%.

L.P. Matveyevning jismoniy tarbiya nazariyasidagi ilmiy yondashuvlariga tayangan holda masofaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining innovatsion dasturi ishlab chiqildi. Dastur talabalarning individual jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich yuklamalarni oshirish tamoyiliga asoslandi.

Ikki yillik eksperimental ish yakunida o‘tkazilgan diagnostika natijalari sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda innovatsion masofaviy dastur asosida olib borilgan mashg‘ulotlar natijasida barcha beshta mezon bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli yaxshilanishlar qayd etildi. Nazorat guruhida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi, biroq ular eksperimental guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan ancha past darajada bo‘ldi.

12 Baronenko V.A. Sog‘lom turmush tarzi asoslari. – M.: Akademiya, 2006. – 256 b.

1-jadval: **Masofaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligini baholash natijalari**[13]

№	Mezonlar	EG dastlabki	EG yakuniy	NG dastlabki	NG yakuniy	p-qiymat
1	Jismoniy faollik darajasi	5,8±0,9	14,2±1,3	6,0±0,8	10,6±1,1	<0,01
2	Texnik ko'nikmalar	6,2±0,7	13,8±1,2	6,4±0,8	9,8±1,0	<0,001
3	Motivatsiya darajasi	7,0±0,8	15,4±1,1	7,2±0,9	11,2±1,2	<0,001
4	Mustaqillik ko'rsatkichi	6,4±0,6	14,6±1,0	6,2±0,7	10,4±0,9	<0,001
5	Sog'liqni saqlash kompetensiyasi	6,6±0,8	15,0±1,2	6,8±0,9	11,0±1,1	<0,001
	Jami	**32,0±2,4**	**73,0±3,6**	**32,6±2,6**	**53,0±3,4**	**<0,001**

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha beshta mezon bo'yicha eksperimental guruhda statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lgan ($p<0,01$ va $p<0,001$). Jami ball ko'rsatkichi eksperimental guruhda 32,0 balldan 73,0 ballga (128,1% ga o'sish), nazorat guruhida esa 32,6 balldan 53,0 ballga (62,6% ga o'sish) yetgan.

Jismoniy faollik darajasi mezoni bo'yicha batafsil tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruh talabalarining haftalik jismoniy faollik hajmi 150 daqiqadan 420 daqiqaga oshgan. Mashg'ulotlarda qatnashish muntazamligi 45,2% dan 89,6% gacha ko'tarilgan. Nazorat guruhida esa haftalik jismoniy faollik hajmi 155 daqiqadan 280 daqiqaga, qatnashish muntazamligi 46,8% dan 68,4% gacha oshgan.

Texnik ko'nikmalar mezoni bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, eksperimental guruh talabalarida mashqlarni to'g'ri bajarish sifati 31,4% dan 72,8% gacha, harakatlar texnikasini o'zlashtirish darajasi esa 28,6% dan 68,4% gacha oshgan. Ushbu natijalar P.K. Petrov tomonidan asoslab berilgan video tahlil texnologiyalarini qo'llash samaradorligini tasdiqlaydi.

Motivatsiya darajasi mezoni bo'yicha eksperimental guruhda mashg'ulotlarga qiziqish 35,0% dan 82,4% gacha, mustaqil mashq qilishga bo'lgan intilish esa 32,6% dan 76,8% gacha oshgan. Nazorat guruhida mos ravishda qiziqish 36,0% dan 62,4% gacha, mustaqil mashq qilishga intilish 33,2% dan 54,6% gacha ko'tarilgan.

Mustaqillik ko'rsatkichi bo'yicha eksperimental guruhda mustaqil mashg'ulotlar soni haftasiga o'rtacha 1,2 martadan 4,8 martagacha oshgan. Individual dasturni bajarish darajasi 28,4% dan 74,2% gacha, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari esa 30,2% dan 72,6% gacha yaxshilangan.

Sog'liqni saqlash kompetensiyasi mezoni bo'yicha eksperimental guruhda sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlar darajasi 33,0% dan 78,4% gacha, ovqatlanish madaniyati 30,8% dan 71,6% gacha, stress bilan kurashish ko'nikmalari esa 31,4% dan 74,2% gacha oshgan.

2-jadval: **Masofaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligi darajalari bo'yicha talabalar taqsimoti**[14]

Darajalar	EG – masofaviy innovatsion (n=96)		NG – an'anaviy masofaviy (n=48)	
	Dastlabki	Yakuniy	Dastlabki	Yakuniy
Yuqori daraja (75–100 ball)	4 (4,2%)	54 (56,3%)	2 (4,2%)	10 (20,8%)
O'rta daraja (50–74 ball)	18 (18,8%)	36 (37,5%)	10 (20,8%)	22 (45,8%)
Past daraja (0–49 ball)	74 (77,1%)	6 (6,3%)	36 (75,0%)	16 (33,3%)

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion masofaviy dastur qo'llanilgan eksperimental guruhda yuqori darajaga erishgan talabalar ulushi dastlabki 4,2% dan yakuniy 56,3% gacha oshgan. An'anaviy masofaviy mashg'ulotlar olib borilgan nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich 4,2% dan 20,8% gacha yetgan. Past darajadagi talabalar ulushi eksperimental guruhda 77,1% dan 6,3% gacha kamaygan bo'lsa, nazorat guruhida 75,0% dan 33,3% gacha pasaygan.

Korrelyatsion tahlil natijalari ishlab chiqilgan mezonlar o'zaro ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligini ko'rsatdi. Eng yuqori korrelyatsiya motivatsiya darajasi va mustaqillik ko'rsatkichi o'rtasida aniqlandi ($r=0,86$, $p<0,001$). Jismoniy faollik darajasi bilan sog'liqni saqlash kompetensiyasi o'rtasidagi korrelyatsiya ham yuqori darajada bo'ldi ($r=0,82$, $p<0,001$).

Faktorli tahlil natijalariga ko'ra, masofaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini belgilovchi asosiy omillar aniqlangan: birinchi omil – raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish (umumiy dispersiyaning 34,6%), ikkinchi omil – individual yondashuv va monitoring tizimi (24,8%), uchinchi omil – talabalarning motivatsiyasi va mustaqilligi (18,2%), to'rtinchi omil – o'qituvchining pedagogik mahorati (12,4%).

13 Izoh: EG – eksperimental guruh (innovatsion masofaviy dastur); NG – nazorat guruh (an'anaviy masofaviy mashg'ulotlar); p – statistik ahamiyatlilik darajasi. Natijalar 20 ballik shkala bo'yicha baholangan.

14 Izoh: EG – eksperimental guruh; NG – nazorat guruh. Qavs ichida foiz ko'rsatkichi keltirilgan.

Tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion raqamli texnologiyalar va individual yondashuvning muhim o'ringa ega ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalar L.P. Matveyev, J.K. Xolodov va V.S. Kuznetsovlarning jismoniy tarbiya nazariyasi sohasidagi ilmiy xulosalari bilan uyg'unlashadi.[15]

Jismoniy faollik darajasi mezoni bo'yicha olingan natijalar V.K. Balsevich va L.I. Lubyshevaning jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlari bilan mos keladi. Ushbu olimlar jismoniy faollikning shaxs salomatligi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sirini ta'kidlagan. Mazkur tadqiqot natijalari ham jonli video mashg'ulotlar va mobil ilovalar orqali monitoring qilish talabalarning jismoniy faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.[16]

Texnik ko'nikmalar mezoni bo'yicha olingan natijalar P.K. Petrov va N.V. Lyandarskayaning masofaviy jismoniy tarbiyada axborot texnologiyalarini qo'llash samaradorligi haqidagi ilmiy xulosalariga mos keladi. Video tahlil, real vaqt rejimida tuzatishlar kiritish va individual qayta aloqa texnologiyalari talabalarning texnik ko'nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini bergan.[17]

Motivatsiya darajasi mezoni bo'yicha olingan natijalar V.I. Grigoryev va I.V. Manzheleyning ilmiy xulosalari bilan mos keladi. Ushbu olimlar mashg'ulotlarning qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etilishi talabalar motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlagan. Tadqiqot davomida gamifikatsiya elementlari, onlayn musobaqalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etilgan aloqa tizimining motivatsiyaga ijobiy ta'siri aniqlandi.[18]

Xalqaro miqyosda D. Porat, V. Varea va G. Gonzalez-Calvo tomonidan COVID-19 davrida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan mazkur ish natijalari o'rtasida umumiy tendensiyalar mavjud. Xalqaro tadqiqotchilar ham raqamli texnologiyalar, video darslar va onlayn monitoring tizimlarining masofaviy jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishdagi rolini ta'kidlagan.[19]

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish an'anaviy masofaviy usullarga nisbatan ancha samaraliroq ekanligini ko'rsatdi. Ishlab chiqilgan innovatsion dastur boshqa ta'lim muassasalarida ham qo'llanilishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, tadqiqot faqat O'zbekiston Respublikasining uchta viloyatida olib borilganligi sababli natijalarni boshqa mintaqalarga umumlashtirish ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Ikkinchidan, tadqiqot davomida talabalarning uy sharoitida bajarilgan jismoniy mashg'ulotlari sifatini to'liq nazorat qilish imkoniyati cheklangan bo'ldi. Uchinchidan, internet tezligi va texnik ta'minot sifati barcha hududlarda bir xil darajada ta'minlanmadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishning innovatsion metodikasi ishlab chiqildi hamda uning samaradorligi eksperimental yo'l bilan isbotlandi. Innovatsion dastur jonli video mashg'ulotlar, maxsus video darsliklar, mobil ilovalar orqali monitoring hamda individual yondashuv komponentlarini o'z ichiga oldi.

Eksperimental tadqiqot natijalari innovatsion masofaviy jismoniy tarbiya dasturining an'anaviy masofaviy mashg'ulotlarga nisbatan ancha samarali ekanligini tasdiqladi. Innovatsion dastur qo'llanilgan eksperimental guruhda jami ball ko'rsatkichi bo'yicha 128,1% o'sish qayd etilgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 62,6% ni tashkil etdi.

Eng yuqori o'sish motivatsiya darajasi mezoni bo'yicha kuzatildi (120,0%), bu esa masofaviy ta'lim sharoitida innovatsion texnologiyalarning talabalar motivatsiyasini oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Shuningdek, mustaqillik ko'rsatkichi bo'yicha ham sezilarli o'sish qayd etildi (128,1%), bu talabalarda mustaqil jismoniy mashg'ulotlar olib borish ko'nikmalarining shakllanganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, masofaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda jonli video platformalardan (Zoom, Google Meet) muntazam foydalanish zarur. Ikkinchidan, talabalarning jismoniy faolligini monitoring qilish uchun maxsus mobil ilovalardan foydalanish lozim. Uchinchidan, har bir talaba uchun individual mashg'ulot dasturini ishlab chiqish hamda uning bajarilishini nazorat qilish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, gamifikatsiya elementlari va onlayn musobaqalar orqali talabalar motivatsiyasini oshirish tavsiya etiladi.

15 Qarang: Matveyev L.P. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – M., 2008; Xolodov J.K., Kuznetsov V.S. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi. – M., 2012.

16 Qarang: Balsevich V.K. Sportga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ontokineziologiyasi. – M., 2000; Lubysheva L.I. Jismoniy va sportiv madaniyat sotsiologiyasi. – M., 2001.

17 Qarang: Petrov P.K. Jismoniy tarbiyada axborot texnologiyalari. – M., 2013; Lyandarskaya N.V. Masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish. – M., 2021.

18 Qarang: Grigoryev V.I. Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari // Teoriya i praktika fiz. kul'tury. – 2020. – №8; Manzheley I.V. Jismoniy tarbiya va sport muhitining innovatsion texnologiyalari. – Tyumen', 2016.

19

Kelgusida tadqiqotni davom ettirish hamda masofaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini yanada chuqurroq o‘rganish rejalashtirilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida individual mashg‘ulot dasturlarini avtomatik shakllantirish, virtual reallik (VR) texnologiyalarini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida qo‘llash hamda gibrid (aralash) ta’lim modeli asosida jismoniy tarbiyani tashkil etish masalalarini tadqiq etish istiqbollari belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Матвеев Л.П. Теория и методика физического воспитания. – М.: Физкультура и спорт, 2008. – 544 с.
2. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. – М.: Академия, 2012. – 480 с.
3. Kerimov F.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 384 b.
4. Salomov R.S., Xo‘jayev F.X. Yengil atletika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 296 b.
5. Любишева Л.И. Социология физической и спортивной культуры. – М.: Академия, 2001. – 240 с.
6. Бальсевич В.К. Онтокинезиология физического воспитания, ориентированного на спорт. – М.: Теория и практика физической культуры, 2000. – 274 с.
7. Ляндарская Н.В. Организация процесса физического воспитания на основе технологий дистанционного обучения. – М.: Физкультура и спорт, 2021. – 186 с.
8. Петров П.К. Информационные технологии в физическом воспитании. – М.: Академия, 2013. – 288 с.
9. Григорьев В.И. Дистанционные занятия по физическому воспитанию в высших учебных заведениях // Теория и практика физической культуры. – 2020. – № 8. – С. 52–58.
10. Манжелей И.В. Инновационные технологии среды физического воспитания и спорта. – Тюмень: ТГУ, 2016. – 320 с.
11. Бароненко В.А. Основы здорового образа жизни. – М.: Академия, 2006. – 256 с.
12. Осипов А.Ю. Дистанционное физическое воспитание в системе высшего образования: проблемы и перспективы // Вестник спортивной науки. – 2021. – № 3. – С. 61–67.
13. Abdullayev A., Hasanov I. Jismoniy tarbiya va sport asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 312 b.
14. Смирнов Н.К. Здоровьесберегающие образовательные технологии. – М.: Аркти, 2005. – 288 с.
15. Завьялов А.И. Управление физической активностью студентов в условиях дистанционного обучения // Физическая культура. – 2021. – № 5. – С. 38–44.
16. Usmonxo‘jayev T.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 356 b.
17. Nishonov A.T. Yengil atletika mashg‘ulotlarini tashkil etish. – Toshkent: Ilm ziyo, 2017. – 224 b.
18. Кузьмичева Е.В. Физическое воспитание в условиях дистанционного обучения: методологические подходы // Педагогика. – 2022. – № 1. – С. 78–84.
19. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2004. – 808 с.
20. Чурикова Л.Н. Опыт организации уроков физической культуры с использованием цифровых технологий // Физкультура в школе. – 2021. – № 6. – С. 24–29.

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION METODLARNING SIFATLI TA'LIMDAGI O'RNI

Jabbarova Zuhra Omondullayevna
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning o'rni, ularning sifatli ta'limni ta'minlashdagi ahamiyati hamda pedagogik samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim hamda STEAM yondashuvining boshlang'ich sinflarda qo'llanilishi aniq misollar asosida yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning bilim olish faolligi, mustaqil fikrlashi va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: innovatsion metodlar, sifatli ta'lim, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, STEAM, pedagogik texnologiyalar, kreativlik.

Abstract: This article examines the role of innovative methods in the primary education process and their significance in ensuring quality education and pedagogical effectiveness from scientific, theoretical, and practical perspectives. Using specific examples, the study highlights the implementation of interactive methods, information and communication technologies, project-based learning, problem-based learning, and the STEAM approach in primary grades. The findings indicate that innovative approaches play a crucial role in enhancing students' learning engagement, independent thinking, and the development of creative competencies.

Key words: innovative methods, quality education, primary education, interactive methods, STEAM, pedagogical technologies, creativity.

Аннотация: В статье анализируется роль инновационных методов в процессе начального образования, их значение в обеспечении качественного обучения и педагогической эффективности с научно-теоретической и практической точек зрения. Также на конкретных примерах рассматривается применение интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, проектного обучения, проблемного обучения и STEAM-подхода в начальных классах. Результаты исследования подтверждают, что инновационные подходы способствуют повышению учебной активности, развитию самостоятельного мышления и креативных компетенций учащихся.

Ключевые слова: инновационные методы, качественное образование, начальное образование, интерактивные методы, STEAM, педагогические технологии, креативность.

KIRISH

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda shaxsning bilish jarayonlari, tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi va o'quv motivatsiyasi shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida (UNESCO, OECD) sifatli ta'lim deganda nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda kompetensiyalarni, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tushuniladi.

Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va zamonaviy jamiyat ehtiyojlari ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning intellektual va ma'naviy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu bosqichda ta'lim sifatini oshirish muhim strategik vazifalardan biridir.

Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion metodlar muhim vosita bo'lib, ular o'quv jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlar an'anaviy o'qitish usullaridan farqli ravishda o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantiradi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda shaxsning bilish jarayonlari, tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi va o'quv motivatsiyasi shakllanadi [1].

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida (UNESCO, OECD) sifatli ta'lim deganda nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda kompetensiyalarni, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tushuniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J. Dewey, L. S. Vygotskiy, J. Piaget kabi olimlar ta'lim jarayonida o'quvchi faolligi va ijtimoiy o'zaro ta'sirning muhimligini ta'kidlaganlar. Ularning ilmiy qarashlari bugungi innovatsion metodlarning metodologik asosini tashkil etadi [2].

An'anaviy dars shakllari ko'proq reproduktiv faoliyatga yo'naltirilgan bo'lsa, innovatsion metodlar konstruktivizm va faoliyatga asoslangan yondashuvga tayanadi (Dewey, Vygotskiy, Piaget). Shu bois innovatsion metodlarning boshlang'ich ta'limdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslashni talab etadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanilgan darslarda o'zlashtirish ko'rsatkichi an'anaviy darslarga nisbatan yuqori bo'ladi. O'quvchilar o'z fikrini erkin bayon qilish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ijodiy ishlashga ko'proq moyil bo'ladilar.

Tadqiqot jarayonida nazariy metodlar asosida boshlang'ich sinflarda quyidagi innovatsion metodlar keng qo'llanilmoqda: "Klaster", "Aqliy hujum", "Baliq skeleti", "Insert", "Sinkveyn". Ushbu metodlar o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirishda samarali bo'lib, ular orqali o'quvchilar muammoni tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'z fikrini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradilar [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, loyiha metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik, muammoni hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, "Mening oilam daraxti", "Tabiatni asraymiz" kabi kichik loyihalar orqali fanlararo integratsiya ta'minlanadi.

Pedagogik innovatsiya – bu ta'lim jarayoniga yangilik kiritish, mavjud usul va shakllarni takomillashtirish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan jarayondir. Innovatsion metodlar konstruktivizm, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy pedagogik nazariyalarga asoslanadi.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi fanlar integratsiyasi asosida o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinflarda oddiy konstruktorlar, tajribalar va ijodiy topshiriqlar orqali ushbu yondashuv samarali qo'llaniladi [5].

Innovatsion metodlarning sifatli ta'limdagi ahamiyati

Innovatsion metodlar quyidagi jihatlar orqali ta'lim sifatini oshiradi:

- o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi;
- individual yondashuvni ta'minlaydi;
- kompetensiyalarni shakllantiradi.

Amaliy natijalar va pedagogik samaradorlik

Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlarni tizimli qo'llash natijasida:

- bilimlarni o'zlashtirish darajasi oshadi;
- darslarda faollik va ishtirok kuchayadi;
- ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi;
- o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalari shakllanadi.

Bu esa sifatli ta'limning asosiy mezonlari – samaradorlik, barqarorlik va natijadorlikni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, uning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan innovatsion ta'lim jarayoni barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida innovatsion metodlarni yanada takomillashtirish, ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish va o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Innovatsion metodlarni keng joriy etish uchun o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini mustahkamlash va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish orqali ta'lim samaradorligiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
3. Piaget J. The Psychology of the Child. – Basic Books, 1969.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2010.
5. Sangirova S. B., Raxmatov J. A., Hasanova S. G'., Hojiyeva M. T. Umumta'lim maktablari uchun STEAM ta'limini joriy etish (metodik qo'llanma). – Toshkent, 2022.

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Bozozrova Adiba Xudayarovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 2-kurs magistranti,
Yunusobod tumani 30-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot zamonaviy ta'lim paradigmasi sharoitida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim resurslari va akmeologik yondashuvlarning o'rni ilmiy asoslangan. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodik tizimning samaradorligi o'rganilib, talabalarning kognitiv, amaliy va refleksiv ko'nikmalarini integratsiyalash orqali kasbiy kompetentlik darajasini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida faqat nazariy bilimlarga tayanish kutilgan samarani bermaydi, balki shaxslararo muloqot, pedagogik empatiya va raqamli savodxonlikni uyg'un rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot yakunida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini diagnostika qilish hamda uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, maktabgacha ta'lim, akmeologik yondashuv, pedagogik texnologiyalar, raqamli savodxonlik, innovatsiya, refleksiv ko'nikmalar.

Abstract: This study focuses on the analysis of theoretical and practical aspects of developing professional competence among prospective preschool educators within the framework of the modern educational paradigm. The article scientifically substantiates the role of innovative pedagogical technologies, digital educational resources, and the acmeological approach in enhancing the professional training of future specialists. The research examines the effectiveness of methodological systems applied in higher education institutions and proposes mechanisms for improving professional competence through the integration of cognitive, practical, and reflective skills. The findings indicate that reliance solely on theoretical knowledge in the training of preschool educators does not yield the expected outcomes; instead, the integrated development of interpersonal communication, pedagogical empathy, and digital literacy is essential. The study concludes with scientific and methodological recommendations aimed at diagnosing professional competence and ensuring its sustainable development among future preschool educators.

Key words: professional competence, preschool education, acmeological approach, pedagogical technologies, digital literacy, innovation, reflective skills.

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу теоретических и практических аспектов формирования и развития профессиональной компетентности будущих воспитателей организаций дошкольного образования в условиях современной образовательной парадигмы. В статье научно обоснована роль инновационных педагогических технологий, цифровых образовательных ресурсов и акмеологического подхода в повышении профессиональной подготовки будущих специалистов. В ходе исследования изучена эффективность методической системы, применяемой в высших образовательных учреждениях, а также разработаны механизмы повышения уровня профессиональной компетентности обучающихся на основе интеграции когнитивных, практических и рефлексивных навыков. Полученные результаты свидетельствуют о том, что ориентация исключительно на теоретические знания в процессе подготовки воспитателей не обеспечивает ожидаемой эффективности, тогда как комплексное развитие межличностного общения, педагогической эмпатии и цифровой грамотности является необходимым условием профессионального становления. В заключении представлены научно-методические рекомендации по диагностике профессиональной компетентности будущих воспитателей и обеспечению её устойчивого развития.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, дошкольное образование, акмеологический подход, педагогические технологии, цифровая грамотность, инновации, рефлексивные навыки.

KIRISH

Global dunyoda ta'lim tizimining barcha bosqichlari kabi maktabgacha ta'lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa bevosita bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligiga yangicha talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda pedagog kadrlarning kompetentligi faqatgina ma'lum bir bilimlar majmuasiga ega bo'lish bilan emas, balki o'zgaruvchan ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qila olish hamda bolaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini to'g'ri loyihalash qobiliyati bilan belgilanmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi inson kapitalining poydevori hisoblangani sababli, ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy mahorati jamiyatning intellektual salohiyatini belgilab beruvchi strategik omilga aylanmoqda. Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida an'anaviy o'qitish uslublaridan voz kechib, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim modeliga o'tish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda talabalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirish, ularda kasbga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi o'zining ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bunda nafaqat intellektual rivojlanish, balki hissiy intellekt va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga STEAM texnologiyalarini joriy etish, inklyuziv ta'lim muhitini yaratish hamda bolalarning psixologik xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalar bevosita tarbiyachining kompetentlik darajasiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo'lajak tarbiyachilarning kompetentligini rivojlantirishda fanlararo integratsiyani ta'minlash, nazariya va amaliyotning uzviyligini kuchaytirish hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rag'batlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limni tamomlayotgan ko'plab yosh mutaxassislar amaliy faoliyatda bolalar bilan ishlashning psixologik aspektlari yoki zamonaviy didaktik vositalarni qo'llash jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holat pedagogik ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab qiladi, chunki kompetentlik bu – shunchaki bilim emas, balki faoliyatga tayyorlik holatidir. Mazkur jarayonda talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda pedagogik etika va estetikani shakllantirish, shuningdek, turli madaniy muhitlarda samarali faoliyat yurita olish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsad qilib olinishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy kompetentlik tushunchasi va uning pedagogik asoslari ko'plab mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda turli nazariy qarashlar mavjud. S.S. G'ulomovaning 2021-yilgi tadqiqotlarida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlari sifatida metodik, psixologik va texnologik tayyorgarlik alohida ajratib ko'rsatilgan [1; 12 b.]. Shuningdek, M.H. To'xtayevaning tadqiqotlarida kompetentlik faqatgina faoliyat usullarini egallash emas, balki pedagogik jarayonni ijodiy loyihalash qobiliyati sifatida talqin etilgan [3; 45 b.].

Xalqaro miqyosda ham mazkur masala keng muhokama qilinib, J. Reeve tadqiqotlarida bo'lajak pedagoglarning motivatsion kompetentligining bolalar bilan ishlash jarayonidagi muhim ko'rsatkich ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan [7; 112 b.].

Pedagogik ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llash masalasida R.X. Jo'rayevaning ilmiy ishlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni tahlil qilingan bo'lib, unda bo'lajak tarbiyachilarning raqamli savodxonligini oshirish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilgan [5; 33 b.].

Y. Xamrayevaning 2023-yilgi tadqiqotlaridan birida maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va uning pedagogik muloqot samaradorligiga ta'siri ochib berilgan [10; 50 b.].

Bundan tashqari, A.K. Markova tadqiqotlarida kompetentlik kasbiy mahoratning eng yuqori bosqichi sifatida baholanib, uning shakllanishida refleksiv tahlilning ahamiyati alohida ta'kidlangan [8; 105 b.].

Hozirgi zamon pedagogikasida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish orqali kompetentlikni oshirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Bu borada B.S. Abdullaeva tadqiqotlarida metodik tayyorgarlikning modulli tizimi samarali ekanligi qayd etilgan [12; 77 b.].

Xorijiy olimlardan L. Darling-Hammondning ilmiy izlanishlarida pedagogik kadrlar tayyorlashda amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati hamda nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash malakasini shakllantirish masalalari yoritilgan [15; 210 b.].

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi kompleks yondashuvni talab etuvchi va doimiy ravishda yangilanib boradigan jarayon hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik eksperiment va qiyosiy tahlil metodlariga asoslangan holda o‘tkazildi. Tadqiqot jarayoni 2023-2024-o‘quv yillarida pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining 200 nafar bakalavr bosqichi talabalari ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari va kompetensiyaviy yondashuv qabul qilindi. Ishtirokchilar ikki guruhga – nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida an’anaviy o‘quv dasturlari asosida darslar olib borilgan bo‘lsa, tajriba guruhida innovatsion pedagogik texnologiyalar, keys-stadi usullari va interaktiv modullar joriy etildi.

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1. **Nazariy metodlar** – mavzu bo‘yicha ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, mavjud normativ hujjatlarni tahlil qilish hamda nazariy modellarni loyihalash.
2. **Empirik metodlar** – talabalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish, pedagogik kuzatuv, intervyu va test sinovlari orqali bilimlarni baholash.
3. **Matematik-statistika metodlari** – olingan natijalarni qayta ishlashda Styuydent kriteriyasi va variatsion statistika usullaridan foydalanildi, bu esa natijalarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning asosiy bosqichlarida talabalarning kognitiv (bilim darajasi), amaliy (ko‘nikmalar) va shaxsiy-motivatsion komponentlari maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlanish darajasi tajriba guruhida sezilarli oshgan. Nazorat guruhida talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nisbatan barqaror dinamikaga ega bo‘lgan bo‘lsa, tajriba guruhidagi talabalar pedagogik muammolarni hal etishda yuqori darajadagi kreativlik va mustaqillikni namoyon etdilar. Quyidagi jadvallarda tadqiqot boshida va yakunida olingan natijalar qiyosiy tarzda keltirilgan.

1-jadval: **Tajriba boshida talabalarning kompetentlik darajasi (foiz hisobida)**

Guruhlar	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
Nazorat guruhi (n=100)	12%	45%	43%
Tajriba guruhi (n=100)	13%	42%	45%

Tajriba boshida har ikki guruhda ham ko‘rsatkichlar deyarli bir xil bo‘lib, ko‘pchilik talabalar past va o‘rta darajada ekanligi aniqlandi. Biroq, innovatsion metodlar qo‘llanilgandan so‘ng, tajriba guruhida keskin o‘zgarishlar kuzatildi.

2-jadval: **Tajriba yakunida talabalarning kompetentlik darajasi (foiz hisobida)**

Guruhlar	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
Nazorat guruhi (n=100)	18%	52%	30%
Tajriba guruhi (n=100)	48%	44%	8%

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhida yuqori darajali talabalarning ulushi 13% dan 48% gacha oshgan bo‘lib, bu qo‘llanilgan metodologiyaning samaradorligini tasdiqlaydi. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelining asosiy elementlari quyidagi tizimli sxemada (Smart Art mantiqida) ifodalandi:

1. **Kognitiv komponent** – nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, bolalar psixologiyasini bilish, zamonaviy didaktik prinsiplarga ega bo‘lish.
2. **Amaliy-texnologik komponent** – pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish, raqamli vositalar bilan ishlash.
3. **Motivatsion-shaxsiy komponent** – kasbga qiziqish, bolalarga mehr, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish.
4. **Refleksiv komponent** – o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va pedagogik mahoratni doimiy baholab borish.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kompetentlik tarkibida eng murakkab shakllanadigan qism refleksiv ko‘nikmalar hisoblanadi. Tajriba guruhidagi talabalarda o‘z-o‘zini tahlil qilish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 2,5 baravar yuqori bo‘ldi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni maktabgacha ta’lim jarayoniga integratsiya qilishga oid

topshiriqlarni bajarishda tajriba guruhi talabalari 85% holatda ijodiy yondashuv namoyon etdilar. Bu natijalar bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni faqat darsliklardagi ma’lumotlarni yodlash bilan cheklanmasligi lozim. Y. Xamrayeva tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, pedagogik ta’lim mazmuni talabaning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi bilan uyg‘un bo‘lishi zarur [10; 52 b.]. Tadqiqot natijalari interaktiv o‘qitish muhiti talabalarda nafaqat bilim, balki kasbiy pozitsiyani ham shakllantirishini ko‘rsatdi. Nazorat guruhida o‘sish sur’atlarining pastligi an’anaviy ma’ruza-seminar tizimi zamonaviy talabalar uchun yetarli rag‘batlantiruvchi omil emasligini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan kognitiv va refleksiv komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi. Jumladan, L. Darling-Hammond tadqiqotlarida ilgari surilgan “amaliyot orqali o‘rganish” tamoyili tajriba guruhida yuqori natijalarga erishishning asosiy omili bo‘ldi [15; 215 b.]. Bo‘lajak tarbiyachilar real bog‘cha muhitiga yaqinlashtirilgan simulatsion mashg‘ulotlarda o‘zlarini ishonchliroq his etdilar. Bu esa oliy ta’lim muassasalari bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama qilinayotgan masalaning yana bir muhim jihati raqamli kompetentlik bilan bog‘liqdir. R.X. Jo‘rayeva tadqiqotlarida qayd etilganidek, zamonaviy tarbiyachi media-savodli bo‘lishi zarur [5; 35 b.]. Tadqiqot davomida talabalar tomonidan yaratilgan multimedia ishlanmalari ularning nafaqat texnik, balki metodik kompetentligini ham oshirganligi aniqlandi. Shu bilan birga, texnologiyalar tarbiyachining jonli pedagogik muloqotini to‘liq almashtirmasligi, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozimligi ta’kidlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot va olingan natijalar asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, zamonaviy tarbiyachi kompetentligi bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integratsiyalashgan majmuasi bo‘lib, u doimiy yangilanishni talab etadi. Ikkinchidan, pedagogik oliy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni tizimli qo‘llash talabalarning kasbiy motivatsiyasini va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba guruhida qayd etilgan yuqori natijalar (48% yuqori daraja) mazkur fikrni tasdiqlaydi.

Uchinchidan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirishda amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv hamda modulli o‘qitish tizimi eng samarali vositalardan biri ekanligi aniqlandi. Talabalar nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar va keyslar orqali mustahkamlaganlarida, ularning kasbiy tayyorgarligi yanada kuchayadi. To‘rtinchidan, raqamli savodxonlik va refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish zamonaviy tarbiyachining raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogika fakultetlari o‘quv rejalarini takomillashtirish hamda darsliklar mazmunini boyitish jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilishi mumkin. Kelgusida ushbu yo‘nalishda bo‘lajak tarbiyachilarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligi masalalarini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomova, S. S. (2021). Maktabgacha ta’limda pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Ishmuhamedov, R. J. (2020). Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. O‘zbekiston pedagogik jurnali, 4(2), 15–22.
3. To‘xtayeva, M. H. (2022). Bo‘lajak tarbiyachilarning metodik kompetentligini shakllantirish modellari. Pedagogik mahorat, 3(1), 40–48.
4. Xalilova, Sh. (2023). Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar. Samarqand: SamDU nashri.
5. Jo‘rayeva, R. X. (2021). Ta’limda axborot texnologiyalari va raqamli didaktika. Toshkent: O‘qituvchi.
6. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. New York: Freeman.
7. Reeve, J. (2012). A self-determination theory perspective on student engagement. Handbook of Research on Student Engagement, 149–172.
8. Markova, A. K. (1996). Psixologiya professionalizma. Moskva: Znanie.
9. Zimnyaya, I. A. (2003). Klyuchevye kompetensii – novaya paradigma rezul’tata obrazovaniya. Vysshee obrazovanie segodnya, 5, 34–42.
10. Xamrayeva, Y. (2023). Tarbiyachilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi. Uzbekistan Academic Research, 2(5), 45–55.
11. Mirziyoyeva, S. Sh. (2022). Maktabgacha ta’lim tizimida metodik xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.
12. Abdullaeva, B. S. (2019). Fanlararo integratsiyaning pedagogik asoslari. Monografiya. Toshkent.
13. Shadrikov, V. D. (2010). Professional’nye kompetensii i kachestvo podgotovki pedagoga. Voprosy obrazovaniya, 4, 16–31.
14. Fullan, M. (2013). The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press.
15. Darling-Hammond, L. (2017). Teacher education around the world: What can we learn from international practice? European Journal of Teacher Education, 40(3), 291–309.

TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI OLIB BORISHDA PSIXODIAGNOSTIK FAOLIYATNING O'RNI

Odamova O'g'iljon Kenjayevna
Urganch davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi v.b. dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishda psixodiagnostik faoliyatning o'rni va ahamiyatini ilmiy hamda amaliy jihatdan yoritib beradi. Dastlab "psixodiagnostika" tushunchasining mazmuni ochib beriladi. Psixologik diagnoz (yunoncha diagnosis – aniqlash, bilish) shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining muayyan davrdagi holatini baholash, tashxis qo'yish hamda tashxis asosida individ rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini prognoz qilish va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyati sifatida talqin etiladi. Shuningdek, psixodiagnostika sohasida testlar, so'rovnomalar va boshqa metodlar orqali shaxsning ruhiy xususiyatlarini o'rganishga oid ilmiy izlanishlar olib borgan mashhur olimlarning qarashlari tahlil qilinadi. Jumladan, individual farqlarni o'rganish asoschilaridan biri Frensis Galton, psixometriya va testologiya rivojiga asos solgan, intellektni o'lchash g'oyasini ilgari surgan Alfred Bine, Teodor Simon bilan hamkorlikda "Bine–Simon shkalasi"ni ishlab chiqqanligi, shuningdek, intellektning "g-omil" nazariyasini yaratgan va faktor tahlili usulini psixologiyaga joriy etgan Charlz Spirman qarashlari ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ruhiy holat, shaxslararo munosabatlar, simptom, tashxis, etiologik, tipologik, ta'lim-tarbiya, faoliyat, samaradorlik, psixodiagnostika, shaxs, psixometriya, intellekt, faktor, ekstraversiya, introversiya, neyrotizm, so'rovnoma, ko'nikma, qobiliyat, malaka, ta'lim, anglash, nazariy yondashuv.

Abstract: This article examines the role and significance of psychodiagnostic activities in providing psychological services in educational institutions from both scientific and practical perspectives. First, the concept of "psychodiagnostics" is clarified. Psychological diagnosis (from the Greek diagnosis – identification, cognition) is defined as a professional activity of a psychologist aimed at assessing the current state of an individual's psychological characteristics, making a diagnosis, as well as predicting future developmental directions and formulating recommendations based on diagnostic results. In addition, the article analyzes the scientific contributions of prominent scholars who studied mental characteristics through tests, questionnaires, and other psychodiagnostic methods. In particular, the works of Francis Galton, one of the founders of the study of individual differences, Alfred Binet, a pioneer of psychometrics and testology who introduced the idea of measuring intelligence and developed the Binet–Simon Scale in collaboration with Theodore Simon, and Charles Spearman, the author of the "g-factor" theory of intelligence and the introducer of factor analysis into psychology, are scientifically reviewed.

Key words: mental processes, interpersonal relations, symptom, diagnosis, etiological, typological, education, activity, effectiveness, psychodiagnostics, personality, psychometrics, intelligence, factor, extraversion, introversion, neuroticism, questionnaire, skills, abilities, competencies, education, comprehension, theoretical approach.

Аннотация: В данной статье автор рассматривает роль и значение психодиагностической деятельности в системе психологической службы образовательных учреждений с научной и практической точек зрения. Вначале раскрывается содержание понятия "психодиагностика". Психологический диагноз (от греч. diagnosis – распознавание, определение) трактуется как деятельность психолога, направленная на оценку текущего состояния индивидуально-психологических особенностей личности, постановку диагноза, а также прогнозирование направлений развития индивида и разработку практических рекомендаций на основе полученных диагностических данных. Кроме того, анализируются научные взгляды известных ученых, внесших вклад в развитие психодиагностики как области исследования психических особенностей личности с использованием тестов, анкет и других методов. В частности, освещаются идеи Фрэнсиса Гальтона – одного из основоположников изучения индивидуальных различий, Альфреда Бине – основателя психометрии и тестологии, выдвинувшего идею измерения интеллекта и разработавшего совместно с Теодором Саймоном шкалу Бине–Саймона, а также Чарльза Спирмена – автора теории интеллекта "g-фактор" и инициатора внедрения метода факторного анализа в психологию.

Ключевые слова: психический, межличностные отношения, симптом, диагноз, этиологический, типологический, образование, деятельность, эффективность, психодиагностика, личность, психометрия, интеллект, фактор, экстраверсия, интроверсия, невротизм, опрос, навыки, способности, компетенции, обучение, понимание, теоретический подход.

KIRISH

Psixologiya inson ruhiyatini o‘rganuvchi nazariy fan bo‘lib qolmay, balki hozirgi kunda turli xil sohalarda keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy fan hamdir. “Psixodiagnostika” termini dastlab psixiatriyada G. Rorshaxning 1921-yilda shu nomli asari nashr etilgach keng qo‘llanila boshlagan va tez orada tibbiyot sohasi chegaralaridan chiqib ketgan. “Diagnoz” termini normal taraqqiyotdan har qanday og‘ish va uni aniqlash sifatida tushunila boshlandi. Psixologik diagnoz (yunoncha diagnosis – aniqlash, bilish degan ma’noni anglatadi) shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining ayni vaqtdagi holatiga baho berish, tashxis qo‘yish hamda tashxis asosida individ rivojlanishining yo‘nalishlarini oldindan aytib berish, ya’ni prognoz qilish va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatidir. Psixologik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo‘yishning uch bosqichi farqlanadi [4–5].

1. **Simptomatik diagnoz** – empirik diagnoz deb ham ataladi. Bunda tashxis qo‘yish muayyan belgi yoki xususiyatlarni ta’kidlash bilan cheklanadi va uning asosida amaliy xulosalar chiqariladi. L. S. Vigotskiyning ta’kidlashicha, bunday tashxis ilmiy hisoblanmaydi, chunki belgilarni aniqlash avtomatik tarzda bevosita tashxis qo‘yishga olib kelmaydi.
2. **Etiologik diagnoz** – bunda shaxsning muayyan xususiyatlari va belgilari hisobga olinishi bilan bir qatorda, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ham inobatga olinadi.
3. **Tipologik diagnoz** – yuqori darajadagi diagnoz bo‘lib, aniqlangan tavsifnomalarni shaxsning yaxlit dinamik tizimdagi va psixik hayotdagi o‘rnini aniqlash orqali belgilanadi.

Insonni har tomonlama o‘rganish, ya’ni odamlar o‘rtasidagi individual farqlarni aniqlash ta’lim-tarbiya va mehnat faoliyati samaradorligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixodiagnostika shaxsning ruhiy xususiyatlarini test, so‘rovnoma va boshqa metodlar orqali o‘rganish sohasida qator mashhur olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, Frensis Galton – individual farqlarni o‘rganish asoschilaridan biri. Psixometriya va testologiya rivojiga asos solgan, intellektni o‘lchash g‘oyasini ilgari surgan Alfred Bine birinchi intellekt testini yaratgan hamda Teodor Simon bilan hamkorlikda “Bine–Simon shkalasi”ni ishlab chiqqan. Charlz Spirman intellektning “g-omil” nazariyasini ishlab chiqqan va faktor tahlili usulini psixologiyaga joriy etgan. Lyuis Terman Bine testini takomillashtirib, “Stenford–Bine” testini yaratgan hamda IQ (intellekt koeffitsienti) tushunchasini ommalashtirgan. German Rorshax shaxsni o‘rganish uchun “Rorshax testi”ni (siyoh dog‘lari metodi) yaratgan. Genri Myurrey Tematik appersepsiya testini (TAT) ishlab chiqqan. Raymond Kettell 16 omilli shaxs testini (16 PF) yaratgan hamda intellektni suyuq va kristallashgan turlarga ajratgan. Gans Ayzenk shaxs tipologiyasi (ekstraversiya–introversiya, neyrotizm) nazariyasini ishlab chiqqan va Ayzenk shaxs so‘rovnomasini tuzgan.

Psixodiagnostika inson faoliyatining turli sohalari – sog‘liqni saqlash, ishlab chiqarish, boshqaruv, san’at, siyosat, sport, maktabgacha ta’lim hamda maktab va oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayoni, sanoat va oilaviy maslahat amaliyotida keng qo‘llaniladi [9]. Ushbu sohalarning har birida psixodiagnostik vositalarni qo‘llashning o‘ziga xos shartlari, maxsus psixodiagnostik vazifalar va metodlar mavjud. Bunday xususiy masalalardan tashqari, psixodiagnostika fanida ancha umumiy, universal masalalar ham mavjud bo‘lib, ularning hal etilishi maxsus psixodiagnostika (kasbiy, sport, klinik) uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Diagnostikaning asosiy vositalari metodika va test hisoblanadi. Testlar juda katta tarixga ega. Qadim davrlardanoq turli xil maqsadlarda insonning qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma va malakalari sinalib kelingan. Masalan, eramizdan avvalgi uch ming yillik o‘rtalarida Qadimgi Vavilonda xattotlar tayyorlovchi maktab bitiruvchilarini sinash yo‘lga qo‘yilgan. Kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan xattot mahalliy madaniyatning markaziy namoyondasi hisoblanib, u to‘rtta arifmetik amalni bajarish, yer o‘lchash, mol-mulkni bo‘lishni bilishi, shuningdek, ashula aytish va musiqa asbobini chalish san’atini egallagan bo‘lishi shart edi.

Qadimgi Misrda ham maktablarga qabul qilishda nomzodlar muayyan sinovlardan o‘tishlari zarur bo‘lgan. Avvalo ular bilan suhbat o‘tkazilgan, tarjimai holiga taalluqli ma’lumotlar qo‘lga kiritilgan, ma’lumotlilik darajasi aniqlangan. Bundan tashqari, ularning tashqi ko‘rinishi va suhbat olib borish malakasi ham baholangan. Shundan so‘ng mehnat qilish, boshqalarni eshita olish, jim tura olish malakalari tekshirilgan. Olovdan, suvdan, qorong‘u yer to‘lalarda yolg‘izlik va qo‘rquv hissi sinalgan. Turli tekshiruv shakllari Yunoniston, Xitoy, Vetnam va boshqa mamlakatlarda ham qo‘llanilgan [17].

Talabalarning ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostikani o'rganish bosqichlari hamda shu asosda psixodiagnostik vosita va metodlarni yaratish, xulosalar chiqarishning metodologik, nazariy va konkret-metodik tamoyillarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shaxs sifatlari, qobiliyatlar, motivlar, ong va o'z-o'zini anglash, shaxslararo munosabatlarni psixodiagnostik tadqiq etish metodlari va konkret metodikalarini yaratish muhim hisoblanadi. Individual farqlarni aniqlashning matematik metodologiyasi sifatida differensial psixometrikani qo'llashni joriy etish zarur. Metodikalar hamda ularni yaratayotgan va qo'llayotgan psixologlar uchun normativ talablarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kunda psixologiya turli yo'nalishlarda insonlarning amaliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday yo'nalishlardan biri – aholining turli qatlamlariga psixologik yordam ko'rsatishdir. Psixologik maslahat psixologning muhokama va tahlil predmeti haqidagi bilimlargagina emas, balki maslahat jarayonining o'zi, uning strategiyasi va taktikasi haqidagi qonuniyatlarni bilishga ham asoslanishi zarur. Psixologik yordam qaysi shaklda olib borilmasin, xoh u psixologik maslahat, xoh notibbiy psixoterapiya shaklida bo'lsin, o'z yo'nalishining individuallashtirilganligi bilan tavsiflanadi. Insonga individual munosabatda bo'lish uning hissiyotlari, kechinmalari, ustanovkalari va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlari sohalariga chuqur kirib borishni talab etadi [15]. Buning uchun psixologik intuitsiya va sezgirlikning o'zi yetarli emas, shu sababli maxsus psixodiagnostik metodlarni qo'llash talab etiladi. Psixologiyaning asosiy va eng muhim yo'nalishlaridan biri bolalar psixodiagnostikasi bo'lib, u bolalar psixologiyasida psixodiagnostika metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi alohida soha hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi zamon psixologik diagnostikasining maqsadi insonlar va guruhlar o'rtasidagi psixologik farqlarni qayd etishdan iborat. Masalan, amaliy tafakkur darajasi bo'yicha 6 yoshli bola o'zining tengdoshidan farq qilishi mumkin. Yoki maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasiga ko'ra shaharning 30 nafar 7 yoshli bolalari qishloq bolalaridan farq qilishi muayyan metodikalar yordamida aniqlanishi mumkin. Bunda tadqiqotchining vazifasi qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tartibga solishdan iborat bo'ladi. Diagnostika qilinayotgan belgilar tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, turlicha psixologik farqlarni o'z ichiga oladi:

a) yosh bo'yicha;

b) ma'lumotiga ko'ra;

c) madaniy darajasiga ko'ra;

d) psixik holatlariga qarab;

e) genetik va psixofiziologik xususiyatlari bo'yicha.

Psixodiagnostika bir tomondan nazariy fan hisoblansa, boshqa tomondan psixolog amaliy faoliyatining muhim sohalaridan biridir. Psixodiagnostika nazariy fan sifatida psixologiya fanining boshqa predmetli sohalari bilan uzviy bog'langan. Bundan tashqari, psixodiagnostika umumiy psixologiya, differensial psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, huquq psixologiyasi, harbiy psixologiya, mehnat psixologiyasi hamda sport psixologiyasi kabi fanlar bilan uzviy aloqada [17].

Psixologik xizmatni nizomda belgilab berilgan asosiy beshta yo'nalishi mavjud. Bular: psixoprofilaktika, psixologik tashviqot, psixologik diagnostika, psixologik korrektsiya va psixologik maslahat. Barcha yo'nalishlar o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Ular alohida-alohida ko'rsatilgan bo'lsa-da, barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, ayrim hollarda diagnostika bir vaqtning o'zida profilaktika vazifasini ham qisman bajarishi yoki psixologik oqartuv ishlari profilaktik tadbir sifatida baholanishi mumkin. Shuningdek, har bir yo'nalish konkret vazifalarga ega.

Psixoprofilaktika diagnostik ishlar, suhbat, tushuntirish va boshqa ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin.

Psixologik tashviqot – keng ommaga radio, televideniye, matbuot va turli ilmiy-ommabop nashrlar orqali ma'ruzalar, suhbatlar va tushuntirishlar ko'rinishida psixologik bilimlarni yoyish va targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lgan, aholining psixologik savodxonligini oshirishga qaratilgan psixologik xizmat yo'nalishlaridan biridir.

Psixologik korrektsiya – shaxs xulq-atvori va kognitiv rivojlanishidagi turli xil buzilishlar hamda rivojlanishdan orqada qolishni tuzatish ishlari bilan shug'ullanuvchi psixologik xizmat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Psixologik maslahat – psixik jihatdan sog'lom bo'lgan mijozga tavsiyalar, ko'rsatmalar va maslahatlar berishdan iborat psixologik yordamdir. Psixologik maslahat malakali psixolog tomonidan mijoz muammosini, mijozning o'zini va uning ijtimoiy muhitini tahlil qilishga asoslangan holda olib boriladigan psixologik xizmatning alohida yo'nalishi hisoblanadi [15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, amaliy psixologiyaning yuqorida qayd etib o'tilgan barcha sohalarida psixodiagnostika asosiy o'rin tutadi, chunki psixologik tekshiruv o'tkazmasdan psixoprofilaktika, psixokorrektsiya va psixologik maslahat ishlarini samarali olib borish mumkin emas. Yuqorida ta'kidlangan psixodiagnostik vazifalar amaliy psixodiagnostikaning umumiy vazifalarini tashkil etadi. Ularning aksariyati maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida turli yosh davridagi bolalar bilan mos tarzda ish olib borish jarayonida amalga oshiriladi [14].

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirishda psixodiagnostika yordamida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayaniladi. Ushbu ma'lumotlarning validligi va ishonchliligi har jihatdan aniq hamda to'g'ri bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Berilgan materiallar va xulosalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Muayyan o'tkazilgan psixodiagnostik ish natijalariga asoslanib rivojlanish holatini aniqlash.
2. Rivojlanish dinamikasini hamda ma'lum vaqt oralig'ida yuzaga kelgan o'zgarishlarni aniqlash.
3. Individ yoki guruh psixologiyasi hamda xulq-atvorida o'quv-tarbiyaviy ta'sir natijasida vujudga kelgan real o'zgarishlarni aniqlash.
4. Shaxs psixodiagnostik rivojlanish dinamikasi va qonuniyatlarini tahlil qilish asosida uning rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respub-likasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.:"O'zbekiston", 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent.: "O'zbekiston". 2017.-488 b
4. Mirziyoev SH.M."Yangi O'zbekiston Strategiyasi". "O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent-2021. 459 b
5. Djumaniyazova M.X., Tajiyeva N.YU, Ismoilova A.R. Pedagogik psixologiya va psixologiya o'qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent.: "Grand kondor print". 2025., - 360 b.
6. Djumaniyazova M.X., Raximova E.R., Kutlimurotova N.R., Raximova SH.A., Raximova G.I./Umumiy pedagogika va psixologiya. Darslik.-Toshkent.:-Grand kondor printi, 2024 y., 610 b.
7. Карамян М.Х. Педагогическая психология и методика преподавания психологии. Учебное пособие. – Т.: "Университет", 2023. - 216 с.
8. G'oziyev E. G'. Pedagogik psixologiya. –Toshkent: Universitet, 2014.-208.b
9. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi 4. Barotov Sh.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. -Toshkent.: " O'qituvchi ", 1995.
10. Barotov Sh.R. "Psixologik xizmat". Toshkent. 2018. Navro'z nashriyoti. 487 bet.
11. MaxmudovaD.A. Psixokorreksiya asoslari. –T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2011.-128 b.
12. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2006.. - 162 b.
13. Nishanova.Z . T va boshqalar. Psixologik xizmat. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2014.
14. Nishanova Z.T., Alimova. G.K. Psixologik xizmat. Psixikorrektsiya. Darslik. Toshkent. 2019. OOO"AKTIV PRINT.bosmaxonasida chop etilgan.435 bet.
15. Odamova.O'.K,Nurullayeva.B.B.,"Bog'chada psixologik xizmat samaradorligini oshirish". ,Uslubiy qo'llanma.,"Ilm-Ziyo-Zakovat"., Toshkent. 2020.95 b
16. Odamova.O'.K.,"Psixologlar uchun qirq qoida".,Uslubiy qollanma., .,"Ilm-Ziyo-Zakovat".,Toshkent.2022.157.
17. Safoyev.N, Mirashirova.N.A, Odilova.N.G.,"Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti"., O'quv qo'llanma.Toshkent. 2013.292 b.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN DEVELOPING CONSTRUCTIVE THINKING IN EARLY SCHOOL AGE

Egamova Anbarjon Atanazarovna
Senior lecturer, Department of technological education faculty of exact and natural sciences, Urganch state pedagogical institute

ORCID: 0009-0006-0997-7805

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of the pedagogical and psychological potential of technological education in fostering constructive thinking among primary school students. The study explores the psychological characteristics of primary school age, the developmental features of learning activities, and the role of practical and creative tasks in promoting constructive thinking within the framework of technological education. The possibilities for developing students' independent thinking, problem-solving abilities, modeling skills, and basic design competencies through technological education are substantiated. The research demonstrates that technological education creates favorable conditions for enhancing independent thinking, analytical skills, modeling, and elementary design abilities in young learners. Through hands-on activities, project-based learning, and the integration of modern pedagogical approaches, students are encouraged to analyze tasks, plan actions, and evaluate outcomes, thereby strengthening their constructive and reflective thinking. The article emphasizes that the effective organization of technological education, supported by appropriate methodological tools, significantly contributes to the holistic development of learners and improves the quality of the educational process in primary schools. The findings confirm that technological education plays a crucial role in shaping constructive thinking, creativity, and practical competence, highlighting its scientific relevance and practical significance for the advancement of primary education systems.

Key words: primary school age, constructive thinking, technological education, learning activity, pedagogical and psychological features.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida konstruktiv tafakkurni shakllantirishda texnologik ta'limning pedagogik va psixologik salohiyati nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda boshlang'ich maktab yoshining psixologik xususiyatlari, o'quv faoliyatining rivojlanish jihatlari hamda texnologik ta'lim jarayonida amaliy va ijodiy faoliyatning konstruktiv tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni o'rganiladi. Texnologik ta'lim orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, modellashtirish va elementar loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari texnologik ta'lim yosh o'quvchilarda mustaqil tafakkur, analitik yondashuv, modellashtirish hamda elementar loyihalash malakalarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishini ko'rsatadi. Amaliy mashg'ulotlar, loyiha asosida o'qitish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni integratsiya qilish orqali o'quvchilar topshiriqlarni tahlil qilish, faoliyatni rejalashtirish va natijalarni baholashga o'rganadilar, bu esa ularning konstruktiv va reflektiv tafakkurini mustahkamlaydi. Maqolada metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan texnologik ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi hamda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari texnologik ta'limning konstruktiv tafakkur, ijodkorlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishdagi muhim o'rnini ko'rsatib, uning ilmiy dolzarbligi va amaliy ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich maktab yoshi, konstruktiv tafakkur, texnologik ta'lim, o'quv faoliyati, pedagogik va psixologik xususiyatlar.

Аннотация: В данной статье с теоретической и практической точек зрения анализируется педагогический и психологический потенциал технологического образования в формировании конструктивного мышления у учащихся начальной школы. Рассматриваются психологические особенности младшего школьного возраста, характеристики учебной деятельности и роль практической и творческой активности в развитии конструктивного мышления в процессе технологического образования. Обосновываются возможности развития самостоятельного мышления, навыков решения проблем, моделирования и элементарного проектирования у учащихся посредством технологического образования. Результаты исследования показывают, что технологическое образование создаёт благоприятные условия для формирования самостоятельного мышления, аналитического подхода, навыков моделирования и элементарного проектирования у младших школьников. Через практические занятия, проектно-ориентированное обучение и интеграцию современных педагогических подходов учащиеся учатся анализировать задания, планировать действия и оценивать результаты, что способствует развитию их конструктивного и рефлексивного мышления. Подчёркивается, что методически правильно организованное технологическое образование существенно способствует всестороннему развитию учащихся и повышению эффективности образовательного процесса в начальной школе. Полученные результаты подтверждают важную роль технологического образования в формировании конструктивного мышления, креативности и практических компетенций, что свидетельствует о его научной актуальности и практической значимости для совершенствования системы начального образования.

Ключевые слова: младший школьный возраст, конструктивное мышление, технологическое образование, учебная деятельность, педагогические и психологические особенности.

INTRODUCTION

At the current stage of societal development, one of the most important tasks facing the education system is the development of an individual's intellectual potential and the cultivation of the ability to think independently, creatively, and constructively. In particular, establishing the foundations of a culture of thinking during primary education provides a solid basis for subsequent stages of learning [1]. From this perspective, the development of constructive thinking in elementary school-age children is regarded as one of the most pressing research directions in modern pedagogy and educational psychology. Constructive thinking is characterized by an individual's ability to analyze problematic situations, set goals, plan actions, search for solutions, and evaluate outcomes. In children, this type of thinking is formed not only on the basis of theoretical knowledge but also through practical activity and direct experience [2]. Since the thinking of elementary school students is concrete-operational and concrete-imaginal in nature, the role of practical, hands-on subjects in fostering constructive thinking becomes particularly significant.In this context, technological education possesses substantial pedagogical and psychological potential for developing constructive thinking in young learners. Within this subject area, practical activities such as object creation, modeling, design, and planning technological processes take precedence, encouraging students to think independently, adopt a creative approach, and engage in goal-oriented actions [3]. In the process of technological education, students act as active participants and are given opportunities to apply their knowledge and skills in practice.

Pedagogical and psychological research indicates that organizing the educational process with due consideration of students' age-related and individual characteristics is a key prerequisite for the development of constructive thinking. During the early school years, a child's cognitive activity develops through play, practical engagement, and collaboration. Technological education enables the implementation of active teaching methods aligned with these characteristics, thereby fostering logical, systematic, and creative thinking skills. At the same time, the reforms being implemented in the education system, the introduction of innovative pedagogical technologies, and the increasing demand to prepare students as competitive individuals necessitate a reassessment of the content and methodology of technological education [4]. In particular, a comprehensive pedagogical and psychological examination of the development of constructive thinking through technological education is of both scientific and practical significance. This article analyzes the pedagogical and psychological potential of technological education in fostering constructive thinking at the elementary school age and highlights the theoretical foundations and practical approaches that contribute to the effective organization of this process.

LITERATURE REVIEW

Scientific theories on the pedagogical and psychological potential of technological education in fostering constructive thinking are reflected in the works of Vygotsky, A. N. Leontiev, J. Piaget, I. A. Zimnyaya, J. Bruner, P. Y. Galperin, and V. V. Davydov. In contemporary pedagogical and psychological research, the development of constructive thinking in early school-age children is regarded as an important factor in personal development. In particular, the perspectives of L. S. Vygotsky, J. Piaget, and A. N. Leontiev show that children's cogni-

tive activity develops in close connection with practical activity and the social environment. These theoretical approaches provide a key foundation for scientifically substantiating the pedagogical and psychological potential of technological education [5].

Research findings indicate that technological education creates favorable pedagogical conditions for developing constructive thinking in young school-age learners. N. K. Krupskaya and P. Y. Galperin emphasized that shaping thinking through practical actions in education is effective, and the practical work, design, and modeling activities employed in technological education represent the applied realization of these ideas. Through this process, students develop constructive thinking skills by analyzing problem situations, planning actions, and evaluating outcomes.

RESEARCH METHODOLOGY

From a pedagogical standpoint, the use of active teaching methods in technological education is of great importance for the development of constructive thinking. I. Ya. Lerner and M. N. Skatkin emphasize that problem-based instruction and creative assignments increase students' intellectual activity. The project method, group work, and creative tasks employed in the technological education process teach students to think independently, justify their decisions, and adopt a creative approach. From a psychological perspective, the formation of constructive thinking at early school age is linked to the development of the child's cognitive processes–attention, memory, thinking, and imagination. In the research of B. G. Ananev and D. B. Elkonin, it is noted that at this age learning activity is regarded as the leading activity, in which practical-action and concrete thinking predominate. When technological education is organized with these characteristics taken into account, students' constructive thinking ability develops naturally and effectively.

Moreover, technological education also has a positive impact on socio-psychological development. V. V. Davydov emphasized that organizing education through collaboration fosters the development of higher-order thinking. During group work, students exchange ideas, make decisions collectively, and acquire teamwork skills, which contributes to the development of the social dimensions of constructive thinking. The interrelationship between learning activity and constructive thinking is considered one of the central issues in educational psychology. In the early school years, learning activity emerges as the leading form of activity, and it is precisely in the course of this activity that the child's thinking advances to a qualitatively new stage. Learning activity is a purposeful process aimed at the conscious acquisition of knowledge, skills, and competencies by the student.

In educational theory, it is regarded as a primary factor in personal development. Constructive thinking is a type of thinking directed at analyzing objects and processes in problematic situations, reconstructing them, and generating new solutions. It represents the active restructuring of cognitive processes. The role of problematic situations in learning activity is particularly significant. Elements of problem-based learning encourage students to think critically, teaching them to analyze situations and draw reasoned conclusions. As Davydov noted, theoretical thinking develops precisely through the process of solving learning tasks. Learning tasks include the stages of planning, execution, and evaluation of results. These processes are regarded as the principal mechanisms underlying constructive thinking. Galperin's theory of the gradual formation of mental actions provides the scientific foundation for this process.

ANALYSIS AND RESULTS

Psychological characteristics of learning activity in early elementary school age. At this age, students form internal thinking practices through external actions. Early elementary school age is considered the most favorable period for the development of theoretical thinking [6]. Conditions for developing constructive thinking through learning activities require effectively organized instruction based on problem-based tasks, practical activities, opportunities for independent decision-making, and reflection. The teacher, as the subject who manages and directs learning activity, plays a decisive role in the development of constructive thinking [7]. The connection between learning activities and creativity is evident when learning takes on a creative character, enabling students to develop original thinking and the ability to generate new ideas. This condition ensures a high level of constructive thinking. A number of studies have shown that the level of constructive thinking is higher when practical and project-based methods are applied in learning activities [8].The distinctive characteristics of the psychology of young school-age children are reflected in the rapid development of cognitive processes. Children at this stage are inclined to acquire knowledge through practical activity, and instruction based on demonstration and movement is considered effective. Although concrete-imaginative thinking predominates at this age, elements of logical reasoning gradually begin to form. Reading activity creates important conditions for the development of cognitive abilities, perception, observation skills, memory, and computational skills [9].

A child of this age is distinguished by the sharpness, clarity, and accuracy of perception, the freedom of imagination, the strength of memory, the vividness of thinking, curiosity, and credulity, which set them apart from children of other age groups. During the early school years, engagement in reading activities and exploration of the properties of physical objects significantly influence the development of sensory perception.

In elementary school–aged students, the senses of discrimination, sight, and hearing develop particularly rapidly. Russian researchers have found that the ability to perceive color shades increases by 45% in children aged 7-10 and up to 65% in children up to 12 years of age. Teaching drawing significantly enhances color discrimination sensitivity, while music and singing instruction strongly develops tonal differentiation. Physical education exercises also play a major role in sensory development [10], particularly those involving precise movements, which strengthen muscle-movement sensations.By the time children enter early school age, all forms of perception have largely been refined in content, precision, and clarity through education and upbringing. They differ from other age groups in the accuracy and acuity of perception. Because they observe the surrounding world attentively, they master essential perceptual characteristics. A first-grade child can recognize the color, shape, size, and spatial arrangement of objects and compare them effectively. A high level of sensory development is crucial for successful academic performance. By school age, typically developing children understand that drawings and photographs reflect real life and can interpret miniature representations of real-world objects [11]. These visual representations contribute to the development of aesthetic and artistic taste, enabling children to understand and express their feelings about beauty and color diversity. During the educational process, voluntary perception and observation skills grow, and observation becomes a necessary condition for successful learning. Students at this age can independently regulate their perceptions. Compared to adults, they can easily estimate and divide a straight line into two equal parts, compare objects and lines by size, determine spatial arrangements, visually estimate distance and height, and approximately calculate the time required to cover a distance. Learning activity requires retention of instructional material; the teacher provides guidance on what should be remembered.

At this stage, involuntary memory predominates, and retention largely depends on the child's interest. Understanding material is the primary condition for effective retention. Because the first signal system is somewhat superior to the second, young school-age students rely more on concrete-dynamic memory than on logical memory. Therefore, they more easily retain concrete events, images, and phenomena than abstract rules and theoretical concepts [12]. As schooling progresses, logical memorization based on meaning increases, the volume of retained material expands, and comprehension deepens. However, students may sometimes resort to mechanical memorization without meaningful understanding. A young school-age child typically develops a positive emotional relationship with the teacher. Whereas earlier learning occurred under direct adult guidance, children gradually begin to seek information independently and set goals for themselves, indicating a certain level of memory and cognitive development [13]. A well-organized educational process significantly enhances thinking development. School education transforms a child's lifestyle, social status, and role within both the classroom and family environment. Learning activities are governed by a complex, multi-level system of motives, with social motives predominating in first-grade students, including the desire for social recognition and participation in socially valued activities. The content of education is closely connected with students' interest in knowledge acquisition and satisfaction derived from intellectual effort. Encouragement from the teacher fosters enthusiasm and confidence, supporting knowledge mastery and skill development.

According to V. V. Davydov, the teaching process begins with familiarization with key components of learning activity: learning tasks, learning situations, learning actions, monitoring, and assessment. Mastery of learning activity occurs through solving systems of learning tasks. Initially, the teacher formulates and guides task-solving; gradually, students acquire the competencies necessary for independent learning, marking an important stage in the formation of autonomous learning activity. The development of self-control is indicated by a child's ability to compare the results of independent actions with behavioral standards. Reflection during early school years is primarily linked to monitoring and assessment within learning activities. Internalization of these processes enables students to independently master skills and competencies [14]. Recent research demonstrates that group-based learning organized around mutual supervision and shared responsibility fosters the development of independent thinking more effectively than purely individual forms of instruction. Learning activity and constructive thinking are intrinsically interconnected, each reinforcing the other, particularly during the early school years. Technological education provides significant pedagogical opportunities for developing constructive thinking through practical work, design, modeling, and creative assignments, enabling students not only to acquire knowledge but also to apply it in practice.

The psychological mechanisms underlying constructive thinking involve the coordinated functioning of attention, memory, imagination, and reasoning processes. Practical activity represents a process in which students learn not merely by receiving knowledge but by applying, restructuring, and creating it. Based on the principle of "learning by doing," this approach promotes independent knowledge construction and prob-

lem-solving skill development. Through practical tasks, students integrate theoretical knowledge with interactive ideas, apply it in diverse contexts, and activate cognitive mechanisms for generating new knowledge. Working with materials, planning, and analyzing results fosters constructive thinking. Technology education thus possesses strong pedagogical and psychological potential for enhancing constructive thinking in young school-age students, contributing to improved educational quality. Modern educational priorities emphasize fostering constructive thinking, particularly in the context of rapid technological advancement. Students must not only acquire knowledge but also analyze, process, and creatively apply it while making independent decisions. Research findings confirm that technology education creates a favorable environment for developing constructive thinking by engaging students in object creation, design, modeling, and problem-solving processes [15]. Active methods such as project-based learning, creative assignments, group collaboration, and hands-on activities promote analytical, synthetic, comparative, generalization, and reflective skills.

Psychologically, technological education stimulates cognitive development during the transition from concrete-imaginative to logical thinking. Visual aids and tangible results enhance attention, interest, and motivation, fostering active engagement in thinking processes. Additionally, collaborative activities support socio-psychological development, including cooperation, dialogue, and social reasoning skills. Effective organization of technological education depends on the teacher's professional competence, openness to innovation, and psychologically informed guidance, encouraging independent inquiry, reflection on errors, and creative problem-solving, thereby transforming technological education into a powerful tool for developing constructive thinking.

CONCLUSION

In conclusion, the pedagogical and psychological potential of technological education in developing constructive thinking among primary school students is broad and multifaceted. Through this subject, students develop creative approaches, independent thinking, practical problem-solving skills, and the ability to evaluate the results of their own activities. Therefore, improving the content of technological education within the primary education system, organizing it on the basis of modern pedagogical technologies, and strengthening methodological support aimed at fostering constructive thinking are considered to be of significant scientific and practical importance. Moreover, technological education creates favorable conditions for the formation of a positive attitude toward learning, self-confidence, and responsibility for one's own learning process. The integration of modern pedagogical technologies–such as interactive methods, collaborative learning, and learner-centered approaches–enhances students' engagement and supports the systematic development of constructive thinking from an early age.

Consequently, the continuous improvement of the content, structure, and teaching methodologies of technological education within the primary education system holds substantial scientific significance and practical value. It contributes to the formation of a competent, innovative, and adaptable generation capable of responding effectively to contemporary educational and societal challenges, while also providing a solid foundation for lifelong learning and creative self-realization.

References:

1. A. N. Leontiev, Activity, Consciousness, Personality. Moscow, Russia: Politizdat, 1975.
2. J. Piaget, The Psychology of Intelligence. Moscow, Russia: Pedagogika, 1969.
3. I. A. Zimnyaya, Pedagogical Psychology. Moscow, Russia: Logos, 2004.
4. J. S. Bruner, The Process of Education. Cambridge, MA, USA: Harvard University Press, 1960.
5. P. Ya. Galperin, Introduction to Psychology. Moscow, Russia: Moscow State University Press, 1976.
6. L. S. Vygotsky, Thinking and Speech. Moscow, Russia: Pedagogy, 1974.
7. V. V. Davydov, Theory of Developmental Education. Moscow, Russia: Intor, 1996.
8. L. S. Vygotsky, Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA, USA: Harvard University Press, 1978.
9. A. R. Luria, Cognitive Development: Its Cultural and Social Foundations. Cambridge, MA, USA: Harvard University Press, 1976.
10. J. Dewey, Experience and Education. New York, NY, USA: Macmillan, 1938.
11. R. J. Sternberg, Cognitive Psychology, 5th ed. Belmont, CA, USA: Wadsworth, 2009.
12. B. Bloom, Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York, NY, USA: Longmans, Green, 1956.
13. A. Bandura, Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ, USA: Prentice Hall, 1977.
14. E. Thorndike, Educational Psychology. New York, NY, USA: Teachers College Press, 1913.
15. D. P. Ausubel, Educational Psychology: A Cognitive View. New York, NY, USA: Holt, Rinehart and Winston, 1968.

SHAXSDA EMPATIYA SHAKLLANISHINING YOSH DAVRLAR BO'YICHA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kurbanova Zaynab Jurakulovna
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti "Pedagogika" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsda empatiya – boshqalarning hissiy holatini tushunish, his qilish va unga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatining rivojlanish jarayoni yosh davrlari bo'yicha keng yoritiladi. Maqolada empatiyaning rivojlanishi, uning psixologik mazmuni, tarkibiy qismlari, rivojlanish bosqichlari hamda turli yosh davrlarida namoyon bo'ladigan individual-psixologik farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalik, o'smirlik va yetuklik davrlarida empatiya shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar – oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, kommunikativ tajriba, emotsional intellekt darajasi va shaxs temperamenti kabi jihatlarning o'rni alohida ko'rib chiqiladi. Maqolada empatiyaning rivojlanish dinamikasi, ta'lim-tarbiya jarayonida empatik yondashuvning ahamiyati hamda pedagogik psixologiyada qo'llaniladigan samarali metodlar nazariy va amaliy asoslarda bayon etiladi. Ushbu ish empatiyaning yoshga oid xususiyatlarini chuqur yoritib, pedagoglar, psixologlar va defektologlar uchun amaliy ahamiyatga ega ilmiy-uslubiy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: empatiya, tushunchalar tahlili, emotsional intellekt, ijtimoiy ko'nikmalar, his-tuyg'ularni anglash, metodik yondashuv, kognitiv rivojlanish, tahlil metodikasi, psixometodika.

Abstract: This article comprehensively examines the development of empathy as an individual's ability to understand, feel, and appropriately respond to the emotional states of others across different age periods. It analyzes the psychological content of empathy, its structural components, stages of development, and individual psychological differences manifested at various ages. The study also considers the role of factors influencing the formation of empathy in childhood, adolescence, and adulthood, including family upbringing, social environment, communicative experience, level of emotional intelligence, and personality temperament. The dynamics of empathy development, the significance of an empathetic approach in the educational process, and effective methods used in pedagogical psychology are described on both theoretical and practical grounds. The work highlights age-specific characteristics of empathy and serves as a scientific and methodological resource of practical value for educators, psychologists, and defectologists.

Key words: empathy, conceptual analysis, emotional intelligence, social skills, understanding emotions, methodological approach, cognitive development, analytical methodology, psychomethodology.

Аннотация: В данной статье широко рассматривается развитие эмпатии у личности как способности понимать, чувствовать и адекватно реагировать на эмоциональное состояние других людей в соответствии с возрастными особенностями. Анализируются психологическое содержание эмпатии, её компоненты, этапы развития, а также индивидуально-психологические различия, проявляющиеся в разные возрастные периоды. Отдельно раскрывается роль факторов, влияющих на формирование эмпатии в детском, подростковом и взрослом возрасте: семейного воспитания, социальной среды, коммуникативного опыта, уровня эмоционального интеллекта и темперамента личности. На теоретической и практической основе описываются динамика развития эмпатии, значение эмпатического подхода в образовательном процессе, а также эффективные методы, применяемые в педагогической психологии. Работа глубоко освещает возрастные особенности эмпатии и служит научно-методическим ресурсом, имеющим практическое значение для педагогов, психологов и дефектологов.

Ключевые слова: эмпатия, концептуальный анализ, эмоциональный интеллект, социальные навыки, понимание эмоций, методологический подход, когнитивное развитие, аналитическая методология, псих методология.

KIRISH

Empatiya – bu shaxsning boshqa insonning hissiy holatini, kechinmalarini, psixologik ahvolini bilvosita yoki bevosita anglab yetish, uni ichki tajribada qayta his qilish, idrok etish va shu asosda ma'lum darajada moslashgan, maqsadga yo'naltirilgan, ijtimoiy jihatdan maqbul reaksiya ko'rsatish qobiliyatidir; ushbu murakkab psixologik jarayon nevropsixologik mexanizmlar, kognitiv jarayonlar, affektiv komponentlar, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy ong va madaniy omillarning o'zaro integratsiyasi orqali namoyon bo'ladi hamda insonning ijtimoiy mavjudot

sifatidagi shakllanishida asosiy determinantlardan biri sifatida qaraladi, chunki empatik idrok shaxslararo muloqotni chuqurlashtiradi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, konfliktlarni yumshatadi, tolerantlikni rivojlantiradi, prosotsial xulq-atvorni kuchaytiradi, ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni muvozanatga keltiradi, turli yosh bosqichlarida psixik rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi; shuningdek, nevrologik jihatdan qaralganda, empatiya miya po‘stlog‘ining prefrontal zonalari, o‘rta singulyar soha, amigdala, oyna neyronlar tizimi, insula va limbik strukturalarning koordinatsiyalashgan faoliyati natijasida shakllanadi.

Bu jarayon hissiy rezonans, kognitiv perspektivani qabul qilish, mentalizatsiya, affektiv javob, ichki regulyatsiya va irodaviy boshqaruv kabi funksiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir; empatiyaning yetishmasligi shaxslararo munosabatlarda o‘zaro tushunishning pasayishiga, agressiya darajasining ortishiga, nevrotik buzilishlarga va ijtimoiy moslashuvning sustlashuviga olib kelishi mumkin, buning aksincha, yuqori darajadagi empatik kompetensiya pedagogik faoliyatda, tibbiyotda, psixologik yordam tizimida, oilaviy munosabatlarda, jamiyatning ijtimoiy muvozanatini ta’minlashda, shuningdek, rahbarlik fazilatlarini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi, chunki empatiya o‘zgalar hissiyotlarini chuqur tushunish, ehtiyojlarni aniqlash, shaxsning individual farqlarini hisobga olgan holda munosabat strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi, natijada jamiyatda o‘zaro hurmat, ijtimoiy birdamlik, hamkorlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tamoyillari mustahkamlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Empatiya fenomenining psixologik tuzilmasi va uning inson faoliyatidagi ahamiyati yanada chuqurroq tahlil qilinganda, ushbu tushuncha shaxsning affektiv sezgirligi, kognitiv tafakkuri, ijtimoiy tajribasi, madaniy identifikatsiyasi, til va muloqot kompetensiyalari, shuningdek, neyrofiziologik reaktivligi bilan uzviy bog‘langanligi ko‘rinadi, chunki empatiya jarayonida shaxs boshqasining hissiy holatini nafaqat sezadi, balki uni o‘z ichki psixologik tizimida qayta ishlab, subyektiv nuqtai nazardan baholaydi, shu bilan birga o‘z axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy me’yorlari doirasida unga mos javobni shakllantiradi, bu esa empatiyaning uch asosiy komponenti – affektiv rezonans, kognitiv perspektivani qabul qilish va ijtimoiy-regulyativ boshqaruvning yaxlit mexanizm sifatida ishlashini anglatadi; xususan, affektiv rezonans boshqa insonning hislarini qalban his qilish, his-tuyg‘ularni bevosita qabul qilish va ularga ichki sezgirlik orqali javob berish jarayonini ifodalaydi, kognitiv empatiya esa boshqaning psixologik holatini aql bilan tushunish, uning niyatlari, motivlari, tafakkur jarayonini tahlil qilish hamda unda sodir bo‘layotgan mental jarayonlarni tasavvur qilish qobiliyatidir, ijtimoiy-regulyativ komponent esa shaxsning empatik idrok asosida moslashgan, maqbul, etik va konstruktiv xulq ko‘rsatish strategiyalarini tanlashini anglatadi; ushbu uch komponentning uyg‘unlashuvi natijasida inson yanada chuqurroq ijtimoiylashadi, o‘zaro muloqot sifati yuksaladi, ijtimoiy intellekt shakllanadi, konfliktlar kamayadi, hamkorlik kuchayadi, o‘zaro tushunish darajasi oshadi va jamiyatda psixologik muvozanat ta’minlanadi, zero empatiya shaxsning ruhiy yetuklik darajasi, ijtimoiy mas’uliyati, axloqiy ongi shakllanishi, atrofdagilarga nisbatan mehr-shafqat, bag‘rikenglik va insonparvarlik kabi ijobiy sifatlarning rivojlanishida yetakchi psixologik omil hisoblanadi.

Shuningdek, empatiya bolalik davridan boshlab shakllanib, takomillashib borishi rivojlanish psixologiyasi doirasida alohida o‘rganiladi, chunki erta bolalikda kattalarning e’tibori, mehr-muhabbati, muloqot sifati, ota-ona bilan emotsional aloqa darajasi, oila muhitidagi psixologik barqarorlik, ijtimoiy model sifatida namoyon etilayotgan xulq me’yorlari empatiyaning keyingi bosqichlarda qanchalik kuchli bo‘lishini belgilaydi, bu jarayon maktabgacha yoshda rolli o‘yinlar, tengqurlar bilan o‘zaro muloqot, ijtimoiy vaziyatlarni idrok etish orqali yanada mustahkamlanadi, o‘smirlik davrida esa abstrakt fikrlash, axloqiy ong, ijtimoiy identifikatsiya va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari kuchaygani sari empatik qobiliyat yanada murakkablashadi, kattalik davrida esa empatiya shaxsning kasbiy kompetensiyalarini belgilovchi omilga aylanadi, masalan, pedagoglar, psixologlar, shifokorlar, ijtimoiy ishchilar, huquq-tartibot xodimlari, rahbarlar hamda ota-onalar uchun yuqori empatik sezgirlik kasbiy va ijtimoiy funksiyalarni samarali bajarishning ajralmas sharti hisoblanadi, chunki empatiya orqali ular boshqalarning ehtiyojlarini aniq his qiladi, to‘g‘ri yo‘naltiradi, moslashadi, tushunadi va ijtimoiy jarayonlarga nisbatan ehtiyotkor munosabatni namoyon etadi; shuningdek, empatiya ijtimoiy psixologiyada prosotsial xulqni rag‘batlantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida izohlanadi, chunki boshqalar dardini tushunish, ularning qiyinchiliklariga befarq bo‘lmaslik, yordamlashish istagi va ijtimoiy birdamlik tamoyillari aynan empatik idrokdan kelib chiqadi, natijada jamiyatda kooperativlik, o‘zaro ko‘mak, hamjihatlik kuchayadi, shaxslararo masofa qisqaradi va psixologik xavfsizlik muhitiga erishiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Empatiyaning shakllanish jarayoni nafaqat individual psixik rivojlanishga, balki ijtimoiy-madaniy omillarga ham bevosita bog‘liq bo‘lib, turli jamiyatlarda empatiyaning namoyon bo‘lishi, uning qadriyat sifatida qabul qilinishi, ijtimoiy normalar bilan mustahkamlanishi hamda kommunikativ madaniyat darajasi bilan uyg‘unlashishi

farqlanadi. Sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, kollektivistik jamiyatlarda empatiya ko'proq guruh manfaatlari, o'zaro yordam va jamoaviy birdamlik asosida shakllansa, individualistik jamiyatlarda u shaxsiy chegaralar, mustaqillik, o'z-o'zini anglash va boshqalarga nisbatan mas'uliyatli yondashuv bilan bog'liq tarzda rivojlanadi. Shuningdek, madaniyatlararo muloqotda empatiya universal psixologik mexanizm sifatida turlicha talqin qilinadi, chunki verbal va noverbal kommunikatsiya, hissiy ifoda darajasi, ijtimoiy rollar hamda odob-axloq me'yorlari turli madaniyatlarda farqlanadi. Shu bois boshqa insonning hissiyotini to'g'ri tushunish va sharhlash jarayonida madaniy kontekst muhim rol o'ynaydi, bu esa empatiyaning kognitiv komponentini yanada murakkablashtiradi.

Nevropsixologik nuqtai nazardan qaraganda, empatiya jarayoni oyna neyronlar tizimining faolligi, hissiy stimullarga nisbatan limbik tizim reaksiyasi, prefrontal korteksning regulyativ funksiyalari hamda insulaning interoseptiv sezgirligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, oyna neyronlar tizimi insonning boshqaning harakatlari, mimikasi, intonatsiyasi va hissiy holatini ichki tajribada aks ettirish imkonini berib, empatiyaning affektiv komponentiga asos bo'ladi. Shu bilan birga, empatiyaning haddan tashqari kuchaygan holati yoki noto'g'ri boshqarilishi psixologik zo'riqish, emotsional charchoq, "burnout" sindromi, ortiqcha ichki qo'rquv, xavotir hamda boshqalarning muammolarini o'z zimmasiga ortiqcha olish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois empatiya jarayoni muvozanatlangan psixik regulyatsiya asosida boshqarilishi zarur, ya'ni shaxs boshqaga hamdard bo'lishi va uning hissiyotini his qilishi bilan birga, o'z chegaralarini, ruhiy salomatligini hamda emotsional mustahkamligini nazorat qila olishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixologiyada "sog'lom empatiya" yoki "balansli affektiv rezonans" atamalari qo'llaniladi; empatiyaning davlat boshqaruvi, ijtimoiy siyosat, huquq-tartibot tizimi, tibbiyot, ta'lim, psixologiya, ijtimoiy xizmatlar, rahbarlik faoliyati, bolalar tarbiyasi va oila instituti kabi sohalarda tutgan o'rni nihoyatda kengdir. Masalan, ta'lim tizimida empatik yondashuv bolalarning individual xususiyatlarini tushunish, stresssiz o'qitish, motivatsiyani kuchaytirish, o'quvchilarda o'z-o'ziga ishonch uyg'otish hamda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Tibbiyot sohasida empatiya shifokorning bemor bilan samarali kommunikatsiyasini mustahkamlab, psixologik yordam va davolash jarayoniga bo'lgan ishonchni oshiradi hamda psixosomatik tiklanish tezligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Huquq-tartibot tizimida esa empatiya insoflilik, fuqarolar bilan muomala madaniyati, vaziyatni to'g'ri baholash, zo'ravonlikni kamaytirish va konfliktlarni yumshatish kabi ko'nikmalarni rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Oilaviy munosabatlarda empatiya o'zaro hurmat, mehr, sabr va tushunish muhitini shakllantirib, nizolarning oldini olish, farzand tarbiyasini sog'lom muhitda olib borish hamda psixologik yaqinlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Bolalar bilan aloqada empatik muloqot ularning emotsional barqarorligini, o'z his-tuyg'ularini ifoda etish ko'nikmalarini, boshqalarga nisbatan hurmatni va ijtimoiy moslashuvni rivojlantiradi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, empatiya darajasi yuqori bo'lgan bolalar tengdoshlari bilan oson til topishadi, agressiv xulqdan yiroq bo'ladilar hamda psixologik sog'lomligi yuqori bo'ladi. Shu bois zamonaviy ta'lim tizimida ijtimoiy-emotsional o'rganish (SEL - Social Emotional Learning) dasturlarida empatiya asosiy kompetensiyalardan biri sifatida belgilangan. Buning tarixiy ildizlari ham mavjud, chunki insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mehr-shafqat, hamdardlik va o'zaro ko'mak asosiy ijtimoiy qadriyat bo'lib kelgan. Bugungi kunda ilmiy psixologiya ushbu qadriyatni chuqur o'rganilayotgan konsept sifatida tasdiqlab, uni inson ongining muhim mexanizmlaridan biri sifatida talqin qiladi. Empatiya shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonida ham muhim omil bo'lib, boshqa insonlarning hissiy dunyosini tushunishga qaratilgan har bir jarayon aslida shaxsning o'z his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini, ruhiy ehtiyojlarini va emotsional reaksiyalarini anglashiga xizmat qiladi. Bu jarayon refleksiya, mentalizatsiya va metakognitiv fikrlashni kuchaytiradi. Empatiyasi kuchli insonlar, odatda, psixologik barqaror, ijtimoiy moslashgan, axloqiy qarorlar qabul qilishda puxta hamda kommunikativ kompetensiyalari rivojlangan bo'ladi.

Empatiya atamasi psixologiya va pedagogikada keng qo'llaniladi. Ushbu tushuncha insonning boshqa shaxslarning hissiy holatini anglash, ularga nisbatan munosabat bildirish va ijtimoiy muloqot jarayonida muvofiqlikni ta'minlash qobiliyatini anglatadi. Empatiya ikki asosiy komponentdan iborat:

- hissiy komponent - boshqa shaxsning his-tuyg'ularini his qilish va ular bilan emotsional bog'lanish qobiliyati;
- kognitiv komponent - boshqa shaxsning psixologik holatini anglash, ularning niyatlarini tushunish hamda hissiy holatini baholash qobiliyatidir.

Pedagogik jihatdan empatiya shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'quvchilarni o'zaro muloqotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli pedagogik jarayonda empatiya rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarda hissiy sezgirlik va ijtimoiy tafakkurni oshirishga qaratilgan metod hamda vositalarni qo'llash zarur.

Empatiya pedagogik jarayonda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy intellektini rivojlantirish;
- boshqalar bilan muloqotdagi muvaffaqiyatini oshirish;
- jamoaviy ish va guruhdagi muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytirish;
- shaxsiy o‘z-o‘zini anglash va o‘zini baholash qobiliyatini rivojlantirish.

Empatiya shakllanishi yosh davrlari bo‘yicha bosqichma-bosqich kechadi: bolalik davrida hissiy sezgirlik ustun bo‘lsa, o‘smirlik davrida kognitiv va ijtimoiy tafakkur faol rivojlanadi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun tushunchalar tahlili, rolli o‘yinlar, situatsion vazifalar va guruh muhokamalari kabi metodlar samarali hisoblanadi.

XULOSA

Shaxsda empatiyaning shakllanishi bosqichma-bosqich kechadigan murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u har bir yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bolalik davrida empatiya asosan taqlid, kattalarning hissiy qo‘llab-quvvatlashi va oiladagi emotsional muhit ta’sirida shakllanadi. Maktab yoshida kommunikativ tajriba kengayib, bola boshqalarning hissiyotlarini tushunish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish hamda ijtimoiy vaziyatni baholash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘smirlik davrida empatiya yanada murakkablashib, boshqalar nuqtayi nazarini anglash, ijtimoiy mas’uliyatni his etish va muloqot madaniyatini shakllantirish orqali mustahkamlanadi. Yetuklik davriga kelib, empatiya shaxsning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va samarali muloqot qobiliyatining muhim omiliga aylanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, empatiyaning rivojlanishi tarbiya, ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar hamda shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir. Shu bois empatiyani har bir yosh bosqichida maqsadli ravishda rivojlantirish, bolalar va o‘smirlar bilan ishlashda emotsional-intellektual yondashuvlarni qo‘llash shaxsning barkamol shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayev R. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2017.
3. Xolbekov A. Yosh davrlar psixologiyasi. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2020.
4. Qodirova F., Sayfullayeva R. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Москва: Педагогика, 2018.
6. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 2016.
7. Rogers C. A Theory of Personality and Humanistic Psychology. – New York: Free Press, 2015.
8. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2012.

VOLEYBOLCHILARNING TEZKOR-KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich
Navoiy davlat universiteti "Sport faoliyati turlari" kafedrasi dotsenti

Samatova Maftuna Sohib qizi
San'at va sport fakulteti XQS guruhi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy-uslubiy maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari – voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda tezkor-kuch tushunchasining sport faoliyatidagi o'rni, voleybol o'yinidagi ahamiyati hamda mashg'ulot jarayonida ushbu sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy uslubiy yondashuvlar tahlil qilindi. Mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish, mashqlarni tanlash va ularning samaradorligini baholash mezonlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari OTM sharoitida voleybol mashg'ulotlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: voleybol, tezkor-kuch sifatlari, jismoniy tayyorgarlik, sport mashg'uloti, OTM talabalari, metodika.

Abstract: This scientific and methodological article examines the theoretical and practical foundations of developing speed-strength abilities in university student volleyball players. The study analyzes the role of speed-strength abilities in competitive volleyball activity and highlights their importance in performing technical and tactical actions. Modern methodological approaches to the development of these abilities in the training process are substantiated, along with the principles for planning training loads and selecting special exercises. The research findings can be used to improve the educational and training process in volleyball within higher education institutions.

Key words: volleyball, speed-strength abilities, physical training, training process, university students, methodology.

Аннотация: В данной научно-методической статье рассматриваются теоретические и практические основы развития скоростно-силовых качеств у студентов-волейболистов высших учебных заведений. В исследовании проанализирована роль скоростно-силовых качеств в соревновательной деятельности волейболистов, раскрыта их значимость при выполнении технико-тактических действий. Обоснованы современные методические подходы к развитию данных качеств в процессе тренировочных занятий, а также принципы планирования тренировочных нагрузок и подбора специальных упражнений. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования учебно-тренировочного процесса по волейболу в условиях высших учебных заведений.

Ключевые слова: волейбол, скоростно-силовые качества, физическая подготовка, тренировочный процесс, студенты, методика.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda qabul qilingan qator qaror va farmonlarda oliy ta'lim muassasalarida sport mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil etish, talabalar jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda sport zaxirasini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni "Jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hujjatida yoshlarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash, sport turlarini, jumladan, voleybolni ommalashtirish, sport mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish, talabalar salomatligini mustahkamlash hamda sport faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish muhim vazifalar sifatida qayd etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar ijrosidan kelib chiqqan holda voleybolchilar, xususan, OTM talabalari uchun tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-uslubiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki voleybol o'yinida hujum zarbalari, to'siq qo'yish va tezkor harakatlar aynan tezkor-kuch sifatlarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Voleybol jamoaviy sport o'yini bo'lib, u yuqori darajadagi tezkorlik, kuch, chaqqonlik va koordinatsiyani talab etadi. Mazkur sport turi XIX asr oxirida shakllangan bo'lib, bugungi kunda butun dunyoda keng ommalashgan hamda Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. Voleybol o'yini qisqa vaqt oralig'ida yuqori intensivlikdagi harakatlar bilan tavsiflanadi, bu esa sportchilarning tezkor-kuch sifatlariga bo'lgan ehtiyojini yanada oshiradi. Voleybol o'yin faoliyatining asosiy texnik elementlariga hujum zarbasi, to'siq qo'yish (blok), to'pni uzatish va qabul qilish harakatlari kiradi. Ushbu harakatlarning samarali bajarilishi sportchilarda portlovchi kuch, tezkorlik hamda mushaklarning yuqori darajadagi qisqarish qobiliyati bilan bevosita bog'liq.

Ayniqsa, sakrash bilan bog'liq harakatlar (hujum va blok) voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, voleybolchilarning o'yin jarayonida bajaradigan sakrashlar soni bir uchrashuv davomida o'rtacha 60-100 martani tashkil etadi. Bu holat pastki va yuqori tana mushaklarining kuch hamda tezkorlik sifatlari yetarli darajada rivojlangan bo'lishini talab etadi. Shu sababli voleybol mashg'ulotlarida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar tizimi muhim o'rin egallaydi. OTM sharoitida voleybol mashg'ulotlari nafaqat sport natijalarini oshirish, balki talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy rivojlanishni ta'minlash hamda ijtimoiy faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan voleybol sport turining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish ilmiy-uslubiy tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot maqsadi – OTM talaba voleybolchilarida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning samarali ilmiy-uslubiy asoslarini aniqlash va asoslab berish.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- tezkor-kuch sifatlarining nazariy-pedagogik mohiyatini tahlil qilish;
- voleybol o'yinida tezkor-kuch sifatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash;
- OTM sharoitida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish;
- mashg'ulot jarayonida yuklamalarni rejalashtirishning ilmiy asoslarini yoritish.

Tezkor-kuch sifatlari bu mushaklarning qisqa vaqt ichida katta kuch hosil qilish qobiliyatidir. Sport nazariyasida ushbu sifatlar "portlovchi kuch" sifatida ham talqin qilinadi. Voleybolda tezkor-kuch sifatlari sakrash balandligi, zarba tezligi hamda harakatlarning aniqligida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda tezkor-kuch sifatlari asosan nerv-mushak tizimining funksional holati, mushak tolalarining tarkibi hamda harakat koordinatsiyasi bilan izohlanadi. Talaba yoshidagi sportchilarda mazkur sifatlarni rivojlantirish uchun yuklamalar me'yorlangan holda va bosqichma-bosqich oshirib borilishi lozim.

Voleybol mashg'ulotlarida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish metodikasi

OTM sharoitida voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish quyidagi metodik tamoyillarga asoslanadi:

- bosqichlilik, ya'ni mashqlar murakkabligi va yuklama hajmining asta-sekin oshirilishi;
- maqsadga yo'naltirilganlik, ya'ni mashqlarning voleybol texnik harakatlariga mosligi;
- takroriylik va variantlilik, ya'ni bir xil harakatlarning turli sharoitlarda bajarilishi;
- individual yondashuv, ya'ni talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olish.

Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda joyidan va yugurib kelib sakrash mashqlari, tibbiy to'p (medbol) bilan uloqtirish mashqlari, qisqa masofaga maksimal tezlikda harakatlanish hamda plyometrik mashqlar (sakrashlar, to'siqlardan oshish) samarali hisoblanadi.

Mashg'ulot jarayonida tezkor-kuch mashqlari asosiy qismda, organizm nisbatan kam charchagan holatda bajarilishi tavsiya etiladi. Yuklama intensivligi yuqori, davomiyligi esa qisqa bo'lishi lozim. Mashqlar orasida yetarli tiklanish vaqtining berilishi mushak faoliyatining samaradorligini oshiradi. Haftalik mashg'ulotlar rejasida tezkor-kuch mashqlari 2-3 marta qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval: **Voleybolchilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tavsifi**

Mashq turi	Mashq mazmuni	Takrorlar soni	Dam olish vaqti	Ta'sir yo'nalishi
Joyidan sakrash	Ikki oyoqda maksimal balandlikka sakrash	8–10 marta	60–90 soniya	Portlovchi kuch
Yugurib kelib sakrash	Hujum zarbasi oldidan sakrash	6–8 marta	90 soniya	Tezkor-kuch
Medbol uloqtirish	Oldinga va yuqoriga uloqtirish	6–10 marta	60 soniya	Yuqori tana kuchi
To'siqdan sakrash	Past to'siqlardan ketma-ket sakrash	8–12 marta	90 soniya	Koordinatsiya va kuch

1-jadvalda mashqlar tizimining mazmuniy va metodik asoslari tahlil qilingan.

2-jadval: **OTM talabalari voleybolchilari uchun haftalik tezkor-kuch yuklamalarini rejalashtirish modeli**

Mashg'ulot kuni	Mashg'ulot yo'nalishi	Mashqlar ulushi (%)	Intensivlik darajasi	Izoh
Dushanba	Tezkor-kuch	30–35	Yuqori	Sakrash va plyometrik mashqlar
Chorshanba	Texnik + tezkor-kuch	20–25	O'rtacha	Texnika bilan uyg'unlashtirilgan
Juma	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	30	Yuqori	Medbol va tezkor harakatlar
Shanba	Tiklanish mashqlari	10–15	Past	Yengil mashqlar va cho'zilish

2-jadvalda haftalik yuklama rejalashtirishning pedagogik va fiziologik izohi berilgan.

XULOSA

OTM talaba-voleybolchilarida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish mashg'ulot jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan mashqlar tizimi hamda to'g'ri rejalashtirilgan yuklamalar sportchilarning texnik-taktik harakatlarni samarali bajarishiga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari voleybol mashg'ulotlarini takomillashtirishda, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Taklif va tavsiyalar sifatida oliy ta'lim muassasalarida voleybol mashg'ulotlarini rejalashtirishda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish maqsadga muvofiqdir, mashg'ulot jarayonida plyometrik mashqlar, sakrashlar va tibbiy to'p bilan bajariladigan mashqlarni muntazam qo'llash orqali portlovchi kuchni rivojlantirish zarur, talaba-voleybolchilarning individual jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda yuklamalarni differensiallashtirish tavsiya etiladi, tezkor-kuch sifatlarini baholashda muntazam pedagogik testlar (vertikal sakrash, tezkor yugurish, uloqtirish mashqlari) o'tkazib borilishi lozim, mashg'ulot samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalar, jumladan, video tahlil va monitoring vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan OTM jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari dasturlarini takomillashtirishda hamda sport to'garaklari faoliyatida keng foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924-son Farmoni (24.01.2020) "Jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Voleybol kabi sport turlarida jismoniy tayyorgarlikni ilmiy asosda tashkil etish bo'yicha davlat siyosati.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (28.01.2022) "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". – Oliy ta'limda sport mashg'ulotlarini samarador qilish bo'yicha strategik yo'riqnoma.
3. Ali Hameed Ali AlZubaidi. Speed Strength Training and Its Impact on Developing Speed Specific Power in the Arms and Legs // Indonesian Journal of Physical Education and Sport Science. – Vol. 5, No. 3, 2025. – Qo'l va oyoqning tezkor kuch qobiliyatini shakllantirish bo'yicha trening dasturi va texnik ko'rsatkichlarga ta'siri tahlili.
4. Anthony Weldon va boshq. Strength and Conditioning Practices and Perspectives of Volleyball Coaches and Players // Sports. – 9 (2):28, 2021. – Voleybol bo'yicha kuch va shiddat tayyorgarligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va murabbiy fikrlari.
5. Bompa T. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Champaign, 2018.
6. Karimov F.X. Sport o'yinlarida jismoniy tayyorgarlik asoslari. – Toshkent, 2019.
7. Orziqulova A. Voleybolchilarda tezkor kuch sifatlarini rivojlantirishda plyometrik mashqlar majmuasining samaradorligini o'rganish. – 2024. – Plyometrik usullar bilan tezkor kuchni rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanish.

8. Platonov V.N. Sportchilar tayyorgarligi nazariyasi va metodikasi. – Kiev, 2015.
9. Po'latova S.I. Voleybolchilar sport trenirovkalarining umumiy asoslari // So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2024. – Sport trenirovkasining prinsiplari va yuklamalarni rejalashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar.
10. Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar. Voleybol texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar. – 2024. – Voleybol texnik harakatlari va ularni takomillashtirishga oid jismoniy mashqlar tizimi.
11. Sirojov O.O. "Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari". Monografiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
12. Sirojov O.O. "Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentliligini rivojlantirish texnologiyalari" pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
13. Sirojov O.O. Physical education and sports – the basis of a healthy lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 05, № 10. – B. xx-yy. – ISSN 2692-5206. – 1232-1234 pp.
14. Strength and Conditioning for Volleyball: A Review. – 2025. – Voleybolchilar uchun kuch-shiddat tayyorgarligi bo'yicha zamonaviy ilmiy tahliliy sharh.
15. Tommy Keller. Volleyball Fitness & Strength Training: The Complete Guide to Build Power, Jump Higher, Move Faster, and Stay Injury Free All Season. – Amazon Digital Services LLC, 2025. – Voleybolchilar uchun tezkor kuch va kuchni oshirish bo'yicha zamonaviy trening qo'llanmasi, o'yin harakatlariga mos mashqlar va dasturlar tavsifi.

OLIYGOH TALABALARI O'RTASIDA BASKETBOL SPORTI MASHG'ULOTLARI ORQALI JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich
Navoiy davlat universiteti "Sport faoliyati turlari" kafedrasi dotsenti

Husenova Norjona Umid qizi
San'at va sport fakulteti XQS guruhi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida basketbol sporti mashg'ulotlari orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Basketbol sportining o'ziga xos harakat faoliyati kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlarini kompleks rivojlantirish imkonini berishi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari basketbol mashg'ulotlarini tizimli tashkil etish talabalarning jismoniy tayyorgarligi, sportga bo'lgan motivatsiyasi hamda ommaviy sportdagi faolligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: basketbol, jismoniy tarbiya, ommaviy sport, jismoniy sifatlar, talabalar, sport o'yinlari.

Abstract: The article examines the scientific and pedagogical foundations of developing students' physical qualities through basketball training in higher education institutions. It is substantiated that the specific motor activities inherent in basketball contribute to the comprehensive development of strength, speed, endurance, agility, and flexibility. The research findings indicate that systematic basketball training enhances students' physical fitness, motivation for sports participation, and engagement in mass sports activities.

Key words: basketball, physical education, mass sports, physical qualities, students, sports games.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-педагогические основы развития физических качеств студентов высших учебных заведений посредством занятий баскетболом. Обосновано, что специфика двигательной деятельности в баскетболе обеспечивает комплексное развитие силы, быстроты, выносливости, ловкости и гибкости. Результаты исследования свидетельствуют о том, что систематические занятия баскетболом способствуют повышению уровня физической подготовленности студентов, формированию устойчивой мотивации к занятиям спортом и росту активности в массовом спорте.

Ключевые слова: баскетбол, физическое воспитание, массовый спорт, физические качества, студенты, спортивные игры.

KIRISH

Hozirgi sharoitda oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda ommaviy sportni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Sport o'yinlari, xususan, basketbol talabalarning jismoniy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Basketbol sporti yuqori dinamiklik, tezkor qaror qabul qilish, koordinatsiya va jamoaviy hamkorlikni talab etishi bilan ajralib turadi. Ushbu sport turi mashg'ulotlar jarayonida talabalarda asosiy jismoniy sifatlarni tabiiy va kompleks tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli basketbolni jismoniy tarbiya va ommaviy sport tizimiga keng joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, basketbol mashg'ulotlarida tez-tez takrorlanadigan yugurish, sakrash, to'xtash, burilish va to'p bilan bajariladigan harakatlar talabalarning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biroq amaliyotda basketbol mashg'ulotlarining pedagogik salohiyati to'liq ishga solinmayotgani, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yetarli darajada yo'naltirilmaganligi kuzatilmoqda. Shu bois ushbu maqolada basketbol sporti asosida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Basketbol mashg‘ulotlarini tashkil etishda metodologik yondashuv talabalarning jismoniy sifatlarini (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik) tizimli va maqsadli rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik strategiya hisoblanadi. Ushbu yondashuv quyidagi komponentlardan iborat: Differensial va modul asosidagi rejalashtirish. Basketbol mashg‘ulotlari talabalarning individual imkoniyatlari hamda jismoniy tayyorgarligi darajasiga moslashtiriladi. Mashg‘ulotlar modul va bloklar shaklida tuziladi: texnik harakatlar, tezlik va sakrovchanlik mashqlari, jamoaviy o‘yin elementlari, qayta tiklanish mashqlari. Intervallik va intensivlik nazorati. Basketbolning tabiati intervallik yuklamalarni talab qiladi. Mashg‘ulotlar qisqa muddatli, yuqori intensivlikdagi faoliyat (sprint, sakrash, dribling) va tiklanish fazalari bilan almashinib boradi. Bu yondashuv yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash hamda chidamlilikni rivojlantirishda samarali natija beradi.

Kompleks jismoniy sifatlarni rivojlantirish. Har bir mashg‘ulot komponenti talabalarda bir nechta jismoniy sifatlarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga xizmat qiladi: kuch va sakrovchanlik, tezkorlik va chaqqonlik, chidamlilik va egiluvchanlik. Shu tariqa mashg‘ulotlar multifunksional xususiyatga ega bo‘ladi. Monitoring va baholash mexanizmlari. Talabalarning jismoniy ko‘rsatkichlari muntazam testlar orqali baholanadi (masalan, 20 metrga sprint, vertikal sakrash, burilish va dribling vaqtlari, chidamlilik testlari). Bu metodologik yondashuv mashg‘ulot samaradorligini aniqlash hamda shaxsiylashtirilgan mashq rejasini tuzish imkonini beradi. O‘yin va musobaqaviy texnologiyalarni qo‘llash. Basketbol o‘yini mashg‘ulotlarda pedagogik vosita sifatida qo‘llanadi. Musobaqaviy va o‘yin elementlari talabalarni mashg‘ulot jarayonida qiziqtiradi, motivatsiyani oshiradi hamda real sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metodologik yondashuv asosida basketbol mashg‘ulotlari quyidagi natijalarni beradi:

- talabalarda tezkorlik va chaqqonlik ko‘rsatkichlari 12-18% gacha oshadi, kuch ko‘rsatkichlari esa 10-15% ga yaxshilanadi;
- chidamlilik va egiluvchanlikning yaxshilanishi natijasida o‘yin davomiyligi hamda faol harakatga chidamlilik ortadi;
- talabalarning jamoaviy hamkorlik va qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi, bu esa ularning sport musobaqalaridagi muvaffaqiyatini oshiradi;
- mashg‘ulotlar motivatsiyani kuchaytiradi, bu ommaviy sportga bo‘lgan qiziqish va muntazam qatnashuvni ta’minlaydi.

Maqsad: basketbol sporti orqali talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish asosida jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligini oshirish.

Vazifalar:

- basketbol mashg‘ulotlarining jismoniy sifatlar rivojiga ta’sirini aniqlash;
- basketbolga xos mashqlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish usullarini tahlil qilish;
- ommaviy sport shaklida basketbol mashg‘ulotlarini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini asoslash;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Natijalar sun'iy intellekt texnologiyalarining siyosiy ta'lim sohasida innovatsion pedagogik vosita sifatidagi yuqori salohiyatini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Shuningdek, mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga, ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilashga hamda talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi. Sun'iy intellekt asosidagi pedagogik modelni siyosatshunoslikdan tashqari ijtimoiy fanlarning boshqa yo'nalishlariga ham moslashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu uning universalligini ko'rsatadi. Kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga yanada chuqur integratsiyasini ta'minlash, ularning metodik asoslarini takomillashtirish hamda milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish bo'yicha kompleks ilmiy izlanishlar olib borish zarur.

Xususan, sun'iy intellekt yordamida baholash tizimlarini avtomatlashtirish, talabalarning individual rivojlanish dinamikasini prognozlash hamda o'quv dasturlarini adaptiv tarzda boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan pedagogik model oliy ta'limda siyosiy tafakkurni shakllantirishning innovatsion va samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim siyosatini takomillashtirishga, raqamli pedagogika konsepsiyalarini rivojlantirishga hamda kelajak avlodning ongli fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi", – Shavkat Mirziyoyev. https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya--bu-bizning-kelajagimiz-hayot-mamot-masalasi--shavkat-mirziyoev
2. Arendt, H. (1958). The Human Condition. University of Chicago Press.
3. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. Macmillan.
4. Freire, P. (1970). Pedagogy of the Oppressed. Continuum.
5. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall.
6. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson.

BOSHLANG'ICH SINFLAR TA'LIM TIZIMIDA KOMMUNIKATIV TA'LIM HARAKATLARINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK SHARTLARI

Shoira Rahimova Adilbekovna
Urganch davlat pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi
p. f. f. d. (PhD) dotsent v. b.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida o'quvchilarda kommunikativ ta'lim harakatlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari tahlil qilingan. Tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida samarali muloqot, hamkorlikda o'qitish, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni kuchaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va jamoaviy ish shakllaridan foydalanish orqali kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrni erkin ifodalash, tinglash madaniyatini shakllantirish, o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini yaratishning pedagogik omillari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonini takomillashtirishga, o'quvchilarning ijtimoiy-faol va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ ta'lim harakatlari, kommunikativ kompetensiya, tashkiliy-pedagogik shartlar, interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish, pedagogik muloqot, o'quvchi faoliyati, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This scientific article analyzes the organizational and pedagogical conditions for the formation of communicative learning activities among primary school students within the primary education system. The study highlights the development of effective communication, cooperative learning, the enhancement of students' speech activity, and the strengthening of pedagogical interaction between teachers and students in the educational process. It also substantiates the opportunities for developing communicative competencies through the use of interactive methods, problem-based situations, and collaborative forms of classroom work. The article examines, from both theoretical and practical perspectives, the pedagogical factors contributing to students' ability to express their ideas freely, cultivate a culture of listening, and create an atmosphere of mutual respect and cooperation. The results of the research are aimed at improving the primary education process and fostering students' social and communicative competencies.

Key words: primary education, communicative learning activities, communicative competence, organizational and pedagogical conditions, interactive methods, cooperative learning, pedagogical communication, student activity, educational effectiveness.

Аннотация: В данной научной статье проанализированы организационно-педагогические условия формирования коммуникативных учебных действий у учащихся в системе начального образования. В исследовании освещены вопросы развития эффективного общения, обучения в сотрудничестве, формирования речевой активности учащихся, а также усиления педагогического взаимодействия между учителем и учеником в процессе начального обучения. Кроме того, обоснованы возможности развития коммуникативных компетенций посредством использования интерактивных методов, проблемных ситуаций и коллективных форм работы на уроках. В статье с научно-теоретической и практической точек зрения рассмотрены педагогические факторы формирования у младших школьников навыков свободного выражения мыслей, культуры слушания, а также создания атмосферы взаимного уважения и сотрудничества. Результаты исследования направлены на совершенствование процесса начального образования и развитие социально-активных и коммуникативных компетенций учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, коммуникативные учебные действия, коммуникативная компетенция, организационно-педагогические условия, интерактивные методы, обучение в сотрудничестве, педагогическое общение, деятельность учащихся, эффективность образования.

KIRISH

Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda zamonaviy fanda “tashkiliy-pedagogik sharoitlar” tushunchasining umumiy qabul qilingan ta’rifi mavjud emas. Kerakli ta’rifni aniqlashga harakat qilgan ko‘plab tadqiqotchilar ushbu konsepsiyaning ikkita asosiy komponentini (tashkiliy shartlar va pedagogik shartlar) ajratib ko‘rsatadilar hamda ularni alohida ko‘rib chiqadilar, uning qismlari ta’riflari yig‘indisidan butun mazmunni shakllantirishga intiladilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shunday qilib, A. A. Volodin va N. G. Bondarenko shartlarni belgilashda ularni “boshqa shartli hodisalar (obyektlar, hodisalar yoki jarayonlar) bilan bog‘liq bo‘lgan va hodisa sodir bo‘lgan muhitning shakllanishiga ta’sir qiluvchi obyektlar, hodisalar yoki jarayonlar majmuasining muhim tarkibiy qismi”, tashkiliy shartlarni esa “boshqa shartli hodisalar (obyektlar, hodisalar yoki jarayonlar) bilan bog‘liq bo‘lgan va hodisa sodir bo‘lgan muhitning yo‘naltirilgan hamda tartibli shakllanishiga ta’sir qiluvchi murakkab obyektlar, hodisalar yoki jarayonlarning muhim tarkibiy qismi” sifatida ta’riflaydi [1.45].

Pedagogik shartlarga kelsak, bu yerda talqin qilishda ayrim farqlar kuzatiladi. Shunday qilib, pedagogik shartlarni, xususan, quyidagicha tushunish mumkin:

1) pedagogik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari moddiy va fazoviy muhit imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, aslida ta’lim va tarbiyaning mazmuni, usullari hamda tashkiliy shakllari yig‘indisini anglatadi;

2) pedagogik tizimning tarkibiy qismi bo‘lib, uning samaradorligini ta’minlaydigan ichki (ta’lim jarayoni sub-yektlarining shaxsiy jihatini rivojlantirishni ta’minlaydigan) va tashqi (tizimning protsessual jihatini amalga oshirishga hissa qo‘shadigan) elementlarning kombinatsiyasini aks ettiradi [2.8]. Shu ma’noda bu komponent bevosita ta’lim mazmuni, shakl va vositalariga, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar xarakteriga bog‘liqdir;

3) ilmiy-pedagogik tadqiqotlar natijalarini tekshirish imkoniyatini ta’minlovchi ta’lim jarayonining barqaror aloqalarini aniqlash bo‘yicha maqsadli ishni tashkil etishni nazarda tutadi.

O‘rganilayotgan adabiyotlar tahlili pedagogik shart-sharoitlar pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi. Bu uning faoliyatiga u yoki bu tarzda ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan o‘quv va moddiy-fazoviy muhit imkoniyatlari majmuasidir. Demak, to‘g‘ri tanlangan (tashkil etilgan) pedagogik shart-sharoitlar pedagogik tizim faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi [2.8-14].

Pedagogik shart-sharoitlar deganda kichik yoshdagi o‘quvchilarda motivatsiya, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantirish uchun imkon qadar maqbul bo‘lgan ta’lim muhitini tashkil etish, o‘quv jarayonini dasturiy va uslubiy ta’minlash tushuniladi; bu esa har bir talaba uchun u yoki bu ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi haqida fikr yuritish imkoniyatini yaratadi, uning muloqot qobiliyatini oshiradi, ijtimoiylashuvini, umumiy madaniy rivojlanishini hamda umuman shaxsning rivojlanishini shakllantiradi va takomillashtiradi. Pedagogik shart-sharoitlar ikki guruh omillar bilan belgilanadi – tashqi va ichki. Ichki sharoitlar pedagogik jarayon ishtirokchilarining shaxsiy sohasining rivojlanishini belgilaydi, tashqi sharoitlar esa bu jarayonning rasmiy tashkil etilishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar haqida yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar – pedagogik muammolarni samarali hal qilishni ta’minlaydigan imkoniyatlar majmui; qo‘yilgan pedagogik maqsadlarga erishishga qaratilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari va usullarini o‘z ichiga olgan tizimdir. Bu shartlar o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi, balki ongli tanlash va loyihalash natijasida amalga oshiriladi. Ular bir butun holda harakat qilib, zarur natijalarga erishishni ta’minlaydi hamda pedagogik tizimni yoki uning tarkibiy qismlarini boshqarishga imkon beradi. Bu maqsadlarga erishish, mazmunni o‘zlashtirish, ta’lim shakllari va usullarini amalga oshirishni belgilovchi o‘zaro bog‘liq obyektiv va subyektiv omillar (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, uslubiy) majmuidir [3.27].

Ushbu muammoni hal qilishning pedagogik jarayonida, bizning fikrimizcha, bir qator tadqiqotchilarning qarashlariga ko‘ra, jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, turli darajadagi davlat hujjatlarida aks ettirilgan talablar, shuningdek, o‘qituvchilarning malakasi muhim rol o‘ynaydi; miqdor va sifat jihatidan ular maqsadlarga erishish va mazmunni o‘zlashtirishga ta’sir ko‘rsatadi [4.40].

Didaktik tuzilma nuqtai nazaridan, universal harakatlar talaba uchun tushunarli bo‘lgan yoki uning umumiy prinsip, mashq sxemasi va natijasini analitik tushunish darajasiga mos keladigan muayyan o‘quv vaziyatiga asoslanishi muhimdir hamda unga bosqichma-bosqich harakatlar orqali olib borilishi lozim. Bajarish vaqti

muayyan talabaning fikrlash tezligiga mutanosib bo‘lishi kerak; barcha bolalar har xil ekanligini inobatga olgan holda shoshilmaslik va ularni o‘z sekinligi bilan bezovta qilmaslik zarur.Biz bilimga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasidan talabaga yo‘naltirilgan paradigmaga to‘liq va asoslanmagan (amaliy ishlar bilan tasdiqlanmagan) tezkor o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblamaymiz, biroq tajribaga yo‘naltirilgan, bilimga asoslangan ta’lim baholash tizimidagi o‘zgarishlar bilan birga olib borilishi zarurligini eksperimental jihatdan tasdiqlaymiz. Kelajakda jamiyatga foyda keltiradigan ilg‘or, qobiliyatli o‘quvchilarni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

Ta’lim mazmuni tashqi, ya’ni axborot manbalarida aks etgan komponentlar va ichki – maktabda universal ta’lim hamda kommunikativ harakatlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchi egallaydigan komponentlarga bo‘linadi. Bu tarkibiy qismlar bir xil emas. Bunda o‘quvchining tashqi mazmunni qanchalik to‘liq o‘zlashtirgani emas, balki muayyan ta’lim davrida uning ichki mazmuni qanchalik rivojlanganligi baholanadi [5.52].

Ta’lim sifati bevosita talabalarga shaxsiy yondashuvga, o‘qituvchining o‘quvchi shaxsining o‘ziga xosligini hisobga olishiga hamda o‘rganilayotgan materialga ularning har biri uchun individual ma’no bera olish qobiliyatiga bog‘liqdir [6.39].

Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan mazmunini hisobga olgan holda, A. V. Xutorskoy ta’limning barcha tashqi va ichki mazmunini ko‘rib chiqadi. Tadqiqotchi unda to‘rtta asosiy komponentni ajratadi:

1) kognitiv faoliyat, uning natijalari sifatida namoyon bo‘ladigan bilimlar;
2) namuna bo‘yicha harakatni amalga oshirish ko‘nikmalari ko‘rinishida taqdim etilgan faoliyat usullari;
3) muammoli vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladigan ijodiy faoliyat;
4) shaxsiy yo‘nalishlar ko‘rinishida ifodalangan hissiy-qiymat munosabatlari [7.21].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida tavsiflangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunining to‘rtta komponentidan har biri tajribaning o‘ziga xos turini ifodalaydi. Biz ushbu to‘rt turdagi tajribani o‘zlashtirishni ingliz tili tuzilmalarini, so‘z boyligini va boshqa ta’lim shakllarini birlashtirish uchun talabalarni boshqa talabalar bilan guruhda turli xil o‘quv, maxsus tashkil etilgan muloqot sharoitlariga jalb qilish bilan to‘ldiramiz hamda ularning talab etiladigan vakolatlarini shakllantiradigan kommunikativ harakatlarni rivojlantiramiz.Kompetensiyaga asoslangan yondashuv barcha darajadagi ta’lim muassasalarini o‘quvchilarda olgan bilimlari, o‘quv ko‘nikmalari va malakalaridan foydalanishga tayyorligini belgilaydigan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltiradi hamda amaliy va nazariy masalalarni yechish faoliyatini o‘z ichiga oladi [70].

Ishning belgilangan vazifalariga muvofiq, biz ko‘nikma va qobiliyatlarni, ta’lim usullarini o‘zlashtirish uchun talabalarni universal va kommunikativ ta’lim faoliyatini shakllantirishning taklif etilayotgan jarayoniga faol jalb qilishni nazarda tutadigan metodologiyamizning faolligini ta’kidlaymiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kognitiv, kommunikativ, amaliy va ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan dars hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlar vositalari kombinatsiyasi bilan tanishtiramiz. Bu umumiy ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim va kognitiv kompetensiyani shakllantirishni ilgari suradigan tadqiqotlarga tayanishimizni tushuntiradi (Ignatova va boshqalar).

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda ta’limning asosiy maqsadi, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash orqali bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdir. Matematika o‘quv predmeti sifatida kommunikativ-faollik yondashuvi asosida qurilgan. Shu bois ta’kidlash mumkinki, ushbu fan bo‘yicha darslarda muloqot sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar talabaning nutqini rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Matematikani o‘qitish mazmuni dolzarb bo‘lib, faol muhokama mavzusi bo‘lib qolmoqda. Uning tarkibiy qismlarini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Ulardan ilmiy faoliyatimizda tayangan hamda, bizning fikrimizcha, davlat standarti talablariga, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan ta’lim tuzilmasi talablariga ko‘p darajada javob beradiganlari qisqacha tavsifiga to‘xtalib o‘tamiz. Zamonaviy o‘zbek maktablarida matematika o‘qitishning maqsad va mazmunini amalga oshirish o‘quv materiallari – o‘quv-uslubiy majmualardan foydalanish orqali bajariladi. O‘qituvchilarning vazifalari tegishli fan bo‘yicha davlat ta’lim standartlari tomonidan qabul qilingan ta’lim sifatiga qo‘yiladigan minimal talablarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitish amaliyotida qo‘llaniladigan o‘quv-uslubiy majmualarning xususiyatlariga batafsil to‘xtalib o‘tish zarur. O‘quv-uslubiy majmua – yagona uslubiy yondashuv asosida ishlab chiqilgan va fan bo‘yicha o‘quv rejasiga kiritilgan materialni samarali o‘zlashtirishni ta’minlashga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy materiallar hamda dasturiy-texnik vositalar majmuasidir. Bu pedagogik jarayon o‘quv maqsadlari, shu jumladan, ushbu maqsadlarga erishish usullari va vositalari bilan belgilanadigan murakkab tizim bo‘lib,

asosan o‘quv materiallari qo‘llaniladigan muhitga bog‘liq bo‘ladi. V. M. Filatov o‘quv materiallarining tashqi (komponentlar majmui) va ichki (lingvodidaktik mazmuni) tuzilishini ajratadi. Zamonaviy o‘quv materiallari qog‘oz va elektron tashuvchilardagi komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy o‘quv materiallarining tipik tarkibini quyidagicha ta’riflash mumkin:

1) darslik;
2) mehnat daftarchasi;
3) o‘qish uchun kitob;
4) o‘qituvchi uchun kitob;
5) karton/qog‘oz ko‘rinishidagi materiallar;
6) audiokasseta yoki disk [10].

Amalda ko‘pchilik o‘qituvchilar asosan ikkita komponentdan – darslik va o‘qituvchi uchun qo‘llanmadan foydalanadi. Shu bois ushbu komponentlar haqida batafsilroq to‘xtalamiz.

O‘quv materiallari yordamida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, albatta, bevosita o‘qituvchining shaxsiga bog‘liq. Darslikning didaktik mazmuni o‘qituvchining o‘qitish metodi va usullarini amalga oshirish jarayonida foydalanadigan asosidir. “O‘qituvchining individual xususiyatlari, tajribasi, sevimli o‘qitish usullari orqali aks ettirilgan darslik materiali o‘quvchiga samarali ta’sir ko‘rsatadi, uni shaxs sifatida shakllantiradi” [8.4-10 b].

XULOSA

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz o‘quv materiallari ma’lum bir o‘quv fanini o‘qitish asosini tashkil etuvchi pedagogik tizimni modellashtirishning asosiy vositasi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Binobarin, har qanday darslikni ham ta’limning ma’lum mazmunini tashuvchi, ham shu mazmunni o‘zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi vosita sifatida ko‘rish mumkin.

O‘qituvchi o‘quv jarayonining bevosita tashkilotchisidir. Uning vazifalari ushbu jarayonni o‘rganish ko‘nikmalarini, shu jumladan kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishni eng yaxshi ta’minlaydigan tarzda qurishni o‘z ichiga oladi [9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гальперин П. Я. Методы обучения и умственное развитие. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1985. – 45 с.
2. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 2010. – 263 с.
3. Немов Р. Психология: учебник для студентов высших учебных заведений: в 3-х кн. Кн. 1. Общая психология. – 3-е изд. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – 686 с.
4. Конышева А. В. Английский язык. Современные методы обучения. – Минск: ТетраСистемс, 2007. – С. 38.
5. Параскева О. Ю. Уроки английского языка во втором классе (первый год обучения) // ИЯШ. – 1992. – № 3-4. – С. 69-75.
6. Якиманская И. С. Дифференцированное обучение: “внешние” и “внутренние” формы // Директор школы. – 1995. – № 3. – С. 39-45.
7. Хуторской А. В. Методика личностно-ориентированного обучения. Как обучать всех по-разному? – М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2005. – 383 с.
8. Белкина В. Н. Подготовка студентов к педагогическому регулированию взаимодействия детей со сверстниками. – Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2006. – 305 с.
9. Казанская В. Г. Личность ученика и учителя в начальной школе. – СПб.: КАРО, 2004. – 208 с.
10. Гильмутдинова С. В. Формирование общеучебных умений учащихся как основа преемственности обучения в начальной и средней общеобразовательной школе: дис. канд. пед. наук. – Уфа, 2004.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARNING O'QUV FAOLIYATINI INTEGRATIV MEXANIZMLAR ORQALI TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH

Sirojov Otajon Orifjonovich
Navoiy davlat universiteti
"Sport faoliyati turlari" kafedrasi dotsenti p.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil etish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil etilgan. Zamonaviy elektron resurslar, o'quv platformalari va pedagogik integratsiya vositalari pedagogik samaradorlik nuqtayi nazaridan yoritilgan. Maqolada ta'lim jarayonining raqamli transformatsiyasi, interaktiv metodlar tatbiqi va ularning ta'lim natijalariga ta'siri o'rganilib, ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, talabalarning o'quv faoliyati, integrativ mexanizmlar, elektron ta'lim, interaktiv metodlar, pedagogik transformatsiya.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of organizing and developing students' learning activities based on digital technologies through integrative mechanisms. Modern electronic resources, educational platforms, and pedagogical integration tools are examined from the perspective of pedagogical effectiveness. The study explores the digital transformation of the educational process, the application of interactive methods, and their impact on learning outcomes, and provides scientifically grounded recommendations.

Key words: digital technologies, students' learning activities, integrative mechanisms, e-learning, interactive methods, pedagogical transformation.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты организации и развития учебной деятельности студентов на основе цифровых технологий посредством интегративных механизмов. Современные электронные ресурсы, образовательные платформы и средства педагогической интеграции рассмотрены с позиции педагогической эффективности. В статье изучены цифровая трансформация образовательного процесса, применение интерактивных методов и их влияние на результаты обучения, а также разработаны научно обоснованные рекомендации.

Ключевые слова: цифровые технологии, учебная деятельность студентов, интегративные механизмы, электронное обучение, интерактивные методы, педагогическая трансформация.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini tashkil etishning mazmuni va shakllarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonida raqamli vositalarning keng qo'llanilishi bilimlarni uzatish bilan cheklanmay, talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ko'plab holatlarda o'quv jarayoniga tizimli yondashuvsiz joriy etilmoqda. Natijada ularning didaktik va metodik imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Mazkur holat raqamli texnologiyalarni integrativ mexanizmlar asosida qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi. Integrativ yondashuv ta'lim jarayonida raqamli resurslar, pedagogik metodlar va baholash mexanizmlarining o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlab, talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. Aynan shu nuqtai nazardan, talabalarning o'quv faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida integrativ mexanizmlar orqali rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli pedagogika sharoitida kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmunini yangilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [6].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish jarayoni integrativ mexanizmlar tizimi sifatida konseptual jihatdan asoslandi; raqamli ta'lim vositalarini qo'llashda

fragmentar yondashuvning samaradorligi past ekanligi ilmiy tahlil qilinib, tizimli-integrativ yondashuvning ustunligi asoslab berildi; talabalarning individual o'quv traektoriyasini shakllantirishga yo'naltirilgan raqamli mexanizmlarning o'quv natijalariga ta'siri aniqlashtirildi; o'quv faoliyatini monitoring qilishda raqamli baholash vositalaridan kompleks foydalanish ta'lim sifati ko'rsatkichlarini oshirish omili sifatida talqin qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot natijalari raqamli pedagogika, oliy ta'lim didaktikasi va ta'limni boshqarish nazariyasi fanlarini rivojlantirishga xizmat qilib, talabalarning o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil etishning nazariy asoslarini boyitadi. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalashda pedagogik, texnologik va psixologik komponentlarning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilishi orqali ta'lim jarayonini tizimli modellashtirish imkoniyatlari kengaytirildi. Integrativ mexanizmlar asosida tashkil etilgan raqamli ta'lim muhitining talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va raqamli savodxonligini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan ochib berildi.

Tadqiqotda taklif etilgan nazariy xulosalar va ilmiy qarashlar raqamli ta'limni tashkil etish bo'yicha keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida o'quv faoliyatini tashkil etishning samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish, ta'lim sifati baholash tizimini takomillashtirish hamda raqamli ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asos sifatida foydalanilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi talabalarning o'quv faoliyatini raqamli texnologiyalar yordamida integrativ mexanizmlar orqali tashkil etish va rivojlantirish jarayonini tizimli o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy vazifasi – raqamli vositalarning o'quv jarayonidagi samaradorligini aniqlash hamda ularni integrativ pedagogik mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi:

- nazariy tahlil usuli – mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar va pedagogik tavsiyalar o'rganildi;
- mazkur usul yordamida raqamli texnologiyalar va integrativ mexanizmlar bilan bog'liq ilg'or tadqiqotlar tahlil qilindi hamda mavjud amaliy tajribalar umumlashtirildi;
- eksperimental usul – raqamli texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash orqali talabalarning o'quv faoliyatidagi o'zgarishlar kuzatildi, eksperiment ikki bosqichda o'tkazildi: nazorat guruhi an'anaviy o'quv jarayoni asosida faoliyat yuritdi, tajriba guruhi esa integrativ mexanizmlar va raqamli vositalar orqali o'quv faoliyati asosida tashkil etildi;
- so'rovnoma va intervyu – talabalar hamda o'qituvchilardan raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi tajribalar, qiyinchiliklar va samaradorlikni aniqlash maqsadida ma'lumotlar yig'ildi;
- kuzatuv usuli – talabalarning interaktiv mashg'ulotlarda qatnashuvi, onlayn testlarni bajarishi va virtual laboratoriyalardagi faoliyati kuzatildi;
- statistik tahlil – tajriba va nazorat guruhlaridagi natijalar solishtirildi, ma'lumotlar grafiklar, jadvallar hamda diagrammalar yordamida tahlil qilindi.

Obyekt: talabalarning o'quv faoliyati va uning raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilishi.

Predmet: integrativ mexanizmlarning talabalarning o'quv faoliyatiga ta'siri hamda ularni rivojlantirish usullari.

Eksperimentda bakalavriat bosqichidagi 1-3-kurs talabalari ishtirok etdi. Guruhlar soni va tarkibi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida bir xil bo'lishi ko'zda tutildi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- nazariy bosqich – mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinib, metodologik asoslar shakllantirildi;
- eksperimental bosqich – raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali integrativ mexanizmlar amaliyotda sinab ko'rildi;
- tahlil bosqichi – yig'ilgan ma'lumotlar statistik usullar, jadvallar va grafiklar yordamida tahlil qilindi;
- xulosa va tavsiyalar bosqichi – natijalar umumlashtirilib, pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi o‘n yillikda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida beqiyos o‘sishni namoyon etdi. Ular nafaqat bilim uzatish vositasi sifatida, balki talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini faollashtirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda raqamli savodxonlik darajasini oshirish vositasi sifatida ham keng qo‘llanilmoqda [6]. Raqamli texnologiyalar tarkibiga elektron ta’lim resurslari, o‘quv platformalari (Learning Management System (LMS), MOOC, virtual laboratoriyalar), interaktiv ta’lim vositalari (quiz, forum, simulyatsiya dasturlari), shuningdek, adaptiv test tizimlari va sun’iy intellekt elementlari kiradi. Ushbu vositalar yordamida ta’lim jarayoni individual o‘quv traektoriyasiga moslashtiriladi, talabaning qiziqishi va o‘quv faoliyatiga motivatsiyasi oshiriladi.

Integrativ mexanizmlar – ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagogik, texnologik va baholash komponentlarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi tizimdir. Uning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- pedagogik komponent – o‘quv jarayoni metodikasi, interaktiv darslar hamda o‘quv faoliyati monitoringi;
- texnologik komponent – LMS, elektron resurslar, virtual laboratoriyalar va simulyatorlar;
- baholash komponenti – adaptiv testlar, elektron baholash tizimi hamda o‘quv natijalarini tahlil qilish vositalari.

Integrativ mexanizmlar raqamli texnologiyalarni tizimli va samarali qo‘llashni ta’minlaydi, natijada talabaning individual rivojlanishi va o‘quv natijalari sezilarli darajada oshadi [7].

Raqamli texnologiyalar yordamida har bir talaba uchun shaxsiy o‘quv yo‘nalishi shakllantiriladi. Mazkur jarayon talabaning boshlang‘ich bilim darajasini diagnostik testlar orqali aniqlash, raqamli resurslar va interaktiv modullarga yo‘naltirish, har bir modul bo‘yicha progress monitoringini amalga oshirish hamda adaptiv tavsiyalar berish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Interaktiv metodlar talabaning faolligi, mustaqil fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyatini oshiradi. Ular forum va guruhli muhokamalar orqali hamkorlikni rivojlantirish, quiz va onlayn testlar orqali tezkor fikr-mulohaza olish, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar orqali nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Talabalarning o‘quv faoliyatini baholash tizimi davriy baholash (har bir modul yakunida bilim darajasini aniqlash), onlayn analytics (LMS va interaktiv platformalar orqali o‘quv jarayonini kuzatish) hamda natijalarni tahlil qilish (individual va umumiy progressni aniqlash, o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish) prinsiplari asosida tashkil etiladi.

1-jadval: **Talabalar o‘quv faoliyati monitoringi**

Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich daraja	Modul yakuni	O‘zgarish (%)
Nazariy bilim	55%	78%	+23
Amaliy ko‘nikma	48%	72%	+24
Motivatsiya darajasi	60%	85%	+25

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

1. Integrativ mexanizmlar yordamida tashkil etilgan raqamli ta’lim jarayoni talabalarning o‘quv natijalarini oshiradi.
2. Interaktiv metodlar va individual traektoriyalar motivatsiya hamda mustaqil o‘qish qobiliyatini kuchaytiradi.
3. Raqamli baholash va monitoring tizimi ta’lim sifatini tizimli baholash imkonini beradi [9].

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni integrativ mexanizmlar asosida ta’lim jarayoniga joriy etish talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlab, talabalar bilimini individual ehtiyojlar asosida rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va pedagogik integratsiyaning uyg‘unlashuvi talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini shakllantirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda raqamli savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini takomillashtirishda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tavsiyalar: Integrativ strategiyalarni joriy etish: ta’lim muassasalari o‘z faoliyatida raqamli integratsiyani tizimli tatbiq etishi lozim. O‘qituvchilar uchun treninglar: zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha muntazam malaka oshirishni tashkil etish zarur. Adaptiv tizimlarni tatbiq etish: talabalarning individual ehtiyojlari asosida o‘quv kontentini moslashtirish maqsadga muvofiq. Monitoring va baholash: real vaqt rejimida natijalarni tahlil qiluvchi tizimlarni joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni. https://lex.uz/doc-passport/-5030957
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2023.
3. Abdullayev A.A. Raqamli ta'lim muhitida o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 186 b.
4. Abduqodirov A.A., Begimqulov U.Sh. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – Toshkent, 2016. – 176 b.
5. Jo'rayev R.H., To'raqulov X.A. Oliy ta'limda innovatsion va raqamli texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 212 b.
6. Karimov U.I. Raqamli pedagogika va kompetensiyaviy yondashuv masalalari // Pedagogika. – Toshkent, 2020. – № 4. – B. 15–21.
7. Mirzayeva D.Sh. Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021. – 198 b.
8. Saidova M.N. Oliy ta'limda masofaviy va gibrid ta'limni joriy etish muammolari // Pedagogika. – 2022. – № 2. – B. 33–38.
9. Xodjayev B.X. Pedagogik integratsiya va ta'lim samaradorligi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017. – 164 b.
10. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: BCcampus, 2019. – 527 p.
11. Hodges C., Moore S., Lockee B., Trust T. The difference between emergency remote teaching and online learning // EDUCAUSE Review. – 2020.
12. Johnson L., Adams Becker S., Cummins M., Estrada V. NMC Horizon Report: Higher Education Edition. – Austin: EDUCAUSE, 2016. – 48 p.
13. Li C., Lalani F. The COVID-19 pandemic has changed education forever. – World Economic Forum, 2020.
14. OECD. Innovating Education and Educating for Innovation. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 152 p.
15. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Academic, 2021. – 232 p.
16. Siemens G. Learning analytics: The emergence of a discipline // American Behavioral Scientist. – 2017. – Vol. 57, № 10. – P. 1380–1400.
17. UNESCO. Digital Transformation of Education: Challenges and Opportunities. – Paris, 2022.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI MEDIATA’LIM RESURSLARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Suleymanova Ra’no Dustbekovna
Guliston davlat universiteti fakultetlararo pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

Bekova Nilufar Aliboy qizi
Amaliy psixologiya sirtqi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata’lim resurslari yordamida rivojlantirish metodikasi ko‘rib chiqiladi. Mediata’lim resurslari o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beruvchi interaktiv materiallar, video darslar hamda onlayn platformalarni o‘z ichiga oladi. Maqolada mediata’lim resurslarining o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonidagi roli, ularning pedagogik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mediata’lim resurslarining o‘qituvchilarda kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni ham muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik mahorat, psixologiya, mediata’lim, innovatsiya, ta’lim, tarbiya, imkoniyatlar, kreativlik, qobiliyat, pedagog.

Abstract: This article examines the methodology for developing the pedagogical competence of future teachers through the use of media education resources. Media education resources include interactive materials, video lessons, and online platforms that enable teachers to organize the educational process in a more effective and engaging manner. The article analyzes the role of media education resources in teacher training, their significance in enhancing pedagogical competence, and the potential for implementing innovative approaches within the modern education system. It also discusses the contribution of media education resources to the development of teachers’ creative thinking and problem-solving skills.

Key words: pedagogical competence, psychology, media education, innovation, education, upbringing, opportunities, creativity, ability, teacher.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика развития педагогического мастерства будущих учителей с использованием ресурсов медиаобразования. Ресурсы медиаобразования включают интерактивные материалы, видеоуроки и онлайн-платформы, позволяющие сделать образовательный процесс более эффективным и интересным. В статье анализируется роль ресурсов медиаобразования в процессе подготовки учителей, их значение в совершенствовании педагогических навыков, а также возможности применения инновационных подходов в современной системе образования. Также рассматривается значение ресурсов медиаобразования в развитии у учителей творческого мышления и навыков решения проблем.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, психология, медиаобразование, инновации, образование, воспитание, возможности, креативность, способности, учитель.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida ta’kidlanganidek, taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi. Chunki intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekanini, nodir iste’dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q [1], degan fikrlar tahsinga sazovordir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasining pedagogik mahorat

bilan uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash ularning faolligi, tashabbuskorligi, muammoning yechimi to'g'risida mustaqil qarashlar bilan javob bera olishi, pedagogik-psixologik sifatlarining shakllanishi hamda mashg'ulot olib borish jarayonida interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida bo'lajak o'qituvchilarning rivojlanish modelini ishlab chiqishda talaba shaxsiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olish, interfaol ta'lim metodlaridan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq ekani qayd etilgan. Interfaol ("inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) atamasi o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qitishning interfaol metodlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning yangicha shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga faol jalb qilinadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylayotgan fikrlarni tushunish, tahlil qilish hamda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. M.G. Sergeeva tomonidan bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, biz o'z tadqiqotimizda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishning asosiy omili sifatida "Umumiy pedagogika va psixologiya" fani orqali ta'lim-tarbiya jarayonini muammoli ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlar asosida tashkil etishni [2] taklif etamiz.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari asosida rivojlantirish jarayonida ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun mos ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ishning nazariy va amaliy asoslarini belgilab, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasiga tayangan holda olib borildi. Metodologik asos sifatida mediata'lim konsepsiyasi, pedagogik innovatsiyalar nazariyasi, kasbiy kompetensiyani shakllantirish tamoyillari hamda ta'lim jarayonini raqamlashtirishga oid ilmiy qarashlar qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg'unligi ta'minlandi, jumladan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy va tizimli o'rganish, umumlashtirish, kuzatish, so'rovnoma, suhbat, diagnostik testlar hamda tajriba-sinov ishlari qo'llanildi.

Tajriba-sinov bosqichida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi va mediata'lim resurslari, ya'ni interaktiv taqdimotlar, video darslar, onlayn platformalar va raqamli didaktik materiallar asosida o'quv jarayoni tashkil etildi. Shuningdek, muammoli ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va reflektiv tahlil usullaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: dastlabki diagnostika bosqichida ishtirokchilarning pedagogik mahorat darajasi aniqlanib, shakllantiruvchi bosqichda mediata'lim resurslari asosida metodik ta'sir ko'rsatildi hamda yakuniy nazorat bosqichida natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Baholash mezonlari sifatida pedagogik kompetensiya, kommunikativ madaniyat, kreativ fikrlash, axborot-kommunikatsion savodxonlik va reflektiv ko'nikmalar darajasi belgilandi. Olingan natijalar mediata'lim resurslaridan maqsadli va tizimli foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida "Pedagogik mahorat asoslari" mavzusi bo'yicha aralash o'qitish (skarabey, bumerang, muammoli ta'lim) metodlaridan foydalangan holda mashg'ulotni tashkil etish metodikasi keltiriladi. Mavzu: "Pedagogik mahorat asoslari". Mashg'ulotning maqsadi quyidagilardan iborat: a) ta'limiy: talabalarga pedagogik mahorat haqida kengroq tushuncha berish; pedagogik mahoratni yanada mazmunli va tizimli ravishda o'rgatishga erishish; tajribali ustozlarning ish tajribasini o'rgatish; b) tarbiyaviy: talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish; v) rivojlantiruvchi: mavzu haqidagi bilimlarini kengaytirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Mashg'ulot turi: nazariy. Mashg'ulotda qo'llaniladigan metodlar: aqliy hujum, skarabey, bumerang, muammoli ta'lim. Mashg'ulotning jihozlanishi: ma'ruza materiallari; taqdimot, internet tarmog'i, videorolik, testlar, audio darslik; darsliklar, o'quv, metodik va badiiy adabiyotlar; o'zini o'zi baholash mezoni ifodalangan kartochkalar. Mashg'ulotda kutilayotgan natijalar: pedagogik mahorat tushunchasiga ta'rif beriladi; pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari kengroq ochib beriladi; hayotiy misollar bilan tushuntirishga harakat qilinadi. Mashg'ulotning borishi tashkiliy qismdan boshlanadi.


Yangi mashg'ulotni tashkil etish uchun o'qituvchi mashg'ulot davomida talabalarga beriladigan savollarni, mavzuga oid videofilm va zarur jihozlarni, shuningdek, o'zini o'zi baholash mezoni ifodalangan kartochkalarni

oldindan tayyorlab qo‘yishi lozim. Mashg‘ulot mazmuni mavzuni yoritish bo‘yicha taklif etiladigan ma’lumotlar tizimini o‘z ichiga oladi. Mavzu doirasida quyidagi savollar asosida “Skarabey” metodi yordamida talabalar jamoasining fikri o‘rganiladi: 1-savol: Kimni biz pedagog deb ataymiz? 2-savol: Haqiqiy pedagog deb qanday pedagoglarni aytishimiz mumkin? 3-savol: Sizningcha, haqiqiy pedagog qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?




1-rasm: **Haqiqiy pedagog qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?**

Yuqoridagi savollarga javob olingach, o‘qituvchi multimedia texnologiyasi yordamida mavzuga oid filmni namoyish qilish orqali mavzuni mustahkamlaydi.



2-rasm: **Inson hayotida ta’limning o‘rni (animatsion videorolik)**



3-rasm: **Pedagogik mahorat komponentlari**

1-topshiriq

O‘quv jarayonini amalga oshirishda taqdim etilayotgan materiallarni bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan yakka va guruh holda o‘zlashtirishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar va boshqalarni o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilish va baholash bilan birgalikda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalarning mavjud bilim va ko‘nikmalarini faollashtirishga imkon beradigan holatlarni uyg‘otish o‘quv mashg‘ulotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bumerang metodidan foydalanib mashg‘ulotning keyingi bosqichida o‘qituvchi guruhni to‘rttaga ajratib topshiriq beradi:

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

1-jadval: **Bumerang metodidan foydalanib mashg'ulot**

1-guruhga O'qitish jarayonining samaradorligi kimga bog'liq? Nima uchun?	**2-guruhga** Sizningcha mahoratli pedagog qanday faziliyatlarga ega bo'lishi kerak?
3-guruhga Pedagog qanday kasbiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?	**4-guruhga** Mahoratli pedagog bo'lishi uchun yana nimalarga ega bo'lishi kerak?

2-topshiriq

Har bir guruh o'ziga berilgan topshirig'ini aytilgan vaqt oralig'ida taqdimot loyihasini tayyorlaydi.

1-slayd 2-slayd 3-slayd 4-slayd

Berilgan vaqt tugagach, guruhlar o'z loyihalarini himoya qiladilar,kamchiliklar o'qituvchining ko'magi bilan to'ldiriladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'qituvchi yangi mavzuni mustahkamlash uchun guruhlar taqdimotidan so'ng talabalar diqqatini slaydlar asosida muammoli topshiriqlarni taqdim etadi.



3-rasm: **Muammoli topshiriqlarni bajarish**

2-jadval: **Muammoli ta'lim usuli: Muammoni ishlab chiqish kichik muammolar va xulosalar, qaror qabul qilish**

Muammo: Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda pedagog mahoratning zarurligi.	
Birinchi kichik muammo: Ta'lim jarayoni va pedagog faoliyatini har tomonlama tahlil qilish va baholash zarurligi	
Kichik muammoni yechimini topishda yordam beruvchi muammoli savollar: (1) Nima uchun ta'lim jarayonini va pedagog faoliyatini har tomonlama tahlil qilish hamda baholash zarurligi paydo bo'ldi?	Yechim: 1.hozirgi sharoitda har bir yoshni o'z kelajagini o'zi qurishga tayyorlashga o'rgatish; -pedagog yoshlarga ta'lim beradigan darajada bilimga ega bo'lishi. 2.zamonaviy yetuk kadrlarni kelajakda bilimli, to'liq fikr yuritadigan,zamonaviy texnikani har tomonlama egallagan shaxslar qilib ishlab chiqarishga tayyorlab berish. 3. pedagog faoliyatini taxlil qilish tartibi: -bilim saviyasi, -kasbiy mahorat, -talabalarni tushunish, -auditoriyani ushlay bilish, -odilona baholash -har kungi yangiliklardan xabardor bo'lish
Xulosa:	
Umumiy yakuniy xulosa	

3-jadval: **Testlar materiali**

Savollar	Javoblar
O‘qituvcni atamasiga berilgan ta’rifning qaysi biri mukammal?	+o‘qituvchi-murabbiy,ustoz - o‘qituvchi -inson qalbining muhandisi - o‘qituvchi-yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi kishi - o‘qituvchi – ziyo nurini tarqatuvchi shaxs
Pedagogik texnologiyaning asosiy vazifasi nima?	-o‘quv jarayonini mazmunli rivojlantirish + o‘quv jarayonini mazmunli amalga oshirish va rivojlantirish - o‘quv jarayonini vaqt doirasida olib borish - o‘quv jarayonini mazmunli amalga oshirish
Axborot texnologiya nima?	+ pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi -nazorat turi (joriy,oraliq,yakuniy) -o‘zaro ta’sirlar -pedagogikada monitoring
An’anaviy yondashuvning asosiy xususiyati nimada?	-ijodiy yondashuv -nazorat turi (joriy,oraliq,yakuniy) + gapirib berish, tushuntirish,talaba esa bu axborotni xotirada saqlaydi.
Pedagogik tizim nimalardan iborat?	+ pedagogik jarayonning ob’ektlari va sub’ektlari ,shakl-usullari,ular o‘rtasidagi munosabatlar,o‘zaro ta’sirlar hamda ularni boshqarish -talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish -gaplarni yozib,saqlab olish,ijodiy yondashuv
Ta’lim jarayoni nimalardan iborat?	-harakatlarni tekshirish -xatoni tuzatish,baholash -maqsad,xatoni tuzatish + maqsad nazorat,baholash,natija,ta’lim metodlari

Shundan so‘ng testning to‘g‘ri javoblari (qog‘oz variantda yoki katta ekranda) e’lon qilinadi. Talabalar o‘zlarining javoblarini tekshiradi va o‘zini o‘zi baholaydi.

Savollar jadvali, testlar yoki tarqatma materiallarning to‘g‘ri javoblari jadvalda keltiriladi.

4-jadval: **To‘g‘ri javoblar**

1	2	3	4	5	6
A	B	A	D	A	S

Tayanch so‘zlar: mahorat, pedagogik mahorat, qobiliyat, pedagogik muloqot, pedagogik takt, kommunikativlik, kreativlik, kompetentlik.Talabalarni rag‘batlantirish baholash orqali amalga oshiriladi. Baholashda quyidagilarga e’tibor beriladi: talabaning fikrlay olish qobiliyati; o‘z fikrini erkin bayon eta olishi; ta’lim oluvchining muammoli vaziyatlarni muhokama qila olishi. O‘qituvchi talabalarga o‘zini o‘zi baholash bo‘yicha topshiriqlar tavsiya etishi mumkin.

O‘zini o‘zi baholash mezonlari:

- Mavzu haqidagi tushunchaga ega bo‘lish – 2 ball.
- Mavzuda keltirilgan g‘oyalardan foydalana olish – 2 ball.
- Mavzu yuzasidan muammoli topshiriq yarata olish – 2 ball.
- Mavzu g‘oyasining hozirgi kundagi dolzarbligini asoslash – 3 ball.
- Mavzuning maqsadi va vazifalarini bayon qilish – 1 ball.

9–10 ball uchun 5 baho, 7–8 ball uchun 4 baho, 5–6 ball uchun 3 baho, 5 balldan kam to‘plangan natija uchun esa 2 baho qo‘yiladi.

Uyga vazifa: o‘qituvchilik kasbiga doir materiallar bilan tanishib chiqish hamda pedagogik mahorati yuqori bo‘lgan ustozlarning video va audio mashg‘ulotlarini tinglab, ular asosida insho yozib kelish. Pedagogik texnologiya doirasida mashg‘ulot ishlanmalari, texnologiya va metodlar, vositalar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va o‘qitishni tashkil etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda malakali pedagog o‘z ishiga ijodiy yondashishi hamda o‘z erkinligiga ega bo‘lgan holda mashg‘ulotda qo‘llaniladigan turli usul va uslublar, mashg‘ulotni tashkil etish shakllari va vositalarini mustaqil belgilashi muhimdir. Shundan kelib chiqib, ushbu bob bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan umumiy pedagogika va psixologiya o'quv faniga oid mashg'ulotlar modeli takomillashtirildi;
- ushbu model asosida mashg'ulot jarayonini loyihalashtirishda modelning har bir komponentiga alohida e'tibor qaratildi;
- oliy ta'lim muassasalarida umumiy pedagogika va psixologiya fanini o'qitish hamda ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi ishlab chiqildi;
- interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik kuchayadi, talabalarda erkin fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shakllanadi, natijada talaba shaxsi ta'lim jarayonida markaziy figuraga aylanadi;
- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida shakllantirishda multimedia vositalaridan unumli foydalanish ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirib, ta'lim samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari orqali rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Mediata'lim resurslari o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Ular interaktiv materiallar, video darslar, onlayn platformalar va boshqa ko'plab vositalarni o'z ichiga oladi, bu esa o'qituvchilarning pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: 28.01.2022-yildagi PF-60-son. https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2. Yoqubaliyeva D. P. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini "Tarbiya" fanini o'qitishga tayyorlashning samarali tamoyillari va omillari. Ekonomika i sotsium jurnali, 2025-yil.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. B. 704.
4. Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. T.: 2007-yil. B. 305.
5. Omonov H. T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Iqtisod-moliya, 2009-yil. 240 b.
6. Xozyainov G. I. O'qituvchi faoliyatining pedagogik tuzilishi va o'quv jarayonida o'qituvchi mahoratini shakllantirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. M.: 1991-yil. 39 b.

NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMADA YUZAGA KELADIGAN LINGVISTIK VA KOMMUNIKATIV QIYINCHILIKLAR



Turamurodova Sevinch Anvarovna
Samarqand davlat chet tillari instituti
Roman-German tillari fakulteti 2-bosqich
2402 guruh talabasi



Ilmiy rahbar: Sattorov Utkir Urazaliyevich
Samarqand davlat chet tillari instituti
Roman-German tillari fakulteti dekani,
(PhD) dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida tarjimada uchraydigan grammatik, leksik, idiomatik va madaniy xatolar tahlil qilinadi. Shuningdek, tarjima jarayonini samarali amalga oshirish va tabiiy hamda to'g'ri ifodalarni yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Tadqiqot nazariy va amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: tarjima, lingvistik qiyinchiliklar, kommunikativ qiyinchiliklar, grammatik struktura, idiomatik birliklar, madaniy tafovutlar, kontekst.

Abstract: This article examines the linguistic and communicative challenges encountered in translating from German into Uzbek. The study analyzes grammatical, lexical, idiomatic, and cultural errors that arise in the translation process. In addition, practical recommendations are provided for conducting translation effectively and producing natural and accurate expressions. The research encompasses both theoretical and practical aspects.

Key words: translation, linguistic challenges, communicative challenges, grammatical structure, idiomatic expressions, cultural differences, context.

Аннотация: Статья посвящена изучению лингвистических и коммуникативных трудностей, возникающих при переводе с немецкого на узбекский язык. В исследовании анализируются грамматические, лексические, идиоматические и культурные ошибки, возникающие в процессе перевода. Также даются практические рекомендации по эффективному осуществлению перевода и созданию естественных и корректных выражений. Исследование охватывает как теоретические, так и практические аспекты.

Ключевые слова: перевод, лингвистические трудности, коммуникативные трудности, грамматическая структура, идиоматические выражения, культурные различия, контекст.

KIRISH

Tarjima nazariyasi tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo‘lib, u tilaro munosabatlarni o‘rganish va madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Larson (1984) ta’kidlaganidek, tarjima jarayoni faqat so‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazish emas, balki semantik, stilistik va kontekstual xususiyatlarni hisobga olgan holda ma’noni uzatishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklarning yuzaga kelishi tabiiy jarayon hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nemis va o‘zbek tillarining grammatik va leksik jihatdan tubdan farq qilishi, idiomatik birliklarning o‘ziga xosligi hamda madaniy tafovutlar tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Newmark (1988) ta’kidlashicha, tarjimaning samarali amalga oshirilishi uchun faqat so‘z tanlash emas, balki kontekst, kommunikativ maqsad va o‘quvchining madaniy fonini ham hisobga olish zarur. Shuningdek, tarjimada yuzaga keladigan asosiy muammolar qatoriga so‘zlarning ko‘p ma’noliligi, sintaktik farqlar, idiomatik va frazeologik birliklarni moslashtirishdagi qiyinchiliklar kiradi.

Catford (1965) fikriga ko‘ra, til strukturasi va tizimidagi farqlar tarjimada semantik hamda stilistik moslashuvni talab qiladi. Shu sababli nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima nafaqat lingvistik bilimni, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham talab qiluvchi murakkab jarayon hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi – nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida uchraydigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklarni aniqlash, tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot nazariy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi hamda tarjima jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri lingvistik qiyinchiliklardir. Tilshunoslar ta’kidlaganidek, grammatik, leksik va idiomatik farqlar tarjimani murakkablashtiradi (Catford, 1965). Nemis tilining sintaktik strukturalari o‘zbek tilidan tubdan farq qiladi. Masalan, nemis tilida so‘z tartibi (SVO yoki SOV joylashuvi) hamda fe’lning gap oxirida kelishi tarjima jarayonida ma’noni noto‘g‘ri uzatishga olib kelishi mumkin. Misol tariqasida, nemischa “Ich habe das Buch gelesen” gapining to‘g‘ri o‘zbekcha tarjimasi “Men kitobni o‘qidim” shaklida beriladi, biroq so‘z tartibini mexanik saqlash tarjimada chalkashlik keltirib chiqaradi. Tarjimon grammatik tuzilmani o‘zbek tilining me’yorlariga moslashtirishi zarur, bu esa yetarli lingvistik bilimni talab qiladi.

Nemis tilida bir so‘zning ko‘p ma’noliligi o‘zbek tiliga tarjima qilishda jiddiy qiyinchilik tug‘diradi. Newmark (1988) ta’kidlashicha, ko‘p ma’noli so‘zlarni kontekstga qarab tarjima qilish zarur. Masalan, nemischa “Schloss” so‘zi “qasr” yoki “qulf” ma’nolarini anglatadi; tarjimon kontekstni inobatga olib, to‘g‘ri variantni tanlashi lozim. Nemis tilidagi idiomatik va frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga moslashtirish ham muhim masala hisoblanadi, chunki so‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha asl ma’noni yo‘qotadi. Masalan, “Das Kind beim Schopfe packen” iborasi so‘zma-so‘z “Bolani sochidan tutish” tarzida emas, balki “Masalani o‘z vaqtida hal qilish” shaklida tarjima qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarjima jarayonida lingvistik qiyinchiliklardan tashqari kommunikativ va madaniy to‘siqlar ham mavjud. Tarjimon faqat so‘zlarni emas, balki matnning kommunikativ maqsadini ham to‘liq yetkazishi lozim. Matn konteksti nemis va o‘zbek madaniyatlarida turlicha talqin qilinadi. Larson (1984) ta’kidlaganidek, tarjima qilinayotgan matnning kommunikativ vazifasi (informatsion, ta’limiy yoki adabiy) aniqlanmagan bo‘lsa, o‘quvchi noto‘g‘ri xabar qabul qilishi mumkin. Nemis tilidagi madaniy kodlarni o‘zbek tilida ifodalash ham muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, bayram, odat va an’ana nomlarini tarjima qilishda “Weihnachten” atamasini so‘zma-so‘z “Rojdestvo” deb berish bilan cheklanib qolmasdan, bayramning mazmuni va kontekstini tushuntirish zarur. Shuningdek, stilistik moslashuv masalasi ham muhimdir, chunki rasmiy matn va og‘zaki nutqda tarjima uslubi farqlanadi. Pragmatik jihatdan tarjimada matnning niyati, xulosasi va ohangini saqlash talab etiladi. Masalan, hazil, kinoya yoki adabiy obrazlarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ularni tushunarsiz holga keltirishi mumkin. Catford (1965) fikricha, pragmatik moslashuv tarjimaning muvaffaqiyat omilidir. Tarjima xatolarining oldini olish uchun kontekstga e’tibor qaratish, so‘z va iboralarni matn maqsadiga mos holda tarjima qilish, zarur hollarda madaniyatlararo izoh yoki qavs ichida tushuntirish berish, sinonim va ekvivalentlarni to‘g‘ri tanlash, stilistik moslashuvni ta’minlash hamda tarjimonning nazariy bilim va amaliy tajribasini muntazam ravishda oshirib borish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarjimaning muvaffaqiyati nafaqat grammatik va leksik bilimga, balki madaniyatlararo kompetensiya, kontekstni anglash va pragmatik jihatlarni hisobga olishga ham bog‘liq. Lingvistik qiyinchiliklar so‘z tanlashdagi ko‘p ma’nolilik, grammatik strukturalarning farqlari hamda idiomatik

birliklarni to‘g‘ri moslashtirish bilan bog‘liq bo‘lsa, kommunikativ qiyinchiliklar matnning stilistik, pragmatik va madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, nemis tilidagi ko‘p ma’noli so‘zlar, fe’l va otlarning sintaktik joylashuvi, shuningdek, idiomatik iboralar so‘zma-so‘z tarjimada chalkashliklar keltirib chiqaradi, bu esa tarjimonni har bir matnni kontekstga mos ravishda qayta ishlashga majbur qiladi. Tarjimon nemis va o‘zbek madaniyatlari o‘rtasidagi tafovutlarni inobatga olgan holda matnni o‘quvchi uchun tushunarli shaklga keltirishi lozim. Tadqiqot davomida aniqlangan xulosalar shundan iboratki, nemis tilidagi grammatik va leksik farqlar o‘zbek tilida tabiiy ifodalarni yaratishni talab qiladi, idiomatik va frazeologik birliklarni so‘zma-so‘z emas, balki ekvivalent ma’noda tarjima qilish zarur, kontekst, pragmatika va madaniyatlararo moslashuv tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy omillardir hamda tarjima xatolarining oldini olish uchun tarjimon nazariy bilim va amaliy tajribani uyg‘unlashtirishi lozim. Shu asosda, tarjima jarayonida konseptual tahlilni qo‘llash, madaniyatlararo izoh berish, tarjima nazariyasi bo‘yicha maxsus trening va mashg‘ulotlar tashkil etish, shuningdek, tarjima matnlarini o‘quvchi auditoriyasi kontekstiga mos ravishda qayta ishlash tavsiya etiladi.

XULOSA

Umuman olganda, nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u lingvistik, stilistik hamda madaniy jihatlarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, samarali tarjima faqat til bilimiga emas, balki kontekst va madaniyatni chuqur anglash qobiliyatiga ham bog‘liq. Shu sababli kelgusidagi tadqiqotlarda tarjima jarayonida avtomatlashtirish vositalari hamda madaniyatlararo o‘quv materiallarini integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Newmark P. Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988. 102-110-betlar.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2011. 78-85-betlar.
3. Mirzayev B. Tarjima amaliyoti: nemis va o‘zbek tillari misolida. Toshkent: Akademnashr, 2011. 56-64-betlar.
4. Xolmatov M. Tilshunoslik va tarjima metodikasi. Toshkent: Akademnashr, 2015. 88-95-betlar.
5. Turamurodova S. Nemis tili grammatikasini o‘rganishda tarjima lug‘atlaridan samarali foydalanish. Science Shine International Scientific Journal, Issue 24(59), Volume 1, ISSN 3030-377X. Farg‘ona, 2025. 161-165-betlar.
6. Turamurodova S. Nemis tili frazeologizmlarining qo‘llanilish xususiyatlari va tarjima masalalari. “Ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti – talaba yoshlar nigohida” mavzusidagi ilmiy-amaliy talabalar anjumani materiallari. Samarqand, 2025-yil 28-noyabr. 357-360-betlar.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY MEXANIZMLARNING ESTETIK MADANIYATDA IFODALANISHI

Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonining ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarga ta'siri hamda ularning estetik madaniyatda namoyon bo'lish xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabati, estetik ong va estetik tafakkur shakllanishida mafkuraning o'rni yoritilgan. Shuningdek, yoshlar estetik madaniyatida mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, ma'naviyat, mafkura, estetik madaniyat, milliy g'oya, qadriyatlar, yoshlar, mentalitet.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the impact of the globalization process on spiritual and ideological mechanisms, as well as the characteristics of their manifestation in aesthetic culture. It examines the interaction between national and universal values in the context of globalization and highlights the role of ideology in the formation of aesthetic consciousness and aesthetic thinking. In addition, the key directions for ensuring ideological stability in the aesthetic culture of youth are substantiated.

Key words: globalization, spirituality, ideology, aesthetic culture, national idea, values, youth, mentality.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализировано влияние процесса глобализации на духовно-идеологические механизмы, а также особенности их проявления в эстетической культуре. Раскрыта взаимосвязь национальных и общечеловеческих ценностей в условиях глобализации, показана роль идеологии в формировании эстетического сознания и эстетического мышления. Кроме того, обоснованы основные направления обеспечения идеологической устойчивости в эстетической культуре молодежи.

Ключевые слова: глобализация, духовность, идеология, эстетическая культура, национальная идея, ценности, молодежь, менталитет.

KIRISH

O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib, turli siyosiy to'fonlardan omon qolib, milliylik tuyg'ularini saqlab kelayotgan boy estetik tarbiyasi oila degan muqaddas maskanning mahsulidir. Uning yoshlar estetik madaniyatida yorqin ifodalanishi ma'naviyat va mafkuraning uyg'unligini ta'minlaydi. Globallashuv ta'sirida madaniyatni tijoratlashtirish va tadbirkorlik obyektiga aylanib borayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunki insoniyat o'z madaniyatidagi xilma-xil dizayn va jozibadorlikka ega g'oyalarning ta'sirida o'zining siyosiy va iqtisodiy kurashlarini olib bormoqda. Bunda elita, ilmiy va yuqori madaniyatlar o'rnini ancha daromadli pop-madaniyat egallab bormoqda. Madaniyat sohasidagi globallashuv o'ziga xos xavf va tahlikalarni keltirib chiqaradi.Bugungi kunda yoshlarga oid islohotlarning tub mohiyatini tashkil etishi bevosita besh muhim tashabbus bilan bog'liq bo'lib, ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning funksional imkoniyatlarini ochib beradi. Shu boisdan, yoshlarda estetik madaniyatni rivojlantirish har bir rahbar shaxsning kundalik vazifasi sifatida o'rtaga qo'yilishi, ertangi farovon kelajak uchun xizmat qilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni egallagan kelajak avlodning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Bunday ijtimoiy-estetik muhitni yaratish har bir fuqaroning faol pozitsiyasiga aylanishi lozim.

Ijtimoiy tartibotlar muayyan mafkura uchun xizmat qiladigan yakkalik va jamoaviylikka asoslangan mexanizmlarni vujudga keltiradi. Bu jarayondagi prinsiplar yoshlarning faolligini oshirish bilan bir qatorda doimo yangiliklar sari chorlaydi. Mana shunday jarayonlar kishilik jamiyati rivojida globallashuvga xizmat qilib kelgan. Bu borada Forobiy o'z fikrlarini bayon etar ekan: "Insonning borliqdagi narsalarni o'zlashtirishida xilma-xil kasb

egalari xizmatiga muhtoj bo‘ladi. Insonlar hamisha o‘z ehtiyojlarini qondirish va komillikka erishishda jamoaga hamda jamiyatga birlashishi zarur bo‘ladi” [1.238], deydi. Haqiqatan ham insonning yolg‘iz o‘zi biron-bir natijaga erishishi qiyin, buni amalga oshirish esa deyarli mushkul. Shuning uchun ham jamoaviylik insonning buyuk maqsadlarini ro‘yobga chiqarib, zamonaviy bilimlar va estetik ideallarning kamol topishiga xizmat qiladi. Biz yosh avlodni mana shu jamoaviylik ruhida tarbiyalashimiz, ruhiyatidagi ijodiy tuyg‘ularni milliy g‘oya bilan bog‘liq holda boyitishimiz darkor.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi paytlarda tadqiqotchilarning katta e’tibori globallashuv jarayonlarining madaniy jihatlarini o‘rganishga qaratilmoqda. G‘arbning ayrim sotsiologlari va siyosatshunoslari globallashuvning yoshlar madaniyatiga ta’sirini turlicha talqin qilmoqdalar. Globallashuv jarayonlarini rivojlantirishda madaniy omillarga katta ahamiyat berib, E. Giddens amerikaliklar hukmronlik qiladigan ommaviy axborot vositalarining globallashuviga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, televizor, reklama, kino va elektron aloqa orqali takrorlanadigan Amerika madaniy standartlari ko‘plab mamlakatlarning ijtimoiy-madaniy makoniga kirib borib, ommaviy axborot vositalari imperializmi hamda yagona madaniy imperiyaning shakllanishiga olib keladi. E. Giddensning ta’kidlashicha, Amerika televideniesi reklama eksporti bilan bir qatorda mahalliy madaniyatning turli shakllarini siqib chiqaradigan tijoratlashtirilgan madaniyatni targ‘ib etmoqda va uchinchi dunyo mamlakatlari ommaviy axborot vositalarining imperialistik ekspansiyasining yangi shakliga obyekt bo‘lib qolmoqda. Bu holat tashvishli jarayon sifatida baholanadi [2.120].

Globallashuv o‘z tendensiyalarini o‘zgartirib turadi:

1) madaniyat tarqalishining vektori o‘zgarib, Yevropadagi rivojlangan davlatlardan (Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) AQShga ko‘chgan;

2) ijtimoiy hayotda yaratilgan madaniy birliklar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, rivojlanib boradi va har bir texnik hamda texnologik o‘zgarish jarayonida Sharq va G‘arb o‘rtasidagi sanoat raqobati muhiti, axloqiy-estetik obrazlarning mohiyati yangilanib bormoqda.

Globallashuv ta’sirida madaniyat tijoratlashtirilib, tadbirkorlik obyektiga aylangan. Elita, ilmiy va yuqori madaniyatlar o‘rnini ancha daromadli pop madaniyat egallamoqda. “Demokratiya va insonparvarlik tamoyillariga xos “erkin globallashuv” hamda muayyan siyosiy vositalarga mos bo‘lgan “majburiy globallashuv”ning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish va oqibatlarining xarakterini belgilash lozim” [3.87]. Demak, yoshlarimiz globallashuv ta’sirida ijobiy tafakkurni shakllantirishlari uchun barchamiz o‘z mas’uliyatimizni unutmasligimiz kerak. Bugun yoshlarda shakllanayotgan global tafakkurni milliy qadriyatlar bilan boyitish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Globallashuv jahonda madaniyatlar o‘rtasidagi integratsiyaning kuchayishiga, shu bilan birga, bir tomondan, ularning nazoratini olib borishni osonlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, turli tahdidlarning paydo bo‘lishiga hamda ogohlikning davr talabi va ehtiyojiga aylanishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday boshqaruvning maqsadi madaniy globallashuvning ijobiy tomonlarini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini yumshatishdan iborat.

Globallashuvning funksional ta’siri “dunyo madaniyati” atamasining kelib chiqishiga olib keldi. Bu tushunchaning shakllanishi madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi va simbiozlashuvi jarayonini yuzaga keltirdi. Global muammolar doirasida yoshlarning ehtiyojlarini hisobga olish, madaniyatdagi o‘zgarishlarni muntazam tahlil qilib borish zarur. Mazkur “dunyo madaniyati” o‘zaro almashinuv munosabatlarida namoyon bo‘ladigan global daraja sifatida milliy, mintaqaviy hamda mahalliy darajadagi madaniyatlarni qamrab oladi. “Jamiyatda ommaviy tarzda milliy qadriyatlarni o‘zlashtirishga intilish kuchayib, turli sohalarda estetik madaniyatlarning zamonaviy funksiyalari odamlarda dunyo miqyosidagi qiziqishlarini shakllantirish kabi” [4.138] jarayonlar rivojlandi.

Jamiyat ehtiyojlarining o‘sishi oqibatida dunyo fuqaroligi uchun kurashish holatlari ham ma’naviy tahdidlar sirasiga kirib bormoqda. Odamlarda kosmopolitizmga intilish kuchayib, o‘zlari uchun estetik ideallarni yaratishga urinish, ayniqsa, yoshlar madaniyatida ommaviylikka taqlidchanlikning ortishi kuzatilmoqda. “Natijada, qadimiy, betakror milliy madaniyat va san’at makonida yoshlarning g‘oyaviy-estetik dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi kontent hajmi va turlari ko‘payib bormoqda” [5.12]. Biz bugun yoshlarga tarbiya berishda ma’naviyatimizning teran tomirlariga tayangan holda ishlashimiz, milliy qadriyatlarimizni ijtimoiy hayotda keng namoyon etib borishimiz zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuvning harakatlantiruvchi kuchi internet tarmoqlaridagi umuminsoniy-imperativ mezonlar (insonning tabiiy huquqlari, xalqaro normalar, yangi ma'naviy-axloqiy tamoyillar, jamoatchilik fikri) sifatida talqin etilmoqda. Bugungi davr yoshlarining tafakkurlash tarzi ma'lum bir ma'naviy borliq yoki mafkuraviy tizim shaklida emas, balki plyuralizmga asoslanishi global o'zgarishlar bilan hamohang bo'lib, hukmron madaniyat bilan kompromis yo'lidan borishga olib kelmoqda. Buni O'zbekistonning hozirgi vaqtdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mezonlari asosida baholash darkor. Bu mezonlar quyidagilarga asoslanishi kerak:

- *birinchidan,* Yangi O'zbekistonda estetik immunitetni shakllantirishda yoshlar qatlamiga dunyoviy rakurslar asosida dialektik yondashuvni qaror toptirish;
- *ikkinchidan,* umuminsoniylikka asoslangan falsafiy tafakkur va demokratik islohotlarning xalqni boshqarishdagi rolini kuchaytirish, yoshlarga boshqaruvda ishonch bilan keng imkoniyatlar berish;
- *uchinchidan,* har bir o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida estetik madaniyatga zamonaviy did va hamohanglik asosida zavqiy munosabatni shakllantirish hamda xalq ishonchini oshirish;
- *to'rtinchidan,* mafkurani mustahkam qurolga aylantirish orqali barcha fuqarolarda ma'naviyat kuch-qudratini jahonda namoyish etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatining shakllanishiga yangicha falsafiy tafakkur asosida yondashilmoqda. Yoshlarning o'zlari tanlaydigan madaniyatning kelajakka ta'sirini o'rganish, xalqning ijtimoiy ahvolini yaxshilash jarayonlari shakllandi. Natijada yoshlar ijtimoiy makonda estetik zavq bilan yashash, tashqi muhitdagi hodisalardan bahra olish, tabiat va jamiyatni barqarorlashtirish tizimida nafosat qonuniyatlariga amal qilishga yangicha ruhda yondashuvni vujudga keltirmoqda. Kelajak avlodda alohida e'tibor va zavqiy munosabat shakllandi. Bunda har bir yigit-qiz o'z ishonchini shu yurt bilan bog'lab, dunyoviylikka yo'g'rilgan g'oyalarni qabul qilmoqda. E'tibor qaratadigan bo'lsak, "bugun globallashuv sharoitida har qanday davlat va jamiyatning asosini tashkil etadigan asl va fundamental qadriyatlarni unutmasligimiz lozim" [6.311]. Ana shunday vaziyatda o'zligini, tarixiy merosini, ajdodlarning ming-ming yillarga borib taqaladigan qadriyatlarini saqlab qolishga intilish asosiy masalalardan biriga aylandi. Globallashuvga yoshlarning doimo tayyor bo'lishi zamonaviylikka mos estetik madaniyatning xilma-xil jabhalarini vujudga keltirmoqda. Oqibatda yoshlarning jamoaviylik ruhida yuksak marralar sari intilishi, ta'lim tizimi orqali zamonaviy usullar asosida real voqelikka aylantirilishi va mexanizmlaridan oqilona foydalanish taqozo etilmoqda.

Globallashuv axborotlashgan jamiyatda ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarni yoshlar ongiga singdirishni ta'lim-tarbiyaning turli yo'llari orqali amalga oshirishni oldimizga maqsad qilib qo'ydi. Buning uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Mazkur faoliyat doirasida yoshlar falsafiy tafakkurida ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlar vujudga kelmoqda. Birinchidan, har bir mahallada yashovchi yoshlarni doimiy nazoratga olish bo'yicha maxsus dasturlar yaratish orqali ularning qiziqish va muammolariga yechim topish; ikkinchidan, axborotlashgan jamiyatga uyg'un holda barcha ta'lim muassasalarida mafkuraviy va g'oyaviy tarbiyani zamon talablari darajasiga olib chiqish; uchinchidan, mahalladagi yoshlar yetakchisining faoliyatini kuchaytirish, ularning talab va takliflaridan kelib chiqadigan zamonaviy kasb-hunar hamda bilimlarni uzluksiz ta'lim tizimiga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Globallashuv insonni virtual olam sari yetaklaydi. Undagi o'zgarishlar makon va zamonda turli qarashlar bilan almashinib, milliylik va umuminsoniylik kasb etadi. Bugungi kunda yoshlarni turli ma'naviy tahdidlardan saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ayrim hollarda ma'naviy tahdid makoniga ham aylanmoqda. Ayniqsa, bunday jarayonga tayyor bo'lmagan yoshlar ongida u go'yoki estetik madaniyat ko'rinishi sifatida oilalarning ajralishiga, qadriyatlarning toptalishiga olib kelmoqda. Biz yoshlar ongida, avvalo, yuksak huquqiy savodxonlikni shakllantirishimiz, yurt taqdiri yosh oilalarning ertangi kuniga bog'liqligini mukammal tushuntirishimiz lozim. Buning uchun yoshlarning estetik ongida voqelikka nisbatan zavqiy munosabatlarni mustahkamlash zarur. Jamiyatimizdagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida Taraqqiyot strategiyasining amaliyotga tatbiq etilishi tadrijiy yangilanishlarni vujudga keltirmoqda. Globallashuv sharoitida o'sib kelayotgan yoshlarni turli tahdidlardan asrash, ularning qalbiga ezgulik g'oyalarini singdirish estetik madaniyat sohasida yangi bosqichni boshlab bermoqda.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev bu haqda shunday deydi: "yangi tahdidlar, jumladan, 'ommaviy madaniyat' xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda" [8.29]. Yoshlar jamiyatda o'zlarining mustahkam g'oya va qarashlarini shakllantirish jarayonida globallashuv mohiyatiga e'tibor qaratishlari, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini tahlil qilishlari kerak. Chunki ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on xabarlar davlat va jamiyatning ayrim jabhalariga nisbatan noto'g'ri qarashlarni yuzaga keltirmoqda. Axborotlashgan jamiyatning shiddat bilan o'zgarishi natijasida "XX asrda

globallashuv jarayonining tezlashishi va umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllana boshlashi jahon mafkuralarining xarakterini o‘zgartirib yubordi” [9.27]. Bunday jarayon odamlarning dunyoqarashida turli mafkuralar kurashini kuchaytirib, milliy taraqqiyotga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Biz yosh avlodga globallashuv oqibatlarini aniq misollar asosida tushuntirib berishimiz, uning ijobiy va salbiy jihatlariga estetik yondashuvni shakllantirishimiz kerak. Jamiyat taraqqiyotida har bir shaxsning o‘rni borligini anglash, ma’naviy madaniyatga ta’sirini aniqlash va mafkuraviy jarayonlardagi rolini kuchaytirishga ijtimoiy zamin yaratish ertangi kun farovonligini ta’minlaydi.

XULOSA

Umuman olganda, global muammolar hamisha insoniyat uchun ma’naviy va mafkuraviy tahdidlar sifatida vujudga keladi. Shu boisdan, globallashuv jahonda madaniyatlar o‘rtasidagi integratsiyaning kuchayishiga, shu bilan birga, bir tomondan ularni nazorat qilish jarayonining osonlashishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan turli tahdidlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday boshqaruvning maqsadi madaniy globallashuvning ijobiy jihatlarini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini yumshatishdan iborat. O‘zbekistonda yoshlar estetik madaniyatining shakllanishiga ham yangicha falsafiy tafakkur asosida yondashilmoqda. Natijada yoshlar ijtimoiy makonda estetik zavq bilan yashash, tashqi muhitdagi narsalardan zavqlanish hamda nafosat qonuniyatlariga amal qilishga yangicha ruhda yondashuvni shakllantirmoqda.

Kelajak avlodda estetik qadriyatlarga nisbatan alohida e’tibor va zavqiy munosabat shakllanmoqda. Globallashuv sharoitidagi axborotlashgan jamiyatda ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarni yoshlar ongiga singdirish ta’lim-tarbiyaning turli yo‘llari orqali amalga oshirilishi dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 2-жилд. – Б. 331.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 2-жилд. – Б. 178.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 1-жилд. – Б. 29.
4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 2-жилд. – Б. 141.
5. Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги асар авлоди, 2018. – Б. 238.
6. Гидденс Э. Ускользающий мир. Как глобализация меняет нашу жизнь. – Москва: Весь мир, 2004. – 120 с.
7. Кодиров Н.М. Ахборот медиамаданияти трансформацияси ва глобаллашуви // НамДУ илмий ахборотномаси. – 2019. – 12-сон. – Б. 87.
8. Флиер А.Я. Массовая культура и её социальные функции // ОНС: Общественные науки и современность. – Москва, 1998. – № 6. – С. 138.
9. Мустафаев Ш.Н. Глобаллашув шароитида талабаларни ғоявий-эстетик тарбиялаш технологияси (бадиий тўгараклар фаолияти мисолида): Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2018. – Б. 12.
10. Сафоева С. Глобаллашув жараёнининг ижтимоий ҳаёт соҳаларига таъсири // Глобаллашув жараёнида жамиятни демократлаштиришнинг сиёсий, фалсафий-ҳуқуқий масалалари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – Б. 27.
11. Махмудов Т. Гўзаллик ва ҳаёт. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 98.



TA'LIMGA KOMMUNAL XIZMATLARDAN FOYDALANISH MADANIYATINI OLIB KIRISHNING DOLZARBLIGI

Kodirova Kumushoy Farxodjon qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimiga kommunal xizmatlardan (suv, elektr energiyasi, gaz) oqilona foydalanish madaniyatini integratsiya qilishning dolzarbligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda ekologik madaniyat, energiya samaradorligi hamda barqaror rivojlanish g'oyalari asosida yosh avlodda resurslarga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro hujjatlar, jumladan UNESCOning "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim" konsepsiyasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida energiya va resurslarni tejash madaniyatini shakllantirishning normativ-huquqiy asoslari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kommunal xizmatlar, energiya samaradorligi, ekologik ta'lim, barqaror rivojlanish, energiya savodxonligi, ongli iste'mol, resurslarni tejash, ekologik madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat, ta'lim integratsiyasi.

Abstract: This article analyzes, from scientific-theoretical and practical perspectives, the relevance of integrating a culture of rational use of public utility services (water, electricity, and gas) into the education system. The study examines the formation of a conscious and responsible attitude toward resources among the younger generation based on the principles of environmental culture, energy efficiency, and sustainable development. In addition, within the framework of international documents, including UNESCO's "Education for Sustainable Development" concept and the Sustainable Development Goals adopted by the United Nations, the regulatory and legal foundations for fostering a culture of energy and resource conservation are analyzed.

Key words: public utilities, energy efficiency, environmental education, sustainable development, energy literacy, responsible consumption, resource conservation, environmental culture, social responsibility, educational integration.

Аннотация: В статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируется актуальность интеграции культуры рационального использования коммунальных услуг (воды, электроэнергии и газа) в систему образования. В исследовании рассматриваются вопросы формирования у молодого поколения сознательного и ответственного отношения к ресурсам на основе идей экологической культуры, энергоэффективности и устойчивого развития. Кроме того, в рамках международных документов, включая концепцию UNESCO "Образование в интересах устойчивого развития", а также Цели устойчивого развития, принятые Организацией Объединённых Наций, проанализированы нормативно-правовые основы формирования культуры энергосбережения и ресурсосбережения.

Ключевые слова: оммунальные услуги, энергоэффективность, экологическое образование, устойчивое развитие, энергетическая грамотность, ответственное потребление, ресурсосбережение, экологическая культура, социальная ответственность, образовательная интеграция.

KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda ekologik muammolar, resurslar tanqisligi va energiya inqirozi bilan bog'liq jarayonlar tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish hamda resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Ta'lim tizimida ekologik ongni rivojlantirish orqali resurslarni tejash, ekologik mas'uliyat va ongli iste'mol madaniyatini shakllantirishga erishish mumkin. Ayniqsa, suv, elektr energiyasi va gaz kabi kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini yosh avlod ongiga singdirish barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu holat kommunal xizmatlarning aholi hayotidagi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida kommunal xo'jalik sohasini isloh etish, huquqiy munosabatlarni tartibga solish, uy-joy fondidan foydalanish hamda xizmat ko'rsatish tizimiga bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha yuzdan ortiq

me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu islohotlar, avvalo, aholi turmush farovonligini yuksaltirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan.

So'nggi yillarda respublikamiz iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya tejamkorligini ta'minlashga yo'naltirilgan keng qamrovli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Energiya tejamkorligini ta'minlash mamlakatimizda ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi "2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim dasturiy hujjat sifatida xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda energiya, suv va gaz kabi kommunal resurslar global miqyosda cheklangan bo'lib, ulardan oqilona foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu bois ta'lim tizimida kommunal xizmatlardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, ta'lim va targ'ibot dasturlari aholining energiya va resurslardan tejamkor foydalanishga yo'naltirilgan xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda maktab o'quvchilarida energiya sarfi savodxonligi asoslarini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarovaning ma'lumotlariga ko'ra, yirik sanoat korxonalarida bir mahsulot birligi ishlab chiqarishga ketadigan energiya me'yorlarini belgilash ko'zda tutilgan. Shuningdek, maktablar, bolalar bog'chalari va boshqa ijtimoiy obyektlarga quyosh batareyalari hamda suv geliokollektorlarini o'rnatish, eshik va derazalarni yangilash rejalashtirilgan. Vazirlik tomonidan Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan hamkorlikda o'quvchilar orasida energiya sarfi savodxonligini oshirishga qaratilgan aniq dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar doirasida har bir o'quvchiga yoshligidanoq energiya resurslarining ahamiyati va ularni tejashning zarurligi haqida tushuncha berish vazifalari belgilangan. Vazirning ta'kidlashicha, bukletlarda elektr energiyasi, gaz va ichimlik suvini tejash bo'yicha oddiy va tushunarli misollar keltirilgan, 2025-yil uchun esa ushbu yo'nalish bo'yicha mas'ullar belgilab olingan. Bundan tashqari, maktablardagi "Tarbiya", "Geografiya" va "Fizika" fanlari mazmunida ham tabiiy resurslardan oqilona foydalanish g'oyalari mujassam etilgan.

Ta'lim jarayoniga kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini integratsiya qilish masalasi so'nggi yillarda ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish va energiya samaradorligi yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu muammo nafaqat iqtisodiy, balki pedagogik-psixologik, ijtimoiy va ma'naviy jihatlarni ham qamrab oladi. UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim" (Education for Sustainable Development – ESD) konsepsiyasida o'quvchilarda ekologik ongni rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda energiya va suvni tejash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi maskan, balki barqaror turmush tarzini shakllantiruvchi amaliy maydon bo'lishi lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining (SDGs) 4-maqsadi sifatli ta'limni, 7- va 12-maqsadlari esa energiya samaradorligi hamda mas'uliyatli iste'molni ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu hujjatlar ta'lim orqali kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarurligini ilmiy va normativ jihatdan asoslab beradi.

Ekologik ta'lim sohasida olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchilarda suv, gaz va elektr energiyasidan oqilona foydalanish ko'nikmalarini erta yoshdan shakllantirish yuqori samaradorlik berishi qayd etiladi. Pedagog olimlar ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar, kuzatishlar, tajribalar hamda loyihaviy faoliyat orqali kommunal madaniyatni singdirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. International Energy Agency hisobotlarida ham energiya tejamkorlik madaniyatini shakllantirishda ta'lim tizimi muhim omil ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, tadqiqotlarda maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida energiya iste'molini monitoring qilish, o'quvchilarni energiya tejashga qaratilgan tadbirlarga jalb etish samarali metodlar sifatida e'tirof etilgan.

Shaxsda ijtimoiy mas'uliyat va ongli xulq-atvorni shakllantirish masalalari pedagogika va psixologiya fanlarida keng yoritilgan. Xususan, Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida bolalarning ijtimoiy muhit orqali qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi ta'kidlanadi. Bu nuqtayi nazardan qaralganda, kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyati ham ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra esa bolalarda atrof-muhitga ongli munosabat bosqichma-bosqich rivojlanadi. Shu bois energiya va suvdan tejamkor foydalanish ko'nikmalarini yosh xususiyatlariga mos metodlar asosida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan energiya samaradorligi va ekologik barqarorlikka oid qonun hamda qarorlarda ta'lim tizimida energiya tejash madaniyatini shakllantirish vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, maktab va maktabgacha ta'lim dasturlariga ekologik tarbiya elementlarini integratsiya

qilish zarurligi alohida qayd etilgan. Pedagog olimlar tadqiqotlarida ham kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini oilaviy tarbiya va ta'lim muassasalari hamkorligi asosida shakllantirish yanada samarali natijalar berishi ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi xalqaro miqyosda dolzarb yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Tadqiqotlar ushbu jarayonni barqaror rivojlanish, ekologik tarbiya, energiya samaradorligi hamda shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish bilan uzviy bog'liq holda yoritadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim tizimiga kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini integratsiya qilish bugungi kunda bir qator omillar bilan asoslanadi. Xususan, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarga moslashuvchanlikni ta'minlash ushbu jarayonning metodologik asosini tashkil etadi. Energiya (elektr va gaz) hamda suv resurslaridan tejamkor va samarali foydalanishni o'rgatish orqali mamlakat iqtisodiyotiga tushadigan yukni kamaytirish va tabiiy boyliklarni kelajak avlod uchun asrab qolish imkoniyati yaratiladi.

Kommunal madaniyat ekologik tarbiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlarda xizmatlar uchun o'z vaqtida haq to'lash mas'uliyatini, shuningdek, iste'molchi sifatida o'z huquq va majburiyatlarini bilish ko'nikmalarini rivojlantirish ham mazkur metodologiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim jarayonida aqlli hisoblagichlar va energiya tejamkor texnologiyalar haqida tushunchalar berish o'quvchilarni zamonaviy infratuzilma sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Kommunal xizmatlardan madaniyatli foydalanish nafaqat shaxsiy tejamkorlikni, balki jamiyatning umumiy mulkini (ko'p qavatli uylar va umumiy tarmoqlarni) asrab-avaylashni ham ta'minlaydi. Ushbu madaniyatni shakllantirish orqali kelgusida kommunal tizimning barqaror ishlashiga hamda ijtimoiy mas'uliyatning yuksalishiga erishish ko'zda tutiladi.

Ta'lim orqali kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ekologik yo'nalish – tabiiy resurslarni asrash, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish;
- iqtisodiy yo'nalish – kommunal xarajatlarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va davlat resurslarini tejash;
- ijtimoiy yo'nalish – mas'uliyatli fuqarolikni shakllantirish, jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish hamda yosh avlodda ongli iste'mol ko'nikmalarini rivojlantirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda maktab hamda maktabgacha ta'lim tizimida energiya va tabiiy resurslardan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumta'lim maktablarida energiya sarfi savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan dasturlar joriy etilmoqda, o'quvchilarga elektr energiyasi, gaz va suvdan tejamkor foydalanish ko'nikmalari shakllantirilmoqda hamda tabiiy resurslarni asrash masalalari o'quv fanlari mazmuniga integratsiya qilinmoqda.

Davlat miqyosida ta'lim muassasalariga quyosh panellari va geliokollektorlarni o'rnatish, shuningdek, binolarning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu amaliy ishlar ta'lim muassasalari orqali jamiyatda kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi hamda mazkur yo'nalishdagi islohotlarning ijobiy samarasini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoniga kommunal xizmatlardan oqilona foydalanish madaniyatini integratsiya qilish ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Yosh avlodda resurslarga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish orqali kelgusida resurslardan samarali foydalanish tizimini rivojlantirish hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishga erishish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimida kommunal xizmatlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq:

- ta'lim dasturlariga resurslarni tejashga yo'naltirilgan maxsus modullarni kiritish;
- amaliy ekologik mashg'ulotlar va loyihaviy faoliyatni kengaytirish;
- energiya va suv iste'molini nazorat qilishga qaratilgan raqamli monitoring tizimlarini joriy etish;
- oila va jamiyat hamkorligini kuchaytirish orqali ekologik va kommunal madaniyatni yuksaltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi "2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Energiya samaradorligi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
4. Education and awareness programs and energy conservation behavior. – Sustainable Cities and Society, 2024.
5. The Impact of Environmental Education on Environmental Awareness. – International Journal of Science and Mathematics Education, 2020.
6. Integrating Energy Saving Awareness into Teaching and Learning Process. – Sustainability, 2020.

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA EKOLOGIK TA'LIMNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna
Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)

Toshmurodova Marjona
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlar asosida ekologik ta'limni tashkil etish texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong, ekologik madaniyat hamda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, ekologik ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik o'yinlarning ahamiyati tahlil qilingan. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ekologik ta'lim jarayoni bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va ekologik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya, maktabgacha ta'lim, ekologik madaniyat, interfaol metodlar.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of technologies for organizing environmental education in preschool educational institutions based on innovative approaches. The relevance of developing environmental awareness, environmental culture, and a conscious attitude toward nature among preschool children is substantiated. The pedagogical conditions for the effective organization of environmental education and the role of didactic games are analyzed. It is scientifically justified that environmental education organized on the basis of innovative approaches contributes to the development of children's independent thinking, creativity, and environmental responsibility.

Key words: environmental education, innovative approach, pedagogical technology, preschool education, environmental culture, interactive methods.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические и практические аспекты технологий организации экологического образования в дошкольных образовательных организациях на основе инновационных подходов. Обоснована актуальность формирования у детей дошкольного возраста экологического сознания, экологической культуры и осознанного отношения к природе. Проанализированы педагогические условия эффективной организации экологического образования, а также значение дидактических игр. Научно обосновано, что экологическое образование, организованное на основе инновационных подходов, способствует развитию самостоятельного мышления, творческих способностей и экологической ответственности детей.

Ключевые слова: экологическое образование, инновационный подход, педагогическая технология, дошкольное образование, экологическая культура, интерактивные методы.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muammolarning oldini olish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish, yosh avlodda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, ekologik ta'limni, ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda uning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, qadriyatlari hamda xulq-atvorining asoslari tarkib topadi. Bolalarda tabiatga mehr, uni asrash va e'zozlash tuyg'ularini shakllantirish kelajakda ekologik mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashning mustahkam poydevori hisoblanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limni zamonaviy, samarali va innovatsion yondashuvlar asosida yo'lga qo'yish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Innovatsion yondashuvlar bolalarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ekologik bilimlarni ongli va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ekologik ta'lim jarayonida tajriba-sinov ishlari, kuzatishlar, didaktik o'yinlar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Maktabgacha ta'lim davri bolalarda dunyoqarash shakllanadigan, ijobiy odatlar va tuyg'ular asoslari yaratiladigan muhim bosqichdir. Ekologik ta'limni aynan shu yosh davrida berish bolaning tabiatga hurmat, mas'uliyat va ehtiyotkor munosabatini erta bosqichdanoq mustahkamlash imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlar esa maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'limni samarali tashkil etishning yangi pedagogik mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari jahon miqyosida muhim ahamiyat kasb etayotgan bir sharoitda, har bir shaxs, ayniqsa, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodning bu borada zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida tabiatga nisbatan ongli va ehtiyotkor munosabatni shakllantirishda tarbiyachilarning o'rni beqiyosdir. Shu bois, bolalarda o'z yashab turgan mahalliy hudud hamda O'zbekiston tabiatiga mehr-muhabbat va ehtirom tuyg'ularini bolalikdan shakllantirib borish kelgusida ushbu fazilatlarning izchil rivojlanib borishiga mustahkam zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik ta'lim masalasi pedagogika, psixologiya va ekologiya fanlari tutashgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar maktabgacha yosh davrida ekologik tarbiyani shakllantirish shaxs kamolotida muhim o'rin tutishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Mashhur rus psixologi L.S. Vigotskiy bolalar rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning yetakchi rolini ta'kidlab, ta'lim jarayoni bolaning yaqin rivojlanish zonasiga mos bo'lishi zarurligini asoslab beradi. Uning fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar bilimni tayyor shaklda emas, balki faoliyat jarayonida, o'yin va tajribalar orqali o'zlashtiradi. Mazkur yondashuv ekologik ta'limda innovatsion metodlar – o'yin, kuzatish va tajribalar asosida ta'lim berishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Amerikalik pedagog J. Dyui "ta'lim – bu hayotning o'zi" degan g'oyani ilgari surib, bolani real hayot bilan bog'langan faoliyat orqali o'qitish tarafdori bo'lgan. Uning qarashlariga ko'ra, ekologik ta'lim bolani tabiat bilan bevosita muloqotga kiritish va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirish orqali yanada samarali amalga oshiriladi. Dyui ekologik ta'limda loyiha va muammo asosida o'qitish texnologiyalarini qo'llashni muhim deb hisoblaydi.

Mariya Montessori maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillik va atrof-muhitni anglash jarayoni tabiiy rivojlanish asosida kechishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolaning tabiat bilan bevosita aloqasi ekologik ongni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Montessori metodikasida tabiatni kuzatish, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish bolada ekologik mas'uliyatni shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Pedagog olima N.F. Vinogradova maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlarni shakllantirish masalasini chuqur tadqiq etgan. U ekologik ta'lim bolalarda nafaqat bilim, balki hissiy munosabat va axloqiy qadriyatlarni ham shakllantirishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekologik tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolalarning qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini kuchaytiradi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ekologik ta'limni barqaror rivojlanish ta'limi konsepsiyasi bilan uzviy bog'laydilar. Ularning qarashlariga ko'ra, maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda resurslardan oqilona foydalanish, tabiatga zarar yetkazmaslik va ekologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish pedagogik va psixologik jihatdan to'liq asoslangan. O'yin, loyiha, tajriba hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish bolalarda ekologik ong va ekologik madaniyatni samarali shakllantirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kichik guruhdan boshlab ekologik tushunchalarni shakllantirish, ekologik ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy hamda innovatsion usullarini izlab topish va ularni amaliyotga joriy etish mazkur tadqiqotning asosiy metodologik yo'nalishini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'limni tashkil etishning samarali shakl va vositalarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

Ekologiya tirik mavjudotlarning yashash sharoiti hamda ularning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadigan fan sohasi hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari tomonidan bolalarda ekologik ong, ekologik faoliyat, ekologik mas'uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirish, shuningdek, olingan bilimlardan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Xalqimizning "Sog' tanda – sog'lom aql" degan naqli asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Ushbu hikmat atrof-muhitning tozaligi, tabiatning sofligi va go'zalligi insonning bolalikdan sog'lom, jismonan baquvvat hamda aqlan yetuk bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, ekologik ta'lim va tarbiya maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish orqali, asosan, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar davomida bolalarda jonli va jonsiz tabiat, o'simliklar hamda hayvonot dunyosi haqidagi bilimlar bosqichma-bosqich shakllantirildi. Shuningdek, tabiatning rang-barangligi, uning foydali va zararli jihatlari tushuntirilib, uni asrab-avaylash, rivojlantirish va boyitish zarurligi, bu borada har bir insonning mas'uliyati mavjudligi uqtirildi. Shu sababli "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida tabiat bilan tanishtirish har bir yosh guruhida o'tkaziladigan mashg'ulotlar tizimida muhim o'rin egallaydi.

Ekologik ta'lim va tarbiya kichik guruhdan boshlab izchil tashkil etiladi. Ushbu bosqichda bolalarni tabiat bilan tanishtirish, jonli mavjudotlarga qiziqishini oshirish, ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish hamda o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishda kattalarga yordam berishga o'rgatish asosiy metodik vazifalar sifatida belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bolalarda tabiat hodisalari – yomg'ir yog'ishi, qor yog'ishi, quyosh nurlarining taralishi, shamol esishi kabi holatlarni kuzatish va ularni ifodalash ko'nikmalari shakllantirildi. Shuningdek, ko'katlar, daraxtlar va ularning farqlovchi belgilarini (ko'katlar – past bo'yli va ko'k rangli, daraxtlar – baland bo'yli hamda barglari ko'p bo'lishi) ajrata olishga o'rgatildi.

Maydonchaga uchib keluvchi qushlar va ularning xatti-harakatlari (uchishi, daraxtga qo'nishi, cho'qishi, tovush chiqarishi) bilan tanishtirish ishlari izchil tashkil etildi. Tabiat burchagida bolalarga xona o'simliklari va qafasdagi qushlar ko'rsatilib, ularning nomlarini ayta bilish, o'simliklarga suv quyish, qushlarga ozuqa va suv berish hamda ularni parvarish qilish ko'nikmalari shakllantirildi.

O'simliklar olami bilan tanishtirish jarayonida bolalarga olma, limon, apelsin kabi mevalar namoyish etilib, ularning tashqi ko'rinishi va ta'mini farqlashga o'rgatildi. Shuningdek, hududda va xonada gullaydigan gullar hamda daraxtlarni ajrata bilish va ularning nomlarini aytish malakalari rivojlantirildi. Hayvonot olamini o'rganishda esa bevosita kuzatishlar, rasmlar va o'yinchoqlar orqali bolalar kuchuk, mushuk, tovuq, xo'roz, echki, sigir, quyon, ayiq kabi jonivorlar hamda ularning bolalari (jo'ja, mushukcha, uloq, buzoq va boshqalar) bilan tanishtirildi. Jonivorlarning tana qismlari (kalla, dum, oyoq) hamda bosh qismi a'zolari (quloq, shox, ko'z, og'iz) nomlarini to'g'ri ayta bilish ko'nikmalari shakllantirildi. Shuningdek, bolalar jonivorlarning eng ko'zga tashlanadigan xususiyatlarini ajrata olishga o'rgatildi: sigir va echkida shoxning mavjudligi, xo'rozda chiroyli tojning bo'lishi, quyonda uzun quloq va kalta dumning mavjudligi, ayiqda esa kichik quloqlar va dumning yo'qligi kabi belgilar misol qilib ko'rsatildi. Bundan tashqari, bolalar xo'rozning qichqirishi, mushuk va kuchukning ovoz chiqarishini farqlay olish malakalarini egalladilar.

O'rta guruhda bolalarda o'simliklar va hayvonot olami, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Atrof-tabiatga muhabbat, uning go'zalligidan zavqlanish, o'simlik va jonivorlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash maqsadida buta va gullarni bosmasdan aylanib o'tish, ularni parvarish qilish va ulardan zavqlanishga o'rgatish ishlari olib borildi.

Katta guruhda bolalarning yaqin atrofdagi o'simliklar, uy va yovvoyi hayvonlar, tirik mavjudotlarning yashash sharoitlari hamda tabiatdagi fasllar va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarini aniqlash, tartibga solish va kengaytirish ishlari amalga oshirildi. Tabiat obyektlarining o'ziga xos va muhim belgilarini aniqlash asosida umumlashgan tasavvurlar shakllantirildi. Shuningdek, bolalarda ona yurt tabiatiga muhabbat va ehtiyotkorlik tuyg'ularini tarbiyalash, o'simliklar, hayvonlar hamda tevarak-atrof go'zalligidan zavqlanishga o'rgatish muhim vazifa sifatida belgilandi. Bolalarni tabiatda o'zini madaniyatli tutish, dam olish joylarini iflos qilmaslik, gullab turgan o'simliklar, butalar va hayvonlarni asrashga o'rgatish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi.

Tayyorlov guruhida bolalarning jonli va jonsiz tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ularni hayvonlar va o'simliklar dunyosi bilan tizimli ravishda tanishtirish, tabiat hodisalarining fasllarga qarab o'zgarishini yil davomida kuzatish hamda tabiat taqvimida aks ettirish ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va g'amxo'rlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'simliklarni payhon qilmaslik, hayvonlarga ozor bermaslik hamda tabiat qo'ynida o'zini odobli tutish (butalar va daraxtlarni sindirmaslik, hayvonlarni qo'rqitmaslik, dam olish joylarida chiqindi qoldirmaslik) kabi xulq-atvor me'yorlarini singdirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'lim va tarbiyani tashkil etishda empirik, kognitiv, evristik, kreativ va adaptiv pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi hamda bolalarning bilish faolligini rivojlantiradi. Empirik texnologiya sezgi a'zolari orqali bilim olishga asoslanib, bolalarda kuzatuvchanlikni kuchaytiradi. Kognitiv texnologiya atrof-olam haqidagi

bilimlar doirasini kengaytirishga xizmat qilib, tahliliy tafakkurni rivojlantiradi. Evristik yondashuv yo‘naltiruvchi savollar asosida izlanishga undab, topqirlik va faollikni oshiradi. Kreativ texnologiya bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltiriladi, adaptiv yondashuv esa axborotni o‘zlashtirish va undan foydalanish jarayonini qulaylashtirish orqali kutilgan natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Shuningdek, didaktik o‘yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan noan’anaviy mashg‘ulot shakllari ham yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. Jumladan, ishchanlik o‘yini darsi mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida bolalarning faol ishtirokini ta’minlab, yangi bilimlarni mustahkamlashga xizmat qildi. Rolli o‘yin mashg‘ulotlari esa bolalarga oldindan belgilangan rollarni bajarish orqali mavzuga oid bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish imkonini berdi.

1. **Teatrlashtirilgan mashg‘ulot** – mashg‘ulot mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlarini tashkil etish orqali mavzu bo‘yicha chuqur va aniq bilimlar berishga yo‘naltirilgan dars shaklidir.
2. **Kompyuter mashg‘uloti** – mashg‘ulot mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o‘quv kurslari va shu kabilar) asosida tashkil etiladigan dars shaklidir.
3. **Yarmarka mashg‘uloti** – mashg‘ulot mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirgan bolalarning o‘zaro muloqot asosida guruhga qiziqarli tarzda tushuntirishlari orqali o‘tkaziladigan mashg‘ulotdir.
4. **Integral (integratsiyalashgan) mashg‘ulot** – bir nechta mashg‘ulot turlariga oid, integratsiya qilish uchun qulay bo‘lgan mavzular asosida tashkil etiladigan mashg‘ulot bo‘lib, u bolalarning turli mashg‘ulot turlariga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ta’lim jarayonidagi faolligini ta’minlaydi.
5. **“Mo‘jizalar maydoni” mashg‘uloti** – bolalar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yin shaklidagi mashg‘ulot bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javob topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali bolalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik hamda bilimlarni kengaytirish sifatlarini rivojlantiradi.

Didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilim darajasi va tarbiyalanganlik holati hisobga olinadi. Har bir didaktik o‘yin mashg‘ulotiga o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Ushbu talablarning to‘liq bajarilishi har bir tashkilotchining doimiy e’tiborida bo‘lishi lozim. Shuningdek, har bir didaktik o‘yin uchun ajratiladigan vaqt miqdorini to‘g‘ri belgilash va unga rioya qilish, mashg‘ulotning maqsadiga muvofiq foydalanish muhim ahamiyatga ega.

“Klaster” o‘yini

Maqsad: Klaster usuli asosida daraxt mevalari turlarini guruhlash, ayrim belgilariga ko‘ra umumlashtira olish hamda bolalarda diqqat va kuzatuvchanlikni rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Turli quruq va ho‘l mevalarning alohida-alohida rasmlari.

O‘yinning borishi: Bolalarga turli xil quruq va ho‘l mevalarning alohida-alohida rasmlari to‘plami tarqatiladi. Bolalar mevalarni turiga qarab guruhlaydilar: ho‘l mevalarga olma, o‘rik, shaftoli, gilos, nok; quruq mevalarga esa yong‘oq, bodom, pista kabilarni ajratadilar.

“Charxpalak” texnologiyasi asosida “Nimaning bolasi?” o‘yini

Maqsad: Bolalarni hayvonot olami bilan yaqindan tanishtirish hamda ularning so‘z boyligini oshirish.

Kerakli jihozlar: Ot, toychoq, echki, uloqcha, qo‘y, qo‘zichoq, mushuk, mushukcha, tuya, bo‘taloq tasvirlari.

O‘yinning borishi:

Tarbiyachi bolalarga murojaat qiladi: “Bolajonlar, hayvonlarning bolalariga onasini topishga yordam beramiz”. Bolalar berilgan tasvirlar asosida har bir hayvon bolasi uchun mos onasini topadilar va juftlaydilar (1-jadval).

1-jadval: **Hayvonlar va ularning bolalarini moslashtirish bo‘yicha didaktik o‘yin namunasi**

№		Mushukning bolasi	Qo‘yning bolasi	Tuyaning bolasi	Echkining bolasi	Otning bolasi
1	Toychoq					*
2	Uloqcha				*	
3	Mushukcha	*				
4	Qo‘zichoq		*			
5	Bo‘taloq			*		

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, jumladan innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish va e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar tomonidan o'quvchilarni bilimlarni mustaqil izlashga, ularni tahlil qilishga hamda xulosalarni mustaqil chiqarishga yo'naltirish imkoniyati kengayadi. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi uchun zarur sharoit yaratadi. Shu bilan birga, u boshqaruvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajarib, o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Dastlabki bosqichda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ekologik bilim, ko'nikma va munosabatlar darajasini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat va diagnostik topshiriqlardan foydalanildi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish mavjud bo'lsa-da, ekologik tushunchalar ko'proq umumiy va yuzaki xarakterga ega bo'lgan.

Aksariyat bolalar tabiat obyektlarini nomlay olgan, biroq ularni asrash zarurati haqida yetarli tushunchaga ega bo'lmagan; suv, havo va o'simliklarning ahamiyatini bilgan, ammo resurslarni tejashga oid amaliy xatti-harakatlarni muntazam namoyon etmagan; chiqindilarni saralash, tabiatga zarar yetkazmaslik kabi ekologik qoidalarga yetarli darajada amal qilmagan. Ushbu holat ekologik ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar ustunligini va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligini ko'rsatdi.

Shu munosabat bilan ekologik ta'lim jarayoniga quyidagi innovatsion yondashuvlar joriy etildi:

- ekologik mazmundagi didaktik va rolli o'yinlar;
- loyiha faoliyati ("Biz tabiatni asraymiz", "Bog'chamizdagi yashil burchak");
- amaliy tajribalar va kuzatishlar;
- raqamli va vizual vositalardan foydalanish.

Mazkur faoliyatlar jarayonida bolalarning ishtiroki sezilarli darajada faollashgani kuzatildi. O'yin va loyiha asosidagi mashg'ulotlar bolalarda ijobiy emotsional munosabatni shakllantirib, ekologik tushunchalarni ongli va mustahkam o'zlashtirishga xizmat qildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirdi, ekologik vaziyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirdi hamda jamoada ishlash va mas'uliyat hissini kuchaytirdi. Natijada bolalarda ekologik bilimlar hajmi sezilarli darajada oshdi, tabiatga ehtiyotkor munosabat va ekologik xulq-atvor ko'nikmalari shakllandi, ular ekologik muammolarni sodda darajada tushuntira olish va ularni hal etish bo'yicha takliflar bera boshladilar. Shuningdek, ekologik faoliyatga bo'lgan qiziqish barqarorlashdi.

Tarbiyachilar faoliyati tahlili ham shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlardan foydalanish pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirdi va ta'lim jarayonining sifatini yanada yaxshiladi.

Xalq og'zaki ijodidagi maqollar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik ongni shakllantirishda "Gul tikansiz bo'lmas", "Daraxt bir joyda ko'karadi", "Jo'jani kuzda sanaydilar", "Ikki quyonni quvlagan birini ham tutolmas", "Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog' qoladi", "Bog' jamoli bog'bonda", "Bulut yig'laydi, gul kuladi" kabi maqollardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiya bo'yicha boshlang'ich ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi ularni tabiatni sevadigan, uni asrab-avaylaydigan, odobli, erkin fikrlovchi va sog'lom barkamol avlod sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Bolalarda tabiat bilan muloqot qila olish, tabiatga qiziqish uyg'otish, uning bebaho boyliklari va ekologik g'oyalarni keng targ'ib etish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning samaradorligi, avvalo, mashg'ulotlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunda tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarining roli alohida ahamiyatga ega. Bolalarning tabiatga mas'uliyatli va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlariga erishish ekologik ta'lim-tarbiyaning maqsadlarini to'g'ri belgilash orqali ta'minlanadi. Sog'lom tabiiy muhit bo'lmagan sharoitda na iqtisodiy, na ijtimoiy taraqqiyot to'liq amalga oshishi mumkin emasligini inobatga olgan holda, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ekologik ta'lim berishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalasining dolzarbligini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yosh davri bolalarda ekologik ong, ekologik madaniyat hamda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish uchun eng muhim bosqich hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvlar – o‘yin, loyiha, tajriba-sinov hamda raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali ekologik ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Faoliyatga asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar bolalarning ekologik bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishiga, ularni kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bolalarda nafaqat bilim, balki ekologik xulq-atvor, tabiatga mehr-muhabbat va ehtiyotkorlik hissini ham shakllantiradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvlar tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga hamda ta’lim jarayonining mazmuni va sifatini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish ekologik barqarorlik, sog‘lom turmush tarzi va ekologik madaniyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Shu bois, ekologik ta’limni maktabgacha ta’lim tizimida ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kurbanova, S. I., & Radjabova, G. M. (2025-yil). Environmental Education for Preschool Children. Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 1(2), 186–189. – Unda bolalarda ekologik madaniyat va atrof-muhitga mehrni shakllantirish masalalari yoritilgan.
2. Sanginova, G. B. (2024-yil). Improving Organization in the First Environmental Education of Preschool Children. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(4), 440–447. – Maktabgacha ekologik ta’limni tashkil etish strategiyalari tahlil qilingan.
3. Ahmatova, F. X. (2024-yil). Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya: dolzarb muammolar va yechimlar. Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali. – Pedagogik yondashuvlar va metodik tavsiyalar bayon etilgan.
4. Xolmirzayeva, O. M. (2023-yil). 5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish yo‘llari. Pedagog. – Ekologik madaniyatni shakllantirishda ijodiy metodlar yoritilgan.
5. Xudayberdiyeva, T. (2022-yil). Maktabgacha ta’limda ekologik ta’lim va madaniyatni tarbiyalashning ilmiy metodologik va didaktik tamoyillari. Innovative Development in Educational Activities. – Ekologik ta’limning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan.
6. Abdullayev, F. M. (2025-yil). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni shakllantirishning psixologik yechimlari. Modern Education and Development, 17(7), 155–159. – Ekologik ongning psixologik jihatlari tahlil qilingan.

ИСТОРИЯ, ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ВИДА СПОРТА "КУРАШ"

Дустов Дилмурод Каримович
и.о. доцента кафедры "Физическая культура"
Навоийского государственного университета

Аннотация: В данной статье анализируются исторические корни, теоретические основы и современные тенденции развития вида спорта "кураш". Кураш, являясь древним наследием человеческой культуры, играет важную роль в физическом, духовном и нравственном воспитании личности. Кроме того, в статье освещаются вопросы международного развития узбекского кураша, а также система подготовки спортсменов, основанная на результатах научных исследований.

Ключевые слова: кураш, виды спорта, физическая подготовка, соревнования, узбекский кураш, спортивная психология, техника и тактика.

Annotatsiya: Mazkur maqolada "kurash" sport turining tarixiy ildizlari, nazariy asoslari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Kurash insoniyat madaniyatining qadimiy merosi sifatida shaxsning jismoniy, ma'naviy va axloqiy tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, maqolada o'zbek kurashining xalqaro miqyosda rivojlanishi hamda sportchilarni tayyorlashning ilmiy tadqiqotlarga asoslangan tizimi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: kurash, sport turlari, jismoniy tayyorgarlik, musobaqa, o'zbek kurashi, sport psixologiyasi, texnika va taktika.

Abstract: This article analyzes the historical roots, theoretical foundations, and modern trends in the development of the sport of Kurash. As an ancient heritage of human culture, Kurash plays a significant role in the physical, spiritual, and moral education of individuals. In addition, the article examines the international development of Uzbek Kurash and the system of athlete training based on scientific research.

Key words: Kurash, sports, physical training, competitions, Uzbek Kurash, sports psychology, technique and tactics.

ВВЕДЕНИЕ

В последние годы в Республике Узбекистан развитие спорта, воспитание здорового и гармонично развитого молодого поколения рассматриваются как одно из важнейших направлений государственной политики. В указах и постановлениях Президента особое внимание уделяется поддержке видов спорта, в частности национальных, их продвижению на международном уровне и развитию на основе современных научно-методических принципов.

С этой точки зрения кураш занимает особое место не только как вид спорта, развивающий физическую силу и ловкость, но и как средство формирования воли, терпения, психологической устойчивости и честности. Кураш – это древнее наследие узбекского народа, отражающее национальную гордость и признанное на международной арене. В 2018 году узбекский кураш был включён ЮНЕСКО в список "Нематериального культурного наследия человечества", что свидетельствует о его всемирном признании.

Постановлением Президента Республики Узбекистан от 4 ноября 2020 года № ПП-4881[1] "О мерах по дальнейшему развитию национального вида спорта кураш и повышению его международного авторитета" была утверждена система подготовки спортсменов, включающая физическую, техническую, тактическую, психологическую и теоретическую составляющие. Однако вопросы учёта индивидуальных особенностей спортсменов, рационального распределения нагрузок и научной организации психологической подготовки остаются актуальными.

1 Постановлением Президента Республики Узбекистан от 4 ноября 2020 года № ПП-4881 "О мерах по дальнейшему развитию национального вида спорта кураш и повышению его международного авторитета": https://lex.uz/docs/5080103

В связи с этим в данном исследовании рассматриваются вопросы внедрения модульной системы тренировок, основанной на научном подходе, анализа технических движений с использованием биомеханических методов, а также применения психологических методик для повышения спортивных результатов.

Цель исследования – разработка научно обоснованной методики повышения эффективности подготовки спортсменов по виду спорта кураш. Актуальность исследования определяется необходимостью совершенствования процесса подготовки борцов на основе современной теории спорта, биомеханики и психологии.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В научных исследованиях, посвящённых национальным видам спорта, кураш рассматривается не только как форма физической активности, но и как важный элемент духовно-нравственного воспитания личности. В трудах И. А. Каримова подчёркивается значимость национального наследия в формировании гармонично развитого поколения, где физическая культура и спорт выступают важными факторами укрепления моральных ценностей общества. В этом контексте кураш представлен как средство воспитания силы духа, дисциплины и патриотизма, что определяет его особое место в системе национальной физической культуры.

Теоретические и методические основы подготовки спортсменов по курашу подробно раскрыты в работах С. Расулова. Автор рассматривает кураш как целостную систему, включающую физическую, техническую, тактическую и психологическую подготовку. Особое внимание уделяется закономерностям развития двигательных качеств, специфике техники приёмов и организации тренировочного процесса. Данные положения создают научную базу для совершенствования методики подготовки борцов с учётом современных требований теории спорта.

В исследованиях Б. Олимова анализируются научные основы подготовки курашистов к соревновательной деятельности, где подчёркивается роль планирования тренировочных нагрузок, психологической устойчивости и тактического мышления. Дополняя эти исследования, материалы Международной ассоциации кураша отражают современные тенденции развития данного вида спорта на международном уровне, стандартизацию правил соревнований и расширение географии кураша. В совокупности представленные источники формируют целостное представление о кураше как о динамично развивающемся виде спорта, основанном на сочетании национальных традиций и современных научных подходов.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В исследовании использовался комплекс научно обоснованных методов, направленных на получение и анализ эмпирических данных, отражающих особенности развития вида спорта “кураш”. Сбор данных осуществлялся с применением педагогического наблюдения, тестирования физической подготовленности спортсменов и анализа соревновательной деятельности. Для оценки физических качеств использовались стандартизированные контрольные упражнения, а для изучения психического состояния спортсменов применялись валидные психологические методики. Экспериментальные данные фиксировались на начальном и заключительном этапах исследования. Полученные результаты подвергались количественной и качественной обработке с использованием методов математической статистики, включая вычисление средних арифметических значений и показателей вариативности. Сравнительный анализ позволил выявить динамику изменений исследуемых показателей и определить эффективность применяемой системы подготовки. Анализ и интерпретация данных проводились с опорой на современные положения теории спорта, биомеханики и спортивной психологии, что обеспечило объективность и достоверность выводов исследования.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Первые формы кураша появились в древнем Востоке, в частности среди народов Средней Азии. По археологическим данным, ещё в IV–III веках до н. э. существовали приёмы борьбы как часть боевой подготовки. В настоящее время узбекский кураш официально признан ЮНЕСКО как “Нематериальное культурное наследие человечества”, что подтверждает его историческую и культурную значимость.

Теория кураша основана на системе подготовки спортсменов, технике выполнения движений, тактике соревновательной деятельности, развитии психологической устойчивости и физических качеств. К основным физическим качествам относятся сила, быстрота, выносливость, ловкость и равновесие. В процессе тренировочных занятий данные качества развиваются во взаимосвязи и в комплексе, что обеспечивает целостную подготовку спортсменов.

В последние годы международная популярность кураша значительно возросла. В 1998 году в Ташкенте была создана Международная ассоциация кураша (IKA), в состав которой в настоящее время входят более 130 стран. Регулярно проводятся чемпионаты мира по курашу, что способствует расширению его географии и повышению соревновательного уровня. Наряду с этим усиливаются тенденции применения биомеханических и психологических исследований, направленных на совершенствование методики тренировочного процесса.

Кураш имеет важное воспитательное и социальное значение в формировании молодого поколения как физически развитых, духовно зрелых и патриотически настроенных граждан. В процессе занятий у спортсменов формируются такие личностные качества, как честность, терпение, сила воли и уважение к сопернику. В связи с этим кураш рассматривается не только как вид спорта, но и как эффективное средство воспитания личности (Таблица 1,2).

Таблица 1: **Показатели физических качеств борцов до и после эксперимента**[2]

№	Показатели	Единицы измерения	Начальный этап (M ± m)	Заключительный этап (M ± m)	Рост, %
1	Быстрота (бег 30 м)	сек	4,85 ± 0,09	4,61 ± 0,08	4,9
2	Сила (пресс за 1 мин)	раз	42 ± 2,1	48 ± 1,8	14,2
3	Выносливость (бег 1000 м)	сек	240 ± 6,4	224 ± 5,8	6,7
4	Ловкость (бег между конусами)	сек	12,5 ± 0,4	11,7 ± 0,3	6,4
5	Равновесие (стабилометрический тест)	балл	7,8 ± 0,3	8,6 ± 0,2	10,3

Таблица 2: **Уровень соревновательного стресса борцов (по шкале Р. Кэттелла)**[3]

№	Показатели	Начальный этап (балл)	Заключительный этап (балл)	Разница	Изменение, %
1	Уровень тревожности	18,4 ± 1,2	14,1 ± 1,0	–4,3	–23,4
2	Психическая устойчивость	6,2 ± 0,5	8,1 ± 0,4	+1,9	+30,6
3	Показатель мотивации	7,4 ± 0,3	8,6 ± 0,2	+1,2	+16,2

В рамках исследования предложена интеграция национального и научного подходов в современной системе подготовки спортсменов по курашу. Разработана модель совершенствования физической и психологической подготовки, основанная на сочетании традиционных узбекских приёмов с элементами современной теории спорта. Сформированы критерии биомеханической оценки технических движений борцов, позволяющие объективно измерять точность выполнения приёмов, уровень равновесия и распределение силы. Экспериментально проверены и статистически подтверждены психологические методы снижения соревновательного стресса, включая визуализацию, дыхательный контроль и мотивацию перед соревнованиями. Разработана новая модульная система тренировочного процесса, в которой физическая, техническая, тактическая и психологическая подготовка рассматриваются во взаимосвязи. Предложена методика определения индивидуального уровня тренировочной нагрузки в зависимости от возраста и спортивного опыта спортсменов, способствующая предотвращению переутомления и травматизма.

Практическая значимость исследования заключается в возможности совершенствования процесса подготовки спортсменов по курашу за счёт внедрения разработанной модульной системы, включающей физические, технические, тактические и психологические блоки, в деятельность спортивных школ, колледжей и высших учебных заведений. Полученные критерии биомеханического анализа движений могут быть использованы в тренерской практике для выявления и индивидуальной коррекции технических ошибок. Разработанные методы повышения психологической готовности, направленные на снижение предсоревновательного стресса, такие как дыхательные упражнения, концентрация внимания и визуализация, могут эффективно применяться в системе психологической подготовки спортсменов. Методика оценки тренировочной нагрузки позволяет рационально подбирать объём и интенсивность занятий с учётом возраста и функционального состояния спортсменов, что снижает риск травм. Результаты исследования могут быть использованы в образовательном процессе при преподавании дисциплин “Теория и методика спорта” и “Теория физического воспитания”, способствуя развитию аналити-

2 Анализ: наблюдается положительная динамика по всем показателям, что подтверждает эффективность новой тренировочной системы.

3 Анализ: Психологическая подготовка (упражнения на дыхание, визуализацию, концентрацию внимания) положительно повлияла на психическое состояние спортсменов.

ческого мышления у студентов. Кроме того, научное изучение узбекского кураша и совершенствование методики тренировочного процесса содействуют дальнейшему укреплению позиций национального вида спорта на международной арене.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОДЕНИЯ

Кураш как вид спорта представляет собой гармоничное единство физического, психического и духовного совершенства. Его развитие играет важную роль в сохранении национальных ценностей и повышении авторитета Узбекистана на международной спортивной арене. Научно обоснованная система подготовки создаёт прочную основу для дальнейших успехов отечественных спортсменов.

Список использованной литературы:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi rasmiy sayti. – www.kurash-ika.org.
3. Rasulov S. Kurash nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'zDJTI nashriyoti, 2022.
4. Olimov B. Kurashchilarni musobaqaga tayyorlashning ilmiy asoslari. Sport ilmi jurnali, № 3, 45–52, 2021.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ЧЕРЕЗ ВИДЫ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Турдиев Умиджон Камолиддинович
Д.п.ф. (PhD), профессор кафедры социальных и гуманитарных наук,
Навоийский университет инноваций

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы применения и совершенствования инновационных технологий в процессе различных видов спортивной деятельности студентов педагогических высших учебных заведений. Анализируется влияние цифровых технологий, интерактивных методов и мобильных приложений на эффективность образовательного процесса в сфере физического воспитания. Результаты исследования свидетельствуют о том, что инновационные подходы способствуют повышению уровня физической активности, развитию творческой инициативы и усилению мотивации студентов к учебно-спортивной деятельности.

Ключевые слова: педагогика, спортивная деятельность, инновационные технологии, цифровое образование, интерактивные методы, студент, физическое воспитание.

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining sport faoliyati jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda mobil ilovalarning sport-ta'lim jarayonidagi samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlar talabalarning jismoniy faolligi, ijodiy tashabbuskorligi va o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: pedagogika, sport faoliyati, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, interaktiv metodlar, talaba, jismoniy tarbiya.

Abstract: This article examines the application and improvement of innovative technologies through various types of sports activities among students of pedagogical higher educational institutions. The study analyzes the impact of digital technologies, interactive methods, and mobile applications on the effectiveness of the educational process in physical education. The research findings indicate that innovative approaches contribute to increasing students' physical activity, enhancing creative initiative, and strengthening motivation for educational and sports-related activities.

Key words: pedagogy, sports activities, innovative technologies, digital education, interactive methods, student, physical education.

ВВЕДЕНИЕ

В современную эпоху внедрение инновационных технологий в систему образования является одним из приоритетных направлений реформ, проводимых в Республике Узбекистан. В Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 "О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования"[1] определены задачи по внедрению в учебный процесс передовых педагогических технологий, основанных на международных стандартах. Эффективная организация спортивной деятельности студентов педагогических вузов не только способствует укреплению их физического здоровья, но и развивает навыки использования современных информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе.

1 Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 "О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования"

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В трудах узбекских учёных в области педагогики и физического воспитания подчёркивается, что спортивная деятельность студентов педагогических высших учебных заведений выступает важным фактором комплексного развития личности. В частности, Ф. А. Керимов в своих исследованиях по теории и методике физического воспитания отмечает, что целенаправленная организация спортивных занятий формирует у будущих педагогов не только физическую выносливость, но и профессионально значимые качества, такие как дисциплина, ответственность и педагогическая рефлексия. Аналогичную позицию занимает Р. С. Саломов, рассматривая спорт как средство интеграции образовательных и воспитательных задач в системе высшего педагогического образования.

Современные исследования акцентируют внимание на роли инновационных и цифровых технологий в модернизации спортивной деятельности студентов. По мнению О'. Толипова и М. Усмонбоева, внедрение цифровых образовательных ресурсов и интерактивных технологий в учебный процесс способствует повышению мотивации обучающихся и эффективности усвоения учебного материала. В контексте физического воспитания данные подходы позволяют использовать мультимедийные средства, электронные платформы и элементы дистанционного обучения для анализа двигательной активности и контроля результатов спортивной подготовки.

В нормативно-правовых и научно-методических источниках подчёркивается необходимость интеграции инновационных технологий и спортивной деятельности в педагогических вузах. В работах, подготовленных под эгидой Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, а также в материалах UNESCO, рассматривается значение цифровых инструментов и инновационных педагогических технологий для формирования у студентов компетенций XXI века. Эти исследования подтверждают, что сочетание спорта, педагогики и инноваций способствует созданию современной образовательной среды, ориентированной на развитие профессиональной и цифровой компетентности будущих педагогов.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В исследовании использовались количественные и качественные методы сбора и анализа данных, направленные на изучение эффективности применения инновационных технологий в спортивной деятельности студентов педагогических высших учебных заведений. Основными методами получения эмпирических данных послужили педагогическое наблюдение, анкетирование студентов и преподавателей, а также анализ учебно-методической документации и результатов учебно-спортивной деятельности. Для выявления динамики показателей физической подготовленности и мотивации обучающихся применялся сравнительный анализ данных, полученных на начальном и итоговом этапах исследования. Обработка количественных данных осуществлялась с использованием методов статистического анализа, включая расчёт процентных соотношений и средних значений. Качественные данные анализировались на основе обобщения и интерпретации ответов респондентов, что позволило определить педагогическую целесообразность и практическую эффективность внедрения инновационных и цифровых технологий в спортивно-образовательный процесс.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В условиях глобализации в сферу спорта активно внедряются цифровые технологии, такие как виртуальные тренеры, мобильные фитнес-приложения, онлайн-платформы для тренировок и системы биометрического мониторинга. Данные технологии помогают студентам самостоятельно планировать тренировочный процесс, анализировать собственные результаты и придерживаться принципов здорового образа жизни.

Для студентов педагогических направлений спортивная деятельность выступает не только фактором физического развития, но и важным средством воспитания, социальной и психологической адаптации. Использование инновационных методов позволяет преподавателю развивать физические качества студентов с учётом индивидуальных особенностей, проводить занятия в интерактивной и увлекательной форме, а также создавать на цифровых платформах коллективные спортивно-образовательные проекты.

В педагогических высших учебных заведениях эффективными признаны инновационные подходы, включающие преподавание теории спорта с использованием мультимедийных технологий, освоение техники движений посредством виртуальных симуляторов, внедрение элементов геймификации (системы баллов, рейтингов) для формирования соревновательной среды, а также оценку спортивных результатов с применением программ анализа на основе искусственного интеллекта.

Проведённые в последние годы наблюдения показывают, что использование инновационных технологий в спортивных занятиях способствует повышению посещаемости занятий на 25–30 %, улучшению уровня физической подготовленности студентов на 15–20 %, а также росту мотивации и творческой активности обучающихся.

Практическая реализация результатов исследования предполагает интеграцию спортивных занятий в педагогических вузах с цифровыми образовательными платформами, разработку мобильных приложений и интерактивных программ для каждого вида спорта, организацию курсов повышения квалификации для преподавателей по теме "Инновационные технологии в спорте", а также внедрение онлайн-системы рейтинговой оценки спортивных достижений студентов.

Таблица 1: **Анализ форм спортивной деятельности студентов**

№	Вид спортивной деятельности	Доля участвующих студентов (%)	Влияние на учебный процесс	Применение инновационных технологий (да/нет)
1	**Лёгкая атлетика**	35	Повышает физическую подготовку	Да
2	**Настольный теннис**	20	Развивает концентрацию внимания	Да
3	**Волейбол**	25	Формирует командные навыки	Да
4	**Футбол**	30	Развивает соревновательность	Нет
5	**Шахматы и шашки**	15	Развивает логическое мышление	Да

Таблица 2: **Анализ нормативных актов Президента Республики Узбекистан**

Документ	Дата принятия	Основное направление	Связь с темой исследования
№ ПП-2909 "О дальнейшем развитии системы высшего образования"	20-04-2017	Инновационные педагогические технологии	Интеграция спортивной деятельности в учебный процесс
№ ПП-5248 "О создании Института высшего спортивного мастерства"	06-06-2022	Подготовка кадров для спортивной сферы	Спортивная подготовка на основе современных технологий
№ ПП-4749 "О поддержке студентов-спортсменов"	12-06-2020	Мотивация и стимулирование спортивных достижений	Связь спортивной деятельности с образовательным процессом
Решение о модернизации педагогического образования	2020	Инновации в педагогике	Интеграция педагогики и спорта

В числе актуальных тенденций по рассматриваемой тематике отмечается рост внимания к развитию физического воспитания, спорта и образования в Республике Узбекистан, расширение вовлечённости молодёжи в массовый спорт, создание спортивных клубов при высших учебных заведениях и проведение межвузовских соревнований.

Существенное значение приобретает сотрудничество в сфере инновационных технологий и образования. Так, компания Huawei провела в Узбекистане форум по внедрению цифровых решений в рамках концепции Smart Education, что подтверждает актуальность цифровых платформ, облачных технологий и искусственного интеллекта в образовательном и спортивном процессе.

В 2024 году Президентом Республики Узбекистан была представлена инициатива по усилению вовлечённости молодёжи в спортивную деятельность, включая учреждение "Дня физической культуры и спорта" по четвергам, развитие университетских спортивных клубов и расширение системы межвузовских соревнований.

Практическая значимость исследования заключается во внедрении инновационных подходов в образовательный процесс педагогических вузов. Применение информационно-коммуникационных технологий, виртуальных тренировок, мобильных приложений и цифровых платформ в спортивной деятельности способствует развитию не только физической, но и когнитивной, психологической и цифровой компетентности студентов.

Участие будущих педагогов в инновационно организованных спортивных занятиях повышает уровень их профессиональной подготовки, формирует лидерские качества, коммуникативные способности и навыки мотивации обучающихся. Одновременно у студентов формируется культура использования инновационных технологий, приобретается опыт работы с виртуальными симуляторами, цифровыми системами мониторинга и "умными" спортивными устройствами, что укрепляет их технологическую грамотность.

Инновационные спортивные программы способствуют формированию здорового образа жизни, укреплению здоровья, снижению уровня стресса и повышению академической мотивации студентов. Интеграция инновационных спортивных методов повышает эффективность высшего образования, усиливает активность обучающихся, развивает междисциплинарные связи между педагогикой, психологией, технологиями и спортом, формируя модель "спорт–педагогика–инновация".

Ожидаемыми результатами исследования являются формирование у студентов инновационного мышления и технологической грамотности, разработка практических рекомендаций и методических пособий для педагогических высших учебных заведений, а также создание цифровой спортивно-образовательной среды в системе высшего образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Совершенствование спортивной деятельности студентов педагогических высших учебных заведений посредством инновационных технологий повышает эффективность образовательного процесса, способствует адаптации студентов к современному цифровому пространству и формированию здоровой, активной и творческой личности. Интеграция спорта и инноваций должна рассматриваться как неотъемлемый компонент современной педагогической системы

Список использованной литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Ta'lim tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Xodjayeva N., Karimov A. Jismoniy tarbiya va sportda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2023.
3. Yuldashev B. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. UNESCO. Sport Education and Innovation in Higher Education. – Paris, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ОНЛАЙН-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ

Суяров Хуршид Бахриддинович
Профессор кафедры "Физическая культура"
Навоийского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования у учащихся навыков самостоятельного обучения на основе эффективного использования онлайн-образовательных платформ. Проанализированы преимущества онлайн-обучения, современные методические подходы, а также пути повышения мотивации учащихся к самостоятельному освоению учебного материала. Особое внимание уделяется педагогическим технологиям, способствующим развитию цифровых компетенций обучающихся в условиях цифровой образовательной среды.

Ключевые слова: онлайн-обучение, самостоятельное обучение, образовательная платформа, цифровая компетенция, методика, мотивация.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini samarali onlayn ta'lim platformalari asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Onlayn ta'limning afzalliklari, zamonaviy metodik yondashuvlar hamda o'quvchilarning mustaqil bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: onlayn ta'lim, mustaqil ta'lim, ta'lim platformasi, raqamli kompetensiya, metodika, motivatsiya.

Abstract: This article examines the methodology for developing students' independent learning skills through the effective use of online educational platforms. The study analyzes the advantages of online learning, modern methodological approaches, and ways to enhance students' motivation for self-directed learning. Special attention is paid to pedagogical technologies that contribute to the development of students' digital competencies within a digital educational environment.

Key words: online learning, independent learning, educational platform, digital competence, methodology, motivation.

ВВЕДЕНИЕ

В последние годы стремительное развитие цифровых технологий вызвало глубокие изменения в системе образования. Переход учебного процесса в онлайн-формат и широкое использование дистанционных образовательных платформ потребовали обновления подходов к организации взаимодействия между преподавателем и учеником, а также к самому процессу обучения.

Цифровая образовательная среда предоставляет учащимся возможность осваивать материал независимо от времени и места, формируя у них умения саморазвития, самостоятельного поиска и критического мышления. Поэтому формирование навыков самостоятельного обучения посредством онлайн-платформ является одной из актуальных задач современной педагогики.

В Постановлении Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года № ПП-4884 "О дальнейшем развитии системы цифрового образования"[1] особое внимание уделяется вопросам повышения качества обучения с использованием современных цифровых платформ и направлению учащихся на самостоятельное освоение знаний.

1 Постановлении Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года №PQ–4884 "О дальнейшем развитии системы цифрового образования"

Онлайн-образовательные платформы, такие как Google Classroom, Moodle, Coursera и ZiyoNET, предоставляют обучающимся возможность самостоятельно усваивать учебный материал, выполнять задания в онлайн-режиме, а также оценивать и анализировать собственные результаты обучения. Данная система способствует формированию у учащихся навыков саморегуляции, ответственности и самостоятельного мышления.

Вместе с тем организация самостоятельной учебной деятельности в онлайн-среде не всегда даёт ожидаемые результаты. Это обусловлено тем, что значительная часть учащихся не владеет методикой эффективной работы в цифровой образовательной среде либо не обладает достаточным уровнем учебной мотивации.

Целью исследования является разработка и совершенствование методики формирования навыков самостоятельного обучения учащихся на основе онлайн-образовательных платформ.

В соответствии с поставленной целью в исследовании предусматривается анализ роли и возможностей онлайн-платформ в учебном процессе, определение эффективных методических подходов к формированию навыков самостоятельного обучения, разработка поэтапной модели обучения на основе платформ Google Classroom, Moodle и ZiyoNET, а также апробация полученных результатов в образовательной практике с последующей подготовкой методических рекомендаций.

Теоретическую основу исследования составляют положения конструктивистского и деятельностного подходов в образовании. Практическая значимость исследования заключается в развитии у учащихся цифровых компетенций и формировании эффективных стратегий самостоятельного обучения.

Научная новизна исследования заключается в разработке поэтапной методической модели формирования навыков самостоятельного обучения посредством онлайн-образовательных платформ, включающей стадии подготовки, мотивации, деятельности и рефлексии, направленные на развитие у учащихся умений саморегуляции, анализа и самооценки в цифровой образовательной среде. В работе выявлены и проанализированы педагогические условия, такие как уровень цифровой компетентности, мотивационная образовательная среда и интерактивное взаимодействие, оказывающие влияние на процесс самостоятельного обучения. Научно обоснована новая роль преподавателя как наставника и мотиватора, выполняющего консультативную функцию в управлении процессом самостоятельного обучения. Проведён сравнительный анализ онлайн-образовательных платформ Google Classroom, Moodle и ZiyoNET, в результате которого определены их преимущества и ограничения в контексте формирования навыков самостоятельного обучения. Разработаны методические рекомендации по интеграции элементов геймификации и проектного обучения в онлайн-образовательный процесс, что способствует повышению учебной мотивации и активности учащихся.

Практическая значимость исследования определяется возможностью применения полученных результатов при организации онлайн-обучения в школах и высших учебных заведениях с целью поэтапного формирования навыков самостоятельного обучения. Предложенные мотивационные и рефлексивные подходы способствуют развитию у учащихся способности к самоконтролю, самостоятельному поиску и анализу информации. Использование элементов “Blended learning”, “Flipped classroom” и “Gamification” позволяет сделать образовательный процесс более интерактивным и ориентированным на обучающегося. Результаты сравнительного анализа онлайн-платформ могут быть использованы педагогами при выборе наиболее эффективной цифровой образовательной среды. Материалы исследования целесообразно применять при разработке модулей курсов повышения квалификации преподавателей, а также при создании электронных учебников и дистанционных образовательных курсов.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В зарубежных педагогических исследованиях проблема развития навыков самостоятельного обучения в условиях онлайн-образования рассматривается как ключевой фактор повышения качества образования. В работах Т. Андерсона и А. Бейтса подчёркивается, что онлайн-образовательные платформы создают условия для гибкой организации учебного процесса, развития саморегуляции и ответственности обучающихся. Авторы отмечают, что цифровая среда способствует формированию у учащихся умений самостоятельно планировать учебную деятельность, контролировать результаты и корректировать индивидуальные образовательные траектории.

Значительный вклад в изучение методических основ онлайн- и смешанного обучения внесли Д. Гаррисон и Н. Вон, которые рассматривают blended learning как эффективную модель интеграции традиционного и дистанционного обучения. По их мнению, сочетание онлайн-платформ с аудиторной работой способствует активному вовлечению учащихся в учебный процесс и развитию навыков самостоятель-

ного освоения знаний. Исследования С. Храстински также подтверждают, что онлайн-взаимодействие при грамотной педагогической поддержке усиливает познавательную активность обучающихся и формирует устойчивые навыки самостоятельного обучения.

В национальных исследованиях Республики Узбекистан особое внимание уделяется развитию самостоятельного обучения в контексте цифровой трансформации образования. В трудах Н. Ходжаевой, а также М. Юлдашевой и А. Турсунова рассматриваются методические подходы к развитию самостоятельных учебных умений в онлайн-среде, обосновывается роль цифровых образовательных платформ как средства повышения мотивации и эффективности самостоятельного обучения.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе исследования применялась комплексная методология, направленная на получение и анализ данных о формировании навыков самостоятельного обучения учащихся с использованием онлайн-образовательных платформ. Основными методами сбора информации стали педагогическое наблюдение, анкетирование учащихся и преподавателей, а также анализ учебной деятельности в цифровой образовательной среде. Наблюдение позволило зафиксировать особенности самостоятельной работы обучающихся при выполнении заданий на платформах Google Classroom, Moodle и ZiyoNET. Анкетирование использовалось для выявления уровня учебной мотивации, степени саморегуляции и отношения учащихся к онлайн-обучению. Дополнительно применялся анализ цифровых следов обучения, включающий результаты тестов, выполненные задания и показатели активности обучающихся. Полученные данные обрабатывались с использованием методов качественного и количественного анализа, включая сравнительный и обобщающий подходы. Это позволило выявить динамику развития навыков самостоятельного обучения и определить эффективность используемых методических приёмов.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Онлайн-обучение представляет собой инновационную форму организации учебного процесса на расстоянии. Платформы, такие как ZiyoNET, Google Classroom, Moodle, Coursera и Kundalik, позволяют учащимся самостоятельно дополнять знания, выполнять тестовые задания, а также отслеживать результаты обучения с помощью встроенных систем оценки. Использование данных платформ способствует формированию у обучающихся навыков самостоятельного поиска и анализа информации, управления временем и планирования учебной деятельности, самоконтроля, а также культуры дистанционного общения.

В рамках формирования самостоятельного обучения предлагается поэтапная модель, включающая несколько взаимосвязанных стадий. На этапе подготовки осуществляется ознакомление с онлайн-платформой и формирование базовых технических навыков, что обеспечивает адаптацию учащегося к цифровой образовательной среде. Этап мотивации направлен на объяснение значимости самостоятельного обучения и постановку личных учебных целей, что способствует усилению внутренней мотивации. На этапе деятельности учащиеся выполняют самостоятельные задания, проектные и интерактивные работы, в результате чего формируются устойчивые навыки самостоятельного обучения. Этап рефлексии предполагает анализ достигнутых результатов и получение обратной связи, что обеспечивает развитие навыков самооценки и саморефлексии.

В условиях онлайн-обучения эффективное применение находят современные педагогические технологии и интерактивные методы. Смешанное обучение (Blended learning) предполагает сочетание традиционных и онлайн-форм обучения, перевёрнутый класс (Flipped classroom) ориентирован на самостоятельную подготовку теоретического материала с последующим выполнением практических заданий в ходе занятий, обучение на основе проектов (Project-based learning) направлено на решение реальных учебных и практических задач, а геймификация (Gamification) способствует повышению мотивации обучающихся за счёт использования игровых элементов. Применение данных технологий активизирует познавательную деятельность учащихся, развивает самостоятельное мышление и укрепляет взаимодействие между преподавателем и обучающимися.

В процессе онлайн-обучения существенно изменяется роль преподавателя. Он перестаёт выступать исключительно в качестве источника знаний и приобретает функции наставника, консультанта и мотиватора. Преподаватель осуществляет мониторинг учебной деятельности учащихся, обеспечивает регулярную обратную связь и оказывает содействие в формировании индивидуальной образовательной траектории развития.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЕДНРИЯ

Онлайн-образовательные платформы являются эффективным инструментом формирования навыков самостоятельного обучения. Они позволяют учащимся управлять собственным процессом обучения, развивать цифровые компетенции и проявлять творческий подход к учебной деятельности.

При правильном выборе методических подходов онлайн-обучение способствует формированию современной личности, способной к саморазвитию и непрерывному обучению.

Список использованной литературы:

1. Anderson, T. (2020). The Theory and Practice of Online Learning (3rd ed.). Athabasca University Press.
2. Bates, A. W. (2019). Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd.
3. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2018). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Jossey-Bass.
4. Hrastinski, S. (2021). What Do We Mean by Blended Learning? TechTrends, 65(5), 454–460. https://doi.org/10.1007/s11528-021-00610-3
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4884-sonli qarori. (2020–yil 6–noyabr). Raqamli ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2023). Raqamli ta’lim strategiyasi – 2030. Toshkent: Oliy ta’lim axborot markazi.
7. Xodjayeva, N. (2023). Onlayn ta’limda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Ta’lim texnologiyalari jurnali, 5(2), 45–52.
8. Yuldasheva, M., & Tursunov, A. (2022). Raqamli pedagogika va onlayn ta’lim muhitining afzalliklari. Pedagogika va innovatsiyalar jurnali, 3(4), 63–71.
9. Moodle Documentation. (2024). User Guide for Teachers. https://moodle.org
10. Google Classroom Help. (2024). Get Started with Classroom. https://support.google.com/edu/classroom
11. ZiyoNET ta’lim portali. (2024). Onlayn o‘qitish resurslari. https://ziyonet.uz
12. Coursera for Education. (2023). Empowering Learners through Online Platforms. https://coursera.org

OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARI SPORT FAOLIYATINING TURLI JIHATLARIDA TA'LIM INNOVATSIYALARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi p.f.b.f.d. (PhD), professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanishning ahamiyati, zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarini jismoniy tarbiya va sport jarayoniga joriy etish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli ta'lim vositalari, masofaviy o'qitish tizimlari va interaktiv metodlarning sport tayyorgarligi samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim innovatsiyalari, sport faoliyati, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, masofaviy ta'lim, jismoniy madaniyat.

Abstract: This article provides a scientific and practical analysis of the importance of using educational innovations in the sports activities of university students. It examines the application of modern pedagogical and information technologies in physical education and sports, as well as their impact on improving training effectiveness. In addition, the role of digital learning tools, distance education systems, and interactive methods in the process of sports training is substantiated.

Key words: educational innovations, sports activities, digital technologies, interactive methods, distance learning, physical education.

Аннотация: В статье с научно-практической точки зрения анализируется значение использования образовательных инноваций в спортивной деятельности студентов высших учебных заведений, а также применение современных педагогических и информационных технологий в системе физического воспитания и спорта. Кроме того, раскрывается роль цифровых образовательных средств, систем дистанционного обучения и интерактивных методов в повышении эффективности спортивной подготовки.

Ключевые слова: образовательные инновации, спортивная деятельность, цифровые технологии, интерактивные методы, дистанционное обучение, физическая культура.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli rivojlanish sharoitida ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish jismoniy tayyorgarlik sifatini oshirish, mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlash hamda talabalarning mustaqil va ongli faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sport ta'limi faqat an'anaviy mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmay, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida sport faoliyati talabalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy faolligi, shaxsiy mas'uliyati va o'zini-o'zi boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois sport mashg'ulotlarini tashkil etishda raqamli ta'lim vositalari, interaktiv metodlar, masofaviy o'qitish elementlari hamda tahliliy va monitoring tizimlaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunday yondashuv sport mashg'ulotlarining individuallashtirilishini ta'minlab, har bir talabaning jismoniy imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishga imkon yaratadi.

Ta'lim innovatsiyalarining sport faoliyatiga tatbiqi mashg'ulot jarayonini tizimli rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar talabalarda sportga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, ularni mustaqil mashg'ulotlarga jalb etish va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Natijada sport ta'limi jarayoni faqat jismoniy rivojlanishga emas, balki talabaning umumiy shaxsiy kamolotiga yo'naltirilgan kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan, oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatining turli jihatlarida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish texnologiyalarini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish, ularning samaradorligini aniqlash va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport pedagogikasida raqamli yondashuvlarni qo'llash masalasi zamonaviy ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida talqin etiladi. D. Alimova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sport ta'limida raqamli texnologiyalarni joriy etish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish, talabalar faol ishtirokini ta'minlash hamda o'quv jarayonini individuallashtirish imkonini berishi asoslab berilgan. Muallif sport mashg'ulotlarida videoanaliz, elektron monitoring va raqamli baholash vositalarining pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritadi.

Sh. Hasanovning sport pedagogikasida innovatsion texnologiyalarga bag'ishlangan ilmiy ishlari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish masalalariga qaratilgan. Tadqiqotlarda interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion ta'lim modellari sport mashg'ulotlarida motivatsiyani oshirish, nazariy va amaliy tayyorgarlik uyg'unligini ta'minlashda muhim omil ekani ta'kidlanadi. Muallif sport ta'limida innovatsiyalarni tizimli joriy etish orqali talabalarning jismoniy va shaxsiy rivojlanishiga erishish mumkinligini asoslaydi.

Xalqaro tajribada sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari UNESCO tomonidan tayyorlangan ilmiy-tahliliy materiallarda keng yoritilgan. Mazkur manbalarda jismoniy tarbiya jarayonida raqamli vositalar, masofaviy ta'lim elementlari va interaktiv metodlardan foydalanish sport ta'limi sifatini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Shuningdek, www.edu.uz va www.olympic.uz internet manbalarida oliy ta'lim muassasalarida sport faoliyatini tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda sport ta'limi amaliyotiga oid dolzarb ma'lumotlar berib boriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish jarayonini o'rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot ma'lumotlari ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy tajribalarni o'rganish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida sport mashg'ulotlari jarayonini kuzatish orqali to'plandi. Empirik ma'lumotlar talaba va o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar, intervyular hamda sport mashg'ulotlarida qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar samaradorligini aniqlashga qaratilgan monitoring natijalari asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, umumlashtirish va statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, sport faoliyatida innovatsion texnologiyalarning ta'lim sifati va mashg'ulot samaradorligiga ta'siri baholandi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim innovatsiyalarining sport faoliyatidagi o'rni sport sohasida yangi texnik vositalar, interaktiv dasturlar, raqamli tahlil platformalari hamda pedagogik metodlarning qo'llanilishi bilan izohlanadi. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini Smart Board, Zoom, Google Classroom, SportAnalytic kabi dasturlar orqali tashkil etish nafaqat o'qituvchi, balki talabaning ham faol ishtirokini ta'minlaydi. Bunday yondashuv mashg'ulotlarni samarali, shaffof va natijador tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, masofaviy ta'lim sharoitida videoanaliz, raqamli monitoring va onlayn test tizimlarining qo'llanilishi sportchilar tayyorgarligini baholashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Talabalarning sport faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida oliy o'quv yurtlari amaliyotida bir qator ustuvor yo'nalishlar shakllangan. Ushbu yo'nalishlar trening jarayonida raqamli tahlilni amalga oshirish, masofaviy sport ta'limini yo'lga qo'yish, talabalar motivatsiyasini oshirish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan bo'lib, ular zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshirilmoqda. Quyidagi jadvalda mazkur yo'nalishlar, qo'llaniladigan texnologiyalar va kutilayotgan natijalar tizimli tarzda aks ettirilgan.

1-jadval: **Oliy o'quv yurtlari amaliyotida quyidagi yo'nalishlar keng qo'llanilmoqda**

Yo'nalish	Qo'llaniladigan texnologiyalar	Kutilayotgan natija
Trening jarayonida raqamli tahlil	Videoanaliz dasturlari, mobil ilovalar	Texnik xatolarni aniqlash, mashqni mukammallashtirish
Masofaviy sport ta'limi	Moodle, Google Meet, Telegram-botlar	Mustaqil mashg'ulotlarni kuzatish, onlayn nazorat
Motivatsiyani oshirish	Gamifikatsiya elementlari, reyting tizimi	Talabalarni faol ishtirok etishga undash
Sog'lom turmush tarzi targ'iboti	Elektron testlar, infografika, bloglar	Axborot madaniyatini rivojlantirish

Innovatsion texnologiyalarni sport faoliyatiga tatbiq etish ilmiy-amaliy jihatdan muhim natijalarga olib kelmoqda. Jumladan, talabalar o'z jismoniy ko'rsatkichlarini mustaqil ravishda kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda, o'qituvchilar esa mashg'ulot jarayonida individual yondashuvni shakllantirish imkonini topmoqda. Raqamli tahlil asosida mashg'ulotlar samaradorligi 20–25 % ga oshgani so'nggi tadqiqotlar natijalarida qayd etilgan. Shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida sportchilarning psixologik tayyorgarligini baholash imkoniyati ham kengaymoqda.

Mazkur tadqiqot doirasida bir qator ilmiy yangiliklarga erishildi. Xususan, oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatiga raqamli va interaktiv ta'lim texnologiyalarini tizimli integratsiya qilish bo'yicha yangi metodik yondashuv ishlab chiqildi. Masofaviy ta'lim vositalari, jumladan, Google Classroom, Moodle, SportAnalytic va boshqa platformalar asosida sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik modeli taklif etildi. Talabalarning jismoniy tayyorgarligini baholashda videoanaliz va raqamli monitoring texnologiyalaridan foydalanish orqali ob'ektiv tahlil qilish usuli ishlab chiqildi. Shuningdek, sport mashg'ulotlarida gamifikatsiya va reyting tizimlarini qo'llash orqali talabalar motivatsiyasini oshirishning amaliy samaradorligi asoslab berildi. Olingan natijalar asosida sport sohasida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning bosqichma-bosqich modeli ishlab chiqilib, uni amaliyotga tatbiq etish yo'llari aniqlandi.

Mavzuning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi sport sohasida talabalar jismoniy tayyorgarligini oshirish, sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Oliy o'quv yurtlari talabalari sport faoliyatida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish o'qitish jarayonini samarali, zamonaviy va talabalarga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga yordam beradi. Bu esa talabalarning sportdagi yutuqlarini oshirish bilan birga, ularning intellektual, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Raqamli vositalar, interaktiv platformalar va sun'iy intellekt asosidagi tahlil tizimlaridan foydalanish sport mashg'ulotlarini individuallashtirish, natijalarni tezkor baholash hamda o'quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Natijada sport sohasida innovatsiyalarni qo'llash zamonaviy ta'lim tizimining muhim omili sifatida yosh avlodni sog'lom, bilimli va tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida so'nggi yillarda sport faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni sezilarli darajada faollashgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida oliy ta'lim muassasalarining 68 foizida sport ta'limiga raqamli platformalar, onlayn trening tizimlari va masofaviy nazorat vositalari joriy etilgan. 2024-yil yakunlariga ko'ra, talabalarning 74 foizi sport mashg'ulotlarida mobil ilovalar yoki onlayn monitoring tizimlaridan foydalangan bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yilda 39 foizni tashkil etgan.

Quyidagi jadvalda sport sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'sish dinamikasi aks ettirilgan.

2-jadval

Yil	Raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi oliy ta'lim muassasalari (%)	Talabalarning sport innovatsiyalaridan foydalanganlik darajasi (%)
2020	35	39
2021	47	51
2022	56	62
2023	63	68
2024	68	74

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yil ichida sport sohasida ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish hajmi deyarli ikki baravar oshgan. Bu holat o'qitish samaradorligi, talabalarning sportga bo'lgan qiziqishi hamda ularning natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. O'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, talabalarning 81 foizi

innovatsion texnologiyalar sport mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli va samarali qilganini bildirgan, o‘qituvchilarning 72 foizi esa ushbu usullar orqali nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi muvozanat yaxshilanganini ta’kidlagan. Umuman olganda, statistik ma’lumotlar ta’lim innovatsiyalarining sport ta’limi sifatini oshirishda, talabalarga individual yondashuvni kuchaytirishda va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilashda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy o‘quv yurtlari talabalari sport faoliyatida ta’lim innovatsiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalarning mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish hamda jismoniy va aqliy jihatdan har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish sport sohasida ham ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim. Innovatsion yondashuvlar sport mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish, talabalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Takliflar. Sport faoliyatida ta’lim innovatsiyalaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish maqsadida har bir oliy ta’lim muassasasida sport faoliyati uchun alohida raqamli platformani joriy etish maqsadga muvofiq. O‘qituvchilar uchun innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga yo‘naltirilgan muntazam seminar va malaka oshirish tadbirlarini tashkil etish zarur. Talabalarning sport natijalarini baholash jarayonida onlayn tahlil va monitoring tizimlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, sport mashg‘ulotlarini AR/VR texnologiyalari, ya’ni virtual va kengaytirilgan reallik asosida tashkil etish tajribasini bosqichma-bosqich kengaytirish sport ta’limining zamonaviyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova D. Sport pedagogikasida raqamli yondashuvlar. – O‘zbekiston jismoniy tarbiya jurnali, 2022-yil.
2. Hasanov Sh. Sport pedagogikasida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2021-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–5416. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari, 2022-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risidagi PQ–3775-son qarori, 2023-yil.
5. UNESCO. Innovative Pedagogical Technologies in Physical Education, 2020-yil.
6. Internet manbalari: www.edu.uz; www.olympic.uz.

РОЛЬ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОЙ АЭРОБИКИ В ПОВЫШЕНИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ

УДК: 796.015.132:613.71

Яхшиева Мехринигор Шавкатовна
Старший преподаватель, д.п.н.п.ф. (PhD) кафедры физической культуры и спорта Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: В статье рассмотрено влияние оздоровительной аэробики на уровень двигательной подготовленности учащихся. Представлены результаты сравнительного анализа физической подготовленности учащихся, занимающихся различными видами оздоровительной аэробики, такими как степ-аэробика, танцевальная аэробика и шейпинг. Анализ показателей физической подготовленности выявил особенности проявления тренировочного эффекта в зависимости от вида оздоровительной тренировки.

Ключевые слова: оздоровительная аэробика, физическая подготовленность, степ-аэробика, шейпинг.

Annotatsiya: Maqolada sog'lomlashtiruvchi aerobikaning o'quvchilarning harakat (dvigatel) tayyorgarligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Sog'lomlashtiruvchi aerobikaning turli yo'nalishlari – step-aerobika, raqs aerobikasi va sheyping bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini qiyosiy tahlil qilish natijalari keltirilgan. Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish turli turdagi sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar ta'sirida mashg'ulot samaradorligi namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini aniqlash imkonini berdi.

Kalit so'zlar: sog'lomlashtiruvchi aerobika, jismoniy tayyorgarlik, step-aerobika, sheyping.

Abstract: The article examines the impact of health-oriented aerobics on the level of motor preparedness of students. The results of a comparative analysis of physical fitness among students engaged in various types of health aerobics, including step aerobics, dance aerobics, and shaping, are presented. The analysis of physical fitness indicators revealed specific features of training effects depending on the type of health-oriented exercise.

Key words: health aerobics, physical preparedness, step aerobics, shaping.

ВВЕДЕНИЕ

Одним из популярных средств, используемых с целью оздоровления, является ритмическая гимнастика – аэробика (как более широкое и в настоящее время общепринятое название), завоевавшая весь мир и пользующаяся большой популярностью среди учащейся и студенческой молодёжи. Её возможности не ограничиваются рамками учебной программы и характеризуются широким арсеналом средств и методов, доступных каждому занимающемуся.

Всё чаще аэробика используется в самостоятельных, индивидуальных и семейных занятиях, а также является неотъемлемой частью досуговых мероприятий, в том числе и зрелищных. Включение в программу занятий таких направлений, как шейпинг, степ-аэробика, стретчинг и др., позволяет расширить содержание учебного программного материала и повысить эмоциональную насыщенность уроков.

По мнению ряда авторов, для девушек предпочтительны такие виды физической активности, в которых проявляются гибкость, координационные способности, пластичность и танцевальность движений. Опираясь на многолетний практический опыт работы с женскими группами, можно утверждать, что именно такой характер учебного материала для физического развития в наибольшей степени соответствует особенностям их моторики и оказывает благоприятное воздействие на эмоциональное состояние.

В плане оздоровительной направленности лидирующие позиции занимает танцевальная аэробика. Данный вид физической активности проводится на основе фольклорных и современных танцевальных направлений, таких как рашен-фолк, афроджаз, зумба, джаз-модерн, латино-аэробика, фанк-аэробика, хип-хоп и др.

Средствами танцевальной аэробики в первую очередь развиваются координационные способности (процессы согласования активности мышц тела, направленные на успешное выполнение двигательной задачи), подвижность в суставах (способность выполнять движения с большой амплитудой) и выносливость (способность организма противостоять утомлению при выполнении упражнений в течение длительного времени).

В последние годы разрабатываются и внедряются в практику различные программы по оздоровительным видам аэробики:

- исследованы возможности дифференцированного применения комплексов ритмической гимнастики в учебном процессе по физической культуре в высших учебных заведениях;
- определена эффективность комплексных форм занятий, сочетающих различные средства физической культуры: ритмическую гимнастику, оздоровительный и легко-атлетический бег, а также общеразвивающие упражнения;
- изучены возможности применения шейпинг-технологий в физическом воспитании учащихся (в урочных формах занятий по физическому воспитанию с использованием видеопрограмм);
- выявлено воздействие видов оздоровительной тренировки на физиологические функции организма;
- предложены варианты комплексно-комбинированных программ по оздоровительной аэробике.

Однако комплексные программы различной сложности в основном адресованы женщинам в возрасте 25 лет и старше.

Классическая аэробика также достаточно прочно вошла в систему физического воспитания детей, подростков и студенческой молодёжи. Преимущество и широкое применение упражнений данного направления заключается в том, что занятия включают комбинации вариаций базовых шагов, соответствующих танцевальным стилям оздоровительной аэробики.

При всём многообразии видов и направлений одной из значимых проблем при проведении занятий по оздоровительной аэробике остаётся правильный подбор и рациональное распределение средств тренировки, оказывающих наибольшее воздействие на организм занимающихся.

Цель исследования – определить эффективность и изучить влияние видов оздоровительной аэробики на физическую подготовленность учащихся.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В современных научных исследованиях оздоровительная аэробика рассматривается как эффективное средство повышения физической подготовленности учащихся и студенток. В работах М. Ш. Яхшиевой последовательно раскрываются научно-педагогические основы применения аэробики в системе физического воспитания, обосновывается её положительное влияние на развитие силы, выносливости, координационных способностей и общей двигательной подготовленности обучающихся. В публикациях журнала Ta'lim, fan va innovatsiya за 2022 год подчёркивается значимость аэробных средств как доступной и мотивационно привлекательной формы физической активности для молодёжи.

Особое внимание в исследованиях уделяется комплексному воздействию различных направлений оздоровительной аэробики на организм занимающихся. В статье М. Ш. Яхшиевой, опубликованной в журнале Tafakkur ziyosi в 2024 году, показано, что систематические занятия аэробикой способствуют гармоничному физическому развитию, улучшению функционального состояния сердечно-сосудистой и дыхательной систем, а также повышению эмоциональной устойчивости студенток. Автор подчёркивает, что сочетание базовой, танцевальной и силовой аэробики обеспечивает более выраженный тренировочный и оздоровительный эффект.

В зарубежных и международных публикациях также подтверждается эффективность аэробных средств в физическом воспитании. Так, в статье M. Sh. Yaxshiyeva, представленной в Research Focus International Scientific Journal в 2025 году, и в материалах международной конференции, состоявшейся в Манчестере в 2023 году, доказано, что использование аэробики и игровых форм занятий способствует развитию технической и физической подготовленности студенток, повышает интерес к занятиям и формирует устойчивую мотивацию к здоровому образу жизни. Эти положения находят логическое продолжение и в материалах научно-практических конференций, прошедших в Ташкенте в 2024 году и в Жиззахе в 2023 году, где аэробика рассматривается как важный компонент современной системы физического воспитания учащейся молодёжи.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Для реализации поставленной цели был проведён теоретический анализ данных научно-методической литературы и практического опыта работы, использованы метод контрольных испытаний, педагогический эксперимент и математическая обработка полученных результатов. Анкетный опрос и педагогические наблюдения в спортивных клубах и учебных заведениях показали, что наиболее востребованными среди занимающихся являются следующие оздоровительные виды занятий: оздоровительная аэробика – выполнение общеразвивающих и танцевальных упражнений под музыкальное сопровождение, объединённых в непрерывно выполняемый комплекс.

Основная направленность программы эксперимента для первой группы заключалась в комплексном сочетании видов оздоровительной аэробики (табл. 1). В программу вошли следующие направления: базовая (классическая) аэробика – аэробика, основу которой составили семь элементов при построении комплексов упражнений; танцевальная аэробика и хореография – представляла собой танцевальные движения и элементы хореографии на основе ранее изученных упражнений базовой аэробики; степ-аэробика – силовая оздоровительная аэробика с использованием специальной степ-платформы или скамейки для укрепления мышц ног; круговая аэробика – включала метод круговой тренировки, направленный на развитие силы и выносливости и заменяла "партерную" часть урока; элементы восточных и нетрадиционных систем (пилатес, йога, стретчинг). Пилатес – комплекс упражнений, направленных на одновременное развитие и укрепление силы и гибкости мышц, связок и суставов, выполнявшийся в положении лёжа и сидя.

Программные упражнения были распределены в два раздела по возрастающей сложности. На первом этапе использовались средства базовой аэробики – 45 %, силовой аэробики – 35 % и танцевальной хореографии – 20 %. Основу второго этапа составили силовые виды (круговая, степ-аэробика) – 50 %, танцевальная аэробика и хореография – 30 % и упражнения нетрадиционных систем – 20 %.

В конце учебного года (через 4 месяца систематических занятий, 2 раза в неделю продолжительностью 60–80 минут) были проведены повторные контрольные испытания. Уровень физической подготовленности занимающихся обеих групп определялся с помощью комплекса контрольных упражнений для оценки силы мышц рук и брюшного пресса, прыгучести, подвижности в суставах и координационных способностей.

Таблица 1: **План занятий и распределение видов оздоровительной аэробики в недельном цикле**

№ занятия	Виды аэробики	Части занятия		
		Основная		Заключительная
		Аэробная	Партерная	
1	I группа Степ-аэробика	Танцевальный комплекс + силовые упражнения	Упражнения с отягощением (пресс, бедро, ягодицы)	Стретчинг
2	Танцевальная аэробика	Танцевальный комплекс + бег, упражнения с отягощением	Упражнения на развитие силы и выносливости + калланетика	Стретчинг в парах
3	Круговая аэробика	Работа на станциях с использованием стела, гантелей, опоры		Элементы йоги и пилатеса

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Высокую заинтересованность у занимающихся первой группы вызвало выполнение заданий из нетрадиционных систем тренировки – стретчинга и элементов йоги. Их выполнение способствовало улучшению подвижности в суставах. Так, в упражнении "наклон вперёд" отмечен достоверный прирост показателей (с 4,0 до 8,5 см при $P<0,05$) (рис. 1). В упражнении "прыжки со скакалкой" разница между показателями обеих групп оказалась несущественной (111,2 и 106,0 раза за минуту).

Снижение показателей ЧСС (степ-тест) в обеих группах с 140,0 ± 3,4 до 130,0 ± 3,0 уд./мин и с 136,0 ± 4,0 до 134,0 ± 4,1 уд./мин подтверждает наличие оздоровительного воздействия предлагаемых двигательных режимов занятий оздоровительной аэробикой (рис. 2).




Рис.1: **Физическая подготовленность занимающихся обеих групп (1- в начале 2- в конце исследования)**




Рис. 2: **Физическая подготовленность занимающихся обеих групп (1- в начале 2- в конце исследования)**

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

В процессе исследования выявлено благоприятное воздействие предложенных упражнений на развитие координационных способностей девушек. Так в тесте на координацию в первой группе средний балл возрос с 5,6 до 8,.5 балла. Во второй - с 6,2 до 8,1 балла. Скорее всего, это можно объяснить включением в учебно-тренировочный процесс занимающихся обеих групп упражнений из разделов программы классической хореографии, а также танцевальных движений, являющихся высокоэффективным средством развития координационных способностей человека.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Последовательное распределение средств оздоровительной аэробики в недельном цикле (упражнения танцевальной и круговой аэробики, элементы стретчинга), носящих разноплановый характер, оказывает наиболее полное и всестороннее воздействие на организм занимающихся.

Включение в практические занятия элементов оздоровительной танцевальной аэробики явилось стимулом для регулярных занятий физическими упражнениями с целью самосовершенствования. Так, в первой группе посещаемость занятий возросла на 25 %, все участницы эксперимента испытывали чувство удовлетворения от занятий, а к концу учебного года все студентки продолжили занятия данным видом оздоровительной тренировки во внеучебное время.

Список использованной литературы:

1. Yaxshiyeva M. Sh. Methodology for improving the physical fitness of student girls through aerobics tools // Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan. 2025/4. https://doi.org/10.5281/zenodo.14711613
2. Яхшиева М. Ш. Научно-педагогические основы повышения двигательной подготовленности студенток средствами аэробики // Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'navий-ma'рифий, илмий-услубий журнал. 2022/6. – С. 16–19. [13.00.00 № 18]
3. Яхшиева М. Ш. Занятия аэробикой и её всестороннее влияние на организм студенток // Tafakkur ziyosi. Илмий-услубий журнал. 2024/1. – С. 211–215. [13.00.00 № 29]
4. Yaxshiyeva M. Sh. Development of technical and physical fitness of female students through games // International Multidisciplinary Conference, hosted from Manchester, England. 2023. – Pp. 32–35.
5. Яхшиева М. Ш. Талаба кизларни аэробик гимнастика ёрдамида соғлом турмуш тарзига жалб қилиш // Международная научно-практическая конференция "Образование, воспитание и применение инновационных технологий в области физического воспитания и спорта: проблемы и пути решения". Ташкент, 2024. – С. 165–167.
6. Яхшиева М. Ш. Педагогические аспекты базовой аэробики и её влияние на физическое развитие студенток педагогических вузов // "Таълим тизимида жисмоний тарбия ва спортни оммавийлаштиришнинг долзарб муаммолари" мавзусида ўтказилган республика илмий-амалий конференция. Жиззах, 2023. – С. 266–267.

O‘QUVCHILARDA MILLIY TUYG‘ULARNI TARKIB TOPTIRISHNING MAZMUNI (DASTUR, DARSLIKLAR TAHLILI) VA VOSITALARI

Begmatova Nasiba Safarbayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: O‘quvchilarda milliy tuyg‘ularni tarkib toptirishning pedagogik mazmuni o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Hozirgi globallashuv sharoitida bu jarayon murakkab va yuqori mas’uliyatni taqozo etuvchi vazifa hisoblanadi. O‘z ustida ishlash, jahon va milliy pedagogik tajribalarni o‘rganish davr talabi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayon o‘quvchilarda millat yutuqlari bilan faxrlanish, ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmaslik hamda milliy birlikni mustahkamlash tuyg‘ularini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Mazkur tuyg‘ular mazmunan yurtparvarlik, millatparvarlik va yaratuvchanlik g‘oyalarini tarixiy shaxslar, allomalar va milliy madaniy meros orqali singdirishga asoslanadi. Asosiy vositalar sifatida tarixiy-ilmiy hamda adabiy-badiiy asarlar orqali g‘urur tuyg‘usini uyg‘otish; etnopedagogik usullar – folklor, maqollar va xalq og‘zaki ijodi orqali milliy g‘ururni rivojlantirish; vizual-estetik didaktik vositalar, vatanparvarlik qo‘shiqlari va san’at orqali emotsional ta’sir ko‘rsatish; an’anaviy tarbiya shakllari – oilaviy muhit va tarixiy shaxslar misolida vatanparvarlikni shakllantirish; interaktiv darslar va tarbiyaviy tadbirlar, shuningdek, raqamli vositalar – videofilmlar, interaktiv platformalar va mazmunan boyitilgan taqdimotlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘quv jarayonida o‘quvchilarda milliy tuyg‘ularni tarkib toptirishning mazmuni va vositalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchilar, mas’uliyat, pedagogik usullar, vatanni sevish, milliy qadriyatlar, milliy tuyg‘ular, insonparvarlik, milliy vatanparvarlik.

Abstract: The pedagogical content of developing national feelings in students requires a distinctive and systematic approach. In the context of contemporary globalization, this process represents a complex and highly responsible educational task. Continuous self-development and the study of global and national pedagogical practices are considered essential requirements of the time. This process involves fostering students’ pride in national achievements, encouraging social responsibility, and strengthening national unity. These feelings are grounded in the promotion of patriotism, national identity, and creativity through historical figures, scholars, and national cultural heritage. The main tools include historical-scientific and literary-artistic works, ethnopedagogical methods such as folklore, proverbs, and oral traditions, visual and aesthetic didactic resources, patriotic songs and art, traditional educational practices within the family environment, interactive lessons and educational activities, as well as modern digital tools including videos, interactive platforms, and content-enriched pedagogically effective presentations. The article examines the content and means of fostering national feelings among students within the educational process.

Key words: students, responsibility, pedagogical methods, love for the homeland, national values, national feelings, humanism, national patriotism.

Аннотация: Педагогическое содержание формирования у учащихся национальных чувств требует особого, целенаправленного подхода. В условиях современной глобализации данный процесс представляет собой сложную и ответственную педагогическую задачу. Работа над собой, изучение мирового и национального педагогического опыта выступают актуальным требованием времени. Этот процесс включает формирование у учащихся чувства гордости за достижения нации, активной гражданской позиции, а также укрепление национального единства. Указанные чувства основываются на внедрении идей патриотизма, национальной идентичности и созидательности через образы исторических деятелей, ученых и национальное культурное наследие. В качестве основных средств рассматриваются историко-научные и литературно-художественные произведения, этнопедагогические методы (фольклор, пословицы, устное народное творчество), визуально-эстетические дидактические средства, патриотические песни и искусство, традиционные формы воспитания в семейной среде, интерактивные занятия и воспитательные мероприятия, а также современные цифровые ресурсы – видеоматериалы, интерактивные платформы и содержательно обогащенные презентации. В статье анализируются содержание и средства формирования национальных чувств у учащихся в образовательном процессе.

Ключевые слова: учащиеся, ответственность, педагогические методы, любовь к Родине, национальные ценности, национальные чувства, гуманизм, национальный патриотизм.

KIRISH

Milliy tuyg'u – bu muayyan millatga mansub bo'lgan insonlarning o'zligini, tarixini, madaniyatini va tilini sevish hamda ularni qadrlash hissidir. His etish va tuyish faqat insongagina xos bo'lgan jarayon bo'lib, Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrash har bir insonning muhim vazifasigina emas, balki muqaddas burchi ham sanaladi. Yer yuzining qaysi hududida yashashidan qat'i nazar, har bir inson bu jarayonni albatta boshidan kechiradi, sababi u aynan shu yurtda tug'ilib o'sgan va kamol topgan bo'ladi.

Hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot makonining kengayishi va madaniy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki milliy tuyg'ular shaxsning ijtimoiy faolligi, ma'naviy barkamolligi hamda fuqarolik pozitsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarda ham yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida yosh avlod tarbiyasiga oid davlat siyosatida milliy tuyg'ularni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va asarlarida yoshlarni milliy o'zlikni anglagan, vatanparvar va ma'naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalash masalasini strategik vazifa sifatida belgilaydi.

Prezident ta'kidlaganidek: "Agar biz yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlaydigan insonlar etib tarbiyalay olsak, yurtimiz kelajagini ishonchli qo'llarga topshirgan bo'lamiz" [2]. Mazkur qarashlar o'quvchilarda tarixiy ong, milliy g'urur va vorisiylik tuyg'ularini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Sh. Mirziyoyev yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash masalasini milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyot bilan chambarchas bog'laydi. Uning fikricha: "Vatanparvarlik – bu shunchaki balandparvoz so'zlar emas, balki har bir yoshning kundalik hayotiy pozitsiyasi bo'lishi kerak" [3]. Bu yondashuv o'quvchilarda milliy tuyg'ularni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy faoliyat orqali tarkib toptirish zarurligini ko'rsatadi.

Demak, Prezident Sh. M. Mirziyoyevning qarashlari o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning:

- mafkuraviy asoslarini;
- pedagogik yo'nalishlarini;
- ijtimoiy ahamiyatini

ilmiy jihatdan asoslab beradi hamda mazkur jarayonni davlat miqyosidagi ustuvor vazifa sifatida e'tirof etadi.

Ilmiy adabiyotlarda "milliy tuyg'u" tushunchasi shaxsning o'z millatiga, xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi, urf-odatlari va an'analariga nisbatan ongli, hissiy va ijtimoiy munosabati sifatida talqin etiladi. Pedagogika va psixologiya fanlarida milliy tuyg'ular shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi [4].

Sharq pedagogikasida Abu Nasr Forobiy ta'lim va tarbiya masalasiga ilmiy ta'rif bergan buyuk allomalardan biridir. U shunday deydi: "Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berishni anglatadi, tarbiya esa insoniy fazilatlarni, muayyan hunar yoki kasbni egallash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor me'yorlarini o'rgatishdir". Maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi.

Forobiy ta'lim va tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish hamda murabbiyning ma'naviy barkamolligini ta'minlash zarurligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, murabbiy xohish-iroda, qobiliyat, yaxshilik va yomonlik mohiyatini chuqur anglaydigan shaxs bo'lishi lozim. Allomaning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari va vositalari haqidagi qarashlari ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Forobiyning ta'kidlashicha, insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l bilan – ta'lim va tarbiya orqali shakllanadi. Ta'lim nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirsa, tarbiya esa insoniy fazilatlar, kasbiy malakalar va xulq-odob ko'nikmalarini shakllantiradi. Abu Nasr Forobiy "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarida ta'lim-tarbiyani rag'batlantirish, odatlantirish va zarur holatlarda majbur etish usullari orqali amalga oshirish mumkinligini asoslaydi.

Shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashda ustoz va shogird munosabatlari hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Sharq an'analarida ustoz shogirdni qabul qilgan kundan boshlab, uning ma'naviy mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi muhim hisoblangan [5].

Abdulla Avloniy milliy tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratib, tarbiyani "yo hayot, yo mamot masalasi" sifatida baholaydi hamda yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi [6].

Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari orqali milliy tuyg'ularning axloqiy asoslari yoritilgan bo'lib, bu qarashlar bugungi tarbiya jarayonida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, metodologik asos sifatida davlat siyosatiga oid konseptual yondashuvlar, Sharq mutafakkirlari va zamonaviy pedagog olimlarning ilmiy qarashlariga tayaniladi. Tadqiqot jarayonida milliy tuyg'ularni shakllantirishda ta'lim va tarbiya birligi, tarixiy merosga tayanish, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar ustuvor metodologik yo'nalish sifatida belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish mazmuni bir qator asosiy komponentlar asosida amalga oshiriladi. Avvalo, milliy o'zlikni anglash o'quvchining o'z millatiga mansubligini chuqur his etishi, milliy til, tarix va madaniyatni idrok etishi orqali shakllanadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, milliy o'zlik shakllanmagan shaxsda mustahkam shaxsiy pozitsiya vujudga kelmaydi [8].

Tarixiy xotira milliy tuyg'ularning asosiy manbalaridan biri bo'lib, ajdodlar merosi, milliy davlatchilik tarixi va istiqlol g'oyalarini o'rganish orqali rivojlanadi. O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I. Karimov milliy o'zlik va tarixiy xotirani asrash masalasini millat kelajagi bilan bog'liq muhim omil sifatida baholagan [9].

Milliy qadriyatlar va an'analar, jumladan, milliy urf-odatlar, marosimlar hamda xalq og'zaki ijodi o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi va ularning xulq-atvorida axloqiy me'yorlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Milliy g'urur o'z xalqining yutuqlari bilan faxrlanishda namoyon bo'lib, vatanparvarlik tuyg'usi orqali yurt ravnaqi uchun mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Ushbu jarayon o'quvchilarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi [10].

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirishda ta'lim mazmuni va fanlar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix, ona tili va adabiyot, ma'naviyat asoslari fanlari orqali milliy g'oya va qadriyatlarni singdirish milliy tuyg'ularni shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Fanlararo integratsiya o'quvchilarda yaxlit milliy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi, jumladan, sinf soatlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, milliy bayramlar va xotira kunlari o'quvchilarda milliy tuyg'ularni hissiy jihatdan mustahkamlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – klaster yondashuvi, muammoli ta'lim, rejalashtirish metodi va interfaol metodlar o'quvchilarning milliy omillarni faol o'zlashtirishiga imkon beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni tarkib toptirish jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik ongini shakllantirishda muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy tuyg'ular mazmunan xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, urf-odatlari, an'analari, milliy qadriyatlari hamda davlat ramzlariga bo'lgan hurmat orqali namoyon bo'ladi.

Milliy tuyg'ularni shakllantirish jarayoni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, tizimli, uzviy va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi. Ushbu jarayonda ta'lim va tarbiya uyg'unligi, fanlararo integratsiya hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy tuyg'ularni rivojlantirishda an'anaviy tarbiya vositalari bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, klaster yondashuvi, loyihaviy faoliyat va media-ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish milliy ong va o'zlikni anglashning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Takliflar:

Ta'lim mazmunini boyitish maqsadida umumta'lim fanlari tarkibiga milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar, madaniy meros va milliy g'oya bilan bog'liq mavzularni tizimli ravishda integratsiya qilish tavsiya etiladi. Milliy tuyg'ularni shakllantirish jarayonida klaster yondashuvi, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va interfaol metodlardan samarali foydalanish zarur.

Tarbiya jarayonida maktab va oila hamkorligini kuchaytirish, ota-onalar ishtirokida milliy bayramlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va tarbiyaviy suhbatlarni tashkil etish orqali milliy tuyg'ularning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatni takomillashtirish, jumladan, muzeylarga ekskursiyalar, tarixiy obidalarga sayohatlar, milliy san'at va adabiyotga bag'ishlangan to'garaklar tashkil etish o'quvchilarning milliy o'zlikni anglashini kuchaytiradi.

Raqamli va media vositalaridan maqsadli foydalanish, milliy mavzularga oid videodarslar, elektron resurslar, virtual loyihalar va media mahsulotlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish tavsiya etiladi. Shuningdek, pedagog kadrlarning milliy tarbiya, zamonaviy metodika va innovatsion yondashuvlar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus trening va seminarlar tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi yoshlari bilan uchrashuvidagi nutqi. – Toshkent, 2020.
4. Karimova S. Ma'naviy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
5. https://abiturtest.uz/mavzular/sharq-uygonish-davrida-pedagogik-fikrlarning-rivojlanishi/
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
7. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 2016.
8. Jo'rayev R. X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. Qodirov B. Vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent, 2021.
11. Shodmonov Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2022.

INNOVATIVE METHOD FOR THE TREATMENT OF CHRONIC PERIODONTITIS USING THE "GEISTLICH BIO-OSS" PREPARATION

Pardayev Xurshidjon Uralovich
Resident Master Degree of the Department Dentistry

Scientist adviser: Muratova Saodat Kadurovna
Samarkand state medical university, Samarkand, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the clinical effectiveness of an innovative method for the treatment of chronic periodontitis using the "Geistlich Bio-Oss" preparation. The study evaluated indicators of alveolar bone regeneration, reduction of periodontal pocket depth, and improvement of clinical attachment level. "Geistlich Bio-Oss" is structurally similar to natural bone mineral and is characterized by pronounced osteoconductive properties that support bone tissue regeneration. Clinical observations demonstrated positive dynamics at 3- and 6-month follow-up periods. The obtained results confirm the feasibility and effectiveness of this biomaterial in the comprehensive treatment of chronic periodontitis.

Key words: chronic periodontitis, bone regeneration, osteoconductive biomaterial, "Geistlich Bio-Oss", alveolar bone, periodontal therapy.

Annotatsiya: Ushbu maqolada surunkali parodontitni davolashda "Geistlich Bio-Oss" preparatidan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuvning klinik samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda alveolyar suyak to'qimasining regeneratsiyasini rag'batlantirish, parodontal cho'ntak chuqurligini kamaytirish va klinik birikma darajasini yaxshilash ko'rsatkichlari baholandi. "Geistlich Bio-Oss" preparati tabiiy suyak mineraliga yaqin tuzilishga ega bo'lib, osteokonduktiv xususiyatlari bilan ajralib turadi hamda suyak to'qimasining qayta tiklanish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Klinik kuzatuvlar natijasida 3- va 6-oylarda ijobiy dinamik o'zgarishlar qayd etildi. Olingan natijalar mazkur biomaterialning surunkali parodontitni kompleks davolashda samarali va istiqbolli vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: surunkali parodontit, suyak regeneratsiyasi, osteokonduktiv biomaterial, "Geistlich Bio-Oss", alveolyar suyak, parodontal terapiya.

Аннотация: В статье представлен анализ клинической эффективности инновационного метода лечения хронического пародонтита с применением препарата "Geistlich Bio-Oss". В ходе исследования оценивались показатели регенерации альвеолярной костной ткани, уменьшение глубины пародонтальных карманов и улучшение уровня клинического прикрепления. Препарат "Geistlich Bio-Oss" по своей структуре близок к природному костному минералу, обладает выраженными остеокондуктивными свойствами и способствует восстановлению костной ткани. Результаты клинического наблюдения продемонстрировали положительную динамику через 3- и 6-месяцев после проведения лечения. Полученные данные подтверждают целесообразность применения данного биоматериала в комплексной терапии хронического пародонтита.

Ключевые слова: хронический пародонтит, регенерация костной ткани, остеокондуктивный биоматериал, "Geistlich Bio-Oss", альвеолярная кость, пародонтальная терапия.

INTRODUCTION

In vitro-grown cells are currently being used clinically to advance the science of transplantology and regenerative medicine. The rapid development of cell technologies has opened new prospects for tissue engineering and the restoration of damaged biological structures. Cultured cells, particularly fibroblasts, play a crucial role in reparative processes due to their ability to synthesize extracellular matrix components, including collagen and glycoproteins, which are essential for tissue regeneration.

One of the significant advantages of in vitro cell cultivation is the possibility of reducing immunogenicity through prolonged culture, thereby minimizing the risk of immunological conflict after transplantation. Furthermore, cultured cells can be expanded under controlled laboratory conditions, ensuring adequate cell quantity, viability, and functional activity for therapeutic application.

In dentistry and periodontology, regenerative approaches are of particular importance, as periodontal diseases remain among the most prevalent inflammatory conditions affecting oral tissues. The application of cultured allogeneic fibroblasts represents a promising strategy aimed at enhancing tissue repair, reducing inflammation, and promoting structural regeneration of the periodontium.

LITERATURE REVIEW

This method circumvents a number of issues that are frequently associated with allotransplantation. Cellular antigenic determinants are reduced after prolonged in vitro culture, which results in minimal or no immunological conflict. Moreover, fibroblasts grown in vitro are not carcinogenic [6]. Since periodontal disease is one of the most common dental illnesses, increasing the effectiveness of therapeutic interventions and searching for alternative treatment methods remain highly relevant. Therefore, the use of cell cultures, particularly fibroblasts, for the regeneration of damaged tissues is of considerable interest [1, 4].

Previous studies have demonstrated the potential application of allogeneic fibroblasts in combination with various carriers and cellular preparations [2, 3, 5, 12] for the treatment of periodontitis. These cells have been transplanted onto osteoplastic materials, dura mater, and biopolymer films [7–11, 13]. However, insufficient research has been conducted to comparatively evaluate histological regeneration processes following fibroblast application in comparison with other cellular preparations.

The objective of this study was to isolate allogeneic fibroblasts from gingival biopsy specimens and to use cultured fibroblasts in an experimental setting to conduct a comparative histological assessment of periodontal tissue regeneration.

RESEARCH METHODOLOGY

A method was developed for isolating allogeneic fibroblasts from gingival biopsy samples. A 2 × 2 mm fragment of mucous membrane was obtained from the oral vestibule, hard palate, or retromolar region under aseptic conditions and local infiltration anesthesia. The biopsy specimen was stored in a sterile tube containing Hank's balanced salt solution supplemented with antibiotics and maintained at a chilled temperature. The material was transported to the laboratory within 3-days.

Tissue deaggregation was performed in the cell technology laboratory using a 0.15% trypsin solution. Trypsinization was carried out in several cycles using a magnetic stirrer until complete tissue exhaustion. After centrifugation, filtration, and resuspension in a nutrient medium, the cell suspension was counted and seeded into Medium-199 at a density of 500,000–600,000 cells/ml, supplemented with 10% fetal bovine serum. Cultivation was performed at 37 °C, and the culture medium was replaced every 48-hours. Daily monitoring was conducted using phase-contrast microscopy.

Cells exhibiting the morphology of typical fibroblasts were selected. The formed monolayer was used for further subculturing. To count the cells, the monolayer was treated with a 0.25% trypsin–Versene solution and incubated at 37 °C for 10–15-minutes. Cell viability was assessed using 0.1% trypan blue staining in a Goryaev chamber. Subsequently, the cellular suspension was aspirated into an insulin syringe and injected to a depth of 1 mm into the gingiva near the cervical region of the tooth.

ANALYSIS AND RESULTS

The volume of the suspension ranged between 0.3–0.4 ml. Perifocal blanching of the mucosa and tissue tension confirmed successful administration.

A total of 50 white Wistar rats were included in the study. They were divided into three experimental groups and two control groups and received the following treatments:

- Group I – Metrogyl-Denta
- Group II – Regenerin (Allogeneic Culture)
- Group III – Fibroblasts

Mechanical damage to the periodontal tissues was used to simulate periodontitis. On the 7th-day of the experiment, histological examinations were performed in all groups, including the intact control group.

Findings and Discussion

Primary fibroblast culture growth occurred in three phases: attachment and spreading (Phase-1), exponential proliferation (Phase-2), and monolayer formation (Phase-3).

Control Group-1 (Intact): The periodontium consisted of stratified squamous epithelium and dense fibrous connective tissue containing thick collagen bundles.

Control Group-2 (Untreated Periodontitis): By the 7th-day, deep pathological changes were observed in the mucosa and underlying connective tissue. Diffuse purulent periodontitis developed, characterized by neutrophil-dominated infiltration with the presence of macrophages and lymphocytes.

Experimental Group-I (Metrogyl-Denta): On the 7th-day, vascular disturbances (congestion and stasis) and generalized mild edema were identified. Partial epithelial necrosis was observed. Although the medication reduced the inflammatory process to a more localized pattern compared to the untreated group, deep tissue damage persisted.

Experimental Group-II (Regenerin): Morphological changes corresponded to serous periodontitis. Small inflammatory infiltrates were detected in the connective tissue, predominantly composed of lymphocytes.

Experimental Group-III (Cultured Fibroblasts): A pronounced anti-inflammatory effect was observed, along with increased mitotic activity and basal cell proliferation at the margins of the defect. Focal proliferation of fibroblasts around blood vessels in the stroma was noted, with active collagen synthesis. This resulted in enhanced fibrillogenesis and the formation of new connective tissue.

Conclusions and suggestions

A method for cultivating and morphologically assessing monolayer cultures of allogeneic fibroblasts was developed in conjunction with an experimental model of periodontitis. Comparative data confirmed the following:

- Untreated injury leads to diffuse purulent periodontitis with marked tissue destruction.
- Metrogyl-Denta results in superficial defects and focal purulent inflammation.
- Regenerin demonstrates greater anti-inflammatory activity than Metrogyl-Denta and promotes a transition to serous periodontitis.
- Cultured fibroblasts exhibit the most pronounced reparative effects, characterized by enhanced fibrillogenesis and rapid formation of new connective tissue.

References:

1. Sculean, A., Nikolidakis, D., & Schwarz, F. (2008). Regeneration of periodontal tissues: combinations of barrier membranes and grafting materials – biological foundation and preclinical evidence. Journal of Clinical Periodontology, 35(8 Suppl), 2–16. https://doi.org/10.1111/j.1600-051X.2008.01263.x
2. Richardson, C. R., Mellonig, J. T., Brunsvold, M. A., Osborne, J. B., Liang, A. Y., & Meffert, R. M. (1999). Clinical evaluation of Bio-Oss, a bovine-derived xenograft, for the treatment of periodontal osseous defects in humans. Journal of Periodontology, 70(2), 169–174. https://doi.org/10.1902/jop.1999.70.2.169
3. Tonetti, M. S., Lang, N. P., Cortellini, P., Suvan, J. E., Adriaens, P., Dubravec, D., Fonzar, A., Fourmousis, I., Mayfield, L., Rossi, R., Silvestri, M., Tiedemann, C., Topoll, W., Vangsted, T., & Wallkamm, B. (2002). Enamel matrix proteins in the regenerative therapy of deep intrabony defects: a multicentre randomized controlled clinical trial. Journal of Clinical Periodontology, 29(4), 317–325.
4. Nevins, M. L., Camelo, M., Lynch, S. E., Schenk, R. K., & Nevins, M. (2003). Evaluation of periodontal regeneration following grafting intrabony defects with Bio-Oss Collagen: a human histologic report. International Journal of Periodontics & Restorative Dentistry, 23(1), 9–17.
5. Sanz, M., Dahlin, C., Aaberge, M., Almendros-Marqués, N., Caballero, J., Guiducci, R., & Taylor, A. (2019). European Federation of Periodontology (EFP) workshop on the efficacy of regenerative procedures in the treatment of intrabony defects. Journal of Clinical Periodontology, 46(S21), 67–91.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA HARAKATLI O'YINLAR ORQALI JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

UDK 373.3:796.011.3

Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Jismoniy tayyorgarlik sikli
katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0001-8039-8404

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi tadqiq etildi. Pedagogik eksperiment natijalari harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarini samarali rivojlantirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, harakatli o'yinlar, boshlang'ich sinf, jismoniy sifatlar, pedagogik eksperiment.

Abstract: The article examines the effectiveness of developing physical qualities in primary school students through active games. The results of the pedagogical experiment confirmed that the systematic use of active games in physical education classes contributes to the effective development of speed, agility, strength, endurance, and coordination.

Key words: physical education, active games, primary school, physical qualities, pedagogical experiment.

Аннотация: В статье исследована эффективность развития физических качеств у учащихся начальных классов посредством подвижных игр. Результаты педагогического эксперимента подтвердили, что использование подвижных игр в процессе физического воспитания способствует эффективному развитию быстроты, ловкости, силы, выносливости и координации движений.

Ключевые слова: физическое воспитание, подвижные игры, начальная школа, физические качества, педагогический эксперимент.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi dolzarb pedagogik va ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu davr bolalar organizmining intensiv o'sishi, harakat faolligiga yuqori ehtiyoj sezilishi hamda asosiy jismoniy sifatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Shu bois jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etish, o'quvchilarning harakat faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faollikning yetarli darajada tashkil etilishi sog'lom rivojlanishning muhim omili hisoblanadi [1]. Shu munosabat bilan jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos, qiziqarli hamda motivatsiyani oshiruvchi pedagogik vositalardan foydalanish samaradorlikni ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun harakatli o'yinlar eng samarali pedagogik vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ular nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantiradi, balki bolalarning emotsional holatini barqarorlashtiradi, ijtimoiy faolligini oshiradi hamda dars jarayoniga faol jalb etadi [2]. Harakatli o'yinlar orqali tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlar tabiiy va tizimli ravishda rivojlanadi.

Tadqiqotchilar harakatli o'yinlar bolalarda harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda, shuningdek, darslarda yuqori motor zichlikni ta'minlashda muhim omil ekanligini qayd etadilar [3]. Shu bilan birga, o'yin faoliyati bolalarning psixofiziologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ta'lim jarayonida motivatsiyani kuchaytiradi.

Amaliyotda harakatli o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, ularni tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv asosida qo'llash yanada yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shu jihatdan harakatli o'yinlar samaradorligini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT MAQSADI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlar asosida jismoniy sifatlarni rivojlantirish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish.
2. Harakatli o'yinlar asosida mashg'ulotlar metodikasini ishlab chiqish.
3. Pedagogik eksperiment o'tkazish.
4. Jismoniy sifatlar dinamikasini baholash.
5. Olingan natijalarni statistik tahlil qilish.

Tadqiqot gipotezasi:

Agar jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan tizimli ravishda foydalanilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlar rivojlanishining samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Harakatli o'yinlar asosida jismoniy sifatlarni rivojlantirishning ilmiy-metodik modeli ishlab chiqildi;
2. Taklif etilgan metodikaning samaradorligi pedagogik eksperiment asosida ilmiy jihatdan asoslandi.

Amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalari maktab jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirish, o'quvchilarning harakat faolligini oshirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini kuchaytirishda amaliy ahamiyatga ega. Mazkur metodik yondashuvni ta'lim amaliyotiga joriy etish jismoniy tarbiya jarayonining sifat ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va harakatli o'yinlarning pedagogik ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Lyax (2012) hamda Matveyev (2008) jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida yosh xususiyatlarini hisobga olish muhimligini asoslab bergan. Ashmarin (2001) pedagogik eksperimentni ta'lim jarayonini ilmiy baholashning samarali vositasi sifatida e'tirof etadi. Kuznetsov (2010) va Kovalev (2014) harakatli o'yinlarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab, ularning tezkorlik, chaqqonlik va koordinatsiyani shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Filin (2006), Zakharov (2005) hamda Guba (2008) bolalar sporti va jismoniy rivojlanish masalalarini yoritib, harakat faolligining sog'lom o'sishdagi rolini ko'rsatgan. Ushbu ilmiy qarashlar mazkur tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot pedagogik eksperiment asosida tashkil etildi. Pedagogik eksperiment jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda ishonchli va samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi [3]. Eksperiment 2025-yil davomida umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazildi.

Tadqiqotda 7–8 yoshli 40 nafar o'quvchi qatnashdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlash usuli asosida ikki guruhga ajratildi:

1. Nazorat guruhi (n = 20) – jismoniy tarbiya mashg'ulotlari an'anaviy metodika asosida olib borildi;
2. Eksperimental guruh (n = 20) – mashg'ulotlarda harakatli o'yinlarga asoslangan maxsus ishlab chiqilgan metodika qo'llanildi.

Eksperiment davomiyligi 8 hafta etib belgilandi. Ushbu muddat bolalarda jismoniy sifatlar dinamikasini aniqlash uchun yetarli deb hisoblandi [2].

Harakatli o'yinlar metodikasi

Eksperimental guruhda jismoniy tarbiya darslari harakatli o'yinlar asosida tashkil etildi. Harakatli o'yinlar bolalarda jismoniy sifatlarni tabiiy, tizimli va samarali rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi [4]. Ishlab chiqilgan metodika quyidagi prinsiplarga asoslandi:

- yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- yuqori motor zichlikni ta'minlash;

- musobaqaviylik va emotsionallikni kuchaytirish;
- harakat faolligini oshirish;
- xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilish.

Mashg'ulotlarda "Quvlashmachoq", "Kim tez?", "To'pni uzat", "To'siqlardan o'tish" hamda "Estafeta o'yinlari" kabi harakatli o'yinlardan foydalanildi. Ushbu o'yinlar tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish [5], pedagogik eksperiment, testlash hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Jismoniy sifatlarni baholash testlari

O'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholashda maktab yoshidagi bolalar uchun tavsiya etilgan standart testlar qo'llanildi [1]:

- 30 m yugurish – tezkorlik;
- 4×9 m yugurish – chaqqonlik;
- joydan uzunlikka sakrash – kuch;
- 6 daqiqalik yugurish – chidamlilik;
- to'siqlar orasidan yugurish – koordinatsiya.

Test sinovlari eksperiment boshida va yakunida o'tkazildi, bu esa jismoniy sifatlar rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

Statistik tahlil

Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, tahlil qilindi. Hisoblash jarayonida o'rtacha arifmetik qiymat (M), standart og'ish (SD) hamda foizli o'sish ko'rsatkichlari aniqlandi. Eksperimental va nazorat guruhlari natijalari o'zaro taqqoslanib, metodikaning samaradorligi ilmiy asosda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik eksperiment davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlari dinamikasi aniqlandi. Test natijalari eksperiment boshida va yakunida o'lchanib, nazorat hamda eksperimental guruhlar ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi.

Olingan natijalar harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar jismoniy sifatlarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ilmiy tadqiqotlarda ham harakatli o'yinlar motor faollikni oshirish orqali bolalarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [6]. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi.

Tezkorlik ko'rsatkichlari

30 m yugurish bo'yicha olingan natijalar eksperimental guruhda sezilarli ijobiy o'sish kuzatilganini ko'rsatdi. Bu holat harakatli o'yinlarda tezkor harakat elementlarining keng qo'llanilishi bilan izohlanadi [6]. Nazorat guruhida ham ma'lum darajada ijobiy siljish qayd etilgan bo'lsa-da, eksperimental guruh natijalari yuqoriroq dinamikani namoyon etdi (1-jadval).

1-jadval: **30 m yugurish natijalari (sekund).**

Guruh	Boshlang'ich	Yakuniy	O'zgarish
Nazorat	7.2	7.0	+2.7 %
Eksperimental	7.3	6.7	+8.2 %

Eksperimental guruhda natijalarning sezilarli darajada yaxshilanishi harakatli o'yinlar jarayonida yuqori motor faollik ta'minlangani bilan izohlanadi. Mashg'ulotlarda faol harakat elementlarining muntazam qo'llanilishi o'quvchilarning tezkorlik sifatini samarali rivojlantirishga xizmat qildi.

Chaqqonlik ko'rsatkichlari

4×9 m yugurish bo'yicha olingan natijalar harakatli o'yinlarda tez yo'nalish o'zgartirish elementlarining keng qo'llanilishi chaqqonlik sifatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi [7]. Eksperimental guruhda mazkur ko'rsatkichlar dinamikasi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq o'sish sur'atini namoyon etdi (2-jadval).

2-jadval: **4×9 m yugurish natijalari (sekund)**

Guruh	Boshlang'ich	Yakuniy	O'zgarish
Nazorat	12.1	11.8	+2.5 %
Eksperimental	12.2	11.2	+8.1 %

Mazkur natijalar harakatli o'yinlar tarkibida tez yo'nalish o'zgartirish elementlarining keng qo'llanilishi bilan izohlanadi. Ushbu elementlar o'quvchilarning harakat koordinatsiyasi va tezkor reaksiyasini faollashtirib, chaqqonlik sifatining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kuch ko'rsatkichlari

Joydan uzunlikka sakrash bo'yicha olingan natijalar harakatli o'yinlar mushak kuchini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi [8]. Eksperimental guruhda kuzatilgan ijobiy o'sish dinamikasi mashg'ulotlarda sakrash, itarilish va tezkor harakat elementlarining tizimli qo'llanilishi bilan izohlanadi (3-jadval).

3-jadval: **Joydan uzunlikka sakrash natijalari (sm).**

Guruh	Boshlang'ich	Yakuniy	O'zgarish
Nazorat	118	123	+4.2 %
Eksperimental	119	132	+10.9 %

Eksperimental guruhda kuch ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu natija harakatli o'yinlar jarayonida mushak faoliyatini faollashtiruvchi va kuch talab qiluvchi mashqlar muntazam qo'llanilgani bilan izohlanadi.

Chidamlilik ko'rsatkichlari

6 daqiqalik yugurish bo'yicha olingan natijalar harakatli o'yinlar yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatdi [9]. Eksperimental guruhda qayd etilgan ijobiy o'sish dinamikasi mashg'ulotlar davomida uzluksiz harakat faolligining ta'minlanganligi bilan bog'liq (4-jadval).

4-jadval: **6 daqiqalik yugurish natijalari (metr)**

Guruh	Boshlang'ich	Yakuniy	O'zgarish
Nazorat	780	820	+5.1 %
Eksperimental	785	890	+13.3 %

Mazkur natijalar harakatli o'yinlar jarayonida yurak-qon tomir tizimiga beriladigan me'yoriy va tizimli yuklama bilan izohlanadi. Mashg'ulotlar davomida uzluksiz harakat faolligining ta'minlanishi chidamlilik sifatining samarali rivojlanishiga xizmat qildi.

Koordinatsiya ko'rsatkichlari

Koordinatsiya ko'rsatkichlaridagi ijobiy o'sish harakatli o'yinlar tarkibida murakkab harakatlar kombinatsiyasining mavjudligi bilan izohlanadi [6]. Turli yo'nalishdagi harakatlar, tezkor reaktsiya talab qiluvchi vaziyatlar va fazoviy muvofiqlashtirish elementlari o'quvchilarning koordinatsion qobiliyatlarini faollashtirdi (5-jadval).

5-jadval: **Koordinatsiya natijalari (sekund).**

Guruh	Boshlang'ich	Yakuniy	O'zgarish
Nazorat	9.8	9.5	+3.0 %
Eksperimental	9.7	8.8	+9.3 %

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha test ko'rsatkichlari bo'yicha eksperimental guruhda jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsiya sifatlarining kompleks ravishda rivojlanishiga xizmat qildi. Statistik ko'rsatkichlar eksperimental metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

Olingan natijalar harakatli o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Eksperimental guruhda barcha testlar bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori o'sish dinamikasi qayd etildi. Bu holat harakatli o'yinlarning yuqori motor faollikni ta'minlashi, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishi va mashg'ulotlarga qiziqishini kuchaytirishi bilan izohlanadi.

Ilmiy manbalarda ham harakatli o‘yinlar bolalarda jismoniy faollikni oshirish, funksional holatni yaxshilash va harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi ta’kidlangan [7]. Shuningdek, o‘yin faoliyati bolalarning psixoemotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, jismoniy tarbiya darslarida ishtirok faolligini kuchaytiradi [8]. Bu esa jismoniy sifatlarning tabiiy va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari boshqa ilmiy izlanishlar bilan uyg‘unlikda bo‘lib, harakatli o‘yinlar tezkorlik, chaqqonlik va koordinatsiya sifatlarini rivojlantirishda ayniqsa samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakatli o‘yinlar asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jismoniy sifatlarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Pedagogik eksperiment jarayonida eksperimental guruhda tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsiya ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Mazkur natijalar harakatli o‘yinlarning motor zichlikni oshirishi, ijobiy emotsional muhitni shakllantirishi hamda o‘quvchilarning harakat faolligini tabiiy ravishda kuchaytirishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, harakatli o‘yinlardan tizimli va maqsadli foydalanish jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishi, o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga barqaror qiziqishni shakllantirishi hamda harakat malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlashi aniqlandi. Tadqiqot natijalari maktab jismoniy tarbiya amaliyotini takomillashtirish, harakatli o‘yinlarga asoslangan metodikani keng joriy etish va darslarni innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya darslari tarkibiga harakatli o‘yinlarni tizimli ravishda integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Harakatli o‘yinlar yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tanlanishi lozim.

Dars jarayonida motor zichlikni oshirishga qaratilgan o‘yin elementlarini ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

Harakatli o‘yinlar orqali sog‘lom turmush tarzi g‘oyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Mazkur metodikani boshqa yosh guruhlarida ham tajriba-sinovdan o‘tkazish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lyax V.I. Fizicheskaya kultura v nachalnoy shkole. Moskva: Prosveshcheniye, 2012.
2. Matveyev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kultury. Moskva: Sport, 2008.
3. Ashmarin B.A. Teoriya pedagogicheskikh issledovaniy. Moskva: Pedagogika, 2001.
4. Kuznetsov V.S. Podvizhnye igry v fizicheskom vospitanii. Moskva: Akademiya, 2010.
5. Nazarenko L.D. Fizicheskoye razvitiye detey. Moskva: Vlados, 2007.
6. Kovalev V.A. Podvizhnye igry kak sredstvo razvitiya fizicheskikh kachestv. Moskva: Sport, 2014.
7. Filin V.P. Teoriya detskogo sporta. Moskva: Fizkultura i sport, 2006.
8. Zakharov E.N. Razvitiye fizicheskikh kachestv detey. Moskva: Akademiya, 2005.
9. Guba V.P. Fizicheskoye razvitiye detey. Moskva: Sport, 2008.

BO‘LAJAK ONA TILI O‘QITUVCHILARINING KOGNITIV-PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

Tursunoy Yusupova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

ORCID: 0000-0001-9434-5189

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv-pragmatik kompetensiya tushunchasi hamda bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Xorijiy olimlarning mazkur yo‘nalishdagi ilmiy qarashlari tizimli va qiyosiy asosda o‘rganilgan. Nazariy manbalar tahlili asosida bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar negizida shakllangan kognitiv-pragmatik yondashuvning lingvistik, psixolingvistik va metodik tamoyillari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv-pragmatik kompetensiya, kognitiv-pragmatik yondashuv, kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, lingvistik tamoyillar, psixolingvistik tamoyillar, metodik tamoyillar.

Abstract: This article examines the concept of cognitive-pragmatic competence and the issues related to its development in future native language teachers. The scientific views of foreign scholars on this topic are analyzed through a systematic and comparative approach. Based on the theoretical analysis, the stages of developing cognitive-pragmatic competence in future native language teachers are proposed. Furthermore, the linguistic, psycholinguistic, and methodological principles of the cognitive-pragmatic approach, formed on the basis of communicative and competency-based approaches, are scientifically substantiated.

Key words: cognitive-pragmatic competence, cognitive-pragmatic approach, communicative approach, competency-based approach, linguistic principles, psycholinguistic principles, methodological principles.

Аннотация: В статье рассматривается понятие когнитивно-прагматической компетенции и вопросы её формирования у будущих учителей родного языка. На основе системного и сравнительного анализа изучены научные взгляды зарубежных исследователей по данной проблематике. По результатам теоретического анализа разработаны этапы формирования когнитивно-прагматической компетенции будущих учителей родного языка. Также научно обоснованы лингвистические, психолингвистические и методические принципы когнитивно-прагматического подхода, сформированного на основе коммуникативного и компетентностного подходов.

Ключевые слова: когнитивно-прагматическая компетенция, когнитивно-прагматический подход, коммуникативный подход, компетентностный подход, лингвистические принципы, психолингвистические принципы, методические принципы.

KIRISH

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy asosi bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Zamonamizning muhim shartlaridan biri hisoblangan ilm-fan taraqqiyoti hamda ishlab chiqarish sohasidagi tub o‘zgarishlar ta’lim tizimi oldiga yangi va muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida, jumladan, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, sog‘liqni saqlash va, ayniqsa, ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilayotgan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar ham o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60–son Farmoni[1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017–yil 6–apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187–son qarori[2], shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi 2020–yil 23–sentabrdagi O'RQ–673–son Qonuni[3] va boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish soha vakillari zimmasiga muhim mas'uliyat yuklaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kognitivistika va pragmatika tafakkur, aql va ongni o'rganishga, shuningdek, ularning qonuniyatlari, modellari hamda tuzilmalarini izohlashga qaratilgan, predmet, yondashuv, metod va vositalar jihatidan farqlanuvchi turli ilmiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Til va tilni o'qitish masalalarini tadqiq etishda kognitiv-pragmatik yondashuvlar mahalliy va xorijiy olimlar – I. A. Boduen de Kurtene, J. Bruner,

L. Vaysgerber, L. S. Vigotskiy, V. Gumboldt, M. Jonson va boshqalarning ilmiy ishlari hamda nazariy qarashlariga tayanadi. Shuningdek, S. D. Katsnelson, E. Kassirer, A. Kibrik, U. Kroft, Ye. S. Kubryakova, J. Kerrol, J. Lakoff, R. Langaker, A. R. Luriya, A. A. Leontev, Yu. M. Lotman, Ch. Osgud, A. A. Potebnya, L. Taymi, G. Tompson, E. Sepir, B. L. Uorf, J. Fokone, G. Xarman, N. Xomskiy va boshqa olimlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy qarashlarni rivojlantirib, til va kognitiv qobiliyatlarning o'zaro bog'liqligini chuqurroq anglash imkonini yaratdilar.

Kognitiv fanlar doirasida nafaqat xulq-atvor harakatlari, balki ularning mental obrazlari va ramzlari, shuningdek, tilning nutq va tafakkur asosini tashkil etuvchi inson faoliyati orqali ichki dunyo tuzilishi hamda fikrlash mexanizmlarini anglash masalalari ham tadqiq etiladi. Lingvistik tadqiqotlarda kognitiv yondashuv muammosi kategoriyalash va konseptuallashtirish, konsept, freym, konseptosfera, geshtalt, prototip kabi asosiy tushunchalar doirasida o'rganiladi. Insonning olamni va o'zini shaxsiy ma'nolar bilan boyitib, ramzlar yaratish jarayonini tadqiq etish kognitiv tilshunoslikning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aynan til madaniyat va jamiyatga nisbatan ko'proq darajada inson xulq-atvori hamda ongining murakkab jihatlarini anglash uchun muhim kalit vazifasini bajaradi[4].

Mazkur nazariy yondashuvlar M. A. Laskovesning "Актуальные проблемы обучения аспирантов иностранному языку в неязыковом вузе" nomli maqolasida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, unda inson faoliyatining til stratifikatsiyasining integrativ tizimiga kiritilganligi ta'kidlanadi. Muallif bu borada shunday fikr bildiradi: "Har qanday inson faoliyati til makoniga, ijtimoiy, madaniy, milliy, kasbiy va boshqa xususiyatlar majmuasiga asoslangan til stratifikatsiyasining integrativ tizimiga kiritilgan"[5].

Ma'lumki, til nafaqat rasmiy belgilar tizimi orqali voqelikni ifodalash vositasi, balki uni idrok etish va o'zgartirish mexanizmi hamda shakli sifatida ham o'rganiladi.

D. A. Kaziyeva[6], Ya. V. Maltsev[7] kabi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy-metodik izlanishlarida tillarni o'qitishda qo'llaniladigan kognitiv va, asosan, pragmatik yondashuvlarga alohida e'tibor qaratiladi. Ular o'z tadqiqotlarida I. I. Bogdanov, P. Greys, J. Dyui, J. G. A. Kopnin, L. Ostin, Ch. Pirs, G. E. Pifo, R. Rorti, J. R. Serl, N. I. Formanovskaya, G. R. Shamenev va boshqa olimlarning nazariy qarashlariga tayanadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda professional lingvistik ta'lim nafaqat bo'lajak mutaxassislarning lisoniy-kommunikativ madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifasini bajaradi, balki jamiyatning yuqori texnologik rivojlanishini ta'minlash, mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning xalqaro professional hamjamiyatga integratsiyalashuvi, xalqaro axborot makoniga kirishi hamda xalqaro mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, global miqyosda bu jarayon ona Vatanning ijtimoiy-iqti-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 06.04.2017 йилдаги 187-сон https://lex.uz/ru/docs/3153714?ONDATE=05.04.2022%2000
3 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.02.2021 yildagi O'RQ-673-son https://lex.uz/ru/docs/-5286348
4 Маслова В. А. Когнитивная лингвистика: учебное пособие. 2-е изд. Минск: Тетра Системс, 2005. 256 с.
5 Ласковец М. А. Актуальные проблемы обучения аспирантов иностранному языку в неязыковом вузе // Современные проблемы науки и образования. 2014. № 4. URL: https://science- education.ru/ru/article/view?id=13998
6 Казиева Д. А. Прагматика PR-дискурса: фактор адресата и коммуникативные стратегии // Полилингвиальность и транскультурные практики. 2015. № 4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pragmatika-pr-diskursa-faktor-adresata-i-kommunikativnyestrategii
7 Мальцев Я. В. Прагматизм в образовании: философские основания и педагогическая практика // Философская мысль. 2023. № 7. С. 38-50. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=40380

sodiy nufuzini mustahkamlash, uning qadriyatlari va madaniyatini targ'ib etish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi[8].

Kasbiy lingvistik ta'limning ta'limiy salohiyati nafaqat nutq faoliyatining mahsuldor va retseptiv ko'nikmalarini egallashga yo'naltirilgan ona tilini o'qitish hamda universal va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan, balki noaniqlik va murakkablik sharoitida madaniyatlararo faoliyatda shaxsiy va kasbiy ma'nolarning translyatori, vositachisi, saqlovchisi va yaratuvchisi bo'lishga qodir mutaxassislarni tayyorlash bilan ham belgilanadi. Oliy ta'limning inson markazli, individuallashtirilgan va insonparvarlashgan yo'nalishga ega bo'lishiga qaramay, professional lingvistik ta'lim hanuzgacha madaniyatlararo kasbiy muloqotda kasbiy va universal vazifalarni samarali bajara oladigan mutaxassislar, chet tili o'qituvchilari hamda tilshunoslarni tayyorlash masalasini izchil hal etishni talab etadi. Shu bois kasbiy lingvistik ta'limda ona tilini o'qitishda kognitiv-pragmatik yondashuvni joriy etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish dolzarb vazifa sifatida baholanadi.

Kognitiv-pragmatik yondashuvning asosiy mezonlari ona tilini o'qitishning bilish, psixologik, interaktiv, madaniy va kasbiy jihatlarini qamrab oladi. Mazkur yondashuvning oliy ta'lim tizimiga joriy etilishi nafaqat pedagogik va lingvistik tadqiqotlarda, balki sotsiologiya, psixologiya, falsafa, antropologiya, neyrofanlar va boshqa sohalarda ham samarali qo'llanilishi mumkin.

Professional lingvistik ta'limda ona tili hamda boshqa xorijiy tillarni o'qitishda kognitiv-pragmatik yondashuvning imkoniyatlariga oid qarashlarni tizimlashtirish til ta'limi yo'nalishi talabalarida til ko'nikmalarini shakllantirishda ushbu yondashuvning afzalliklarini yaqqol namoyon etadi. Shu munosabat bilan quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- kasbiy lingvistik ta'limning o'quv jarayoniga kognitiv-pragmatik yondashuvni joriy etish zaruriyatini asoslash;
- ona tilini o'qitishda kognitiv-pragmatik yondashuvning asosiy qoidalarini belgilash;
- kognitiv-pragmatik yondashuv qoidalarini boshqa zamonaviy pedagogik yondashuvlar (kognitiv, pragmatik, sotsiopragmatik, kommunikativ, refleksiv, funksional) bilan qiyosiy tahlil qilish;
- kasbiy lingvistik ta'limga kognitiv-pragmatik yondashuvni tatbiq etishda qo'llaniladigan o'qitish usullari va metodlarini aniqlash.

Mazkur vazifalarni kelgusida oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga kognitiv-pragmatik yondashuvni tatbiq etishda, shuningdek, til yo'nalishi o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi amaliy hamkorlik faoliyatini samarali tashkil etishda qo'llash mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir shaxsning fikrlash faoliyati natijalari nutq orqali ifodalanadi, shu bois ong tuzilmalari haqidagi bilimlarimizning muhim qismi til tadqiqotlariga tayanadi[9]. Til insonning o'ziga xosligini ifodalash, o'zini anglash, bilimlarni uzatish va atrof-muhitni bilish vositasi sifatida talqin etiladi. Inson tafakkuri bevosita til orqali moddiylashadi va nutq shaklida namoyon bo'ladi. Ong tuzilmalari, tushunchalar va mantiqiy jarayonlar til birliklari – so'z, gap va matn orqali shakllanib, ifodalanadi. Shu sababli til va nutqni tadqiq etish ong va ruhiyatni o'rganishning muhim ilmiy asoslaridan biri hisoblanadi.

Kognitiv yondashuvning ona tili va xorijiy tillarni o'qitishdagi kompleks yondashuv sifatidagi afzalliklari bilan bir qatorda, uni yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatuvchi ayrim metodik jihatlar ham mavjud. Mazkur

8 Асмолов А. Г. Персонализация образования и антропология будущего // Народное образование. 2021. № 3 (1486). С. 75-82.; Бударина А. О., Короленко И. А., Ворновская А. А. Социопрагматический подход при обучении бакалавров лингвистики в условиях цифровой образовательной среды // Мир науки. Педагогика и психология. 2022. № 1. URL: https://mirnauki.com/PDF/16PDMN122.pdf.; Камалова А. Д. Управление образованием в РФ // Инновационная наука. 2022. № 9-2.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/upravlenie-obrazovaniem-v-rf.; Корниенко Е. Р. Дискурс как продукт речемыслительной деятельности языковой личности // БГЖ. 2019. № 2 (27). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/diskurs-kak-produktrechemyslitelnoy-deyatelnosti-yazykovoy-lichnosti.; Maslova V. A. Cognitive linguistics: textbook. 2nd ed. Minsk, TetraSistems Publ., 2005. 256 p.; Чигишева О. П. Обоснование процесса формирования функциональной грамотности исследователя с педагогических и междисциплинарных позиций // Ценности и смыслы. 2023. № 4 (86). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/obosnovanie-protsessa-formirovaniyafunktsionalnoy-gramotnosti-issledovatelya-s-pedagogicheskih-i-mezhdistsiplinarnyh-pozitsiy

9 Иванина П. В. Основы когнитивного подхода в современной психологии образования // Universum: психология и образование. 2023. № 8 (110). URL: https://cyberleninka.ru/articl/n/osnovy/kognitivnogo-podhoda-v-sovremennoy-psixologii-obrazovaniya.; Казарян Ш. Е., Григорян А. Э. Контрастивно-когнитивный подход в обучении языку // Право и практика. 2021. № 1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kontrastivnokognitivnyy-podhod-v-obuchenii-yazyku.; Миронов В. В., Косилова Е. В., Вархотов Т. А., Костылев П. Н., Беседин А. П. Аспекты применения когнитивного подхода в гуманитарной сфере // Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. 2017. № 2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-primeneniya-kognitivnogo-odhoda-v-gumanitarnoysfere.; Феоктистова О. В., Феоктистов А. В. Когнитивизм как основа разработки дисциплин образовательных программ подготовки педагогов профессионального обучения (на примере дисциплины риторика профессионального общения") // Проблемы современного педагогического образования. 2022. № 7-3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivizm-kak-osnova-razrabotki-distsiplin-obrazovatelnyhprogramm-odgotovki-pedagogov-professionalnogo-obucheniya-na-primere.

jihatlar kognitiv komponentni pragmatik komponent bilan uyg'unlashtirish orqali yanada samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Bizningcha, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish lingvistik ta'limda ona tili va xorijiy tillarni o'qitishda kompleks integrativ yondashuvni ishlab chiqish, asoslash hamda samarali joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur jarayonda kognitiv komponent bilan uzviy birlashtirilgan pragmatik komponent muhim metodik asos sifatida namoyon bo'ladi. Ona tili va boshqa xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga pragmatik jihatni kiritish nutq ifodasining faqat mazmuniy tomonini o'rgatish bilan cheklanmay, balki ishtirokchilar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sirni tahlil qilishda vaziyatning shartlari, shakli va kontekstiga e'tiborni qayta yo'naltirish imkonini beradi.

Ona tili va boshqa chet tillarni o'qitishda pragmatik yondashuv quyidagi jihatlarni hisobga oladi[10]:

- onglilik, izchillik, faollik, antropotsentrizm va funksionallik tamoyillari o'qitishning yetakchi tamoyillari sifatida qaraladi;
- til inson faoliyatining muhim jihati va ijtimoiy ta'sir shakli sifatida talqin etilib, nutqiy faoliyat jarayonlari hamda ijtimoiy-madaniy kontekstning o'zaro ta'siri asosida o'rganiladi;
- fikr bildirishning nutqiy vaziyatini baholash o'zgaruvchanlik, qaytuvchanlik, xilma-xillik, moslashuvchanlik, ahamiyatlilik va noaniqlik kabi mezonlar asosida amalga oshiriladi, bu esa chet tillarini o'qitishda e'tiborni tilni shunchaki qobiliyat sifatida egallashdan uni muayyan vaziyatda amalda qo'llashga yo'naltiradi;
- ta'lim jarayonida asosiy e'tibor nutqiy xabarni faqat til birliklari bilan to'ldirishdan ko'ra, aloqa shartlarini – ishtirokchilar, maqsadlar, vositalar hamda nutqiy va kasbiy tajribani o'rganishga qaratiladi;
- lisoniy shakl, kontekst va ijtimoiy harakatlar integratsiyasi har bir omilning rolini aniqlagan holda o'zaro ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimini shakllantirish imkonini beradi;
- ta'lim jarayonida talabalar nafaqat akademik turdagi o'quv faoliyatiga, balki kasbiy muhit vazifalarini imitatsiya qiluvchi kvaziprofessional faoliyatga ham faol jalb etiladi;
- mazkur yondashuv asosida muammoning mohiyati umumiy ilmiy bilish maydonida o'qituvchi-subyekt tomonidan ta'lim oluvchi subyektning mustaqil bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali ochib beriladi.

Ona tili fanini o'qitishda kasbiy lingvistik ta'lim doirasida kognitiv-pragmatik yondashuvning yetakchi o'rni quyidagi qoidalarga tayanadi[11]:

a) til tafakkur va ongning tarkibiy qismi bo'lib, ayni paytda ularning namoyon bo'lish shakli hamda muloqotning ijtimoiy elementi sifatida amal qiladi;

b) muloqotning muvaffaqiyati vaziyat konteksti, nutqiy xulq-atvorning an'anaviy qoliplari, umumiy kod va me'yorlar, shuningdek, muloqot ishtirokchilarining aqliy, madaniy, ruhiy va boshqa xususiyatlariga bog'liq bo'ladi;

d) chet tilini o'qitishning kognitiv jihati bilimlarni semantik aloqalar va munosabatlar orqali o'zlashtirish jarayonini, pragmatik jihati esa samarali nutqiy o'zaro ta'sirni tashkil etish va kommunikativ maqsadga erishish qobiliyatini nazarda tutadi;

e) kognitiv va pragmatik komponentlarning kesishuvida diskurs shakllanib, u nutq asarining verbal tomoni bilan muallif ongidagi mental tomon o'rtasidagi markaziy bo'g'inga aylanadi; uni kognitiv-kommunikativ-verbal hodisa sifatida talqin qilish matnning lingvistik tuzilmalari, nutq faoliyati tuzilmalari hamda muallif va qabul qiluvchining mental tasavvurlari o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilish imkonini beradi;

f) til va nolisoniy tajribaning o'zaro ta'siriga alohida e'tibor qaratilib, til tuzilmalari insonning olam haqidagi umumiy va individual bilimlari, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarda to'plagan tajribasi nuqtayi nazaridan psixologik, kommunikativ, kasbiy va ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

10 Мальцев Я. В. Прагматизм в образовании: философские основания и педагогическая практика // Философская мысль. 2023. № 7. С. 38-50. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=40380

11 Вьюркова Е. В. Понятие дискурса в лингвистике: формальный и функциональныйподходы // Вестник Удмуртского университета. Серия "История и филология". 2016. № 5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-diskursa-v-lingvistike-formalnyy-ifunktsionalnyy-podhody.; Калачева Е. В. Когнитивно-прагматическая специфика текста и дискурса // Вестник Курганского государственного университета. 2018. № 1 (48). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivno-pragmaticheskaya-spetsifika-teksta-i-diskursa.; Маслова В. А. Когнитивная лингвистика: учебное пособие. 2-е изд. Минск: ТетраСистемс, 2005. 256 с.; Моргун Е. А. К вопросу о конвергенции когнитивного и прагматического подходов // Филология и лингвистика: проблемы и перспективы: материалы II Международной научной конференции. Челябинск: Два комсомольца, 2013. С. 55-57. URL: https://moluch.ru/conf/phil/archive/79/3728/; Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. New York: Cambridge University Press, 2006. 47 p. URL: https://www.professorjackrichards.com/wp-content/uploads/RichardsCommunicative-Language.pdf.

Asosiy qoidalarni tizimlashtirish tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari asosida amalga oshirildi. Yuqorida keltirilgan materiallar oliy ta'lim muassasalarida kognitiv-pragmatik yondashuvni tadqiq etish va amaliyotga joriy etishda yuzaga keladigan masalalar haqida batafsil tasavvur hosil qilish, shuningdek, chet tilini o'qitish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda keyingi uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tilshunoslik va xorijiy tillarni o'qitish sohasidagi kognitiv-pragmatik burilish ilmiy qiziqishning tilni faqat formal tizim sifatida tavsiflashdan uning muloqot kontekstida amal qilishini o'rganishga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Lingvodidaktik tadqiqotlar til, tafakkur va ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq anglash zarurligini tasdiqlaydi. Shu bois kasbiy lingvistik ta'limda kognitiv-pragmatik yondashuvni amaliy tatbiq etish dolzarb ilmiy vazifa sifatida e'tirof etiladi. Fikrlarimizni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, kognitiv-pragmatik yondashuv bir qator metodik va didaktik afzalliklarga ega. Ona tili va xorijiy tillarni mazkur yondashuv asosida o'qitish jarayonida yuqorida bayon etilgan omillarni hisobga olish oliy ta'limda til va kasbiy fanlarni yanada samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ona tili o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy lingvodidaktikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kognitiv va pragmatik komponentlarning integratsiyasi tilni nafaqat bilim tizimi sifatida, balki muloqot jarayonida amaliy qo'llaniladigan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o'zlashtirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv o'qituvchilarda tafakkur, nutqiy faollik, refleksivlik hamda kasbiy kommunikativ malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarida kognitiv-pragmatik yondashuv asosida maxsus o'quv modullarini ishlab chiqish, kvaziprofessional mashg'ulotlar ulushini oshirish hamda diskursiv tahlil metodlarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa kelajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ласковец М. А. Актуальные проблемы обучения аспирантов иностранному языку в неязыковом вузе // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 4. – URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=13998
2. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика: учебное пособие. – 2-е изд. – Минск: Тетра Системс, 2005. – 256 с.
3. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
4. Иванина П. В. Основы когнитивного подхода в современной психологии образования // Universum: психология и образование. – 2023. – № 8 (110). – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osnovy-kognitivnogo-podhoda-v-sovremennoy-psixologii-obrazovaniya
5. Казарян Ш. Е., Григорян А. Э. Kontrastivno-kognitivnyy podxod v obuchenii yazyku // Pravo i praktika. – 2021. – № 1. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kontrastivno-kognitivnyy-podhod-v-obuchenii-yazyku
6. Миронов В. В., Косилова Е. В., Вархотов Т. А., Костылев П. Н., Беседин А. П. Аспекты применения когнитивного подхода в гуманитарной сфере // Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. – 2017. – № 2. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/aspekty-primeneniya-kognitivnogo-podhoda-v-gumanitarnoy-sfere
7. Феоктистова О. В., Феоктистов А. В. Когнитивизм как основа разработки дисциплин образовательных программ подготовки педагогов профессионального обучения (на примере дисциплины "Риторика профессионального общения") // Проблемы современного педагогического образования. – 2022. – № 7–3. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivizm-kak-osnova-razrabotki-distsiplin-obrazovatelnyh-programm-podgotovki-pedagogov-professionalnogo-obucheniya-na-primere
8. Мальцев Я. В. Прагматизм в образовании: философские основания и педагогическая практика // Философская мысль. – 2023. – № 7. – С. 38–50. – URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=40380
9. Калачева Е. В. Когнитивно-прагматическая специфика текста и дискурса // Вестник Курганского государственного университета. – 2018. – № 1 (48). – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivno-pragmaticheskaya-spetsifika-teksta-i-diskursa
10. Моргун Е. А. К вопросу о конвергенции когнитивного и прагматического подходов // Filologiya i lingvistika: problemy i perspektivy: materialy II Mejdunarodnoy nauchnoy konferensii. – Chelyabinsk: Dva komsomoltsa, 2013. – S. 55–57. – URL: https://moluch.ru/conf/phil/archive/79/3728/
11. Yusupova T., Toirova G., Kosimov A., Fayziyeva M., Topvoldiev K., Turdaliev D. Machine Learning Models for Identifying At-Risk Students: Applications and Challenges in Higher Education // 2025 International Conference on Frontier Technologies and Solutions (ICFTS). – 2025. – IEEE. – DOI: 10.1109/ICFTS62006.2025.11031749
12. Yusupova Tursunay Akhmedovna. Principles and Technologies for Developing Students' Cognitive Competence // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – Vol. 12, Issue 04. – 2024. – eISSN: 2394-6334. – URL: https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd
13. Yusupova T. Muammoli grammatik topshiriqlar orqali o'quvchilarni matn yaratish faoliyatiga tayyorlash masalasi // O'zbekiston: til va madaniyat. Metodika. – 2025. – T. 1, № 5.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI QO‘G‘IRCHOQ TEATRI VOSITASIDA AXLOQIY-ESTETIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Zulayxo Nazarova
Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti dotsenti

Musayeva Sayyora Erkaboy
Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi (5–7 yosh) bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish jarayonida qo‘g‘irchoq teatrining pedagogik imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda qo‘g‘irchoq teatrining bolalar hissiy dunyosi, axloqiy qarashlari, go‘zallikni idrok etish qobiliyati hamda ijtimoiy xulq-atvorini rivojlantirishdagi o‘rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, teatr faoliyatining bolalarning ijodiy faolligi, kommunikativ kompetensiyasi va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, katta yoshdagi bolalar (5–7 yosh), qo‘g‘irchoq teatri, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, insoniy fazilatlar, teatr faoliyati, ijodiy rivojlanish, milliy qadriyatlar, pedagogik vosita.

Abstract: This article scientifically examines the pedagogical potential of puppet theater in the process of developing moral and aesthetic qualities in older preschool children (5–7 years). The study provides a theoretical and practical analysis of the role of puppet theater in shaping children’s emotional development, moral perceptions, ability to perceive beauty, and social behavior. The significance of theatrical activities in enhancing creative engagement, communicative competence, and respect for national values is also substantiated.

Key words: preschool education, older preschool children (5–7 years), puppet theater, moral education, aesthetic education, human virtues, theatrical activity, creative development, national values, pedagogical tool.

Аннотация: В статье на научной основе раскрывается педагогический потенциал кукольного театра в процессе формирования нравственно-эстетических качеств у детей старшего дошкольного возраста (5–7 лет). В исследовании теоретически и практически анализируется роль кукольного театра в развитии эмоциональной сферы детей, их нравственных представлений, способности воспринимать красоту и формировании социального поведения. Обосновывается значение театральной деятельности в развитии творческой активности, коммуникативной компетентности и уважительного отношения к национальным ценностям.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети старшего дошкольного возраста (5–7 лет), кукольный театр, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, человеческие добродетели, театральная деятельность, творческое развитие, национальные ценности, педагогическое средство.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda axloqiy va estetik sifatlarni erta yoshdan shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha katta yosh davri bolada shaxsiy munosabatlar, xulq-atvor me’yorlari, atrof-muhitga estetik qarashlar hamda ijtimoiy tajribaning faol shakllanish bosqichi bo‘lib, bu davrda berilgan ta’lim-tarbiya uning keyingi hayotida muhim o‘rin egallaydi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” asarida ta’kidlaganidek: “Biz farzandlarimizni yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashimiz lozim” [1]. Shu munosabat bilan maktabgacha yoshdagi bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli[1] qarori asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish vazifasi belgilangan [2].

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son[2] Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Qonunning 8-moddasi asosida maktabgacha ta’lim bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan ta’lim turi hisoblanadi. Ushbu jarayonda qo‘g‘irchoq teatrining o‘rni beqiyosdir [3].

Qo‘g‘irchoq teatri bolalarning estetik didini shakllantirish, ularning ijtimoiy xulq-atvorini tarbiyalash, emotsional va muloqot malakalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qo‘g‘irchoq teatri O‘zbekistonda boy tarixga ega. Muhsin Qodirov o‘zining “Xalq qo‘g‘irchoq teatri” asarida xalq qo‘g‘irchoq teatrining tarixi va rivojlanishi haqida batafsil ma’lumot bergan [4]. Uning tadqiqotlarida “Chodir jamol”, “Chodir xayol” va “Fonus xayol” kabi o‘zbek xalq qo‘g‘irchoq teatrining an’anaviy shakllari atroflicha o‘rganilgan. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun asosiy yo‘l-yo‘riq hisoblanadi. Dastur asosida bolalarning rivojlanishi 5 ta asosiy sohaga bo‘lingan: jismoniy rivojlanish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, nutq rivojlanishi, kognitiv rivojlanish va ijodiy-estetik rivojlanish. Zamonaviy tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda badiiy adabiyotning, xususan, xalq og‘zaki ijodining o‘rnini alohida ta’kidlaydilar. Badiiy adabiyot bolalarning axloqiy-estetik tarbiyasida muhim vosita bo‘lib, ularning ijtimoiy-emotsional, nutq va kognitiv rivojlanishi, tasavvurlari hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Qo‘g‘irchoq teatrining pedagogik ahamiyati. Qo‘g‘irchoq teatri bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish jarayoni murakkab, ko‘p qirrali va uzluksiz pedagogik faoliyatni talab etadi. Ushbu jarayonda bolaning psixologik xususiyatlari, yoshiga xos ehtiyojlari, qiziqishlari va idrok darajasi alohida inobatga olinishi zarur. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, qo‘g‘irchoq teatri maktabgacha ta’lim muassasalarida axloqiy-estetik tarbiyani amalga oshirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik texnologiya tushunchasini ochib berishda N. N. Azizxo‘jayeva ta’kidlaganidek: “Pedagogik texnologiya – bu pedagogik maqsadlarga erishish uchun tanlangan va ma’lum ketma-ketlikda qo‘llaniladigan usullar, vositalar hamda shakllarning majmuasidir” [5].

Qo‘g‘irchoq teatri ham bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish maqsadiga xizmat qiluvchi samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy-ma’naviy sifatlarini shakllantirish jarayoni bo‘lib, unda bolalar jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalar va qoidalarni o‘zlashtiradilar. Estetik tarbiya esa bolalarning go‘zallikni anglash, baholash va yaratish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda (5–7 yosh) axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish tarbiyaviy jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Axloqiy tarbiya metodlari bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallashga qaratilgan faoliyat usulidir. Bu yoshda bolalar ijtimoiy normalarni ongli ravishda qabul qila boshlaydilar, o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini tushuna oladilar, go‘zallikka nisbatan estetik munosabatni shakllantiradilar hamda boshqalarga mehr-shafqat va g‘amxo‘rlik tuyg‘usini rivojlantiradilar.

Qo‘g‘irchoq teatridan foydalanish metodikasi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etishning turli shakllari mavjud:

- chodir teatri – parda ortida qo‘g‘irchoqlarni harakatga keltirish;
- stol usti teatri – qo‘g‘irchoqlarni stol yuzasida harakatga keltirish;
- barmoq qo‘g‘irchoqlari – kichik qo‘g‘irchoqlardan foydalanish;
- fonus teatri – yorug‘lik va soyalar yordamida tasvir yaratish.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi doirasida qo‘g‘irchoq teatridan foydalanish ijodiy-estetik rivojlanish sohasida muhim ahamiyatga ega. Pedagog bolalarni qo‘g‘irchoq teatrining turli ko‘rinishlari bilan tanishtirib, ularning ijodiy faolligini oshiradi. Teatrlashtirish faoliyati jarayonida bolalar nafaqat tomoshabin sifatida qatna-

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312–sonli qarori: https://lex.uz/docs/-4327235

2 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595–son Qonuni: https://lex.uz/docs/-4646908

shadilar, balki o‘zlari ham qo‘g‘irchoqlarni boshqarishni, dialoglarni ijro etishni, his-tuyg‘ularini ifodalashni o‘rganadilar. Bu esa ularning kommunikativ, ijtimoiy va o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

“Egrivoy va To‘g‘rivoy” ertagi asosida axloqiy tarbiya. O‘zbek xalq ertagi “Egrivoy va To‘g‘rivoy” bolalarga axloqiy tarbiya berishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu ertakda halollik, mehnatsevarlik va yaxshilikning g‘alaba qilishi, yolg‘on va aldovning esa jazoga tortilishi g‘oyasi aks ettirilgan. Ertakning qisqacha mazmuni quyidagicha: ikki birodar – biri halol va to‘g‘ri, ikkinchisi yolg‘onchi va aldamchi – birgalikda yashaydilar.

To‘g‘rivoy mehnatsevar va halol bo‘lsa, Egrivoy dangasa va aldamchi edi. Bir kuni ular boylikni bo‘lishayotganlarida Egrivoy akasini aldab, uning ulushini tortib oladi. To‘g‘rivoy bu nohaqlikka chidab, sabrli bo‘ladi. Vaqt o‘tib, To‘g‘rivoyning halolligi va mehnatsevarligi mukofotlanadi, Egrivoy esa o‘z yomonliklari uchun jazoga tortiladi.

Ushbu ertakni qo‘g‘irchoq teatri orqali namoyish etishda bolalarda halollik va rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, adolat tuyg‘usi hamda yaxshi va yomonni farqlash kabi axloqiy xususiyatlar shakllanadi. Qo‘g‘irchoq teatri orqali ertakni namoyish qilish jarayonida pedagog bolalarni faol jalb etib, qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama qiladi, nima sababdan To‘g‘rivoy ijobiy, Egrivoy esa salbiy obraz ekanligini tushuntirib beradi. Shu orqali bolalarda axloqiy me’yorlar va qadriyatlar mustahkamlanadi.

Qo‘g‘irchoq teatridan foydalanishda ota-onalar bilan hamkorlik masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlarda qo‘g‘irchoq teatrini ota-onalar bilan birgalikda tashkil etish bolalarda teatrga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirishi, tarbiyaviy ta’sirni esa barqarorlashtirishi ta’kidlanadi. Bu holat maktabgacha ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlab, bolalarda ijobiy axloqiy fazilatlarning izchil shakllanishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha katta yoshdagi (5–7 yosh) bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarning shakllanish darajasini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Ma’lumotlar pedagogik kuzatuv, suhbat, savol-javob, diagnostik topshiriqlar hamda tajriba-sinov mashg‘ulotlari orqali olindi. Tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari o‘zaro taqqoslandi. Bolalarning axloqiy tasavvurlari, estetik munosabati, ijtimoiy xulq-atvori hamda kommunikativ faolligi mezon va ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat tahlili asosida qayta ishlanib, natijalar foiz ko‘rsatkichlari va taqqoslash usuli orqali umumlashtirildi. Shuningdek, dinamik o‘zgarishlar aniqlanib, qo‘g‘irchoq teatrining tarbiyaviy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qo‘g‘irchoq teatri maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishning kuchli, ta’sirchan va ko‘p qirrali pedagogik vositasi hisoblanadi. Teatrlashtirilgan faoliyat jarayonida bolalar obrazlar orqali axloqiy me’yor va qadriyatlarni ongli ravishda qabul qiladilar, ijobiy hamda salbiy xatti-harakatlar o‘rtasidagi farqni anglay boshlaydilar. Bu esa ularda axloqiy tasavvurlar va baholash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuningdek, qo‘g‘irchoq teatri bolalarning hissiy dunyosini boyitishini ko‘rsatadi. Qahramonlarning his-tuyg‘ularini kuzatish va ularni ifodalash jarayonida bolalarda empatiya, mehr-shafqat, hamdardlik kabi ijtimoiy-psixologik sifatlar rivojlanadi. Natijada bolalarning kommunikativ faolligi ortadi, ular o‘z fikrini erkin ifodalashga hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etishga intiladilar.

Olingan natijalar qo‘g‘irchoq teatri bolalarning ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirish bilan birga, estetik didini shakllantirishga ham samarali ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Teatr orqali “yaxshi” va “yomon” tushunchalarini ongli ravishda farqlash ko‘nikmasi mustahkamlanadi, estetik zavq hissi esa axloqiy kamolotga yo‘naltiriladi. Shu bois qo‘g‘irchoq teatri maktabgacha ta’lim jarayonida axloqiy-estetik tarbiyaning samarali vositasi sifatida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni qo‘g‘irchoq teatri orqali shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatda ijobiy axloqiy muhit yaratishga ham xizmat qiladi. “Egri voy va To‘g‘ri voy” kabi xalq ertaklarini qo‘g‘irchoq teatri orqali namoyish etish bolalarga halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat va adolat kabi muhim axloqiy sifatlarni o‘rgatishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim sohasidagi qonun-qoidalari hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida qo‘g‘irchoq teatridan foydalanish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda va bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ–595–son, 2019–yil 16–dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. PQ–4312–son, 2019–yil 8–may.
4. Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri. – Toshkent: "Adabiyot va san'at".
5. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent. https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/pedagogika/Pedagogik%20texnologiyalar%20va%20pedagogik%20mahorat%20(N.Azizxo'jayeva).pdf
6. Maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.

5-6 SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA MRT YONDASHUVINI MBLOCK V.5.4.3 DASTUR BILAN TAKOMILLASHTIRISH

Abduqodirova Patmaxon Tursunboevna
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi dotsenti

Moxinur Ruziyeva Mirzoulug'bek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi 2-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 5-6-sinflarida matematika fanini o'qitishda MRT (Moddiy-Rasmli-Timsolli) yondashuvini zamonaviy raqamli muhit bilan uyg'unlashtirish metodikasi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish, abstrakt tushunchalarni vizuallashtirish, algoritmik fikrlashni shakllantirish hamda interaktiv o'rganish muhitini yaratishda mBlock v5.4.3 dasturidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: MRT yondashuvi, matematika metodikasi, vizual ta'lim, algoritmik fikrlash, raqamli pedagogika, interaktiv dars, mBlock v5.4.3.

Abstract: This article presents a scientific-theoretical and practical analysis of the methodology for integrating the MRT approach (Material-Visual-Symbolic) with a modern digital environment in teaching mathematics to students in grades 5-6 of general secondary schools. The study examines the didactic potential of using the mBlock v5.4.3 program to develop students' mathematical thinking, visualize abstract concepts, foster algorithmic reasoning, and create an interactive learning environment.

Key words: MRT approach, mathematics teaching methodology, visual learning, algorithmic thinking, digital pedagogy, interactive lesson, mBlock v5.4.3.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически освещается методика интеграции подхода MRT (текстовый-визуальный-символический) с современной цифровой средой при обучении математике учащихся 5-6 классов общеобразовательных школ. В исследовании анализируются дидактические возможности использования программы mBlock v5.4.3 для развития математического мышления учащихся, визуализации абстрактных понятий, формирования алгоритмического мышления и создания интерактивной образовательной среды.

Ключевые слова: подход MRT, методика обучения математике, визуальное обучение, алгоритмическое мышление, цифровая педагогика, интерактивный урок, mBlock v5.4.3.

KIRISH

2020-yil 7-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4708-son[1]li "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1] matematika ta'limini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish uchun mustahkam normativ-huquqiy asos yaratdi, deb aytish mumkin. Mazkur qarorda matematika fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari va ilg'or metodikalarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, bu jihatlar Moddiy–Rasmli–Timsolli (MRT) yondashuvi bilan bevosita uyg'unlashadi.

Bugungi globallashuv sharoitida matematika ta'limining asosiy vazifasi – o'quvchilarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va raqamli muhitda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdir. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilimni bir nechta idrok kanallari orqali o'zlashtirish o'quv samaradorligini oshiradi[1]. Shu nuqtai nazardan, MRT yondashuvi matematika darslari uchun samarali metodik model hisoblanadi.


1 https://lex.uz/uz/docs/-4807552

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mBlock v5.4.3 dasturining matematika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning algoritmik fikrlashini, ijodkorligini va fanlararo integratsiyani rivojlantirishdagi o‘rni batafsil tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida integrativ o‘qitish yondashuvi fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash va bilimlarni kompleks shakllantirishga xizmat qiladi. Matematika fanini dasturiy vositalar yordamida o‘qitish jarayonida ushbu yondashuv ayniqsa samarali bo‘lib, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. mBlock v5.4.3 muhiti ana shunday imkoniyatlarni taqdim etuvchi zamonaviy ta’lim platformasi hisoblanadi. Integrativ yondashuv asosida matematika boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanadi. Bu jarayonda o‘quvchilar matematik bilimlarni dasturlash, modellashtirish va tajriba orqali mustahkamlaydilar. Shu sababli 5-6-sinf darsliklarini mBlock v5.4.3 dastur muhiti bilan integratsiya qilishga harakat qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Blok-asosli kodlash muhiti bo‘lgan mBlock o‘quvchilarga algoritmik fikrlashni vizual tarzda o‘rgatish imkonini beradi, shuningdek, matematik mavzularni modellashtirish va mustaqil loyihalar yaratish orqali dars jarayonini boyitadi. Shu bilan birga, ushbu vosita o‘qituvchiga dars mazmunini interaktiv tarzda tashkil etish va uni muntazam yangilab borish imkonini ham beradi.



1-rasm: **mBlock v5.4.3 dasturining ishchi oynasi**

mBlock v5.4.3 dasturining ishchi oynasi blokli dasturlash muhitiga xos bo‘lgan modul tuzilishga ega bo‘lib, foydalanuvchiga vizual dasturlash, animatsiya yaratish va algoritmik modellashtirish imkonini beruvchi bir nechta asosiy interfeys qismlaridan tashkil topgan. Ushbu qismlar o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlaydi va o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqori boshqaruv paneli (Header panel). Mazkur panel dastur bilan ishlashni boshqaruvchi markaziy nazorat elementi hisoblanadi. Ishchi oynaning yuqori qismida joylashgan boshqaruv paneli dastur bilan ishlashning asosiy buyruqlarini o‘z ichiga oladi.

Bu panelda quyidagi elementlar mavjud:

- loyiha nomi maydoni (masalan: Untitled);
- Save tugmasi – loyihani saqlash;
- Publish – loyihani onlayn platformaga joylash;
- File menyusi – yangi loyiha ochish, yuklash yoki eksport qilish;
- User Guide, Example Programs, Feedback, Setting tugmalari – yordam, namunalar va sozlamalar bo‘limlari.

Sahna (Stage) oynasi. Chap yuqori qismda joylashgan sahna oynasi – dastur bajarilishini vizual ko‘rsatadigan maydon. Sahna o‘quvchilar uchun algoritm natijasini ko‘rish imkonini beradigan vizual laboratoriya vazifasini bajaradi.

Bu yerda:

- sprite (obyekt) harakatlanadi,
- animatsiya namoyish etiladi,

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

- matematik modellar tasvirlanadi.

Sprite va obyektlar boshqaruv paneli. Sahna ostida joylashgan panel sprite obyektlarini boshqarish uchun mo'ljallangan. Ushbu parametrlar matematik koordinata tizimi tushunchasini amaliy o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bu bo'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mavjud sprite ro'yxati (masalan: Panda);
- Add tugmasi – yangi obyekt qo'shish;
- sprite koordinatalari (X, Y);
- o'lchami (Size);
- yo'nalishi (Direction).


Ishga tushirish boshqaruvi. Bu elementlar tajriba asosida o'rganish metodikasini qo'llashga imkon beradi. Sahna pastida joylashgan yashil bayroq va qizil tugmalar quyidagi vazifani bajaradi:

- yashil tugma – dastur ishga tushadi
- qizil tugma – dastur to'xtaydi

Kod rejimi tanlash paneli. O'ng yuqori qismda Blocks va Python rejimlari mavjud bo'lib, foydalanuvchi bosqichma-bosqich o'tishi mumkin. Bu funksional imkoniyat mBlockni boshlang'ichdan professional darajagacha o'qitishga mos platformaga aylantiradi.


- blokli dasturlashdan
- matnli dasturlashga

Bundan tashqari, arifmetik amallarni bajarish, shakllarni chizish, koordinatalar tizimida harakatni modellashtirish, matematik funksiyalarni tasvirlash va ehtimollik tajribalarini o'tkazish kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. mBlock dasturida "Motion", "Looks", "Sounds", "Events", "Control", "Sensing", "Operators", "Variables" va "Pen" kabi bloklar mavjud bo'lib, ular yordamida o'quvchilar matematik masalalarni bosqichma-bosqich algoritmik shaklda yechadilar. Shunday qilib, mBlock v5.4.3 ishchi oynasining tuzilishi didaktik jihatdan o'ylangan bo'lib, u o'quvchini algoritm tuzish, modellashtirish va natijani vizual tahlil qilish jarayoniga faol jalb etadi. Shu sababli mazkur muhit matematika darslarida integrativ raqamli vosita sifatida samarali qo'llanishi mumkin. Masalan, "Pen" bloklari yordamida geometrik shakllarni chizish orqali o'quvchilar burchak, perimetr, yuza, koordinata kabi tushunchalarni amalda mustahkamlaydilar (3-rasm).




2-rasm: **"Pen" blokining ustiga bosganda shunday buyruqlar hosil bo'ladi.**

2-rasm ("Pen" blokining ustiga bosilganda shunday buyruqlar hosil bo'ladi). mBlock v5.4.3 dasturi o'quvchilarga sonlar ustida amallarni bajarish bilan bir qatorda, dasturiy modellashtirish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. O'quvchi biror natijaga erishish uchun bloklarni to'g'ri tartibda joylashtirishi kerak, bu esa algoritmik ketma-ketlikni tushunish va sabab-oqibat bog'liqligini anglashni o'rgatadi. Misol: 8 + x = 25 sodda tenglamani bloklar yordamida ushbu dasturchani tuzib olamiz (3-rasm).




3-rasm: **Dastur bloklari**

Ushbu dastur bloklari quyidagicha bog‘lanadi (4-rasm).




Ko‘k bayroqcha ustiga bosamiz.
Natijada ushbu dastur o‘yin shaklida hosil bo‘ladi (5-rasm).




MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Agar javob to‘g‘ri kiritilsa, “To‘g‘ri” degan yozuv hosil bo‘ladi (6-rasm).



Aks holda, noto‘g‘ri javob uchun “Noto‘g‘ri” degan yozuv ekranda namoyon bo‘ladi (7-rasm).



Agar keltirilgan mazkur misol tuzilish jihatidan osonlik qilsa, ushbu dasturni tahrirlash orqali misolning qiyinlik darajasini oshirish mumkin. O‘ylaymanki, ushbu dastur va unga o‘xshash raqamli platformalar o‘quvchilarda fanlarga nisbatan barqaror qiziqish uyg‘otadi hamda ularning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini yaratadi. “Moddiy - Raqamli - Timsolli (MRT) yondashuv” – bu ta’lim jarayonida bilimlarni bosqichma-bosqich, aniqdan mavhumga o‘tkazish orqali o‘quvchilarning chuqur va barqaror tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy didaktik yondashuvdir.

Quyida ushbu yondashuvning ilmiy-uslubiy tavsifi va uni 5 - 6-sinflarda matematika fanini mBlock v5.4.3 dasturi asosida o‘qitish bilan bog‘lash yoritiladi. “Moddiy - Raqamli - Timsolli” (MRT) yondashuvi o‘quvchining bilish faoliyatini uch ketma-ket bosqich asosida tashkil etishni nazarda tutadi:

1. Moddiy bosqich – real buyumlar va jismoniy faoliyat orqali o‘rganish.
2. Raqamli bosqich – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy muhitlar orqali o‘rganish.
3. Timsolli bosqich – belgilar, formulalar, algoritmlar va mavhum modellar orqali o‘rganish.

MRT yondashuvining didaktik mohiyati matematik bilimni bosqichma-bosqich shakllantirishni nazarda tutadi.

Dastlab o‘quvchi tushunchani matn orqali anglaydi, keyin rasm orqali tasavvur qiladi, so‘ng timsoliy shaklda umumlashtiradi. Bu jarayon abstrakt fikrlash rivojlanishining tabiiy ketma-ketligiga mos keladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual material bilan boyitilgan ta’lim jarayonida bilimni eslab qolish darajasi oddiy matnli tushuntirishga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Ko‘rsatkich	An’anaviy usul	MRT + mBlock
Tushunish darajasi	64%	87%
Faollik	58%	91%
Mustaqil ishlash	52%	85%
Xatolar soni	yuqori	past

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mBlock v5.4.3 dasturidan matematika fanini o‘qitishda foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, matematik tafakkurni rivojlantiradi va nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi. mBlock v5.4.3 dasturi matematika fanini o‘qitishda innovatsion vosita sifatida katta didaktik ahamiyatga ega. Ushbu muhit orqali o‘quvchilar matematik tushunchalarni nafaqat nazariy, balki amaliy va vizual asosda o‘zlashtiradilar. Bu esa matematika fanini o‘rganish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mantiqiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur dastur yordamida o‘quvchilar nafaqat matematikani, balki dasturlash asoslarini, algoritmik fikrlashni va tizimli tahlilni ham o‘rganadilar.

“Moddiy – raqamli – timsolli” yondashuvini mBlock v5.4.3 dasturi bilan integratsiyalash 5-6-sinflarda matematika fanini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lib, ularni zamonaviy raqamli ta’lim muhitiga tayyorlashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. mBlock v5.4.3 bugungi raqamli ta’limning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib, u orqali o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham interfaol, ijodiy va natijador o‘qitish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu sababli mBlock v5.4.3 dasturini matematika ta’limiga keng joriy etish zamonaviy ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirova P.T. Matematika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Resnick M., Maloney J., Monroy-Hernández A., et al. Scratch: Programming for All // Communications of the ACM. – 2009. – Vol. 52, No. 11. – P. 60-67.
3. Zhang Y., Li H. mBlock-based visual programming in mathematics education // International Journal of STEM Education. – 2021. – Vol. 8, No. 45. – P. 1-12.
4. Makeblock Company. mBlock User Guide and Educational Resources. – Shenzhen, 2022.
5. Abduqodirova P.T. Matematika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 168 b.
6. Polat E.S., Buxarkina M.Yu. Novye pedagogicheskie i informatsionnye tekhnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2019. – 272 s.
7. Robert I.V. Teoriya i metodika informatizatsii obrazovaniya. – Moskva: Binom, 2020. – 320 s.
8. Scratch Foundation. Creative Computing Guide. – Cambridge, MA, 2018. – 120 p.
9. Resnick M. Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. – MIT Press, 2017. – 336 p.
10. Wing J.M. Computational Thinking // Communications of the ACM. – 2006. – Vol. 49, No. 3. – P. 33-35.
11. Bers M.U. Coding as a Playground: Programming and Computational Thinking in the Early Childhood Classroom. – Routledge, 2018. – 240 p.

KREDIT MODUL TIZIMIDA BO'LG'USI O'QITUVCHILARNING MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdurasulova Shoira Kushakovna
Innovatsion texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Xaitqulova Gulrux Qaxramon qizi
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabasi

Abdumo'minova Charos Baxodir qizi
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Kredit-modul tizimi, uning imkoniyatlari hamda ushbu tizimning talabalardagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Muloqot kompetensiyasi mazmuniga ham ta'riflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kredit, modul, tizim, jarayon, tarbiya, kompetensiya, kommunikativ, metod, interfaol, mustaqil, sistema, islohot, imkoniyat, ta'lim sifati, mustaqil ta'lim, kreativ, innovatsion, texnologiya.

Abstract: This article reveals the pedagogical possibilities of developing future teachers' communicative competences in the conditions of the credit-module system. The credit-module system, its possibilities, and the importance of this system in the development of students' communicative competence are covered in detail. Definitions of the content of communicative competence are also provided.

Key words: credit, module, system, process, education, competence, communicative, method, interactive, independent, system, reform, opportunity, quality of education, independent education, creative, innovative, technology.

Аннотация: В статье раскрываются педагогические возможности развития коммуникативных компетенций будущих учителей в условиях кредитно-модульной системы. Подробно освещены кредитно-модульная система, ее возможности и значение данной системы в развитии коммуникативной компетентности студентов. Также даны определения содержания коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: кредит, модуль, система, процесс, образование, компетентность, коммуникативный, метод, интерактивный, самостоятельный, система, реформа, возможность, качество образования, самостоятельное образование, творческий, инновационный, технология.

KIRISH

Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlaydi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularning mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bilim va ilmning shakllanishi bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019- yilning 8- oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[1] Farmon imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki

1 https://lex.uz/ru/docs/-4545884

Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish hamda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma- bosqich kredit- modul tizimiga o‘tkazish” vazifasi belgilab berildi [1].

Epistemologiya sohasi bilimning tabiatini, manbalari va qiymatini o'rganish orqali barcha fanlar uchun zarur nazariy bazani taqdim etadi. Ilmiy bilimning to'g'riligi, ishonchliligi va oqlanuvchanligi masalalari falsafa doirasida hal qilinadi. Bu esa fanlararo tadqiqotlarda umumiy metodologik til va tushunchalar tizimini yaratishga yordam beradi. Ontologiya esa mavjudlikning tabiati, voqelikning tuzilishi va mavjud narsalar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi fundamental savollarga javob izlaydi. Ushbu nazariy asoslar tabiiy fanlardan tortib ijtimoiy fanlargacha bo'lgan barcha sohalarda tadqiqot ob'ektlarining tabiatini tushunish uchun zarurdir.

Falsafa va tabiiy fanlar o'rtasidagi munosabatlar ilmiy bilimning shakllanish tarixida doimo muhim bo'lib kelgan. Kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va zamonaviy kosmologiya kabi zamonaviy tabiiy fanlar falsafiy masalalarni yangi darajada ko'taradi. Voqelikning tabiati, determinizm va indeterminizm, sabab–oqibat munosabatlari, vaqt va fazo tushunchalari fizika va falsafaning umumiy tadqiqot maydoniga aylanadi. Biologiyada evolyutsiya nazariyasi, genetika va neyrobilimdagi kashfiyotlar ong, erkin iroda va shaxs identifikatsiyasi kabi falsafiy muammolarni yangi ilmiy ma'lumotlar nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bioetika sohasida falsafiy prinsiplar va biologik bilimlar uzviy birlashib, genetik muhandislik, klonlash va biotexnologiyalardagi axloqiy chegaralarni belgilashda muhim rol o'ynaydi [2].

Falsafiy metodologiya tabiiy fanlarda nazariya va eksperimentning o'zaro munosabatlarini tushunishga, ilmiy kashfiyotlarning epistemologik asoslarini baholashga va yangi tadqiqot paradigmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ilmiy inqiloblar nazariyasi, tadqiqot dasturlari metodologiyasi va falsifikatsionizm kabi falsafiy konsepsiyalar tabiiy fanlar rivojlanishini tushuntirish va prognoz qilishning nazariy asoslarini yaratadi. Ijtimoiy fanlarda falsafa yanada muhimroq rol o'ynaydi, chunki ijtimoiy hodisalarning murakkabligi va ko'p qirraliligi chuqur nazariy refleksiyani talab qiladi. Sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot va antropologiya kabi fanlar o'zlarining nazariy asoslarini falsafiy tushunchalardan oladi. Ijtimoiy falsafa jamiyatning tabiati, davlat va shaxs munosabatlari, adolat, erkinlik va tenglik kabi fundamental tushunchalarni tahlil qilish orqali ijtimoiy fanlarga konseptual ramka beradi. Marksizm, liberalizm, kommunitarizm va boshqa falsafiy yo'nalishlar ijtimoiy tadqiqotlarda nazariy paradigma vazifasini bajaradi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologik jihatdan falsafa ijtimoiy fanlarga tushunish va tushuntirish dialektikasini, individualizm va golizm munosabatlarini, subyektiv va ob'ektiv yondashuvlarning sintezini taqdim etadi. Germenevtika va fenomenologiya ijtimoiy ma'nolarni talqin qilish va ijtimoiy voqelikni ichkaridan tushunish uchun zarur vositalarni beradi. Axloq falsafasi va siyosat falsafasi ijtimoiy institutlar, siyosiy tizimlar va iqtisodiy modellarni baholashda normativ asoslarni taqdim etadi. Ijtimoiy adolat nazariyalari, demokratiya konsepsiyalari va inson huquqlari falsafasi ijtimoiy fanlarda normativ va deskriptiv yondashuvlarni birlashtiradi. Gumanitar fanlarda falsafaning ta'siri eng chuqur namoyon bo'ladi. Adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san'atshunoslik va tarix fanlarida falsafiy yondashuvlar tadqiqot metodologiyasining asosiy qismini tashkil etadi. Til falsafasi zamonaviy lingvistikaning nazariy bazasini yaratadi, til va fikrlash, til va voqelik munosabatlari haqidagi falsafiy konsepsiyalar tilshunoslikda fundamental ahamiyatga ega. Estetika san'atning tabiati, go'zallik, san'at asarlarining ma'nosi va badiiy qadriyatlar haqidagi falsafiy refleksiya orqali san'atshunoslikning nazariy asoslarini belgilaydi [4].

Postmodernizm, strukturalizm va dekonstruktivizm kabi falsafiy oqimlar adabiyotshunoslik va san'atshunoslikda yangi talqin metodlarini yaratdi. Tarix falsafasi tarixiy bilimning tabiati, tarixiy jarayonlarning qonuniyatlari va tarixiy tushunishning imkoniyatlari haqidagi fundamental savollarga javob beradi. Tarixchilik metodologiyasi, manbalarni tanqidiy tahlil qilish va tarixiy voqelikni rekonstruksiya qilish usullari falsafiy epistemologiya va germenevtikadan kelib chiqadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi zamon ilmiy bilimining eng muhim xususiyati fanlararo yondashuv va kompleks muammolarni hal qilishda turli fanlarning sintezi hisoblanadi. Kognitiv fanlar, ekologiya, bioetika va axborot texnologiyalari falsafasi kabi yangi sohalar tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarning integratsiyasi asosida shakllanmoqda. Kognitiv

fanlar psixologiya, neyrofiziologiya, sun'iy intellekt, lingvistika va falsafani birlashtiradi. Ong falsafasi, intellekt tabiati, aql va tana munosabatlari kabi falsafiy muammolar kognitiv tadqiqotlarning markaziy mavzulariga aylanadi. Falsafa ushbu interdissiplinar sohada turli fanlar natijalarini sintez qilish va umumiy nazariy ramka yaratish vazifasini bajaradi. Ekologik muammolar ham kompleks yondashuvni talab qiladi. Ekologik falsafa biologiya, kimyo, iqtisodiyot va etikani birlashtiradi [5].

Tabiat va jamiyat munosabatlari, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik qadriyatlar va ekologik adolat masalalari falsafiy refleksiyani talab qiladi. Axborot jamiyati falsafasi kompyuter fanlari, sotsiologiya, iqtisodiyot va etikani integratsiya qiladi. Virtual voqelik, raqamli identifikatsiya, sun'iy intellektning axloqiy muammolari, kiberetika va ma'lumotlar falsafasi kabi yo'nalishlar zamonaviy texnologiyalar va falsafiy tafakkurning sintezidan vujudga keladi. Falsafaning boshqa fanlardan farqi uning refleksiv va tanqidiy xarakterida namoyon bo'ladi. Falsafa nafaqat voqelikni o'rganadi, balki bilimning o'zini va bilish jarayonini ham tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil qiladi. Bu xususiyat falsafaga fanlar uchun metanazariya vazifasini bajarish imkonini beradi. Falsafaning normativ xarakteri axloq, siyosat va estetika sohalarida qadriyat munosabatlarini o'rganish va normativ prinsiplarga asos yaratishda namoyon bo'ladi. Falsafaning universalligi va spekulyativ tabiati uni fanlar tizimida alohida o'ringa qo'yadi [6–7].

XULOSA

Falsafa fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi zamonaviy ilmiy bilim rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Falsafaning metodologik universalligi, epistemologik asoslari va ontologik refleksiyasi barcha fanlar uchun zarur nazariy bazani taqdim etadi. Tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan falsafaning o'zaro ta'siri yangi interdissiplinar sohalarning shakllanishiga va mavjud fanlarning chuqurroq rivojlanishiga olib keladi. Falsafaning refleksivlik, normativlik, universallik va spekulyativlik kabi xususiyatlari uni fanlar tizimida alohida o'ringa qo'yadi. Falsafa nafaqat mustaqil bilim sohasi, balki barcha fanlarning metanazariyasi va metodologik asosi vazifasini bajaradi [8].

Zamonaviy kompleks muammolarni hal etishda falsafa va maxsus fanlarning sintezi zarur bo'lib, kelajakda ushbu integratsiya jarayonlarining yanada kuchayishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Didikin A.B., Ogleznev V.V. Ontologiya i epistemologiya prava: analiticheskaya traditsiya [Ontology and epistemology of law: the analytic tradition]. Novosibirsk: Novosibirsk State University, 2012.
2. Abduxolikova N. Falsafa fani orqali talabalar axborot savodxonligi rivojlanganligini baholashda qo'llaniladigan metodlar // Nauka i tekhnologiya v sovremennom mire. – 2024. – T. 3. – №12. – B. 65–67.
3. Dilfuza O. et al. Falsafa fanining yurtimizdagi o'rni // The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy. – 2024. – T. 2. – №20. – B. 37–38.
4. Ismadiyorov K.M. Kredit-modul tizimida falsafa fanini o'qitishning pedagogik xususiyatlari va metodikasi // Inter Education & Global Study. – 2024. – №10. – B. 58–64.
5. Samatov D. Falsafa fanini o'qitishda multimediaviy storytellingdan foydalanishning samaradorligi // Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali. – 2023. – №4. – B. 118.
6. Akbarali o'g'li, Satvoldiyev Fakhriddin. The role of interactive methods and the necessity of their use in modern educational conditions // International Journal of Pedagogics. – 2024. – Vol. 4. – No. 11. – P. 78–82.
7. Akbarali o'g'li, Satvoldiyev Fakhriddin. Developing students' scientific worldview through problem-based learning technologies in philosophy education // International Journal of Pedagogics. – 2025. – Vol. 5. – No. 01. – P. 20–22.
8. Akbarali o'g'li, Satvoldiyev Fakhriddin. Prospects for improving the technologies of developing legal thinking for schoolchildren (on the example of the province of Namangan) // Current Research Journal of Pedagogics. – 2023. – Vol. 4. – No. 01. – P. 94–97.

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM TALABALARIDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Shobduraximova Umriniso
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi PhD. dotsent

Abduqaxxorova Moxinur
Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi xorijiy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Yevropa, AQSh va Osiyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, kompetensiyaviy model, tajribaga asoslangan o'qitish, mentorlik dasturlari hamda talabalarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, liderlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni faqat nazariy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyat, jamoaviy loyihalar, refleksiv tahlil va ijtimoiy hamkorlik asosida samarali natija beradi. Shuningdek, oliy ta'lim muhitida demokratik boshqaruv tamoyillarini joriy etish, talabalarga tashabbus ko'rsatish imkoniyatini yaratish va akademik erkinlikni kengaytirish muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada xorij tajribasini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi hamda pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga doir takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: liderlik qobiliyati, pedagogik ta'lim, xorij tajribasi, kompetensiyaviy yondashuv, mentorlik, innovatsion ta'lim, talaba faolligi, professional rivojlanish.

Abstract: This article examines the development of leadership competencies among students of pedagogical higher education institutions through the analysis of international experience. The study explores contemporary approaches implemented in Europe, the United States, and Asian countries, including competency-based models, experiential learning strategies, mentoring systems, and mechanisms that enhance student engagement and social participation. The findings indicate that effective leadership development requires the integration of theoretical instruction with practice-oriented activities, collaborative projects, reflective analysis, and academic partnership. Particular attention is paid to the creation of a democratic educational environment that encourages student initiative and supports continuous professional growth. The article substantiates the possibilities for adapting successful international practices to the national system of teacher education and offers recommendations aimed at improving the quality of future teacher training.

Key words: leadership competencies, pedagogical education, international experience, competency-based approach, mentoring, innovative education, student engagement, professional development.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития лидерских качеств у студентов педагогических высших учебных заведений на основе анализа зарубежного опыта. В ходе исследования изучены современные подходы, применяемые в странах Европы, США и Азии, включая компетентностные модели подготовки, обучение через практическую деятельность, системы наставничества и механизмы стимулирования социальной активности студентов. Анализ показал, что формирование лидерских компетенций требует интеграции теоретической подготовки с практико-ориентированными формами обучения, проектной деятельностью, рефлексией и академическим сотрудничеством. Особое внимание уделяется созданию демократической образовательной среды, расширению возможностей для инициативы студентов и поддержке их профессионального саморазвития. В статье обоснованы направления адаптации эффективных зарубежных практик к национальной системе педагогического образования и сформулированы предложения по повышению качества подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: лидерские качества, педагогическое образование, зарубежный опыт, компетентностный подход, наставничество, инновационные технологии, студенческая активность, профессиональное развитие.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik oliy ta'lim muassasalari zimmasiga nafaqat malakali mutaxassis tayyorlash, balki ijtimoiy mas'uliyatni his eta oladigan, tashabbuskor, innovatsion fikrlaydigan va jamoani ortidan ergashtira oladigan yetuk shaxsni shakllantirish vazifasi ham yuklatilmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot

oqimining keskin ortishi hamda ta'lim mazmunining yangilanishi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy- amaliy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki maktab va boshqa ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, o'quvchilarni ruhlantiruvchi hamda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtiruvchi yetakchi shaxsdir. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida liderlik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi xalqaro tajriba asosida tahlil etishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda liderlik tushunchasi ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Masalan, Jeyms M. Kouzes va Barri Z. Pozner "The Leadership Challenge" nomli asarida liderlikni shaxsning boshqalarni umumiy maqsad sari ilhomlantirish va ularni faol harakatga undash qobiliyati sifatida izohlaydilar. Ushbu yondashuv pedagogik kontekstda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki o'qituvchi o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi zarur. Shuningdek, Kenneth Leithwood va Doris Jantzi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim muassasalarida liderlik o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan. Mazkur ilmiy qarashlar pedagogik ta'lim jarayonida liderlikni alohida kompetensiya sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy tajribada pedagogik ta'lim tizimi ko'proq kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi kuzatiladi. Masalan, Linda Darling-Hammond o'zining o'qituvchilarni tayyorlashga bag'ishlangan ilmiy ishlarida amaliyotga yo'naltirilgan tayyorgarlik modeli samaradorligini ta'kidlaydi hamda nazariy bilimlar real ta'lim muhitidagi tajriba bilan integratsiyalashganda kasbiy yetuklik shakllanishini asoslaydi. Ushbu fikrlar pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish jarayoni auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyat, maktab amaliyoti, jamoaviy loyihalar va refleksiv tahlil orqali boyitilishi lozimligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, John Hattie ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni keng ko'lamda tahlil qilib, o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasi va yetakchilik xususiyatlari ta'lim samaradorligida muhim o'rin tutishini qayd etadi. Bu esa pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega ekanini anglatadi. Zero, bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qila olishi, muammoli vaziyatlarda tashabbus ko'rsatishi va jamoani samarali boshqara olishi zarur. Osiyo mamlakatlari tajribasida ham pedagogik liderlik masalasi dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Singapur ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida liderlik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish modeli qo'llaniladi, bunda talabalar erta bosqichdan boshlab loyiha faoliyati va hamkorlikda o'qitish jarayonlariga jalb etiladi. Ushbu yondashuv pedagogik ta'limda liderlikni nazariy tushuncha emas, balki amaliy ko'nikma sifatida rivojlantirish muhimligini tasdiqlaydi. Ta'kidlash joizki, milliy pedagogik ta'lim tizimida ham liderlik masalasiga e'tibor ortib bormoqda, biroq mazkur yo'nalishda tizimli, xalqaro tajriba bilan qiyosiy asoslangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shuning uchun xorij tajribasini chuqur tahlil qilish, uning samarali jihatlarini aniqlash va milliy sharoitga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda madaniy, ijtimoiy hamda institutsional omillarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ta'lim tizimi o'ziga xos tarixiy va ijtimoiy sharoitda shakllanganligi sababli, xorijiy modelni to'liq ko'chirish emas, balki ilmiy asoslangan adaptatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shu tariqa, pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Xalqaro ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, liderlik kompetensiyalarini shakllantirish ko'p omilli, uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, u ta'lim mazmuni, metodlari hamda tashkiliy muhit bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur tadqiqotning kirish qismi aynan shu muammoning dolzarbligini asoslash, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish hamda kelgusida amalga oshiriladigan izlanishlar uchun nazariy-metodologik poydevor yaratishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasini chuqur tahlil qilish, avvalo, ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini aniqlashni talab etadi. Ilmiy manbalarda pedagogik liderlik nafaqat boshqaruv funksiyasi, balki ta'lim jarayoniga maqsadli ta'sir ko'rsatish, jamoani umumiy qadriyatlar asosida birlashtirish va o'quvchilarning rivojlanishiga yo'naltirilgan muhit yaratish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Masalan, Alma Harris ta'lim muassasalarida taqsimlangan liderlik modelini tahlil qilib, samarali maktab muhitini shakllantirishda jamoaviy yetakchilik muhim rol o'ynashini asoslaydi. Bu yondashuv pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ham dolzarb bo'lib, talabalarni faqat individual yetakchi sifatida emas, balki jamoa bilan ishlay oladigan, mas'uliyatni bo'lisha biladigan shaxs sifatida tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

AQSh va Yevropa mamlakatlarida pedagogik ta'lim jarayonida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish ko'pincha tajribaga asoslangan o'qitish (experiential learning) modeli orqali amalga oshiriladi. David A. Kolb o'zining tajribaviy o'qitish nazariyasida bilim real faoliyat jarayonida refleksiya va tahlil orqali mustahkamlanishini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv pedagogik oliy ta'lim talabalari uchun maktab amaliyoti, mikroo'qitish, loyiha asosida ta'lim va ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish orqali liderlik ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Amaliyot jarayonida talabalar real pedagogik vaziyatlarga duch keladi, muammolarni hal etadi, jamoa bilan ishlaydi va qaror qabul qilish mas'uliyatini his etadi. Bu esa nazariy bilimlarni real faoliyat bilan integratsiyalash imkonini yaratadi.

Finlyandiya tajribasi alohida e'tiborga loyiqdir. Pasi Sahlberg o'z tadqiqotlarida Finlyandiya ta'lim tizimida o'qituvchilarga yuqori darajadagi ishonch va mustaqillik berilishi ularning liderlik salohiyatini tabiiy ravishda rivojlantirishini ta'kidlaydi. Ushbu modelda pedagogik oliy ta'lim talabalari ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etiladi, mustaqil izlanish olib boradi va o'z pedagogik qarashlarini asoslashga o'rgatiladi. Bu jarayon liderlikning intellektual hamda kasbiy komponentlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk Britaniyada esa o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida refleksiv amaliyotga alohida urg'u beriladi. Donald Schön refleksiv amaliyot nazariyasida mutaxassisning o'z faoliyatini doimiy tahlil qilishi va tajribadan saboq chiqarishi kasbiy yetuklikning muhim omili ekanini ko'rsatadi. Pedagogik oliy ta'lim jarayonida refleksiv yondashuvni qo'llash talabalarda o'z kuchli va zaif tomonlarini anglash, o'zini baholash hamda o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa liderlikning ichki, shaxsiy poydevorini mustahkamlaydi. Osiyo mamlakatlarida, xususan, Janubiy Koreya va Singapurda mentorlik tizimi orqali liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish amaliyoti keng tarqalgan. Mentor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik jarayoni nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki mas'uliyat, tashabbuskorlik va kommunikativ salohiyatni ham rivojlantiradi. Kenneth Leithwood va Christopher Day ta'lim muassasalarida liderlikning barqaror rivoji ko'p jihatdan mentorlik hamda professional hamkorlik madaniyatiga bog'liqligini qayd etadi.

Ushbu tajriba pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ham ustoz-shogird an'analarini zamonaviy shaklda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, liderlik qobiliyatini rivojlantirishda o'quv dasturining mazmuni bilan bir qatorda ta'lim muhitining demokratikligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish, talabalar kengashlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishini rag'batlantirish ularning tashabbuskorlik va javobgarlik hissini kuchaytiradi. John P. Kotter o'zining o'zgarishlarni boshqarish nazariyasida tashkilot ichida faol ishtirok hamda umumiy maqsadni anglash yetakchilikni mustahkamlashini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv pedagogik ta'lim muhitida ham qo'llanilganda talabalar o'zlarini jarayonning faol subyekti sifatida his etadilar. Milliy ta'lim tizimiga xorijiy tajribani moslashtirish jarayonida bir qator omillarni hisobga olish zarur. Avvalo, ijtimoiy-madaniy muhit, an'anaviy pedagogik qadriyatlar va mavjud institutsional imkoniyatlar tahlil qilinishi lozim.

Xorijiy modelni to'liq ko'chirish emas, balki uning samarali elementlarini tanlab olish va mahalliy sharoitga integratsiyalash ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Shu ma'noda, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda kompetensiyaviy yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish, refleksiv tahlil hamda mentorlik tizimini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat, refleksiya hamda ijtimoiy hamkorlikning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchining kasbiy yetukligini ta'minlash, uning ta'lim jarayonidagi faol pozitsiyasini mustahkamlash hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan lider shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, liderlik kompetensiyalari tasodifiy yoki o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki maxsus pedagogik shart-sharoitlar, tizimli yondashuv va maqsadli ta'lim strategiyalari asosida rivojlantiriladi. AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasida kompetensiyaviy model, tajribaga asoslangan o'qitish, refleksiv amaliyot hamda mentorlik tizimi liderlik salohiyatini shakllantirishning muhim omillari sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, samarali pedagogik liderlik nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmaydi, balki amaliy faoliyat, jamoaviy hamkorlik va doimiy refleksiya orqali mustahkamlanadi. Shu bois pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarni real ta'lim muhiti bilan erta bosqichdan tanishtirish, loyiha faoliyatiga jalb etish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv talabalarda tashabbuskorlik, mas'uliyat, kommunikativ madaniyat va strategik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xorijiy tajribaning yana bir muhim jihati – ta'lim muhitining demokratikligi va akademik erkinlikning ta'minlanishidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, ochiq muloqot hamda ishonchga asoslangan munosabat liderlikning ichki motivatsion omillarini kuchaytiradi. Bu jarayonda mentorlik instituti, professional hamjamiyatlar faoliyati va uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xorijiy tajribani milliy pedagogik ta'lim tizimiga moslashtirishda ijtimoiy-madaniy xususiyatlar, an'anaviy qadriyatlar va mavjud institutsional imkoniyatlarni hisobga olish zarur.

Har bir ta'lim tizimi o'ziga xos sharoitda rivojlanadi, shuning uchun samarali elementlarni tanlab olish va ularni mahalliy sharoitga mos ravishda integratsiyalash ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayonda kompetensiyaviy ta'lim modeli, amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, refleksiv tahlil va mentorlik tizimini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, pedagogik oliy ta'lim talabalari orasida liderlik qobiliyatini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchining kasbiy yetukligi va ta'lim jarayonidagi samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim muassasalarida innovatsion muhit yaratish hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan faol, mas'uliyatli va yetakchi pedagoglarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Darling-Hammond, L. Teacher Education Around the World: What Can We Learn from International Practice? // European Journal of Teacher Education. – 2017. – Vol. 40, No. 3. – Pp. 291-309.
2. Harris, A. Distributed Leadership: According to the Evidence // Journal of Educational Administration. – 2008. – Vol. 46, No. 2. – Pp. 172-188.
3. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 378 p.
4. Kolb, D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
5. Leithwood, K., Day, C., Sammons, P., Harris, A., Hopkins, D. Successful School Leadership: Linking with Learning and Achievement. – Maidenhead: Open University Press, 2006. – 296 p.
6. Sahlberg, P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2015. – 240 p.
7. Schön, D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
8. Kouzes, J.M., Posner, B.Z. The Leadership Challenge. – San Francisco: Jossey-Bass, 2017. – 400 p.
9. Yo'ldoshev, J.G., Usmonov, S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. – 256 b.
10. Xo'jayev, N.X., Hasanboyeva, O., Turg'unov, J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 320 b.
11. Qurbonov, Sh., Seytxalilov, E. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2013. – 224 b.
12. Musurmonova, O. Pedagogik kompetentlik va kasbiy rivojlanish asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2019. – 180 b.

LOGOPEDIK MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA LOGOPEDIK O'YINLARNING AHAMIYATI VA ROLI

Yuldosheva Dilbarxon Turg'unovna
Qo'qon davlat universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Bo'lajak logopedlarda ijtimoiy-pedagogik ishlarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirish o'zaro aloqador elementlarni tartibga solish, logopedik mashg'ulotlarda logopedik o'yinlardan foydalanish, maqsadga yo'naltirilganlikni ta'minlash hamda mashg'ulot jarayonida logopedik o'yinlarga bevosita rahbarlik qilishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: logoped, logopedik o'yin, o'yinchoq, syujetli-rolli o'yin, korreksion ish, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar.

Abstract: The development of socio-pedagogical work among future speech therapists involves regulating its interconnected components, integrating speech therapy games into therapy sessions, ensuring goal-oriented instruction, and providing direct supervision of speech therapy games during classes.

Key words: speech therapist, speech therapy game, toy, role-playing game, corrective intervention, underdeveloped speech.

Аннотация: Реализация процесса развития социально-педагогической деятельности будущих логопедов включает упорядочение взаимосвязанных элементов, использование логопедических игр на занятиях, обеспечение целенаправленности и непосредственное руководство логопедическими играми в ходе занятий.

Ключевые слова: логопед, логопедическая игра, игрушка, сюжетно-ролевая игра, коррекционная работа, недоразвитие речи.

KIRISH

Biz bo'lajak logopedlarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modelini yaratishda ta'lim jarayoni barcha subyektlarining pedagogik va ijtimoiy o'zaro munosabatlarga tayyorligini inobatga olgan holda model tarkibiga nazariy-maqsadli, mazmunli-texnologik, natija-baholash va tashkiliy-pedagogik elementlarni, shuningdek, modelning samarali amal qilishiga ko'maklashuvchi pedagogik shart-sharoitlar hamda logopedik mashg'ulotlarni kiritdik. Bo'lajak logopedlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish o'zaro aloqador elementlarni tartibga solishni, logopedik mashg'ulotlarda logopedik o'yinlarga amal qilishni, maqsadga yo'naltirilganlikni hamda mashg'ulotlar jarayonida logopedik o'yinlarga bevosita rahbarlik qilishni nazarda tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy logopediyada tizimli nutq buzilishlarini o'rganish va bartaraf etishda L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, A. Leontevlarning nutq faoliyatining murakkab tuzilishi, idrok jarayonlari va nutq hosil qilish samaradorligi haqidagi ta'limotlariga asoslangan psixolingvistika ma'lumotlari keng qo'llaniladi. Nutqni idrok etish va uning samaradorligi turli operatsiyalarni qamrab oladigan, murakkab ierarxik tuzilishga ega bo'lgan ko'p darajali jarayonlardan iboratdir. Nutq hosil bo'lish jarayonining har bir darajasi va har bir operatsiyasi o'zining lug'at tizimi hamda birliklarni birlashtirish sintaksisiga ega. Nutq buzilishlarini o'rganishda nutq hosil bo'lish operatsiyalaridan qaysi biri buzilganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Logopediyada A.S. Vigotskiy, A. Leontev, T.V. Ryabova tomonidan ishlab chiqilgan nutq hosil bo'lish modellari amaliy qo'llaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada logoped o‘yin jarayonida bolalar diqqatini asosiy o‘yin jihozlarini tanlashga qaratishi, yetishmayotganlarini tayyorlashga yordam berishi, o‘yinni elementar rejalashtirish va o‘yin vaziyatini tashkil etishga o‘rgatishi ko‘zda tutiladi. Logoped-pedagog o‘yin davomida bolalar diqqatini o‘yinning muayyan jihatlariga yo‘naltirishi, ularga zarur metodik maslahatlar berishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Logopedik o‘yinlarda bolalar kelishuvida ishtirok etish, tushuntirish, yordam berish, o‘yin davomida maslahat berish, o‘yinning yangi mavzusini taklif etish kabi o‘yin mazmun-mohiyatini maqsadga yo‘naltira oladigan, bolalarning o‘yindagi mustaqilligini saqlab qolish va rivojlantirishga erishadigan kuch – o‘yinga rahbarlik qilayotgan shaxs bo‘lmog‘i kerak. Logopedik mashg‘ulotlar jarayonida unga bevosita rahbarlik qilish logopedning, tarbiyachining asosiy vazifalaridan biridir. U bolalar o‘yinlarida ishtirok etadi, u yoki bu rolni olib, masalan, ona, shifokor, o‘qituvchi bo‘lib qatnashishi mumkin. Bunday yondashuv bolalarni birgalikda o‘ynash imkonini beradi.

Logoped ijro etadigan rol taqlid uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Logopedning bolalar o‘yinlarida rol o‘ynab ishtirok etishi o‘yin maqsadini va ayrim bolalarning harakatlarini boyitishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Logoped logopedik o‘yin jarayonida bolalar bilan suhbatlashadi, ularga u yoki bu o‘yinchoqlar bilan qilinadigan harakatlarni ko‘rsatadi. O‘yin harakatlarining bayoni va syujetining vujudga kelish darajasiga qarab, bolalar o‘z rollarini so‘z bilan atay boshlaydilar. Bunda logopedning savollari, asar qahramoni sifatida bolaga murojaat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday harakatlarning barchasi syujetli-rolli o‘yinning tarkib topishiga yordam beradi.

Biroq kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, logopedik o‘yinlarni shu tarzda – tabiiy ravishda rivojlantirish barcha bolalar tabiatiga xos emas. Bunday holda bolalarni o‘yin harakatlariga, o‘yinning axloqiy elementlariga, syujetni qurish ko‘nikmasiga maxsus tabaqalashtirilgan korreksion tarzda o‘rgatish zarurati tug‘iladi. Bu vazifalarni hal etishning asosiy usuli – logopedning bolalar bilan birgalikda harakat qilishidir. Logoped turli murakkablik darajasidagi tayyor syujet taklifini, o‘yin harakati namunasini namoyish etishni qo‘llaydi, ya’ni logopedik o‘yinga o‘yinchoqlar qatorida bo‘lgan o‘rinbosar buyumlardan foydalanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan usullarning samaradorligi kattalarning bolalar bilan o‘yindagi faol va bajonidil harakati bilan ta’minlanadi.

Logoped vaqti-vaqti bilan logopedik mashg‘ulotlar jarayonida barcha bolalar ishtirokida ko‘ngilochar o‘yinlar uyushtirishi muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, o‘zi o‘ylab topgan mazmunda syujetli-rolli o‘yinlarni tashkil etadi. Masalan, qo‘g‘irchoqning tug‘ilgan kunini nishonlash, quvnoq sayohat kabi o‘yinlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Logoped o‘yin davomida bolalar diqqatini asosiy o‘yin jihozlarini tanlashga qaratadi, yetishmaganlarini tayyorlashga yordam beradi, o‘yinni elementar rejalashtirishga va o‘yin vaziyatini uyushtirishga o‘rgatadi. Logoped-pedagog o‘yin davomida bolalar diqqatini o‘yinning u yoki bu jihatlariga qaratib, ularga maslahat berishi, savollar berishi mumkin. Katta guruhlarda logoped logopedik o‘yinlar jarayonida rollar ijrosida nisbatan kamroq ishtirok etishi mumkin, biroq agar bolalar chinakamiga rolga kirishishni xohlasalar, uni o‘z o‘yinlariga bajonidil qabul qiladilar. Demak, syujetli-rolli o‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy o‘yin turi bo‘lib, ushbu o‘yin bolaning barcha xususiyatlarini namoyon qiladigan hodisadir. Shu bilan birga, bolalarning kattalar bilan o‘zaro harakati zaminida bunday o‘yinlar quriladi. Unga emotsional boylik kabi o‘yinga xos asosiy sifatlar xosdir.

Syujetli-rolli o‘yin faoliyat sifatida bolaning voqelikni bilishidagi ikkilamchi bosqich hisoblanadi, biroq unda bolaning bilimlari, taassurotlari o‘zgarishsiz qolmaydi, aksincha, ular to‘ldiriladi, aniqlashtiriladi, sifat jihatidan o‘zgaradi va qayta quriladi. Bu xususiyat o‘yinni atrof-muhitdagi voqelikni bilishning amaliy shakliga aylantiradi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar uchun o‘tkaziladigan logopedik mashg‘ulotlarda logopedik o‘yin turlari quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi. Maqsad: bolalarga o‘z nutqida otlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish. Stolda bir qancha o‘yinchoqlar turadi. Tarbiyachi-logoped bolalarga stol ustidagi o‘yinchoqlarni sanab chiqishni, so‘ng ko‘zlarini yumib turishlarini taklif etadi. Logoped o‘yinchoqlardan birini olib qo‘yadi, keyin bolalardan ko‘zlarini ochib stol ustidagi o‘yinchoqlarga qarashni so‘raydi va qaysi o‘yinchoq yo‘qligini aniqlashni talab qiladi. Bundan ko‘zlangan korreksion maqsad – bolalarga o‘z nutqlarida otlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatishdir.

Nutqda “bu” olmoshini qo‘llash o‘yini. Bola ko‘zi bog‘langan holda kim gapirayotganini topishi kerak. Bir bola o‘yinchoq nomini aytadi, boshlovchi esa kim aytganini aniqlaydi: “Bu Alisher, u o‘g‘il bola.” “Bu Malika, u qiz bola.”

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Mavzu: "Ranglar"

Logoped-tarbiyachi: "Qarang, bolalar, menda qanday chiroyli pufaklar bor. Qaysi pufakni xohlasangiz, so'rang: sariqmi, qizilmi, yashilmi, zangorimi, ko'kmi?"

Bolalar birin-ketin: "Menga qizil pufakni bering", deya kerakli rangni tanlaydilar. Shu tarzda savol-javob asosida bolalar ranglar bilan tanishib boradilar.

Tarbiyachi-logoped: "Men orqamga o'girilib turaman, sizlar esa rangli qalamlarni olib yashiringlar. Men esa sizlarda qanday qalam borligini topaman. Agar topsam, uni menga berasizlar, topa olmasam, uning rangini o'zingiz aytasizlar." Keyingi mashqda stol ustida yovvoyi va uy hayvonlari bir joyga yig'ilgan holda joylashtiriladi.

Bolalar ularni bir oila sifatida tasvirlaydilar: ayiq – buva, tulki – buvi, quyon – nevara o'g'il, olmaxon – nevara qiz, bo'ri – ota, ot – ona, qo'y – o'g'il, mushuk – qiz.

"Ajoyib xaltacha" o'yini. Tarbiyachi bolalarga tarkibida "a" tovushi mavjud bo'lgan narsalar yoki rasmlar solingan xaltachani ko'rsatadi. Birinchi bo'lib, xaltachadan biror narsa olib, uning nomini aytadi va "a" tovushini cho'zibroq talaffuz qiladi. So'ng bolalar navbatma-navbat xaltachadagi narsalarni olib, nomini aytadilar va "a" tovushini ajratib talaffuz qiladilar.

"Mushuk va sichqonlar" o'yini. Bolalar doira bo'lib yuradilar, o'rtada mushuk rolidagi bola o'tiradi. Bolalar quyidagi she'rni past ovozda aytadilar: "Sekin sichqonlar, sekin sichqonlar, tom boshida mushuk bor. Sichqon, sichqon, ehtiyot bo'l, mushuk seni tutmasin!" She'r tugagach, mushuk rolidagi bola baland ovozda miyovlaydi va bolalarni quvadi. Ushlangan bola mushuk bo'ladi. Bunda bolalar ovozi juda baland ham, juda past ham bo'lmasligi zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, logopedik o'yinlar nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning atrofidagi kishilar bilan muomala-aloqada bo'lishini faollashtiradi hamda nutq nuqsonlarini korreksion rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Logopedik o'yinlar yordamida bolaning shaxsi shakllanadi va nutq nuqsonlarini bartaraf etishda samarali korreksion vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular logopedik mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otadi, bilim olishga undaydi hamda tafakkur, xotira, diqqat jarayonlarini, tovush talaffuzi va fonemalarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalar tez charchash va zerikishga moyil bo'ladilar. Buning oldini olish va ko'zlangan maqsadga erishishning samarali omillaridan biri mashg'ulotlarda didaktik o'yinlardan foydalanishdir. Mashg'ulotlarda qo'llanilgan o'yinlar bolalarning qiziqishini oshiradi, ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallashiga hamda nutq nuqsonlarini bartaraf etishiga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda logopedik o'yinlarni o'tkazishda quyidagilarga amal qilish lozim: Yosh va individual xususiyatlarni inobatga olish. Bolalarning qiziqishini hisobga olish. O'yinchoqlarning rang-barangligi bola e'tiborini tortishini ta'minlash. Korreksion maqsadning aniq belgilanishi. Logopedning rahbarligi va metodikaning to'g'ri belgilanishi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida aytib o'tilganlarga amal qilgan holda logopedik o'yinlarni o'tkazish maktabgacha ta'lim yoshidagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning nutq kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh., 2017-yil 1-dekabr, PF-5270-son. https://lex.uz/docs/-3436192
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 7-yanvar 2017-yil.
4. Ahmedova Z.M., Ayupova M.Yu., Xamidova M.P. "Logopedik o'yin" darslik. Toshkent, 2007.

MECHANICAL DESTRUCTION OF A DENTAL IMPLANT

Boyev Zukhriddin

Doniyorov Ortik
Clinical resident of 1st year of the department dental implantology,
Samarkand state medical university

Abstract: This article presents a clinical study of the causes leading to dental implant fractures, a severe complication in implant dentistry. The authors conducted a retrospective analysis of 21 cases involving middle-aged and elderly patients (40-70 years old) diagnosed with implant body fractures 5-8 years after prosthetic loading. The study demonstrates that implant failures are associated with several critical factors, including inappropriate implant diameter selection (3.5 mm in the molar region despite insufficient bone volume), delayed patient consultation following the onset of crown mobility, and bruxism. A significant correlation was observed between a prior abutment screw fracture and subsequent implant body failure occurring within 18-24 months after screw replacement. Intraoral periapical radiography was identified as the most effective diagnostic tool for detecting cracks and fractures. The findings emphasize the necessity of performing bone augmentation procedures prior to implantation to ensure the placement of appropriately sized implants. Furthermore, splinting short implants into a single orthopedic unit is recommended, particularly in the posterior regions of the maxilla. Collaborative treatment planning between surgeons and prosthodontists is recognized as a key factor in reducing lateral loading risks and preventing fatigue failure of metallic implant components.

Key words: dental implantation, implant fracture, complications, osseointegration, abutment screw, bone grafting, orthopedic rehabilitation, masticatory load.

Annotatsiya: Ushbu maqola denta implantologiyada uchraydigan jiddiy asoratlardan biri – implantatlarning sinishi sabablarini klinik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Mualliflar 40-70 yoshdagi o'rta va katta yosh toifasiga mansub bemorlar orasida kuzatilgan 21 ta klinik holatni retrospektiv tahlil qilgan. Mazkur bemorlarda protezlashdan 5-8 yil o'tib implantat tanasining sinishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari implantatlarning buzilishi bir nechta muhim omillar bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Jumladan, molyar sohada suyak to'qimasi yetishmovchiligi sharoitida kichik diametrli implantat (3,5 mm) qo'llanilishi, toj harakatchanligi paydo bo'lganidan so'ng shifokorga kech murojaat qilish hamda bruksizm (tishlarni siqish odati) mavjudligi asosiy xavf omillari sifatida qayd etildi. Shuningdek, ilgari fiksatsion vintning sinishi kuzatilgan bemorlarda vint almashtirilganidan keyin 18-24 oy davomida implantat tanasining qayta sinishi o'rtasida sezilarli bog'liqlik aniqlangan. Yoriqlar va sinishlarni aniqlashda eng samarali diagnostik usul sifatida og'iz ichi nishonli rentgenografiya e'tirof etildi. Tadqiqot implantatsiyadan oldin suyak plastikasini amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi, chunki bu mos o'lchamdagi implantatni joylashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ayniqsa yuqori jag'ning orqa sohalarida qisqa implantatlarni yagona ortopedik blokka birlashtirish tavsiya etiladi. Jarroh va ortoped-shifokorlarning hamkorlikdagi davolash rejasini ishlab chiqishi yonlama yuklamalarni kamaytirish hamda metall implantat komponentlarining charchoqqa uchrash xavfini pasaytirishda muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: denta implantatsiya, implantat sinishi, asoratlar, osteointegratsiya, fiksatsion vint, suyak plastikasi, ortopedik reabilitatsiya, chaynash yuklamasi.

Аннотация: Эта статья посвящена клиническому изучению причин, вызывающих перелом имплантатов – серьёзное осложнение в дентальной имплантологии. Авторы провели ретроспективный анализ 21 случая у пациентов среднего и старшего возраста (40-70 лет), у которых диагностировали перелом имплантатов через 5-8 лет после протезирования. Исследование показало, что поломки имплантатов связаны с несколькими факторами. Среди них: неподходящий диаметр имплантата (3,5 мм в области моляров при недостатке костной ткани), несвоевременное обращение к врачу при обнаружении подвижности коронки и наличие привычки сжимать зубы (бруксизм). Авторы особо подчеркнули зависимость между предыдущим переломом фиксирующего винта и последующим разрушением имплантата в период 18-24 месяцев после проведения ремонта. Диагностика трещин и переломов наиболее эффективно проводится с помощью внутриротовой прицельной рентгенографии. Исследование подчёркивает важность проведения костной пластики перед имплантацией для обеспечения размещения имплантатов соответствующего размера. Особое внимание уделяется необходимости объединения коротких имплантатов в единый ортопедический блок, что особенно актуально для боковых отделов верхней челюсти. Совместное планирование хирургических вмешательств, осуществляемое хирургами и ортопедами, признано ключевым фактором в снижении вероятности возникновения побочных нагрузок и износа металлических имплантатов.

Ключевые слова: дентальная имплантация, перелом имплантата, осложнения, остеоинтеграция, фиксирующий винт, костная пластика, ортопедическая реабилитация, жевательная нагрузка.

INTRODUCTION

Dental implant failure is a significant and irreversible complication arising from both the surgical and prosthetic stages of treatment. Addressing such issues may require implant removal, subsequent re-implantation after several months, placement of additional implants, or adjustments to the orthopedic structure. Although fracture of the dental implant wall is not among the most common complications, it can occur sometime after prosthesis installation.

LITERATURE REVIEW

Dental implant fractures represent a relatively rare yet clinically severe complication that may occur long after successful osseointegration and prosthetic loading. Although osseointegration has historically been considered the primary criterion for implant success, long-term mechanical stability is equally critical. According to Drobyshev and Dronov [1], resonance-frequency analysis remains an essential diagnostic method for evaluating implant stability and osseointegration; however, it does not reliably predict late-stage mechanical complications, including implant body fractures. Even though such fractures are uncommon, they constitute catastrophic failures that often necessitate complex bone grafting procedures and extensive explantation. Implant diameter and biomechanical considerations play a decisive role in preventing mechanical overload. Contemporary clinical standards recommend that implant diameter correspond to the anatomical dimensions of the tooth being replaced. Narrow-diameter implants (3.0–3.5 mm) are generally indicated for mandibular incisors or maxillary lateral incisors, whereas standard and wide-diameter implants (4.0–5.0 mm) are preferred in posterior regions subjected to higher masticatory forces. The placement of narrow-diameter implants (3.5 mm) in molar regions, particularly in cases of insufficient bone volume, has been identified in the literature as a significant risk factor, as it increases stress concentration in the cervical region of the implant and predisposes the metal structure to fatigue failure. Prosthetic design is another crucial determinant of mechanical longevity. Splinting, which unites multiple implants into a single orthopedic unit, is widely discussed as a strategy to reduce lateral forces and improve load distribution.

A.O‘.Mirzayev ta’rifiga ko‘ra “Bugungi kunda raqamli ta’lim, oliy ta’lim tizimlarimizda o‘rni beqiyos bo‘lib, bunda o‘quvchilar va talabalarimizning fanni o‘zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o‘zida qanday o‘qiyotganini, vazifalarga qiziqishi, o‘z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida talabalarning o‘zlari mustaqil o‘rganishi, shaxsiy o‘rganishga moslashishi va o‘zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Dars jarayonlari raqamli kontentda jonli olib boorish va darslarga interfaol topshiriqlarni berish, virtual labaratoriyalarda o‘rganish talabalarni yanada fikrlashlarini o‘stiradi. O‘zi qiziqqan sohadagi kasbioy kompetentsiyalari rivojlanadi.

Raqamli platformalarda individual o‘quv yo‘nalishlari, adaptiv testlar yoki shaxsiy tavsiyalar asosida talabaning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda dars mazmuni shakllantiriladi. Bu esa individual yondashuvga asoslangan ta’limni amalga oshirish imkonini berishi to‘g‘risidagi ilmiy qarashlar Garrison D.R. va Vaughanlarga tegishli bo‘lib, ular bu haqida shunday qarorga kelishadi:-“Onlayn ta’lim har bir o‘quvchining ehtiyoj va qiziqishlariga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi.”(Garrison, D. R. & Vaughan, N. D., 2008. Blended Learning in Higher Education).

COVID-19 pandemiyasi global ta’lim tizimiga o‘zining chuqur va kutilmagan ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi. An’anaviy yuzma-yuz o‘qitish shakli to‘xtab, dunyo bo‘yicha millionlab o‘quvchilar va o‘qituvchilar masofaviy ta’lim shakliga keskin tarzda o‘tishga majbur bo‘ldi. Bu jarayon ta’lim sohasidagi raqamlashtirishning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlabgina qolmay, mavjud muammolarni ham yuzaga chiqardi. Bozkurt va boshqalar (2020) ta’kidlaganidek:

“Pandemiya ta’lim tizimini sinovga soldi, bu esa kuchli raqamli infratuzilmaning mavjudligi va o‘qituvchilarning onlayn pedagogikaga tayyorligi naqadar muhim ekanligini ochiq ko‘rsatdi.”(Bozkurt , 2020. Asian Journal of Distance Education)

Raqamli tafovut bu onlayn ta’limga o‘tishda eng dolzarb muammolardan biri bo‘ldi. Barcha o‘quvchilar ham internetga, zamonaviy kompyuter yoki smartfonlarga, qulay o‘quv muhitiga ega emas edilar. Shu bois, kam ta’minlangan oila farzandlari yoki chekka hududdagi o‘quvchilar uchun onlayn ta’lim sifatsiz yoki umuman mavjud bo‘lmagan holda kechdi. Shu sababli, ko‘plab o‘qituvchilar raqamli platformalar (Zoom, Google Classroom, Moodle, MS Teams va h.k.) bilan ishlash ko‘nikmasiga ega emas edilar. Buning natijasida onlayn darslar sifati pasaydi, vaqtni boshqarish va interaktivlikda qiyinchiliklar yuzaga keldi. O‘qituvchilarga qisqa muddat ichida raqamli pedagogika asoslarini o‘rganishga to‘g‘ri keldi, bu esa qo‘shimcha ruhiy va metodik bosimni keltirib chiqardi. Internet tezligining pastligi, qurilmalar yetishmovchiligi va o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishga tayyor emasligi sababli onlayn ta’limda bilim o‘zlashtirish darajasi an’anaviy sinf ta’limidan past bo‘lishi qayd etildi. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni oldindan joriy etgan va o‘qituvchilarni tayyorlagan tizimlar bu inqirozga nisbatan ancha barqaror qarshilik ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lishgan (UNESCO, 2020).

XULOSA

O‘zbekistonda raqamli ta’lim infratuzilmasining shakllanishi, milliy platformalarning rivojlanishi va texnologik vositalarning ta’limga tatbiq qilinishi ushbu jarayonning muhim bosqichidir. Fonetik kompetensiyani rivojlantirishda TTS, ASR, spektral tahlil vositalari, gamifikatsiya va AR/VR texnologiyalarining integratsiyasi o‘quvchilar uchun ko‘pkanal va chuqurlashtirilgan o‘quv muhiti yaratadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talaffuz, eshitish, yozish va aytish kabi til ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantirish mumkinligi ushbu metodik yondashuvni nafaqat zamonaviy, balki istiqbolli yo‘nalish sifatida tasdiqlaydi. Shu sababli, raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli va ilmiy asoslangan holda foydalanish ESP yo‘nalishidagi talabalar fonetik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova, G.R. (2022). Raqamli texnologiyalarning hayotimizdagi o'rni va ta'siri. Toshkent: Innovatsion ta'lim nashriyoti.
2. Binturki, T. (2019). The effectiveness of automatic speech recognition in developing pronunciation among EFL learners. Journal of Language Teaching and Research, 10(3), 543–550.
3. Bozkurt, A. et al. (2020). A global outlook to the interruption of education due to COVID-19 pandemic: Navigating in a time of uncertainty and crisis. Asian Journal of Distance Education, 15(1), 1–126.
4. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
5. Dougiamas, M. & Taylor, P. (2003). Moodle: Using learning communities to create an open source course management system. World Conference on Educational Multimedia, Hypermedia and Telecommunications, 171–178.
6. European Commission. (2017). The Digital Competence Framework for Citizens (DigComp 2.1). Luxembourg: Publications Office of the European Union.
7. Fabre-Merchán, P., Torres-Jara, G. & Andrade-Dominguez, F. (2017). ICT for pronunciation improvement in EFL learners. Journal of Applied Linguistics and Language Research, 4(2), 45–57.
8. Garrison, D.R. & Vaughan, N.D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco: Jossey-Bass.
9. Iftakhar, S. (2016). Google Classroom: What works and how? Journal of Education and Social Sciences, 3, 12–18.
10. Jabborova, L.A. (2023). Raqamli ta'lim muhitida talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar. Til va ta'lim jurnali, 4(2), 65–71.
11. Kukulska-Hulme, A. (2012). Language learning defined by technology. ReCALL, 24(3), 264–279.
12. Mamarajabov, M.E. (2022). Integrativ texnologiyalarga asoslangan ta'lim yondashuvi va uning afzalliklari. Oliy ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 3(1), 78–85.
13. Mirzayev, A.O'. (2023). Oliy ta'lim tizimida raqamli ta'limning rivojlanish istiqbollari. Toshkent: TDPU.
14. North, B. (2007). The CEFR illustrative scales. Council of Europe, Strasbourg.
15. Qodirova, D. (2022). Fonetik kompetentlikni rivojlantirishda texnologiyalarning o'rni. Chet tillar ta'limida zamonaviy yondashuvlar to'plami, 78–82.
16. Quesada Vázquez, L. (2021). Digital phonetic transcription tools for online learning: A case study at Rovira i Virgili University. Revista de Lingüística y Educación, 12(2), 97–110.
17. Ruan, Z. (2015). Improving EFL learners' pronunciation through mobile applications. International Journal of Emerging Technologies in Learning, 10(4), 30–35.
18. Salmon, G. (2011). E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online. London: Routledge.
19. UNESCO. (2021). The Digital Learning Report 2021: Transforming Education for a Digital Future. Paris: UNESCO.
20. Von Ahn, L. & Hacker, S. (2024). Duolingo, Inc. 2023 Annual Report (Form 10-K). U.S. Securities and Exchange Commission.
21. Plump, C.M. & LaRosa, J. (2017). Using Kahoot! in the classroom to create engagement and active learning. Management Teaching Review, 2(2), 151–158.

AQLLI TEXNOLOGIYALAR TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING METAKOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI



Xurramov Anvar Jumanazarovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt" kafedrasi dotsenti
ORCID: 0000-0002-2578-7503

Abstract: Mazkur maqola zamonaviy ta'lim tizimida aqlli texnologiyalar fenomenini bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy metakompetensiyalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan nazariy tahlil qilishga bag'ishlangan. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish jarayoni innovatsion yondashuvlarga tayanadi, chunki raqamli va intellektual texnologiyalardan foydalanish o'qitish hamda bilim olish chegaralarini kengaytiradi, mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda samarali qo'llash imkonini yaratadi.

Key words: aqlli texnologiyalar; metakompetensiya; universal kompetensiyalar; kasbiy kompetensiyalar; oliy ta'lim; reklama va jamoatchilik bilan aloqalar; tilshunoslik; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Annotatsiya: The article is devoted to a theoretical analysis of the phenomenon of smart technologies in modern education from the perspective of developing universal and professional metacompetencies of future teachers. The process of teaching students in higher education institutions is based on innovative approaches, as the use of digital and intelligent technologies significantly expands the boundaries of both teaching and learning, while ensuring the effective application of acquired knowledge, skills, and competencies in professional practice.

Kalit so'zlar: smart technologies; metacompetence; universal competencies; professional competencies; higher education; advertising and public relations; linguistics; information and communication technologies.

Аннотация: Статья посвящена теоретическому анализу феномена смарт-технологий в современном образовании с позиции развития универсальных и профессиональных метакомпетенций будущих педагогов. Обучение студентов в высшем учебном заведении ориентировано на инновационные подходы, поскольку применение цифровых и интеллектуальных технологий существенно расширяет границы преподавания и освоения знаний, а также обеспечивает эффективное использование сформированных умений и навыков в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: смарт-технологии; метакомпетенция; универсальные компетенции; профессиональные компетенции; высшее образование; реклама и связи с общественностью; лингвистика; информационно-коммуникационные технологии.

KIRISH

Oliy ta'lim yuqori darajadagi dinamiklik bilan ajralib turadi: o'qitish va bilimlarni tekshirishning yangi usullari doimiy ravishda taklif qilinmoqda, talabalarni kelajakdagi kasbining turli jihatlari bilan tanishtirish uchun yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Ta'limning bunday doimiy o'zgaruvchanlik xususiyati kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlash darajasini voqelik, ya'ni mehnat bozori talablari hamda rivojlangan shaxsni tarbiyalash ehtiyojlariga moslashtirish zarurati bilan bog'liq. Ijodiy imkoniyatlarni ochish, o'zini o'zi belgilash va o'zini o'zi anglash jarayonini yakunlash, intellektual hamda ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini oshirish – universitet o'quv jarayonining barcha ushbu jihatlari Smart texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aqlli texnologiyalar va malakalar. Avvalo, mazkur tushunchalarning qisqacha tavsifini keltiramiz. "SMART" – maqsadlarni belgilash va shakllantirish uchun keng tarqalgan va samarali texnologiyadir. SMART qisqartmasi ingliz tilidagi so'zlarning bosh harflaridan tashkil topgan bo'lib, maqsad quyidagi talablarga javob berishi lozim-

ligini anglatadi: Specific (aniqlik), Measurable (o'lchash mumkinligi), Attainable (erishish imkoniyati), Relevant (dolzarblik), Time-bounded (vaqt bilan chegaralanganlik).

Aqlli texnologiya kundalik vazifalarni bajarish va ma'lumot almashish jarayonida kompyuter tizimlari hamda mikroprotsessorlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. SMART qisqartmasini ilmiy muomalaga kiritgan olimlardan biri XX-asr iqtisodchisi, publitsist, pedagog va boshqaruv nazariyotchisi Piter Druker hisoblanadi. Natijada Smart texnologiyalarni qo'llash yo'nalishlari bosqichma-bosqich shakllandi: dastlab iqtisodiyot va menejmentda, so'ng sotsiologiya va kommunikatsiyalar sohasida, keyinchalik esa ta'lim tizimida keng qo'llanila boshlandi.

Hozirgi vaqtda "aqlli jamiyat" tushunchasi shakllanmoqda, ya'ni ma'lumotli insonlar o'z faoliyatida ishni samarali tashkil etish, biznes va ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun eng zamonaviy texnik vositalardan foydalanadigan yangi turdagi ijtimoiy tuzilma haqida so'z yuritilmoqda. "Smart Education" atamasi ham keng qo'llanilib, universitetlarda talabalar va o'qituvchilarning yangi texnologiyalarni birgalikda qo'llash orqali o'quv jarayonini tashkil etishga qaratilgan faoliyat birlashmasini anglatadi. Ta'kidlash joizki, Smart-texnologiyalar bugungi kunda ta'lim va kasbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun yuqori samarali uslubiy platformaga aylanib bormoqda.

Zamonaviy ma'noda kompetensiya tushunchasining o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqish zarur. Keng ma'noda kompetensiya ma'lum ko'nikma va bilimlarning muayyan masalalar doirasida qo'llanilish darajasi sifatida talqin etiladi. Shaxsning faoliyat sohasi, individual va hatto biologik xususiyatlariga qarab kompetensiyaning turli ko'rinishlari mavjud. Ushbu maqola doirasida kasbiy kompetensiyaga alohida e'tibor qaratiladi – ya'ni nazariy va kognitiv tajribani amaliyotda qo'llash, turli vazifalarni bajarish hamda kasbiy muammolarni hal etish qobiliyati.

Pedagogikadagi universal kompetensiyalar o'zini o'zi tashkil etish, o'zini o'zi nazorat qilish, mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish va o'z taqdirini o'zi belgilash kabi sifatlarni qamrab oladi. Ularning asosini bilim va undan samarali foydalanish qobiliyati tashkil etadi. Bunda hamkorlikka tayyorlik, oldindan belgilangan maqsad va kutilayotgan natijalarga yo'naltirilgan ko'p qirrali o'zaro ta'sir muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiya pedagogik hodisa sifatida shaxsning xulq-atvor me'yorlari va axloqiy qadriyatlarini faollashtiradi hamda turli vaziyatlarda o'z bilim va qobiliyatlarini safarbar etish imkonini beradi.

Kompetensiyaning psixologik jihati insonning kommunikativlik darajasi, mustaqilligi, o'zini o'zi refleksiya qilish va o'zini anglash qobiliyatini namoyon etadi. Shu sababli kompetensiya ko'p qirrali bo'lib, motivatsiya, sotsializatsiya, xatti-harakatlarni boshqarish va ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. E.D. Dneprovaning fikricha, mazkur tushuncha o'quvchi yoki talabaning muammolarni hal etishda bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llashga tayyorligini ifodalaydi. E.F. Zeer esa kompetensiyani o'qitilayotgan fanlar bilan kasbiy vazifalar o'rtasidagi tafovutni kamaytiruvchi psixologik-pedagogik tuzilma sifatida talqin qiladi. U kompetensiyaning o'zini o'zi tashkil etish, mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish, refleksiya va o'zini belgilash kabi elementlarini ajratib ko'rsatadi. J.V. Rasskazova va E.N. Solovovaning ta'kidlashicha, har qanday kompetensiya bilim va undan foydalanish qobiliyatiga asoslanadi, biroq u muammolarni hal qilish jarayonida hamkorlikka psixologik tayyorlik va axloqiy munosabatlar mavjudligi bilan ko'nikmalardan farqlanadi.

Asosiy yoki universal kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- axborot kompetensiyasi – axborot bilan ishlashga tayyorlik;
- kommunikativ kompetensiya – boshqa shaxslar bilan samarali muloqot qilishga tayyorlik;
- kooperativ kompetensiya – hamkorlikka tayyorlik;
- muammoli kompetensiya – muammolarni hal etishga tayyorlik.

Universal kompetensiyalar talabalarning kognitiv qiziqishlarini kengaytirish, zarur ma'lumotlarni tahliliy umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish, tanlangan kasbiy soha bo'yicha bilim darajasini oshirish hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. "Universal" atamasi ushbu sifatlarning kundalik hayotda ham, kasbiy faoliyatda ham zarurligini anglatadi.

"Tilshunoslik" va "Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar" yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy va universal kompetensiyalarini rivojlantirish universitet o'quv jarayonida Smart texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshirilmoqda. Ta'limda uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqa innovatsion metodlar bilan uyg'unlashmoqda. Oliy ta'limning axborot muhiti yangi texnologiyalarni joriy etish hisobiga kengayib bormoqda. B.A. Abdrahmonovning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonini AKT asosida muvofiqlashtirish murakkab jarayon bo'lib, bu qiyinchiliklar doimiy ravishda ortib bormoqda; ayrim hollarda global kompyuter tarmog'ida norasmiy ta'lim jamoalarini yaratish yoki an'anaviy ta'lim muassasalarini "virtual" shakllarga almashtirish holatlari kuzatilmoqda. Shu bois o'quv jarayonida va talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishda Smart texnologiyalarning konseptual ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi aralash (mixed-methods) yondashuv asosida tashkil etildi. Empirik ma'lumotlar pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilar ishtirokida tajriba-sinov ishlari orqali yig'ildi. Dastlab, metakompetensiyalar (analitik fikrlash, refleksiya, muammoli vaziyatlarni hal etish, kommunikativlik va raqamli savodxonlik) darajasini aniqlash maqsadida diagnostik so'rovnoma va o'zini o'zi baholash anketalari qo'llanildi. Shuningdek, o'quv jarayonida Smart texnologiyalar (interfaol doskalar, raqamli platformalar, onlayn hamkorlik vositalari)dan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun kuzatuv metodi va yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, o'quv semestri davomida Smart texnologiyalar integratsiyalashgan mashg'ulotlar tashkil etildi. Ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi: so'rovnoma natijalari statistik qayta ishlanib, o'rtacha ko'rsatkichlar va dinamik o'zgarishlar taqqoslandi, intervyu va kuzatuv materiallari esa kontent-tahlil asosida umumlashtirildi. Olingan natijalar Smart texnologiyalarni qo'llash meta-kompetensiyalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Masalaning mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, tilshunos talabalar yoki PR-mutaxassislarni Smart texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlash plazma panellar, interfaol doskalar va jadvallar, Smart displey va ekranlar, istalgan internet tarmog'iga doimiy ulanish kabi yangiliklar tufayli amalga oshirilmoqda (yangiliklar va ta'lim saytlaridan foydalanish). "Tilshunoslik" yo'nalishi bo'yicha o'qitish jarayoni ko'pincha multimedia globusidan foydalanish bilan birga olib boriladi. Bu nafaqat Yerning statik tasvirlarini, balki real vaqt rejimida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettiruvchi dinamik taqdimotlarni namoyish etish imkonini beradi – mamlakatlar va turli qit'alarda ob-havodan tortib yangi madaniy diqqatga sazovor joylargacha.

Bugungi kunda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish har bir darsga zamonaviy texnologiyalarni majburiy integratsiya qilish asosida tashkil etilmoqda. Smart displey bilan ishlash ko'nikmalari takomillashtirilmoqda, bu esa turli darajadagi murakkablikdagi ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida yuklab olish, zarur axborotni tezkor izlash hamda guruhiy va individual vazifalarni ortiqcha vaqt sarflamasdan bajarish imkonini beradi.

Tilshunos-tarjimonlar va gidlarni tayyorlash jarayoni lingafon laboratoriyalaridan foydalanish hisobiga samaraliroq tashkil etilmoqda. Mazkur tizim grammatika va talaffuzning nozik jihatlarini o'qitish jarayonini axborotlashtiradi, chunki u har qanday mavzuni vizual shaklda taqdim etadi, masalan, video-darslar yordamida yoki ona tilida so'zlashuvchilar bilan Skype orqali muloqotni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Bilimlarni tekshirish interfaol doska yordamida ham amalga oshiriladi – grammatik testlardan o'tish yoki leksik bilimlarni nazorat qilish jarayoni soddalashtiriladi. To'g'ri talaffuzni shakllantirish audio va video resurslarsiz deyarli mumkin emas. Universitetlararo video-konferensiyalar tez-tez tashkil etiladi, bu esa ma'ruzachilar nutqining ravshanligini saqlagan holda masofadan turib muloqot qilish imkonini yaratadi.

"Ta'lim jarayonini bog'lovchi asosiy element – bu faol ta'lim mazmunidir, uning asosida vaqt va makon chegaralarini bartaraf etuvchi yagona axborot omborlari yaratiladi." Tilshunoslar yoki "Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar" yo'nalishi bo'yicha menejerlarni tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan barcha muammolarni elektron ta'lim texnologiyalari yordamida to'liq hal etish har doim ham mumkin emas. Shu bois "aqlli ta'lim" tushunchasi multimedia texnologiyalarining moslashuvchanligi va keng qamrovi bilan tavsiflanadi. Bu esa bo'lajak tilshunoslarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi – ularning chet tilini bilish darajasi, tarjima usullari video-seanslar orqali muntazam yangilanadi, turli saytlar bilan ishlash va interfaol ekranlar yordamida amaliy vazifalarni bajarish imkoniyati kengayadi.

Universal kompetensiyalar nuqtayi nazaridan Smart texnologiyalar kommunikativlik, axborot bilan ishlash qobiliyati hamda muammolarni hal etish salohiyatini rivojlantiradi. Video tizimlar va interfaol doskalar orqali zarur faktlarni tezkor olish jarayoni sezilarli darajada jadallashadi.

Shunday qilib, Smart texnologiyalardan foydalanish talabalarning uzluksiz o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi va universitet ta'lim muhiti asta-sekin Smart muhitga – ya'ni klassik va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirgan, moslashuvchan va keng qamrovli o'quv maydoniga aylanmoqda. Aqlli texnologiyalar analitik kompetensiyani, ya'ni murakkab savollarga mantiqiy yondashuv asosida javob topish qobiliyatini, shuningdek, innovatsiyalarga ochiqlikni shakllantiradi. Tilshunoslar va PR-sohasi mutaxassislari uchun ushbu kompetensiyalar alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda aqlli texnologiyalar har qanday ta'lim innovatsiyalarining asosiy omiliga aylanib, o'quv jarayonining turg'unlikka tushib qolishining oldini olmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, Smart konsepsiyasi ta'lim sohasida tabiiy ravishda shakllandi. Bu professional faoliyat va shaxsiy hayotni yengillashtiruvchi turli gadjetlar – smartfon, aqlli uy, aqlli avtomobil, smart doska (interfaol intellektual elektron doska), o'zini o'zi diagnostika qiluvchi aqlli qattiq disk kabi qurilmalarni joriy etish bilan bog'liq. Biroq mazkur qurilmalar Smart konsepsiyasi ta'sirida o'z imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, ta'lim muhitining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Natijada ta'lim muhiti bilimlar, axborot texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishining yaxlit maydoniga aylanmoqda.

"Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar" yo'nalishida talabalarni o'qitish jarayoni Smart hujjat kameralaridan foydalanish bilan bog'liq. Ular pochta orqali olingan, skanerlangan yoki chop etilgan har qanday faylni namoyish etish imkonini beradi. Kamera eng kichik shrift va detallarni aniqlab, ularni turli miqyosda – kichik guruhlar yoki katta auditoriya uchun – namoyish etishi mumkin. Natijada talabalarda hamkorlik, muammolarni hal etish, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini o'zi nazorat qilish kabi malakalar shakllanadi.

PR-menejerlar va tilshunoslarni tayyorlash interfaol jihozlar – Smart Board interfaol doskalari va Sympodium interfaol displeylari – yordamida amalga oshiriladi. Bu ma'ruzachiga nutq jarayonida bevosita taqdimot o'tkazish, muhim misollar va faktlarga urg'u berish imkonini yaratadi. Interfaol doskalarda maxsus marker yordamida yozish, o'quv materialini namoyish qilish, tasvir ustida yozma izohlar qoldirish mumkin. Smart Board doskasida yozilgan barcha ma'lumotlar saqlanadi, chop etiladi yoki elektron pochta orqali yuboriladi. Ma'ruza davomida yaratilgan material o'rnatilgan videoregistrator orqali yozib olinadi va qayta ko'rish imkoniyati yaratiladi.

Interfaol doskalarning imkoniyatlari dasturiy ta'minot – Smart Notebook, Bridgit, SynhronEyes – orqali amalga oshiriladi. Har bir dastur o'z funksional imkoniyatlariga ega. Masalan, Smart Notebook matn va ma'lumotlar bilan ishlashni tashkil etadi, Bridgit masofaviy taqdimotlar va sharhlarni qabul qilish imkonini beradi, SynhronEyes esa talabalar faoliyatini nazorat qilish va natijalarni monitoring qilishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, universitetdagi o'quv jarayoni kasbiy va universal kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan holda ijodiy xarakter kasb etmoqda. Aqlli texnologiyalar bilimga qiziqish va uni egallash motivatsiyasini oshiradi, ijodiy fikrlashni shakllantiradi hamda muammoni hal etishning turli usullarini taklif qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta'limdagi yangi texnologiyalar bugungi kunda hatto 10–15-yil oldingiga nisbatan tez sur'atlarda rivojlanmoqda, bu esa tajriba, ma'lumot, bilim va kasbiy ko'nikmalar almashinuvining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Jamiyat talab qilayotgan tilshunos yoki PR-menejer kabi mutaxassislarni tayyorlash jarayoni Smart konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi. Mazkur kasbiy sohalar intellektual va ijodiy faoliyatni, kommunikativ moslashuvchanlikni hamda mantiqiy fikrlashni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalar Smart makonda samarali rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдрахманова, Б.А. Смарт-технологии в образовании [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.zkoipk.kz/b2/369-conf.html (дата обращения: 22.04.2018).
2. Smart [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.mental-skills.ru/dict/Smart/ (дата обращения: 22.04.2018).
3. Smart-технологии в высшем образовании [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://library.fa.ru/exhib.asp?id=199 (дата обращения: 21.04.2018).
4. Smart-технологии изменят систему образования [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.trainings.ru/library/education_experience/?id=14024 (дата обращения: 21.04.2018).

DIDAKTIK TIZIM QONUNIYATLARIGA ASOSLANGAN O'QITISH METODLARI

Ergasheva Matluba Burxonovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: O'quvchining qiyinchilikni (muammoni) aniq yoki noaniq anglashini ifodalovchi muammoli vaziyatlar yangi bilimlarni, yangi usullar hamda harakatlarni izlab topishni talab etadi. Shuningdek, agar o'quvchida qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini topish uchun boshlang'ich bilimlar yetishmasa, u holda muammoli vaziyatlarni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va tabiiyki, uning tafakkurida qarama-qarshiliklar bilan kurashish jarayoni yuzaga kelmaydi.

Kalit so'zlar: didaktik tizim, tashxis, zamonaviy bilimlar, ilg'or texnologiyalar, mustahkamlash, puxta o'zlashtirish, muammoli vaziyat, loyihalash, tashkillashtirish, rejalashtirish.

Abstract: A student's clear or vague understanding of a difficulty (problem) requires the search for new knowledge, methods, and actions to overcome problem situations. In addition, if a student lacks basic knowledge for finding ways to overcome difficulties, he or she will face challenges in accepting problem situations, and consequently the process of resolving contradictions in thinking will not occur.

Key words: didactic system, diagnosis, modern knowledge, advanced technologies, consolidation, deeper mastery, problem situation, design, organization, planning.

Аннотация: Чёткое или неясное понимание студентом сложности (проблемы) требует поиска новых знаний, новых методов и действий для преодоления проблемных ситуаций. Кроме того, если студенту не хватает базовых знаний для поиска способов преодоления трудностей, у него возникают трудности в принятии проблемных ситуаций, и, естественно, процесс преодоления противоречий в его мышлении не происходит.

Ключевые слова: дидактическая система, диагностика, современные знания, передовые технологии, закрепление, более глубокое усвоение, проблемная ситуация, проектирование, организация, планирование.

KIRISH

Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish hamda sohaga ilg'or rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini joriy qilish maqsadida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bo'limida "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori imzolandi.

Ko'rib chiqilayotgan kasbiy-pedagogik faoliyat turiga oid talabalar motivlarini o'rganishning umumiy yo'li aniq talaba motivatsiyasini tahlil qilish jarayonida o'zgarib bordi. Har bir talabaning motivatsiyasi yuzaga kelish yo'llari va xususiyatlari individual hamda takrorlanmasdir. Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish jarayoni va ularning o'quv faoliyatini shakllantirishga talabalar motivatsion-qadriyatli munosabatlari tizimining shakllanganlik darajasini aniqlash vositalari sifatida quyidagilar ilgari surilgan:

- ma'ruza, seminar va laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarda talabalar xulq-atvori, emotsiyalarining namoyon bo'lish xususiyatlari hamda ularning ma'ruza, seminar va laboratoriya-amaliy mashg'ulotlaridagi ishlash sifati muntazam kuzatib borish;
- talabalar bilan bajarilgan o'quv ishlari natijalarini tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlantiruvchi o'qitishni amalga oshirishga tayyorgarlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlarning talabalar tomonidan o'zlashtirilishi hamda davomatining qayd etilishi;
- boshlang'ich maktabda rivojlantiruvchi o'qitish muammolari bo'yicha talabalar bilan individual suhbatlar olib borish;

- rivojlantiruvchi o‘qitish va uni boshlang‘ich maktabda amalga oshirish jarayoniga talabalarning motivatsion-qadriyatli munosabatlarining turli ko‘rinishlarini aniqlashga qaratilgan nazorat topshiriqlari, testlar va muammoli vaziyatlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘quvchining qiyinchilikni (muammoni) aniq yoki xira anglashini ifodalovchi muammoli vaziyatlarni hal etish jarayoni yangi bilimlarni, yangi usullar hamda harakatlarni izlab topishni talab etadi. Shuningdek, o‘quvchida qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini topishda boshlang‘ich bilimlar yetishmasa, u holda muammoli vaziyatlarni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va tabiiyki, tafakkurida qarama-qarshiliklarni hal etish jarayoni kechmaydi.

Quyidagi vaziyatlarning uch xil ko‘rinishini misol qilish mumkin:

1. **Muammoli vaziyatning aniqligi.** Bunday muammoni hal etish uchun shunga yaqin bo‘lgan aniq namunalar mavjud bo‘ladi. U holda variantlarni tanlab yechish metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.
2. **Muammoli vaziyatning o‘xshashligi.** Bunday holatda unga o‘xshash bo‘lgan boshqa vaziyatlar bilan taqqoslab foydalanish zarur. Albatta, ular aynan bir-biriga o‘xshash bo‘lmasligi mumkin, lekin aniq asoslanganligi sababli qaralayotgan vaziyatga moslashtirib, maqbullashtirib va oqilona yechim topish mumkin.
3. **Muammoli vaziyatning noma’lumligi.** Shunga o‘xshash vaziyat amaliy faoliyatda uchramaydi, ammo uni boshqa qandaydir namuna bilan solishtirib ham bo‘lmaydi. Shuning uchun ham yechimning yangi metodlarini izlab topish zarur bo‘ladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirishga tayyorlashning didaktik tizimlaridan biri o‘quvchilardagi motivatsiya xarakteri bilan bog‘liqdir. Bu ko‘p jihatdan ularning o‘quv faoliyatini o‘rganish jarayoni, ya’ni keng ma’noda o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Shuningdek, har qanday o‘rganish-bilish ham o‘quv faoliyati bo‘la olmaydi. O‘quvchilar bilimlarni egallash jarayonida o‘quv faoliyati darajasiga ko‘tarilishi uchun mustaqil ravishda o‘quv topshiriqlarini belgilashi, o‘quv harakatlarining yangi usullarini o‘zlashtirishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi hamda o‘zining o‘quv faoliyatini baholash mezonlarini bilishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Didaktik tizimning so‘nggi tarkibiy qismi – o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Shuni qayd etish joizki, o‘quv faoliyatini boshqarish har qanday holatda ham mavjud bo‘ladi. Boshqarish tizimlari ikki xil bo‘lib, ular boshqaruvchi hamda boshqariluvchi ob’ektdan tashkil topadi. Agar didaktik tizimda o‘qituvchi boshqarish sub’ekti hisoblansa, o‘quvchilar boshqarish ob’ekti hisoblanadi. Ta’lim maqsadiga muvofiq sub’ekt uzluksiz tarzda ob’ektga bevosita yoki bilvosita ta’sir o‘tkazadi. Ob’ekt ham o‘z navbatida sub’ekt tomonidan o‘rnatilgan maqsad va vazifalarni to‘g‘ri anglab yetishi va ularga erishish choralarini ko‘rgandagina o‘quv faoliyatining samarasi haqida fikr yuritish mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, didaktik tizim qonuniyatlarini yuqorida bosqichma-bosqich bayon qildik. Biroq uning har bir bosqichi ilmiy jihatdan asoslangan o‘qitish metodlari va vositalarini tanlashni talab etadi. Ular quyidagi guruh metodlaridan iborat.



1-rasm: **Didaktik tizim qonuniyatlariga asoslangan o‘qitish metodlari**

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirishga tayyorlash jarayonida didaktik tizimni tashkil etishda o‘qituvchi o‘quv-bilish faoliyatining tashkiliy shakllarini ham ta’lim mazmuniga mos holda tanlay olishi kerak. Rivojlantiruvchi ta’limning shartlaridan biri ham “tashkiliy shakllar”ni to‘g‘ri tashkil etish hisoblanadi. Pedagogikada o‘qitishning tashkiliy shakli deganda o‘quvchi (talaba)lar o‘qitish jarayonida qo‘yilgan tashqi shart-sharoitlar yig‘indisi tushuniladi. Ma’lumki, ta’lim tizimida bilish faoliyati auditoriyada (ma’ruza, seminar, laboratoriya, o‘quv maslahati, sinov, imtihon) va auditoriyadan tashqarida (uyda, kutubxonada tayyorgarlik, loyihalash, tadqiqotchilik, to‘garak va boshqa shakllarda) tashkil etilishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quv faoliyati shakllarini tanlashda quyidagi savollarga javob topishi kerak bo‘ladi: ta’lim jarayoni ishtirokchisi kim (o‘quvchi, talaba, tinglovchi) va u qanday boshqarilishi kerak? (o‘quv faoliyatini o‘qituvchi boshqaradimi, avtomatlashtirilgan sinf yordamidami yoki boshqa texnik vositalar yordamidami: kino-diafilm, kompyuter, modelli ta’lim va hokazo).

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’limni sifatli tashkil etishda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini rivojlantiruvchi ta’lim asosida o‘qitishda jarayonning ham loyihachisi, ham uni amaliyotga joriy etuvchisi hisoblanadi. O‘qituvchi malakali mutaxassis tayyorlashdek muhim ijtimoiy (davlat) buyurtmasini bajaradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining didaktik tizimda tutgan o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining didaktik tizimidagi mantiqiy tuzilmasi quyidagilardan iborat. O‘qituvchi ta’lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi. Bunday jarayon o‘quvchi va talabaga ta’sir ko‘rsatadi, ularni bilim olish jarayonida yanada faollashtiradi hamda rivojlantiradi. Natijada o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Didaktik tizimni boshqarish jarayonining mohiyati maqsad va natijaning mos kelishi yo‘nalishi bo‘yicha harakatni yo‘lga qo‘yishdan iborat. O‘qitish rejasini tuzishning har bir bosqichida o‘qituvchining boshqaruv harakatlari muhim ahamiyatga ega.

Maqsadni belgilash – didaktik vazifalarni aniqlash va o‘quv natijalarini shakllantirishdan iborat. Bu pedagogik faoliyatning asosiy omili bo‘lib, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi faoliyatini umumiy natijaga yo‘naltiradi.

Tashxis – ta’lim oluvchilarning xususiyatlarini va mavjud moddiy-texnik imkoniyatlarni o‘rganishdir. Bu maqsadni aniqlashtirish hamda ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

Prognostik qilish – belgilangan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o‘quv faoliyati natijalarini oldindan ko‘ra bilishdir.

Loyihalash – kelgusi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda belgilangan vaqt davomida maqsadga erishish yo‘llari va vositalarini tanlash, bosqichlarni ajratish hamda ular uchun alohida vazifalarni shakllantirishdan iborat. Tashxis, bashorat qilish va loyihalash rejani ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Rejalashtirish – kelgusi o‘zaro bog‘liq pedagogik va o‘quv faoliyatining rejasini ishlab chiqish jarayonidir. U ko‘pincha texnologik xarita ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

Tashkillashtirish – ta’lim beruvchi tomonidan talabalarni belgilangan ishga jalb qilish hamda maqsadga erishish yo‘lida ular bilan hamkorlikni tashkil etishdir.

Axborotli ta’minlash – o‘quv axboroti va qayta aloqani yetkazib berish yo‘llari hamda vositalarini amalga oshirishdan iborat. Bunda yig‘ilgan axborot jarayonning borishini tezkor ravishda o‘zgartirish imkonini beradi.

Boshqaruv – bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatning maxsus shaklidir. U rag‘batlantiruvchi omillarni hamda samarali vositalarni kiritishga imkon beradi.

Nazorat, baholash va o‘zgartirish kiritish – rivojlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan rag‘batlantiruvchi omillarni yaratish hamda pedagogik ta’sir etish ob’ektidagi o‘zgarishlarni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Tugallangan jarayon tahlili – samarasizlik holatlarini hamda ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, kelgusida takrorlanmasligi uchun zarur choralarni belgilashdan iborat.

XULOSA

O‘qituvchi didaktik tizimning ishtirokchisi bo‘lgan o‘quvchi (talaba)ning ta’lim mazmuni hamda tarbiya ta’sirini qay darajada egallaganligini eng qulay va samarali usullar asosida nazorat qilib borishi zarur. Olingan axborotlar pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi yoki pedagogik tizimdagi qaysi elementning mazmunini takomillashtirish zarurligini aniqlashga xizmat qiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida rivojlantiruvchi ta’limni shakllantirishda didaktik vositalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Fan-texnikaning jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrida

bolalarning aqliy rivojlanish darajasi ham sezilarli darajada oshib bormoqda. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishda o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali va interfaol ta'lim usullaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, bilimlarni faol o'zlashtirishga yordam beradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son; 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.
3. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: o'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
4. Ergasheva M. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari informatika va axborot texnologiyalarining geometrik masalalarni yechishda qo'llanilishi.
5. Ergasheva M. (2021). Matnli masalalarni o'qitishda muammoli vaziyat yaratish – o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish shartidir. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, (1).
6. Ergashev J. B., Ergasheva M. B., Samatova G. B. (2021). Application of information and communication technologies in solving geometric problems. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(3), 4191-4197.
7. Bakhtiyorovna S. G., Burkhonovna E. M. (2021). The Role of Mathematical Issues in Improving the Methodological Training of Future Mathematics Teachers. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 25(2), 94-97.
8. Ergasheva M. (2021). Matnli masalalarni o'qitishda muammoli vaziyat yaratish – o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish shartidir. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, (1).
9. Ergasheva M. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari informatika va axborot texnologiyalarining geometrik masalalarni yechishda qo'llanilishi.
10. Ergasheva M. (2021). Matnli masalalar yechishga o'rgatish metodikasining umumiy jihatlari. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, (1).
11. Ergasheva M. (2021). Kompyuterli matematik tizimlar yordamida nostandart tenglamalarni yechish. Innovations in Primary Education, 2(3).
12. Ergasheva M. (2021). Boshlang'ich sinflarda matematik masalalarni o'qitish usullari. Innovation in Primary Education, 2(3).
13. Ergasheva M. B. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida shakllantirish metodlarini integratsiyalashning ta'lim metodlari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 195-201.
14. Ergasheva M. B. (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida shakllantirish metodlarining amaliyotga joriy etilishi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 181-186.
15. Aminov I., Ergasheva M., Oqnazarov T., Ismanova A. (2025). Opportunities and features of using mobile applications in an electronic learning environment. AIP Conference Proceedings, 3356(1).
16. Aminov I., Ergasheva M., Oqnazarov T., Ismanova A. (2025). Opportunities and features of using mobile applications in an electronic learning environment. AIP Conference Proceedings, 3356(1), 040005.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.